O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY ASOSLARI VA MUAMMOLARI” ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

M. B. KALONOV, X.A.ORTIQOV,
N. E. BABAXALOV, SH.T.ERGASHEV

BUXGALTERIYA HISOBI

(o‘quv qo‘llanma)

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 5230900-Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida chop etishga tavsiya etilgan

Toshkent - 2022



TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETINING 90 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI

UO‘K
KBK
M.B.Kalonov, X.A.Ortiqov, N.E.Babaxalov, SH.T.Ergashev. **Buxgalteriya hisobi.** O‘quv qo‘llanma. – Toshkent:. Zamin nazhr, 2022. – 774 b.

O‘quv qo‘llanma bakalavr va magistrlarni tayyorlash bo‘yicha Davlat standartlari asosida tayyorlangan. O‘quv qo‘llanmada buxgalteriya hisobini tashkil etish jihatlari, aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital va boshqa hisob obyektlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish va ularga oid ma’lumotlarni moliyaviy hisobotlarda ochib berish xususiyatlari yoritilgan.

Shu bilan birga, aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital va boshqa hisob obyektlarining harakati bilan bog‘liq operatsiyalarni hujjatlar bilan rasmiylashtirish uchun boshlang‘ich hujjatlarning namunaviy shakllari ilova qilingan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchiligiga asoslanib tayyorlangan va barcha iqtisodiy yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarning o‘qitish jarayonida foydalanish uchun, shuningdek amaliyotchi buxgalterlar va boshqa foydalanuvchilar hamda ilmiy izlanuvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:
i.f.d. professor ***M.P.Eshov***

Taqrizchilar:

A.K. Ibragimov – *O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit” kafedrasi professori, i.f.d.;*

R.O.Holbekov – *TDIU “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi professori, i.f.d.;*

A.T.Xashimova – *O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Buxgalteriya hisobi va audit uslubiyoti departamenti direktori o‘rinbosari, i.f.n.*

ISBN

© M.B.Kalonov va bosh., 2022.
© Zamin nazhr, 2022.

Mundarija

Kirish ***9***
1-bob. Asosiy vositalar hisobi ***12***
1-§. Aktivni asosiy vosita sifatida tan olish 12
2-§. Asosiy vositalarni kelib tushishi va baholanishi 16
2.1. Haq evaziga xarid qilingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati *19*
2.2. Korxonaning o‘zida tayyorlangan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati *24*
2.3. Chetel valyutasida xarid qilingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati *27*
2.4. Korxona ustav kapitaliga ta’sischilar qo‘yilmalari (ulushi) sifatida olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati *30*
2.5. Ilgari boshqa korxonaning ustav kapitaliga kiritilgan ta’sis ulushini qaytarilishidan kelib tushgan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati *33*
2.6. Tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati *34*
2.7. Majburiyatlari umumiy summada ifodalangan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati *35*
3-§. Asosiy vositalarga o‘tkaziladigan kapital qo‘yilmalar 37
4-§. Asosiy vositalarni qayta baholash 39
5-§. Asosiy vositalarni kelib tushishi va ichki harakatini boshlang‘ich hujjatlarda hisobi ... 44
6-§. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash 48
7-§. Asosiy vositalarni ta’mirlash 60
8-§. Asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish 70
9-§. Asosiy vositalarning chiqib ketishi 77
9.1. Asosiy vositalarning chiqib ketishining umumiy masalalari *77*
9.2. Asosiy vositalarning tugatilishi natijasida balansdan chiqarilishi *80*
9.3. Asosiy vositalarning sotilishi natijasida balansdan chiqarilishi *84*
9.4. Asosiy vositalarni ayirboshlash natijasida balansdan chiqarish *85*
9.5. Asosiy vositalarni tekinga berish natijasida balansdan chiqarilishi *88*
9.6. Ustav kapitaliga ta’sischining ulush sifatida asosiy vositalar berilganda balansdan chiqarilishi *88*
9.7. Asosiy vositalar kamomadi yoki yo‘qotilishi aniqlanganda balansdan chiqarilishi *90*
9.8. Ta’sischi ta’sischilar tarkibidan chiqib ketganda tovar-moddiy zaxiralar bilan hisob-kitob qilinishi natijasida asosiy vositalarni balansdan chiqarilishi *93*
9.9. Asosiy podadan yaroqsizga chiqarilgan hayvonlar buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari *97*
Ilovalar 103
2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalari hisobi ***123***
1-§. Ijara (lizing) operatsiyalari hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari 123
2-§. Ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) da moliyaviy ijara bo‘yicha operatsiyalar hisobi 132
3-§. Ijarachi (lizingga oluvchi) da moliyaviy ijara bo‘yicha operatsiyalar hisobi 143
4-§. Operativ ijara bo‘yicha operatsiyalar hisobi 155
5-§. Keyingi ijara sharti bilan mol-mulkni sotish bo‘yicha operatsiyalar hisobi 159
3-bob. Moliyaviy investitsiyalar hisobi ***162***
1-§. Moliyaviy investitsiyalar hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari 162

2-§. Moliyaviy investitsiyalarni shakllantirish tamoyillari.....165
3-§. Moliyaviy investitsiyalar bilan bog‘liq operatsiyalar hisobi.....171
4-§. Korporativ obligatsiyalar bilan bog‘liq operatsiyalar hisobi.....178
4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi.....186
1-§. Tovar-moddiy zaxiralar tasnifi va hisobini uslubiy asoslari.....186
2-§. Tovar-moddiy zaxiralarni tan olish.....194
3-§. Tovar-moddiy zaxiralarning kelib tushishi va baholanishi.....197
3.1. Tovar-moddiy zaxiralarini kelib tushishi va baholanishining umumiy masalalari.....197
3.2. Haq evaziga xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi.....209
3.3. Chetel valyutasida xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi.....213
3.4. Korxona ustav kapitaliga ta’sischilarning qo‘yilmalari (ulushi) sifatida olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi.....218
3.5. Ilgari boshqa korxonaning ustav kapitaliga kiritilgan ta’sis ulushini qaytarilishidan kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi.....222
3.6. Tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi.....224
3.7. Uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o‘tkazish yo‘li bilan olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi.....225
3.8. Ilgari berilgan tovar qarzining qaytarilishi yoki tovar qarzini olish natijasida olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi.....226
3.9. Majburiyatlari umumiy summada ifodalangan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi.....228
3.10. Chetdan qayta sotish uchun xarid qilingan tovarlarni xarid qiymati bo‘yicha hisobga olish.....230
4-§. Korxonaning o‘zida tayyorlangan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi va ularni aniqlash usullari.....235
4.1. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlashning oddiy usuli.....236
4.2. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlashning buyurtmali usuli.....236
4.3. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlashning bosqichli usuli.....240
4.4. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlashning me’yoriy usuli.....242
4.5. Birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxini aniqlash usullari.....251
4.6. Qo‘shimcha (yo‘ldosh) mahsulot hisobi.....253
5-§. Tovar-moddiy zaxiralarni boshlang‘ich hujjatlarda hisobi.....255
6-§. Tovar-moddiy zaxiralarni realizatsiya qilishning sof qiymati.....261
7-§. Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish.....263
8-§. Tovar-moddiy zaxiralarini chiqib ketishi.....274
8.1. Tovar-moddiy zaxiralarining chiqib ketishining umumiy masalalari.....274
8.2. Chiqib ketayotgan tovar-moddiy zaxiralar qiymatini aniqlash usullari.....274
8.3. Tovar-moddiy zaxiralarining sotilishi natijasida balansdan chiqarilishi.....277
8.4. Ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida tovar-moddiy zaxiralar berilganda balansdan chiqarilishi.....281
8.5. Ta’sischi ta’sischilar tarkibidan chiqib ketganda tovar-moddiy zaxiralar bilan hisob-kitob qilinishi natijasida tovar-moddiy zaxiralarni balansdan chiqarilishi.....283
8.6. Tovar-moddiy zaxiralarni tekinga berish natijasida balansdan chiqarilishi.....289
8.7. Tovar-moddiy zaxiralarni ayirboshlash natijasida balansdan chiqarish.....289

8.8. Tovar-moddiy zaxiralar kamomadi yoki yo‘qotilishi aniqlanganda balansdan chiqarilishi.....293
9-§. Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobga olishning xususiyatlari.....295
9.1. Inventar va xo‘jalik jihozlari bo‘yicha operatsiyalar hisobi.....296
9.2. Inventar va xo‘jalik jihozlarning boshlang‘ich hujjatlarda hisobi.....308
10-§. Taralarni hisobga olishning xususiyatlari.....312
10.1. Taralarni mol yetkazib beruvchidagi hisobi.....314
10.2. Taralarni xaridordagi hisobi.....325
10.3. Taralarning boshlang‘ich hujjatlarda hisobi.....331
11-§. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga olishning xususiyatlari.....333
11.1. Korxonada olingan nasllarning tannarxi shakllanishi tartibi.....335
11.2. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning tirik vazni ortishini aniqlash.....336
11.3. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning boshlang‘ich hujjatlarda hisobi.....338
11.4. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni chiqib ketishi.....344
Ilovalar.....351
5-bob. Daval xomashyo bilan bog‘liq operatsiyalar hisobi.....390
1-§. Daval xomashyo va materiallar bilan bog‘liq operatsiyalar hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari.....390
2-§. Daval xomashyo va materiallar bilan bog‘liq operatsiyalarining huquqiy asoslari.....392
3-§. Daval xomashyo va materiallar bilan bog‘liq operatsiyalarini davalga beruvchidagi hisobi.....396
4-§. Daval xomashyo va materiallar bilan bog‘liq operatsiyalarini qayta ishlovchidagi hisobi.....401
Ilovalar.....408
6-bob. Mehnatga haq to‘lash hisobi.....416
1-§. Mehnatga haq to‘lash hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari.....416
2-§. Mehnatga haq to‘lashning shakllari, tizimlari va hisobi.....417
2.1. Mehnatga haq to‘lashning shakllari va tizimlari.....417
2.2. Mehnatga haq to‘lashni boshlang‘ich hujjatlarda hisobi.....420
2.3. Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobi.....423
3-§. Qo‘shimcha to‘lovlarni, nafaqalarni tayinlash va ularni hisobi.....426
4-§. Ish haqidan ushlab qolinadigan to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar hisobi.....433
Ilovalar.....437
7-bob. Pul mablag‘lari va ekvivalentlari hisobi.....453
1-§. Pul mablag‘lari va ekvivalentlari hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari.....453
2-§. Kassadagi pul mablag‘lari va ekvivalentlari hisobi.....455
3-§. Bank hisobvaraqlari bo‘yicha hisob-kitob operatsiyalari hisobi.....463
4-§. Pul ekvivalentlari hisobi.....471
Ilovalar.....473
8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi.....479
1-§. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari.....479
2-§. Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar hisobi.....480
3-§. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar hisobi.....484
4-§. Soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblar hisobi.....487
5-§. Soliqlar bo‘yicha imtiyozlar hisobi va rasmiylashtirish tartibi.....495

6-§. Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar hisobi.....499
7-§. Bank kreditlari va qarzga olingan mablag‘lar hisobi.....509
Ilovalar.....523
9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi.....528
1-§. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari.....528
2-§. Chetel valyutasidagi operatsiyalar hisobi.....529
3-§. Valyuta kurs farqlari hisobi.....554
4-§. Import qilingan aktivlarning xarid qiymatini shakllantirish va hisobi.....570
5-§. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida faoliyat yuritish uchun foydalanadigan aktivlar va majburiyatlarning hisobi.....582
6-§. Konsolidatsiyalashgan hisobotlarga kiritish uchun sho’ba (qaram) xo‘jalik jamiyatlari, mustaqil balansga ajratilgan tarkibiy bo‘linmalarning moliyaviy hisobotini qayta hisoblash.....583
Ilovalar.....584
10-bob. Xususiy kapital hisobi.....586
1-§. Xususiy kapital hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari.....586
2-§. Ustav kapitali hisobi.....587
2.1. Aksiyalarni chiqarish va joylashtirish.....588
2.2. Ustav kapitalini shakllantirish va hisobi.....595
3-§. Qo‘shilgan kapital hisobi.....599
4-§. Rezerv kapitali hisobi.....602
5-§. Sotib olingan xususiy aksiyalar hisobi.....604
6-§. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) hisobi.....608
7-§. Maqsadli tushumlar hisobi.....612
Ilovalar.....616
11-bob. Moliyaviy natijalarni shakllantirish va hisobi.....625
1-§. Moliyaviy natijalarni shakllantirish va hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari....625
2-§. Daromadlar va xarajatlar hisobi.....627
3-§. Daromadni o‘lchash.....640
4-§. Bitimni tuzish faktini aniqlash va mahsulot (tovar) larni realizatsiya qilish hisobi.....642
5-§. Xizmatlar (ishlar) ko‘rsatish hisobi.....655
6-§. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar hisobi.....660
12-bob. Moliyaviy hisobotlarni shakllantirish.....663
1-§. Moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va tuzishning huquqiy asoslari.....663
2-§. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish.....666
3-§. Buxgalteriya balansi.....674
4-§. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot.....688
5-§. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot.....692
6-§. Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot.....706
7-§. Moliyaviy hisobotga tushuntirish xati.....709
Ilovalar.....713
13-bob. Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish.....724
1-§. Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotlarni shakllantirishning huquqiy asoslari.....724

2-§. Moliyaviy hisobotda aks ettirish maqsadida qayta tashkil etish amalga oshirilganligining tan olinishi.....726
3-§. Aktivlar va majburiyatlarni baholash.....728
4-§. Korxonani qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishning xususiyatlari.....729
4.1. Qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishning xususiyatlari.....738
4.2. Qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishning xususiyatlari.....740
4.3. Bo‘lish shaklida qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishning xususiyatlari.....742
4.4. Ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishning xususiyatlari.....744
4.5. O‘zgartirish shaklida qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishning xususiyatlari.....745
5-§. Moliyaviy hisobotda korxonani qayta tashkil etishni amalga oshirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ochib berish.....747
Ilovalar.....749
14-bob. Tugatish jarayoni bilan bog‘liq operatsiyalar hisobi.....756
1-§. Tugatish jarayoni bilan bog‘liq operatsiyalar hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari.....756
2-§. Oraliq tugatish balansini tuzish tartibi.....758
3-§. Korxonalarni tugatishda kreditorlar bilan hisob-kitoblarni hisobi.....759
4-§. Tugatish balansini tuzish tartibi.....769
5-§. Ta’sischilar o‘rtasida mol-mulk taqsimlanishining hisobi.....783
Ilovalar.....787
Foydalanilgan adabiyotlar.....793

KIRISH

Korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini tubdan yangilash, ularni oqilona boshqarishda boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ularning faoliyatini to‘liq aks ettiruvchi ishonchli va barqaror axborot ma’lumotlarini yig‘ish, to‘plash, qayta ishlash orqali schyotlarda ikkiyoqlama aks ettirish orqali buxgalteriya hisobi hamda hisobotlarini tuzish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma talabalarni iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlarini puxta o‘zlashtirishlari, mavjud resurslardan samarali foydalanishlari hamda ularga ijodiy yondashishlarini ta’minlashda buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlarini, moliyaviy hisobotning asosiy tamoyillari hamda uslubiy asoslari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga yordam beradi. Shuningdek:

- buxgalteriya hisobi tamoyillarini, korxona faoliyati bilan bog‘liq daromad va xarajatlarni hisobga olish usullarini, moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari va ularning shakllanishini, ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun zarur ma’lumotlarni buxgalteriya hisobi va hisobotlaridan olishni bilishi va ulardan foydalana olishiga;

- buxgalteriya hisobida boshlang‘ich hujjatlarni yig‘ish, qayta ishlash, umumlashtirishni mustaqil amalga oshirish, xo‘jalik operatsiyalari bo‘yicha buxgalteriya yozuvlarini amalga oshirish va schyotlarda aks ettirish, buxgalteriya hisobi schyotlarining aylanmai va qoldig‘ini aniqlash orqali buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tuzish hamda taqdim etish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasida buxgateriya hisobini tartibga soluvchi asosiy hujjat bo‘lib «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hisoblanadi. Mazkur Qonunga muvofiq buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tartibga solish, buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining zimmasiga yuklatiladi. Quyida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi buyruqlari bilan tasdiqlanib O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari va boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlar keltirilgan:

- «Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 14-avgustda 475-son bilan ro‘yxatga olingan)*;

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti *(1-son BHMS) «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 14-avgustda 474-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (2-son BHMS) «Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olingan daromadlar» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 26-avgustda 483-son bilan ro‘yxatiga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standarti (3-son BHMS) «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 27-avgustda 484-son bilan ro‘yxatga olingan)*;

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-son BHMS) «Tovar-moddiy zaxiralari» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyunda 3259-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-son BHMS) «Asosiy vositalar» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 20-yanvarda 1299-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti

(6-son BHMS) « Ijara hisobi» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 24-aprelda 1946-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (7-son BHMS) «Nomoddiy aktivlar» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005-yil 27-iyunda 1485-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (8-son BHMS) «Yig‘ma moliyaviy hisobotlar hamda shu’ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalarni hisobga olish» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 28-dekabrda 580-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (9-son BHMS) «Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 4-noyabrda 519-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (10-son BHMS) «Davlat subsidiyalarini hisobga olish va davlat yordamini ochish» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 3-dekabrrda 562-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (11-son BHMS) «Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlab chiqishlarga xarajatlar» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 28-dekabrrda 581-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (12-son BHMS) «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999-yil 16-yanvarda 596-son bilan ro‘yxatga olingan)*;

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (14-son BHMS) «Xususiy kapital to‘g‘risida hisobot» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 7-aprelda 1335-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (15-son BHMS) «Buxgalteriya balansi» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003-yil 20-martda 1226-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (16-son BHMS) «Buxgalteriya balansi tuzilgan sanadan keyingi xo‘jalik faoliyatning nazarda tutilmagan holatlari va yuz beradigan hodisalari» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 23-dekabrda 578-son bilan ro‘yxatga olingan)*;

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (17-son BHMS) «Kapital qurilish bo‘yicha pudrat shartnomalari» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 23-dekabrda 579-son bilan ro‘yxatiga olingan)*;

O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (19-son BHMS) «Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999-yil 2-noyabrda 833-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (20-son BHMS) «Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013-yil 14-avgustda 2501-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-son BHMS) «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnoma» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2002-yil 23-oktyabrda 1181-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti

(22-son BHMS) «Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 21-mayda 1364-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (23-son BHMS) «Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005-yil 27-iyunda 1484-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (24-son BHMS) «Qarzlar bo‘yicha xarajatlar hisobi» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 18-avgustda 1996-son bilan ro‘yxatga olingan)*;

- «Choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish to‘g‘risidagi Nizom» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 3-iyulda 942-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha Qoidalar» ni tasdiqlash to‘g‘risida» buyrug‘i *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003-yil 24-yanvarda 1209-son bilan ro‘yxatga olingan)*.

- «Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to‘g‘risidagi Nizom» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 20-yanvarda 1297-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- «Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to‘g‘risidagi Nizom» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 6-aprelda 1334-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- «Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 29-avgustda 1401-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- «Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlarni byudjetga to‘lash bo‘yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risida» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005-yil 2-aprelda 1463-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- «Nomoddiy akivlarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006-yil 14-yanvarda 1539-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- «Buxgalteriya hisobida ijara operatsiyalarini aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 1-iyunda 1961-son bilan ro‘yxatga olingan);*

- «Qayta ishlashga berilgan xomashyo bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 15-martda 2086-son bilan ro‘yxatga olingan).*

Shuningdek, korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish tannarxi, davr xarajatlari va moliyaviy faoliyat bilan bog‘liq xarajatlarning tarkibi aniqlash hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom» *(keyingi o‘rinlarda «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» deb yuritiladi)* ga muvofiq amalga oshiriladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan me’yoriy huquqiy hujjatlardan tashqari buxgalteriya hisobi obyektlarini alohida xo‘jalik operatsiyalarida va faoliyat turlarida hisobga olishda va ularni hisobotlarda aks ettirish uchun O‘zbekiston Respublikasining kodekslari (masalan *O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi)*, qonunlari va boshqa me’yoriy huquqiy hujjatlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1-BOB. ASOSIY VOSITALAR HISOBI

1-§. Aktivni asosiy vosita sifatida tan olish

Korxonada innovatsion g‘oyalarni tatbiq etish, mavjud mablag‘lardan samarali foydalanishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, korxonani modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash korxonaning moliyaviy barqarorligi va ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Korxonalarda asosiy vositalarni hisobga olishda ularni aktiv sifatida tan olingan paytini belgilash, mazkur aktivlarga nisbatan qo‘llaniladigan ularning balans qiymatini va amortizatsiyani hisoblash usullarini belgilash, shuningdek asosiy vositalarning balans qiymatidagi boshqa o‘zgarishlarni va ularning chiqib ketishi hisobiga moliyaviy natijalarni aniqlash va hisobga olish muhim yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanadi. Shulardan kelib chiqib korxonalarda asosiy vositalarni buxgalteriya hisobining vazifalari qilib quyidagilarni aytib o‘tish mumkin:

- aktivlarni asosiy vositalar sifatida qabul qilish bilan bog‘liq haqiqiy xarajatlarni shakllantirish;
- asosiy vositalarni kelib tushishi, ularning korxona ichida har xil tarkibiy bo‘linmalar (sexlar, ishlab chiqarish joylari) bo‘yicha harakatini ishonchli va o‘z vaqtida hujjatlarda rasmiylashtirish va hisobda aks ettirish;
- asosiy vositalarni texnik ko‘rikdan o‘tkazish va texnik xizmat ko‘rsatish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun ajratilgan mablag‘lardan oqilona foydalanishni nazorat qilish;
- amortizatsiyani to‘g‘ri hisoblash va buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish;
- asosiy vositalarni sotish va boshqa chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni to‘g‘ri aniqlash;
- asosiy vositalarni saqlash bilan bog‘liq (texnik ko‘rikdan o‘tkazish, ishchi holatida saqlash va boshqa) haqiqiy xarajatlarni aniqlash;
- buxgalteriya hisobiga qabul qilingan asosiy vositalarni saqlanishi nazoratini ta’minlash;
- asosiy vositalardan foydalanishni tahlil qilish;
- moliyaviy hisobotlarda ochib berish kerak bo‘lgan asosiy vositalar to‘g‘risidagi axborotlarni olish.

5-son BHMS asosiy vositalar buxgalteriya hisobi uslubiyotini u yoki bu faoliyat turiga bog‘liq bo‘lmagan holda tartibga soladi. Mazkur me’yoriy huquqiy hujjatda uzoq muddatli (kapital) mulklarni asosiy vositalar tarkibiga kiritish mezonlari, boshlang‘ich qiymatning shakllanishi va keyinchalik o‘zgartirish tartibi belgilab berilgan. Shuningdek foydali ishlatish muddatini aniqlash tartibi, amortizatsiya hisoblash usullari, asosiy vositalarni qayta tiklash bo‘yicha kapital va joriy ta’mirlash xarajatlarni tan olish tartibi, asosiy vositalarni chiqib ketishi hisobi, moliyaviy hisoblarda hisob axborotlarini ochib berish qoidalari batafsil ko‘rib o‘tilgan.

Asosiy vositalar ishlab chiqarishning moddiy qismining asosini tashkil etadi. Mehnat qurollari sifatida foydalanishga qabul qilinib ular xomashyo va materiallar bilan ish kuchini birlashtirib yangi qiymat yaratiladigan ishlab chiqarish jarayonini ishlashini ta’minlaydi. Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida o‘zini moddiy shaklini saqlab qolishi bilan tavsiflanadi. Asosiy vositalar korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar sifatida belgilab o‘tilgan. Asosiy vositalar aktivlarni asosiy qismini tashkil qiladi va shuning uchun moliyaviy hisobotda uning moliyaviy holatini ko‘rsatishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Agar korxonaga kelgusida aktiv bilan bog‘liq iqtisodiy foyda kelib tushishiga

ishonch bo‘lsa va aktiv qiymatini aniq baholash mumkin bo‘lsa asosiy vositalar aktiv sifatida tan olinadi.

Asosiy vositalarni tan olishning birinchi shartiga mos kelishini aniqlashda korxona boshlang‘ich tan olish vaqtida mavjud bo‘lgan faktlarga asoslanib kelgusida iqtisodiy foyda olinishi mumkin bo‘lgan ehtimollik darajasini baholashi kerak. Bu korxonani olingan aktivlarga egalik qilish, foydalanish va farmoyish berish bilan bog‘liq kelgusidagi barcha iqtisodiy foyda o‘ziga tegishli ekanliligiga va u ushbu aktivga egalik qilish bilan bog‘liq barcha xavfni o‘ziga olishiga ishonchi komil bo‘lishi kerakligini bildiradi. Ushbu iqtisodiy foydani olishga yetarli ehtimoli mavjud bo‘lishi korxona aktiv bilan bog‘liq iqtisodiy foydani olishi va tegishli xavfni o‘ziga olishiga nisbatan aniqlashni talab qiladi. Bunday aniqlash odatda iqtisodiy foydani va xavf to‘liq ravishda korxonaga o‘tganda mavjud bo‘ladi. Asosiy vositalarni tan olishning yuqorida keltirilgan ikkinchi sharti amaliyotda buxgalteriya hisobini yengil qanotlantiriladi, chunki aktivni sotib olish to‘g‘risida guvohlik beruvchi ayirboshlash operatsiyalari natijasida uning qiymati aniqlanadi. Bunda, agar aktiv korxonaning o‘zining kuchi bilan yaratilgan bo‘lsa, u holda uning ishonchli baholanishi tashqi tomonlar bilan materiallarni xarid qilish bilan bog‘liq operatsiyalarga, ish kuchiga haq to‘lash va asosiy vositalarni barpo etish (qurish) jarayonidagi boshqa xarajatlarga asoslanib amalga oshirilishi mumkin.

Asosiy vositalar tarkibiga o‘rnatish (yirik hajmli yig‘ish) hali boshlanmagan yoki tugallanmagan asbob-uskunalar, shuningdek tugallanmagan qurilish obyektlari, boshqa kapital va moliyaviy quyilmalar qo‘shilmaydi.

Asosiy vositalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarishga bo‘linadi. Ishlab chiqarish asosiy vositalari bo‘lib korxonalarning asosiy faolyati turi bo‘lgan yo‘lovchi va yuk tashish bo‘yicha transport xizmatlari ko‘rsatish hamda asosiy faoliyatga xizmat ko‘rsatadigan yordamchi ishlab chiqarish sexlari va xo‘jaliklarida ko‘p marotaba ishlatiladigan mulkning bir qismi hisoblanadi. Noishlab chiqarish asosiy vositalari deganda korxonalarning noishlab chiqarish sohalari (uy joy-komunal xo‘jaliklarida, tibbiyot, sog‘lomlashtirish, maktabgacha bolalar, madaniyat muassasalari va h.k.lar) da foydalaniladigan aktivlar guruhlari tushuniladi.

Foydalanish bosqichiga qarab asosiy vositalar foydalanishda, zaxira (rezerv) da bo‘lgan, qo‘shimcha qurilish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, va qisman tugatish va kontservatsiya qilish bosqichida bo‘lganlarga bo‘linadi.

Buxgalteriya hisobida uzoq muddatli mulklarni asosiy vositalar sifatida tan olinishi uchun ularni yuqorida keltirilgan aniqlashlar mos kelishi kamlik qiladi. Asosiy vositalar tarkibiga bir vaqtning o‘zida quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi:

- bir yildan ortiq xizmat qilish muddati;

- bir birlik (to‘plam) uchun qiymati O‘zbekiston Respublikasi (xarid paytida)da belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan ortiq bo‘lgan buyumlar.

Korxona rahbari hisobot yilida buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ularning eng kam qiymatini belgilangandan pastroq chegarasini belgilashga haqli. Korxona rahbari buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilashda korxonaning o‘ziga xos xususiyatlariga asoslanishi mumkin. Masalan, korxonaning 2021-yil uchun hisob siyosatining «Asosiy vositalar» bo‘limida «asosiy vositalar tarkibiga bir vaqtning o‘zida quyidagi mezonlarga javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi: a) bir yildan ortiq xizmat qilish muddati; b) bir birlik (to‘plam) uchun qiymati O‘zbekiston

Respublikasida(xarid paytida) belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravaridan ortiq bo‘lgan buyumlar» deb keltirilishi mumkin.

Bunda xizmat muddati va qiymatidan qat’iy nazar, quyidagilar asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydi:

- maxsus asboblar va moslamalar (muayyan buyumlarni turkumlab va yoppasiga ishlab chiqarish uchun yoki yakka tartibdagi buyurtmalarni tayyorlash uchun mo‘ljallangan, maqsadli yo‘naltirilgan asboblar va moslamalar);
- maxsus va sanitariya kiyim-kechaklari, maxsus poyabzallar;
- ko‘rpa-to‘shak anjomlari;
- yozuv-chizuv anjomlari (kalkulatorlar, stol ustiga qo‘yiladigan asboblar va boshqalar);
- oshxona anjomlari, shuningdek oshxona uchun dasturxon-sochiqlar;
- tiklanishi bo‘yicha xarajatlar qurilish-montaj ishlari tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (notitul inshootlar) moslamalar va qurilmalar;
- kamida bir yillik foydalanish muddatiga ega bo‘lgan almashtiriladigan uskunalar;
- ov qurollari (trallar, to‘rlar, qarmoqlar, matraplar, merejalar va boshqalar).

Shuningdek quyidagilar ham asosiy vositalar bo‘lib hisoblanmaydi:

- o‘rnatishga berilgan yoki o‘rnatiladigan, yo‘ldagi buyumlar;
- kapital va moliyaviy quyilmalar.

Odatda korxonalarda asosiy vositalarga quyidagilar kiradi: binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar, ishlab chiqarish liniyalari, ishchi va kuchlantiruvchi mashina va asbob uskunalar, o‘lchov va boshqaruv uskunalari hamda jihozlari, hisoblash texnikasi, transport vositalari, uskunalar, ishlab chiqarish va xo‘jalik inventarlari hamda jihozlari, xo‘jalik ichidagi yo‘llar va boshqalar.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki bozor iqtisodiyoti sharoitida markazlashtirlgan rejali iqtisodiyotdan farqli ravishda buxgalteriya hisobida asosiy vositalarning yangi obyekt (tur) lari qonunchilikga muvofiq korxona mulkdorligiga berilgan yer uchastkalari sifati vujudga keladi va hisobga olinadi.

Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi birligi bo‘lib inventar obyekti hisoblanadi. Bunda, asosiy vositalarning inventar obyekti sifatida barcha qurilmalari va anjomlariga ega bo‘lgan obyekt yoki muayyan mustaqil vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan alohida konstruktiv asosdagi buyum tan olinishi kerak. Masalan, binolarni barpo etishda odatda ularga yong‘inga qarshi, havo almashtirish, isitish tizimlari biriktiriladi. Bunday qurilmalar buxgalteriya hisobida bino bilan yaxlit holda bir inventar obyekti sifatida ko‘riladi. Biroq, asosiy binoga biriktirilgan sovutish va isitish tizimlari, texnik xizmat ko‘rsatish asbob-uskunalari odatda alohida inventar obyektlari sifatida qaraladi. O‘z navbatida o‘zini bir butunligini namoyon qiladigan va aniq bir ishni bajarishga mo‘ljallangan konstruktiv jamlangan buyumlarning alohida majmuasi ham inventar obyekt bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu yerda konstruktiv jamlangan buyumlarning alohida majmuasi sifatida umumiy moslamalarga va anjomlarga, umumiy boshqaruvga ega, bir poydevorda qurilgan, natijada majmuaga kiruvchi har bir buyum o‘z vazifasini mustaqil ravishda emas, balki faqatgina majmua tarkibida bajara oladigan bir yoki turli mo‘ljaldagi bitta yoki bir nechta buyumlar tushuniladi. Biroq, bitta asosiy vositada turlicha foydali foydalanish muddatiga ega bo‘lgan bir nechta mustaqil obyektlar mavjud bo‘lgan hollarda har bir bunday obyekt buxgalteriya hisobida alohida mustaqil inventar obyekti sifatida tan olinadi. Yuqorida keltirilgan misolga qaytib, faraz qilamiz korxona foydali xizmat muddati 40 yil bo‘lgan ishlab chiqarish binosiga ega va unga foydali xizmat muddati mol yetkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi)

tomonidan kafolatlangan 25 yildan iborat zamonaviy yong‘inga qarshi tizim o‘rnatilgan. Mazkur holda binoga belgilangan yong‘inga qarshi tizimi asosiy vositalarning alohida inventar obyekti sifatida hisobga olinishi kerak.

Yerni tubdan yaxshilash (quritish, sug‘orish va boshqa meliorativ ishlar) bo‘yicha yer uchastkalariga, tabiatdan foydalanish obyektlari (suv va boshqa tabiy resurlar) ga kapital qo‘yilmalari buxgalteriya hisobiga mustaqil invetar obyekt sifatida (kapital qo‘yilmalar obyektlaring turlari bo‘yicha) qabul qilinadi. Korxonaning mulkdorligida bo‘lgan aniq bir uchastka doirasida yerni tubdan yaxshilashga kapital qo‘yilmalar kapital tusdagi ishlar bajarilgan va qabul qilingan inventar obyekt (asosiy vositalar) ning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatiga haqiqiy kapital xarajatlar bahosi bo‘yicha qo‘shiladi.

Ikki yoki undan ortiq korxona ulushli mulkdorligida bo‘lgan asosiy vositalar har bir korxona tomonidan boshlang‘ich qiymati bo‘yicha sherikning asosiy vositalar va o‘z navbatida mustaqil inventar obyekti bo‘ladigan unga tegishli umumiy mulkdagi uning ulushi (umumiy asosiy vositalarning qismi) ga teng miqdorda hisobga olinadi.

Asosiy vositalarni buxgalteriya hisobini va ularni saqlanishi nazoratini tashkil etish maqsadida asosiy vositalarning har bir inventar obyektiga ularni buxgalteriya hisobiga qabul qilishda va qabul qilishni boshlang‘ich hujjatlari rasmiylashtirishda tartibli-seriyali tizim bo‘yicha tegishli inventar raqamlari beriladi. Inventar raqam inventar obyektning o‘zida bo‘yoq, temir jeton, kleyma yoki boshqa usullar bilan aks ettiriladi. Ko‘p yillik o‘simliklar, yerni melorativ holatini yaxshilash bo‘yicha kapital xarajatlar va h.k.lar bundan mustasnolikni tashkil etadi. Bunda inventar raqamlarni binolarga 001 dan 099 gacha, inshootlarga 100 dan 199 gacha, uzatish moslamalariga 200 dan 299 gacha, transport vositalariga 300 dan 399 gacha va h.k.lar berish tavsiya etiladi.

Har xil foydali ishlatish muddatiga ega va alohida inventar obyekti sifatida hisobga olingan bir nechta qismlarga ega bo‘lgan inventar obyektlarining har bir qismiga alohida inventar raqam beriladi. Agar bir necha qismlardan iborat obyekt bo‘yicha obyektlar uchun umumiy foydali ishlatish muddati belgilangan bo‘lsa, u holda ko‘rsatilgan obyekt bitta inventar raqam bilan hisobga olinadi.

Asosiy vositalar inventar obyektiga berilgan inventar raqam uning mazkur korxonada bo‘lgan butun davri davomida (shu jumladan obyektni operativ ijaraga topshirishda, zaxiraga chiqarilganda, kapital ta’mirlashda, konservatsiya qilinganda, rekonstruksiya qilinganda va h.k.larda) saqlanib qoladi. Chiqib ketayotgan asosiy vositalar inventar obyektlarining inventar raqami chiqib ketish yili tugagandan keyin besh yil davomida buxgalteriya hisobiga yangidan qabul qilingan inventar obyektlarga bermaslik tavsiya etiladi.

2-§. Asosiy vositalarning kelib tushishi va baholanishi

Mulkka egalik, xo‘jalik yurituvi yoki tezkor boshqaruv huquqi asosida korxonaga tegishli bo‘lgan asosiy vositalarning qiymati korxona balansiga kiritilishi lozim.

Asosiy vositalar aktiv sifatida tan olinganda ular ***boshlang‘ich qiymat*** bo‘yicha baholanadi. Bunda ***boshlag‘ich qiymat bo‘lib*** to‘langan va qoplanmaydigan soliqlarni (yig‘imlarni), shuningdek aktivni undan mo‘ljal bo‘yicha foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan yetkazib berish va montaj qilish, o‘rnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda, asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurib bitkazish) yoki xarid qilish bo‘yicha qilingan xarajatlarning qiymati tushuniladi.

Amaliyotda asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati ularning kelib tushish manbaidan kelib chiqib aniqlanadi. Asosiy vositalar korxonlarga kelib tushish manbai bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- kapital qo‘yilmalar tugaganidan so‘ng tiklangan obyektni qabul qilish-topshirish;
- oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha sotib olish;
- ta’sischilarning ustav kapitaliga qo‘yilmalari;
- tekinga kelib tushish (hadya shartnomasi bo‘yicha);
- ayirboshlash;
- tovar-moddiy zaxiralar tarkibidan o‘tkazish;
- moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha olish;
- qiymati aniqlangan asosiy vositalarga kapital qo‘yilmalar;
- ortiqcha (hisobga olinmagan) asosiy vositalarni aniqlash;
- asosiy vositalarni korxonaning ta’sischilar tarkibidan chiqishda yoki tugatilayotgan korxonaning mol-mulki ta’sischilari o‘rtasida taqsimlanganda olish;
- asosiy vositalarga bo‘lgan mulk, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqaruv huquqlari olinishiga olib keladigan boshqa operatsiyalar va hodisalar.

Asosiy vositalar korxona balansiga xarid qilish qiymati (yetkazib beruvchiga to‘langan summa) va asosiy vositalarni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z ichiga olgan boshlang‘ich qiymati bo‘yicha kiritilishi lozim.

Asosiy vositalarni xarid qilish bilan bog‘liq tegishli xarajatlar amalga oshirilgan hollarda ularning boshlang‘ich qiymati shu xarajatlar summasiga ko‘payadi.

Asosiy vositalarni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- asosiy vositalarga doir huquqni xarid qilish (olish) munosabati bilan amalga oshirilgan ro‘yxatdan o‘tkazish yig‘imlari, davlat bojlari va boshqa shunga o‘xshash to‘lovlar;
- bojxona bojlari va yig‘imlari;
- asosiy vositalarni olish (barpo qilish) munosabati bilan soliqlar va yig‘imlar summalari;
- asosiy vositalarni olish (barpo qilish) bilan bog‘liq axborot va maslahat xizmatlari uchun to‘langan summalar;
- asosiy vositalarni yetkazib berish (barpo qilish) xatarini sug‘urtalash bo‘yicha xarajatlar;
- asosiy vositalarni xarid qilishda vositachilarga to‘lanadigan haqlar;
- asosiy vositalarni o‘rnatish, montaj qilish, sozlash va ishga tushirishga oid xarajatlar;
- aktivdan foydalanish maqsadi bo‘yicha uni ishchi holatga keltirish bilan bevosita bog‘liq boshqa xarajatlar.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni to‘lashga doir xarajatlar qarzga olingan kapital hisobidan butkul yoki qisman sotib olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatiga kiritilmaydi.

Shuningdek, xarid qilingan asosiy vositalar haqini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar bank xizmatlari, akkreditiv ochish, xorijiy valyutani o‘tkazganligi va konvertatsiya qilganligi uchun bankka vositachilik haqi to‘lash bo‘yicha xarajatlarni qo‘shgan holda, shuningdek asosiy vositalarni xarid qilish bo‘yicha kontraktlarni tayyorlash va ro‘yxatdan o‘tkazish xarajatlari asosiy vositalarning boshlag‘ich qiymatiga kiritilmaydi, balki ular sodir bo‘lgan hisobot davrida xarajatlar sifatida tan olinadi.

Agar shartnoma shartlarida xarid qilingan asosiy vositalar haqini kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash nazarda tutilgan bo‘lsa, unda mazkur asosiy vositalar buxgalteriya hisobiga kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lashni hisobga olmagan holdagi xarid qilishi qiymati bo‘yicha qabul qilinadi. Bunda xarid qilish qiymati va to‘lovning umumiy summasi o‘rtasida yuzaga keladigan farq kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash davri davomida joriy to‘lovning kechiktirib yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash bo‘yicha to‘lovlarning umumiy summasidagi solishtirma og‘irligiga bog‘liq holda moliyaviy xarajatlar (foizlar bo‘yicha xarajatlar) ga kiradi.

21-son BHMS ga muvofiq mulkiy huquqi korxonaga tegishli asosiy vositalarning mavjudligi va harakati, foydalanishda, konservatsiyada bo‘lgan yoki operativ ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- ***0110 «Yer»*** schyotida qonunchilikka muvofiq korxonaga mulk sifatida berilgan yer maydonlari hisobga kiritiladi. Shuningdek, ushbu schyotda yer maydonlarini xarid qilishda to‘lanadigan qo‘shimcha xarajatlar, ko‘chmas mulk agentlarining komission mukofoti, advokatlarning xizmat haqi, sotib olish bilan bog‘liq soliqlar, zovurlar qiymati, yerlarni tozalash va tekislash xarajatlari hisobga olinadi.

Yerlarni foydalanishga tayyorlash jumladan, suv olib kelish, oqova suvlarni chiqarish inshootlari, geodeziya ishlari bo‘yicha umumiy xarajatlar 0110 «Yer» schyotida kapitalizatsiya qilinadi. Chunki ushbu xarajatlar yerdan kelgusida foydalanish va uning qiymatini oshirish uchun zarur.

Yer maydoni bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish yoki qurish uchun sotib olinganda, mavjud konstruktsiyalar va boshqa to‘siqlarni bartaraf etish qiymati 0110 «Yer» schyotining debetida kapitalizatsiya qilinadi. Bunda konstruktsiyani tugatishdan olingan materiallarni sotishdan tushgan tushum ushbu xarajatlarni kamaytiradi.

Agar yer maydoni oldindan tasarrufda bo‘lsa va mavjud konstruktsiyalar yangi qurilish obyektiga joy berish uchun buzib tashlansa, buzish bo‘yicha xarajatlar 0110 «Yer» schyotiga kapitalizatsiya qilinmaydi, balki eski konstruktsiyalarni hisobdan chiqarish bilan bog‘liq xarajat sifatida aks ettiriladi;

- ***0111 «Yerni obodonlashtirish»*** schyotida yer maydonlari tuzilishini o‘zgartirish, kelish yo‘llari, avtomobillar va boshqa transport vositalarining to‘xtash maydonlari, devorlar va boshqa inshootlarning holatini yaxshilash xarajatlari hisobga olinadi;

- ***0112 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish»*** schyotida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha ijaraga olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish, qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan ta’minlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik qayta qurollantirish va shunga o‘xshash boshqalar bilan bog‘liq kapital xarajatlar hisobga olinadi;

- ***0120 «Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalar»*** schyotida quyidagilar hisobga olinadi:

a) bino - ishlab chiqarish, ma’muriy, ijtimoiy-maishiy, uy-joy (inventar obyekti bo‘lib, mustaqil xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan, alohida turgan bino yoki qo‘shimcha qurilishlar hisoblanadi). Bino va qo‘shimcha qurilishlar tarkibiga bir me’yorda foydalanish uchun sharoit

yaratib beradigan barcha kommunikatsiya tizimi (isitish, yoritish, shamollatish, suv-gaz ta'minoti tizimlari, ichki telefon va kompyuter tarmoqlari, lift xo'jaligi, yong'indan saqlash va qo'riqlash signalizatsiya tizimi) kiradi;

b) inshootlar - avtomobil yo'llari, ko'priklar, osma yo'llar, hovuzlar va boshqalar;

v) o'tkazuvchi moslamalar - elektr quvvatini uzatish tizimlari, truba yo'llari, issiqlik va gaz tarmoqlari, transmissiyalar va boshqalar.

- ***0130 «Mashina va asbob-uskunalar»*** schyotida quyidagilar hisobga olinadi:

- kuchlantiruvchi mashina va uskunalar - isitish qozonlari, bug' dvigatellari, turbinalar, kuchlantiruvchi transformatorlar, ichki yonuv dvigatellari va boshqalar;
- ishchi mashinalar va uskunalar - mehnat buyumlariga mexanik, issiqlik, kimyoviy va boshqa texnologik ta'sir ko'rsatuvchi stanoklar, apparatlar, agregatlar;
- o'lchov va boshqaruv moslamalari va laboratoriya uskunalari hamda jihozlari - tarozilar, manometrlar, termostatlar, dispetcher nazorati uskunalari, signalizatsiya, ilmiy-tekshirish laboratoriyasi va boshqalar;
- boshqa mashinalar va uskunalar - boshqa oldingi guruhlarda hisobga olinmaydigan mashina va uskunalar;

- ***0140 «Mebel va ofis jihozlari»*** schyotida ishlab chiqarish va boshqaruv uchun mo'ljallangan mebel va jihozlar (stollar, shkaflar, mebel yig'imlari, kreslo, temir seyflar va boshqalar) shuningdek, ofis jihozlari (telefaks apparati, qog'oz qirqadigan va yo'q qiladigan mashinalar va boshqalar) hisobga olinadi;

- ***0150 «Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi»*** schyotida kompyuterlar, printerlar, skanerlar, modem va boshqa kompyuter jihozlari, hamda hisoblash texnikalari hisobga olinadi;

- ***0160 «Transport vositalari»*** schyotida temir yo'l, avtomobil, ishlab chiqarish va kommunal transport vositalarining harakatlanuvchi tarkibi shuningdek, magistral quvur tarmoqlari (truboprovodlar) hisobga olinadi.

- ***0180 «Ko'p yillik o'simliklar»*** schyotida korxona atrofini obodonlashtirishda foydalaniladigan ko'kalamzorlashtirish, dekoratsiya, meva-rezavor daraxtlari va o'simliklari, yashil devorlar va boshqalar hisobga olinadi;

- ***0190 «Boshqa asosiy vositalar»*** schyotida yuqorida keltirilgan schyotlarda sanab o'tilmagan asosiy vositalar hisobga olinadi;

- ***0199 «Konservatsiya qilingan asosiy vositalar»*** schyotida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 16-sentyabrdagi 401-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Foydalanilmayotgan asosiy vositalarni, qurilishi tugallanmagan obyektlarni konservatsiya qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomga belgilangan tartibda konservatsiyalangan asosiy vositalar hisobga olinadi.

Korxona tomonidan operativ ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning mavjudligi va harakati to'g'risidagi axborot ***001 «Operativ ijaraga olingan asosiy vositalar»*** schyotida shartnomada ko'rsatilgan bahoda hisobga olinadi. Mazkur schyot bo'yicha analitik hisob ijaraga beruvchilar bo'yicha va har bir ijaraga olingan asosiy vositalar (ijaraga beruvchining inventar raqamlari) bo'yicha yuritiladi.

Korxona tomonidan moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha ijaraga berilgan asosiy vositalarning mavjudligi va harakati to'g'risidagi axborotlar ***010 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha berilgan asosiy vositalar»*** schyotida aks ettiriladi. Mazkur schyot bo'yicha analitik hisob har bir moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha berilgan asosiy vositalar bo'yicha alohida asosiy vositalarning hisob inventar kartochkalari bo'yicha yuritiladi.

Asosiy vositalarni kelib tushish manbalari bo‘yicha boshlang‘ich hisobini shakllanishi va ularni buxgaleriya hisobi schyotlarida aks ettirish jarayonlarini ko‘rib chiqamiz.

2.1. Haq to‘lash yo‘li bilan xarid qilingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati

Haq evaziga xarid qilingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati asosiy vositalarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar qo‘shilgan holda, kapital qo‘yilmalar tugagandan keyin pudratchi korxonadan qurilishi tugallangan obyektni qabul qilish-topshirish yoki obyektni oldi-sotdi shartnomasiga yoki ularning xarid qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlarga muvofiq yetkazib beruvchi (sotuvchi)ga to‘lanadigan summa tariqasida aniqlanadi.

Qurilish pudrati shartnomasi bo‘yicha pudratchi shartnomada belgilangan muddatda buyurtmachining topshirig‘i bilan muayyan obyektni qurish yoki boshqa qurilish ishini bajarish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa pudratchiga ishni bajarish uchun zarur sharoit yaratib berish, ishni qabul qilish va kelishilgan haqni to‘lash majburiyatini oladi.

Qurilish pudrati shartnomasi korxonani, binoni (jumladan uy-joy binosini) inshootni yoki boshqa obyektni qurish yoki qayta qurish haqida, shuningdek montaj, sozlash, ishga tushirish va qurilayotgan obyekt bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa ishlarni bajarish haqida tuziladi. Bunda buyurtmachi va pudratchi tomonidan tuzilgan shartnomaning tomonlarning munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 37-bobi «Pudrat» bilan tartibga solinadi.

Oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha bir taraf (sotuvchi) tovarni boshqa taraf (sotib oluvchi)ga mulk qilib topshirish majburiyatini, sotib oluvchi esa bu tovarni qabul qilish va uning uchun belgilangan pul summasi (bahosi)ni to‘lash majburiyatini oladi. Sotuvchi sotib oluvchiga oldi-sotdi shartnomasida nazarda tutilgan tovarni topshirishi shart. Agar oldi-sotdi shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, sotuvchi sotib oluvchiga ashyoni berish bilan bir vaqtda unga mansub ashyoni, shuningdek qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan ashyoga aloqador hujjatlar (texnik pasporti, sifat sertifikati, foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma va h.k.lar)ni topshirishi shart.

Taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to‘lash majburiyatini oladigan kelishuv ***xo‘jalik shartnomasi*** deyiladi.

Xo‘jalik shartnomasi shartnoma predmetini, yetkazib beriladigan tovar (ish, xizmat) ning miqdori, sifati, assortimenti va bahosini, shartnomaning bajarilish muddatlarini, hisob-kitob qilish tartibini, taraflarning majburiyatlarini, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligini, nizolarni hal etish tartibini hamda taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joyni, shuningdek bunday turdagi shartnomalar uchun qonun hujjatlarida belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko‘ra o‘zaro kelishuvga erishish lozim bo‘lgan boshqa muhim shartlarni nazarda tutishi kerak.

Haq to‘lash yo‘li bilan xarid qilingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati shakllanishi va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib o‘tamiz. 2021-yil aprel oyida korxona dastgoh sotib oldi. Shartnomaga muvofiq dastgohning bahosi 115 000 000 so‘m, shu jumladan QQS – 15 000 000 so‘m. Shartnoma sharti bo‘yicha korxona 2021-yil 7-aprelda dastgohining 40 foizi qiymati miqdorida avans (bo‘nak) to‘lovini amalga oshirdi. Dastgohni sotib olishda korxona mazkur dastgohni texnik va boshqa ko‘rsatkichlarini baholab beradigan injenering kompaniyasining xizmatlaridan foydalangan va shartnomaga muvofiq uning xizmat haqi 600 000 so‘mni tashkil etgan. Dastgohni ishchi holatga keltirish bilan bevosita bog‘liq boshqa xarajatlar quyidagilardan iborat: yuklash tushirish ishlari – 80 000

so‘m; avtomobil transporti bilan olib kelish – 500 000 so‘m, korxona ekspeditorining xizmat safari xarajatlari – 100 000 so‘m, dastgohni olib kelishdagi sug‘urta xarajatlari – 50 000 so‘m, yig‘ish va o‘rnatishga ixtisoslashgan korxonaga to‘lanadigan dastgohni o‘rnatish va yig‘ish xarajatlari – 200 000 so‘m, dastgohni sinovdan o‘tkazishda ishlatilgan materiallar qiymati – 65 000 so‘m, dastgohni ishga tushirish jarayonida qatnashgan ishchilarning mehnat haqi xarajatlari – 150 000 so‘m va ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasi 18 000 so‘m. 2021-yil 16-aprelda dastgoh foydalanishga topshirilgan. SHuningdek korxona 2021-yil 12-aprelda sotib olingan dastgoh bo‘yicha yuzaga kelgan kreditorlik qarzini qolgan qismini to‘lash maqsadida bankdan ikki yil muddatga, 15 % yillik stavka bo‘yicha, foizlari har oyda to‘lab boriladigan kredit olgan.

Dastgohning boshlang‘ich qiymatini shakllanish tartibini ko‘rib chiqamiz. Dastgohining boshlang‘ich qiymati **101 763 000 so‘mga** teng.

115 000 000 – 15 000 000 + 600 000 + 80 000 + 500 000 + 100 000 + 50 000 + 200 000 + 65 000 + 150 000 + 18 000.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz soliqlari qoplanadigan soliqlar hisoblanadi, ya’ni soliq to‘lovchi tomonidan mazkur soliqlar to‘lanayotgan vaqtda qoplashga olish hisobga olinadi, hamda, asosiy vositalar sotib olinganda (qurilganda) yuqorida sanab o‘tilgan soliqlar ularning boshlang‘ich qiymatiga qo‘shilmaydi.

Mazkur holatda 2021-yil 30-aprelda korxona kredit bo‘yicha foizlar hisoblashni quyidagicha amalga oshiradi:

(46 000 000 so‘m = 115 000 000 x 40 /100);

72 000 000 so‘m = 115 000 000 – 46 000 000;

538 767 so‘m = (69 000 000 x 15 /100) x (19 kun/365 kun).

Dastgohni xarid qilish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagi aks ettiriladi:

2021-yil 7-aprel holatiga:

- dastgohni yetkazib beruvchilarga shartnoma bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘nak (avans) to‘lovlari summasiga:

debet 4320 «Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» schyoti 46 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti 46 000 000 so‘m;

(46 000 000 so‘m = 115 000 000 so‘m x 40 /100).

2021-yil 9-aprel holatiga:

- shartnoma bo‘yicha xarid qilingan dastgohning qiymati:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 100 000 000 so‘m;
debet 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti 15 000 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 115 000 000 so‘m;

- dastgohni yetkazib beruvchilarga oldin o‘tkazib berilgan bo‘nak (avans) ni qoplashga qabul qilish:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 46 000 000 so‘m;
kredit 4320 «Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» schyoti 46 000 000 so‘m;

- dastgohning texnik va boshqa ko‘rsatkichlarini baholash bo‘yicha bajarilgan ishlarning summasi:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 600 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 600 000 so‘m;

- dastgohni keltirish, yuklash-tushirish, keltirishni sug‘urtalash xarajatlari summasi:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 630 000 so‘m;
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 630 000 so‘m;
(630 000 so‘m = 500 000 + 80 000 + 50 000);

- dastgohni korxonaga keltirishga mas’ul bo‘lgan ekspeditorning xizmat safari xarajatlari:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 100 000 so‘m;
kredit 4220 «Xizmat safariga berilgan bo‘naklar» schyoti yoki 6970 «Hisobdor shaxslarga bo‘lgan qarz» 100 000 so‘m.

2021-yil 12-aprel holatiga:

- olingan kredit summasiga:

debet 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti 69 000 000 so‘m;
kredit 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti 69 000 000 so‘m;

- dastgohni yetkazib beruvchilar oldidagi qarzni to‘lash:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 69 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti 69 000 000 so‘m.

2021-yil 16-aprel holatiga:

- dastgohni o‘rnatish xarajatlari summasiga:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 200 000 so‘m;
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 200 000 so‘m;

- dastgohni sinovdan o‘tkazish jarayonida ishlatilgan materiallar qiymatiga:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 65 000 so‘m;
kredit 1090 «Boshqa materillar» schyoti 65 000 so‘m;

- dastgohni ishga tushirish jarayonida ishtirok etgan ishchilarning mehnat haqi xarajatlari:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 168 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 150 000 so‘m;
kredit schyoti 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» 18 000 so‘m;

- xarid qilingan dastgohni foydalanishga topshirilganda:

debet 0130 «Mashina va asbob uskunalar» 101 763 000 so‘m;
kredit 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 101 763 000 so‘m;

- dastgohni keltirish, yuklash-tushirish va keltirishni sug‘urtalash xarajatlari, shuningdek dastgohni o‘rnatish bo‘yicha bajarilgan ishlar qiymati bo‘yicha qarzlarni to‘lash:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 830 400 so‘m;
kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti 830 000 so‘m;
(830 000 so‘m = 500 000 + 80 000 + 50 000 + 200 000);

2021-yil 30-aprel holatiga:

- kredit bo‘yicha hisoblangan foizlar summasiga:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar»schyoti 538 767 so‘m;

kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 538 7671 so‘m.

To‘lovlar muddatidan ilgari amalga oshirilishi natijasida beriladigan pul chegirmalari bilan haq evaziga xarid qilingan asosiy vositalarni boshlang‘ich qiymatining shakllanashi va ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona 2021-yil 2-aprelda avtomobillarini xarid qilish to‘g‘risida shartnoma imzoladi. Xarid qilinayotgan avtomobillarning shartnomada ko‘rsatilgan umumiy summasi 500 000 000 so‘mni tashkil etadi. Shartnoma shartlariga muvofiq, avtomobillarga bo‘lgan egalik huquqi xaridorga uni qabul qilib olish paytida o‘tadi va korxona umumiy xarid qiymatining 15 foizi miqdorida oldindan to‘lovni amalga oshirishi kerak. Qarzning qolgan qismi esa avtomobillari qabul qilingan sanadan boshlab 90 kun davomida to‘lab beriladi. Bunda, shartnomaga asosan, xaridor ushbu qarzdorlikni avtomobillari qabul qilingan sanadan boshlab 15 kun ichida to‘lab bersa, qarzdorlikning qolgan summasiga nisbatan 5 foizlik chegirmadan foydalanishi mumkin. Korxona 2021-yil 5-aprelda shartnomada ko‘rsatilgan miqdorda oldindan to‘lovni amalga oshirdi. 2021-yil 16-aprelda umumiy shartnomaviy narxda avtomobillar qabul qilib olindi va foydalanishga topshirilgan. 2021-yil 23-aprelda qarzdorlikning qolgan qismini to‘ladi va berilgan chegirmadan foydalandi.

To‘lovlar muddatidan ilgari amalga oshirilishi natijasida beriladigan pul chegirmalari bilan avtomobillarni xarid qilish bilan bog‘lik operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

2021-yil 5-aprel holatiga:

- avtomobillarni yetkazib beruvchilarga shartnoma bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘nak (avans) to‘lovlari summasiga:

debet 4320 «Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» schyoti 75 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 75 000 000 so‘m;
(75 000 000 so‘m = 500 000 000 so‘m x 15/100);

2017-yil 16-aprel holatiga:

- shartnoma bo‘yicha xarid qilingan avtomobillarning qiymati:

debet 0160 «Transport vositalari» 500 000 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schetlar» schyoti 500 000 000 so‘m;

- avtomobillarni yetkazib beruvchilarga oldin o‘tkazib berilgan bo‘nak (avans) ni qoplashga qabul qilish:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 75 000 000 so‘m;
kredit 4320 «Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilarga va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» schyoti 75 000 000 so‘m;

2021-yil 23-aprel holatiga:

- xarid qilingan avtomobillar bo‘yicha qarzdorlikning qolgan summasini to‘lab berish:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schetlar» schyoti 425 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 403 750 000 so‘m;
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 21 250 000 so‘m;
(425 000 000 so‘m = 500 000 000 – 75 000 000);
(403 750 000 so‘m = 425 000 000 – 21 250 000);

(21 250 000 so‘m = 425 000 000 so‘m x 5/100).

To‘lovlar muddati kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash nazarda tutilgan holda haq evaziga xarid qilingan asosiy vositalarni boshlang‘ich qiymatining shakllanashi va ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona 2021-yil 25-martda 5 ta avtomobil xarid qilish to‘g‘risida shartnoma imzoladi. Shartnomada avtomobilning bittasining narxi, agar to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilsa, 40 000 000 so‘m deb belgilangan. Biroq, avtomobillar uchun to‘lov jami 2 yil davomida to‘lanishi sharti bilan xarid qilinayotganligi va pul mablag‘lari har chorak oxirida teng ulushlarda kiritilishi kelishilganligi bois, sotuvchi bitta avtomobilni 44 000 000 so‘m bahosida sotishga rozi. Shartnoma shartlariga ko‘ra, birinchi to‘lov avtomobillar yetkazib berilgan kunda amalga oshirilishi kerak. 2021-yil 1-aprelda avtomobillarning hammasi sotuvchi tomonidan yuklab jo‘natildi va shu kuniyoq birinchi to‘lov amalga oshirildi. Shartnomaga ko‘ra, avtomobillarga bo‘lgan egalik qilish huquqi ular yuklangan paytda xaridorga o‘tadi.

2021-yil 1-aprel holatiga:

- shartnoma bo‘yicha xarid qilingan avtomobillarning qiymati:

debet 0160 «Transport vositalari» 200 000 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schetlar» schyoti 100 000 000 so‘m;
kredit 7010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schetlar» schyoti 100 000 000 so‘m;

(200 000 000 so‘m = 5 ta x 20 000 000 so‘m);

- shartnoma bo‘yicha xarid qilingan avtomobillar bo‘yicha birinchi to‘lovning amalga oshirilishi:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schetlar» schyoti 27 500 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 27 500 000 so‘m;

(220 000 000 so‘m = 5 ta x 44 000 000 so‘m);

(27 500 000 so‘m = 220 000 000 so‘m / 8 marta).

Asosiy vositalar uchun to‘lov muddatini uzaytirish sharti bilan xarid qilish kuni va ular bo‘yicha birinchi to‘lovni amalga oshirish kuni bir-biriga mos kelishi tufayli, to‘lov muddatini kechiktirmasdan yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartisiz sotiladigan asosiy vositalarning qiymati va xarid qilinadigan asosiy vositalar bo‘yicha to‘lovlarning umumiy summasi o‘rtasidagi farq moliyaviy xarajatlar (foizlar bo‘yicha xarajatlar) sifatida tan olinmaydi, to‘lanadigan summa esa mol yetkazib beruchi oldidagi asosiy qarzning kamayishiga o‘tkaziladi.

Yuqorida aytilganidek, to‘lov muddatini kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti nazarda tutilmasdan sotiladigan asosiy vositalarning qiymati va xarid qilinadigan asosiy vositalar bo‘yicha to‘lovlarning umumiy summasi o‘rtasidagi farq (**22 000 000 so‘m** = 220 000 000 so‘m – 200 000 000 so‘m) to‘lov muddati uzaytirilgan yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash amalga oshiriladigan ***to‘lovlarning umumiy summasidagi joriy to‘lovlarning ulushli salmog‘iga bog‘liq holda*** to‘lov muddati kechiktirilgan yoki bo‘lib-bo‘lib amalga oshiriladigan to‘lov davri davomidagi moliyaviy xarajatlar (foizlar bo‘yicha xarajatlar) sifatida tan olinadi. Bunda, ***joriy to‘lovning to‘lovlar umumiy summasidagi ulushli salmog‘i*** quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\text{Joriy to‘lovning ulushli salmog‘i} = \frac{\text{To‘lovlarni amalga oshirish sanasidan boshlab amalga oshirilgan jami to‘lovlar summasi}}{\text{Shartnomada ko‘zda tutilgan umumiy to‘lovlar summasi}}$$

Har bir to‘lov amalga oshirilganda foizlar bo‘yicha xarajatlar summasi (asosiy vositalarni xarid qilish sanasida paydo bo‘lgan majburiyat yuzaga kelgan kunda amalga oshirilgan birinchi to‘lovdan tashqari) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

Foizlar bo‘yicha xarajatlar summasi = (Joriy to‘lovning ulushli salmog‘i x bo‘lib-bo‘lib to‘lashdagi umumiy farq summasi) – oldingi davrlarda hisoblangan foizlar bo‘yicha xarajatlarning jamg‘arilgan summasi.

2021-yil 30-iyun holatiga:

- shartnoma bo‘yicha xarid qilingan avtomobillari bo‘yicha navbatdagi to‘lovning amalga oshirilishi:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 22 000 000 so‘m;
debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti 5 500 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 27 500 000 so‘m;

Bunda, foizlar bo‘yicha xarajatlar hisobi quyidagi ko‘rinishga ega:

Joriy to‘lovlarning ulushli salmog‘i - 25% (55 000 000 / 220 000 000);

Foizlar bo‘yicha xarajatlar – 5 500 000 so‘m (22 000 000 x 25/100).

2021-yil 30-sentyabr:

- shartnoma bo‘yicha xarid qilingan avtomobillari bo‘yicha navbatdagi to‘lovning amalga oshirilishi:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 24 750 000 so‘m;
debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti 2 750 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 27 500 000 so‘m;

Bunda, foizlar bo‘yicha xarajatlar hisobi quyidagi ko‘rinishga ega:

Joriy to‘lovlarning ulushli salmog‘i - 37,5% (11 400 000 / 30 400 000);

Foizlar bo‘yicha xarajatlar – 2 750 000 so‘m ((22 000 000 x 37,5/100) – 5 600 000 so‘m).

Tovar-moddiy zaxiralar (tayyor mahsulotlardan tashqari), ya’ni sotiladigan tovarlar tarkibidan asosiy vositalarga o‘tkazilgan obyektlarning boshlang‘ich qiymati ularning balans qiymatiga teng bo‘ladi. Tovar-moddiy zaxiralarni balans qiymatini shakllanishi «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» da ko‘rib o‘tilgan.

2.2. Korxonaning o‘zida yaratilgan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati

Korxonaning kuchi bilan yaratilgan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati mazkur asosiy vositalarni tiklash (qurish, qurib bitkazish) bo‘yicha haqiqiy xarajatlar summasidan iborat bo‘ladi. Bularga xususan quyidagilar kirishi mumkin:

- asosiy vositalarni qurish (barpo etish) da ishlatiladigan moddiy xarajatlar (sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, qurilish materiallari, yoqilg‘i moylash materiallari, idish va idish materiallari, inventar va xo‘jalik jihozlari va h.k.lar);

- asosiy vositalarni qurish (barpo etish) da ishtirok etadigan ishchi va xodimlar mehnatiga haq to‘lash xarajatlari, shu jumladan ular bo‘yicha hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lov summalari;

- asosiy vositalarni qurish (barpo etish) da foydalaniladigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

- asosiy vositalarni qurish (barpo etish) bilan bog‘liq boshqa xarajatlar.

Xo‘jalik usuli bilan qurilganda bevosita xarajatlar tarkibida hisobga olinadigan material xarajatlarga qiymati foydalanishga kiritiladigan asosiy vositalar qiymatida hisobga olinadigan materiallarni, asbob-uskunalarni xarid qilish xarajatlari qiymatini va xo‘jalik usuli bilan qurilganda qurilish-o‘rnatish ishlarini bajarishda foydalaniladigan butlovchi buyumlarni qiymatini kiritish lozim.

Mehnatga haq to‘lash xarajatlariga xo‘jalik usuli bilan qaralganda qurilish-o‘rnatish ishlarini bajargan asosiy ishlab chiqarish ishchilarining mehnatiga haq to‘lash xarajatlari hamda ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to‘lov summasi kiradi.

Hisoblangan amortizatsiya summasiga xo‘jalik usulida ishlarni bajarish uchun foydalaniladigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini kiritish lozim. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash 5-son BHMS va 7-son BHMS ga muvofiq amalga oshiriladi.

Kapital qurilish smetalarida, smeta-loyiha hisoblarida va titul ro‘yxatlarida nazarda tutilgan bino va inshootlarni barpo etish, asbob-uskunalarni, vositalarni, inventarlarni va boshqa jihozlarni sotib olish bo‘yicha xarajatlar (qurilish pudrat yoki xo‘jalik usulida amalga oshirilishdan qat’iy nazar) 0810 «Tugallanmagan qurilish» schyotida aktivlar va majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda hisobga olinadi. Asosiy vositalarni foydalanishga kiritilganda ularning boshlang‘ich qiymati summasiga 0810 «Tugallanmagan qurilish» schyoti asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100) bilan bog‘langan holda kreditlanadi.

Asosiy vositalarni qurish (barpo etish) bilan bog‘liq xarajatlar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- asosiy vositalarni qurish (barpo etish) korxona tomonidan xo‘jalik usulida amalga oshirilganda qurish (barpo etish) bilan bog‘liq xarajatlar:

debet 0810 «Tugallanmagan qurilish» schyoti;

kredit asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar (0200) – asosiy vositalarni qurish (barpo etish) da foydalaniladigan asosiy vositalar bo‘yicha hisoblangan amortizatsiya xarajatlari summasiga;

kredit nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar (0500) – asosiy vositalarni qurish (barpo etish) da foydalaniladigan nomoddiy aktivlar bo‘yicha hisoblangan amortizatsiya xarajatlari summasiga;

kredit materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000) - asosiy vositalarni qurish (barpo etish) da ishlatiladigan moddiy xarajatlar (sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, qurilish materiallari, yoqilg‘i - moylash materiallari, idish va idish materiallari, inventar va xo‘jalik jihozlari va h.k.lar) summasiga;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti – boshqa korxonalar tomonidan asosiy vositalarni qurish (barpo etish) jarayonida bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar summasiga (schyot-faktura yoki qabul qilish topshirish dalolatnomasi va boshqa boshlang‘ich hujjatlarda ko‘rsatilgan summaga, qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan birga);

kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti - asosiy vositalarni qurish (barpo etish) da ishtirok etadigan ishchi va xodimlar mehnatiga haq to‘lash xarajatlari summasiga;

kredit 6520 «Maqsadli daval jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti - asosiy vositalarni qurish (barpo etish) da ishtirok etadigan ishchi va xodimlar mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lov summasiga;

kredit boshqa majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar - asosiy vositalarni qurish (barpo etish) da jarayoni bilan bog‘liq boshqa xarajatlar summasiga;

- asosiy vositalarni qurish (barpo etish) korxona tomonidan pudrat usulida amalga oshirilganda qurish (barpo etish) bilan bog‘liq xarajatlar (pudratchi taqdim etgan schyot-faktura yoki qabul qilish topshirish dalolatnomasi va boshqa boshlang‘ich hujjatlarda ko‘rsatilgan summaga, qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan birga):

debet 0810 «Tugallanmagan qurilish» schyoti;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti;

- pudratchi oldidagi qarz qoplanganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti.

Bunda qurilish davrida qurilish uchun olingan uzoq muddatli kredit bo‘yicha hisoblangan foizlar barpo etilgan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatiga kiritiladi. Korxona asosiy vosita (masalan, bino, inshoot va h.k.lar) ni qurish (barpo etish) bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash uchun moliya-kredit tashkilotlaridan maqsadli kredit olgan hollarda, tegishli ravishda mazkur maqsadli kreditlar bo‘yicha hisoblangan foizlar asosiy vositalarni barpo etish (qurilish) pudrat yoki xo‘jalik usulida amalga oshirilishdan qat’iy nazar barpo etish (qurilish) jarayoni davomida asosiy vositalarning qiymatiga olib borilishi kerak.

Korxona asosiy vosita (masalan, bino, inshoot va h.k.lar) ni qurish (barpo etish) bilan bog‘liq xarajatlarni to‘lash uchun banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlaridan olingan kreditlar bo‘yicha foizlar hisobi 24-son BHMS ga muvofiq amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarni barpo etish tugagan ya’ni u foydalanishga berilgan hollarda, foizlarni kapitalizatsiya qilish to‘xtatiladi, asosiy vositalarni foydalanishga berilgandan keyin hisoblangan foiz xarajatlari esa korxonaning moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlariga kiritiladi va 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyotida hisobga olinadi.

Aktivni qurish (barpo etish) amalga oshiriladigan davrda maqsadli kreditlar bo‘yicha hisoblangan foiz xarajatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona omborxona binosini qurishni xo‘jalik usulida amalga oshiradi. Qurilish davri 3 yil. Qurilishni moliyalashtirish uchun bankdan 4 yil muddatga, foiz stavkasi yillik 18%, foizlar har yili to‘lanadigan summasi 150 000 000 so‘m bo‘lgan kredit olingan.

Korxonada kredit bo‘yicha har yili foizlar hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

150 000 000 so‘m x 18 / 100 = 27 000 000 so‘m.

Kreditni olish va ular bo‘yicha foizlarni hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- olingan kredit summasiga:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *150 000 000 so‘m;*

kredit 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti *150 000 000 sum;*

birinchi, ikkinchi va uchinchi yillarda:

- hisoblangan foizlar bo‘yicha xarajatlar summasiga:

debet 0810 «Tugallanmagan qurilish» schyoti *27 000 000 so‘m;*

kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *27 000 000 so‘m;*

to‘rtinchi yil:

- hisoblangan foizlar bo‘yicha xarajatlar summasiga:

*debet 9610 «*Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar*» schyoti 27 000 000 so‘m;*

kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 27 000 000 so‘m.

Asosiy vositadan maqsadga muvofiq foydalanish uchun uning tegishli ishini tekshirish jarayonida olingan mahsulot sof sotish qiymati bo‘yicha kirim qilinadi va asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati shakllantirilganda kapital qo‘yilmalar summasidan ayiriladi.

Tayyor mahsulot tarkibidan asosiy vositalarga o‘tkazilgan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom»ga muvofiq belgilanadigan ularning ishlab chiqarish tannarxiga teng bo‘ladi. Tovar-moddiy zaxiralarni balans qiymatini shakllanishi «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» da ko‘rib o‘tilgan.

2.3. Chetel valyutasida xarid qilingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati

Chetel valyutasida xarid qilingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati, ularning xarid qilinganligini tasdiqlovchi boshlang‘ich hisob hujjatlarida (tovarning kuzatuv hujjatlari yoki bojxona yuk deklaratsiyasida) ko‘rsatilgan qiymatidan kelib chiqib, ularni buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo‘yicha qayta hisoblab, shuningdek asosiy vositalarni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olgan holda, aniqlanadi.

Chetel valyutasida xarid qilingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini shakllantirish tartibi 22-son BHMS da nazarda tutilgan. Ushbu me’yoriy hujjatga muvofiq asosiy vositalarning qiymati va buxgalteriya hisobida aks ettirilishi ularning xarid qilinganligini tasdiqlovchi boshlang‘ich hisob hujjatlarida (tovarning kuzatuv hujjatlari yoki bojxona yuk deklaratsiyasida) ko‘rsatilgan qiymatidan kelib chiqib, ularni buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasidagi Markaziy bank kursi bo‘yicha qayta hisoblab o‘tkazish yo‘li bilan, to‘langan va qoplanmaydigan soliqlar (yig‘imlar), yetkazib berish, o‘rnatish, ulash, foydalanishga tushirish va aktivdan mo‘ljal bo‘yicha foydalanish uchun uni ishchi holatga keltirish bilan bevosita bog‘liq boshqa har qanday xarajatlarni qo‘shib aniqlanishi va aks ettirilishi kerak.

Import bo‘yicha xarid qilingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini shakllanishi tartibini va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. 2021-yil 25-martda korxona chetellik mol yetkazib beruvchi bilan umumiy qiymati 20 000 yevro bo‘lgan dastgohlarni xarid qilish bo‘yicha shartnoma tuzdi. Yetkazib berish shartnomasiga muvofiq xaridor mol yetkazib beruvchining bankidagi akkreditiv schyotiga dastgohlar qiymatining 50 % ini oldindan o‘tkazib berishi kerak. 2021-yil 2-aprelda korxona mol yetkazib beruvchining bankida akkreditiv schyotini ochgan va shartnomada ko‘rsatilgan summani o‘tkazgan. Akkreditiv schyotini ochish sanasidagi Markaziy bankning bir yevroning so‘mga nisbatan o‘rnatgan kursi 12 320 so‘mni tashkil etgan. Akkreditiv schyotini ochish bilan bog‘liq xarajatlar o‘tkazilgan valyuta summasidan 0,2% ni, akkreditiv o‘tkazma bo‘yicha bankning komissiyasi o‘tkazma summasidan 1,2% ni, shartnomani tayyorlash uchun huquqshunoslik firmasiga to‘langan summa 150 yevroni, shartnomani ro‘yxatga olish va yopish bilan bog‘liq xarajatlar esa shartnoma summasidan 0,05% ni tashkil etgan. Bundan tashqari milliy valyuta yevroga almashtirilganda almashtirilgan xorijiy valyuta summasidan 0,2% miqdorda vositachilik haqi to‘langan. 2021-yil 7-aprelda avtoransport vositalari yuklab jo‘natilgan. Dastgohlarni fraxti (tashish, yuklab tushirish ishlari, yetkazib berishni sug‘urta qilish va boshqalar) bo‘yicha xarajatlari 4 000 yevroni tashkil etgan. Bojxona yuk deklaratsiyasi 2021-yil 14-aprelda taqdim etilgan. Bojxona qonunchiligiga muvofiq bojxona to‘lovlari quyidagilardan iborat: bojxona boji 10 %, qo‘shilgan qiymat solig‘i 15 % va bojxona yig‘imi 0,2 %. Bojxona yuk deklaratsiyasini

to‘ldirish sanasidagi Markaziy bankning bir yevroning so‘mga nisbatan o‘rnatgan kursi 12 390 so‘m. 2021-yil 21-iyunda dastgohlar foydalanishga berilgan.

Dastgohlarning boshlang‘ich qiymatini shakllanish tartibini ko‘rib chiqamiz.

Birinchi navbatda dastgohlarni shartnoma qiymatini Bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish sanasidagi O‘zbekistont Respublikasi Markaziy banki yevroning so‘mga nisbatan o‘rnatgan kursiga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlaymiz **247 800 000 so‘m** (20 000 yevro x 12 390 so‘m).

Ikkinchi navbatda dastgohlarni shartnoma qiymatidan kelib chiqib bojxona to‘lovlarini aniqlaymiz. Bojxona to‘lovlari:

- bojxona boji - **24 780 000 so‘m** (247 800 000 x 10 /100);
- qo‘shilgan qiymat solig‘i - **40 887 000 so‘m** ((247 800 000 + 24 780 000) x 15 /100);
- bojxona yig‘imlari - **495 600 so‘m** (247 800 000 x 0,2 /100).

Boshlang‘ich qiymatga qo‘shiladigan bojxona to‘lovlari **25 275 600 so‘m** (24 780 000 + 495 600) dan iborat.

Uchinchi navbatda dastgohlarni fraxti (tashish, yuklab tushirish ishlari, yetkazib berishni sug‘urta qilish va boshqalar) bo‘yicha xarajatlarini ekvivalentini **49 560 000 so‘m** (4 000 yevro x 12 390 so‘m) aniqlaymiz.

To‘rtinchi navbatda xarid qilingan dastgohlarni haqini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarni summasini va ularni ekvivalentini aniqlaymiz.

Akkreditiv schyotini ochish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat:

10 000 yevro = 20 000 yevro x 50/100;

20 yevro = 10 000 yevro x 0,2/100;

246 400 so‘m = 20 yevro x 12 320 so‘m.

Akkreditiv o‘tkazma bo‘yicha bankning komissiyasi xarajatlari quyidagilardan iborat:

10 000 yevro = 20 000 yevro x 50/100;

120 yevro = 10 000 yevro x 1,2/100;

1 478 400 so‘m = 120 yevro x 12 320 so‘m.

Shartnomani tayyorlash uchun to‘lov to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar quyidagidan iborat:

1 848 000 so‘m = 150 yevro x 12 320 so‘m.

Shartnomani ro‘yxatga olish va yopish bo‘yicha xarajatlar quyidagidan iborat:

10 yevro = 20 000 yevro x 0,05/100;

123 200 so‘m = 100 yevro x 12 320 so‘m.

Chetel valyutasini almashtirish xarajatlari quyidagidan iborat:

100 yevro = 20 000 yevro x 0,5/100;

1 232 000 so‘m = 100 yevro x 12 320 so‘m.

Boshlang‘ich qiymatga qo‘shilmaydigan xarid qilingan dastgohlarni haqini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarnining umumiy summasi **4 928 000 so‘mdan** (246 400 + 1 478 400 + 1 848 000 + 123 200 + 1 232 000) iborat.

Asosiy vositalar tarkibiga kiradigan dastgohlarning boshlang‘ich qiymati **322 635 600 so‘m** (247 800 000 + 25 275 600 + 49 560 000) ni tashkil etadi.

Dastgohlarni xarid qilish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

2021-yil 4-aprel holatiga:

- mol yetkazib beruvchining bankida akkreditiv schyot ochish:

debet 5510 «Akkreditivlar» schyoti *123 200 000 so‘m;*

kredit 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta

schyotlari» schyoti 123 200 000 so‘m;
(123 200 000 so‘m = 10 000 yevro x 12 320 so‘m);
- xarid qilingan dastgohlarni haqini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar summasiga:
debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 4 928 000 sum;
kredit 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti 4 928 000 so‘m.
2021-yil 7-aprel holatiga buxgalteriya yozuvlari talab qilinmaydi.
2021-yil 14-aprel holatiga:
- dastgohlarni shartnoma qiymatini summasiga:
debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 247 800 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 247 800 000 so‘m;
- dastgohlar bo‘yicha bojxona to‘lovlari:
debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 25 275 600 so‘m;
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha) schyoti 25 275 600 so‘m;
- dastgohlar bo‘yicha hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i:
debet 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha
bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti 40 887 000 so‘m;
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyotida «Byudjetga
qo‘shilgan qiymat bo‘yicha qarz» schyoti 40 887 000 so‘m;
- byudjetga bojxona to‘lovlari bo‘yicha qarz qoplanganda:
debet 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha) schyoti 25 275 600 so‘m;
debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyotida «Byudjetga
qo‘shilgan qiymat bo‘yicha qarz» schyoti 40 887 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 66 162 600 so‘m;
- dastgohlarni fraxti bo‘yicha summaga:
debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 49 560 000 so‘m
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 49 560 000 so‘m;
- akkreditiv schyotda turgan valyuta mablag‘larini qayta baholanganda:
debet 5510 «Akkreditivlar» schyoti 700 000 so‘m;
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan
daromadlar» schyoti 700 000 so‘m;
(123 900 000 so‘m = 10 000 yevro x 12 390 so‘m);
(700 000 so‘m = 123 900 000 so‘m – 123 200 000 so‘m);
- akkreditiv schyotidagi valyuta mablag‘lari qoplashga qabul qilinganda:
debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 123 900 000 so‘m;
kredit 5510 «Akkreditivlar» schyoti 123 900 000 so‘m;
- olingan dastgohlar bo‘yicha mol yetkazib beruvchilar oldidagi qarzdorlik qoplanganda:
debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 123 900 000 so‘m;
kredit 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta
schyotlari» schyoti 123 900 000 so‘m;
(123 900 000 so‘m = 247 800 000 – 123 900 000);

- dastgohlar fraxti bo‘yicha qarzdorlik qoplanganda:
debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 49 560 000 so‘m;
kredit 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti 49 560 000 so‘m.

2021-yil 21-aprel holatiga:

- dastgohlarni foydalanishga topshirilganda:
debet 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti 322 635 600 so‘m;
kredit 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 322 635 600 so‘m.

2.4. Korxona ustav kapitaliga ta’sischilar qo‘yilmalari (ulushi) sifatida olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati

Korxona ustav kapitaliga ta’sischilar qo‘yilmalari (ulushi) sifatida olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati deb, agar O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqa holat nazarda tutilmagan bo‘lsa, korxona ta’sischilari (ishtirokchilari) tomonidan kelishilgan ularning puldagi bahosi tan olinadi.

Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlarda ustav fondi (ustav kapili) ga kiritiladigan ulush sifatida pul, qimmatli qog‘ozlar, boshqa narsa yoki mulkiy huquqlar, yoki pulda bahosi mavjud bo‘lgan boshqa beriladigan huquqlar bo‘lishi mumkin («Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasi).

Jamiyatni ta’sis etilganda joylashtiriladigan aksiyalar ta’sischilar tomonidan jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tgandan keyin bir yildan kechikmagan muddatda to‘langan bo‘lishi kerak. Ko‘rsatilgan muddat o‘tgandan keyin ta’sischilar tomonidan to‘lanmagan aksiyalar tugatilishi kerak. Jamiyatning qo‘shimcha aksiyalar mazkur aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan joylashtirish muddatida to‘langan bo‘lishi kerak. Jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarini to‘lash qonunchilikda belgilangan tartibda pul va boshqa to‘lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda bahosi mavjud bo‘lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy) amalga oshiriladi. Jamiyatning aksiyalarini to‘lash shakli ularni ta’sis etishda jamiyatni ta’sis etish shartnomasi (qayta tashkil etish qarori) da yoki jamiyatning ustavida, qo‘shimcha aksiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar chiqarishda esa ularni joylashtirish to‘g‘risidagi qarorda belgilanadi.

Ulushlarni pulsiz mablag‘lar bilan to‘langanda qonunchilikda quyidagilar nazarda tutilgan:

- xususiy korxonalarda mulkdor ustav kapitaliga o‘zi kiritadigan mol-mulkni mustaqil baholaydi («Xususiy korxona to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi);

- mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlarda ishtirokchilar va qabul qilinadigan uchinchi shaxslar tomonidan jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shiladigan pulsiz hissalarning pul bahosi jamiyat ishtirokchilari umumiy yig‘ilishining jamiyatning barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan qarori bilan tasdiqlanadi («Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasi);

- aksiyadorlik jamiyatlarida jamiyatni ta’sis etish chog‘ida aksiyaga to‘lanadigan haq sifatida topshirilayotgan mol-mulkning puldagi bahosi ta’sischilar o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq aniqlanadi. Agar jamiyatning shu yo‘sinda sotib olinayotgan aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarining nominal qiymati qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining ikki yuz (200) baravaridan ko‘pni tashkil etsa, jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarining

haqi sifatida topshirilayotgan mol-mulkning pulda ifodalangan bahosi baholovchi korxona tomonidan chiqarilishi zarur («Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida») gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 31-moddasi).

Ushbu talablar nima uchun kiritilgan? Korxona o‘zining barcha majburiyatlari bo‘yicha javobgarlikni o‘zining barcha mol-mulki bilan bajarishi kerak. Ustav kapitali o‘z navbatida korxonaning kreditorlari manfaatlarini kafotlaydigan mol-mulkni minmal miqdorini aniqlaydi. Shuning uchun ham ustav kapitali noto‘g‘ri (fiktiv) yoki sun’iy oshirilmagan bo‘lishi kerak. Ya’ni ulush sifatida kiritilgan mol mulkni sotishdan mablag‘lar ulushning nominal qiymatiga mos kelishi kerak. Mana shuni tasdiqlash maqsadida pulsiz kiritiladigan yirik ulushlarni mustaqil baholash amalga oshiriladi.

Shu bilan birga oddiy va imtiyozli aksiyalarni sotishdan olingan summalarning aksiyalar nominal qiymatidan oshgan miqdori ya’ni aksiyalarni dastlabki sotishda nominal qiymatidan yuqori bahoda olingan eimssion daramod, shuningdek ustav kapitalini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan kurs farqlarni summasi ko‘rinishidagi qo‘shilgan kapital mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlar qo‘shilgan kapital tarkibida hisobga olinishiga ham e’tibor qaratish lozim.

Korxona ustav kapitaliga ta’sischilar qo‘yilmalari (ulushi) sifatida olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatining shakllanishi va ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona aksiyadorlik jamiyati shaklida ta’sischilar tomonidan ta’sis etilgan. Jamiyatning ustav kapitali 6 000 000 000 so‘m va u 1 200 000 dona aksiyaga ajratilgan bo‘lib, aksiyaning nominal qiymati 5 000 so‘m. Jamiyat ta’sis etilganda aksiyalar nominal qiymat bo‘yicha joylashtirilishi hamda 60 foizi pul mablag‘lari va 40 foizi asosiy vositalar bilan to‘lanishi ta’sis hujjatlarida aytib o‘tilgan. Asosiy vositalar sifatida quyidagilar kiritilgan: ishlab chiqarish binosi 500 000 000 so‘m, avtobuslar 1 750 000 000 so‘m, mebel va ofis jihozlari 90 000 000 so‘m, kompyuterlar majmuasi 60 000 000 so‘m.

Asosiy vositalarni korxonaga tashib keltirish va ularni ishchi holatiga keltirish bilan bog‘liq ishlar korxona ishchilari tomonidan amalga oshirilgan. Asosiy vositalarni tashib keltirish va ularni ishchi holatiga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat: transport xarajatlari 5 000 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash 2 000 000 so‘m va ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasi 240 000 so‘m.

Asosiy vositalarni boshlang‘ich qiymati ularni ta’sis hujjatida ko‘rsatilgan qiymatiga tashib keltirish va ularni ishchi holatiga keltirish bilan bog‘liq xarajatlarni qo‘shib aniqlanadi. Agar tashib keltirish va ularni ishchi holatiga keltirish bilan bog‘liq xarajatlarni aniq bir asosiy vositalarga olib borish imkoniyati mavjud bo‘lmasa, u holda taqsimlashni asosiy vositalarni qiymatini ularning umumiy qiymatidagi ulushiga mutanosib ravishda amalga oshirish tavsiya etiladi. Har bir asosiy vositaning ta’sis hujjatda ko‘rsatilgan qiymatini ularni umumiy qiymatidagi ulushini qiyinchiliksiz aniqlash mumkin va bu quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Asosiy vositalar	Ta’sis hujjatidagi qiymati (so‘m)	Ulushi (%)	Hisoblash
Ishlab chiqarish binosi	500 000 000	20,8	500 000 000 / 2 400 000 000 x 100
Avtobuslar	1 750 000 000	72,9	1 750 000 000 / 2 400 000 000 x 100
Mebel va ofis jihozlari	90 000 0000	3,8	90 000 000 / 2 400 000 000 x 100
Kompyuterlar majmuasi	60 000 000	2,5	60 000 000 / 2 400 000 000 x 100
Jami:	**2 400 000 000**		

Har bir asosiy vositaning boshlang‘ich qiymatiga qo‘shiladigan tashib keltirish va ularni ishchi holatiga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Asosiy vositalar	Boshlang‘ich qiymat	Bozor qiymatining ulushi (%)	Raschet
Ishlab chiqarish binosi	1 505 920	20,8	7 240 000 x 20,8 / 100
Avtobuslar	5 277 960	72,9	7 240 000 x 66,6 / 100
Mebel va ofis jihozlari	275 120	3,8	7 240 000 x 3,8 / 100
Kompyuterlar majmuasi	181 000	2,5	7 240 000 x 2,5 / 100
Jami:	**7 240 000**		

Bunda asosiy vositalarni boshlang‘ich qiymati quyidagicha bo‘ladi: ishlab chiqarish binosi 501 505 920 so‘m, avtobuslar 1 755 277 960 so‘m, mebel va ofis jihozlari 90 275 120, kompyuterlar majmuasi 60 181 000 so‘m.

Aksiyalar qiymatini to‘lovi sifatida ta’sischilardan kelib tushgan asosiy vositalarni kirim qilish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ta’sis hujjatlariga muvofiq jamiyatning ustav kapitali summasiga:

debet 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 6 000 000 000 so‘m;
kredit 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti 6 000 000 000 so‘m;

- aksiyalar qiymatini to‘lash bo‘yicha ta’sischilardan asosiy vositalar kelib tushishi:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 2 407 240 000 so‘m;
kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 2 400 000 000 so‘m;
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 5 000 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyot 2 000 000 so‘m;
kredit 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti 240 000 so‘m;

- asosiy vositalar foydalanishga berilganda:

debet 0120 «Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar» schyoti *501 560 000 so‘m;*

debet 0140 «Mebel va ofis jihozlari» schyoti *90 285 000 so‘m;*

debet 0150 «Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi» schyoti *60 187 500 so‘m;*

debet 0160 «Transport vositalari» schyoti *1 755 467 500 so‘m;*

kredit 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti *2 407 500 000 so‘m.*

2.5. Ilgari boshqa korxonaning ustav kapitaliga kiritilgan ta’sis ulushini qaytarilishidan kelib tushgan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati

Korxona ta’sischilar tarkibidan chiqqanida yoki tugatilayotgan korxornaning mulki ta’sischilar o‘rtasida taqsimlanganda kelib tushgan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati bo‘lib, asosiy vositalarning qabul qilingan qabul qilish-topshirish hujjatlarida asosiy vositalarni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlarni hisobga olgan holda ko‘rsatilgan qiymat tan olinadi.

Olinayotgan asosiy vositalarning qiymati boshqa korxonaning ustav kapitalidagi ulushi bo‘yicha qarz summasidan yuqori bo‘lgan hollarda, farq ta’sischilar tarkibidan chiqib ketayotgan ta’sischi tomonidan qoplanadi.

Boshqa korxonaning ustav kapitalidagi ulushi bo‘yicha qarz summasi, olinayotgan asosiy vositalarning qiymatidan yuqori bo‘lgan hollarda, farq berayotgan korxona tomonidan qoplanadi.

Ilgari boshqa korxonaning ustav kapitaliga kiritilgan ta’sis ulushini qaytarilishidan kelib tushgan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatining shakllanishi va uni buxgalteriya hisobida aks ettrish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning boshqa korxonaning ustav kapitalidagi ulushi 20% ni ya’ni 80 000 000 so‘mni tashkil etadi. Korxona iqtisodiy tahlillarga asoslangan holda ta’sischilar tarkibidan chiqishi haqida qaror qabul qildi. Boshqa ta’sischilar ustav kapitalidagi korxona ulushini sotib olishdan bosh torgani sababli, unga ulushni qaytarib berishga qaror qilindi. Sof aktivlari qiymati ta’sischilar tarkibidan chiqish sanasidagi haqiqiy qiymati 2 000 000 000 so‘mga teng. Ta’sischilarining qaroriga muvofiq ta’sis ulushining qaytarilishi sifatida avtomobilni qabul qildi va qolgan qismini pul mablag‘lari ko‘rinishida oldi. Ustav kapitaliga kiritgan ulushi summasidan kam bo‘lgan qiymati 90 000 000 so‘mlik avtomobilni oladi va qo‘shimcha 10 000 000 so‘m pul mablag‘lari oladi.

Ilgari boshqa korxonaning ustav kapitaliga kiritilgan ta’sis ulushini qaytarilishidan kelib tushgan asosiy vositalar bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ta’sischilarining korxona ta’sischilari tarkibidan chiqishi to‘g‘risidagi qaror qabul qilishi sanasiga - sof aktivlarning haqiqiy qiymati ulushi summasiga:

debet 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti *100 000 000 so‘m;*

kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *100 000 000 so‘m;*

- uzoq muddatli investitsiyalar sifatida hisobga olingan ustav kapitalidagi ulushning balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *80 000 000 so‘m;*

kredit 0690 «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» schyoti *80 000 000 sum;*

- ta’sischilar tarkibidan chiqib ketishdan olingan foyda summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *20 000 000 so‘m;*

kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti *20 000 000 so‘m;*

- ilgari ustav kapitaliga kiritgan ulush bo‘yicha qarz summasidan past bo‘lgan qiymat bo‘yicha avtombil kelib tushganda:

debet 0160 «Transport vositalari» schyoti *90 000 000 so‘m;*
kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti *90 000 000 so‘m;*

- ta’sischilar tarkibidan chiqayotganda olingan avtombilning qiymati ilgari ustav kapitaliga kiritgan ulushi summasidan past bo‘lganligi hisobiga yuzaga kelgan qarz summasini qoplash uchun hisob-kitob schyotiga pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *10 000 000 so‘m;*
kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti *10 000 000 so‘m.*

Agar ustav kapitaliga kiritgan ulushi summasidan qiymati yuqori bo‘lgan 124 000 000 so‘mlik avtombilni olsa va 24 000 000 so‘mni pul mablag‘lari bilan qaytarsa yuqoridagi qo‘shimcha ravishda buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ilgari ustav kapitaliga kiritgan ulush bo‘yicha qarz summasidan yuqori bo‘lgan qiymat bo‘yicha avtombil kelib tushganda:

debet 0160 «Transport vositalari» schyoti *124 000 000 so‘m;*
kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti *100 000 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *24 000 000 so‘m;*

- ta’sischilar tarkibidan chiqayotganda olingan avtombilning qiymati ilgari ustav kapitaliga kiritgan ulushi summasidan yuqori bo‘lganligi hisobiga yuzaga kelgan qarz summasini hisob-kitob schyotidan pul mablag‘lari bilan qoplanishi:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *24 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *24 000 000 so‘m.*

2.6. Tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati

Korxona tomonidan tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati deb to‘langan va qoplanmaydigan soliqlar (yig‘imlar), yetkazib berish, o‘rnatish, ulash, foydalanishga tushirish va aktivni ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa har qanday xarajatlarni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sanadagi ularning joriy qiymati tan olinadi. ***Joriy qiymat deganda*** ma’lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo‘yicha asosiy vositalarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o‘rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lgan summasi tushuniladi.

Asosiy vositalar tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) olinganda ularning daromadlari bozor qiymati bo‘yicha belgilanadi. Asosiy vositalarning bozor qiymati hujjatlar bilan yoki baholovchi tashkilotning baholash to‘g‘risidagi hisoboti bilan tasdiqlanadi. Hujjatlar bilan tasdiqlash deb quyidagilar e’tirof etiladi:

- jo‘natish, yetkazib berish yoki topshirish hujjatlari;
- yetkazib beruvchilarning narxlarga oid ma’lumotlari (prays-varaqlar);
- ommaviy axborot vositalaridan olingan ma’lumotlar;
- birja ma’lumotlari;
- davlat statistikasi organlarining ma’lumotlari.

Tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini shakllanishi va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. Maqsadli yo‘nalish tashkil etish maqsadida korxona tomonidan 2021-yil 11-iyulda avtombilni tekinga olish to‘g‘risidagi shartnomani imzolandi. Avtombil 2021-yil 25-iyulda korxona tomonidan kirim qilib olindi. Ommaviy axborot vositalarida chop etilgan ma’lumotlarga qaraganda, kirim qilish sanasida ishlab chiqarish binosini bozor bahosi 160 000 000 so‘mni tashkil qilgan.

Tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan avtombilni kirim qilinishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 0160 «Transport vositalari» schyoti *160 000 000 so‘m;*
kredit 8530 «Tekinga olingan mulk» schyoti *160 000 000 so‘m.*

2.7. Majburiyatlari umumiy summada ifodalangan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati

Majburiyatlari umumiy summada ifodalangan mustaqil obyektlarga ega asosiy vositalar bo‘yicha boshlang‘ich qiymat mazkur summani alohida obyektning joriy qiymatiga mutanosib (proportsional) ravishda taqsimlagan holda aniqlanadi.

Bu yerda, agar korxona bitta kelishilgan qiymatga buxgalteriya hisobida alohida - alohida obyekt sifatida identifikatsiya qilinadigan bir nechta guruh asosiy vositalarni xarid qilsa, u holda bitta umumiy summaga xarid qilingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati, ya’ni har biri asosiy vositani kirim qilinishi lozim bo‘lgan qiymati har bir asosiy vositaning bozor (joriy) qiymatining xarid qilingan asosiy vositalarning umumiy bozor qiymatidagi ulushidan kelib chiqib aniqlanishi nazarda tutilgan.

Bitta umumiy summaga xarid qilingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini shakllanishi va ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. 2021-yilning 20-iyulda korxona tomonidan umumiy qiymati 450 000 000 so‘m bo‘lgan mulk majmuasini xarid qilish bo‘yicha shartnoma imzolandi. Mulk majmuasi quyidagilardan iborat: texnik xizmat ko‘rsatiladigan ishlab chiqarish binosi, avtobus, kompyuter majmuasi va ofis mebellari. Xarid bo‘yicha barcha summa 2021-yilning 25-iyulda to‘langan. Ro‘yxatdan o‘tkazish, davlat bojini to‘lash, brokerlik mukofoti bilan bog‘liq xarajatlar, shuningdek aktivni ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog‘liq xarajatlar 50 000 000 so‘mni tashkil qilgan, shu jumladan xarid qilingan mulkni baholash xarajatlari ham. Asosiy vositalarni bozor bahosini aniqlashni amalga oshirgan baholovchi tashkilotning xulosasiga muvofiq har bir asosiy vosita quyidagicha baholangan:

Ishlab chiqarish binosi – 280 000 000 so‘m;
Avtobus – 190 000 000 so‘m;
Kompyuterlar majmuasi – 30 000 000 so‘m;
Ofis mebellari – 20 000 000 sum.

Baholovchi tashkilotning xulosasidan kelib chiqib har bir asosiy vositaning bozor qiymatini xarid qilingan asosiy vositalarning umumiy bozor qiymatidagi ulushini qiyinchiliksiz aniqlash mumkin va bu quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Asosiy vositalar	**Bozor qiymati (so‘m)**	**Ulushi (%)**	**Hisoblash**
Ishlab chiqarish binosi	280 000 000	53,8	280 000 000 / 520 000 000 x 100
Avtobus	190 000 000	36,5	190 000 000 / 520 000 000 x 100
Kompyuterlar majmuasi	30 000 000	5,8	30 000 000 / 520 000 000 x 100
Ofis mebellari	20 000 000	3,8	20 000 000 / 520 000 000 x 100
Jami:	**520 000 000**		

Yuqorida aytib o‘tilgan mulk majmuasini xarid qilish va uni ishchi holatiga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar summasi 500 000 000 so‘m (450 000 000 + 50 000 000) ni tashkil etganligi tufayli, xarid qilingan asosiy vositalarning har birinng boshlang‘ich qiymati quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Asosiy vositalar	Boshlang‘ich qiymat	Ulushi (%)	Raschet
Ishlab chiqarish binosi	269 000 000	53,8	500 000 000 x 53,8 / 100
Avtobus	182 500 000	36,5	500 000 000 x 36,5 / 100
Kompyuterlar majmuasi	29 000 000	5,8	500 000 000 x 5,8 / 100
Ofis mebellari	19 500 000	3,8	500 000 000 x 3,8 / 100
Jami:	**500 000 000**		

Mulk majmuasini xarid qilish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- asosiy vositalarni xarid qilishning umumiy summasiga:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 450 000 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 450 000 000 so‘m;

- xarid qilingan asosiy vositalarni bo‘yicha qarzlari qoplanganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 450 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 450 000 000 so‘m;

- asosiy vositalarni xarid qilish va ularni ishchi holatiga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar summasiga:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 50 000 000 so‘m;
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 50 000 000 so‘m;

- xarid qilingan asosiy vositalarni kirim qilish (foydalanishga berish):

debet 0120 «Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar» schyoti 269 000 000 so‘m;
debet 0140 «Mebel va ofis jihozlari» schyoti 182 500 000 so‘m;
debet 0150 «Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi» schyoti 29 000 000 so‘m;
debet 0160 «Transport vositalari» schyoti 182 500 000 so‘m;
kredit 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 500 000 000 so‘m.

Mol yetkazib beruvchilardan kelib tushgan asosiy vositalarni qabul qilishda aniqlangan kamomad va yo‘qotishlar, shuningdek ularning shartnomada nazarda tutilgandan yuqori kamomadi yoki buzilishi 4860 «Da’volar bo‘yicha olinadigan schyotlar» schyotining debetida hisobga olinadi. Yo‘qotishlarning aybdorlariga da’vo taqdim etiladi va agar ular da’voni qanotlantirmasalar xo‘jalik sudiga da’vo arizasi bilan murojaat qilinadi. Sud tomonidan yuqoridagi yo‘qotishlar summasini aybdorlardan undirish rad etilgan hollarda, bunday operatsiyalar buxgalteriya hisobida 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotining debeti va 4860 «Da’volar bo‘yicha olinadigan schyotlar» schyotining kredit bo‘yicha yozuv bilan aks ettiriladi.

Asosiy vositalarni moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha olinishi natijasida korxonaga kelib tushganda balansga qabul qilish va buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalarining hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Asosiy vositalarni ayirboshlash natijasida korxonaga kelib tushganda balansga qabul qilishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi 9.4. «Asosiy vositalarni ayirboshlash natijasida balansdan chiqarish» da ko‘ramiz.

Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan ortiqcha (hisobga olinmagan) asosiy vositalarni balansga qabul qilishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini mazkur bobning 8-§ «Asosiy vositalarning inventarizatsiyasi» da ko‘rib o‘tamiz.

Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobiga qabul qilingan qiymati O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va 5-son BHMS da belgilangan holatlardan tashqari hollarda o‘zgartirilmaydi. Buxgalteriya hisobiga qabul qilingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini o‘zgartirishga tegishli asosiy vositalar qo‘shimcha qurilgan, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlangan, rekonstruksiya qilingan, modernizatsiya qilingan, texnik qayta qurollantirilgan, qisman tugatilgan va ular qayta baholangan holatlarda ruxsat etiladi.

3-§. Asosiy vositalarga o‘tkaziladigan kapital qo‘yilmalar

Asosiy vositalarga o‘tkaziladigan kapital qo‘yilmalar asosiy vositalardan foydalanishdan kelgusida iqtisodiy foyda olishni oshirish shartlarida ularning boshlang‘ich qiymatini oshiradi. Kelgusida olinadigan iqtisodiy foydani oshirmaydigan boshqa barcha xarajatlar ular amalga oshirilgan davrdagi davr xarajatlari sifatida tan olinishi lozim.

Qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, modernizatsiya qilish ishlariga asosiy vositalarning texnologik yoki xizmat mo‘ljalining o‘zgarishi, oshirilgan ishlar ko‘lami va sifatni yanada yaxshilashga doir boshqa holatlar tufayli qilinishi lozim bo‘lgan ishlar kiritiladi. Ya’ni asosiy vositalar bilan bog‘liq keyingi xarajatlar mazkur asosiy vositalarni balansga birlamchi qabul qilinganda aniqlangan uning boshlang‘ich hisoblab chiqilgan ishlab chiqarish samaradorligi me’yorlarini yoki foydali xizmat muddatini salmoqli ko‘paytirib asosiy vositalarni holatini yaxshilaganda aktiv sifatida (ya’ni asosiy vositalarni boshlang‘ich qiymati ko‘payishi) tan olinadi.

Odatda rekonstruksiya qilishda ishlab chiqarishni takomillashtirladi va uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan hamda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, mahsulot (ishlar, xizmatlar) sifatini yaxshilash va nomenklaturasini o‘zgartirish maqsadlarida asosiy vositalarni rekonstruksiya qilish loyihasi bo‘yicha amalga oshiriladigan mavjud asosiy vositalarni qayta quriladi. Texnik qayta qurollantirish deganda ilg‘or texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ma’nan va jismonan eskirgan uskunalarni zamonaviylashtirish va ularni yangilari, unumdorligi yanada yuqori bo‘lganlari bilan almashtirish asosida asosiy vositalar va ularning ayrim qismlarining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi.

Yuqorida aytib o‘tkanimizdek asosiy vositalarni qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirishga doir xarajatlar, ular amalga oshirilgan keyin asosiy vositalarning faoliyat yuritishining qabul qilingan boshlang‘ich me’yoriy ko‘rsatkichlari (foydali ishlatish muddati, quvvati, qo‘llash sifati va boshqalar) yaxshilanganligi (oshganligi) sababli, ular mos ravishda bunday asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini oshiradi.

Asosiy vositalarni qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirishda amalga oshiriladigan xarajatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish kapital quyilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800) da amalga oshiriladi va ularni amalga oshirish jarayoni tugagandan keyin kapital quyilmalarni hisobga oluvchi schyotlari (0800) ning kreditidan asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100) bilan bog‘langan holda hisobdan chiqariladi.

Asosiy vositalarni qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish jarayoni nazoratini tashkil etish maqsadida ushbu asosiy vositalar bo‘yicha inventar kartochkasini «Qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirishdagi asosiy vositalar» guruhiga o‘tkazib qo‘yish tavsiya etiladi. Asosiy vositlar foydalanishga kelib tushganda inventar kartochkaga tegishli o‘tkazib qo‘yish amalga oshiriladi.

Agar asosiy vositalarning qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish natijasida uning boshlang‘ich qiymatini ko‘paytirish to‘g‘risida qaror qabul qilinsa, u holda inventar kartochkaning ma’lumotlariga tuzatishlar kiritiladi. Ko‘rsatilgan inventar kartochkada tuzatishni aks ettirish qiyin bo‘lsa, u holda qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilishni tavsiflovchi yangi ko‘rsatkichlarni aks ettrishi bilan o‘rniga yangi inventar kartochka (oldin berilgan inventar raqamni saqlagan holda) ochiladi.

Asosiy vositalarni qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta qurollantirish xarajatlari summasi asosiy vositalarni qiymatini ko‘paytiruvchi kapital qo‘yilmalar sifatida buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonada mavjud dastgohni 24 000 000 so‘mlik modernizatsiya qilish amalga oshirilgan. Dastgohni modernizatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat: ehtiyot qismlar 14 000 000 so‘m, yoqilg‘i - moylash materiallari 1 600 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash 6 000 000 so‘m, ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasi 1 000 000 so‘m va boshqa xarajatlar 1 400 000 so‘m.

Dastgohni modernizatsiya qilish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohni modernizatsiya qilish amalga oshirilganda:

debet 0890 «Boshqa kapital qo‘yilmalar» schyoti *24 000 000 so‘m;*
kredit 1030 «Yoqilg‘ilar» schyoti *1 600 000 so‘m;*
kredit 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti *14 000 000 so‘m;*
kredit 1090 «Boshqa materiallar» schyoti *1 400 000 so‘m;*
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti *6 000 000 so‘m;*
kredit 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti *1 000 000 so‘m.*

- Dastgohni modernizatsiya qilish bo‘yicha kapital qo‘yilmalar asosiy vositalar tarkibiga o‘tkazilganda:

debet 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti *24 000 000 so‘m;*
kredit 0890 «Boshqa kapital qo‘yilmalar» schyoti *24 000 000 so‘m.*

Korxonaning yerni tubdan yaxshilash (quritish, sug‘orish va boshqa meliorativ ishlar) ga kapital qo‘yilmalari har yili butun ishlar majmuasi yakunlangan sanadan qat’i nazar, hisobot yilida foydalanishga qabul qilingan maydonlarga tegishli xarajatlar summasida asosiy vositalar

tarkibiga kiritiladi. Amalga oshirilgan xarajatlar summasiga 0111 «Yerni obodonlashtirish» schyotining debeti va 0850 «Yerni obodonlashtirishga kapital qo‘yilmalar» schyotining krediti bo‘yicha yozuvlar amalga oshiriladi. SHuningdek korxonani yerni tubdan yaxshilashga kapital qo‘yilmalarini hisobi bo‘yicha inventar kartochkasiga keyinchalik asosiy vositalarni boshlang‘ich qiymatini ko‘paytirish bilan tegishli yozuvlar qilinadi.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga doir kapital tusdagi tugallangan ishlar bo‘yicha xarajatlar 0860 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga kapital quyilmalar» schyotining kreditidan 0112 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish» schyotining debetiga hisobdan chiqariladi. Amalga oshirilgan xarajatlar summasiga ijarachi tomonidan alohida inventar obyekti sifatida alohida inventar kartochkasi ochiladi.

Operativ ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga doir kapital ko‘rinishidagi tugallangan ishlar bo‘yicha xarajatlar 0890 «Boshqa kapital quyilmalar» schyotining kreditidan 9220 «Boshqa aktivlarni chiqib ketishi» schyotining debeti bilan bog‘langan holda hisobdan chiqariladi. Agar ijaraga beruvchi tomonidan xarajatlar qoplab berilsa, u holda xarajatlar 9220 «Boshqa aktivlarni chiqib ketishi» schyoti kreditidan 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyotining debeti bilan bog‘langan holda hisobdan chiqariladi. Agar ijaraga beruvchi tomonidan xarajatlar qoplab berilmasa, u holda xarajatlar 9220 «Boshqa aktivlarni chiqib ketishi» schyoti kreditidan 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotining debeti bilan bog‘langan holda hisobdan chiqariladi.

Moliyaviy ijara (lizing) va operativ ijara shartnomalari bo‘yicha olingan asosiy vositalarni qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirishda amalga oshiriladigan xarajatlarni ularning boshlang‘ich qiymatiga olib borish va buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalarining hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

4-§. Asosiy vositalarni qayta baholash

Korxonalarni iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun ularni asosiy vositalar bilan ta’minlash va ularni tarkibini takomillashtirish hamda harakatdagi asosiy vositalarni o‘z vaqtida yangilash, shuningdek ularni qayta tiklashni qat’iy va tenglashtirilgan darajasini ta’minlash muhim rol o‘ynaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga tadbiq etish va ular asosida amaldagi ishlab chiqarish vositalarini yangilashni tezlashtirish muammosi O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy siyosatida markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. U korxonalarni yanada tezroq ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirishga, ishlab chiqarish jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish imkoniyatlarini beradigan mashina va asbob-uskunalarni yaratish hamda ishlab chiqarishga qo‘l mehnatini kamaytirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash, uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish resurlarini iqtisod qilishga yo‘naltiradi.

Korxonaning asosiy vositalari qiymatini amaldagi narxlar darajasiga muvofiq keltirish maqsadida ularni qayta baholash amalga oshiriladi. Asosiy vositalarni qayta baholash deganda asosiy vositalarning tiklash qiymatini hozirgi bozor narxlari darajasiga moslash maqsadida ularni vaqti-vaqti bilan aniqlashtirish tushuniladi. Amaliyotda asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari bo‘yicha qayta baholanishi (shu jumladan vaqti-vaqti bilan) mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 30-dekabrdagi 455-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2003-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida» gi qaroriga muvofiq 2003-yilning 1-yanvaridan boshlab mulkchilik shakli va idoraviy bo‘ysunishidan qat’i nazar barcha korxonalari, tashkilotlari va muassasalar har yili 1-yanvar holatiga asosiy vositalarni qayta baholash tartibi kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida» gi qarorining 6-bandiga muvofiq 2014-yilning 1-yanvaridan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun asosiy vositalarni har yili majburiy qayta baholash bekor qilinib, uni har uch yilda bir marta o‘tkazish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi PQ-4938-sonli “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining 9-bandiga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan boshlab barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun asosiy fondlarning har yillik, mikrofirma va kichik korxonalar uchun 3 yillik majburiy qayta baholash tartibi bekor qilindi.

Asosiy vositalar qayta baholash natijasida hisob va hisobotda joriy qiymat bo‘yicha aks ettiriladi. Joriy qiymat deganda ma’lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo‘yicha asosiy vositalarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o‘rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lgan summasi tushuniladi.

Qayta baholash paytida asosiy vositalarning to‘liq tiklash qiymati aniqlanadi. Asosiy vositalarning to‘liq tiklash qiymati deganda asosiy vositalarni xuddi shunday yangi asosiy vositalarga qayta baholash sanasida mavjud bo‘lgan bozor narxlari va tariflari bo‘yicha to‘liq almashtirish shartida qilinishi lozim bo‘lgan xarajatlarning to‘liq qiymati tushuniladi. Bunda asosiy vositalarni xarid qilish (qurish), tashish, o‘rnatish (montaj qilish) xarajatlari, import qilinadigan asosiy vositalar uchun esa bojxona to‘lovlari va h.k.lar ham xarajatlar tarkibida hisobga olinadi.

Ma’naviy eskirgan asosiy vositalarning to‘liq tiklash qiymati ham ularni tayyorlashga qayta baholash sanasida mavjud bo‘lgan narxlar va tariflar bo‘yicha aniqlanadigan mavjud xarajatlar asosida belgilanadi. Bunda asosiy vositalarning ma’naviy eskirishi tegishli narxlar va tariflarning o‘zgarish darajalari va sur’atlarida aks etishi hisobga olinadi.

Ishlab chiqarishdan olingan, hozirgi sharoitda ularning aniq nusxasini tayyorlash narxlari va xarajatlarini aniqlash amalda mumkin bo‘lmagan asosiy vositalarning to‘liq tiklanish qiymati aniqlanayotganda ularning qiymati ilgari chiqarilgan va hozirgi asosiy vositalarning eng muhim foydalanish tavsiflari nisbati bo‘yicha tuzatilgan, funktsional jihatdan xuddi shunday chiqarilayotgan asosiy vositalarning to‘liq tiklanish qiymati asosida o‘rnini bosish qiymati sifatida aniqlanadi.

Asosiy vositalarni qayta baholashni o‘tkazish maqsadida korxona qayta baholanishi kerak bo‘lgan asosiy vositalarning ro‘yxatini tuzadi. Ro‘yxatda asosiy vositalar to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlarni ko‘rsatib o‘tish tavsiya etiladi: aniq nomi, xarid qilish, qurish sanasi; asosiy vositalarni buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasi.

Asosiy vositalarni qayta baholash, oldingi qayta baholash natijasida olingan asosiy vositalarning qayta tiklash qiymatidan, yil davomida kelib tushgan asosiy vositalar bo‘yicha esa – hisobga qabul qilingan qiymatidan amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarning to‘liq tiklash qiymati, korxonaning xohishiga qarab, alohida asosiy vositalarning qiymatini baholanayotgan asosiy vositalarga aynan o‘xshash yangi asosiy vositalarga

doir hujjatlarga asoslanib tasdiqlangan va qayta baholash o‘tkazilayotgan sanada shakllangan bozor narxlari bo‘yicha ***to‘g‘ridan-to‘g‘ri qayta hisoblash yo‘li bilan (to‘g‘ridan - to‘g‘ri qayta baholash usuli)*** yoki asosiy vositalar turi bo‘yicha va ularning xarid qilinganlik davriga bog‘liq bo‘lgan asosiy vositalar qiymati o‘zgarishining tabaqalashtirilgan indekslarini qo‘llagan holda alohida asosiy vositalarning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatini ***indekslash yo‘li bilan (indeks usuli)*** aniqlanadi. Bunda bir turdagi asosiy vositalar (markalari, xillari va h.k.) bo‘yicha yagona usul qo‘llaniladi.

Korxona qayta baholashni mustaqil ravishda yoki qonunchilikka muvofiq baholash faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lgan ekspert mutaxassislarni jalb etgan holda amalga oshiradi.

Indekslash yo‘li bilan asosiy vositalarni qayta baholashda, buxgalteriya hisobida qayta baholashni o‘tkazish sanasidagi holat bo‘yicha qayd etilgan asosiy vositalar (shu jumladan ularga doir eskirish to‘la hisoblab yozilgan asosiy vositalar)ning eskirish summasi ularni tiklanish qiymatiga qayta hisoblashda asosiy vositalar qiymatini o‘zgartirishning tegishli indekslariga ko‘paytirilishi kerak. Asosiy vositalarni to‘g‘ridan - to‘g‘ri qayta baholash usuli bilan qayta baholashda buxgalteriya hisobida qayd etilgan eskirish summasi qayta baholashdan keyingi tiklanish qiymatining qayta baholashgacha bo‘lgan qiymatga nisbati bilan hisoblab chiqariladigan qayta hisoblash koeffitsienti bo‘yicha indekslanishi kerak.

Oldingi yillik qayta baholashdan keyin amalga oshirilgan, ilgariroq xususiylashtirish (davlat tasarrufidan chiqarish, qayta tashkil etish) davomida qayta baholangan mol-mulk bo‘yicha, mol-mulkni xususiylashtirish jarayonida hosil bo‘lgan gudvill summasi (firma bahosi) qayta baholash sanasidagi holat bo‘yicha qayta baholashga doir rezerv summasi hisobiga kamaytiriladi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri qayta baholash usulini qo‘llagan holda asosiy vositalarning to‘liq tiklash qiymatini hujjatlar asosida tasdiqlash uchun korxona, xohishiga ko‘ra, quyidagilardan foydalanishi mumkin:

- tayyorlovchi korxonalar va ularning rasmiy dilerlari, tovar-xomashyo birjalari, ko‘chmas mulk birjalaridan yozma shaklda olingan xuddi shunday mahsulotga doir narxlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

- qayta baholashni o‘tkazish sanasiga va asosiy vositalarni xarid qilish sanasiga Markaziy bank kurslarining nisbati sifatida belgilanadigan hisob-kitob koeffitsientini qo‘llagan holda xarid qilish sanasiga EAVda asosiy vositalarning qiymati to‘g‘risidagi (tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lganida) ma’lumotlar;

- tegishli davlat idoralarida mavjud bo‘lgan narxlar darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

- qayta baholashni o‘tkazish davrida ommaviy axborot vositalari va maxsus adabiyotlarda e’lon qilingan narxlar darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

- asosiy vositalar qiymati to‘g‘risidagi baholovchining hisoboti.

Asosiy vositalarni qayta baholash natijalari moliyaviy hisobotda asosiy vositalarni qayta baholash amalga oshirilgan joriy davr uchun, ya’ni oylik hisobot tuzilganda – yanvar oyi hisobotida, choraklik hisoboti tuzilganda – birinchi chorak hisobotida, yillik hisobot tuzilganda – kalendar yili hisobotida aks ettiriladi.

Asosiy vositalarni qayta baholash natijalari moliyaviy hisobotda asosiy vositalarni qayta baholash o‘tkazilgan joriy davrda aks ettiriladi. Qayta baholash natijalari avvalgi hisobot yilidagi moliyaviy hisobot ma’lumotlariga kiritilmaydi hamda hisobot yili boshida moliyaviy hisobot ma’lumotlarini shakllantirishda qabul qilinadi. Bunda o‘tgan yil yakuni va hisobot yili boshidagi ma’lumotlarning mos kelmasligi hisobot yilining dastlabki sanasidagi holatga ko‘ra o‘tkazilgan asosiy vositalarni qayta baholash natijasi sifatida tushuntiriladi hamda joriy davrdagi moliyaviy

hisobotga tushuntirish xatida bayon etiladi. «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «Hisobot yili boshiga» ustunida asosiy vositalarning qayta baholangan qiymati ko‘rsatiladi.

Qayta baholash natijasida asosiy vositalar qo‘shimcha baholash summasi rezerv kapitali tarkibidagi 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyotiga hisobga kiritiladi. Qayta baholash natijasida asosiy vositalar narxining arzonlashgan (kamaygan) summasi avvalgi hisobot davrlarida o‘tkazilgan ushbu asosiy vositalarni qo‘shimcha baholash summalari doirasida 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyotiga rezerv kapitalining kamayishiga kiritiladi.

Asosiy vosita bo‘yicha avvalgi qayta baholash (qo‘shimcha baholash) summasidan oshgan narxini arzonlashgan (kamaygan) summasi xarajat sifatida tan olinadi va 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotida aks ettiriladi.

Asosiy vositalarni qayta baholash natijasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- asosiy vositalarni qo‘shimcha baholash summasiga:

debet asosiy vositalar (0100), moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar (0300), kapital qo‘yilmalar (0800), o‘rnatiladigan asbob-uskunalarni (0700) hisobga olish schyotlar - asosiy vositalarning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatini qo‘shimcha baholash summasiga;

kredit asosiy vositalar eskirishini hisobga olish schyotlari (0200) - asosiy vositalarning va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning jamlangan eskirishini qo‘shimcha baholash summasiga;

kredit 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti - asosiy vositaning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatini qo‘shimcha baholash va jamlangan eskirishi summalari o‘rtasidagi farq summasiga;

- asosiy vositalarni arzonlashtirish summasiga:

debet asosiy vositalar eskirishini hisobga olish schyotlari (0200) - asosiy vositalar, shuningdek moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar jamlangan eskirishini arzonlashtirish summasiga;

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti - ilgari qayta baholangan asosiy vositalarning qo‘shimcha baholash summasi yoki avvalgi qo‘shimcha baholashlar summalarining asosiy vositalar ushbu asosiy vositalarni avvalgi arzonlashtirishlar summasidan oshadigan summasi doirasida arzonlashtirish summasiga;

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti - ushbu asosiy vositalarni arzonlashtirishning ilgari qayta baholangan asosiy vositalar mazkur asosiy vositalarni qo‘shimcha baholash summasidan yoki avvalgi qo‘shimcha baholashlar summalarining asosiy vositalar ushbu asosiy vositalarni avvalgi arzonlashtirishlar summasidan oshadigan summasiga (ya’ni arzonlashtirish summasining, ya’ni mazkur asosiy vositalar bo‘yicha 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyotida hisobga olinadigan qoldiq summasidan oshishiga);

kredit asosiy vositalarni (0100), moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar (0300), kapital qo‘yilmalar (0800), o‘rnatiladigan asbob-uskunalarni (0700) hisobga olish schyotlari - asosiy vositalarning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatining arzonlashtirish summasiga.

Asosiy vositalarni qayta baholashni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona tomonidan foydalanishning uchinchi yilini boshida amalga oshirilgan dastgohni qayta baholashni ko‘rib chiqamiz. Foydali xizmat muddati 5 yil va eskirish teng maromli usulda hisoblanadi. Oldingi qayta baholash 1,05 koeffitsient bilan amalga oshirilgan. Buxgalteriya hisobida quyidagi ma’lumotlar mavjud:

1. Dastgohning boshlang‘ich qiymati 147 000 000 so‘m;
(147 000 000 so‘m = 140 000 000 so‘m x 1,05).
2. Dastgoh bo‘yicha jamlangan eskirish summasi uchinchi yilning 1-yanvar holatiga 58 800 000 so‘m;
(58 800 000 so‘m = 29 400 000 so‘m + 29 400 000 so‘m);
bu yerda:
- birinchi yil uchun jamlangan eskirish 28 000 000 so‘m;
(28 000 000 so‘m = 140 000 000 so‘m / 5 yil);
- qayta baholashni hisobga olgan holda birinchi yil uchun jamlangan eskirish 2 940 000 so‘m;
(29 400 000 so‘m = 28 000 000 so‘m x 1,05);
- ikkinchi yil uchun jamlangan eskirish 29 400 000 so‘m;
(29 400 000 so‘m = 147 000 000 so‘m / 5 yil).
3. Dastgohning qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi 5 600 000 so‘m;
(5 600 000 so‘m = 7 000 000 so‘m – 1 400 000 so‘m);
(7 000 000 so‘m = 147 000 000 so‘m - 140 000 000 so‘m);
(1 400 000 so‘m = 29 400 000 so‘m - 28 000 000 so‘m).

Qayta baholash natijalari (bahoni o‘sishi yoki pasayishi) dan kelib chiqib uchta holatni ko‘rib chiqamiz.

1- holat:

Dastgohni 1,10 koeffitsient bilan qayta baholash amalga oshirildi.

Dastgohni qayta baholash (bahoni o‘sishi) korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohni boshlang‘ich qiymatini ko‘payishi (bahoni o‘sishi):

debet 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti 14 700 000 so‘m;
kredit 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 14 700 000 so‘m;
(14 700 000 so‘m = 147 000 000 x 10 / 100);

- dastgohni eskirish summasini ko‘payishi (bahoni o‘sishi):

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 5 880 000 so‘m;
kredit 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi» schyoti 5 880 000 so‘m;
(5 880 000 so‘m = 58 800 000 x 10 / 100).

2-holat:

Dastgohni 0,97 koeffitsient bilan qayta baholash amalga oshirildi.

Dastgohni qayta baholash (bahoni pasayishi) korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohni boshlang‘ich qiymatini kamayishi (bahoni pasayishi):

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 4 410 000 so‘m;
kredit 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti 4 410 000 so‘m;
(4 410 000 so‘m = 147 000 000 x 3 / 100);

- dastgohni eskirish summasini kamayishi (bahoni pasayishi):

debet 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi» schyoti 1 764 000 so‘m;
kredit 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash

bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 1 764 000 so‘m;

(1 764 000 so‘m = 58 800 000 x 3 / 100).

3-holat:

Dastgohni 0,92 koeffitsient bilan qayta baholash amalga oshirildi.

Dastgohni qayta baholash (bahoni pasayishi) korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning
eskirishi» schyoti 4 704 000 so‘m;
debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash
bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 5 600 000 so‘m;
debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 1 456 000 sum;
kredit 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti 11 760 000 so‘m;

(4 704 000 so‘m = 58 800 000 x 8 / 100);

(10 304 000 so‘m = 5 600 000 so‘m + 4 704 000 so‘m);

(1 456 000 so‘m = 11 760 000 so‘m - 10 304 000 so‘m);

(11 760 000 so‘m = 147 000 000 x 8 / 100).

5-§. Asosiy vositalarni kelib tushishi va ichki harakatini boshlang‘ich hisobi

Korxonalarda asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini yuritish uchun asos bo‘lib, asosiy vositalar bo‘yicha operatsiyalarning haqiqatda amalga oshirilganligini qayd etadigan va ularni amalga oshirish uchun farmoyish beradigan boshlang‘ich hisob hujjatlari hisoblanadi. Korxonalarda boshlang‘ich hisob hujjatlari xo‘jalik operatsiyalari amalga oshirilgan paytda yoki ular sodir etilgandan so‘ng darhol (kechiktirmasdan) tuziladi.

Xarid qilingan inventar obyektlarni asosiy vositalar tarkibiga qo‘shish va ularni foydalanishga kiritish, shuningdek inventar obyektlarni asosiy vositlar tarkibidan chiqib ketishini (tugatish bundan mustasno) hisobga olishda schyot-fakturalar asosiy boshlang‘ich hujjat bo‘lib hisoblanadi.

Har bir inventar obyektlarni asosiy vositalar tarkibiga qo‘shish va ularni foydalanishga kiritish, shuningdek har bir inventar obyektlarni asosiy vositlar tarkibidan chiqib ketishini (tugatish bundan mustasno) hisobga olish uchun quyidagi hujjatlar tavsiya etiladi:

Asosiy vositalarni (bino, inshootlardan tashqari) qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (AV-1 namunaviy shakl – 1-ilovaga qarang). Bunday hujjat bilan xususan o‘rnatish yoki yirik hajmdagi yig‘ishni talab qilmaydigan mashina va asbob-uskunalarni, hamda o‘rnatish (yirik hajmdagi yig‘ish) ni talab qiladigan mashina va asbob-uskunalarni foydalanishga kiritish rasmiylashtiriladi. Har bir inventar obyekt bo‘yicha texnik hujjatlar lavozim majburiyatlariga texnik hujjatlarni tezkor hisobini yuritish va saqlanishini nazorat qilish kiradigan funktsional xizmatlar (bosh mexanik, bosh energetik, va h.k.lar) orqali foydalanish joyiga beriladi.

Asosiy vositalarni (bino, inshootlar uchun) qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (AV-1a namunaviy shakl – 2-ilovaga qarang).

Yuqorida sanab o‘tilgan dalolatnomalar korxonalarda yoki korxonalar o‘rtasida quyidagi hollarda kelib tushgan inventar obyektlarni asosiy vositalar tarkibiga qo‘shish va ularni foydalanishga kiritishni hisobga olish (o‘rnatishni talab qilmaydigan asosiy vositalar uchun – xarid qilingan vaqtda, o‘rnatishni talab qiladigan asosiy vositalar uchun – ularni o‘rnatishdan qabul qilingandan va foydalanishga topshirilgandan keyin) uchun asosiy vositalarni qabul qilish,

qabul qilish-topshirish operatsiyalarni rasmiylashtirish va hisobga olish uchun foydalaniladi:

- oldi-sotdi, mol-mulkni ayirboshlash, tekinga berish (hadya), moliyaviy ijara, lizing va boshqa shartnomalar bo‘yicha;

- pul mablag‘larini to‘lash, o‘zining ehtiyolari uchun tayyorlash va qurilishi tugallangan binolar (inshootlar, qo‘shimcha qurilgan binolar)ni belgilangan tartibda foydalanishga kiritish;

- boshqa korxonalarga berilgan (sotilgan, ayirboshlangan va boshqalar) da asosiy vositalar tarkibidan chiqib ketishi.

Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish va ularni foydalanishga kiritish amaldagi qonunchilikga muvofiq maxsus tartib bo‘yicha rasmiylashtirilishi kerak bo‘lgan hollar bundan mustasno bo‘lib hisoblanadi.

Dalolatnomalar oluvchi va topshiruvchi korxonalar rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi va uchta nusxada tuziladi. Dalolatnomaga mazkur asosiy vositalarga tegishli texnik hujjatlar ilova qilingan bo‘lishi kerak.

Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi uchta bo‘limdan iborat.

Birinchi bo‘lim berayotgan tomonlarning ma’lumotlariga asoslanib to‘ldiriladi. Foydalanishda bo‘lgan asosiy vositalar bo‘yicha unda asosiy vositalarni foydalanishga kiritilgan sana, foydali ishlatishning haqiqiy muddati, hisoblangan amortizatsiya summasi, qoldiq qiymati ko‘rsatiladi. «Tasdiqlayman» grifli rekvizit ikkala korxona (oluvchi va topshiruvchi) tomonidan inventar obyektlarni asosiy vositalar tarkibiga qo‘shish yoki ularni asosiy vositalar tarkibidan chiqarish (obyektni qabul qilish-topshirish operatsiyalari) maqsadida asosiy vositalarni balansdan - balansga berishda to‘ldiriladi. Asosiy vositalarni sotuvchi korxonadan ulgurji yoki chakana savdo tarmog‘i orqali uni xaridor tomonidan asosiy vosita sifatida foydalanish uchun xarid qilingan hollarda AV-1 namunaviy shakl faqat xaridor tomonidan tuziladi. Bunda sotuvchining rekvizitlari ya’ni «Tasdiqlayman» grifli (shu jumladan «Rahbar imzosi», «M.O‘»i «Sana») chap bloki to‘ldirilmaydi, chunki sotilgan inventar obyekt sotuvchida asosiy vositalar tarkibida hisobga olinmaydi, balki tovar bo‘lib hisoblanadi.

Ikkinchi bo‘limni (dalolatnomaning o‘ziga tegishli nusxasini) faqat asosiy vositalarni oluvchi korxona unda asosiy vositaning boshlang‘ich qiymatini, korxona tomonidan belgilangan foydali ishlatish muddatini, amortizatsiya hisoblash usulini, amortizatsiya ajratmalari me’yorini ko‘rsatish bilan to‘ldiradi.

Uchinchi bo‘lim asosiy vositalarni tavsiflovchi qisqacha ma’lumotlardan iborat.

Korxona rahbari tomonidan tasdiqlangan dalolatnoma texnik hujjatlar birga korxonaning buxgalteriyasiga beriladi. Korxonaning buxgalteriyasi ushbu dalolatnomaga asosan inventar kartochkasi ochadi yoki inventar kartochkaga asosiy vositalarni chiqib ketishi bo‘yicha belgi qo‘yadi. Har bir konkret inventar obyektga tegishli texnik hujjatlar inventar kartochkaga tegishli belgi qo‘yish bilan foydalanish joyiga berilishi mumkin.

Asosiy vositalarni inventar obyektlar bo‘yicha analitik hisobga olish uchun mo‘ljallangan boshlang‘ich hujjatlar bo‘lib, quyidagi shakllardagi inventar kartochkalar hisoblanadi:

- Asosiy vositalarni hisobga olishning inventar kartochkasi – har bir inventar obyekt bo‘yicha yuritiladi (AV-6 namunaviy shakl – 3-ilovaga qarang);

- Asosiy vositalar guruhlarini hisobga olishning inventar kartochkasi – bir birligi uchun bir xil qiymatga ega, foydalanish maqsadi bir xil bo‘lgan bir turdagi obyektlar guruhi bo‘yicha yuritiladi (AV-6a namunaviy shakl – 4-ilovaga qarang);

- Asosiy vositalarni hisobga olishning inventar daftari – foydalanishdagi asosiy vositalarning soni unchalik ko‘p bo‘lmaganda inventar kartochkaning o‘rnini qo‘llanishi mumkin (AV-6b

namunaviy shakl – 5-ilovaga qarang). Odatda inventar daftarni kichik tadbirkorlik subyektlari yuritadi.

Inventar kartochka har bir inventar obyektga ochiladi. Inventar kartochkalar asosiy vositalarni amortizatsiya guruhiga qo‘shilishi tasnifini qo‘llanishiga qarab kartotekalarga, kartotekalarning ichida esa bo‘limlarga, kichik bo‘limlarga, sinflarga va kichik sinflarga – foydalanish joyi bo‘yicha (korxonaning tarkibiy bo‘linmalari bo‘yicha) guruhlanishi mumkin.

Asosiy vositalarning soni katta bo‘lmagan korxonalar asosiy vositalar bo‘yicha hisobga olishni asosiy vositalar to‘g‘risidagi zarur ma’lumotlarni ularning turlari va joylashgan joyi bo‘yicha ko‘rsatish bilan inventar daftarda amalga oshirishi mumkin.

Inventar kartochkani to‘ldirish, asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, asosiy vositalar inventar obyektini texnik pasportlari va ularni xarid qilish, qurish, o‘tkazish va chiqib ketishi bo‘yicha boshqa hujjatlarga asosan amalga oshiriladi. Inventar kartochka (inventar daftar) da quyidagilar keltirilgan bo‘lishi kerak: asosiy vositalar to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar, uning foydali ishlatilish muddati; amortizatsiya hisoblash usullari; amortizatsiya hisoblanmasligi to‘g‘risida belgi (agar joy nazarda tutilgan bo‘lsa); asosiy vositalarning alohida xususiyatlari. Xarid qilishda qiymati chetel valyutasida ifodalangan asosiy vositalar bo‘yicha ma’lumot tartibida uning chetel valyutasidagi shartnoma qiymati ham ko‘rsatiladi.

Asosiy vositalar guruhlarini hisob olishning inventar kartochkasi (AV-6a namunaviy shakl) da yozuvlar to‘g‘ri chiziqli usulda amalga oshiriladi, qisqa tavsif esa mazkur registrda hisobga olinadigan asosiy vositalar guruhi bo‘yicha umumiy holda keltiriladi. Bunda har bir asosiy vositalar guruhlariga alohida inventar raqam beriladi.

Buxgalteriya hisobiga qabul qilingan asosiy vositalarning hamda chiqib ketayotgan asosiy vositlarning inventar kartochkalari oy mobaynida (oy oxirigacha) boshqa asosiy vositalarning inventar kartochkalaridan alohida joyda turishi mumkin.

Barcha inventar kartochkalardagi summalarning umumiy yakuniy summasini, asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100) ning va 0310 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar» schyotining hisobot oyi oxiridagi qoldig‘i bilan buxgalteriya tekshiruvini har oyda o‘tkazish majburiy bo‘lib hisoblanadi.

Agar asosiy vositalarning qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish natijasida uning boshlang‘ich qiymatini ko‘paytirish to‘g‘risida qaror qabul qilinsa, u holda inventar kartochkada asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatiga tuzatishlar aks ettiriladi. Ko‘rsatilgan inventar kartochkada tuzatishni aks ettirish qiyin bo‘lsa, u holda qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilishni tavsiflovchi yangi ko‘rsatkichlarni aks ettrishi bilan o‘rniga yangi inventar kartochka (oldin berilgan inventar raqamni saqlagan holda) ochiladi. Bu asosiy vositalarni qayta baholashga ham tegishlidir.

Asbob-uskunalarni, shu jumladan o‘rnatishni talab qiladiganlarini rasmiylashtirish uchun quyidagi boshlang‘ich hujjatlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Asbob-uskunalarni qabul qilish (kelib tushishi) to‘g‘risidagi dalolatnoma (AV-14 shakl – 6-ilovaga qarang);
- Asbob uskunalarni o‘rnatishga qabul qilish to‘g‘risidagi dalolatnoma (AV-15 shakl – 7-ilovaga qarang);
- Asbob uskunalarda aniqlangan nosozliklar to‘g‘risidagi dalolatnoma (AV-16 shakl – 8-ilovaga qarang).

Asbob-uskunalarni qabul qilish (kelib tushishi) to‘g‘risidagi dalolatnoma (AV-14 shakl) o‘rnatish (yirik hajmli yig‘ish) ni talab qiladigan va talab qilmaydigan hamda keyinchalik

asosiy vositalar sifatida foydalanish uchun xarid qilingan asbob-uskunalarga rasmiylashtiriladi. Dalolatnoma asosiy vositalarni qabul qilish va hisobdan chiqarish uchun tashkil etilgan xo‘jalik ichidagi komissiya tomonidan tuziladi. Belgilangan va foydalanishga tayyorlangan asbob-uskunalarni asosiy vositalar tarkibiga qabul qilish asosiy vositalarni (bino, inshootlardan tashqari) qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (AV-1 namunaviy shakl) bilan rasmiylashtiriladi. Asbob uskunalarni o‘rnatish (yirik hajmdagi yig‘ish) ga pudratchiga topshirilganda uning vakili asbob-uskunalarni mas’ul saqlashga qabul qilinganligini o‘zining imzosi bilan tasdiqlashi kerak. Ko‘rsatilgan mol-mulkni mol yetkazib beruvchilardan qabul qilish jarayonida hisob-kitob va kuzatib boruvchi hujjatlar (texnik pasport, texnik shartlar va h.k.lar) ma’lumotlari bilan ma’lum bir son va sifat jihatdan tafovutlar aniqlanishi mumkim. Asbob-uskunalarni sifat jihatdan qabul qilish imkoniyati mavjud bo‘magan hollarda ularni omborga kelib tushganda tashqaridan ko‘rib chiqish bo‘yicha tuzilgan asbob-uskunalarni qabul qilish (kelib tushishi) to‘g‘risidagi dalolatnoma (AV-14 namunaviy shakl) oldindan birlamchi bo‘lib hisoblanadi. Asbob-uchskunalarni yetkazib beruvchi korxonaning hujjatlardagi ma’lumotlari bilan son va sifat jihatdan tafovutlar, shuningdek sinish va buzilish holatlari belgilangan tartibda tegishli dalolatnomalarda aks ettiriladi.

Asbob uskunalarni o‘rnatishga qabul qilish to‘g‘risidagi dalolatnoma (AV-15 namunaviy shakl) pudratchiga yoki (xo‘jalik usulida) asbob-uskunalarni o‘rnatish (yirik hajmdagi yig‘ish) bo‘yicha ishlarini bajarish uchun berilgan asbob-uskunalarga rasmiylashtiriladi. Asbob uskunalarni o‘rnatish (yirik hajmdagi yig‘ish) ga pudratchiga topshirilganda uning vakili asbob-uskunalarni mas’ul saqlashga qabul qilinganligini bevosita dalolatnomaga o‘zining imzosini qo‘yishi bilan tasdiqlashi kerak. Bundan keyin dalolatnoma buyurmachiga asbob-uskunalarni shartnoma majburiyatlariga muvofiq topshirishni rasmiylashtirish uchun asos bo‘ladi.

Asbob uskunalarda aniqlangan nosozliklar to‘g‘risidagi dalolatnoma (AV-16 namunaviy shakl) asbob-uskunalarni o‘rnatish, sozlash yoki sinash jarayonida, shuning nazorat natijasi bo‘yicha aniqlangan nosozliklar bo‘yicha tuziladi va mol yetkazib beruvchining manziliga da’vo materiallarini yoki da’vo arizasini shakllantirish uchun hujjatlar jildining hujjatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Asosiy vositalar korxona ichida tez-tez bir tarkibiy bo‘linmadan boshqasiga o‘tkazib turiladi. Tarkibiy bo‘linmalarining buxgalteriya hisobida asosiy vositalarni ichki harakati bo‘yicha yozuvlarni aks ettirish uchun asos bo‘lib «Asosiy vositalarni ichki harakati yuk xati» (AV 2-shakl – 9-ilovaga qarang) hisoblanadi.

«Asosiy vositalarni ichki harakati yuk xati» (AV-2 namunaviy shakl) berayotgan bo‘linma tomonidan uch nusxada to‘ldiriladi, oluvchi va topshiruvchi tarkibiy bo‘linmaning mas’ul shaxslari tomonidan imzolanadi. Birinchi nusxa buxgalteriyaga beriladi, ikkinchi nusxa asosiy vositalarni berayotgan bo‘linmaning moddiy javobgar shaxsida qoladi, uchinchi nusxa esa asosiy vositalarni oluvchi bo‘linmaga yo‘naltiriladi.

Asosiy vositalarni o‘tkazilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar korxonaning buxgalteriyasida saqlanadigan mazkur asosiy vositalarga ochilgan inventar kartochkaga kiritiladi.

6-§. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash

Asosiy vositalarni uzoq vaqt davomida natural shaklini saqlagan va qiymatini bir vaqtda o‘zgartirishi bilan ishlashi bog‘liq o‘ziga xos xususiyatlari amortizatsiya miqdorini aniqlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ushbu miqdor asosiy vositalardan foydalanish jarayonida ularning eskirishi yoki boshlang‘ich qiymatini kamayishi miqdorini ko‘rsatadi.

Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash bilan bog‘liq xarajatlar mahsulot (ishlar, xizmatlar) ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar tarkibiga kiradi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib qaraganda iqtisodiyotni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va ularni jahon bozorida raqobatbardoshligi oshirishda asosiy vositalarga amortizatsiya ajratmalarni hisoblashda amortizatsiya usulini to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki asosiy vositalar qiymati odatda amortizatsiyani hisoblash yo‘li bilan qoplanadi. Amortizatsiyalanadigan qiymat butun foydali xizmat muddati mobaynida subyekt xarajatlariga amortizatsiya ajratmalari ko‘rinishida muntazam taqsimlanadi. Bu yerda amortizatsiyalanadigan qiymat deganda moliyaviy hisobotlarda faraz qilinayotgan (baholangan) tugatish qiymatini chegirgan holda ko‘rsatilgan aktivning boshlang‘ich (tiklash) qiymati summasi tushuniladi. Boshlang‘ich qiymati qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish ishlari bo‘yicha xarajatlar summasiga oshirilgan asosiy vositalar uchun amortizatsiyalanadigan qiymati bo‘lib, ushbu ishlar faraz qilinayotgan (baholangan) tugatish qiymatini chiqarib tashlagan holda tugatilganidan so‘ng mazkur asosiy vositalar foydalanishga kiritilgan vaqtda aniqlangan ularning qoldiq (balans) qiymati hisoblanadi.

Tugatish qiymati deganda asosiy vositalarning chiqib ketishi bo‘yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog‘ida olinadigan aktivlarning faraz qilinayotgan summasi tushuniladi. Tugatish qiymati asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymatini hisob-kitob qilishda muhim tarkibiy omil hisoblanadi.

Tugatish qiymati muhim bo‘lmagan hollarda, u amortizatsiyalanadigan qiymatni hisoblab chiqarishda hisobga olinmaydi. Agar tugatish qiymati ahamiyatga ega bo‘lsa, u asosiy vositalarni xarid qilingan sana yoki ularni qayta baholash sanasida belgilanadi. Tugatish qiymati asosiy vositalarning xizmat muddati oxirida tugatish bo‘yicha kutilayotgan xarajatlarga kamaytirilgan bo‘lishi kerak.

Amortizatsiya foydali xizmat muddati mobaynida aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini asosiy vositalarning vazifasidan kelib chiqqan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga yoki davr xarajatlariga muntazam taqsimlash va o‘tkazish ko‘rinishida eskirishning qiymat ifodasi sifatida aniqlanadi.

Shuni ta’kidlash kerakki asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash mazkur asosiy vositalar qabul qilingan oydan keyingi oyning dastlabki sanasidan boshlanadi hamda mazkur asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymati to‘liq qoplangunga qadar yoxud bu asosiy vositalarni balansdan hisobdan chiqarilguncha amalga oshiriladi. O‘z navbatida agar asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash mazkur asosiy vositalarni qabul qilingan oydan keyingi oyning dastlabki sanasidan boshlanadigan bo‘lsa, u holda mazkur

asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash, ushbu asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymati to‘liq qoplangan yoki bu asosiy vositalar balansdan hisobdan chiqarilgan oydan keyingi oyning dastlabki sanasida to‘xtatiladi.

Asosiy vositalarni foydali ishlatish muddati davomida amortizatsiya ajratmalarini hisoblash to‘xtatilmaydi, asosiy vositalarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiya qilishga o‘tkazish, shuningdek ularni butkul to‘xtatish sharti bilan qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish holatlari bundan mustasno.

Asosiy vositalarning texnik darajasi zamonaviy talablarga muvofiq emasligi aniqlanganda yoki 3 oy mobaynida ulardan ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanish zarurati bo‘lmaganda - ularga bo‘lgan talab tiklangungacha yoki yangi mulkdorga sotish davrida, biroq 24 oydan ortiq bo‘lmagan muddatga asosiy vositalar konservatsiya qilinishi mumkin. Bunda, aniq bir texnologik majmuaga kiradigan va (yoki) tugallangan texnologik jarayonga ega bo‘lgan asosiy vositalar konservatsiya qilishga o‘tkazilishi mumkin. Buxgalteriya hisobiga qabul qilingan foydalanilmayotgan asosiy vositalarni konservatsiya qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 16-sentyabrdagi 401-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Foydalanilmayotgan asosiy vositalarni, qurilishi tugallanmagan obyektlarni konservatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»da belgilangan.

Asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash hisobot davridagi korxona faoliyati natijalaridan qat’i nazar amalga oshiriladi va buxgalteriya hisobida u tegishli bo‘lgan hisobot davrida aks ettiriladi.

Quyidagi asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblanmaydi:

- yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);
- mahsuldor chorva mollari;
- axborot-kutubxona fondi;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o‘tkazilgan asosiy vositalar;
- muzey ashyolari;
- moddiy va madaniy meros obyektlari;
- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, yo‘laklar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarrufida bo‘lgan obodonlashtirish inshootlari;
- to‘liq amortizatsiyalangan asosiy vositalar.

Chunki, yuqorida keltirilgan asosiy vositalar foydali xizmat muddatiga ega emas va har doim tegishli foydalanish maqsadi bo‘yicha foydalanilishi mumkin bo‘lganligi uchun shunday hisoblanadi.

Asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya hisoblash usullari

Asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya quyidagi usullardan birini qo‘llash orqali hisoblanishi mumkin:

- amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash;
- bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda amortizatsiyani hisoblash (ishlab chiqarish usuli).
- ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli;
- yillar summasi usuli (kumulyativ usul).

Asosiy vositalardan intensiv foydalanilganda, shuningdek ilmiy-texnikaviy jarayonning katta ta’sirida asosiy vositalar amortizatsiyasi ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni

kamaytirish usuli va yillar summasi usuli (kumulyativ usul) da hisoblanadigan jadallashtirilgan amortizatsiya yo‘li bilan ifodalanadi.

Hisobot yili davomida asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalari qo‘llaniladigan hisoblash usulidan qat’i nazar (amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usulidan tashqari), yillik summaning 1/12 miqdorida har oyda hisoblanadi.

Amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash usuli

Amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash usulining mohiyati shundaki, bunda amortizatsiya teng maromda, asosiy vositalarni foydali ishlatish muddati mobaynida ularning amortizatsiyalanadigan qiymatidan kelib chiqqan holda teng ulushlarda hisoblanadi. Mazkur usulga muvofiq asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymati uning xizmat muddati davomida tegishli xarajatlarga teng maromda hisobdan chiqariladi (taqsimlanadi). Usul amortizatsiya me’yori foydali xizmat muddatining davom etishiga muddatiga bog‘liqligiga asoslangan. Har bir davr uchun amortizatsiya ajratmalari summasi amortizatsiyalanadigan qiymatni asosiy vositalardan foydalanilgan hisobot davrlari soniga bo‘lish yo‘li bilan hisoblanadi.

Amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash usulida amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymati va foydali ishlatish muddatidan kelib chiqib belgilanadi.

Teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash usuli bo‘yicha amortizatsiya hisoblash tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Dastgohning boshlang‘ich qiymati 255 000 000 so‘mni, foydalanish muddati oxiridagi qoldiq (tugatish) qiymati 5 000 000 so‘m, foydali xizmat muddati 5 yilni tashkil etadi. Hisob siyosatida amortizatsiya teng maromli usulni qo‘llash bilan hisoblanishi nazarda tutilgan.

Dastgohga amortizatsiya hisoblashda ***birinchi navbatda*** amortizatsiyaning yillik me’yori 20 % (100 % / 5) ni, ***ikkinchi navbatda*** esa amortizatsiyalanadigan qiymat 250 000 000 so‘m (255 000 000 so‘m - 5 000 000 so‘m) ni aniqlaymiz. Foydalanishning ***birinchi yilida*** amortizatsiya ajratmasining yillik summasi dastgohni amortizatsiyalanadigan qiymatidan kelib chiqib 50 000 000 so‘m (250 000 000 so‘m x 20 /100) qilib aniqlanadi va keyingi yillar uchun shu zaylda davom ettiriladi.

Dastgoh bo‘yicha yillik amortizatsiya ajratmalari jadvali

Amortizatsiya ajratmalari yillari	Amortizatsiyala-nadigan qiymat	Yillik amortizatsiya summasi	Jamg‘arilgan amortizatsiya
1-yil	250 000 000	(250 000 000 x 20 / 100) = 50 000 000	50 000 000
2-yil	250 000 000	(250 000 000 x 20 / 100) = 50 000 000	100 000 000
3-yil	250 000 000	(250 000 000 x 20 / 100) = 50 000 000	150 000 000
4-yil	250 000 000	(250 000 000 x 20 / 100) = 50 000 000	200 000 000
5-yil	250 000 000	(250 000 000 x 20 / 100) = 50 000 000	250 000 000

Dastgohdan foydalanish davomida amortizatsiya ajratmalarining oylik summasi amortizatsiya ajratmasining yillik summasining 1/12 miqdorida har oyda 4 166 667 so‘m (50 000 000 so‘m / 12) hisoblanadi.

Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda amortizatsiyani hisoblash (ishlab chiqarish usuli)

Amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usuli har bir muayyan yildagi asosiy vositalarning mahsulotlarini hisobga olishga asoslangan. Mazkur usul bo‘yicha har yillik amortizatsiya hajmini hisob-kitob qilish uchun butun foydali ishlatish muddatidagi umumiy baholangan mahsulotlar yig‘indisini va mazkur muayyan yildagi mahsulotlarni aniqlash lozim. Mahsulot sifatida ishlab chiqariladigan mahsulot birliklari soni, ishlangan soatlar soni, o‘tib bo‘lingan tonna-kilometrlar soni va boshqalar olinishi mumkin.

Amortizatsiyani hisoblashning ishlab chiqarish usulida yillik amortizatsiya ajratmalari summasi hisobot davridagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmining natural ko‘rsatkichi va asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymati hamda asosiy vositalarni butun foydali ishlatish muddatidagi nazarda tutilayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga nisbatan mutanosibligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda ya’ni ishlab chiqarish usulini qo‘llash bilan amortizatsiyani hisoblash tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Yengil avtomobilining kutilayotgan umumiy bosib o‘tadigan yo‘li 800 000 km, boshlang‘ich qiymati 63 000 000 so‘mni, foydalanish muddati oxiridagi qoldiq (tugatish) qiymati 3 000 000 so‘mni tashkil etadi. Hisobot davrida 10 000 km yo‘l bosishi kerak. Hisob siyosatida amortizatsiya ishlab chiqarish usulni qo‘llash bilan hisoblanishi nazarda tutilgan.

Engil avtomobilga amortizatsiya hisoblashda ***birinchi navbatda*** amortizatsiyalanadigan qiymatni 60 000 000 so‘m (63 000 000 so‘m – 3 000 000 so‘m) ni, ***ikkinchi navbatda esa*** bajarilgan ish hajmining bir birligi ya’ni har bir kilometrga to‘g‘ri keladigan amortizatsiya summasi 75 so‘m (60 000 000 so‘m / 800 000 km) ni aniqlaymiz. Ishlab chiqarish usulni qo‘llash bilan hisobot davrida yengil avtomobil bo‘yicha amortizatsiya hisoblanganda amortizatsiya ajratmasi summasi 750 000 so‘m (10 000 km x 75 so‘m) ga teng bo‘ladi.

Ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli

Ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli amortizatsiyani hisoblash davrida amortizatsiyalanadigan aktiv qiymatining kamayishini anglatadi. Mazkur usulga ko‘ra teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash usulidan ikki baravar amortizatsiya me’yori mazkur hisobot davridagi asosiy vositaning tegishli qoldiq qiymatiga ko‘paytiriladi. Ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli bo‘yicha amortizatsiyani hisoblashda faraz qilinayotgan tugatish qiymati boshlang‘ich (tiklash) qiymatidan chegirilmaydi.

Ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usulida yillik amortizatsiya ajratmalari summasi hisobot yili boshidagi asosiy vositalarning qoldiq qiymatidan va mazkur asosiy vositalarni foydali ishlatish muddatiga bog‘liq holda hisoblangan amortizatsiyaning ikki baravar me’yoridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usulida asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash ushbu asosiy vositalarnig balans (qoldiq) qiymati ularning tugatish qiymatiga teng bo‘lgan vaqtdan boshlab tugatiladi.

Ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usulini qo‘llash bilan amortizatsiyani hisoblash tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Dastgohning boshlang‘ich qiymati 255 000 000 so‘mni, foydalanish muddati oxiridagi qoldiq (tugatish) qiymati 15 000 000 so‘m, foydali xizmat muddati 5 yilni tashkil etadi. Hisob siyosatida amortizatsiya ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usulini qo‘llash bilan hisoblanishi nazarda tutilgan. Bunda to‘g‘ri chiziqli usulda amortizatsiya me’yori har bir yil uchun 20 % (100%/5) ni

tashkil etadi. Ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usulida amortizatsiya me'yori 40% (2 x 20%) ga teng bo'ladi. Ushbu qat'i belgilangan 40 % stavka hisobot yili boshidagi balans qiymatiga nisbatan foydalaniladi.

Dastgohga amortizatsiya hisoblash tartibini ko'rib chiqamiz. Bunda, ***foydalanishning birinchi yilida*** amortizatsiya ajratmasining yillik summasi dastgohni buxgalteriya hisobiga qabul qilingandan shakllangan boshlang'ich qiymatidan kelib chiqib 102 000 000 so'm (255 000 000 so'm x 40 /100) qilib aniqlanadi. ***Foydalanishning ikkinchi yilida*** amortizatsiya 40 foiz miqdorda yil boshidagi qoldiq qiymatidan, ya'ni asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati va birinchi yil uchun hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farqdan hisoblanadi va 61 200 000 so'm ((255 000 000 so'm – 102 000 000 so'm) x 40 / 100) ni tashkil etadi. ***Foydalanishning uchinchi yilida*** amortizatsiya 40 foiz miqdorda, ikkinchi yil oxirida hosil bo'lgan qoldiq qiymat va ikkinchi yil uchun hisoblangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farqdan hisoblanadi va 36 720 000 so'm ((153 000 000 so'm – 61 200 000 so'm) x 40 / 100) ni tashkil etadi hamda keyingi yillar uchun shu zaylda davom ettiriladi.

Dastgoh bo'yicha yillik amortizatsiya ajratmalari jadvali

(ming so'mda)

Amortizatsiya ajratmalari davrlari	Boshlan-g'ich (qayta tiklash) qiymati	Yil boshiga balans qiymati	Amortizatsiyaning yillik summasi	Jamg'arilgan amortizatsiya	Yil oxiriga balans qiymati
1-yil	255 000	-	255 000 x 40% = 102 000	102 000	153 000
2-yil	255 000	153 000	153 000 x 40% = 61 200	163 200	91 800
3-yil	255 000	91 800	91 800 x 40% = 36 720	199 920	55 080
4-yil	255 000	55 080	55 080 x 40% = 22 032	221 952	33 048
5-yil	255 000	33 048	(33 048 x 40% = 13 219,2 «nazorat maqsadida») 240 000 - 221 952 = 18 048	240 000	15 000

Dastgoh bo'yicha oylik amortizatsiya ajratmalari jadvali

Amortizatsiya ajratmalari davrlari	Amortizatsiyaning yillik summasi	Amortizatsiyaning oylik summasi
1-yil	102 000 000	8 500 000 (102 000 000 / 12)
2-yil	61 200 000	5 100 000 (61 200 000 / 12)
3-yil	36 720 000	3 060 000 (36 720 000 / 12)
4-yil	22 032 000	1 836 000 (22 032 000 / 12)
5-yil	18 048 000	1 504 000 (18 048 000 / 12)

Amortizatsiya hisoblashning u yoki bu usulini tanlash bilan asosiy vositalarni boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati va jamg'arilgan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farqni o'zida ifodalaydigan asosiy vositalarning qoldiq qiymati miqdorini tartibga solish mumkin. SHuning

uchun korxona tegishli qaror qabul qilishda amortizatsiya hisoblashning u yoki bu usulini tanlashning ijobiy va salbiy oqibatlarini o‘ylab ko‘rishi lozim.

Yuqorida sanab o‘tilgan usullarning har biri o‘zining afzallik va kamchiliklariga ega. Amortizatsiyaning teng maromli usulining asosiy va yagona ustunligi bo‘lib qo‘llashning oddiyligi hisoblanadi. Mazkur usulni qo‘llashda amortizatsiya butun foydali xizmat muddati davomida doimiy bir summadan iborat, bundan modernizatsiya, rekonstruksiya va qayta baholash mustasno. Biroq mazkur usul korxonaga asosiy vositalar xarajatlarini tezkor ravishda hisobdan chiqarish imkoniyatini bermaydi. SHu bilan birga, bugungi pul ertangi puldan ko‘proq turadigan bir vaqtda, amortizatsiya ajratmalari hisobiga xarajatlarni ko‘paytirish yo‘li bilan aylanma mablag‘larni tezroq to‘ldirish imkoniyati yo‘qoladi. SHubhasiz amortizatsiyani teng maromli usulini qo‘llash asosiy vositalarning foydali xizmat muddatini oxirida boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatini to‘liq qoplashga olib keladi, biroq korxonaga amortizatsiya siyosatidan maksimal ravishda samarali foydalanish imkoniyatini bermaydi.

Ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli bilan amortizatsiya hisoblash aktivning foydali xizmat muddatini oxirida jadal sur’atlarda kamayib borish bilan tavsiflanadigan ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan samarali hisoblanadi. Mazkur usulda qo‘llaniladigan koeffisient asosiy vositalarni foydali xizmatining boshlang‘ich bosqidagi qiymatini hisobdan chiqarishni jadallashtiradi. Amortizatsiyaning mazkur usulni foydali xizmat muddatining oxirigacha 5-son BHMS da nazarda tutilgan ko‘rinishda qo‘llash imkoniyati mavjud emas, chunki uslubning o‘zi boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatini to‘liq hisobdan chiqarish imkoniyatini bermaydi. Har qanday hollarda foydalanish muddatining oxirida qoldiq qiymati nolga teng emas, biroq ayrim hollarda unga yaqinlashishi mumkin.

Yillar summasi usuli (kumulyativ usuli) bo‘yicha aktivni qiymatini hisobdan chiqarishda foydali xizmat muddatining amortizatsiya me’yori ham jadallashtirilgan usuli bo‘lib va ishlab chiqarish faoliyatining oxirida jadal sur’atlar bilan kamayib boradigan ishlab chiqarish jarayonlariga nisbatan samarali hisoblanadi. Ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli bilan taqqoslaganda mazkur usul foydali xizmat muddatining oxirida aktivning qiymatini to‘liq hisobdan chiqarish imkoniyatini beradi.

Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda qiymatni hisobdan chiqarish (ishlab chiqarish usuli) kutilayotgan prognoz tez-tez o‘zgarib turishi bilan tavsiflanadigan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayotlariga nisbatan ko‘proq samarali bo‘lib hisoblanadi. Foydalanish muddatini aniqlashda vaqt kalendar davrlari bilan emas, balki mazkur aktiv yordamida bilan ish bajarish va mahsulot (ish, xizmat) larni realizatsiya qilish kutilayotgan dastur bo‘yicha belgilanadi.

Soliq solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida nazarda tutilgan har yillik amortizatsiya me’yorlari xarajatlarga teng maromda hisobdan chiqariladigan asosiy vositalarning boshlang‘ich (tiklash) qiymatiga nisbatan foizlarda belgilangan.

Mazkur hisobot davridagi soliq solinadigan bazaga kiritiladigan, biroq keyingi hisobot davrlaridagi soliq solinadigan foydadan chegiriladigan xarajatlar sifatidagi asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga (amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) hisoblash, bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda amortizatsiyani hisoblash (ishlab chiqarish usuli), ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish, yillar summasi (kumulyativ usul) usullariga) muvofiq hisoblangan amortizatsiya summasi bilan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan normalar bo‘yicha hisoblangan amortizatsiya summasi o‘rtasidagi ijobiy farq ***balansdan tashqari 012-«Kelgusi davrlarda***

soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar» schyotida aks ettiriladi. Mazkur schyot bo‘yicha analitik hisob soliq solinadigan bazadan chegiriladigan xarajatlar, ularning miqdori va ular chegiriladigan muddat to‘g‘risidagi axborotni ta’minlashi shart.

Asosiy vositalarni xarid qilish lozim bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Lekin ayrim korxonalarda yangi inventarlar sotib olish uchun mablag‘lar yetishmaydi. SHuning uchun ushbu korxonalar o‘zining faoliyati davomida oldin foydalanishda bo‘lgan asosiy vositalarni ishlatadilar. Bunday asosiy vositalarni foydali xizmat muddatini qanday aniqlash kerakligi ko‘proq buxgalterlarni qiziqtiradi.

Foydalanishda bo‘lgan asosiy vositalarni xarid qilgan korxona ushbu asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya me’yorini mazkur asosiy vositalardan avvalgi mulkdorlar tomonidan foydalanilgan yillar (oylar) soniga kamaytirilgan foydalanish muddatini hisobga olgan holda belgilash huquqiga ega. Agar mazkur asosiy vositadan avvalgi mulkdorlarda amalda foydalanish muddati ushbu asosiy vositalarning O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida tasniflanishi bilan belgilanadigan foydalanish muddatiga teng yoki undan ortiq bo‘lsa, soliq to‘lovchi texnika xavfsizligi talablarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda bu asosiy vositadan unumli foydalanish muddatini mustaqil ravishda, lekin uch yildan kam bo‘lmagan muddatga belgilashga haqlidir. Foydalanishda bo‘lgan asosiy vositalardan foydalanish muddatini aniqlash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, amortizatsiyani hisoblash yangi asosiy vositalarga bo‘lgani singari amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, agar korxona oldin foydalanishda bo‘lgan binoni xarid qilsa, u holda binoning xizmat muddati uning oldingi mulkdorida foydalanilgan vaqtga kamaytirilishi mumkin.

O‘z navbatida asosiy vositalarni oldingi mulkdorida foydalanilgan muddatini nima bilan tasdiqlash mumkin degan savol tug‘iladi. Asosiy vositalarni oldingi mulkdorida foydalanilgan muddatiga tegishli ma’lumotlar «Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi» (bino, inshootlardan tashqari) (AV-1 namunaviy shakl) va «Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi» (bino, inshootlar uchun) (AV-1a namunaviy shakl) da mavjud. Ushbu ma’lumotlar juda muhim hisoblanadi, chunki ularsiz yangi mulkdor amortizatsiya hisoblay olmaydi. Bunday olib qaralganda foydalanishning haqiqiy muddati to‘g‘risidagi ma’lumotlar axborot tavsifiga ega, ya’ni to‘ldirish uchun majburiy hisoblanmaydi va sotuvchilar ko‘p hollarda «Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi» (bino, inshootlardan tashqari) (AV-1 namunaviy shakl) va «Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi» (bino, inshootlar uchun) (AV-1a namunaviy shakl) ning mazkur bandini inkor etadilar. SHuning uchun, keyingi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan murakkab holatlardan qochish uchun xaridor korxona mazkur bandini to‘g‘ri to‘ldirilishiga qarab turishga majbur.

Agar korxona avtotarnsport vositasini xarid qilsa, u holda haqiqiy xizmat muddatini tasdiqlovchi hujjat bo‘lib transport vositasining pasporti hisoblanadi. Agar oldi-sotdi shartnomasining obyekti bo‘lib ko‘chmas mulk hisoblansa, u holda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnoma lozim bo‘lgan tasdiqlovchi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Bunda shuni esda tutish lozimki, korxona asosiy vositalarni sotib olishda asosiy vositalar to‘g‘risida sotuvchi tamonidan taqdim etilayotgan ma’lumotlarga alohida e’tibor qaratishi hamda uning oldingi mulkdorida xizmat muddatini aniq bilishi kerak.

Soliq solish va buxgalteriya hisobi maqsadida amortizatsiya hisoblash tartibi o‘rtasidagi farqni quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Dastgohning boshlang‘ich qiymati 135 000 000 so‘mni, uning foydalanish muddati oxiridagi qoldiq (tugatish) qiymati 15 000 000 so‘mni, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq yillik amortizatsiya me’yori

amortizatsiyalanadigan qiymatning 20 % ni tashkil etadi deb faraz qilamiz. Hisob siyosatida dastgohning foydali xizmat muddati 5 yilni tashkil etishi va amortizatsiya yillar summasi usuli (kumulyativ usuli) ni qo‘llash bilan hisoblanishi nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan amortizatsiya me’yorlarini qo‘llagan holda dastgoh bo‘yicha eskirish hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

Birinchi navbatda amortizatsiyalanadigan qiymat 120 000 000 so‘m (135 000 000 so‘m – 15 000 000 so‘m) ni aniqlaymiz.

Ikkinchi navbatda foydalanishning birinchi yilida amortizatsiya ajratmasining yillik summasi 24 000 000 so‘m (120 000 000 so‘m x 20 /100) dastgohni amortizatsiyalanadigan qiymatidan kelib chiqib aniqlanadi va keyingi yillar uchun shu zaylda davom ettiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan me’yorlarga muvofiq dastgoh bo‘yicha amortizatsiya ajratmalari jadvali

Amortizatsiya ajratmalari yillari	Amortizatsiyala-nadigan qiymat	Yillik amortizatsiya summasi	Jamg‘arilgan amortizatsiya
1-yil	120 000 000	(120 000 000 x 20 / 100) = 24 000 000	24 000 000
2-yil	120 000 000	(120 000 000 x 20 / 100) = 24 000 000	48 000 000
3-yil	120 000 000	(120 000 000 x 20 / 100) = 24 000 000	72 000 000
4-yil	120 000 000	(120 000 000 x 20 / 100) = 24 000 000	96 000 000
5-yil	120 000 000	(102 000 000 x 20 / 100) = 24 000 000	120 000 000

Dastgohdan foydalanish davomida amortizatsiya ajratmalarining oylik summasi amortizatsiya ajratmasining yillik summasining 1/12 miqdorida har oyda 2 000 000 so‘m (24 000 000 so‘m / 12) hisoblanadi.

Asosiy vositalarning jadallashtirilgan usuli - yillar summasi usuli (kumulyativ usuli) bo‘yicha amortizatsiyani hisoblanganda quyidagicha bo‘ladi.

Birinchi navbatda amortizatsiyalanadigan qiymat 120 000 000 so‘m (135 000 000 so‘m – 15 000 000 so‘m) ni aniqlaymiz.

Ikkinchi navbatda foydalanish yillari summasini aniqlaymiz. Foydalanish yillar summasi 15 (kumulyativ son 1 + 2 + 3 + 4 + 5) ni tashkil etadi.

Uchinchi navbatda 120 000 000 so‘mga teng bo‘lgan amortizatsiyalanadigan qiymatni har bir kasr (5/15, 4/15, 3/15, 2/15, 1/15) ga ko‘paytirish yo‘li bilan yillik amortizatsiya summasi aniqlanadi. Mazkur asosiy vositalardan foydalanishning ***birinchi yilida*** amortizatsiya 5/15 yoki 33,3% miqdorda hisoblanishi mumkin va u 40 000 000 so‘mni (120 000 000 x 5/15) tashkil etadi, ***ikkinchi yili*** esa 4/15 miqdorda 32 000 000 so‘mdan (120 000 000 x 4/15) iborat summani, ***uchinchi yili*** esa 3/15 miqdorda 24 000 000 so‘mdan (120 000 000 x 3/15) iborat summani tashkil etadi hamda keyingi yillar uchun shu zaylda davom ettiriladi.

Yillar summasi usuli (kumulyativ usuli)ni qo‘llagan holda dastgoh bo‘yicha amortizatsiya ajratmalari jadvali

Amortizatsiya ajratmalari yillari	Amortizatsiyala-nadigan qiymat	Yillik amortizatsiya summasi	Jamg‘arilgan amortizatsiya
1-yil	120 000 000	(120 000 000 x 5/15) = 40 000 000	40 000 000
2-yil	120 000 000	(120 000 000 x 4/15) = 32 000 000	72 000 000
3-yil	120 000 000	(120 000 000 x 3/15) = 24 000 000	96 000 000
4-yil	120 000 000	(120 000 000 x 2/15) = 16 000 000	112 000 000
5-yil	120 000 000	(120 000 000 x 1/15) = 8 000 000	120 000 000

Dastgoh bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq va yillar summasi usulini qo‘llagan holda hisoblangan amortizatsiya ajratmalarini soliq solinadigan foydaga ta’siri

Amortizatsiya ajratmalari yillari	**Yillik amortizatsiya summasi**		**Farq (+,-)**
	Soliq kodeksi bo‘yicha	**Yillar summasi usuli bo‘yicha**	
1-yil	24 000 000	40 000 000	16 000 000
2-yil	24 000 000	32 000 000	8 000 000
3-yil	24 000 000	24 000 000	-
4-yil	24 000 000	16 000 000	- 8 000 000
5-yil	24 000 000	8 000 000	- 16 000 000
Jami	**12 000 000**	**12 000 000**	**-**

*) Bunda:

«+» soliq solinadigan foydaga qayta qo‘shiladigan summa;

«-» soliq solinadigan foydadan chegiriladigan summa.

Dastgohdan foydalanishning ***birinchi va ikkinchi yillarida*** jadallashtirilgan usulida hisoblangan amortizatsiya summasi va O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq hisoblangan amortizatsiya summasi o‘rtasidagi farq yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan foydani hisoblab chiqarishda chegirilmaydi, ya’ni «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) ning 240-satr «Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar)» dagi buxgalteriya foydasiga qayta qo‘shiladi.

Dastgohdan foydalanishning ***uchinchi yilida*** jadallashtirilgan usulida hisoblangan amortizatsiya summasi va O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq hisoblangan amortizatsiya summasi bir xil bo‘ladi ya’ni ular o‘rtasida farq mavjud bo‘lmaydi.

Dastgohdan foydalanishning ***to‘rtinchi va beshinchi yillarida*** jadallashtirilgan usulida hisoblangan amortizatsiya summasi va O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq

hisoblangan amortizatsiya summasi o‘rtasidagi farq yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan foydani hisoblab chiqarishda chegiriladi, ya’ni «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) ning 240-satr «Foyda solig‘ini to‘langunga qadar foyda (zarar)» dagi buxgalteriya foydasidan chiqariladi.

Amortizatsiyani teng maromli (to‘g‘ri chiziqli) usulida va O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan me’yorlar asosida amortizatsiya hisoblashda amortizatsiya ajratmalari doimiy xarajatlar sifatida, bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda amortizatsiyani hisoblash (ishlab chiqarish usuli), ikki baravar amortizatsiya me’yori bilan qoldiqni kamaytirish, yillar summasi (kumulyativ usul) usullarida esa o‘zgaruvchan xarajatlar deb tasniflanadi. Korxonada amortizatsiya ajratmalari zararlarga olib kelmasligi uchun amortizatsiya ajratmalarining u yoki bu usulini ishlab chiqarishga nisbatan yakka tartibda ko‘rib chiqish kerak.

Asosiy vositalarni hisobot yili davomida buxgalteriya hisobiga qabul qilish hollarida amortizatsiyaning yillik summasi bo‘lib mazkur asosiy vositalar buxgalteriya hisobiga qabul qilingan oydan keyingi oyning dastlabki sanasidan yillik moliyaviy hisobotlarning hisobot sanasigacha aniqlangan summa hisoblanadi.

Birinchi yil uchun asosiy vositalarni amortizatsiya ajratmalarining yillik summalarini hisob-kitobi tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Hisobot yilining 25-mart sanasida asosiy vositalar sifatida dastgoh buxgalteriya hisobiga qabul qilingan. Uning boshlang‘ich qiymati 135 000 000 so‘mni va foydalanish muddati oxiridagi qoldiq (tugatish) qiymati 15 000 000 so‘mni, foydali xizmat muddati 5 yil yoki 60 oyni tashkil etadi. Dastgoh bo‘yicha amortizatsiya hisoblashda teng maromli amortizatsiya hisoblash usulini qo‘llaydi.

Foydalanishning birinchi yilida amortizatsiya ajratmalarining yillik summasini aniqlashni quyidagicha amalga oshiramiz:

amortizatsiyalanadigan qiymat 120 000 000 so‘m (135 000 000 so‘m – 15 000 000 so‘m);

amortizatsiya ajratmalarining oylik summasi 2 000 000 so‘m = 120 000 000 so‘m / 60;

amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi 16 000 000 so‘m = 2 000 000 so‘m x 8.

5-son BHMSning 41-bandiga muvofiq mavsumiy tusdagi ishlab chiqarish korxonalarida foydalaniladigan asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi hisobot yilida korxona tomonidan asosiy vositalardan foydalanish davri mobaynida teng maromda hisoblanadi.

Mavsumiy tusda foydalaniladigan asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiya ajratmalarining yillik summalarini hisob-kitobi tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Yilning 7 oyi davomida daryo transporti bilan yuk tashish ishlarini amalga oshirish maqsadida asosiy vositalar obyekti sifatida motorli qayiq xarid qilindi. Uning boshlang‘ich qiymati 21 000 000 so‘mni, foydali xizmat muddati 10 yilni tashkil etadi. Amortizatsiya ajratmalarinig yillik me’yori 10% (100% / 10 yil) ni tashkil etadi.

Birinchi navbatda amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi 2 100 000 so‘m (21 000 000 so‘m x 10 / 100) ni aniqlaymiz.

Ikkinchi navbatda hisobot yilidagi 3 oy ishlar davomida teng maromda taqsimlanadigan amortizatsiyaning oylik summasini aniqlaymiz va u 700 000 so‘m (2 100 000 so‘m / 3) ga teng.

Asosiy vositalarning har xil turlariga (guruhlariga) nisbatan amortizatsiyani hisoblashning turli usullari qo‘llaniladi. Bunda bir turdagi asosiy vositalar bo‘yicha (markasi, turi va boshqalar bo‘yicha) faqat bitta usul qo‘llaniladi. Qo‘llaniladigan amortizatsiyani hisoblash usuli korxonaning hisob siyosatida majburiy ravishda 1-son BHMS*)* da belgilangan tartibda aks ettiriladi.

Agar asosiy vositalardan foydalanishdan kutilayotgan iqtisodiy foydada sezilarli darajada o‘zgarish yuz beradigan bo‘lsa, amortizatsiyani hisoblash usuli o‘zgarayotgan tamoyilni aks ettirish uchun shunday o‘zgartirilishi kerakki, toki yuzaga kelgan vaziyat amortizatsiya usulining o‘zgartirilishini oqlasin. Bunday o‘zgartish hisob siyosatida aks ettirilishi lozim. Bunda moliyaviy hisobotga tushuntirish xatida mazkur o‘zgartish sabablari va ularning iqtisodiy samarasi ochib berilishi kerak.

Foydali xizmat muddati - korxona aktivdan foydalanadigan vaqt davri yoki korxona ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo‘ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori. Asosiy vositalarning foydali xizmat muddati asosiy vositalar holatini yaxshilaydigan va, demak, xizmat muddatini uzaytiradigan ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olgan holda, shuningdek bu muddatni qisqartiradigan texnologik o‘zgarishlarni hisobga olib, korxona tomonidan qaytadan ko‘rib chiqilishi mumkin.

Asosiy vositalarning foydali xizmat muddati:

- kutilayotgan ishlab chiqarish quvvatiga muvofiq mazkur asosiy vositalarni korxonada kutilayotgan foydali xizmat muddatidan;

- foydalanish rejimi (smena sonidan) ga bog‘liq jismoniy eskirishi; tabiiy sharoit va agressiv ta’sir qiluvchi muhitdan, ta’mirlash o‘tkazish tizimidan;

- me’yoriy-huquqiy hujjatlar va boshqa mazkur asosiy vositalarni xizmatini chegaralar (masalan, ijara muddati) dan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish natijasida asosiy vositalarni ishlashining boshlang‘ich qabul qilingan me’yoriy ko‘rsatkichlarini holatini yaxshilaydigan hollarda, korxona tomonidan ushbu asosiy vositalar bo‘yicha foydali xizmat muddati qaytadan ko‘rib chiqiladi.

Qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha tarzda asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish bo‘yicha ishlar tugatilganidan so‘ng foydalanishga kiritilgan asosiy vositalar uchun ***foydali xizmat muddati bo‘lib*** ushbu ishlar tugatilganidan so‘ng mazkur asosiy vositalar foydalanishga kiritilgan paytdan boshlab korxona tomonidan asosiy vositalardan foydalaniladigan vaqt davri yoki korxona ushbu asosiy vositalarni qo‘llashdan olishni kutayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) miqdori hisoblanadi.

Foydali xizmat muddati va qoldiq qiymatini aniqlashni quyidagi misolda ko‘rib o‘tamiz. Dastgohning qiymati 120 000 000 so‘m va foydali xizmat muddati 5 yil. Foydalanishning 3-yilining dekabr oyida qiymati 14 000 000 so‘m bo‘lgan modernizatsiya qilish amalga oshirilgan.

Texnik imkoniyatlaridan va fan texnika taraqqiyotidan kelib chiqib foydali xizmat muddati 2 yilga ko‘payish tomoniga qayta ko‘rib chiqilgan. Bu holda, yillik amortizatsiya ajratmalari summasi 15 500 000 so‘m miqdorda, qoldiq qiymatining 62 000 000 so‘m (120 000 000 - (120 000 000 x 3/5) + 14 000 000) miqdori va 4 yil bo‘lgan yangi foydali xizmat muddatidan kelib chiqib aniqlanadi.

Asosiy vositalar bo‘yicha hisoblangan amortizatsiya summasi buxgalteriya hisobida tegishli summalarni alohida schyotlarda jamg‘arishi yo‘li bilan aks ettiriladi. 21-son BHMS ga muvofiq, asosiy vositalar bo‘yicha hisoblangan eskirish summasi quyidagi schyotlarda hisobga olinadi:

0211 «Yerni obodonlashtirishning eskirishi»;

0212 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi»;

0220 «Bino, inshoot va o‘tkazuvchi moslamalarning eskirishi»;
0230 «Mashinalar va uskunalarning eskirishi»;
0240 «Mebel va ofis jihozlarining eskirishi»;
0250 «Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasining eskirishi»;
0260 «Transport vositalarining eskirishi»;
0270 «Ishchi hayvonlarning eskirishi»;
0280 «Ko‘p yillik o‘simliklarning eskirishi»;
0290 «Boshqa asosiy vositalarning eskirishi»;
0299 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi».

0211-0290 schyotlarda mulkchilik huquqi korxonaga tegishli bo‘lgan asosiy vositalarning eskirishi hisobga olinadi. 0299 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi» schyotida moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalarning eskirishi xususiy asosiy vositalarga eskirish hisoblash tartibi kabi bir xil tartibda hisobga olinadi.

Asosiy vositalar bo‘yicha hisoblangan eskirishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib o‘tamiz. Avtomobilning boshlang‘ich qiymati 30 000 000 so‘mni, foydalanish muddatining oxirida qoldiq qiymati 1 200 000 so‘mni, foydali xizmat muddati 5 yilni tashkil etadi. Korxonaning hisob siyosatida amortizatsiya to‘g‘ri chiziqli usul bilan hisoblanishi nazarda tutilgan. Yillik amortizatsiya me’yori 20 % (100% / 5) ni, yillik amortizatsiya ajratmalari summasi 5 760 000 so‘mni (28 800 000 so‘m x 20 / 100), amortizatsiya ajratmalarining oylik summasi 480 000 so‘m (5 760 000 sum / 12) ni tashkil etadi.

Avtomobil bo‘yicha hisoblangan amortizatsiyaning oylik summasi foydalanish maqsadlaridan kelib chiqib buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- asosiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonida foydalanilganda:
debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 480 000 so‘m;
kredit 0260 «Transport vositalarining eskirishi» schyoti 480 000 so‘m;
- yordamchi ishlab chiqarish uchastkasida foydalanilganda:
debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 480 000 so‘m;
kredit 0260 «Transport vositalarining eskirishi» schyoti 480 000 so‘m;
- xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarda foydalanilganda:
debet 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyoti 480 000 so‘m;
kredit 0260 «Transport vositalarining eskirishi» schyoti 480 000 so‘m;
- mahsulotlarni realizatsiya qilish bo‘limida foydalanilganda:
debet 9410 «Sotish xarajatlari» schyoti 480 000 so‘m;
kredit 0260 «Transport vositalarining eskirishi» schyoti 480 000 so‘m;
- ma’muriy maqsadlarda foydalanilganda:
debet 9420 «Ma’muriy xarajatlar» schyoti 480 000 so‘m;
kredit 0260 «Transport vositalarining eskirishi» schyoti 480 000 so‘m;
- madaniy-oqartiruv va boshqa ijtimoiy maqsadlarda foydalanilganda:
debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 480 000 so‘m;
kredit 0260 «Transport vositalarining eskirishi» schyoti 480 000 so‘m.

7-§. Asosiy vositalarni ta’mirlash

Har bir korxona o‘z ixtiyoridagi asosiy vositalarni samarali va omilkorona boshqarish kerak. Asosiy vositalardan foydalanishda biz dastlabki xossalarini yo‘qotish singari tushunchaga to‘qnash kelamiz, uzoq muddat ishlatganda bu hol ishlab chiqarish unumdorligi, samaradorligi va sifatining pasayishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda foydalanish jarayonida asbob-uskunalar eskiradi, uzilishlar bilan ishlashni boshlaydi yoki ayrim hollarda umuman ishdan chiqadi. Buning sababi bo‘lib ayrim detallari va uzellari ishdan chiqishi hisoblansa, u holda asosiy vositalarni almashtirishga zaruriyat yo‘q, ularni qayta ta’mirlasa bo‘ladi.

Ishlab chiqarish unumdorligi, samaradorligi va sifatini kerakli darajada ushlab turish uchun asosiy vositalarni o‘z vaqtida ta’mirlash va tegishincha, ta’mirlash barcha turlari bo‘yicha xarajatlarni to‘g‘ri hisobga olish lozim. Asosiy vositalarni ta’mirlashlarni to‘g‘ri hisobga olish bevosita korxonaning ishlash salohiyatiga, ishlab chiqarilayotgan mahsulot, bajarilayotgan ish va ko‘rsatilayotgan xizmat sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. To‘g‘ri yuritiladigan buxgalteriya hisobi boshqarishning strategiya va taktikasini nazorat qilish, resurslardan maqbul tarzda foydalanish imkonini beradigan muhim axborotni taqdim etadi.

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq asosiy vositalarni ishchi holatida saqlab turishga doir xarajatlar (texnik ko‘rikdan o‘tkazish va holatini yaxshilashga oid xarajatlar) hamda ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning barcha turdagi ta’mirlanishini (joriy, o‘rtacha, kapital tarzda) o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar mahsulot (ishlar, xizmatlar) ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar tarkibiga kiradi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib qaraganda iqtisodiyotni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni va ko‘rsatilayotgan xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va ularni jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishda asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlarini to‘g‘ri guruhlash va hisobga olishni to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy vositalar ta’mirlanishi buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:

- bajarilgan ta’mirlash ishlarining tannarxi hamda hajmini to‘g‘ri va o‘z vaqtida aniqlash;
- ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlarning mahsulot yoki bajarilgan ish tannarxiga to‘g‘ri o‘tkazilishini ta’minlash;
- ta’mirlash ishlari uchun ajratilgan mablag‘dan to‘g‘ri foydalanishi ustidan nazorat olib borish;
- ta’mirlash ishlarining o‘z vaqtida va sifatli qilib olib borilishi ustidan nazorat olib borish va boshqalar.

Korxona asosiy vositalarni ta’mirlashni pudrat yoki xo‘jalik usulida amalga oshirishi mumkin.

Pudrat usulida korxona asosiy vositalarni ta’mirlash ishlarini amalga oshirish maqsadida ta’mirlash yoki ta’mirlash-qurilish tashkiloti bilan pudrat shartnomasi tuzadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq, pudrat shartnomasi bo‘yicha bir taraf (pudratchi), ikkinchi taraf (buyurtmachi) ning topshirig‘iga binoan ma’lum bir ishni (muayyan obyektni ta’mirlashi, qurishi yoki boshqa qurilish ishini) bajarish va uning natijasini buyurtmachiga shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa pudratchiga ishni bajarish uchun zarur sharoit yaratib berish, ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to‘lash majburiyatini oladi. Bunda buyurtmachi va pudratchi tomonidan tuzilgan shartnomaning tomonlarning munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 37-bobi «Pudrat» bilan tartibga solinadi.

Xo‘jalik usulida ta’mirlash o‘z kuch va vositalari yordamida (asosiy vositalar obyektidan foydalanish joyidagi o‘z ishchilari yoki ixtisoslashtirilgan ta’mirlash brigadasi, uchastkasi) bajariladi.

Ta’mirlash ishlari boshlangunga qadar asosiy vositalarning har bir obyekti bo‘yicha ularni ta’mirdan o‘tkazishning zarurligini asoslash uchun asosiy vositani (yoki uning ayrim qismlari) texnik ko‘rik natijalari bo‘yicha nuqsonlar dalolatnomasi tuziladi, unda ta’mirlash obyekti (yoki uning qismlari) ning texnik holati, shuningdek nosozliklar, nuqsonlarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiya qilinadigan tadbirlar hamda zarur ta’mirlash ishlari hajmi bo‘yicha takliflar keltiriladi. Nuqsonlar dalolatnomasi korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi, ta’mirlashni o‘tkazishning pudrat usulida esa pudratchi ta’mirlash tashkiloti bilan kelishiladi. Nuqsonlar dalolatnomasi asosida smeta moliyaviy hisob-kitobi tuziladi, u ta’mirlash ishlarining rejali (me’yoriy) tannarxini belgilaydi. Smetada xarajatlar qurilish me’yorlari va qoidalariga muvofiq aniq ishlar turi birligiga mehnat va materiallar talabgirligi me’yorlari bo‘yicha hisoblanadi.

Asosiy vositalarni ta’mirlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida asosiy vositalarni dastlab qabul qilingan faoliyatning me’yoriy ko‘rsatkichlarini (foydali ishlatish muddati, quvvati, qo‘llash sifati va h.k.) o‘zgarishiga (yaxshilanishiga va oshishiga) qarab asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlari ikki turga bo‘linadi. ***Birinchisi turga*** asosiy vositalarni boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatini o‘zgartiradigan ta’mirlash xarajatlari, ya’ni kapital qo‘yilmalar kiradi. ***Ikkinchi turga*** asosiy vositalarni ishchi holatini saqlab turish uchun amalga oshiriladigan joriy ta’mirlash xarajatlari kiradi. Kelgusida olinadigan iqtisodiy foydani oshirmaydigan barcha xarajatlar ular amalga oshirilgan davrdagi xarajatlar sifatida tan olinishi lozim.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, asosiy vositalarni kapital (joriy, o‘rtacha) ta’mirlash ishlari amalga oshirilayotgan bir vaqtda obyektini qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha jihozlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik jihatdan qayta jihozlash ishlari ham amalga oshirilishi mumkin, ular natijasida asosiy vosita foydalanishga topshirilganda dastlab qabul qilingan me’yoriy ko‘rsatkichlarning (unumli foydalanish muddati, quvvati, qo‘llash sifati va h.k. yaxshilanishiga (yuksalishiga) olib keladi. Biroq bunday ishlar bo‘yicha xarajatlar hisobi kapital qo‘yilmalar hisobi uchun belgilangan tartibda yuritiladi. Xarajatlarning o‘zi asosiy vositalarni boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatini ko‘paytirishga kiritiladi. Kapital (joriy, o‘rtacha) ta’mirlash bilan bog‘liq barcha xarajatlar joriy xarajatlarga kiradi. SHu sababli ushbu ishlarning hammasini buxgalteriya hisobida farqlash juda muhimdir.

Asosiy vositalarni boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatini o‘zgartirishga olib keladigan ta’mirlash xarajatlarini, ya’ni asosiy vositalarni qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta qurollantirish xarajatlari summasi ***asosiy vositalarni boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatini ko‘paytiruvchi kapital qo‘yilmalar*** sifatida buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini mazkur bobning 3-§. «Asosiy vositalarga o‘tkaziladigan kapital qo‘yilmalar» da ko‘rib o‘tilgan.

Asosiy vositalarni ta’mirlashda qilinadigan xarajatlar material qiymatliklarini chiqarish (sarflash), mehnat haqini hisoblash, ta’mirlash ishlari bo‘yicha bajarilgan ishlar uchun mol yetkazib beruvchilarga majburiyatlarni va boshqa xarajatlar bo‘yicha operatsiyalarni hisobga olishning tegishli boshlang‘ich hisob hujjatlariga asosan aks ettiriladi.

Asosiy vositalarni ishchi holatida saqlab turish uchun amalga oshiriladigan ta’mirlash (joriy, o‘rtacha va kapital) xarajatlarini hisobga olish

Asosiy vositalarni ishchi holatida saqlab turish, ya’ni ularning soz bo‘lishi yoki ish qobiliyati tiklanishi ularni ta’mirlash (joriy, o‘rtacha va kapital tarzda) vositasida amalga oshiriladi. Asosiy

vositalar obyekti ayrim tarkibiy qismlarining konstruktiv xususiyatlari, shikastlanishlar xususiyati va eskirish darajasiga bog‘liq ravishda, shuningdek tiklash ishlarining sermehnatligiga qarab joriy, o‘rtacha va kapital ta’mirlashga ajratiladi.

Joriy ta’mirlash deganda asosiy vositalarni ishchi holatida saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ta’mirlash tushiniladi. Joriy ta’mirlash o‘z ichiga uzel va detallarni almashtirish yoki tiklash, mayda shikastlanishlarni bartaraf etish, shuningdek tartibga solish ishlarini oladi va asosiy vositalarga xizmat ko‘rsatuvchi ishchi (usta) lar yoki ta’mirlash brigadasi ishlatish joyida, ko‘pincha joriy texnik ko‘rikdan o‘tkazish mobaynida amalga oshiradilar. Odatda joriy ta’mirlash 1 yildan kam bo‘lgan davriylikda, ya’ni ishlab chiqarish (texnologik jarayonlar) xususiyatidan kelib chiqib, har bir ish kuni tugagandan keyin, har haftada yoki har oyda bir marta o‘tkazilishi mumkin. Joriy ta’mirlash grafigi korxona tomonidan mustaqil ravishda texnologik jarayonlar xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi.

O‘rtacha ta’mirlashda ta’mirlanayotgan asosiy vositani qisman ajratish va detallarning qismlarini tiklash yoki almashtirish amalga oshiriladi, uzellarning texnik holati tekshiriladi, ba’zan uning ayrim qismlari mukammal ta’mirlanadi ham. O‘rtacha ta’mirlashni ko‘chma yoki turg‘un ta’mirlash xizmatlari amalga oshiradi. Asosan mazkur ta’mirlash turi joriy va kapital ta’mirlashlar oralig‘idagi 1 yildan oshiq davriylikda amalga oshiriladi.

Kapital ta’mirlashda bazaviy va korpus detallari va uzellarini to‘liq ajratib yig‘ish va ta’mirlash, barcha eskirgan detallar va uzellarni yangi, yanada zamonaviyroqlariga almashtirish yoki tiklash hamda zarurat bo‘lganda obyektni yig‘ish, sozlash va sinab ko‘rish amalga oshiriladi. Binolar va inshootlar uchun kapital ta’mirlash bo‘lib, eskirgan konstruktsiyalar va detallarni obyektning foydalanish imkoniyatlarini yaxshilaydigan yanada mustahkam va tejamlilariga almashtirish yoki tiklash amalga oshirilishi hisoblanishi mumkin.

Asosiy vositalarni ta’mirlash bo‘yicha haqiqatdagi xarajatlarni hisobga olish tartibi uning hajmiga, yil mobaynida ta’mirlash ishlarini bir maromda o‘tkazish va ularni bajarish usuliga bog‘liqdir. Buxgalteriya hisobida asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlarini hisobdan chiqarishni quyidagi usullar bilan amalga oshirish mumkin:

- xarajatlar yuzaga kelishiga qarab – mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxiga yoki davr xarajatlariga bir vaqtni o‘zida (bir marta);
- asosiy vositalarni ta’mirlash uchun har oyda bir maromda ajratmalar qilish yo‘li bilan tashkil etilgan rezervlar hisobidan.

Usullardan birini tanlanganligi buxgalteriya hisobi maqsadida hisob siyosatida aks ettirilgan bo‘lishi kerak.

Asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlarini hisobdan chiqarishni ***birinchi usuli - xarajatlar yuzaga kelishiga qarab – mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxiga yoki davr xarajatlariga bir vaqtni o‘zida (bir marta) usuli*** asosiy vositalar soni unchalik ko‘p bo‘lmagan, amalga oshiriladigan ta’mirlash ishlarining hajmi muhim bo‘lmagan va qoida bo‘yicha ta’mirlash xarajatlari ham katta bo‘lmagan korxonalar uchun to‘g‘ri keladi. Xarajatlarni amalga oshirilgan hisobot davrida hisobdan chiqarish mumkin. CHunki ular ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish yoki xizmat) larni qimmatlashishiga olib kelmaydi.

Asosiy vositalarni ishchi holatida tutib turish va undan foydalanishdan kelgusida olinadigan iqtisodiy foydaning belgilangan boshlang‘ich summasini olish uchun amalga oshiriladigan xarajatlar ular daxldor bo‘lgan hisobot davridagi xarajatlar tarkibiga kiritiladi. Ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarni ishchi holatida saqlab turishga doir xarajatlar (texnik ko‘rikdan o‘tkazish va holatini yaxshilashga oid xarajatlar) hamda ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning barcha turdagi ta’mirlanishini (joriy, o‘rtacha, kapital tarzda) o‘tkazish xarajatlari mahsulot

(ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladi, ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan asosiy vositalar bo'yicha esa - davr xarajatlari tarkibiga kiritiladi.

21-son BHMS ga muvofiq asosiy vositalarni ishchi holatida tutib turish va undan foydalanishdan kelgusida olinadigan iqtisodiy foydaning belgilangan boshlang'ich summasini olish uchun amalga oshiriladigan xarajatlar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagi shaklda aks ettiriladi:

- asosiy vositalarni ta'mirlash ish joyida asosiy vositalarga xizmat ko'rsatuvchi korxonaning ishchi (usta) lari tomonidan amalga oshirilganda:

debet asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2000) yoki umumishlabchiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (2500) – ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan asosiy vositalar bo'yicha, ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligi tannarxiga xarajatlarni olib borish va kalkulatsiyani hisoblash usulidan kelib chiqqan holda;

debet yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2300) – yordamchi ishlab chiqarish uchastkalarida foydalaniladigan asosiy vositalar bo'yicha;

debet xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarni hisobga oluvchi schyotlar (2700) – xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarni uchastkalarida foydalaniladigan asosiy vositalar bo'yicha;

debet davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (9400) – ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirishda foydalaniladigan asosiy vositalar bo'yicha;

kredit materiallarni (1000), yordamchi ishlab chiqarishni (2300), mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlarni (6700), maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzni (6500) va boshqa tegishli majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar;

- asosiy vositalarni ta'mirlash korxonaning yordamchi tarkibiy bo'linmasi tomonidan amalga oshirilganda:

➢ *korxonaning yordamchi tarkibiy bo'linmasi tomonidan asosiy vositalarni ta'mirlash ishlari bajarilganda:*

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti;

kredit materiallarni (1000), yordamchi ishlab chiqarishni (2300), mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlarni (6700), maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzni (6500) va boshqa tegishli majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar;

➢ *asosiy vositalarni ta'mirlash bo'yicha xarajatlar mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga yoki davr xarajatlari tarkibiga kiritilganda:*

debet asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2000) yoki umumishlabchiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (2500) – ishalb chiqarish jarayonida foydalaniladigan asosiy vositalar bo'yicha, ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligi tannarxiga xarajatlarni olib borish va kalkulatsiyani hisoblash usulidan kelib chiqqan holda;

debet yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2300) – yordamchi ishlab chiqarish uchastkalarida foydalaniladigan asosiy vositalar bo'yicha;

debet xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarni hisobga oluvchi schyotlar (2700) – xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarni uchastkalarida foydalaniladigan asosiy vositalar bo'yicha;

debet davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (9400) – ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirishda foydalaniladigan asosiy vositalar bo'yicha;

kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti;

- asosiy vositalarni ta'mirlash pudrat shartnomasiga muvofiq pudratchi tashkilot tomonidan amalga oshirilganda:

➢ *pudratchi tashkilotga bo'nak (avans) berilganda:*

debet 4330 «Boshqa berilgan bo‘naklar» schyoti;

kredit pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500);

- *pudratchi tashkilot tomonidan asosiy vositalarni ta’mirlash bo‘yicha bajarilgan ishlar qiymatni mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga yoki davr xarajatlari tarkibiga kiritilganda:*

debet asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2000) yoki umumishlabchiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (2500) – ishalb chiqarish jarayonida foydalaniladigan asosiy vositalar bo‘yicha, ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligi tannarxiga xarajatlarni olib borish va kalkulatsiyani hisoblash usulidan kelib chiqqan holda;

debet yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2300) – yordamchi ishlab chiqarish uchastkalarida foydalaniladigan asosiy vositalar bo‘yicha;

debet xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarni hisobga oluvchi schyotlar (2700) – xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarni uchastkalarida foydalaniladigan asosiy vositalar bo‘yicha;

debet davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (9400) – ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirishda foydalaniladigan asosiy vositalar bo‘yicha;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar», 6110 «Ajratilgan bo‘linmalarga to‘lanadigan schyotlar», 6120 «Sho‘ba va xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar», 6990 «Boshqa majburiyatlar» va boshqa tegishli majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar;

- *pudratchi tashkilot tomonidan bajarilgan ishlar bo‘yicha qoplashga qabul qilinadigan QQS summasiga:*

debet 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar», 6110 «Ajratilgan bo‘linmalarga to‘lanadigan schyotlar», 6120 «Sho‘ba va xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar», 6990 «Boshqa majburiyatlar» va boshqa tegishli majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar;

- *pudratchi tashkilot tomonidan bajarilgan ishlar bo‘yicha QQS summasi qoplashga qabul qilinganda:*

debet 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti;

- *pudratchi tashkilotga berilgan bo‘nak (avans) qoplashga qabul qilinganda:*

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar», 6110 «Ajratilgan bo‘linmalarga to‘lanadigan schyotlar», 6120 «SHo‘ba va xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar», 6990 «Boshqa majburiyatlar» va boshqa tegishli majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 4330 «Boshqa berilgan bo‘naklar» schyoti;

- *pudratchi tashkilotga qolgan qarz summasi to‘langanda:*

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar», 6110 «Ajratilgan bo‘linmalarga to‘lanadigan schyotlar», 6120 «Sho‘ba va xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar», 6990 «Boshqa majburiyatlar» va boshqa tegishli majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar;

kredit pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500).

Asosiy vositalar ta’mirlash jarayonida ehtiyot qismlar va materiallar chiqishi, ulardan

keyinchalik boshqa asosiy vositalarni ta’mirlash yoki realizatsiya qilishda foydalanilishi mumkin. Tabiiyki, o‘z navbatida quyidagi savol tug‘ilishi mumkin. ***«Asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlari summasini asosiy vositalarni ta’mirlash jarayonida chiqqan ehtiyot qismlar va materiallar qiymatiga kamaytirish mumkinmi?»***

5-son BHMS da, 21-son BHMS da va O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarida ta’mirlash xarajatlarini ishlatilgan, bundan keyin foydalanish uchun yaroqli ehtiyot qismlar va materiallar qiymatiga kamaytirish mumkinligi qayd etilgan qoidalar mavjud emas. Asosiy vositalarni ta’mirlash natijasida olingan, bundan keyin foydalanish uchun yaroqli bo‘lgan ehtiyot qismlar va materiallarni, «Asosiy vositalar qiymatini balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq, asosiy vositalar tugatilishi chog‘ida olingan ehtiyot qismlar va materiallarga o‘xshatib baholash va hisobda aks ettirish mumkin. Asosiy vositalarni ta’mirlash jarayonida chiqqan ehtiyot qismlar (uzellar, detallar) va materiallar (rangli va qimmatbaho metallar) qiymatini kirim qilish «Asosiy vositalar qiymatini balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga ko‘ra materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000) debeti va 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti krediti bo‘yicha yozuv bilan, ya’ni uning daromad qismida aks ettiriladi. Bizning fikrimizcha xuddi shunga o‘xshab, asosiy vositalarni ta’mirlash jarayonida chiqqan ehtiyot qismlar (uzellar, detallar) va materiallar (rangli va qimmatbaho metallar) qiymatini ham korxonaning boshqa operatsion daromadlari tarkibida ya’ni materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000) debeti va 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti kreditida aks ettirish kerak.

Asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishi natijasida olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi ularning buxgalteriya hisobiga qabul qilinish sanasidagi joriy qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bizning fikrimizcha shuning uchun asosiy vositalarni ta’mirlash jarayonida chiqqan ehtiyot qismlar (uzellar, detallar) va materiallar (rangli va qimmatbaho metallar) ularning buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sanadagi joriy qiymati bo‘yicha kirim qilinishi lozim. Ularning yangi emasligini hisobga olib, joriy qiymati bo‘yicha baholashni komissiyaning tavsiyalari, nosozliklar to‘g‘risidagi dalolatnomalarini hisobga olgan holda amalga oshirish kerak.

Asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlarini hisobdan chiqarishni ***ikkinchi usuli - asosiy vositalarni ta’mirlash uchun har oyda bir maromda ajratmalar qilish yo‘li bilan tashkil etilgan rezervlar hisobidan amalga oshirish usulidan*** asosan iqtisodiyotning asosiy vositalarni ta’mirlash kattagina moliyaviy xarajatlarni (tarmoq miqyosida) va uzoq vaqtni talab etadigan yirik sanoat tarmoqlarida foydalaniladi.

Korxonalar asosiy vositalarni ta’mirlash ishlarini o‘tkazish uchun mablag‘lar rezervini tashkil qilish to‘g‘risida qarorni mustaqil ravishda qabul qilib, buni hisob siyosatida nazarda tutishlari ham mumkin.

Asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlari rezervini shakllantirish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun har bir oyda qilinadigan ajratmalarni aniqlashni to‘g‘riligini tasdiqlovchi hujjatlardan foydalaniladi. Bunday hujjatlarga, masalan nosozlik (defekt) qaydnomalari (ta’mirlash ishlarini o‘tkazish zarurligini asoslovchi); asosiy vositalarni boshlang‘ich qiymati yoki joriy (qayta tiklash) qiymati (qayta baholash o‘tkazilgan hollarda); ta’mirlash o‘tkazish smetasi; asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlari rezerviga ajratmalarini yakuniy hisob-kitoblari kiradi.

Mazkur rezevlarga ajratmalar «Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar» elementi tarkibida aks ettiriladi va ko‘zda tutilayotgan xarajatlar qiymati hamda asosiy vositalar har bir asosiy vositalarni kapital ta’mirlashlarning davriyligidan kelib chiqan holda aniqlanadi.

21-son BHMS ga muvofiq xarajatlar va to‘lovlarni xarajatlarga bir maromda qo‘shish maqsadida belgilangan tartibda rezerv qilingan summalarni holati va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervlarini hisobga oluvchi schyotlar (8900) da amalga oshiriladi. Shuning uchun asosiy vositalarni ta’mirlash uchun har oyda bir maromda ajratmalar qilish yo‘li bilan tashkil etilgan rezerv mablag‘larni holati va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish 8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervi» schyotida amalga oshiriladi.

Kapital ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun rezervlar hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Dastgohni kapital ta’mirlash bo‘yicha xarajatlarni bir maromda taqsimlash maqsadida kapital ta’mirlash ishlari uchun rezerv shakllantirishga qaror qildi. Dastgohni kapital ta’mirlash ishlarining xarajat smetasi 60 000 000 so‘mni tashkil etadi. Kapital ta’mirlash bo‘yicha revervga ajratmalarning har oylik summasi 5 000 000 so‘mni (60 000 000 so‘m / 12) tashkil etadi.

Dastgohdan foydalanish maqsadidan kelib chiqib kapital ta’mirlash bo‘yicha revervga ajratmalarning har oylik summasi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- xizmat ko‘rsatish (asosiy ishlab chiqarish) jarayonida foydalanilganda:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti *5 000 000 so‘m;*
kredit 8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervi» schyoti *5 000 000 so‘m;*

- yordamchi ishlab chiqarish uchastkalarida foydalanilganda:

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish « schyoti *5 000 000 so‘m;*
kredit 8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervi» schyoti *5 000 000 so‘m;*

- xizmat ko‘rsatuchi xo‘jaliklarda foydalanilganda:

debet 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyoti *5 000 000 so‘m;*
kredit 8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervi» schyoti *5 000 000 so‘m.*

Rezerv summalari hisobidan haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar va to‘lovlar rezervni kamaytirishga olib borib hisobdan chiqariladi.

Rezerv summalari hisobidan haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar va to‘lovlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Dastgohni kapital ta’mirlash bo‘yicha oldingi misolni davom ettiramiz. Rezerv qilingan summaning barchasi kapital ta’mirlashga ishlatilgan. Kapital ta’mirlash bo‘yicha xarajatlar quyidagilardan iborat: ehtiyot qism xarajatlari – 47 000 000 so‘m, yordamchi materiallar – 3 000 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash xarajatlari – 10 000 000 so‘m.

Rezerv summalari hisobidan haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar va to‘lovlar kapital ta’mirlash kim tomonidan o‘tkazilganligidan kelib chiqib buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- kapital ta’mirlash korxonaning ishchilari tomonidan amalga oshirilganda:

debet 8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervi» schyoti *60 000 000 so‘m;*
kredit 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti *47 000 000 so‘m;*
kredit 1090 «Boshqa materiallar» schyoti *3 000 000 so‘m;*
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti *10 000 000 so‘m;*

- kapital ta’mirlash korxonaning tarkibiy bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilganda:

debet 8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervi» schyoti *60 000 000 so‘m;*

kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti *60 000 000 so‘m;*

- kapital ta’mirlash pudratchi korxona tomonidan amalga oshirilganda:

debet 8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervi» schyoti *60 000 000 so‘m;*

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *60 000 000 so‘m;*

- ajratilgan bo‘linma tomonidan amalga oshirilganda:

debet 8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervi» schyoti *60 000 000 so‘m;*

kredit 6110 «Ajratilgan bo‘linmalarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *60 000 000 sum.*

- Sho‘ba va xo‘jalik jamiyatlari tomonidan amalga oshirilganda:

debet 8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervi» schyoti *60 000 000 so‘m;*

kredit 6120 «Sho‘ba va xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *60 000 000 so‘m.*

Rezervga ajratmalar me’yori har bir hisobot yili oxirida qayta ko‘rib chiqiladi va zarurat bo‘lganda yangi moliya yili uchun ajratmalar miqdori ko‘paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin.

Agar kapital ta’mirlashga rezerv mablag‘lari summasi ushbu asosiy vositalarni ta’mirlashga qilingan haqiqiy xarajatlar summasidan oshib ketsa, oshib ketgan summa bo‘yicha tuzatish (storno qilish) kiritilishi kerak. Biroq 21-son BHMS ga muvofiq agar kapital ta’mirlashga rezerv mablag‘lari summasi ushbu asosiy vositalarni ta’mirlashga qilingan haqiqiy xarajatlar summasidan oshib ketsa, oshib ketgan summa, ya’ni kapital ta’mirlashga rezevr qilingan summalarni foydalanilmay qolgan qismi korxona daramodlari tarkibiga kiritiladi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan foydani hisoblashda soliq solinadigan bazaga qo‘shiladi.

Kapital ta’mirlashga rezevr qilingan summalarni foydalanilmay qolgan qismini korxona daromodlari tarkibiga kiritilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Dastgohni kapital ta’mirlash uchun rezerv shakllantirilgan oldingi misoldan foydalanamiz. Kapital ta’mirlash bo‘yicha xarajatlarni inventarizatsiyasidan keyin binoni kapital ta’mirlash uchun rezerv qilingan mablag‘lar uni kapital ta’mirlashning haqiqiy xarajatlaridan 5 000 000 so‘mga ortiqcha ekanligi aniqlangan.

Dastgohni kapital ta’mirlash bo‘yicha rezerv qilingan summani foydalanilmay qolgan qismini daramodlar tarkibiga kiritilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervi» schyoti *5 000 000 so‘m;*

kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti *5 000 000 so‘m.*

Agar haqiqiy xarajatlar rezerv summasidan oshib ketsa, u holda oshib ketgan summa «Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar» elementi tarkibida aks ettiriladi. Bunda mahsulot (ish, xizmat) larning tannarxini birdan sakrab ketishini oldini olish maqsadida haqiqiy xarajatlarni rezerv qilingan mablag‘larda oshib ketgan summasini 3230 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyotiga olib borish va asosiy vositalarni kapital ta’mirldash amalga oshirilgan yil oxirigacha bir maromda xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarga taqsimlash tavsiya etiladi.

Haqiqiy xarajatlarni rezerv qilingan mablag‘lardan oshib ketgan summasini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Dastgohni kapital ta’mirlash uchun rezerv shakllantirilgan oldingi misoldan foydalanamiz. Kapital ta’mirlash bo‘yicha xarajatlarni inventarizatsiyasidan keyin dastgohni kapital ta’mirlash uchun rezerv qilingan mablag‘lardan uni kapital ta’mirlashning haqiqiy xarajatlari 7 000 000 so‘mga ortiqcha ekanligi aniqlangan va xarajatlarga 4 oy davomida bir maromda taqsimlangan. Kapital ta’mirlash bo‘yicha oritiqcha xarajatlar quyidagilardan iborat: ehtiyot qism xarajatlari – 4 000 000 so‘m, yordamchi materiallar – 1 000 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash xarajatlari – 2 000 000 so‘m.

Dastgohni kapital ta’mirlash bo‘yicha haqiqiy xarajatlarini rezerv qilingan mablag‘lardan oshgan summasi kapital ta’mirlash kim tomonidan o‘tkazilganligidan kelib chiqib buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- kapital ta’mirlash korxonaning ishchilari tomonidan amalga oshirilganda:

debet 3230 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 7 000 000 so‘m;
kredit 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti 4 000 000 so‘m;
kredit 1090 «Boshqa materiallar» schyoti 1 000 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 2 000 000 so‘m;

- kapital ta’mirlash korxonaning tarkibiy bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilganda:

debet 3230 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 7 000 000 so‘m;
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 7 000 000 so‘m;

- kapital ta’mirlash pudratchi korxona tomonidan amalga oshirilganda:

debet 3230 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 7 000 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 7 000 000 so‘m;

- ajratilgan bo‘linma tomonidan amalga oshirilganda:

debet 3230 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 7 000 000 so‘m;
kredit 6110 «Ajratilgan bo‘linmalarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 7 000 000 sum;

- Sho‘ba va xo‘jalik jamiyatlari tomonidan amalga oshirilganda:

debet 3230 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 7 000 000 so‘m;
kredit 6120 «Sho‘ba va xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 7 000 000 so‘m.

Dastgohni foydalanish maqsadidan kelib chiqib kapital ta’mirlash bo‘yicha ortiqcha xarajatlar har oylik summasi 1 750 000 so‘m (7 000 000 so‘m / 4) buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- xizmat ko‘rsatish (asosiy ishlab chiqarish) jarayonida foydalanilganda:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 1 750 000 so‘m;
kredit 3230 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 1 750 000 so‘m.

- yordamchi ishlab chiqarish uchastkalarida foydalanilganda:

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish « schyoti 1 750 000 so‘m;
kredit 3230 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 1 750 000 so‘m.

- xizmat ko‘rsatuchi xo‘jaliklarda foydalanilganda:

debet 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyoti 1 750 000 so‘m;
kredit 3230 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 1 750 000 so‘m.

Asosiy vositalar bo‘yicha ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uzoq muddat talab qiladigan

va ko‘rsatilgan ishlarning salmoqli qismi keyingi hisobot yiliga o‘tadigan hollarda, hisobot yilida shakllantirilgan asosiy vositalarni ta’mirlash rezervlarining qoldiq summasiga tuzatishlar kiritmaslik (storno qilmaslik) mumkin.

Rezervlar summasi davriy ravishda (yil oxiriga albatta) smeta, hisob-kitoblar va h.k.larning ma’lumotlari bo‘yicha tekshirib turiladi va kerak bo‘lgan hollarda tuzatishlar kiritiladi.

Pudrat usulida asosiy vositalarni ta’mirlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar pudratchi tashkilot tomonidan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va schyot-faktura bilan rasmiylashtiriladi. Bajarilgan ishlar dalolatnomasi birxillashtirilgan (namunaviy) hujjat tarzida ham, erkin shaklda ham tuzilishi mumkin. Pudrat usuli bilan bajarilgan ta’mirlash-qurilishi ishlari tugaganidan so‘ng pudratchi tashkilot tomonidan «Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) to‘g‘risidagi ma’lumotnoma-schyot-faktura» rasmiylashtiriladi. Pudratchi tomonidan buyurtmachining materiallari ishlatilgan taqdirda yukxat (yoki qabul qilish-topshirish dalolatnomasi) asosida berilgan materiallar smeta me’yorlarida hisobga olinishi kerak. Bunda ularning qiymati «pudratchining boshqa xarajatlari» hisoblangan holda bajarilgan ishlar hajmiga kiritiladi, bajarilgan ishlar yakunida esa ushbu materiallar qiymatining qaytarilishi ko‘rsatiladi.

Ishlar (qurilish, ta’mirlash-qurilish, loyiha-qidiruv, ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlar va boshqalar) bajarish yoki xizmatlar (transportga doir, mol-mulkni ijaraga berish, aloqa xizmatlari va boshqalar) ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan korxonalar belgilangan shaklga muvofiq schyot-faktura yozish chog‘ida, ham ishlar (xizmatlar) ijrochisining, ham buyurtmachining barcha rekvizitlarini to‘ldirishlari kerak.

Agar ishlar bajarayotgan korxonada buyurtmachiga imzo chekish uchun taqdim etilgan, bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotnoma-schyot-fakturada schyot-fakturaning belgilangan shaklida aks ettirilgan barcha majburiy rekvizitlar (ushbu hujjatni yozishga asos bo‘lgan shartnomaning ro‘yxat raqami va sanasi, nomlanishlar, manzillar, STIR, XXTUT bo‘yicha tarmoq kodi) mavjud bo‘lsa, qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) stavkasi va summasi alohida ajratilgan, QQS to‘lamaydiganlar bo‘yicha «QQS siz» belgisi qayd etilgan bo‘lsa, bunday korxonalar qo‘shimcha ravishda schyot-faktura yozmasligi kerak. Bunda «Bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotnoma-schyot-faktura» schyot-faktura bo‘lib hisoblanadi.

Asosiy vositalarni ta’mirlashdan, rekonstruksiya qilishdan, modernizatsiya qilishdan qabul qilish-topshirishni rasmiylashtirish va hisobga olish asosiy vositalarni ta’mirlashdan, rekonstruksiya qilishdan, modernizatsiya qilishdan qabul qilish-topshirish dalolatnomasi (AV-3 namunaviy shakl) bilan rasmiylashtiriladi (AV-3 namunaviy shakl 10-ilovaga qarang).

Dalolatnoma ikki bo‘limdan iborat. Birinchisida asosiy vositalarni ta’mirlashga, rekonstruksiya qilishga, modernizatsiya qilishga berish vaqtidagi ma’lumotlar, ikkinchisda esa asosiy vositalarni ta’mirlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlar ko‘rsatiladi.

Dalolatnoma asosiy vositalarni qabul qilish komissiyasi a’zolari yoki qabul qilishga mas’ul shaxs tomonidan imzolanadi. Agar ta’mirlash boshqa korxona tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, u holda dalolatnoma ushbu korxonaning vakili tomonidan imzolagan bo‘lishi kerak. Agar ta’mirlash korxonaning tarkibiy bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, u holda dalolatnomaga ta’mirlashni, rekonstruksiya qilishni, modernizatsiya qilishni amalga oshirgan tarkibiy bo‘linmaning vakili o‘zining imzosini qo‘yishi va korxona rahbari yoki u tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Dalolatnomaning bir nusxasi buxgalteriyaga topshiriladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, agar ta’mirlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish o‘zga korxona tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa, u holda dalolatnoma ikki nusxada tuziladi va birinchi nusxa korxonada qoladi, ikkinchi nusxa esa ta’mirlashni, rekonstruksiya qilishni, modernizatsiya qilishni amalga oshirgan korxonaga beriladi. Ta’mirlash, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish bo‘yicha ma’lumotlar asosiy vositalarni hisobga olish kartochkasiga (AV-6 namunaviy shakl) kiritiladi.

Asosiy vositalarni ta’mirlashdan o‘z vaqtida olinishi nazoratini tashkil etish maqsadida mazkur asosiy vositalar inventar kartochkasini kartotekada «Ta’mirlashdagi asosiy vositalar» guruhiga olib qo‘yish tavsiya etiladi. Asosiy vositalar ta’mirlashdan kelib tushgandan keyin tegishli o‘tkazishlar qilinadi.

8-§. Asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish

Asosiy vositalarning inventarizatsiyasi – inventar kartochkalari (inventar daftarlari) bo‘yicha hisob ma’lumotlari aktivlar haqiqatda mavjudligiga mos kelishi, ularning texnik holati va baholanishini tekshiriladigan jarayonni o‘z ichiga oladigan mol-mulk va majburiyatlarni umumiy inventarizatsiyasining bir qismini tashkil etadi. SHuni ta’kidlash lozimki, inventarizatsiya asosiy vositalarni saqlanishi (mavjudligi) ni keyingi buxgalteriya nazoratini va hisob ma’lumotlarini ishonchliligini ta’minlashning qulay va unumli vositasi bo‘lib hisoblanadi.

Asosiy vositalarning haqiqatda mavjudligini aniqlash va ularning butligini nazorat qilish maqsadida korxonalar tomonidan vaqti-vaqti bilan, biroq ikki yilda kamida bir marta asosiy vositalarni inventarizatsiyasi o‘tkaziladi, kutubxona fondlari esa besh yilda bir marta inventarizatsiya qilinadi. Barcha asosiy vositalar: xususiylari, vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish huquqi berilganlari, ijaraga olinganlari, mas’ul saqlashda bo‘lgan va qo‘yilganlari inventarizatsiyadan o‘tkaziladi.

Korxonaning mulkini, shu jumladan asosiy vositalarni inventarizatsiyasini o‘tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirishning umumiy qoidalari va umumbelgilangan tartibi 19-son BHMS bilan belgilangan.

Korxona rahbari asosiy vositalarni inventarizatsiyasini o‘tkazish sanasini va uni o‘tkazish tartibini tartibga solishni belgilash huquqiga ega. Bunda u hisobot yilida o‘tkaziladigan inventarizatsiya soni, ularni o‘tkazish sanasi, har birida tekshiriladigan mol - mulk ro‘yxatini belgilaydi. Bularning barchasi korxonaning hisob siyosatining obyekti bo‘lib hisoblanadi. Biroq buxgalteriya hisobi bo‘yicha qonunchilikda korxonalarning asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish majburiyatlari nazarda tutilgan.

Korxona rahbari asosiy vositalarning to‘g‘ri hamda o‘z vaqtida inventarizatsiyadan o‘tkazilishi va ularning kutilmaganda inventarizatsiyadan o‘tkazilishini ta’minlash uchun javobgardir. Ular asosiy vositalarning haqiqatda mavjudligini qisqa muddatlarda to‘liq va aniq tekshirishni ta’minlaydigan sharoitlarni yaratib berishlari shart.

Bosh buxgalter tegishli bo‘linmalar va xizmatlar rahbarlari bilan birgalikda inventarizatsiya o‘tkazishning belgilangan qoidalariga rioya etilishini sinchiklab nazorat qilishga majbur.

Korxonalarda quyidagi hollarda asosiy vositalar inventarizatsiyasi o‘tkazilishi shart:

- asosiy vositalar ijaraga berilganda, sotib olinganda, sotilganda va boshqa qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda;

- yillik moliyaviy hisobotni tuzish oldidan, inventarizatsiya hisobot yilining 1-oktyabridan kechiktirmay o‘tkaziladigan mol-mulkdan tashqari.

Korxonalarda quyidagi hollarda asosiy vositalar inventarizatsiyasi o‘tkaziladi:

- asosiy vositalar qayta baholanganda;
- moddiy javobgar shaxslar almashganda (ishlarni qabul qilish - topshirish kunida);
- o‘g‘irlik yoki suyiiste’mol, shuningdek, asosiy vositalarni ishdan chiqarish faktlari aniqlanganda;
- tabiiy ofatlar, yong‘inlar, falokatlar yoki favqulodda holatlar yuzaga keltirgan boshqa favqulodda vaziyatlar yuz berganda;
- korxona tugatilganda (qayta tashkil etilganda) tugatish (ajratish) balansini tuzish oldidan va buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tartibga solish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Asosiy vositalarni qayta baholashni o‘tkazish bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish chora - tadbirlari kompleksida korxona rahbari tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq asosiy vositalarning mavjudligini tekshirish tavsiya etiladi. SHu bilan birga asosiy vositalarni aniqlik kiritilgan baholarini inventarizatsiya o‘tkazish va ularni qayta baholash jarayonida farqlab olish lozim. Asosiy vositalarining baholariga aniqlik kiritish deganda masalan, aktivlarni boshlang‘ich qiymati shakllanganda hisobga olinmagan yoki ortiqcha qo‘shilgan xarajatlar aniqlanishi tushuniladi. Qayta baholashning maqsadi bo‘lib asosiy vositalarning hozirgi vaqtga real qiymatini ularning boshlang‘ich qiymatining bozor bahosini va qayta tiklash sharoitlarini hisobga olgan holda joriy (qayta tiklash) qiymatini keltirish yo‘li aniqlash hisoblanadi.

Korxona rahbari o‘zining qarori bilan tanlash yo‘li bilan (qisman), reja asosida va rejadan tashqari (to‘liq va tanlash yo‘li bilan), joriy va yillik o‘tkaziladigan inventarizatsiyalarni belgilashi mumkin. Reja asosida o‘tkaziladigan inventarizatsiya reja-jadvaliga muvofiq, rejadan tashqari o‘tkaziladigani favqulodda holatlarda: o‘g‘irlik, yirik avariyalar va boshqa holatlar bo‘lganda amalga oshiriladi. Joriy inventarizatsiya hisobot yili davomida, yillik inventarizatsiya esa yillik moliyaviy hisobot tuzishdan oldin va asosiy vositalarni qayta baholashda o‘tkaziladi. Tanlash yo‘li bilan inventarizatsiya har xil sabablarga ko‘ra, shu jumlandan asosiy vositalarni qayta baholashda o‘tkaziladi.

Inventarizatsiya o‘tkazish uchun korxonada doimiy ishlaydigan inventarizatsiya komissiyasi tuziladi. Ishlar hajmi katta bo‘lganda mol-mulk va moliyaviy majburiyatlar inventarizatsiyasini bir vaqtda o‘tkazish uchun ishchi inventarizatsiya komissiyasi tuziladi. Ishlar hajmi kichik va korxonada reviziya komissiyasi mavjud bo‘lganda inventarizatsiya o‘tkazishni unga yuklash mumkin.

Asosiy vositalarni inventarizatsiyasini o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorni, doimiy ishlaydigan va ishchi inventarizatsiya komissiyalarining shaxsiy tarkibini korxona rahbari tasdiqlaydi. Komissiya tarkibi to‘g‘risidagi hujjat (buyruq, qaror, farmoyish) inventarizatsiyalarni o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruqlar bajarilishini nazorat qilish daftarida ro‘yxatga olinadi (11- va 12-ilovaga qarang). Buyruqda asosiy vositalar foydalanishda bo‘lgan joyida inventarizatsiyasini o‘tkazish bo‘yicha aniq vazifalarni, qoidalar va muddatlarini belgilash; asosiy vositalarni haqiqatda mavjudligini hisob ma’lumotlaridan farqini rasmiylashtirishga alohida e’tibor qaratgan holda hujjatlashtirishning qoidalarini batafsil aniqlab berish lozim.

Doimiy ishlaydigan inventarizatsiya komissiya tarkibiga korxona rahbari yoki uning o‘rinbosari (komissiya raisi), bosh buxgalter va boshqa mutaxassislar (muhandislar, iqtisodchilar, texniklar va h.k.lar) kiritiladi. SHuningdek komissiyasi tarkibiga korxonaning ichki audit vakillari kiritilishi mumkin. Ishchi inventarizatsiya komissiya tarkibiga inventarizatsiya o‘tkazishni tayinlagan korxona rahbari (komissiya raisi), mutaxassislar: tovarshunos, muhandis,

texnolog, mexanik, ish yurituvchi, iqtisodchi, buxgalteriya xodimi va boshqalar kiritiladi. Inventarizatsiya o‘tkazish chog‘ida komissiyaning aqalli bitta a’zosi yo‘q bo‘lsa, bu hol inventarizatsiya natijalarini haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Komissiya tarkibiga inventarizatsiya o‘tkazilayotgan asosiy vositalarni narxlari va birlamchi hisobni yaxshi biladigan tajribali xodimlar kiritilishi kerak. Bir moddiy javobgar shaxslarda xuddi shu xodimni ketma-ket ikki marta ishchi inventarizatsiya komissiyasining raisi qilib tayinlash taqiqlanadi.

Doimiy ishlaydigan inventarizatsiya komissiyalari:

- asosiy vositalar saqlanishini ta’minlashga doir profilaktika ishlarini o‘tkazadi, zarurat bo‘lganda o‘z majlislarida asosiy vositalarning saqlanishi masalalari bo‘yicha sex, bo‘lim, sho‘balar rahbarlarining axborotlarini tinglaydi;
- inventarizatsiya o‘tkazilishini tashkil etadi va ishchi inventarizatsiya komissiyalari a’zolariga yo‘l-yo‘riq beradi;
- inventarizatsiya to‘g‘ri o‘tkazilganini nazorat tariqasida tekshiruvlarni amalga oshiradi, shuningdek, inventarizatsiya orasidagi davrda asosiy vositalarni tanlab inventarizatsiya o‘tkazadi;
- zarur hollarda (inventarizatsiya o‘tkazish qoidalari jiddiy buzilganligi aniqlangan va boshqa hollarda) korxona rahbarining topshirig‘iga binoan takroriy yalpi inventarizatsiyalarni o‘tkazadi;
- asosiy vositalar kamomadi yoki ularni yo‘qolishiga, shuningdek, boshqa buzilishlarga yo‘l qo‘ygan shaxslardan olingan tushuntirishlarni ko‘rib chiqadi va aniqlangan kamomadlar hamda asosiy vositalarni buzilishidan ko‘rilgan talafotlarni bir izga solish tartibi to‘g‘risida taklif beradilar.

Ishchi inventarizatsiya komissiyalari:

- saqlash va ishlab chiqarish joylarida asosiy vositalarni inventarizatsiyasini amalga oshiradi;
- korxona buxgalteriyasi bilan birgalikda inventarizatsiya natijalarini aniqlashda ishtirok etadi, kamomad va yo‘qotishlarni hisobga olish hamda ularni qoplash va hisobdan chiqarish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;
- asosiy vositalarni qabul qilish, saqlash va foydalanishga berishni tartibga solish, hisobga olishni yaxshilash va ular saqlanishini nazorat qilishni tartibga solish masalalari, shuningdek, ishlatilmaydigan asosiy vositalarni sotish bo‘yicha takliflar kiritadi.

Ishchi inventarizatsiya komissiyalari quyidagi hollarda:

- korxona rahbarining buyrug‘iga muvofiq inventarizatsiyani o‘z vaqtida o‘tkazish va uni o‘tkazish tartibiga rioya qilish uchun;
- hisob-kitoblarda tekshirilayotgan asosiy vositalarning haqiqatdagi qoldiqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ro‘yxatga to‘liq va aniq qayd etilishi uchun;
- asosiy vositalarning farqlovchi belgilari (turi, navi, rusumi, hajmi va h.k.) ro‘yxatda to‘g‘ri ko‘rsatilishi uchun;
- belgilangan tartibga muvofiq inventarizatsiya materiallari to‘g‘ri va o‘z vaqtida rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo‘ladi.

Inventarizatsiya komissiyalari a’zolari asosiy vositalar kamomadi yoki ortiqcha chiqqanini yashirish maqsadida asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatiga (13-ilovaga qarang) asosiy vositalarning haqiqatdagi qoldiqlari to‘g‘risida ataylab noto‘g‘ri ma’lumotlarni kiritganlik uchun belgilangan tartibga muvofiq javobgarlikka tortiladilar. Asosiy vositalarning haqiqatda mavjudligini tekshirishni boshlashdan oldin inventarizatsiya komissiyasi inventarizatsiya paytidagi eng so‘nggi kirim-chiqim hujjatlarini yoki asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobotlarni olishi kerak.

Inventarizatsiya komissiyasining raisi hisobotlarga ilova qilingan barcha hujjatlarga «inventarizatsiyagacha ...da (sana)» deb ko‘rsatgan holda viza qo‘yadi, bu esa buxgalteriyaga hisob ma’lumotlari bo‘yicha inventarizatsiya boshlash paytida asosiy vositalarni aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi kerak. Moddiy javobgar shaxslar inventarizatsiya boshlanishiga qadar asosiy vositalarga doir barcha hujjatlar buxgalteriya yoki komissiyaga topshirilgani va ular javobgarligiga kelib tushgan barcha asosiy vositalar kirim qilingani, chiqib ketganlari esa hisobdan o‘chirilgani to‘g‘risida tilxat beradilar.

Inventarizatsiyani o‘tkazish oldidan ishchi inventarizatsiya komissiyalari a’zolariga buyruq, komissiya raislariga esa plombir topshiriladi (inventarizatsiya komissiyasi ishlaydigan butun ish vaqtida plombir komissiya raisida saqlanadi).

Asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazishni boshlashga qadar quyidagilarni tekshirish zarur:

- inventar kartochkalari, inventar daftarlari yoki ro‘yxatlarining, shuningdek analitik hisobning boshqa registrlarining mavjudligi va holati;

- texnik pasportlar yoki boshqa texnik hujjatlarning mavjudligi va holati;

- korxona tomonidan ijaraga, saqlashga va vaqtincha foydalanishga topshirilgan yoki qabul qilingan asosiy vositalarga doir hujjatlarning mavjudligi. Hujjatlar yo‘q bo‘lsa, ularning olinishi yoki rasmiylashtirilishini ta’minlash zarur.

Inventarizatsiya komissiyasi asosiy vositalarning haqiqiy qoldig‘i to‘g‘risidagi ma’lumotlarni asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlariga to‘liq va aniq kiritilishini, inventarizatsiya materiallarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida rasmiylashtirilishini ta’minlaydi. Asosiy vositalarni haqiqatda mavjudligini tekshirish moddiy javobgar shaxsning albatta ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobi registrlarida yoki texnik hujjatlarda tafovut yoki noaniqliklar aniqlanganda tegishli to‘g‘rilashlar va aniqliklar kiritilishi kerak.

Asosiy vositalarni inventarizatsiyasini o‘tkazish jarayonida komissiya majburiy tartibda asosiy vositalarni naturada ko‘zdan kechiradi va asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlariga ularning to‘liq nomi, vazifasi, inventar raqamlari va asosiy texnik yoki foydalanish ko‘rsatkichlarini qayd etadi. Komissiya, mulkga egalik qilish davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar, inshootlar va boshqa ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha tegishli guvohnomalar mavjudligi tekshiradi. SHuningdek komissiya, korxona mulkdorligida bo‘lgan yer uchastkalari, suv havzalari va boshqa, tabiatdan foydalanish asosiy vositalarga mulk huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mavjudligini ham tekshiradi.

O‘zining asosiy vositalarini inventarizatsiyasini o‘tkazish bilan bir qatorda ijaraga olingan va mas’uliyatni saqlashda bo‘lgan asosiy vositalar ham tekshiriladi. Ko‘rsatilgan asosiy vositalar bo‘yicha alohida asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlari tuziladi, unda ana shu asosiy vositalar mas’ul saqlash yoki ijaraga qabul qilinganligini tasdiqlaydigan hujjatlar ko‘rsatib o‘tiladi.

Inventarizatsiya o‘tkazilayotganda inventarizatsiya bo‘yicha birlamchi hisob hujjatlarining namunaviy shakllari 19-son BHMS ning talablariga muvofiq qo‘llanilishi kerak. Ish hayvonlari va mahsuldor mollar, parranda va asalari oilalari, ko‘p yillik o‘simliklar, ko‘chatzorlar inventarizatsiyasi o‘tkazilganda qishloq xo‘jalik korxonalari uchun tasdiqlangan ro‘yxat shakllari qo‘llaniladi.

Asosiy vositalar asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlariga asosiy vositalarning asosiy vazifasiga muvofiq nomlari bo‘yicha qayd etiladi. Agar asosiy vositalar rekonstruksiya, modernizatsiya qilingan, kengaytirilgan, qayta jihozlangan yoki qisman

tugatilgan va buning oqibatida uning asosiy vazifasi o‘zgargan bo‘lsa, u holda asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlariga yangi vazifasiga muvofiq keladigan nom bilan kiritiladi.

Agar komissiya kapital tusda qilingan ishlar (qavat qurish, yangi xonalar qurish va h.k.lar) yoki imorat va inshootlarni qisman tugatish (ayrim konstruktiv unsurlarni buzish) buxgalteriya hisobida aks ettirilmagan deb topsa, u holda tegishli hujjatlar bo‘yicha asosiy vositalar boshlang‘ich qiymatining ko‘payish yoki kamayish summasini aniqlashi va asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlarida qilingan o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keltirishi kerak.

Mashinalar, asbob-uskunalar, kuch qurilmalari va transport vositalarining inventarizatsiya natijalari asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlariga yakka tartibda, inventar raqami, tayyorlagan (ishlab chiqarilgan) zavodi, ishlab chiqarilgan yili, ishlab chiqarish vazifasi, quvvatlari, yuk ko‘tarish quvvati va boshqa ko‘rsatkichlar ko‘rsatilgan holda kiritiladi. Umumiy nomdagi va foydalanish maqsadi bir xildagi, bir xil qiymatdagi, korxonaning bir tarkibiy bo‘linmasida foydalanishda bo‘lgan, analitik hisobi inventar kartochkalarda yuritiladigan asosiy vositalar (xo‘jalik va ishlab chiqarish inventarlari, maxsus asbob-uskunalar va qurilmalar, dastgohlar va h.k.lar) asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlariga nomlari va soni bo‘yicha qo‘shiladi.

Asosiy vositalarning inventar obyektlariga berilgan raqamlar, qoidaga ko‘ra, o‘zgarmasligi kerak. Asosiy vositalar o‘zlarining texnik-ishlab chiqarish vazifasiga ko‘ra kiritilishi kerak bo‘lgan asosiy vositalar guruhidan boshqa guruhga xato ravishda kiritilgan hollarda, shuningdek, noto‘g‘ri raqam qo‘yilganligi aniqlangan hollarda raqamlar o‘zgartirilishi mumkin.

Inventarizatsiya paytida korxonadan tashqarida bo‘lgan asosiy vositalar (uzoq reyslarda bo‘lgan avtomashinalar, kapital ta’mirlashga yuborilgan mashina va uskunalar va h.k.) doimiy ishlaydigan yoki ishchi komissiya tomonidan ular korxonadan vaqtincha chiqib ketishi paytiga qadar inventarizatsiyadan o‘tkazilishi kerak.

Foydalanishga yaroqsiz va qayta tiklab bo‘lmaydigan asosiy vositalar asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlariga kiritilmaydi. Mazkur asosiy vositalarga inventarizatsiya komissiyasi alohida asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlari tuzib, ularni foydalanishga topshirish vaqti va ushbu asosiy vositalarni yaroqsiz holga keltirgan sabablar (shikastlanish, to‘liq eskirish va h.k.lar) ko‘rsatiladi. Bunday asosiy vositalarni hisobdan chiqarish umumiy belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarning haqiqatda mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ikki nusxadan kam bo‘lmagan asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlariga yoki asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish dalolatnomalariga yoziladi. Ijaraga olingan va mas’ul saqlashda bo‘lgan asosiy vositalar bo‘yicha alohida asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlari tuziladi, unda ana shu asosiy vositalar mas’ul saqlash yoki ijaraga qabul qilinganligini tasdiqlaydigan hujjatlar ko‘rsatib o‘tiladi.

Asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlari hisoblash va boshqa texnika vositalardan foydalangan holda yoki qo‘lda to‘ldirilishi mumkin. Qo‘lda tuziladigan asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlari aniq va tushunarli ravshan qilib siyohda yoki sharikli ruchkada to‘ldiriladi. Hech qanday o‘chirish va tuzatib yozishlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlari to‘g‘ri chiziqli yozuvda foydalanish joyi, tasniflanuvchi guruhi, inventar raqamlari bo‘yicha tarkibi, asosiy vositalarning asosiy texnik yoki foydalanish tavsifini ko‘rsatgan holda ularning to‘liq nomi (ularning foydalanish maqsadlariga muvofiq) bo‘yicha tuziladi.

Asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlarining barcha nusxalarida xatolarni tuzatish noto‘g‘ri yozuvlar ustiga chizish va chizilganlari ustiga to‘g‘ri yozuvlarni qo‘yish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Tuzatishlar ta’kidlanishi va inventarizatsiya komissiyasining barcha a’zolari va moddiy javobgar shaxslar tomonidan imzolanishi kerak. Asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlarida to‘ldirilmagan qartorlar qoldirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi va oxirgi varaqlarda to‘ldirilmagan qatorlar chizib qo‘yiladi. Asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlarining oxirgi varag‘ida baholarni va yakunlarni hisoblab chiqilganligini tekshirilganligi to‘g‘risida mazkur tekshirishlarni amalga oshirgan shaxslarning imzosi bilan belgi qo‘yiladi.

Asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlarini inventarizatsiya komissiyasining barcha a’zolari va moddiy javobgar shaxslar tomonidan imzolanadi. Asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlari oxirida moddiy javobgar shaxslar komissiya qiymatliklarni ularning ishtirokida tekshirilganligi, komissiya a’zolariga nisbatan hech qanday da’volar yo‘qligi va asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlarida sanalgan asosiy vositalar mas’ul saqlashga qabul qilinganini tasdiqlaydigan tilxatni imzolaydilar. Moddiy javobgar shaxslar o‘zgargan hollarda asosiy vositalarni haqiqatda mavjudligini tekshirish paytida asosiy vositalarni qabul qilgan shaxs asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlariga ularni olganligi, topshirgan shaxslar esa ularni topshirganligi xususida imzo chekadilar.

Binolar, inshootlar, mashinalar, uskunalar, energetik qurilmalar va boshqa asosiy vositalarning tugallanmagan kapital ta’mirlarini inventarizatsiya qilish, naturada ishlar holatini tekshirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Tugallanmagan kapital ta’mirga, ya’ni ta’mirlanayotgan asosiy vositalarga ta’mirlanishi tugallanmagan asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish dalolatnomasi (14-ilovaga qarang) tuziladi, unda ta’mirlanayotgan asosiy vositalarni nomi, ishlar nomi va bajarish foizi, bajarilgan ishlarning smetadagi va haqiqiy qiymatlari ko‘rsatiladi.

Agar asosiy vositalarni inventarizatsiyasi bir necha kun mobaynida o‘tkazilsa, asosiy vositalar saqlanayotgan xona inventarizatsiya komissiyasi ketayotganida muhrlanishi kerak. Inventarizatsiya komissiyalari ishida tanaffus bo‘lganda (tushlik vaqti, tunda, boshqa sabablarga ko‘ra) asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlari inventarizatsiya o‘tkazilayotgan yopiq xonadagi yashikda (javon, seyfda) saqlanishi shart.

Moddiy javobgar shaxslar inventarizatsiyadan keyin asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxatlarida xatolarni aniqlagan hollarda ular darhol (ombor, omborxona, sho‘ba va h.k.lar ochilguniga qadar) buni ishchi inventarizatsiya komissiyasiga ma’lum qilishlari shart. Moddiy javobgar shaxslarning kamomad yoki ortiqcha chiqishi asosiy vositalar nomidagi xato, o‘tkazib yuborish, yanglishish va h.k.lar tufayli yuz bergani xususidagi tushuntirishlari ombor, omborxona, sho‘ba ochilguniga qadar qabul qilinadi. Inventarizatsiya komissiyasi ko‘rsatilgan faktlarni tekshirishni amalga oshiradi va ular tasdiqlangan taqdirda aniqlangan xatolarni belgilangan tartibda tuzatadi.

Inventarizatsiya tugaganidan keyin inventarizatsiya to‘g‘ri o‘tkazilganini nazorat tariqasida tekshirishlar o‘tkazilishi mumkin. Ularni inventarizatsiya komissiyalari a’zolari va moddiy javobgar shaxslar ishtirokida albatta inventarizatsiya o‘tkazilgan ombor, omborxona, tarkibiy bo‘linma ombori va h.k.lar ochilishiga qadar o‘tkazish kerak. Inventarizatsiyalar to‘g‘ri o‘tkazilganini nazorat tariqasida tekshirish natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi va inventarizatsiya to‘g‘ri o‘tkazilganligini nazorat tariqasida tekshirishlarni hisobga olish daftarida ro‘yxatga olinadi.

Asosiy vositalarning inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalari (15-ilovaga qarang) inventarizatsiyada hisob ma'lumotlaridan tafovutlar aniqlangan asosiy vositalar bo'yicha tuziladi. Asosiy vositalarning inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalarida inventarizatsiya natijalari, ya'ni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha ko'rsatkichlar va asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxatlari ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutlar aks ettiriladi.

Ortiqcha va kam chiqqan asosiy vositalarning qiymati asosiy vositalarning inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalarida ularning buxgalteriya hisobidagi bahosiga muvofiq keltiriladi. Inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish uchun yagona registrlar qo'llanishi mumkin, ularda asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxatlari va asosiy vositalarning inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalarining ko'rsatkichlari birlashtiriladi. Korxonaga tegishli bo'lmagan, lekin buxgalteriya hisobida qayd etilgan (mas'uliyatli saqlanishda bo'lgan, ijaraga olingan) asosiy vositalarga alohida asosiy vositalarning inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalari tuziladi. Asosiy vositalarning inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalari hisoblash va boshqa texnika vositalaridan foydalanib, shuningdek, qo'lda tuzilishi mumkin. Ayni vaqtda komissiya bunda aybdor bo'lgan shaxslarni va u yoki bu asosiy vositalarni konstruktiv o'zgartirish hisob registrlarida aks ettirilmaganligining sabablarini aniqlashi shart.

Asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxatlari va asosiy vositalarning inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalari buxgalteriyaga topshiriladi va bu yerda ularning rasmiylashtirilishi va hisob-kitoblari tekshiriladi. Keyin markaziy inventarizatsiya komissiya asosiy vositalarning inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalari ma'lumotlari bo'yicha hisob ma'lumotlaridan tafovutlar bo'yicha kerakli qarorlarni qabul qiladi va mazkur qarorlar korxona bo'yicha inventarizatsiya natijalari to'g'risidagi buyruq bilan tasdiqlanib qo'yiladi. Aniqlangan tafovutlar bo'yicha inventarizatsiya komissiyasi asosiy vositalarning kamomadi va boshqa yo'qotishlar faktlari ogohlantirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqadi va ularni tasdiqlash uchun markaziy inventarizatsiya komissiyaga taqdim etadi.

Inventarizatsiya vaqtida aniqlangan qiymatliklar haqiqatda mavjudligi bilan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutlarni tartibga solish to'g'risidagi takliflar ko'rib chiqish uchun korxona rahbariga taqdim etiladi. Qoplashga qabul qilish to'g'risidagi oxirgi qarorni korxona rahbari tomonidan qabul qilinadi.

Inventarizatsiya natijalari inventarizatsiya tugagan oydagi hisob va hisobotda, yillik inventarizatsiya esa yillik moliyaviy hisobotda aks ettirilishi kerak.

Hisobga qabul qilinmagan asosiy vositalar, shuningdek, hisob registrlarida ularni tavsiflaydigan ma'lumotlar bo'lmagan yoki noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatilgan asosiy vositalar aniqlangan taqdirda komissiya asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxatlariga ana shu asosiy vositalar bo'yicha yetishmaydigan, yoki to'g'ri ma'lumotlarni va texnik ko'rsatkichlarni kiritishi kerak, masalan: binolar bo'yicha - ularning vazifasi, ular qurilgan asosiy materiallar, hajmi (tashqi yoki ichki tomondan o'lchab), maydoni (umumiy foydali maydoni), qavatlar soni (erto'la, yarim yerto'la va h.k.larsiz), qurilgan yili va h.k.lar; kanallar bo'yicha - uzunligi, chuqurligi va eni (tubi va yuzasi bo'yicha), sun'iy inshootlar, tubi va yonlarini mahkamlash materiallari, ko'priklar bo'yicha - joylashgan yeri, materiallar turi va asosiy o'lchamlari; yo'llar bo'yicha - yo'l turi (tosh yo'l, profilli yo'l), uzunligi, qoplash materiallari va mashina qatnaydigan eni va h.k.lar ko'rsatilishi kerak.

Inventarizatsiyada aniqlangan hisobga olinmagan asosiy vositalarni baholash joriy qiymat bo'yicha o'tkazilishi, eskirish esa asosiy vositalarning haqiqiy texnik holati bo'yicha

belgilanishi, bunda baholash va eskirish to‘g‘risidagi ma’lumotlar tegishli dalolatnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak. Inventarizatsiya komissiyasi inventarizatsiyada aniqlangan hisobga olinmagan asosiy vositalar qachon va kimning farmoyishi bilan barpo etilganini, ularni barpo etish xarajatlari qayerga hisobdan chiqarilganini aniqlashi va buni bayonnomada aks ettirishi shart.

Inventarizatsiyada aniqlangan ortiqcha asosiy vositalarning qiymatini kirim qilish boshqa operatsion daromadlar sifatida 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyotida aks ettiriladi.

Inventarizatsiyada aniqlangan ortiqcha asosiy vositalarning qiymatini kirim qilish tartibini quyidagi misolda ko‘rib o‘tamiz. Korxonaning avtobuslarga texnik xizmat ko‘rsatish sexidagi asosiy vositalarni inventarizatsiyasini o‘tkazdi va inventarizatsiya natijasida ortiqcha (hisobga olinmagan) dastgohning mavjudligi aniqlandi. Dastgohni joriy qiymati – 25 000 000 so‘m.

Inventarizatsiya natijasida aniqlangan dastgohning kirim qilinishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 0310 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti *25 000 000 so‘m;*
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti *25 000 000 so‘m.*

Inventarizatsiya o‘tkazish jarayonida kamomad fakti aniqlangan yetishmayotgan asosiy vositalar aybdor shaxslar aniqlangan kunga qadar 5910 «Kamomad va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar» schyotida aks ettiriladi. Inventarizatsiya natijasida aniqlangan asosiy vositalarinng kamomadi va yo‘qotishlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini mazkur bobning 9-§ «Asosiy vositalarni chiqib ketishi» da ko‘rib o‘tamiz.

Asosiy vositalarning balans qiymati ularning haqiqiy (joriy) qiymatiga mos kelmasligi aniqlangan holatda oshirish yoki kamaytirish qayta baholash sifatida mazkur bobning 4-§. «Asosiy vositalarni qayta baholash» da nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

9-§. Asosiy vositalarni chiqib ketishi

9.1. Asosiy vositalar chiqib ketishining umumiy masalalari

Asosiy vositalar zarur hollarda bir korxonaning ichida bir tarkibiy bo‘linmadan boshqa bir tarkibiy bo‘linmaga o‘tkaziladi, shuningdek har xil sabablarga ko‘ra boshqa korxonalarga chiqib ketadi.

Asosiy vositalar korxonaning tarkibiy bo‘linmalari o‘rtasida o‘zaro biridan ikkinchisiga o‘tkazilishi asosiy vositalarning chiqib ketishi deb tan olinmaydi va buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilmaydi, analitik hisob kartotekasida inventar kartochkasi asosiy vositalar joylashgan tarkibiy bo‘linmadan berilgan bo‘linmaga olib qo‘yiladi. SHuningdek asosiy vositalarni berish bo‘yicha operatsiyalar chiqib ketish deb tan olinmaydigan hollarga quyidagilar kiradi:

- garovga berish;
- korxonaning sho‘balariga, vakalotxonalariga, bo‘linmalariga va boshqa ajratilgan (yoki ajratilmagan) tarkibiy bo‘linmalariga berish;
- mulkni ishonchli boshqarish shartnomasiga muvofiq ishonchli boshqaruvchilarga berish;
- birgalikda amalga oshiriladigan faoliyat shartnomasiga ishtirokchining ulushi sifatida kiritish. Ushbu shartnomaga muvofiq operatsiyalar birgalikda amalaga oshiriladi va aktivlar birgalikda foydalaniladi;
- operativ ijara shartnomasi bo‘yicha berish;
- korxona rahbariyatining tegishli ko‘rsatmasiga asosan bir tarkibiy bo‘linma tomonidani boshqa tarkibiy bo‘linmaga berish;

- aktivga egalik huquqini bermaslik bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar.

Agar asosiy vositalar mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirishda har doim foydalanilmasa, me’yorlarda belgilangan foydalanish muddatidan oldin eskirsa, shuningdek ularni ta’mirlash yoki modernizatsiya qilish maqsadga muvofiq bo‘lmasa va boshqa sabablarga ko‘ra korxona ularni hisobdan chiqaradi.

5-son BHMS ga muvofiq chiqib ketayotgan asosiy vositalarning qiymati balansdan chiqariladi. Asosiy vositalarning qiymati korxona balansidan quyidagilar natijasida chiqariladi:

- tugatilganda;
- sotilganda;
- ayirboshlanganda (almashtirilgnada);
- tekinga berilganda;
- ustav kapitaliga ta’sischining qo‘yilmasi (ulushi) sifatida berilganda;
- moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha beriliganda. Asosiy vositalar operativ ijara sharnomasi bo‘yicha berilganda asosiy vositalarni balansdan chiqarish amalga oshirilmaydi;
- kamomad yoki yo‘qotishlar aniqlanganda;
- ta’sischi ta’sischilar tarkibidan chiqqanda. «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 40- va 41-moddalariga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyadorlar tomonidan o‘zlariga tegishli aksiyalar jamiyat tomonidan qaytarib sotib olinishini talab qilinganda, jamiyat tomonidan aksiyalarning qiymati asosiy vositalar bilan hisob-kitob qilinishi tushuniladi;
- nodavlat notijorat tashkilot mulkini shakllantirishda mulkiy badal sifatida berilganda.

Agar bitta asosiy vositada turlicha foydali ishlatish muddatiga ega bo‘lgan bir nechta mustaqil inventar obyektlar mavjud bo‘lsa, tiklash chog‘ida har bir bunday inventar obyektni almashtirish mustaqil inventar obyektini chiqib ketishi va xarid qilinishi sifatida hisobga olinadi. Bunda asosiy vositani mustaqil inventar obyektini almashtirish natijasida mazkur mustaqil inventar obyektni chiqib ketishi (qiymatini balansdan chiqarilishi) buxgalteriya hisobida «Asosiy vositalar qiymatini balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq aks ettiriladi. Asosiy vositani yangi xarid qilingan mustaqil inventar obyektning boshlang‘ich qiymatini shakllanishi va buxgalteriya hisobida aks ettrilishi 5-son BHMS ga muvofiq amalga oshiriladi.

Asosiy vositalar qisman tugatilgan holatda uning boshlang‘ich (tiklash) qiymati va jamlangan amortizatsiyasi tegishligicha asosiy vositalarning tugatilgan qismining boshlang‘ich (tiklash) qiymati va jamlangan amortizatsiyasi summasiga kamaytiriladi.

Asosiy vositalarning chiqib ketishidan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) asosiy vositalarning chiqib ketishidan olingan daromaddan ularning qoldiq (balans) qiymatini, asosiy vositalarning chiqib ketishi bilan bog‘liq bo‘lgan bilvosita soliqlar va xarajatlarni chegirib tashlash orqali aniqlanadi. Asosiy vositalarning chiqib ketishidan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) 9210 »Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyotida aniqlanadi.

Asosiy vositalarning chiqib ketishidan moliyaviy natijani (foyda yoki zararni) aniqlashda oldingi qayta baholashlardan hosil bo‘lgan asosiy vosita qiymati oshishi summasining qoldig‘i, ya’ni ushbu asosiy vositaning qayta baholashlar natijasida bahosining oshgan summasi bahosining pasaygan summasidan oshgan qismi asosiy vositalarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotning kreditiga olib borilib, bir vaqtning o‘zida 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyotini kamaytiradi.

Agarda 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyotida hisobga olingan asosiy vositalarni qayta baholash natijasi (qoldiq), ya’ni ushbu asosiy vositani qayta baholashlar natijasida bahosining oshishi summasi bahosining pasayishi summasidan ortgan qismi, mulkni xususiylashtirish jarayonida hosil bo‘lgan gudvil (firma bahosi) summasining kamaytirilishiga (hisobdan chiqarilishiga) ishlatilgan bo‘lsa, asosiy vositalarni hisobga olish hujjatlari (reestrlari)da xususiylashtirish natijasida hosil bo‘lgan gudvil (firma bahosi) qiymatini qoplash uchun yo‘naltirilgan qayta baholash (qoldiq) summasi to‘g‘risida belgi qo‘yiladi.

Bunda, har bir asosiy vosita bo‘yicha gudvill (firma bahosi)ning qiymatini qoplash uchun yo‘naltirilgan qayta baholash (qoldiq) summasini aniqlash uchun har bir turdagi asosiy vositaning qayta baholash (qoldiq) summasi tegishli koeffitsientlarga ko‘paytiriladi. Ushbu koeffitsient asosiy fondlarni qayta baholash natijasida hosil bo‘lgan rezerv kapitalidan gudvill (firma bahosi) qiymatini qoplash uchun yo‘naltirilgan summasining gudvill (firma bahosi) qiymatini qoplashgacha bo‘lgan qayta baholash natijasida hosil bo‘lgan rezerv kapitali summasiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Shunday qilib, chiqib ketayotgan asosiy vositalarni oldin qayta baholash natijasida yuzaga kelgan rezerv kapitalidan gudvill (firma bahosi) qiymatini qoplash uchun yo‘naltirilgan hollarda, asosiy vositalarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotning kreditiga ushbu turdagi asosiy vositani qayta baholash natijasida rezerv kapitalida turgan qayta baholashning qoldiq summasi gudvill (firma bahosi) qiymatini qoplash uchun yo‘naltirilgan summaga kamaytirilganidan qolgan qismi kiritiladi.

Yuqorida keltirilgan sabablarga ko‘ra 5-son BHMS[1] kuchga kirguniga qadar chiqib ketgan asosiy vositalar bo‘yicha 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyotida hisobga olingan chiqib ketgan asosiy vositalarning qayta baholash natijasi (qoldig‘i), ya’ni ushbu asosiy vositalarni qayta baholashlar natijasida bahosi o‘sishi summasining bahosi pasayishi summasidan oshgan summasi 8520 «Rezerv kapitali» schyotiga o‘tkaziladi.

Shuning uchun, korxonalar 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyotida hisobga olingan qayta baholash natijasi (qoldiq)ni, ya’ni oldingi qiymat oshishi summasining oldingi qiymat pasayishi summasidan oshgan summasini ikki qismga: balansda hisobda bo‘lgan asosiy vositalarni qayta baholash natijasi (qoldiq) ga va 5-son BHMS kuchga kirguniga qadar chiqib ketgan asosiy vositalarni qayta baholash natijasi (qoldiq) ga bo‘lishi lozim.

Rasmiylashtirilgan va buxgalteriyaga taqdim etilgan asosiy vositalarni tugatish to‘g‘risidagi dalolatnomaga asoslangan holda inventar kartochkada asosiy vositalarni chiqib ketishi to‘g‘risida belgi qo‘yish amalga oshiriladi. Asosiy vositalarni chiqib ketishi to‘g‘risidagi tegishli yozuv ularni joylashgan joyida ochilgan hujjatda ham amalga oshiriladi. Chiqib ketayotgan asosiy vositalar bo‘yicha inventar kartochkalar korxona tomonidan davlat arxiv ishlarini tashkil etish qoidalariga muvofiq belgilangan muddat, biroq besh yildan kam bo‘lmagan muddat davomida saqlanadi.

Korxona tomonidan asosiy vositalarni boshqa shaxslar mulk egaligiga berish asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Yuqorida aytib o‘tilgan dalolatnomaga asoslangan holda berilgan asosiy vositalarning inventar kartochkasida tegishli yozuvlar amalga oshiriladi. Berilgan asosiy vositalarning inventar kartochkasi asosiy vositalarni

[1] *5-сон БҲМС 2004-йил 30-январдан кучга кирган.*

qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga ilova qilinadi. Chiqib ketayotgan asosiy vositalarning inventar kartochkasi olinganligi to‘g‘risidagi belgi qo‘yish asosiy vositalar joylashgan joyida ochilgan hujjatda amalga oshiriladi.

Asosiy vositalar moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha berilganda balansdan chiqarilish tartibi «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalarining hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

9.2. Asosiy vositalarning tugatilishi natijasida balansdan chiqarilishi

Afsuski hozirgi kunga qadar abadiy dvigatel yaratilgan emas. Shuning uchun ham yaqinda foyda keltirayotgan mashinalar ertami kechmi ishdan chiqadi, eskiradi va o‘z navbatida ularni qayta tiklash samara bermaydi. Ko‘pgina hollarda asosiy vositaning ishlash resurlari ko‘p bo‘ladi, lekin ular oldiga qo‘yilgan vazifani yecha olmaydi. Bunday hollarda nima qilish kerak degan savol tug‘iladi. Tabiiyki hisobdan chiqarish. Bunday holatlar faqatgina mashina va asbob uskunalar bilan bo‘lmaydi. Xo‘jalik amaliyotida bino va inshootlarini tugatish hollari ham uchrab turadi. Bu har xil sabablarga ko‘ra bo‘lishi mumkin. Masalan korxonani rekonstruksiya yoki modernizatsiya qilganda yoki foydalanish xavfli bo‘lib qolganda binolar va inshootlar buzilishi mumkin.

Yuqoridagilardan shu narsa ma’lum bo‘ladiki asosiy vositalarni qayta tiklash imkoni bo‘lmasa yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo‘lmasa tugatiladi. Asosiy vositalar quyidagi hollarda tugatilishi natijasida balansdan chiqarilishi mumkin:

- belgilangan xizmat muddati tugagandan keyin (eskirish to‘liq hisoblanganda);
- jismoniy eskirishi, avariya, tabiiy ofatlar, foydalanishning me’yoriy shartlari buzilishi natijasida yaroqsiz holga kelganda;
- ma’naviy eskirganda. Ma’naviy eskirgan asosiy vositalar – bu aynan shu maqsadda, nisbatan unumdor va tejamkor asosiy vosita turlarini ishlab chiqarish natijasida qadrsizlangan asosiy vositalardir;
- tegishli davlat idoralarining qarori bilan chiqib ketishi;
- korxonalarda qurilish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnik qayta qurollanish natijasida hisobdan chiqarish.

Korxonalarda asosiy vositalarning tugatilishi natijasida hisobdan chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun avtomobil transporti korxonasi rahbari (rahbar o‘rinbosari) yoki bosh muhandis raisligida komissiya tuziladi. Komissiya tarkibiga avtomobil transporti korxonasining tegishli mutaxassislari, buxgalteriya xodimlari va moddiy javobgar shaxslar qo‘shilishi shart. Komissiya avtomobil transporti korxonasi rahbarining buyrug‘i bilan tashkil etiladi. Komissiya ishida ishtirok etish uchun qonunchilikga muvofiq alohida mulklarni ro‘yxatga olish va nazorat qilish huquqi berilgan inspeksiyalarning vakillari taklif etilishi mumkin.

Asosiy vositalarning tugatilishi natijasida ularni hisobdan chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun tuzilgan komissiya quyidagi huquqlarga ega:

- texnik hujjatlardan (pasport, bosqichma-bosqich rejalar va boshqa hujjatlar) va buxgalteriya hisobining ma’lumotlaridan foydalangan holda hisobdan chiqariladigan asosiy vositalarni bevosita ko‘rib chiqish;
- ularni qayta tiklash imkoniyati yo‘qligi yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligini belgilaydi;
- asosiy vositalarni hisobdan chiqarish sabablarini (eskirishning to‘liq hisoblanishi, jismoniy eskirishi, rekonstruksiya, foydalanish me’yoriy shartlarining buzilishi, tabiiy ofat, avariya va boshqalarni) belgilaydi;

- asosiy vositalarni hisobdan chiqarish muddatidan oldin foydalanishdan chiqib ketishiga aybdor bo‘lgan shaxsni aniqlaydi va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan me’yorlar asosida javobgarlikga tortish bo‘yicha takliflar kiritadi;

- tugatilayotgan asosiy vositaning alohida qismlarini, detallari, materiallari, rangli va qimmatbaho metallarining foydalanish mumkinligini aniqlaydi va ularni baholashni amalga oshiradi;

- tugatilayotgan asosiy vositalardan olingan yaroqli qismlarini, detallarini, materiallarini, rangli va qimmatbaho metallarini olishni nazorat qiladi, ularning sonini, og‘irligini aniqlaydi va tegishli omborlarga topshirilishini nazorat qiladi.

Korxonalarning qurilishi, kengaytirilishi, rekonstruksiya qilinishi, zamonaviylashtirilishi va texnik qayta jihozlanishi munosabati bilan asosiy vositalar tugatiladigan hollarda, komissiya hisobdan chiqarish mo‘ljallangan asosiy vositalarning yuqori korxona yoki korxona mol-mulkining mulkdori tomonidan tasdiqlangan korxonalarning qurilishi, kengaytirilishi, rekonstruksiya qilinishi, zamonaviylashtirilishi va texnik qayta jihozlanishi rejasiga muvofiqligini tekshiradi. Agar bunday reja bo‘lmagan taqdirda korxonani boshqarish organlarining qarori bo‘lishi kerak. Bunda komissiya asosiy vositalarni tugatish dalolatnomasida tasdiqlangan reja yoki tegishli qarorning bandi va sanasiga asoslanganligini ko‘rsatadi.

Komissiya tomonidan asosiy vositalarning tugatilishi natijasida hisobdan chiqarish to‘g‘risida qabul qilgan qarori «Asosiy vositalarni tugatish to‘g‘risidagi dalolatnoma» (AV-4 namunaviy shakl) bilan, shu jumladan, transport vositalari bo‘yicha - «Transport vositalarini tugatish to‘g‘risidagi dalolatnoma» (AV-4a-namunaviy shakl) bilan rasmiylashtiriladi (16- va 17-ilovalarga qarang).

«Asosiy vositalarni tugatish to‘g‘risidagi dalolatnoma» (AV-4 shakl) va «Transport vositalarini tugatish to‘g‘risidagi dalolatnoma» (AV-4a shakl) ikki nusxada tuziladi, avtomobil transporti korxonasi rahbari tomonidan tayinlangan komissiya a’zolari tomonidan imzolanadi va avtomobil transporti korxonasi rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Dalolatnomaning birinchi nusxasi buxgalteriyaga beriladi, ikkinchisi esa asosiy vositalarning saqlanishi uchun mas’ul bo‘lgan shaxsda qoladi va u hisobdan chiqarish natijasida qolgan metal qoldiqlari va moddiy qiymatliklarni omborga topshirish va sotish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Transport vositalarini hisobdan chiqarishda buxgalteriyaga dalolatnoma bilan birgalikda uning O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Yo‘l harakati havfsizligi Bosh boshqarmasi bo‘limlaridan hisobdan chiqarilganligini tasdiqlovchi hujjat ham taqdim etiladi.

Asosiy vositalarni tugatish to‘g‘risidagi dalolatnomada tugatilayotgan asosiy vositalarni tavsiflovchi quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

Har bir hujjatga uning tartib raqami beriladi va u **«__- sonli dalolatnoma»** qatorida ko‘rsatilishi kerak.

«Korxona» qatorida avtomobil transporti korxonasining to‘liq nomi va KTUT bo‘yicha kodi ko‘rsatiladi.

«Tarkibiy bo‘linma» ustunida asosiy vositalar chiqib ketayotgan tarkibiy bo‘linmaning nomi yoki kod raqami keltiriladi. Agar undan avtomobil transporti korxonasi faoliyatida umumiy holda foydalanilgan bo‘lsa mazkur ustun to‘ldirilmaydi va chiziqcha qo‘yiladi.

«Tuzish sanasi» ustunida ko‘rsatiladigan tuzish sanasi asosiy vositalarni chiqib ketish sanasiga to‘g‘ri kelishi kerak. Chunki «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq boshlang‘ich hujjatlarni operatsiyalar amalga

oshirilgan sanada tuzilishi lozim. Mazkur rekvizitlar hujjatning nomida yoki hujjatning o‘zida ko‘rsatilgan xo‘jalik operatsiyalari amalga oshirilgan aniq sanani aniqlash imkoniyatini beradi. Sanani arab raqamlari bilan quyidagicha rasmiylashtiriladi: birinchi navbatda ikkita juft raqamlar bilan ifodalangan sana va oy, keyin to‘rta raqam bilan yil ko‘rsatiladi. Xususan 1-may 2021-yil sanasi quyidagi shaklda yoziladi: 01.05.2021- y.

«Operatsiya turining kodi» ustuni va **«Asosiy vositani saqlash mas’ul shaxsning kodi»** ustuni agar korxona tegishli kodlash tizimidan foydalansagina to‘ldiriladi. Mazkur ustunlarda tegishli ravishda asosiy vositalarni chiqib ketish operatsiyasining kodi va asosiy vositalarining saqlanishiga mas’ul shaxsning kodi ko‘rsatiladi.

«Asosiy vositaning nomi» ustunida chiqib ketayotan asosiy vositaning to‘liq nomi keltiriladi.

«Boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati» ustunida:

- qayta baholanmagan va chiqib ketayotgan asosiy vositalar bo‘yicha – buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sanadagi boshlang‘ich qiymat;

- qayta baholangan va chiqib ketayotgan asosiy vositalar bo‘yicha – oxirgi qayta baholash natijasiga asosan qayta tiklash qiymati ko‘rsatiladi.

«Jamg‘arilgan eskirish summasi» ustunida buxgalteriya qismi ma’lumotlari bo‘yicha foydalanish davridagi jamg‘arilgan eskirish summasi ko‘rsatiladi.

«Ishlab chiqarilgan (qurilgan) yili» ustunida ishlab chiqaruvchi yoki mulkdor tomonidan ishlab chiqarilgan yili ko‘rsatiladi. Binolar va inshootlar bo‘yicha esa qurilib ishga tushirilgan yili ko‘rsatiladi.

«Foydalanishga kiritilgan sana» ustunida asosiy vositalar foydalanishga kiritilgan sana ko‘rsatiladi.

«Inventar raqami» ustunida asosiy vositaning ishlab chiqaruvchi va qabul qilinganda berilgan inventar raqami ko‘rsatiladi.

Asosiy vositalarning qisqacha xarakteristikasi tarkibida asosiy vositalar bilan bog‘liq operatsiyalarni rasmiylashtiradigan komissiya tasdiqlagan hujjatning nomi va rekvizitlari (sana va raqami), uning korxonaga kelib tushgan sanasi, pasporti bo‘yicha asosiy vositalarning og‘irligi, tugatilish sababi va buzishda olinishi mumkin bo‘lgan yaroqli qismlar, detallar, materiallar, rangli va qimmatbaho metallarning mavjudligi ko‘rsatiladi.

«Komissiya xulosasi» qatorida komissiya xulosasi, shu jumladan olingan yaroqli qismlar, detallar, materiallar, rangli va qimmatbaho metallarning kelgusida foydalanish imkoniyatlari; asosiy vositalarning chiqib ketishining maqsadga muvofiqligini asoslash va boshqalar ko‘rsatiladi.

Ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxatiga tabiiy ofatlar, avariya natijasida shikastlanganligi tasdiqlovchi va asosiy vositalarni tugatilishi bilan bog‘liq boshqa hujjatlar qo‘shilishi mumkin. Transport vositalari tugatilayotgan vaqtda, ulardan tashqari, transport vositasining bajargan ish va ko‘rsatgan xizmat hajmi yoki bosib o‘tgan yo‘li ko‘rsatiladi.

Avariya yoki foydalanish me’yoriy shartlarining buzilishi natijasida chiqib ketayotgan asosiy vositalarni balans hisobidan chiqarishda tugatish dalolatnomasiga avariya yoki foydalanish me’yoriy shartlarining buzilishi haqidagi dalolatnoma nusxasi ilova qilinadi, hamda avariyaning yuzaga kelishi yoki foydalanish me’yoriy shartlarining buzilish sabablari tushuntiriladi va aybdor shaxslarga nisbatan qo‘llanilgan choralar ko‘rsatiladi. Tabiiy ofat natijasida chiqib ketayotgan asosiy vositalarni balans hisobidan chiqarishda tugatish dalolatnomasiga maxsus hukumat komissiyasining xulosasi ilova qilinishi mumkin.

Tugatish haqidagi dalolatnoma tasdiqlanmaguncha asosiy vositalarni buzish va qismlarga ajratishga yo‘l qo‘yilmaydi. Tugatish jarayoni tugagandan keyin korxona buxgalteriyasi tomonidan «Asosiy vositalarni tugatish bilan bog‘liq xarajatlar va ularni tugatishdan kelib tushgan material qiymatliklar to‘g‘risida ma’lumotnoma» tuziladi (18-ilovaga qarang).

Asosiy vositalarni buzish va qismlarga ajratish natijasida olingan va boshqa asosiy vositalarni ta’mirlashga yaroqli bo‘lgan qismlar, detallar, materiallar, rangli va qimmatbaho metallar tegishli schyotlarga kirim qilinadi va ular asosiy vositalarni tugatish komissiyasi o‘rnatgan foydalanish mumkin bo‘lgan baholarda hisobga olinadi. Yaroqsiz deb topilgan qismlar, detallar, materiallar, rangli va qimmatbaho metallar ikkilamchi xomashyo (metallalom, chiqindi, o‘tin va h.k.) sifatida kirim qilinadi va qonunchilikda belgilangan tartibda korxonaning xohishi bo‘yicha foydalaniladi.

Korxonalarda asosiy vositalarni buzish va bo‘laklarga ajratish natijasida olingan qismlar, detallar, materiallar, rangli va qimmatbaho metallarni, hamda ikkilamchi xomashyolarni sotishdan olingan mablag‘lar tugatish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar chegirilgandan so‘ng ushbu korxonalarning ixtiyorida qoladi va ular xohishi bo‘yicha foydalaniladi, agarda qonunchilikda boshqa tartib ko‘zda tutilmagan bo‘lsa.

Rekonstruksiya va modernizatsiya bo‘yicha ishlar amalga oshirilganda asosiy vositalar qisman tugatilgan (masalan, bino va inshootlarni ayrim qismlari tugatish, odatiy ish faoliyatiga ta’sir qilmaydigan asosiy vositalarni buzish) holatlarda korxona tomonidan bunday asosiy vositalarning qoldiq qiymati hisobdan chiqariladi. Bunda birinchi navbatda jamlangan amortizatsiyaning asosiy vositalarning ekspert bahosi bo‘yicha tugatilgan qiymatiga tegishli qismi summasi hisobdan chiqariladi.

Asosiy vositalarni tugatishning moliyaviy natijasi (foyda yoki zarari) hisobdan chiqarilayotgan asosiy vositaning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bilan jamg‘arilgan eskirish summasi o‘rtasidagi farq sifatida ushbu asosiy vositani tugatish xarajatlarini va yaroqli qismlar, detallar, materiallar rangli va qimmatbaho metallar qiymatini hisobga olgan holda, rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olingan asosiy vositaning qayta baholash natijasi (qoldig‘i), ya’ni ushbu asosiy vosita asosiy vositaning oldingi qayta baholashlarda bahosining o‘sishi bahosining pasayishidan oshgan summasiga tuzatishlar kiritib aniqlanadi.

Asosiy vositalarining tugatilishi natijasida balansdan chiqarilishini misolda ko‘rib o‘tamiz. Korxonada amalga oshirilayotgan rekonstruksiya natijasida tugatilishi nazarda tutilgan yordamchi omborxona binosining boshlang‘ich qiymati 80 000 000 so‘mga, jamg‘arilgan eskirish summasi – 70 000 000 so‘mga, rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olingan yordamchi omborxona binosini qayta baholash natijalari (qoldiq) 4 000 000 so‘mga teng. Yordamchi omborxona binosini buzish ishlarini korxonani ishchilari amalga oshirdi va yordamchi omborxona binosini buzish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat: korxonaning transport bo‘linmasi tomonidan ko‘rsatilgan transport xizmati 300 000 so‘m; ishchilarga ish haqi hisoblash 500 000 so‘m va ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasi 60 000 so‘m. Buzish natijasida 5 000 000 so‘mlik ehtiyot qismlar va 2 000 000 so‘mlik boshqa materiallar olingan.

Yordamchi omborxona binosini tugatish natijasida balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- yordamchi omborxona binosining boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *80 000 000 so‘m;*

kredit 0120 «Binolar, inshootlar va uzatuvchi
moslamalar» schyoti 80 000 000 so‘m;

- yordamchi omborxona binosi bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0230 «Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalarning
eskirishi» schyoti 70 000 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti 70 000 000 so‘m;

- yordamchi omborxona binosini tugatish bo‘yicha xarajatlar summasiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti 960 000 so‘m;
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 400 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim
bilan hisoblashishlar» schyoti 500 000 so‘m;
kredit 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga
to‘lovlar» schyoti 60 000 so‘m;

- yordamchi omborxona binosini buzish natijasida olingan ehtiyot qismlar va boshqa materiallarning qiymati kirim qilinganda:

debet 1040 «Ehtiyot qismlar»schyoti 5 000 000 so‘m;
debet schyoti 1090 «Boshqa materiallar» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti 7 000 000 so‘m;

- yordamchi omborxona binosining qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash
bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 4 000 000 sum;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti 4 000 000 so‘m;

- yordamchi omborxona binosini tugatishdan foyda summasiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti 40 000 000 so‘m;
kredit 9310 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishidan foyda» schyoti 40 000 so‘m.

9.3. Asosiy vositalarning sotilishi natijasida balansdan chiqarilishi

Asosiy vositalarni sotishning moliyaviy natijasi (foyda yoki zarari) asosiy vositani sotishdan tushgan tushum bilan uning qoldiq (balans) qiymati o‘rtasidagi farq sifatida, qo‘shilgan qiymat solig‘i va sotish xarajatlarini hisobga olgan holda, rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olingan asosiy vositaning qayta baholash natijasi (qoldig‘i), ya’ni ushbu asosiy vosita asosiy vositaning qayta baholash natijasida oldingi qiymatining oshirilishi oldingi qiymatining kamaytirilishidan oshgan summasiga tuzatishlar kiritib aniqlanadi.

Asosiy vositalarinng sotilishi natijasida balansdan chiqarilishini misolda ko‘rib o‘tamiz. Dastgohni sotishdan tushgan tushum 70 000 000 so‘mni, boshlang‘ich qiymati 100 000 000 so‘mni, jamg‘arilgan eskirish summasi – 40 000 000 so‘mni, qayta baholash natijalari (qoldiq) 3 000 000 so‘mni tashkil etadi. Shartnoma shartiga muvofiq dastgohni yetkazib berishni korxona ishchilari amalga oshirdi. Dastgohni sotish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat: transport bo‘limi tomonidan ko‘rsatilgan xizmat – 950 000 so‘m, yetkazib bergan ishchilarga ish haqi hisoblash 500 000 so‘m.

Dastgohni sotilishi natijasida balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohni sotishdan tushum summasi:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 70 000 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 70 000 000 so‘m;

- dastgohning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 100 000 000 so‘m;
kredit 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti 100 000 000 so‘m;

- dastgoh bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi» schyoti 40 000 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 40 000 000 so‘m;

- sotish bo‘yicha xarajatlar summasiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 1 450 000 so‘m;
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 950 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 500 000 so‘m;

- xaridordan pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 70 000 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 70 000 000 so‘m;

- dastgohning qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 3 000 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 3 000 000 so‘m;

- dastgohni sotishdan foyda summasiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 11 650 000 so‘m;
kredit 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» schyoti 11 650 000 so‘m.

9.4. Asosiy vositalarni ayirboshlash natijasida balansdan chiqarish

Asosiy vositalarni boshqa asosiy vositalarga ayirboshlash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ayirboshlash yo‘li bilan olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati berilgan asosiy vositalarning qoldiq qiymatiga teng summada aks ettiriladi.

Asosiy vositalarni ayirboshlash qo‘shimcha to‘lov yo‘li bilan amalga oshirilgan hollarda, ayirboshlab olingan asosiy vosita obyektining boshlang‘ich qiymati berilgan asosiy vositaning qoldiq qiymatini qo‘shimcha to‘lanadigan (olingan) pul mablag‘lariga yoki uning ekvivalentlari summasiga oshirilgani (kamaytirilgani) ga teng bo‘ladi.

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiyatlarni (to‘lovni) pul ko‘rinishida bo‘lmagan mablag‘lar bilan bajarish nazarda tutiladigan shartnomalar bo‘yicha olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati deb korxona tomonidan o‘tkazilgan yoki o‘tkazilishi lozim bo‘lgan qimmatliklarning qiymati tan olinadi. Korxona tomonidan o‘tkazilgan yoki o‘tkaziladigan mavjud boyliklarning qiymatini korxona taqqoslash sharti bilan shunga o‘xshash mavjud boyliklar qiymatini belgilaydigan narxlardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Korxona tomonidan o‘tkazilgan yoki o‘tkaziladigan mavjud boyliklarning qiymatini belgilash imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, majburiyatlarni (to‘lovni) pul ko‘rinishida bo‘lmagan mablag‘lar bilan bajarish nazarda tutiladigan shartnomalar bo‘yicha korxona olgan asosiy vositalarning qiymati shunga o‘xshash asosiy vositalarni taqqoslash sharti bilan sotib olinadigan qiymatdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Asosiy vositani boshqa asosiy vositaga ayirboshlash uchun berayotgan korxonaning balansidan u balans qiymati bo‘yicha hisobdan chiqariladi.

Asosiy vositalarni ayirboshlash natijasida balansdan chiqarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona o‘zining transport vositasining o‘rniga ayirboshlash yo‘li bilan boshqa transport vositasini (yuk yuklaydigan avtokara) oldi. Transport vositasining boshlang‘ich qiymati 120 000 000 so‘mni, jamg‘arilgan eskirish summasi – 30 000 000 so‘mni tashkil etadi. Rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olingan transport vositasini qayta baholash natijalari (qoldiq) 3 000 000 so‘mga teng. Tansport vositasining qoldiq qiymati 90 000 000 so‘mga teng.

Ikkita holatni (transport vositalarini qo‘shimcha pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlarini to‘lash (olish) bilan ayirboshlanishidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Korxona transport vositalarini ayirboshlashni 50 000 000 so‘m miqdorda qo‘shimcha pul mablag‘lari to‘lash bilan amalga oshirgan.

Transport vositalarini ayirboshlash natijasida balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- transport vositasining boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *120 000 000 so‘m;*
kredit 0160 «Transport vositalari» schyoti *120 000 000 so‘m;*

- transport vositasi bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0260 «Transport vositalarining eskirishi» schyoti *30 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *30 000 000 so‘m;*

- ayirboshlab olingan transport vositalarini kirim qilinganda:

debet 0160 «Transport vositalari» schyoti *140 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *90 000 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *50 000 000 so‘m;*

- hisob-kitob schyotidan pul mablag‘lari bilan qo‘shimcha to‘lov bilan bog‘liq qarz summasini qoplanishi:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar « schyoti *50 000 000 so‘m;*

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 50 000 000 so‘m;

- transport vositasining qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 3 000 000 so‘m;

kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 3 000 000 so‘m;

- transport vositasini ayirboshlashdan foyda summasiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 3 000 000 so‘m;

kredit 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» schyoti 3 000 000 so‘m.

2-holat:

Korxona transport vositalarini ayirboshlashni 20 000 000 so‘m miqdorda pul mablag‘lari olish bilan amalga oshirgan.

Transport vositalarini ayirboshlash natijasida balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- transport vositasining boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 120 000 000 so‘m;

kredit 0160 «Transport vositalari» schyoti 120 000 000 so‘m;

- transport vositasi bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0260 «Transport vositalarining eskirishi» schyoti 30 000 000 so‘m;

kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 30 000 000 so‘m;

- ayirboshlab olingan transport vositalarini kirim qilinganda:

debet 0160 «Transport vositalari» schyoti 70 000 000 so‘m;

debet 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schyoti 20 000 000 so‘m;

kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 90 000 000 so‘m;

- hisob-kitob schyotiga pul mablag‘lari olish bilan bog‘liq qarz summasini kelib tushushi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 20 000 000 so‘m;

kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schyoti 20 000 000 so‘m;

- transport vositasining qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 3 000 000 so‘m;

kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 3 000 000 so‘m;

- transport vositasini ayirboshlashdan foyda summasiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 3 000 000 so‘m;

kredit 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» schyoti 3 000 000 so‘m.

9.5. Asosiy vositalarni tekinga berish natijasida balansdan chiqarilishi

Asosiy vositalarni tekinga berishdan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) berilayotgan asosiy vositaning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bilan jamg‘arilgan eskirish summasi o‘rtasidagi farq sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olgan holda rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olingan asosiy vositaning qayta baholash natijasi (qoldiq) ga, ya’ni ushbu asosiy vositaning qayta baholash natijasida oldingi qiymatining oshirilishi oldingi qiymatining kamaytirilishidan oshgan summasiga tuzatishlar kiritib aniqlanadi.

Asosiy vositalarni tekinga berilishi natijasida balansdan chiqarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona homiylik ishlarini amalga oshirish maqsadida bolalar uyiga avtomobil bergan. Avtomobilning boshlang‘ich qiymati 30 000 000 so‘mga, jamg‘arilgan eskirish summasi – 10 000 000 so‘mga, qayta baholash natijalari (qoldiq) 2 000 000 so‘mga teng. Avtomobilni chiqib ketishi bilan bog‘liq xarajatlar amalga oshirilmagan.

Avtomobilni tekinga berilishi natijasida balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- Avtomobilning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti	*31 000 000 so‘m;*
kredit 0160 «Transport vositalari» schyoti	*31 000 000 so‘m;*

- Avtomobil bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0260 «Transport vositalarining eskirishi» schyoti	*10 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti	*10 000 000 so‘m;*

- Avtomobilning qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti	*2 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti	*2 000 000 so‘m;*

- Avtomobilni tekinga berishdan zarar summasiga:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti	*18 000 000 so‘m*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti	*18 000 000 so‘m.*

9.6. Ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida asosiy vositalar berilganda balansdan chiqarilishi

Asosiy vositalar boshqa korxonaning ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida ta’sis hujjatlariga asosan beriladi. Asosiy vositalarni ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida kiritayotgan korxonalarning balansidan balans qiymati bo‘yicha hisobdan chiqariladi.

Shuningdek, korxonalar boshqa korxonaning ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida asosiy vositalarni qonunchilikda belgilangan tartibda balans qiymatidan farq qiladigan boshqa qiymatda kiritishi mumkin.

Asosiy vositalarni ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida berishdan moliyaviy natija (foyda yoki zarar), ta’sis hujjatlari yoki boshqa qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq baholangan qiymat bilan berilayotgan asosiy vositaning qoldiq (balans) qiymati o‘rtasidagi

farq sifatida qo‘shilgan qiymat solig‘i va uni ustav kapitaliga ulush sifatida berish xarajatlarini hisobga olgan holda, rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olingan asosiy vositaning qayta baholash natijasi (qoldiq) ga, ya’ni ushbu asosiy vositaning qayta baholash natijasida oldingi qiymatining oshirilishi oldingi qiymatining kamaytirilishidan oshgan summasiga tuzatishlar kiritib aniqlanadi.

Ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida asosiy vositalar berilganda balansdan chiqarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatining ta’sischilari tarkibiga kiradi. Korxonaning MCHJ ni ustav kapitalidagi ulushi 80 000 000 so‘mni tashkil etadi. Ta’sischilarning qaroriga muvofiq korxona ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida dastgohlar kiritadi.

Ikkita holatni MCHJ ni ustav kapitalidagi ta’sischining ulushi sifatida berilgan dastgohlarning qiymatidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Korxona ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida boshlang‘ich qiymati 100 000 000 so‘m, jamg‘arilgan eskirish summasi – 18 000 000 so‘m, qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi 1 000 000 so‘mga teng bo‘lgan dastgohlarni kiritadi.

Dastgohlarni ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida berilishi natijasida balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohlarni ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida ta’sis shartnomasi yoki qonunchilikga muvofiq boshqa hujjatlar bilan aniqlangan qiymatda berilishi:

debet 0690 «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» schyoti — *80 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti — *80 000 000 so‘m;*

- dastgohlarning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti — *100 000 000 so‘m.*
kredit 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti — *100 000 000 so‘m;*

- dastgohlar bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi» schyoti — *18 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti — *18 000 000 so‘m;*

- dastgohlarning qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti — *1 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti — *1 000 000 so‘m;*

- dastgohlarni ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida berishdan zarar summasiga:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti — *1 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti — *1 000 000 so‘m.*

2-holat:

Korxona ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida boshlang‘ich qiymati 100 000 000 so‘m,

jamg‘arilgan eskirish summasi – 25 000 000 so‘m, qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi 1 000 000 so‘mga teng bo‘lgan dastgohlarni kiritadi.

Dastgohlarni ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida berilishi natijasida balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohlarni ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida ta’sis shartnomasi yoki qonunchilikga muvofiq boshqa hujjatlar bilan aniqlangan qiymatda berilishi:

debet 0690 «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» schyoti *80 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *80 000 000 so‘m;*

- dastgohlarning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *100 000 000 so‘m.*
kredit 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti *100 000 000 so‘m;*

- dastgohlar bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi» schyoti *25 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *25 000 000 so‘m;*

- dastgohlarning qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti *1 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *1 000 000 so‘m;*

- dastgohlarni ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida berishdan foyda summasiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *6 000 000 so‘m;*
kredit 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» schyoti *6 000 000 so‘m.*

9.7. Asosiy vositalar kamomadi yoki yo‘qotilishi aniqlanganda balansdan chiqarilishi

Asosiy vositalarni kamomad yoki yo‘qotish natijasida hisobdan chiqarish buxgalteriya hisobida «Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq aks ettiriladi.

Inventarizatsiya vaqtida asosiy vositalar kamomadi yoki yo‘qotilishi aniqlanganda, ular balansdan balans qiymati bo‘yicha hisobdan chiqariladi.

Aniq aybdor shaxslar aniqlangan hollarda inventarizatsiya natijasida aniqlangan asosiy vositalarning kamomadi summasi moddiy javobgar shaxs yoki aybdordan undiriladi. Ish beruvchining mulkiga yetkazilgan zarar hajmi, zarar uchun xodimning moddiy javobgarlik chegaralari va tartibini aniqlash O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi.

Bir oylik o‘rtacha ish haqidan oshmaydigan yetkazilgan zarar summasini aybdor xodimdan undirish ish beruvchining farmoyishiga muvofiq amalga oshiriladi. Farmoyish yetkazilgan zarar aniqlangan kundan boshlab bir oydan kechikmasdan chiqarilishi mumkin. Bunda zarar hajmi inventarizatsiya o‘tkazish davrida mazkur joyda amal qilayotgan bozor baholari bo‘yicha hisoblanadi.

Agar xodimdan undirilishi lozim bo‘lgan yetkazilgan zarar summasi uning o‘rtacha oylik ish haqidan yuqori yoki zarar aniqlangan kundan boshlab bir oylik muddat o‘tgan bo‘lsa, undirish sud orqali amalga oshiriladi.

Ish beruvchining mulki o‘g‘irlanganda, kam chiqqanda, qasddan yo‘qotish yoki qasddan buzish natijasida hamda boshqa hollarda yetkazilgan zarar hajmi bozor qiymati bo‘yicha hisoblanadi.

Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulkning bozor qiymatini aniqlash uchun quyidagilardan foydalanish mumkin:

- ishlab chiqaruvchi korxonalardan va ularning rasmiy dilerlaridan, tovar-xomashyo birjalaridan, ko‘chmas mulk birjalaridan yozma shaklda olingan xuddi shunday mahsulotga doir narxlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

- xarid qilish sanasida (tasdiqlovchi hujjat mavjud bo‘lganida) erkin almashtiriladigan valyutada asosiy vositalar birligining qiymati to‘g‘risida ma’lumotlar, bunda xorijiy valyutalar kurslarining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan kamomad aniqlangan sanasi va asosiy vositalarning tegishli birligini xarid qilish sanasida belgilangan so‘mga nisbati sifatida belgilanadigan hisob-kitob koeffitsienti qo‘llanadi;

- tegishli davlat organlaridagi mavjud bo‘lgan narxlar darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

- inventarizatsiya o‘tkazilayotgan davrda ommaviy axborot vositalari va maxsus adabiyotlarda chop etilgan narxlar darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

- asosiy vositalar qiymati to‘g‘risidagi baholovchining hisoboti.

Asosiy vositalarning kamomadi yoki yo‘qotilishi aniqlanganda balansdan chiqarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona asosiy vositalarni invetarizatsiyasini o‘tkazdi va boshlang‘ich qiymati 30 000 000 so‘m, jamg‘arilgan eskirish summasi – 10 000 000 so‘m, qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi 1 000 000 so‘mga teng bo‘lgan avtomobilini kamomadi mavjudligini aniqladi.

Avtomobilni kamomadi natijasida balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- avtomobilning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti — *30 000 000 so‘m.*

kredit 0160 «Transport vositalari» schyoti — *30 000 000 so‘m;*

- avtomobil bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0230 «Transport vositalarining eskirishi» schyoti — *10 000 000 so‘m;*

kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti — *10 000 000 so‘m;*

- avtomobilning qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti — *1 000 000 so‘m;*

kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti — *1 000 000 so‘m;*

- avtomobilni kamomadi natijasida chiqib ketishidan zarar summasiga:

debet 5910 «Kamomad va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti — *19 000 000 so‘m;*

kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti *19 000 000 so‘m.*

Keyingi navbatda mazkur misolda uchta holatni (avtomobilning joriy qiymati va aybdor shaxslarni aniqlanishidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Avtomobilning bozor qiymati 20 000 000 so‘m miqdorda qilib o‘rnatilgan. Avtomobilning kamomadi summasi moddiy javobgar shaxsdan undiriladi. Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodim qarzining 40 foizi moddiy javobgar shaxsning ish haqi summasidan ushlab qolingan. Qolgan qismi naqd pul mablag‘lari bilan qoplangan.

Avtomobilning kamomad summasini moddiy javobgar shaxsdan undirish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- moddiy javobgar shaxsdan avtomobilning kamomadi summasi undirilganda:

debet 4730 «Moddiy zararni qoplash bo‘yicha
xodimlarning qarzi» schyoti *20 000 000 so‘m;*
kredit 5910 «Kamomad va qiymatliklarning
buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti *19 000 000 so‘m;*
kredit 9310 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishidan foyda» schyoti *1 000 000 so‘m;*

- xodimning moddiy zararni qoplash bo‘yicha qarzi moddiy javobgar shaxsning ish haqi summasidan ushlab qolinganda:

debet 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim
bilan hisoblashishlar» schyoti *8 000 000 so‘m;*
kredit 4730 «Moddiy zararni qoplash bo‘yicha
xodimlarning qarzi» schyoti *8 000 000 so‘m;*

(8 000 000 so‘m = 20 000 000 so‘m x 40 / 100);

- moddiy zararni qoplash bo‘yicha qarzini moddiy javobgar shaxs tomonidan naqd pul mablag‘lari bilan qoplanganda:

debet 5010 «Milliy valyutadagi pul
mablag‘lari» schyoti *12 000 000 so‘m;*
kredit 4730 «Moddiy zararni qoplash bo‘yicha
xodimlarning qarzi» schyoti *12 000 000 so‘m;*

(12 000 000 so‘m = 20 000 000 so‘m – 8 000 000 so‘m).

2-holat:

Avtomobilning bozor qiymati 18 500 000 so‘m miqdorda qilib o‘rnatilgan. Avtomobilning kamomadi summasi moddiy javobgar shaxsdan undiriladi. Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodim qarzining 40 foizi moddiy javobgar shaxsning ish haqi summasidan ushlab qolingan. Qolgan qismi naqd pul mablag‘lari bilan qoplangan.

Avtomobilning komomad summasini moddiy javobgar shaxsdan undirish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- moddiy javobgar shaxsdan avtomobilning kamomadi summasi undirilganda:

debet 4730 «Moddiy zararni qoplash bo‘yicha
xodimlarning qarzi» schyoti *18 500 000 so‘m;*
debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti *500 000 so‘m.*
kredit 5910 «Kamomad va qiymatliklarning

buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti 19 000 000 so‘m;

- xodimning moddiy zararni qoplash bo‘yicha qarzi moddiy javobgar shaxsning ish haqi summasidan ushlab qolinganda:

debet 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 7 400 000 so‘m;

kredit 4730 «Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti 7 400 000 so‘m;

(7 400 000 so‘m = 18 500 000 so‘m x 40 / 100);

- moddiy zararni qoplash bo‘yicha qarzini moddiy javobgar shaxs tomonidan naqd pul mablag‘lari bilan qoplanganda:

debet 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti 11 100 000 so‘m;

kredit 4730 «Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti 11 100 000 so‘m;

(11 100 000 so‘m = 18 500 000 so‘m – 7 400 000 so‘m).

3-holat:

Kamomadning aniq aybdorlari aniqlanmagan yoki moddiy javobgar shaxslardan undirish imkoniyati bo‘lmagan hollarda avtomobilning kamomadidan zarar summasi korxonaning moliyaviy natijalariga kiritiladi va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 19 000 000 so‘m.

kredit 5910 «Kamomad va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti 19 000 000 so‘m.

9.8. Ta’sischi ta’sischilar tarkibidan chiqib ketganda tovar-moddiy zaxiralar bilan hisob-kitob qilinishi natijasida asosiy vositalarni balansdan chiqarilishi

Yuridik shaxs ta’sischilari tarkibidan chiqayotgan ta’sischiga asosiy vositalarni berish ta’sischilar yig‘ilishi qaroriga asosan yoki ta’sis hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs ta’sischilari tarkibidan chiqayotgan ta’sischi bilan asosiy vositalar bilan hisob-kitob qilinganda, korxonalarning balansidan asosiy vositalar balans qiymati bo‘yicha hisobdan chiqariladi.

Yuridik shaxs ta’sischilari tarkibidan chiqayotgan ta’sischi bilan asosiy vositalar orqali hisob-kitob qilinishi natijasida asosiy vositalarning chiqib ketishidan moliyaviy natija (foyda yoki zarar), chiqib ketayotgan ta’sischining ulushi bo‘yicha qarzni hisob-kitob qilish uchun berilayotgan asosiy vositaning berish qiymati bilan chiqib ketayotgan asosiy vositaning qoldiq (balans) qiymati o‘rtasidagi farq sifatida, qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olgan holda, rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olingan asosiy vositaning qayta baholash natijasi (qoldig‘i), ya’ni ushbu asosiy vositaning oldingi qiymatining oshirilishi oldingi qiymatining kamaytirilishidan oshgan summasiga tuzatishlar kiritib aniqlanadi.

Chiqib ketayotgan ta’sischining ulushi bo‘yicha qarzini hisob-kitob qilish uchun berilayotgan asosiy vositaning qiymati uning qarzidan ortiq bo‘lsa, farq chiqib ketayotgan ta’sischi tomonidan qoplanadi.

Chiqib ketayotgan ta’sischining ulushi bo‘yicha qarzini summasi uni qarzini hisob-kitob qilish uchun berilayotgan asosiy vositaning qiymatidan ortiq bo‘lgan hollarda, farq berayotgan korxona tomonidan qoplanadi.

Ta’sischi ta’sischilar tarkibidan chiqib ketganda tovar-moddiy zaxiralar bilan hisob-

kitob qilinishi natijasida asosiy vositalarni balansdan chiqarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. Aksiyador tomonidan aksiyadorlik jamiyatiga 75 000 000 so‘m bo‘lgan oddiy aksiyalarni sotib olish uchun taqdim etilgan. Jamiyat aksiyadorlarining qaroriga muvofiq aksiyador tomonidan taqdim etilgan oddiy aksiyalar, ya’ni sotib olingan xususiy aksiyalar qiymatini to‘lash asosiy vositalar bilan dastgohlar ko‘rinishida amalga oshiriladi. Asosiy vositalarni yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar aksiyador tomonidan amalga oshirilgan.

Sotib olingan xususiy aksiyalar jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 8610 «Sotib olingan xususiy
aksiyalar - oddiy» schyoti 75 000 000 so‘m;
kredit 6620 «CHiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari
bo‘yicha qarz» schyoti 75 000 000 so‘m.

To‘rtta holatni (sotib olingan xususiy aksiyalar qiymatini to‘lash uchun berilayotgan asosiy vositalarni qiymatidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Jamiyat qiymati oldin ustav kapitaliga ulush sifatida olingan mulk summasiga teng bo‘lgan 75 000 000 so‘mlik asosiy vositalarni beradi. Dastgohlar bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar mavjud: boshlang‘ich qiymati 100 000 000 so‘m, jamg‘arilgan eskirish summasi – 25 000 000 so‘m, qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi 3 000 000 so‘mga teng.

Sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati asosiy vositalar bilan hisob- kitob qilinishi natijasida dastgohlarni balansdan chiqarish jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzini hisob-kitob qilish uchun asosiy vositalarni berilganda:

debet 6620 «CHiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari
bo‘yicha qarz» schyoti 75 000 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti 75 000 000 so‘m.

- dastgohlarning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti 100 000 000 so‘m.
kredit 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti 100 000 000 so‘m;

- dastgohlar bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning
eskirishi» schyoti 25 000 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti 25 000 000 so‘m.

- dastgohlarning qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash
bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 3 000 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti 3 000 000 so‘m;

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati asosiy vositalar bilan hisob-kitob qilinishi natijasida dastgohlarni chiqib ketishidan foyda summasiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib

ketishi» schyoti *3 000 000 so‘m;*
kredit 9310 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishidan foyda» schyoti *3 000 000 so‘m.*

2-holat:

Jamiyat qiymati oldin ustav kapitaliga ulush sifatida olingan mulk summasiga teng bo‘lgan 75 000 000 so‘mlik asosiy vositalarni beradi. Dastgohlar bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar mavjud: boshlang‘ich qiymati 100 000 000 so‘m, jamg‘arilgan eskirish summasi – 20 000 000 so‘m, qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi 3 000 000 so‘mga teng.

Sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati asosiy vositalar bilan hisob- kitob qilinishi natijasida dastgohlarni balansdan chiqarish jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzini hisob-kitob qilish uchun asosiy vositalarni berilganda:

debet 6620 «CHiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari
bo‘yicha qarz» schyoti *75 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti *75 000 000 so‘m.*

- dastgohlarning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti *100 000 000 so‘m.*
kredit 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti *100 000 000 so‘m;*

- dastgohlar bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning
eskirishi» schyoti *20 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti *20 000 000 so‘m.*

- dastgohlarning qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash
bo‘yicha tuzatishlar» schyoti *3 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti *3 000 000 so‘m;*

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati asosiy vositalar bilan hisob- kitob qilinish natijasida dastgohlarni chiqib ketishidan zarar summasiga:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti *2 000 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti *2 000 000 so‘m.*

3-holat:

Jamiyat qiymati oldin ustav kapitaliga ulush sifatida olingan mulk summasidan kam bo‘lgan 71 000 000 so‘mlik asosiy vositalarni beradi. Kelishuvga muvofiq qo‘shimcha ravishda 4 000 000 so‘m pul mablag‘lari bilan qoplab berilishi kerak. Dastgohlar bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar mavjud: boshlang‘ich qiymati 100 000 000 so‘m, jamg‘arilgan eskirish summasi – 29 000 000 so‘m, qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi 3 000 000 so‘mga teng.

Sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati asosiy vositalar bilan hisob- kitob qilinishi natijasida dastgohlarni balansdan chiqarish jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzini hisob-kitob qilish uchun asosiy vositalarni berilganda:

debet 6620 «CHiqib ketayotgan ta'sischilarga ulushlari bo'yicha qarz» schyoti *71 000 000 so'm;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *71 000 000 so'm.*

- dastgohlarning boshlang'ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *100 000 000 so'm.*
kredit 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti *100 000 000 so'm;*

- dastgohlar bo'yicha jamg'arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi» schyoti *29 000 000 so'm;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *29 000 000 so'm.*

- dastgohlarning qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schyoti *3 000 000 so'm;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *3 000 000 so'm;*

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo'yicha qarzini summasini unga berilayotgan dastgohlarni summasidan oshgan qismini hisob-kitob schyotidan pul mablag'lari bilan qoplanganda:

debet 6620 «Chiqib ketayotgan ta'sischilarga ulushlari bo'yicha qarz» schyoti *4 000 000 so'm;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *4 000 000 so'm;*

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati asosiy vositalar bilan hisob-kitob qilinishi natijasida dastgohlarni chiqib ketishidan foyda summasiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *3 000 000 so'm.*
kredit 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» schyoti *3 000 000 so'm.*

4-holat:

Jamiyat qiymati oldin ustav kapitaliga ulush sifatida olingan mulk summasidan ortiq bo'lgan 82 000 000 so'mlik asosiy vositalarni beradi. Kelishuvga muvofiq aksiyador ortiqcha summa bo'lgan 7 000 000 so'mni pul mablag'lari bilan qaytarishi kerak. Dastgohlar bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud: boshlang'ich qiymati 100 000 000 so'm, jamg'arilgan eskirish summasi – 18 000 000 so'mga teng.

Sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati asosiy vositalar bilan hisob- kitob qilinishi natijasida dastgohlarni balansdan chiqarish jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo'yicha qarzini hisob-kitob qilish uchun asosiy vositalarni berilganda:

debet 6620 «Chiqib ketayotgan ta'sischilarga ulushlari bo'yicha qarz» schyoti *75 000 000 so'm;*
debet 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti *7 000 000 so'm;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *82 000 000 so'm.*

- dastgohlarning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *100 000 000 so‘m.*

kredit 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti *100 000 000 so‘m;*

- dastgohlar bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi» schyoti *18 000 000 so‘m;*

kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *18 000 000 so‘m.*

- aksiyadorning qarzi summasini qoplash uchun hisob-kitob schyotiga pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *7 000 000 so‘m;*

kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti *7 000 000 so‘m.*

9.9. Asosiy podadan yaroqsizga chiqarilgan hayvonlar buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari

5-son BHMS korxonaga mulk, xo‘jalik yuritish va tezkor boshqarish huquqlarida tegishli bo‘lgan asosiy vositalarni hisobga olish uslubiyatini belgilaydi hamda O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini me’yoriy tartibga solish tizimining elementi hisoblanadi. Mazkur standartda buxgalteriya hisobida barcha tarmoqlarda asosiy vositalar to‘g‘risida axborotni shakllantirishning yagona uslubiy asoslari nazarda tutiladi. Bunda u iqtisodiyotning alohida tarmoqlarida asosiy vositalar buxgalteriya hisobining xususiyatlarini hisobga olmasligini qayd etish lozim. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida bir qator obyektlarning buxgalteriya hisobi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun ham ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan asosiy vositalar va buxgalteriya hisobi ham o‘z xususiyatlariga ega.

Ma’lumki qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish jarayoni boshqa tarmoqlarning ishlab chiqarish jarayonidan farq qiladi va o‘z navbatida mazkur tarmoqning asosiy vositalarning buxgalteriya hisobida o‘zining xususiyatlari mavjud.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida asosiy vositalarni hisobga olishning qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida xo‘jalik faoliyatining o‘ziga xosligi bilan belgilanadigan xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- asosiy vositalarning boshlang‘ich hisob hujjatlarida, sintetik va analitik hisobni tashkil etishda, schyotlar korrespondentsiyasida, buxgalteriya registrlarida;

- asosiy vositalarning bir qator obyektlari bo‘yicha amortizatsiyani hisoblashda va hisobga olishda, pulda baholanadigan yer maydonlarini hisobga olish, sug‘oriladigan va lalmi yerlarni hisobida;

- lizing asosida sotib olingan asosiy vositalar va mahsuldor mollarni hisobga olishda, konservatsiyadagi asosiy vositalarning hisobida, ayrim turdagi asosiy vositalarning chiqib ketishida;

- asosiy vositalarning alohida turlarini ta’mirlashning hisobida, asosiy vositalarning chiqib ketishida;

- asosiy podani o‘z yosh chorva mollarini parvarishlash va chetdan katta yoshli hayvonlarni xarid qilish hisobiga shakllantirishni hisobga olishda;

- bog‘lar, uzumzorlar, ko‘p yillik dov-daraxtlar, ihota o‘rmon maydonlari, ko‘chatlarning boshqa turlari va h.k.larni hisobga olishda;

- o‘stirishdagi va boquvdagi, asosiy podadan yaroqsizga chiqarilgan va boshqa hayvonlarni hisobga olishda.

Ish kuchi sifatida foydalaniladigan - otlar, ho‘kizlar, tuyalar, eshaklar va boshqa ish hayvonlari (shu jumladan aravada yuk tashishlarda foydalaniladigan hayvonlar), shuningdek mahsulot beradigan mollar (nasl, sut, jun va h.k.) - sigirlar, qo‘toslar, nasldor biyalar (ish kuchi hisoblanmaydi), sovliqlar va boshqa mollar buxgalteriya hisobida qishloq xo‘jaligi korxonasining ***asosiy podadagi hayvonlari*** hisoblanadi. Asosiy podadagi hayvonlar asosiy vositalar tarkibida ishchi va mahsuldor hayvonlari sifatida hisobga olinadi.

Balans qiymatini e’tirof etish payti, baholash va ularga nisbatan qo‘llaniladigan amortizatsiyani hisoblash usullarini aniqlash, shuningdek hayvonlarning asosiy podadan ishchi va mahsuldor hayvonlar tarzida chiqib ketishidan balans qiymati o‘zgarishlari va moliyaviy natijalarni belgilash hamda hisobga olish 5-son BHMS ga muvofiq amalga oshiriladi.

Ularning keltirilishi, korxona ichida harakati va hisobdan chiqib ketishini aks ettirish 21-son BHMS ga muvofiq amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarni buxgalteriya hisobi bo‘yicha me’yoriy hujjatlarga muvofiq ishchi hayvonlarga asosiy vositalar sifatida qonunchilikda nazarda tutilgan usullar bo‘yicha eskirish hisoblanadi, mahsuldor hayvonlar bo‘yicha eskirish hisoblanmaydi.

Korxonalarda hayvonlar asosiy podadan vaqti-vaqti bilan yaroqsizga chiqarilishi kerak. Buning sabablari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- belgilangan xizmat qilish muddatining (to‘liq eskirish hisoblanishi) tugashi;

- jismoniy eskirish, tabiiy ofatlar, tuzatib bo‘lmaydigan kasalliklar, foydalanishning me’yoriy shartlari buzilishi, jarohatli shikastlanishlar, illatlar, keksalik va h.k.lar oqibatida yaroqsiz holatga kelish;

- ish qobiliyati, mahsuldorlik va o‘zidan ko‘payish qobiliyatining anchagina pasayishi;

- tegishli davlat organlarining qarorlariga ko‘ra chiqib ketish.

Asosiy podadan chiqarilgan hayvonlar:

- go‘sht, teri, shox, tuyoq, texnik yog‘ va h.k.lar singari tegishli qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini olish uchun so‘yishga;

- boqishga qo‘ymasdan boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga sotish uchun (tekinga berish, ayirboshlash, ta’sis ulushi sifatida ustav kapitaliga berish, ta’sischining yuridik shaxsning ta’sischilari tarkibidan chiqayotganida asosiy vositalar bilan hisob-kitob qilish uchun berish);

- bo‘rdoqiga boqishga beriladi.

Asosiy podadan chiqarilgan hayvonlarni boqishga qo‘ymasdan boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga sotish (tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) berish, ayirboshlash (qonunchilikda belgilangan tartibda), ta’sis ulushi sifatida ustav kapitaliga berish, ta’sischining yuridik shaxsning ta’sischilari tarkibidan chiqayotganida asosiy vositalar bilan hisob-kitob qilish uchun berish) asosiy vositalarga o‘xshash tarzda «Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» da nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun rahbar (rahbar o‘rinbosari) raisligida komissiya tuziladi. Komissiya tarkibiga tegishli mutaxassislar, buxgalteriya xodimlari va zimmasiga asosiy podadagi hayvonlarni saqlash uchun javobgarlik yuklangan shaxslar kiritilishi kerak. Komissiya korxonaning rahbarining buyrug‘i bilan tuziladi.

Asosiy podadan hayvonlarni yaroqsizga chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun tuzilgan komissiya quyidagi vakolatlarga ega:

- bunda zarur hujjatlar (pasport va boshqa hujjatlar), shuningdek buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanib, asosiy podadan yaroqsizga chiqariladigan hayvonlarni bevosita ko'rikdan o'tkazadi;

- ularni bundan keyin ushlab turishning mumkin emasligi yoki iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligini belgilaydi;

- hayvonni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish sabablarini aniqlaydi (to'liq eskirishni hisoblash, jismoniy eskirish, tabiiy ofatlar, tuzatib bo'lmaydigan kasalliklar, foydalanish normal sharoitlari buzilganligi, jarohatli shikastlanishlar, illatlar, keksalik va h.k.);

- hayvonni asosiy podadan foydalanish vaqtidan ilgari yaroqsizga chiqarishda aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlaydi, ushbu shaxslarni O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritadi;

- asosiy podadan yaroqsizga chiqarilgan hayvonlardan bundan keyin foydalanish yoki chetga sotish mumkinligini belgilaydi va ularni baholaydi;

- asosiy podadan yaroqsizga chiqarilgan hayvondan olingan qishloq xo'jaligi mahsulotlari: go'sht, teri, shox, tuyoq, texnik yog' va boshqalarni olib qo'yish ustidan nazoratni amalga oshiradi, ularning miqdori, vaznini belgilaydi va tegishli omborga topshirilishini nazorat qiladi.

Komissiya tomonidan qabul qilingan hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish to'g'risidagi qaror natijalari «Hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish dalolatnomasi» (QX-106 shakl) (19-ilovaga qarang) bilan rasmiylashtirish tavsiya etiladi. Asosiy podadagi yirik hayvonlar (sigirlar, nasldor buqalar, biyalar, ayg'irlar va h.k.) uchun «Hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish dalolatnomasi» (QX-106 shakl) asosiy podadan yaroqsizga chiqarilayotgan har bir yirik hayvon uchun alohida, asosiy podadan yaroqsizga chiqarilayotgan mayda hayvonlar (g'unagajinlar, sovliqlar va h.k.) uchun esa turlar (guruhlar) bo'yicha, unda asosiy podadan yaroqsizga chiqarilgan barcha hayvonlar alohida sanaladi, rasmiylashtirish mumkin.

«Hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish dalolatnomasi» (QX-106 shakl) da quyidagilar ko'rsatiladi:

Har bir hujjatga uning tartib raqami beriladi va u **«__- sonli dalolatnoma»** qatorida ko'rsatilishi kerak.

«Tuzish sanasi» ustunida ko'rsatiladigan tuzish sanasi hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish sanasiga to'g'ri kelishi kerak. Chunki «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq boshlang'ich hujjatlarni operatsiyalar amalga oshirilgan sanada tuzilishi lozim.

«Korxona » qatorida uning to'liq nomi va KTUT bo'yicha kodi ko'rsatiladi.

«Ferma (joy, sex)» ustunida hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish amalga oshirilayotgan tarkibiy bo'linmaning ya'ni ferma (joy, sex) nomi keltiriladi. Agar korxonada tarkibiy bo'linma bo'lmasa mazkur ustun to'ldirilmaydi va chiziqcha qo'yiladi.

«Inventar raqami, laqabi, nasli» ustunida asosiy podadan yaroqsizga chiqarilayotgan hayvonning kirim qilingandagi inventar raqami, laqabi va uning nasli ko'rsatiladi.

«Boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati» ustunida asosiy podadan yaroqsizga chiqarilayotgan hayvonning boshlang'ich (qayta baholanganlar uchun – qayta tiklash) qiymati ko'rsatiladi. Mazkur ustunda mahsuldor hayvonlar bo'yicha balans qiymati ko'rsatiladi.

«Jamg'arilgan eskirish summasi» ustunida buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha foydalanish davridagi ishchi hayvonlar bo'yicha jamg'arilgan eskirish summasi ko'rsatiladi.

Mazkur ustunda mahsuldor hayvonlar bo‘yicha to‘ldirilmaydi va chiziqcha qo‘yiladi.

Obyektning **qisqacha xarakteristikasi** tarkibida hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish bilan bog‘liq operatsiyalarni rasmiylashtiradigan komissiyani tasdiqlagan hujjatning nomi va rekvizitlari (sana va raqami), yaroqsizga chiqarilayotgan hayvonni yoshi, jinsi, semizlik darajasi, tirik vazni (kg) yaroqsizga chiqarish sababi (kasallik tashxisi), keyinchalik foydalanish mumkinligi va boshqa ko‘rsatkichlar ko‘rsatiladi.

Ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxatiga shikastlanganligi, tabiy ofatlar, avariya natijasida tasdiqlovchi va hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish bilan bog‘liq boshqa hujjatlar qo‘shilishi mumkin.

Hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish dalolatnomasi» (QX-106 shakl) ikki nusxada tuziladi, korxona rahbari tomonidan tayinlangan komissiya a’zolari tomonidan imzolanadi va korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Uning birinchi nusxasi buxgalteriyaga beriladi, ikkinchi nusxasi asosiy podada hayvonlar saqlanishi uchun javobgar shaxsda qoladi, u hayvonni bo‘rdoqiga boqishga o‘tkazish, chetga sotish yoki yaroqsizga chiqarish natijasida olingan teri, shox, tuyoq, texnik yog‘ va h.k.larni omborga topshirish uchun asos hisoblanadi.

Foydalanish me’yoriy shartlarining buzilishi natijasida ishchi hayvonlar asosiy podadan yaroqsizga chiqib ketayotganda «Hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish dalolatnomasi» (QX-106 shakl) ga foydalanish me’yoriy shartlarining buzilishi haqidagi dalolatnoma nusxasi ilova qilinadi, hamda foydalanish me’yoriy shartlarining buzilish sabablari tushuntiriladi va aybdor shaxslarga nisbatan qo‘llanilgan choralar ko‘rsatiladi.

Tabiiy ofat natijasida hayvonlar asosiy podadan yaroqsizga chiqib ketayotganda yaroqsizga chiqarish dalolatnomasiga maxsus hukumat komissiyasining xulosasi ilova qilinishi mumkin.

Hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarishdan moliyaviy natijani (foyda yoki zararni) aniqlashda oldingi qayta baholashlardan hosil bo‘lgan asosiy poda hayvonlari qiymati oshishi summasining qoldig‘i, ya’ni ushbu asosiy poda hayvonining qayta baholashlar natijasida bahosining oshgan summasi bahosining pasaygan summasidan oshgan qismi asosiy vositalarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotning kreditiga olib borilib, bir vaqtning o‘zida 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyotini kamaytiradi.

Uzoq muddatli aktivlar tarkibidan tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga o‘tkazilgan aktivlarning tannarxi ushbu uzoq muddatli aktivlarning balans (qoldiq) qiymati bo‘yicha belgilanadi. Asosiy poda hayvonlari asosiy vositalar sifatida tan olinganligi sababli ular boquvga o‘tkazilganda tovar-moddiy zaxiralarning tarkibiy qismi bo‘lmish o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar tarkibiga balans (qoldiq) qiymati bo‘yicha qabul qilinadi.

Asosiy podadan yaroqsizga chiqarilgan va boquvga qo‘yilgan hayvonlarni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirishning xususiyatlarini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi yordamchi xo‘jaligi asosiy podadan hayvonlarni yaroqsizga chiqarishni amalga oshirgan. Asosiy podadan hayvonlarni yaroqsizga chiqarish natijasida asosiy podada mahsuldor va ishchi hayvonlar sifatida hisobga olinadigan ma’lum bir hayvonlarni saqlab turish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi sababli ularni boquvga o‘tkazildi.

Asosiy podadan hayvonlarni yaroqsizga chiqarish natijasida mahsuldor hayvonlar sifatida hisobga olinadigan 10 ta sigirni saqlab turish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi sababli boqishga o‘tkazildi. Hisob ma’lumotlariga muvofiq har bir sigirning balans qiymati 7 500 000 so‘mni tashkil etadi. Mahsuldor hayvon sifatida ularga eskirish hisoblanmaydi. Rezerv

kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olingan sigirlarni qayta baholash natijalari (qoldiq) 1 500 000 so‘mga teng.

Sigirlarni boquvga o‘tkazilishi bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- sigirlarning balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *75 000 000 so‘m;*

kredit 0170 «Ishchi va mahsuldor hayvonlar» schyoti *75 000 000 so‘m;*

- sigirlarni boquvdagi hayvonlar guruhiga o‘tkazilganda:

debet 1120 «Boquvdagi hayvonlar» schyoti *75 000 000 so‘m;*

kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *75 000 000 so‘m;*

- rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olinadigan sigirlarning qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti *1 500 000 sum;*

kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *1 500 000 sum;*

- sigirlarni o‘tkazishdan foyda summasiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *1 500 000 so‘m;*

kredit 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» schyoti *1 500 000 so‘m.*

Yaroqsizga chiqarilgandan keyin to‘g‘ri so‘yilgan hayvonlar uchun berilgan «Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasi» (QX-54-shakl)si tuziladi va so‘yish yakunlangach, hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarishdan moliyaviy natijani aniqlash maqsadida hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar va ularni chiqib ketishidan mahsulotlar kelib tushishi to‘g‘risida ma’lumotnoma tuzishni tavsiya qilamiz. «Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasi» (QX-54 shakl) va hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar va ularni chiqib ketishidan mahsulotlar kelib tushishi to‘g‘risida ma’lumotnoma tuzish bilan bog‘liq masalalar mazkur «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» ning «11.3. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning boshlang‘ich hujjatlarda hisobi» da ko‘rib o‘tilgan.

Yaroqsizga chiqarilgandan keyin to‘g‘ri so‘yilgan hayvonlar buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirishning xususiyatlarini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi yordamchi xo‘jaligi asosiy podadan hayvonlarni yaroqsizga chiqarishni amalga oshirgan. Asosiy podadan hayvonlarni yaroqsizga chiqarish natijasida asosiy podada mahsuldor va ishchi hayvonlar sifatida hisobga olinadigan ma’lum bir hayvonlarni saqlab turish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi sababli ularni so‘yishga berib yuborildi.

Asosiy podadan hayvonlarni yaroqsizga chiqarish natijasida ishchi hayvonlar sifatida hisobga olinadigan ikkita buqani saqlab turish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emasligi sababli so‘yishga berib yubordi. Har bir buqalarning boshlang‘ich qiymati 7 375 000 so‘mni tashkil etadi. So‘yish sanasiga ular bo‘yicha hisoblangan eskirish 4 425 000 so‘mni tashkil etgan. Buqalarni qayta baholash natijalari (qoldiq) 150 000 so‘mga teng. So‘yish natijasida qiymati

14 950 000 so‘m (650 kg x 23 000 so‘m) bo‘lgan 650 kg go‘sht va summasi 140 000 so‘m (2 x 70 000 so‘m) bo‘lgan teri olingan. Buqalarni so‘yish korxonaning ishchilari tomonidan amalga oshirilgan. Buqalarni so‘yish xarajatlari quyidagilardan iborat: ishchilarga ish haqi hisoblash 700 000 so‘m va ishchilarning ish haqi fondidan 25 foiz miqdorda yagona ijtimoiy to‘lovga 175 000 so‘m. Bundan tashqari so‘yishda summasi 125 000 so‘m bo‘lgan yordamchi materiallar (arqon, doka va h.k.lar) ishlatilgan.

Buqalarni so‘yilishi natijasida balansdan chiqarish «4-avtobus saroyi» AJ ning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- buqalarning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *14 750 000 so‘m;*
kredit 0170 «Ishchi va mahsuldor hayvonlar» schyoti *14 750 000 so‘m;*

- buqalar bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0270 «Ishchi hayvonlarning eskirishi» schyoti *8 850 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *8 850 000 sum;*

- buqalarni so‘yishdan olingan go‘shtni ombordagi tayyor mahsulotlar sifatida kirim qilish:

debet 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti *14 950 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *14 950 000 so‘m;*

- buqalarni so‘yishdan olingan terini keyinchalik qayta ishlanadigan material sifatida kirim qilish:

debet 1090 «Boshqa materiallar» schyoti *140 000 so‘m;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *140 000 so‘m;*

- buqalarni so‘yish bo‘yicha xarajatlar summasiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *900 000 sum;*
kredit 1090 «Boshqa materiallar» schyoti *125 000 sum;*
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti *700 000 so‘m;*
kredit 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» *175 000 so‘m;*

- rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olinadigan buqalarning qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti *150 000 sum;*
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *150 000 sum;*

- buqalarni so‘yishdan foyda summasiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti *8 300 000 so‘m;*
kredit 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» schyoti *8 300 000 so‘m.*

Asosiy podadan yaroqsizga chiqarilgan va so‘yishga berilgan hayvonlardan olingan terilarni va go‘shtlarni keyinchalik ishlab chiqarish jarayonida ishlatish yoki chiqib ketishi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ilovalar

1-ilova
AV-1 namunaviy shakl

TASDIQLAYMAN
Oluvchi: _____
korxonaning nomi
Manzil: _____
H/r: _____
Bank: _____
MFO: _____ STIR: _____
XXTUT _____

TASDIQLAYMAN
Topshiruvchi: _____
korxonaning nomi
Manzil: _____
H/r: _____
Bank: _____
MFO: _____ STIR: _____
XXTUT _____

Asosiy vositalarni (bino, inshootlardan tashqari) qabul qilish-topshirishning _____ - sonli dalolatnomasi

Qabul qilish-topshirish vaqtida joylashgan joyi _____ «_____» _____ 20 __ -yildan
Ishlab chiqargan korxona _____

1. Berish sanasida asosiy vositalarni holati to‘g‘risida ma’lumotlar

Asosiy vositaning nomi	Sana			Foydalanish-ning haqiqiy muddati	Qoldiq qiymati, so‘m	Xarid qilish qiymati (shartnoma qiymati)
	ishlab chiqarilgan (yil)	foydalanishga berilgan (birinchi marta)	oxirgi kapital ta’mirlash			

2. buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasidagi asosiy vositalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar

Boshlang‘ich qiymatga kiritiladigan xarajatlar qiymati			Boshlang‘ich qiymat, so‘m

3. Asosiy vositalarning qisqacha individual tavsifi

Asosiy vositalar, qurilmalar, jihozlar		qimmat baholi materiallar (metallar, toshlar va h.k.lar) mavjudligi				
nomi	miqdori	qimmat baholi toshlar nomi	nomenklatura raqami	o‘lchov birligi	miqdori	og‘irligi

AV-1 shaklning orqa tomoni

Qabul qilish-topshirish bo‘yicha komissiya
«___» _____ 200 __ -yildagi sinov natijasi

Asosiy vositalar texnik shartlarga <u>mos keladi</u> / mos kelmaydi — Qo‘shimcha ishlov <u>talab etiladi</u> / talab etilmaydi

(nima mos kelmasligi ko‘rsatilsin) (nima talab etilishi ko‘rsatilsin)

Komissiya xulosasi: Asosiy vositalar texnik tavsif ma’lumotlari talablariga mos keladi, ishchi holatda va foydalanishga yaroqli

Ilova. Texnik hujjatlar _____

Komissiya raisi _____ lavozim _____ imzo _____ F.I.SH.

Komissiya a’zolari _____ lavozim _____ imzo _____ F.I.SH.

_____ lavozim _____ imzo _____ F.I.SH.

_____ lavozim _____ imzo _____ F.I.SH.

Asosiy vositalar

Topshirdi _____ lavozim _____ imzo _____ F.I.SH.

«_____» _____ 200 ___ -y.

Qabul qildi _____ lavozim _____ imzo _____ F.I.SH.

«_____» _____ 200 ___ -y.

«____» _____ 200__ -yildagi _____-sonli ishonchnoma bo‘yicha:
berilgan _____
(kim tomonidan, kimga (F.I.SH.))

Asosiy vositalarni mas’ul saqlashga qabul qildi

_____ lavozim _____ imzo _____ F.I.SH.

«_____» _____ 200 __ -y.

Buxgalteriya belgisi:

Asosiy vositalarni hisobga olish inventar kartochkasi (daftari) da chiqib ketish belgilab qo‘yildi

Asosiy vositalarni hisobga olish kartochkasi ochilganli yoki inventar daftarga yozuv to‘g‘risida buxgalteriya belgisi

№	Tuzish sanasi

Bosh buxgalter _____ imzo _____ F.I.SH.

Bosh buxgalter _____ imzo _____ F.I.SH.

104

2-ilova
AV-1a namunaviy shakl

TASDIQLAYMAN
Oluvchi: _____
korxonaning nomi
Manzil: _____
H/r: _____
Bank: _____
MFO: _____ STIR: _____
XXTUT _____

TASDIQLAYMAN
Topshiruvchi: _____
korxonaning nomi
Manzil: _____
H/r: _____
Bank: _____
MFO: _____ STIR: _____
XXTUT _____

Asosiy vositalarni (bino, inshootlar uchun) qabul qilish-topshirishning _____ - sonli dalolatnomasi

Qabul qilish-topshirish vaqtida joylashgan joyi _____ «_____» _____ 20 ___ -yildan
Ishlab chiqargan korxona _____

1. Berish sanasida asosiy vositalarni holati to‘g‘risida ma’lumotlar

2. buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasidagi asosiy vositalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar

Sana					Foydalanish-ning haqiqiy muddati (yil, oylar)	Hisoblangan eskirish summasi, so‘m	Qoldiq qiymati, so‘m	Xarid qilish qiymati (shartnoma qiymati), so‘m	Qarz mablag‘lar bo‘yicha foizlarni kapitalizatsiya qilinadigan summasi	Boshlang‘ich qiymat, so‘m	Foydali xizmat muddati
qurilish boshlangan	qurilish tugagan	foydalanishga berilgan	oxirgi rekonstruksiya, modernizatsiya, qo‘shimcha qurish	oxirgi kapital ta’mirlash							

3. Asosiy vositalarning qisqacha individual tavsifi

Qimmat baholi materiallar (metallar, toshlar va h.k.lar) mavjudligi				
qimmat baholi toshlar nomi	nomenklatura raqami	o‘lchov birligi	miqdori	og‘irligi

Asosiy vositalarni tavsiflovchi konstruktiv unsurlarining va boshqa belgilarning nomi	Sifat va miqdoriy tavsifi					Izoh
	asosiy qismning	Qo‘shimcha qurilgan binolar va boshqalar				
Umumiy maydoni, m^2						
Qavatlar soni						
Umumiy qurilish hajmi, m^3						
shu jumladan: yer osti qismi, m^3						
Qurilgan, qurilgan-qo‘shimcha qurilgan va qo‘shimcha qurilgan binolar maydoni, m^2						
shu jumladan: materiallar						

AV-1a shaklning orqa tomoni

Qabul qilish-topshirish bo‘yicha komissiya
«___» _____ 200 __ -yildagi sinov natijasi

Asosiy vositalar texnik shartlarga mos keladi / mos kelmaydi

_____
(nima mos kelmasligi ko‘rsatilsin)

Qo‘shimcha ishlov talab etiladi / talab etilmaydi

_____
(nima talab etilishi ko‘rsatilsin)

Komissiya xulosasi: Asosiy vositalar texnik tavsif ma’lumotlari talablariga mos keladi, ishchi holatda va foydalanishga yaroqli

Ilova. Texnik hujjatlar _____

Komissiya raisi _____ (lavozim) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Komissiya a’zolari _____ (lavozim) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozim) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozim) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Asosiy vositalar
Topshirdi _____ (lavozim) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

«_____» _____ 200 ___ -y.

Qabul qildi _____ (lavozim) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

«_____» _____ 200 ___ -y.

«____» _____ 200 __ -yildagi _____ -sonli ishonchnoma bo‘yicha:

berilgan _____
(kim tomonidan, kimga (F.I.SH.))

Asosiy vositalarni mas’ul saqlashga qabul qildi

_____ (lavozim) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

«_____» _____ 200 __ -y.

Buxgalteriya belgisi:
Asosiy vositalarni hisobga olish inventar kartochkasi (daftari) da chiqib ketish belgilab qo‘yildi

Asosiy vositalarni hisobga olish kartochkasi ochilganli yoki inventar daftarga yozuv to‘g‘risida buxgalteriya belgisi

№	Tuzish sanasi

Bosh buxgalter _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Bosh buxgalter _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

3-ilova
AV-6 namunaviy shakl

Asosiy vositalarni hisob olishning_____-sonli inventar kartochkasi

Tuzish sanasi	Kirim qilish hujjati	
	sanasi	Raqami

Korxona _____ Tarkibiy bo‘linma _____
asosiy vositaning joylashgan joyi

_____ asosiy vositaning to‘liq nomi va foydalanish maqsadi

_____ ishlab chiqargan korxonaning nomi

_____ modeli, tipi, markasi

Boshlang‘ich qiymat, so‘m	Foydali xizmat muddati	Jamg‘arilgan eskirish, so‘m	Qoldiq qiymat, so‘m	Asbob-uskuna
1	2	3	4	5

Raqami			Ishlab chiqarish, qurish yili	Qimmatbaho materiallar (metallar, toshlar va h.k.lar) mavjudligi					Chiqib ketgan (berilgan)			
inventar	zavod	pasport		qimmatbaho materiallar nomi	nomenklatura	o‘lchov birligi		miqdori (og‘irligi)	hujjat bo‘yicha		CHiqib ketish (o‘tkazish) sababi	
						nomi	kodi		sanasi	raqami	nomi	kodi
6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	18	19

AV-6 shaklning orqa tomoni

Asosiy vositalarni qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish (buxgalteriya yozuvi)			Asosiy vositalarni ta’mirlash (buxgalteriya yozuvi)		
sana	raqami	xarajat summasi, so‘m	sana	raqami	xarajat summasi, so‘m
1	2	3	4	5	6

Asosiy vositalarning qisqacha individual tavsifi

Asosiy vositalarni tavsiflovchi konstruktiv unsurlarining va boshqa belgilarning nomi	Materiallar, hajmi va boshqa ma’lumotlar				
	asosiy qism	Asosiy qismga tegishli muhim qo‘shimcha qurilishlar, qurilmalar va jihozlar nomi			
1	2	3	4	5	6

Kartochkani to‘ldirdi

_____ lavozim _____ imzo _____ F.I.SH.

Buxgalteriya hisobi

«____» _____ _____y.

4-ilova

AV-6a namunaviy shakl

Asosiy vositalar guruhlarini hisob olishning
INVENTAR KARTOCHKASI

Hujjat raqami	Tuzish sanasi

Korxona _____
(nomi)

Tarkibiy bo‘linma _____
(nomi)

Moddiy javobgar shaxs _____
(F.I.SH)

№	Asosiy vositalar nomi	Inventar raqami	Ishlab chiqarish (qurish) sanasi	Korxonaga kelib tushgan		Buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sanadagi boshlang‘ich qiymat, so‘m.	Foydali xizmat muddati	Hisoblangan amortizatsiya (eskirish) summasi, so‘m.	Qoldiq qiymati, so‘m.	Qayta baholash			CHiqib ketgan (berilgan)	
				hujjat, sanasi, raqami	buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sana					sanasi	qayta hisoblash (qayta baholash) koeffitsienti	qayta tiklash qiymati, so‘m.	hujjat, sanasi, raqami	chiqib ketish sababi
1	2	3	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16

AV-6a shaklning orqa tomoni

№	Asosiy vositalar nomi	Inventar raqami	Ishlab chiqarish (qurish) sanasi	Korxonaga kelib tushgan		Buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sanadagi boshlang‘ich qiymat, so‘m.	Foydali xizmat muddati	Hisoblangan amortizatsiya (eskirish) summasi, so‘m.	Qoldiq qiymati, so‘m.	Qayta baholash			CHiqib ketgan (berilgan)	
				hujjat, sanasi, raqami	buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sana					sanasi	qayta hisoblash (qayta baholash) koeffitsienti	qayta tiklash qiymati, so‘m.	hujjat, sanasi, raqami	chiqib ketish sababi
1	2	3	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16

Inventar kartochkani yuritishga mas’ul shaxs

lavozim _____ imzo _____ F.I.SH. _____

5-ilova

AV-6b namunaviy shakl

Korxona _____

(korxonaning nomi)

Tarkibiy bo‘linma _____

(tarkibiy bo‘linmaning nomi)

Asosiy vositalarni hisob olishning
INVENTAR DAFTARI

«____» _____ 20___ -yildan «____» _____ 20____ -yilgacha bo‘lgan davr uchun

Inventar daftarni yuritishga mas’ul shaxs _____ _____ _____

Moddiy javobgar shaxs lavozim imzo F.I.SH.

AV-6b namunavviy shaklning 2-varag‘i

№	Asosiy vositalarning nomi	Inventar raqami	Kelib tushgan				Boshlang‘ich qiymat, so‘m	Foydali xizmat muddati	Hisoblangan amortizatsiya (eskirish) summasi, so‘m
			hujjati, sanasi, raqami	buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sana	tarkibiy bo‘linma	javobgar shaxs			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

mazkur namunada AV-6b- shakl bo‘yicha daftarning barcha juft sonli varaqlari bosmadan chiqarilishi kerak

AV-6b namunaviy shaklning 3-varag‘i

Qoldiq qiymati, so‘m	Qayta baholash			Ichki harakat, chiqib ketishi (hisobdan chiqarish)			
	sanasi	qayta hisoblash (qayta baholash) koeffitsienti	qayta tiklash qiymati, so‘m	hujjati, sanasi, raqami	tarkibiy bo‘linma	javobgar shaxs	CHiqib ketish (hisobdan chiqarish) sababi
11	12	13	14	15	16	17	18

mazkur namunada AV-6b namunaviy shakl bo‘yicha daftarning barcha toq sonli varaqlari bosmadan chiqarilishi kerak

Buxgalteriya hisobi

6-ilova
AV-14 namunaviy shakl

Oluvchi korxona _____
(nomi)

Dalolatnomani tuzish uchun asos _____
(buyruq, farmoyish, shartnoma (uning turini ko‘rsatish bilan))

Asbob-uskunalarni qabul qilish (kelib tushishi) to‘g‘risidagi dalolatnoma

Buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasi «___» _____ 20 __ -y.

Hujjat raqami	Tuzish sanasi

TASDIQLAYMAN

Rahbar _____ _____ _____
(lavozim) (imzo) (familiyasi, ismi, sharifi)

«____» _____ 20___ -y.

Yetkazib beruvchi korxona (sotuvchi) _____
(nomi)

Ishlab chiqaruvchi korxona _____
(nomi)

Yuk jo‘natuvchi korxona (tashuvchi korxona) _____
(nomi)

Asbob-uskunalarni qabul qilish (joylashgan) joyi _____
(nomi)

Yetkazib berish uslubi _____ _____-son
(transport vositasining turi)

Plombalarning mavjudligi _____

Transport yuk xati

seriyasi	
raqami	
sanasi	

1. asbob-uskunalarni qabul qilish vaqti to‘g‘risidagi ma’lumotlar

Sana, vaqt, soat, minut						
asbob-uskunalar (yuk) jo‘natilgan		asbob-uskunalar (yuk) kelib tushishi	asbob-uskunalar (yuk) qabul qilish (kelib tushishi)			
jo‘natuvchi stansiyasidan	jo‘natuvchi omboridan	qabul qilish joyi	boshlanishi	to‘xtatilishi	qaytadan boshlanishi	tugashi
punktning nomi						
1	2	3	4	5	6	7

2. Kelib tushgan asbob-uskunalar to‘g‘risida ma’lumotlar

Asbob-uskunalar			O‘rash turi	O‘lchov birligi	Asbob-uskunalarni yetkazib beruvchi korxona hujjatlari bo‘yicha						Haqiqatda qabul qilingan			Izoh
nomi	zavod (nomenkla-tura) raqami	tipi, markasi, belgisi			joy soni, dona	yuk og‘irligi		qiymati, so‘m.		yuk xati bo‘yicha muhim belgilar	joy soni, dona	yuk og‘irligi	aniqlangan nosozliklar	
						jo‘natuv-chiniki	yo‘lda (portda va boshqalar)	bir birligi uchun	jami					
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15

Asbob-uskunani ko‘rishda aniqlangan: 1. O‘rash shikastlanmagan / shikastlangan (shikastni ko‘rsatilsin)

2. Asbob-uskuna komplekt/ komlekt emas holda yetkazilgan (komlektligi ko‘rsatisin) komplekt / komplekt emas (komlekt emasligi ko‘rsatisin)

Izoh. O‘rnatishda, sozlashda va sinashda aniqlangan nosozliklar Asbob uskunalarda aniqlangan nosozliklar to‘g‘risidagi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi (AV-16 shakl)

Komissiya xulosasi: _____

Ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati:

Asbob-uskunalarni soni, sifati va komplektligi bo‘yicha qabul qilish qoidalari bilan komissiyaning barcha a’zolari tanishdi:

_____ (lavozim) _____ (imzo) _____ (F.I.SH) _____ (vakolat to‘g‘risidagi berilgan hujjatning raqami va sanasi hamda hujjatni bergan korxonaning nomi)

_____ (lavozim) _____ (imzo) _____ (F.I.SH) _____ (vakolat to‘g‘risidagi berilgan hujjatning raqami va sanasi hamda hujjatni bergan korxonaning nomi)

_____ (lavozim) _____ (imzo) _____ (F.I.SH) _____ (vakolat to‘g‘risidagi berilgan hujjatning raqami va sanasi hamda hujjatni bergan korxonaning nomi)

Qabul qildi _____ (lavozim) _____ (imzo) _____ (F.I.SH)

«____» _____ 20____ -y.

«____» _____ 20____ -y. _____-sonli ishonchnoma bo‘yicha berilgan _____ (kim tomonidan, kimga (familiyasi, ismi, sharifi))

Asosiy vositalarni mas’ul saqlashga qalul qildi _____ (lavozim) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

«____» _____ 20____ -y.

Asosiy vositalarni hisobining inventar kartochkasi ochilganligi to‘g‘risida buxgalteriya belgisi	Hujjatning raqami	Tuzish sanasi

Bosh buxgalter _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Buxgalteriya hisobi

7-ilova
AV-15 namunaviy shakl

Buyurtmachi korxona _____ Dalolatnomani tuzish uchun asos _____
(nomi va tarkibiy bo‘linma nomi) (hujjatning nomi (raqami va sanasini ko‘rsatish bilan))

Asbob uskunalarni o‘rnatishga qabul qilish to‘g‘risidagi dalolatnoma

Hujjat raqami	Tuzish sanasi

Topshirish sanasi		
o‘rnatishga	foydalanishga	SHartnoma bo‘yicha haqiqatda

Dalolatnomani tuzish joyi _____ Ishlab chiqaruvchi _____
(nomi) (nomi)

Yetkazib beruvchi _____ O‘rnatuvchi _____
(nomi) (nomi)

1. Quyida sanab o‘tilgan asbob-uskunalar o‘rnatish uchun berildi _____
(bino, inshoot, sexning nomi)

Asbob-uskunalar					Buyurtmachining omboriga kelib tushish		Miqdori, dona	Qiymati, so‘m.		Izoh
nomi	raqami			tipi, markasi	sanasi	qabul qilish dalolatnomasining raqami		bir birligi	jami	
	zavod (nomenklatura)	pasport (o‘ram)	texnik sxemada joylashishi bo‘yicha							
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11

AV-15 namunaviy shaklning orqa tomoni

Asbob uskunalarni o‘rnatishga qabul qilishda aniqlandi:

loyiha ixtisosiga yoki chizmaga mos keladi / mos kelmaydi (agar mos kelmasa, nimasi mos kelmasligini ko‘satilsin) _____

asbob-uskunalar komplekt / komplekt bo‘lmagan holda berilgan (qabul qilish amalga oshirilgan komplekt tarkibi va texnik hujjatlar va qanday komplekt bo‘lganligi ko‘rsatilsin)
_____

Asbob-uskunalar ko‘rishda nosozliklar aniqlanmagan / aniqlangan (agar aniqlangan bo‘lsa, ularni batafsil sanab berilsin) _____

Izoh O‘ rnatishda, sozlashda va sinashda aniqlangan nosozliklar Asbob uskunalarda aniqlangan nosozliklar to‘g‘risidagi dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi (AV-16 shakl)

O‘rnatishga yaroqliyligi to‘g‘risida xulosa: _____

Topshirdi *Qabul qildi*

Buyurtmachi korxonaning vakili O‘rnatuvchi korxonaning vakili

_____ _____ _____ _____ _____ _____
(lavozim) (imzo) (F.I.SH) (lavozim) (imzo) (F.I.SH)

Ko‘rsatilan asbob-uskunalar mas’ul saqlashga qabul qilindi
Moddiy javobgar shaxs _____ _____ _____
(lavozim) (imzo) (F.I.SH.)

«____» _____ 20__ -y.

8-ilova
AV-16 namunaviy shakl

Buyurtmachi korxona _____
(korxonaning nomi)

_____
(tarkibiy bo‘linma)

Asbob uskunalarda aniqlangan nosozliklar to‘g‘risidagi dalolatnoma

Hujjatning raqami	Tuzish sanasi

O‘rnatishga qabul qilingan dalolatnoma

raqami	
sanasi	

Dalolatnomani tuzilgan joyi _____
(manzil, bino, inshoot, sex)

Ishlab chiqaruvchi korxona _____
(nomi)

Yetkazib beruvchi korxona _____
(nomi)

Yuk jo‘natuvchi korxona _____
(nomi)

Tashuvchi korxona _____
(nomi)

O‘rnatuvchi korxona _____
(nomi)

1. Quyidagi asbob-uskunalarni _____ jarayonida nosozliklar aniqlandi:
(qabul qilish, o‘rnatish, sozlash, sinash)

Asbob-uskunalarni				Sana		Aniqlangan nosozliklar
nomi	pasport yoki o‘ramning raqami	tipi, markasi	loyihachi korxona	asbob-uskunalarni ishlab chiqarish	asbob-uskunalarni kelib tushishi	
1	2	3	4	5	6	7

AV-16 namunaviy shaklning orqa tomoni

Asbob-uskunalarni				Sana		Aniqlangan nosozliklar
nomi	pasport yoki o‘ramning raqami	tipi, markasi	loyihachi korxona	asbob-uskunalarni ishlab chiqarish	asbob-uskunalarni kelib tushishi	
1	2	3	4	5	6	7

Aniqlangan nosozliklarni bartaraf qilish uchun lozim: _____

_____
(aniqlanagan nosozliklarni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlar yoki ishlar, bajaruvchi va bajarish muddatlari batafsil ko‘rsatiladi)

Buyurtmachi korxonaning vakili

_____ _____ _____
(lavozim) (imzo) (F.I.SH.)

O‘rnatuvchi korxonaning vakili

_____ _____ _____
(lavozim) (imzo) (F.I.SH.)

«____» _____ 20___ -y.

Ishlab chiqaruvchining vakili

_____ _____ _____
(lavozim) (imzo) (F.I.SH.)

«____» _____ 20___ -y.

9- ilova

AV-2 namunaviy shakl

Asosiy vositalarni ichki harakatini
_____ -sonli yuk xati

«_____» _____ 20 __ -y.

Korxonaning nomi _____

Topshiruvchi _____

Oluvchi _____

№	Asosiy vositalarning		Soni, dona	Qiymat, so‘m	
	Nomi	Inventar raqami		Bir birlik	Jami
				Hujjat bo‘yicha jami	

Izoh (asosiy vositalarning texnik holatining qisqacha tavsifi) _____
_____

Topshirdi: _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Qabul qildi: _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Asosiy vositalarni hisobga olish inventar kartochkasi (daftarida) ko‘chirib o‘tkazish belgilab qo‘yilgan.

Bosh buxgalter _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

10-ilova
AV-3 namunaviy shakl

Ta’mirlangan rekonstruksiya va modernizatsiya qilingan asosiy vositalarni qabul qilish topashirishning _____ - sonli dalolatnomasi

«_____» _____ 20 __ -yildan

Tarkibiy bo‘linma	Asosiy vositalarni ta’mirlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash amalga oshirilagndagi ma’lumotlar					
	Oldin			Keyin		
	Boshlang‘ich (balans) qiymati	Jamg‘arilgan amortizatsiya summasi, so‘m	Qoldiq qiymati	Boshlang‘ich (balans) qiymati	Jamg‘arilgan amortizatsiya summasi, so‘m	Qoldiq qiymati
1	2	3	4	5	6	7

Bajaruvchi - korxona (tarkibiy bo‘linma) _____ da «_____» _____ 20 __ -yildan _____- sonli shartnoma (buyurtma) bo‘yicha

ta’mirlash (rekonstruksiya, modernizatsiya) da bo‘lgan Sana _____ dan Sana _____ gacha

Ta’mirlash (rekonstruksiya, modernizatsiya) bo‘yicha nazarda tutilgan ishlar bajarilgan to‘liq / to‘liq emas

_____
(nima bajarilmaganini aniq ko‘rsatilsin)

Ta’mirlash (rekonstruksiya, modernizatsiya) tugagandan keyin asosiy vositalar sinovdan o‘tdi va foydalanishga topshirilgan.

Rekonstruksiya, modernizatsiya natijasida asosiy vositalarning o‘zgargan tavsiflari

_____

Topshirdi: _____ (lavozim) _____ (imzo) _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

Qabul qildi: _____ (lavozim) _____ (imzo) _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

«_____» _____ 20 __ -y.

11-ilova

_____ bo‘yicha
(korxonaning nomi)

20___ -y. «_____» _____ dagi

_____-sonli BUYRUQ (qaror, farmoyish)

_____da inventarizatsiya o‘tkazish uchun quyidagi tarkibdagi inventarizatsiya komissiyasi (doimiy harakatdagi, ishchi) tayinlanadi:

1. Rais _____
(lavozimi, F.I.SH.)
2. Komissiya a’zolari _____
(lavozimi, F.I.SH.)

Inventarizatsiyadan o‘tkazish kerak _____
(mol-mulk va moliyaviy majburiyatlar)

Inventarizatsiyadan o‘tkazishga kirishilsin _____ (sana) va tugatilsin _____ (sana)

Inventarizatsiyadan o‘tkazishga sabab _____
(nazorat tekshiruvi, qayta baholash va h.k).

Inventarizatsiya bo‘yicha ma’lumotlarni _____gacha buxgalteriyaga topshirilsin
(sana)

Rahbar _____ (imzo) _____ (sana)

12-ilova

_____
(korxonaning nomi)

Inventarizatsiya o‘tkazish haqidagi buyruqlarning bajarilishi ustidan nazorat kitobi Boshlandi 20__ -y.__ _____ Tugatildi 20__ -y.__ _____

T/r	Inventarizatsiya o‘tkaziladigan korxona, ombor, sex, uchastka va boshq. nomi	Moddiy javobgar shaxslarning familiyasi	Buyruq		Inventarizatsiya komissiyasi tarkibi (rais va komissiya a’zolarining familiyasi)	Buyruqni olganligi haqida tilxat	Inventarlanadigan mulk nomi	Inventarizatsiyaning boshlanishi (sana)		Inventarizatsiyaning tugallanishi (sana)		Inventarizatsiya natijalari to‘g‘risida baho						Tasdiqlangan sana	Kamomad bo‘yicha chora ko‘rilgan sana		Belgi
												Boshlang‘ich natija			Yakuniy natija				kamomadning qoplanishi	ishning tergov idoralariga oshirilishi	
			sanasi	raqami				buyruqqa ko‘ra	haqiqatda	buyruqqa ko‘ra	haqiqatda	sana	summa		sana	summa					
													kamomad	ortiqcha		kamomad	ortiqcha				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22

13-ilova

____- sonli Asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish
RO‘YXATI

STIR-

	Kodlar
INV-1-son shakl BHUT bo‘yicha -	
Sana (yil, kun, oy)-	
KTUT bo‘yicha -	
XXTUT bo‘yicha-	
KTUT bo‘yicha -	
Inventarizatsiya boshlangan sana -	
Inventarizatsiya tugatilgan sana -	

Korxona _____

Tarkibiy bo‘linma _____

Inventarizatsiyani o‘tkazish uchun asos: buyruq, qaror, farmoyish (keraksizlarini o‘chiring) _____

Asosiy vositalar _____

Joylashgan joyi _____

T I L X A T

Inventarizatsiyani o‘tkazishni boshlanishiga asosiy vositalarga tegishli bo‘lgan barcha chiqim va kirim hujjatlari buxgalteriyaga topshirildi va mening (bizning) javobgarligimga (javobgarligimizga) kelib tushgan hamma asosiy vositalar kirim qilingan, chiqib ketganlari xarajatga chiqim qilingan.

Asosiy vositalarning saqlanishiga javobgar shaxs (shaxslar):

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

T/r	Asosiy vositalarning nomi va qisqa tavsifi	Ishlab chiqarilgan (qurilgan) yili	Raqami			Haqiqiy borligi		Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha	
			inventar	zavod	Pasporti bo'yicha	soni	qiymati, so'm	soni	qiymati, so'm
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
					Jami:				

Ro'yxat bo'yicha jami: tartib raqamlar soni _____
(so'z bilan)

Birliklarning haqiqatda umumiy soni _____
(so'z bilan)

Haqiqatda, so'm _____ summaga
(so'z bilan)

Komissiya raisi: _____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Komissiya a'zolari: _____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Ushbu inventarizatsiya ro'yxatida ____ dan ____gacha raqamlangan barcha qimmatliklar mening (bizning) ishtirokimda (ishtirokimizda) komissiya tomonidan haqiqatda tekshirib chiqildi va ro'yxatga kiritildi. Bu borada inventarizatsiya komissiyasiga da'voim (da'voimiz) yo'q. Ro'yxatda sanab o'tilgan qimmatliklar mening (bizning) javobgarligimda (javobgarligimizda) saqlanmoqda.

Moddiy javobgar shaxs (shaxslar):

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Ushbu ro'yxatda keltirilgan ma'lumotlar va hisob-kitoblarni tekshirdi: _____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

14-ilova

___- sonli Ta’mirlanishi tugallanmagan asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o‘tkazish DALOLATNOMASI

STIR-	
	Kodlar
INV-10-son shakl BHUT bo‘yicha-	
Sana (yil, kun, oy)-	
KTUT bo‘yicha-	
XXTUT bo‘yicha-	
KTUT bo‘yicha-	
Inventarizatsiya boshlangan sana-	
Inventarizatsiya tugatilgan sana-	
Buxgalteriya hisobi schyoti raqami-	

Korxona _____

Tarkibiy bo‘linma _____

Inventarizatsiyani o‘tkazish uchun asos: buyruq, qaror, farmoyish (keraksizlari o‘chirilsin)

T/r	Ta’mirlanayotgan asosiy vositalar nomi va turi	Raqami		Buyurtmachi		Ta’mirlashning smeta bo‘yicha qiymati, so‘m	Texnik tayyorlik foizi	Qiymati		Natijalar	
		inventar	buyurtma	nomi	kod			smeta	haqiqiy	iqtisod qilingan (-), so‘m	ortiqcha sarf (+), so‘m.
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12

Komissiya raisi _____ (lavozimi) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Komissiya a’zolari _____ (lavozimi) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

15-ilova

_____- sonli Asosiy vositalarning inventarizatsiya natijalarini solishtirish QAYDNOMASI

STIR-	
	Kodlar
INV-10-son shakl BHUT bo‘yicha-	
Sana (yil, kun, oy)-	
KTUT bo‘yicha -	
XXTUT bo‘yicha -	
KTUT bo‘yicha -	
Inventarizatsiya boshlangan sana -	
Inventarizatsiya tugatilgan sana -	
Buxgalteriya hisobi schyoti raqami -	

Korxona _____

Korxonaning tarkibiy birligi _____

Inventarizatsiyani o‘tkazish uchun asos: buyruq, qaror, farmoyish (keraksizlari o‘chiriladi)

T/r	Asosiy vositalarni nomi va qisqa tavsifnomasi	Ishlab chiqarilgan (qurilgan) yili	Raqami			Inventarizatsiya natijalari			
			inventar	zavod	pasport bo‘yicha	ortiqcha		kamomad	
						soni	summasi, so‘m	soni	summasi, so‘m
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

Buxgalter _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Solishtirish natijalari bilan tanishtirildi:

Moddiy javobgar shaxs _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Buxgalteriya hisobi

16-ilova
AV-4 namunaviy shakl

«Tasdiqlayman»

_____ _____
rahbarning F.I.SH. imzo
20___ -yil «_____» _____.

Asosiy vositalarni tugatish to‘g‘risidagi _____ -sonli dalolatnoma

Korxona _____

Tarkibiy bo‘linma	Tuzish sanasi	Operatsiya turining kodi	Asosiy vositani saqlashga mas’ul shaxsning kodi

Asosiy vositaning nomi	tur	kod	Boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati	Jamg‘arilgan eskirish summasi	Ishlab chiqilgan (qurilgan) yili	Foydalanishga kiritilgan sana	Raqami	
							inventar	Tayyor-lovchi
1	2	3	4	5	6	7	8	9

20__ -y «____» _____ dagi - ____ sonli buyruq bilan tayinlangan komissiya

_____ ko‘rib chiqdi.
asosiy vositaning nomi

_____ni, uning agregatlari, qismlari va mexanizmlarining,
asosiy vositaning nomi

ko‘rib chiqish natijasida va hujjatlari (pasporti, formulyari) bilan tanishib chiqib komissiya aniqladi:

1. 20__-y. «___» _____ korxonaga kelib tushgan; 2. Pasport bo‘yicha asosiy vositalarning og‘irligi _____

3. Yaroqli qismlar, detallar, materiallar, rangli va qimmatbaho metallar va boshqalarning mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot.

Raqami			Nomi	O‘lchov birligi	Soni	Bahosi	Summasi
Tartib bo‘yicha	Katalog bo‘yicha	Nomenklatura					
1	2	3	4	5	6	7	8
						Jami	

4. Hisobdan chiqarish sababi _____

5. Texnik holati _____

Komissiya xulosasi:_____

Ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati _____

Komissiya raisi _____ _____ _____
lavozimi imzo imzolovchining F.I.SH.

Komissiya a’zolari _____ _____ _____
lavozimi imzo imzolovchining F.I.SH.

_____ _____ _____
lavozimi imzo imzolovchining F.I.SH.

M.O‘. _____ _____
lavozimi imzo imzolovchining F.I.SH.

17-ilova
AV-4a namunaviy shakl

«Tasdiqlayman»

_____ _____
rahbarning F.I.SH. imzo
20___-yil «_____» _____.

Transport vositalarni tugatish to‘g‘risidagi _____ -sonli dalolatnoma

Korxona _____

Tarkibiy bo‘linma	Tuzish sanasi	Operatsiya turining kodi	Transport vositasini saqlashga mas’ul shaxsning kodi

Transport vositasining nomi	Modeli, turi	kod	Boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati	Jamg‘arilgan eskirish summasi	Ishlab chiqilgan yili	Foydalanishga kiritilgan sana	Raqami		Bajarilgan ish hajmi yoki bosgan yo‘li
							Inventar	Tayyorlovchi	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

20__ -y «__» _____ dagi - _____ sonli buyruq bilan tayinlangan komissiya

_____ modeli _____ turi _____ dvigatel raqami _____
(markasi)

davlat belgisi raqami _____ transport vositasini ko‘rib chiqdi.

_____ni, uning agregatlari, qismlari va mexanizmlarini
(markali)

ko‘rib chiqish natijasida va hujjatlari (pasporti, formulyari) bilan tanishib chiqib komissiya aniqladi:

1. 20___-y. «___» _____ korxonaga kelib tushgan; 2. Pasport bo‘yicha asosiy vositalarning og‘irligi _____

3. Yaroqli qismlar, detallar, materiallar, rangli va qimmatbaho metallar va boshqalarning mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot.

Raqami			Nomi	O‘lchov birligi	Soni	Bahosi	Summasi
Tartib bo‘yicha	Katalog bo‘yicha	Nomenklatura					
						Jami	

4. Hisobdan chiqarish sababi _____
5. Texnik holati _____
6. _____dan hisobdan
(Davlat yo‘l harakati havfsizligi xizmati idorasi)
chiqarilganligi to‘g‘risidagi ma’lumot _____
Komissiya xulosasi:_____
Ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati _____

Komissiya raisi _____ _____ _____
lavozimi imzo imzolovchining F.I.SH.

Komissiya a’zolari _____ _____ _____
lavozimi imzo imzolovchining F.I.SH.

_____ _____ _____
lavozimi imzo imzolovchining F.I.SH.

M.O‘. _____ _____
lavozimi imzo imzolovchining F.I.SH.

18-ilova

Asosiy vositalarni tugatish bilan bog‘liq xarajatlar va ularni tugatishdan kelib tushgan material qiymatliklar to‘g‘risida
MA’LUMOTNOMA

Tugatish xarajatlari				Tugatishdan foydalanish mumkin bo‘lgan baho bo‘yicha kelib tushdi					
Ish turi	Hujjat raqami	Xarajat moddasi	Sum-masi	Hujjat raqami	Qiymatlik-lar nomi	kod (nomenklatura raqami)	Soni	Baho-si	Sum-masi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Jami				**Jami**					

Tugatish natijasi _____

Asosiy vositalarni hisobga olish kartochkasida (kitobida) chiqib ketish belgilab qo‘yildi.

Bosh buxgalter (buxgalter) _____ _____
imzo imzolovchining F.I.SH.

20___ -yil «_____» _____

19-ilova

QX-106-sonli namunaviy shakl

«Tasdiqlayman»

_____ _____
rahbar F.I.SH imzo

«_____» _____ 20____ -y

Hayvonlarni asosiy podadan
yaroqsizga chiqarishning _____ – sonli dalolatnomasi

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.

Korxona _____

Ferma (joy, sex) _____

20____ -yil «_____» _____ da ___ - sonli buyruq bilan tayinlangan komissiya

_____ ko‘rib chiqdi
hayvonlarning turi va guruhi

Hayvonlar biriktirilgan _____
familiyasi, ismi sharifi

Inventar raqami, laqabi, nasli	Yoshi	Jinsi	Semiz-ligi	Boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati	Jamg‘arilgan eskirish summasi	Tirik vazni, kg		CHiqarish sababi va keyingi ishlatilish maqsadi
						Hisob ma’lumotlari bo‘yicha	Haqi-qatda	
			jami					

Ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati _____

Komissiya raisi _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Komissiya a’zolari: _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

_____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

2-BOB. IJARA (LIZING) OPERATSIYALARI HISOBI

1-§. Ijara (lizing) operatsiyalari hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari

Ijara – ko‘pgina davlatlarning korxonalari (kompaniyalari) investitsion siyosatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ijara operatsiyalari bilan to‘yingalik va keng yoyilganligi mamlakatning iqtisodiyotini rivojlanganligi ko‘rsatuvchi o‘ziga xos ko‘rsatkich hisoblanadi.

Ijara faoliyati o‘zida ishlab chiqarishni kreditlash va investitsion faoliyat o‘rtasidagi o‘ziga xos bir shaklni namoyon etadi. Ijara to‘lovlari odatda ijaraga beruvchiga qo‘yilgan kapitalga belgilangan o‘rtacha me’yordan kam bo‘lmagan foyda olish imkoniyatini ta’minlaydi, ijarachi uchun esa bir vaqtning o‘zida yirik miqdorda pul mablag‘larini chiqib ketishini amalga oshirmagan holda qimmat bahoda turuvchi mulklardan foydalanish va ijaraga olingan mulkdan foydalanish natijasida foyda olingandan keyin ijara to‘lovlarini to‘lash imkoniyatlari yuzaga keladi.

Ijara asosan aylanma mablag‘lar yetishmasligi yuzaga kelgan korxonalar uchun foydali hisoblanadi. Bunda ular o‘zlarining asosiy vositalarini yangilay olmaydilar, fan-texnika taraqqiyoti natijalarini joriy qila olmaydilar va o‘z navbatida ularni kreditlovchi tashkilotlarga qaram qib qo‘yadigan kreditlar olishga majburlar. Ijara sharoitida asosiy vositalarni olish korxonalarga ularni qarz mablag‘lari hisobiga olganga qaraganda ko‘proq mablag‘larni iqtisod qilish imkoniyatlarini beradi.

Respublikamizda ijara munosabatlarini huquqiy tartibga solish uchta asosiy hujjat: O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining «Ijara to‘g‘risida» gi va «Lizing to‘g‘risida» gi Qonunlari bilan amalga oshiriladi. Ijara munosabatlari va ijara obyektlarini soliqqa tortishni tartibga solish O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida ijara operatsiyalarini buxgalteriya hisobiga tegishli masalalarni tartibga solish uchun ijara operatsiyalari va ijara bo‘yicha kelishuvlarni buxgalteriya hisobi va subyektlarning moliyaviy hisobotlarida aks ettirishni tartibga soluvchi me’yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilingan va hozirgi kunda ham ularni yaratish bo‘yicha ishlar davom etayapti.

Shunday qilib ijra operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishning boshlang‘ich bosqich bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 6-mayadagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Lizing operatsiyalarini buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirish Tartibi» ni qabul qilinishi hisoblanadi.

Ijra operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqishning asosiy bosqich bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998-yil 30-sentyabrda 45-son bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 16-oktryabrda 503-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (6-son BHMS) «Ijara hisobi» ni ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi hisoblanadi. Mazkur standart bilan ijara va lizing operatsiyalarini buxgalteriya hisobini yuritishning yagona uslubiy asoslari aniqlab berilgan edi.

2002-yil 13-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining «Lizing to‘g‘risida» gi Qonuniga o‘zgartirishlar kiritilishi va 2004- yil 1-yanvardan boshlab mulkchilik shaklidan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasidagi barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlari (sug‘urta tashkilotlari, banklar va kredit uyushmalari bundan mustasno) moliyaviy xo‘jalik faoliyatini buxgalteriya hisobining yangi schyotlar Rejasiga o‘tganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 26-apreldagi 199-sonli «Lizing xizmatlarini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi qarori qabul qilingan edi. Mazkur qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda buxgalteriya hisobida lizing operatsiyalarini aks ettirish tartibini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash to‘g‘risida topshiriq bo‘lgan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yuqorida aytib o‘tilgan qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2004- yil 12-maydagi 75-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 22-iyunda 1374-son bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (6-son BHMS) «Ijara hisobi» qabul qilindi. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2004 yil 12 maydagi 74-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 22-iyunda 1373-son bilan ro‘yxatga olingan «Buxgalteriya hisobida lizing operatsiyalarini aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ham ishlab chiqilgan va qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining yangi tahririda ijara moliyaviy ijara va operativ ijaraga bo‘lingan. SHu munosabat bilan ijara munosabatlarini buxgalteriya hisobi atamalarini ijara munosabatlarini soliqqa tortishda qo‘llaniladigan atamalar bilan muvofiqlashtirish maqsadida 6-son BHMS) «Ijara hisobi» va «Buxgalteriya hisobida ijara operatsiyalarini aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» qabul qilindi:

.6-son BHMS va «Buxgalteriya hisobida ijara operatsiyalarini aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» quyidagi obyektlar va operatsiyalarga qo‘llanilmaydi:

- tabiat resurslari, shu jumladan neft, tabiiy gaz va boshqa qayta tiklanmaydigan resurslarni qidiruv va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ijara kelishuvlari;
- intellektual mulk obyektlari bo‘yicha litsenziya kelishuvlari.

Tabiat resurslari, shu jumladan neft, tabiiy gaz va boshqa qayta tiklanmaydigan resurslarni qidiruv va foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ijara kelishuvlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tartibga solinadi.

Intellektual mulk obyektlari bo‘yicha litsenziya kelishuvlari. Intellektual mulk obyektlari bo‘yicha litsenziya kelishuvlari bo‘yicha operatsiyalarning buxgalteriya hisobi 7-son BHMS ga muvofiq amalga oshiriladi.

Ijara tushunchasiga ta’rif bersak. ***Ijara*** **–** kelishuvga binoan bir tomon (ijaraga beruvchi) boshqa tomonga (ijaraga oluvchiga) haq evaziga vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish yoki kelishilgan muddat davomida mulkdan foydalanish huquqini berishdir.

Ijara shartnoma (xo‘jalik shartnoma) larini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish, korxonalarning huquq va majburiyatlari, hamda mahalliy davlat hokimiyati va davlat boshqaruv idoralarining shartnoma munosabatlari sohasidagi vakolatlarining qonuniy asoslari O‘zbekiston Respublikasini «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida» gi Qonunida belgilab o‘tilgan.

Yerni va boshqa tabiiy resurslarni ijaraga olish shartnomasiga tabiiy obyektdan mo‘ljallangan maqsadga muvofiq holda oqilona foydalanish yuzasidan ijarachining majburiyatlari ko‘zda tutilgan qoidalar ham kiritiladi.

Ijara shartnomasida ijaraga beruvchining noishlab chiqarish sohasiga taalluqli mol-mulk obyektlari va ularning qiymati alohida ajratib ko‘rsatiladi, tomonlarning ushbu obyektlarga nisbatan majburiyatlari (ularni asrash va saqlab turish) ham aytib o‘tiladi.

Ijara shartnomasiga boshqa shartlar ham kiritilishi mumkin.

Ijara subyektlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- ***ijaraga beruvchi*** – mulkning egasi yoki qonunchilikka muvofiq yoki mulkdor tomonidan mulkni ijaraga berish uchun vakolatlangan shaxslar;

- ***ijaraga oluvchi (ijarachi)*** – ijara shartnomasi asosida mulkni ijaraga oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar.

Buxgalteriya hisobi maqsadida ijara quyidagi turlarga bo‘linadi:

- moliyaviy ijara (lizingni qamrab olgan holda);

- operativ ijara.

Moliyaviy ijara – mulkni (moliyaviy ijara obyektini) shartnomaga binoan o‘n ikki oydan ortiq muddatga egalik qilish va foydalanish huquqini berishda yuzaga keladigan ijaraviy munosabatlar. Bunda moliyaviy ijara shartnomasi quyidagi shartlardan biriga javob berishi kerak:

- moliyaviy ijara shartnomasining muddati tugagach, moliyaviy ijara obyekti ijaraga oluvchining mulki bo‘lib o‘tishi;

- moliyaviy ijara shartnomasining muddati moliyaviy ijara obyekti xizmat muddatining 80 foizidan ortiq bo‘lsa yoki moliyaviy ijara obyektining moliyaviy ijara shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang‘ich qiymatining 20 foizdan kamrog‘ini tashkil qilishi;

- moliyaviy ijara shartnomasining muddati tugagach, ijaraga oluvchi moliyaviy ijara obyektini ushbu huquq sotilish kunidagi bozor qiymatidan ancha past narxda sotib olish huquqiga ega bo‘lishi va bunda ijara muddatining boshida ushbu huquqning sotilishiga asoslangan ishonchning mavjud bo‘lishi;

- moliyaviy ijara shartnomasi amal qiladigan davr uchun ijara to‘lovlarining diskontlangan joriy qiymati, moliyaviy ijara obyektini ijaraga berish paytidagi joriy qiymatining 90 foizidan ortiq bo‘lishi.

Operativ ijara – moliyaviy ijara shartnomasi hisoblanmaydigan mulkiy ijarasi shartnomasiga binoan mulkni vaqtinchalik egalik qilishga va foydalanishga yoki foydalanishga berish.

«Lizing to‘g‘risidagi» O‘zbekiston Respublikasi Qonunida lizing tushunchasiga ta’rif berilgan. ***Lizing -*** moliyaviy ijaraning alohida turi bo‘lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig‘iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) lizing shartnomasida shartlashilgan mol-mulkni (lizing obyektini) mulk qilib oladi va uni lizing oluvchiga shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun o‘n ikki oydan ortiq muddatga beradi. Bunda lizing shartnomasi quyidagi talablardan biriga javob berishi kerak:

- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing obyekti lizing oluvchining mulki bo‘lib o‘tsa;

- lizing shartnomasining muddati lizing obyekti xizmat muddatining 80 foizidan ortiq bo‘lsa yoki lizing obyektining lizing shartnomasi tugaganidan keyingi qoldiq qiymati uning boshlang‘ich qiymatining 20 foizidan kam bo‘lsa;

- lizing shartnomasining muddati tugagach, lizing oluvchi lizing obyektini uning bozor qiymatidan past narxda evazini to‘lab sotib olish huquqiga ega bo‘lsa, bunda ana shu huquqni amalga oshirish kunidagi lizing obyekti qiymati asos bo‘ladi;

- lizing shartnomasi davri uchun lizing to‘lovlarining joriy diskontlangan (hisobga olingan) qiymati lizing obyektining lizingga topshirish paytidagi joriy qiymatining to‘qson foizidan ortiq bo‘lsa.

«Lizing to‘g‘risidagi» O‘zbekiston Respublikasi Qonuni lizing bo‘yicha tomonlarni uch taraflama munosabatlarini belgilab beradi va lizing subyektlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

Birinchi tomon - ***lizingga beruvchi*** - lizing shartnomasi bo‘yicha lizingga oluvchiga

kelgusida berish maqsadida lizing obyektini mulk qilib sotib oluvchi shaxs. Ular safiga lizing munosabatlarini amalga oshirish jarayonida mulkni o‘z mulkchiligiga jalb qilingan yoki o‘zining xususiy pul mablag‘lariga xarid qiladigan va ularni lizinga oluvchiga lizing obyekti sifatida aniq bir haq evaziga ma’lum bir muddatga va lizing obyektiga mulkchilik huquqini lizingga oluvchiga o‘tish yoki o‘tmaslik sharti bilan ma’lum shartlar asosida vaqtinchalik egalik qilish va foydalanishga taqdim etadigan yuridik va jismoniy shaxslar kirishi mumkin. Mulk egasi sifatida quyidagi shaxslar chiqishi mumkin:

- Ustav (Nizom) da mazkur xizmat turlari nazarda tutilgan bank muassasi yoki uning filiallari, shuningdek mulkni ishchi holatda saqlash, ta’mirlash va unga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha xizmatlar majmuasini o‘ziga oladigan bankning ixtisoslashtirilgan sho‘ba korxonalari;

- yuqorida aytib o‘tilgan Qonunga muvofiq tijorat tashkiloti sifatida ko‘rsatib o‘tilgan, o‘zining ta’sis hujjatlariga binoan lizinga beruvchi vazifasini bajaruvchi, lizing operatsiyalarini amalga oshirish uchun maxsus tashkil etilgan moliyaviy lizing kompaniyasi;

- mulkni lizinga berish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan, biroq ustavida mazkur faoliyat turi bilan shug‘ullanish taqiqlab qo‘yilmagan har qanday firma yoki korxona.

Ikkinchi tomon bo‘lib ***lizingga oluvchi*** - egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasi bo‘yicha lizing obyektini olayotgan shaxs hisoblanadi. Ular safiga lizing shartnomasiga muvofiq lizing obyektini aniq bir haq evaziga ma’lum bir muddatga va lizing shartnomasiga muvofiq ma’lum shartlar asosida vaqtinchalik egalik qilish va foydalanishga qabul qilishga majbur bo‘lgan har qanday tashkil-huquqiy shakldagi yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar kirishi mumkin.

Lizing munosabatlarining uchinchi ishtirokchisi bo‘lib sotuvchi hisoblanadi. ***Sotuvchi*** bu lizingga beruvchiga lizing obyektini sotayotgan shaxsdir. Ular safiga lizinga oluvchi bilan tuzilgan oldi-sotdi shartnomasiga muvoqif lizing obyekti bo‘lib hisoblanadigan u tomonidan ishlab chiqariladigan (sotib olinadigan) mulkni lizinga beruvchiga belgilangan muddatda sotadigan yuridik shaxs: mulkni ishlab chiqaruvchi, savdo-vositachi tashkilot, shuningdek jismoniy shaxslar kirishi mumkin.

Lizing obyekti lizingga oluvchining krediti (qarzi) hisobidan olinayotgan hollarda, aniq bir lizing obyektiga nisbatan lizingga beruvchining kreditori va lizingga oluvchi sifatida bir shaxs ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yuqorida sanab o‘tilgan lizing subyektlari o‘rtasida odatda lizing munosabatlarini o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan quyidagi shakldagi munosabatlar yuzaga keladi. Mulkning aniq bir turiga ehtiyoji bo‘lgan bo‘lg‘usi lizinga oluvchi qaysi turdagi asbob-uskunalar o‘ziga talab etilishini aniq biladi. Lizinga oluvchining manfaati bo‘yicha u lozim bo‘lgan texnik talablarga to‘liq mos kelishi, uni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar esa minimal darajada bo‘lishi kerak. SHuning uchun ham foydalanuvchi ishlab chiqaruvchi firmani o‘zi tanlashi va u bilan oldi-sotdi shartnomasining barcha shartlarini kelishib olishi katta ahamiyatga ega. Oluvchi mazkur shartnomaning predmeti, bahosi, yetkazib berish muddati va joyi to‘g‘risida kelishib oladi. Mazkur mulkni xarid qilish uchun o‘zining xususiy mablag‘lari va qarz mablag‘larini olish imkoniyati yo‘qligi natijasida, lozim bo‘lgan mablag‘lari mavjud bo‘lgan bo‘lg‘usi lizinga beruvchiga bitimda ishtirok etishini so‘rab murojaat qiladi. Lizinga beruvchi bo‘lg‘usi foydalanuvchidan tayyor oldi-sotdi shartnomasini loyihasini oladi va faqat agar u lizing shartnomasi bo‘lgan hollardagina imzolaydi. Lizinga beruvchi xarid qilinayotgan asbob-uskunani mulkdoriga aylanadi, tegishli huquq va majburiyatlarni xarid qiladi. Biroq ish mohiyatiga ko‘ra lizinga beruvchining roli kerakli bo‘lgan asbob-uskunalarni xarid qilishni moliyalashtirish

va ularni oldin kelishilgan shartlar asosida lizinga oluvchiga foydalanishga berish bilan chegaralanadi.

Ijara (lizing) obyektlari sifatida iste'mol qilinmaydigan har qanday buyumlar, shu jumladan korxonalar, mulkiy komplekslar, alohida binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko'char va ko'chmas mulklar (muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo'lishi cheklangan mol-mulklar bundan mustasno) bo'lishi mumkin.

Moliyaviy ijara (lizing) to'g'risidagi yuqorida sanab o'tilgan huquqiy me'yoriy hujjatlarni tahlil qiladigan bo'lsak moliyaviy ijarani buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan kelib chiqib berilgan ta'rifi, uning obyektlari va subyektlari bir biriga mos keladi.

Ikkilamchi ijara (ikkilamchi lizing) - ijarachi (lizingga oluvchi) ijaraga (lizingga) beruvchining roziligi bilan, ijaraga (lizingga) beruvchining oldida ijara (lizing) shartnomasi yuzasidan javobgarlikni saqlagan holda ijaraga olingan mulkni (lizing obyektini) boshqa shaxsga ikkilamchi ijara (ikkilamchi lizing)ga topshiradigan shartnoma munosabati. O'zbekiston Respublikasi qonunlarida va ijara shartnomasida o'zga shartlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, ijarachi ijaraga olingan mol-mulkni, yer va boshqa tabiiy resurslardan tashqari, ijaraga beruvchining ruxsati bilan ikkilamchi ijaraga topshirishga haqlidir. Bunda ijaraga oluvchi shartnomaga muvofiq ijaraga beruvchi oldida javobgar bo'lib qolaveradi.

Ijaraning (lizingning) boshlanish muddati bo'lib ijara shartnomasining shartlariga muvofiq ijarachi ijaraga olingan ijara obyektiga egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish huquqini amalga oshirishni boshlagan sana hisoblanadi. Bu ijarani (lizingni) dastlabki (boshlang'ich) tan olish sanasi (ya'ni ijarani (lizingni) amalga oshirish natijasida tegishli aktiv va majburiyatlarning tan olinishi). ***Ijara (lizing) muddati*** bo'lib bekor qilinmaydigan ijara (lizing) kelishuvi amal qiladigan davr, shuningdek har qanday keyingi davrlar hisoblanadi va bu davrlar mobaynida ijarachi (lizingga oluvchi) ijara (lizing) shartnomasi tuzilganda aytib o'tilgandek, mazkur kelishuvni uzaytirishi mumkin.

Moliyaviy ijara muddatining boshlanish paytida ijarachi (lizingga oluvchi) va ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) ijara (lizing) to'lovlarini to'lash jadvalini (tartibini) kelishib oladi va unda ijaraga (lizingga) beruvchining foizli daromadi, moliyaviy ijara obyektining qiymatini qoplash bo'yicha majburiyatlar va ularning moliyaviy ijara muddati davomida taqsimlanishi ko'rsatiladi.

Qonunchilikda ijaraning ayrim turlari uchun, shuningdek mol-mulkning ayrim turlarini ijaraga olish uchun eng ko'p (oxirgi) muddatlar belgilab qo'yilishi mumkin. Bunday hollarda, basharti ijara muddati shartnomada belgilangan bo'lmasa va qonunchilikda belgilangan oxirgi muddat tugagunicha taraflardan hech qaysisi shartnomadan voz kechmasa, oxirgi muddat o'tishi bilan shartnoma bekor bo'ladi. Qonunda belgilangan oxirgi muddatdan ortiq muddatga tuzilgan bunday mulk ijarasi shartnomasi oxirgi muddatga teng muddatga tuzilgan hisoblanadi.

Ijara (lizing) to'lovi - tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijarachi (lizingga oluvchi) tomonidan ijaraga (lizingga) beruvchiga to'lab beradigan summa. Moliyaviy ijarada, ijara (lizing) to'lovlari ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi)ga moliyaviy ijara obyekti qiymatining ijarachi (lizingga oluvchi) tomonidan qoplanishidan, hamda ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi)ning foizli daromadidan iborat bo'ladi.

Ijara haqi ijara shartnomasida ijaraga beruvchi va ijarachining o'zaro kelishuviga binoan belgilanadi. Yer va tabiiy resurslar uchun ijara haqi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan tartibda va doirada belgilanadi.

Ijara haqi ijaraga olingan barcha mol-mulk uchun yaxlit holda yoki uning har bir tarkibiy qismi uchun alohida-alohida holda quyidagi ko'rinishlarda belgilanadi:

- vaqti-vaqti bilan yoki bir yo‘la to‘lanadigan qat’iy summada belgilangan to‘lovlar tariqasida;

- ijaraga olingan mol-mulkdan foydalanish natijasida olingan mahsulot, mevalar yoki daromadlarning belgilangan ulushi tariqasida;

- ijaraga oluvchi tomonidan ko‘rsatiladigan ma’lum xizmatlar tariqasida;

- ijaraga oluvchi tomonidan ijaraga beruvchiga shartnomada kelishilgan ashyoni mulk qilib yoki ijaraga topshirish tariqasida;

- ijaraga olingan mol-mulkni yaxshilash bo‘yicha shartnomada kelishilgan xarajatlarni ijaraga oluvchi zimmasiga yuklash tariqasida.

Ijara haqi miqdori tomonlarning kelishuviga muvofiq shartnomada ko‘zda tutilgan muddatlarda o‘zgartirilishi mumkin. Ijara haqining miqdori tomonlardan birining talabiga va O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan hollarda muddatidan oldin qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

Ijara (lizing) obyektlarining joriy qiymati - ijara (lizing) obyektining muayyan bir sanadagi bozor baholari bo‘yicha qiymati yoki mazkur ijara (lizing) obyektini sotib olish uchun yoki ushbu bitimni amalga oshirishni xohlovchi bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan xabardor tomonlar o‘rtasidagi majburiyatni bajarish uchun yetarli bo‘lgan summa.

Ijaraga (lizingga) beruvchining foizli daromadi - ijara (lizing) to‘lovlari bilan qoplanadigan lizing obyekti qiymati o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan, ijara (lizing) to‘lovlarining qismidir.

Ijaraga (lizingga) beruvchining foizli daromadi moliyaviy ijara shartnomasi muddati davomida davrlar bo‘yicha taqsimlangan bo‘lishi va moliyaviy ijara shartnomasining har bir davrda qoplanmagan majburiyatlar qoldig‘iga doimiy daromadlarni o‘rnatish maqsadida ijara (lizing) to‘lovlarini to‘lash jadvali (tartibi)da aks ettirilishi kerak.

Ijara (lizing) to‘lovlarini to‘lash jadvali (tartibi) ni tuzishni quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Moliyaviy ijara obyekti ijara muddati tugagandan keyin ijarachining mulkchiligiga o‘tadigan moliyaviy ijara. 2021-yilning 15-fevralida ijaraga beruvchi va ijarachi o‘rtasida quyidagi shartlar bo‘yicha moliyaviy ijara shartnomasi tuzilgan:

1. Moliyaviy ijara obyekti bo‘lib dastgoh hisoblanadi.

2. Ijaraga beruvchi moliyaviy ijara obyektini 30 000 000 so‘mga teng bozor qiymati bo‘yicha 2021-yilning 25-fevralida oldindan 100 foizlik avans to‘lovini amalga oshirish bilan sotib olgan.

3. Ijara muddati ijarachi tomonidan moliyaviy ijara obyektini qabul qilib olgan sanadan boshlab 3 yil (2021-yil 5-mart).

4. Ijara (lizing) to‘lovlari har kvartalda (jami o‘n ikki to‘lov) amalga oshiriladi. Bunda ular teng ulushlarda amalga oshiriladi, foizlar esa tegishli o‘tgan davrda asosiy qarzning ijara (lizing) to‘lovlari o‘rtasida qolgan qismidan kelib chiqib hisoblanadi.

5. Har bir davrda asosiy qarz summasi bo‘yicha majburiyatning qoldiqqa hisoblanadigan moliyaviy ijara shartnomasida nazarda tutilgan foiz stavkasi (ijaraga (lizingga) beruvchining daromadi stavkasi) yillik 28% ga teng.

6. 2021-yilning 18-fevralida ijarachi qarzining asosiy summasini bir qismini qoplash hisobiga moliyaviy ijara obyektining 15 % qiymatiga teng bo‘lgan avans to‘lovini amalga oshiradi.

7. Moliyaviy ijara muddati tugagandan keyin va barcha ijara (lizing) to‘lovlari to‘langandan keyin moliyaviy ijara obyekti ijarachining mulkchiligiga o‘tadi.

8. Moliyaviy ijara obyektining nazarda tutilgan foydali ishlatilish muddati – 5 yil.

SHartnoma shartlariga muvofiq ijara (lizing) to‘lovlari jadvali quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Ijara (lizing) to‘lovlari jadvali

Ijaraga beruvchi _____ Manzil: Toshkent shahri, Furqat ko‘chasi		Ijarachi _____ Manzil: Toshkent shahri, T. To‘la ko‘chasi	
Obyektning qiymati	30 000 000	Davr uchun foiz stavkasi	7,5 %
Oldindan to‘lov (avans)	15 %	Davrni davomiyligi (oy)	3
Hisob birligi	so‘m	Jami to‘lovlar	12
Protsentlar stavkasi	30	Ijara to‘lovlari summasi (so‘m)	30 541 920
Moliyaviy ijara muddati (oylar)	36	Moliyaviy ijara bo‘yicha jami foizlar (so‘m)	14 041 920
Obyektning qoplanmagan qiymati, so‘m.	25 500 000	Diskont stavkasi	0,12928
To‘lovlar soni (bir yilda)	4	Ijara to‘lovi	3 295 160

To‘lovlar (davr)	Moliyaviy ijara obyektini olish	Foizlarni qoplash	Asosiy qarzni qoplash	Ijara to‘lovlari	Moliyaviy ijara bo‘yicha asosiy qarz
18.02.2014 – avans to‘lovi			4 500 000	- 4 500 000	
05.03.2014	30 000 000				25 500 000,0
0					25 500 000,0
1		1 912 500,0	1 382 660,0	3 295 160	24 117 340,0
2		1 808 800,5	1 486 359,5	3 295 160	22 630 980,5
3		1 697 323,5	1 597 836,5	3 295 160	21 033 144,0
4		1 577 485,8	1 717 674,2	3 295 160	19 315 469,8
5		1 448 660,2	1 846 499,8	3 295 160	17 468 970,0
6		1 310 172,3	1 984 987,7	3 295 160	15 483 982,3
7		1 161 298,7	2 133 861,3	3 295 160	13 350 121,0
8		1 001 259,1	2 293 900,9	3 295 160	11 056 220,1
9		829 216,5	2 465 943,5	3 295 160	8 590 276,6
10		644 270,7	2 650 889,3	3 295 160	5 939 387,3
11		445 454,0	2 849 706,0	3 295 160	3 089 681,3
12		205 478,7	3 089 681,3	3 295 160	0,0
Jami		**14 041 920,0**	**25 500 000,0**	**30 541 920**	

Kafolatlangan qoldiq qiymat - ijara (lizing) shartnomasining boshlanishida aniqlangan ijara (lizing) obyekti qiymatining bir qismi bo‘lib, ijarachi (lizingga oluvchi) tomonidan yoki unga bog‘liq uchinchi taraf tomonidan kafolatlanadi (majburiyat sifatida berkitiladi).

Kafolatlanmagan qoldiq qiymat - ijara (lizing) obyekti qiymatining bir qismi bo‘lib, (ijara (lizing) shartnomasining boshlanishida aniqlangan), uning sotilishini ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) kafolatlamaydi yoki u ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) bilan bog‘liq taraf tomonidangina kafolatlanadi.

Minimal ijara (lizing) to‘lovlari – ijarachi (lizingga oluvchi) tomonidan ijara muddati davomida to‘lanadigan ijara (lizing) to‘lovlari va ijara (lizing) obyektining kafolatlangan qoldiq qiymati summasi.

Agar ijarachi (lizingga oluvchi) ijara (lizing) obyektini uni sotib olish sanasidagi joriy qiymatidan past narxda sotib olmoqchi bo‘lgan hollarda, minimal ijara (lizing) to‘lovlari barcha ijara (lizing) muddati davomidagi ijara (lizing) to‘lovlari va ijara (lizing) shartnomasida ko‘zda tutilgan ijara (lizing) obyektini sotib olish summasidan tashkil topadi.

Diskontlash - bu kelajakda aniq bir vaqtda olinishi kutilayotgan pul mablag‘larining joriy ekvivalentini aniqlashdir. ***Diskont stavkasi*** bo‘lib turli xil davrlarga tegishli bo‘lgan pul mablag‘lari summasini bir paytga keltirish uchun foydalanadigan stavka hisoblanadi.

Minimal ijara (lizing) to‘lovlarining diskontlangan qiymati - ijara (lizing) shartnomasida ko‘zda tutilgan foiz stavkasi yoki qarz kapitalining o‘sib boruvchi foiz stavkasiga teng diskont stavkasi bo‘yicha tuzatilgan ijara (lizing) muddatining boshlanishidagi minimal ijara (lizing) to‘lovlarining joriy qiymati.

Minimal ijara (lizing) to‘lovlarining diskontlangan qiymatini hisoblashda diskontlaydigan omil bo‘lib moliyaviy ijara shartnomasida ko‘zda tutilgan foiz stavkasi hisoblanadi, agarda uni aniqlash imkoniyati bo‘lsa, aks holda ijarachining (lizingga oluvchining) qarz kapitali bo‘yicha o‘sib boruvchi foiz stavkasidan foydalaniladi.

Ijara (lizing) shartnomasida ko‘zda tutilgan foiz stavkasi - ijara (lizing) muddatining boshlanishida ijara (lizing) obyektining joriy qiymati bilan minimal ijara (lizing) to‘lovlari va kafolatlanmagan qoldiq qiymati summasi yig‘indisining diskontlangan qiymatining teng bo‘lishini ta’minlaydigan diskont stavkasidir.

Qarz kapitalining o‘sib boruvchi foiz stavkasi - bu xuddi shunday ijara (lizing) shartnomasi uchun ijarachi (lizingga oluvchi) to‘lashi lozim bo‘lgan foiz stavkasi yoki (agar ushbu ko‘rsatkichni aniqlash imkoni bo‘lmasa) ijarachi (lizingga oluvchi) ijara (lizing) muddati boshlanishida mol-mulkni (xuddi shunday muddatga va shunga o‘xshash ta’minot bilan) sotib olish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni qarzga olishda qabul qiladigan stavka yoki agarda ularni aniqlash imkoniyati bo‘lmasa, ijara (lizing) muddatining boshlanishidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy qayta moliyalashtirish stavkasi.

Diskontlash va diskontlangan qiymatning mohiyatini ochib berish maqsadida birinchi navbatda pulning vaqt bo‘yicha qiymatini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Pulning vaqt bo‘yicha qiymatini mazmuni pul ma’lum bir vaqtlar oraliqlarida har xil qiymatga ega ekanligida, ya’ni pulning vaqt bo‘yicha qiymatini ma’nosini quyidagi ibora orqali ifodalash mumkin: «bugungi bir so‘m ertangi bir so‘mdan qimmatroq turadi». Agar bugun bir so‘mni investitsiya qilib kiratidagan bo‘lsak, u holda biz ertaga bir so‘mdan ko‘proq olishmiz mumkinligi fakti buning sababi bo‘lib hisoblanadi. Ya’ni bugun mavjud bo‘lgan pul summasining bir kundan (odatda yil yoki oy) keyingi kelgusidagi qiymati uning bugungi kundagi nominal qiymati va odatda foizlarda ifodalangan undan keladigan daromad summasiga teng bo‘ladi.

Masalan, qo‘limizda mavjud bo‘lgan 100 so‘mlik banknota o‘zining qiymati bo‘yicha bir yildan keyin 100 so‘m va unga qo‘shilgan yana bir nechta so‘m daromadga teng bo‘ladi. Mazkur bir nechta so‘mning miqdori foiz stavkasi bilan aniqlanadi.

Pulning qiymatini aniqlashda amaliyotda mutaxassislar ikki xil: oddiy va murakab foizlardan foydalanadilar.

Oddiy foiz – bu doimiy asosiy summaga ko‘paytiriladigan foiz stavkasidir.

Murakkab foiz – bu o‘zgarib turadigan asosiy summaga ko‘paytiriladigan foiz stavkasidir.

Murakkab foizlarni hisoblash bir davr tugagandan keyin foiz to‘lovlari va asosiy summa qo‘shiladigan hamda olingan natijalar keyingi davrda foizni hisoblash uchun baza sifatida foydalaniladigan hollarda yuzaga keladi. Bunday jarayonlardan bir davrdan ikkinchisiga o‘tishlar mavjud bo‘lgan barcha davrlarda davomida foydalaniladi.

Masalan, agar Siz yilda bir marta to‘lash sharti bilan yillik 10 % asosida bankga 1 000 so‘m investitsiya qiladigan bo‘lsangiz, u holda birinchi yilning oxirida Siz 1 100 so‘mga ega bo‘lasiz va bu quyidagi shaklda hisoblanadi:

1 000 +10%(1 000)=1 000 3. 1 000 +10%(1 000)=1 000 x (1,10)=1 100.

Birinchi yil uchun olingan foiz 100, (1100-1000=100) so‘mga teng bo‘ladi.

Ikkinchi yilning oxirida Siz 1210 so‘mga ega bo‘lasiz va bu quyidagi shaklda hisoblanadi:

1100+10 % (1100) = 1100 x (1+10 %) = 1100 x (1,10) = 1210 so‘m.

Ikkinchi yil uchun mazkur ifodani ikki yil uchun boshlang‘ich investitsiya summasidan foizlarni hisoblashni ko‘rsatadigan boshqacha usulda ham tuzish mumkin:

1000 x (1,10) x (1,10) = 1000 x (1,10)2 = 1210 so‘m.

Agar Siz pulingizni bankda saqlashni davom ettiradigan bo‘lsangiz, u holda keyingi yilda jamharilgan summa quyidagi shaklda ko‘payadi:

1000 x (1,10) x (1,10) x (1,10) x= 1000 x (1.10)3 = 1331 so‘m.

Uchinchi yil uchun olingan foiz 121 (1331 – 1210 = 121) so‘mga teng bo‘ladi.

Yoki, kelgusi qiymatni aniqlashning umumiy ko‘rishi quyidagi formula bilan aniqlanadi.

S = P (1 + i)n (1),

bu yerda S – kelgusi qiymat; R – joriy qiymat; i – foiz stavkasi; n – vaqtning davrlari soni.

Pulning bugungi qiymati kelgusildagi pudagi qiymati sifatida ifodalanishi mumkinligiga o‘xshash tarzda pulning kelgusidagi qiymatining bugungi kundaga joriy (hozirgi kundagi, diskontlangan, haqiqiy yoki o‘tkazilgan) qiymatida ham ifodalanishi mumkin.

Masalan, agar Siz uch yildan keyin 1 000 so‘mga ega bo‘lishni xohlasangiz, u holda 10 foizlik yillik murakkab foizlar hisoblanadigan bankning jamg‘arma schyotiga bugungi kunda qancha pul qo‘yish kerakligini hisoblab chiqish mumkin bo‘ladi. Buning uchun formula (1) dan foydalanamiz va R – joriy qiymatni chiqaramiz:

$R = S / (1 + i)^n = S x (1/ (1 + i)^n)$ (2).

Formula (2) dan kelib chiqib quyidagiga ega bo‘lamiz:

R = 1000 x (1/ (1+0,1)3) = 1000 x (1/ 1,331) = 751,3 so‘m.

SHunday qilib, uch yildan keyin 1 000 so‘mga ega bo‘lish uchun 10 foizlik yillik murakkab foizlar hisoblanganda biz bugungi kunda 751,3 so‘m qo‘yishimiz kerak bo‘ladi. Tegishli ravishda 751,3 so‘m biz uch yildan keyin olishni kutayotgan 1 000 so‘mning diskontlangan (bugungi) qiymati bo‘lib hisoblanadi. Diskontlangan qiymatni aniqlash jarayonini diskontlash deb nomlash mumkin.

Yuqorida aytib o‘tilganiday moliyaviy ijara (lizing) da ijarachi (lizingga oluvchi) ijara (lizing)

to‘lovlari to‘lashning jadvali (tartibi) ga muvofiq ijara (lizing) to‘lovlarini moliyaviy ijara (lizing) muddati davomida bir maromda to‘lab borishi kerak. Odatda moliyaviy ijara (lizing) ning muddati bir yildan ko‘p bo‘lganligi sababli tegishli ravishda ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) moliyaviy ijara (lizing) muddati boshlanishida ijara (lizing) to‘lovlarining diskontlangan qiymatini formula (2) dan foydalanib aniqlab oladi.

Korxonalarda tuziladigan boshlang‘ich hujjatlarning majburiy rekvizitlari, ularni tuzish, qabul qilish, saqlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi, shuningdek hujjatlar aylanmasini amalga oshirish tartibi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga va «Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq tartibga solinadi.

Boshlang‘ich hujjatlar qonunchilikda belgilangan namunaviy shakllarda yoki qonunchilikda nazarda tutilgan talablarga rioya qilgan holda korxonalar tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan blankalarda tuziladi.

Moliyaviy ijara obyektlarini kelib tushishi va ichki harakatini boshlang‘ich hisobini amalga oshirishda asosiy vositalarni boshlang‘ich hisobga olishda jarayonida qo‘llaniladigan boshlang‘ich hujjatlardan va korxona tomonidan mustaqil ravishda qo‘shimcha ravishda ishlab chiqilgan hujjatlardan foydalanish mumkin. Moliyaviy ijara obyektlarini kelib tushishi va ichki harakatini boshlang‘ich hisobini amalga oshirishda «1-bob. Asosiy vositalar hisobi» da nazada tutilgan asosiy vositalarni hisobga olishning boshlang‘ich hujjatlarining shakllari va ularni to‘ldirish tartibidan foydalanish tavsiya etiladi.

Mazkur bobda ijara obyektlarini ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) va ijarachi (lizinga oluvchi) ning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi moliyaviy ijara va operativ ijara kesimida ko‘rib chiqilgan. Moliyaviy ijarani buxgalteriya hisobida aks ettirishni ko‘rilganda **«moliyaviy ijara»** tushunchasi o‘z ichiga **«lizing»** tushunchasini ham qamrab oladi.

2-§. Ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) da moliyaviy ijara bo‘yicha operatsiyalar hisobi

Ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) tomonidan amalga oshirilgan va moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq ijarachi (lizingga oluvchi) tomonidan qoplanadigan moliyaviy ijara obyektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar moliyaviy ijara obyektining qiymatiga qo‘shiladi. Bunda, agar moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq yuqoridagi xarajatlar ijarachi (lizingga oluvchi) tomonidan qoplanmaydigan bo‘lsa, ular yuzaga kelgan paytdagi tegishli hisobot davri xarajatlari sifatida tan olinadi.

Yangi xarid qilinayotgan moliyaviy ijara obyektlarini boshlang‘ich qiymatini shakllanishi va ularni xarid qilish hamda u bilan bog‘liq xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Ijaraga beruvchi yangi dastgohni moliyaviy ijara obyekti sifatida berish bo‘yicha moliyaviy ijara shartnomasini tuzdi. U dastgohni 15 000 000 so‘mga xarid qildi. Dastgohni ijarachiga yetkazib berish va uni belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat: transport tashkiloti tomonidan ko‘rsatilagan transport xizmati 100 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash 30 000 so‘m va ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasi 3 600 so‘m.

Moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq dastgohni yetkazib berish va uni belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar ijarachi tomonidan qoplanganda dastgohni keyinchalik uni moliyaviy ijaraga berish maqsadida xarid qilish ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohni sotib olish summasiga:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 15 000 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 15 000 000 so‘m;

- dastgohni xarid qilish bilan bevosita bog‘liq ya’ni shartnomaga muvofiq ijarachi tomonidan qoplanadigan dastgohni yetkazib berish xarajatlar:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 100 000 so‘m;
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 100 000 so‘m;

- shartnoma bo‘yicha ijarachi tomonidan qoplanadigan dastgohni belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 30 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 30 000 so‘m;
kredit 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti 3 600 so‘m;

- dastgohni yetkazib beruvchi va transport tashkiloti oldidagi qarzlar to‘langanda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 15 000 000 so‘m;
debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 100 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti 15 100 000 so‘m.

Bunda dastgohning moliyaviy ijara obyekti sifatida qiymati **15 133 600** so‘mni (15 000 000 + 100 000 + 30 000 + 3 600) tashkil etadi.

Moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq dastgohni yetkazib berish va uni belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar ijarachi tomonidan qoplanmaganda dastgohni keyinchalik uni moliyaviy ijaraga berish maqsadida xarid qilish ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohni sotib olish summasiga:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 15 000 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 15 000 000 so‘m;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha ijarachi tomonidan qoplanmaydigan dastgohni ijarachiga yetkazib berish va uni belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar summasiga:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 133 600 sum;
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 100 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 30 000 so‘m;
kredit 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti 3 600 so‘m;

- dastgohni yetkazib beruvchi transport tashkiloti oldidagi qarzlar to‘langanda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 15 000 000 so‘m;
debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 100 000 so‘m;

kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti *15 100 000 so‘m.*

Bunda dastgohning moliyaviy ijara obyekti sifatida qiymati **15 000 000** so‘mni tashkil etadi.

Moliyaviy ijara shartnomasining sharti bo‘yicha moliyaviy ijara obyekti sotuvchi tomonidan ijaraga beruvchini (lizingga beruvchini) chetlab bevosita ijaraga oluvchiga (lizingga oluvchiga) yetkazib berilgan hollarda, ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) buxgalteriya hisobida moliyaviy ijara obyektining kirimi va chiqimi to‘g‘risidagi yozuvlar moliyaviy ijara obyektining harakatini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Agar moliyaviy ijara shartnomasining sharti bo‘yicha ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) tomonidan moliyaviy ijara obyekti sotib olingan bo‘lsa, lekin ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) ma’lum sabablarga ko‘ra uni qabul qilishdan bosh tortsa, mazkur moliyaviy ijara obyekti undan foydalangunga yoki chiqib ketgunga qadar kapital qo‘yilmalarni hisobga oluvchi schyotlarda (0800) hisobga olinadi.

Ijaraga (lizingga) beruvchining buxgalteriya hisobida moliyaviy ijara aktiv (debitorlik qarzi) sifatida moliyaviy ijara muddati boshlanishidagi moliyaviy ijara obyektining joriy qiymati yoki minimal ijara (lizing) to‘lovlarining diskontlangan qiymati bo‘yicha, agar u past bo‘lsa, tan olinishi lozim.

Agar minimal ijara (lizing) to‘lovlarining diskontlangan qiymati moliyaviy ijara obyektining joriy qiymatidan past bo‘lsa, unda moliyaviy ijara ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) buxgalteriya hisobida aktiv (debitorlik qarzi) sifatida minimal ijara (lizing) to‘lovlarining diskontlangan qiymati bo‘yicha tan olinishi lozim.

Agar minimal ijara (lizing) to‘lovlarining diskontlangan qiymati moliyaviy ijara obyektining joriy qiymatidan yuqori bo‘lsa, unda moliyaviy ijara ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) buxgalteriya hisobida aktiv (debitorlik qarzi) sifatida moliyaviy ijara obyektining joriy qiymati bo‘yicha tan olinishi lozim.

21-son BHMS ga muvofiq moliyaviy ijara operatsiyalari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- ***0920 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar»*** schyotida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar bo‘yicha ijarachidan olinadigan uzoq muddatli debitorlik qarzlar hisobga olinadi. Mazkur schyot bo‘yicha analitik hisob har bir ijara shartnomasi bo‘yicha yuritiladi;

- 4820 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar - joriy qismi» schyotida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar bo‘yicha ijarachidan olinadigan uzoq muddatli debitorlik qarzlarning mazkur hisobot davrida kelib tushishi lozim bo‘lgan joriy qismi hisobga olinadi. Mazkur schyot bo‘yicha analitik hisob har bir ijara shartnomasi bo‘yicha yuritiladi;

- 9550 «Moliyaviy ijaradan daromadlar» schyotida asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish bo‘lib hisoblanmagan korxonalarda moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar bo‘yicha hisoblangan daromadlar hisobga olinadi;

- 010 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar» schyotida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha ijaraga berilgan asosiy vositalarning mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlar hisobga olinadi.

010 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar» schyotidan moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar ijara muddatining tugashida egasiga qaytarilganda yoki boshqa sabablarga ko‘ra qaytarib olingan yoki shartnoma muddati tugagandan keyin ijarachi sotib olgan vaqtdan boshlab hisobdan chiqariladi.

010 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar» schyoti bo‘yicha analitik

hisob har bir moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar bo‘yicha alohida asosiy vositalarning hisob inventar kartochkalari bo‘yicha yuritiladi.

Moliyaviy ijara obyektlari berilayotganda, ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) buxgalteriya hisobida aktiv (debitorlik qarzi) sifatida tan olinadigan qiymat bilan moliyaviy ijara obyektining boshlang‘ich (agar berilayotgan obyekt oldin foydalanilmagan bo‘lsa) yoki qoldiq (agar obyekt berilgunga qadar foydalishda bo‘lgan bo‘lsa) qiymati o‘rtasidagi farq 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyotida hisobga olinadigan moliyaviy ijara obyektlarining qayta baholash natijalarini, ya’ni ushbu moliyaviy ijara obyekti bahosining oldingi o‘sishi summasining, ijara obyekti bahosining oldingi pasayishi summasidan ortgan summasini hisobga olgan holda tuzatishlar qilingandan so‘ng, kechiktirilgan daromad (xarajat) sifatida aks ettiriladi va ijara (lizing) to‘lovining hisoblanishiga qarab bir maromda (oyma-oy) asosiy faoliyatning boshqa daromadlariga (boshqa operatsion xarajatlariga) kiritiladi.

Quyida moliyaviy ijara obyektlarini berishning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini obyektlarni yangiligi yoki foydalanishdaligidan kelib chiqib ko‘rib chiqamiz.

Yangi xarid qilingan moliyaviy ijara obyektlarini ijarachiga (lizingga oluvchiga) berishni buxgalteriya hisobida aks ettrish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Oldingi misolni davom ettiramiz. Korxonada dastgohning balans qiymati 15 133 600 so‘m. Ijara muddati 4 yil.

Moliyaviy ijara obyekti sifatida berilayotgan dastgohning qiymatidan kelib chiqib ikkita holatni ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Dastgohni 15 200 000 so‘m qiymatda bergan.

Ijarachiga dastgohni berish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohni buxgalteriya hisobida debitorlik qarzi sifatida tan olingan qiymat bo‘yicha berilganda:

debet 0920 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan
to‘lovlar» schyoti 15 200 000 so‘m;
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 15 200 000 so‘m;

- dastgohning balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 15 133 600 so‘m;
kredit 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 15 133 600 so‘m;

- dastgohni moliyaviy ijaraga berish natijasida paydo bo‘lgan kechiktirilgan daromad summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 66 400 so‘m;
kredit 7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan
daromadlar» schyoti 66 400 so‘m;

(66 400 so‘m = 15 200 000 so‘m – 15 133 600 so‘m);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq, dastgohning berilishi natijasida paydo bo‘lgan uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlarning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan
daromadlar» schyoti 16 600 so‘m;
kredit 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti 16 600 so‘m;

(15 000 so‘m = 66 400 so‘m / 4);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq, dastgohning berilishi natijasida paydo bo‘lgan kechiktirilgan daromadlarning joriy qismi summasini boshqa operatsion daromadlarga bir maromda (har oyda) olib borilganda:

debet 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti 1 383,3 so‘m;

kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 1 383,3 so‘m;

(1 383,3 so‘m = 16 600 so‘m / 12);

- moliyaviy ijara obyekti sifatida berilayotgan dastgohning balansdan tashqari schyotda hisobga olish:

debet balansdan tashqari 010 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar» schyoti 15 200 000 so‘m.

2-holat:

Dastgohni 15 100 000 so‘m qiymatda bergan.

Ijarachiga dastgohni berish ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohni buxgalteriya hisobida debitorlik qarzi sifatida tan olingan qiymat bo‘yicha berilganda:

debet 0920 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar» schyoti 15 100 000 so‘m;

kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 15 100 000 so‘m;

- dastgohning balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 15 133 600 so‘m;

kredit 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 15 133 600 so‘m;

- dastgohni moliyaviy ijaraga berish natijasida paydo bo‘lgan kechiktirilgan xarajat summasiga:

debet 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 33 600 so‘m;

kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 33 600 so‘m;

(-33 600 so‘m = 15 100 000 so‘m -15 133 600 so‘m);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq, dastgohning berilishi natijasida paydo bo‘lgan uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 8 400 so‘m;

kredit 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 8 400 so‘m;

(8 400 so‘m = 33 600 so‘m / 4);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq, dastgohning berilishi natijasida paydo bo‘lgan kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi summasini boshqa operatsion xarajatlarga bir maromda (har oyda) olib borilganda:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 700 so‘m;

kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 700 so‘m;

(700 so‘m = 8 400 so‘m / 12 oy);

- moliyaviy ijara obyekti sifatida berilayotgan dastgohning balansdan tashqari schyotda hisobga olish:

debet balansdan tashqari 010 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar» schyoti 15 100 000 so‘m.

Foydalanishda bo‘lgan moliyaviy ijara obyektlarini (berilayotgan obyektdan oldin foydalanilgan) ijarachiga (lizingga oluvchiga) berishni buxgalteriya hisobida aks ettrish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Oldingi misolni davom ettiramiz. Ijaraga beruvchi moliyaviy ijara obyektini berish bo‘yicha moliyaviy ijara shartnomasini tuzdi. Moliyaviy ijara obyekti bo‘lib asosiy vositalar tarkibida bo‘lgan dastgoh hisoblanadi. Dastgohning boshlang‘ich qiymati 25 000 000 so‘m, jamg‘arilgan eskirish summasi 2 500 000 so‘m, qayta baholash qoldig‘i 250 000 so‘m. Dastgohni yetkazib berish va uni belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalanish uchun

yaroqli holatga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar ijarachi tomonidan amalga oshirilgan. Ijara muddati 5 yilni tashkil etadi.

Moliyaviy ijara obyekti sifatida berilayotgan dastgohning qiymatidan kelib chiqib ikkita holatni ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Dastgohning diskontlab aniqlangan qiymatiga asosan moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq ijarachiga dastgohni 24 000 000 so‘m qiymatda bergan.

Ijarachiga dastgohni berish ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohni buxgalteriya hisobida debitorlik qarzi sifatida tan olingan qiymat bo‘yicha berilganda:

debet 0920 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan
to‘lovlar» schyoti 24 000 000 so‘m
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti 24 000 000 so‘m;

- dastgohning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti 25 000 000 so‘m;
kredit 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti 25 000 000 so‘m;

- dastgohning jamlangan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning
eskirishi» schyoti 2 500 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti 2 500 000 so‘m;

- dastgohni qayta baholash natijalari (qoldig‘i) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash
bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 250 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti 250 000 so‘m;

- dastgohni moliyaviy ijaraga berish natijasida paydo bo‘lgan kechiktirilgan daromad summasiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib
ketishi» schyoti 1 750 000 so‘m;
kredit 7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan
daromadlar» schyoti 1 750 000 so‘m;

(22 250 000 so‘m = 25 000 000 – 2 500 000 - 250 000);

(1 750 000 so‘m = 24 000 000 – 22 250 000);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq, dastgohning berilishi natijasida paydo bo‘lgan uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlarning joriy qismi o‘tkazilganda:

kredit 7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan
daromadlar» schyoti 350 000 so‘m;
kredit 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti 350 000 so‘m;

(350 000 so‘m = 1 750 000 so‘m / 5 yil);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq, dastgohning berilishi natijasida paydo bo‘lgan kechiktirilgan daromadlarning joriy qismi summasini boshqa operatsion daromadlarga bir maromda (har oyda) olib borilganda:

debet 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti 24 167 so‘m;
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 24 167 so‘m;

(29 167 so‘m = 350 000 so‘m / 12 oylar).

- moliyaviy ijara obyekti sifatida berilayotgan dastgohining balansdan tashqari schyotda hisobga olish:

debet balansdan tashqari 010 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar» schyoti 24 000 000 so‘m.

2-holat:

Dastgohning diskontlab aniqlangan qiymatiga asosan ijaraga beruvchi moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq ijarachiga dastgohni 22 100 000 so‘m qiymatda bergan.

Ijarachiga dastgohni berish ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohni buxgalteriya hisobida debitorlik qarzi sifatida tan olingan qiymat bo‘yicha berilganda:

debet 0920 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar» schyoti 22 100 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 22 100 000 so‘m;

- dastgohning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 25 000 000 so‘m;
kredit 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti 25 000 000 so‘m;

- moliyaviy ijaraga berilgan dastgohning jamg‘arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi» schyoti 2 500 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 2 500 000 so‘m;

- dastgohni qayta baholash natijalari (qoldig‘i) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 250 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 250 000 so‘m;

- dastgohni moliyaviy ijaraga berish natijasida paydo bo‘lgan kechiktirilgan xarajat summasiga:

debet 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 150 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 150 000 so‘m;

(22 250 000 so‘m = 25 000 000 so‘m – 2 500 000 so‘m - 250 000 so‘m);

(-150 000 so‘m = 22 100 000 so‘m - 22 250 000 so‘m);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq, dastgohning berilishi natijasida paydo bo‘lgan uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 30 000 so‘m;
kredit 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 30 000 so‘m;

(30 000 so‘m = 150 000 so‘m / 5 let);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq, dastgohning berilishi natijasida paydo bo‘lgan kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi summasini boshqa operatsion xarajatlarga bir maromda (har oyda) olib borilganda:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 2 500 so‘m;
kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 2 500 so‘m;
(2 500 so‘m = 30 000 so‘m / 12 oylar);

- moliyaviy ijara obyekti sifatida berilayotgan dastgohning balansdan tashqari schyotda hisobga olish:

debet balansdan tashqari 010 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar» schyoti 22 100 000 so‘m.

Moliyaviy ijara obyektini berish paytida ijaraga (lizingga) beruvchining foizli daromadi buxgalteriya hisobida aks ettirilmaydi. Bunda ijaraga (lizingga) beruvchining foizli daromadi va ijarachining (lizingga oluvchining) moliyaviy ijara foizi bo‘yicha xarajatlari, pulni to‘lash vaqti va kelib tushishidan qat’iy nazar, tegishli hisobot davrlarida ijara (lizing) to‘lovlarini to‘lash jadvali (tartibi)ga muvofiq hisoblanadi.

Ijaraga (lizingga) beruvchining foizli daromadi moliyaviy ijara shartnomasi muddati davomida davrlar bo‘yicha taqsimlangan bo‘lishi va moliyaviy ijara shartnomasining har bir davrida qoplanmagan majburiyatlar qoldig‘iga doimiy foiz stavkasini o‘rnatish maqsadida ijara (lizing) to‘lovlarini to‘lash jadvali (tartibi)da aks ettirilishi kerak.

Ijara (lizing) to‘lovlarini to‘lash jadvali (tartibi) ga muvofiq joriy hisobot davriga tegishli bo‘lgan ijaraga (lizingga) beruvchining foizli daromadining buxgalteriya hisobida aks ettrish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Oldingi misolni davom ettiramiz. Ijaraga beruvchi o‘zining dastgohni 24 000 000 so‘m qiymatda moliyaviy ijaraga berdi va ijraga beruvchining foizli daromadi summasi 2 400 000 so‘mni tashkil etadi. Ijara muddati 5 yilga teng. Ijarachidan avans sifatida ijara to‘lovini 250 000 so‘mi, shu jumladan 30 000 so‘mi foizli daromad summasi kelib tushdi.

Faoliyat turidan kelib chiqib ikkita holatni ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Asosiy faoliyat bo‘lib mulkni moliyaviy ijaraga berish hisoblanadi.

Ijara (lizing) to‘lovlarini kelib tushishi bilan bog‘liq operatsiyalar ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- joriy hisobot oyiga tegishli bo‘lgan ijaraga beruvchining hisoblangan foizli daromadi summasi:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 40 000 so‘m;
kredit 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar» schyoti 40 000 so‘m;
(40 000 so‘m = 2 400 000 / (5 x 12));

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq to‘lov muddati yetib kelmagan ijara (lizing) to‘lovlari bo‘yicha ijarachidan bo‘nak kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 250 000 so‘m;
kredit 6390 «Boshqa olingan bo‘naklar» schyoti 250 000 so‘m;

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan uzoq muddatli to‘lovlarning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 4810 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar – joriy qismi» schyoti 4 800 000 so‘m;
kredit 0920 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar» schyoti 4 800 000 so‘m;

(4 800 000 so‘m = 24 000 000 so‘m / 5 yil);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq to‘lov muddati yetib kelganda ijarachidan oldin olingan bo‘naklar qoplashga (hisoblashishga) olib borilganda:

debet 6390 «Boshqa olingan bo‘naklar» 250 000 sum;
kredit 4810 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar – joriy qismi» schyoti 220 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 30 000 so‘m;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha ijarachidan hisobot oyi uchun pul mablag‘larini qolgan qismi kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 190 000 so‘m;
kredit 4810 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar – joriy qismi» schyoti 180 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 10 000 so‘m.

2-holat:

Asosiy faoliyat bo‘lib mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hisoblanib, mulkni moliyaviy ijaraga berish qo‘shimcha faoliyati hisoblanadi.

Ijara (lizing) to‘lovlarini kelib tushishi bilan bog‘liq operatsiyalar ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- joriy hisobot oyiga tegishli bo‘lgan ijaraga beruvchining hisoblangan foizli daromadi summasi:

debet 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 40 000 so‘m;
kredit 9550 «Moliyaviy ijaradan daromadlar» schyoti 40 000 so‘m;

(40 000 so‘m = 2 400 000 / (5 x 12);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq to‘lov muddati yetib kelmagan ijara (lizing) to‘lovlari bo‘yicha ijarachidan bo‘nak kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 250 000 so‘m;
kredit 6390 «Boshqa olingan bo‘naklar» 250 000 sum;

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan uzoq muddatli to‘lovlarning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 4810 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar – joriy qismi» schyoti 4 800 000 so‘m;
kredit 0920 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar» schyoti 4 800 000 so‘m;

(4 800 000 so‘m = 24 000 000 so‘m / 5 yil);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq to‘lov muddati yetib kelganda ijarachidan oldin olingan bo‘naklar qoplashga (hisoblashishga) olib borilganda:

debet 6390 «Boshqa olingan bo‘naklar» 250 000 sum;
kredit 4810 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar – joriy qismi» schyoti 220 000 so‘m;
kredit 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 30 000 so‘m;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha ijarachidan hisobot oyi uchun pul mablag‘larini qolgan qismi kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 190 000 so‘m;

kredit 4810 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar – joriy qismi» schyoti 180 000 so‘m;

kredit 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 10 000 so‘m.

Ijaraga beruvchi (lizinga beruvchi) tomonidan moliyaviy ijara shartnomasi tugatilganda moliyaviy ijara obyektini kirim qilish moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijarani tugatish kunidagi qarzdorlik (debitor qarzdorlik) summasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Moliyaviy ijara shartnomasi muddati tugashi munosabati bilan ijarachi tomonidan moliyaviy ijara obyektini qaytarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirilish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Ijaraga beruvchi bir necha yil oldin dastgohni 24 000 000 so‘m qiymatda moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha bergan edi va joriy hisobot davrida ijara muddati tugadi. Dastgoh qaytarilganda qoplanmagan qiymati 10 000 000 so‘mni, ijarachi tomonidan amalga oshirilgan dastgohni modernizatsiya qilish bo‘yicha xarajatlarni qoplash uchun tan olingan summasi 5 000 000 so‘mni tashkil etadi. Dastgohni qaytarish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat: inventar va xo‘jalik jihozlari tarkibida hisobga olinadigan buyumlar 200 000 so‘m, tashkilotning transport bo‘linmasi tomonidan ko‘rsatilgan transport xizmatlari 250 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash 80 000 so‘m va ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasi 9 600 so‘m.

Moliyaviy ijara shartnomasi muddati tugagandan keyin ijarchi tomonidan dastgohning qaytarilishi ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq dastgohning qoplanmagan qiymati summasiga:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 10 000 000 so‘m;

kredit 4810 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar – joriy qismi» schyoti 10 000 000 so‘m;

- ijarachi tomonidan amalga oshirilgan dastgohni modernizatsiya qilish bo‘yicha xarajatlarni qoplash uchun tan olingan summasi:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 5 000 000 so‘m;

kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 5 000 000 so‘m;

- dastgohni qaytarish bilan bog‘liq xarajatlar:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 539 600 so‘m;

kredit 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti 200 000 sum;

kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 250 000 sum;

kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 80 000 so‘m;

kredit 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti 9 600 so‘m;

- ijarachi tomonidan amalga oshirilgan dastgohni yaxshilash bo‘yicha xarajatlarini qoplash uchun pul mablag‘lari o‘tkazilganda:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 5 000 000 so‘m;

kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti 5 000 000 so‘m;

- moliyaviy ijara obyekti sifatida berilgan dastgohning qiymati balansdan tashqari schyotdan hisobdan chiqarilishi:

kredit balansdan tashqari 010 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar» schyoti 24 000 000 so‘m.

Moliyaviy ijara shartnomasi muddati tugashidan oldin ijarachi tomonidan moliyaviy

ijara obyektini qaytarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirilish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonv bir necha yil oldin dastgohni 40 000 000 so‘m qiymatda moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha bergan edi va bir qator sabablarga ko‘ra joriy hisobot davrida ijara muddati tugashidan oldin ijarachi dastgohni qaytardi. Dastgoh qaytarilganda qoplanmagan qiymati 20 000 000 so‘mga, undan joriy qismi 8 000 000 so‘mga, ijarachi tomonidan amalga oshirilgan dastgohni yaxshilash bo‘yicha xarajatlarni qoplash uchun tan olingan summasi 4 000 000 so‘mga teng.

Moliyaviy ijara obyektini moliyaviy ijaraga berish natijasida paydo bo‘lgan kechiktirilgan daromad yoki kechiktirilgan xarajat summasini qolgan qismidan kelib chiqib ikkita holatni ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Dastgohni moliyaviy ijaraga berish natijasida paydo bo‘lgan kechiktirilgan daromad summasi 1 000 000 so‘mni, undan joriy qismi 200 000 so‘mni tashkil etadi.

Dastgohni ijarachi tomonidan muddatidan oldin qaytarishi ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq dastgohning qoplanmagan qiymati summasiga:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 20 000 000 so‘m;
kredit 4810 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan
– joriy qismi» schyoti 8 000 000 so‘m;
kredit 0920 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan
to‘lovlar» schyoti 12 000 000 so‘m;

- ijarachi tomonidan amalga oshirilgan dastgohni modernizatsiya qilish bo‘yicha xarajatlarni qoplash uchun tan olingan summasi:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 4 000 000 so‘m;
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 4 000 000 so‘m;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha dastgohning berilishi natijasida vujudga kelgan kechiktirilgan daromadlarning qolgan summalarini moliyaviy natijalarga o‘tkazish:

debet 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti 200 000 so‘m;
debet 7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan
daromadlar» schyoti 800 000 so‘m;
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 1 000 000 so‘m;

- ijarachi tomonidan amalga oshirilgan dastgohni modernizatsiya qilish bo‘yicha xarajatlarini qoplash uchun pul mablag‘lari o‘tkazilganda:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 4 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti 4 000 000 so‘m;

- moliyaviy ijara obyekti sifatida berilgan dastgohning qiymati balansdan tashqari schyotdan hisobdan chiqarilishi:

kredit balansdan tashqari 010 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha
berilgan asosiy vositalar» schyoti 40 000 000 so‘m.

2-holat:

Dastgohni moliyaviy ijaraga berish natijasida paydo bo‘lgan kechiktirilgan xarajat summasi 900 000 so‘mni, undan joriy qismi 300 000 so‘mni tashkil etadi.

Dastgohni ijarachi tomonidan muddatidan oldin qaytarishi ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq dastgohning qoplanmagan qiymati summasiga:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 20 000 000 so‘m;
kredit 4810 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan
– joriy qismi» schyoti 8 000 000 so‘m;
kredit 0920 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan
to‘lovlar» schyoti 12 000 000 so‘m;

- ijarachi tomonidan amalga oshirilgan dastgohni modernizatsiya qilish bo‘yicha xarajatlarni qoplash uchun tan olingan summasi:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 4 000 000 so‘m;
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 4 000 000 so‘m;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha dastgohning berilishi natijasida vujudga kelgan kechiktirilgan xarajatlarning qolgan summalarini moliyaviy natijalarga o‘tkazish:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 900 000 so‘m;
kredjit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 300 000 so‘m;
kredit 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan
xarajatlar» schyoti 600 000 so‘m;

- ijarachi tomonidan amalga oshirilgan dastgohni modernizatsiya qilish bo‘yicha xarajatlarini qoplash uchun pul mablag‘lari o‘tkazilganda:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 4 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti 4 000 000 so‘m;

- moliyaviy ijara obyekti sifatida berilgan dastgohning qiymati balansdan tashqari schyotdan hisobdan chiqarilishi:

kredit balansdan tashqari 010 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha
berilgan asosiy vositalar» schyoti 40 000 000 so‘m.

3-§. Ijarachi (lizingga oluvchi) da moliyaviy ijara bo‘yicha operatsiyalar hisobi

Moliyaviy ijarada moliyaviy ijara obyektiga egalik qilish va foydalanish huquqi bilan bog‘liq barcha risklar ijarachiga (lizingga oluvchiga) o‘tkaziladi. Bunda, lizing bo‘yicha ijaraga olingan mol-mulkning tasodifan nobud bo‘lishi yoki tasodifan buzilishi xavfi, agar lizing shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, lizing oluvchiga bu mol-mulkni topshirish paytida o‘tadi. Ijarachining (lizingga oluvchining) buxgalteriya hisobida moliyaviy ijara aktiv va majburiyat sifatida moliyaviy ijara muddati boshlanishidagi moliyaviy ijara obyektining joriy qiymati yoki minimal ijara (lizing) to‘lovlarining diskontlangan qiymati bo‘yicha, agar u past bo‘lsa, tan olinishi lozim.

Agar minimal ijara (lizing) to‘lovlarining diskontlangan qiymati moliyaviy ijara obyektining joriy qiymatidan past bo‘lsa, unda moliyaviy ijara ijaraga oluvchining (lizingga oluvchining) buxgalteriya hisobida aktiv va majburiyat sifatida minimal ijara (lizing) to‘lovlarining diskontlangan qiymati bo‘yicha tan olinishi lozim.

Agar minimal ijara (lizing) to‘lovlarining diskontlangan qiymati moliyaviy ijara obyektining joriy qiymatidan yuqori bo‘lsa, unda moliyaviy ijara ijaraga oluvchining (lizingga oluvchining) buxgalteriya hisobida aktiv va majburiyat sifatida moliyaviy ijara obyektining joriy qiymati bo‘yicha tan olinishi lozim.

Ijarachi (lizingga oluvchi) tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy ijara obyektini sotib olish,

yetkazib berish yoki belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog‘liq xarajatlar moliyaviy ijara obyektining qiymatiga qo‘shiladi.

21-son BHMS ga muvofiq moliyaviy ijara operatsiyalari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish ijarachining buxgalteriya hisobida quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 0112 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish» schyotida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha ijaraga olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish, qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan ta’minlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik qayta qurollantirish va shunga o‘xshash boshqalar bilan bog‘liq kapital xarajatlar hisobga olinadi;

- 0212 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi» schyotida asosiy vositalar tarkibiga olingan moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha ijaraga olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish, qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan ta’minlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik qayta qurollantirish va shunga o‘xshash boshqalar bilan bog‘liq kapital xarajatlar bo‘yicha hisoblangan eskirish summasini jamg‘arilishi hisobga olinadi;

- 0299 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi» schyotida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar bo‘yicha hisoblangan eskirishi summasini jamg‘arilishi hisobga olinadi;

- 0310 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni hisobga oluvchi» schyotida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar hisobga olinadi;

- 0860 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo‘yilmalar» schyotida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha ijaraga olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish, qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan ta’minlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik qayta qurollantirish va shunga o‘xshash boshqalar bilan bog‘liq kapital qo‘yilmalar hisobga olinadi;

- 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi» schyotida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar bo‘yicha ijaraga beruvchi oldidagi uzoq muddatli majburiyatlarning mazkur hisobot davrida to‘lanishi lozim bo‘lgan joriy qismi hisobga olinadi***;***

- 7910 «To‘lanadigan moliyaviy ijara» schyotida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar bo‘yicha ijaraga beruvchi oldidagi uzoq muddatli majburiyatlar hisobga olinadi.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha moliyaviy ijara obyektlarini olish bilan bog‘liq operatsiyalarni ijarachining buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Ijarachi moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha ijaraga beruvchidan dastgohni oldi. Dastgohning qiymati 14 000 000 so‘m. Moliyaviy ijara shartnomasi shartiga muvofiq ijarachi tomonidan amalga oshirilgan dastgohni olib kelish, o‘rnatish va ishga tushirish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat: yordamchi materiallar (sement, qum) 25 000 so‘m, tashkilotning transport bo‘linmasi tomonidan ko‘rsatilgan transport xizmatlari 75 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash 50 000 so‘m va ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasi 6 000 so‘m.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha dastgohni olib kelish bilan bog‘liq operatsiyalar ijarachining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohni buxgalteriya hisobida aktiv va majburiyat sifatida tan olinadigan qiymati bo‘yicha kirim qilish:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 14 000 000 so‘m;

kredit 7910 «To‘lanadigan moliyaviy ijara» schyoti 14 000 000 so‘m;

- dastgohni belgilangan maqsadi bo‘yicha foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 156 000 so‘m;
kredit 1050 «Qurilish materiallari» schyoti 25 000 so‘m;
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 75 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 50 000 so‘m;
kredit 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti 6 000 so‘m;

- dastgohni boshlang‘ich qiymat bo‘yicha foydalanishga topshirish (ularning asosiy vositalar tarkibiga o‘tkazilishi):

debet 0310 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar» schyoti 14 156 000 so‘m;
debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 14 156 000 so‘m.

Moliyaviy ijarada har bir hisobot davri uchun moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalardan foydalanish bilan bog‘liq molyaviy ijara obyekti bo‘yicha amortizatsiya ajratmasi va ularni ishlashga yaroqli holatda saqlab turish (joriy, o‘rta va kapital ta’mirlash) xarajatlari kabi xarajatlar yuzaga keladi.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar bo‘yicha amortizatsiyani hisoblash 5-son BHMS da nazarda tutilgan usullar va tartiblarga muvofiq amalga oshiriladi. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usullari, tartibi va buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettrish jarayonlari «1-bob. Asosiy vositalar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Ijarachi (lizingga oluvchi) moliyaviy ijara shartnomasi muddati tugagandan keyin moliyaviy ijara obyektiga mulkiy egalik qilish huquqini olishiga ishonchi bo‘lmasa, u holda u quyidagilardan qaysi biri qisqaligidan kelib chiqib: moliyaviy ijara shartnomasi muddati davomida yoki moliyaviy ijara obyektining xizmat qilish muddati davomida to‘liq amortizatsiya qilishi mumkin.

Ijarachining (lizingga oluvchining) aniq bir davrdagi moliyaviy ijara obyekti bo‘yicha amortizatsiya ajratmasi va moliyaviy xarajatlari (moliyaviy ijara bo‘yicha foizlari) summasi mazkur davrda to‘lanishi lozim bo‘lgan ijara (lizing) to‘lovlari summasiga teng bo‘lmasligi mumkin.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalardan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Ijarachi tomonidan olingan dastgoh bo‘yicha oldingi misolni davom ettiramiz. Dastgohning boshlang‘ich qiymati 14 156 000 so‘m, moliyaviy ijaraning muddati 5 yil, foydali xizmat muddati 6 yil va eskirish to‘g‘ri chiziqli usulida hisoblanadi. Dastgohni joriy ta’mirlash amalga oshiriladi va u bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat: yoqilg‘i moylash materiallari 10 000 so‘m, ehtiyot qismlar 15 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash 20 000 so‘m va ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasi 2 400 so‘m.

Mazkur misolda dastgoh bo‘yicha eskirish to‘g‘ri chiziqli usulida, moliyaviy ijara muddatidan kelib chiqib ya’ni 5 yildan kelib chiqib hisoblanadi. CHunki moliyaviy ijaraning muddati dastgohning foydali xizmat muddatiga nisbantan qisqaroq.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohdan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlar ijarachining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohiga har oyda eskirish hisoblanganda:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 235 933 so‘m;

kredit 0299 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi» 235 933 so‘m;

(2 831 200 so‘m = 14 156 000 so‘m / 5 yil);

(235 933 so‘m = 2 831 200 so‘m / 12 oy);

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni joriy ta’mirlash bo‘yicha xarajatlar:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 45 000 sum;
kredit 1030 «Yoqilg‘i» schyoti 10 000 sum;
kredit 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti 15 000 sum;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 20 000 so‘m;

- dastgohni joriy ta’mirlash amalga oshirish bilan band ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasi :

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 2 400 sum;
kredit 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti 2 400 so‘m.

Moliyaviy ijara bo‘yicha foizlar moliyaviy ijara shartnomasi muddati davomida davrlar bo‘yicha taqsimlangan bo‘lishi va har bir davrda qoplanmagan majburiyatlar qoldig‘iga doimiy foiz stavkasini o‘rnatish maqsadida ijara (lizing) to‘lovlarini to‘lash jadvali (tartibi)da aks ettirilishi kerak.

Moliyaviy ijara obyektini olish paytida moliyaviy ijara foizi bo‘yicha xarajatlar buxgalteriya hisobida aks ettirilmaydi. Bunda moliyaviy ijara foizi bo‘yicha xarajatlar, pulni to‘lash vaqti va kelib tushishidan qat’iy nazar, tegishli hisobot davrlarida ijara (lizing) to‘lovlarini to‘lash jadvali (tartibi)ga muvofiq hisoblanadi.

Moliyaviy ijara bo‘yicha foizlarni hisoblash va ijara (lizing) to‘lovlarini ijaraga (liizngga) beruvchiga to‘lash bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Ijarachi tomonidan olingan dastgoh bo‘yicha oldingi misolni davom ettiramiz. Ijara (lizing) to‘lovlari har oyda teng ulushlarda amalga oshiriladi. Moliyaviy ijara shartnomasida ko‘zda tutilgan foiz stavkasi yillik 15 foizga teng. Moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq to‘lov muddati yetib kelmagan ijara (lizing) to‘lovlari bo‘yicha ijaraga beruvchiga bo‘nak to‘lash ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq har oylik ijara (lizing) to‘lovlarining 40 foizi miqdorida amalga oshiriladi va oxirgi hisob-kitob joriy oyning 30 sanasida qilinadi.

Moliyaviy ijara bo‘yicha foizlarni hisoblash va ijaraga beruvchiga ijara (lizing) to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha operatsiyalar ijarachining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq to‘lov muddati yetib kelmagan ijara (lizing) to‘lovlari bo‘yicha ijaraga beruvchiga bo‘nak to‘langanda:

debet 4330 «Boshqa berilgan bo‘naklar» schyoti 163 333 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 163 333 so‘m;

(408 333 so‘m = 233 333 so‘m + 175 000 so‘m);

(163 333 so‘m = 408 333 so‘m x 40 / 100);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq moliyaviy ijara bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 7910 «To‘lanadigan moliyaviy ijara» schyoti 2 800 000 so‘m;
kredit 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi» 2 800 000 so‘m;

(2 800 000 so‘m = 14 000 000 so‘m / 5 yil);

- moliyaviy ijara bo‘yicha hisoblangan foizlar:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti 175 000 so‘m;

kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 175 000 so‘m;

(2 100 000 so‘m = 14 000 000 so‘m x 15 / 100);

(175 000 so‘m = 2 100 000 so‘m / 12 oy);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq to‘lov muddati yetib kelganda, ijaraga beruvchiga oldin to‘langan bo‘naklar qoplashga (hisoblashga) olib borilganda:

debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 70 000 so‘m;

debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar

- joriy qismi» 93 333 so‘m;

kredit 4330 «Boshqa berilgan bo‘naklar» schyoti 163 333 so‘m.

(70 000 so‘m = 175 000 so‘m x 40 / 100);

(93 333 so‘m = 233 333 so‘m x 40 / 100);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga (tartibiga) muvofiq to‘lov muddati yetib kelganda, ijaraga beruvchiga ijara (lizing) to‘lovlarining joriy qismini to‘lash bo‘yicha oxirgi hisob-kitob qilinganda:

debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 105 000 so‘m;

debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar

- joriy qismi» 140 000 so‘m;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 245 000 so‘m;

(105 000 so‘m = 175 000 so‘m – 70 000 so‘m);

(140 000 so‘m = 233 333 so‘m – 93 333 so‘m);

(245 000 so‘m = 105 000 so‘m + 140 000 so‘m).

«Ijara to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ijarachi mustaqil ravishda ijaraga olingan mol - mulkni tarkibiga ularni qiymatini oshiradigan o‘zgartirishlar kiritish, rekonstruksiya qilishni, kengaytirishni, texnik jihatdan qayta qurollantirishni amalga oshirish huquqiga ega.

Ijarachining (lizingga oluvchining) moliyaviy ijara obyektini yaxshilash (obodonlashtirish, qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan ta’minlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik qayta qurollantirish va shunga o‘xshash boshqa) xarajatlari moliyaviy ijara obyekti qiymatini ko‘paytiruvchi kapital quyilmalar sifatida aks ettiriladi.

21-son BHMS ga muvofiq moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga doir kapital tusdagi tugallangan ishlar bo‘yicha xarajatlar 0860 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga kapital quyilmalar» schyotining kreditidan 0112 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish» schyotining debetiga hisobdan chiqariladi. Amalga oshirilgan xarajatlar summasiga ijarachi tomonidan alohida inventar obyektiga alohida inventar kartochkasi ochiladi.

Moliyaviy ijara shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ijarachi korxona ijaraga beruvchining ruxsatidan qat’i nazar, ijaraga olingan mol-mulkni ajratib bo‘lmaydigan tarzda yaxshilash qiymatini olishga haqli.

Agar moliyaviy ijara obyekti, ijaraga (lizingga) beruvchining ruxsati bilan yaxshilangan bo‘lsa, shartnomaning amal qilish muddati tugagandan so‘ng yoki shartnoma bekor qilingach, ijarachi (lizingga oluvchi) ana shu maqsad yo‘lida sarflagan barcha xarajatlarining qoplanishini talab qilish huquqiga ega, agarda moliyaviy ijara shartnomasida o‘zgacha shartlar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa.

Ijaraga (lizingga) beruvchining ruxsatisiz amalga oshirilgan moliyaviy ijara obyektini yaxshilashga sarflangan mablag‘lar (qo‘yilmalar) va ularni moliyaviy ijara obyektiga zarar

yetkazmagan holda ajratib olish imkoniyati bo‘lmasa, moliyaviy ijara shartnomasining amal qilish muddati tugagach yoki shartnoma bekor qilingach, ular ijaraga (lizingga) beruvchiga tekinga o‘tadi, agarda moliyaviy ijara shartnomasida o‘zgacha shartlar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa. Biroq, agarda ularni moliyaviy ijara obyektiga zarar yetkazmagan holda ajratib olish mumkin bo‘lsa va agar ijaraga (lizingga) beruvchi ularning qiymatini to‘lashga rozi bo‘lmasa, bunday hollarda ijarachi (lizingga oluvchi) ularni ajratib olishi mumkin.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni yaxshilash (obodonlashtirish, qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta qurollantirish va boshqalar) xarajatlari summasi moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni qiymatini ko‘paytiruvchi kapital qo‘yilmalar sifatida buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Ijarachi tomonidan olingan dastgoh bo‘yicha oldingi misolni davom ettiramiz. Dastgohni 2 000 000 so‘mlik modernizatsiya qilish amalga oshirilgan. Dastgohni modernizatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat: ehtiyot qismlar 1 950 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash 20 000 so‘m va ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasi 2 400 so‘m, va boshqa xarajatlar 30 000 so‘m. Moliyaviy ijaraning muddatidan 4 yil qolgan va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga eskirish to‘g‘ri chiziqli usulida hisoblanadi.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni modernizatsiya qilish bilan bog‘liq operatsiyalar ijarachining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohni modernizatsiya qilish amalga oshirilganda:

debet 0860 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo‘yilmalar» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti 1 950 000 so‘m;
kredit 1090 «Boshqa materiallar» schyoti 30 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 20 000 so‘m;

- dastgohni modernizatsiya qilish jarayonida band ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasi :

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 2 400 sum;
kredit 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti 2 400 so‘m;

- dastgohni modernizatsiya qilish bo‘yicha kapital qo‘yilmalar asosiy vositalar tarkibiga o‘tkazilganda:

debet 0112 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 0860 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga kapital qo‘yilmalar» schyoti 2 000 000 so‘m;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni modernizatsiya qilish bo‘yicha eskirish hisoblanganda:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 41 667 so‘m;
kredit 0212 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi» schyoti 41 667 so‘m;

(500 000 so‘m = 2 000 000 so‘m / 4 yil);
(41 667 so‘m = 500 000 so‘m / 12 oy).

Moliyaviy ijara obyektini qayta baholash ijarachi (lizingga oluvchi) ga tegishli boshqa xususiy

asosiy vositalari kabi amalga oshiriladi. Asosiy vositalarni qayta baholash o‘tkazish va uning natijalarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibiga «1-bob. Asosiy vositalar hisobi» da batafsil to‘xtalib o‘tilgan.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning obodonlashtirilishini qayta baholash buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning baholari o‘sishi summasiga:

debet 0310 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar» schyoti – moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar obyektlari boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatining o‘sishi summasiga;

debet 0112 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish» schyoti – moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatining o‘sishi summasiga;

kredit 0299 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi» schyoti – moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning jamlangan eskirishi bahosining o‘sishi summasiga;

kredit 0212 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi» schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning jamlangan eskirishi bahosining o‘sishi summasiga;

kredit 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti – moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bahosining o‘sishi va jamlangan eskirishlar bahosining o‘sishi summalari o‘rtasidagi farq summasiga;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning baholari pasayishi summasiga:

debet 0299 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi» schyoti – moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning jamlangan eskirishi bahosining pasayishi summasiga;

debet 0212 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi» schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning jamlangan eskirishi bahosining pasayishi summasiga;

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti – ilgari qayta baholash natijasida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar obyektlarining va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning baholari o‘sishi summasiga yoki ushbu obyektlarning ilgarigi baholari o‘sishi summasining ilgarigi baholari pasayishi summasidan oshgan qismi doirasidagi summaga;

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti - moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar obyektlarining va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning baholari pasayishi summasining ushbu obyektlarni ilgari qayta baholash natijasida baholari o‘sishi summasidan oshgan qismiga yoki ushbu obyektlarning ilgarigi baholari o‘sishi summasining ilgarigi baholari pasayishi summasidan oshgan summasiga (ya’ni ushbu obyektlar bo‘yicha bahosining pasayishi summasining 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyotida hisobga olingan qoldiq summasidan ortgan qismiga);

kredit 0310 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar» schyoti – moliyaviy

ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar obyektlari boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatining pasayishi summasiga;

kredit 0112 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish» schyoti – moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatining pasayishi summasiga.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirilishni qayta baholashni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Oldingi misolni davom ettiramiz va ijarachi tomonidan moliyaviy ijaraning uchinchi yilini boshida amalga oshirilgan dastgohni qayta baholashni ko‘rib chiqamiz. Oldingi qayta baholash moliyaviy ijara obyektini qiymatini 5 foizga oshirish bilan amalga oshirilgan. 1 yanvar holatiga buxgalteriya hisobida quyidagi ma’lumotlar mavjud:

1. Dastgohning boshlang‘ich qiymati **14 857 500 so‘m;**

(14 857 500 so‘m = 14 150 000 so‘m x 1,05).

2. Dastgoh bo‘yicha jamlangan eskirish summasi uchinchi yilning 1 yanvar holatiga **5 943 000 so‘m**;

(5 943 000 so‘m = 2 971 500 so‘m + 2 971 500 so‘m);

bu yerda:

- birinchi yil uchun jamlangan eskirish 2 830 000 so‘m;

(2 830 000 so‘m = 14 150 000 so‘m / 5 yil);

- qayta baholashni hisobga olgan holda birinchi yil uchun jamlangan eskirish 2 971 500 so‘m;

(2 971 500 so‘m = 2 830 000 so‘m x 1,05);

- ikkinchi yil uchun jamlangan eskirish 2 974 125 so‘m;

(2 971 500 so‘m = 14 857 500 so‘m / 5 yil).

3. Dastgohning qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi **566 000 so‘m**;

(566 000 so‘m = 707 500 so‘m - 141 500 so‘m);

(707 500 so‘m = 14 857 500 so‘m - 14 150 000 so‘m);

(141 500 so‘m = 2 971 500 so‘m - 2 830 000 so‘m).

4. Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni modernizatsiya qilishning boshlang‘ich qiymati 2 000 000 so‘mga teng.

Qayta baholash natijalari (bahoni o‘sishi yoki pasayishi) dan kelib chiqib uchta holatni ko‘rib chiqamiz.

1- holat:

Moliyaviy ijaraning uchinchi yilini boshida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirilishini (modernizatsiya qilish) 1.10 koeffitsient bilan qayta baholash amalga oshirildi.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohini va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohini obodonlashtirilishini (modernizatsiya qilish) qayta baholash (bahoni o‘sishi) ijarachining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 0310 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha
olingan asosiy vositalar» schyoti 1 485 750 so‘m;
debet 0112 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy
vositalarni obodonlashtirish» schyoti 200 000 so‘m;
kredit 0299 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan
asosiy vositalarning eskirishi» 594 300 so‘m;

kredit 0212 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi» schyoti 50 000 so‘m;
kredit 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 1 091 400 so‘m;
(1 485 750 so‘m = 14 857 500 x 10 / 100);
(200 000 so‘m = 2 000 000 x 10 / 100);
(594 300 so‘m = 5 943 000 x 10 / 100);
(50 000 so‘m = 500 000 x 10 / 100);
(1 091 400 so‘m = 1 485 750 so‘m + 200 000 so‘m - 594 300 so‘m - 50 000 so‘m).

Mazkur holatda qayta baholash amalga oshirilgandan keyin dastgohning va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirilishini (modernizatsiya qilish) qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi **1 657 400 so‘m** (566 000 so‘m + 1 091 400 so‘m) ni tashkil etadi.

2-holat:

Moliyaviy ijaraning uchinchi yilini boshida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirilishini (modernizatsiya qilish) 0,97 koeffitsient bilan qayta baholash amalga oshirildi.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirilishini (modernizatsiya qilish) qayta baholash (bahoni pasayishi) ijarachining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 0299 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi» 178 290 so‘m;
debet 0212 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi» schyoti 15 000 so‘m;
debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 312 435 so‘m;
kredit 0310 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar» schyoti 445 725 so‘m;
kredit 0112 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish» schyoti 60 000 so‘m;
(178 290 so‘m = 5 943 000 x 3 / 100);
(15 000 so‘m = 500 000 x 3 / 100);
(- 312 435 so‘m = 178 290 so‘m + 15 000 so‘m - 445 725 so‘m - 60 000 so‘m);
(445 725 so‘m = 14 857 500 x 3 / 100);
(60 000 so‘m = 2 000 000 x 3 / 100).

Mazkur holatda qayta baholash amalga oshirilgandan keyin dastgohning va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirilishini (modernizatsiya qilish) qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi **253 565 so‘m** (566 000 so‘m - 312 435 so‘m) ni tashkil etadi.

3-holat:

Moliyaviy ijaraning uchinchi yilini boshida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirilishini (modernizatsiya qilish) 0,92 koeffitsient bilan qayta baholash amalga oshirildi.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirilishini (modernizatsiya qilish) qayta baholash (bahoni pasayishi) ijarachining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 0299 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi» 475 440 so‘m;
debet 0212 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi» schyoti 40 000 so‘m;
kredit 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 566 000 so‘m;
debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 267 160 so‘m;
kredit 0310 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar» schyoti 1 189 650 so‘m;
kredit 0112 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish» schyoti 160 000 so‘m;
(475 440 so‘m = 5 943 000 x 8 / 100);
(40 000 so‘m = 500 000 x 8 / 100);
(-833 160 so‘m = 475 440 so‘m + 40 000 so‘m - 1 188 600 so‘m - 160 000 so‘m);
(-267 160 so‘m = 566 000 so‘m – 833 160 so‘m);
(1 188 600 so‘m = 14 857 500 x 8 / 100);
(160 000 so‘m = 2 000 000 x 8 / 100).

Mazkur holatda qayta baholash (bahoni pasayishi) natijasida dastgohning va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirilishini (modernizatsiya qilish) bahosining pasayishi natijalari (qoldiq) summasi oldingi qayta baholash natijalari (qoldiq) summasidan **267 160 so‘mga** ni ortiq summani tashkil etadi va davr xarajatlari sifatida tan olinib, 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotida aks ettiriladi.

Agar moliyaviy ijara shartnomasida moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar moliyaviy ijara muddati tugagandan keyin yoki ijarachi (lizingga oluvchi) tomonidan shartnomada kelishilgan sotib olish narxini hammasini to‘langan holda u tugashidan oldin ijarachi (lizingga oluvchi) ning mulkchiligiga o‘tishi nazarda tutilgan bo‘lsa ijara obyektiga mulkchilik huquqi ijarachi (lizingga oluvchi) ga o‘tadi va u buxgalteriya hisobida ijarachining mulki sifatida hisobga olinadi.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni ijarachi (lizingga oluvchi) ning mulkchiligiga o‘tishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Oldingi misolni davom ettiramiz va faraz qilamiz ijarachi tomonidan moliyaviy ijaraning uchinchi yilini 5 yanvarida dastgohni sotib olish narxini to‘ladi. Moliyaviy ijaraning uchinchi yilining 5 yanvar holatiga buxgalteriya hisobida quyidagi ma’lumotlar mavjud:

1. Dastgohning boshlang‘ich qiymati **16 343 250 so‘m**
(14 857 500 so‘m + 1 485 750 so‘m).
2. Dastgoh bo‘yicha jamlangan eskirish summasi **6 537 300 so‘m**
(5 943 000 so‘m + 594 300 so‘m).
3. Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohini modernizatsiya qilishning boshlang‘ich qiymati 2 200 000 so‘mga (2 000 000 so‘m + 200 000 so‘m) va uning jamlangan eskirish summasi 550 000 so‘mga (500 000 so‘m + 50 000 so‘m) teng.
4. Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha asosiy qarzning qoplanmagan qoldiq summasi quyidagicha: 2 800 000 so‘m – joriy qismi, 5 600 000 so‘m – uzoq muddatli qismi.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohning ijarachining mulkiga o‘tishi uning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirish (modernizatsiya

qilish) qiymatini qo‘shgan holda moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohning o‘z asosiy vositalari tarkibiga o‘tkazilishi:

debet 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti 18 543 250 so‘m;
kredit 0310 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar» schyoti 16 343 250 so‘m;
kredit 0112 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish» schyoti 2 200 000 so‘m;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirish (modernizatsiya qilish) ni o‘z asosiy vositalari tarkibiga o‘tkazilganda, ular bo‘yicha jamlangan eskirish summalarini o‘tkazish (ko‘chirish):

debet 0299 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi» 6 537 300 so‘m;
debet 0212 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi» schyoti 550 000 so‘m;
kredit 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi» schyoti 7 087 300 sum;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha asosiy qarzning qoplanmagan qoldiq summasi to‘langanda:

debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi» 2 800 000 so‘m;
debet 7910 «To‘lanadigan moliyaviy ijara» schyoti 5 600 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 8 400 000 sum.

Moliyaviy ijara shartnomasi tugatilganda ijarachi (lizingga oluvchi) tomonidan moliyaviy ijara obyektini qaytarish munosabati bilan balansdan chiqarish, moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq moliyaviy ijara to‘xtatilgan sanadagi moliyaviy ijara obyektining qoplanmagan qiymati summasi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Moliyaviy ijara obyektining chiqib ketishidan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) moliyaviy ijara obyektining qoldiq (balans) qiymati bilan ijara (lizing) to‘lovlari jadvali (tartibi) bo‘yicha qolgan qarz o‘rtasidagi farq sifatida moliyaviy ijara obyektining chiqib ketishi bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar summasini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Moliyaviy ijara obyektining chiqib ketishidan moliyaviy natija (foyda yoki zarar)ni aniqlaganda, oldingi qayta baholashlardagi moliyaviy ijara obyekti qiymatining ko‘paygan qoldiq summasi, ya’ni oldingi baholashlardagi qiymatining ko‘payish summasining oldingi baholashlardagi qiymatining kamayish summasidan ortgan qismi moliyaviy ijara obyektining chiqib ketishidan ko‘rilgan daromad tarkibiga qo‘shiladi va bir vaqtning o‘zida 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti bo‘yicha rezerv kapitalini kamaytiradi.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni ijaraga (lizingga) beruvchiga qaytarishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Oldingi misollarni shartlarini davom ettiramiz va faraz qilamiz moliyaviy ijaraning uchinchi yilini 8 yanvarida ijarachi dastgohni ijaraga beruvchiga qaytarib berdi. Moliyaviy ijaraning uchinchi yilining 8 yanvar holatiga buxgalteriya hisobida quyidagi ma’lumotlar mavjud:

1. Dastgohining boshlang‘ich qiymati **16 343 250 so‘m**
(14 857 500 so‘m + 1 485 750 so‘m).
2. Dastgoh bo‘yicha jamlangan eskirish summasi **6 537 300 so‘m**
(5 943 000 so‘m + 594 300 so‘m).

3. Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni modernizatsiya qilishning boshlang‘ich qiymati 2 200 000 so‘mga (2 000 000 so‘m + 200 000 so‘m) va uning jamlangan eskirish summasi 550 000 so‘mga (500 000 so‘m + 50 000 so‘m) teng.

4. Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha asosiy qarzning qoplanmagan qoldiq summasi quyidagicha: 2 800 000 so‘m – joriy qismi, 5 600 000 so‘m – uzoq muddatli qismi.

5. Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi **1 457 450 so‘m** ((707 500 so‘m + 1 485 750 so‘m) – (141 500 so‘m + 594 300 so‘m)).

6. Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan silliqlovchi dastgohini obodonlashtirish (modernizatsiya qilish) ni qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi **150 000 so‘m** (200 000 so‘m – 50 000 so‘m).

Ijaraga beruvchi tomonidan moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirish (modernizatsiya qilish) ni 2 000 000 so‘mlik qiymati qoplanadi va moliyaviy ijara shartnomasiga muvofiq qaytarish bo‘yicha xarajatlar ijarachi tomonidan amalga oshiriladi. Qaytarish bo‘yicha xarajat tashkilotning transport bo‘linmasi tomonidan ko‘rsatilgan transport xizmatlari 70 000 so‘m iborat.

Ijaraga beruvchiga moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni qaytarish ijarachining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirish (modernizatsiya qilish) ni boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymatiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarni chiqib
ketishi» schyoti 18 543 250 so‘m;
kredit 0310 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha
olingan asosiy vositalar» schyoti 16 343 250 so‘m;
kredit 0112 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy
vositalarni obodonlashtirish» schyoti 2 200 000 so‘m;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirish (modernizatsiya qilish) ni jamlangan eskirishi summasiga:

debet 0299 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan
asosiy vositalarning eskirishi» 6 537 300 so‘m;
debet 0212 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy
vositalarni obodonlashtirishning eskirishi» schyoti 550 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarni chiqib ketishi» schyoti 7 087 300 so‘m;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirish (modernizatsiya qilish) qiymatining ijaraga beruvchi tomonidan qoplanadigan summasiga:

debet 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarni chiqib ketishi» schyoti 2 000 000 so‘m;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni qaytarish bo‘yicha xarajatlar summasiga:

debet 9210 «Asosiy vositalarni chiqib ketishi» schyoti 70 000 so‘m;
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 70 000 so‘m;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirish (modernizatsiya qilish) ni qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash

bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 1 607 450 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarni chiqib ketishi» schyoti 1 607 450 so‘m;
(1 607 450 so‘m = 1 457 450 so‘m + 150 000 so‘m);

- ijara (lizing) to‘lovlari jadvaliga muvofiq asosiy qarzning qoplanmagan qoldiq summasiga:
debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi» 2 800 000 so‘m;
debet 7910 «To‘lanadigan moliyaviy ijara» schyoti 5 600 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarni chiqib ketishi» schyoti 8 400 000 so‘m;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni qaytarish natijasida olingan foyda summasiga:
debet 9210 «Asosiy vositalarni chiqib ketishi» schyoti 481 500 so‘m;
kredit 9310 «Asosiy vositalarni chiqib ketishidan foyda» schyoti 481 500 so‘m;

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirish (modernizatsiya qilish) bo‘yicha xarajatlarni qolash uchun ijaraga beruvchidan pul mablag‘lari kelib tushishi:
debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti 2 000 000 so‘m.

Agar dastgohni modernizatsiya qilishda ishlatilgan ehtiyot qismlar va yordamchi materiallarni dastgohga zarar yetkazmasdan undan ajratib bo‘lmasa va ijaraga beruvchi tomonidan moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni obodonlashtirish (modernizatsiya qilish) qiymati qoplanmasa yuqoridagi qo‘shimcha ravishda ijarachining buxgalteriya hisobida quyidagicha yozuv amalga oshiriladi:

- moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan dastgohni qaytarish natijasida ko‘rilgan zarar summasiga:
debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 1 518 500 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarni chiqib ketishi» schyoti 1 518 500 so‘m.

4-§. Operativ ijara bo‘yicha operatsiyalar hisobi

Operativ ijarada, ijara obyektiga egalik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha risklar ijarachiga o‘tmaydi va shuning uchun operativ ijara shartnomasi bo‘yicha olingan ijara obyektlari ijaraga beruvchining balansida hisobga olinishi lozim. Operativ ijara obyekti ijaraga beruvchida asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi. Asosiy vositalarni hisobga olish tartibi «1-bob. Asosiy vositalar hisobi» da batafsil ko‘rib chiqilgan.

Operativ ijarada ijaraga beruvchining operativ ijara obyektlarini saqlab turish bilan bog‘liq xarajatlari (amortizatsiya ajratmalari, sug‘urtalash, kapital va joriy ta’mirlash, operativ ijara obyektlari bilan bog‘liq soliqlar va boshqa xarajatlar) ushbu xarajatlar yuzaga kelgan hisobot davrining joriy xarajatlari sifatida tan olinadi.

Operativ ijara bo‘yicha hisoblangan va ijaraga beruvchi tomonidan olinadigan ijara tushumlari daromad sifatida ular hisoblangan hisobot davrida tan olinadi.

Operativ ijarada, ijara obyektiga egalik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha risklar ijarachiga o‘tmaydi va shuning uchun operativ ijara shartnomasi bo‘yicha olingan ijara obyektlari ijarachining balansida hisobga olinmasligi lozim.

Operativ ijarada ijarachi tomonidan hisoblangan va to‘lanadigan ijara to‘lovlari, ularni foydalanish maqsadiga qarab mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxiga va (yoki)

davr xarajatlari (sotish harajarlari, ma'muriy xarajatlar, boshqa operatsion xarajatlar) ga kiritiladi.

Operativ ijara shartnomasida ijara obyekti, ijara muddati tugashi yoki tugamasidan, agarda shartnomada shartlashilgan sotib olish narxining barchasi ijarachi tomonidan to‘langanda, ijarachining mulkiga o‘tishi ko‘zda tutilishi mumkin.

Agar shartnomada ijara obyektini sotib olish ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, u tomonlarning qo‘shimcha kelishuvi bilan o‘rnatilishi mumkin, unda ijara obyektidan foydalanish uchun oldin to‘langan to‘lovlar sotib olish bahosida hisobga olinishi haqida kelishish huquqiga ega.

Ijara muddatining tugashi yoki uning tugaguniga qadar shartnomada ko‘zda tutilgan sotib olish narxini ijarachi tomonidan to‘liq kiritilgan holda va ijara obyektiga egalik qilish huquqi unga o‘tganda, u buxgalteriya hisobida ijarachining mulki sifatida hisobga olinishi shart.

Ijarachining operativ ijara obyektini yaxshilash (obodonlashtirish, qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar o‘rnatish, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik qayta qurollantirish va boshqa) xarajatlari operativ ijara obyekti qiymatini ko‘paytiruvchi kapital quyilmalar sifatida aks ettiriladi.

Agar operativ ijara obyekti ijaraga beruvchining ruxsati bilan yaxshilangan bo‘lsa, operativ ijara shartnomasining amal qilish muddati tugagandan so‘ng yoki operativ ijara shartnomasi bekor qilingach, ijarachi ana shu maqsad yo‘lida sarflagan barcha xarajatlarining qoplanishini talab qilish huquqiga ega, agarda operativ ijara shartnomasida o‘zgacha shartlar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa.

Ijaraga beruvchining ruxsatisiz amalga oshirilgan operativ ijara obyektini yaxshilashga sarflangan xarajatlar (qo‘yilmalar) va ularni operativ ijara obyektiga zarar yetkazmagan holda ajratib olish imkoni bo‘lmasa, operativ ijara shartnomasining amal qilish muddati tugagach yoki shartnoma bekor qilingach, ular ijaraga beruvchiga tekinga o‘tadi, agarda operativ ijara shartnomasida o‘zgacha shartlar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa. Biroq, agarda ularni operativ ijara obyektiga zarar yetkazmagan holda ajratib olish mumkin bo‘lsa va agar ijaraga beruvchi ularning qiymatini qoplashga rozi bo‘lmasa, bunday hollarda ijarachi ularni ajratib olishi mumkin.

21-son BHMS ga muvofiq operativ ijara operatsiyalari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 3110 «Oldindan to‘langan operativ ijara haqi» schyotida ijarachi tomonidan mazkur hisobot davrida to‘langan, ammo kelgusi hisobot davriga tegishli operativ ijara haqi hisobga olinadi. Mazkur schyot bo‘yicha analitik hisob har bir operativ ijara shartnomasi bo‘yicha alohida yuritiladi;

- 4820 «Operativ ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar» schyotida asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish bo‘lib hisoblanmagan ijaraga beruvchi korxonalarda operativ ijara bo‘yicha ijarachidan olinadigan ijara to‘lovlari hisobga olinadi. Mazkur schyot bo‘yicha analitik hisob har bir operativ ijara shartnomasi bo‘yicha alohida yuritiladi;

- 6910 «To‘lanadigan operativ ijara» schyotida ijarachining operativ ijara bo‘yicha ijaraga beruvchi oldidagi majburiyati hisobga olinadi. Mazkur schyot bo‘yicha analitik hisob har bir operativ ijara shartnomasi bo‘yicha alohida yuritiladi;

- 9350 «Operativ ijaradan daromadlar» schyotida asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish bo‘lib hisoblanmagan ijaraga beruvchi korxonalarda operativ ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar bo‘yicha hisoblangan daromadlar hisobga olinadi;

- 001 «Operativ ijara olingan asosiy vositalar» schyotida ijaraga oluvchi korxona tomonidan operativ ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar shartnomada ko‘rsatilgan bahoda hisobga olinadi. Mazkur balansdan tashqari schyot bo‘yicha analitik hisob ijaraga beruvchilar bo‘yicha va har bir ijaraga olingan asosiy vositalar obyektlari (ijaraga beruvchining inventar raqamlari) bo‘yicha yuritiladi.

21-son BHMS ga muvofiq operativ ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga doir kapital tusdagi tugallangan ishlar bo‘yicha xarajatlar 0890 «Boshqa kapital quyilmalar» schyotining kreditidan 9220 «Boshqa aktivlarni chiqib ketishi» schyotining debeti bilan bog‘langan holda hisobdan chiqariladi. Agar ijaraga beruvchi tomonidan xarajatlar qoplab berilsa, u holda xarajatlar 9220 «Boshqa aktivlarni chiqib ketishi» schyoti kreditidan 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyotining debeti bilan bog‘langan holda hisobdan chiqariladi. Agar ijaraga beruvchi tomonidan xarajatlar qoplab berilmasa, u holda xarajatlar 9220 «Boshqa aktivlarni chiqib ketishi» schyoti kreditidan 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotining debeti bilan bog‘langan holda hisobdan chiqariladi.

Operativ ijara bilan bog‘liq operatsiyalarni ijaraga beruvchi va ijarachining buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Ijaraga beruvchi maxsus transport vositasini operativ ijara shartnomasi bo‘yicha ijarachiga berdi. Maxsus transport vositasining boshlang‘ich qiymati 55 000 000 so‘m, foydali xizmat muddati 10 yil va eskirish to‘g‘ri chiziqli usulida hisoblanadi. Operativ ijara shartnomasiga muvofiq ijara to‘lovi ijaraga beruvchi tomonidan oyiga 1 000 000 so‘m miqdorida o‘rnatilgan. SHartnomada maxsus transport vositasining qiymati 55 000 000 so‘m ko‘rsatilgan. Operativ ijara shartnomasiga muvofiq ijaraning birinchi oyining boshida ijarachi tomonidan oylik ijara to‘lovi summasining 40 foizi miqdorida oldin to‘lov (bo‘nak) amalga oshiriladi. Operativ ijara davomida ijarachi tomonidan maxsus transport vositasini 7 000 000 so‘mlik modernizatsiya qilish ishlarini amalga oshirgan. Maxsus transport vositasini modernizatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat: ehtiyot qismlar 6 650 000 so‘m, yordamchi materiallar 150 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash 200 000 so‘m va ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasi 24 000 so‘m. Maxsus transport vositasini modernizatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlar summasining 5 000 000 so‘mi ijaraga beruvchi tomonidan qoplanadi.

Operativ ijara bilan bog‘liq operatsiyalar ijaraga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- operativ ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan maxsus transport vositasiga eskirish hisoblanganda:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 458 334 so‘m;
kredit 0260 «Transport vositalarining eskirishi» schyoti 458 334 so‘m;

(458 334 so‘m = 55 000 000 so‘m / 10 yil / 12 oy);

- operativ ijara shartnomasiga muvofiq to‘lov muddati yetib kelmagan ijara to‘lovlari bo‘yicha bo‘nak kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 400 000 so‘m;
kredit 6390 «Boshqa olingan bo‘naklar» schyoti 400 000 sum;

- ijaraga beruvchining asosiy faoliyati bo‘lib mulkni operativ ijaraga berish hisoblanganda operativ ijara shartnomasiga muvofiq joriy davrga tegishli bo‘lgan ijara to‘lovlari hisoblanganda:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 1 000 000 so‘m;
kredit 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar» schyoti 1 000 000 so‘m;

- ijaraga beruvchining asosiy faoliyati bo‘lib mulkni operativ ijaraga berish hisoblanganda operativ ijara shartnomasiga muvofiq to‘lov muddati yetib kelganda, ijarachidan oldin olingan bo‘naklar qoplashga (hisoblashga) olib borilganda:

debet 6390 «Boshqa olingan bo‘naklar» schyoti 400 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 400 000 so‘m;

- ijaraga beruvchining asosiy faoliyati bo‘lib mulkni operativ ijaraga berish hisoblanganda

operativ ijara shartnomasiga muvofiq to‘lov muddati yetib kelganda ijara to‘lovlarining qolgan summasini kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 600 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 600 000 so‘m;

- ijaraga beruvchining asosiy faoliyati bo‘lib mulkni operativ ijaraga berish hisoblanmaganda operativ ijara shartnomasiga muvofiq joriy davrga tegishli bo‘lgan ijara to‘lovlari hisoblanganda:

debet 4820 «Operativ ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar» schyoti 1 000 000 so‘m;
kredit 9350 «Operativ ijaradan daromadlar» schyoti 1 000 000 so‘m;

- ijaraga beruvchining asosiy faoliyati bo‘lib mulkni operativ ijaraga berish hisoblanmaganda operativ ijara shartnomasiga muvofiq to‘lov muddati yetib kelganda, ijarachidan oldin olingan bo‘naklar qoplashga (hisoblashga) olib borilganda:

debet 6390 «Boshqa olingan bo‘naklar» schyoti 400 000 so‘m;
kredit 4820 «Operativ ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar» schyoti 400 000 so‘m;

- ijaraga beruvchining asosiy faoliyati bo‘lib mulkni operativ ijaraga berish hisoblanmaganda operativ ijara shartnomasiga muvofiq to‘lov muddati yetib kelganda ijara to‘lovlarining qolgan summasini kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 600 000 so‘m;
kredit 4820 «Operativ ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar» schyoti 600 000 so‘m;

- ijarachi tomonidan amalga oshirilgan maxsus transport vositasini modernizatsiya qilish bo‘yicha xarajatlarning qoplash uchun tan olinishi:

debet 0160 «Transport vositalari» schyoti 5 000 000 so‘m;
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 5 000 000 so‘m;

- ijarachi tomonidan amalga oshirilgan maxsus transport vositasini modernizatsiya qilish bo‘yicha xarajatlarning qoplash uchun pul mablag‘lari o‘tkazilganda:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 5 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 5 000 000 so‘m.

Operativ ijaraning birinchi oyidagi operativ ijara bilan bog‘liq operatsiyalar va operativ ijarani ikkinchi oyining boshida amalgan oshirilgan modernizatsiya qilish bo‘yicha ishlarni ijarachining buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini ko‘rib chiqamiz.

Operativ ijara bilan bog‘liq operatsiyalar ijarachining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- operativ ijara shartnomasi bo‘yicha maxsus transport vositasini olish:

debet balansdan tashqari 001 «Operativ ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar» schyoti 55 000 000 so‘m;

- operativ ijara shartnomasiga muvofiq to‘lov muddati yetib kelmagan ijara to‘lovlari bo‘yicha ijaraga beruvchiga bo‘nak to‘langanda:

debet 4330 «Boshqa berilgan bo‘naklar» schyoti 400 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 400 000 so‘m;

- ijara to‘lovlari hisoblanganda:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 1 000 000 so‘m;
kredit 6910 «To‘lanadigan operativ ijara» schyoti 1 000 000 so‘m;

- operativ ijara shartnomasiga muvofiq to‘lov muddati yetib kelganda, ijaraga beruvchiga oldin to‘langan bo‘naklarni qoplashga (hisoblashga) olib borilganda:

debet 6910 «To‘lanadigan operativ ijara» schyoti 400 000 so‘m;

kredit 4330 «Boshqa berilgan bo‘naklar» schyoti 400 000 so‘m;

- operativ ijara shartnomasiga muvofiq to‘lov muddati yetib kelganda ijaraga beruvchiga ijara to‘lovlarining qolgan qismi to‘langanda:

debet 6910 «To‘lanadigan operativ ijara» schyoti 600 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 600 000 so‘m;

- operativ ijara shartnomasi bo‘yicha olingan maxsus transport vositasini modernizatsiya qilish amalga oshirilganda:

debet 0890 «Boshqa kapital qo‘yilmalar» schyoti 7 000 000 so‘m;
kredit 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti 6 650 000 so‘m;
kredit 1090 «Boshqa materiallar» schyoti 150 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 200 000 so‘m;

- operativ ijara shartnomasi bo‘yicha olingan maxsus transport vositasini modernizatsiya qilish bilan band ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasi:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 24 000 so‘m;
kredit 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti 24 000 so‘m;

- operativ ijara shartnomasi bo‘yicha olingan maxsus transport vositasi qaytarilganda kapital qo‘yilmalar (modernizatsiya qilish bo‘yicha xarajatlar) ni hisobdan chiqarish:

debet 9220 «Asosiy vositalarni chiqib ketishi» schyoti 7 000 000 so‘m;
debet 0890 «Boshqa kapital qo‘yilmalar» schyoti 7 000 000 so‘m;

- operativ ijara shartnomasi bo‘yicha olingan maxsus transport vositasini modernizatsiya qilish bo‘yicha kapital qo‘yilmalar qiymatining ijaraga beruvchi tomonidan qoplanadigan summasiga:

debet 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti 7 000 000 so‘m;
kredit 9220 «Asosiy vositalarni chiqib ketishi» schyoti 7 000 000 so‘m;

- operativ ijara shartnomasi bo‘yicha olingan maxsus transport vositasini modernizatsiya qilish bo‘yicha kapital qo‘yilmalar qiymatini qoplash uchun ijaraga beruvchidan pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 7 000 000 so‘m;
kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti 7 000 000 so‘m;

- operativ ijara shartnomasi bo‘yicha olingan maxsus transport vositasini qaytarish:

kredit balansdan tashqari 001 «Operativ ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar» schyoti 55 000 000 so‘m.

5-§. Keyingi ijara sharti bilan mol-mulkni sotish bo‘yicha operatsiyalar hisobi

Ijaraga beruvchi ijara obyektini bo‘lg‘usi foydalanuvchidan keyinchalik uni xuddi shu shaxsga ijaraga berish uchun sotib olgan hollarda, ijarachi va sotuvchi bir shaxs bo‘lishiga yo‘l qo‘yiladi.

Keyingi ijara sharti bilan mol-mulkni sotishga doir bitim xuddi shu sotuvchiga mulkni ijaraga (moliyaviy ijara yoki operativ ijara bo‘lishi mumkin) keyin qaytarish bilan uni sotishni o‘z ichiga oladi. Ijara (lizing) to‘lovlari va sotish narxlari odatda o‘zaro bog‘liqdir, chunki ular haqida yagona bir narsa sifatida kelishib oladilar va ular uchun ijara obyektining joriy qiymatini taqdim etish zarurati yo‘q.

Ijraga beruvchiga (lizingga beruvchiga) mulkni sotish sotuvchining buxgalteriya hisobida 21-son BHMS ga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda asosiy vositalarni (agar ular sotishgacha foydalanishda bo‘lgan bo‘lsa) ijaraga

beruvchiga (lizingga beruvchiga) sotish sotuvchining buxgalteriya hisobida «Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq amalga oshiriladi.

Ijaraning hisobi ijarachi va ijaraga beruvchida yuqorida ko‘rib o‘tilgan tartibda yuritiladi.

Keyingi ijara sharti bilan mol-mulkni sotishni hisobga olish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona (ijarachi) ning rahbariyati dastgohni yangilashga qaror qildi va mulkni moliyaviy ijara shartnomasiga berishni amalga oshiruvchi ijaraga beruvchi bilan dastgohni moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olishga kelishdi.

Moliyaviy ijara obyektini sotuvchining faoliyat turidan kelib chiqib ikkita holatni ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Ijarachi dastgoh ishlab chiqaradi. Tashkilotda aylanma mablag‘lar yetishmaydi va u ijaraga beruvchi bilan keyin moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha qaytarib olish sharti bilan o‘zi ishlab chiqargan dastgohni sotish to‘g‘risida kelishdi. Dastgohning tannarxi 20 000 000 so‘mga teng. Ijarachi va ijaraga beruvchi dastgohni qiymatini 25 000 000 so‘m deb kelishishdi. Ijarachi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchi bo‘lib hisoblanadi. Hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi 3 750 000 so‘mni tashkil etadi. Sotish bo‘yicha xarajatlar amalga oshirilmagan.

Dastgohni ijaraga beruvchiga sotish bo‘yicha operatsiyalar ijarachining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohni realizatsiya qilish (sotish) qiymati summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti — *25 000 000 so‘m;*
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti — *25 000 000 so‘m;*

- hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti — *3 750 000 so‘m;*
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» — *3 750 000 so‘m;*

- dastgohning balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti — *20 000 000 so‘m;*
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti — *20 000 000 so‘m;*

- tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar schyotini yopilishi:

debet 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti — *25 000 000 so‘m;*
kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti — *25 000 000 so‘m;*

- sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi schyotining yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti — *20 000 000 so‘m;*
kredit 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti — *20 000 000 so‘m.*

Har bir hisobot davri oxirida 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotining debeti va krediti bo‘yicha aylanmalari yig‘iladi hamda hisobot davrining yakuniy moliyaviy natijanisini ifodalovchi ushbu schyot bo‘yicha umumiy qoldiq hisoblab chiqariladi.

Hisobot davri yakuni bo‘yicha yillik moliyaviy hisobot tuzishda 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 8710 «Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

Ushbu holatda moliyaviy natija ya’ni dastgohni sotishdan olingan foyda 1 000 000 so‘mni tashkil etadi va u buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 5 000 000 so‘m;
kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti 5 000 000 so‘m.

Ijaraning keyingi hisobi ijarachi va ijaraga beruvchida yuqorida ijara hisobi bo‘yicha ko‘rib o‘tilgan misol va holatlarga o‘xshash tartibda yuritiladi.

2-holat:

Ijarachi elektrodvigatel ishlab chiqaruvchi bo‘lib hisoblanadi. Jamiyatda aylanma mablag‘lariga yetishmovchilik mavjud va o‘z navbatida ijaraga beruvchi bilan keyin moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha qaytarib olish sharti bilan foydalanishda bo‘lgan dastgohni sotish, hamda olingan pul mablag‘lariga yangi dastgoh xarid qilish to‘g‘risida kelishdi. Dastgohning boshlang‘ich qiymati 25 000 000 so‘mga, jamg‘arilgan eskirish summasi 2 500 000 so‘mga, qayta baholash qoldig‘i esa 250 000 so‘mga teng. Ijarachi va ijaraga beruvchi dastgohni qiymatini 22 000 000 so‘m deb kelishishdi. Ijarachi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchi bo‘lib hisoblanmaydi. Sotish bo‘yicha xarajatlar amalga oshirilmagan.

Dastgohni ijaraga beruvchiga sotish bo‘yicha operatsiyalar ijarachining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- dastgohni realizatsiya qilish (sotish) qiymati summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 24 000 000 so‘m;
kredit 9220 «Asosiy vositalarni chiqib ketishi» schyoti 24 000 000 so‘m;

- dastgohning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 25 000 000 so‘m;
kredit 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti 25 000 000 so‘m;

- dastgohning jamlangan eskirishi hisobdan chiqarilganda:

debet 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi» schyoti 2 500 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 2 500 000 so‘m;

- dastgohni qayta baholash natijalari (qoldig‘i) summasiga:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 250 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 250 000 so‘m;

- dastgohni sotishdan ko‘rilgan foyda:

debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 1 850 000 so‘m;
kredit 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» schyoti 1 850 000 so‘m;

- asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda schyotini yopilishi:

debet 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» schyoti 1 850 000 so‘m;
kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 1 850 000 so‘m.

Ushbu holatda moliyaviy natija ya’ni dastgohni sotishdan olingan foyda 1 850 000 so‘mni tashkil etadi va u buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 1 850 000 so‘m;
kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti 1 850 000 so‘m.

Ijaraning keyingi hisobi ijarachida va ijaraga beruvchida yuqorida ijara hisobi bo‘yicha ko‘rib o‘tilgan misol va holatlarga o‘xshash tartibda yuritiladi.

3-BOB. MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR HISOBI

1-§. Moliyaviy investitsiyalar hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari

Bozor munosabatlariga o‘tish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohot teran va keng miqyosda davlat mulkini xususiylashtirish jarayoniga, aksioner jamiyatlari, xususiy korxonalar, qo‘shma korxonalar va shunga o‘xshaganlarni tashkil etishga asoslangan. Bu jarayonlar quyidagi infratuzilmalar bilan chambarchas bog‘langan: tijorat banklari, investitsiya va sug‘urta fondlari, birjalar, moliya – sanoat guruhlari, lizing kompaniyalari, maslahat va auditorlik firmalari va sh. k.

Kapital bozorini rivojlantirish maqsadida O‘zbekistonda fond birjalari mavjudligini alohida e’tirof etish kerak. Qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish tegishli normativ huquqiy bazaga asoslangan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar imkoniyati boricha o‘z mablag‘laridan samarali foydalanishga, ya’ni ko‘proq daromad olishga harakat qiladilar. Ushbu usullardan bittasi vaqtincha, ortiqcha mablag‘larini boshqa korxonalarning faoliyatiga qo‘yish va kelishilgan holda ushbu mablag‘lardan olingan daromadga sherik bo‘lishdir. Buni amaliyotda investitsiya deyiladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida har bir korxonadan investitsion faollikni, investitsiya jarayonlarining faol ishtirokchisi bo‘lishni taqozo qiladi. Korxonalarning investitsion jarayonlarda qatnashuvi ularning boshqa yuridik va jismoniy shaxslar, qolaversa, xorijiy kompaniyalar bilan aloqasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Korxonalarning investitsion faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda, avvalo, uzoq muddatli investitsiyalarning hisobiga muhim e’tibor qaratish lozim. Uzoq muddatli investitsiyalar hisobining yuritilish tartibini ochib berishda, bizning fikrimizcha, Respublikamizda amalda bo‘lgan uzoq muddatli investitsiyalar obyektlari hisobiga doir uslubiyatga e’tibor qaratsak, maqsadga muvofiqdir.

Bunda avvalo investitsiya va uzoq muddatli investitsiyalar to‘g‘risidagi tushunchalar to‘g‘risida fikr yuritsak.

Investitsiya lotincha «invest» so‘zidan olingan bo‘lib, «sarmoya solish» degan ma’noni anglatadi. Investitsiya so‘zining mohiyatini ochib berishda uning lug‘aviy ma’nosidan ko‘ra, iqtisodiy ma’nosiga ko‘prok e’tibor qaratish lozim.

«Investitsiya» tushunchasining mazmuni O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi Qonunida «iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga solinadigan moddiy va nomoddiy ne’matlar va ularga bo‘lgan huquqlar» sifatida ta’riflanadi.

Investitsiya tushunchasini yanada aniqroq tushuntirib berish uchun uning tasnifini keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir. M.Meskon, M.Al’bert, F.Xedourilarning fikricha, investitsiyalar shartli ravishda uch turga bo‘linadi deb hisoblashadi:

- moliyaviy investitsiyalar;
- moddiy investitsiyalar;
- Aqliy (intelektual) investitsiyalar[1].

Ularning fikricha, moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog‘ozlar hamda ularga tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya’ni binolar, asbob-uskunalar. inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi ishlab chiqarish fondlaritsing aktiv va passiv qismlari kiradi.

1 М.Мескон, М.Альберт, Ф.Хедоури. Основы менеджмента. М: Дело, 1998. -704 с. 245 ст.

Aql (intellektual) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat.

Yana ushbu asarda aytilishicha «Investitsiya deb har bir investorning ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarini birlamchi iqtisodiy samara olish maqsadida biror-bir investitsion obyektga sarflashiga aytiladi».

Moliyaviy investitsiyalarni buxgalteriya hisobi va ular to'g'risidagi axborotlarni moliyaviy hisobotlarda ochib berish respublikamizda Xarajatlar tarkibi to'g'risida Nizom, 12-son BHMS va 8-son BHMS quyidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlar moliyaviy investitsiyalarni buxgalteriya hisobi uslubiyotini u yoki bu faoliyat turiga bog'liq bo'lmagan holda tartibga soladi. Yuqorida sanab o'tilgan me'yoriy huquqiy hujjatlarda mulklarni moliyaviy investitsiyalar tarkibiga kiritish mezonlari, tan olish paytini belgilash, tasniflash, balans qiymatini baholash tartibi belgilab berilgan. SHuningdek, moliyaviy investitsiyalar qiymatini qayta baholash, ularning chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni aniqlash va ular bo'yicha axborotlarini moliyaviy hisoblarda ochib berish qoidalari batafsil ko'rib o'tilgan.

Korxonalar moliyaviy investitsiyalarni 12-son BHMS da bayon qilingan tartibga muvofiq yuritadi va ular quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

- moliyaviy investitsiyalarni toifalariga (qisqa muddatli va uzoq muddatli) qarab tasnif qilish;
- moliyaviy investitsiyalar qiymatini aniqlash va ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish;
- moliyaviy investitsiyalarni bir toifadan ikkinchi toifaga o'tkazish;
- moliyaviy investitsiyalar qiymatining to'xtovsiz kamayib borishi.

SHuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, 12-son BHMS ning ta'sir etish doirasi quyidagilar natijasida paydo bo'ladigan daromadlarga nisbatan qo'llanilmaydi:

- foizlar, royalti, dividendlar shaklida investitsiya bo'yicha olingan daromadlarni tan olish asoslari;
- moliyaviy ijara (lizing) shartnomalari bo'yicha olinadigan daromadlar;
- sho'ba jamiyatlarga investitsiyalar;
- qo'shma faoliyatga investitsiyalar;
- gudvill, patentlar, savdo markalari va shunga o'xshash boshqa nomoddiy aktivlar.

Foizlar, royalti, dividendlar shaklida investitsiya bo'yicha olingan daromadlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «11-bob. Moliyaviy natijalarni shakllantirish va hisobi» da ko'rib chiqilgan.

Shuningdek, moliyaviy ijara (lizing) shartnomalari bo'yicha olinadigan daromadlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalarining hisobi» da ko'rib chiqilgan.

Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga kiritilgan investitsiyalardan olinadigan daromadlar 8-son BHMS da batafsil ko'rib chiqilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan me'yoriy huquqiy hujjatlardan tashqari moliyaviy investitsiyalarni buxgalteriya hisobini ayrim masalalari quyidagi respublikamizda boshqa buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ham tartibga solinadi.

Amaliyotda moliyaviy investitsiyalar bo'yicha operatsiyalarning buxgalteriya hisobida odatda sodir etiladigan xatolar quyidagilar hisoblanadi:

- moliyaviy investitsiyalar amalda sodir etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud emasligi yoki ular belgilangan talablarga rioya qilmagan holda rasmiylashtirilganligi;

- hujjatlarning asl nusxalari yoki amaldagi qonunchilikka muvofiq tasdiqlangan nusxalari mavjud emasligi;

- sotib olishda yoki hisobdan chiqarilishda qimmatli qog‘ozlarning qiymati noto‘g‘ri baholanishi;

- qimmatli qog‘ozlarning sotib olingan va nominal qiymati orasidagi farq noto‘g‘ri aks etilishi;

- moliyaviy investitsiyalar bo‘yicha inventarizatsiya noto‘g‘ri o‘tkazilganligi yoki umuman o‘tkazilmaganligi;

- moliyaviy investitsiyalar hisobdan chiqarilishi munosabati bilan moliyaviy natijalar noto‘g‘ri hisoblanishi;

- qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘yicha soliqlar noto‘g‘ri hisoblanishi va o‘z vaqtida byudjetga to‘lanmaganligi.

Moliyaviy investitsiyalar – korxona tasarrufidagi daromad olishga (foiz, royalti, dividend va ijara haqi shaklida) mo‘ljallangan, investitsiya qilingan kapital qiymatining ortishi yoki investitsiya qiluvchi kompaniya boshqa naf olish uchun foydalanadigan aktivlar.

Moliyaviy hisobotlarida joriy aktivlar bilan uzoq muddatli aktivlar o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatuvchi korxonalar qisqa muddatli (joriy) moliyaviy investitsiyalarni egalik qilish muddati bir yilgacha bo‘lgan aylanma mablag‘ sifatida ko‘rsatishlari, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni esa egalik qilish muddati bir yildan oshadigan uzoq muddatli aktivlar sifatida ko‘rsatishlari lozim.

Qisqa muddatli (joriy) investitsiyalar - muomala muddati 12 oydan oshmaydigan oson realizatsiya qilinadigan investitsiyalar.

Uzoq muddatli investitsiyalar - qisqa muddatli (joriy) investitsiyadan tashqari barcha investitsiyalar.

Ko‘chmas mulkka investitsiya - investitsiya qiluvchi subyektning yoki investitsiya qiluvchi subyekt guruhiga kiruvchi boshqa subyektning ishlab chiqarish faoliyati davomida foydalanilmaydigan yer uchastkalariga yoki imoratlarga investitsiyalar.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (25-son MHXS(IAS)) «Investitsiyalar hisobi» ga ko‘ra investitsiya turlari quyidagicha deb ko‘rsatilgan:

- qisqa muddatli investitsiyalar;

- uzoq muddatli investitsiyalar;

- investitsion ko‘chlas mulk.

Investitsion portfel tarkibiga kiruvchi elementlar turli xildagi investitsion qimmatliklar hisoblanadi. Investitsiyaning har bir turi o‘zining xarakterli tomonlariga ega, investitsiyalarni to‘liqligicha tavsiflash uchun ularni tasniflab olish kerak:

- moddiyligiga ko‘ra: moddiy, nomoddiy;

- yo‘naltirilgan qo‘yilmalarning qaytarilishiga ko‘ra: qisqa muddatli, o‘rta muddatli va uzoq muddatli;

- risk darajasiga ko‘ra: yuqori riskli, o‘rta riskli va past riskli:

- talab qilingan investitsion resurslar hajmiga ko‘ra: qimmatbaho, o‘rta qiymatli va arzon;

- maqsadli foydalanilishiga ko‘ra: chayqovchilik va to‘g‘ridan-to‘g‘ri qatnashish.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan tasnif investitsiyalarning barcha turlari uchun umumiy hisoblanadi. SHu boisdan korxona investitsion portfelini boshqarish maqsadlari turli xil bo‘lishi mumkin.

Jahonning turli mamlakatlarida qisqa muddatli investitsiyalar tarkibiga turli xildagi qimmatli qog‘ozlar kiritiladi. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarida ular ixtisoslashtirilmagan,

balki oson sotilishi va bir yildan ortiq bo‘lmagan davr ichida sotilishi kabi tushunchalar keltirib o‘tilgan.

Qisqa muddatli investitsiyalardan farqli o‘laroq, uzoq muddatli investitsiyalar deyilganda qo‘shimcha foyda olish yoki kompaniyaga ta’sir o‘tkazish maqsadida bir yildan ortiq muddatga mablag‘larni joylashtirish tushuniladi. Uzoq muddatli investitsiyalarga quyidagilar kiradi:

- qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalar;
- moddiy aylanmadan tashqari aktivlarga investitsiyalar (keyinchalik foydalanish va qiymatining oshishi maqsadida aylanmadan tashqari turgan aktivlar uchun);
- sho‘ba korxonalarga investitsiyalar;
- maxsus fondlarga investitsiyalar.

Korxonalar tomonidan moliyaviy investitsiyalarni hisobini tegishli ravishda tashkil etish va ularni harakatini nazorat qilish uchun zarur bo‘ladigan ichki nizom, yo‘riqnoma, boshqa tashkiliy-taqsimlovchi hujjatlarni ishlab chiqishlari mumkin. Yuqoridagi hujjatlarda bilan:

- moliyaviy investitsiyalarni qabul qilish, topshirish va harakati bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan boshlang‘ich hujjatlarning, aylanma qaydnomalar va boshqa jadvallar shakllari va ularni rasmiylashtirish (tuzish) tartibini, shuningdek hujjat aylanishining qoidalarini;
- moliyaviy investitsiyalarni xarid qilish, saqlash va chiqarishga, shuningdek, ularni buxgalteriya hisobini yuritish va ular bo‘yicha hisobot tuzishni amalga oshirishga ishonch bildirilgan bo‘linmalarining mas’ul shaxslari ro‘yxatini;
- saqlanishini ta’minlash nazoratini amalga oshirish tartibini, hisobni to‘g‘ri yuritilishini, ularni mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi hisobotlarni ishonchligini va boshqalarni tasdiqlashi mumkin.

2-§. Moliyaviy investitsiyalarni shakllantirish tamoyillari

Korxonalar investitsiya operatsiyalarini amalga oshirayotganda investitsiya portfelini shakllantiradi. Agar gap epizodik qo‘yilmalar haqida ketsa, ya’ni korxona emitentlarning qimmatli qog‘ozlaridan bir turini sotib olsa, hali investitsiya portfeli haqida gapirish asossizdir. Qimmatli qog‘ozlar va boshqa investitsiya obyektlariga qo‘yilmalar o‘nlab pozitsiyalarni tashkil etib, katta summalarda hisob-kitob qilinishi va ko‘pgina korxona kontragentlarini qamrab olishi mumkin. Bunday vaziyatda aktivlar va shu aktivlarga jalb qilingan resurslarni professional darajada boshqarish muammosi yuzaga keladi va bunda investitsiya portfeli haqida gap yuritish mumkin bo‘ladi.

Investitsiya portfelining strukturasi investorlarning qiziqishini, alohida qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha risklik darajasi uyg‘unligini ko‘rsatadi. Bu portfelni:

- bir butun boshqarish obyekti sifatida ko‘rish;
- portfel oldida turgan masalalarni aniqlash;
- bu masalalarni hal qilish uchun strategiya va taktikani ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini beradi.

Investitsiya portfeli deganda fond bozorining shakllangan jahon tajribasida boshqaruvning yaxlit obyekti sifatida faoliyat yurituvchi shaxsga tegishli qimmatli qog‘ozlarning qandaydir jamlanmasi tushuniladi. Bu esa, portfelni shakllantirishda va uning tarkibi hamda tuzilishini keyinchalik o‘zgartira borib, menedjer – boshqaruvchi risk/daromad - nisbati bilan yangi sarmoyalash sifatini shakllantiradi.

Portfel nazariyasi jihatdan bir turdagi qimmatli qog‘ozlardan tashkil topishi shuningdek, bir xil qimmatli qog‘ozlarning boshqalarining o‘rnini bosishi yo‘li bilan o‘z tuzilishini o‘zgartirishi mumkin. Lekin, har bir qimmatli qog‘oz alohida yuqoridagi kabi natijaga erisha olmaydi.

Portfelning mohiyati - investitsiya sharoitlarini qimmatli qog‘ozlar jamlanmasiga alohida olingan qimmatli qog‘ozlar holatiga ko‘ra erishib bo‘lmaydigan va faqatgina ularning kombinatsiyasi davrida imkoniyati bor investitsiyalash xarakteristikasini berish bilan yaxshilashdir.

SHunday qilib, portfelni shakllantirish jarayonida ma’lum xarakteristikalar bilan yangi investitsiyalash sifatiga erishiladi. Qimmatli qog‘ozlar portfeli muhim instrument bo‘lib, uning yordamida riskning eng kam holatida investitsiyalar uchun daromadning talab etilayotgan barqarorligi ta’minlanadi.

Investitsiya portfelini real investitsiya loyihalari bilan taqqoslaganda uning qator ijobiy xususiyatlarini ko‘rish mumkin. Bular orasida uning o‘ta yuqori likvidligi va yengil boshqarilishi ajralib turadi. SHu bilan bir qatorda, risk darajasining o‘ta yuqoriligi, (bu tavakkal faqatgina daromadga emas, balki barcha investitsiyalashtirilayotgan kapitalga taalluqlidir), daromadning o‘ta past darajasi, kezi kelganda daromadlikka real ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarining yo‘qligi (sarmoyani fond bozorining boshqa sohalariga qayta investitsiyalash imkoniyatidan tashqari) bu portfel inflyatsiya himoyasining pastligi, shuningdek belgilab o‘tilgandek alohida fond aktivlarini tanlash imkoniyatlarining haddan tashqari chegaralanganligi uning kamchiliklarini tashkil etadi.

Yuqorida bayon etilganidek ko‘pchilik institutsional bo‘lmagan investorlar uchun qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantirishni faqatgina ularda real investitsiyalashning yetarli samarali loyihalari mavjud bo‘lmaganida yoki mazkur davrning investitsiya muhiti ko‘zlangan real investitsion dasturlarini samarali tarzda qo‘llashga yordam bermaganda amalga oshiriladi. Institutsion investorlarga kelsak, ularning ko‘pchiligi uchun qimmatli qog‘ozlarning samarali va balanslashtirilgan portfelining shakllanishi muhim vazifa hisoblanadi.

Korxona investitsiya portfelining vazifalari:

- korxona daromadlarini barqarorlashtirish.

- geografik diversifikatsiyani ta’minlash. Qimmatli qog‘ozlar ko‘p hollarda investitsiya obyekti sifatida boshqa hududlar bilan bog‘langan bo‘ladi, bu esa, korxona daromadlarini yanada samaraliroq diversifikatsiyalash imkonini beradi;

- likvidlikni saqlab turishga yordam berish, chunki qimmatli qog‘ozlar kerakli pul mablag‘larini olish maqsadida sotilishi yoki korxona tomonidan qo‘shimcha qarz olishda garov sifatida foydalanilishi mumkin.

- bozor foiz stavkalarining o‘zgarishi natijasida yuz berishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlardan korxonani sug‘urta qilish;

- korxona aktivlari portfelining egiluvchanligini ta’minlash;

- korxonada saqlanayotgan yuqori sifatga ega bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar evaziga korxona balansining moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilashdan iborat.

Investitsiya obyektining ma’lum sifatini bilgan holda portfelga turli yo‘nalishdagi qimmatli qog‘ozlarni kiritish mumkin, bu esa yanada yuqori foyda olinishini ta’minlaydi. SHuning uchun ham qimmatli qog‘ozlar bozori tahlilini qimmatli qog‘ozlarning investitsion xususiyatlari bo‘yicha segmentatsiyasidan boshlash kerak.

Mavjud tartibga binoan, yo‘riqnomalar va qonunchilik hujjatlari bilan boshqarib turiladigan investitsiya qimmatli qog‘ozlari portfel investitsiyalashtirish obyektlari hisoblanadi. Ularga sanoat kompaniyalarining, banklarning, aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari, obligatsiyalari,

davlat qimmatli qog‘ozlari, hosila qimmatli qog‘ozlari (fyucherslar, optsionlar), O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki yo‘riqnomalari hamda qonunchilik hujjatlari bilan boshqarib boriladigan pul bozorining qimmatli qog‘ozlari kiradilar. Bular depozit sertifikatlari, cheklar, veksellardir.

Aksiyalarning portfel tarkibiga kiritilishi investorga qo‘yilgan mablag‘larni kurs bo‘yicha bahoning o‘zgarishi hisobiga, shuningdek dividentlar to‘lovi hisobiga tezlik bilan ko‘payishini ta’minlaydi. Oddiy aksiyalar ikkilamchi bozorda birja o‘yini obyekti hisoblanadilar va o‘zaro agressiv hamda himoya aksiyalariga bo‘linadilar.

Yuqori tavakkal bosqichi bilan birja chayqovchiligi obyekti hisoblangan agressiv aksiyalar yangi, yosh korxonalar, shuningdek, xavf-xatarli siyosat yurituvchi kompaniyalar aksiyalaridir. Ularning bahosi bir necha barobar ortishi mumkin. Buning xususiyati shundaki, agar ularga qo‘yilgan mablag‘lar tavakkali o‘zini oqlasa, bu aksiyalarning kelajagiga ishonish mumkin, yoki agar bu investitsiyalar ko‘zlangan foydani olib kelmasa unday holda ular muvaffaqiyatsiz hisoblanadi. Aksiyalarning bunday turi investorlarni avvalo qisqa davr orasida yuqori daromad olish imkoniyati bilan jalb etadi. Mazkur aksiyalar turining kiritilishi himoya aksiyalari yoki shu sinfga taalluqli boshqa qimmatli qog‘ozlar bilan neytrallashtiriladi, bu esa portfelning umumiy tavakkalini qisqarishiga olib keladi.

Obligatsiyalar himoya qimmatli qog‘ozlar sifatida investorning ma’lum foizlarini olishini ta’minlovchi instrument sifatida portfelga kiritiladi. Veksellar investor uchun ikki tomonlama qiziqish uyg‘otadi. Birinchidan, investor vekselni sotib olish barobarida mazkur veksel garovi ostida pul kreditini olishi mumkin. Ikkinchidan, sotib olingan veksel birja o‘yinlari obyekti bo‘lishi mumkin.

Past likvidli qimmatli qog‘ozlar fond bozori uchun asosiy muammo bo‘lganligi bois, investorlarda sotib olingan qimmatli qog‘ozlarni zararsiz sotib yuborishiga erishish imkoniyatlariga ishonch yo‘q. Muomaladagi qimmatli qog‘ozlar miqdorining yetarli emasligi, sifatining pastligi va narxining balandligi tufayli diversifikatsiya usullarining qo‘llanilishi yanada murakkablashadi. Diversifikatsiya vositalari qatoriga optsion va fyucherslarni kiritish mumkin, bular qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha risklarni sug‘urtalash usuli hisoblanadilar.

Qimmatli qog‘ozlarning investitsiya sifatlarini hisobga olgan holda turli investitsiya portfellarini shakllantirish mumkin. Ularning har birida portfel egasi uchun maqbul bo‘lgan mavjud risk bilan ma’lum vaqt mobaynida kutilayotgan daromadlar o‘rtasida balans bo‘ladi. Mana shu omillar nisbati qimmatli qog‘ozlar turini aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, investitsiya portfeli shakli bu portfel tarkibiga kiruvchi investitsiya obyektlarining turlari va uning oldida turgan masalalarning umulashgan xarakteristikasidir. Bunda daromad qanday yo‘sinda, qaysi manbalar ko‘magida olinganligi, ya’ni kurs qiymatining oshishi hisobiga yoki joriy to‘lovlar - dividedlar, foizlar hisobiga olinganligi portfel shakllarini tasniflashda muhim belgi hisoblanadi. Investitsiya portfelining quyidagi shaklarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- o‘sish porfeli;
- daromad portfeli;
- risk kapitali portfeli;
- balanslashtirilgan portfel;
- ixtisoslashtirilgan portfel.

O‘sish portfeli bozor narxi tez o‘suvchi qimmatli qog‘ozlar va boshqa investitsiya obyektlariga ixtisoslashgan bo‘lib, asosiy maqsadi investorlarning kapitalini ko‘paytirishdan iborat bo‘ladi.

SHuning uchun portfel egalariga investitsiya obyektlari bilan bog‘liq foizlar va boshqa joriy daromadlar kam miqdorda to‘lanishi yoki umuman to‘lanmasligi mumkin.

Daromad portfeli bu investitsiya portfelining foiz va dividentlar to‘lovlaridan iborat yuqori joriy foyda olishga yo‘naltirilganidir. Bunda dividentlar, foizlar investitsiya obyektlarining bozor narxlariga nisbatan yuqori daromad keltirishi va o‘rtacha bozor narxlari nisbatan sekinroq o‘sishiga e’tibor qaratiladi. Bunday turdagi portfelning xususiyatli tomoni shundaki, uni yaratishdan maqsad konservativ investorlarga mos keladigan hajmi eng kam riskga to‘g‘ri keladigan foydaning belgilangan darajasini olishdir. SHuning uchun ham, o‘zida barqaror to‘lanadigan foizlar va kurs qiymatining nisbati yuqori bo‘lgan fond bozorining ishonchli vositalari portfel investitsiyalash obyektlari hisoblanadilar.

Risk kapitali portfeli asosan o‘z faoliyatini tezroq kengaytirish strategiyasini tanlagan yosh kompaniyalarning kapitaliga qo‘ygan ulushi va qimmatli qog‘ozlari, yoki noaniq bozor qiymati va taqdiriga ega bo‘lgan riskli obyektlardan tashkil topadi. Bu spekulyativ xarakterga ega bo‘lgan portfel bo‘lib, uning maqsadi bozor qiymati aniq bo‘lmagan aktivlarni sotib olish orqali juda yuqori daromad olishdir. Agar kutilgan natijalar amalga oshmasa ya’ni kompaniyalar sinib ketsa bunday portfelga qo‘yilgan qo‘yilmalar zarar keltiradi.

Balanslashtirilgan portfel qisman bozor bahosi tez o‘suvchi investitsiya obyektlaridan qisman yuqori daromad keltiruvchi qimmatli qog‘ozlardan va boshqa obyektlardan tashkil topadi. Bunda yuqori riskli investitsiya obyektlari ham bo‘lishi mumkin. Kapitalni ko‘paytiirish va yuqori daromad olish maqsadi o‘z navbatida bunday portfeldagi risklarni balanslashtirishga olib keladi.

Ixtisoslashtirilgan portfelda qimmatli qog‘ozlar yoki boshqa investitsiya obyektlari umumiy kriteriylar bo‘yicha birlashtirilgan bo‘lmaydi, balki xususiy kriteriylar bo‘yicha birlashtirilgan bo‘ladi. Masalan, quyidagi variantlar bo‘lishi mumkin (qimmatli qog‘ozlar misolida):

- mustahkam kapital va daromad portfeli;
- qisqa muddatli fondlar portfeli, ya’ni qisqa muddatli qimmatli qog‘ozlardan tashkil topgan portfel;
- qat’iy daromad keltiruvchi obligatsiyalardan tashkil etilagan o‘rta yoki uzoq muddatli fondlar portfeli;
- regional yoki tarmoq portfeli. Bu portfeldagi qimmatli qog‘ozlar bitta yoki bir nechta o‘zaro bog‘liq tarmoqlarda faoliyat olib borayotgan emitentlar yoxud bitta hududda joylashgan emitentlarniki bo‘ladi;
- Chetel qimmatli qog‘ozlari portfeli.

Bundan tashqari investitsiya portfellarini obyekt turlariga qarab ham ajratish mumkin;

- faqat qimmatli qog‘ozlar portfeli;
- aralash turdagi portfellar: qimmatli qog‘ozlar va kolleksiyalar portfeli: qimmatli qog‘ozlar, qimmatbaho metallar va kolleksiyalar portfeli va boshqalar.

Investitsiya portfelining shakli doimiy bir xil bo‘lmaydi, bozor holati va korxona maqsadlarining o‘zgarishiga qarab o‘zgarib turadi. Investor o‘z strategiyasidan kelib chiqqan holda investitsiya portfelini shakllantiradi. Konservativ investor o‘z mablag‘ini inflyatsiyadan himoya qilish maqsadida yuqori ishonchli, lekin kam daromadli bo‘lgan davlat qimmatli qog‘ozlarini va barqaror emitentlarning qimmatli qog‘ozlarini sotib oladi. Agressiv investorning maqsadi esa, spekulyativ xarakterga ega bo‘ladi. SHuning uchun u venchurli kompaniyalarning va uncha katta bo‘lmagan emitentlarning qimmatli qog‘ozlarini sotib oladi. Ushbu qimmatli qog‘ozlar yuqori riskli bo‘lsada juda jozibador hisoblanadi va yuqori daromad olish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi korxonalari investitsiya operatsiyalarining obyekti va investitsiya portfelining tarkibi aksiyalar, obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, depozit sertifikatlari, veksellar, hosila qimmatli qog‘ozlari va boshqa aktivlardan iborat bo‘ladi.

Barcha investitsiya jarayonlari investor tomonidan investitsiyalarga tegishli qaror qabul qilishdan iborat bo‘lib, ularni beshta bosqichdan iborat bo‘lgan investitsiya hajmlari va muddatlari aniqlanadi.

- investitsiyalash siyosatini tanlash;
- bozor tahlili;
- portfelni shakllantirish;
- portfelni qayta ko‘rib chiqish;
- portfelning samaradorligini baholash.

Birinchi bosqich - investitsiyalash siyosatini tanlash (investment policy) investor maqsadini va investitsiyalashtirilayotgan mablag‘lar hajmini aniqlashdan iborat. Ratsional investitsiya strategiyalari uchun tavakkal va daromadlilik o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa mavjudligi tufayli «katta pul qilish» maqsadini tanlash kerak emas. Bu o‘rinda katta foyda olishga intilish katta yo‘qotishlarga olib kelishi mumkinligini anglab yetmoq lozim. Investitsiyalash maqsadlari daromadlilik va riskni hisobga olgan holda ta’riflanishi zarur. Investitsiyalash jarayonining bu bosqichi asosiy portfelga kiritilishi kerak bo‘lgan moliyaviy instrumentlarni tanlovi bilan yakunlanadi.

Investitsiya jarayonining qimmatli qog‘ozlar tahlili sifatida ma’lum bo‘lgan ***ikkinchi bosqichi*** (security analysis) qimmatli qog‘ozlarning ayrim turlarini yuqorida ko‘rsatilgan asosiy kategoriyalar doirasida o‘rganib chiqishni o‘z ichiga oladi. Bunday tadqiqotning maqsadlaridan biri ayni chog‘da noto‘g‘ri baholangan qimmatli qog‘ozlarni aniqlashdan iboratdir. Qimmatli qog‘ozlarni tahlili yuzasidan ko‘plab yondoshuvlar mavjud. Lekin bunday yondoshuvlarning katta qismi ikki asosiy yo‘nalishga tegishlidir. Birinchi yo‘nalish texnik tahlil (technical analysis), ikkinchisi esa-fundamental tahlil (fundamental analysis) deb nomlanadi.

Texnik tahlil o‘zining oddiy shakliga ko‘ra aniq korxona aksiyalari kursi o‘sishini oldindan belgilash maqsadida aksiyalar kursi konyunkturasini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Dastlab takrorlanuvchi yo‘nalishlar yoki kurslar dinamikasidagi turkumlarni aniqlash maqsadida o‘tgan davrdagi kurslar tadqiq etiladi. Keyinchalik esa ilgari kuzatilgan bir xil joriy yo‘nalishlarni aniqlash uchun aksiyalarning keyingi davr kurslari tahlil qilinadi. Mavjud yo‘nalishlarning avvalgisi bilan bunday qiyoslanishi narxlar trendlarining vaqti-vaqti bilan takrorlanib turishi bilan bog‘liq ehtimoldan kelib chiqadi. SHunday qilib, tahlilchi joriy yo‘nalishlarni aniqlab olib, ko‘rilayotgan aksiyalarning kelgusidagi kurslari dinamikasining istiqbolini aniqlab berishga umid qiladi.

Fundamental tahlil istalgan moliyaviy aktivning «sof» (yoki ichki) qiymati aktiv egasi kelgusida olishni umid qilayotgan naqd pul barcha oqimning keltirilgan qiymatiga tengligidan kelib chiqadi. Bunga muvofiq tahlilchi tushish vaqtini va shu naqd pul oqimi hajmini aniqlashga harakat qiladi, keyin esa diskontlashning tegishli stavkasidan foydalangan tarzda ularning keltirilgan narxini hisoblaydi.

Investitsiya jarayonining ***uchinchi bosqichi*** - potfelni shakllantirishdir (portfolio construction), mablag‘ qo‘ymoq uchun aniq aktivlarni, shuningdek, investitsiyalashtirilayotgan kapitalni aktivlar orasida taqsimlash proportsiyasini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Bunda investor selektivlilik, operatsiya vaqtini tanlash va diversifikatsiya muammosiga duch keladi. Selektivlilik (selectivity), «mikroistiqbolni belgilash» deb nomlanib, u qimmatli qog‘ozlarning tahliliga

tegishlidir hamda ayrim turdagi qimmatli qog‘ozlar narxlarining o‘sishini oldindan belgilash bilan bog‘liqdir. Operatsiyalar muddatini tanlash (timing) yoki makroistiqbolni belgilash, aksiyalar narxlarini aniqlangan daromadlari (obligatsiyalar) bilan fond vositalari uchun belgilangan baholarni qiyoslash bo‘yicha o‘zgarib borishini avvaldan aniqlashni o‘z ichiga oladi. Diversifikatsiya (diversification) tavakkalni belgilangan cheklashlarda kamaytirgan tarzda investitsiya portfelini shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Investitsiya jarayonining ***to‘rtinchi bosqichi*** - portfelni qayta ko‘rib chiqish bo‘lib, u avvalgi uchta bosqichning vaqti - vaqtida takrorlanishi bilan bog‘liqdir. Ya’ni oradan biroz vaqt o‘tib investitsiyalash maqsadlari o‘zgarishi mumkin, natijada joriy portfel o‘z samaradorligini yo‘qotadi. Bu o‘rinda investorga yangi portfelni shakllantirishi, unga mavjud qimmatli qog‘ozlarning bir qismini hamda ayrim yangilarini sotib olib kiritishi kerak bo‘ladi. Qimmatli qog‘ozlar kursining vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi ham bunga asos bo‘lishi mumkin. Portfelni qayta ko‘rib chiqish xususidagi qaror boshqa omillardan tashqari transaktsion tutilishlar miqdori (tutib qolishlar) va qayta ko‘rib chiqilgan portfel daromadliligining kutilayotgan o‘sishi bilan bog‘liqdir.

Investitsiya jarayonining ***beshinchi bosqichi***- portfel samaradorligini baholash bo‘lib, u vaqti - vaqti bilan olingan daromadni hamda sarmoyador to‘qnash kelgan tavakkal ko‘rsatgichlarini baholashni o‘z ichiga oladi. Bunday hollarda daromadlilik va tavakkalning o‘ziga mos bo‘lgan ko‘rsatkichlaridan hamda qiyoslash uchun tegishli standartlardan foydalanish kerakdir.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlarida, shuningdek, O‘zbekistonda ham qimmatli qog‘ozlarni tahlil qilishda ko‘pincha fundamental tahlil unsurlaridan foydalanadi. Uni o‘tkazish maqsadi ham investorning maqsadi singari xilma-xil bo‘ladi. Bu investor uchun kelajakda o‘z mablag‘larini saqlab qolish va ko‘paytirish uchun xizmat qiladi. Korxona faoliyatini moliyaviy tahlil qilishning turli xil yo‘llari mavjud. Agar bunday tahlil yaxshi natijalar beradigan bo‘lsa, birinchi qarashda yashirinib yotgan, «suv ostidagi toshlar» ni aniqlash imkonini beradigan chuqurlashtirilgan, nihoyatda batafsil bo‘lgan usul vositasida tadqiqotni davom ettirish mumkin bo‘ladi.

Korxonalar tomonidan har hisobot davrda tayyorlanadigan va tegishli idoralarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobot hujjatlari tadqiqot o‘tkazish uchun olinadigan materiallar bo‘lib xizmat qilishi mumkin, bular:

- «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl);
- «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl);
- «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl);
- «Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» (5-sonli shakl);
- izohlar, hisob-kitoblar, tushuntirishlar va statistik hisobot shakllari.

SHunday qilib, texnik va fundamental tahlil bozorlarning paydo bo‘lish omili, aytish mumkinki ularning normal faoliyat yuritishlari uchun sharoit sifatida ko‘rinadi. Agar rivojlangan bozor bo‘lmasa, texnik va fundamental tahlilni tadbiq etishning sharoitlari ham bo‘lmas edi. Bu faktga, ya’ni Respublikada keyingi davrga qadar bozorning texnik va fundamental tahlili usullarini amalda ishlab chiqishga va qo‘llashga yetarli e’tibor berilmadi.

Korxonalar investitsion qaror qabul qilgandan so‘ng o‘z maqsadlaridan kelib chiqqan holda investitsiyalarni shakllantirishni boshlaydi.

3-§. Moliyaviy investitsiyalar bilan bog‘liq operatsiyalar hisobi

Moliyaviy investitsiyalarni xarid qilish chog‘ida ular xarid qiymati bo‘yicha baholanadi va bu qiymatga brokerlar xizmati uchun to‘langan haq, bank xizmati uchun to‘lovlar, bojlar va boshqa xarajatlar kiritiladi.

Agar investitsiya aksiyalarni emissiya qilish yoki boshqa qimmatli qogozlar chiqarish yo‘li bilan to‘laligicha yoki qisman olinayotgan bo‘lsa, u holda xarid qiymati chiqarilgan qimmatli qogozlarning joriy qiymatiga teng bo‘ladi, ya’ni qimmatli qogozlarning nominal qiymatiga teng bo‘lmaydi. Agar investitsiya boshqa aktivga almashtirib to‘la yoki qisman olingan bo‘lsa, u holda investitsiya qiymati topshirilgan aktivning joriy qiymatiga qarab aniqlanadi.

Moliyaviy investitsiyalarni olingan paytgacha bo‘lgan davr uchun foizlar ulushi, hisoblangan dividendlarni o‘z ichiga olgan xarid qiymati bo‘yicha xarid qilish xaridor tomonidan sotuvchiga to‘langan foizlar miqdorini chiqarib tashlab, xarid qiymati bo‘yicha hisobga olinadi.

Investitsiyalarning xarid qiymati bilan qarzga berilgan qimmatli qogozlarni to‘lash qiymati o‘rtasidagi tafovut (diskont yoki xarid qilish chogida mukofot tarzida berilgan mablag) investor tomonidan investitsiyalar bo‘yicha doimiy daromad bo‘lishi uchun xarid qilingan paytdan boshlab qarz to‘langan paytgacha hisobdan o‘chiriladi.

Uzoq muddatli aktivlar sifatida tasnif etilgan investitsiyalar buxgalteriya balansida:

- xarid qiymati bo‘yicha;
- qayta baholashni hisobga olgan qiymat bo‘yicha;
- xarid qiymati va bozor qiymatining umumiy investitsiyalar usuli bo‘yicha aniqlangan eng kam bahosi bo‘yicha hisobga olinadi.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni qayta baholash uchun qayta baholashning amalga oshirish davriyligini, shu jumladan uzoq muddatli investitsiyalar toifalarini aniqlash zarur.

Balans qiymatining vaqtincha pasayishini istisno etgan holda investitsiyalar qiymati kamaygan taqdirda barcha uzoq muddatli investitsiyalarning balans qiymati kamaytiriladi. Bundan kamaytirish har bir moliyaviy qo‘yilma bo‘yicha aniqlanadi va tayyorlanadi.

Uzoq muddatli investitsiyalar xarid qiymati bo‘yicha hisobga olinadi. Uzoq muddatli investitsiyalarning qiymati muqarrar kamayib borgan taqdirda bu investitsiyalarning balans qiymati har bir investitsiya bo‘yicha alohida kamaytirilishi lozim. Bunday hollarda xatarning turlari, investitsiya qilinayotgan subyektda investorning ulushi e’tiborga olinadi.

Uzoq muddatli investitsiyalar balans qiymatining vaqtincha pasayishi hisobda aks ettirilmaydi.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni qayta baholash natijasida paydo bo‘lgan qo‘shimcha baholash miqdori xususiy kapitalga qayta baholashdan kelgan daromad sifatida qo‘shiladi. Moliyaviy investitsiyalar qiymati kamaygan taqdirda kamaytirish xususiy kapitalda aks ettirilgan o‘sha investitsiyalarni baholash qiymati hisobidan amalga oshiriladi. Agar moliyaviy investitsiyalar qiymatini kamaytirish miqdori qayta baholashdan olingan daromad miqdoridan ko‘p bo‘lsa, bu tafovut xarajat sifatida hisobga olinishi lozim. Qiymati pasaytirilgan investitsiyalarni qo‘shimcha baholash miqdori shu investitsiyalardan kelgan zarar qoplangandan so‘ng xususiy kapital ko‘payishiga kiritiladi.

Qisqa muddatli (joriy) aktivlar sifatida tasnif qilingan investitsiyalar buxgalteriya balansida:

- bozor qiymati;
- xarid qiymati va bozor qiymati kabi ikki qiymatning eng kami bo‘yicha hisobga olinishi kerak.

Agar qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar xarid va bozor qiymatlaridan eng kam

baholanish bo‘yicha hisobga olinadigan bo‘lsa, balansdagi qiymati umuman barcha investitsiyalar qiymati asosida yoki investitsiyalar turlari bo‘yicha yoxud alohida investitsiyalar asosida aniqlanadi.

Qisqa muddatli investitsiyalar bozor qiymatining o‘zgarishidan keladigan daromad yoki zarar shu daromad yoki zarar sodir bo‘lgan hisobot davrida tan olinadi.

12-son BHMS ga asosan amaliyotda qimmatli qog‘ozlar bir necha ko‘rinishdagi qiymatga ega bo‘lishi mumkin: bozor qiymati (kurs bo‘yicha); nominal qiymat; emissiya qiymati; balans qiymati (haqiqiy tannarx); bekor qilinish qiymati; garov qiymati; iste’mol qiymati.

Bozor (kurs bo‘yicha) qiymati - qimmatli qog‘ozning pul ifodasidagi yoki tegishli ekvivalentlardagi (foizda nominalga nisbatan) qiymati. Bu qiymat bo‘yicha qimmatli qog‘oz ma’lum bir belgilangan vaqt oraliqda ochiq bozorda sotib oluvchi to‘lashga rozi bo‘lgan, sotuvchi esa shu narxga sotishga rozi bo‘lgan narxni bildiradi, bunda sotib oluvchi ham, sotuvchi ham mazkur bitimning ahamiyatli tomonlari bo‘yicha yetarli ma’lumogga ega bo‘ladilar.

Nominal qiymat - qimmatli qog‘oz blankida ko‘rsatilgan qiymat va qimmatli qog‘ozlarning bozordagi aylanuviga ahamiyatli hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi. Bu qiymat faqat ma’lumot sifatida kapital ulushi yoki qarzni miqdorini ko‘rsatadi.

Emission qiymat - bu qiymat bo‘yicha qimmatli qog‘oz birlamchi bozorda sotiladi. Nominal va emission qiymatlar orasidagi farq qimmatli qog‘ozlarni tarqatuvchi diler firmalarining xizmatlari bilan bog‘liq. Dilerlar qimmatli qog‘ozlarni emitentdan nominal qiymati bo‘yicha sotib oladilar va investorlar orasida emission qiymat bo‘yicha sotadilar.

Balans qiymati - bu qimmatli qog‘ozni xarid qilishda sarf qilingan haqiqiy xarajatlar qiymati. Bu qiymat moliyaviy hisobot hujjatlari asosida aniqlanadi.

Bekor qilish (likvidatsiya) qiymati - bitta qimmatli qog‘ozga to‘g‘ri keladigan real (mavjud) mulkni haqiqiy sotuv narxdagi qismining qiymati.

Garov qiymati - bu qimmatli qog‘ozlarning qarz va kreditlar olinganda garov sifatida hisobga olinadigan qiymati. Garov qiymati deb, asosan qimmatli qog‘oz garovga berilishi mumkin bo‘lgan kreditning maksimal summasiga aytiladi.

Iste’mol qiymati - bu kurs qiymatining ortishi natijasida keltirilgan foyda.

Qimmatli qog‘oz (aksiya va obligatsiya) larga qilingan investitsiyalarni hisob usullarini ko‘rib chiqamiz. Qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarni buxgalteriya hisobini bir nechta o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishlarga bo‘lib chiqish mumkin:

- xarid qilish qiymatini shakllantirish;
- jalb qilingan moliyaviy qo‘yilmalarni baholash uslubini aniqlash;
- hisob qiymatini shakllantirish;
- qayta baholash masalalari;
- balansdan chiqarish uslubi va ular bilan bo‘lgan operatsiyalarning moliyaviy natijalarini shakllantirish.

Qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish qiymatini shakllantirish katta ahamiyatta ega bo‘ladi, chunki xarid qilish qiymatiga kiritiladigan xarajatlar tarkibiga nisbatan ularning hisob qiymati ham va nihoyat moliyaviy natija ham aniqlanadi. Bunday xarajatlar faqat qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha xarajatlarni o‘z ichiga olishi kerak. Bu xarajatlarning asosiy qismi sotuvchiga to‘lanadigan qimmatli qog‘ozning qiymati hisoblanadi. Bularga mazkur operatsiyani amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan, ya’ni qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish bilan

bog‘liq bo‘lgan operatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha xarajatlarni kiritish kerak. Mavjud bo‘lgan me’yoriy asos qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish qiymatiga ta’sir ko‘rsatadigan xarajatlar tarkibini yetarli darajada aniq belgilab beradi. Investor bunday xarajatlarni aniqlab, xaridining haqiqiy qiymatini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Keyingi bosqich qimmatli qog‘ozlarning nominal qiymatini haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslashdan iborat. Qimmatli qog‘ozlarni buxgalteriya hisobining hisobvaraqlariga kirim qilishda savol tug‘iladi: qimmatli qog‘ozlarni hisobga qanday bahoda qabul qilish kerak? Bu yerda qimmatli qog‘ozlarni hisobda ifodalashni xalqaro standartlarini o‘z ichiga olgan xalqaro amaliyotni ham, milliy qonunchilikni ham ko‘rib chiqish zarur. Natijada qimmatli qog‘ozlarni hisobda ifodalashga imkoniyat yaratadigan yagona uslubiy asosni yaratmoq darkor. Investorlarning bozordagi faoliyati va maqsadlari bo‘yicha farq qiladigan turli ko‘rinishdagi qimmatli qog‘ozlarni hisobda aks ettirish uslubiyotining birlashuvi investitsion portfelni tahlil qilishga yagona yondoshish va foydalanuvchilarni o‘z vaqtida va obyektiv ma’lumot bilan ta’minlash imkoniyatini yaratadi.

Investor qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalarni 21-son BHMSga asosan ifodalaydi va qimmatli qog‘ozlarni qiymatini avvalambor sotib olish qiymatida va sotish davrigacha ularni narxini nominal narxgacha yetkazadi. SHuningdek, schyotlardagi qimmatli qog‘ozlar qiymatini o‘zgarish mezonlarini aniqlab olish zarur bo‘ladi.

Ammo, 12-son BHMS da asosiy mezonlardan biri ehtiyotkorlik tamoyili bo‘lib, u qimmatli qog‘ozlarni mavjud baholardan «eng kami» va «haqiqiy bozor qiymati» bo‘yicha hisobga olish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

12-son BHMS dan kelib chiqqan masala qimmatli qog‘ozlarni kamida ikkita bahoda hisobda aks ettirish zaruriyatidan iborat: aksiyalar uchun - bu xarid qilishning haqiqiy qiymati va joriy bozor bahosi. Aksiyalar uchun haqiqiy xarid bahosi nominal bahoga nisbatan muhimroq ko‘rsatkich hisoblanadi, chunki aksiya odatda muddatsiz qimmatli qog‘oz bo‘ladi va uning nominal qiymati - bu faqat oldindan avanslangan kapital miqdoridir. Ta’kidlash joizki, aksiyalarning bozor qiymati ularning emissiyasidan keyingi emitentning nizom kapitali bilan juda ham bog‘liq emas.

Obligatsiyalar uchun esa bu - nominal qiymat va joriy bozor bahosi. Obligatsiyalarni muomalada bo‘lishi ularning nominal qiymati bilan bog‘liq, negaki ularning qoplanish muddati yaqinlashgani sari (boshqa shart-sharoitlar o‘zgarmagan holda, masalan, emitentning barqarorligi va h.k.) uning bozor qiymati nominalga yaqinlashib boradi. Aksiya va obligatsiyalar uchun ikki baho bo‘lishining muhimligi tahlil qilish va boshqarish masalalari bilan bog‘liq - ular orasidagi farq ma’lum vaqt mobaynida amalga oshirilmagan daromad miqdorining mohiyatidan iborat. SHunday qilib, tadqiqot natijasida qimmatli qog‘ozlar qiymatini uch xil bahoda ifodalash asoslangan: haqiqiy, nominal va bozor qiymatlarida.

Xalqaro amaliyot qimmatli qog‘ozlar hisobi uchun ikki xil bahoni qo‘llanilishini belgilab beradi: eng pastki haqiqiy tannarx yoki bozor qiymati bo‘yicha.

Eng past qiymat bo‘yicha baholash usuli hisobotda xarid qilishning haqiqiy qiymati yoki joriy bozor narxlarini qay biri kichik bo‘lsa, ana shunisi orqali aks ettirishni ko‘zda tutadi. Mazkur baholash usuli ham xarid qilingan qarzli qimmatli qog‘ozlarni nominal qiymatini aniqlashga imkon bermaydi va aksiyalarning investorga tegishli bo‘lgan qismida emitent-kompaniyani xususiy kapitali miqdorini aniqlab bera olmaydi.

Qimmatli qog‘ozlarni har birini xarid qiymati bo‘yicha baholash usuli qo‘llaniladi va ularni

xarid qilish mobaynida yuzaga kelgan haqiqiy tannarxini nominal bahoga keltirib hisobdan chiqarish tushuniladi.

Mulkchilikning turli shaklidagi korxonalarda qimmatli qog‘ozlarning buxgalteriya hisobi bo‘yicha operatsiyalar yagona (umumiy) tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim. Qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy investitsiyalarning hisobi qimmatli qog‘ozlarning qoplanish muddati, ularning turi (iqtisodiy mazmuni), hisob-kitob shakllari, qimmatli qog‘ozlarni sotib olish uchun manba v boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi.

21-son BHMS ga muvofiq boshqa korxonalarning qimmatli qog‘ozlariga, mamlakat hududida va xorijda tuzilgan sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlari va boshqa korxonalarning ustav kapitallariga qilingan uzoq muddatli investitsiyalar (qo‘yilmalar)ning mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 0610 «Qimmatli qog‘ozlar»;

- 0620 «Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar»;

- 0630 «Qaram xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar»;

- 0640 «Chetel kapitali mavjud bo‘lgan korxonalarga investitsiyalar»;

- 0690 «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar».

- 0610 «Qimmatli qog‘ozlar» schyotida davlat foizli obligatsiyalari va mahalliy qarzlar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarga qilingan uzoq muddatli investitsiya (quyilma)larning mavjudligi va harakati hisobga olinadi.

- 0620 «Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar», 0630 «Qaram xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar», 0640 «Chetel kapitali mavjud bo‘lgan korxonalarga investitsiyalar» schyotlarida tegishli chetel kapitali mavjud bo‘lgan sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga qilingan uzoq muddatli investitsiyalarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi.

- 0690 «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» schyotida kelajakda moliyaviy naf olish maqsadida davlat korxonalari yoki boshqa xayriya, ekologiya jamiyatlariga qilingan uzoq muddatli investitsiyalar hisobga olinadi.

Aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar xarid qilish qiymatida 0610 «Qimmatli qog‘ozlar» schyotining debetida ushbu qo‘yilmalar hisobiga berilgan qiymatliklar hisobga olinadigan schyotlar bilan bog‘langan holda hisobga olinadi.

Korxona tomonidan uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar uchun mablag‘lar o‘tkazilsa, lekin hisobot davrida korxonaga ularga egalik huquqini beruvchi tegishli hujjatlar (aksiyalar, obligatsiyalar, boshqa korxonalarga o‘tkazilgan qo‘yilmalar summasiga guvohnomalar va boshqalar) olinmasa, bular 0610 «Qimmatli qog‘ozlar» schyotida alohida ko‘rsatiladi. Agarda, korxonalar tomonidan xarid qilingan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa shunga o‘xshash qimmatli qog‘ozlar to‘liq qiymati nominal qiymatidan yuqori bo‘lsa, u holda har safar ularga to‘g‘ri keladigan daromad hisoblanganda xarid qilish va nominal qiymatlar orasidagi farqi quyidagicha buxgalteriya yozuvlari orqali hisobdan chiqariladi:

debet 9690 «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar»,

kredit 0610 «Qimmatli qog‘ozlar».

Agarda, korxona tomonidan xarid qilingan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa shunga o‘xshash qimmatli qog‘ozlarning xarid qiymati ularning nominal qiymatidan past bo‘lsa, u holda har safar ularga daromad hisoblanganda xarid qilish va nominal qiymatlar orasidagi farqning bir qismi qayta hisoblanadi (to‘ldiriladi) va quyidagicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

debet 0610 «Qimmatli qog‘ozlar»,

kredit 9590 «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa daromadlar».

Yuqorida ko‘rsatilgan har ikkala holatda ham qimmatli qog‘ozlarni qoplash muddati kelganda

0610 «Qimmatli qog‘ozlar» schyotida hisobga olingan baho nominal qiymatga to‘g‘ri kelishi lozim.

0610 «Qimmatli qog‘ozlar», 0620 «Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar», 0630 «Qaram xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar», 0640 «Chetel kapitali mavjud bo‘lgan korxonalarga investitsiyalar», 0690 «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» schyotlar bo‘yicha analitik hisob uzoq muddatli investitsiyalarning turlari va ushbu investitsiyalar amalga oshirilgan obyektlar (qimmatli qog‘ozlarni sotuvchi-korxonalar, korxona ishtirokchisi hisoblangan sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlari va shu kabilar) bo‘yicha yuritiladi. Bunda analitik hisobning tashkil qilinishi O‘zbekiston Respublikasi hududi va xorijdagi obyektlarga qilingan uzoq muddatli investitsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish imkoniyatini ta’minlashi lozim.

21-son BHMS ga muvofiq, korxonaning boshqa korxonalar qimmatli qog‘ozlariga qilingan qisqa muddatli (bir yil muddatdan ko‘p bo‘lmagan) investitsiyalari (qo‘yilmalar) davlat qarzlarining foizli obligatsiyalari, boshqa korxonalarga berilgan qarzlar va boshqalarning naqdligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 5810 «Qimmatli qog‘ozlar»;

- 5820 «Berilgan qisqa muddatli qarzlar»;

- 5890 «Boshqa joriy investitsiyalar».

- 5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyotida aksiyalarga, davlat qarzlarining foizli obligatsiyalariga va boshqa qimmatli qog‘ozlariga qo‘yilgan qisqa muddatli investitsiyalarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi. Aksiyalar, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar 5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyotiga sotib olish qiymatida kirim qilinadi.

Korxonada aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlarning sotib olinishi 5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyotining debetida va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar va agar qimmatli qog‘ozlar uchun to‘lov moddiy yoki boshqa qiymatliklar (pul mablag‘laridan tashqari) orqali amalga oshirilsa, moddiy va boshqa qiymatliklarning sotilishini hisobga oluvchi schyotlarning kreditida hisobga olinadi.

Agar sotib olingan obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlarning sotib olish bahosi ularning nominal qiymatidan farq qilsa, u holda sotib olish va nominal qiymati o‘rtasidagi farq shunday hisobdan chiqarilishi yoki qo‘shimcha hisoblanishi kerakki, 5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyotida hisobga olingan qimmatli qog‘ozlarning bahosi ularni qoplash davrida nominal qiymatiga muvofiq bo‘lishi lozim. Sotib olish va nominal qiymati o‘rtasidagi farq qoplanadigan vaqtgacha bo‘lgan davrda quyidagicha aks ettiriladi:

- qo‘shimcha hisoblashda:

debet 5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyoti;

kredit 9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari»;

- hisobdan chiqarishda:

debet 9690 «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar» schyoti;

kredit 5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyoti.

5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyotida hisobga olingan obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlarning qoplanishi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debeti va 5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyotining kreditida aks ettiriladi.

- 5820 «Berilgan qisqa muddatli qarzlar» schyotida korxonaning boshqa korxonalarga qisqa muddatga bergan pulli va boshqa qarzlarining harakati hisobga olinadi.

Berilgan qarzlar 5820 «Berilgan qisqa muddatli qarzlar» schyotining debetida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Qarzlarning qaytarilishi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debeti va 5820 «Berilgan qisqa muddatli qarzlar» schyotining kreditida aks ettiriladi.

- 5890 «Boshqa joriy investitsiyalar» schyotida korxonalarning bank va boshqa omonatlarga so‘mdagi va chetel valyutasidagi qo‘yilmalarining harakati hisobga olinadi.

Omonatlarga pul mablag‘larining o‘tkazilishi korxonalarda 5890 «Boshqa joriy investitsiyalar» schyotining debetida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Hisobda bank tomonidan omonatlar summasi qaytarilganda korxonada teskari yozuv amalga oshiriladi.

5810 «Qimmatli qog‘ozlar», 5820 «Berilgan qisqa muddatli qarzlar», 5890 «Boshqa joriy investitsiyalar» schyotlar bo‘yicha analitik hisob qisqa muddatli investitsiyalarning turlari va ushbu qo‘yilmalar amalga oshirilgan obyektlar (qimmatli qog‘ozlarni sotuvchi-korxonalar, omonatlar va h.k.lar) bo‘yicha yuritiladi. Bu holda analitik hisobni amalga oshirish mamlakat hududi va undan tashqaridagi obyektlarga qilingan qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar tug‘risidagi ma’lumotlarni olish imkoniyatini ta’minlashi kerak.

Moliyaviy investitsiyalar bo‘yicha quyidagi ko‘rinishdagi daromadlar va xarajatlar:

- uzoq muddatli va joriy investitsiyalar bo‘yicha foizlar, royalti, dividendlar;
- qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalarni sotishdan keladigan daromadlar va zararlar;
- bozor qiymati bo‘yicha hisobga olingan qisqa muddatli (joriy) moliyaviy investitsiyalar bo‘yicha amalga oshmagan daromadlar va zararlar;
- xarid qiymati va bozor qiymati kabi ikki qiymatning eng kami bo‘yicha baholangan qisqa muddatli moliyaviy investitsiya berish uchun talab qilinadigan, bozor qiymatining kamaytirilishi va bunday kamaytirishni qaytadan tiklash.

Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foizlar (dividendlar) hisoblanganda 4830 «Olinadigan foizlar» yoki 4840 «Olinadigan dividendlar» schyotining debeti va 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» yoki 9520 «Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyotlarining krediti bo‘yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Moliyaviy investitsiyalar bo‘yicha daromadlar hisoblanganda (olinadigan daromad miqdorida) buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- moliyaviy investitsiyalar bo‘yicha olinadigan foizlar summasiga:

debet 4830 «Olinadigan foizlar»;

kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar»;

- moliyaviy investitsiyalar bo‘yicha olinadigan dividendlar summasiga:

debet 4840 «Olinadigan dividendlar»;

kredit 9520 «Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar».

Uzoq muddatli investitsiyalar muomalasini mantiqiy yakuni bu ularni sotilishi yoki qoplanishidir (so‘ndirilishi). Bu yerda qimmatli qog‘ozning egasi yana bir bor ularni sotish bilan bog‘liq xarajatlarni aniqlash muammosiga duch keladi. Bundan tashqari, qimmatli qog‘ozlar bozori ularni doimiy muomalasini nazarda tutadi. Demak, investor bir emitentni bir xil qog‘ozlarini har xil vaqt oralig‘ida xarid qilishi mumkin, bu o‘z navbatida bir xil qog‘ozni har xil bozor qiymatiga ega bo‘lishiga olib keladi, shuningdek uning haqiqiy qiymatiga ta’sir etuvchi xarajatlar turlicha bo‘ladi. Demak, qimmatli qog‘ozlarni sotishda balansdan qaysi qiymatda chiqarish kerak degan savol tug‘iladi?

Moliyaviy investitsiyalarni sotish chog‘ida sotishdan tushgan mablag‘ bilan balans qiymati o‘rtasidagi tafovut xarajatlar (broker yoki diler xizmati haqi) chiqarib tashlangandan so‘ng daromad yoki xarajat sifatida e’tirof etiladi.

Agar qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar balansda xarid qiymati yoki bozor qiymatidan

iborat ikki qiymatning eng kami bo‘yicha hisobga olingan bo‘lsa, ularni sotish chog‘ida daromad yoki zarar sotish narxi bilan xarid narxi o‘rtasida tafovut sifatida aniqlanadi.

Agar investitsiya ilgari qayta baholangan yoki bozor qiymati bo‘yicha hisobga olingan, balans qiymati esa qo‘shimcha baholash qiymatini hisobga olgan holda ko‘paytirilgan bo‘lsa, korxona hisob siyosatini tasdiqlashi yoki qo‘shimcha baholashdan keladigan miqdorni daromadni kreditlashi yoxud uni taqsimlanmagan foyda hisobiga o‘tkazishi lozim.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni qisqa muddatli (joriy) investitsiyalarga o‘tkazish ikki qiymatdan eng kami bo‘yicha: xarid qiymati bilan balans qiymatining eng kami bo‘yicha, agar qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar ikki qiymatning eng kami bo‘yicha hisobga olinadigan bo‘lsa: xarid qiymati bilan bozor qiymatining eng kami bo‘yicha amalga oshiriladi.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar ilgari qayta baholangan bo‘lsa, ularni qisqa muddatli (joriy) investitsiyalar toifasiga o‘tkazish chog‘ida va bu qisqa muddatli (joriy) moliyaviy investitsiyalar bozor qiymati bo‘yicha hisobga olingan bo‘lsa, qayta baholash qiymati balans qiymatidan chiqarib tashlanishi kerak.

Agar qisqa muddatli investitsiyalar bozor qiymatidagi o‘zgarish daromadga kiritiladigan bo‘lsa, qo‘shimcha baholashning qolgan har qanday miqdori daromadga o‘tkazilishi kerak.

Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalarni uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar toifasiga o‘tkazish xarid qilish qiymati va bozor qiymatidan eng kami bo‘yicha yoki agar investitsiya ilgari shu qiymat bo‘yicha hisobga olingan bo‘lsa, bozor qiymati bo‘yicha amalga oshiriladi.

Uzoq muddatli investitsiyalarni balansdan chiqarilishi (so‘ndirilishi, sotib olinishi va sotilishi) ularning balans qiymati 9220 «Boshqa aktivlarni hisobdan chiqishi» schyotining debetida va uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (0600) ning kreditida aks ettiriladi.

Moliyaviy investitsiyalarni balansdan chiqarilganda (so‘ndirilgada, sotib olinganda va sotilganda) ularning qiymati pul mablag‘lari yoki tovar-moddiy qiymatliklar (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy zaxiralar va boshqa aktivlar) bilan qoplanishi mumkin.

Olinayotgan tovar-moddiy qiymatliklar (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy zaxiralar va boshqa aktivlar) ning qiymati summasidan yuqori bo‘lgan hollarda, farq moliyaviy investitsiya egasi (ta’sischilar tarkibidan chiqib ketayotgan ta’sischi) tomonidan qoplanadi.

Moliyaviy investitsiya (boshqa korxonaning ustav kapitalidagi ulushi bo‘yicha qarz) summasi olinayotgan tovar-moddiy qiymatliklar (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy zaxiralar va boshqa aktivlar) ning qiymati yuqori bo‘lgan hollarda, farq berayotgan korxona tomonidan qoplanadi.

Uzoq muddatli investitsiyalarni qiymati tovar-moddiy qiymatliklar bilan qoplanishi bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «1-bob. Asosiy vositalar hisobi» va «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

4-§. Korporativ obligatsiyalar bilan bog‘liq operatsiyalar hisobi

«Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga muvofiq, qimmatli qog‘ozlar deb ularni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydigan, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadigan hujjatlar tan olinadi. Qimmatli qog‘ozlarning qiymati O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi. Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va joylashtirish ularni emissiyasi deb nomlanadi.

Obligatsiya deb obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan obligatsiyada nazarda tutilgan muddatda olishga, obligatsiyaning nominal qiymatidan qayd etilgan foizni olishga bo‘lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlovchi emissiyaviy qimmatli qog‘oz tushuniladi. Obligatsiyalar korporativ, infratuzilma va boshqa obligatsiyalariga bo‘linadi. ***Korporativ obligatsiyalar*** bo‘lib aksiyadorlik jamiyatlari va o‘zining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar tijorat banklari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar hisoblanadi. ***Infratuzilma obligatsiyalari*** bo‘lib ishlab chiqarish infratuzilmasini va boshqa infratuzilmani barpo etish va (yoki) rekonstruksiya qilishni moliyalashtirish uchun pul mablag‘larini jalb etish maqsadida xo‘jalik jamiyatlari va davlat korxonalari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar hisoblanadi.

Korporativ obligatsiyalar quyidagi shartlarga rioya etgan holda:

- emitentning bunday obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadagi, auditorlik tashkiloti xulosasi bilan tasdiqlangan o‘z kapitali miqdori doirasida;
- keyingi uch yilda rentabellik, to‘lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik va likvidlilikning auditorlik tashkiloti xulosalari bilan tasdiqlangan ijobiy ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mustaqil reyting bahosini olgan emitentlar tomonidan;
- investorlarga tegishli mablag‘larning emitentlar tomonidan to‘lanishi bo‘yicha to‘lov agentlari vazifasini bajaruvchi tijorat banklari ishtirokida chiqariladi.

Infratuzilma obligatsiyalari quyidagi shartlarga rioya etgan holda:

- emitentning bunday obligatsiyalar chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilingan sanadagi, auditorlik tashkiloti xulosasi bilan tasdiqlangan o‘z kapitali va chiqarilish bo‘yicha qo‘shimcha ta’minot miqdori doirasida;
- infratuzilma obligatsiyalarini joylashtirishdan olingan mablag‘lardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida nazarda tutilgan loyihani moliyalashtirish uchun foydalanilsa;
- infratuzilma obligatsiyalari bo‘yicha emitentning majburiyatlari ular to‘liq muomaladan chiqarilguniga qadar belgilangan tartibda sug‘urtalangan bo‘lsa, chiqariladi.

Obligatsiyalar ularning egalariga aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etish huquqini bermaydi.

Infratuzilma obligatsiyalarini joylashtirishdan tushgan mablag‘lar alohida bank hisobvarag‘ida jamlanadi va emitentning ulardan maqsadli foydalanilishini nazorat qiluvchi kuzatuv kengashi yoki yuqori boshqaruv organi qaroriga ko‘ra sarflanadi.

Korporativ va infratuzilma obligatsiyalar naqdsiz shaklda chiqariladi. Naqdsiz shakldagi obligatsiyalar muomalaga depozitariyning hisobga olish registrlaridagi yozuvlar tarzida chiqariladi.

Korporativ obligatsiyalar bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish korporativ obligatsiyalarni jamiyat-emitent va investor nuqtai nazaridan amalga oshiriladi.

4.2.1. Korporativ obligatsiyalar bilan bog‘liq operatsiyalarni jamiyat - emitentidagi hisobi

Obligatsiyalarni chiqaruvchi (sotuvchi) emitent - jamiyat obligatsiyalarni emissiyasi va joylashtirish bilan bog‘liq operatsiyalarni quyidagi schyotlardan foydalanib aks ettiradi:

- 0960 «Diskont (chegirma) lar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyoti obligatsiyalarni qoplanish davri davomida xarajatlarga taqsimlanadigan obligatsiyalarni nominal qiymatidan past narxda sotishdagi diskont (chegirmalar) bo‘yicha;

- 3220 «Diskont (chegirma) lar bo‘yicha kechiktirilgan xarajatlar» schyoti obligatsiyalarni qoplanish davri davomida xarajatlarga taqsimlanadigan obligatsiyalarni nominal qiymatidan past narxda sotishdagi diskont (chegirmalar) bo‘yicha;

- 6220 «Mukofot (ustama) lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar» schyoti obligatsiyalarni qoplanish davri davomida daromadlarga taqsimlanadigan obligatsiyalarni nominal qiymatidan yuqori narxda sotishdagi mukofot (ustama) lar bo‘yicha;

- 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» yoki ***7830 «To‘lanadigan obligatsiyalar»*** schyotlari – olingan summaga;

- 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» (9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari»);

- 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar».

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom»ning 3.5.-bandiga muvofiq, o‘zining qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va joylashtirish bilan bog‘liq xarajatlar, xususan qimmatli qog‘ozlar emissiya risolasini tayyorlash, varaqlar (blanklar) ni tayyorlash va xarid qilish, qimmatli qog‘ozlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va shunga o‘xshash boshqa xarajatlar moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar tarkibiga qo‘shiladi.

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom»ning 2.3.12.-bandiga muvofiq, depozitariy xizmatlariga haq to‘lash boshqa operatsion xarajatlar tarkibiga qo‘shiladi.

Obligatsiyalarni chiqarish bilan bog‘liq operatsiyalar quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettiriladi:

debet 9630 «Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bo‘yicha xarajatlar» schyoti;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki boshqa majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti.

Obligatsiyalarni nominal bo‘yicha sotish, qarz bo‘yicha foizlar hisoblash va obligatsiyalarni qoplash emitentda quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettiriladi:

- obligatsiyalarni nominal narxi bo‘yicha sotilganda kelib tushgan pul mablag‘lari summasiga aks ettiriladi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;

kredit 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» schyoti;

- qarz bo‘yicha foizlar hisoblanadi va to‘lanadi (obligatsion qarz shartlari bo‘yicha hisob-kitobda):

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;

- obligatsiyalarni qoplanishi:

debet 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» schyoti;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti.

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq, korxona tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar va boshqa qarz qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha foizlar tarzidagi xarajatlar moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar tarkibiga qo‘shiladi.

Obligatsiyalarni nominal bo‘yicha sotish, qarz bo‘yicha foizlar hisoblash va obligatsiyalarni

qoplash emitentning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib o‘tamiz. Korxona har birining nominal qiymati 100 000 so‘m bo‘lgan 1000 dona obligatsiyani joylashtiradi. Obligatsiyalar nominal qiymati bo‘yicha 12 oy muddatga, obligatsiya qiymati va yillik 20 % dan kelib chiqqan to‘lovlar bir vaqda qoplanishi sharti bilan to‘liq joylashtirilgan.

Obligatsiyalarni joylashtirish va ularni qiymati foizlar bilan birga qoplanishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- obligatsiyalarni nominal bo‘yicha joylashtirilganda kelib tushgan pul mablag‘lari summasiga:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *100 000 000 so‘m;*
kredit 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» schyoti *100 000 000 so‘m;*

- qarz bo‘yicha foizlar hisoblanadi va to‘lanadi (obligatsion qarz shartlari bo‘yicha hisob-kitobda):

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti *20 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *20 000 000 so‘m;*

- obligatsiyalarni qoplanishi:

debet 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» schyoti *100 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *100 000 000 so‘m.*

Obligatsiyalarni mukofot bilan sotish (obligatsiyalarning sotish narxi uning nominal qiymatidan yuqori) emitent tomonidan quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

- obligatsiyalarni nominaldan yuqori narxi bo‘yicha sotilganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti – kelib tushgan pul mablag‘lari summasiga;

kredit 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» schyoti - obligatsiyaning nominal summasining joriy qismiga;

kredit 7830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» schyoti - obligatsiyaning nominal summasining uzoq muddatli qismiga;

kredit 6220 «Mukofot (ustama) lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar» schyoti - mukofot (ustama)lar summasining joriy qismiga;

kredit 7220 «Mukofot (ustama)lar ko‘rinishidagi uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» schyoti - mukofot (ustama)lar summasining uzoq muddatli qismiga;

- uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlarning bir qismini joriyga o‘tkazilishi:

debet 7220 «Mukofot (ustama)lar ko‘rinishidagi uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» schyoti;

kredit 6220 «Mukofot (ustama) lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar» schyoti;

- joriy kechiktirilgan daromadlarning bir qismini hisobdan chiqarilganda (daromad hisoblanganda):

debet 6220 «Mukofot (ustama) lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar» schyoti - mukofot (ustama)lar summasiga;

kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti.

Obligatsiyalarni mukofot bilan sotish (obligatsiyalarning sotish narxi uning nominal qiymatidan yuqori) emitentning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib o‘tamiz. Korxona har birining nominal qiymati 100 000 so‘m bo‘lgan 1000 dona obligatsiyani 12 oy muddatga joylashtiradi. Obligatsiyalar 112 000 so‘m narxi bo‘yicha to‘liq joylashtirilgan. Obligatsiya qarzining sharti bo‘yicha obligatsiya qiymati va yillik 20 % (nominal qiymatdan) dan kelib chiqqan to‘lovlar bir vaqda qoplanishi nazarda tutilgan.

Obligatsiyalarni nominaldan yuqori narxlar bo‘yicha joylashtirish va ularni qiymati foizlar bilan birga qoplanishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- obligatsiyalarni nominaldan yuqori narx bo‘yicha joylashtirilganda kelib tushgan pul mablag‘lari summasiga:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *112 000 000 so‘m;*
kredit 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» schyoti *100 000 000 so‘m;*
kredit 6220 «Mukofot (ustama) lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar» schyoti *12 000 000 so‘m;*

- har oyda joriy kechiktirilgan daromadlarning bir qismini hisobdan chiqarilganda (daromad hisoblanganda):

debet 6220 «Mukofot (ustama) lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar» schyoti *1 000 000 so‘m;*
kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti *1 000 000 so‘m;*
(1 000 000 so‘m =10 000 000 so‘m / 12 oy);

- qarz bo‘yicha foizlar hisoblanadi va to‘lanadi (obligatsion qarz shartlari bo‘yicha hisob-kitobda):

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti *20 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *20 000 000 so‘m;*

- obligatsiyalarni qoplanishi:

debet 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» schyoti *100 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *100 000 000 so‘m.*

Obligatsiyalarni diskont bilan sotish (obligatsiyalarning sotish narxi uning nominal qiymatidan past) emitent tomonidan quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

- obligatsiyalarni nominaldan past narxi bo‘yicha sotilganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti – kelib tushgan pul mablag‘lari summasiga;
debet 0960 «Diskont (chegirma) lar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyoti - diskont (chegirma) lar summasining uzoq muddatli qismiga;
debet 3220 «Diskont (chegirma) lar bo‘yicha kechiktirilgan xarajatlar» schyoti - diskont (chegirma) lar summasining joriy qismiga;
kredit 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» schyoti - obligatsiyaning nominal summasining joriy qismiga;
kredit 7830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» schyoti - obligatsiyaning nominal summasining uzoq muddatli qismiga;

- uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlarning bir qismini joriyga o‘tkazilishi:

debet 3220 «Diskont (chegirma) lar bo‘yicha kechiktirilgan xarajatlar» schyoti;
kredit 0960 «Diskont (chegirma) lar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyoti;

- joriy kechiktirilgan xarajatlarning bir qismini hisobdan chiqarilganda:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti;
kredit 3220 «Diskont (chegirma) lar bo‘yicha kechiktirilgan xarajatlar» schyoti.

Obligatsiyalarni mukofot bilan sotish (obligatsiyalarning sotish narxi uning nominal qiymatidan yuqori) emitentning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib o‘tamiz. Korxona har birining nominal qiymati 100 000 so‘m bo‘lgan 1000 dona obligatsiyani 12 oy muddatga joylashtiradi. Obligatsiyalar 94 000 so‘m narxi bo‘yicha to‘liq joylashtirilgan. Obligatsiya qarzining sharti bo‘yicha obligatsiya qiymati va yillik 20 % (nominal qiymatdan) dan kelib chiqqan to‘lovlar bir vaqda qoplanishi nazarda tutilgan.

Obligatsiyalarni nominaldan past narxlar bo‘yicha joylashtirish va ularni qiymati foizlar bilan birga qoplanishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- obligatsiyalarni nominaldan yuqori narx bo‘yicha joylashtirilganda kelib tushgan pul mablag‘lari summasiga:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *94 000 000 so‘m;*

debet 3220 «Diskont (chegirma) lar bo‘yicha kechiktirilgan xarajatlar» schyoti *6 000 000 so‘m;*
kredit 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» schyoti *100 000 000 so‘m;*

- har oyda joriy kechiktirilgan daromadlarning bir qismini hisobdan chiqarilganda (daromad hisoblanganda):

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti *500 000 so‘m;*
kredit 3220 «Diskont (chegirma) lar bo‘yicha kechiktirilgan xarajatlar» schyoti *500 000 so‘m;*
(500 000 so‘m =6 000 000 so‘m / 12 oy);

- qarz bo‘yicha foizlar hisoblanadi va to‘lanadi (obligatsion qarz shartlari bo‘yicha hisob-kitobda):

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti *20 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *20 000 000 so‘m;*

- obligatsiyalarni qoplanishi:

debet 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» schyoti *100 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *100 000 000 so‘m.*

«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 32-moddasiga muvofiq, boshqa mablag‘lar mavjud bo‘lmagan taqdirda, aksiyadorlik jamiyatining korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish aksiyadorlik jamiyatining rezerv fondi hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

4.2.2. Korporativ obligatsiyalar bilan bog‘liq operatsiyalarni investordagi hisobi

Obligatsiyalarni xarid qilish xaridorda moliyaviy investitsiyalar sifatida ko‘riladi. Ular brokerlar xizmati uchun to‘langan haq, bank xizmati uchun to‘lovlar, bojlar va boshqa xarajatlar qo‘shiladigan xarid qiymati bo‘yicha baholanadi.

Agar obligatsiya to‘liq yoki qisman ularni emissiyasini amalga oshirish yo‘li bilan xarid qilanayotgan bo‘lsa, u holda xarid qiymati chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarning joriy qiymatiga teng bo‘ladi, ya’ni ularning nominal qiymatiga teng bo‘lmaydi.

Agar obligatsiya to‘liq yoki qisman ularni boshqa aktivga ayirboshlash yo‘li bilan xarid qilanayotgan bo‘lsa, u holda uning xarid qiymati berilgan aktivning joriy qiymatiga qarab aniqlanadi.

Xarid qilgungacha bo‘lgan davr uchun foizlar ulushini o‘z ichiga olgan xarid qiymati bo‘yicha obligatsiyalarni xarid qilish, sotuvchiga to‘langan foizlar miqdorini chiqarib tashlab, xarid qiymati bo‘yicha hisobga olinadi.

Obligatsiyalarni sotib olishdan maqsad ularning nominal qiymatiga qarab foiz olish, shuningdek qaytarilgandan so‘ng obligatsiyalarning nominal qiymatini olishdir. Shu boisdan obligatsiyaning haqiqiy qiymati bilan nominal qiymati orasidagi farq shunday amortizatsiyalanishi kerakki, qaytarilish vaqtida haqiqiy qiymati obligatsiyaning nominal qiymatiga teng bo‘lsin. Bunda ikki variant mavjud:

- obligatsiyani nominal qiymatidan ortiq summaga sotib olinishi. Bunday hollarda obligatsiyalar bo‘yicha foizlar sotib olingan vaqtda olingan daromad hisobidan ularning qiymatlari orasidagi farqini qisman hisobdan chiqarish yo‘li bilan haqiqiy qiymati nominal qiymatiga yetkazib qo‘yiladi;

- obligatsiyani nominal qiymatidan kam summaga sotib olinishi. Bunday hollarda obligatsiyadan foydalanish muddati ichida undan olinadigan foiz daromadini ko‘paytirish yo‘li bilan obligatsiyani qaytarish muddatigacha uning sotib olish narxi nominal qiymatiga yetkazib qo‘yiladi.

Obligatsiyalarni haqiqiy sotib olish qiymati bilan nominal qiymati orasidagi farqi, ularning muomalada bo‘lish muddati ichida bir tekisda - xo‘jalik faoliyatining natijasiga o‘tkazib boriladi. Bunda ikki variant mavjud:

- obligatsiya nominal qiymatidan ortiq summaga sotib olinishi. Bunday hollarda obligatsiyaning haqiqiy qiymati har oyda qiymatlar orasidagi farqini zararga o‘tkazish yo‘li bilan nominal qiymatiga yetkazib qo‘yiladi;

- obligatsiyani nominal qiymatidan kam summaga sotib olinishi. Bunday hollarda obligatsiyani qaytarish muddati ichida farqini bir qismini har oyda hisoblab, firmaning foydasiga o‘tkazish yo‘li bilan nominal qiymatiga yetkazib qo‘yiladi.

Uzoq muddatli obligatsiyalar bo‘yicha foiz hisoblash mumkin emas, chunki moddiylashtirilmagan foyda hosil bo‘ladi. Ehtiyotkorlik tamoyiliga binoan moliyaviy natijalarni aks ettirishda uzoq muddatli obligatsiyalar muomalalari bo‘yicha sodir bo‘lgan zararlarni foyda yoki zararlar schyotiga o‘tkazish mumkin.

Uzoq muddatli obligatsiyalarni sotib olish xarajatlari ularning nominal qiymatidan ortiq bo‘lsa, uzoq muddatli obligatsiyalar muomalalari bo‘yicha zararlar obligatsiyalarni muomalada bo‘lish muddati ichida har oyda teng qismda korxonaning zarariga o‘tkazib boriladi. Lekin bunday muomalalarning foydasi yo‘q, shuning uchun ham ularga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Uzoq muddatli obligatsiyalar ko‘pincha qirqib olinadigan talonlari bilan chiqarilib, obligatsiyalarni muomalada bo‘lgan davri ichida vaqti - vaqti bilan ular bo‘yicha foizlar to‘lanadi. Bunday hollarda obligatsiyalarni sotib olish qiymati bilan nominal qiymati orasidaga farqi har gal korxonaga daromad hisoblaganda hisobdan chiqarib boriladi. Agar obligatsiyalarni sotib olish qiymati ularning nominal qiymatidan ortiq bo‘lsa, har gal foiz hisoblanganda obligatsiyalarning nominal qiymatidan ortiq summaning bir qismiga haqiqiy daromad kamaytirib boriladi.

Agar qisqa muddatli obligatsiyalar xarid va bozor qiymatlaridan eng kam baholanish bo‘yicha hisobga olinadigan bo‘lsa, balans qiymati umuman barcha investitsiyalar qiymati asosida yoki investitsiyalar turlari bo‘yicha yoxud alohida investitsiyalar asosida aniqlanadi.

Qisqa muddatli obligatsiyalar bozor qiymatining o‘zgarishidan keladigan daromad yoki zarar shu daromad yoki zarar sodir bo‘lgan hisobot davrida tan olinadi.

Agar qisqa muddatli obligatsiyalar bozor qiymati bo‘yicha hisobga olinsa, u holda investitsiyalarning balans qiymatining kamayishi yoki ko‘payishini quyidagicha aks ettiradi:

- daromad yoki xarajat sifatida;

- xususiy kapital tarkibida qayta baholashdan daromad sifatida. Moliyaviy investitsiyalar qiymati kamaygan taqdirda kamaytirish xususiy kapitalda aks ettirilgan o‘sha investitsiyalarni bahosini o‘sishi summasi hisobidan amalga oshiriladi. Agar moliyaviy investitsiyalar qiymatini kamaytirish miqdori qayta baholashdan olingan daromad miqdoridan ko‘p bo‘lsa, bu tafovut xarajat sifatida hisobga olinishi lozim. Qiymati pasaytirilgan investitsiyalarni bahosini o‘sishi miqdori shu investitsiyalardan kelgan zarar qoplangandan so‘ng xususiy kapitalni ko‘payishiga kiritiladi.

Obligatsiyalarni sotib oluvchi obligatsiyalarni xarid qilishni quyidagi schyotlardan foydalanib aks ettiradi:

- 0610 «Qimmatli qog‘ozlar», 5800 «Qisqa muddatli investitsiyalar»;

- 6210 «Diskont (chegirma)lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar» qoplanish davri davomida daromadlarga taqsimlanadigan xarid qilingan obligatsiyalar bo‘yicha diskont (chegirma) lar bo‘yicha;

- 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» (9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari»);

- 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar».

Obligatsiyalarni diskont (chegirma) bilan (nominal qiymatidan past narxda) xarid qilish buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

- obligatsiyalarni diskont (chegirma) bilan (nominal qiymatidan past narxda) xarid qilinganda:

debet 0610 «Qimmatli qog‘ozlar» schyoti yoki 5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyoti - obligatsiyalarning nominal qiymatiga;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti – diskont (chegirma) ni hisobga olgan holda to‘lov summasi;

kredit 6210 «Diskont (chegirma)lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar» schyoti – diskont (chegirma) summasining joriy qismi;

kredit 7210 «Diskont (chegirma)lar ko‘rinishidagi uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» schyoti – diskont (chegirma) summasining uzoq muddatli qismi;

- uzoq muddatli kechiktirilgan diskont (chegirma) lar joriyga o‘tkazilishi:

debet 7210 «Diskont (chegirma) lar ko‘rinishidagi uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» schyoti;

kredit 6210 «Diskont (chegirma) lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar» schyoti;

- diskont (chegirma) bilan (nominal qiymatidan past narxda) xarid qilingan obligatsiyalarni qoplanishi davri davomida diskont (chegirma) hisobdan chiqarilganda (daromadlar hisoblanganda):

debet 6210 «Diskont (chegirma)lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar» schyoti;

kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti.

Obligatsiyalarni diskont (chegirma) bilan (nominal qiymatidan past narxda) xarid qilish investorning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib o‘tamiz. Korxona har birining nominal qiymati 100 000 so‘m bo‘lgan 100 dona obligatsiyani 94 000 so‘mga xarid qildi. Obligatsiyalarni qoplash muddati - 12 oy. Obligatsiya qarzining sharti bo‘yicha obligatsiya qiymati va yillik 20% (nominal qiymatdan) dan kelib chiqqan to‘lovlar bir vaqtda qoplanishi nazarda tutilgan.

Obligatsiyalarni diskont (chegirma) bilan (nominal qiymatidan past narxda) xarid qilish va ularni qiymati foizlar bilan birga qoplanishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- obligatsiyalarni diskont (chegirma) bilan (nominal qiymatidan past narxda) xarid qilinganda:

debet 5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyoti 10 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 9 400 000 so‘m;
kredit 6210 «Diskont (chegirma) lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar» schyoti 600 000 so‘m;

- diskont (chegirma) bilan (nominal qiymatidan past narxda) xarid qilingan obligatsiyalarni qoplanishi davri davomida diskont (chegirma) hisobdan chiqarilganda (daromadlar hisoblanganda):

debet 6210 «Diskont (chegirma) lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar» schyoti 50 000 so‘m;
kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 50 000 so‘m;
(50 000 so‘m =600 000 so‘m / 12 oy);

- obligatsiya qiymati va foiz bo‘yicha qarz qoplanganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 12 000 000 so‘m;
kredit 5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyoti 10 000 000 so‘m;

kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 2 000 000 so‘m;
(2 000 000 so‘m = 10 000 000 so‘m x 20 / 100);
(12 000 000 so‘m = 10 000 000 so‘m + 2 000 000 so‘m).

Obligatsiyalarni mukofot (ustama) bilan (nominal qiymatidan yuqori narxda) xarid qilish buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

- obligatsiyalarni mukofot (ustama) bilan (nominal qiymatidan yuqori narxda) xarid qilinganda:

debet 0610 «Qimmatli qog‘ozlar» schyoti yoki 5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyoti - obligatsiyalarning nominal qiymatiga;

debet 0990 «Boshqa uzoq muddatli keschiktirilgan xarajatlar» schyoti – mukofot (ustama) lar summasining uzoq muddatli qismi;

debet 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti - mukofot (ustama) lar summasining joriy qismi;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti – mukofot (ustama) ni hisobga olgan holda to‘lov summasi;

- uzoq muddatli kesiktirilgan xarajatlarning bir qismi joriyga o‘tkazilishi:

debet 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti;

kredit 0990 «Boshqa uzoq muddatli keschiktirilgan xarajatlar» schyoti;

- mukofot (ustama) bilan (nominal qiymatidan yuqori narxda) xarid qilingan obligatsiyalarni qoplanishi davri davomida mukofot (ustama) hisobdan chiqarilganda (qo‘shimcha to‘lov hisobdan chiqarilganda):

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti;

kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti.

Obligatsiyalarni mukofot (ustama) bilan (nominal qiymatidan yuqori narxda) xarid qilish investorning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib o‘tamiz. Korxona har birining nominal qiymati 100 000 so‘m bo‘lgan 100 dona obligatsiyani 112 000 so‘mga xarid qildi. Obligatsiyalarni qoplash muddati - 12 oy. Obligatsiya qarzining sharti bo‘yicha obligatsiya qiymati va yillik 20 % (nominal qiymatdan) dan kelib chiqqan to‘lovlar bir vaqda qoplanishi nazarda tutilgan.

Obligatsiyalarni mukofot (ustama) bilan (nominal qiymatidan yuqori narxda) xarid qilish va ularni qiymati foizlar bilan birga qoplanishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- obligatsiyalarni mukofot (ustama) bilan (nominal qiymatidan yuqori narxda) xarid qilinganda:

debet 5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyoti 10 000 000 so‘m;
debet 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 1 200 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 11 200 000 so‘m;

- mukofot (ustama) bilan (nominal qiymatidan yuqori narxda) xarid qilingan obligatsiyalarni qoplanishi davri davomida mukofot (ustama) hisobdan chiqarilganda (qo‘shimcha to‘lov hisobdan chiqarilganda):

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti 100 000 so‘m;
kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 100 000 so‘m;

- obligatsiya qiymati va foiz bo‘yicha qarz qoplanganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 12 000 000 so‘m;
kredit 5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyoti 10 000 000 so‘m;
kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 2 000 000 so‘m.

4-BOB. TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNING HISOBI

1-§. Tovar-moddiy zaxiralarning tasnifi va hisobini uslubiy asoslari

Korxonalar darajasida tovar-moddiy zaxiralar yirik miqdordagi moliyaviy resurslar qo‘yilmasini talab etuvchi obyektlar jumlasiga kiradi va shuning uchun ular korxonalarning ishlab chiqarish yoki marketing siyosatini belgilab beradigan muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq, korxonalarning ko‘pchiligi odatda ularga yetarli darajada e’tibor berishmaydi va doimo mavjud bo‘lishi lozim bo‘lgan zaxiralar bo‘lgan ehtiyojga baho berishmaydi. Buning natijasida, ular tovar-moddiy zaxiralarga ko‘zlangan darajadan ortiqcha mablag‘lar sarflashlariga duch kelishadi. Barcha turdagi zaxiralarga (xomashyodan tayyor mahsulotgacha) sarflanadigan kapital qo‘yilmalarning optimal darajasini aniqlash va saqlab turish maqsadida ayrim korxonalar tovar-moddiy zaxiralarning optimal darajasini belgilab olishadi. Ushbu ko‘rsatkich belgilanganda, uning doimo saqlanib turilishini ta’minlash talab etiladi, chunki bu ishlab chiqarish ehtiyojlari va iste’molchi talabini qondirishda juda zarur hisoblanadi. Boshqa tomondan, zaxiralarning haddan tashqari hajmini saqlab turishdan qochish lozim, chunki zaxiralarga boshqa maqsadlarda ishlatib qo‘shimcha daromad olishini mumkin bo‘lgan mablag‘lar sarflanishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralari doimo moddiy-texnik ta’minot tizimining xavfsizligini ta’minlaydigan, uning moslanuvchan tarzdar amal qilishiga olib keladigan omillardan biri hisoblanadi va o‘ziga xos «sug‘urta» rolini bajaradi. Korxonalar amaliyotida tovar-moddiy zaxiralarni uch turi amal qiladi (1-rasm).



1-rasm. Tovar - moddiy zaxiralar turlari

Texnologik, ya’ni o‘tuvchi zaxiralarning zaruriyati shundan iboratki, moddiy-texnika ta’minoti tizimida, xohlagan vaqtda ushbu tizimning bir qismidan boshqasiga harakatlanadigan ma’lum darajadagi zaxiralarning odatda mavjud bo‘lishidir. Moddiy – texnik ta’minotining shunday holatlari bo‘ladiki, unda zaxiralarning bir bo‘g‘indan boshqasiga harakatlanishi ko‘p vaqtni talab etishi mumkin va bunday paytda o‘tuvchi zaxiralarning hajmlari katta bo‘ladi. Buyurtmalarning uzoq muddatlarda sotilishi vaqtida (masalan, tovarni ishlab chiqarish va uni omborga tayyor mahsulot ko‘rinishida kelib tushishi o‘rtasidagi katta vaqt safrlansa) texnologik zaxiralarning umumiy miqdori nisbatan yuqori bo‘ladi. Xuddi shu singari, tovarning ombordan chiqish payti bilan uni buyurtamachi tomonidan olinishi payti o‘rtasidagi katta darajadagi vaqt oralig‘ida ham o‘tuvchi zaxiralarning katta miqdori to‘planib qolishi mumkin bo‘ladi. Misol uchun, biror bir tovarga nisbatan talabning o‘rtacha darajasi haftada 200 ta buyumga teng bo‘lsa va uni buyurtmachiga yetkazish muddati ikki haftaga teng bo‘lgan paytda, ushbu tovarning o‘tuvchi zaxiralarining umumiy hajmi o‘rtacha 400 ta buyumni tashkil etadi.

Maqsadli yo‘nalishiga qarab tovar-moddiy zaxiralari quyidagi kategoriyalarga bo‘linadi (2-rasm):



2-rasm. Maqsadli yo‘nalishiga qarab TMZlarning kategoriyalari

Tovar-moddiy zaxiralarni joriy (sikllilar)ga bo‘lishning asosiy sababi, ko‘pchilik tadbirkorlik subyektlarida o‘ziga xos xususiyatnig mavjud bo‘lishi hisoblanadi. Ushbu xususiyat shundan iboratki, odatda tovar-moddiy zaxiralar ma’lum vaqt mobaynida zarur bo‘ladigan hajmlarga nisbatan ortiq miqdorlarda buyurtma qilinadi. Bunga albatta qator sabablar bo‘lishi mumkin, jumladan: buyurtma qilingan tovarlarning to‘liq hajmlarda olinishining kechikishi, bu buyurtmachilar (ayniqsa vositachilar)ni ma’lum vaqtda u yoki bu tovarlarni omborda saqlashga majbur qiladi; tovarlarni partiyalar tariqasida sotib olayotgan buyurtmachilarga sotish paytida beriladigan chegirmalar; minimal hajmdagi partiyalar bilan savdo qilish buyurtmachiga tovarlarni kichik miqdorlarda yuborish noqulay bo‘lishga olib keladi va boshqalar. Bunda, tovar-moddiy zaxiralar hajmiga nisbatan ma’lum cheklovlar mavjud bo‘ladi. CHeklovchi omillardan biri bo‘lib ularni saqlash xarajatlari hisoblanadi. SHuning uchun, bir tomondan tovar-moddiy zaxiralarni buyurtma qilish, boshqa tomondan – ularni saqlash xarajatlarining qulaylik va kamchiliklari o‘rtasidagi tenglikka erishish zaruriyati paydo bo‘ladi. Ushbu tenglik buyurtma qilingan tovarlar partiyalarining optimal hajmini tanlash yoki buyurtma miqdorining iqtisodiy (optimal) darajasini aniqlash orqali erishiladi.

Rezervli (sug‘urtali yoki buferli) moddiy zaxiralarni ba’zan «talabning tasodifiy tebranishlarini kompensatsiya qilishga mo‘ljallangan zarur zaxiralar» deb atashadi (zaxiralarning ushbu kategoriyasiga shuningdek, u yoki bu mahsulotga bo‘lgan talab yoki taklifning kutilayotgan o‘zgarishi holatlarida, misol uchun, mehnat bo‘yicha kelishmovchiliklar, narxlarning ko‘tarilishi yoki kechiktirilgan talab sababli, tashkil etiladigan chayqovchi (spekulyativ) zaxiralar ham kiradi).

Shunday qilib, korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarni yaratish uchun ko‘plab sabablar mavjud, biroq, ularning barchasi uchun umumiy bo‘lib, ishlab chiqarish faoliyati korxonaning iqtisodiy xavfsizlik va manfaatga intilishi hisoblanadi. Bunda ta’kidlash joizki, zaxiralarni yaratish qiymati va sotish shartlarining noaniqligi, korxonalar rahbarlari ko‘z o‘ngida «xavfsizlik»ning qimmatbaho rezervli tarmog‘ining ahamiyatligini o‘sishiga ko‘maklashmaydi, chunki ular ishlab chiqarish samaradorligining o‘sishiga obyektiv ravishda to‘sqinlik qilishadi.

Zaxiralarni yaratishning kuchli rag‘batlaridan biri bo‘lib, ularning salbiy darajasi (defitsit) qiymati hisoblanadi. Zaxiralarning etishmovchiligi (defitsiti) mavjud bo‘lganda, uch xildagi chiqimlar (xarajatlar) paydo bo‘lishi mumkin. Quyida ular salbiy ta’sirining o‘sishiga qarab sanab o‘tilgan:

- buyurtmani bajarmaslik bilan bog‘liq xarajatlar (buyurtma qilingan tovarning yuborilishini kechiktirish) – mavjud tovar-moddiy zaxiralar hisobidan bajarish mumkin bo‘lmagan buyurtmaning tovarlarini harakatlanishi va yuborilishiga qilingan qo‘shimcha xarajatlar;

- sotuvni yo‘qotish bilan bog‘liq xarajatlar – doimiy buyurtmachi ushbu xarid bo‘yicha qandaydir boshqa korxonaga murojaat qilgan hollarda (bunday xarajatlar savdo bitimining amalga oshirilmasligi uchun yo‘qotilgan savdo tushumi ko‘rsatkichlarida o‘lchanadi);

- buyurtmachini yo‘qotish bilan bog‘liq xarajatlar – zaxiralarning mavjud emasligi nafaqat u yoki bu savdo bitimining yo‘qotilishi, balkim buyurmachining doimo boshqa ta’minot manbalarini izlashni boshlagan hollarda (bunday xarajatlar, korxona bilan buyurtmachi o‘rtasida tuziladigan barcha potentsial bitimlarni amalga oshirishdan olinishi mumkin bo‘lgan umumiy savdo tushumi ko‘rsatkichlarida o‘lchanadi).

Dastlabki ikki xildagi xarajatlar, odatda «korxonaning alternativ (muqobil) variantdagi qarorni qabul qilishi natijasidagi vaqtinchalik xarajatlar» deb nomlanadigan xarajatlar jumlasiga kiritiladi. Xarajatlarning uchinchi xilini esa hisoblash qiyinroq, chunki istiqboldagi buyurtmachilar turlicha va mos holatda xarajatlari ham turlicha bo‘ladi. Biroq, korxonalar uchun shu narsa muhimki, ushbu xildagi xarajatlarning bahosi iloji boricha haqiqatda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan xarajatlar summasiga yaqinroq darajada bo‘lsa.

Ta’kidlash joizki, zaxiralar etishmovchiligining qiymati yo‘qotilgan savdo bitimlari yoki amalga oshirilmagan buyurtmalarning oddiy bahosidan ancha yuqori turadi. Uning ichiga, mahsulotni tayyorlashga ketadigan vaqtning yo‘qotilishi ham, ishchi vaqtining yo‘qotilishi ham, murakkab texnologik jarayonlar almashishi o‘rtasida ishlab chiqarishdagi qimmatbaho uzilish (tanaffus) sababli vaqtning yo‘qotilishi ham kirib ketadi.

Natijada, tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi, xarajatlarning tejalishi va ularning ratsional ishlatilishi ustidan o‘rnatiladigan amaliy nazoratni ta’minlashdagi ahamiyati va o‘rni to‘g‘risidagi bildirilgan fikrlar, ularni haqqoniy identifikatsiyalash, baholash va hisobga olish zaruriyatiga undaydi. Oxir oqibatda qabul qilinadigan boshqaruv qarorlari haqqoniy ma’lumotlarga tayanib, ular odatda korxonaning buxgalteriya hisobi tizimi faoliyati natijasi hisoblanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- operatsiyalarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida hujjatli rasmiylashtirish va tovar-moddiy zaxiralarning tayyorlanishi, kelib tushishi va chiqarilishi bo‘yicha haqqoniy ma’lumotlar bilan ta’minlash;

- zaxiralarning tannarxini shakllantirish,

- zaxiralarning saqlash (foydalanish) joylarida va ular harakatining barcha bosqichlarida butligi ustidan nazorat va h.k.

- mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatilishining uzluksizligini ta’minlaydigan korxona tomonidan belgilangan zaxiralar me’yorlarining bajarilishi ustidan nazorat;

- kerak bo‘lmagan va ortiqcha zaxiralarni kelgusida sotish yoki ularni xo‘jalik aylanmasiga jalb etishning boshqa imkoniyatlarini izlash maqsadida ularni o‘z vaqtida aniqlash;

- zaxiralarning samarali ishlatilishi tahlilini o‘tkazish.

Tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya hisobiga olishda qo‘yiladigan talablar:

- korxona bo‘linmalarida tovar-moddiy zaxiralar harakatining ombor hisobi va tezkor hisobi ma’lumotlarining buxgalteriya hisobi schyotlari ma’lumotlariga muvofiqligi;

- tovar-moddiy zaxiralar miqdori va bahosining buxgalteriya hisobi tezkorligi;

- moliyaviy hisobotda aks ettirilgan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha ma’lumotlarning haqqoniyligi;

- tovar-moddiy zaxiralarning harakatlanish jarayoni (kelib tushishi, joylashtirilishi va chiqib ketishi) va shuningdek haqiqatda mavjudligini to‘laqonli va uzluksiz tartibda to‘la aks ettirish;

- tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha (aylanmalari va qoldiqlari bo‘yicha) sintetik hisob ma’lumotlarining analitik hisob ma’lumotlariga muvofiqligi;

- zaxiralar hisobining tezkorligi (o‘z vaqtidaligi).

Bunda, korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarning butligi ustidan samarali ichki nazorat o‘rnatishning zaruriy shartlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- kerakli darajada jihozlangan omborlar va saqlash xonalari (omborlar) yoki maxsus mo‘ljallangan maydonchalarning (ochiq holda saqlanadigan zaxiralar uchun) mavjudligi;

- ombor seksiyalari bo‘yicha va ularning ichida alohida guruhlar va tur-nav-o‘lchov bo‘yicha zaxiralarni shunday tartibda joylashtirishki, bunda ularni tezkorlik bilan qabul qilish, chiqarish va mavjudligini tekshirish (har bir turdagi zaxiralarni saqlash joylarida zaxirada turganlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilgan yorliqlarni biriktirish zarur imkoniyati ta’minlangan bo‘lishi kerak;

- zaxiralar saqlanadigan joylarni tarozilar, o‘lchov asboblari va o‘lchov taralar bilan to‘la ta’minlash;

- oldindan kelishilgan grafiklar bo‘yicha korxona omborlaridan uning sexlari (bo‘linmalari) ga materiallarni markazlashtirilgan tartibda yetkazishni, qurilish korxonalarida esa mol yetkazib beruvchilardan, asosiy omborlardan va butlovchi uchastkalardan bevosita qurilish obyektlariga butlovchi vedomostlar orqali yetkazishni qo‘llash;

- ortiqcha oraliq omborlar va saqlash xonalarini qisqartirish;

- materiallarni bichishning markazlashtirilgan uchastkalarini zarur bo‘lgan joylarda va maqsadga muvofiq bo‘lgan joylarda tashkil etish;

- markaziy (asosiy) omborlar, alohida hisob birliklari hisoblanadigan omborlar (saqlash xonalari) ro‘yxatini belgilash;

- zaxiralar sarfining me’yorlash tartibini o‘rnatish (me’yorlarni ishlab chiqish va tasdiqlash, korxona bo‘linmalariga materiallarni chiqarishda me’yorlarning bajarilishi);

- zaxiralarga hisob baholarini shakllantirilish tartibi va ularni qayta ko‘rib chiqish tartibini belgilash;

- zaxiralarning qabul qilinishi va chiqarilishiga mas’ul (omborlar, saqlash xonalari mudirlari, ekspeditorlar va boshqalar), ushbu operatsiyalarning to‘g‘ri va o‘z vaqtida rasmiylashtirilishi, shuningdek ularga ishonib topshirilgan zaxiralarning butligi uchun mas’ul shaxslar ro‘yxatini belgilash;

- yuqorida keltirilgan shaxslar bilan belgilangan tartibda moddiy javobgarlik to‘g‘risidagi yozma shartnomalarni tuzish; moddiy javobgar shaxslarni ishdan bo‘shatishda va boshqa joyga o‘tkazilishda korxona bosh buxgalteri bilan kelishilgan holda qaror qabul qilish;

- zaxiralarni qabul qilish va omborlardan chiqarish hujjatlarini imzolash, va shuningdek korxona omborlari va boshqa saqlash joylaridan zaxiralarni chiqarib ketish ruxsatnoma (o‘tkazish varaqasi) sini berish huquqiga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar ro‘yxatini belgilash;

- korxona rahrabari tomonidan bosh buxgalter bilan kelishilgan holda tasdiqlangan birlamchi hujjalarni imzolash huquqiga ega shaxslar ro‘yxatining mavjudligi (ro‘yxatda shaxslarning mansabi, familiyasi, ismi, otasining ismi va vakolati darajasi (ushbu mansabdor shaxs tomonidan qaror qabul qilinadigan operatsiyalarning turlari va ko‘rinishlari) ko‘rsatiladi).

Tovar-moddiy zaxiralar hisobini to‘g‘ri va to‘laqonli tashkil etish maqsadida ularni ilmiy - asoslangan tasnifi va baholanishi muhim ahamiyatga ega.

Egalik qilish xususiyatiga muvofiq, moddiy-ishlab chiqarish zaxiralari korxonaga egalik huquqi hamda xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi bo‘yicha tegishli (xususiy) va unga ushbu huquqlar bo‘yicha tegishli bo‘lmagan (xususiy bo‘lmagan) boyliklarga bo‘linadi (3-rasmga qarang).

Korxonalarga tegishli bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralariga u tomondan tayyorlangan, xarid qilingan yoki boshqa shaklda olingan qiymatliklar kiritilib, ular omborda yoki ishlab chiqarish jarayonida joylashgan bo‘ladi.

Korxonaga egalik huquqi va boshqa shunga o‘xshash huquq bo‘yicha tegishli bo‘lmagan, biroq shartnoma shartlari bo‘yicha uning ixtiyoridagi tovar-moddiy zaxiralar kiritilib, ular alohida turlari bo‘yicha - balansdan tashqari schyotda hisobga olinadi.



3-rasm. Egalik qilish xususiyati bo‘yicha tovar-moddiy zaxiralarni tasniflash

Mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish jarayonida bajariladigan roliga qarab materiallar qo‘yidagi guruhlarga bo‘linadi:

- xomashyo va asosiy materiallar;
- yordamchi materiallar;
- yoqilg‘i;
- ehtiyot qismlar;
- tara va tara materiallari;

- sotib olingan tayyor mahsulotlar;
- qaytariladigan ishlab chiqarish chiqindilari;
- boshqa materiallar.

Ishlatilish tartibiga muvofiq tovar-moddiy boyliklar quydagicha bo‘linadi (4-rasmga qarang).



4-rasm. Tovar-moddiy zaxiralarni ishlatilish tartibiga qarab tasniflash

Xomashyo va asosiy materiallar ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning moddiy (buyumli) asosini tashkil etadi yoki uni tayyorlashning zaruriy qismi hisoblanadi. Xomashyo deganda qishloq xo‘jaligi va qazib oluvchi sanoat mahsulotlari (ko‘mir, ruda, don va boshqalar), material deyilganda asosan qayta ishlash sanoat mahsulotlari (gazlama, shakar, un va boshqalar) tushuniladi.

Yordamchi materiallar xo‘jalik ehtiyojlari, texnologik maqsadlar, ishlab chiqarish jarayoniga ko‘maklashish uchun iste’mol qilinadi. Yordamchi materiallar mahsulotga alohida iste’mol xususiyatlarini berish maqsadida xomashyo va asosiy materiallarga ta’sir etish uchun ishlatiladi.

Yoqilg‘i transport vositalarini ishlatishda, ishlab chiqarishning texnologik ehtiyojlari uchun hamda energiya ishlab chiqarish va binolarni isitish uchun mo‘ljallangan. Yoqilg‘i bir necha turlardan iborat: neft mahsulotlari (neft, dizel yoqilg‘isi, benzin), qattiq yoqilg‘i (ko‘mir, o‘tin) va gazsimon yoqilg‘i.

Ehtiyot qismlar mashinalar, asbob-uskunalar va transport vosilarining yemirilgan va eskirgan qismlarini ta'mirlash va almashtirish uchun xizmat qiladi.

Tara va tara materiallari – turli materiallar va mahsulotlarni o'rash, tashish, saqlash uchun qo'llaniladigan predmetlar (qoplar, qutilar, bochkalar va h.k.) hamda taralarni tayyorlash va ta'mirlash uchun mo'ljallangan materiallar va detallar (qutilarni yig'ish detallari, bochka qisqichlari, temir aylanmalari va boshqalar).

Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar – bu ushbu korxona ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan boshqa korxonalar mahsuloti bo'lib, keyinchalik qayta ishlov va yig'ish bo'yicha xarajatlarni talab etadi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning moddiy asosini tashkil etadi. Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlarga kompyuter platalari, qurilish konstruktsiyalari misol bo'la olishi mumkin.

Ishlab chiqarishning qaytariladigan chiqindilari – bu mahsulot ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'lgan va birlamchi xomashyo va materiallar xususiyatlarini to'la yoki qisman yo'qotgan xomashyo va materiallar qoldig'idir (yog'och va temir qirindilari va shu kabilar).

Boshqa materiallar – tuzatilmaydigan brak hamda ushbu korxonada materiallar, yoqilg'i yoki ehtiyot qismlar tarkibida ishlatilishi mumkin bo'lmagan asosiy vositalarning, inventar va xo'jalik anjomlarining chiqib ketishidan olingan moddiy boyliklardir (metallalom, utillangan xomashyo, yemirilgan shinalar va shu kabilar).

Tovar-moddiy zaxiralarning eng ko'p tarqalgan xillari bo'lib xomashyo, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar zaxirasi, tayyor mahsulotning tarkibiy qismlari, quyilma va sochma buyumlar (neft, moy, un) va boshqala hisoblanadi. Mashina va asbob-uskunalar, ularni sotib olib ishlatadigan korxonalar uchun asosiy vositalar sifatida namoyon bo'lsa, ularni ishlab chiqaradigan korxonalar uchun, ular sotilgunga qadar tovar-moddiy zaxiralar sifatida hisobga olinadilar.

Odatda tovar-moddiy zaxiralarning quyidagi xillari farqlanadi (korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarning konkret xilma-xillik to'plami ularning faoliyat xususiyatlariga bog'liq bo'ladi):

Tovar zaxiralari – keyinchalik qayta sotish uchun mo'ljallangan, korxona tomonidan sotib olingan tovarlar. Bunda, korxona, odatda, tovarlarning jismoniy shakliga sezilarli darajada o'zgartirishlar kiritmaydi, chunki mol yetkazib beruvchidan sotib olinganda ular oldindan tayyor mahsulot hisoblanadilar. Biroq, sotib olib sotuvchi korxonalar qator hollarda bunday tovarlarni komplektlash, ularni biror bir tizimga biriktirish bilan shug'ullanadilar (masalan, bir necha asbob-uskunalarni bitta ishlab chiqarish liniyasiga birlashtirilib, keyinchalik ular xaridorga yaxlit holda yetkazib beriladilar). Savdo-tayyorlov korxonalarida, komplektatsiyalashga ixtisoslashtirilgan korxonalarda va shu kabilarda tovar zaxiralari tovar-moddiy zaxiralarning asosiy qismini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish zaxiralari – korxonada keyinchalik qayta ishlashga yo'naltirilgan sotib olingan yoki mustaqil ravishda tayyorlangan buyumlardir. Ular quyidagi xillarga bo'linadilar:

Xomashyo – korxonaning mulki hisoblangan va keyinchalik qayta ishlash uchun mo'ljallangan sotib olingan yoki boshqacha usul bilan olingan (misol uchun qazib olingan) tovarlardir.

Tugallanmagan ishlab chiqarish – tayyor mahsulotga aylantirilishi ularning keyinchalik qayta ishlanishini talab etadigan tovarlardir. Ularning qiymati ma'lum vaqt paytigacha avval amalga oshirilgan xomashyo, ishchi kuchi xarajatlari va tugallanmagan ishlab chiqarish birligiga taqsimlangan ustama xarajatlarining (konkret mahsulot birligini tayyorlash bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, butun ishlab chiqarish jarayonini ta'minlash uchun amalga oshirilgan xarajatlar,

masalan isitish, elektr energiyasi, suv ta'minoti va shu kabi xarajatlar) summasi sifatida aniqlanadi.

Tayyor mahsulot – sotish uchun mo'ljallangan va qayta ishlanishi tugatilgan buyumlar. Ularning qiymati to'g'ri xarajatlar va ustama xarajatlarning yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Yordamchi materiallar – qiymati sotib olish paytida umumiy xarajatlar yoki sotish xarajatlari sifatida aks ettiriladigan tez sarflanuvchi materiallardir (idora anjomlari, o'rash materiallari va h.k.).

Ishlab chiqarish zaxiralarining yuqorida keltirilgan tasnifi sintetik va analitik hisobni tashkil etish, hamda ishlab chiqarish – foydalanish (ekspluatatsiya) faoliyatida xomashyo va materiallarning qoldig'i, kelib tushishi va sarflanishi to'g'risida statistik hisobotni tuzish uchun ishlatiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan har bir guruhlar ichida tovar-moddiy zaxiralar xillarga, navlarga, markalarga, tur-o'lchamlarga bo'linadi. Har bir materialning nomiga, naviga, o'lchamiga qisqa raqamli belgi berishadi (nomenklatura raqami) va uni nomenklatura-narxlagich deb nomlanuvchi maxsus reestrga yozishadi. Nomenklatura – narxlagichda, shuningdek materiallarning qat'iy hisob narxi va o'lchov birligi ham ko'rsatiladi. Hisobda EHMlardan foydalanish sharoitida nomenklatura-narxlagichning tarkibini sezilarli darajada kengaytirish mumkin, unga zaxiralarning me'yori, sintetik schetlar guruhi va alohida schetlar raqamlari va ba'zi bir boshqa doimiy ko'rsatkichlarni kiritish orqali.

Tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya hisobi va ular to'g'risidagi axbortlarni moliyaviy hisobotlarda ochib berish respublikamizda Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom va 4-son BHMS bilan tartibga solinadi.

Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjatlar tovar-moddiy zaxiralar buxgalteriya hisobi uslubiyotini u yoki bu faoliyat turiga bog'liq bo'lmagan holda tartibga soladi. Yuqorida sanab o'tilgan me'yoriy huquqiy hujjatlarda mulklarni tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga kiritish mezonlari, tan olish paytini belgilash, tasniflash, balans qiymatini baholash; tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni aniqlash, kelgusida xarajatlarni, shu jumladan tovar-moddiy zaxiralar qiymatini xarajat sifatida tan olish tartibi belgilab berilgan. SHuningdek, tovar-moddiy zaxiralar qiymatini sotish (baholash)ning sof qiymatiga qadar kamaytirish, ularning chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni aniqlash va ular bo'yicha axborotlarini moliyaviy hisoblarda ochib berish qoidalari batafsil ko'rib o'tilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan me'yoriy huquqiy hujjatlardan tashqari tovar-moddiy zaxiralarni alohida xo'jalik operatsiyalarida va faoliyat turlarida hisobga olishda va tovar-moddiy zaxiralarni hisobotlarda aks ettirish uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi idoraviy me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Korxonalar tomonidan tovar-moddiy zaxiralarni hisobini tegishli ravishda tashkil etish va ularni harakatini nazorat qilish uchun zarur bo'ladigan ichki nizom, yo'riqnoma, boshqa tashkiliy-taqsimlovchi hujjatlarni ishlab chiqishlari mumkin. Yuqoridagi hujjatlar bilan:

- tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish, topshirish va harakati bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan boshlang'ich hujjatlarning shakllari va ularni rasmiylashtirish (tuzish) tartibini, shuningdek hujjat aylanishining qoidalarini;

- tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish, olish va chiqarishga ishonch bildirilgan bo'linmalarining mas'ul shaxslari ro'yxatini;

- saqlanishi ta'minlashni nazoratini amalga oshirish tartibini, hisobni to'g'ri yuritilishini,

ularni mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi hisobotlarni ishonchligini va boshqalarni tasdiqlashi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish tizimlari

Mahsulot ishlab chiqarish, tovarlarni sotish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish jarayonining xarakteri va xususiyatlaridan kelib chiqib, tovar-moddiy zaxiralar hisobi uzluksiz (doimiy) yoki davriy hisobga olish tizimlaridan biri bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralarning uzluksiz (doimiy) hisobga olish tizimidan foydalanilganda tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish schyotlarida ularning kelib tushishi va chiqib ketishi bo‘yicha operatsiyalar batafsil aks ettirib boriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni uzluksiz (doimiy) hisobga olish tizimida butun hisobot davri mobaynida tovar-moddiy zaxiralarning qoldig‘i summalari va sotilgan (chiqib ketgan) zaxiralarning tannarxi to‘g‘risidagi ma’lumotlar olinishi mumkin. Sotilgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi, ular sotib borilishiga qarab sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) tannarxini hisobga olish schyotlarida aks ettiriladi.

Davriy hisobga olish tizimi qo‘llanilganida hisobot davri mobaynida tovar-moddiy zaxiralarni hisobga oluvchi schyotlarda ularning kelib tushishi va chiqib ketishining batafsil hisobi yuritilmaydi.

Tovar-moddiy zaxiralarning haqiqatda mavjudligi ularni inventarizatsiya qilish natijalari bo‘yicha aniqlanadi. Sotilgan (chiqib ketgan) tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi, ularni inventarizatsiya qilish yakunlanishiga qadar aniqlanishi mumkin emas.

Sotilgan (chiqib ketgan) tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi davr boshidagi qoldiq summasi va davr mobaynida tushumlarni qo‘shish hamda davr oxiridagi qoldiq summasini ayirish yo‘li bilan aniqlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning qo‘llaniladigan tizimi korxonanni hisob siyosatida 1-son BHMS da belgilangan tartibda aks ettirilishi lozim.

2-§. Tovar-moddiy zaxiralarni tan olish

Tovar-moddiy zaxiralar — faoliyat yuritish jarayonida keyinchalik sotish maqsadida saqlab turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida bo‘lgan, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma’muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar hisoblanadi.

Tovar-moddiy zaxiralar korxonalarda quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

- mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatish, ma’muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo‘ljallangan xomashyo va materiallar, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg‘i, tara va tarabop materiallar, ehtiyot qismlar, inventar va xo‘jalik jihozlari, boshqa materiallar zaxiralari;

- boquvdagi va yaylovdagi yosh hayvonlar, katta yoshdagi hayvonlar, parrandalar, asalari oilalari, sotish uchun asosiy podadan yaroqsizga chiqarilgan katta yoshdagi chorva mollari, sotish uchun chetdan qabul qilingan chorva mollari;

- mexanizm qismlari, qurilmalar, buyumlarga tugallanmagan ishlov berilishi va ularning yig‘ilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar ko‘rinishida tugallanmagan ishlab chiqarish. Xizmatlar ko‘rsatuvchi va ishlar bajaruvchi tashkilotlarda tugallanmagan ishlab chiqarishning qiymati sifatida qabul qilish-topshirish hujjatlari rasmiylashtirilmagan va tashkilot

tomonidan tegishli daromad sifatida tan olinmagan tugallanmagan xizmatlar (ishlar) bo‘yicha xarajatlardan tashkil topadi;

- korxonada tayyorlangan tayyor mahsulot (realizatsiya qilish uchun mo‘ljallangan va shartnomada yoki qonun hujjatlarida belgilangan hollarda boshqa hujjatlarning talablarida nazarda tutilgan texnik va sifat tavsiflariga muvofiq keladigan ishlov berilishi (butlanishi) tugallangan aktiv);

- boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslardan xarid qilingan (olingan) va tashkilotning odatiy faoliyati davomida qo‘shimcha ishlov berishsiz sotish yoki qayta sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar. Bunda uzoq muddatli aktivlar obyektlari (binolar, inshootlar, transport vositalari, mulkiy (mutlaq) huquqlar va boshqalar) ham keyinchalik sotish yoki qayta sotish maqsadida xarid qilingan hollarda tovar bo‘lib hisoblanishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralarni aktiv sifatida tan olishning quyidagi ***mezonlari mavjud***:

- korxonaga kelgusida aktiv bilan bog‘liq iqtisodiy nafning kelib tushishiga ishonch mavjudligi;

- aktivning qiymati ishonchli baholanishi mumkinligi;

- ularga bo‘lgan mulkiy huquqining korxonaga o‘tganligi.

Tovar-moddiy zaxiralarning ***birinchi shartga*** mosligini aniqlashda korxona dastlabki tan olish paytida mavjud bo‘lgan faktlarga asoslanib bo‘lajak iqtisodiy nafning olinishi ehtimolligi darajasini baholashi lozim bo‘ladi. Buning ma’nosi shundaki, korxona olingan aktivga egalik qilish, undan foydalanish va boshqarishga bog‘liq bo‘lgan barcha bo‘lajak daromadlar (ular odatda tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketishi, shuningdek sotilishidan tushadigan daromadlar shaklida namoyon bo‘ladi) uziga tegishli bo‘lishiga ishonch hosil qilishi lozim va mazkur obyektga egalik qilishga bog‘lik barcha tavakkalchilikni (jumladan mulkning tasodifan ishdan chiqishi yoki buzilishi xavfi, shuningdek uni saqlash, qayta ishlash va hisobdan chiqarishga bog‘lik ko‘zda tutilgan xarajatlarni) o‘z zimmasiga oladi. Iqtisodiy naf olish ehtimolligining mavjudligi korxona aktiv bilan bog‘lik bo‘lgan, iqtisodiy moddiy boyliklarga ega bo‘lishi va shunga muvofiq tegishli tavakkalchilikni uz zimmasiga olishi xususida oydinlik kiritilishini taqozo etadi. Odatda iqtisodiy manfaatlar va tavakkalchiliklar korxonaga to‘liq o‘tgandagina bunday aniqlik paydo bo‘ladi. Bungacha esa aktivni xarid qilish operatsiyasi deyarli talofatlarsiz (jarimalarsiz) bekor qilishini mumkin, shuning uchun aktiv tan olinmaydi.

Tovar-moddiy zaxiralarni tan olishning yuqorida keltirilgan ***ikkinchi sharti*** buxgalteriya hisobi amaliyotida odatda oson qoniqtiriladi, chunki aktivni xarid qilish operatsiyasi natijasida uning qiymati aniqlanadi. Masalan, tovar-moddiy zaxiralar boshqa shaxslardan sotib olinayotganda ularning qiymatini baholashning asosiy ishonchli ko‘rsatkichi tovar-moddiy zaxiralarning tomonlarni qoniqtiradigan va oldi-sotdi shartnomasida ko‘rsatilgan bahosi hisoblanadi; tovar-moddiy zaxiralar korxonaga tekin kelib tushganda baholashning asosini tegishli o‘tkazish hujjatlarida ko‘rsatilgan tovar-moddiy zaxiralar qiymati yoki ular kelib tushgan paytdagi bozor qiymati tashkil qiladi. Bunda, agar aktiv korxonaning o‘z kuchi bilan mustaqil yaratilgan bo‘lsa, uning qiymatini materiallar, ishchi kuchini sotib olish buyicha tashqi tomonlar bilan olib borilgan operatsiyalar hamda tovar-moddiy zaxiralarni yaratish (ishlab chiqarish) jarayonidagi boshqa xarajatlar asosida ishonchli baholash mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralarni tan olishning ***uchinchi sharti*** shundan kelib chiqadiki, ma’lum muddatga (masalan, moliyaviy hisobotni tuzish sanasigacha) bo‘lgan davrda korxona ixtiyorida bo‘lgan barcha zaxiralar, ular qayerda joylashgan bo‘lishidan qat’i nazar, tovar-moddiy zaxiralarga kiritiladi. Ya’ni, buyumni korxonaning tovar-moddiy zaxiralariga o‘tkazishning hal

qiluvchi mezoni bo‘lib uning mazkur buyumga bo‘lgan mulkiy huquqi hisoblanadi. SHuning bilan birga, korxonaga tegishli hududda boshqa jismoniy va yuridik shaxslarning mulki bo‘lgan buyumlar bo‘lishi mumkin. Konsignatsiya shartnomasi asosida kelib tushgan tovarlar yoki tovar-moddiy zaxiralarni sotish haqida hisob-kitob hujjatlari rasmiylashtirilib, ammo o‘z vaqtida xaridor tomonidan olib chiqib ketilmagan tovarlar bunga misol bo‘la oladi. Bular korxonaning tovar-moddiy zaxiralariga kirmaydi.

Sotib olingan va hali yo‘lda bo‘lgan tovarlar, agar ularga bo‘lgan mulkiy huquq korxonaga berilgan bo‘lsa, uning tovar-moddiy zaxirasi hisoblanadi. Mulkiy huquqning berilishi sanasi odatda tovarlarni sotib olish shartnomasida belgilanadi. CHunonchi, FOB *(FOB (free on board) destination),* manzilga yetkazib berish shartlariga ko‘ra, yetkazib beruvchi sotib olingan tovarni korxona tomonidan ko‘rsatilgan manzilga yetkazib bergandan keyin mulkiy huquq amal qiladi. Bu paytgacha yo‘lda bo‘lgan tovar korxonaning tovar-moddiy zaxiralariga tegishli bo‘lmaydi. FOB *(FOB shipping point)* jo‘natish shartlari buyicha tovar korxona tomonidan sotib olinganda ta’minotchi tovarni yetkazib beruvchiga topshirgan paytdan e’tiboran mulkiy huquq xaridorga o‘tadi, ushbu paytdan boshlab yo‘ldagi tovar uni xarid qilgan korxonaga tegishli tovar-moddiy zaxiralarining bir qismi hisoblanadi.

Korxonanning tovar-moddiy zaxiralariga, shuningdek, savdo agenti tomonidan konsignatsiya kelishuvlar doirasida berilgan tovarlar ham kiradi. Bunday kelishuvlarda ko‘zda tutilishicha, tovar egasi uni savdo agentiga topshiradi, savdo agentining vazifasi esa ushbu tovarni sotishdan iborat. Agent tovarni sotib olmaydi, ammo o‘z zimmasiga uni saqlash bo‘yicha majburiyatni oladi. Tovarni sotgandan so‘ng agent uning oldingi egasiga savdo tushumini o‘tkazib beradi. Agent xarajatlarini qoplash, shuningdek unga komission mukofot berish tartibi konsignatsiya shartnomasida ko‘rsatiladi. Agent ixtiyorida sotuvda bo‘lgan tovarlar agentning emas, balki ularni bergan korxonaning tovar-moddiy zaxiralariga kiradi.

Tovar-moddiy zaxiralarga bo‘lgan mulk huquqi, ular bilan bog‘liq tavakkalchilik va mukofotlarning o‘tish payti mahsulot yetkazib berish (oldi-sotdi) shartlari kelishiladigan mahsulot yetkazib berish (oldi-sotdi) shartnomasi asosida belgilanadi.

Korxonaning tovar-moddiy zaxiralariga ta’minotchi tomonidan yuklab jo‘natilgan, mulkiy huquq xaridorga o‘tmagan, ammo qabul qilish paytida xaridor tomonidan yaroqsiz deb topilgan va qaytarilishi lozim bo‘lgan tovarlar kiritilmaydi.

Tovar-moddiy zaxiralar buxgalteriya hisobining birligi, zaxiralar to‘g‘risida to‘liq va ishonchli ma’lumotlarni shakllantirish hamda ularning mavjudligi va harakati ustidan lozim darajada nazoratni ta’minlash maqsadida korxona tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Tovar-moddiy zaxiralarning xususiyatlari, ularni xarid qilish va ulardan foydalanish tartibidan kelib chiqib tovar-moddiy zaxiralarning birligi nomenklatura raqami, partiya, bir turdagi guruh va h.k. olinishi mumkin.

Boshqa korxonalarlardan olingan tovar-moddiy zaxiralar ham, korxonada ishlab chiqarilgan tovar-moddiy zaxiralar ham, me’yoriy hujjatlarda boshqacha shartlar ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, korxonaning tegishli omborxonasiga qabul qilinishi kerak.

Ta’minotchi tomonidan yuklab jo‘natilgan va yo‘lda bo‘lgan, mulkiy huquqi esa xaridor tomonidan tovar-moddiy zaxira qabul qilingan paytda xaridorga o‘tgan tovar-moddiy zaxiralar uchun to‘langan bo‘nak miqdori buxgalteriya hisobidagi hisob-kitoblar schyotida debitorlik qarzi sifatida kayd etiladi.

Ta’minotchi tomonidan yuklab jo‘natilgan va yo‘lda bolgan, mulkiy huquqi esa tovar-moddiy zaxira qabul qilingan paytda xaridorga o‘tgan tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya

hisobidagi aks ettirishni quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. 2021-yil 10-aprelda mol yetkazib beruvchi bilan 1 000 dona ehtiyot qismlarni har donasini 25 000 so‘mdan sotib olish to‘g‘risida shartnoma tuzdi. SHartnomaga muvofiq, 2021-yil 12-aprelda shartnomada ko‘rsatilgan umumiy summaning 30 foizini bo‘nak sifatida to‘lab berdi. SHartnoma FOB manzilga yetkazib berish sharti bilan tuzilgan va unda ehtiyot qismlarni yetkazib berish bo‘yicha transport xarajatlari xaridor hisobidan qoplanishi ko‘zda tutilgan. 2021-yil 15-aprelda mol yetkazib beruvchi moy filtrlarini temir yo‘l transportiga yuklab jo‘natdi.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish buyicha operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

2021-yil 12-aprelda:

- shartnomaga ko‘ra to‘langan bo‘nak summasiga:

debet 4310 «TMQlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» schyoti 7 500 000 so‘m;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 7 500 000 so‘m;

(25 000 000 so‘m = 25 000 so‘m x 1 000 dona);

(7 500 000 so‘m = 25 000 000 so‘m x 30/100).

2021-yil 15-aprelda: Temir yo‘l kompaniyasiga yuklab jo‘natilgan ehtiyot qismlarni summasiga buxgalteriya yozuvlari talab etilmaydi, chunki ehtiyot qismlarga bo‘lgan mulkiy huquqi xaridorga hali o‘tmagan.

Korxonada kelib tushgan moddiy qiymatlar uchun mulkiy huquq (tegishli ravishda xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi) bo‘lmasa, ushbu moddiy qiymatlar balansdan tashqari schyotlarda shartnomada nazarda tutilgan baho bo‘yicha hisobga olinadi. Masalan, yuqorida keltirilgan misol ma’lumotlariga ko‘ra, temir yo‘l kompaniyasi xaridordan yetkazib berish uchun olingan ehtiyot qismlarni ***balansdan tashqari 002 «Mas’ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklar» schyoti debeti*** bo‘yicha aks ettiradi va yetkazib berilgan yuk xaridorga topshirilgandan so‘ng mazkur schyotning krediti bo‘yicha hisobdan chiqaradi.

3-§. Tovar-moddiy zaxiralarning kelib tushishi va baholanishi

3.1. Tovar-moddiy zaxiralarining kelib tushishi va baholanishining umumiy masalalari

Korxonada kelib tushgan va mulkiy huquqi korxonaga o‘tgan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati buxgalteriya balansiga kiritilishi kerak.

Tovar-moddiy zaxiralar korxona balansiga quyidagilar natijasida kiritilishi lozim:

- mahsulot yetkazib berish (oldi-sotdi) shartnomasi bo‘yicha xarid qilinishi;
- ta’sischilardan korxonaning ustav kapitaliga ulush sifatida kelib tushishi;
- ta’sischilar tarkibidan chiqishda yoki tugatilayotgan tashkilotning mol-mulki uning ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanayotganda tashkilotning ilgari boshqa tashkilotning ustav kapitaliga kiritilgan ta’sis ulushi qaytarilishidan kelib tushishi;
- tekin kelib tushishi (hadya shartnomasi buyicha);
- ayirboshlash (almashtirish);
- uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o‘tkazilishi;
- ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarning aniqlanishi;
- ilgari berilgan tovar qarzining qaytarilishi yoki tovar qarzini olinishi;
- korxonaning o‘zida tayyorlanishi;
- hisobot davri oxirida tugallanmagan va tugallanmagan ishlab chiqarish tarzida hisobga olinadigan ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish;

- tovar-moddiy zaxiralarga nisbatan mulkiy huquqi olinishiga olib kelgan boshqa operatsiyalar va hodisalar.

21-son BHMS ga muvofiq, mulkiy huquqi korxonaga tegishli bo‘lgan xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, konstruktsiyalar, detallar, tarabop materiallar, inventarlar, xo‘jalik jihozlari va sh.k. qiymatliklar hamda ularni tayyorlash va xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 1010 «Xomashyo va materiallar» schyotida quyidagilarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi:

a) ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tarkibiga kiradigan, uning asosini tashkil etadigan yoki uni tayyorlashda (ishlab chiqarishda) zarur tarkibiy qismlar hisoblaniladigan xomashyo va asosiy materiallar;

b) mahsulot ishlab chiqarishda yoki xo‘jalik ehtiyojlari uchun sarflanadigan, texnik maqsadlar va ishlab chiqarish jarayoniga yordamlashishda ishtirok etadigan yordamchi materiallar;

- 1030 «Yoqilg‘ilar» schyotida neft mahsulotlari, yoqilg‘i-moylash materiallari (neft, benzin, kerosin, dizel yoqilg‘isi va h.k.lar), qattiq yoqilg‘i (ko‘mir, o‘tin va h.k.lar) va gazsimon yoqilg‘i (gaz, gazolin), shuningdek ishlab chiqarish chiqindilari va qattiq yoqilg‘i sifatida ishlatiladigan ikkilamchi material qiymatliklarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi. Yoqilg‘i-moylash materiallari uchun talonlardan foydalanilganda ham ularning hisobi 1030 «Yoqilg‘ilar» schyotida yuritiladi;

- 1040 «Ehtiyot qismlar» schyotida mashina, uskuna, transport vositalari va boshqalarni ta’mirlash va eskirgan qismini almashtirish uchun mo‘ljallangan asosiy faoliyat uchun xarid qilingan yoki tayyorlangan, ehtiyot qismlarning mavjudligi va harakati, hamda zaxiradagi avtomobil shinalari hisobga olinadi;

- 1050 «Qurilish materiallari» schyotida qurilish konstruktsiyalari va detallari, bino va inshootlarning qismlari, konstruktsiya va detallarini qurish va pardoz qilish, qurilish detallarini tayyorlash, qurilish va montaj ishlarida ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ishlatiladigan, shuningdek boshqa ehtiyojlar uchun chetdan xarid qilingan qurilish materiallarining mavjudligi va harakati hisobga olinadi;

- 1060 «Tara va tarabop materiallar» schyotida taralarning barcha turlari (xo‘jalik inventari sifatida foydalaniladigan taralardan tashqari), shuningdek taralar tayyorlash va ta’mirlash uchun mo‘ljallangan materiallar va detallar (yashiklarni yig‘ish uchun detallar, bochka taxtasi, temir gardish va boshqalar)ning mavjudligi va harakati yuritiladi. Yuklanadigan mahsulotlarning butligi va saqlanishini ta’minlash maqsadida vagonlar, barjalar, samolyotlar, kemalarni qo‘shimcha jihozlash uchun mo‘ljallangan buyumlar 1010 «Xomashyo va materiallar» schyotida hisobga olinadi;

- 1070 «Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar» schyotida chetga qayta ishlash uchun berilgan xomashyo va materiallarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi. Bunda materiallarga qayta ishlov berish bilan bog‘liq chetdagi korxonalarga to‘langan xarajatlar bevosita qayta ishlashdan olingan buyumlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetiga kiritiladi;

- 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyotida korxonaning joriy aktivlari tarkibiga kiradigan inventarlar, asboblar, xo‘jalik jihozlari va boshqa mehnat vositalarining mavjudligi va harakati hisobga olinadi. Korxonalar mustaqil ravishda inventarlar, asboblar va xo‘jalik jihozlarini hisobga oluvchi schyotlarni ularning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidagi o‘rni va roliga qarab ochishlari mumkin;

- 1090 «Boshqa materiallar» schyotida yuqorida keltirilgan schyotlarda nazarda tutilmagan materiallarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi. Bu yerda ishlab chiqarish chiqindilari (qirqimlar, qirindi va sh.k.); tuzatib bo‘lmaydigan yaroqsiz mahsulotlar; asosiy vositalarning chiqib ketishidan olingan moddiy qiymatliklar (metallolom, yaroqsiz xomashyo, eskirgan shinalar, kameralar, yaroqsiz rezina, ishlatilgan moy, nigrol va h.k.) hisobga olinadi;

- 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyotida aylanma mablag‘larga taalluqli bo‘lgan moddiy qiymatliklarni tayyorlash va xarid qilish to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi.

- 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schyotida moddiy qiymatliklarning haqiqiy tannarxi va hisob bahosi orasidagi farq to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi.

21-son BHMS ga muvofiq, ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish jarayoni bilan bog‘liq xarajatlar va tugallanmagan ishlab chiqarish to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyotida korxonaning asosiy faoliyat turi hisoblangan mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish xarajatlari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi.

Analitik hisob xarajatlarning turlari va chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat)larning turlari bo‘yicha yuritiladi. Xarajatlarning yuzaga kelish joylari va boshqa belgilari bo‘yicha guruhlanishi, shuningdek kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida amalga oshiriladi. Ushbu schyotlarning tarkibi va foydalanish uslubiyatini har bir korxona o‘zining ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish faoliyati, tuzilishi, boshqarishni tashkil etish xususiyatlariga qarab belgilaydi. Agar xarajatlarning vujudga kelish joyi va boshqa belgilari bo‘yicha guruhlanishi hamda kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida hisobga olinmasa, 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyotining analitik hisobi ham korxonaning alohida bo‘linmalari bo‘yicha yuritiladi;

- 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyotida korxonaning asosiy ishlab chiqarishiga yoki asosiy faoliyatiga yordamchi va xizmat ko‘rsatuvchi hisoblangan ishlab chiqarish xarajatlari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi.

Analitik hisob xarajatlarning turlari va chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari bo‘yicha yuritiladi. Xarajatlarning yuzaga kelish joylari va boshqa belgilari bo‘yicha guruhlanishi, shuningdek kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida amalga oshiriladi. Ushbu schyotlarning tarkibi va foydalanish uslubiyatini har bir korxona o‘zining ishlab chiqarish faoliyati, tuzilishi, boshqarishni tashkil etish xususiyatlariga qarab belgilaydi. Agar xarajatlarning vujudga kelish joyi va boshqa belgilari bo‘yicha guruhlanishi hamda kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida hisobga olinmasa, 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyotining analitik hisobi ham korxonaning alohida bo‘linmalari bo‘yicha yuritiladi;

- 2510 «Umumishlabchiqarish xarajatlari» schyotida korxonaning umumishlab chiqarish xarajatlari ya’ni ikki va undan ortiq turda mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish jarayoniga tegishli xarajatlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi. 2510 «Umumishlabchiqarish xarajatlari» schyotida umumishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘lgan xarajatlar aks ettiriladi, jumladan:

- mashina va uskunalarni saqlash va ulardan foydalanish bo‘yicha;
- ishlab chiqarishga taalluqli bo‘lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya ajratmalari bo‘yicha;
- ishlab chiqarishga taalluqli bo‘lgan asosiy vositalarni ta’mirlash xarajatlari;
- ishlab chiqarishdagi mol-mulkning sug‘urta xarajatlari;

- ishlab chiqarish binolarini isitish, yoritish va saqlash xarajatlari;

- ishlab chiqarishda foydalaniladigan ishlab chiqarish binolari, mashina va uskunalar, boshqa ijaraga olingan vositalar uchun ijara to‘lovlari;

- ishlab chiqarishga xizmat ko‘rsatishda band bo‘lgan ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi;

- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Umumishlab chiqarish xarajatlarini alohida hisob obyektlari orasida taqsimlash tartibi korxonaning hisob siyosati orqali aniqlanadi. 2510 «Umumishlabchiqarish xarajatlari» schyoti bo‘yicha analitik hisob korxonaning alohida bo‘linmalari va xarajatlar moddalari bo‘yicha yuritiladi;

- 2610 «Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar» schyotida ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot hisobiga yo‘qotishlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi. 2610 «Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob korxonaning alohida sexlari, mahsulot turlari, xarajat moddalari va yaroqsiz mahsulotlarning vujudga kelish sabablari bo‘yicha yuritiladi;

- 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyotida xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarda ishlab chiqarilgan mahsulot, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar bilan bog‘liq xarajatlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi.

Buxgalteriya hisobi nuqtai nazaridan qaraganda korxonaning ***xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklari*** sifatida korxonaning maqsadi bo‘lgan faoliyati mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlab chiqarish va xo‘jaliklar tushuniladi. Jumladan, 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyotida korxonaning balansida bo‘lgan sog‘liqni saqlash obyektlari, bolalar bog‘chalari, uy-joy kommunal xo‘jaligi obyektlari, sport va madaniyat, tikuvchilik va boshqa maishiy xizmat ko‘rsatish ustaxonalari, oshxona va bufetlar, ilmiy-tadqiqot va konstruktorlikka oid ajratilgan bo‘linmalarni saqlash xarajatlari aks ettiriladi.

2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalik va xarajat elementlari, moddalari bo‘yicha va mahsulot turlari bo‘yicha yuritiladi.

21-son BHMS ga muvofiq, korxonada ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar va qayta sotishga mo‘ljallangan tovarlar (savdo faoliyati amalga oshirilsa yoki tayyor mahsulotga qo‘shib sotilsa) to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyotida ishlab chiqarishning barcha texnologik jarayonlaridan o‘tgan va sotish uchun tayyorlangan (olingan) tayyor mahsulotlar, shu jumladan, qisman korxonaning o‘z ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan mahsulotlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi;

- 2820 «Ko‘rgazmadagi tayyor mahsulotlar» schyotida ko‘rgazma, yarmarka, reklama va ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan tayyor mahsulotlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi;

- 2830 «Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar» schyotida komissiya va konsignatsiya shartnomalari bo‘yicha ortib jo‘natilgan tayyor mahsulotlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi.

2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar», 2820 «Ko‘rgazmadagi tayyor mahsulotlar», 2830 «Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar» schyotlari bo‘yicha analitik hisob javobgar shaxslar bo‘yicha, turlari (sortlar, partiyalar, kiplar) bo‘yicha va tayyor mahsulotni saqlash joylari bo‘yicha yuritiladi;

- 2910 «Ombordagi tovarlar» schyotida ulgurji va taqsimot bazalarida, omborlarda, umumiy

ovqatlanish korxonalarining saqlash joylarida, sabzavotni saqlash joylarida va boshqalarda saqlanayotgan mavjud tovar zaxiralarining naqdligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi;

- 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schyotida chakana savdo korxonalari (magazinlar, palatkalar, laryoklar, kiosklar va h.k.lar) va umumiy ovqatlanish korxonalarining bufetlaridagi tovarlarning naqdligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi;

- 2930 «Ko‘rgazmadagi tovarlar» schyotida ko‘rgazmalar, yarmarkalar, reklama va ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan tovarlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi. Tovarlar 2930 «Ko‘rgazmadagi tovarlar» schyotida hisobga olinganda tovarlar uchun javobgarlik vaqtincha bir moddiy javobgar shaxsdan boshqasiga o‘tadi;

- 2940 «Prokatdagi buyumlar» schyotida prokatga (ijaraga) berish uchun mo‘ljallangan buyumlarning naqdligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 34-bobi «Mol-mulk ijarasi» ga muvofiq, prokat shartnomasi bu mulk ijarasi shartnomasining bir turi hisoblanadi. Prokatga berilgan buyumlar bilan bog‘liq operatsiyalarni hisobi operativ ijara bilan bog‘liq operatsiyalar hisobiga o‘xshash tarzda amalga oshiriladi. Operativ ijara bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi ijara (lizing) operatsiyalarining hisobida batafsil yoritib o‘tilgan;

- 2950 «Tovarlar bilan band va bo‘sh taralar» schyotida tovarlar bilan band va bo‘sh turgan taralarning (chakana savdo korxonalaridagi va umumiy ovqatlanish korxonalarining bufetlaridagi shisha taralardan tashqari) naqdligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi;

- 2960 «Komissiyaga berilgan tovarlar» schyotida boshqa korxonalarga komissiya va konsignatsiya shartnomasi bo‘yicha berilgan tovarlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi;

- 2970 «Yo‘ldagi tovarlar» schyotida hisobot davri oxirida yo‘lda qolgan (omborga kelib tushmagan) tovarlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish amalga oshiriladi.

- 2980 «Savdo ustamasi» schyoti agar chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida tovarlar hisobda sotish bahosida yuritilsa, tovarlarning savdo ustama (chegirma)lari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan. Umumiy ovqatlanish korxonalarida 2980 «Savdo ustamasi» schyotida omborxonalar, bufetlar va oshxonalardagi mavjud oziq-ovqat mahsulotlari va tovarlarning savdo ustamalari, shuningdek oshxona va bufet mahsulotlariga sotish bahosida ularning qiymatiga belgilangan tartibda qo‘yiladigan ustama summalari hisobga olinadi;

- 2990 «Boshqa tovarlar» schyotida 2910-2950 schyotlarda aks ettirilmaydigan boshqa tovarlar to‘g‘risidagi axborotlarnin umumlashtirish amalga oshiriladi.

Tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar (2900) bo‘yicha analitik hisob moddiy javobgar shaxslar, tovarlarning nomlari (navi, guruhlari, toylar) va tovarlarning saqlanish joylari bo‘yicha yuritiladi.

Oldingi hisobot davri oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar qoldig‘i ushbu hisobot yili boshlanishiga o‘tkaziladi. Unga ushbu hisobot davr davomida sotib olingan yoki yaratilgan tovar-moddiy zaxiralar qiymati qo‘shiladi. Hosil bo‘lgan summa sotilgan mahsulot va ushbu hisobot davri oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar qoldig‘i o‘rtasida taqsimlanadi. Birinchi ko‘rsatkich moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda (sotilgan mahsulot (ish, xizmat) va tovarlar tannarxi tarkibida) ko‘rsatiladi va asosiy faoliyatdan olingan sof foydani hisoblashda ishlatiladi, ikkinchisi buxgalteriya balansida aks ettiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi Qonunining va 4-son BHMSga

muvofiq, tovar-moddiy zaxiralarni baholash quyidagi ikki bahoning eng pasti bo‘yicha – balans tuzilayotgan sanadagi tannarx (sotib olish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi) bo‘yicha yoki bozor bahosi (realizatsiya qilishning sof qiymati) bo‘yicha amalga oshiriladi. Boshqacha qilib aytganda, tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlari qiymatini moliyaviy hisobotda aks ettirishda (buxgalteriya balansining 140-satri - 1-shakl), korxonalar balans tuzilishi sanasidagi tovar-moddiy zaxiralari aniq moddasining qiymatini (sotib olish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi) uning balans tuzilishi sanasida aniqlangan bozor qiymatiga solishtirishi va buxgalteriya balansining tegishli satrida olingan narxlarning eng kami bo‘yicha aks ettirishi kerak.

Tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya hisobida tegishli tarzda tan olingan tannarxi O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va 4-son BHMS bilan belgilangan hollardan tashqari o‘zgartirilmaydi.

Tovar-moddiy zaxiralar korxonaning buxgalteriya balansiga tannarxi bo‘yicha kiritiladi hamda ular xarid qiymatini (yetkazib beruvchiga to‘lanadigan summa) va xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Amaliyotda buxgalteriya hisobi tovar-moddiy zaxiralarni xarid qiymati (yetkazib beruvchi to‘lanadigan summalar) va ularni sotib olish bilan bog‘liq barcha xarajatlar ***tovar-moddiy zaxiralarning xarid qilish qiymati*** deb ataladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- bojxona bojlari va yig‘imlari;
- tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan soliq va yig‘imlar summalari (agar ular qoplanmasa (hisobga olishga qabul qilinmasa);
- tovar-moddiy zaxiralar ta’minotchi va vositachi tashkilotlar orqali xarid qilinganda ularga to‘lanadigan to‘lovlar (vositachilik haqi);
- tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralarni sertifikatlash va ularni texnik shartlarga muvofiq sinash bo‘yicha xarajatlar;
- tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va ularni ayni paytdagi joylashish yoki foydalanish joyiga yetkazib berish bo‘yicha transport-tayyorlov xarajatlari. Ular tayyorlash, yuklash-tushirish ishlari va tovar-moddiy zaxiralarni barcha turdagi transport bilan ularni ayni paytdagi joylashish yoki foydalanish joyiga transportda tashish uchun (fraxt) to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha xarajatlar, shu jumladan tovar-moddiy zaxiralarni transportda tashishda xatarlarni sug‘urtalash bo‘yicha xarajatlardan tashkil topadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan va ularning tannarxiga boshqa xarajatlar ham kiritilishi mumkin.

Savdo diskontlari, chegirmalar va shu kabi chegiruvlar tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish xarajatlarini belgilash chog‘ida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq xo‘jalik shartnomasi yetkazib beriladigan tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, bahosi hisob-kitob shakllari va boshqa muhim shartlarni o‘z ichiga olishi kerak. SHundan kelib chiqqan holda xaridorga chegirma taqdim etish shartlari shartnomda ko‘zda tutilishi lozim.

Shartnomaga muvofiq tovar-moddiy zaxiralar chegirma bilan xarid qilinganda, ular quyidagi tartibda buxgalteriya hisobida aks ettiriladi.

Xaridor tomonidan tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish sanasida foydalanilgan chegirmalar, agar tasdiqlovchi birlamchi hisob hujjatlari mavjud bo‘lganda, ular xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralari qiymatini kamaytirishga kiritiladi (sotib olish xarajatlari tarkibiga kiritilmaydi).

Tovar-moddiy zaxiralarni olingan chegirmalarni hisobga olgan holda xarid qilish operatsiyalari buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib o‘tamiz. Korxona tovar sotib olish uchun shartnoma imzoladi. SHartnoma shartlariga muvofiq tovar bir birligining narxi 8 500 so‘m. SHuningdek, shartnomada tovarni ma’lum bir miqdori xarid qilinganda chegirmalar taqdim etishning quyidagi shartlari ko‘rsatilgan:

500 dan – 1000 donagacha – xarid narxining 3 % miqdorida;

1001 dan – 2000 donagacha – xarid narxining 5 % miqdorida;

2000 donadan ortsa – xarid narxining 7 % miqdorida.

Korxona chegirmalar taqdim etish shartlaridan foydalangan holda tovardan 1000 dona, ya’ni 8 245 000 so‘mga (8 500*1000) * (100-3%)/100 yoki (chegirma hisobga olinmagan holdagi tovarning qiymati: 8 500*1000 dona=8 500 000 so‘m; chegirma summasi: 8 500 000* 3%=255 000 so‘m; chegirma hisobga olingan holdagi tovar qiymati: 8 500 000-255 000=8 245 000 so‘m) xarid qildi.

Tovar-moddiy zaxiralarni olingan chegirmalarni hisobga olgan holda xarid qilish operatsiyalari korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet materiallarni hisobga oluvchi schetlar (1000) yoki
tovarlarni hisobga oluvchi schetlar (2900) *8 245 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *8 245 000 so‘m.*

Yoki (agar tovarlarni xarid qilish bo‘yicha birlamchi hisob hujjatlarida chegrima summasi alohida ajratib ko‘rsatilgan bo‘lsa):

debet materiallarni hisobga oluvchi schetlar (1000) yoki
tovarlarni hisobga oluvchi schetlar (2900) *8 245 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *8 245 000 so‘m;*

bir vaqtning o‘zida, chegirma summasiga:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *255 000 so‘m;*
kredit materiallarni hisobga oluvchi schetlar (1000) yoki
tovarlarni hisobga oluvchi schetlar (2900) *255 000 so‘m.*

Tovar-moddiy zaxiralari qabul qilingan sanadan so‘ng ularni xarid qilish bo‘yicha shartnoma shartlarini bajarish natijasida yuzaga kelgan (olingan) chegirmalar, tashkilotning moliyaviy natijalariga kiritiladi va sotib olingan tovar-moddiy zaxiralar qiymatini kamaytirmaydi.

Tovar-moddiy zaxiralari qabul qilingan sanadan so‘ng ularni xarid qilish bo‘yicha shartnoma shartlarini bajarish natijasida yuzaga kelgan (olingan) chegirmalar hisobga olgan holda xarid qilish operatsiyalari buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib o‘tamiz. Korxona tovarni sotib olish uchun shartnoma imzoladi. SHartnoma shartlariga tovar bir birligining narxi 8 500 so‘m. SHuningdek, shartnomada chegirmalar taqdim etishning quyidagi shartlari ko‘rsatilgan:

tovar yetkazib berilgandan so‘ng to‘lov 15 kun ichida amalga oshirilsa – yetkazib berish qiymatining 3% miqdorida;

tovar yetkazib berilgandan so‘ng to‘lov 10 kun ichida amalga oshirilsa – yetkazib berish qiymatining 4% miqdorida;

tovar yetkazib berilgandan so‘ng to‘lov 5 kun ichida amalga oshirilsa – yetkazib berish qiymatining 5% miqdorida.

Korxona 1000 dona tovarni 8 500 000 so‘mga (1000 dona*8 500) xarid qildi va tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish paytida to‘lov qachon amalga oshirilishi aniq emas, chunki shartnomaga muvofiq yetkazib berilgan tovarlar uchun to‘lov 60 kun ichida amalga oshirish mumkinligi belgilangan.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq mazkur operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettiriladi:

debet materiallarni hisobga oluvchi schetlar (1000) yoki
tovarlarni hisobga oluvchi schetlar (2900) *8 500 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *8 500 000 so‘m.*

Korxona taqdim etilgan chegirma shartlaridan foydalanish to‘g‘risida qaror qabul qilib, tovar uchun to‘lovni tovar yetkazib berilgan kundan 12 kun keyin amalga oshirdi. SHu tariqa, korxonaga chegirma sharti amal qiladigan davr ichida to‘lovni amalga oshirganligi sababli 3 foizlik chegirma taqdim etildi. Ushbu holda chegirma summasi 255 000 so‘mni (8 500 000*3%=255 000) tashkil etadi.

Chegirma shartlarining bajarilishini hisobga olgan holda yetkazib berilgan tovarlar uchun to‘lov buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettiriladi:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *8 500 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *8 245 000 so‘m;*

kredit hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5100) - 8 245 000 so‘m.

kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti *255 000 so‘m.*

Qo‘shimcha tovar-moddiy zaxiralar tekin olinganda, agar tasdiqlovchi birlamchi hisob hujjatlari mavjud bo‘lganda, sotib olingan tovar-moddiy zaxiralar qiymati barcha olingan tovar-moddiy zaxiralar miqdoriga (tekin olingan tovar-moddiy zaxiralarini ham hisobga olgan holda) taqsimlash orqali ularning tannarxi aniqlanadi.

Qo‘shimcha tovar-moddiy zaxiralar tekin olinganda xarid qilish operatsiyalari buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib o‘tamiz. Korxona tovarni sotib olish uchun shartnoma imzoladi. SHartnoma shartlariga muvofiq tovar bir birligining narxi 8 500 so‘m. SHuningdek, shartnomada tovarni ma’lum bir miqdori xarid qilinganda natural turdagi chegirmalar (natural chegirma) taqdim etishning quyidagi shartlari ko‘rsatilgan:

500 dan – 1000 donagacha – natural chegirma sifatida qo‘shimcha 50 dona tekin;

1001 dan – 2000 donagacha – natural chegirma sifatida qo‘shimcha 100 dona tekin;

2000 donadan ortsa – natural chegirma sifatida qo‘shimcha 150 dona tekin.

Korxona chegirma berish shartidan foydalangan holda 1000 dona tovarni xarid qildi va bir paytning o‘zida aynan shu tovardan natural chegirma sifatida qo‘shimcha 50 dona tekin oldi.

Shunday qilib, tovarning bir birligining qiymati, natural chegirma sifatida qo‘shimcha tekin olinganini ham hisobga olgan holda 8 095,24 so‘mni (8 500 000/(1000+50) tashkil etadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni natural chegirmani hisobga olgan holda xarid qilish bo‘yicha mazkur operatsiya buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettiriladi:

debet materiallarni hisobga oluvchi schetlar (1000) yoki
tovarlarni hisobga oluvchi schetlar (2900) *8 500 000 so‘m;*
(1050 dona tovar har birining tannarxi 8095,24 so‘m bo‘yicha);
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga

to‘lanadigan schyotlar» schyoti 8 500 000 so‘m.

Ushbu holda, analitik hisobda 1 050 dona tovarning har birining tannarxi 8 095,24 so‘ni tashkil etadi.

Avval yetkazib berilgan tovar-moddiy zaxiralar hisobidan qo‘shimcha tovar-moddiy zaxiralar tekin olinganda, mazkur bandda belgilangan tartibda hisoblab chiqarilgan qo‘shimcha olingan tovar-moddiy zaxiralar tannarxi hisobot davrining moliyaviy natijalariga kiritiladi.

Agarda tovar-moddiy zaxiralarini sotib olish paytida avvalgi xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarini hisobga olgan holda qo‘shimcha tovar-moddiy zaxiralari tekin olinganda, avval xarid qilingan va oxirgi xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralariga to‘g‘ri keladigan qo‘shimcha tekin olingan tovar-moddiy zaxirlari ulushlari aniqlanadi. Bunda oxirgi xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralari qiymati ularga to‘g‘ri keladigan qo‘shimcha tekin olingan tovar-moddiy zaxiralari ulushini hisobga olgan holda kirim qilinadi.

Avval yetkazib berilgan tovar-moddiy zaxiralar hisobidan qo‘shimcha tovar-moddiy zaxiralar tekin olinganda xarid qilish operatsiyalari buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib o‘tamiz.

Korxona tovar xarid qilish bo‘yicha 2021-yil 15 martda shartnoma imzoladi. SHartnoma shartlariga muvofiq tovar bir birligining narxi 25 000 so‘mni tashkil etadi. SHartnomaning maxsus shartlariga muvofiq, agar xaridor tovardan yil davomida jami 1 200 donadan ortiq xarid qilsa, sotuvchi tomonidan natural chegirma sifatida aynan shu tovardan qo‘shimcha 50 dona tekin berilishi belgilangan.

Korxona 2021-yil 16-mayda 1000 dona va 2021-yil 10-avgustda yana 400 dona tovar xarid qilgan, natijada mol yetkazib beruvchi tomonidan tovardan natural chegirma sifatida 50 dona qo‘shimcha tovar tekin berildi (chunki korxona jami 1 400 dona tovarni xarid qilmoqda).

1. Xarid qilingan har bir partiyadagi tovarlar ulushi aniqlanadi:

(1) jami sotib olingan tovarlar hajmida avvalgi sotib olingan tovarlar partiyasining ulushi (2021-yil 16-may)

100/1400 *100% = 71,4% ;

(2) jami sotib olingan tovarlar hajmida oxirgi xarid qilingan tovarlar partiyasining ulushi

400/1400 *100% = 28,6 % ;

2. Chegirma sifatida tekin olingan qo‘shimcha tovarlar avval xarid qilingan va oxirgi xarid qilingan tovarlar partiyasi ulushlariga taqsimlanadi.

(1) avval xarid qilingan tovarlar partiyasi (2021-yil 16-may) ulushiga to‘g‘ri keladigan tekin olingan tovarlar miqdori:

71,4% * 50 = 36 dona;

(2) oxirgi xarid qilingan tovarlar partiyasining (2021-yil 10-avgust) ulushiga to‘g‘ri keladigan tekin olingan tovarlar miqdori:

28,6% * 50 = 14 dona.

Oxirgi xarid qilingan tovarlar, shu jumladan oxirgi xarid qilingan tovarlar partiyasining ulushigi to‘g‘ri keladigan tekin olingan tovarlarni hisobga olgan holda bir birligining tannarxi 24 155 so‘mni (25 000 * 400)/(400+14) tashkil etadi.

Avvalgi xarid qilingan partiya ulushiga tegishli 36 dona tekin olingan tovarlar qiymati 868 725 so‘mni (25 000*1000/1000+36) tashkil etib, mazkur summa hisobot davrining moliyaviy natijalariga kiritiladi.

Yuqorida qayd etilgan tovar-moddiy zaxiralarni natural chegirmani hisobga olgan holda xarid qilish bo‘yicha operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettiriladi:

a) birinchi partiya tovarlar 2021-yil 16-mayda xarid qilinganda (1000 dona tovar 25 000 so‘mdan):

debet materiallarni hisobga oluvchi schetlar (1000) yoki
tovarlarni hisobga oluvchi schetlar (2900) *25 000 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *25 000 000 so‘m;*

b) oxirgi partiya tovarlar 2021-yil 10-avgustda xarid qilinganda (10 000 000 so‘mga 414 (400+14) dona va 868 725 so‘mga 36 dona tovar kirim qilinadi):

debet materiallarni hisobga oluvchi schetlar (1000) yoki
tovarlarni hisobga oluvchi schetlar (2900) *10 868 725 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *10 000 000 so‘m;*
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti *868 725 so‘m;*

10 868 725 so‘m (10 000 000+868 725).

Shunday qilib, buxgalteriya hisobida chegirmalarni aks ettirish uchun xaridorga shartnomaga muvofiq chegirma taqdim etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar talab etiladi. «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga va «Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan barcha xo‘jalik operatsiyalari ularni tasdiqlovchi hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi va buxgalteriya hisobi yuritish uchun asos bo‘lishi belgilangan.

Sotuvchida chegirmalarni buxgalteriya hisobi 21-son BHMS da keltirilgan tartibda amalga oshiriladi. Shartnoma shartlariga muvofiq berilgan sotuv chegirmalari hisobi 9050 «Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar» schyoti orqali yuritiladi.

Shunga alohida e’tibor qaratish kerakki, buxgalteriya hisobi amaliyotida xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga ularni xarid qilish bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish xarajatlarining ham kiritilishi ko‘p uchraydi. Bu noto‘g‘ridir. Chunonchi, xarid qilingan tovar-moddiy zaxira uchun haq to‘lash bilan bilan bog‘liq xarajatlar (akkreditiv ochish xarajatlari, o‘tkazmalar uchun bank komissiyasi, tovar-moddiy zaxiralarni chetel valyutasiga xarid qilishda valyutani ayirboshlash (konvertatsiyalash) bo‘yicha komissiya va boshqa bank xizmatlari), tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bo‘yicha shartnomalarni tayyorlash, ro‘yxatdan o‘tkazish va yopish bilan bog‘liq xarajatlar hamda aktivlarni xarid qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan boshqa xarajatlar ***tovar-moddiy zaxiralarning xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar qo‘shilmaydi***, balki ular sodir bo‘lgan hisobot davrida xarajatlar sifatida tan olinadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni qarz kapitali hisobiga sotib olinganda yoki tayyorlanganda kredit (qarz)dan foydalanganlik uchun hisoblanadigan foizlar to‘liq yoki qisman kredit hisobiga sotib olingan yoki tayyorlangan ***tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga kiritilmaydi.***

Agar shartnoma shartlarida xarid qilinadigan tovar-moddiy zaxiralar uchun to‘lovni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash nazarda tutilgan bo‘lsa, mazkur tovar-moddiy zaxiralar buxgalteriya hisobiga to‘lovni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash taqdim etilmasdan sotiladigan qiymat bo‘yicha qabul qilinadi. Bunda tovar-moddiy zaxiralarning to‘lovni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash taqdim etilmasdan sotiladigan qiymati bilan sotib olinayotgan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha umumiy to‘lov summasi o‘rtasidagi farq to‘lovni kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash davri mobaynida joriy to‘lovning kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash bo‘yicha to‘lovlarning umumiy summasidagi salmog‘idan kelib chiqib moliyaviy xarajatlar (foizlar bo‘yicha xarajatlar) sifatida tan olinadi.

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida Nizom» ga muvofiq yuqorida sanalgan xarajatlar boshqa operatsion xarajatlar yoki moliyaviy faoliyat bilan bog‘liq xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

Tovar-moddiy zaxiralarga qo‘shimcha ishlov berish va ularni foydalanishga yaroqli holga keltirish bo‘yicha ishlar bilan bog‘liq xarajatlar (tegishli holatga keltirish bo‘yicha ishlar bilan bog‘liq xarajatlar) korxonaning mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan navlarga ajratish, o‘rab-joylash (qadoqlash) va ularni tovar ko‘rinishiga keltirish bo‘yicha xarajatlarini o‘z ichiga oladi. Yaroqli holga keltirish bo‘yicha ishlar bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar, ularning korxonaning o‘z kuchi bilan, chet tashkilotlar tomonidan bajarilishidan qat’i nazar tovar-moddiy zaxiralarning tannarxiga kiritiladi.

Korxonaning transport-tayyorlov xarajatlari quyidagi usullardan biri bo‘yicha hisobga olinadi yoki xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralar qiymatiga o‘tkaziladi:

- transport-tayyorlov xarajatlarini tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) kiritish (shartnoma narxiga qo‘shish, ustav kapitaliga kiritilgan badalning pul bahosiga qo‘shish, tekinga olingan va h.k. joriy qiymatiga qo‘shish va boshqalar);

- yetkazib beruvchining hisob-kitob hujjatlariga binoan transport-tayyorlov xarajatlarini alohida sintetik 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyotiga olib borib, keyinchalik ularni «Materiallar» elementi bo‘yicha tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga yoki ishlatilishiga qarab ishlab chiqarish xarajatlariga va (yoki) davr xarajatlariga kiritish.

Shunga e’tibor berish kerakki, birinchi usul - transport-tayyorlov xarajatlarini tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) kiritish usulidan tovar-moddiy zaxiralar nomenklaturasi ko‘p bo‘lmagan korxonalarda, shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarning alohida turlari va guruhlari qiymati ancha salmoqli bo‘lgan hollarda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi usuldan foydalanganda, transport-tayyorlov xarajatlarining summasi alohida yig‘iladi va tovar-moddiy zaxiralarning tegishli nomlari (ushbu transport-tayyorlov xarajatlari kiritiladigan partiyalar, guruhlar) o‘rtasida taqsimlanadi.

Alohida yig‘iladigan transport-tayyorlov xarajatlari summasi korxonaning hisob siyosatida belgilangan davrga bog‘liq holda davr oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar qoldig‘i summasi va ushbu davrda chiqib ketgan (ishlatilgan, sotilgan, tekin berilgan va boshqalar) tovar-moddiy zaxiralar summasi o‘rtasida taqsimlanadi.

Chiqib ketayotgan tovar-moddiy zaxiralarga tegishli bo‘lgan transport-tayyorlov xarajatlar summasi chiqib ketgan tovar-moddiy zaxiralar qiymatidan transport-tayyorlov xarajatlarning o‘rtacha foizini hisoblash orqali aniqlanib, ushbu tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketishi aks ettirilgan buxgalteriya hisobi schetlari bilan bog‘langan schetlarida aks ettiriladi. Transport-tayyorlov xarajatlarning o‘rtacha foizi davr boshidagi transport-tayyorlov xarajatlar qoldig‘i va davr ichida qilingan transport-tayyorlov xarajatlar summalarini davr boshidagi tovar-moddiy zaxiralar qoldig‘i va davr ichida kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar summasiga bo‘lish bilan aniqlanadi.

Ta’kidlab o‘tish lozimki, transport-tayyorlov xarajatlarini hisobga olishning qo‘llaniladigan usuli korxonaning hisob siyosatida 1-son BHMS da belgilangan tartibda aks ettirilishi lozim.

Tovar-moddiy zaxiralari bo‘yicha transport-tayyorlov xarajatlarini hisobga olish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning hisob siyosatida materiallarni xarid qilish bilan bog‘liq transport-tayyorlov xarajatlarini hisobga olishda alohida materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi schyotlar (1500) dan foydalanilishi nazarda tutilgan. Quyidagi jadvalda mazkur korxona bo‘yicha matieriallarni xarid qilish bilan bog‘liq transport-tayyorlov xarajatlarini summasi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Hisobot davri (joriy oy) da qiymati 90 000 000

so‘m bo‘lgan materiallar ishlab chiqarish jarayonida sarflangan. Qolgan materiallar boshqa korxonaning ustav kapitaliga ta’sischilarning qo‘yilmalari (ulushi) sifatida berilgan.

Materiallarni xarid qilish bilan bog‘liq transport-tayyorlov xarajatlarini summasi to‘g‘risida ma’lumotlar

Mazmuni	Materiallarni qiymati	Transport-tayyorlov xarajatlari
1. Hisobot davri boshiga qoldiq	40 000 000	100 000
2. Hisobot davrida kelib tushgan, vujudga kelgan	80 000 000	200 000
3. Hisobot davrida chiqib ketgan (sotilgan, ustav kapitaliga ulush sifatida berilgan va h.k.) va ishlab chiqarish jarayoniga berilgan	100 000 000	250 000
4. Hisobot davri oxiridagi qoldiq (1 qt + 2-qt – 3qt)	20 000 000	50 000

Hisobot oyida chiqib ketgan materiallar bo‘yicha taqsimlanishi kerak bo‘lgan transport-tayyorlov xarajatlarini summasi quyidagidan iborat:

$$\frac{100\,000 \text{ so‘m} + 200\,000 \text{ so‘m}}{40\,000\,000 \text{ so‘m} + 80\,000\,000 \text{ so‘m}} \times 100\,000\,000 \text{ so‘m} = 250\,000 \text{ so‘m.}$$

Mazkur oydagi materiallarni xarid qilish bilan bog‘liq transport-tayyorlov xarajatlari o‘z ichiga quyidagilarni oladi: yordamchi materiallar - 20 000 so‘m, korxonaning transport bo‘limi tomonidan ko‘rsatilagn transport xizmatlari - 60 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash 40 000 so‘m va ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasiga 4 800 so‘m.

Transport-tayyorlov xarajatlarini materiallar tannarxiga transport-tayyorlov xarajatlarini alohida 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyotiga olib borish usulida korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyoti *130 000 so‘m;*
kredit 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti *20 000 so‘m;*
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti *60 000 so‘m;*
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti *40 000 so‘m;*
kredit 6520 «Maqsadli davalt jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti *4 800 so‘m.*

Materiallarni xizmat ko‘rsatish jarayoniga va boshqa korxona ustav kapitaliga ta’sischilar qo‘yilmasi (ulushi) sifatida berish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- materiallar xizmat ko‘rsatish jarayoniga berilganda:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti *225 000 so‘m;*
kredit 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyoti *225 000 so‘m;*

$\frac{90\ 000\ 000\ so‘m}{100\ 000\ 000\ so‘m}$ x 250 000 so‘m = 225 000 so‘m;

- materiallar boshqa korxona ustav kapitaliga ta’sischilar qo‘yilmasi (ulushi) sifatida berilganda:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 25 000 so‘m;
kredit 1510 «Materiallarni tayyorlash va
xarid qilish» schyoti 25 000 so‘m;

(25 000 so‘m = 250 000 so‘m – 225 000 so‘m).

Tovar-moddiy zaxiralarni tannarxini shakllanishi va ularni kirim qilish bilan bog‘lik bo‘lgan operatsiyalarni tovar-moddiy zaxiralarni kelib tushish manbaidan kelib chiqib 21-son BHMS ga muvofiq buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini ko‘rib chiqamiz.

3.2. Haq evaziga xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi

Haq evaziga xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi qoplanadigan (hisobga olishga qabul qilinadigan) soliqlarni chegirgan holda shartnomaga yoki ularning xarid qilinganligi, ishlar bajarilganligi, xizmatlar ko‘rsatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarga muvofiq yetkazib beruvchiga (sotuvchiga) to‘lanadigan summa hamda unga tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni qo‘shgan holda aniqlanadi.

Haq evaziga xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarni tannarxining shakllanashi va ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. 2021-yil 25-aprelda xomashyo va materiallarni xarid qilish bo‘yicha shartnoma imzolandi. SHartnoma shartlariga ko‘ra 1 tonna xomashyoning narxi 4 000 000 so‘mga teng. SHartnoma bo‘yicha xarid qilinadigan xomashyoni umumiy miqdori 200 tonna. SHartnoma shartiga ko‘ra korxona tomonidan 2021-yil 15-mayda xomashyo uchun oldindan 100 foiz to‘lovni amalga oshirilishi kerak. Ammo, bunday miqdordagi pul mablag‘lari ayni paytda bo‘lmagani tufayli, korxona 2021-yil 15-mayda unga xizmat ko‘rsatuvchi bankdan qisqa muddatli kreditni oldi va xomashyo uchun to‘lovni amalga oshirdi. Kredit shartlari quyidagicha: muddati – berilgan kundan boshlab 6 oy, stavkasi – yillik 15 foiz, foizlar har kalendar oy oxirida to‘lanishi kerak. 2021-yil 25-mayda mol yetkazib beruvchi 70 tonna xomashyoni yuklab jo‘natdi, 2021-yil 20-iyunda esa xomashyoni qolgan qismini yuborgan. Xomashyoni yetkazib berish bilan bog‘lik xarajatlar mol yetkazib beruvchi tomonidan amalga oshirilgan va u 3 000 000 so‘mni tashkil qildi.

Xomashyoni xarid qilish bilan bog‘lik operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

2021-yil 15-may holatiga:

- qisqa muddatli bank kreditining olinishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 800 000 000 so‘m;
kredit 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» schyoti 800 000 000 so‘m;

(800 000 000 so‘m = 4 000 000 so‘m x 200 tonna);

- xarid qilinayotgan xomashyo uchun oldindan to‘lovni amalga oshirish:

debet 4310 «TMQ buyicha mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga
berilgan bo‘naklar» schyoti 800 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 800 000 000 so‘m.

2017- yil 25-may holatiga:

- mol yetkazib beruvchi tomonidan yuklab jo‘natilgan xomashyoni kirim qilish:

debet 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti 280 000 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 280 000 000 so‘m;

(280 000 000 so‘m = 4 000 000 so‘m x 70 tonna);

- xarid qilingan xomashyoni yetkazib berish (tashish) bilan bog‘liq xarajatlar summasiga:

debet 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti yoki
1510 «Materiallarni tayyorlash va sotib olish» schyoti 1 050 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 1 050 000 so‘m;

(15 000 so‘m = 3 000 000 so‘m / 200 tonna);

(1 050 000 so‘m = 15 000 so‘m x 70 tonna);

- mol yetkazib beruvchiga xomashyo uchun ilgari o‘tkazib berilgan bo‘nakni hisobga olish:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 280 000 000 so‘m;
kredit 4310 «TMQ buyicha mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
berilgan bo‘naklar» schyoti 280 000 000 so‘m;

2021-yil 30-may holatiga:

- olingan qisqa muddatli kredit bo‘yicha may oyi uchun foizlar hisoblanishi:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi
xarajatlar» schyoti 1 920 000 so‘m;
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 1 920 000 so‘m;

(1 920 000 so‘m = (800 000 000 x 15%) / 365 x 16 kun (sentyabrdagi);

- qisqa muddatli kredit bo‘yicha hisoblangan foizlarni to‘lash:

debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 1 920 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 1 920 000 so‘m;

2021-yil 20-iyun holatiga:

- mol yetkazib beruvchi tomonidan yuklab jo‘natilgan xomashyoni kirim qilish:

debet 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti 520 000 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 520 000 000 so‘m;

(520 000 000 so‘m = 4 000 000 so‘m x 130 tonna);

- mol yetkazib beruvchiga xomashyo uchun ilgari o‘tkazib berilgan bo‘nakni hisobga olish:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 520 000 000 so‘m;
kredit 4310 «TMQ buyicha mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
berilgan bo‘naklar» schyoti 520 000 000 so‘m;

(520 000 000 so‘m = 800 000 000 so‘m – 280 000 000 so‘m);

- xarid qilingan xomashyoni yetkazib berish (tashish) bilan bog‘liq xarajatlar summasiga:

debet 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti yoki 1510 «Materiallarni tayyorlash va sotib olish» schyoti 1 950 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 1 950 000 so‘m;

(15 000 so‘m = 3 000 000 so‘m / 200 tonna);

(1 950 000 so‘m = 15 000 so‘m x 130 tonna);

- mol yetkazib beruvchiga xomashyoni yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar bo‘yicha bo‘lgan qazdorlik o‘tkazib berilganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 3 000 000 so‘m;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 3 000 000 so‘m;

2021-yil 31-iyun holatiga:

- olingan qisqa muddatli kredit bo‘yicha iyun oyi uchun foizlar hisoblanishi:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi
xarajatlar» schyoti 1 684 644 so‘m;
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 1 684 644 so‘m;

(10 191 780 so‘m = (800 000 000 x 15%) / 365 x 31 kun (oktyabrdagi));

- qisqa muddatli kredit bo‘yicha hisoblangan foizlarni to‘lash:

debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 1 684 644 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 1 684 644 so‘m.

To‘lovlar muddatidan ilgari amalga oshirilishi natijasida beriladigan pul chegirmalari bilan haq evaziga xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarni tannarxining shakllanashi va ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. 2021-yil 3- iyulda ehtiyot qismlarni xarid qilish to‘g‘risida shartnoma imzolandi. Xarid qilinayotgan ehtiyot qismlarning shartnomada ko‘rsatilgan umumiy summasi 50 000 000 so‘mni tashkil etadi. SHartnoma shartlariga muvofiq, tovarga bo‘lgan egalik huquqi xaridorga uni qabul qilib olish paytida o‘tadi va korxona umumiy xarid qiymatining 15 foizi miqdorida oldindan to‘lovni amalga oshirish kerak. Qarzning qolgan qismi esa tovar qabul qilingan sanadan boshlab 90 kun davomida to‘lab beriladi. Bunda, shartnomaga asosan, xaridor ushbu qarzdorlikni tovar qabul qilingan sanadan boshlab 15 kun ichida to‘lab bersa, qarzdorlikning qolgan summasiga nisbatan 3 foizlik chegirmadan foydalanishi mumkin. Korxona 2021-yil 5-iyulda shartnomada ko‘rsatilgan miqdorda oldindan to‘lovni amalga oshirdi. 2021-yil 17-iyulda umumiy shartnomaviy narxda ehtiyot qismlar qabul qilib olindi. 2021-yil 25-iyulda korxona qarzdorlikning qolgan qismini to‘ladi va mol yetkazib beruvchi tomonidan berilgan chegirmadan foydalandi.

To‘lovlar muddatidan ilgari amalga oshirilishi natijasida beriladigan pul chegirmalari bilan moy filtrlarini xarid qilish bilan bog‘lik operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

2021-yil 5-iyul holatiga:

- shartnoma bo‘yicha amalga oshirilgan oldindan to‘lov summasiga:

debet 4310 «TMQ bo‘yicha mol yetkazbib beruvchilar va pudratchilarga
berilgan avanslar» schyoti 7 500 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 7 500 000 so‘m;

(7 500 000 so‘m = 50 000 000 so‘m x 15/100);

2021-yil 17-iyul holatiga:

- xarid qilingan ehtiyot qismlarning omborga kirim qilinishi:

debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti 50 000 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schetlar» schyoti 50 000 000 so‘m;

- mol yetkazib beruvchi oldida yuzaga kelgan qarzdorlik bilan ilgari to‘langan avansni hisobga olish:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schetlar» schyoti 7 500 000 so‘m;
kredit 4310 «TMQ bo‘yicha mol yetkazbib beruvchilar va pudratchilarga
berilgan avanslar» schyoti 7 500 000 so‘m;

2021-yil 25-iyul holatiga:

- xarid qilingan moy filtrlar bo‘yicha qarzdorlikning qolgan summasini to‘lab berish:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schetlar» schyoti 42 500 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 41 225 000 so‘m;
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 1 275 000 so‘m;

(42 500 000 so‘m = 50 000 000 so‘m – 7 500 000 so‘m);
(41 225 000 so‘m = 42 500 000 so‘m – 1 275 000 so‘m);
(1 275 000 so‘m = 42 500 000 so‘m x 3/100).

To‘lovlar muddati kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash nazarda tutilgan holda haq evaziga xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarni tannarxining shakllanashi va ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona 2021-yil 25-martda «Roysons-elektrik» kompaniyasi bilan 20 ta komplekt maishiy konditsionerlar sotib olish bo‘yicha shartnoma tuzdi. SHartnomada maishiy konditsionerning bitta komplekti narxi, agar to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilsa, 1 400 000 so‘m deb belgilangan. Biroq, maishiy konditsionerlar uchun to‘lov jami 2 yil davomida to‘lanishi sharti bilan xarid qilinayotganligi va pul mablag‘lari har chorak oxirida teng ulushlarda kiritilishi kelishilganligi bois, «Roysons-elektrik» kompaniyasi bitta konditsioner komplektini 1 520 000 so‘m bahosida sotishga rozi. SHartnoma shartlariga ko‘ra, birinchi to‘lov tovar yuklab jo‘natilgan kunda amalga oshirilishi kerak. 2021-yil 1-aprelda konditsionerlarning hammasi «Roysons-elektrik» kompaniyasi tomonidan yuklab jo‘natildi va shu kuniyoq birinchi to‘lov amalga oshirildi. Shartnomaga ko‘ra, tovarlarga bo‘lgan egalik qilish huquqi ular yuklangan paytda xaridorga o‘tadi.

Maishiy konditsionerlarni xarid qilish va ular bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

2021-yil 1-aprel holatiga:

- xarid qilingan maishiy konditsionerlarning kirim qilinishi:

debet 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti 28 000 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schetlar» schyoti 14 000 000 so‘m;
kredit 7010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schetlar» schyoti 14 000 000 so‘m;

(28 000 000 so‘m = 20 ta komplekt x 1 400 000 so‘m);

- xarid qilingan maishiy konditsionerlar bo‘yicha birinchi to‘lovning amalga oshirilishi:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schetlar» schyoti 3 800 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 3 800 000 so‘m;

(30 400 000 so‘m = 20 ta komplekt x 1 520 000 so‘m);
(3 800 000 so‘m = 30 400 000 so‘m / 8 marta).

Tovar-moddiy zaxiralar uchun to‘lov muddatini uzaytirish sharti bilan xarid qilish kuni va ular bo‘yicha birinchi to‘lovni amalga oshirish kuni bir-biriga mos kelishi tufayli, to‘lov muddatini kechiktirmasdan yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash shartisiz sotiladigan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati va xarid qilinadigan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha to‘lovlarning umumiy summasi o‘rtasidagi farq moliyaviy xarajatlar (foizlar bo‘yicha xarajatlar) sifatida tan olinmaydi, to‘lanadigan summa esa mol yetkazib beruchi oldidagi asosiy qarzning kamayishiga o‘tkaziladi.

Yuqorida aytilganidek, to‘lov muddatini kechiktirish yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti nazarda tutilmasdan sotiladigan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati va xarid qilinadigan tovar-moddiy

zaxiralar bo‘yicha to‘lovlarning umumiy summasi o‘rtasidagi farq (**2 400 000 so‘m** = 30 400 000 so‘m – 28 000 000 so‘m) to‘lov muddati uzaytirilgan yoki bo‘lib-bo‘lib to‘lash amalga oshiriladigan ***to‘lovlarning umumiy summasidagi joriy to‘lovlarning ulushli salmog‘iga bog‘liq holda*** to‘lov muddati kechiktirilgan yoki bo‘lib-bo‘lib amalga oshiriladigan to‘lov davri davomidagi moliyaviy xarajatlar (foizlar bo‘yicha xarajatlar) sifatida tan olinadi. Bunda, ***joriy to‘lovning to‘lovlar umumiy summasidagi ulushli salmog‘i*** quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\textit{Joriy to‘lovning ulushli salmog‘i} = \frac{\textit{To‘lovlarni amalga oshirish sanasidan boshlab amalga oshirilgan jami to‘lovlar summasi}}{\textit{Shartnomada ko‘zda tutilgan umumiy to‘lovlar summasi}}$$

Har bir to‘lov amalga oshirilganda foizlar bo‘yicha xarajatlar summasi (tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish sanasida paydo bo‘lgan majburiyat yuzaga kelgan kunda amalga oshirilgan birinchi to‘lovdan tashqari) quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

Foizlar bo‘yicha xarajatlar summasi = (Joriy to‘lovning ulushli salmog‘i x bo‘lib-bo‘lib to‘lashdagi umumiy farq summasi) – oldingi davrlarda hisoblangan foizlar bo‘yicha xarajatlarning jamg‘arilgan summasi.

2021-yil 30-iyun holatiga:

- xarid qilingan maishiy konditsionerlar bo‘yicha navbatdagi to‘lovning amalga oshirilishi:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *3 200 000 so‘m;*

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti *600 000 so‘m;*

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *3 800 000 so‘m;*

Bunda, foizlar bo‘yicha xarajatlar hisobi quyidagi ko‘rinishga ega:

Joriy to‘lovlarning ulushli salmog‘i - 25% (7 600 000 / 30 400 000);

Foizlar bo‘yicha xarajatlar - 600 000 so‘m (22 000 000 x 25/100).

2021-yil 30-sentyabr:

- xarid qilingan maishiy konditsionerlar bo‘yicha navbatdagi to‘lovning amalga oshirilishi:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *3 500 000 so‘m;*

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti *300 000 so‘m;*

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *3 800 000 so‘m;*

Bunda, foizlar bo‘yicha xarajatlar hisobi quyidagi ko‘rinishga ega:

Joriy to‘lovlarning ulushli salmog‘i - 37,5% (11 400 000 / 30 400 000);

Foizlar bo‘yicha xarajatlar - 300 000 so‘m ((2 400 000 x 37,5/100) – 600 000 so‘m).

3.3. Chetel valyutasida xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi

Chetel valyutasida xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tegishli xarajatlarni qo‘shgan holda, ularning xarid qilinganligini tasdiqlovchi boshlang‘ich hisob hujjatlarida (tovarning kuzatuv hujjatlari yoki bojxona yuk deklaratsiyasida) ko‘rsatilgan qiymatidan kelib chiqib, ularni buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank kursi bo‘yicha qayta hisoblash yo‘li bilan so‘mda belgilanadi.

Shuningdek, chetel valyutasida xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarni tannarxi 22-son BHMS ga muvofiq aniqlanadi.

Chetel valyutasida xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarni tannarxining shakllanashi va ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona 2021-yil 4-iyulda chetellik mol yetkazib beruvchi bilan umumiy qiymati 50 000 AQSH dollari bo‘lgan ehtiyot qismlarni xarid qilish bo‘yicha shartnoma tuzdi. Yetkazib berish shartnomasiga muvofiq xaridor mol yetkazib beruvchining bankidagi akkreditiv schyotiga ehtiyot qismlarning qiymatining 50 % ini oldindan o‘tkazib berishi kerak. 2021-yil 4-iyulda korxona mol yetkazib beruvchining bankida akkreditiv schyotini ochgan va shartnomada ko‘rsatilgan summani o‘tkazgan. Akkreditiv schyotini ochish sanasidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bir AQSH dollarining so‘mga nisbatan o‘rnatgan kursi 10 950 so‘mni tashkil etgan. Akkreditiv schyotini ochish bilan bog‘liq xarajatlar o‘tkazilgan valyuta summasidan 0,2% ni, akkreditiv o‘tkazma bo‘yicha bankning komissiyasi o‘tkazma summasidan 1,2% ni, shartnomani tayyorlash uchun huquqshunoslik firmasiga to‘langan summa 150 AQSH dollarini, shartnomani ro‘yxatga olish va yopish bilan bog‘liq xarajatlar esa shartnoma summasidan 0,05% ni tashkil etgan. Bundan tashqari milliy valyuta AQSH dollariga almashtirilganda almashtirilgan xorijiy valyuta summasidan 0,2% miqdorda vositachilik haqi to‘langan. 2021-yil 8-avgustda ehtiyot qismlar yuklab jo‘natilgan. Ehtiyot qismlarni transport (tashish va yuklab tushirish ishlari) xarajatlari 3 000 AQSH dollarini va yetkazib berishni sug‘urta qilish bo‘yicha xarajatlari 1 000 AQSH dollarini tashkil etgan. Bojxona yuk deklaratsiyasi 2021-yilning 15-iyulida taqdim etilgan. Bojxona qonunchiligiga muvofiq bojxona to‘lovlari quyidagilardan iborat: bojxona boji 10 % (misol uchun), QQS 15 % va bojxona yig‘imi 0,2 %. Bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish sanasidagi Markaziy bankning bir AQSH dollarining so‘mga nisbatan o‘rnatgan kursi 10 980 so‘m.

Ikkita holatni (korxonaning qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lib hisoblanishidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lib hisoblanadi.

Birinchi navbatda ehtiyot qismlarni AQSH dollaridagi shartnoma qiymatini Bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish sanasidagi O‘zbekistont Respublikasi Markaziy banki AQSH dollarining so‘mga nisbatan o‘rnatgan kursiga ko‘paytirish yo‘li bilan ehtiyot qismlarni so‘mdagi shartnoma qiymatini aniqlaymiz ***549 000 000 so‘m*** (50 000 AQSH dollari x 10 980 so‘m).

Ikkinchi navbatda ehtiyot qismlarni shartnoma qiymatidan kelib chiqib bojxona to‘lovlarini aniqlaymiz. Bojxona to‘lovlari:

- bojxona boji - 54 900 000 so‘m (549 000 000 x 10 /100);
- QQS - 90 585 000 so‘m ((549 000 000 + 54 900 000) x 15 /100);
- bojxona yig‘imlari – 1 098 000 so‘m (549 000 000 x 0,2/100).

Ehtiyot qismlarni tannarxiga qo‘shiladigan bojxona to‘lovlari ***55 998 000 so‘m*** (54 900 000 + 1 098 000) ni tashkil etadi.

Uchinchi navbatda transport (tashish va yuklab tushirish ishlari) xarajatlari va yetkazib berishni sug‘urta qilish bo‘yicha xarajatlarini ekvivalentini aniqlaymiz. Transport (tashish va yuklab tushirish ishlari) xarajatlari 32 940 000 so‘m (3 000 AQSH dollari x 10 980 so‘m) ni, yetkazib berishni sug‘urta qilish bo‘yicha xarajatlari esa 10 980 000 so‘m (1 000 AQSH dollari x 10 980 so‘m) ni tashkil etadi. Ehtiyot qismlarni tannarxiga qo‘shiladigan xarid qilish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar summasi ***43 920 000 so‘m*** (32 940 000 + 10 980 000) ni tashkil etadi.

To‘rtinchi navbatda xarid qilingan ehtiyot qismlarni haqini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar summasini va ularni ekvivalentini aniqlaymiz.

- *akkreditiv schyotini ochish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat:*

25 000 AQSH dollari = 50 000 AQSH dollari x 50 / 100;
50 AQSH dollari = 25 000 AQSH dollari x 0,2 / 100;
547 500 so‘m = 50 AQSH dollari x 10 950 so‘m.
- akkreditiv o‘tkazma bo‘yicha bankning komissiyasi xarajatlari quyidagilardan iborat:
25 000 AQSH dollari = 50 000 AQSH dollari x 50 / 100;
300 AQSH dollari = 25 000 AQSH dollari x 1,2 / 100;
3 285 000 so‘m = 300 AQSH dollari x 10 950 so‘m.
- shartnomani tayyorlash uchun to‘lov to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar quyidagidan iborat:
1 642 500 so‘m = 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m.
- shartnomani ro‘yxatga olish va yopish bo‘yicha xarajatlar quyidagidan iborat:
25 AQSH dollari = 50 000 AQSH dollari x 0,05 / 100;
273 750 so‘m = 25 AQSH dollari x 10 950 so‘m.
- Chetel valyutasini almashtirish xarajatlari quyidagidan iborat:
250 AQSH dollari = 50 000 AQSH dollari x 0,5 / 100;
2 737 500 so‘m = 250 AQSH dollari x 10 950 so‘m.

Xarid qilingan ehtiyot qismlarni tannarxiga qo‘shilmaydigan xarid qilingan ehtiyot qismlarni haqini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarning yig‘indisi **8 486** ***250 so‘m*** (547 500+3 285 000+1 642 500+273 750+2 737 500) ni tashkil etadi.

Xarid qilingan ehtiyot qismlarni tannarxi ***648 918 000 so‘m*** (549 000 000+55 998 000+43 920 000) ni tashkil etadi.

Ehtiyot qismlarni xarid qilish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

2021-yil 4-iyul holatiga:

- mol yetkazib beruvchining bankida akkreditiv schyot ochish:

debet 5510 «Akkreditivlar» schyoti *273 750 000 so‘m;*
kredit 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti *273 750 000 so‘m;*

(273 750 000 so‘m = 25 000 AQSH dollari x 10 950 so‘m);

- xarid qilingan ehtiyot qismlarni haqini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar summasiga:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti *8 486 250 sum;*
kredit 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti *8 486 250 so‘m.*

2021-yil 8-iyul holatiga buxgalteriya yozuvlari talab qilinmaydi.

2021-yil 15-iyul holatiga:

- ehtiyot qismlarni tannarxi bo‘yicha kirim qilish:

debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti *648 918 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *549 000 000 so‘m;*
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti *55 998 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *43 920 000 so‘m;*

- qoplashga qabul qilinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:

debet 4410 «Byudjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti *90 585 000 so‘m;*
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti *90 585 000 so‘m;*

- bojxona to‘lovlari bo‘yicha byudjetga qarz to‘langanda:

debet 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti *68 078 000 so‘m;*

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *68 078 000 so‘m;*

(146 583 000 so‘m = 90 585 000 + 55 998 000);

- akkreditiv schyotda turgan valyuta mablag‘larini qayta baholanganda:

debet 5510 «Akkreditivlar» schyoti *750 000 so‘m;*

kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan daromadlar» schyoti *750 000 so‘m;*

(274 500 000 so‘m = 25 000 AQSH dollari x 10 980 so‘m);

(750 000 so‘m = 274 500 000 so‘m – 273 750 000 so‘m);

- akkreditiv schyotidagi valyuta mablag‘lari qoplashga qabul qilinganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *99 500 000 so‘m;*

kredit 5510 «Akkreditivlar» schyoti *99 500 000 so‘m;*

(274 500 000 so‘m = 25 000 AQSH dollari x 10 980 so‘m);

- xarid qilingan ehtiyot qismlar bo‘yicha mol yetkazib beruvchilar oldidagi qarzdorlik qoplanganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *274 500 000 so‘m;*

kredit 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti *274 500 000 so‘m;*

(274 500 000 so‘m = 25 000 yevro x 3 980 so‘m);

- xarid qilingan ehtiyot qismlar bo‘yicha transport (tashish va yuklab tushirish ishlari) xarajatlari va yetkazib berishni sug‘urta qilish bo‘yicha qarzdorlik qoplanganda:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *43 920 000 so‘m;*

kredit 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti *43 920 000 so‘m.*

2-holat:

Korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lib hisoblanmaydi.

Birinchi navbatda ehtiyot qismlarni AQSH dollaridagi shartnoma qiymatini Bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish sanasidagi O‘zbekistont Respublikasi Markaziy banki AQSH dollarining so‘mga nisbatan o‘rnatgan kursiga ko‘paytirish yo‘li bilan ehtiyot qismlarni so‘mdagi shartnoma qiymatini aniqlaymiz ***549 000 000 so‘m*** (50 000 AQSH dollari x 10 980 so‘m).

Ikkinchi navbatda ehtiyot qismlarni shartnoma qiymatidan kelib chiqib bojxona to‘lovlarini aniqlaymiz. Bojxona to‘lovlari:

- bojxona boji - 54 900 000 so‘m (549 000 000 x 10 /100);
- QQS - 90 585 000 so‘m ((549 000 000 + 54 900 000) x 15 /100);
- bojxona yig‘imlari – 1 098 000 so‘m (549 000 000 x 0,2/100).

Ehtiyot qismlarni tannarxiga qo‘shiladigan bojxona to‘lovlari ***146 583 000 so‘m*** (54 900 000 + 90 585 000 + 1 098 000) ni tashkil etadi.

Uchinchi navbatda transport (tashish va yuklab tushirish ishlari) xarajatlari va yetkazib berishni sug‘urta qilish bo‘yicha xarajatlarini ekvivalentini aniqlaymiz. Transport (tashish va yuklab tushirish ishlari) xarajatlari 32 940 000 so‘m (3 000 AQSH dollari x 10 980 so‘m) ni, yetkazib berishni sug‘urta qilish bo‘yicha xarajatlari esa 10 980 000 so‘m (1 000 AQSH dollari x 10 980 so‘m) ni tashkil etadi. Ehtiyot qismlarni tannarxiga qo‘shiladigan xarid qilish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar summasi

43 920 000 so‘m (32 940 000 + 10 980 000) ni tashkil etadi.

To‘rtinchi navbatda xarid qilingan ehtiyot qismlarni haqini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarni summasini va ularni ekvivalentini aniqlaymiz.

- akkreditiv schyotini ochish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat:

25 000 AQSH dollari = 50 000 AQSH dollari x 50 / 100;

50 AQSH dollari = 25 000 AQSH dollari x 0,2 / 100;

547 500 so‘m = 50 AQSH dollari x 10 950 so‘m.

- akkreditiv o‘tkazma bo‘yicha bankning komissiyasi xarajatlari quyidagilardan iborat:

25 000 AQSH dollari = 50 000 AQSH dollari x 50 / 100;

300 AQSH dollari = 25 000 AQSH dollari x 1,2 / 100;

3 285 000 so‘m = 300 AQSH dollari x 10 950 so‘m.

- shartnomani tayyorlash uchun to‘lov to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar quyidagidan iborat:

1 642 500 so‘m = 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m.

- shartnomani ro‘yxatga olish va yopish bo‘yicha xarajatlar quyidagidan iborat:

25 AQSH dollari = 50 000 AQSH dollari x 0,05 / 100;

273 750 so‘m = 25 AQSH dollari x 10 950 so‘m.

- Chetel valyutasini almashtirish xarajatlari quyidagidan iborat:

250 AQSH dollari = 50 000 AQSH dollari x 0,5 / 100;

2 737 500 so‘m = 250 AQSH dollari x 10 950 so‘m.

Xarid qilingan ehtiyot qismlarni tannarxiga qo‘shilmaydigan xarid qilingan ehtiyot qismlarni haqini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarning yig‘indisi **8 486** ***250 so‘m*** (547 500+3 285 000+1 642 500+273 750+2 737 500) ni tashkil etadi.

Xarid qilingan ehtiyot qismlarni tannarxi ***737 503 000 so‘m*** (549 000 000+146 583 000+43 920 000) ni tashkil etadi.

Ehtiyot qismlarni xarid qilish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

2021-yil 4-iyul holatiga:

- mol yetkazib beruvchining bankida akkreditiv schyot ochish:

debet 5510 «Akkreditivlar» schyoti *273 750 000 so‘m;*
kredit 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti *273750 000 so‘m;*

(273 750 000 so‘m = 25 000 AQSH dollari x 10 950 so‘m);

- xarid qilingan ehtiyot qismlarni haqini to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar summasiga:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti *8 486 250 sum;*
kredit 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti *8 486 250 so‘m.*

2021-yil 8-iyul holatiga buxgalteriya yozuvlari talab qilinmaydi.

2021-yil 15-iyul holatiga:

- ehtiyot qismlarni tannarxi bo‘yicha kirim qilish:

debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti *737 503 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *549 000 000 so‘m;*
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti *146 583 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *43 920 000 so‘m;*

- bojxona to‘lovlari bo‘yicha byudjetga qarz to‘langanda:

debet 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti *146 583 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *146 583 000 so‘m;*

- akkreditiv schyotda turgan valyuta mablag‘larini qayta baholanganda:

debet 5510 «Akkreditivlar» schyoti *750 000 so‘m;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan
daromadlar» schyoti *750 000 so‘m;*

(274 500 000 so‘m = 25 000 AQSH dollari x 10 980 so‘m);
(750 000 so‘m = 274 500 000 so‘m – 273 750 000 so‘m);

- akkreditiv schyotidagi valyuta mablag‘lari qoplashga qabul qilinganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *99 500 000 so‘m;*
kredit 5510 «Akkreditivlar» schyoti *99 500 000 so‘m;*

(274 500 000 so‘m = 25 000 AQSH dollari x 10 980 so‘m);

- xarid qilingan ehtiyot qismlar bo‘yicha mol yetkazib beruvchilar oldidagi qarzdorlik qoplanganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *99 500 000 so‘m;*
kredit 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta
schyotlari» schyoti *99 500 000 so‘m;*

(274 500 000 so‘m = 25 000 yevro x 10 980 so‘m);

- xarid qilingan ehtiyot qismlar bo‘yicha transport (tashish va yuklab tushirish ishlari) xarajatlari va yetkazib berishni sug‘urta qilish bo‘yicha qarzdorlik qoplanganda:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *43 920 000 so‘m;*
kredit 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta
schyotlari» schyoti *43 920 000 so‘m.*

3.4. Korxona ustav kapitaliga ta’sischilarning qo‘yilmalari (ulushi) sifatida olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi

Korxonaning ustav kapitaliga ulush sifatida olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi, agar qonun hujjatlarida boshqa tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, korxona ta’sischilari (ishtirokchilari) tomonidan kelishilgan qiymat asosida aniqlanadi. Agar tashkilot tomonidan tovar-moddiy zaxiralar ustav kapitaliga ulush sifatida olinayotganda tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tegishli xarajatlar mavjud bo‘lsa, tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi ushbu xarajatlar summasiga oshiriladi.

Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlarda ustav fondi (ustav kapitali) ga ta’sischilarning qo‘yilmalari (ulushi) sifatida pul, qimmatli qog‘ozlar, boshqa narsa yoki mulkiy huquqlar, yoki pulda bahosi mavjud bo‘lgan boshqa beriladigan huquqlar bo‘lishi mumkin.

Jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarini to‘lash qonunchilikda belgilangan tartibda pul va boshqa to‘lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda bahosi mavjud bo‘lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy) amalga oshiriladi. Jamiyatning aksiyalarini to‘lash shakli ularni ta’sis etishda jamiyatni ta’sis etish shartnomasi (qayta tashkil etish qarori) da yoki jamiyatning ustavida, qo‘shimcha aksiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar chiqarishda esa ularni joylashtirish to‘g‘risidagi qarorda belgilanadi.

Ulushlarni pulsiz mablag‘lar bilan to‘langanda qonunchilikda quyidagilar nazarda tutilgan:

- xususiy korxonalarda mulkdor ustav kapitaliga o‘zi kiritadigan mol-mulkni mustaqil baholaydi («Xususiy korxona to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi);
- mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlarda ishtirokchilar va qabul

qilinadigan uchinchi shaxslar tomonidan jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shiladigan pulsiz hissalarning pul bahosi jamiyat ishtirokchilari umumiy yig‘ilishining jamiyatning barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan qarori bilan tasdiqlanadi («Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasi);

- aksiyadorlik jamiyatlarida jamiyatni ta’sis etish chog‘ida aksiyaga to‘lanadigan haq sifatida topshirilayotgan mol-mulkning puldagi bahosi ta’sischilar o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq aniqlanadi. Agar jamiyatning shu yo‘sinda sotib olinayotgan aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarining nominal qiymati qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining ikki yuz (200) baravaridan ko‘pni tashkil etsa, jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarining haqi sifatida topshirilayotgan mol-mulkning pulda ifodalangan bahosi baholovchi korxona tomonidan chiqarilishi zarur («Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» (yangi tahrirda) gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 31-moddasi).

Korxona ustav kapitaliga ta’sischilarning qo‘yilmalari (ulushi) sifatida olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxining shakllanishi va ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali 6 000 000 000 so‘m va u 1 200 000 dona aksiyaga ajratilgan bo‘lib, aksiyaning nominal qiymati 5 000 so‘m. Jamiyat ta’sis etilganda aksiyalar nominal qiymat bo‘yicha joylashtirilishi hamda 10 foizi tovar-moddiy zaxiralari va 80 foizi asosiy vositalar, pul mablag‘lari va boshqa aktivlar bilan to‘lanishi ta’sis hujjatlarida aytib o‘tilgan. Tovar-moddiy zaxiralar sifatida quyidagilar kiritilgan: yoqilg‘i-moylash materiallari 80 000 000 so‘m, ehtiyot qismlar 90 000 000 so‘m, inventar va xo‘jalik jihozlari 30 000 000 so‘m, o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar 400 000 000 so‘m (o‘stirishda bo‘lgan g‘unajinlar - 110 000 000 so‘m, qo‘ylar - 70 000 000 so‘m, g‘ozlar - 14 000 000 so‘m, o‘rdaklar - 16 000 000 so‘m; bo‘rdoqiga boqilayotgan otlar - 20 000 000 so‘m, buqalar - 80 000 000 so‘m va sigirlar - 90 000 000 so‘m).

Ikkita holatni (tovar-moddiy zaxiralarni yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlarni amalga oshirilishidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Ta’sischi (aksiyador) lar 10 foizi aksiya qiymatini tovar-moddiy zaxiralar bilan to‘ladi. Yetkazib berish xarajatlarini ta’sischi o‘z kuchi bilan amalga oshirdi.

Aksiyalar qiymatini to‘lovi sifatida ta’sischilardan kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarni kirim qilish jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ta’sis hujjatlariga muvofiq jamiyatning ustav kapitali summasiga:

debet 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 6 000 000 000 so‘m;
kredit 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti 6 000 000 000 so‘m;

- aksiyalar qiymatini to‘lash bo‘yicha ta’sischilardan tovar-moddiy zaxiralar kelib tushishi:

debet 1030 «Yoqilg‘i» schyoti 80 000 000 so‘m;
debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti 90 000 000 so‘m;
debet 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti 30 000 000 so‘m;
debet 1110 «O‘stirishdagi hayvonlar» schyoti 210 000 000 so‘m;
debet 1120 «Bo‘rdoqidagi hayvonlar» schyoti 190 000 000 so‘m;
kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 600 000 000 so‘m.

2-holat:

Ta’sischi (aksiyador) lar aksiya qiymatini 10 foizini tovar-moddiy zaxiralar bilan to‘ladi. Tovar-moddiy zaxiralarni jamiyatga tashib keltirish bilan bog‘liq ishlar korxona ishchilari tomonidan amalga oshirilgan. Ular quyidagilardan iborat: transport xarajatlari 15 000 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash 8 000 000 so‘m va ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasiga 960 000 so‘m.

Mazkur holatda tovar-moddiy zaxiralarni tannarxi ularni ta’sis hujjatida ko‘rsatilgan qiymatiga tashib keltirish bilan bog‘liq xarajatlarni qo‘shib aniqlanadi. Agar tashib keltirish bilan bog‘liq xarajatlarni tovar-moddiy zaxiralarning aniq bir turiga olib borish imkoniyati mavjud bo‘lmasa, u holda taqsimlashni tovar-moddiy zaxiralarni qiymatini ularning umumiy qiymatidagi ulushiga mutanosib ravishda amalga oshirish tavsiya etiladi. Har bir tovar-moddiy zaxiralarning turining ta’sis hujjatida ko‘rsatilgan qiymatini ularning umumiy qiymatidagi ulushini qiyinchiliksiz aniqlash mumkin va bu quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Tovar-moddiy zaxiralar	**Ta’sis hujjatidagi qiymati (so‘m)**	**Ulushi (%)**	**Hisoblash**
Yoqilg‘i moylash materiallari	80 000 000	13,3	80 000 000 / 600 000 000 x 100
Ehtiyot qismlar	90 000 000	15,0	90 000 000 / 600 000 000 x 100
Inventar va xo‘jalik jihozlari	30 000 000	5,0	30 000 000 / 600 000 000 x 100
O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar	400 000 000	66,7	400 000 000 / 600 000 000 x 100
shu jumladan:			
o‘stirishdagi hayvonlar	210 000 000	35,0	210 000 000 / 600 000 000 x 100
undan:			
g‘unajinlar	*110 000 000*	*18,3*	*110 000 000 / 600 000 000 x 100*
qo‘ylar	*70 000 000*	*11,7*	*70 000 000 / 600 000 000 x 100*
g‘ozlar	*14 000 000*	*2,3*	*14 000 000 / 600 000 000 x 100*
o‘rdaklar	*16 000 000*	*2,7*	*16 000 000 / 600 000 000 x 100*
bo‘rdoqidagi hayvonlar	190 000 000	31,7	190 000 000 / 600 000 000 x 100
undan:			
otlar	*20 000 000*	*3,3*	*20 000 000 / 600 000 000 x 100*
buqalar	*80 000 000*	*13,4*	*80 000 000 / 600 000 000 x 100*
sigirlar	*90 000 000*	*15,0*	*90 000 000 / 600 000 000 x 100*
Jami:	**600 000 000**		

Har bir tovar-moddiy zaxiralaring tannarxiga qo‘shiladigan tashib keltirish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

Tovar-moddiy zaxiralar	Qo‘shiladigan xarajatlar	Ulushi (%)	Raschet
Yoqilg‘i moylash materiallari	3 186 680	13,3	23 960 000 x 13,3 / 100
Ehtiyot qismlar	3 594 000	15,0	23 960 000 x 15,0 / 100
Inventar va xo‘jalik jihozlari	1 198 000	5,0	23 960 000 x 5,0 / 100
O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar	15 981 320	66,7	23 960 000 x 66,7 / 100
shu jumladan:			
o‘stirishdagi hayvonlar	8 386 000	35,0	23 960 000 x 35,0 / 100
undan:			
g‘unajinlar	*4 384 680*	*18,3*	*23 960 000 x 18.3 / 100*
qo‘ylar	*2 803 320*	*11,7*	*23 960 000 x 11,7 / 100*
g‘ozlar	*551 080*	*2,3*	*23 960 000 x 2.3 / 100*
o‘rdaklar	*646 920*	*2,7*	*23 960 000 x 2,7 / 100*
bo‘rdoqidagi hayvonlar	7 595 320	31,7	*23 960 000* x 31,7 / 100
undan:			
otlar	*790 680*	*3,3*	*23 960 000 x 3,3 / 100*
buqalar	*3 210 640*	*13,4*	*23 960 000 x 13,4 / 100*
sigirlar	*3 594 000*	*15,0*	*23 960 000 x 15,0 / 100*
Jami:	**23 960 000**		

Bunda tovar-moddiy zaxiralarni haqiy tannarxi quyidagicha bo‘ladi: yoqilg‘i-moylash materiallari 83 186 680 so‘m, ehtiyot qismlar 93 594 000 so‘m, inventar va xo‘jalik jihozlari 31 198 000 so‘m, o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar 415 981 320 so‘m (o‘stirishda bo‘lgan g‘unajinlar - 114 384 680 so‘m, qo‘ylar - 72 803 000 so‘m, g‘ozlar - 14 551 080 so‘m, o‘rdaklar - 16 646 920 so‘m; bo‘rdoqiga boqilayotgan otlar - 20 780 680 so‘m, buqalar - 83 210 640 so‘m va sigirlar - 93 594 000 so‘m).

Aksiyalar qiymatini to‘lovi sifatida ta’sischilardan kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarni kirim qilish jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ta’sis hujjatlariga muvofiq jamiyatning ustav kapitali summasiga:

debet 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning
ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 6 000 000 000 so‘m;
kredit 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti 6 000 000 000 so‘m;

- aksiyalar qiymatini to‘lash bo‘yicha ta’sischilardan tovar-moddiy zaxiralar kelib tushishi:

debet 1510 «Materiallarni tayyorlash va

xarid qilish» schyoti *623 960 000 so‘m;*
kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti *600 000 000 so‘m.*
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti *15 000 000 so‘m;*
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyot *8 000 000 so‘m;*
kredit 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti *960 000 so‘m;*

- aksiyalar qiymatini to‘lash bo‘yicha ta’sischilardan kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar tannarx bo‘yicha kirimi qilinganda:

debet 1030 «Yoqilg‘i» schyoti *83 186 680 so‘m;*
debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti *93 594 000 so‘m;*
debet 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti *31 198 000 so‘m;*
debet 1110 «O‘stirishdagi hayvonlar» schyoti *218 385 680 so‘m;*
debet 1120 «Bo‘rdoqidagi hayvonlar» schyoti *197 595 640 so‘m;*
kredit 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyoti *623 960 000 so‘m.*

3.5. Ilgari boshqa korxonaning ustav kapitaliga kiritilgan ta’sis ulushini qaytarilishidan kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi

Ta’sischilar tarkibidan chiqishda yoki tugatilayotgan korxonaniing mol-mulki uning ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanayotganda korxonaning ilgari boshqa korxonaning ustav kapitaliga kiritilgan ta’sis ulushi qaytarilishidan kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi, agar qonun hujjatlarida boshqa holatlar nazarda tutilmagan bo‘lsa, tashkilot ta’sischilari (ishtirokchilari) tomonidan kelishilgan, ularning pulda ifodalangan bahosida aniqlanadi. Agar tashkilot tomonidan tovar-moddiy zaxiralar ta’sischilar tarkibidan chiqishda yoki tugatilayotgan tashkilotning mol-mulki uning ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanishida tashkilotning ilgari boshqa tashkilotning ustav kapitaliga kiritilgan ta’sis ulushi qaytarilishida olinayotganda tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tegishli xarajatlar mavjud bo‘lsa, tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi ushbu xarajatlar summasiga oshiriladi.

Olinayotgan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati boshqa korxonaning ustav kapitalidagi ta’sis ulushi bo‘yicha qarz summasidan yuqori bo‘lgan hollarda, farq ta’sischilar tarkibidan chiqib ketayotgan ta’sischi tomonidan qoplanadi.

Boshqa korxonaning ustav kapitalidagi ta’sis ulushi bo‘yicha qarz summasi olinayotgan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati yuqori bo‘lgan hollarda, farq berayotgan korxona tomonidan qoplanadi.

Ilgari boshqa korxonaning ustav kapitaliga kiritilgan ta’sis ulushini qaytarilishidan kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxining shakllanishi va uni buxgalteriya hisobida aks ettrish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona mas’uliyati cheklangan jamiyati (MCHJ) ning ta’sischisi hisoblanadi va uning ustav kapitalidagi ulushi 20% ni tashkil etadi. 8 000 000 so‘mni tashkil etadigan mazkur ulush, korxonaning buxgalteriya hisobida 0690 «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» schyotida hisobga olingan. Korxona iqtisodiy tahlillarga asoslangan holda MCHJ tarkibidan chiqishi haqida qaror qabul qildi. MCHJ ta’sischilari korxonani ta’sischilar tarkibidan chiqarish haqidagi qarorni qabul qildi, boshqa ta’sischilar ustav kapitalidagi korxonani ulushini sotib olishdan bosh tort gani sababli, unga

ulushni qaytarib berishga qaror qilindi. Buxgalterning hisob-kitoblariga qaraganda, MCHJ ning sof aktivlari korxona ta'sischilar tarkibidan chiqish sanasidagi qiymati 100 000 000 so‘mga teng. Ta'sischilarining qaroriga muvofiq ilgari MCHJ ni ustav kapitaliga kiritgan ta'sis ulushining qaytarilishi sifatida har xil ehtiyot qismlarni qabul qildi.

Ikkita holatni (ta'sis ulushini qaytarilganda kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar sifatida har xil ehtiyot qismlarining qiymatidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

MCHJ ustav kapitaliga kiritgan ulushi summasidan yuqori bo‘lgan qiymati 11 400 000 so‘mlik tovar-moddiy zaxiralar sifatida har xil ehtiyot qismlarini oladi va 1 400 000 so‘mni pul mablag‘lari bilan qaytarishi kerak.

Ilgari boshqa korxonaning ustav kapitaliga kiritilgan ta'sis ulushini qaytarilishidan kelib tushgan har xil ehtiyot qismlari bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- korxonani MCHJ ta'sischilari tarkibidan chiqishi to‘g‘risidagi qaror qabul qilishi sanasiga - sof aktivlarning qiymati ulushi summasiga:

debet 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti 10 000 000 so‘m;
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 10 000 000 so‘m;

- uzoq muddatli investitsiyalar sifatida hisobga olingan MCHJ ning ustav kapitalidagi ulushning balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 8 000 000 so‘m;
kredit 0690 «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» schyoti 8 000 000 sum;

- «Yo‘lduz» MCHJ ning ta'sischilari tarkibidan chiqib ketishdan olingan foyda summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 2 000 000 so‘m;

- ilgari MCHJ ustav kapitaliga kiritgan ulush bo‘yicha qarz summasidan yuqori bo‘lgan qiymat bo‘yicha har xil ehtiyot qismlari kelib tushganda:

debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti 11 400 000 so‘m;
kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti 10 000 000 so‘m;
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 1 400 000 so‘m;

- ta'sischilar tarkibidan chiqayotganda olingan har xil ehtiyot qismlarining qiymati ilgari MCHJ ustav kapitaliga kiritgan ulushi summasidan yuqori bo‘lganligi hisobiga yuzaga kelgan qarz summasini hisob-kitob schyotidan pul mablag‘lari bilan qoplanishi:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 1 400 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 1 400 000 so‘m.

2-holat:

MCHJ ustav kapitaliga kiritgan ulushi summasidan kam bo‘lgan qiymati 9 500 000 so‘mlik tovar-moddiy zaxiralar sifatida har xil ehtiyot qismlarini oladi va qo‘shimcha 500 000 so‘m pul mablag‘lari oladi.

Ilgari boshqa korxonaning ustav kapitaliga kiritilgan ta'sis ulushini qaytarilishidan kelib tushgan har xil ehtiyot qismlari bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- korxonani MCHJ ta'sischilari tarkibidan chiqishi to‘g‘risidagi qaror qabul qilishi sanasiga - sof aktivlarning qiymati ulushi summasiga:

debet 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti 10 000 000 so‘m;
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 10 000 000 so‘m;

- uzoq muddatli investitsiyalar sifatida hisobga olingan MCHJ ning ustav kapitalidagi ulushning balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 8 000 000 so‘m;
kredit 0690 «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» schyoti 8 000 000 sum;

- MCHJ ning ta’sischilari tarkibidan chiqib ketishdan olingan foyda summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 2 000 000 so‘m;

- ilgari MCHJ ustav kapitaliga kiritgan ulush bo‘yicha qarz summasidan past bo‘lgan qiymat bo‘yicha har xil ehtiyot qismlari kelib tushganda:

debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti 9 500 000 so‘m;
kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti 9 500 000 so‘m;

- ta’sischilar tarkibidan chiqayotganda olingan har xil ehtiyot qismlarining qiymati ilgari «Yo‘lduz» MCHJ ustav kapitaliga kiritgan ulushi summasidan past bo‘lganligi hisobiga yuzaga kelgan qarz summasini qoplash uchun hisob-kitob schyotiga pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 500 000 so‘m;
kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti 500 000 so‘m.

3.6. Tekin (hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi

Korxona tomonidan tekin (hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan hamda asosiy vositalar va boshqa mol-mulkning chiqib ketishi natijasida olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi ularning buxgalteriya hisobiga qabul qilinish sanasidagi joriy qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. ***Joriy qiymat*** deganda ma’lum bir sanada amalda bo‘lgan bozor narxlari bo‘yicha tovar-moddiy zaxiralarning qiymati yoki bir-biridan mustaqil, xabardor va bunday bitimni amalga oshirishni xohlovchi taraflar o‘rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatni bajarish uchun yetarli bo‘lgan summasi tushuniladi.

Agar tashkilot tomonidan tovar-moddiy zaxiralar tekin (hadya shartnomasi bo‘yicha) olinayotganda tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tegishli xarajatlar mavjud bo‘lsa, tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi ushbu xarajatlar summasiga oshiriladi.

Asosiy vositalarning chiqib ketishi natijasida olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini shakllanishi «1-bob. Asosiy vositalarni hisobga olish» ning «9.2. Asosiy vositalarning tugatilishi natijasida balansdan chiqarilishi» da ko‘rib chiqilgan.

Tovar-moddiy zaxiralar tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) olinganda ularning daromadlari bozor qiymati bo‘yicha belgilanadi. Tovar-moddiy zaxiralarning bozor qiymati hujjatlar bilan yoki baholovchi korxonaning baholash to‘g‘risidagi hisoboti bilan tasdiqlanadi. Hujjatlar bilan tasdiqlash deb quyidagilar e’tirof etiladi:

- jo‘natish, yetkazib berish yoki topshirish hujjatlari;
- yetkazib beruvchilarning narxlarga oid ma’lumotlari (prays-varaqlar);
- ommaviy axborot vositalaridan olingan ma’lumotlar;
- birja ma’lumotlari;
- davlat statistikasi organlarining ma’lumotlari.

Tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini shakllanishi va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz.

2021-yil 10-iyulda 1 000 metr materiallarni tekin olish to‘g‘risidagi shartnomani imzoladi. Materiallar 2021-yil 25-iyulda korxona tomonidan kirim qilib olindi va uni tashib keltirish xarajatlari esa 40 000 so‘mni tashkil etdi. Ushbu summa bo‘yicha hisob transport korxonasi tomonidan xomashyo yetkazib berilgan kunda taqdim etildi. Ommaviy axborot vositalarida chop etilgan ma’lumotlarga qaraganda, yetkazib berish sanasida 1 metr materialni o‘rtacha ulgurji bahosi 25 000 so‘mni tashkil qilgan.

Tekin (hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan materiallarni kirim qilinishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- kirim qilingan materiallarning joriy qiymatiga:

debet 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti *25 000 000 so‘m;*
kredit 8530 «Tekinga olingan mulk» schyoti *25 000 000 so‘m;*

(25 000 000 so‘m = 1 000 metr x 25 000 so‘m);

- materiallarni yetkazib berish buyicha transport xarajatlari summasiga:

debet 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti *40 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *40 000 so‘m;*

- materiallarni yetkazib berish bo‘yicha transport korxonasi oldida yuzaga kelgan qarzdorlikni to‘lash:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *40 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *40 000 so‘m.*

Korxonaning buxgalteriya hisobida qabul qilingan materiallarning tannarxi 1 metri uchun 25 040 so‘m, ya’ni umumiy 25 040 000 so‘m miqdorida hisobda turadi.

3.7. Uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o‘tkazish yo‘li bilan olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi

Uzoq muddatli aktivlar tarkibidan tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga o‘tkazilgan aktivlarning tannarxi ushbu uzoq muddatli aktivlarning balans (qoldiq) qiymati bo‘yicha belgilanadi.

Uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o‘tkazish yo‘li bilan olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini shakllanishi va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. 2004-yil boshida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi bo‘yicha qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritilgan bo‘lib, ularga ko‘ra aktivlarni asosiy vositalar sifatida e’tirof etish uchun qo‘shimcha qiymat mezoni kiritildi (ungacha faqat bitta mezon - aktivning xizmat muddati bo‘lgan va unga ko‘ra bir yildan ortiq xizmat muddatiga ega moddiy aktivlar asosiy vositalar sifatida tan oldingan). Me’yoriy hujjatlarda moddiy aktivlarni asosiy vositalar sifatida e’tirof etishning quyidagi mezonlari belgilangan:

- bir yildan ortiq xizmat qilish muddati;

- bir birlik (to‘plam) uchun qiymati O‘zbekiston Respublikasi (xarid paytida) belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan ortiq bo‘lgan buyumlar. Bunda, korxona rahbari hisobot yili uchun buyumlarning asosiy vositalar tarkibida hisobga olish qiymatining eng kam chegarasini belgilashi mumkin.

Masalan, yuqorida tilga olingan buxgalteriya hisobi bo‘yicha qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirish munosabati bilan korxona qonunchilikka o‘zgartirish kiritilgan sanagacha o‘z balansida bo‘lgan, yangi talablarga javob bermaydigan va uzoq muddatli aktivlar tarkibidan tovar-moddiy zaxiralar tarkibiga inventar va xo‘jalik jihozlari sifatida o‘tkazilishi kerak bo‘lgan asosiy vositalar obyektlari ro‘yxatini aniqlashga qaror qildi.

Korxona buxgalteri qonunchilikka o‘zgartirish kiritilgan sana holatidagi asosiy vositalar tarkibini o‘rganib chiqdi, aniqlanishicha, boshlang‘ich qiymatining jami 5 500 000 so‘mlik

bo‘lgan asosiy vositalar obyekti hisoblangan ofis jihozi qonunchilikda belgilangan yangi mezonlar talablariga javob bermaydi va ofis jihozi asosiy vositalar tarkibidan inventar va xo‘jalik jihozlari tarkibiga o‘tkazilishi kerak. Bunda ofis jihozi bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishning mazkur sanaga bo‘lgan umumiy summasi 1 500 000 so‘mni tashkil etadi. Rahbariyat qarori bilan olib borilgan tahlil natijalariga binoan komissiya tuzildi, ushbu komissiya ofis jihozini inventar va xo‘jalik jihozlari tarkibiga o‘tkazish to‘g‘risida dalolatnoma tuzdi.

Uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o‘tkazish yo‘li bilan olingan tovar-moddiy zaxiralari bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 1080 «Inventar va xo‘jalik anjomlari» schyoti 4 000 000 so‘m;
debet 0240 «Mebel va ofis jihozlari eskirishi» schyoti 1 500 000 so‘m;
kredit 0140 «Mebel va ofis jihozlari» schyoti 5 500 000 so‘m.

3.8. Ilgari berilgan tovar qarzining qaytarilishi yoki tovar qarzini olish natijasida olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 732-moddasiga muvofiq, qarz shartnomasi bo‘yicha bir taraf (qarz beruvchi) ikkinchi tarafga (qarz oluvchiga) pul yoki turga xos alomatlari bilan belgilangan boshqa ashyolarni mulk qilib beradi, qarz oluvchi esa qarz beruvchiga bir yo‘la yoki bo‘lib-bo‘lib, o‘shancha summadagi pulni yoki qarzga olingan ashyoning xili, sifati va miqdoriga baravar ashyolarni (qarz summasini) qaytarib berish majburiyatini oladi. Bunda qarz shartnomasi pul yoki ashyolar topshirilgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

Qarz tovar-moddiy zaxiralar shaklida berilsa, qarzning bunday turi tovar qarzi deb ataladi. Tovar qarzi shartnomasiga muvofiq, qarz beruvchi qarz oluvchiga mulk sifatida pul va tur alomatlari bo‘lgan boshqa ashyolarni beradi, qarz oluvchi esa bir yo‘la yoki bo‘lib-bo‘lib xuddi shunday qarzga olingan shu tur yoki sifatdagi buyumlar miqdoriga teng summani (qarz summasi) qaytarish majburiyatini oladi.

Ilgari berilgan tovar qarzining qaytarilishi yoki tovar qarzini olish natijasida olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi ularning tovar qarzi shartnomasida tomonlar o‘zaro kelishilgan qiymatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ilgari berilgan tovar qarzining qaytarilishi yoki tovar qarzini olish natijasida olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini shakllanishi va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. 2021-yil 20-yanvarda 100 000 tonna yukni tashish bo‘yicha yirik buyurtma oldi. Omborxonada materiallar qoldiqlarining yetishmasligi sababli va buyurtmani o‘z vaqtida bajarish maqsadida 2021-yil 1-fevralda u boshqa korxona (qarz beruvchi) bilan 3 000 metr materialni tovar qarzi sifatida olish to‘g‘risida shartnoma tuzdi. Shartnoma shartlariga ko‘ra, bir metr materialning bahosi 4 000 so‘m, qarz muddati kelishilgan material miqdori haqiqatda olingan kundan boshlab 3 oyni tashkil qiladi. Tovar qarzi bo‘yicha to‘lov yillik 20%ga teng. 2021-yil 5-fevralda qarz oluvchi kelishilgan materialni to‘liq oldi. 2021-yil 5-mayda qarz oluvchi qarzga olingan 3 000 metr materiallarni, qarz shartnomasida ko‘rsatilganidek, xuddi shunday tarkibda qaytardi, shuningdek, qarz bo‘yicha foizlarning to‘liq summasini to‘lab berdi. Tovar qarzini qaytarish sifatida berilgan materiallarning bir metri tannarxi korxona uchun berish vaqtida 4 200 so‘mni tashkil etdi.

Tovar qarzi sifatida olingan materiallarni kirim qilinishi, qisqa muddatli qarz shartnomasi bo‘yicha foizlar hisoblash va tovar qarzi sifatida olingan materiallarni qaytarilishi bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

2021-yil 5-fevral holatiga:

- olingan materiallarni kirim qilish:

debet 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti *12 000 000 so‘m;*
kredit 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» schyoti *12 000 000 so‘m;*
(12 000 000 so‘m = 3 000 metr x 4 000 so‘m);

2021-yil 5-may holatiga:

- olingan tovar qarzining qaytarilishi:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *12 600 000 so‘m;*
kredit 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti *12 600 000 so‘m;*

- bir vaqtning o‘zida:

debet 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» schyoti *12 000 000 so‘m;*
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *12 000 000 so‘m;*

- tovar qarzini qoplash uchun berilgan materiallarning chiqib ketishidan ko‘rilgan zarar summasiga:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti *600 000 so‘m;*
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *600 000 so‘m;*

- olingan tovar qarzi bo‘yicha foizlar hisoblash:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti *591 781 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *591 781 so‘m;*
(2 400 000 so‘m = 12 000 000 x 20 / 100);
(591 781 so‘m = 2 400 000 / 365 kun x 90 kun);

- olingan tovar qarzi bo‘yicha hisoblangan foizlar summasini to‘lash:

debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti591 781 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *591 781 so‘m.*

Yuqorida biz tovar-moddiy zaxiralarning tovar qarzi shartnomasi bo‘yicha kelib tushishining buxgalteriya hisobida aks ettirilishini ko‘rib chiqdik. Aytib o‘tilganidek, tovar-moddiy zaxiralarning kelib tushishi manbalaridan biri oldin berilgan tovar qarzining qaytarilishidir. Yuqorida keltirilgan misolning shartlardan kelib chiqib, tovar-moddiy zaxiralarning kelib tushishini qarz beruvchi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz.

Tovar qarzi sifatida materiallarni berish, qisqa muddatli qarz shartnomasi bo‘yicha foizlar hisoblash va tovar qarzi sifatida berilgan materiallarni qaytarilishi bilan bog‘liq operatsiyalar qarz beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

2021-yil 5-fevral holatiga:

- qisqa muddatli tovar qarzi shartnomasida ko‘rsatilgan narxda tovar qarzi sifatida materiallarni berilishining qarz beruvchida aks ettirilishi:

debet 5830 «Berilgan qisqa muddatli qarzlar» schyoti *12 000 000 so‘m;*
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *12 000 000 so‘m;*
(12 000 000 so‘m = 3 000 litr x 4 000 so‘m);

- qarzga berilgan materiallarning tannarxini hisobdan chiqarish:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *12 000 000 so‘m;*

kredit 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti 12 000 000 so‘m;
(12 000 000 so‘m = 3 000 metr x 4 000 so‘m);
2021-yil 5-may:
- tovar qarzining qaytarilishi (qoplanishi) oqibatida tovar-moddiy zaxiralarning kelib tushishi:
debet 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti 12 000 000 so‘m;
debet 5830 «Berilgan qisqa muddatli qarzlar» schyoti 12 000 000 so‘m;
- berilgan tovar qarzi bo‘yicha hisoblangan foizlar:
debet 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 591 781 so‘m;
kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 591 781 so‘m;
(2 400 000 so‘m = 12 000 000 x 20 / 100);
(591 781 so‘m = 2 400 000 / 365 kun x 90 kun);
- berilgan tovar qarzi bo‘yicha hisoblangan foizlar summasining kelib tushishi:
debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 591 781 so‘m;
kredit 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 591 781 so‘m.

Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarni tannarxini shakllanishi, ularni boshlang‘ich hujjatlarda rasmiylashtirish va balansga qabul qilishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini mazkur bobning 7-§. «Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi» da ko‘rib o‘tamiz.

Tovar-moddiy zaxiralar ayirboshlash natijasida korxonaga kelib tushganda ularni tannarxini shakllanishi va balansga qabul qilishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini mazkur bobning 8.7. «Tovar-moddiy zaxiralarni ayirboshlash natijasida balansdan chiqarish» da ko‘rib o‘tamiz.

3.9. Majburiyatlari umumiy summada ifodalangan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi

Bitta umumiy summaga xarid qilingan barcha tovar-moddiy zaxiralardan har birining tannarxi ushbu summani alohida tovar-moddiy zaxiraning joriy qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralar bitta umumiy summaga xarid qilingan hollarda jami xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralardan har birining tannarxi ushbu summani alohida tovar-moddiy zaxiralarning joriy qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlash yo‘li bilan aniqlanadi. Bu yerda, agar korxona bitta kelishilgan qiymatga buxgalteriya hisobida alohida - alohida obyekt sifatida identifikatsiya qilinadigan bir nechta guruh tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilsa, bitta umumiy summaga xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning har biri kirim qilinishi lozim bo‘lgan tannarx ya’ni qiymati har bir obyektning bozor (joriy) qiymatining xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning umumiy bozor qiymatidagi ulushidan kelib chiqib aniqlanishi nazarda tutilgan.

Bitta umumiy summaga xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini shakllanishi tartibini va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. 2017-yil 15-fevralda o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar bilan birga umumiy qiymati 450 000 000 so‘m bo‘lgan mulk majmuasini (fermani) xarid qilish bo‘yicha shartnoma imzolandi. Bunda o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning umumiy qiymati 125 000 000 so‘mni tashkil etadi. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning tarkibi quyidagilardan iborat: o‘stirishda bo‘lgan g‘unajinlar, qo‘ylar, g‘ozlar, o‘rdaklar, shuningdek bo‘rdoqiga boqilayotgan otlar, buqalar va sigirlar. Xarid bo‘yicha barcha summa 2021-yil 25-fevralda hisob-kitob schyotidan pul mablag‘lari bilan to‘langan. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar bozor bahosini aniqlashni amalga oshirgan baholovchining xulosasiga muvofiq har bir guruh o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar quyidagicha baholangan: g‘unajinlar - 19 000 000 so‘m, qo‘ylar - 16 500 000 so‘m, g‘ozlar - 1 700 000 so‘m, o‘rdaklar - 1 600 000 so‘m, otlar - 6 900 000 so‘m, buqalar – 43 500 000 so‘m, sigirlar - 37 500 000 so‘m.

Baholovchining xulosasidan kelib chiqib har bir guruh o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning bozor qiymatini xarid qilingan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning umumiy bozor qiymatidagi ulushini qiyinchiliksiz aniqlash mumkin va bu quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar guruhi	**Bozor qiymati** (so‘m)	**Ulushi** (%)	**Hisoblash**
G‘unajinlar	19 000 000	14,9	19 000 000 / 126 700 000 x100
Qo‘ylar	16 500 000	13,0	16 500 000 / 126 700 000 x100
G‘ozlar	1 700 000	1,4	1 700 000 / 126 700 000 x100
O‘rdaklar	1 600 000	1,3	1 600 000 / 126 700 000 x100
Otlar	6 900 000	5,4	6 900 000 / 126 700 000 x100
Buqalar	43 500 000	34,4	43 500 000 / 126 700 000 x100
Sigirlar	37 500 000	29,6	37 500 000 / 126 700 000 x100
Jami:	**126 700 000**	**100,0**	

Xarid qilingan har bir guruh o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning tannarxi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar guruhi	**Tannarxi (so‘m)**	**Bozor qiymatining ulushi** (%)	**Hisoblash**
G‘unajinlar	18 625 000	14,9	125 000 000 x 14,9 / 100
Qo‘ylar	16 250 000	13,0	125 000 000 x 13,0 / 100
G‘ozlar	1 750 000	1,4	125 000 000 x 1,4 / 100
O‘rdaklar	1 625 000	1,3	125 000 000 x 1,3 / 100
Otlar	6 750 000	5,4	125 000 000 x 5,4 / 100
Buqalar	43 000 000	34,4	125 000 000 x 34,4 / 100
Sigirlar	37 000 000	29,6	125 000 000 x 29,6 / 100
Jami:	**125 000 000**		

Bitta umumiy summaga xarid qilingan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni xarid qilish bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

2021-yil 15-fevral holatiga:

- mol yetkazib beruvchilardan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar kelib tushganda:

debet 1110 «O‘stirishdagi hayvonlar» schyoti *38 250 000 so‘m;*
debet 1110 «Boquvdagi hayvonlar» schyoti *86 750 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *125 000 000 so‘m;*

2021-yil 25-fevral holatiga:

- xarid qilingan mulk majmuasi (ferma) bo‘yicha qarzlari qoplanganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *450 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *450 000 000 so‘m.*

3.10. Chetdan qayta sotish uchun xarid qilingan tovarlarni xarid qiymati bo‘yicha hisobga olish

Tovarlar oldi-sotdisi bilan shug‘ullanadigan korxonalar (savdo korxonalari) uchun ular chetdan qayta sotish uchun xarid qilingan tovarlarni xarid qiymati (shartnomaga ko‘ra mol yetkazib beruvchiga to‘lanadigan narx) bo‘yicha hisobga olishi mumkin, ya’ni hisobga olish huquqiga egadirlar. Bunda tovarlarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar ular yuzaga kelgan hisobot davrida tashkilotning davr xarajatlariga (sotish bo‘yicha) kiritiladi.

Tegishli ravishda, ushbu me’yor savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi barcha korxonalar uchun majburiy emas. Qayta sotish uchun xarid qilingan tovarlarni baholash usulini tanlash huquqi savdo faoliyati bilan shug‘ullanadigan korxonalar rahbarlari ixtiyoridadir. Shunday ekan, tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning qo‘llanilayotgan tartibi korxonaning hisob siyosatida aks ettirilishi kerak.

Qayta sotish uchun chetdan xarid qilingan tovarlarni baholash va buxgalteriya hisobida aks ettirishning ikkala usulidan foydalanishning farqlarini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. «Eskimo-savdo» magazini oziq-ovqat mahsulotlarini chakana savdosi bilan shug‘ullunadi. «Eskimo-savdo» magazini 2021-yil 5-iyulda «Agro treyding» mas’uliyati cheklangan jamiyat bilan 5 000 000 so‘mlik oziq-ovqat mahsulotlari partiyasini xarid qilish haqida shartnoma tuzildi. SHartnomaning asosiy shartlari: oldindan to‘lov (bo‘nak to‘lovi) ning eng kam miqdori – shartnoma bo‘yicha umumiy summaning 15 foizi; oziq-ovqat mahsulotlari (tovar) ga bo‘lgan mulkiy huquq uni yuklash paytida xaridorga o‘tadi; oziq-ovqat mahsulotlari xaridor tomonidan tashib ketiladi. «Eskimo-savdo» magazini 2021-yil 6-iyulda shartnomada ko‘rsatilgan umumiy summaning 20 foizi miqdorida oldindan to‘lovni amalga oshirdi. 2021-yil 8-iyulda shartnomada ko‘zda tutilgan barcha oziq-ovqat mahsulotlari mol yetkazib beruvchi tomonidan yuklab jo‘natildi. Oziq-ovqat mahsulotlari birja orqali xarid qilingani bois, brokerning komission mukofoti shartnomaga ko‘ra, kontrakt qiymatining 1,5 foizini, ya’ni 75 000 so‘mni tashkil qildi, ushbu summa oziq-ovqat mahsulotlari yuklab jo‘natilgan paytda to‘lanishi lozim. Oziq-ovqat mahsulotlarini yuklash, yetkazib berish va tushirish bilan bog‘liq xarajatlar 225 000 so‘mni tashkil qildi va ushbu summa bo‘yicha schet transport-ekspeditorlik kompaniyasi tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilgan sanada taqdim etildi.

Ikkita holatni (oziq-ovqat mahsulotlari qiymatini baholanishning usuli bo‘yicha) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Oziq-ovqat mahsulotlari tannarx bo‘yicha baholangan (tannarx bo‘yicha baholash usuli - tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar tannarxni hisoblashda hisobga olinganda).

Oziq-ovqat mahsulotlari tannarxi bo‘yicha kirim qilish bilan bog‘liq operatsiyalar «Eskimo-savdo» magazinining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

2021-yil 6-iyul holatiga:

- xarid qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha oldindan to‘lov (bo‘nak to‘lovi) summasiga:

debet 4310 «TMQ uchun mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga

to‘langan avanslar» schyoti *1 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *1 000 000 so‘m;*

2021-yil 8-iyul holatiga:

- xarid qilingan oziq-ovqat mahsulotlarini tannarx bo‘yicha kirim qilinganda:

debet 2910 «Ombordagi tovarlar» schyoti *5 300 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *5 000 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *300 000 so‘m;*
(5 300 000 so‘m = 5 000 000 so‘m + 300 000 so‘m);
(300 000 so‘m = 75 000 so‘m + 225 000 so‘m).

2-holat:

Oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish qiymati bo‘yicha baholangan (xarid qilish qiymati bo‘yicha baholash usuli - tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar tannarxni hisoblashda hisobga olinmaganda).

Oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish qiymati bo‘yicha kirim qilish bilan bog‘liq operatsiyalar «Eskimo-savdo» magazinining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

2021-yil 6-iyul holatiga:

- xarid qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha oldindan to‘lov (bo‘nak to‘lovi) summasiga:

debet 4310 «TMQ uchun mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga
to‘langan avanslar» schyoti *1 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *1 000 000 so‘m;*

2021-yil 8-iyul holatiga:

- xarid qilingan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish qiymati bo‘yicha kirim qilinganda:

debet 2910 «Ombordagi tovarlar» schyoti *5 000 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *5 000 000 so‘m;*

- xarid qilingan oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar (brokerning komission mukofoti va yuklash, yetkazib berish va tushirish bilan bog‘liq xarajatlar) summasiga:

debet 9410 «Sotish bo‘yicha xarajatlar» schyoti *300 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *300 000 so‘m;*
(300 000 so‘m = 75 000 so‘m + 225 000 so‘m).

Xarid qilingan tovarlar hisobot davri mobaynida 6 000 000 so‘mga sotilgan deb taxmin qiladigan bo‘lsak, boshqa teng sharoitlarda birinchi usuldan foydalanganda (tovarni xarid qilish xarajatlari xarid qiymatiga qo‘shilganda) yalpi daromad 700 000 so‘mni, ikkinchi usuldan foydalanganda esa (tovarni xarid qilish xarajatlari xarid qiymatiga qo‘shilmaganda) 1 000 000 so‘mni tashkil qiladi. Ammo, birinchi usulning kamchiliklari ham yo‘q emas. Masalan, katta assortimentli tovarlar xarid qilganda tovarlarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni har bir assortimentga taqsimlash juda mushkul va shuningdek, xarid qilingan tovarlar tannarxini sezilarli darajada oshiradi va teng sharoitlarda tovarni sotish narxining qimmatlashishiga hamda tegishli ravishda ularga bo‘lgan talabning pasayishiga olib keladi. SHu munosabat bilan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari, shu jumladan mikrofirmalar va kichik korxonalar, tovarlarni baholash usullarini tanlashda ushbu masalaga juda jiddiy yondashishi kerak, chunki tijorat tuzilmalarining bosh maqsadi sotuvlarni ko‘paytirish va sotuv bozorini

kengaytirish yo‘li bilan sof foydani oshirishdan iborat.

Moddiy javobgar shaxslarning faoliyati ustidan tegishlicha nazorat o‘rnatish maqsadida savdo va umumiy ovqatlanish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga ustamalarni (chegirmalarni) buxgalteriya hisobi schetlarida alohida hisobga olgan holda, xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarni hisobda sotish qiymati bo‘yicha aks ettirilishiga ruxsat beriladi.

Chakana savdoda sotilgan tovarlarning tannarxini aniqlash boshqa biznes sohalaridan birmuncha farq qiladi, chunki, yuqorida aytilganidek, buxgalteriya schyotlarida tovarlar xarid qilish qiymatida hisobga olinadi hamda, tovarlar qoldig‘ini tannarxi bo‘yicha aks ettirish uchun esa kontraktiv ***2980 «Savdo ustamasi»*** schyotidan foydalaniladi.

Agar tovarlar xarid qilish qiymatlarida aks ettiriladigan bo‘lsa, ***2980 «Savdo ustamasi»*** schyoti chakana savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida tovarlarning savdo ustamalari (chegirmalari) haqidagi axborotni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Umumiy ovqatlanishi korxonalarida 2980 «Savdo ustamasi» schyotida ombordagi, bufetdagi va oshxonadagi mavjud oziq-ovqat mahsulotlari va tovarlarining savdo ustamalari summalari, shuningdek, belgilangan miqdorda oshxona va bufet mahsulotlarining qiymatiga sotish narxlari bo‘yicha qo‘shiladigan ustamalar summasi hisobga olinadi.

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan tovar-moddiy zaxiralar hisobi sotish qiymati bo‘yicha yuritilganda sotilgan tovar-moddiy zaxiralar tannarxi sotilgan tovar-moddiy zaxiralarning sotish qiymati bilan ularga to‘g‘ri keluvchi savdo ustamasi summasi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Sotilgan tovar-moddiy zaxiralarga to‘g‘ri keluvchi savdo ustamasining summasi sotilgan tovar-moddiy zaxiralarning sotish qiymati (tovar aylanmasi) va savdo ustamasining o‘rtacha foizi ko‘paytmasi sifatida aniqlanadi. Savdo ustamasining o‘rtacha foizi hisobot davri boshidagi savdo ustamalarining qoldig‘i va hisobot davrida kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha savdo ustamalari summasini hisobot davri boshida tovar-moddiy zaxiralar qoldig‘ining sotish qiymati va hisobot davrida olingan tovar-moddiy zaxiralarning sotish qiymati summasiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Tovarlar kirim qilganida 2980 «Savdo ustamasi» schyoti savdo ustamalari summasiga kreditlanadi va sotilgan, foydalanishga berilgan yoki tabiiy eskirish, brak, buzilish, kamchilik va h.k.lar oqibatida hisobdan chiqarilgan tovarlar bo‘yicha savdo ustamalari summasiga esa debetlanadi. Sotilgan tovarlarga to‘g‘ri keladigan savdo ustamalari summasi qismiga 2980 «Savdo ustamasi» schyotining debeti bo‘yicha va 9120 «Sotilgan tovarlar tannarxi» schyotining krediti bo‘yicha aks ettiriladi. Realizatsiya qilinmagan tovarlar qoldig‘iga to‘g‘ri keladigan savdo ustamlari summasining qismi inventarizatsiya ro‘yxatlari asosida belgilangan miqdorlarga muvofiq tovarlarga qo‘yiladigan ustamani belgilash yo‘li orqali aniqlanadi.

SHunday qilib, sotilgan tovarlarga to‘g‘ri keladigan savdo ustamasi summasi quyidagi formulalarga asosan hisoblab chiqiladi:

Realizatsiya qilingan savdo ustamasi summasi =

Tovar aylanmasi x savdo ustamasining o‘rtacha foizi (O‘r.%),

bu yerda:

$$O‘r.\% = \frac{\text{Tovar ustamasining boshlang‘ich saldosi + kelib tushgan tovarlar bo‘yicha savdo ustamasi}}{\text{Hisobot yilidagi tovar aylanmasi + davr oxiriga tovar qoldig‘i}} \times 100\%$$

Chakana savdo korxonalarida savdo ustamasi bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya

hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misoda ko‘rib chiqamiz. CHakana savdo bilan shug‘ullanuvchi «Eskimo-savdo» magazini buxgalteriya hisobi schyotlarida 2021-yil 1- mart holatidagi qoldiq quyidagilarni tashkil qildi:

2920 «CHakana savdodagi tovarlar» schyoti: 4 500 000 so‘m;

2980 «Savdo ustamasi» schyoti: 312 000 so‘m.

2021-yil mart oyi davomida «Eskimo-savdo» magazini quyidagi operatsiyalarni amalga oshirdi:

1. Mol yetkazib beruvchilardan 12 000 000 so‘mlik tovarlar xarid qilish qiymati bo‘yicha kirim qilindi, jumladan xarid qilingan tovarlar bo‘yicha savdo ustamasi 725 500 so‘mni tashkil qildi.

2. 2021-yil mart oyi davomida jami 11 500 000 so‘mlik tovarlar naqd pulga sotildi va sotishdan tushgan pul mablag‘lari xizmat ko‘rsatadigan bankka inkassatsiya qilindi.

2021-yil mart oyi davomida amalga oshirgan chakana savdo operatsiyalari «Eskimo-savdo» magazinining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- mol yetkazib beruvchilardan tovarlar qabul qilinganda, jumladan savdo ustamasi:

debet 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schyoti 12 000 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schetlar» schyoti 11 274 500 so‘m;
kredit 2890 «Savdo ustamasi» schyoti 725 500 so‘m;

- tovarlar naqd pulga sotilganda:

debet 5010 «Kassa» schyoti 11 500 000 so‘m;
kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar» schyoti 11 500 000 so‘m;

- tovarlarni sotishdan daromadning inkassatsiya qilingan summasiga:

debet 5110 «Hisob-kitob» schyoti 11 500 000 so‘m;
kredit 5010 «Kassa» schyoti 11 500 000 so‘m;

- sotilgan tovarlar tannarxi hisobdan chiqarilganda:

debet 9120 «Sotilgan tovarlar tannarxi» schyoti 11 500 000 so‘m;
kredit 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schyoti 11 500 000 so‘m.

- hisob-kitobga muvofiq mart oyi uchun sotilgan tovarlarga to‘g‘ri keladigan savdo ustamasi summasiga:

debet 2890 «Savdo ustamasi» schyoti 724 500 so‘m;
kredit 9120 «Sotilgan tovarlar tannarxi» schyoti 724 500 so‘m;

Bunda sotilgan tovarlar bo‘yicha savdo ustamasining o‘rtacha foizi (o‘r.%) quyidagicha hisoblab chiqildi:

$$O‘r.\% = \frac{312\,000 + 725\,500}{4\,500\,000 + 12\,000\,000} \times 100\% = 6{,}3\%$$

Sotilgan tovarlar bo‘yicha savdo ustamasining summasi - 724 500 so‘m (11 500 000 x 6,3 x 100).

Tovarlarni sotish narxlari bo‘yicha baholash usulidan foydalanadigan va transport-tayyorlov xarajatlarini alohida schetlarda hisobga olib boradigan xo‘jalik yurituvchi chakana savdo korxonalarida hisobot davri mobaynida sotilgan tovarlar bo‘yicha savdo ustamasi summasini belgilash va transport-tayyorlov xarajatlarning taqsimlanishi quyida keltirilgan.

(ming so‘mda)

Mazmuni	Savdoda chakana narx bo‘yicha tovarlar	Jumladan savdo ustamasi	Transport-tayyorlov xarajatlari	Sotuv qiymati (2-ust + 4-ust)
1	2	3	4	5
1. Oy boshiga qoldiq	227	77	25	252
2. Bir oyda kelib tushdi	460	160	50	510
3. Bir oyda chiqib ketdi (sotildi)	487**	168	53	540
4. Oy oxiriga qoldiq (1-satr+2-satr+3-satr)	200	69	22	222

** 2920 «Savdodagi tovarlar» schyotidagi qoldiq savdo ustamasining 2980 «Savdo ustamasi» korrespondentlik schyotidan 168 000 so‘m miqdorida chiqarilishi va tovarlarning xarid qiymati 9120 «Sotilgan tovarlar tannarxi» schyoti korrespondentsiyasida 319 000 so‘mga kamayishi natijasida 487 000 so‘mga kamaydi (168 000 so‘m + 319 000 so‘m).

Sotilgan tovarlarga to‘g‘ri keladigan savdo ustamasi summasi (debet 2920 «Savdodagi tovarlar» schyoti, kredit 2980 «Savdo ustamasi» schyoti) quyidagini tashkil etadi:

$$\frac{77\,000 + 160\,000}{252\,000 + 510\,000} \text{ x } 540\,000 = 168\,000 \text{ so‘m;}$$

Sotilgan tovarlarga to‘g‘ri keladigan transport-tayyorlov xarajatlari summasi (debet 9120 «Sotilgan tovarlar tannarxi» schyoti va kredit 1510 «Transport-tayyorlov xarajatlari» schyotida aks ettiriladi) quyidagini tashkil etadi:

$$\frac{25\,000 + 50\,000}{252\,000 + 510\,000} \text{ x } 540\,000 = 53\,000 \text{ so‘m;}$$

Sotilgan tovarlar tannarxi (debet 9120 «Sotilgan tovarlar tannarxi» schyoti va kredit 2920 «Savdodagi tovarlar» schyoti) **319 000 so‘mni (540 000 so‘m – 168 000 so‘m – 53 000 so‘m)** tashkil etadi.

Mol yetkazib beruvchilardan kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilishda aniqlangan kamomad va yo‘qotishlar, shuningdek ularning shartnomada nazarda tutilgandan yuqori kamomadi yoki buzilishi 4860 «Da’volar bo‘yicha olinadigan schyotlar» schyotining debetida hisobga olinadi. Yo‘qotishlarning aybdorlariga da’vo taqdim etiladi va agar ular da’voni qanotlantirmasalar xo‘jalik sudiga da’vo arizasi bilan murojaat qilinadi. Sud tomonidan yuqoridagi yo‘qotishlar summasini aybdorlardan undirish rad etilgan hollarda, bunday operatsiyalar buxgalteriya hisobida 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotining debeti va 4860 «Da’volar bo‘yicha olinadigan schyotlar» schyotining kredit bo‘yicha yozuv bilan aks ettiriladi.

4-§. Korxonada ishlab chiqarilgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi va ularni aniqlash usullari

Xo‘jalik yuritish amaliyotida odatda tayyor mahsulot korxonaning o‘zida tayyorlanadigan tovar-moddiy zaxiralarning asosiy moddasi hisoblanadi. Bundan tashqari, korxonalar o‘z iste’moli uchun inventar va xo‘jalik jihozlarini, taralar, ehtiyot qismlar, yarim fabrikatlar va boshqalarni mustaqil ishlab chiqarishi mumkin. Korxonaning o‘zi tomonidan ishlab chiqariladigan (tayyorlanadigan) tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi deb ularning ishlab chiqarish tannarxi tan olinadi.

Asosiy faoliyat turi xizmat ko‘rsatish hisoblangan korxonalarda ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxini aniqlash boshqa tovar-moddiy zaxiralarnikiga o‘xshash tarzda amalga oshiriladi. Bundan keyin ***tovar-moddiy zaxiralar tannarxi*** iborasi ***xizmatlar tannarxini*** ham o‘z ichiga oladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqarish tannarxiga ularni ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish sifatidagi xarajatlar kiritiladi. Bunda ushbu xarajatlarga quyidagilar kiradi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar.

Bevosita xarajatlar bu - alohida turdagi tovar-moddiy zaxiralarni ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish va ishlar bajarish) jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan hamda ularning birligi tannarxiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritiladigan ishlab chiqarish xarajatlaridir.

Bilvosita xarajatlar bu - bir necha turdagi tovar-moddiy zaxiralarni ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish va ishlar bajarish) jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish xarajatlari bo‘lib, ularni muayyan tovar-moddiy zaxiralar birliklari tannarxiga bevosita kiritib bo‘lmaydi, buning oqibatida ular xarajatlar obyektlari va ularning birliklari tannarxi o‘rtasida hisob-kitob yo‘li bilan taqsimlanadi xarajatlardir.

Tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra quyidagi elementlar bo‘yicha guruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga mo‘ljallangan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Realizatsiya xarajatlari, korxonani boshqarish bo‘yicha umumiy xarajatlar (ma’muriy xarajatlar), boshqa operatsion xarajatlar, moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar va favqulodda zararlar mahsulotning (ishlarning, xizmatlarning) ishlab chiqarish tannarxiga **kiritilmaydi**.

Yuqorida keltirilgan tannarx elementlari bo‘yicha ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shiladigan va qo‘shilmaydigan xarajatlarning to‘liq ro‘yxati «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq aniqlanadi. Mazkur Nizom asosida ayrim tarmoqlar xarajatlari tarkibi va ularni hisobga olish xususiyatlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan holda tegishli vazirliklar va idoralar, xo‘jalik birlashmalari (uyushmalar, kompaniyalari va boshqalar) tomonidan aniqlanadi.

Ma’lumki, tovar-moddiy zaxiralar tannarxining asosini korxona xarajatlari (sarflari) tashkil etadi. Moliyaviy hisobotda, ya’ni buxgalteriya balansida tayyor mahsulot hamda tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarini, shuningdek, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda sotilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)lar tannarxini aks ettirish maqsadida, Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi

Nizom korxonaning mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxiga kiritish uchun xarajatlar ro‘yxatini belgilab beradi. Bunda, tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlashda korxona xarajatlarini klassifikatsiyalashning muhim ahamiyatini ta’kidlab o‘tish joiz.

Tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqaruvchi korxonalarda chetga sotish (ustav kapitaliga berish va h.k.) lar uchun ishlab chiqarilgan tovar-moddiy zaxiralar ishlab chiqarish tannarxi bo‘yicha baholanadi va 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyotidan (agar ishlab chiqarish asosiy faoliyat turi bo‘lsa), 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyotidan (agar ishlab chiqarish yordamchi ishlab chiqarish bo‘lsa) tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar (2800) ga kiritiladi.

Xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda xizmatlarni ko‘rsatilganligini tasdiqlovchi qabul qilish-topshirish dalolatnomasi tasdiqlanganda ***birinchi navbatda*** daromad tan olinib 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyotining debeti va 9030 «Ish bajarish va xizmat ko‘rsatishdan daromadlar» schyotining kreditida aks ettiriladi. ***Ikkinchi navbatda*** esa ko‘rsatilgan xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxi 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» (agar xizmat ko‘rsatish asosiy faoliyat turi bo‘lsa) schyotidan, 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» (agar xizmat ko‘rsatish yordamchi ishlab chiqarish bo‘lsa) schyotidan, 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi» schyotiga kiritiladi.

Tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) va tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini shakllanishi va kirim qilish (balansdan chiqarish) ni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi 21-son BXMS ning 2-ilovasini II bo‘limi - «Tovar- moddiy zaxiralar» da batafsil ochib berilgan.

Buxgalteriya hisobiga doir ilmiy adabiyotlarda qabul qilinganidek, ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) va tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini aniqlash muammolari buxgalteriya hisobining alohida bo‘limi – boshqaruv hisobida o‘rganiladi.

Tovar-moddiy zaxiralar (mahsulot (ishlar, xizmatlar)) tannarxini aniqlash usullari ularning turi, mahsulot ishlab chiqarish xili, uning murakkabligi, tugallanmagan ishlab chiqarish mavjudligi, ishlab chiqarish siklining davomiyligi, tovar-moddiy zaxiralar nomenklaturasiga bog‘liqdir. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini aniqlashning asosiy usullari bo‘lib: oddiy, me’yoriy, buyurtmali, bosqichli usullar hisoblanadi, savdo korxonalarida esa xarajatlarni inventar baholash usuli ham qo‘llaniladi.

4.1. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlashning oddiy usuli

Tovar-moddiy zaxiralarning tannarxni aniqlashning oddiy usuli bir turdagi mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaradigan hamda yarim tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishga ega bo‘lmagan korxonalarda qo‘llaniladi. Ushbu usul qo‘llanilganda hisobot davridagi barcha ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari summasini ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) birliklarining umumiy miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan hisoblab chiqariladi, ya’ni tegishli formula quyidagi ko‘rinishga ega:

$$T/n_{bir.} = \frac{\textit{Hisobot davridagi jami ishlab chiqarish xarajatlari summasi}}{\textit{Ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning umumiy miqdori.}}$$

4.2. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlashning buyurtmali usuli

Tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlashning buyurtma usuli yakka tartibdagi va ko‘p seriyali bo‘lmagan ishlab chiqarishga ega bo‘lgan tashkilotlarda qo‘llanadi, bunda ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotga (ishga, xizmatga) (bir xildagi mahsulotlar guruhiga) doir alohida buyurtmalar bo‘yicha identifikatsiyalanadi va hisobga olinadi. Buyurtmaning obyekti bo‘lib

mahsulot (ish, xizmat), bir xildagi mahsulot (ish, xizmat)ning mayda turkumlari yoki ta'mirlash, montaj va eksperimental ishlar hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayoni uzoq davom etadigan yirik mahsulotlarni tayyorlashda buyurtmalar yaxlit mahsulotga emas, balki uning tugallangan konstruktsiyalarga ega bo‘lgan alohida agregatlari, uzellariga berilishi mumkin.

Sanoat sohasida ushbu usuldan, odatda, ishlab chiqarish jarayoni bir turda tashkil qilinadigan korxonalarda qo‘llaniladi. Bunday korxonalar odatda cheklangan iste'molga mo‘ljallangan buyumlarni ishlab chiqarish uchun tashkil qilinadi. Misol tariqasida prokat stanlari, yuqori quvvatli ekskavatorlarni ishlab chiqaruvchi og‘ir mashinasozlik zavodlari, shuningdek, mexanik jarayonlardan foydalaniladigan va takrorlanmaydigan yoki juda kam takrorlanadigan mahsulot ishlab chiqariladigan harbiy sanoat majmuasi korxonalarini keltirish mumkin. Tabiiyki, yirik buyurtmani ishlab chiqarish sezilarli darajadagi moddiy sarflarni, mehnatni va boshqa xarajatlarni taqozo etadi, ammo hamma vaqt ham korxonalarning quvvatlarini to‘liq hajmda ishlatish imkoniyati bo‘lmaydi. Shuning uchun ham, bir vaqtning o‘zida boshqa buyurtmalarni, turli konstruktsiyadagi buyumlarni ishlab chiqarish mumkin, lekin ularning har biri cheklangan miqdorda bo‘ladi.

Ishlab chiqarishning alohida turining, ya'ni alohida bo‘lgan buyurtmalarga va mahsulotlar (ish, xizmatlar) partiyasiga asoslangan ishlab chiqarishning o‘ziga xos bo‘lgan muhim xususiyatlarini ta'kidlab o‘tish joiz. Ular sirasiga quyidagilarni olib borish mumkin:

- tayyorlanadigan mahsulot turining xilma-xilligi, uning salmoqli qismi takrorlanmaydi va alohida buyurtmalar bo‘yicha kichik miqdorlarda ishlab chiqariladi;
- ishchi o‘rinlarining texnologik ixtisoslashuvi va muayyan operatsiyalar va detallarning ishchi o‘rinlariga doimo mustahkamlanishi mumkin emasligi;
- odatda universal uskunalar va moslamalardan foydalanish;
- qo‘lda amalga oshiriladigan yig‘ish va yakunlash operatsiyalar salmoqli ulushining nisbatan ko‘pligi;
- ishchilar orasida yuqori malakali universal mutaxassislarning ko‘pligi.

Shu bilan birga, tannarxni hisoblashning (kalkulatsiya qilishning) buyurtmali usulidan sinov mahsulot namunalarini ishlab chiqarishda, shuningdek, qo‘shimcha ishlab chiqarishlarda – maxsus asbob-uskunalarni tayyorlashda, ta'mirlash ishlarini olib borishda ham foydalaniladi. Buyurtmali usulidan foydalanish sohasining boshqa yo‘nalishlari bo‘lib mayda turkumli sanoat korxonalar hisoblanadi. Mazkur holatda, turkum deganda ishlab chiqarishga bir vaqtda yoki muayyan ketma-ketlikda tushiriladigan bir xil konstruktsiyali buyumlarning cheklangan miqdori tushuniladi. Mayda turkumli ishlab chiqarishlar iste'molchiga kichik miqdorlarda kerak bo‘ladigan mahsulotni ishlab chiqarish uchun tashkillashtiriladi. Shuning uchun mayda turkumli ishlab chiqarish korxonalari nisbatan keng bo‘lgan va yetarli darajada turli xil nomenklaturadagi mahsulotlar bilan yuklanadi. Misol tariqasida kemasozlik va aviasozlik korxonalarini, shuningdek, nashriyot-matbaa korxonalarini keltirish mumkin. Ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori buyurtma bo‘yicha aniqlanadi.

Buyurtmali usul fizikaviy-kimyoviy jarayonlardan foydalanadigan korxonalarda cheklangan miqdorda alohida mahsulot turlarini ishlab chiqarishda ham qo‘llaniladi (masalan, kimyo sanoati korxonalarida kimyoviy reaksiyalar tayyorlash, temir-beton yig‘ish korxonalarida temir-betondan original buyum va boshqa buyumlar tayyorlash).

Ta'kidlash joizki, buyurtmali usuli bo‘yicha hisoblashning foydalanish sohasi, sanoat ishlab chiqarish sohasi bilan cheklanmaydi. Ushbu usul qurilishda (loyihani muayyan hududga moslashtirish uchun), ilmiy-tekshirish institutlarida, sog‘liqni saqlash muassasalarida (bunda har bir bemorga qilingan operatsiya tannarxi, uning murakkabligi va qo‘yilgan tashxisga bog‘liq holda kalkulatsiyalanadi) muvaffaqiyat bilan qo‘llaniladi.

Ushbu kalkulatsiyalash usulining mohiyati quyidagidan iborat: barcha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar (asosiy materiallarga xarajatlar, asosiy ishlab chiqarish ishchilarining mehnat haqi xarajatlari va u bo‘yicha ijtimoiy ajratmalar) kalkulatsiyaning alohida ishlab chiqarish buyurtmalari bo‘yicha belgilangan moddalari doirasida hisobga olinadi. Boshqa ishlab chiqarish ustama xarajatlari ular paydo bo‘lgan joyda hisobga olinadi va taqsimlash stavkasining belgilangan bazasiga muvofiq alohida buyurtmalar tannarxiga kiritiladi.

Ushbu kalkulatsiyalash usulida xarajatlarni hisobga olish obyekti va kalkulatsiyalash obyekti bo‘lib alohida ishlab chiqarish buyurtmasi hisoblanadi. Bunda, buyurtma deganda mijozning unga muayyan miqdordagi buyumlarni maxsus yaratish yoki tayyorlash uchun murojaatnomasi tushuniladi. Odatda, buyurtmaning turi buyurtmachi (xaridor) bilan tuzilgan shartnomada belgilanadi. Mazkur shartnomada mahsulotning buyurtmachi tomonidan to‘lanadigan qiymati, hisob-kitoblarni amalga oshirish va mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni topshirish tartibi, buyurtmani bajarish muddati, sotishdan keyingi kafolatli xizmat ko‘rsatish muddati va boshqa shartlar ko‘rsatiladi.

Tannarxni aniqlashning ushbu usulida barcha xarajatlar buyurtmaning yakunlanishiga qadar to‘laligicha tugallanmagan ishlab chiqarish deb hisoblanadi. Buyurtma birligining tannarxi uning bajarilishi (mahsulot ishlab chiqarilishi, ishlar bajarilishi yoki xizmatlar ko‘rsatilishi) tugallangandan keyin aniqlanadi. Buyurtma bo‘yicha xarajatlarning butun summasi uning tannarxini tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, tannarxni kalkulatsiyalashning buyurtma usulida ishlab chiqarishda foydalanilgan materiallarga, ishlab chiqaruvchi ishchilar uchun mehnat haqiga xarajatlar va ular bo‘yicha ijtimoiy ajratmalar, shuningdek, ishlab chiqarish (umumzavod) ustama xarajatlari har bir yakka tartibdagi buyurtmaga yoki mahsulotning ishlab chiqarish partiyasiga o‘tkaziladi.

Agar ushbu buyurtma bir xildagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) turkumidan iborat bo‘lsa, mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi mazkur buyurtma bo‘yicha xarajatlar summasini mahsulot birliklari miqdoriga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Buyurtmalar qisman bajarilib, ular buyurtmachilarga topshirilganda qisman ishlab chiqarish tannarxi ularning konstruktsiyalari, texnologiyalari, ishlab chiqarish shart-sharoitlaridagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda ilgari bajarilgan buyurtmalarning tannarxi bo‘yicha baholanadi.

Agar buyurtma bitta buyumga qilingan bo‘lsa, uning tannarxi barcha xarajatlar yig‘indisi sifatida hisoblab chiqiladi. Agar bir nechta buyum yoki buyumlar partiyasi buyurtma qilingan bo‘lsa, xarajatlar summasini qo‘shish orqali butun partiyaning tannarxi hisoblab chiqiladi. Bitta buyumning tannarxini aniqlash uchun umumishlab chiqarish xarajatlari partiyadagi mahsulot birliklarining soniga bo‘linadi.

Alohida buyurtmalar bo‘yicha hisobga olish asosiy hisob registri – buyurtmani hisobga olish kartochkasini ochishdan boshlanadi. Ushbu hisob hujjati korxona buxgalteriyasi tomonidan yuritiladi. Buyurtmani hisobga olish kartochkasiga yozuvlarni kiritish uchun asosiy dastlabki hisob hujjatlari materiallar va ishchilar mehnatidan foydalanganlikni tasdiqlovchi boshlang‘ich hujjatlardir (materiallarni ajratish uchun talabnoma, ish naryadi va h.k.). Bunda har bir boshlang‘ich hujjatda buyurtmaning identifikatsion raqami qo‘yib chiqiladi. Buyurtmani hisobga olish kartochkasidan buyurtma o‘tgani sayin to‘g‘ridan - to‘g‘ri materiallar, mehnat xarajatlari va ishlab chiqarish ustama (umumzavod) xarajatlari bo‘yicha axborot to‘planib boradi. SHunday qilib, buyurtmani hisobga olish kartochkasi kalkulatsiyalashning buyurtmali usulidan foydalanish sharoitida asosiy hisob registri bo‘lib hisoblanadi.

Mahsulot tannarxini aniqlashning ushbu usulida materiallarning to‘g‘ridan - to‘g‘ri xarajatlari, shuningdek, buyurtmani bajarishda bevosita band bo‘lgan asosiy ishlab chiqarish ishchilari uchun mehnat haqi xarajatlari, olingan boshlang‘ich hujjatlarga muvofiq tegishli buyurtmalarda hisobdan chiqariladi va 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyotida aks ettiriladi.

Bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarining hisobot davrida bajarilgan alohida ishlab chiqarish buyurtmalari o‘rtasida taqsimlanishi muammosi tug‘iladi (asosiy ishlab chiqarish vositalari va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, ijara haqi, yoritish, isitish, shamollatish, konditsionerlash, texnik ko‘rikdan o‘tkazish hamda ishlab chiqarish quvvatlari va ko‘chmas mulkni ta’mirlash bilan bog‘liq xarajatlar va h.k.), chunki buyurtma narxini rejalashtirish va uni buyurtmachi (xaridor) bilan kelishib olish ishlarini bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy summasi hali haqiqatdan ma’lum bo‘lmasidan hisobot davri davomida olib borish kerak.

Mazkur masalani hal qilish yo‘llaridan biri (tavsiya etilmaydi) – hisobot davri tugashini kutish va keyin hisobot davridagi bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarining umumiy haqiqatdagi summasini bilgan holda, uni alohida buyurtmalar o‘rtasida taqsimlash. Biroq, bunday yechim zamonaviy rahbarni va buyurtmachining o‘zini ham qoniqtirishi gumon. Korxona rahbariyati buyurtma bajarilishidan oldin uning narxini belgilash uchun buyurtmaning kutilayotgan tannarxi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishi kerak. Buyurtmachi ham xuddi shuningdek, arzonroq ijrochini tanlash uchun kutiladigan narxlar haqida operativ axborotga ega bo‘lishi lozim. Amaliyotda odatda boshqa yo‘ldan boriladi: ishlab chiqarish ustama xarajatlari (bilvosita xarajatlar) oldindan alohida buyurtmalar o‘rtasida taqsimlanadi, bunda kutilayotgan bilvosita ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning byudjet (rejali, smetali, baholangan) stavkalaridan (dastlabki normativlardan) foydalaniladi. Odatda, ular ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar) hajmlarining va keyingi davrdagi ishlab chiqarish ustama xarajatlarining baholanadigan miqdorlariga asoslanadi.

Ishlab chiqarish ustama xarajatlari (IUX)ni taqsimlashning smetali (byudjetli) stavkalarini hisoblab chiqish korxona buxgalteriyasi tomonidan hisobot davri boshlanishidan oldin uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Boshlanadigan (rejalashtirilayotgan) davr uchun ishlab chiqarish ustama xarajatlari baholanadi

Bunday prognozlarning aniqlik darajasi ko‘p jihatdan buxgalter - tahlilchining (yoki rejalashtirish bo‘limi xodimining tajribasi, bilimlari va saviyasiga bog‘liq, chunki bunday prognozlarni ishlab chiqishda ko‘plab omillarni – ham obyektiv (korxona faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan), ham subyektiv (unga bog‘liq bo‘lgan) omillarni hisobga olish zarur. Masalan, umumishlab chiqarish xarajatlarining salmoqli qismini kommunal xizmatlar va elektr energiyasi uchun to‘lovlar tashkil qiladi, uning miqdori esa, o‘z navbatida, belgilangan tariflarga bog‘liq. Demak, kommunal xizmatlar va elektr energiyasi to‘lovlari bo‘yicha amaldagi tariflarning oshishi korxona uchun obyektiv omil hisoblanadi. SHu bilan birga, elektr energiyasidan qanchalik oqilona foydalanish, uni bekorga sarflamaslik aynan korxonaning o‘ziga bog‘liq. Bunday subyektiv omillar ham tahlilchi-buxgalter tomonidan kelgusi davr uchun IUXni prognozlashda hisobga olinishi kerak.

2. IUXni alohida ishlab chiqarish buyurtmalari o‘rtasida taqsimlash uchun baza tanlanadi va uning miqdori prognozlanadi. Bunda taqsimlash bazasi deyilganda shunday texnik-iqtisodiy ko‘rsatkich tushuniladiki, u korxona rahbari nuqtai nazaridan ishlab chiqarish ustama xarajatlarini tayyor mahsulotni ishlab chiqarish hajmlari bilan eng yuqori darajadagi aniqlikda bog‘laydi.

IUXni taqsimlash bazasi xo‘jalik subyekti tomonidan uning faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan, bajariladigan buyurtmalar turidan, ularning miqdori, o‘lchamlari, oldingi

hisobot davrdarida bajarilgan buyurtmalar hajmlari va turlaridan va h.k.dan kelib chiqqan holda mustaqil tarzda tanlanadi. Buyurtmani kalkulatsiyalash maqsadida foydalanish uchun tanlangan IUXni taqsimlash bazasi xo‘jalik subyektining hisob siyosatida aks ettirilishi kerak va butun hisobot davrida shundayligicha qoladi.

Odatda sanoatda IUXni taqsimlash bazasi sifatida eng keng qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlar sifatida ishlangan dastgoh-soatlar, asosiy ishlab chiqarish ishchilari uchun hisoblangan ish haqi summasi, kishi-soat va h.k.lardir. Biroq, masalan, gilamlarni yakka tartibda ishlab chiqarishda – kvadrat metrlar, transport xizmatlarini ko‘rsatishda – tonna yoki yo‘lovchi-kilometrlar (avtomobil bosib o‘tgan yo‘l), auditorlik xizmatlari ko‘rsatishda – auditorlik korxonai xodimlari ishlagan soatlar, o‘quv markazlarida – o‘qituvchining ish soatlari, Internet-kafelarda – kompyuterlar ishlatilgan soatlar va shu kabi boshqa o‘lchov birliklari qo‘llanilishi mumkin.

Buxgalter yoki rejalashtirish bo‘limi xodimi IUXni taqsimlash bazasi sifatida u yoki bu ko‘rsatkichni tanlash haqida qaror qabul qilar ekan, uning kelgusi (rejalashtirilayotgan) davr uchun miqdorini prognozlaydi. Bunda u IUX summasini prognozlashda uchraydigan muammolarga duch keladi. Bu yerda mavsumiy o‘zgarishlarni hisobga olib, korxona mahsulotiga bo‘ladigan talabni, aholining (yoki korxonalarning) to‘lov qobiliyatini, raqobatchilar faoliyatini hisobga olib bozordagi umumiy vaziyatni baholash zarur. Ushbu barcha omillarning kutilayotgan buyurtmalar hajmlariga, tegishlicha, tanlangan bazaviy ko‘rsatkich miqdoriga ta’sirini to‘g‘ri baholashni faqat tajribali buxgalter yoki rejalashtirish bo‘limi xodimi uddalashi mumkin.

3. Prognozlanadigan IUX summasini bazaviy ko‘rsatkichning kutilayotgan miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan smeta (byudjet) stavkasi hisoblab chiqiladi, ya’ni uni hisoblab chiqarish formulasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\text{IUXni taqsimlashning smeta (byudjet) stavkasi} = \frac{\text{Kelgusi (rejalashtirilayotgan) davr uchun ishlab chiqarish ustama xarajatlarining smeta (byudjet) summasi}}{\text{Smetali (byudjet) taqsimlash bazasi (xarajatlar omili)}}$$

4.3. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlashning bosqichli usuli

Tannarxni aniqlashning bosqichli usuli boshlang‘ich xomashyo va materiallar ishlab chiqarish jarayonida bir qator bosqich, faza, pog‘onalardan o‘tadigan korxonalarda qo‘llanadi. Ushbu usulda avval barcha mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning tannarxi, so‘ngra uning birligi tannarxi aniqlanadi.

Odatda, ushbu usuldan mahsulot muayyan ketma-ketlikda ishlab chiqarishning barcha bosqichlaridan o‘tadigan sanoat korxonalarida foydalaniladi. Aksariyat hollarda, bunday ishlab chiqarishlarda xomashyo fizikaviy-kimyoviy va kimyoviy usullarda qayta ishlanadi hamda mahsulot olish jarayoni bir nechta ketma-ketlikdagi texnologik bosqichlardan iborat bo‘ladi. Bunda kulkulyatsiyalash obyekti bo‘lib, har bir yakunlangan bosqich mahsuloti hisoblanadi, o‘z navbatida bira to‘la bir nechta mahsulot olinadigan bosqichlarga ham tegishlidir. Ishlab chiqarish va boshqaruv hisobi bo‘yicha xorijiy adabiyotlarda ushbu usulni tannarxni kulkulyatsiyalashning jarayonli usuli deb ham ataladi[2].

Bosqichli usulning mohiyati shundan iboratki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarni joriy hisobda mahsulot turlari bo‘yicha emas, balki ishlab chiqarish bosqichlari bo‘yicha aks ettiriladi, hattoki bitta bosqichda turli xildagi mahsulotlarni olish imkoniyati bo‘lganda ham. Demak, xarajatlarni hisobga olish obyekti bo‘lib bosqich, ya’ni ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi.

[2] Хорнгрен Ч.Т., Фостер Дж. Бухгалтерский учет: управленческий аспект: Пер. с англ. / Под ред. Я.В.Соколова. –М.: Финансы и статистика, 2003.- 416с.; Апчёрч А. Управленческий аспект: принципы и практика: Пер. с англ./Под ред. Я.В.Соколова. – М.: Финансы и

Tegishli ravishda, mahsulot tannarxini aniqlashning bosqichli usulidan kelib chiqib «bosqich» so‘ziga ta’rif berish mumkin. Bosqich – bu texnologik jarayonning bir qismi (texnologik operatsiyalar yig‘indisi) bo‘lib, natijada tayyor yarim fabrikatni olish bilan yakunlanadi hamda ushbu mahsulotni ishlab chiqarishning keyingi bosqichiga (jarayoniga) o‘tkazish yoki chetga realizatsiya qilish mumkin bo‘ladi. Birlamchi materialning barcha ishlab chiqarish bosqichlardan o‘tishi natijasida tayyor mahsulot olinadi, ya’ni oxirgi bosqichdan endi yarim fabrikat emas, balki oxirgi tayyor mahsulot chiqadi. Masalan, to‘qimachilik ishlab chiqarishi bir qator bosqichlarlardan iborat bo‘ladi. To‘qimachilik sanoatida birlamchi material bo‘lib paxta tolasi, tozalanmagan va yuvilgan jun, pilla-shoyi, sun’iy va sintetik tolalar va boshqa materiallar hisoblanadi. Ular birinchi bosqichga – ip yigirishga kelib tushadi. Ushbu bosqichning tayyor mahsuloti yigirilgan kalava ip hisoblanadi. U keyingi bosqichga – to‘qishga o‘tkaziladi, va ushbu bosqich oxirida undan sur ip, yoki xom mato olinadi. Xom mato uchinchi bosqichga – pardozlashga kelib tushadi, unda matoga tegishli rasmlar tushiriladi. Xuddi shuningdek, qora metallurgiya sanoatida bosqichlar – bu cho‘yan eritish (domen sexi), po‘lat eritish (kislorodli-konvertorli yoki po‘lat quyish sexi), prokat ishlab chiqarish (prokat sexi).

Xarajatlarni hisobga olishning bosqichli usulining xususiyatlari bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

- har bir bosqich (jarayon) uchun 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» sintetik schyotiga analitik hisobni tashkil qilish;

- alohida buyurtmalarni hisobga olmasdan xarajatlarni bosqichlar (jarayonlar) bo‘yicha umumlashtirish, ya’ni har bir bosqich mahsuloti tannarxini butunlay kalkulatsiya qilish;

- xarajatlarni tayyorlash vaqti bo‘yicha emas, balki kalendar davr bo‘yicha hisobdan chiqarish.

SHuni ham ta’kidlash joizki, bosqichli usul xomashyodan kompleks foydalanadigan sanoat tarmoqlarida keng qo‘llanilib, unda ishlab chiqarish jarayoni mustaqil texnologiyaga va ishlab chiqarishni tashkil qilish alohida texnologik sikllariga ega bo‘lgan alohida bosqichlardan iborat. Bunday tarmoqlarga, masalan, kimyo, neft qazib olish, sement ishlab chiqarish, metallurgiya, sellyuloza-qog‘oz, ip-gazlama va boshqalar sanoat turlari kiradi. Sanab o‘tilgan sanoat korxonalarida material sarflanishi yuqori darajadaligini hisobga olinib, ishlab chiqarishni hisobga olish shunday tashkil etiladiki, ishlab chiqarishda materiallardan foydalanish nazorat ostida bo‘ladi. Aksariyat hollarda ushbu tarmoqlar korxonalarida birlamchi xomashyo, mahsulotning yoki yarim fabrikatning, yaroqsiz mahsulotlar va chiqindilarning chiqish balanslarini hisoblab chiqish qo‘llaniladi. O‘z navbatida, turli xildagi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar, agar butun texnologik jarayonni doimiy takrorlanib turuvchi operatsiyalarga bo‘lish imkoniyati mavjud bo‘lsa, xarajatlarni hisobga olishning ushbu usulidan foydalanadi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi katta bo‘lmagan, ammo ishlab chiqarish darajasi ommaviy tusga ega bo‘lgan sharoitda ham hisobga olishning bosqichli usulidan foydalaniladi. Ommaviy turdagi ishlab chiqarishning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- katta bo‘lmagan nomenklaturadagi mahsulotni yirik miqdorlarda hajmlarda ishlab chiqarish doimiyligi;

- ishchi o‘rinlarining odatda bitta doimiy biriktirilgan operatsiyani bajarishga ixtisoslashtirilishi;

- mexanizatsiyalangan va avtomatlashtirilgan jarayonlarning ulushli salmog‘ining sezilarli darajada oshishi hamda qo‘lda bajariladigan ishlarning keskin kamaytirilishi va h.k..

статистика, 2002. - 952с.; Друри К. Введение в управленческий и производственный учет: Пер. с англ./Под ред. Н.Д.Эриашвили.- М.: ЮНИТИ,1998.-783 с.

Ommaviy tusda ishlab chiqarishni tashkillashtirish turlaridan biri oqimli (potochnoe) ishlab chiqarish bo‘lib, unda texnologik jarayondagi barcha operatsiyalarning bajarilishi vaqt bo‘yicha bir-biriga muvofiqlashtiriladi va mehnat predmetlarining ish o‘rinlari bo‘yicha siljishi mahsulotni ishlab chiqarish bo‘yicha belgilangan ritmga muvofiq amalga oshiriladi.

Ta’kidlash joizki, tannarxni aniqlashning bosqichli usulida xarajatlarni hisobga olish va jamg‘arish jarayoni mahsulotni ishlab chiqarish bosqichida uning ketma-ketligidan keyin amalga oshiriladi. Har bir bosqich (bo‘linma, sex) uchun odatda nazorat (analitik) schyoti belgilanadi hamda bevosita va bilvosita xarajatlar har bir bosqich bo‘yicha taqsimlanadi. Xarajatlarni bosqichli kalkulatsiya qilish tizimi buyurtmali usuldagi kalkulatsiyalash tizimiga qaraganda amalga oshirish (foydalanish) uchun osonroq hisoblanadi, chunki bu yerda xarajatlarni har bir mahsulot birligi bo‘yicha batafsil detallashtirish kerak emas. Bundan tashqari, xarajatlarni buyurtmali usulda kalkulatsiyalashda bilvosita hisoblangan ko‘pgina sarf-xarajatlar bosqichli kalkulatsiyalash usulida bevosita xarajatlarga aylanishi mumkin. Masalan, ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish xarajatlari yoki ishlab chiqarish quvvatlarining amortizatsiyasi bo‘yicha xarajatlar bitta bo‘linmada ishlab chiqarish xarajatlarini bosqichli kalkulatsiyalashda bevosita sarf-xarajatlarning bir qismi hisoblanadi, chunki bevosita muayyan maqsadli sarf-xarajatga (muayyan bo‘linmaga yoki jarayonga) tegishli. Biroq buyurtmali usulda kalkulatsiyalash tizimida ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish xarajatlari yoki ishlab chiqarish quvvatlarining amortizatsiyasi bo‘yicha xarajatlar, odatda, bilvosita xarajatlar, ya’ni ishlab chiqarish ustama xarajatlari hisoblanadi, chunki bevosita aniq bir buyurtmaga nisbatan hisobga olinmaydi.

Bosqichli usul korxonaning tarmoqqa mansubligiga bog‘liq holda ikki variantda amalga oshirilishi mumkin: yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz variantlarda.

Yarim tayyor mahsulotli turda har bir bosqich bo‘yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisoblab chiqariladi hamda u avvalgi bosqichlar mahsuloti (ishlar, xizmatlar) tannarxi va mazkur bosqich bo‘yicha xarajatlardan iborat bo‘ladi. Oxirgi bosqich mahsulotining tannarxi barcha tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisoblanadi.

Yarim tayyor mahsulotsiz turda faqat oxirgi bosqich bo‘yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisoblab chiqariladi. Bunda xarajatlar avvalgi bosqichlar mahsuloti (ishlar, xizmatlar) tannarxini hisobga olmasdan, har bir bosqich bo‘yicha alohida hisobga olinadi. Tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga barcha alohida bosqichlar bo‘yicha uni ishlab chiqarish xarajatlari kiritiladi.

Xarajatlarni bosqichli usulda hisobga olishning yarim tayyor mahsulotli variantida batafsilroq to‘xtalib o‘tmiz, chunki ushbu variant nisbatan ko‘proq tarqalgan hisoblanadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, tayyorlanayotgan mahsulot bir jarayondan boshqasiga o‘tkazilgani sayin, u bilan birga oldingi bosqichdagi ishlab chiqarish xarajatlari ham o‘tib boradi. SHunday qilib, ishlab chiqarish jarayonida joriy tannarx jamg‘arilib boradi va oldingi umumiy xarajatlar summasiga oxirgi bo‘linma xarajatlarining qo‘shilishi yakuniy tannarxni keltirib chiqaradi. Demak, tayyor mahsulot birligining tannarxi oldingi ishlab chiqarish jarayonlarida jamg‘arilgan barcha xarajatlarini va ko‘rib chiqilayotgan davr mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga bo‘lish natijasida hosil bo‘ladi.

4.4. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlashning me’yoriy usuli

Tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlashning me’yoriy usuli xomashyo, materiallar, mehnat va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishning belgilangan me’yorlari bo‘yicha xarajatlarni hisobga olishga asoslangan. Me’yornomalar vaqti-vaqti bilan tahlil qilib turiladi va zarur hollarda joriy shart-sharoitlarga muvofiq qaytadan ko‘rib chiqiladi.

Xarajatlarni hisobga olishning va mahsulot tannarxini aniqlashning me'yoriy usuli shu bilan belgilanadiki, korxonada tayyorlanayotgan har bir mahsulot turi bo'yicha dastlabki me'yoriy kulkulyatsiya, ya'ni oy boshida amalda bo'lgan materiallar, mehnat xarajatlari va ishlab chiqarish ustama xarajatlari me'yorlari bo'yicha hisoblangan tannarx kalkulatsiyasi tuziladi. «Me'yor» atamasiga ta'rif berishga urinib ko'ramiz. Odatda «me'yor» deganda ilg'or texnologiyalar va ishlab chiqarishni tashkil qilish sharoitidagi xo'jalik faoliyati natijalarining oldindan bergilangan sonlardagi miqdoriy ifodasi tushuniladi. O'z navbatida, me'yornoma (normativ) – bu me'yor qiymatlarining puldagi ifodasi yoki kalkulatsiya qilish nuqtai nazaridan – oldindan belgilanadigan xarajatlar summalaridir.

Me'yoriy xarajatlar bo'yicha tannarxni aniqlashning me'yoriy usuli, ko'proq faoliyati bir qator umumiy yoki takrorlanuvchi operatsiyalardan iborat bo'lgan korxonalarga, shuningdek, har bir mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan birlamchi resurslar miqdorini aniqlash mumkin bo'lgan holatlarga mos keladi. Tegishli ravishda, ishlab chiqarish jarayonlari tez-tez takrorlanadigan qayta ishlash sanoati korxonalarida bunday usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Alohida shuni ta'kidlash lozimki, o'z tabiatiga ko'ra takrorlanmaydigan faoliyat turlariga nisbatan ushbu usulni qo'llab bo'lmaydi, chunki bu holda takrorlanuvchi operatsiyalarni kuzatish uchun moddiy asos mavjud emas, tegishli ravishda, me'yorlarni ham belgilab bo'lmaydi.

Shu bilan birga, turli xil mahsulot ishlab chiqariladigan korxonalarda tannarxni aniqlashning me'yoriy usulidan qay darajada foydalanilishi ishlab chiqarish jarayonining qanchalik umumiy operatsiyalar seriyasidan iboratligi bilan belgilanadi. Masalan, agar korxonada mahsulotning chiqishi beshta umumiy operatsiyalar natijasi bo'lsa, ushbu operatsiyalar davomida mahsulotning bir qancha turlari ishlab chiqarilishi mumkin. SHu sababli, ko'p sondagi umumiy operatsiyalar natijasida katta assortimentli mahsulot chiqishi bo'ladi. Biroq, bu yerda ham umumiy qoida amal qiladi: me'yoriy xarajatlar takrorlanuvchi operatsiyalar uchun hisoblanashishi kerak, mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan me'yoriy sarf-xarajatlar muayyan mahsulotni ishlab chiqarishga zarur bo'lgan operatsiyalarning me'yoriy xarajatlarini oddiy qo'shish orqali aniqlanadi. Mazkur jarayonni quyidagi sxemali jadval ko'rinishida namoyish qilish mumkin:

Mas'uliyat markazi (sex, jarayon)	**Operatsiya raqami va me'yoriy xarajat**		**Mahsulot nomi**							**Umumiy me'yoriy xarajatlar, so'm**	**Haqiqiy xarajatlar, so'm**
	№	**so'm**	***A***	***B***	***V***	***G***	***D***	***E***	***J***		
To'qish	1	130	√	√		√	√	√	√	780	
Tikish	2	195		√		√		√		585	
Pardozlash	3	260	√		√		√			780	
Bo'yash	4	325	√	√	√				√	1 300	
Mahsulotning me'yoriy tannarxi, so'm			715	650	585	325	390	325	455	3 445	

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, har bir operatsiya uchun (birinchidan - to'rtinchigacha) me'yoriy xarajatlar, tegishlicha, 130 000 so'm, 195 000 so'm, 260 000 so'm va 325 000 so'mga teng. Jadvaldagi axborotdan foydalanib A mahsulot uchun me'yoriy xarajatlar 715 000 so'mga teng bo'lishini hisoblab chiqish mumkin: undan 130 000 so'm 1-chi operatsiyaga, 260 000 va 325 000 so'm – 3-chi va 4-chi operatsiyalarga kiradi. Boshqa barcha mahsulotlar uchun ham me'yoriy xarajatlar shunday hisoblab chiqiladi. Bundan tashqari, hisobot davri uchun har bir operatsiya bo'yicha umumiy mahsulot chiqishining jami me'yoriy xarajatlarini ham hisoblab chiqish mumkin. Masalan, oltita mahsulot turi bo'yicha 1-operatsiya tugaganida uning me'yoriy xarajatlari 780 000 so'mga teng (6 ta mahsulot har biri 130 000 so'mdan). Uchta mahsulot 2-operatsiyadan keyin 585 000 so'mlik umumiy me'yoriy xarajatlarni beradi va h.k..

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko‘rish mumkinki, har bir alohida operatsiya (jarayon) uchun o‘z mas’uliyat markazi javob beradi. Mazkur holda boshqarish maqsadlari uchun A buyumga haqiqiy xarajatlarni 715 000 so‘mlik me’yoriy xarajatlar bilan solishtirishning ma’nosi yo‘q, chunki jarayondagi chetlanishlar uchun mas’uliyat markazlari (bo‘linmalar: to‘qish, pardozlash va bo‘yash) javob beradi. Ta’kidlash joizki, bu yerda bo‘linmalarning (mas’uliyat markazlarining) birortasi ham chetlanishlar uchun mustaqil javob bera olmaydi. Xarajatlarni tartibga solish va boshqarish uchun mahsulot chiqishini hisobga olgan holda, mas’uliyat markazlari bo‘yicha me’yoriy xarajatlar belgilanib berilishi kerak. SHunday qilib, agar to‘qish bo‘linmasi bo‘yicha haqiqiy xarajatlar me’yoriy xarajatlar bilan solishtirilishib, 6 ta mahsulotga 780 000 so‘m ajratilsa, ushbu mas’uliyat markazi menejeri 1-operatsiya bo‘yicha chetlanishlarning butun hajmi bo‘yicha javobgar bo‘ladi. Haqiqiy xarajatlarning butun summasini bo‘linmaning (mas’uliyat markazining) har bir operatsiyasi bo‘yicha umumiy me’yoriy xarajatlari bilan sotishtirib, xarajatlarni butun davr bo‘yicha samarali nazorat qilib borishi mumkin. Bundan quyidagi mantiqiy xulosa kelib chiqadi: mahsulot ishlab chiqarishga me’yoriy xarajatlarni haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslab bo‘lmaydi, agar ushbu xarajatlar bir nechta mas’uliyat markazlari tomonidan amalga oshirilgan bo‘lsa. Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib va me’yoriy xarajatlar bo‘yicha tannarxni kalkulatsiya qilish tizimi amal qilishining asosiy holatlarini umumlashtirib, bu tizimni 5-rasmda ko‘rsatilgan quyidagi blok-sxema tarzida ham namoyon etish mumkin:



5-rasm. Me’myoriy harajatlar asosida tannarxni kalkulyatsiya qilish tizimining ishlashi umumiy blok-sxemasi

5-rasmdan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, me’yoriy xarajatlar bo‘yicha tannarxni kalkulatsiyalash tizimi hisobotda haqiqiy xarajatlarni me’yoriy xarajatlardan farqini batafsil tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, xarajatlarning har bir tarkibiy qismi bo‘yicha, har bir mas’uliyat markazidagi chetlanishlar aniqlanishi, keyin esa narxlar va resurslar miqdori bo‘yicha tahlil olib borilishi mumkin. Mazkur holda buxgalter boshqaruv xodimlariga chetlanishlarning paydo bo‘lish joylarini aniqlashga yordam bera oladi, bu chetlanishlar sabablarini topish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha o‘rganish ishlarini esa markazlar rahbarlari olib boradilar. Bunday tadqiqotlar natijalariga qarab tegishli tuzatish ishlari kiritiladi, agar chetlanishlar doimiy sabablar tufayli kelib chiqayotganligi aniqlansa, me’yorni shu sabablarni hisobga olgan holda aniqlantirish kerak.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, xarajatlarni boshqarishning eng samarali usuli – bu ularni paydo bo‘lish bosqichida tartibga solish. Tegishli ravishda, umuman ishlab chiqarilayotgan mahsulotga me’yoriy xarajatlarni emas, balki ishlab chiqarish operatsiyalari davomida iste’mol qilinadigan materiallar, mehnat va xizmatlar me’yorlarini aniqlash lozim. Xo‘jalik yuritish amaliyotida, ko‘pincha, xarajatlar me’yorini kim va qanday qilib belgilaydi, degan savol tug‘ilishi mumkin. Bunda me’yorlarni belgilashning asosiy subyektiv omili, albatta, korxonaning egasidir, ya’ni agar korxona davlatga qarashli bo‘lsa (davlat unitar korxonalari), me’yorlar vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi, sho‘ba korxonalar uchun me’yorlar bosh kompaniya tomonidan, mulkchilikning boshqa shakllarida – korxona mulkdorlari tomonidan mustaqil belgilanadi. Me’yorlar qanday tarzda aniqlanadi va o‘rnatiladi, degan savolga esa ikkita yondashuvni qo‘llash mumkin:

1) oldingi davrlar haqiqiy ma’lumotlari asosida;

2) texnik tahlil mahlumotlari asosida.

Birinchi usulga muvofiq, oldingi davrlar haqiqiy ma’lumotlaridan kelib chiqib mehnat, materiallardan foydalanishning o‘rtacha ko‘rsatkichlari hamda ishlab chiqarish ustama xarajatlari haqiqiy summasi hisoblab chiqiladi va baholanadi. ***Ikkinchi usulda,*** ya’ni texnik tahlilda har bir operatsiya materiallar, mehnat va asbob-uskunalarni aniq hisobga olish hamda uning barcha tarkibiy qismlarini nazorat tekshiruvidan o‘tkazish asosida chuqur o‘rganiladi. Birinchi usul bo‘yicha, ya’ni oldingi davrlar haqiqiy ma’lumotlariga asoslanib me’yorlarni belgilashda oldingi xatolar va kamchiliklarni joriy me’yorlarga olib o‘tish xavfi mavjud. SHuning uchun mazkur me’yor doirasida me’yorlar ilgarigi davrlar uchun o‘rtacha natijalar asosida belgilanadi. Bunda ma’lum bo‘lgan ortiqcha materiallar va mehnat sarflari hisobga olinmaydi. Qo‘shimcha tarzda talab qilinayotgan resurslarni ixtiyoriy pasaytirish yo‘li bilan ham me’yorlarni qat’iylashtirish mumkin. Ushbu usulning kamchiligi shundan iboratki, u texnik tahlil usulidan farq qilib, e’tiborni ko‘proq resurslar, ishlab chiqarish texnologiyalari yanada oqilona uyg‘unlashtirishga va mahsulot sifatini yaxshilashga qaratish imkonini bermaydi. SHunga qaramay, oldingi davrlarning o‘rtacha haqiqiy ma’lumotlari asosida belgilanadigan me’yorlardan odatda, masalan, hattoki monopol narxlar va tariflar yoki chegaraviy ortiqcha narxlarni deklaratsiyalashda keng foydalaniladi.

Texnik tahlil asosida asosiy ishlab chiqarish materiallari, mehnat xarajatlari va ishlab chiqarish ustama xarajatlari uchun me’yorlarni belgilash jarayonini batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

Asosiy ishlab chiqarish materiallariga me’yorlar ishlab chiqarilayotgan mahsulot xususiyatlaridan kelib chiqib o‘rnatiladi, ular esa har bir operatsiya uchun zarur bo‘lgan birlamchi materiallar miqdorini sinchiklab o‘rganish yo‘li bilan aniqlanadi. Bunday o‘rganish davomida har bir mahsulotni loyihaga va sifat talablariga muvofiq tayyorlash uchun qanday materiallar ko‘proq mos kelishi, shuningdek, ishlab chiqarishda muqarrar tarzda yuzaga keladigan yo‘qotishlarni hisobga olib ishlatiladigan materiallarning qat’iy miqdori aniqlanadi. Odatda, materiallarning me’yoriy miqdori mahsulotni spetsifikatsiyalashda qayd etiladi. Bu yerda har bir operatsiyani bajarish uchun talab etiladigan materiallar va ularning miqdori belgilanadi.

Har bir mahsulotga alohida spetsifikatsiya beriladi. Materiallarga to‘g‘ri keladigan me’yoriy xarajatlar summasi me’yoriy miqdorni tegishli me’yoriy narxlarga ko‘paytirish orqali aniqlanadi. Me’yoriy narxlarni belgilash bilan korxonalarda, albatta, ta’minot (xarid qilish) bo‘limi shug‘ullanadi. Bunda shu nazarda tutiladiki, xarid qilish bo‘limi bo‘lg‘usi ta’minotchilarni tegishli tarzda o‘rganib, sifatli materiallarni yetarli miqdorda va raqobatbardosh bozor narxida yetkazib bera oladiganini tanlaydi. Me’yoriy narxlarda buyurtmalarni joylashtirishda, xarid qilinayotgan materiallar miqdori va sifati uchun chegirmalar olishda, eng qulay shartlarda eng maqbul tarzda yetkazib berishda va savdo krediti olishda iqtisodiy afzalliklar bo‘lishi mumkinligi hisobga olinadi. Bir vaqtning o‘zida ta’minotchining materiallar sifati va ta’minotning o‘z vaqtida amalga oshirilishi nuqtai nazaridan ishonchliligi ham e’tiborga olinishi kerak. Shunday qilib, materiallarga haqiqiy narxlarni baholash uchun eng maqbul asos – bu ularga belgilanadigan me’yoriy narxlardir.

Ishlab chiqarishdagi mehnat xarajatlari me’yorlarini belgilash uchun mavjud operatsiyalar bo‘yicha barcha faoliyat turlarini tahlil qilib chiqish kerak. Bunda har bir operatsiya alohida tahlil qilinadi va xodimlarning mehnat jarayonidagi xatti-harakatlarini va mavjud operatsiyalar bo‘yicha ular ketkazadigan vaqt xarajatlari asosida uni bajarish uchun qancha vaqt berilishi mumkinligi hisoblab chiqiladi. Bunday xatti-harakatlar va vaqt xarajatlarini o‘rganish jarayoni o‘z ichiga har bir operatsiyaning zarur bo‘lmagan har bir tarkibiy qismlarini qisqartirishga qaratilgan operatsiyalarni tahlil qilishni, ishlab chiqarishning samaraliroq usulini aniqlashni oladi. Shundan so‘ng ishlab chiqarishning, asbob-uskunalardan foydalanishning eng samarali usullari va eng maqbul ish sharoitlari standartlashtiriladi. Keyin esa muayyan operatsiyani yoki uning bir qismini bajarish uchun oddiy xodimga talab etiladigan vaqt o‘lchanadi va belgilanadi (me’yoriy soatlarda). Me’yoriy vaqtga ishlab chiqarishning obyektiv turib qolishlari, masalan, asbob-uskunaning ishdan chiqishi yoki unga texnik ko‘rsatish bo‘yicha reja tadbirlari va h.k. tadbirlar vaqti ham qo‘shiladi. Mehnat haqining me’yoriy stavkalari odatdagidek yoki xo‘jalik subyekti yuritayotgan siyosatga yoki korxona rahbariyati bilan xizmatchilarning kasaba uyushmalari o‘rtasidagi muzokaralar natijalariga muvofiq belgilanadi. Mehnat haqining muvofiqlashtirilgan stavkalari har bir operatsiya bo‘yicha me’yoriy mehnat sarfini aniqlash imkonini beradigan me’yoriy vaqtni hisobga olib belgilanadi.

Tannarxni me’yoriy sarf-xarajatlar bo‘yicha kalkulatsiya qilish tizimi uchun ishlab chiqarish ustama xarajatlarini hisoblashning me’yoriy stavkalarini belgilash tartiboti yuqorida keltirilgan kalkulatsiyalashning buyurtma usuli uchun bayon etilgan ustama xarajatlarni hisoblash bo‘yicha oldindan belgilanadigan stavkalarini aniqlash tartiboti bilan bir xil. Rejalashtirish va boshqarish maqsadlarida doimiy va o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlari uchun alohida stavkalarni belgilash muhimdir. Odatda ustama xarajatlarni hisoblashning me’yoriy stavkasi asosiy xodimlarning bir soatlik mehnatiga yoki ishlab chiqarish jihozlari va dastgohlarning bir soatlik ishiga asoslanadi. Doimiy ustama xarajatlar, asosan, ishlab chiqarish darajasi o‘zgarishlariga bog‘liq emas va qisqa muddatli davrda ishlab chiqarish darajasi yuqori diapazonga ega bo‘lgan holda o‘zgarmasdan qoladi, deb hisoblanadi. Shunday ekan, xarajatlarni qisqa muddatda samarali boshqarish nuqtai nazaridan doimiy ustama xarajatlarni mahsulot birligi uchun hisoblab chiqarish va shu asosda faoliyat turi birligi uchun doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari stavkasini aniqlash mumkin emas. Biroq moliyaviy hisobotni tuzish talablari nuqtai nazaridan tovar-moddiy zaxiralar qiymatini baholashda doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari alohida mahsulotlargacha taqsimlanishi lozim. Shu munosabat bilan, tovar-moddiy zaxiralar qiymatini baholash maqsadida doimiy ustama xarajatlarni unifikatsiya qilish va ularni mahsulot birligi uchun hisoblab chiqish zarur.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, tannarxni me’yoriy xarajatlar bo‘yicha kalkulatsiya qilish tizimi bo‘yicha ustama xarajatlarni hisobga olishning tannarxni hisoblashning boshqa tizimlaridan shu bilan farq qiladiki, ishlab chiqarish ustama xarajatlari ustama xarajatlarni hisoblashning me’yoriy vaqtga, ya’ni haqiqiy qilingan vaqtga emas, balki sarflanishi kerak bo‘lgan vaqtga ko‘paytirilgan soatbay stavkalari bo‘yicha hisoblanadi.

O‘ylaymizki, o‘rganishning mazkur bosqichida me’yoriy xarajatlarni belgilashga yondashuvning yuqorida ko‘rib chiqilgan barcha jihatlarini umumlashtirish zarur. Sarf-xarajatlarni ular qaerda va qachon amalga oshirilayotgan bo‘lsa, o‘sha yerda va o‘sha vaqtda boshqarish ko‘proq samara beradi. SHu sababli biz har bir alohida ishlab chiqarish operatsiyasini bajarishda iste’mol qilinadigan materiallar sarflari, mehnat xarajatlari va o‘zgaruvchan ustama xarajatlarning me’yorlarini belgilashimiz lozim. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxini baholash maqsadida ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxining me’yoriy qiymatlarini aniqlash lozim. Mahsulotning me’yoriy ishlab chiqarish tannarxi mazkur mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan barcha operatsiyalarga me’yoriy xarajatlarni plyus ushbu mahsulotga hisoblanadigan me’yoriy doimiy ustama xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Har bir mahsulot va har bir operatsiya uchun me’yoriy xarajatlar kartochkasini yuritish zarur. Me’yoriy xarajatlar kartochkasining namunasi 6-rasmda keltirilgan.

Hisob-kitob jarayonlari kompyuterlashtirilgan sharoitda mazkur kartochka kompyuter yordamida ham yuritiladi. Bunda, shunday bir muhim tomonni ham yodda tutish kerakki, agar ishlab chiqarish texnologiyasida yoki birlamchi materiallar narxida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradigan bo‘lsa me’yorlar doimo tuzatilib turishi kerak, joriy vaziyatni yanada to‘laroq aks ettirish uchun me’yorlarga o‘zgarishlar kiritib boriladi.

Me’yoriy xarajatlar kartochkasi

Me’yor belgilangan sana _____ Mahsulot nomi _____

Asosiy ishlab chiqarish materiallari

Operatsiya raqami	**Modda kodi**	**Miqdori, kg**	**Me’yoriy narxi, so‘m**	**Sex №1**	**Sex №2**	**Sex №3**	**Sex №4**	**Jami, so‘m**
A								
B								
Jami								

Mehnat xarajatlari

Operatsiya raqami	**Me’yoriy vaqt, soat**	**Ish haqining me’yoriy stavkasi, so‘m**
A		
B		
Jami		

Ishlab chiqarish ustama xarajatlari		
Sex	**Me'yoriy vaqt, soat**	**Ishlab chiqarish ustama xarajatlarini taqsimlash me'yoriy stavkasi, so'm**
№ 6		
№ 7		
Jami:		
Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan umumiy ishlab chiqarish xarajatlari, so'm		

6-rasm. Me'yoriy xarajatlar kartochkasi namunasi

Me'yoriy xarajatlarni aniqlashda me'yorlarga qo'yiladigan talablarni belgilash muammosi yuzaga keladi. Ular ideal sharoitlardagi faoliyat natijalarini aks ettirishi kerakmi yoki xatosiz ish yoki oson erishiladigan natijalarnimi? Bu savolga javob berishdan oldin xarajatlar me'yorlari odatda uchta katta toifaga bo'linishini aytib o'tish lozim:

- asosiy me'yorlar;
- ideal me'yorlar;
- joriy paytda erishiladigan me'yorlar.

Asosiy me'yorlarga uzoq vaqt davomida o'zgarmasdan qoladigan doimiy me'yorlar kiradi. Asosiy me'yorlarning eng muhim afzalligi shundaki, ular bir necha yillar davomida haqiqiy xarajatlarni bitta me'yorlar bilan solishtirish uchun barqaror bazani yaratib beradi. Buning natijasida butun tahlil vaqti uchun samaradorlik tendentsiyasini aniqlash mumkin. Ishlab chiqarish usullari, narxlar darajalari va boshqa shunga o'xshash relevant omillar o'zgarganda, asosiy me'yorlar joriy maqsadli xarajatlarni aks ettirmay qo'yadi va foydasiz bo'lib qoladi. SHu sababga ko'ra, asosiy me'yorlardan juda kam foydalaniladi.

Ideal me'yorlar ideal sharoitlardagi faoliyatni aks ettiradi. Ideal me'yoriy xarajatlar – bu faoliyat samaradorligi eng yuqori darajada bo'lganda erishilishi mumkin bo'lgan minimal xarajatlardir. Ideal me'yorlardan amaliyotda foydalanish amri mahol, chunki ular xodimlarni motivatsiyalashga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday me'yorlar ayni paytda ishlab chiqarishda erishilishi lozim bo'lgan natijalarni emas, ko'proq faoliyatning yo'nalish olishida kerak bo'lgan maqsadlarni aks ettiradi.

Joriy paytda erishiladigan me'yorlar korxona samarali faoliyat yuritganida amalga oshiriladigan xarajatlarni aks ettiradi. Ularga erishish qiyin, ammo boshqa me'yorlardan farqli o'laroq, buni amalga oshirish mumkin. Joriy paytda erishiladigan me'yorlarni bajarish, ideal me'yorlarga nisbatan qaraganda osonroq, chunki bunday me'yorlarni belgilashda resurslarga shikast yetkazilishi, asbob-uskunalar ishdan chiqishi va vaqtning behudaga sarflanishi ehtimoli hisobga olinib yo'l qo'yiladigan chetlanishlar belgilanadi. Ushbu me'yorlar ishlab chiqarishning eng samarali sharoitlarida erishilishi mumkin bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlardan iborat. Boshqacha qilib aytganda, mazkur me'yorlarga, bir tomondan, erishish qiyin, biroq boshqa tomondan, ularga erishish mumkin, aynan shu sababli ham haqiqiy xarajatlarni solishtirishda

ushbu me'yorlardan foydalanish eng maqbul yo'ldir. Ayni paytda erishilishi mumkin bo'lgan me'yorlar ularga erishishning murakkablik darajasi bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, agar tegishli davr uchun qat'iy, qiyin erishiladigan me'yorlar belgilansa, ularning bajarilishi imkoniyati 70 foizni tashkil qilishi mumkin. Aksincha, yumshoqroq va nisbatan osonroq erishiladigan me'yorlar o'rnatilganda mazkur ko'rsatkich 90 foizga ko'tariladi.

Xarajatlarni kalkulatsiya qilishning, chetlanishlarni aniqlash va ularni operatsiyalarning ishlab chiqarish (ichki) hisob schetlarida aks ettirishning me'yoriy usulini ko'rib chiqamiz. Haqiqiy xarajatlarni me'yoriy xarajatlardan chetlanishlarini hisoblab chiqamiz**.**

Materiallar bo'yicha chetlanishlar:

Mahsulotni ishlab chiqarishda ishlatiladigan materiallar bo'yicha xarajatlar ikkita asosiy omilga bog'liq: materiallar narxiga va ularning ishlab chiqarishda ishlatilgan miqdoriga. Tegishli ravishda, ham narx bo'yicha, ham ulardan foydalanish bo'yicha chetlanishlarni hisobga olish kerak.

Materiallarning narxi bo'yicha chetlanish quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{Material narxi bo'yicha chetlanish} = \text{Material birligining: me'yoriy narxi – haqiqiy narxi} \times \text{Xarid qilingan materiallar miqdori.}$$

Materialdan foydalanish bo'yicha chetlanish quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{Materialdan foydalanish bo'yicha chetlanish} = \text{Mahsulotni ishlab chiqarish uchun materialning: me'yoriy miqdori – haqiqiy ishlatilgan miqdor} \times \text{Material birligining me'yoriy narxi.}$$

Moddiy xarajatlar bo'yicha jami chetlanishlar material narxi bo'yicha chetlanish bilan materialdan foydalanish bo'yicha chetlanishni qo'shish orqali yoki quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\text{Material xarajatlar bo'yicha umumiy chetlanish} = \text{Mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish hajmi} \times \text{Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan me'yoriy material xarajatlari} - \text{Haqiqiy material xarajatlari.}$$

Tannarxni kalkulatsiya qilishning me'yoriy usuli odatda rejalashtirish, nazorat qilish, korxona xodimlarini motivatsiyalash, shuningdek boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun qo'llaniladi, biroq bunda moliyaviy hisobot moddalariga kiritish uchun buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilmaydi.

Asosiy ishlab chiqarish xodimlari mehnati bo'yicha chetlanishlar:

Asosiy ishlab chiqarish xodimlari mehnati bo'yicha xarajatlar ham asosiy ikkita omilga bog'liq: mehnatning qiymati (mehnat haqi stavkasi) hamda ishlab chiqarishga ketgan ish soatlari soni (mehnat unumdorligi). Tegishli ravishda, ham qiymat bo'yicha, ham mehnatdan foydalanish bo'yicha chetlanishlarni hisoblab chiqish kerak bo'ladi.

Ish haqi stavkasi bo'yicha chetlanishlar quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{Mehnat haqi stavkasi bo'yicha chetlanish} = \text{Mehnat haqining: me'yoriy stavkasi –haqiqiy stavkasi} \times \text{Haqiqatda ishlangan vaqt.}$$

Mehnat unumdorligi bo'yicha chetlanish quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\text{Mehnat unumdorligi bo'yicha chetlanish} = \text{Mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnatning: me'yoriy ish vaqti – haqiqatda ishlangan vaqt} \times \text{Mehnat haqining me'yoriy stavkasi.}$$

Mehnat bo‘yicha jami chetlanish mehnat haqi stavkasi bo‘yicha chetlanish bilan mehnat unumdorligi bo‘yicha chetlanish yig‘indisi sifatida yoki quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Mehnat xarajatlari bo‘yicha jami chetlanish = *Mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish hajmi* x *Mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan me’yoriy mehnat xarajatlari* – *Haqiqiy mehnat xarajatlari.*

O‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlari bo‘yicha chetlanishlar:

Chetlanishlarni tahlil qilishda o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlari asosiy ishlab chiqarish xodimlari mehnat vaqtiga hamda ishlab chiqarish dastgohlari va asbob-uskunalarining ishlash vaqtiga qarab, ya’ni ishlab chiqarish ustama xarajatlari (kiritiladigan resurslar)ni taqsimlash bazasiga o‘zgaradi, deb taxmin qilinadi, shuning uchun o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlari bo‘yicha jami chetlanish quyidagi bitta yoki ikkita sabablar tufayli yuzaga keladi:

- haqiqiy xarajatlar smeta xarajatlaridan farq qiladi;
- asosiy ishlab chiqarish xodimlarining haqiqiy ishlash vaqti yoki ishlab chiqarish quvvatlarining (kiritiladigan resurslar) ishlash vaqti ishlatilishi kerak bo‘lgan vaqtdan farq qiladi.

Shunday qilib, chetlanishlarning ikkita elementi paydo bo‘lishiga olib keladigan ikkita asosiy sabab – o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlarining sarf-xarajatlar bo‘yicha chetlanishi va o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlarining samaradorlik bo‘yicha chetlanishidir.

O‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlarining sarf-xarajatlar bo‘yicha chetlanishlari quyidagi formula orqali aniqlanadi:

O‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlarining sarf-xarajatlar bo‘yicha chetlanishi = *Resurslarning haqiqiy kiritilishi hajmiga to‘g‘ri keladigan smeta o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlari* - *Haqiqiy o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlari.*

O‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlarining samaradorlik bo‘yicha chetlanishi, o‘z navbatida, quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

O‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlarining samaradorlik bo‘yicha chetlanishi = *Mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnatning: me’yoriy ish vaqti – haqiqatda ishlangan vaqt* x *O‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlarini taqsimlashning smeta stavkasi.*

O‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlari bo‘yicha jami chetlanish o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlarining sarf-xarajatlar bo‘yicha chetlanishlar bilan o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlarining samaradorligi bo‘yicha chetlanishlar yig‘indisi sifatida yoki quyidagi formula orqali aniqlanadi:

O‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlari bo‘yicha jami chetlanishi = *Mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish hajmi* x *Mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlarining me’yoriy stavkasi* – *Haqiqiy o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlari summasi*

Doimiy o‘zgaruvchan ishlab chiqarish ustama xarajatlari bo‘yicha chetlanish:

Faoliyat darajasi o‘zgarganda doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari o‘zgarmaydi, deb taxmin qilinadi, biroq ular boshqa omillar ta’sirida o‘zgarishi mumkin. Masalan, narxlarning oshishi doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlarining ko‘payishiga olib keladi. Shunday qilib, doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlar bo‘yicha chetlanishlar smeta bo‘yicha doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari bilan haqiqiy doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlari o‘rtasidagi farqni izohlab beradi. Hisob-kitob formulasi quyidagi ko‘rinishga ega:

Doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlar bo‘yicha chetlanish	=	*Smeta bo‘yicha doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlar summasi*	-	*Haqiqiy doimiy ishlab chiqarish ustama xarajatlar*

4.5. Birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxini aniqlash usullari

Bir texnologik jarayonda bitta xomashyo va materiallardan turli xildagi, ulardan har biri o‘zining sotish narxiga ega bo‘lgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) bir vaqtning o‘zida ishlab chiqarilganda ushbu turdagi mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) deb ataladi.

Asosiy mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan va sotish qiymati asosiy mahsulotga (ishlarga, xizmatlarga) qaraganda o‘ta past bo‘lgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar) deb hisoblanadi. O‘z nomidan ko‘rinib turibdiki, qo‘shimcha mahsulotlar - bu asosiy mahsulotlarni tayyorlash jarayonida paydo buladigan yo‘ldosh mahsulotdir. Odatda qo‘shimcha mahsulotlar kattaroq absolyut qiymatga ega bo‘lishi mumkin, biroq uning asosiy yoki qo‘shimcha mahsulot ekanligini aniqlashning asosiy mezoni birgalikda ishlab chiqarilgan buyumlarning qiymatiga nisbatan solishtiriladigan sotish bahosidir. Iqtisodiy doiralarda birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulotlar korxonaning moliyaviy faoliyatida hal qiluvchi ahamiyatga ega, deb hisoblash qabul qilingan. Bu qo‘shimcha mahsulotlarning ta’siri esa ikkinchi darajaga ega. Boshqacha qilib aytganda, yordamchi mahsulotlarni ishlab chiqarish odatda asosiy mahsulotni ishlab chiqarish yoki chiqarmaslik haqidagi qarorga ta’sir qilmaydi va asosiy mahsulotga belgilanadigan narxlarda sezilarli darajada aks etmaydi.

Misol tariqasida bitta ishlab chiqarish jarayonida ikki yoki undan ko‘p alohida mahsulotlar ishlab chiqariladigan (boshqacha qilib aytganda, kompleks ishlab chiqarish) quyidagi tarmoqlarni keltirish mumkin:

№	**Tarmoq,**	**Tayyor mahsulot bo‘linish nuqtasidan keyin**
1.	Neftni qayta ishlash korxonasi	benzin, kerosin, mazut,
2.	Kimyo sanoati: organik kimyo zavodi	etilen, propilen, benzol
3.	Paxtani qayta ishlash korxonasi	paxta tolasi, chigit, momiq
4.	Donni qayta ishlash korxonasi	un (turli navdagi), kepak, kojux
5.	Yog‘-moy kombinati va h.k.	yog‘, kunjara (shrot), sheluxa

Shuni hisobga olish muhimki, qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)dan birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning farqi shundan iboratki, ularni taqsimlash

nuqtasiga yetgunga qadar turli xildagi mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sifatida identifikatsiyalash mumkin emas.

Bo‘linish nuqtasi - birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishda alohida turdagi mahsulotlar aniq identifikatsiya qilinadigan ishlab chiqarish jarayonining muayyan payti. Bunda ishlab chiqarish jarayonining muayyan payti bo‘lib, bu yerda birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishda mahsulotlarning alohida turlari aniq identifikatsiyalanadi, ya’ni texnologik jarayondagi shunday nuqtaki, unda birgalikda ishlab chiqariladigan (asosiy) va qo‘shimcha mahsulotlar yakka tartibda identifikatsiyalashtirilgan bo‘ladi.

Ishlab chiqarish amaliyotida barcha mahsulotlar ba’zan bir vaqtning o‘zida, ba’zida esa turli vaqtlarda ajratiladi. Bo‘linish nuqtasini topmasdan alohida mahsulotlarga xarajatlarni o‘tkazib bo‘lmaydi. Masalan, bir tonna paxta xomashyosini qayta ishlash xarajatlarining qaysi qismi paxta tolasiga, qaysi qismi chigitga yoki momiqqa ketishini aniqlash mumkin emas. Bo‘linish nuqtasi topilgandan keyin tarkibiy mahsulotlarni realizatsiya qilish yoki mahsulot sifatini (tegishli ravishda, narxni ham) yanada oshirish maqsadida uni qayta ishlashda davom ettirish mumkin. Bo‘linish nuqtasidan keyin, albatta, mahsulotni (jumladan, qo‘shimcha mahsulotni) yanada chuqurroq qayta ishlashga ketadigan xarajatlarni osongina muayyan mahsulotga olib borish mumkin.

Birgalikda ishlab chiqariladigan va qo‘shimcha mahsulotlarni tayyorlash jarayonining soddalashtirilgan sxemasi 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm. Birgalikda ishlab chiqariladigan va qo‘shimcha mahsulot chiqishining ishlab chiqarish jarayoni

7-rasmdan ko‘rinib turibdiki, bo‘linish nuqtasida asosiy mahsulotlar - A, B va V hamda qo‘shimcha mahsulot Yu paydo bo‘ladi. Bo‘linish nuqtasigacha ishlab chiqarish xarajatlarini birgalikda ishlab chiqariladigan va qo‘shimcha mahsulotlar o‘rtasida taqsimlab bo‘lmaydi. Bo‘linish nuqtasiga yetilgandan keyin esa keyingi qayta ishlash xarajatlariga birgalikda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sotuvgacha bo‘lgan tannarxi qo‘shiladi hamda ushbu xarajatlarni

muayyan mahsulotga olib borish mumkin. Rasmdan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, qo‘shimcha mahsulot Yu bo‘linish nuqtasiga yetganda uni qayta ishlashda davom etmasdan sotib yuboriladi, holbuki ba’zan qo‘shimcha mahsulotlar bozorda sotilguniga qadar bo‘linish nuqtasidan keyin qayta ishlashda davom ettiriladi.

Birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulotning (ishlar, xizmatlarning) sotish qiymatini bo‘linish nuqtasida aniqlash mumkin bo‘lgan hollarda birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulotning (ishlar, xizmatlarning) ishlab chiqarish tannarxini aniqlash maqsadida ishlab chiqarish xarajatlarini bo‘linish nuqtasida taqsimlash quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi:

- natura ko‘rsatkichlaridan foydalanish usuli. Ushbu usulda bo‘linish nuqtasiga qadar qilingan xarajatlar asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning har bir turiga uning natura ko‘rsatkichlarida ifodalangan ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushiga mutanosib ravishda taqsimlanadi;

- bo‘linish nuqtasidagi sotish qiymati asosidagi usul. Ushbu usulda bo‘linish nuqtasiga qadar qilingan xarajatlar asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning har bir turiga uni sotishdan taxmin qilingan tushum umumiy summasidagi ulushiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulotning (ishlarning, xizmatlarning) alohida turlari keyingi qayta ishlov berishga o‘tkazilgan hamda bo‘linish nuqtasida ularni sotishning joriy qiymatini (realizatsiya qilish qiymatini) aniqlashning imkoni bo‘lmagan hollarda ishlab chiqarish xarajatlarini bo‘linish nuqtasida birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) turlari o‘rtasida taqsimlash quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi:

- realizatsiya qilishning sof qiymatli usuli. Ushbu usulda birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) turlari bo‘yicha xarajatlar ularni realizatsiya qilishning sof qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi;

- realizatsiya qilishdan yalpi foydaning doimiy ulushi usuli. Ushbu usuldan foydalanilganda xarajatlar har bir alohida mahsulot (ishlar, xizmatlar) uchun umumiy yalpi foydaning foiz ulushi bir xil bo‘lishi hamda umumiy yalpi foyda ko‘rsatkichiga teng bo‘lishi kerak. Yalpi foydaning foiz ulushi birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) turlarining umumiy tannarxini ushbu mahsulot turlarini sotishdan taxmin qilingan umumiy tushumdan chiqarib tashlab, so‘ngra foyda miqdorini sotishdan taxmin qilingan umumiy tushumdan foiz ko‘rinishida aks ettirish yo‘li bilan hisoblab chiqariladi.

4.6. Qo‘shimcha (yo‘ldosh) mahsulot hisobi

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, qo‘shimcha mahsulotlar - bu sotish qiymati nisbatan past bo‘lgan mahsulotlar bo‘lib, ular odatda birga ishlab chiqariladigan (asosiy) mahsulotlarni chiqarish jarayonida arzimagan miqdorda paydo bo‘ladi. Korxonaning bosh maqsadi bo‘lib - birga ishlab chiqariladigan asosiy mahsulotni chiqarish hisoblanadi, shuning uchun ham kompleks xarajatlar bo‘linish nuqtasigacha qo‘shimcha mahsulotlarga emas, balki faqatgina asosiy mahsulot tannarxiga olib borilishi kerak, deyishga asos bor.

Bunda shuni ham nazarda tutish kerakki, bo‘linish nuqtasidan keyingi paydo bo‘ladigan qo‘shimcha mahsulotlarni ishlab chiqarishga qilingan barcha xarajatlar qo‘shimcha mahsulot tannarxiga kiritilishi kerak, chunki ushbu xarajatlar faqat aynan mana shu mahsulotlarni ishlab chiqarishga talab etilgan.

Xuddi shunday tartibda, 4-son BHMS qo‘shimcha mahsulotlarni quyidagicha e’tirof etadi va baholaydi: agar ishlab chiqarishning ma’lum bir texnologik jarayonida bir vaqtning o‘zida bir necha turdagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) chiqib, mahsulot (ishlar, xizmatlar)dan biri yoki bir necha turi asosiy (maqsadli) turga tegishli bo‘lsa, unda qolgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)

qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar) sifatida qaralishi mumkin. Asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini aniqlashda qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning joriy qiymati yoki sotishning sof qiymati ishlab chiqarish jarayonlarining umumiy xarajatlaridan chegirib tashlanadi, xarajatlarning qolgan qismi esa asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar)ga tegishli bo‘ladi.

Qo‘shimcha mahsulotni sotishdan olingan tushum (daromad) yoki sof qiymat (daromad) (qo‘shimcha mahsulotni sotishdan oldingan daromad summasi minus bo‘linish nuqtasidan keyin unga keyingi ishlov berish uchun safrlanadigan qo‘shimcha xarajatlar) birga ishlab chiqariladigan yoki asosiy mahsulot (ya’ni yordamchi mahsulot yordamida ishlab chiqariladigan mahsulot) tannarxidan chegirilishi kerak.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ning qo‘shimcha turlarini hisobga olish quyidagi usullardan biri yordamida amalga oshiriladi:

- qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni haqiqatda realizatsiya qilish (keyingi o‘rinlarda - 1-usul deb ataladi). Ushbu usulida joriy davrda sotilgan asosiy mahsulotning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxi qo‘shimcha mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) haqiqatda realizatsiya qilish (realizatsiya qilishning sof) summasiga kamaytiriladi. Qo‘shimcha mahsulotning (ishlarning, xizmatlarning) sotilmagan zaxiralari qoldig‘i bo‘linish nuqtasidan keyin qo‘shimcha mahsulotlarni keyingi qayta ishlanishiga qilingan xarajatlar summasidan kelib chiqqan holda hisobga olinadi. Qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar) qoldig‘ini haqiqatda realizatsiya qilish (realizatsiya qilishning sof) summasi qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganda tan olinadi;

- qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni haqiqatda ishlab chiqarish (keyingi o‘rinlarda - 2-usul deb ataladi). Ushbu usulidan foydalanilganda asosiy mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarishda sarflangan xarajatlar ishlab chiqarilgan qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar) barcha miqdorining realizatsiya qilishning sof summasiga darhol kamaytiriladi. Sotilmagan qo‘shimcha mahsulotning (ishlarning, xizmatlarning) qoldig‘i realizatsiya qilishning sof qiymati bo‘yicha hisobga olinadi.

Korxonalar qo‘shimcha mahsulotni hisobga olishning qaysi usulidan foydalanishni tanlashi albatta ko‘p jihatdan savdo konyunkturasiga bog‘liq bo‘ladi. Misol uchun, agar sotilmagan qo‘shimcha mahsulotning sotilib ketishi kafolatlanmasa, bozor narxlari barqaror o‘zgarishga ega bo‘lmasa, u holda mahsulot sotilmagunga qadar sof daromadni e’tirof etmaslik ma’qul. Biroq, agar kelgusida mahsulotning sotilib ketilishi kafolatlangan bo‘lib, bozor narxlarining o‘zgarishi ehtimoli past bo‘lsa, qo‘shimcha mahsulotlardan sof daromad ularni ishlab chiqarish paytida e’tirof etilishi kerak. Bu, albatta, ushbu ishlab chiqarish davrida asosiy mahsulot birligi tannarxining kamaytirilishini ta’minlaydi. Sof daromadni ishlab chiqarish bosqichida e’tirof etishning asosiy kamchiligi shundan iboratki, bunda foydani muddatidan ilgari e’tirof etilishiga olib keladi, agar uning summasi katta bo‘lmasa, uni e’tiborga olmasa ham bo‘ladi. Bunday sharoitlarda shuni hisobga olish kerakki, qo‘shimcha mahsulotni sotish narxi nisbatan past bo‘ladi va tegishli ravishda, uning foyda summasiga ta’siri ham jiddiy emas. Shundan kelib chiqib va yuqorida aytilganlar asosida xulosa qilib, tanlangan usul xarajatlar va daromadlarni taqqoslashga asoslanishi kerak, deb aytamiz.

Shuning bilan birga, tovar-moddiy zaxiralar tannarxini aniqlash usullariga bag‘ishlangan mavzuni umumlashtirgan holda shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, tovar-moddiy zaxiralar, jumladan qo‘shimcha mahsulotlar tannarxini aniqlash usulini ishlab chiqarish tarmog‘i xususiyatlaridan kelib chiqib, amalga oshirilgan tanlov korxonaning hisob siyosatida 1-son BHMS da belgilangan tartibda aks ettirilishi lozim.

5-§. Tovar-moddiy zaxiralarni kelib tushishi, ichki harakati va chiqib ketishini boshlang‘ich hujjatlarda hisobi

Korxonalarda tuziladigan boshlang‘ich hujjatlarning majburiy rekvizitlari, ularni tuzish, qabul qilish, saqlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi, shuningdek hujjatlar aylanmasini amalga oshirish tartibi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga va «Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq tartibga solinadi.

Xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarni kirim qilinishi va ularning harakati, boshlang‘ich hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi. Xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilishda asosiy hujjat bo‘lib schyot-fakturalar hisoblanadi.

«Kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish daftari» (1-M shakl) (1-ilovaga qarang) korxonaga kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish va ularni omborga kirim qilish bilan bog‘liq boshlang‘ich hujjatlar (schyot-fakturalar, tovar-transport yuk xatlari va boshqa kuzatib boruvchi hujjatlari, kirim orderlari) ni ro‘yxatga olish uchun qo‘llaniladi.

«Kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish daftari» (1-M shakl) tovar-moddiy zaxiralarni kuzatib boruvchi hujjatlari va yukni tushirish hujjatlari asosida korxona omborida yoki buxgalteriyasida yuritiladi. Tovar-moddiy zaxiralar korxona kelib tushishi bilan kirim orderi yoki qabul qilish dalolatnomasining tartib raqami kelib tushgan sanasi yozib qo‘yiladi.

«Kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish daftari» (1-M shakl) tikilgan va raqamlangan bo‘lishi, so‘nggi varag‘ida korxona rahbarining imzosi bilan «Mazkur «Kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish daftari» (1-M shakl) da ____ varaq raqamlangan» deb yozilishi va muhr bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Varaqlar soni yozuv bilan ko‘rsatiladi.

Mol yetkazib beruvchi va pudratchilardan yoki qayta ishlashdan (daval asosida qayta ishlashdan) kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish uchun «Kirim orderi» (2-M shakl) (2-ilovaga qarang) qo‘llaniladi. «Kirim orderi» (2-M shakl) korxonaga haqiqatda kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha to‘ldiriladi. «Pasport tartib raqami» ustuni tarkibida qimmatbaho metallar va toshlarni bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalarini rasmiylashtirishda to‘ldiriladi.

«Kirim orderi» (2-M shakl) moddiy javobgar shaxs (qabul qiluvchi) tomonidan tovar-moddiy zaxiralar omborga kelib tushgan kunga bitta nusxada tuziladi. «Kirim orderi» (2-M shakl) ga haqiqatda chiqarilgan tovar-moddiy zaxiralarni tasdiqlovchi ilova qilinadigan hujjatlar tikiladi va birgalikda saqlanadi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni kirim qilish dalolatnomasi» (3-M shakl) (3-ilovaga qarang) korxonaga haqiqatda qabul qilingan tovar-moddiy zaxiralar bilan ularni mol yetkazib beruvchinig kuzatib boruvchi hujjatlaridagi miqdori, sifati, assortimerti bo‘yicha farq chiqqanda, shuningdek kuzatib boruvchi hujjatlarsiz kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar qabul qilinganda rasmiylashtiriladi. Mol yetkazib beruvchiga da’vo taqdim etishga huquqiy hujjat bo‘lib hisoblanadi. «Pasport tartib raqami» ustuni tarkibida qimmatbaho metallar va toshlarni bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralar miqdorida farq chiqqan hollar bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalarini rasmiylashtirishda to‘ldiriladi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni kirim qilish dalolatnomasi» (3-M shakl) ikki nusxada qabul komissiyasi tomonidan tuzilib, unda quyidagi shaxslar qatnashishi shart: mol yetkazib

beruvchining vakili yoki betaraf tashkilotning vakili, ombor mudiri va korxonaning ta'minot bo‘limi vakili. Komissiyani korxona rahbari tayinlaydi. Tovar-moddiy zaxiralar qabul qilingandan keyin «Tovar-moddiy zaxiralarni kirim qilish dalolatnomasi» (3-M shakl) mavjud kuzatib boruvchi hujjalarni ilova qilingan holda:

- bir nusxasi kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish uchun korxona buxgalteriyasiga topshiriladi;

- boshqa nusxasi da'vo rasmiylashtirish, ortiqcha chiqqan materiallar bo‘yicha qo‘shimcha to‘lov talabnomasi yuborish to‘g‘risida mol yetkazib beruvchilarga xabar berish uchun ta'minot bo‘limiga, huquqshunosga yoki buxgalteriyaga topshiriladi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni kirim qilish dalolatnomasi» (3-M shakl) tuzilgan bo‘lsa «Kirim orderi» (2-M shakl) ni tuzish shart emas.

«Tovar-moddiy zaxiralarni omborda hisobga olish kartochkasi» (4-M shakl) (4-ilovaga qarang) tovar-moddiy zaxiralarini har bir nomi (markasi, navi, hajmi turi) bo‘yicha alohida ombordagi harakatini hisobga olish uchun qo‘llaniladi. «Tovar-moddiy zaxiralarni omborda hisobga olish kartochkasi» (4-M shakl) omborchi tomonidan to‘ldirilib, unda tovar-moddiy zaxiraning kirimi va chiqimi bo‘yicha barcha operatsiyalar aks ettirilib, imzosi bilan tasdiqlanadi. «Qimmatbaho materiallar (metallar va toshlar)» ustuni ko‘rsatkichlari tarkibida qimmatbaho metallar va toshlarni bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralar kirimi va chiqimi bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalarini rasmiylashtirishda to‘ldiriladi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni omborda hisobga olish kartochkasi» (4-M shakl) to‘liq to‘ldirilganda (oy davomida) yoki oy oxirida buxgalteriya tovar-moddiy zaxirani kirim va chiqim hujjatlarini ilova qilgan holda topshiradi.

Korxona o‘z xohishiga ko‘ra tovar-moddiy zaxiralarni ishlab chiqarishga berishda ikki shakldan biri, ya'ni «Limit kartasi» (5-M shakl) (5-ilovaga qarang) yoki «Tovar-moddiy zaxiralarni chiqarishda talabnoma» (6-M shakl) (6-ilovaga qarang) ni tanlashi mumkin.

«Limit kartasi» (5-M shakl) va «Tovar-moddiy zaxiralarni chiqarishga talabnoma» (6-M shakl) mahsulot ishlab chiqarishda doimiy iste'mol qilinadigan tovar-moddiy zaxiralarni chiqarishni rasmiylashtirish uchun tovar-moddiy zaxiralarni chiqarish limiti mavjud bo‘lganda, hamda ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun tovar-moddiy zaxiralarni chiqarishga belgilangan limitlarga amal qilinishi ustidan joriy nazorat olib borishda qo‘llaniladi va tovar-moddiy zaxiralarni ombordan chiqarish uchun ilova qilingan hujjat bo‘lib hisoblandi.

«Limit kartasi» (5-M shakl) va «Tovar-moddiy zaxiralarni chiqarishga talabnoma» (6-M shakl) bitta tovar-moddiy zaxira nomi (nomenklatura raqami)ga ikki nusxada to‘ldiriladi. Bir nusxasi oy boshida qabul qiluvchi tarkibiy bo‘limga, ikkinchisi esa omborga beriladi. Tovar-moddiy zaxiralarni ishlab chiqarishga berish tarkibiy bo‘lim vakili o‘z «Limit kartasi» (5-M shakl) yoki «Tovar-moddiy zaxiralarni chiqarishga talabnoma» (6-M shakl) nusxasini ko‘rsatgandan so‘ng amalga oshiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni limitdan yuqori chiqarish va tovar-moddiy zaxirani bir turini boshqasi bilan almashish faqatgina korxona rahbari, bosh muhandisi yoki bunga vakolati bo‘lgan shaxslar ruxsati bilan amalga oshiriladi. Limitni o‘zgartirish uchun belgilash huquqi berilgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni chiqarish «Limit kartasi» (5-M shakl) yoki «Tovar-moddiy zaxiralarni chiqarishga talabnoma» (6-M shakl) da belgilangan omborlarda amalga oshiriladi.

Omborchi «Limit kartasi» (5-M shakl) yoki «Tovar-moddiy zaxiralarni chiqarishga talabnoma» (6-M shakl) ning ikki nusxasida ham tovar-moddiy zaxirani chiqarish sanasi va miqdorini belgilab qo‘yadi. «Limit kartasi» (5-M shakl) yoki «Tovar-moddiy zaxiralarni chiqarishga talabnoma» (6-M shakl) ni buxgalteriyaga topshirish limit tugaganda (oy davomida) yoki oy oxirida amalga oshiriladi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni ichki harakati bo‘yicha yuk xati» (7-M shakl) (7-ilovaga qarang) korxonaning ichki tarkibiy bo‘limlarida yoki moddiy javobgar shaxslar o‘rtasidagi tovar-moddiy zaxiralar harakatini hisobga olish uchun qo‘llanildi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni ichki harakati bo‘yicha yuk xati» (7-M shakl) ni tovar-moddiy zaxiralarni topshiruvchi tarkibiy bo‘limning moddiy javobgar shaxsi ikki nusxada tuzadi. Bir nusxasi topshirayotgan omborga tovar-moddiy zaxiralarni hisobdan chiqarish uchun, ikkinchisi esa qabul qilayotgan omborga kirim qilish uchun xizmat qiladi.

Shuningdek, «Tovar-moddiy zaxiralarni ichki harakati bo‘yicha yuk xati» (7-M shakl) bilan oldin «Tovar-moddiy zaxiralarni chiqarishga talabnoma» (6-M shakl) bo‘yicha olingan tovar-moddiy zaxiralarning sarflanmagan qoldiqlarini, chiqindi va yaroqsiz mahsulotlarni ishlab chiqarishdan omborga topshirilishi bo‘yicha operatsiyalar rasmiylashtiriladi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni ichki harakati bo‘yicha yuk xati» (7-M shakl) ni topshiruvchi va oluvchi moddiy javobgar shaxs imzolaydi va tovar-moddiy zaxiralar harakatini hisobga olish uchun buxgalteriyaga topshiriladi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni chetga chiqarish bo‘yicha yuk xati» (8-M shakl) (8-ilovaga qarang) shartnoma va buxgalteriya hujjatlari asosida korxona hududidan tashqarida joylashgan tarkibiy bo‘linmalari, sho‘ba va qaram korxonalari yoki boshqa korxona va tashkilotlarga tovar-moddiy zaxiralarni chiqarishni hisobga olish uchun qo‘llanildi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni chetga chiqarish bo‘yicha yuk xati» (8-M-shakl) shartnoma (bitim), schyot-faktura va boshqa tegishli hujjatlar va oluvchi tomonidan tovar-moddiy zaxiralarni olish uchun belgilangan tartibda to‘ldirilgan ishonchnoma taqdim etilishi asosida tarkibiy bo‘lim xodimlari tomonidan ikki nusxada to‘ldiriladi. Birinchi nusxasi omborga tovar-moddiy zaxiralarni chiqarish uchun asos sifatida, ikkinchisi tovar-moddiy zaxiralarni oluvchiga beriladi.

«Hujjatlarni topshirishning ro‘yxati» (9-M-shakl) (9-ilovaga qarang) omborga qabul qilingan va chiqarilgan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha kirim va chiqim hujjatlarini korxona buxgalteriyasiga topshirish uchun qo‘llaniladi. Unda tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha kirim va chiqim hujjatlarini tartib raqami, nomi va tuzish sanasi ko‘rsatiladi. «Hujjatlarni topshirishning ro‘yxati» (9-M-shakl) tovar-moddiy zaxiralar qabul qilishdagi kirim hujjatlari bo‘yicha alohida va chiqarishdagi chiqim hujjatlariga alohida to‘ldiriladi.

«Hujjatlarni topshirishning ro‘yxati» (9-M shakl) ikki nusxada to‘ldirilib, ombor mudiri va buxgalteriya xodimi tomonidan imzolanib, birinchi nusxasi buxgalteriya topshiriladi, ikkinchi nusxasiga buxgalter olgan hujjatlar sonini yozib ombor mudiriga qaytaradi va ombor mudirida saqlanadi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni qoldig‘ini hisobga olish daftari» (10-M shakl) (10-ilovaga qarang) har oyning birinchi sanasiga tovar-moddiy zaxiralarni qoldig‘ini aks ettirish maqsadida qo‘llaniladi. Har oyning birinchi sanasida moddiy javobgar shaxs tomonidan tovar-moddiy zaxiralarni qoldig‘i boshlang‘ich hujjatlardan olib to‘ldiriladi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni qoldig‘ini hisobga olish daftari» (10-M shakl) korxona

buxgalteriyasi tomonidan har bir omborxona bo‘yicha alohida bir yil uchun ochiladi va saqlanadi. Har oyning oxirida to‘ldirish uchun moddiy javobgar shaxsga beriladi va hisobot oyidan keyingi oyning 1-2-sanasida (tasdiqlangan grafikka asosan) buxgalteriyaga qaytariladi. Moddiy javobgar shaxs tegishli tovar-moddiy zaxiralar turlari bo‘yicha haqiqiy qoldig‘ining ta’minot yoki reja-iqtisod bo‘limi tomonidan belgilangan zaxira me’yori va nisbatlariga mos kelishini nazorat qilib borishi lozim.

«Tovar-moddiy zaxiralarni qoldig‘ini hisobga olish daftari» (10-M-shakl) tikilgan va raqamlangan bo‘lishi, so‘nggi varag‘ida korxona rahbarining imzosi bilan «Mazkur «Tovar-moddiy zaxiralarni qoldig‘ini hisobga olish daftari» (10-M shakl) da ____ varaq raqamlangan» deb yozilishi va muhr bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Varaqlar soni yozuv bilan ko‘rsatiladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni olish uchun ishonchnomalar berish va ularni ishonchnomalar bo‘yicha chiqarish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 134-moddasiga muvofiq, bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxsga (ishonchli vakilga) uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchli vakil o‘ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi.

Yuridik shaxs nomidan, shuningdek yuridik shaxsga ham ishonchnoma faqat yuridik shaxsning ustavida (nizomida) ko‘rsatilgan faoliyat maqsadlariga zid bo‘lmagan bitimlarni tuzish uchungina berilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 138-moddasiga muvofiq, yuridik shaxs nomidan beriladigan ishonchnoma rahbar tomonidan imzolanib, unga ushbu yuridik shaxsning muhri bosiladi. Davlat mulkiga asoslangan yuridik shaxs nomidan pul va boshqa mulkiy boyliklarni olish yoki topshirish uchun beriladigan ishonchnoma shu yuridik shaxsning bosh (katta) buxgalteri tomonidan ham imzolanishi kerak. Bankda operatsiyalarni amalga oshirishga ishonchnoma berish tartibi va uning shakli qonun hujjatlari bilan belgilab qo‘yiladi.

Korxona tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mol yetkazib beruvchilardan tovar-moddiy zaxiralarni olish uchun ishonchli shaxsga berilgan yozma vakolat ishonchnoma deb tan olinadi. Ishonchli shaxs unga ishonchnoma bo‘yicha berilgan vakolatlar doirasida harakat qiladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni olish uchun ishonchnomalar berish tartibi

Tovar-moddiy zaxiralarni olish uchun ishonchnomalar korxonaning ixtiyoriga ko‘ra «Ishonchnomalar kitobchasi» koreshogida hisobga olingan hollarda (11-ilovaga qarang) yoki «Berilgan ishonchnomalarni hisobga olish Jurnali» da hisobga olingan hollarda (12-ilovaga qarang) rasmiylashtiriladi. Ishonchnomalar korxona rahbari yoki u tomonidan qonunda belgilangan tartibda belgilanadigan shaxslar tomonidan imzolanadi.

Tegishli texnik vositalar mavjud bo‘lganda, ishonchnoma axborot tizimlari va axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda elektron shaklda rasmiylashtirilishi mumkin. Texnik vositalar hamda axborot tizimlari va axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda elektron ishonchnomalar 11-va 12-ilovalariga muvofiq shaklda tuziladi. Elektron ishonchnomalarni saqlashda ularni olish va qog‘oz shaklidagi nusxalarini taqdim etish imkoniyati ta’minlangan bo‘lishi shart.

Elektron ishonchnomalar javobgar shaxsning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanishi lozim. Ishonchnoma elektron shaklda rasmiylashtirilganda ishonch bildirilayotgan shaxsning imzo namunasi rekviziti to‘ldirilishi talab etilmaydi.

Ishonchnomalar mol yetkazib beruvchi tomonidan shartnoma va boshqa bitimlar bo‘yicha beriladigan tovar-moddiy zaxiralarni olish uchun beriladi. Ishonchli shaxs talab etilayotgan tovar-moddiy zaxiralarni bir joydan (bir ombordan), biroq bir necha shartnoma va boshqa bitimlar bo‘yicha olishi lozim bo‘lgan holatlarda unga shartnoma va boshqa bitimlarning raqam va sanalari ko‘rsatilgan bitta ishonchnoma yoki agar tovar-moddiy zaxiralar bir necha ombordan olinishi kerak bo‘lsa bir nechta ishonchnomalar beriladi.

Ishonchnomalarni yozishda olinishi kerak bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralar ro‘yxati quyidagi holda to‘ldiriladi: agar ishonchnomada ko‘rsatilgan jo‘natish hujjatida (shartnoma va shu kabilarda) olinishi kerak bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralar nomi va soni keltirilmagan bo‘lsa yoki ishonchnoma bo‘yicha jo‘natish hujjatlarida keltirilgan tovar-moddiy zaxiralarning faqat bir qismigina olinsa. Agar ishonchnoma bo‘yicha jo‘natish hujjatlarida ko‘rsatilgan barcha tovar-moddiy zaxiralar nomi va soni olinsa, unda ishonchnomaning orqa tomonini tovar-moddiy zaxiralar ro‘yxati bilan to‘ldirmasa ham bo‘ladi. Bunday holda ishonchnomaning ushbu qismida jo‘natish hujjatining nomi, raqami va sanasi, shuningdek olinadigan tovar-moddiy zaxiralarning umumiy summasi ko‘rsatiladi.

Ishonchnomani berish chog‘ida korxona tanlagan uning shakliga bog‘liq holda ishonchnoma «Ishonchnomalar kitobchasi» koreshogida yoki «Berilgan ishonchnomalarni hisobga olish Jurnali» da ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

«Ishonchnomalar kitobchasi» tikilgan va raqamlangan bo‘lishi, so‘nggi varag‘ida korxona rahbarining yoki u tomonidan belgilangan shaxslarning imzosi bilan «Mazkur «Ishonchnomalar kitobchasi» da ____ varaq raqamlangan» deb yozilishi va muhr bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Varaqlar soni yozuv bilan ko‘rsatiladi.

«Berilgan ishonchnomalarni hisobga olish Jurnali» (13-ilovaga qarang) tikilgan va raqamlangan bo‘lishi, so‘nggi varag‘ida korxona rahbarining yoki u tomonidan belgilangan shaxslarning imzosi bilan «Mazkur «Berilgan ishonchnomalarni hisobga olish Jurnali» da ____ varaq raqamlangan» deb yozilishi va muhr bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Varaqlar soni yozuv bilan ko‘rsatiladi.

«Ishonchnomalar kitobchasi» va «Berilgan ishonchnomalarni hisobga olish Jurnali» ishonchnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun mas’ul bo‘lgan shaxsda saqlanishi lozim. To‘liq yoki qisman to‘ldirilmagan ishonchnomalarni hamda ular nomiga yozilgan shaxslarning imzo namunasi bo‘lmagan ishonchnomalarni berish taqiqlanadi.

Ishonchnomaning amal qilish muddati, ishonchnomani yozishga asos bo‘lgan shartnomalar va boshqa bitimlar bo‘yicha tegishli tovar-moddiy zaxiralarni olish va olib chiqib ketish imkoniyatiga bog‘liq ravishda belgilanadi, biroq u qonun hujjatlarida belgilangan muddatdan oshmasligi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 134-moddasiga muvofiq, ishonchnoma ko‘pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin. Agar ishonchnomada muddat ko‘rsatilgan bo‘lmasa, u berilgan kundan boshlab bir yil mobaynida o‘z kuchini saqlaydi. Berilgan kuni ko‘rsatilmagan ishonchnoma haqiqiy emas.

Ishonchli shaxsni unga berilgan, amal qilish muddati hali tugamagan ishonchnomalar bo‘yicha tovar-moddiy zaxiralarni olish huquqidan mahrum qilinganda, tovar-moddiy zaxiralarni oluvchi darhol tegishli ishonchnomalarning bekor qilinganligi haqida mol yetkazib beruvchini xabardor qiladi. Bunday xabarnoma olingan paytdan boshlab bekor qilingan ishonchnoma bo‘yicha tovar-moddiy zaxiralarni berish to‘xtatiladi. Bunday hollarda bekor qilingan shartnomalar bo‘yicha tovar-moddiy zaxiralarni berganlik uchun mol yetkazib beruvchi javobgar bo‘ladi.

Ishonchli shaxs tovar-moddiy zaxiralarni olgandan so‘ng topshiriqlar bajarilganligi va u olgan tovar-moddiy zaxiralar omborga (omborxonaga) topshirilganligi to‘g‘risidagi hujjatlarni korxona buxgalteriyasiga yoki tegishli moddiy javobgar shaxsga taqdim etishi shart. Foydalanilmagan ishonchnomalar amal qilish muddati tugagan kundan keyingi sanada uni bergan korxonaga qaytarilishi kerak.

Foydalanilmagan ishonchnomalar amal qilish muddati tugagan kundan keyingi sanada uni bergan tashkilotga qaytarilishi kerak. Foydalanilmagan ishonchnomaning qaytarilganligi to‘g‘risida «Ishonchnomalar kitobchasi» ning koreshogida («Topshiriq bajarilganligini tasdiqlaydigan hujjatning raqami va sanasi» ustunida) yoki Berilgan ishonchnomalarni hisobga olish Jurnali» da («Ishonchnoma bo‘yicha topshiriqlar bajarilganligi to‘g‘risidagi qaydlar» ustunida) belgi qo‘yiladi. Qaytarilgan foydalanilmagan ishonchnomalar «foydalanilmagan» yozuvi bilan qoplanadi (to‘ldiriladi) va ularni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun javobgar bo‘lgan shaxs tomonidan hisobot yili oxiriga qadar saqlanadi. Yil tugagach bunday foydalanilmagan ishonchnomalar bu haqda tegishli dalolatnoma tuzish bilan belgilangan tartibda yo‘q qilinadi. Amal qilish muddati tugagan ishonchnomalardan foydalanish xususida hisobot bermagan shaxslarga yangi ishonchnomalar berilmaydi.

Tovar-moddiy zaxiralarni ishonchnomalar bo‘yicha chiqarish tartibi

Ishonchnomalar amal qilish muddatidan qat’i nazar tovar-moddiy zaxiralarning dastlabki chiqarilishida mol yetkazib beruvchida qoldiriladi. Tovar-moddiy zaxiralarni qismlarga bo‘lib chiqarilganda har bir chiqarilgan qismga yukxati (qabul qilish-topshirish dalolatnomasi yoki shunga o‘xshash boshqa hujjat) tuziladi, unda ishonchnoma raqami va u berilgan sana ko‘rsatiladi. Bunday hollarda yukxatning (qabul qilish-topshirish dalolatnomasi yoki boshqa tegishli hujjatning) bir nusxasi tovar-moddiy zaxiralarni oluvchiga beriladi, boshqasi – mol yetkazib beruvchida qoladi hamda ishonchnomaga ko‘ra tovar-moddiy zaxiralarni berish ustidan kuzatuv va nazorat uchun qo‘llaniladi.

Tovar-moddiy zaxiralar chiqarib bo‘lingandan keyin ishonchnoma ishonchnomalar bo‘yicha topshirilayotgan zaxiralarning oxirgi turkumini berish uchun hujjat bilan birga buxgalteriyaga topshiriladi.

Ishonchnoma bo‘yicha tovar-moddiy zaxiralarni chiqarish korxona tomonidan quyidagi hollarda amalga oshirilmaydi:

- to‘ldirish tartibini buzgan holda yoki to‘ldirilmagan rekvizitlar bilan berilgan ishonchnomalar taqdim etilganda;
- tuzatilgan va bo‘yalgan joylari mavjud bo‘lgan ishonchnomalar taqdim etilganda;
- ishonchnomada ko‘rsatilgan shaxsning pasporti taqdim etilmaganda;
- ishonchnoma berilgan muddat tugaganda;
- qabul qilib oluvchidan ishonchnoma bekor qilinganligi to‘g‘risida xabar olinganda;
- uning nomidan ishonchnoma berilgan yuridik shaxsning faoliyati to‘xtatilganda;
- ishonchli shaxs layoqatsiz, cheklangan layoqatli deb tan olinganda.

Ishonchnomalar berishning belgilangan tartibiga rioya etilishi hamda tovar-moddiy zaxiralarni ishonchnomalar bo‘yicha berish ustidan nazorat qilish korxona rahbari tomonidan belgilangan mas’ul shaxs zimmasiga yuklanadi.

6-§. Tovar-moddiy zaxiralarni realizatsiya qilishning sof qiymati

«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, shuningdek 4-son BHMS ga asosan, tovar-moddiy zaxiralarni baholash quyidagi ikki bahoning eng pasti bo‘yicha – hisobot davri oxiridagi tannarxi (xarid qilish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi) bo‘yicha yoki bozor bahosi bo‘yicha (realizatsiya qilishninng sof qiymati) amalga oshiriladi. Tovar-moddiy zaxiralarni moliyaviy hisobotning elementi sifatida ularni tan olish masalalari, jumladan tannarxi, ya’ni xarid qilish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi bo‘yicha baholash masalalari oldingi paragraflarda batafsil muhokama qilingan edi.

Birinchi navbatda tovar-moddiy zaxiralarning realizatsiya qilishning sof qiymati tushunchasining mohiyatini aniqlab olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ma’lumki, ***realizatsiya qilishning sof qiymati*** - tovar-moddiy zaxiralarni maqsadiga ko‘ra ishlatiladigan holatga keltirish va realizatsiya qilish bo‘yicha baholangan xarajatlar chegirilgan holda joriy qiymati. Bunda ***joriy qiymat*** – tovar-moddiy zaxiralarning ma’lum sanadagi amalda bo‘lgan bozor bahosi bo‘yicha qiymati yoki yetarli darajada ma’lumotga ega, bitim tuzishga xohishi bo‘lgan, o‘zaro bir-biridan mustaqil bo‘lgan tomonlar o‘rtasida bitim amalga oshirish natijasida aktivni xarid qilish yoki majburiyatni amalga oshirish uchun yetarli bo‘lgan summadir.

Ta’kidlash joizki, tovar-moddiy zaxiralar, agar realizatsiya qilishning sof qiymati ularning tannarxidan past bo‘lsa, realizatsiya qilishning sof qiymati bo‘yicha aks ettiriladi. Odatda realizatsiya qilishning sof qiymati tovar-moddiy zaxiralarning har bir birligi (turi) bo‘yicha aniqlanadi. Realizatsiya qilishning sof qiymatini aniqlash maqsadida davriy ravishda tovar-moddiy zaxiralari qayta baholanadi va ularning qiymati joriy qiymatga muvofiqlashtiriladi.

Baholangan realizatsiya qilishning sof qiymatining aniqlanishi ikkita baholovchi qiymatning mavjud bo‘lishini talab etadi: tovar-moddiy zaxiralar birligini sotishning bozor bahosi va zaxiralarni komplektlash va ularni tovar ko‘rinishiga keltirish bo‘yicha ishlar uchun ko‘zda tutilayotgan xarajatlar yoki esa ularni sotish bo‘yicha ko‘zda tutilayotgan xarajatlar. Ma’lumki, xo‘jalik yuritish amaliyotida korxonalar pul ko‘rinishida bo‘lmagan aktivlarni bozor bahosini ularni qayta baholash o‘tkazish yo‘li orqali aniqlashlari mumkin. Tovar-moddiy zaxiralarni ularning sof sotish qiymatini aniqlash maqsadida baholash – bu tovar-moddiy zaxiralar qiymatini ularning joriy qiymatiga muvofiq keltirish maqsadida davriy tartibda aniqlashtirib borishdir.

Tovar-moddiy zaxiralar odatda ularning alohida birliklari tannarxini qayta baholashni o‘tkazish sanasida shakllangan o‘xshash baholanadigan tovar-moddiy zaxiralarning hujjat bilan tasdiqlangan joriy qiymatlari bo‘yicha qayta hisoblash yo‘li bilan qayta baholanadi.

Qayta baholash korxona tomonidan mustaqil ravishda yoki qonun hujjatlariga muvofiq baholash faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga (litsenziyasiga) ega bo‘lgan ixtisoslashgan baholovchi korxona (mutaxassis-ekspertlar) ni jalb etish orqali amalga oshiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralar birligining joriy qiymatini hujjatli tasdiqlash uchun tashkilotning ixtiyoriga ko‘ra quyidagilardan foydalanish mumkin:

- ishlab chiqaruvchilar va ularning rasmiy dilerlari, tovar-xomashyo birjalaridan yozma shaklda olingan tovar-moddiy zaxiralar o‘xshash birligining joriy qiymati (narxi) to‘g‘risida ma’lumotlar;

- xarid qilish sanasida (tasdiqlovchi hujjat mavjud bo‘lganida) chetel valyutasida tovar-moddiy zaxiralar birligining tannarxi to‘g‘risida ma’lumotlar, bunda chetel valyutalari kurslarining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qayta baholashni o‘tkazish

sanasi va tovar-moddiy zaxiralarning tegishli birligini xarid qilish sanasida belgilangan milliy valyutaga (so‘mga) nisbati sifatida aniqlanadigan hisob-kitob koeffitsienti qo‘llaniladi;

- tegishli davlat organlaridagi mavjud bo‘lgan narxlar darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

- qayta baholashni o‘tkazish davrida ommaviy axborot vositalari va maxsus adabiyotlarda chop etilgan narxlar darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

- baholovchining tovar-moddiy zaxiralar tegishli birligining joriy qiymati to‘g‘risidagi hisoboti.

Tovar-moddiy zaxiralar, agar ular shikastlangan, to‘liq yoki qisman eskirgan yoki ularni realizatsiya qilishning sof qiymati pasaygan bo‘lsa, shuningdek tan olingan butlash xarajatlari, zaxiralarni tovar ko‘rinishiga keltirish bo‘yicha ishlar yoki mo‘ljallangan sotish xarajatlari oshgan bo‘lsa tovar-moddiy zaxiralarning qiymati arzonlashtiriladi. Tovar-moddiy zaxiralarni realizatsiya qilishning sof qiymatiga qadar tannarxdan past arzonlashtirish ularning haddan tashqari to‘planishi va sekin aylanuvchanligi hollarida tovar-moddiy zaxiralar moliyaviy hisobotda ularni realizatsiya qilish yoki ishlatishdan kutiladigan summadan yuqori aks ettirilmasligi uchun qo‘llaniladi.

Tovar-moddiy zaxiralar odatda «moddalar bo‘yicha usul» asosida realizatsiya qilishning sof qiymatiga qadar arzonlashtiriladi. Bunda bir turdagi yoki o‘zaro bog‘langan tovar-moddiy zaxiralarni guruhlashdan, xususan, mahsulotning birgina assortimentiga taalluqli bo‘lgan, bir xil vazifa yoki pirovardda bir xil ishlatishga ega bo‘lgan, birgina geografik hududda ishlab chiqariladigan yoki birgina geografik hududdagi bozorga chiqariladigan, mahsulotning ushbu assortimentida boshqa materiallardan amalda alohida baholanishi mumkin bo‘lmagan tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish mumkin. Tovar-moddiy zaxiralarni muayyan tarmoq yoki birgina geografik hududdagi tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki tovar-moddiy zaxiralarga tasniflashga asoslanib arzonlashtirilmaydi.

Buxgalteriya hisobining halqaro amaliyotida tovar-moddiy zaxiralarni realizatsiya qilishning sof qiymati «asosiy tovar guruhlari bo‘yicha usul» va «zaxiralarning umumiy hajmi bo‘yicha usul» larni qo‘llangan holda ham aniqlanadi. O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda tovar-moddiy zaxiralarni realizatsiya qilishning sof qiymati «asosiy tovar guruhlari usuli» va «zaxiralarning umumiy hajmi usuli» ni qo‘llash nazarda tutilmagan. Ushbu usullarni qo‘llanilishi tartibi foydalanuvchilar uchun ma’lumot tariqasida keltirilmoqda.

Tovar-moddiy zaxiralar realizatsiya qilishning sof qiymatini baholashning yuqorida ta’kidlab o‘tilgan usullarining mohiyatini ko‘rib chiqamiz.

Har bir modda bo‘yicha usulida tovar-moddiy zaxiralarning har bir nomi (navi, markasi, turi va shu kabilar) bo‘yicha, ya’ni har moddasi tannarxi va realizatsiya qilishning sof qiymati (bozor bahosi) solishtiriladi (taqqoslanadi) va ushbu ikki qiymatdan eng pasti har bir modda bo‘yicha moliyaviy hisobotga kiritiladi.

Asosiy tovar guruhlari usulida, tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi yoki realizatsiya qilishning sof qiymatidan eng pasti, tovar-moddiy zaxiralarning har bir kategoriyasi yoxud guruhi bo‘yicha umumiy tannarxi va umumiy bozor bahosini solishtirish natijasida aniqlanadi va ushbu ikki qiymatdan eng pasti har bir modda bo‘yicha moliyaviy hisobotga kiritiladi.

Zaxiralar umumiy hajmi usulida, barcha zaxiralarning umumiy tannarxi ularning umumiy bozor bahosi bilan solishtiriladi va baholash sifatida ushbu miqdorlardan eng kichigi tanlab olinadi va ushbu ikki qiymatdan eng pasti har bir modda bo‘yicha moliyaviy hisobotga kiritiladi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishda foydalaniladigan xomashyo va boshqa

materiallar, agar ulardan tayyorlangan mahsulot joriy qiymatda sotilsa, tannarxdan past qilib arzonlashtirilmaydi. Biroq, agar materiallar narxining tushishi munosabati bilan tayyor mahsulot narxi pasaytirilsa, ya'ni ushbu materiallardan tayyorlangan tayyor mahsulotning tannarxi mazkur tayyor mahsulotni realizatsiya qilishning sof qiymatidan oshsa, materiallar qiymati kamaytiriladi. Bunda, realizatsiya qilishning sof qiymatini baholashning eng ishonchlisi bo'lib ularga o'xshash materiallarni sotib olish xarajatlari hisoblanadi.

Tovar-moddiy zaxiralar tannarxining ushbu tovar-moddiy zaxiralarni realizatsiya qilishning sof qiymati summasidan oshadigan summasi, ya'ni qayta baholash natijasida tovar-moddiy zaxiralarning arzonlashish summasi u yuzaga kelgan hisobot davrining xarajatlariga kiritiladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni tannarxini pasaytirilishi summasini aks ettirish tartibini misolda ko'rib chiqamiz. Omborda 25 000 000 so'm qiymatga ega bo'lgan 1 000 dona ehtiyot qism mavjud. Qayta baholashni o'tkazish davrida ommaviy axborot vositalari chop etilgan narxlar darajasi to'g'risidagi ma'lumotlardan kelib chiqib hisobot davrining oxirida ehtiyot qismlarni sotishning sof qiymati summasi har bir birligi (donasiga) ga 24 000 so'm qilib belgilandi.

Qayta baholash natijasida ehtiyot qismlar qiymatining pasaytirilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti *1 000 000 so'm;*
kredit 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti *1 000 000 so'm;*

- boshqa operatsion xarajatlar schyotini yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» *1 000 000 sum;*
kredit 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti *1 000 000 so'm.*

Har bir keyingi davrda realizatsiya qilishning sof qiymatini yangidan qayta baholash o'tkazilishi mumkin. Iqtisodiy holatning o'zgarganligi sababli tashkilotga tegishli bo'lgan ilgari qiymati pasaytirilgan tovar-moddiy zaxiraning realizatsiya qilishning sof qiymati oshgan holda tegishli hisobdan chiqarish summasi yangi balans qiymatini quyidagi ikki qiymatning eng kamiga qadar keltirish orqali tiklanadi (tiklash dastlabki hisobdan chiqarish miqdorlari bilan cheklangan): tannarx va qayta ko'rib chiqilgan realizatsiya qilishning sof qiymati.

7-§. Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish

Tovar-moddiy zaxiralarning haqiqatda mavjudligini aniqlash, ularning sotish sof qiymatini tasdiqlash va ularning but saqlanishini nazorat qilish maqsadida korxonalar tomonidan vaqti-vaqti bilan, lekin yilda kamida bir marotaba tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyasi o'tkaziladi.

Korxonaning mulkini, shu jumladan tovar-moddiy zaxiralarning inventarizatsiyasini o'tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirishning umumiy qoidalari va umumbelgilangan tartibi 19-son BHMS bilan belgilangan.

Korxona rahbari tovar-moddiy zaxiralarning inventarizatsiyasini o'tkazish sanasini va uni o'tkazish tartibini tartibga solishni belgilash huquqiga ega. Bunda u hisobot yilida o'tkaziladigan inventarizatsiya soni, ularni o'tkazish sanasi, har birida tekshiriladigan tovar-moddiy zaxiralar ro'yxatini belgilaydi. Bularning barchasi korxonaning hisob siyosatining obyekti bo'lib hisoblanadi. Biroq buxgalteriya hisobi bo'yicha qonunchilikda korxonalarning tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish majburiyatlari nazarda tutilgan.

Korxona rahbari tovar-moddiy zaxiralarning to'g'ri hamda o'z vaqtida inventarizatsiyadan o'tkazilishi va ularning kutilmaganda inventarizatsiyadan o'tkazilishini ta'minlash uchun

javobgardir. Ular tovar-moddiy zaxiralarning haqiqatda mavjudligini qisqa muddatlarda to‘liq va aniq tekshirishni ta’minlaydigan sharoitlarni yaratib berishlari shart.

Bosh buxgalter tegishli bo‘linmalar va xizmatlar rahbarlari bilan birgalikda inventarizatsiya o‘tkazishning belgilangan qoidalariga rioya etilishini sinchiklab nazorat qilishga majbur.

Korxonalarda quyidagi hollarda tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi o‘tkaziladi:

- tovar-moddiy zaxiralarni sof sotish qiymatini aniqlash uchun qayta baholanganda;
- moddiy javobgar shaxslar almashganda (ishlarni qabul qilish - topshirish kunida);
- o‘g‘irlik yoki suyiste’mol, shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarni buzulishi (shikastlanishi) faktlari aniqlanganda;
- tabiiy ofatlar, yong‘inlar, falokatlar yoki favqulodda holatlar yuzaga keltirgan boshqa favqulodda vaziyatlar yuz berganda;
- korxona tugatilganda (qayta tashkil etilganda) tugatish (ajratish) balansini tuzish oldidan va buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tartibga solish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Korxona rahbari o‘zining qarori bilan tanlash yo‘li bilan (qisman), reja asosida va rejadan tashqari (to‘liq va tanlash yo‘li bilan), joriy va yillik o‘tkaziladigan inventarizatsiyalarni belgilashi mumkin. Reja asosida o‘tkaziladigan inventarizatsiya reja-jadvaliga muvofiq, rejadan tashqari o‘tkaziladigani favqulodda holatlarda: o‘g‘irlik, yirik avariyalar va boshqa holatlar bo‘lganda amalga oshiriladi. Joriy inventarizatsiya hisobot yili davomida, yillik inventarizatsiya esa yillik moliyaviy hisobot tuzishdan oldin o‘tkaziladi. Tanlash yo‘li bilan inventarizatsiya har xil sabablarga ko‘ra, shu jumlandan moddiy javobgar shaxslar almashganda o‘tkaziladi.

Inventarizatsiya o‘tkazish uchun korxonada doimiy ishlaydigan inventarizatsiya komissiyasi tuziladi. Ishlar hajmi katta bo‘lganda mol-mulk va moliyaviy majburiyatlar inventarizatsiyasini bir vaqtda o‘tkazish uchun ishchi inventarizatsiya komissiyasi tuziladi. Ishlar hajmi kichik va korxonada reviziya komissiyasi mavjud bo‘lganda inventarizatsiya o‘tkazishni unga yuklash mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasini o‘tkazish to‘g‘risidagi qarorni, doimiy ishlaydigan va ishchi inventarizatsiya komissiyalarining shaxsiy tarkibini korxona rahbari tasdiqlaydi. Komissiya tarkibi to‘g‘risidagi hujjat (buyruq, qaror, farmoyish) inventarizatsiyalarni o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruqlar bajarilishini nazorat qilish daftarida ro‘yxatga olinadi. Buyruqda tovar-moddiy zaxiralar saqlanayotgan yoki foydalanishda bo‘lgan joyida inventarizatsiyasini o‘tkazish bo‘yicha aniq vazifalarni, qoidalar va muddatlarini belgilash; tovar-moddiy zaxiralarni haqiqatda mavjudligini hisob ma’lumotlaridan farqini rasmiylashtirishga alohida e’tibor qaratgan holda hujjatlashtirishning qoidalarini batafsil aniqlab berish lozim.

Doimiy ishlaydigan inventarizatsiya komissiya tarkibiga korxona rahbari yoki uning o‘rinbosari (komissiya raisi), bosh buxgalter va boshqa mutaxassislar (muhandislar, Iqtisodchilar, texniklar va h.k.lar) kiritiladi. SHuningdek komissiya tarkibiga korxonaning ichki audit vakillari kiritilishi mumkin. Ishchi inventarizatsiya komissiya tarkibiga inventarizatsiya o‘tkazishni tayinlagan korxona rahbari (komissiya raisi), mutaxassislar: tovarshunos, muhandis, texnolog, mexanik, ish yurituvchi, iqtisodchi, buxgalteriya xodimi va boshqalar kiritiladi. Inventarizatsiya o‘tkazish chog‘ida komissiyaning aqalli bitta a’zosi yo‘q bo‘lsa, bu hol inventarizatsiya natijalarini haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Komissiya tarkibiga inventarizatsiya o‘tkazilayotgan tovar-moddiy zaxiralarni narxlari va birlamchi hisobni yaxshi biladigan tajribali xodimlar kiritilishi kerak. Bir moddiy javobgar

shaxslarda xuddi shu xodimni ketma-ket ikki marta ishchi inventarizatsiya komissiyasining raisi qilib tayinlash taqiqlanadi.

Doimiy ishlaydigan inventarizatsiya komissiyalari:

- tovar-moddiy zaxiralar saqlanishini ta'minlashga doir profilaktika ishlarini o'tkazadi, zarurat bo'lganda o'z majlislarida tovar-moddiy zaxiralarning saqlanishi masalalari bo'yicha sex, bo'lim, sho'balar rahbarlarining axborotlarini tinglaydi;

- inventarizatsiya o'tkazilishini tashkil etadi va ishchi inventarizatsiya komissiyalari a'zolariga yo'l-yo'riq beradi;

- inventarizatsiya to'g'ri o'tkazilganini nazorat tariqasida tekshiruvlarni amalga oshiradi, shuningdek, inventarizatsiya orasidagi davrda saqlash va qayta ishlash joylarida tovar-moddiy zaxiralarni tanlab inventarizatsiya o'tkazadi;

- inventarizatsiya natijalari to'g'ri chiqarilganini, omborlar, omborxonalar, sexlar va boshqa saqlash joylarida tovar-moddiy zaxiralarni qayta navlarga ajratish bo'yicha takliflar asosli ekanligini tekshiradi;

- zarur hollarda (inventarizatsiya o'tkazish qoidalari jiddiy buzilganligi aniqlangan va boshqa hollarda) korxona rahbarining topshirig'iga binoan takroriy yalpi inventarizatsiyalarni o'tkazadi;

- tovar-moddiy zaxiralar kamomadi yoki ularni shikastlashga, shuningdek, boshqa buzilishlarga yo'l qo'ygan shaxslardan olingan tushuntirishlarni ko'rib chiqadi va aniqlangan kamomadlar hamda tovar-moddiy zaxiralarni buzilishi (shikastlash) dan ko'rilgan talafotlarni bir izga solish tartibi to'g'risida taklif beradilar.

Ishchi inventarizatsiya komissiyalari:

- saqlash va ishlab chiqarish joylarida tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyasini amalga oshiradi;

- korxona buxgalteriyasi bilan birgalikda inventarizatsiya natijalarini aniqlashda ishtirok etadi va kamomadlar hamda qayta navlarga ajratish chog'idagi ortiqcha chiqishlarni hisobga olish hamda tabiiy yo'qolish me'yorlari doirasida kamomadlarni hisobdan o'chirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish, saqlash va berishni tartibga solish, hisobga olishni yaxshilash va ular saqlanishini nazorat qilishni tartibga solish masalalari, shuningdek, me'yordan ortiqcha va ishlatilmaydigan tovar-moddiy zaxiralarni sotish bo'yicha takliflar kiritadi.

Ishchi inventarizatsiya komissiyalari quyidagi hollarda:

- korxona rahbarining buyrug'iga muvofiq inventarizatsiyani o'z vaqtida o'tkazish va uni o'tkazish tartibiga rioya qilish uchun;

- hisob-kitoblarda tekshirilayotgan tovar-moddiy zaxiralarning haqiqatdagi qoldiqlari to'g'risidagi ma'lumotlar ro'yxatga to'liq va aniq qayd etilishi uchun;

- tovar-moddiy zaxiralarning ular narxi belgilanadigan farqlovchi belgilari (turi, navi, rusumi, hajmi, preyskurant bo'yicha tartib raqami, artikuli va h.k.) ro'yxatda to'g'ri ko'rsatilishi uchun;

- belgilangan tartibga muvofiq inventarizatsiya materiallari to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

Inventarizatsiya komissiyalari a'zolari tovar-moddiy zaxiralar kamomadi va ishlatib yuborgani yoki ortiqcha chiqqanini yashirish maqsadida «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxati» ga (14-ilovaga qarang) tovar-moddiy zaxiralarning haqiqatdagi qoldiqlari to'g'risida ataylab noto'g'ri ma'lumotlarni kiritganlik uchun belgilangan tartibga muvofiq javobgarlikka tortiladilar. Tovar-moddiy zaxiralarning haqiqatdagi mavjudligini tekshirishni boshlashdan oldin inventarizatsiya komissiyasi inventarizatsiya paytidagi eng so'nggi kirim-

chiqim hujjatlarini yoki tovar-moddiy zaxiralar harakati to‘g‘risidagi hisobotlarni olishi kerak.

Inventarizatsiya komissiyasining raisi hisobotlarga ilova qilingan barcha hujjatlarga «inventarizatsiyagacha ...da (sana)» deb ko‘rsatgan holda viza qo‘yadi, bu esa buxgalteriyaga hisob ma’lumotlari bo‘yicha inventarizatsiya boshlash paytida tovar-moddiy zaxiralarni aniqlash uchun asos bo‘lib xizmat qilishi kerak. Moddiy javobgar shaxslar inventarizatsiya boshlanishiga qadar tovar-moddiy zaxiralarga doir barcha kirim-chiqim hujjatlari buxgalteriya yoki komissiyaga topshirilgani va ular javobgarligiga kelib tushgan barcha tovar-moddiy zaxiralar kirim qilingani, chiqib ketganlari esa hisobdan o‘chirilgani to‘g‘risida tilxat beradilar. Tovar-moddiy zaxiralar xarid qilishga hisobdor summalari yoki ularni olish uchun ishonchnomalari bo‘lgan shaxslar ham shunday tilxat beradilar.

Inventarizatsiyani o‘tkazish oldidan ishchi inventarizatsiya komissiyalari a’zolariga buyruq, komissiya raislariga esa plombir topshiriladi (inventarizatsiya komissiyasi ishlaydigan butun ish vaqtida plombir komissiya raisida saqlanadi). Agar tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyasi bir necha kun mobaynida o‘tkazilsa, tovar-moddiy zaxiralar saqlanayotgan xona inventarizatsiya komissiyasi ketayotganida muhrlanishi kerak. Inventarizatsiya komissiyalari ishida tanaffus bo‘lganda (tushlik vaqti, tunda, boshqa sabablarga ko‘ra) ro‘yxatlar inventarizatsiya o‘tkazilayotgan yopiq xonadagi yashikda (javon, seyfda) saqlanishi shart.

Tovar-moddiy zaxiralarning haqiqatda mavjudligini tekshirishga kirishishdan oldin ishchi inventarlash komissiyasi:

- yordamchi binolar, yerto‘lalar va tovar-moddiy zaxiralar saqlanadigan, alohida kirish-chiqish eshiklari bo‘lgan boshqa joylarni plombalashi;

- og‘irlikni o‘lchaydigan barcha asboblar sozlanganini tekshirishi va ularni tamg‘alashning belgilangan muddatlariga rioya qilishi shart.

To‘satdan o‘tkaziladigan inventarizatsiyalarda barcha tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiya komissiyasi hozirligida, qolgan hollarda esa - oldindan tayyorlab qo‘yiladi. Tovar-moddiy zaxiralar guruhlarga bo‘linishi, navlarga ajratilishi va ular miqdorini sanash uchun qulay bo‘lgan ma’lum tartibda nomlari, navlari, hajmlari bo‘yicha joylashtirilishi kerak.

Tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyasi, qoidaga ko‘ra, mazkur xonada qymatliklarning joylashish tartibida bajarilishi kerak. Inventarizatsiya vaqtida bir turdagi tovar-moddiy zaxiralardan boshqasiga tartibsiz o‘tishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Tovar-moddiy zaxiralar turli alohida xonalarda bitta moddiy javobgar shaxsda saqlanganda inventarizatsiya saqlash joylari bo‘yicha ketma-ketlikda o‘tkaziladi. Tovar-moddiy zaxiralar tekshirilganidan keyin xona eshigi plombalanadi va komissiya ishlash uchun keyingi xonaga o‘tadi.

Inventarizatsiya paytida tovar-moddiy zaxiralarning mavjudligi albatta sanash, tarozida tortish, o‘lchash yo‘li bilan aniqlanadi.

Katta sig‘imli sisterna va bochkalarda saqlanayotgan materiallarning haqiqiy miqdorini topish uchun inventarizatsiya komissiyasi maxsus o‘lchov asboblaridan, jumladan, temir lineykalar, indikatorlardan foydalanadi. Temir lineyka yoki indikatorlar yordamida, dastlab, sisterna (bochka)ning materiallarning haqiqatda band bo‘lgan balandligi tegishli o‘lchov birliklarida (masalan, metrda, detsimetrda, santimetrda) aniqlanadi. SHundan so‘ng, har bir sisterna va bochka bo‘yicha ularning topilgan balandlik o‘lchamiga mos keluvchi yoqilg‘ining miqdori maxsus tasdiqlangan shkala (jadval) asosida topiladi. Misol uchun, hajmi 16 m^3 (4 x 2 x 2) sisternaga 13120 litr solyarka ketishi belgilangan, deylik. Demak, 1 m^3 ga 820 litr solyarka to‘g‘ri keladi. Inventarizatsiyada sisternaning yoqilg‘i bilan band bo‘lgan balandligi 1,25 metr

ekanligi aniqlandi. U holda tasdiqlangan shkalaga ko‘ra ushbu sisternadagi yoqilg‘ining miqdori 8 200 litrni (4 m x 2 m x 1,25 m x 820 l) tashkil qiladi.

Yetkazib beruvchining ochilmagan o‘ramida saqlanayotgan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha ushbu tovar-moddiy zaxiralar miqdori istisno tariqasida hujjatlar asosida, ushbu tovar-moddiy zaxiralar bir qismini albatta naturada (tanlab olib) tekshirish bilan aniqlanishi mumkin. Qoplanmagan (o‘ralmagan) tovar-moddiy zaxiralar og‘irligi (yoki hajmi)ni o‘lchash va texnik hisob-kitoblar asosida aniqlashga yo‘l qo‘yiladi; o‘lchash dalolatnomalari va hisob-kitoblar «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» ga ilova qilinadi. Tarozida tortiladigan ko‘p miqdordagi tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiyadan o‘tkazilganda tarozida tortish qaydnomalarini ishchi inventarizatsiya komissiyasining a’zolaridan biri va moddiy javobgar shaxs yuritadi. Ish kuni oxirida (yoki tarozida tortish tugagach) ana shu qaydnomalar ma’lumotlari solishtiriladi va chiqarilgan yakun «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» ga qayd etiladi. Tarozida tortish qaydnomalari «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» ga ilova qilinadi.

Tovar-moddiy zaxiralar «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» ga har bir nom bo‘yicha kiritiladi, bunda nomenklatura raqami, turi, guruhi, artikuli, navi va miqdori ko‘rsatiladi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» ga ishchi inventarizatsiya komissiyasining barcha a’zolari va moddiy javobgar shaxslar imzo chekadilar. «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxat» oxirida moddiy javobgar shaxslar komissiya tovar-moddiy zaxiralarni ularning hozirligida tekshirganini, komissiya a’zolariga nisbatan hech qanday da’volar yo‘qligi va ro‘yxatda sanalgan tovar-moddiy zaxiralar mas’uliyatli saqlashga qabul qilinganini tasdiqlaydigan tilxatga imzo chekadilar.

Tovar-moddiy zaxiralarning haqiqatda mavjudligini tekshirish paytida moddiy javobgar shaxslar o‘zgargan taqdirda tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilgan shaxs «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxat» lariga ularni olganligi, topshirgan shaxslar esa ularni topshirganligi xususida imzo chekadilar.

Ishchi inventarizatsiya komissiyasi raisi yoki uning topshirig‘iga ko‘ra komissiya a’zolari ombor (omborxona) mudiri va boshqa moddiy javobgar shaxslar ishtirokida tovar-moddiy zaxiralarning haqiqatda mavjudligini ularni albatta sanash, tarozida tortish yoki qayta o‘lchash yo‘li bilan tekshiradilar. «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» ga tovar-moddiy zaxiralar qoldig‘i haqidagi ma’lumotlarni moddiy javobgar shaxslar og‘zidan yoki haqiqatda mavjudligini tekshirmasdan turib hisob ma’lumotlari bo‘yicha qayd etish qat’iyan taqiqlanadi.

Inventarizatsiya vaqtida kelib tushadigan tovar-moddiy zaxiralar moddiy javobgar shaxslar tomonidan inventarizatsiya komissiyasi a’zolari ishtirokida qabul qilinadi va inventarizatsiyadan so‘ng reestr yoki tovar hisoboti bo‘yicha kirim qilinadi. Ushbu tovar-moddiy zaxiralar «Inventarizatsiya vaqtida kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar» nomi bilan alohida ro‘yxatga kiritiladi. «Inventarizatsiya vaqtida kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar» ro‘yxatida tovar-moddiy zaxiralar qachon, kimdan kelib tushgani, kirim hujjatining sanasi va raqami, nomi, miqdori, narxi va summasi ko‘rsatiladi. Ayni vaqtda kirim hujjatida inventarizatsiya komissiyasi raisining imzosi bilan ana shu qiymatliklar qayd etilgan ro‘yxat sanasiga havola qilgan holda «inventarizatsiyadan so‘ng» belgisi qo‘yiladi.

Inventarizatsiya uzoq vaqt o‘tkazilgan taqdirda favqulodda hollarda va faqat korxona rahbari va bosh buxgalterining yozma ruxsati bilan inventarizatsiya jarayonida tovar-moddiy zaxiralar

moddiy javobgar shaxslarga inventarizatsiya komissiyasi a'zolari ishtirokida berilishi mumkin.

Ushbu qiymatliklar «Inventarizatsiya vaqtida berilgan tovar-moddiy zaxiralar» deb nomlangan alohida inventar ro'yxatiga kiritiladi. Bu yozuv inventarizatsiya vaqtida kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarga oid hujjatlarga o'xshab rasmiylashtirilishi kerak. Chiqim hujjatlarida inventarizatsiya komissiyasi raisining imzosi bilan belgi qo'yiladi.

Boshqa korxonalarga tegishli bo'lgan va mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy zaxiralar o'zining tovar-moddiy zaxiralar bilan bir vaqtda inventarizatsiyadan o'tkaziladi. SHuningdek, mas'ul saqlashga topshirilgan tovar-moddiy zaxiralar tovar-moddiy zaxiralar ham bir vaqtda inventarizatsiyadan o'tkaziladi.

Yo'lda bo'lgan, yuklab jo'natilgan va mas'ul saqlashga qabul qilingan (topshirilgan) tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyasi tegishli schyotlarda ko'rsatilgan summalarning asosliligini sinchiklab tekshirishni o'z ichiga oladi.

Ushbu tovar-moddiy zaxiralarni (yo'ldagi, yuklab jo'natilgan va h.k. tovarlar) hisobga oluvchi schyotlarda tegishlicha rasmiylashtirilgan hujjatlar bilan tasdiqlangan summalargina qolishi mumkin: yo'lda bo'lganlari bo'yicha - mol yetkazib beruvchilarning schyot - to'lov talabnomalari yoki ularning o'rnini bosadigan hujjatlar bilan; yuklab jo'natilganlari bo'yicha - xaridorlar taqdim etgan schyot-fakturalar nusxalari va to'lov talabnomalari nusxalari bilan; mas'ul saqlashga topshirilgan boshqa korxonalarning omborlarida joylashganlari bo'yicha – inventarizatsiya sanasiga yaqin bo'lgan sanaga qayta rasmiylashtirilgan, saqlangan tilxatlar bilan; bitta shahardagi mol yetkazib beruvchilarning omborlarida bo'lganlari bo'yicha – inventarizatsiyani o'tkazish sanasida qayta rasmiylashtirilgan, saqlangan tilxatlar bilan.

Ana shu schyotlar (talabnomalar) boshqa korrespondentsiyalanuvchi schyotlar bilan oldindan solishtirilishi kerak.

Kelib tushgan tovar-moddiy qiymatliklar kirim qilinmaganligi faktlari aniqlanganda ularni olgan shaxslarning tushuntirishlari talab qilinishi, suiiste'mollik holatida esa materiallar tergov organlariga oshirilishi kerak.

Yo'lda bo'lgan, yuklab jo'natilgan va boshqa korxonalarning omborlarida bo'lgan tovar-moddiy zaxiralarga alohida-alohida tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxatlari tuziladi.

Yo'lda bo'lgan tovar-moddiy qiymatliklarga doir «Yo'lda bo'lgan tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxati» (15-ilovaga qarang) da har bir jo'natma bo'yicha quyidagi ma'lumotlar keltiriladi: nomi (hujjat bo'yicha), miqdori va qiymati (hisob ma'lumotlariga binoan), yuklab jo'natish sanasi, shuningdek, ushbu qiymatliklar tegishli schyotlarda hisobga olinishiga asos bo'lgan hujjatlarning ro'yxati va raqamlari. Bunda belgilangan muddatda kelib tushmagan hamda hisobda yo'ldagi tovar-moddiy zaxiralar sifatida qayd etilgan yuklar bo'yicha ularni qidirib topish uchun qanday choralar ko'rilganligini tekshirish zarur.

Yuklab jo'natilgan tovar-moddiy zaxiralarga doir «Yuklangan tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxati» (16-ilovaga qarang) da har bir alohida jo'natma bo'yicha xaridorning nomi, tovar-moddiy zaxiralarning nomi, yuklab jo'natish sanasi, schyot-faktura yozilgan sana, schyot-fakturaning raqami va schyot-faktura bo'yicha summasi keltiriladi.

Mas'ul saqlashga qabul qilingan (topshirilgan) tovar-moddiy zaxiralar «Mas'ul saqlashga qabul qilingan (topshirilgan) tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxati» (17-ilovaga qarang) ga ushbu tovar-moddiy zaxiralarni mas'ul saqlashga qabul qilingan (topshirilgan) ligini tasdiqlaydigan hujjatlar asosida kiritiladi. Ushbu tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha «Mas'ul saqlashga qabul qilingan (topshirilgan) tovar-moddiy zaxiralarni

inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» da ularning nomi, miqdori, navi, haqiqatdagi qiymati (hisob hujjatlari bo‘yicha), yukni saqlashga qabul qilish sanasi, saqlash joyi, hujjatlarning raqamlari va sanasi ko‘rsatiladi.

Ana shu tovar-moddiy zaxiralar mas’ul saqlashda bo‘lgan korxonalardan «Mas’ul saqlashga qabul qilingan (topshirilgan) tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» ning nusxalari olinganda komissiya tovar-moddiy zaxiralarning haqiqatdagi mavjudligini (inventarizatsiya ro‘yxatlari nusxalarining ma’lumotlari asosida) hujjatlarga binoan belgilangan miqdor bilan taqqoslaydi.

Boshqa korxonalarda qayta ishlashda bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» da qayta ishlovchi korxonaning nomi, tovar-moddiy zaxiralar nomi, miqdori, hisob ma’lumotlari bo‘yicha haqiqatdagi qiymati, tovar-moddiy zaxiralarni qayta ishlashga berish sanasi, hujjatlarning raqamlari va sanasi ko‘rsatiladi.

Tugallanmagan ishlab chiqarish inventarizatsiyasi

Tugallanmagan ishlab chiqarish inventarizatsiyasi uning hajmlari va tannarxini xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom va uning asosida ishlab chiqilgan tarmoq yo‘riqnomalariga muvofiq belgilangan tartibda aniqlash maqsadini qo‘yadi.

Sanoat korxonalariga kelsak, misol uchun, quyidagilar zarur:

- ishlab chiqarishda bo‘lgan buyumlar zaxiralarini (detallar, uzellar, agregatlar) va tayyorlanishi hamda yig‘ilishi tugallanmagan buyumlarning haqiqatda mavjudligini aniqlash;
- hisobga olinmagan yaroqsiz mahsulotni aniqlash;
- tugallanmagan ishlab chiqarish (zaxiralar)ning haqiqatda komplektlangani va yig‘ishning detallar bilan ta’minlanganini aniqlash;
- bekor qilingan buyurtmalar, shuningdek, bajarilishi to‘xtatib qo‘yilgan buyurtmalar bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig‘ini aniqlash;
- ishlab chiqarishda bo‘lgan zaxiralar (detallar, uzellar, agregatlar) va tayyorlanishi hamda yig‘ilishi tugallanmagan buyumlarning tannarxini belgilash.

Inventarizatsiya boshlanishidan oldin omborlarga sexlar uchun zarur bo‘lmagan barcha metallar, xarid qilingan detallar, shuningdek, ishlov berilishi mazkur bosqichda tugallangan barcha detallar, uzellar va agregatlar topshirilishi lozim.

Sexlarda bo‘lgan tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralari va yarim tayyor mahsulotlar ularning miqdorini to‘g‘ri va qulay usulda sanashni ta’minlaydigan tartibga keltirilishi kerak.

Tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralari (detallar, uzellar, agregatlar) qoldig‘ini tekshirish amalda sanash, tarozida tortish, o‘lchash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralarining inventarizatsiya natijalarini «Tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralari qoldig‘ini inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» (18-ilovaga qarang) shaklidagi boshlang‘ich hujjat bilan rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

«Tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralari qoldig‘ini inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» har bir sex (uchastka, bo‘lim) bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralari (detallar, uzellar, agregatlar) nomi, o‘lchov birligi va miqdori, ularning tayyorlik bosqichi yoki darajasi, miqdori yoki hajmini ko‘rsatib, qurilish-montaj ishlari bo‘yicha esa - ularga doir hisob-kitoblar ularga doir ishlar to‘la tugallanganidan keyin, oraliq to‘lovlarsiz amalga oshiriladigan tugallanmagan korxonalar, ularning navbatlari, obyektlari, ishga tushiriladigan majmualar bo‘yicha ishlar hajmini ko‘rsatib; konstruktiv elementlar va ish turlarining tugallanmagan qismlari bo‘yicha tuziladi.

Ish joylarida bo‘lgan, ishlov berilmagan xomashyo, materiallar va xarid qilinadigan yarim

tayyor mahsulotlar «Tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralari qoldig‘ini inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» ga kiritilmaydi, balki alohida inventarizatsiyadan o‘tkaziladi va alohida «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxat» larida qayd etiladi.

Uzil-kesil yaroqsiz qilingan detallar tugallanmagan ishlab chiqarish tarkibiga kiritilmaydi.

Bir xildagi massa bo‘lmagan yoki aralashma bo‘lgan (tegishli sanoat tarmoqlarida) tugallanmagan ishlab chiqarish bo‘yicha «Tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralari qoldig‘ini inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» da, shuningdek, solishtirish qaydnomalarida ikkita miqdoriy ko‘rsatkich keltiriladi: ana shu massa yoki aralashma miqdori va uning tarkibiga kiradigan xomashyo yoxud materiallar (alohida nomlar bo‘yicha) miqdori. Xomashyo yoki materiallar miqdori texnik hisob-kitoblar bilan tarmoq yo‘riqnomalarida belgilangan tartibda belgilanadi.

Kelgusi davr xarajatlari va kechikatirilgan xarajatlarni inventarizatsiyasi

Inventarizatsiya komissiyasi hujjatlar bo‘yicha kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarda aks ettirilishi kerak bo‘lgan summani aniqlaydi va «Kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» (19-ilovaga qarang) ga kiritadi. Ko‘rsatilgan xarajatlarni hisobga olish, taqsimlash va mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxiga yoki davr xarajatlari yoki moliyaviy faoliyat bilan bog‘liq xarajatlar tarkibigi kiritish tartibi tegishli yo‘riqnomalarda belgilanadi.

Inventar va xo‘jalik jihozlarining inventarizatsiyasi

Foydalanishda bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlari ular joylashgan yer va mas’ul saqlashda bo‘lgan shaxslar bo‘yicha inventarizatsiyadan o‘tkaziladi.

Inventarizatsiya har bir buyumni ko‘zdan kechirish yo‘li bilan o‘tkaziladi. «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxat» lariga inventar va xo‘jalik jihozlar buxgalteriya hisobida qabul qilingan nomenklaturaga muvofiq nomlari bo‘yicha kiritiladi.

Shaxsan foydalanish uchun xodimlarga berilgan inventar va xo‘jalik jihozlari inventarizatsiyadan o‘tkazilganda guruhiy «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» ni tuzishga yo‘l qo‘yiladi, ularda ana shu buyumlar uchun mas’ul bo‘lgan, ularga shaxsiy varaqchalar ochilgan shaxslar ko‘rsatilib, «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» da tilxatga imzo chektiriladi.

Yuvish va tuzatishga yuborilgan maxsus kiyim (korjoma) va sochiq-dasturxonlar «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» ga maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarining qaydnoma-yukxatlari yoki kvitantsiyalari asosida yozilishi kerak.

Yaroqsiz holga kelgan va hisobdan o‘chirilmagan inventar va xo‘jalik jihozlarga ishchi inventarizatsiya komissiyasi tomonidan belgilangan shaklda dalolatnomalar tuzilib, foydalanish vaqti, yaroqsiz bo‘lish sabablari, ushbu buyumlardan xo‘jalik maqsadlarida foydalanish imkoniyatlari ko‘rsatiladi.

Taralar inventarizatsiyasi

Tara «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati»ga turlari, maqsadli vazifasi va sifat holatiga (yangi, ishlatilgan, tuzatishni taqozo etadigan va h.k.) binoan kiritiladi.

Tekshirish oldidan bo‘sh tara turlari bo‘yicha tanlanishi kerak, ya’ni:

- yog‘och taralar (yashiklar, bochkalar);
- karton taralar;
- metall taralar (flyagalar, barabanlar);

- to‘qimachilik taralari (qoplari).

Yaroqsiz holga kelgan taralarga ishchi inventarizatsiya komissiyasi tomonidan dalolatnoma tuzilib, sabablari va tara uchun mas’ul shaxslar ko‘rsatiladi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar inventarizatsiyasi

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning haqiqatda mavjudligini aniqlash, ularning sotish sof qiymatini tasdiqlash va ularning but saqlanishini nazorat qilish maqsadida qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan vaqti-vaqti bilan, lekin yilda kamida bir marotaba o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni inventarizatsiyasi o‘tkaziladi.

Hisobot yilida o‘tkaziladigan inventarizatsiya soni, ularni o‘tkazish sanasi, tekshiriladigan mol - mulk va moliyaviy majburiyatlar ro‘yxati korxona rahbari tomonidan belgilanadi. Odatda katta yoshli mahsuldor hayvonlar, yosh hayvonlar, bo‘rdoqiga boqilayotgan hayvonlar, quyonlar, yovvoyi hayvonlar, tajriba ostidagi hayvonlar va parrandalarning haqiqiy bosh sonini inventarizatsiyasi chorakda kamida bir marta o‘tkaziladi.

Parrandalar keng hajmli kataklar, boshqariladigan mikroiqlimli derazasiz xonalarda boqiladigan, ishlab chiqarishning sanoat usullari qo‘llaniladigan qishloq xo‘jaligi korxonalarida inventarizatsiya yilda bir marta hisobot yilining 31-dekabrdagi holat bo‘yicha; asalari oilalari – bir yilda kamida ikki marta (bahorda 1-iyundan va kuzda 1-oktyabrdan kechiktirmay) o‘tkaziladi.

O‘stirishdagi yosh qoramollar, yosh nasldor otlar va ish hayvonlari «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» ga yakka tartibda kiritilib, inventar raqamlari, laqablari, jinsi, nasli va h.k.lar ko‘rsatiladi.

Boquvdagi hayvonlar, yosh cho‘chqalar, qo‘y va echkilar, parranda hamda guruh tartibida hisobga olinadigan boshqa xil hayvonlari «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» ga hisob registrlarida qabul qilingan nomenklaturaga ko‘ra kiritilib, har bir guruh bo‘yicha bosh soni va jonli vazni (og‘irligi) ko‘rsatiladi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxat» lari hayvon turlari bo‘yicha sexlar, fermalar, bo‘limlar, brigadalar bo‘yicha, hisob guruhlari va moddiy javobgar shaxslarga ajratib tuziladi.

Inventarizatsiya o‘tkazilayotganda inventarizatsiya bo‘yicha birlamchi hisob hujjatlarining namunaviy shakllari 19-son BHMS ning talablariga muvofiq qo‘llanilishi kerak. Ish hayvonlari va mahsuldor mollar, parranda va asalari oilalari, ko‘p yillik o‘simliklar, ko‘chatzorlar inventarizatsiyasi o‘tkazilganda qishloq xo‘jalik korxonalari uchun tasdiqlangan ro‘yxat shakllari qo‘llaniladi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxat» lari mexanik vositalarda yoki qo‘lda to‘ldirilishi mumkin. Qo‘lda tuziladigan «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxati» aniq-ravshan qilib to‘ldiriladi. Hech qanday o‘chirish va tuzatib yozishlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxat» lari to‘g‘ri chiziqli yozuvda foydalanish joyi, tasniflanuvchi guruhi, inventar raqamlari bo‘yicha tarkibi, obyektlarning asosiy texnik yoki foydalanish tavsifini ko‘rsatgan holda ularning to‘liq nomi (ularning foydalanish maqsadlariga muvofiq) bo‘yicha tuziladi.

«Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish ro‘yxat» larining barcha nusxalarida xatolarni tuzatish noto‘g‘ri yozuvlar ustiga chizish va chizilganlari ustiga to‘g‘ri yozuvlarni qo‘yish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Tuzatishlar ta’kidlanishi va inventarizatsiya

komissiyasining barcha a'zolari va moddiy javobgar shaxslar tomonidan imzolanishi kerak. «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxat» larida to'ldirilmagan qartorlar qoldirilishiga yo'l qo'yilmaydi va oxirgi varaqlarda to'ldirilmagan qatorlar chizib qo'yiladi. «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxat» larining oxirgi varag'ida baholarni va yakunlarni hisoblab chiqilganligini tekshirilganligi to'g'risida mazkur tekshirishlarni amalga oshirgan shaxslarning imzosi bilan belgi qo'yiladi.

Moddiy javobgar shaxslar inventarizatsiyadan keyin «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxat» larida xatolarni aniqlagan hollarda ular darhol (ombor, omborxona, sho'ba va h.k.lar ochilguniga qadar) buni ishchi inventarizatsiya komissiyasiga ma'lum qilishlari shart. Moddiy javobgar shaxslarning kamomad yoki ortiqcha chiqishi tovar-moddiy zaxiralar nomidagi xato, o'tkazib yuborish, yanglishish va h.k.lar tufayli yuz bergani xususidagi tushuntirishlari ombor, omborxona, sho'ba ochilguniga qadar qabul qilinadi. Inventarizatsiya komissiyasi ko'rsatilgan faktlarni tekshirishni amalga oshiradi va ular tasdiqlangan taqdirda aniqlangan xatolarni belgilangan tartibda tuzatadi.

Inventarizatsiya tugaganidan keyin inventarizatsiya to'g'ri o'tkazilganini nazorat tariqasida tekshirishlar o'tkazilishi mumkin. Ularni inventarizatsiya komissiyalari a'zolari va moddiy javobgar shaxslar ishtirokida albatta inventarizatsiya o'tkazilgan ombor, omborxona, tarkibiy bo'linma ombori va h.k.lar ochilishiga qadar o'tkazish kerak. Inventarizatsiyalar to'g'ri o'tkazilganini nazorat tariqasida tekshirish natijalari «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyasini to'g'ri o'tkazilganligining nazorat tekshiruvi dalolatnomasi» (20-ilovaga qarang) bilan rasmiylashtiriladi va inventarizatsiya to'g'ri o'tkazilganligini nazorat tariqasida tekshirishlarni hisobga olish daftarida ro'yxatga olinadi (21-ilovaga qarang).

«Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalari» (22-ilovaga qarang) inventarizatsiyada hisob ma'lumotlaridan tafovutlar aniqlangan tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha tuziladi. «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalari» da inventarizatsiya natijalari, ya'ni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha ko'rsatkichlar va «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxati» ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutlar aks ettiriladi.

Ortiqcha va kam chiqqan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalari» da ularning buxgalteriya hisobidagi bahosiga muvofiq keltiriladi. Inventarizatsiya natijalarini rasmiylashtirish uchun yagona registrlar qo'llanishi mumkin, ularda «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxati» va «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalari» ning ko'rsatkichlari birlashtiriladi. Korxonaga tegishli bo'lmagan, lekin buxgalteriya hisobida qayd etilgan (mas'uliyatli saqlanishda bo'lgan, qayta ishlash uchun olingan) tovar-moddiy zaxiralarga alohida «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalari» tuziladi. «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalari» hisoblash va boshqa texnika vositalaridan foydalanib, shuningdek, qo'lda tuzilishi mumkin. Ayni vaqtda komissiya bunda aybdor bo'lgan shaxslarni va u yoki bu obyektlarni konstruktiv o'zgartirish hisob registrlarida aks ettirilmaganligining sabablarini aniqlashi shart.

«Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish ro'yxati» va «Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalari» buxgalteriyaga topshiriladi va bu yerda ularning rasmiylashtirilishi va hisob-kitoblari tekshiriladi. Keyin markaziy

inventarizatsiya komissiya tovar-moddiy zaxiralarning inventarizatsiya natijalarini solishtirish qaydnomalari ma'lumotlari bo'yicha hisob ma'lumotlaridan tafovutlar bo'yicha kerakli qarorlarni qabul qiladi va mazkur qarorlar korxona bo'yicha inventarizatsiya natijalari to'g'risidagi buyruq bilan tasdiqlanib qo'yiladi. Aniqlangan tafovutlar bo'yicha inventarizatsiya komissiyasi tovar-moddiy zaxiralarning kamomadi va boshqa yo'qotishlar faktlari ogohlantirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqadi va ularni tasdiqlash uchun markaziy inventarizatsiya komissiyaga taqdim etadi.

Inventarizatsiya vaqtida aniqlangan tovar-moddiy zaxiralarning haqiqatda mavjudligi bilan buxgalteriya hisobi ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutlarni tartibga solish to'g'risidagi takliflar ko'rib chiqish uchun korxona rahbariga taqdim etiladi. Qoplashga qabul qilish to'g'risidagi oxirgi qarorni korxona rahbari tomonidan qabul qilinadi.

Inventarizatsiya natijalari inventarizatsiya tugagan oydagi hisob va hisobotda, yillik inventarizatsiya esa yillik moliyaviy hisobotda aks ettirilishi kerak.

Inventarizatsiyada aniqlangan ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarni baholash ular aniqlangan sanadagi joriy qiymatdan kelib chiqqan holda belgilanadi va bu to'g'risidagi ma'lumotlar tegishli dalolatnomalar bilan rasmiylashtirilishi kerak.

Inventarizatsiyada aniqlangan ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarning qiymatini kirim qilish boshqa operatsion daromadlar sifatida 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyotida aks ettiriladi.

Inventarizatsiyada aniqlangan ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarning qiymatini kirim qilish tartibini quyidagi misolda ko'rib o'tamiz. Ombordagi tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyasini o'tkazildi va inventarizatsiya natijasida ortiqcha (hisobga olinmagan) 60 dona ehtiyot qismlarning mavjudligi aniqlandi. Ehtiyot qismlarning har bir birligi (donasi) ning joriy qiymati – 25 000 so'm.

Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ehtiyot qismlarning kirim qilinishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti 1 500 000 so'm;

kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 1 500 000 so'm.

Kamomadi inventarizatsiya vaqtida aniqlangan yetishmaydigan tovar-moddiy zaxiralarning balans qiymati aybdor shaxslar aniqlanishiga qadar 5910 «Kamomad va qiymatliklarning buzilishidan yo'qotishlar» schyotida aks ettiriladi.

Inventarizatsiya natijasida aniqlangan tovar-moddiy zaxiralar kamomadi summasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda tabiiy yo'qolish me'yorlari chegarasida, shuningdek kamomadning aniq aybdorlari aniqlanmagan yoki moddiy javobgar shaxslardan undirish imkoniyati bo'lmagan hollarda, uni moliya-xo'jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarish to'g'risidagi qaror qabul qilingan hisobot davridagi moliya-xo'jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Aniq aybdor shaxslar aniqlangan hollarda inventarizatsiya natijasida topilgan tovar-moddiy zaxiralarining kamomadi summasi moddiy javobgar shaxs yoki aybdordan undiriladi. Inventarizatsiya natijasida aniqlangan tovar-moddiy zaxiralarning kamomadi va buzilishi (shikastlanishi) natijasida yo'qotishlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini mazkur bobning «8.8. Tovar-moddiy zaxiralar kamomadi yoki yo'qotilishi aniqlanganda balansdan chiqarilishi» qismida ko'rib o'tamiz.

8-§. Tovar-moddiy zaxiralarini chiqib ketishi

8.1. Tovar-moddiy zaxiralarining chiqib ketishining umumiy masalalari

Chiqib ketayotgan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati chiqib ketish fakti aniqlangan paytda balans hisobidan chiqariladi. Tovar-moddiy zaxiralar korxonaning balansidan:

- realizatsiya qilish;
- boshqa korxonaning ustav kapitaliga ta'sis ulushi ko'rinishida berish;
- ta'sischining ta'sischilar tarkibidan chiqishida yoki tugatilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning mol-mulkini uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlayotganda ilgari korxonaning ustav kapitaliga kiritilgan ulushni ta'sischiga qaytarish;
- tekin berish;
- ayirboshlash;
- saqlash muddati tugagach yaroqsizligi sababli, jismonan va ma'nan eskirganligi natijasida tugatish (yo'q qilish);
- kamomad, yo'qotish yoki shikastlanish (sinish, bo'linish) aniqlanishi;
- tovar qarzi ko'rinishida taqdim etish yoki ilgari olingan tovar qarzini qaytarish;
- boshqa operatsiyalar va hodisalar natijasida hisobdan chiqariladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketishidan moliyaviy natija (foyda yoki zarar) ularning chiqib ketishidan olingan daromaddan ularning balans qiymati va chiqib ketishi bilan bog'liq bilvosita soliqlarni chegirish orqali aniqlanadi.

Chiqib ketayotgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi xarajat sifatida ular bilan bog'liq daromad olingan hisobot davrida tan olinadi.

Chiqib ketish munosabati bilan tovar-moddiy zaxiralarni istalgan hisobdan chiqarish summasi va ularga doir barcha zararlar hisobdan chiqarish yuz bergan yoki zarar yetkazilgan hisobot davri mobaynida xarajat sifatida hisobga olinishi kerak. Realizatsiya qilishning sof qiymatini oshirish natijasida yuzaga keladigan, ilgari hisobdan chiqarilgan tovar-moddiy zaxiralarning qiymatini tiklash summasi oshish yuz bergan hisobot davrida xarajat sifatida tan olingan, chiqib ketgan (shu jumladan, realizatsiya qilingan) tovar-moddiy zaxiralar tannarxining pasayishi sifatida tan olinadi.

8.2. Chiqib ketayotgan tovar-moddiy zaxiralar qiymatini aniqlash usullari

Tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlari va chiqib ketayotgan (shuningdek ishlab chiqarishga berilgan) tovar-moddiy zaxiralar qiymatini aniqlash quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi:

- tegishli birlikning identifikatsiyalangan tannarxi bo'yicha;
- o'rtacha tortilgan qiymat bo'yicha (AVECO);
- tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilingan vaqt bo'yicha dastlabki zaxiralar tannarxi bo'yicha (FIFO).

Tovar-moddiy zaxiralarning har bir guruhi (turi) bo'yicha hisobot yili mobaynida qiymatni aniqlashning faqat bir usuli qo'llanadi. Tovar-moddiy zaxiralarning guruhi (turi) bo'yicha qiymatni aniqlash usullaridan birini qo'llash hisob siyosatini qo'llash ketma-ketligiga yo'l qo'yishdan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Korxona tomonidan alohida tartibda foydalaniladigan (qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar va h.k.) va bir-birining o'rnini bosmaydigan (ya'ni ular odatdagi holda bir-birini

almashtira olmaydi), shuningdek maxsus loyihalar uchun ishlab chiqarilgan va mo‘ljallangan (ishlatiladigan) tovar-moddiy zaxiralar tegishli birlikning identifikatsiyalangan tannarxi usuli bo‘yicha baholanadi.

Ushbu usulda spetsifik xarajatlar muayyan tovar-moddiy zaxiralarga taalluqli bo‘ladi. Aks ettirishning ushbu usuli, ular sotib olinganligi yoki ishlab chiqarilganligidan qat’i nazar, maxsus loyihalar uchun mo‘ljallangan mahsulotlarga to‘g‘ri keladi.

O‘rtacha tortilgan qiymat bo‘yicha (AVECO) usuli bo‘yicha tovar-moddiy zaxiralar har bir birligining qiymati davr boshida aynan bir xil birliklarning o‘rtacha tortilgan qiymati va davr mobaynida xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan aynan bir xil birliklarning qiymatidan kelib chiqib aniqlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralar har bir birligi qiymatini o‘rtacha tortilgan qiymat bo‘yicha (AVECO) usuli bo‘yicha aniqlash tegishincha davr boshidagi tovar-moddiy zaxiralar qoldig‘ining tannarxi va miqdori hamda ushbu davr mobaynida kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi va miqdoridan shakllanadigan, aynan bir xil birliklarning umumiy tannarxini ularning umumiy miqdoriga bo‘lish yo‘li bilan amalga oshiriladi. O‘rtacha qiymat korxona tomonidan tanlangan usulga qarab davriy yoki tovar-moddiy zaxiralarning har bir yangi partiyasi kelib tushishiga ko‘ra hisoblab chiqarilishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilingan vaqt bo‘yicha dastlabki zaxiralar tannarxi bo‘yicha (FIFO) usuli bo‘yicha tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketayotgan birliklari tannarxiga birinchi navbatda xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan zaxiralarning qiymati kiradi, davr oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar qiymati esa oxirgi bo‘lib xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan zaxiralar birliklarining umumiy qiymatidan tashkil topadi.

Buxgalteriya hisobining halqaro amaliyotida, masalan Buyuk Britaniyada tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilingan vaqt bo‘yicha oxirgi zaxiralar tannarxi (LIFO) usuli bo‘yicha ham baholanadi. O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi me’yoriy hujjatlarda tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilingan vaqt bo‘yicha oxirgi zaxiralar tannarxi (LIFO) usulini qo‘llash nazarda tutilmagan. Ushbu usullarni qo‘llanilishi tartibi foydalanuvchilar uchun ma’lumot tariqasida keltirilmoqda.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilingan vaqt bo‘yicha oxirgi zaxiralar tannarxi usuli (LIFO – oxirgi kelib tushgan – birinchi sotilgan) bo‘yicha – oxirda xarid qilingan tovarlarni tannarxi birinchi navbatda sotilgan tovarlar qiymatini aniqlashda foydalaniladi, hisobot davri oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar tannarxi esa birinchi xarid qilingan tovarlar tannarxi asosida hisob-kitob qilinadi degan tasavvurga asoslanadi.

Hisobot davri oxirida tovar-moddiy zaxiralar baholash ularning chiqib ketishida tovar-moddiy zaxiralar baholashning qabul qilingan usuliga bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Hisobot davri oxirida tovar-moddiy zaxiralar qiymatini aniqlash ularning chiqib ketishida tovar-moddiy zaxiralar qiymatini aniqlashning qabul qilingan usuliga bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarning qoldiqlari va chiqib ketayotgan (shuningdek ishlab chiqarishga berilgan) larini qiymatini yuqorida sanab o‘tilgan usullarni qo‘llagan holda aniqlash tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. Omborda material mavjud. Quyidagi jadvalda oy davomida xarid qilingan material to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Oy davomida xarid qilingan material to‘g‘risida ma’lumotlar

Xarid qilish sanasi	Miqdori, metr	Bir litrning qiymati, so‘mda	Umumiy qiymati
6 mayda	5 000	2 000	10 000 000
14 mayda	6 000	1 800	10 800 000
22 mayda	4 000	2 200	8 800 000
29 mayda	3 000	2 300	6 900 000
Jami:	**18 000**		**36 500 000**

Oy davomida xizmat ko‘rsatish jarayoniga 17 400 metr material berilgan. Oy oxirida omborda 600 metr material qolgan.

Xizmat ko‘rsatish jarayoniga berilgan va omborda qolgan materiallarning tannarxi aniqlaymiz.

O‘rtacha tortilgan qiymat bo‘yicha (AVECO) usuli qo‘llanganda

Birinchi navbatda oy davomida xarid qilingan materiallarning har bir birligi (metri) ning o‘rtacha qiymatini aniqlaymiz. Jadvaldan ko‘rinib turibdiki materiallarning umumiy qiymati - 36 500 000 so‘m va materiallarning umumiy miqdori (metr) - 18 000 metr. Materiallarning har bir birligi (metri) ning o‘rtacha qiymati quyidagiga teng 2 027,77 so‘m = 36 500 000 so‘m / 18 000 metr.

Ishlab chiqarish jarayoniga berilgan materiallarning tannarxi **35 283 200 so‘mga teng**:

35 283 720 so‘m = 17 400 x 2 027,77.

Omborda qolgan materiallarning tannarxi **1 216 680 so‘mga teng**:

1 216 800 so‘m = 600 x 2 027,77.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilingan vaqt bo‘yicha dastlabki zaxiralar tannarxi bo‘yicha (FIFO) usuli qo‘llanganda.

Ishlab chiqarish jarayoniga berilgan materiallarning tannarxi **35 120 000 so‘mga teng**:

(5 000 x 2 000) + (6 000 x 1 800) + (4 000 x 2 200) + (2 400 x 2 300) = = 10 000 000 + 10 800 000 + 8 800 000 + 5 520 000.

Omborda qolgan materiallarning tannarxi **1 380 000 so‘mga teng**:

1 380 000 so‘m = 600 x 2 300.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilingan vaqt bo‘yicha, oxirgi zaxiralar tannarxi bo‘yicha (LIFO) usuli qo‘llanganda.

Ishlab chiqarish jarayoniga berilgan materiallarning tannarxi **35 300 000 so‘mga teng**:

(3 000 x 2 300) + (4 000 x 2 200) + (6 000 x 1 800) + (4 400 x 2 000) = = 6 900 000 + 8 800 000 + 10 800 000 + 8 800 000.

Omborda qolgan materillarning tannarxi **1 200 000 so‘mga teng**:

1 200 000 so‘m = 600 x 2 000.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan usullarni o‘zaro taqqoslash

Ko‘rsatkichlar nomi	FIFO	AVECO	LIFO
Ishlab chiqarish jarayoniga berilgan materiallarning tannarxi	35 120 000	35 283 200	35 300 000
Hisobot davri oxiridagi dizel yoqilg‘isi	1 380 000	1 216 680	1 200 000

Tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketishida ularning qiymatini aniqlashning qo‘llanadigan usuli korxonaning hisob siyosatida 1-son BHMS da belgilangan tartibda aks ettirilishi lozim.

8***.3. Tovar-moddiy zaxiralarning sotilishi natijasida balansdan chiqarilishi***

Korxonalarda sotishda obyekt sifatida tovar-moddiy zaxiralar ***I. Asosiy faoliyat natijasi – tayyor mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmat ko‘rsatish*** va ***II. Asosiy faoliyat natijasi bo‘lmagan – korxonada foydalanishga zarurat bo‘lmagan inventar va xo‘jalik jihozlari, ehtiyot qismlar va boshqa materiallar*** ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni sotishning moliyaviy natijasi (foyda yoki zarari) tovar-moddiy zaxiralarini sotishdan tushgan tushum bilan uning balans qiymati o‘rtasidagi farq sifatida, bilvosita soliqlar (qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini) va sotish xarajatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni ***I. Asosiy faoliyat natijasi – tayyor mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish*** va ***II. Asosiy faoliyat natijasi bo‘lmagan – korxonada foydalanishga zarurat bo‘lmagan inventar va xo‘jalik jihozlari, ehtiyot qismlar va boshqa materiallar*** ko‘rinishida sotilishidan kelib chiqib ko‘rib chiqamiz.

1.1. Tovar-moddiy zaxiralarni asosiy faoliyat natijasi - tayyor mahsulotlarni sotilishi natijasida balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- tayyor mahsulotlar bo‘yicha xaridorlardan bo‘nak (avans) olinganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;

kredit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti;

- tayyor mahsulotlarni sotish qiymati summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti;

kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti;

- sotilgan tayyor mahsulotlar bo‘yicha hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti;

kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)»;

- sotilgan tayyor mahsulotlarni balans qiymati (tannarxi) hisobdan chiqarilganda:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti;

kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti;

- sotilgan tayyor mahsulotlarni korxona (sotuvchi) hisobidan yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar:

debet 9410 «Sotish xarajatlari» schyoti;

kredit 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti;

kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti;

kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti;

kredit 6520 «Maqsadli daval jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti va boshqa majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar;

- tayyor mahsulotlar bo‘yicha xaridorlardan olingan bo‘nak (avans) qoplashga qabul qilinganda:

debet 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti;

kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti;

- sotilgan tayyor mahsulotlar bo‘yicha oxirgi hisob-kitob amalga oshirilganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;

kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti;

- qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i bo‘yicha qarz summasi byudjetga o‘tkazib berilganda:

debet 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;

- tayyor mahsulot sotishdan daromadlar schyotlarini yopilishi:

debet 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti;

kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

- sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi schyotini yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

kredit 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti;

- davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

kredit 9410 «Sotish xarajatlari» schyoti.

Har bir hisobot davri oxirida 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotining debeti va krediti bo‘yicha aylanmalari yig‘iladi hamda hisobot davrining yakuniy moliyaviy natijanisini ifodalovchi ushbu schyot bo‘yicha umumiy qoldiq hisoblab chiqariladi.

Hisobot davri yakuni bo‘yicha yillik moliyaviy hisobot tuzishda 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 8710 «Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

- moliyaviy natija, ya’ni foyda:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»;

- moliyaviy natija, ya’ni zarar:

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»;

kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti.

Tayyor masulotlarni eksport qilinishi bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

1.2. Tovar-moddiy zaxiralarni asosiy faoliyat natijasi - xizmat ko‘rsatish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

1.2.1. Naqd pulga (xizmat ko‘rsatilgan vaqtda pul to‘langanda) xizmat ko‘rsatish:

- xizmat ko‘rsatishdan daromadlar summasiga:

debet 5010 «Milliy valyutadashgi pul mablag‘lari» schyoti;

kredit 9030 «Ish bajarish va xizmat ko‘rsatishdan daromadlar» schyoti;

- ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:

debet 5010 «Milliy valyutadashgi pul mablag‘lari» schyoti;

kredit 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti;

- ko‘rsatilgan xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxi hisobdan chiqarilganda:

debet 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi» schyoti;

kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti;

- ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha tushgan naqd pul bankka topshirilib hisob-kitob schyotiga kirim qilinganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;

kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti;

- qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha qarz summasi byudjetga o‘tkazib berilganda:

debet 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;

- xizmat ko‘rsatishdan daromadlar schyotlarini yopilishi:

debet 9030 «Ish bajarish va xizmat ko‘rsatishdan daromadlar» schyoti;

kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

- ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi schyotini yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

kredit 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi» schyoti;

- moliyaviy natija, ya’ni foyda:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»;

- moliyaviy natija, ya’ni zarar:

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»;

kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti.

1.2.2. Pul o‘tkazish yo‘li haq to‘langanda (naqd pulsiz) xizmat ko‘rsatish:

- xizmat ko‘rsatish bo‘yicha buyurtmachilardan bo‘nak (avans) olinganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;

kredit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti;

- xizmat ko‘rsatishdan daromadlar summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti;

kredit 9030 «Ish bajarish va xizmat ko‘rsatishdan daromadlar» schyoti;

- ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti;

kredit 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti;

- ko‘rsatilgan xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxi hisobdan chiqarilganda:

debet 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi» schyoti;

kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti;

- ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha buyurtmachilardan olingan bo‘nak (avans) qoplashga qabul qilinganda:

debet 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti;

kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti;

- ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha oxirgi hisob-kitob amalga oshirilganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;

kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti;

- qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha qarz summasi byudjetga o‘tkazib berilganda:

debet 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;
- xizmat ko‘rsatishdan daromadlar schyotlarini yopilishi:
debet 9030 «Ish bajarish va xizmat ko‘rsatishdan daromadlar» schyoti;
kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;
- ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi schyotini yopilishi:
debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;
kredit 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi» schyoti;
- moliyaviy natija, ya’ni foyda:
debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;
kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»;
- moliyaviy natija, ya’ni zarar:
debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)»;
kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti.

II. ***Tovar-moddiy zaxiralarni asosiy faoliyat natijasi bo‘lmagan – korxonada foydalanishga zarurat bo‘lmagan inventar va xo‘jalik jihozlari, ehtiyot qismlar va boshqa materiallar ko‘rinishida sotilishi natijasida balansdan chiqarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz.*** Inventarizatsiya natijalarini tahlili natijasida korxonada foydalanishga zarurat bo‘lmagan tovar-moddiy zaxiralar (ehtiyot qismlar, inventar va xo‘jalik jihozlari, plastmassa taralar) mavjudligini aniqlangan va ularni 345 000 000 so‘mga (qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan) sotish bo‘yicha shartnoma imzolangan.

Sotilgan tovar-moddiy zaxiralarning balans qiymati: ehtiyot qismlar - 220 000 000 so‘m, inventar va xo‘jalik jihozlari – 30 000 000 so‘m, plastmassa taralar – 40 000 000 so‘mni tashkil etadi. SHartnoma shartiga muvofiq tovar-moddiy zaxiralarni korxonaning transport bo‘linmasi tomonidan yetkazib beriladi. Tovar-moddiy zaxiralarni yetkazib berish bilan bog‘liq ko‘rsatilgan transport xizmatlari 300 000 so‘m.

Tovar-moddiy zaxiralarni sotilishi natijasida balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- tovar-moddiy zaxiralarni sotish qiymati summasiga:
debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *345 000 000 so‘m;*
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *345 000 000 so‘m;*
- sotilgan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:
debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *45 000 000 so‘m;*
kredit scheti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» *45 000 000 so‘m;*
(45 000 000 so‘m = 345 000 000 so‘m / 115 x 15);
- sotilgan tovar-moddiy zaxiralarning balans qiymati hisobdan chiqarilganda:
debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *290 000 000 so‘m;*
kredit 1030 «Ehtiyot qismlar» schyoti *220 000 000 so‘m;*
kredit 1060 «Tara va tarabop materiallari» schyoti *40 000 000 so‘m;*
kredit 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti *30 000 000 so‘m;*
- sotilgan tovar-moddiy zaxiralarni yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti *300 000 so‘m;*
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti *300 000 sum;*
- sotilgan tovar-moddiy zaxiralarni chiqib ketishidan foyda summasiga:
debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti *9 700 000 so‘m;*
kredit 9320 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan
foyda» schyoti *9 700 000 so‘m.*

8.4. Ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida tovar-moddiy zaxiralar berilganda balansdan chiqarilishi

Tovar-moddiy zaxiralar boshqa korxonaning ustav kapitaliga ta’sischiinng ulushi sifatida ta’sis hujjatlariga asosan beriladi. Tovar-moddiy zaxiralarni ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida kiritayotgan korxonaning balansidan balans qiymati bo‘yicha hisobdan chiqariladi.

Shuningdek, korxonalar boshqa korxonaning ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida tovar-moddiy zaxiralarni qonunchilikda belgilangan tartibda balans qiymatidan farq qiladigan boshqa qiymatda kiritishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralarni ustav kapitaliga ta’sischining ulush sifatida berishdan moliyaviy natija (foyda yoki zarar), ta’sis hujjatlari yoki boshqa qonunchilikda belgilangan tartibga muvofiq baholangan qiymat bilan berilayotgan tovar-moddiy zaxiralarning balans qiymati o‘rtasidagi farq sifatida bilvosita soliqlar (qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i) va tovar-moddiy zaxiralarni ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida berish xarajatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida tovar-moddiy zaxiralarni ***I. Asosiy faoliyat natijasi – tayyor mahsulot sotish va xizmat ko‘rsatish*** va ***II. Asosiy faoliyat natijasi bo‘lmagan – korxonada foydalanishga zarurat bo‘lmagan inventar va xo‘jalik jihozlari, ehtiyot qismlar va boshqa materiallar*** ko‘rinishida berilishidan kelib chiqib ko‘rib chiqamiz.

I. ***Ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida asosiy faoliyat natijasi – tayyor mahsulot sotilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz.*** Yangi tashkil etilgan MCHJ ning ta’sischilari tarkibiga kirildi. Korxonaning MCHJ ni ustav kapitalidagi ulushi 115 000 000 so‘mni tashkil etadi. Ta’sischilarning qaroriga muvofiq korxona ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida tayyor mahsulot (qiymatiga nisbatan hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qo‘shgan holda) kiritadi. Ustav kapitalidagi ta’sischining ulushi sifatida MCHJ ga 115 000 000 so‘mlik (qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan) tayyor mahsulot yetkazib bergan. Bunda tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi 90 000 000 so‘mni tashkil etadi.

Yetkazib berilgan tayyor mahsulotni ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida kiritilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- yetkazib berilgan tayyor mahsulot qiymatini ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida ta’sis shartnomasi yoki qonunchilikga muvofiq boshqa hujjatlar bilan aniqlangan qiymatda berilishi:

debet 0690 «Boshqa uzoq muddatli
investitsiyalar» schyoti *115 000 000 so‘m;*
kredit scheti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha)» *15 000 000 so‘m;*
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan
daromadlar» schyoti *100 000 000 so‘m;*
(15 000 000 so‘m = 90 000 000 so‘m / 115 x 15);

(100 000 000 so‘m = 115 000 000 so‘m – 15 000 000 so‘m);

- ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida kiritilgan tayyor mahsulotlarlarning ishlab chiqarish tannarxi hisobdan chiqarilganda:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti *90 000 000 so‘m;*
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti *90 000 000 so‘m;*

- tayyor mahsulotni sotishdan daromadlar schyotalarini yopilishi:

debet 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti *100 000 000 so‘m;*
kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti *100 000 000 so‘m;*

- sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi schyotini yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti *90 000 000 so‘m;*
kredit 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti *90 000 000 so‘m;*

Mazkur holatda moliyaviy natija 10 000 000 so‘m foydani tashkil etadi va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi.

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti *10 000 000 so‘m;*
kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» *10 000 000 so‘m.*

II. ***Ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida tovar-moddiy zaxiralar bilan asosiy faoliyat natijasi bo‘lmagan – korxonada foydalanishga zarurat bo‘lmagan inventar va xo‘jalik jihozlari, ehtiyot qismlar va boshqa materiallar ko‘rinishida berilganda ularni balansdan chiqarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz.*** Yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatining ta’sischilari tarkibiga kirildi. Korxonaning MCHJ ni ustav kapitalidagi ulushi 34 500 000 so‘mni tashkil etadi. Ta’sischilarning qaroriga muvofiq korxona ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida 34 500 000 so‘mlik tovar-moddiy zaxiralarni (qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi qo‘shgan holda) kiritadi. Bunda berilayotgan tovar-moddiy zaxiralarni balans qiymati: ehtiyot qismlar - 22 000 000 so‘m, inventar va xo‘jalik jihozlari – 6 000 000 so‘m, plastmassa taralar – 4 000 000 so‘mni tashkil etadi. SHartnoma shartiga muvofiq tovar-moddiy zaxiralarni korxonaga yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar MCHJ tomonidan amalga oshiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida berilishi natijasida balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- tovar-moddiy zaxiralarni ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida ta’sis shartnomasi yoki qonunchilikga muvofiq boshqa hujjatlar bilan aniqlangan qiymatda berilishi:

debet 0690 «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» schyoti *34 500 000 so‘m;*
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *34 500 000 so‘m;*

- ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida berilgan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *4 500 000 so‘m;*
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» *4 500 000 so‘m;*

(4 500 000 so‘m = 34 500 000 so‘m / 115 x 15);

- ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida berilgan tovar-moddiy zaxiralarning balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *32 000 000 so‘m;*
kredit 1030 «Ehtiyot qismlar» schyoti *22 000 000 so‘m;*
kredit 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *6 000 000 so‘m;*
kredit 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti *4 000 000 so‘m;*

- ustav kapitaliga ta’sischining ulushi sifatida tovar-moddiy zaxiralarni berishdan zarar summasiga:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti *2 000 000 so‘m;*
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *2 000 000 so‘m.*

8.5. Ta’sischi ta’sischilar tarkibidan chiqib ketganda tovar-moddiy zaxiralar bilan hisob-kitob qilinishi natijasida tovar-moddiy zaxiralarni balansdan chiqarilishi

O‘zbekiston Respublikasining «Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida» gi Qonunining 22-moddasiga muvofiq jamiyatdan chiqarib yuborilayotgan yoki chiqib ketayotgan ishtirokchiga chiqarish yoki chiqib ketish kunidan oldingi oxirgi hisobot davri uchun jamiyatning buxgalteriya hisobotlari ma’lumotlari asosida aniqlanadigan haqiqiy qiymatini to‘lashi yoki chiqarib yuborilayotgan yoki chiqib ketayotgan ishtirokchining roziligi bilan unga xuddi shunday qiymatdagi mol-mulkni asli holida berishi shart.

Ta’sischilar tarkibidan chiqib ketayotgan ta’sischiga tovar-moddiy zaxiralarni berish, ta’sischilar yig‘ilishi qaroriga asosan yoki ta’sis hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Ta’sischilar tarkibidan ta’sischining chiqib ketishida tovar-moddiy zaxiralar bilan hisob-kitob qilinganda, korxonaning balansidan tovar-moddiy zaxiralar balans qiymati bo‘yicha hisobdan chiqariladi.

Ta’sischi ta’sischilar tarkibidan chiqib ketganda tovar-moddiy zaxiralar bilan hisob-kitob qilinishi natijasida tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketishidan moliyaviy natija (foyda yoki zarar), chiqib ketayotgan ta’sischining ulushi bo‘yicha qarzni hisob-kitob qilish uchun berilayotgan tovar-moddiy zaxiralarning berish qiymati bilan chiqib ketayotgan tovar-moddiy zaxiralarning balans qiymati o‘rtasidagi farq sifatida, bilvosita soliqlar (qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i) va tovar-moddiy zaxiralarni chiqib ketishi bilan bog‘liq xarajatlar summasini hisobga olgan holda, aniqlanadi.

Berilayotgan tovar-moddiy zaxiralarning qiymati chiqib ketayotgan ta’sischining ulushi bo‘yicha qarzidan yuqori bo‘lgan hollarda, farq chiqib ketayotgan ta’sischi tomonidan qoplanadi.

Chiqib ketayotgan ta’sischining ulushi bo‘yicha qarzi berilayotgan tovar-moddiy zaxiralarning qiymatidan yuqori bo‘lgan hollarda, farq berayotgan korxona tomonidan qoplanadi.

Ta’sischi ta’sischilar tarkibidan chiqib ketganda tovar-moddiy zaxiralarni ***I. Asosiy faoliyat natijasi – tayyor mahsulot yetkazib berish (ish bajarish va xizmat ko‘rsatish)*** va ***II. Asosiy faoliyat natijasi bo‘lmagan – korxonada foydalanishga zarurat bo‘lmagan inventar va xo‘jalik jihozlari, ehtiyot qismlar va boshqa materiallar*** bilan amalga oshirilishidan kelib chiqib ko‘rib chiqamiz.

I. Ta’sischi ta’sischilar tarkibidan chiqib ketganda hisob-kitob qilinishi asosiy faoliyat natijasi – tayyor mahsulot yetkazib berish (ish bajarish va xizmat ko‘rsatish) bilan amalga oshirilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz.

Aksiyador tomonidan aksiyadorlik jamiyatiga 115 000 000 so‘m bo‘lgan oddiy aksiyalarni sotib olish uchun taqdim etilgan. Jamiyat aksiyadorlarining qaroriga muvofiq aksiyador tomonidan taqdim etilgan oddiy aksiyalar, ya’ni sotib olingan xususiy aksiyalar qiymatini to‘lash tayyor mahsulot yetkazib berish bilan bilan amalga oshiriladi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 8610 «Sotib olingan xususiy
aksiyalar - oddiy» schyoti 115 000 000 so‘m;
kredit 6620 «CHiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari
bo‘yicha qarz» schyoti 115 000 000 so‘m.

Uchta holatni (sotib olingan xususiy aksiyalar qiymatini to‘lash uchun ko‘rsatilayotgan xizmatlar qiymatidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Jamiyat sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun aksiyadorga qiymati 115 000 000 so‘m bo‘lgan (qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan) tayyor mahsulot yetkazib bergan. Bunda yetkazib berilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi 105 000 000 so‘mni tashkil etadi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni tayyor mahsulot yetkazib berish bilan hisob- kitob qilinishi jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun tayyor mahsulot yetkazib berilganda (qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan):

debet 6620 «Chiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari
bo‘yicha qarz» schyoti 115 000 000 so‘m;
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha)» 15 000 000 so‘m;
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan
daromadlar» schyoti 100 000 000 so‘m;

(15 000 000 so‘m = 115 000 000 so‘m / 115 x 15);

(100 000 000 so‘m = 115 000 000 so‘m – 15 000 000 so‘m);

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun yetkazib berilgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxi hisobdan chiqarilganda:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning
tannarxi» schyoti 105 000 000 so‘m;
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti 105 000 000 so‘m;

- tayyor mahsulotni sotishdan daromadlar schyotalarini yopilishi:

debet 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan
daromadlar» schyoti 100 000 000 so‘m;
kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 100 000 000 so‘m;

- sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi schyotini yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 105 000 000 so‘m;
kredit 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning
tannarxi» schyoti 105 000 000 so‘m;

Mazkur holatda moliyaviy natija 5 000 000 so‘m zararni tashkil etadi va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi.

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi
(qoplanmagan zarari)» 5 000 000 so‘m;

kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 5 000 000 so‘m.

2-holat:

Jamiyat sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun aksiyadorga qiymati 92 000 000 so‘m bo‘lgan (qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan) tayyor mahsulot yetkazib bergan. Kelishuvga muvofiq 13 000 000 so‘m farq summasi jamiyat tomonidan pul mablag‘lari bilan qoplab berilishi kerak. Bunda yetkazib berilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi 75 000 000 so‘mni tashkil etadi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni tayyor mahsulot yetkazib berish bilan hisob - kitob qilinishi jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun tayyor mahsulot yetkazib berilganda (qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan):

debet 6620 «Chiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari bo‘yicha qarz» schyoti 92 000 000 so‘m;
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» 12 000 000 so‘m;
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti 80 000 000 so‘m;

(12 000 000 so‘m = 92 000 000 so‘m / 115 x 15);

(80 000 000 so‘m = 92 000 000 so‘m – 12 000 000 so‘m);

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun yetkazib berilgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxi hisobdan chiqarilganda:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti 75 000 000 so‘m;
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti 75 000 000 so‘m;

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlar summasini mazkur qarzlarni hisob-kitob qilish uchun yetkazib berilgan tayyor mahsulotlar qiymatidan oshgan qismini hisob-kitob schyotidan pul mablag‘lari bilan qoplanganda:

debet 6620 «Chiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari bo‘yicha qarz» schyoti 13 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 13 000 000 so‘m;

- tayyor mahsulotni sotishdan daromadlar schyotalarini yopilishi:

debet 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti 80 000 000 so‘m;
kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 80 000 000 so‘m;

- sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi schyotini yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 75 000 000 so‘m;
kredit 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti 75 000 000 so‘m.

Mazkur holatda moliyaviy natija 5 000 000 so‘m foydani tashkil etadi va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi.

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 5 500 000 so‘m;
kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» 5 000 000 so‘m.

3-holat:

Jamiyat sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun

aksiyadorga qiymati 138 000 000 so‘m bo‘lgan (qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan) tayyor mahsulot yetkazib bergan. Kelishuvga muvofiq 23 000 000 so‘m farq summasi aksiyador tomonidan pul mablag‘lari bilan qoplab berilishi kerak. Bunda yetkazib berilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi 105 000 000 so‘mni tashkil etadi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni tayyor mahsulot yetkazib berish bilan hisob- kitob qilinishi jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun tayyor mahsulot yetkazib berilganda (qo‘shilgan qiymat solig‘i bilan):

debet 6620 «Chiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari bo‘yicha qarz» schyoti 115 000 000 so‘m;
debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 23 000 000 so‘m;
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» 18 000 000 so‘m;
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti 120 000 000 so‘m;

(18 000 000 so‘m = 138 000 000 so‘m / 115 x 15);

(120 000 000 so‘m = 138 000 000 so‘m – 18 000 000 so‘m);

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun yetkazib berilgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxi hisobdan chiqarilganda:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti 105 000 000 so‘m;
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti 105 000 000 so‘m;

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun yetkazib berilgan tayyor mahsulotlar qiymatini sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlar summasidan oshgan qismini qoplash uchun aksiyador tomonidan hisob-kitob schyotiga pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 23 000 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 23 000 000 so‘m;

- tayyor mahsulotni sotishdan daromadlar schyotalarini yopilishi:

debet 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti 120 000 000 so‘m;
kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 120 000 000 so‘m;

- sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi schyotini yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 105 000 000 so‘m;
kredit 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti 105 000 000 so‘m.

Mazkur holatda moliyaviy natija 5 000 000 so‘m foydani tashkil etadi va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi.

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 15 000 000 so‘m.
kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» 15 000 000 so‘m.

II. Ta’sischi ta’sischilar tarkibidan chiqib ketganda tovar-moddiy zaxiralar bilan hisob-kitob qilinishi asosiy faoliyat natijasi bo‘lmagan – korxonada foydalanishga zarurat bo‘lmagan

inventar va xo‘jalik jihozlari, ehtiyot qismlar va boshqa materiallar bilan amalga oshirilishi natijasida ularni balansdan chiqarilishi buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Aksiyador tomonidan korxonaga 34 500 000 so‘m bo‘lgan oddiy aksiyalarni sotib olish uchun taqdim etilgan. Korxona aksiyadorlarining qaroriga muvofiq aksiyador tomonidan taqdim etilgan oddiy aksiyalar, ya’ni sotib olingan xususiy aksiyalar qiymatini to‘lash tovar-moddiy zaxiralar bilan ehtiyot qismlar, inventar va xo‘jalik jihozlari, plastmassa taralari va ularning qiymatiga nisbatan hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi ko‘rinishida amalga oshiriladi. Tovar-moddiy zaxiralarni yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar aksiyador tomonidan amalga oshirilgan.

Mazkur misolda korxona sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni tovar-moddiy zaxiralar bilan hisob- kitob qilinishi natijasida foyda ham, zarar ham ko‘rmaydi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati:

debet 8610 «Sotib olingan xususiy
aksiyalar - oddiy» schyoti *34 500 000 so‘m;*
kredit 6620 «CHiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari
bo‘yicha qarz» schyoti *34 500 000 so‘m.*

Ikkita holatni (sotib olingan xususiy aksiyalar qiymatini to‘lash uchun berilayotgan tovar-moddiy zaxiralarni qiymatidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Korxona sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni to‘lashni tovar-moddiy zaxiralar bilan qiymati 15 000 000 so‘m bo‘lgan ehtiyot qismlarni, qiymati 2 000 000 so‘m bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlari va qiymati 8 000 000 so‘m bo‘lgan plastmassa taralar va ularning qiymatiga nisbatan hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi 4 500 000 so‘m ko‘rinishida amalga oshirgan. Kelishuvga muvofiq 5 000 000 so‘m farq summa korxona tomnidan pul mablag‘lari bilan qoplab berilishi kerak.

Sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni tovar-moddiy zaxiralar bilan hisob-kitob qilinishi natijasida tovar-moddiy zaxiralar qiymatini balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun tovar-moddiy zaxiralarni berilganda:

debet 6620 «Chiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari
bo‘yicha qarz» schyoti *34 500 000 so‘m;*
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti *34 500 000 so‘m;*

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun berilgan tovar-moddiy zaxiralar qiymatiga nisbatan hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti *4 500 000 so‘m;*
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha)» *4 500 000 so‘m;*

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun berilgan tovar-moddiy zaxiralar balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti *25 000 000 so‘m;*

kredit 1030 «Ehtiyot qismlar» schyoti 15 000 000 so‘m;
kredit 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti 8 000 000 so‘m;
kredit 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti 2 000 000 so‘m;

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlar summasini mazkur qarzlarni hisob-kitob qilish uchun berilgan tovar-moddiy zaxiralar qiymatidan oshgan qismini hisob-kitob schyotidan pul mablag‘lari bilan qoplanganda:

debet 6620 «Chiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari bo‘yicha qarz» schyoti 5 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 5 000 000 so‘m.

2-holat:

Korxona sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni to‘lashni tovar-moddiy zaxiralar bilan qiymati 20 000 000 so‘m bo‘lgan ehtiyot qismlarni, qiymati 2 000 000 so‘m bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlari va qiymati 10 000 000 so‘m bo‘lgan plastmassa taralar va ularning qiymatiga nisbatan hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi 4 800 000 so‘m ko‘rinishida amalga oshirgan. Kelishuvga muvofiq 2 300 000 so‘m farq summa aksiyador tomonidan pul mablag‘lari bilan qoplab berilishi kerak.

Sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni tovar-moddiy zaxiralar bilan hisob-kitob qilinishi natijasida tovar-moddiy zaxiralar qiymatini balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun tovar-moddiy zaxiralarni berilganda:

debet 6620 «CHiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari bo‘yicha qarz» schyoti 34 500 000 so‘m;
debet 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti 2 300 000 so‘m;
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 36 800 000 so‘m;

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun berilgan tovar-moddiy zaxiralar qiymatiga nisbatan hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 4 800 000 so‘m;
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» 4 800 000 so‘m;

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun berilgan tovar-moddiy zaxiralar qiymatiga nisbatan hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 4 800 000 so‘m;
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» 4 800 000 so‘m;

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun berilgan tovar-moddiy zaxiralar balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 32 000 000 so‘m;
kredit 1030 «Ehtiyot qismlar» schyoti 20 000 000 so‘m;
kredit 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti 10 000 000 so‘m;
kredit 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti 2 000 000 so‘m;

- sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlarni hisob-kitob qilish uchun berilgan tovar-moddiy zaxiralar qiymatini sotib olingan xususiy aksiyalar qiymati bo‘yicha qarzlar summasidan oshgan qismini qoplash uchun aksiyador tomonidan hisob-kitob schyotiga pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *2 300 000 so‘m;*
kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzi» schyoti *2 300 000 so‘m.*

8.6. Tovar-moddiy zaxiralarni tekinga berish natijasida balansdan chiqarilishi

Korxonalar tomonidan tovar-moddiy zaxiralarni qonunchilikga muvofiq mustaqil ravishda tekinga beriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni tekinga berishdan moliyaviy natija (foyda yoki zarari) berilayotgan tovar-moddiy zaxiralarni balans qiymati, bilvosita soliqlar (qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i) va tovar-moddiy zaxiralarni chiqib ketishi bilan bog‘liq xarajatlar summasiga teng.

Tovar-moddiy zaxiralarni tekinga berilishi natijasida balansdan chiqarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona tomonidan 2021-yil 10-aprelda tayyor mahsulotni tekinga yetkazib berish bo‘yicha qiymati 10 000 000 so‘m tekinga xizmat ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomani imzoladi.

Tekinga xizmat ko‘rsatilishi natijasida ularni tannarxi balansdan chiqarilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- tekinga berilgan tayyor mahsulotni balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti *10 000 000 so‘m;*
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti *10 000 000 so‘m;*

- tekinga berilgan tayyor mahsulotlarni qiymatiga nisbatan hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti *1 500 000 so‘m;*
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» *1 500 000 so‘m;*
(1 500 000 so‘m = 10 000 000 so‘m x 15 / 100);

- davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti *11 500 000 so‘m;*
kredit 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti *11 500 000 so‘m.*

Mazkur holatda moliyaviy natija 11 500 000 so‘m zararni tashkil etadi va buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi.

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» *11 500 000 so‘m;*
kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti *11 500 000 so‘m.*

8.7. Tovar-moddiy zaxiralarni ayirboshlash natijasida balansdan chiqarish

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 497-moddasiga asosan, ayirboshlash shartnomasiga muvofiq har bir taraf boshqa tarafga bir tovarni boshqa tovarga almashtirish yo‘li bilan mulk qilib topshirish majburiyatini oladi.

Ayirboshlash shartnomasiga nisbatan tegishincha oldi-sotdi to‘g‘risidagi qoidalar qo‘llanadi, basharti bu O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 30-bobi qoidalariga va ayirboshlash mohiyatiga zid kelmasa. Bunda har qaysi taraf almashtirish yo‘li bilan topshirish majburiyatini olgan tovarni sotuvchi va qabul qilish majburiyatini olgan tovarni sotib oluvchi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 497-moddasiga muvofiq, agar ayirboshlash shartnomasidan boshqacha tartib kelib chiqmasa, ayirboshlanadigan tovarlar teng qiymatli

deb taxmin qilinadi, ularni topshirish va qabul qilish xarajatlarini esa har bir holda tegishli majburiyatlarni bajaradigan taraf amalga oshiradi.

Ayirboshlash shartnomasiga muvofiq ayirboshlanadigan tovarlar teng qiymatli emas deb tan olingan taqdirda bahosi ayirboshlashga taqdim qilinayotgan tovar bahosidan past bo‘lgan tovarni topshirishi lozim bo‘lgan taraf, agar shartnomada haq to‘lashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo‘lmasa, tovar yoki tovarni tasarruf qilish hujjatlari topshirilgandan so‘ng kechiktirmasdan baholardagi farqni to‘lashi lozim.

Tovar-moddiy zaxiralarni ayirboshlash qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-avgustdagi PF-1504-sonli «Byudjet bilan hisob-kitoblar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari tug‘risida»gi farmonining 4-bandiga muvofiq, 1996-yil 1- sentyabridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi doirasida mahsulot yetkazib berish to‘g‘risida mavoza (barter) asosidagi shartnomalar tuzish taqiqlanadi. Tovar-moddiy zaxiralarni ayirboshlashni amalga oshirish huquqi ma’lum bir sohani rivojlantirish maqsadida Hukumatning muayyan bir qaroriga asosan berilishi mumkin.

4-son BHMS ga muvofiq, tovar-moddiy zaxiralar:

- xuddi shunday tovar-moddiy zaxiralarga ayirboshlash yo‘li bilan olingan hollarda, tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi berilgan tovar-moddiy zaxiralarning balans qiymatiga teng;

- xuddi shunday bo‘lmagan tovar-moddiy zaxiralarga ayirboshlash yo‘li bilan olingan hollarda, tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi berilgan tovar-moddiy zaxiralarning joriy qiymatiga teng.

Tovar-moddiy zaxiralar qo‘shimcha to‘lov bilan ayirboshlangan holatlarda almashtirish yo‘li bilan olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi berilgan tovar-moddiy zaxiralarning ayirboshlanishda o‘tkazilgan (olingan) pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlari summasiga oshirilgan (kamaytirilgan) joriy qiymatiga teng bo‘ladi.

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiyatlarni (to‘lovni) pul ko‘rinishida bo‘lmagan mablag‘lar bilan bajarish nazarda tutiladigan shartnomalar bo‘yicha olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi deb tashkilot tomonidan berilgan yoki berilishi lozim bo‘lgan aktivlarning joriy qiymati yoki bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning joriy qiymati bo‘yicha tan olinadi.

Korxona tomonidan berilgan yoki beriladigan aktivlarning qiymatini belgilash imkoniyati mavjud bo‘lmagan taqdirda, majburiyatlarni (to‘lovni) pul ko‘rinishida bo‘lmagan mablag‘lar bilan bajarishni nazarda tutadigan shartnomalar bo‘yicha tashkilot tomonidan olingan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi xuddi shunday tovar-moddiy zaxiralar xarid qilinadigan joriy qiymatdan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, korxona tomonidan tovar-moddiy zaxiralar ayirboshlash yo‘li bilan olinayotganda tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlar amalga oshirilgan taqdirda tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi ushbu xarajatlar summasiga oshiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni boshqa tovar-moddiy zaxiralariga ayirboshlash uchun berayotgan korxonaning balansidan ular balans qiymati bo‘yicha hisobdan chiqariladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni ayirboshlash natijasida olingan tovar-moddiy zaxiralarni tannarxini shakllanishi va berilgan tovar-moddiy zaxiralarni balansdan chiqarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilaylik, hukumatning muayyan qaroriga asosan, dastgohni ishlash samaradorligini oshirish maqsadida korxonaga belgilangan tartibda uning ehtiyot qismini ayirboshlash huquqi berilgan.

Ayirboshlashni amalga oshirish maqsadida 17 000 000 so‘m qiymatga ega bo‘lgan ehtiyot qismlar berilgan. Ehtiyot qismlarni ayirboshlash bilan bog‘liq xarajatlar taraflar tomonidan amalga oshirilgan. Ehtiyot qismlarni ayirboshlash bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat: transport bo‘limi tomonidan ko‘rsatilgan transport xizmatlari 150 000 so‘m.

To‘rtta holatni (ehtiyot qismlarni xuddi shunday bo‘lganiga (o‘xshashiga), xuddi shunday bo‘lmaganiga va qo‘shimcha pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlarini to‘lash (olish) bilan ayirboshlanishidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Ehtiyot qismlarni ayirboshlashda xuddi shunday bo‘lgan ehtiyot qismlarni xarid qilindi.

Ehtiyot qismlarni xuddi shunday bo‘lgan ehtiyot qismlarga ayirboshlash natijasida balansdan chiqarilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ehtiyot qismlarni balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti — *17 000 000 so‘m;*
kredit 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti — *17 000 000 so‘m;*

- ehtiyot qismlarni ayirboshlashdagi xarajatlar summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti — *150 000 so‘m;*
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti — *150 000 so‘m;*

- ayirboshlab olingan ehtiyot qismlarni berilayotgan ehtiyot qismlarning balans qiymati va ayirboshlashdagi xarajatlar qo‘shgan holda tannarx bo‘yicha kirim qilinganda:

debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti — *17 150 000 so‘m;*
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti — *17 150 000 so‘m;*

(17 150 000 so‘m = 17 000 000 so‘m + 150 000 000 so‘m).

2-holat:

Ehtiyot qismlarni ayirboshlashda xuddi shunday bo‘lmagan ehtiyot qismlarni xarid qilindi. Ehtiyot qismlarni joriy qiymati 17 500 000 so‘mni tashkil etadi.

Ehtiyot qismlarni xuddi shunday bo‘lmagan ehtiyot qismlarga ayirboshlash natijasida balansdan chiqarilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ehtiyot qismlarni balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti — *17 000 000 so‘m;*
kredit 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti — *17 000 000 so‘m;*

- ehtiyot qismlarni ayirboshlashdagi xarajatlar summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti — *150 000 so‘m;*
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti — *150 000 so‘m;*

- ayirboshlab olingan ehtiyot qismlarni berilayotgan ehtiyot qismlarning joriy qiymati va ayirboshlashdagi xarajatlar qo‘shgan holda tannarx bo‘yicha kirim qilinganda:

debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti — *17 650 000 so‘m;*
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti — *17 650 000 so‘m;*

(17 650 000 so‘m = 17 500 000 so‘m + 150 000 000 so‘m).

- ehtiyot qismlarni ayirboshlashdan foyda summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib

ketishi» schyoti *500 000 so‘m;*
kredit 9320 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda» schyoti *500 000 so‘m;*
(500 000 so‘m = 17 650 000 so‘m - 17 000 000 - 150 000 so‘m).

3-holat:

Ehtiyot qismlarni ayirboshlashda xuddi shunday bo‘lgan ehtiyot qismlarni qo‘shimcha pul mablag‘larini to‘lash bilan xarid qilindi. Ehtiyot qismlarni joriy qiymati 17 300 000 so‘mni tashkil etadi. Qo‘shimcha pul mablag‘lari to‘lovi 300 000 so‘mni tashkil etadi.

Ehtiyot qismlarni xuddi shunday bo‘lgan ehtiyot qismlarga qo‘shimcha pul mablag‘larini to‘lash bilan ayirboshlash natijasida balansdan chiqarilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ehtiyot qismlarni balans qiymati hisobdan chiqarilganda:
debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *17 000 000 so‘m;*
kredit 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti *17 000 000 so‘m;*
- ehtiyot qismlarni ayirboshlashdagi xarajatlar summasiga:
debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *150 000 so‘m;*
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti *150 000 so‘m;*
- ayirboshlab olingan ehtiyot qismlarni berilayotgan ehtiyot qismlarning joriy qiymati va ayirboshlashdagi xarajatlar hamda qo‘shimcha to‘langan pul mablag‘lari summasini qo‘shgan holda tannarx bo‘yicha kirim qilinganda:
debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti *17 750 000 so‘m;*
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *17 450 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *300 000 so‘m;*
(17 750 000 so‘m = 17 450 000 so‘m + 300 000 000 so‘m);
(17 450 000 so‘m = 17 300 000 so‘m + 150 000 000 so‘m);
- hisob-kitob schyotidan pul mablag‘lari bilan qo‘shimcha to‘lov bilan bog‘liq qarz summasini qoplanishi:
debet 6990 «Boshqa majburiyatlar » schyoti *300 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *300 000 so‘m;*
- ehtiyot qismlarni ayirboshlashdan foyda summasiga:
debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti *300 000 so‘m;*
kredit 9320 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda» schyoti *300 000 so‘m;*
(300 000 so‘m = 17 450 000 so‘m - 17 000 000 - 150 000 so‘m).

4-holat:

Ehtiyot qismlarni ayirboshlashda xuddi shunday bo‘lmagan ehtiyot qismlarni qo‘shimcha pul mablag‘larini olish bilan xarid qilindi. Ehtiyot qismlarni joriy qiymati 17 200 000 so‘mni tashkil etadi. Qo‘shimcha pul mablag‘lari to‘lovi 400 000 so‘mni tashkil etadi.

Ehtiyot qismlarni xuddi shunday bo‘lmagan ehtiyot qismlarga qo‘shimcha pul mablag‘larini olish bilan ayirboshlash natijasida balansdan chiqarilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ehtiyot qismlarni balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti *17 000 000 so‘m;*
kredit 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti *17 000 000 so‘m;*

- ehtiyot qismlarni ayirboshlashdagi xarajatlar summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti *150 000 so‘m;*
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti *150 000 so‘m;*

- ayirboshlab olingan ehtiyot qismlarni berilayotgan ehtiyot qismlarning joriy qiymati va ayirboshlashdagi xarajatlar yig‘indisidan qo‘shimcha olingan pul mablag‘lari summasini ayirilgan holda aniqlangan tannarx bo‘yicha kirim qilinganda:

debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti *16 950 000 so‘m;*
debet 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schyoti *400 000 so‘m;*
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti *17 350 000 so‘m;*

(16 950 000 so‘m = 17 350 000 so‘m - 400 000 000 so‘m);
(17 350 000 so‘m = 17 200 000 so‘m + 150 000 000 so‘m);

- hisob-kitob schyotiga pul mablag‘lari olish bilan bog‘liq qarz summasini kelib tushushi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *400 000 so‘m;*
kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schyoti *400 000 so‘m;*

- ehtiyot qismlarni ayirboshlashdan foyda summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib
ketishi» schyoti *200 000 so‘m;*
kredit 9320 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan
foyda» schyoti *200 000 so‘m;*

(200 000 so‘m = 17 350 000 so‘m - 17 000 000 - 150 000 so‘m).

8.8. Tovar-moddiy zaxiralar kamomadi yoki yo‘qotilishi aniqlanganda balansdan chiqarilishi

Inventarizatsiya jarayonida kamomadi yoki yo‘qotilishi aniqlangan yetishmaydigan tovar-moddiy zaxiralarning balans qiymati aybdor shaxslar aniqlanishiga qadar 5910 «Kamomad va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar» schyotida aks ettiriladi.

Inventarizatsiya natijasida aniqlangan tovar-moddiy zaxiralar kamomadi summasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollarda tabiiy yo‘qolish me’yorlari chegarasida, shuningdek kamomadning aniq aybdorlari aniqlanmagan yoki moddiy javobgar shaxslardan undirish imkoniyati bo‘lmagan hollarda, uni moliya-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan hisobot davridagi moliya-xo‘jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Kamomadning aniq aybdorlari aniqlanmagan yoki moddiy javobgar shaxslardan undirish imkoniyati bo‘lmagan hollarda tovar-moddiy zaxiralar kamomadi bo‘yicha zararlar summasi moliya-xo‘jalik faoliyati natijalariga kiritiladi va buxgalteriya hisobida 9410 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotining debetida 5910 «Kamomad va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Aniq aybdor shaxslar aniqlangan hollarda inventarizatsiya natijasida aniqlangan va sinishi (shikastlanishi) yoki buzilishi natijasi yuzaga keladigan tovar-moddiy zaxiralarning kamomadi summasi moddiy javobgar shaxs yoki aybdordan undiriladi. Yetkazilgan zararlarni moddiy javobgar shaxsdan undirish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish «Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq amalga oshiriladi.

Inventarizatsiya vaqtida aniqlangan va sinishi yoki buzilishida vujudga keladigan tovar-moddiy zaxiralarning kamomadi balans qiymati bo‘yicha hisobdan chiqariladi.

Aniq aybdor shaxslar aniqlangan hollarda inventarizatsiya natijasida aniqlangan va sinishi (shikastlanishi) yoki buzilishi natijasi yuzaga keladigan tovar-moddiy zaxiralarning kamomadi summasi moddiy javobgar shaxs yoki aybdordan undiriladi.

Ish beruvchining mulkiga yetkazilgan zarar hajmi, zarar uchun xodimning moddiy javobgarlik chegaralari va tartibini aniqlash O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi.

Bir oylik o‘rtacha ish haqidan oshmaydigan yetkazilgan zarar summasini aybdor xodimdan undirish ish beruvchining farmoyishiga muvofiq amalga oshiriladi. Farmoyish yetkazilgan zarar aniqlangan kundan boshlab bir oydan kechikmasdan chiqarilishi mumkin. Bunda zarar hajmi inventarizatsiya o‘tkazish davrida mazkur joyda amal qilayotgan bozor baholari bo‘yicha hisoblanadi.

Agar xodimdan undirilishi lozim bo‘lgan, yetkazilgan zarar summasi uning o‘rtacha oylik ish haqidan yuqori yoki zarar aniqlangan kundan boshlab bir oylik muddat o‘tgan bo‘lsa, undirish sud orqali amalga oshiriladi.

Ish beruvchining mulki o‘g‘irlanganda, kam chiqqanda, qasddan yo‘qotish yoki qasddan buzish natijasida hamda boshqa hollarda yetkazilgan zarar hajmi bozor qiymati bo‘yicha hisoblanadi.

Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan tovar-moddiy zaxiralarning birligining bozor (joriy) qiymatini hujjatli tasdiqlash uchun korxonaning ixtiyoriga ko‘ra quyidagilardan biri foydalanilishi mumkin:

- ishlab chiqaruvchilar va ularning rasmiy dilerlari, tovar-xomashyo birjalari, ko‘chmas mulk birjalaridan yozma shaklda olingan tovar-moddiy zaxiralar o‘xshash birligining joriy qiymati (narxi) to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- xarid qilish sanasida (tasdiqlovchi hujjat mavjud bo‘lganida) erkin almashtiriladigan valyutada tovar-moddiy zaxiralar birligining tannarxi to‘g‘risida ma’lumotlar, bunda xorijiy valyutalar kurslarining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan kamomad aniqlangan sanasi va tovar-moddiy zaxiralarning tegishli birligini xarid qilish sanasida belgilangan so‘mga nisbati sifatida belgilanadigan hisob-kitob koeffitsienti qo‘llanadi;
- tegishli davlat organlaridagi mavjud bo‘lgan narxlar darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- qayta baholashni o‘tkazish davrida ommaviy axborot vositalari va maxsus adabiyotlarda chop etilgan narxlar darajasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- baholovchining tovar-moddiy zaxiralar tegishli birligining joriy qiymati to‘g‘risidagi hisoboti.

Tovar-moddiy zaxiralarning kamomadi yoki yo‘qotilishi aniqlanganda balansdan chiqarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. Tovar-moddiy zaxiralarni invetarizatsiyasini o‘tkazish natijasida qiymati 600 000 so‘m bo‘lgan ehtiyot qismlarni kamomadi mavjudligini aniqlanadi.

Ehtiyot qismlarni kamomadi natijasida hisobdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 5910 «Kamomad va qiymatliklarning
buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti 600 000 so‘m;
kredit 1030 «Ehtiyot qismlar» schyoti 600 000 so‘m.

Ehtiyot qismlarning kamomadi summasini moddiy javobgar shaxsdan undirish bilan bog‘liq operatsiyalar asosiy vositalarnikiga o‘xshash tarzda amalga oshiriladi.

9-§. Inventar va xo‘jalik jihozlarni hisobga olishning xususiyatlari

Inventar va xo‘jalik jihozlari tarkibiga quyidagi mezonlardan biriga javob beradigan aktivlar kiritiladi:

xizmat muddati bir yildan oshmaydigan;

xizmat muddatidan qat’i nazar xarid qilish paytida qiymati bir birlik (komplekt) uchun O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda bo‘lgan aktivlar. Korxona rahbari hisob siyosatida aktivlarni inventar va xo‘jalik jihozlari tarkibida hisobga olish uchun qiymatining bundan past chegarasini belgilash huquqiga egadir.

Buyumlar qiymatining eng past chegarasini o‘rnatishda, ularni inventar va xo‘jalik anjomlari tarkibida hisobga olish uchun, korxona rahbarlari tarmoq xususiyatlariga (mashinasozlik, qurilish, savdo, aloqa va shu kabilar), korxonaning ishchilar soni bo‘yicha o‘lchamiga (mikrofirma, kichik korxona, yirik korxona va shu kabilar), korxonaning xo‘jalik operatsiyalari xususiyatlariga asoslanishlari mumkin. Korxona rahbari buyumlarni inventar va xo‘jalik anjomlari tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilashda korxonaning o‘ziga xos xususiyatlariga asoslanishi mumkin. Masalan, korxonaning 2021-yil uchun hisob siyosatining «Tovar-moddiy zaxiralar» bo‘limida «tovar-moddiy zaxiralar sifatida hisobga olingan inventar va xo‘jalik anjomlari tarkibiga quyidagi mezonlardan biriga javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi: 1) xizmat muddati bir yildan kam bo‘lgan; 2) xizmat muddatidan qat’i nazar xarid qilish paytida qiymati bir birlik (komplekt) uchun O‘zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining o‘ttiz baravarigacha miqdorda bo‘lgan aktivlar».

Shuningdek, xizmat muddati hamda qiymatidan qat’i nazar inventar va xo‘jalik jihozlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- maxsus asboblar va moslamalar (muayyan buyumlarni seriyali va ommaviy ishlab chiqarish yoki yakka tartibdagi buyurtmani tayyorlash uchun mo‘ljallangan maqsadli asboblar va moslamalar). Bunda maxsus asboblar va moslamalar tarkibiga asbob-uskunalar, shtamplar, press-shakllar, prokat o‘tkazuvchi vallar, moslama uskunalari modellari, opoklar, andozalar va boshqa turli maxsus asboblar va moslamalar kiradi;

- maxsus va sanitariya kiyimlari, maxsus poyabzal. Maxsus va sanitariya kiyimlari, maxsus poyabzal tarkibiga saqlovchi moslamalar, kombinezonlar, kostyumlar, kurtkalar, shimlar, xalatlar, jun po‘stinlar, har xil poyabzallar, qo‘lqoplar, ko‘zoynaklar, respiratorlar, boshqa turli maxsus va sanitariya kiyimlari hamda maxsus poyabzal kiradi;

- ko‘rpa-to‘shaklar;

- kanselyariya ashyolari (kalkulatorlar, stol jihozlari va h.k.);

- oshxona inventari, shuningdek, oshxona choyshablari;

- barpo etish xarajatlari qurilish-montaj ishlarining tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (notitul) inshootlar, moslamalar va qurilmalar;

- foydalanish muddati bir yildan kam bo‘lgan almashtiriladigan uskunalar;

- ovlash qurollari (trallar, yoyma to‘rlar, to‘rlar, jihozlar va h.k.).

Bunda, maxsus asboblar va moslamalar tarkibiga quyidagilar kiradi: asbob-uskunalar, shtamplar, press-shakllar, prokat o‘tkazuvchi vallar, moslama uskunalari modellari, opoklar, andozalar va boshqa turli maxsus asboblar va moslamalar.

Maxsus va sanitariya kiyimlari, maxsus poyabzal tarkibiga quyidagilar kiradi: saqlovchi

moslamalar, kombinezonlar, kostyumlar, kurtkalar, shimlar, xalatlar, jun po‘stinlar, har xil poyabzallar, qo‘lqoplar, ko‘zoynaklar, shlemlar, protivagazlar, respiratorlar, boshqa turli maxsus va sanitariya kiyimlari, maxsus poyabzal.

Bundan tashqari, korxonalarning ishchi va xodimlari «Xodimlar uchun maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa yakka tartibda himoyalanish vositalarini tekin berishning Namunaviy me’yorlari» ga muvofiq maxsus kiyim, maxsus poyabzal va yakka tartibda himoyalanishning boshqa vositalari bilan tekin ta’minlashi lozim.

Inventar va xo‘jalik jihozlari buxgalteriya hisobining birligi korxona tomonidan mustaqil ravishda, ular to‘g‘risida to‘liq va ishonchli ma’lumotlarni shakllantirish hamda ularning mavjudligi va harakati ustidan lozim darajada nazoratni ta’minlash maqsadida belgilanadi. Inventar va xo‘jalik jihozlarining xususiyatlari, ularni xarid qilish va ulardan foydalanish tartibiga bog‘liq holda inventar va xo‘jalik jihozlarining birligi ularning turi, nomenklatura raqami, turkum, bir turdagi guruh va h.k. bo‘lishi mumkin.

21-son BHMS ga muvofiq:

- 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyotida korxonada mulk egaligida, xo‘jalik yuritishga yoki tezkor boshqarishda bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlari (inventarlar, asboblar, xo‘jalik jihozlari va boshqa mehnat vositalari) ning mavjudligi va harakati hisobga olinadi. Korxonalar mustaqil ravishda inventarlar, asboblar va xo‘jalik jihozlarini hisobga oluvchi schyotlarni ularning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidagi o‘rni va roliga qarab ochishlari mumkin;

- balansdan tashqari 002 «Mas’ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklari» schyotida korxonaga tegishli bo‘lmagan, biroq uning foydalanishida yoki ixtiyorida bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlari, shartnomada nazarda tutilgan bahoda yoki uning egasi bilan kelishilgan bahoda hisobga olinadi;

- balansdan tashqari 014 «Foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlari» schyotida foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlarining mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Inventar va xo‘jalik jihozlarini foydalanishga berish vaqtida ularning qiymati to‘liq ishlab chiqarish xarajatlari yoki davr xarajatlariga kiritiladi va bir vaqtning o‘zida balansdan tashqari 014 «Foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlari» schyotida aks ettiriladi.

Inventar va xo‘jalik jihozlari keyinchalik foydalanish (ishlatish)ga yaroqsiz bo‘lgan holda ularning balansdan tashqari 014 «Foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlari» schyotidan hisobdan chiqarilishi tegishli tartibda rasmiylashtirilgan hisobdan chiqarish dalolatnomasi asosida amalga oshiriladi.

Foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlarining saqlanishini ta’minlash maqsadida balansdan tashqari 014 «Foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti bo‘yicha analitik hisob yakka tartibda foydalanuvchilar va sexlar omborlari oralig‘ida yuritiladi.

9.1. Inventar va xo‘jalik jihozlar bo‘yicha operatsiyalar hisobi

Inventar va xo‘jalik jihozlarini tan olish, balans qiymatini baholash, inventar va xo‘jalik jihozlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni belgilash, inventar va xo‘jalik jihozlar qiymatini sotish (baholash)ning sof qiymatiga qadar kamaytirish; ularning inventarizatsiya o‘tkazish va chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni aniqlash hamda buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tovar-moddiy zaxiralarning tarkibiy qismi sifatida yuqoridagi paragraflarda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Korxonada mulk egaligida, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqarishda bo‘lgan inventar va

xo‘jalik jihozlari haqiqiy tannarxi yoki sotishning sof qiymatidan eng kam qiymat bo‘yicha baholanib, ya’ni belgilangan tartibda hisoblangan xarid qilish yoki ishlab chiqarishning haqiqiy xarajatlari summasida buxgalteriya hisobiga qabul qilinadi.

Inventar va xo‘jalik jihozlari bevosita korxonaning o‘zida (o‘zining kuchlari bilan) ishlab chiqarilgan hollarda, ularni ishlab chiqarish bo‘yicha xarajatlar oldindan ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi (2310 «Yordamchi ishlab chiqarish», 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» va boshqa) tegishli schyotlarda guruhlanadi. Inventar va xo‘jalik jihozlarini ishlab chiqarish bo‘yicha ishlarning tugallanishi, korxona tomonidan belgilangan shakldagi inventar va xo‘jalik jihozlarini ishlab chiqarish bo‘yicha ishlarning bajarilishi to‘g‘risidagi dalolatnoma bilan tasdiqlanishi kerak.

Inventar va xo‘jalik jihozlarini foydalanishga topshirishda ularning qiymati vazifasiga qarab ishlab chiqarish xarajatlariga yoki davr xarajatlariga to‘liq hisobdan chiqarilib, keyin tashkilot tomonidan oddiy shakl bo‘yicha (bir tomonlama tartibda), tannarxi bo‘yicha nomlar (nomenklatura raqamlari) yoki guruhlar (yiriklashtirilgan komplektlar) kesimida tezkor miqdoriy hisob yuritiladi, bunda foydalanishga kelib tushish sanasi (oy, yil), foydalanish joyi (bo‘linmalar bo‘yicha) va ulardan foydalanish muddati mobaynida moddiy javobgar shaxslar ko‘rsatiladi.

Inventar va xo‘jalik jihozlarining qiymatini ularni foydalanishga berish paytida to‘liq ishlab chiqarish xarajatlariga yoki davr xarajatlariga hisobdan chiqarishda, foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlarining keyinchalik saqlanishini ta’minlash maqsadida ularning hisobini sex omborchilari va alohida foydalanuvchilar bo‘yicha balansdan tashqari schyotlarda yuritish lozim.

21-son BHMS ga muvofiq, inventar va xo‘jalik jihozlarini foydalanishga berish buxgalteriya hisobida inventar va xo‘jalik jihozlarini xarid qilish va (yoki) ishlab chiqarish bilan bog‘liq haqiqiy xarajatlar summasi (haqiqiy tannarx bo‘yicha) xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarda aks ettiriladi va quyidagi yozuvlar amalga oshiriladi:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti;

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti;

debet 2510 «Umumishlabchiqarish xarajatlari» schyoti;

debet 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyoti;

debet 9410 «Sotish xarajatlari» schyoti;

debet 9420 «Ma’muriy xarajatlar» schyoti;

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti;

kredit 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti.

Bir vaqtning o‘zida, foydalanishda bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlarini saqlanishini nazorat qilish maqsadida balansdan tashqari schyotda quyidagi yozuv amalga oshiriladi:

debet balansdan tashqari 014 «Foydalanishdagi inventar va xo‘jalik

jihozlari» schyoti - balansdan tashqari hisobga olishga o‘tkazilgan inventar va xo‘jalik jihozlari summasiga.

Inventar va xo‘jalik jihozlarini balansdan tashqari 014 «Foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlari» schyotida hisobga olish, oddiy shakl (bir tomonlama tartibda) inventar va xo‘jalik jihozlarini nomi (nomenklatura raqami) yoki ularning guruhi (yiriklashtirilgan komplektlar kesimida, foydalanishga kelib tushgan sanasi (oy, yil) ni ko‘rsatish bilan xarid qilish (ishlab chiqarish) ning haqiqiy tannarxi bo‘yicha, foydalanish joyi (tarkibiy bo‘linmalar bo‘yicha) va moddiy javobgar shaxslar bo‘yicha yuritiladi.

Odatda, analitik hisob inventar va xo‘jalik jihozlari harakatini hisobi bo‘yicha kerakli

ma'lumotlarni o'z vaqtida olish imkoniyatini ta'minlab bera oladigan aylanmalar qaydnomalari shaklida daftarlarda yoki elektron shakllarda yuritiladi.

Inventar va xo'jalik jihozlarini foydalanishga berishni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Inventar va xo'jalik jihozlari sifatida hisobga olingan quyidagi buyumlarni foydalanishga berildi:

- dastgohlarni joriy ta'mirlashda (sozlash uchun) ishlatiladigan asbob-uskuna - tannarxi 3 000 000 so'm;
- ishlab chiqarishda yong'in xavfsizli buyumlari – tannarxi 1 000 000 so'm;
- ta'mirlash ustaxonasiga maxsus kiyimlar - tannarxi 2 000 000 so'm;
- korxona qoshidagi maktabgacha ta'lim muassasasiga ko'rpa-to'shak - tannarxi 3 500 000 so'm;
- korxona buxgalteriyasiga yozuv chizuv jihozlari (kalkulatorlar, stol ustiga qo'yiladigan asboblar va h.k.lar) –tannarxi 500 000 so'm;

Inventar va xo'jalik jihozlarni foydalanishga berish buxgalteriya hisobi quyidagicha aks ettiriladi:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 3 000 000 so'm;
debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 2 000 000 so'm;
debet 2510 «Umumishlabchiqarish xarajatlari» schyoti 1 000 000 so'm;
debet 2710 «Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar» schyoti 3 500 000 so'm;
debet 9420 «Ma'muriy xarajatlar» schyoti 500 000 so'm;
kredit 1080 «Inventar va xo'jalik jihozlari» schyoti 10 000 000 so'm.

Bir vaqtning o'zida, balansdan tashqari hisobga olishga o'tkazilgan inventar va xo'jalik jihozlari summasiga:

debet balansdan tashqari 014 «Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlari» schyoti 10 000 000 so'm.

Agar inventar va xo'jalik jihozlarining qiymati bir birlik (komplekt) uchun xarid qilish paytidagi bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan ortiq bo'lsa, tashkilot ularni foydalanishga berishda ushbu inventar va xo'jalik jihozlarining qiymatini muddati kechiktirilgan xarajatlarga kiritishi mumkin. Bunda kechiktirilgan xarajatlarni kamaytirish, ya'ni ularni xarajatlarga hisobdan chiqarish quyidagi usullardan birini qo'llash orqali amalga oshiriladi:

- qiymatni ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga mutanosib ravishda hisobdan chiqarish;
- qiymatni teng me'yorda (to'g'ri chiziqli) hisobdan chiqarish.

Inventar va xo'jalik jihozlarining qiymatini xarajatlarga hisobdan chiqarish usullaridan birini qo'llash inventar va xo'jalik jihozlaridan foydali ishlatishning butun muddati mobaynida amalga oshiriladi. Inventar va xo'jalik jihozlari qiymatining ularni foydalanishga berishda hisobdan chiqarish tartibi, shuningdek, ularning qiymatini xarajatlarga kiritishning foydalanilayotgan usuli tashkilotning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim.

Qiymatni ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga mutanosib ravishda hisobdan chiqarish usuli

Qiymatni ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga mutanosib ravishda hisobdan chiqarish usuli har bir muayyan yildagi inventar va xo'jalik jihozlarining mahsulotlarini hisobga

olishga asoslangan. Mazkur usul bo‘yicha har yillik xarajatlar summasini hisob-kitob qilish uchun butun foydali ishlatish muddatidagi umumiy baholangan mahsulotlar yig‘indisini va mazkur muayyan yildagi mahsulotlarni aniqlash lozim. Mahsulot sifatida ishlab chiqariladigan mahsulot birliklari soni, ishlangan soatlar soni va boshqalar olinishi mumkin.

Qiymatni ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga mutanosib ravishda hisobdan chiqarish usulida kechiktirilgan xarajatlar summasini hisobdan chiqarish, hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmining natural ko‘rsatkichidan va inventar hamda xo‘jalik jihozlari tannarxining ko‘rsatilgan inventar va xo‘jalik jihozlarini foydali ishlatishning butun kutilayotgan muddatida mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishning taxmin qilinayotgan hajmiga nisbatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Foydali ishlatish muddati ishlab chiqariladigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) miqdori bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlari (masalan shtamplar, press-shakllar, prokatlarni o‘tkazuvchi valiklar va h.k.lar) uchun qiymatni ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmiga mutanosib ravishda hisobdan chiqarish usulini qo‘llash tavsiya etiladi.

Inventar va xo‘jalik jihozlarini foydalanishga berilganda ularning qiymatini kechiktirilgan xarajatlarga kiritishini va tegishli hisobot davrlarida qiymatni ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga mutanosib ravishda hisobdan chiqarish usulini qo‘llash bilan xarajatlarga olib borilishi buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Inventar va xo‘jalik jihozlari sifatida hisobga olingan dastgohlarni joriy ta’mirlashda (sozlash uchun) ishlatiladigan asbob-uskuna foydalanishga berildi. Asbob-uskunaning umumiy ishlaydigan soati 5 000 soatni, tannarxi 3 000 000 so‘mni tashkil etadi. Hisobot davrida 100 soat ishlashi kerak. Hisob siyosatida tegishli hisobot davrlarida inventar va xo‘jalik jihozlarining qiymatni ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga mutanosib ravishda hisobdan chiqarish usulini qo‘llash bilan xarajatlarga olib borilishi nazarda tutilgan.

Inventar va xo‘jalik jihozlari sifatida mazkur asbob-uskunaning qiymatini xarajatlarga kiritiladigan summasini hisoblash tartibini ko‘rib chiqamiz.

Bajarilgan ish hajmining bir birligi ya’ni har bir soatga to‘g‘ri keladigan xarajatlar summasini aniqlaymiz. Har bir soatga to‘g‘ri keladigan xarajatlar summasi 600 so‘m (3 000 000 so‘m / 5 000 soat) tashkil etadi.

Qiymatni ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga mutanosib ravishda hisobdan chiqarish usulini qo‘llash bilan hisobot davrida inventar va xo‘jalik jihozlari sifatida mazkur asbob-uskunaning qiymatini xarajatlarga kiritiladigan summasi 60 000 so‘m (100 soat x 600 so‘m) ga teng bo‘ladi.

Inventar va xo‘jalik jihozlarini foydalanishga berilganda ularning qiymatini kechiktirilgan xarajatlarga kiritishi va tegishli hisobot davrlarida xarajatlarga olib borilishi korxonaning buxgalteriya hisobi quyidagicha aks ettiriladi:

- inventar va xo‘jalik jihozlarining qiymatini kechiktirilgan xarajatlarga hisobdan chiqarilganda:

debet 3290 «Boshqa kechiktirilgan
xarajatlar» schyoti 3 000 000 so‘m;
kredit 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti 3 000 000 so‘m;

- hisobot davrida kechiktirilgan xarajatlar tegishli xarajatlar tarkibiga qo‘shilishi:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 60 000 so‘m;
kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 60 000 so‘m.

Qiymatni teng me'yorda (to'g'ri chiziqli) hisobdan chiqarish usuli

Qiymatni teng me'yorda (to'g'ri chiziqli) hisobdan chiqarish usulining mohiyati shundaki, bunda xarajatlar teng maromda, inventar va xo'jalik jihozlarini foydali ishlatish muddati mobaynida ularning qiymatidan kelib chiqqan holda teng ulushlarda hisoblanadi. Mazkur usulga muvofiq inventar va xo'jalik jihozlarning qiymati uning xizmat muddati davomida tegishli xarajatlarga teng me'yorda hisobdan chiqariladi (taqsimlanadi). Usul xarajatlarni hisobdan chiqarish me'yori foydali xizmat muddatining davom etish muddatiga bog'liqligiga asoslangan. Har bir davr uchun hisobdan chiqariladigan xarajatlar summasi inventar va xo'jalik jihozlarning qiymatni ulardan foydalanilgan hisobot davrlari soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

Qiymatni teng me'yorda (to'g'ri chiziqli) hisobdan chiqarish usulida hisobdan chiqarish inventar va xo'jalik jihozlarining tannarxidan hamda ushbu inventar va xo'jalik jihozlarini foydali xizmat muddatini hisobga olgan holda hisoblab chiqarilgan me'yorlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Jismoniy eskirishi ishlab chiqariladigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) miqdori bilan bevosita bog'liq bo'lmagan inventar va xo'jalik jihozlari (masalan moslama uskunalari, andozalar, nazorat qilish-sinov o'tkazishi jihozlari va h.k.lar) uchun qiymatni teng maromli tarzda hisobdan chiqarish usulini qo'llash tavsiya etiladi.

Inventar va xo'jalik jihozlarini foydalanishga berilganda ularning qiymatini kechiktirilgan xarajatlarga kiritishini va tegishli hisobot davrlarida qiymatni teng maromli (to'g'ri chiziqli) ravishda hisobdan chiqarish usulini qo'llash bilan xarajatlarga olib borilishi buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Inventar va xo'jalik jihozlari sifatida hisobga olingan ishlab chiqarishda yong'in xavfsizligi buyumi (suv nasosi) ni foydalanishga berdi. Yong'in xavfsizligi buyumi (suv nasosi) ni tannarxi 4 000 000 so'mni va foydali xizmat muddati 20 oyni tashkil etadi. Hisob siyosatida tegishli hisobot davrlarida inventar va xo'jalik jihozlarining qiymatni teng me'yorda (to'g'ri chiziqli) hisobdan chiqarish usulini qo'llash bilan xarajatlarga olib borilishi nazarda tutilgan.

Inventar va xo'jalik jihozlari sifatida mazkur yong'in xavfsizligi buyumi (suv nasosi) ning qiymatini xarajatlarga kiritiladigan summasini hisoblash tartibini ko'rib chiqamiz.

Eng avvalo hisobdan chiqariladigan xarajatlar me'yorini aniqlaymiz. Hisobdan chiqariladigan xarajatlar me'yori 5 % (100 % / 20) ni tashkil etadi.

Foydalanishning birinchi oyida hisobdan chiqariladigan xarajatlar summasini yong'in xavfsizligi buyumi (suv nasosi) ning qiymatidan kelib chiqib 200 000 so'm (4 000 000 so'm x 5 /100) qilib aniqlanadi va keyingi oylar uchun shu zaylda davom ettiriladi.

Inventar va xo'jalik jihozlarini foydalanishga berilganda ularning qiymatini kechiktirilgan xarajatlarga kiritishi va tegishli hisobot davrlarida xarajatlarga olib borilishi korxonaning buxgalteriya hisobi quyidagicha aks ettiriladi:

Yong‘in xavfsizligi buyumi (suv nasosi) ning qiymatini xarajatlarga kiritiladigan summasini hisoblash jadvali

Hisobdan chiqariladigan oylar	Hisobdan chiqariladigan qiymat	Har oyda hisobdan chiqariladigan xarajatlar summasi	Hisobdan chiqarilgan summa
1-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	200 000
2-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	400 000
3-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	600 000
4-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	800 000
5-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	1 000 000
6-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	1 200 000
7-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	1 400 000
8-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	1 600 000
9-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	1 800 000
10-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	2 000 000
11-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	2 200 000
12-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	2 400 000
13-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	2 600 000
14-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	2 800 000
15-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	3 000 000
16-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	3 200 000
17-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	3 400 000
18-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	3 600 000
19-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	3 800 000
20-oy	4 000 000	(4 000 000 x 5 / 100) = 200 000	4 000 000

- inventar va xo‘jalik jihozlarining qiymatini kechiktirilgan xarajatlarga hisobdan chiqarilganda:

debet 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 4 000 000 so‘m;

kredit 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti 4 000 000 so‘m;

- hisobot davrida kechiktirilgan xarajatlar tegishli xarajatlar tarkibiga qo‘shilishi:

debet 2510 «Umumishlabchiqarish xarajatlari» schyoti *200 000 so‘m;*

kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti *200 000 so‘m.*

Agar mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish muddatidan avval to‘xtatilgan va uni korxonada tiklash kutilmayotgan bo‘lsa, u holda kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olinadigan inventar va xo‘jalik jihozlarining qoldiq qiymati (3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyotidagi inventar va xo‘jalik jihozlari qiymatining hisobdan chiqarilmagan miqdori qoldig‘i) korxonaning moliyaviy natijalariga boshqa operatsion xarajatlar sifatida hisobdan chiqariladi.

Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish muddatidan oldin to‘xtatilganda 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyotidagi inventar va xo‘jalik jihozlarini qiymatining hisobdan chiqarilmagan miqdori qoldig‘i hisobdan chiqarish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish muddatidan oldin to‘xtatilgan. Foydalanishda bo‘lgan iventar va xo‘jalik jihozlari (maxsus kiyim va poyabzallar) ni foydalanishga berilayotganda qiymati kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (3200) ga, ya’ni 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyotiga hisobdan chiqarilgan. Mazkur inventar va xo‘jalik jihozlari (maxsus kiyim va poyabzallar) ning hisobdan chiqarilmagan xarajatlari (3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyotidagi qoldig‘i) summasi - 800 000 so‘mni tashkil etgan.

Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish muddatidan oldin to‘xtatilganda foydalanishda bo‘lgan jihozlari (maxsus kiyim va poyabzallar) ning hisobdan chiqarilmagan xarajatlari (kechiktirilgan xarajatlar tarkibidagi qoldig‘i) summasi davr xarajatlari tarkibiga boshqa operatsion xarajatlar sifatida hisobdan chiqarish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti *800 000 so‘m;*

kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti *800 000 so‘m.*

Korxonaning tarkibiy bo‘linmalariga berilgan inventar va xo‘jalik jihozlari korxona omborida har bir tarkibiy bo‘linma uchun ochiladigan maxsus kartochkalarda hisobga olinadi. Maxsus kartochkalarda inventar va xo‘jalik jihozlarini berilishi va qaytarilishi, shuningdek yaroqsiz holga kelib qolgan inventar va xo‘jalik jihozlarini topshirish aks ettiriladi.

Inventar va xo‘jalik jihozlarini foydalanishga berish va ularni omborga qaytarilishini tezkor (miqdoriy) hisobini tashkil etishning bir nechta variantlarini qo‘llash ham mumkin:

a) ***birinchi variantda*** – inventar va xo‘jalik jihozlarini harakati bo‘yicha operatsiyalarni rasmiylashtirish boshlang‘ich hujjatlar bilan amalga oshiriladi:

- inventar va xo‘jalik jihozlari korxona omboridan tarkibiy bo‘linmaning ombori (maxsus saqlash joyi) ga kelib tushishi talabnoma yoki limit kartasi yozish bilan rasmiylashtiriladi;

- inventar va xo‘jalik jihozlarini tarkibiy bo‘linmaning ombori (maxsus saqlash joyi) dan korxona omboriga qaytarilishi yuk xati tuzish yoki limit kartasiga yozuvlar bilan rasmiylashtiriladi;

- yaroqsiz holga kelib qolgan va eskirgan inventar va xo‘jalik jihozlari metallalom, chiqindi, o‘tin va h.k. ko‘rinishida tarkibiy bo‘linmaning ombori (maxsus saqlash joyi) dan topshirish yuk xati bilan rasmiylashtiriladi;

b) ***ikkinchi variantda*** – tarkibiy bo‘linmaning ombori (maxsus saqlash joyi) ishchilari korxona

omboridan yaroqsiz holga kelib qolgan va eskirgan inventar va xo‘jalik jihozlarini yaroqlilariga donama - dona (birga bir) ayirboshlaydilar va bu tarkibiy bo‘linmaning ombori (maxsus saqlash joyi) dagi inventar va xo‘jalik jihozlari zaxirasining umumiy miqdorini o‘zgarishiga olib kelmaydi. Shuning uchun bu holda inventar va xo‘jalik jihozlarini berishga boshlang‘ich hujjatlar rasmiylashtirilmaydi. Ayirboshlash inventar va xo‘jalik jihozlaridan yaxshi holatda foydalanish sababli chiqib ketishi (hisobdan chiqarilishi) dalolatnomasiga asosan amalga oshiriladi.

Ikkinchi variantda foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlarini korxona omboridan tarkibiy bo‘linmaning ombori (maxsus saqlash joyi) ga yoki tarkibiy bo‘linmaning ombori (maxsus saqlash joyi) dan korxona omboriga chiqarish (berish) yoki kirim qilishning boshlang‘ich hujjatlari tarkibiy bo‘linmaning ombori (maxsus saqlash joyi) dagi mazkur qiymatliklarning zaxiralarini miqdori o‘zgarishiga olib keladigan operatsiyalar bo‘yichagina rasmiylashtiriladi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan varinant (ikkinchi variant) ni ombor va asbob-uskunalar xo‘jaligi tizimi yaxshi tashkil etilgan, shuningdek hisobga olish va nazorat qilish ishlari yetarli darajada yo‘lga qo‘yilgan korxonalarda tadbiq etish tavsiya qilinadi.

Inventar va xo‘jalik jihozlarini tarkibiy bo‘linmaning ombori (maxsus saqlash joyi) dan ish joylariga bir oydan ko‘proq muddatga berilishi texnologik kartalarga muvofiq amalga oshiriladi. Inventar va xo‘jalik jihozlarini dastlabki berilishi ustaning talabnomasiga asosan amalga oshirilada va shaxsiy kartochkalar rasmiylashtiriladi. SHaxsiy kartochkalar inventar va xo‘jalik jihozlarini oluvchi har bir ish joyiga, har bir sozlovchiga yoki ishchiga bir nusxadan ochiladi. Ishchi shaxsiy kartochkaga olgan asbob-uskunasi uchun imzo chekadi.

Tarkibiy bo‘linmaning ombori (maxsus saqlash joyi) dan keyinchalik yaxshi holatda eskirgan inventar va xo‘jalik jihozlarini o‘rniga foydalanishga yaroqli holda bo‘lganlarga donama - dona (birga bir) berilishi boshlang‘ich hujjatlar bilan rasmiylashtirilmaydi yoki ishchining shaxsiy kartochkasida quyidagi yozuvlar bilan rasmiylashtiriladi: tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) ning ishchisi foydalanishga yaroqsiz holda bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlarini qabul qilib olganligi to‘g‘risida imzo chekadi, ishchi esa olgan sanasini ko‘rsatgan holda foydalanishga yaroqli holda bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlarini olganligi to‘g‘risida imzo chekadi. Foydalanishga yaroqli holda bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlarini foydalanishga yaroqsiz holda bo‘lganlariga ayirboshlash faqat inventar va xo‘jalik jihozlaridan yaxshi holatda foydalanish sababli chiqib ketishi (hisobdan chiqarilishi) dalolatnomasiga taqdim etilganda amalga oshiriladi.

Foydalanishga yaroqli holda bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlarini foydalanishga yaroqsiz holda bo‘lganlarini qaytarib toshirmasdan berish yoki muddatidan oldin yoki foydalanish qoidalarini buzilishi oqibatlarida foydalanishga yaroqsiz holga kelgan inventar va xo‘jalik jihozlariga ayirboshlash talabnomaga asosan amalga oshiriladi. Ishchining shaxsiy kartochkasida foydalanishga yaroqsiz holda bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlarini topshirilganligi va foydalanishga yaroqli holda bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlarini olganligi to‘g‘risida tegishli yozuvlar amalga oshiriladi. Ishchining shaxsiy kartochkasidagi ushbu yozuvlar tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) ishchisining va inventar va xo‘jalik jihozlarini olayotgan ishchining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Odatda, inventar va xo‘jalik jihozlarini bir oydan kamroq muddatga (bir smenaga, korxona tomonidan belgilangan boshqa davrlarga) berilganda, inventar va xo‘jalik jihozlarini berishning markalash tizimi qo‘llaniladi.

Markalash tizimida inventar va xo‘jalik jihozlari ishchilarga asbob-uskunalarga berilgan markalash tamg‘asiga asosan hech bir hujjatlarda ro‘yxatga olmasdan beriladi.

Odatda, asbob-uskunalarga berilgan markalash tamg‘asi metall ko‘rinishida (temir yoki

boshqa metallardan) tayyorlanadi, bunda har bir markalash tamg‘asiga tarkibiy bo‘linmaning, tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) ning raqami, shuningdek ishchining tabel raqami yoki markalash tamg‘asining tartib raqami tushiriladi. Har bir ishchining tabel raqamiga kerakli miqdordagi asbob-uskunalarga berilgan markalash tamg‘asi tayyorlanadi.

Tayyorlangan asbob-uskunalarga berilgan markalash tamg‘asi tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) ga vakolatli shaxs (usta) tomonidan imzolangan talabnoma, ishchilarga, korxonaning tarkibiy bo‘linmasiga ishga kelib tushganda, ularning maxsus daftar (shaxsiy kartochka) ga shaxsiy imzosi bo‘yicha beriladi. Har bir asbob-uskunalarga berilgan markalash tamg‘asi bo‘yicha tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) ishchisi faqat bitta buyumni beradi.

Bir donali tamg‘a bilan markalash tizimida ishchilar ishda foydalanish uchun inventar va xo‘jalik jihozlarini quyidagi tartibda oladilar: ishchi nechta dona inventar va xo‘jalik jihozlarini olishi kerak bo‘lsa, tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) ga shuncha dona asbob-uskunalarga berilgan markalash tamg‘asini taqdim etadi. Tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) ishchisi ishchiga inventar va xo‘jalik jihozlarini berayotganda, berilgan inventar va xo‘jalik jihozlari saqlangan stellaj bo‘lmasiga asbob-uskunalarga berilgan markalash tamg‘asini joylaydi. Inventar va xo‘jalik jihozlarini tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) ga topshirganda ishchi o‘zining asbob-uskunalarga berilgan markalash tamg‘asini qaytarib oladi.

Ikki donali tamg‘a bilan markalash tizimida ishchilarga qisqa muddatli foydalanishga inventar va xo‘jalik jihozlari berilganda ikki turdagi markalash tamg‘asi qo‘llaniladi: inventar va xo‘jalik jihozlarini ishchilardan qaysi biriga berilganligini belgilash uchun mo‘ljallangan ishchining tabel raqami tushirilgan markalash tamg‘asi va ishchiga qaysi inventar va xo‘jalik jihozlari berilganligini aniqlash uchun foydalaniladigan inventar va xo‘jalik jihozlarini nomenklatura raqami tushirilgan markalash tamg‘asi.

Ishchining tabel raqami tushirilgan asbob-uskunalarga berilgan markalash tamg‘asi inventar va xo‘jalik jihozlarini tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) dan olgunga qadar ishchining o‘zida bo‘ladi, inventar va xo‘jalik jihozlarini olishda esa tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) ga beradi.

Nomenklatura raqami tushirilgan asbob-uskunalarga berilgan markalash tamg‘asi inventar va xo‘jalik jihozlarini berilgunga qadar stellajning tegishli bo‘lmasida saqlanadi, inventar va xo‘jalik jihozlari berilganda esa tegishli nazorat qilish moslamalariga joylanadi.

Nomenklatura raqami tushirilgan asbob-uskunalarga berilgan markalash tamg‘asi bilan bir qatorda zarur bo‘lganda asbob-uskunalarga beriladigan maxsus jetonlar ham qo‘llanilishi mumkin. Ular markalash tamg‘asiga qo‘shimcha ravishda qaysi inventar va xo‘jalik jihozlari bo‘yicha zaxiralar minimal chegaragacha kamayganligi bo‘yicha signal (xabar) berish uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

Aniq bir turdagi inventar va xo‘jalik jihozlari ishchiga qachon (qaysi smenada) berilganligini aniqlash uchun jetonlarning boshqa tuzilishdagilarini ham qo‘llash mumkin. Ushbu jetonlar, inventar va xo‘jalik jihozlarini ishchilarga berilgunga qadar, tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) ishchisida saqlanadi, inventar va xo‘jalik jihozlari berilganda esa tegishli nazorat qilish moslamalariga joylanadi.

Inventar va xo‘jalik jihozlarini tekshirishga, charxlashga yoki ta’mirlashga topshirilganda tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) ishchisi ikki nusxada kvitantsiya (buyurtma) tuzadi. Inventar va xo‘jalik jihozlari kvitantsiya (buyurtma) ning birinchi nusxasi bilan laboratoriya (ta’mirlash ustaxonasi) ga, ikkinchi nusxasiga imzo chekilgan holda, beriladi.

Kvitantsiya (buyurtma) ning ikkinchi nusxasi tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) da qoladi va tekshirish (charxlash, ta’mirlsh) dan keyin inventar va xo‘jalik jihozlarini laboratoriya (ta’mirlash ustaxonasi) dan qaytarib olish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Korxona rahbari tomonidan tasdiqlangan ro‘yxatga muvofiq kamyob (topilmaydigan) yoki tarkibida qimmatli metallar yoki qimmatli toshlar mavjud bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlari safiga kiritlagan, inventar va xo‘jalik jihozlarini foydalanishga olish uchun ham tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) ga vakolatli shaxs tomonidan imzolangan talabnoma taqdim etiladi. Talabnomada inventar va xo‘jalik jihozlarini oladigan ishchining imzosi bo‘lishi kerak. Inventar va xo‘jalik jihozlarini tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) ga topshirilganda talabnoma qaytariladi.

Ishchilarga maxsus kiyimlar, belgilangan tartibda tasdiqlangan maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa yakka tartibda himoyalanish vositalarini tekin berishning tarmoq bo‘yicha namunaviy me’yorlari, shuningdek ishchilarni maxsus kiyim, maxsus poyabzal va boshqa yakka tartibda himoyalanish vositalari bilan ta’minlashning qoidalari asosidagi kollektiv shartnomada belgilangan tartibda beriladi.

Ishchilarga maxsus kiyimlarni berish va ular tomonidan qaytarilishi ishchilarning shaxsiy kartochkasida aks ettrilishi kerak.

Maxsus kiyimlarni ishchilarga berilishini rasmiylashtiriluvchi hujjatlar (talabnoma va h.k.lar) da, boshqa rekvizitlar bilan bir qatorda berishning asosi, shaxsiy kartochkada esa kiyish mumkin bo‘lgan muddati, qaytarilganda foydalanishga yaroqliyligi darajasi (foizi) aks ettirilishi lozim.

Korxonalarda maxsus kiyimlarni foydalanishda bo‘lish muddati bo‘yicha nazorat o‘rnatiladi. Buning uchun, masalan ishchiga berish sanasini ko‘rsatgan holda ularga shtamp qo‘yish tavsiya etiladi.

Ishchilarga berilgan maxsus kiyimlar korxonaning mulki hisoblanadi va ular: ishdan bo‘shaganda, shu korxonaning o‘zida, unga berilgan maxsus kiyim, maxsus poyabzal va yakka tartibda himoyalanish vositalari me’yorlarda nazarda tutilmagan boshqa ishga o‘tkazilganda, shuningdek ularni kiyish mumkin bo‘lgan muddat tugaganda o‘rniga yangisini olganda qaytarilishi lozim.

Kollektiv foydalanishdagi navbatchi maxsus kiyim, tarkibiy bo‘linma ombori (maxsus saqlash joyi) da yoki uchastkalarda joylashgan bo‘lishi va ishchilarga faqat ular nazarda tutilgan ishlarni bajarish vaqtida berilishi yoki ma’lum bir ish joylariga (masalan, tashqarida joylashgan postlarda jun po‘stinlar, elektr tarmoqlari (buyumlari) o‘rnatishda elektr tokini o‘tkazmaydigan qo‘lqoplar va h.k.lar) biriktirilgan bo‘lishi va bir smenadan boshqasiga berilishi kerak. Bunday hollarda maxsus kiyim tegishli shaxsning javobgarligiga beriladi. Navbatchi maxsus kiyimlar va moslamalar alohida kartochkaga «Navbatchi» belgisi bilan yoziladi.

Ishchilar tomonidan maxsus kiyimlar tozalashga, dezinfektsiyaga, ta’mirlashga, shuningdek qishki (issiq) maxsus kiyimlarni yozgi (issiq) vaqt kelishi munosabati bilan topshirilishi, tashkiliy ravishda saqlanishi uchun qaydnomalarda rasmiylashtiriladi va maxsus kiyimlarni qabul qilib olinganligi to‘g‘risida moddiy javobgar shaxs tomonidan imzolanadi.

Ishchilarga maxsus kiyimlar tozalashdan, dezinfektsiyadan, ta’mirlashdan va saqlashdan (issiq maxsus kiyimlar va maxsus poyabzallar) keyin, qabul qilishda rasmiylashtirilgan qaydnomalar bo‘yicha maxsus kiyimlarni qabul qilib olinganligi to‘g‘risida ishchining imzosi (buning uchun nazarda tutilgan ustunga) bilan amalga oshiriladi.

Korxonaning inventar va xo‘jalik jihozlarini ta’mirlash hamda ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlari (masalan, maxsus asbobni charxlash, alohida uzel va detallarni almashtirish

va h.k.lar) inventar va xo‘jalik jihozlarining vazifasidan kelib chiqib ishlab chiqarish xarajatlari yoki davr xarajatlariga kiritiladi.

Inventar va xo‘jalik jihozlarini ishchi holatda saqlash maqsadida amalga oshirilgan ta’mirlar va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Inventar va xo‘jalik jihozlari sifatida hisobga olingan quyidagi buyumlarni ishchi holatda saqlash maqsadida ta’mirlash ishlarini amalga oshirildi.

Ikkita holatni (ta’mirlash ishlarini kim tomonidan bajarilishi va xarajatlarni olib borish manbasidan kelib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Ishlab chiqarishdagi yong‘in xavfsizli buyumi (suv nasosi) ni ta’mirlash ishlarini korxonaning o‘zida amalga oshirilgan. Ta’mirlash bo‘yicha xarajatlar quyidagilardan iborat: yordamchi material xarajatlari 350 000 so‘m va ishchilarga ish haqi hisoblash 100 000 sum.

Inventar va xo‘jalik jihozlarni ta’mirlash bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 2510 «Umumishlabchiqarish
xarajatlari» schyoti 450 000 so‘m;
kredit 1090 «Boshqa materiallar» schyoti 350 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim
bilan hisoblashishlar» schyoti 100 000 so’m.

2-holat:

Pudratchi korxona tomonidan quyidagilarni ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan:

- dastgohlarni joriy ta’mirlashda (sozlash uchun) ishlatiladigan asbob-uskunani – ta’mirlash xarajati 150 000 so‘m;
- ta’mirlash ustaxonasidagi maxsus kiyimlarni – ta’mirlash xarajati 250 000 so‘m;
- korxona qoshidagi maktabgacha ta’lim muassasasiga ko‘rpa-to‘shaklarni – ta’mirlash xarajati 500 000 so‘m;
- korxona buxgalteriyasiga yozuv - chizuv jihozlari (stol ustiga qo‘yiladigan asboblar va h.k.lar) ni – ta’mirlash xarajati 50 000 so‘m.

Inventar va xo‘jalik jihozlarni ta’mirlash bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 150 000 so‘m;
debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 250 000 so‘m;
debet 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi
xo‘jaliklar» schyoti 500 000 so‘m;
debet 9420 «Ma’muriy xarajatlar» schyoti 50 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 950 000 so‘m.

Foydalanishda bo‘lgan, biroq keyinchalik o‘z vazifasi bo‘yicha foydalanilmayotgan inventar va xo‘jalik jihozlari boshqa operatsion daromad sifatida 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyotida mazkur inventar va xo‘jalik jihozlarining sof sotish qiymati bo‘yicha kirim qilinishi mumkin. Bunda, agar ushbu inventar va xo‘jalik jihozlari bo‘yicha kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarda summa qoldig‘i bo‘lsa, unda ular ham hisobot davrining xarajatlari sifatida moliyaviy natijalarda, ya’ni 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotida aks ettirilishi lozim.

Foydalanishda bo‘lgan, biroq keyinchalik o‘z vazifasi bo‘yicha foydalanilmayotgan inventar va xo‘jalik jihozlarini omborga qayta kirim qilish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Foydalanishda bo‘lgan, biroq keyinchalik o‘z vazifasi bo‘yicha foydalanilmayotgan inventar va xo‘jalik jihozlarini omborga qayta kirim qilindi.

Ikkita holatni (inventar va xo‘jalik jihozlarini foydalanishga berishda hisobdan chiqarish tartibidan kelib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Foydalanishda bo‘lgan, biroq keyinchalik o‘z vazifasi bo‘yicha foydalanilmayotgan inventar va xo‘jalik jihozlarini foydalanishga berilayotgan qiymati tegishli hisobot davri xarajatlariga to‘liq hisobdan chiqarilgan. Mazkur inventar va xo‘jalik jihozlarini foydalanishga berishdagi qiymati - 2 500 000 so‘mni va qayta omborga kirim qilishdagi sof sotish qiymati - 2 100 000 so‘mni tashkil etgan.

Foydalanishda bo‘lgan, biroq keyinchalik o‘z vazifasi bo‘yicha foydalanilmayotgan inventar va xo‘jalik jihozlarini omborga qayta kirim qilish bilan bog‘liq operatsiyalar «korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 1080 «Inventar va xo‘jalik
jihozlari» schyoti *2 100 000 so‘m;*
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti *2 100 000 so‘m.*

Bir vaqtning o‘zida, balansdan tashqari schyotlardan hisobdan chiqarilgan inventar va xo‘jalik jihozlari summasiga:

kredit balansdan tashqari 014 «Foydalanishdagi inventar
va xo‘jalik jihozlari» schyoti *2 500 000 so‘m.*

2-holat:

Foydalanishda bo‘lgan, biroq keyinchalik o‘z vazifasi bo‘yicha foydalanilmayotgan iventar va xo‘jalik jihozlarini foydalanishga berilayotgan qiymati kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (3200) ga, ya’ni 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyotiga hisobdan chiqarilgan. Mazkur inventar va xo‘jalik jihozlarining hisobdan chiqarilmagan xarajatlari (3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyotidagi qoldig‘i) summasi - 2 200 000 so‘mni va qayta omborga kirim qilishdagi sof sotish qiymati - 2 000 000 so‘mni tashkil etgan.

Foydalanishda bo‘lgan, biroq keyinchalik o‘z vazifasi bo‘yicha foydalanilmayotgan inventar va xo‘jalik jihozlarini omborga qayta kirim qilish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- inventar va xo‘jalik jihozlari sof sotish qiymati bo‘yicha boshqa operatsion daromadlar sifatida kirim qilinganda:

debet 1080 «Inventar va xo‘jalik
jihozlari» schyoti *2 000 000 so‘m;*
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti *2 000 000 so‘m.*

- inventar va xo‘jalik jihozlarining hisobdan chiqarilmagan xarajatlari (kechiktirilgan xarajatlar tarkibidagi qoldig‘i) summasi davr xarajatlari tarkibiga boshqa operatsion xarajatlar sifatida hisobdan chiqarilganda:

debet 9430 «Boshqa operatsion harajalar» schyoti *2 200 000 so‘m;*
kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan
xarajatlar» schyoti *2 200 000 so‘m.*

Chiqib ketayotgan yoki mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish

uchun yoki korxonaning boshqarish ehtiyojlari uchun foydalanilmayotgan inventar va xo‘jalik jihozlari obyektlari hisobdan chiqarilishi kerak.

Inventar va xo‘jalik jihozlari 4-son BHMS da nazarda tutilgan hollarda chiqib ketishi mumkin. Inventar va xo‘jalik jihozlari ma’naviy va jismoniy eskirishi, avariyalar, tabiy ofatlar va boshqa favqulotda holatlarda tugatilishi mumkin.

Inventar va xo‘jalik jihozlari hisobga olishning alohida obyekti sifatida hisobdan chiqarish faqat ular haqiqatda jismonan (natura ko‘rinishida) chiqib ketganda amalga oshiriladi. Bunda, inventar va xo‘jalik jihozlari obyekti qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxiga o‘tkazishning tugashi ularni haqiqatda jismonan (natura ko‘rinishida) chiqib ketishi davri bilan mos kelmasligi mumkin.

Inventar va xo‘jalik jihozlarining chiqib ketishidan daromadlar va xarajatlar, moliyaviy natijalarga boshqa operatsion daromadlar va xarajatlar sifatida olib borilishi lozim.

Inventar va xo‘jalik jihozlarini qiymatini balansdan tashqari schyotlardan chiqarish u haqiqatda hisobdan chiqarilganda va birlamchi hisob hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirdagina amalga oshiriladi.

9.2. Inventar va xo‘jalik jihozlarining boshlang‘ich hujjatlarda hisobi

Inventar va xo‘jilik jihozlari korxonalar tomonidan xarid qilinishi, shu jumladan sotib olish, tekinga berilishi, ustav kapitaliga ulush sifatida kelib tushishi yo‘li va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa yo‘llar bilan xarid qilinishi mumkin yoki korxona tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqarilishi mumkin.

Korxonada ishlab chiqarilgan inventar va xo‘jalik jihozlarini tarkibiy bo‘linmalar-ishlab chiqaruvchilar (sexlar) tomonidan korxona omboriga (boshqa saqlash joylariga) topshirish tegishli boshlang‘ich hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Ushbu maqsadlar uchun korxonalarga talabnoma-yuk xati va (yoki) yuk xatlaridan foydalanishni tavsiya etiladi. Talabnoma-yuk xati (yuk xati) qoida bo‘yicha uch nusxada yoziladi. Odatda birinchi nusxa ishlab chiqarilgan inventar va xo‘jalik jihozlarini kirim qilish va tegishli buyurtmalar bo‘yicha xarajatlarni hisobdan chiqarish uchun buxgalteriyaga beriladi, ikkinchi nusxa ishlab chiqarilgan inventar va xo‘jalik jihozlari obyektlari bilan birga korxona omboriga (boshqa saqlash joyilariga) beriladi, uchinchi nusxa esa tarkibiy bo‘linma – ishlab chiqaruvchida qoladi.

Xarid qilingan inventar va xo‘jalik jihozlari kirim qilinishi va ularning harakati, shuningdek ularning chiqib ketishi boshqa tovar-moddiy zaxiralariga o‘xshash tartibda va shakldagi boshlang‘ich hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi. SHuningdek inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobga olishning xususiyatlaridan kelib chiqib ularning harakatini aks ettiradigan boshqa birlamchi hujjatlar ham ishlatilishi mumkin.

Inventar va xo‘jalik jihozlarini korxona omborlaridan (boshqa saqlash joylaridan) ishlab chiqarishga (foydalanishga) chiqarish (berish) limit-zabor kartasi va inventar va xo‘jalik jihozlarini harakati bo‘yicha korxona tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan boshqa boshlang‘ich hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarishni texnologik jarayonlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, korxonada ishlab chiqarilgan inventar va xo‘jalik jihozlarini korxona omboriga haqiqa olib kirmasdan, ularni korxonaning ishlab chiqaruvchi (foydalanuvchi) tarkibiy bo‘linmalariga bevosita berishni amalga oshirish mumkin.

Mehnatning zararli sharoitlarida ish bilan band bo‘lgan ishchi va xodimlarga maxsus kiyim, maxsus poyabzal va yakka tartibda himoyalanishning boshqa vositalarini berish va ularni tozalash, ta’mirlash, mavsumdan boshqa vaqtda saqlash, yaroqsiz holga kelganda qaytarib olish «Maxsus

kiyim, maxsus poyabzal va yakka tartibda himoyalanishning boshqa vositalarini hisobga olish qaydnomasi» (23-ilovaga qarang) bilan rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

«Maxsus kiyim, maxsus poyabzal va yakka tartibda himoyalanishning boshqa vositalarini hisobga olish qaydnomasi» da maxsus kiyim, maxsus poyabzal va yakka tartibda himoyalanishning boshqa vositalari bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

- qabul qiluvchi ishchi (xodim) ning familiyasi, ismi, sharifi, ro‘yxat (tabel) raqami;
- o‘lchov birligining kodi va nomi;
- nomi, nomenklatura raqami, miqdori, foydalanishga qabul qilingan sana, xizmat muddati;
- qaytarilganlik to‘g‘risida belgi. Bunda qaytarilgan maxsus kiyim, maxsus poyabzal va yakka tartibda himoyalanishning boshqa vositalarining sanasi, miqdori, yaroqlilik foizi ko‘rsatiladi.

«Maxsus kiyim, maxsus poyabzal va yakka tartibda himoyalanishning boshqa vositalarini hisobga olish qaydnomasi» bir nusxada moddiy javobgar shaxs tomonidan tuziladi. Bo‘lim rahbari va moddiy javobgar shaxs tomonidan imzolanadi. Maxsus kiyim, maxsus poyabzal va yakka tartibda himoyalanishning boshqa vositalarini qabul qilish va qaytarib topshirish tegishli ravishda qabul qiluvchining va omborchining imzolari bilan rasmiylashtiriladi.

Inventar va xo‘jalik jihozlarini korxonaning tarqatish omboridan ishchiga uzoq vaqt mobaynida foydalanish uchun berilganda «Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobga olishning kartochkasi» (24-ilovaga qarang) bilan rasmiylashtirish tavsiya etiladi. Inventar va xo‘jalik jihozlarini korxona tarqatish omboridan ishchilar brigadasiga hamda brigadirning «Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobga olishning kartochkasi» ga imzosi bilan berilishi mumkin.

«Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobga olishning kartochkasi» da inventar va xo‘jalik jihozlari bo‘yicha quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

- qabul qiluvchi ishchi (xodim) ning familiyasi, ismi, sharifi, kasbi, lavozimi, ro‘yxat (tabel) raqami;
- nomi, nomenklatura raqami, xizmat muddati;
- ishchiga berilgan sanasi, miqdori, yaroqlilik foizi;
- ishchi tomonidan qaytarilgan sanasi, miqdori, yaroqlilik foizi;
- chiqib ketganlik to‘g‘risida belgi. Bunda inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobdan chiqarishda tuzilgan «Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobdan chiqarish dalolatnomasi» ning raqami, sanasi va ularning miqdori ko‘rsatiladi.

«Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobga olishning kartochkasi» bir nusxada sexni tarqatish omboridagi moddiy javobgar shaxs tomonidan, inventar va xo‘jalik jihozlarini qabul qilgan har bir ishchiga yoki moddiy javobgar shaxsga to‘ldiriladi. Kartochkani to‘ldirgan moddiy javobgar shaxs tomonidan imzolanadi. Inventar va xo‘jalik jihozlarini qabul qilish va qaytarib topshirish tegishli ravishda qabul qiluvchining va sexdagi tarqatish omborchisining imzolari bilan rasmiylashtiriladi. «Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobga olishning kartochkasi» sexni tarqatish omborida moddiy javobgar shaxs tomonidan kartotekada saqlanadi.

Foydalanishda bo‘lgan inventar va xo‘jalik jihozlarini ta’mirlash (asbob-uskunalarni tuzatish, charxlash, detallari va ehtiyot qismlarini almashtirish) va kimyoviy tozalash bo‘yicha buyurtmalarni «Inventar va xo‘jalik jihozlarini ta’mirlash bo‘yicha buyurtma» (25-ilovasiga qarang) bilan rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

«Inventar va xo‘jalik jihozlarini ta’mirlash bo‘yicha buyurtma» da ta’mirlash va tozalashga topshirilayotgan inventar va xo‘jalik jihozlarini nomi, invetar raqami va miqdori, buyurtma bo‘yicha bajariladigan ish nomi va kodi, inventar va xo‘jalik jihozlari bo‘yicha izohlar ko‘rsatiladi.

«Inventar va xo‘jalik jihozlarini ta’mirlash bo‘yicha buyurtma» ikki nusxada mazkur inventar

va xo‘jalik jihozlari bo‘yicha ta’mirlash va tozalash ishlari amalga oshiriladigan sex yoki bo‘lima boshlig‘i tomonidan tuziladi. «Inventar va xo‘jalik jihozlarini ta’mirlash bo‘yicha buyurtma» inventar va xo‘jalik jihozlarini ta’mirlash va tozalashga topshirgan har bir ishchi yoki moddiy javobgar shaxs to‘ldiriladi. Inventar va xo‘jalik jihozlarini qabul qilish va qaytarib topshirish tegishli ravishda qabul qiluvchining va topshiruvchining imzolari bilan rasmiylashtiriladi. «Inventar va xo‘jalik jihozlarini ta’mirlash bo‘yicha buyurtma» ning birinchi nusxasi qabul qiluvchida moddiy javobgar shaxsda ikkinchi nusxasi topshiruvchi moddiy javobgar shaxsda saqlanadi.

Inventar va xo‘jalik jihozlarini yaroqsizligini belgilash va ularni hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi masalalarni yechish uchun, ish hajmi, ularni o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, korxona komissiya tuzishi mumkin.

Tabiiy eskirishi, sinishi (shikastlanishi) yoki buzilishi natijasida yaroqsiz holga kelgan inventar va xo‘jalik jihozlari chiqib ketayotganda komissiya tomonidan «Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobdan chiqarish dalolatnomasi» (26-ilovaga qarang) bilan rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

Komissiya korxona rahbari (rahbar o‘rinbosari) raisligida tuziladi. Komissiya tarkibiga korxonaning tegishli mutaxassislari, buxgalteriya xodimlari, inventar va xo‘jalik jihozlarini butligiga moddiy javobgar shaxslar qo‘shilishi shart. Komissiya korxona rahbarining buyrug‘i bilan tashkil etiladi.

Komissiyasining inventar va xo‘jalik jihozlaridan foydalanish masallari qismi bo‘yicha vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- hisobdan chiqarishga taqdim etilgan inventar va xo‘jalik jihozlari obyektlarini bevosita ko‘rib chiqish va ularni keyinchalik foydalanishga yaroqsizligini yoki qayta tiklash imkoniyati (imkoniyati yo‘qligi) ni yoki maqsadga muvofiqgini belgilash;

- hisobdan chiqarish sabablarini (jismoniy eskirishi, foydalanish me’yoriy shartlarining buzilishi, avariya, yong‘in, tabiiy ofat, va boshqalarni) belgilash;

- inventar va xo‘jalik jihozlari obyektlarini hisobdan chiqarish muddatidan oldin foydalanishdan chiqib ketishiga aybdor bo‘lgan shaxsni aniqlash, qonunchilikda belgilangan me’yorlar asosida javobgarlikga tortish to‘g‘risida korxona rahbariyatiga takliflar kiritish;

- hisobdan chiqarilayotgan inventar va xo‘jalik jihozlari obyektlarini alohida qismlarini, detallari, materiallari va boshqa qismlaridan foydalanish mumkinligini aniqlash;

- inventar va xo‘jalik jihozlari obyektlarini hisobdan chiqarish dalolatnomasini tuzish va korxona rahbari yoki u tomonidan vakolat berilgan shaxsga dalotlatnomani tasdiqlashga taqdim etish;

- hisobdan chiqarilayotgan obyektlarni buzishdan (hisobdan chiqarish dalolatnomasi tasdiqlangandan keyin) olinagan yaroqli uzellarni, detallarini, shu jumladan tarkibida qimmatbaho metallar mavjudlarini, materiallarni va boshqa qismlarni olinishini nazorat qilishni amalga oshirish.

Komissiya korxona buxgalteriyasi vakillarining majburiy ishtirokida hisobdan chiqarilayotgan obyektlarni buzishdan olingan moddiy qiymatliklarni baholashni amalga oshiradi.

Buzishdan olingan moddiy qiymatliklar yuk xatlari bilan rasmiylashtiriladi va korxona omboriga topshiriladi. Bir nechta dalolatnomalar bo‘yicha hisobdan chiqarilgan obyektlarni buzishdan olingan moddiy qiymatliklar bo‘yicha bitta yuk xati yozilishi mumkin va unda barcha hisobdan chiqarish to‘g‘risidagi dalolatnomalar ko‘rsatib o‘tiladi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan moddiy qiymatliklar buxgalteriya hisobida materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000) ning debetida asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlari bilan bog‘langan holda boshqa operatsion daromadlar sifatida aks ettiriladi.

«Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobdan chiqarish dalolatnomasi» da: hisobdan chiqarilayotgan inventar va xo‘jalik jihozlarining nomi va ularni o‘ziga xos belgilari, miqdori; haqiqiy tannarxi; hisobdan chiqarish sanasi holatiga obyekt qiymatini xarajatlarga o‘tkazilgan summasi; belgilangan foydalanish muddati (ishlar hajmi); foydalanishga kelib tushgan sanasi (oy va yil); ishdan chiqish (chiqib ketish) sabablari; obyektni hisobdan chiqarish va aybdor shaxslardan moddiy zararni undirib olish to‘g‘risidagi takliflar ko‘rsatiladi. «Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobdan chiqarish dalolatnomasi» korxona rahbari yoki u tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan tasdiqlanadi.

«Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobdan chiqarish dalolatnomasi» ikki nusxada tuziladi, korxona rahbari tomonidan tayinlangan komissiya a’zolari tomonidan imzolanadi va korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Birinchi nusxa buxgalteriya beriladi, ikkinchi nusxa esa hisobdan chiqarishga asos bo‘lishi uchun moddiy javobgar shaxsda qoladi. Yaroqsiz inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobdan chiqarish faqat korxona rahbari tomonidan dalolatnoma tasdiqlangandan keyin amalga oshiriladi.

Yaroqsiz inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobdan chiqarish tugagandan keyin inventar va xo‘jalik jihozlarini chiqib ketishidan moliyaviy natijani aniqlash maqsadida korxona buxgalteriyasi tomonidan «Inventar va xo‘jalik jihozlarini chiqib ketishi bilan bog‘liq xarajatlar va ularni chiqib ketishidan kelib tushgan materiallar to‘g‘risida ma’lumotnoma» (27-ilovaga qarang) tuzish tavsiya etiladi. Mazkur ma’lumotnomada inventar va xo‘jalik jihozlarini chiqib ketishi va buzilishi (sinishi) oqibatlarini bartaraf etish bilan bog‘liq xarajatlar, shuningdek inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobdan chiqarishda olingan materiallarning nomi, og‘irligi, bahosi va summasi ko‘rsatiladi. «Chiqib ketish natijalari» qatorida inventar va xo‘jalik jihozlarini chiqib ketishdan moliyaviy natijalar ko‘rsatiladi.

Hisobot davri uchun inventar va xo‘jalik jihozlarining mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish uchun inventar va xo‘jalik jihozlarining kirimi va chiqimiga tegishli boshlang‘ich hisob hujjatlariga asosan korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadigan «Inventar va xo‘jalik jihozlarining harakati to‘g‘risidagi hisobot» (28-ilovaga qarang) tuzish tavsiya etiladi.

«Inventar va xo‘jalik jihozlarining harakati to‘g‘risidagi hisobot» da inventar va xo‘jalik jihozlarining nomi va inventar raqami, korxona xarid qilgan inventar va xo‘jalik jihozlarini yetkazib beruvchi (mol yetkazib beruvchi) ning nomi, inventar va xo‘jalik jihozlarining hisobot davri boshiga qoldig‘i (miqdori va summasi), hisobot davri davomida kelib tushishi (kelib tushgan sanasi, asos bo‘lgan hujjatning raqami, miqdori va summasi), hisobot davri davomida chiqib ketishi va foydalanishga topshirilishi (chiqib ketgan va foydalanishga topshirilgan sanasi, asos bo‘lgan hujjatning raqami, miqdori va summasi) va hisobot davri oxiridagi qoldig‘i (miqdori va summasi) ko‘rsatiladi.

«Inventar va xo‘jalik jihozlarining harakati to‘g‘risidagi hisobot» moddiy javobgar shaxs tomonidan ikki nusxada har hisobot davri oxirida ya’ni har oy yoki chorak oxirida tuziladi. Buxgalter va moddiy javobgar shaxs tomonidan imzolanadi. Hisobotning birinchi nusxasi hisobot tuzish uchun asos bo‘lgan hujjatlarni ilova qilingan holda buxgalteriyaga beriladi, ikkinchi nusxasi moddiy javobgar shaxsda qoladi.

Inventar va xo‘jalik jihozlarining mavjudligi va harakatlanishini inventar va xo‘jalik jihozlarining nomi (nomenklatura raqami) yoki ularning guruhi (yiriklashtirilgan komplektlar kesimida, foydalanishga kelib tushgan sanasi (oy, yil) ni ko‘rsatish bilan xarid qilish (ishlab chiqarish) ning haqiqiy tannarxi bo‘yicha, foydalanish joyi (tarkibiy bo‘linmalar bo‘yicha) va moddiy javobgar shaxslar bo‘yicha buxgalteriya hisobida aks ettirish maqsadida korxonaning

buxgalteriyasi tomonidan «Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobga olish qaydnomasi» (29-ilovaga qarang) tuzish tavsiya etiladi. Bunda, inventar va xo‘jalik jihozlarining miqdoriy va summaviy ko‘rsatkichlarining kamayishi to‘g‘risidagi ma’lumot inventar va xo‘jalik jihozlari guruhlari bo‘yicha «Xo‘jalik operatsiyasi mazmuni» ustunining tegishli qatorida «minus» belgisi bilan ko‘rsatiladi.

«Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobga olish qaydnomasi» da:

- korxona tomonidan xarid qilingan (korxonaga kelib tushgan) va 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyotida hisobga olingan inventar va xo‘jalik jihozlarini;

- foydalanishga berilganda qiymati xarajatlarga to‘liq olib borilgan va balansdan tashqari 014 «Foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlari» schyotida hisobga olingan inventar va xo‘jalik jihozlarini;

- foydalanishga berilganda qiymati kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (3200) ga, ya’ni 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyotiga olib borilgan va tegishli hisobot davrlarida xarajatlarga hisobdan chiqarilayotgan inventar va xo‘jalik jihozlarini analitik hisobi amalga oshiriladi.

10-§. Taralarni hisobga olishning xususiyatlari

Tara va tarabop materiallar bilan bo‘lgan operatsiyalar tovar-moddiy zaxiralar bilan bo‘lgan operatsiyalar kabi har doim o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib kelgan. ***Tara -*** mahsulotlarni (tovarlarni) saqlash, o‘rash va transportda tashish uchun ishlatiladigan buyumni ifoda etuvchi moddiy obyekt.«Taralar» tushunchasi moddiy ishlab chiqarish sohasi korxonalarida mahsulotlarni, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida tovarlarni o‘rash-joylash va tashish uchun foydalaniladigan materiallarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 414-moddasiga muvofiq, agar oldi-sotdi shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa va u majburiyatning mohiyatidan kelib chiqmasa, sotuvchi sotib oluvchiga tovarni tarada yoki o‘rab-joylangan holda topshirishi shart, o‘z xususiyatiga ko‘ra taraga joylash va (yoki) o‘rashni talab qilmaydigan tovar bundan mustasno.

Agar oldi-sotdi shartnomasida tara va o‘rash haqida talablar belgilangan bo‘lmasa, tovar bunday tovar uchun odatdagi usulda, agar talablar belgilangan bo‘lsa, sotuvchi xaridorga tovarni ushbu majburiy talablarga mos keladigan tarada va (yoki) o‘ralgan holda topshirishi shart.

Agar qonunda belgilangan tartibda tara va (yoki) o‘rashga nisbatan majburiy talablar nazarda tutilgan bo‘lsa, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan sotuvchi sotib oluvchiga tovarni ushbu majburiy talablarga mos keladigan tarada va (yoki) o‘ralgan holda topshirishi shart.

Taralarni hisobga olishning asosiy qoidalari bo‘lib: tan olish paytini belgilash, tasniflash, balans qiymatini baholash, taralar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni belgilash, xarajatlarni, shu jumladan xarajat sifatida taralar qiymatini keyinchalik tan olish, taralar qiymatini sotish (baholash)ning sof qiymatiga qadar kamaytirish; ularning chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni aniqlash hisoblanadi.

Taralar bajaradigan vazifalariga qarab quyidagilarga bo‘linadi:

- tovar-moddiy qiymatliklarini omborlarda saqlash yoki mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish texnologik jarayoni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan taralar (saqlash uchun tara);

- tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqarish jarayonida, omborlarda yoki savdo joylarida o‘rash-joylash uchun mo‘ljallangan taralar (o‘rash-joylash uchun tara);

- tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqaruvchi (mol yetkazib beruvchi) dan iste'molchi (xaridor) ga qadar harakati jarayonida tashish va saqlash uchun mo'ljallangan taralar (tashish uchun tara).

Ishlab chiqaruvchi (mol yetkazib beruvchi) dan iste'molchi (xaridor) ga yetkazish sharoit (shart) lari va foydalanish soniga (marotabasiga) ga ko'ra ko'p marotaba va bir marotaba ishlatiladigan taralarga bo'linadi.

Ko'p marotaba ishlatiladigan taralar mol yetkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi) bilan xaridor (iste'molchi) o'rtasida ko'p marotaba aylanadi va tovar-moddiy zaxiralaridan bo'shatilgandan keyin qonun hujjatlarida yoki shartnomada belgilangan tartibda mol yetkazib beruvchi korxonaga qaytarilishi lozim.

Bir marta ishlatiladigan taralar ishlab chiqarishga berilganda yoki tovar-moddiy zaxiralar chiqib ketganda korxona tomonidan xarajatlarga hisobdan chiqariladi va qaytarilmaydi.

Taralar bajaradigan funktsiyalariga ko'ra tashqi va bevosita o'rash-joylash taralariga bo'linadi. Bevosita (birlamchi) o'rash-joylash taralari o'ziga joylangan tovardan ajralmaydi va tovarni saqlash vositasi (masalan ichimliklar uchun shisha va plastik idishlar, jest konserva bankalari va boshqalar) hisoblanadi. Tashqi o'rab-joylash (masalan poliyetilen va qog'oz qoplar, yashiklar va boshqalar) birlamchini shikastlanishdan va tashqi ta'sirlardan saqlaydi.

Taralarning analitik hisobi quyidagi turlar bo'yicha yuritiladi:

- yog'och materiallaridan bo'lgan taralar;
- karton va qog'ozdan bo'lgan taralar;
- metalldan bo'lgan taralar;
- plastmassadan bo'lgan taralar;
- shishadan bo'lgan taralar;
- gazlama va nogazlama materiallardan bo'lgan taralar;
- va boshqa taralar.

Shuningdek taralarning tarkibida taralarni tayyorlash va ta'mirlash uchun maxsus mo'ljallangan materiallar va detallar – tarabop materiallar (yashiklarni yig'ish uchun detallar, bochka taxtasi, temir gardish, pardali va polietilenli tiqin, viskozadan to'qilgan qalpoqchalar, zar qog'oz va boshqalar) ham hisobga kiritiladi.

Yuklanadigan mahsulotlar (tovarlar) ning saqlanishini ta'minlash maqsadida vagonlar, kemalar, avtotarnsport va boshqa transport vositalarini qo'shimcha jihozlash uchun mo'ljallangan buyumlar 1010 «Xomashyo va materiallar» schyotida hisobga kiritiladi.

Taralar hisobining asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- taralarni tayyorlash, kelib tushishi va ularni omborlarga, sexlarga, ishlab chiqarish bo'linmalariga hamda boshqa saqlash joylariga berish bilan bog'liq operatsiyalarni to'g'ri va o'z vaqtida hujjatlarda aks ettirish;

- taralarni harakati va saqlanishining barcha bosqichlarida butligini nazoratini ta'minlash;

- ishlab chiqaruvchilardan yoki tara ta'mirlovchi korxonalardan xarid qilingan va korxonani o'zida ishlab chiqarilgan taralarni tannarxini aniqlash;

- har bir mahsulotga taralarni sarflanishi me'yorlariga, o'rash-joylashning va taralarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda taralarni sarflanishi hisobi tartibiga rioya qilish;

- xaridolar tomonidan qaytarilishi lozim bo'lgan ko'p marotaba ishlatiladigan taralarni o'z vaqtida qaytarilishini va kerak bo'lgan hollarda qonunchilikda belgilangan tartibda o'z vaqtida qaytarilmaganligi uchun sanksiyalar qo'llashni nazorat qilish;

- taralar bilan bog'liq operatsiyalarning moliyaviy natijalarini aniqlash.

Taralardan oqilona foydalanish, ularni saqlanishi va but holda bo‘lishini ta’minlash maqsadida quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- xoh bo‘sh bo‘lgan, xoh material qiymatliklari bilan band bo‘lgan barcha turdagi taralarni yaxshi saqlanishi tashkil etish;
- taralarning holatini tekshirishni tizimli ravishda o‘tkazib turish, ta’mir talab taralarni aniqlash va uni o‘z vaqtida o‘tkazilishini ta’minlash;
- korxona uchun ishlatilmaydigan va ortiqcha bo‘lgan taralarni aniqlash va belgilangan tartibda ularni sotishni amalga oshirish;
- ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni aylanish sonini ko‘paytirish, birinchi navbatda buni ularga ehtiyotkor munosabatda bo‘lish va ularni yuklash-tushirish ishlarini qoida muvofiq bajarilishi ustudan nazoratni amalga oshirish orqali qilish kerak;
- ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlash;
- kamomad va yo‘qotishga yo‘l qo‘ygan aybdor shaxslardan keltirilgan zarar qiymatini qonunchilikga muvofiq undirib olish;
- taralarni omborlardan olish va berish shuningdek ularni korxonadan olib chiqib ketishga ruxsat beradigan hujjatlarni imzolash huquqiga ega bo‘lgan mas’ul shaxslarni ro‘yxatini tuzish yoki ushbu vazifalarni material qiymatliklarini olish va berishni amalga oshirishga asos bo‘ladigan hujjatlarni imzolash huquqiga ega bo‘lgan mas’ul shaxslarga yuklash.

Taralar buxgalteriya hisobining birligi korxona tomonidan mustaqil ravishda, ular to‘g‘risida to‘liq va ishonchli ma’lumotlarni shakllantirish hamda ularning mavjudligi va harakati ustidan lozim darajada nazoratni ta’minlash maqsadida belgilanadi. Taralarning xususiyatlari, ularni xarid qilish va ulardan foydalanish tartibiga bog‘liq holda taralarning birligi ularning turi, nomenklatura raqami, turkumi, bir turdagi guruh va h.k. bo‘lishi mumkin.

21-son BHMS ga muvofiq barcha turdagi taralarning (xo‘jalik inventari sifatida foydalaniladigandan tashqari) mavjudligi va harakati quyidagicha yuritiladi:

- savdo va umumiy ovqatlanish faoliyati bilan shug‘ullanadigan korxonalarda - 2950 «Tovarlar bilan band bo‘lgan va bo‘sh taralar» schyotida;
- boshqa korxonalarda - 1060 «Tara va tara materiallari» schyotida. Mazkur schyotda taralarni tayyorlash va ularni ta’mirlash uchun mo‘ljallangan tarabop materiallar ham hisobga kiritiladi.

Chakana savdo korxonalari va umumiy ovqatlanish korxonalarining bufetlaridagi shisha taralar (shishalar, bankalar va boshqalar) ning mavjudligi va harakati 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schyotida hisobga olinadi.

Taralarning harakati bo‘yicha analitik hisob buxgalteriya tomonidan miqdor va pulda ifodalangan shaklida omborlar, sexlar, ishlab chiqarish va boshqa saqlash joylari, moddiy javobgar shaxslar, taralarning turlari va guruhlari, shuningdek ularning foydalanish maqsadi bo‘yicha yuritiladi.

Taralarni tan olish, balans qiymatini baholash, taralar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni belgilash, xarajatlarni, shu jumladan xarajat sifatida taralar qiymatini keyinchalik tan olish, taralar qiymatini sotish (baholash)ning sof qiymatiga qadar kamaytirish; ularni inventarizatsiyadan o‘tkazish va chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni aniqlash hamda buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tovar-moddiy zaxiralarning tarkibiy qismi sifatida yuqoridagi paragraflarda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

10.1. Taralarni mol yetkazib beruvchidagi hisobi

Bir marotaba ishlatiladigan taralarning mol yetkazib beruvchidagi hisobi

Ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlarni o‘rash uchun mo‘ljallangan bir marta ishlatiladigan taralar qiymati tannarx tarkibiga, savdo joylari va omborlarda tovarlarni o‘rash uchun ishlatiladigan taralar esa sotish xarajatlariga kiritiladi.

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ning 1.1.2-bandiga muvofiq, mahsulotlarni o‘rash uchun xarid qilinadigan materiallar ishlab chiqarish bilan bog‘liq moddiy xarajatlar tarkibida hisobga olinadi va mahsulotni ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladi. Bir marotaba ishlatiladigan taralar korxona tomonidan ularni ishlab chiqarishga berilganda yoki tovar-moddiy zaxiralari chiqib ketganda xarajatlar tarkibiga hisobdan chiqariladi va qaytarilishi lozim emas. Ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlarni o‘rash-joylash uchun mo‘ljallangan taralar qiymati tannarxga qo‘shiladi, savdo joylarida va omborlarda tovarlarni o‘rash-joylash uchun ishlatilganlari esa, sotish bilan bog‘liq xarajatlarga kiritiladi.

Savdo va umumiy ovqatlanish faoliyati bilan shug‘ullanadigan korxonalarda bir marotaba ishlatiladigan taralar qiymati 2950 «Tovarlar bilan band va bo‘sh taralar» schyotidan 9410 «Sotish xarajatlari» schyotiga hisobdan chiqariladi va sotish xarajatlari sifatida davr xarajatlari tarkibiga qo‘shiladi.

Boshqa korxonalarda bir marotaba ishlatiladigan taralar 1060 «Tara va tara materiallari» schyotidan hisobdan chiqariladi va quyidagilarga kiritiladi:

- 2010 «Asosiy ishlab chiqarish», 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish», 2510 «Umumishlab chiqarish xarajatlari» 2610 «Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar», 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyotlariga (ya’ni mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shiladi) - agar mahsulotni taralarga o‘rash-joylash asosiy, yordamchi ishlab chiqarish sexlarida va xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarda amalga oshirilsa;

- 9410 «Sotish xarajatlari» schyotiga (ya’ni davr xarajatlariga qo‘shiladi) – agar mahsulotni taralarga o‘rash-joylash ularni omborga topshirilgandan keyin yoki mahsulotlar (tovarlar) ni sotish jarayonida amalga oshirilsa.

Qiymati mazkur taraga o‘rab-joylangan sotiladigan tovar-moddiy zaxiralarining sotish bahosiga kiradigan taralarning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini mahsulotning o‘rash-joylash amalga oshirilgan joydan kelib chiqib misolda ko‘rib o‘tamiz.

1-holat:

Distillangan suv ishlab chiqarish bilan ham shug‘ullanadigan korxona distillangan suvni quyishga mo‘ljallangan PET-idishlarni xarid qildi. Mahsulotni taralarga quyish ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladi. Distillangan suvni quyish uchun mo‘ljallangan PET-idishlarning qiymati 2 000 000 so‘mni va qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi 400 000 so‘mni tashkil etadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi qoplashga qabul qilinadi.

Distillangan suvni quyish uchun mo‘ljallangan PET-idishlarni kirim qilish va ishlab chiqarish sexiga berish bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- distillangan suvni quyish uchun mo‘ljallangan PET-idishlarni kirim qilinganda (qo‘shilgan qiymat solig‘isiz):

debet 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 2 000 000 so‘m;

- qoplashga qabul qilingan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi:

debet 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha) 400 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 400 000 so‘m;

- distillangan suvni quyish uchun mo‘ljallangan PET-idishlar ishlab chiqarish sexiga berildi:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» *2 000 000 so‘m;*
kredit 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *2 000 000 so‘m.*

2-holat:

Distillangan suv quyilgan PET-idishlarni o‘rab-joylash uchun yordamchi ishlab chiqarish sexida karton qutilar (bir marotaba ishlatiladigan tara sifatida) tayyorlanadi. PET-idishlarga quyilgan tayyor mahsulotlarni o‘rab-joylash karton qutilar yetkazib berilgan tayyor mahsulot omborida amalga oshiriladi. Karton qutilarning ishlab chiqarish tannarxi 2 250 000 so‘m.

Karton qutilarni kirim qilish va ishlab chiqarish sexiga berish bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- karton qutilar kirim qilinganda:

debet 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *2 250 000 so‘m;*
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» *2 250 000 sum;*

- PET-idishlarga quyilgan tayyor mahsulotlarni o‘rab-joylash uchun karton qutilar tayyor mahsulot omboriga berilganda:

debet 9410 «Sotish xarajatlari» *2 250 000 so‘m;*
kredit 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *2 250 000 so‘m.*

3-holat:

Oziq-ovqat mahsulotlarini chakana savdosi bilan shug‘ullanadigan «Eskimo-savdo» magazini qandolat mahsulotlarini bir martalik qog‘oz yashiklarga joylab sotadi. Qandolat mahsulotlarini qog‘oz yashiklarga joylash savdo o‘rinlarida amalga oshiriladi va savdo o‘rinlariga har biri 500 so‘m bo‘lgan 2 000 dona qog‘oz yashiklar berilgan.

Qog‘oz yashiklarni savdo o‘rinlariga berish «4-avtobus saroyi» AJ ning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 9410 «Sotish xarajatlari» *1 000 000 so‘m;*
kredit 2950 «Tovarlar bilan band va
bo‘sh taralar» schyoti *1 000 000 so‘m;*

(1 000 000 so‘m = 2 000 dona x 500 so‘m).

Ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarning mol yetkazib beruvchidagi hisobi

Taralarning aylanishi masalasi bo‘yicha mol yetkazib beruvchilar va xaridorlarning o‘zaro munosabatlarni aniqlash bo‘yicha asosiy talablar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 450-moddasida tartibga solinadi. Agar mahsulot yetkazib berish shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, xaridor (oluvchi) tovar keltirilgan ko‘p marotaba ishlatiladigan tara va o‘rash materiallarini mol yetkazib beruvchiga qonun hujjatlarida belgilangan tartib va muddatlarda qaytarishga majbur. Boshqa tara va o‘rash materiallari faqat mahsulot yetkazib berish shartnomasida nazarda tutilgan hollardagina yetkazib beruvchiga qaytarilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan me’yorlar quyidagilarni aniqlashtiradi: xaridor tomonidan o‘zining tavsifi bo‘yicha ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarga to‘g‘ri keladigan taralarni qaytarmasligi mumkin bo‘lishi uchun, bu holatlar mol yetkazib berish shartnomasida belgilab o‘tilishi shart. Bular asosan ma’lum bir sharoitlarga ko‘ra taralarni qaytarish maqsadga muvofiq bo‘lmagan yoki imkoniyat bo‘lmagan hollarda bo‘lishi mumkin. Masalan tovarlarni yetkazib berish katta material xarajatlarni talab qiladigan uzoq tog‘li tumanlarda joylashgan korxonalarda bo‘lishi mumkin.

Ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar mol yetkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi) bilan xaridor o‘rtasida ko‘p marotaba aylanadi va tovar-moddiy zaxiralaridan bo‘shatilgandan

keyin qonunchilikda yoki shartnomada belgilangan tartibda mol yetkazib beruvchi korxonaga qaytarilishi lozim.

SHartnoma shartlari bo‘yicha xaridor ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni qaytarishga majbur bo‘lmagan hollarda uning qiymati mol yetkazib beruvchining schyot-fakturasida qadoqlab sotilishi lozim bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralarining sotish bahosiga qo‘shilgan holda ko‘rsatiladi. Bunda xaridor kirim qilayotganda qiymatini aniqlash uchun imkoniyat yaratish maqsadida, tara qiymatini alohida ko‘rsatish huquqiga ega. Mol yetkazib beruvchida qaytarilmaydigan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarning hisobi tovar-moddiy zaxiralarining sotish hisobiga o‘xshash tarzda amalga oshiriladi.

Bunda qaytarilishi lozim bo‘lmagan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni qaytarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar mol yetkazib beruvchining buxgalteriya hisobida chetdan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar sotib olishga o‘xshash tarzda aks ettiriladi. Mol yetkazib beruvchiga qaytarilgan bo‘sh taralar qiymati mol yetkazib beruvchi (tara qabul qiluvchi) tomonidan xaridorga (tara topshiruvchiga) tegishli shartnoma (oldi-sotdi, yetkazib berish va h.k) da nazarda tutilgan bahoda to‘lab beriladi.

Shartnoma shartlari bo‘yicha xaridor ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni qaytarishga majbur bo‘lgan hollarda, uning qiymati schyot-faktura va (yoki) boshqa yo‘l (tovarlarni kuzatib boruvchi) hujjatlarda tegishli shartnomalarda ko‘rsatilgan summada alohida qatorda, unda qadoqlangan mahsulotlar (tovarlar) ning sotish bahosiga qo‘shilmagan holda ko‘rsatiladi. Mol yetkazib beruvchilarda ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni qaytarilganda, ularni kirim qilish tegishli shartnomalarda ko‘rsatilgan summalarda amalga oshiriladi. Qaytarilishi lozim bo‘lgan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarning xaridor tomonidan qaytarilishi va ushbu taralardagi tovar-moddiy zaxiralar yetkazib beruvchi tomonidan taralarning olinishi daromad keltiruvchi operatsiya sifatida qaralmaydi.

Agar qaytarilishi lozim bo‘lgan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar belgilangan muddatda va sonda qaytarilmasa, buxgalteriya hisobida ularni berish asosiy faoliyatdan daromad va xarajatlar sifatida ular yuzaga kelgan hisobot davrida ularning joriy qiymati bo‘yicha aks ettiriladi. Ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni qaytarish bo‘yicha majburiyatlarni bajarilmaganligi uchun shartnoma (yetkazib berish, oldi-sotdi va h.k.) shartlarida qo‘shimcha sanksiyalar nazarda tutilishi mumkin.

Qaytarilishi lozim bo‘lgan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar qaytarilmaganda qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash davrini aniqlashda yuzaga keladigan qiyinchiliklardan qochish maqsadida korxonalar shartnomalarni rasmiylashtirishga e’tiborli bo‘lib yondoshishlari lozim. Masalan soliq idoralari xodimlari taralarni ortib jo‘natish sanasida qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblamasliklari uchun xaridorlar bilan tuzilgan shartnomada qaytariladigan taralar berilayotganligini ko‘rsatishlari shart. Bundan tashqari mol yetkazib beruvchiga taralar qaytarilishi lozim bo‘lgan sanani va ularni qaytarish tartibini ham ko‘rsatib o‘tishni tavsiya etamiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilib aytganda, qaytarilishi lozim bo‘lgan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar o‘z vaqtida qaytarilmagan hollarda ularning joriy qiymati buxgalteriya hisobida aks ettirilgan tannarxidan past bo‘lsa, qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblash maqsadlari uchun soliq solinadigan baza taralarning tannarxidan kelib chiqib belgilanadi.

Qaytarilishi lozim bo‘lgan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misollarda ko‘rib chiqamiz. Korxonada ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot (distillangan suv) plastik taraga quyib sotiladi va qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblanadi. Har biriga 4 donadan joylangan yog‘och yashiklarda 4 000 dona plastik taradagi

mahsulot sotildi. Yog‘och yashiklar qaytarilishi lozim.

Yog‘och yashiklarning qiymati va ularning qaytarilganlari sonidan kelib chiqib to‘rt holatni ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Yog‘och yashiklarning tannarxi – 21 000 so‘m. Yog‘och yashiklarning 1 000 donasi ishlatishga yaroqli holatda qaytarilgan.

Qaytarilishi lozim bo‘lgan yog‘och yashiklar bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- xaridorlarga mahsulot ortilganda (chiqarilganda):

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *21 000 000 so‘m;*
kredit 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *21 000 000 so‘m;*

- xaridorlar tomonidan yog‘och yashiklar qaytarilganda:

debet 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *2 100 000 so‘m;*
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *2 100 000 so‘m.*

2-holat:

Yog‘och yashiklarning tannarxi va joriy qiymati - 21 000 so‘m. Yog‘och yashiklarning 900 donasi ishlatishga yaroqli holatda qaytarilgan.

Qaytarilishi lozim bo‘lgan yog‘och yashiklar bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- xaridorlarga mahsulot ortilganda (chiqarilganda):

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *21 000 000 so‘m;*
kredit 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *21 000 000 so‘m;*

- xaridorlar tomonidan yog‘och yashiklar qaytarilganda:

debet 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *18 900 000 so‘m;*
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *18 900 000 so‘m;*

(18 900 000 so‘m = 900 dona x 21 000 so‘m);

- qaytarilmagan yog‘och yashiklarning tannarxi hisobdan chiqarilganda:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti *2 100 000 sum;*
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *2 100 000 so‘m;*

(2 100 000 so‘m = 100 dona x 21 000 so‘m);

- qaytarilmagan yog‘och yashiklarning joriy qiymati summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *2 100 000 so‘m;*
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti *2 100 000 so‘m;*

(2 100 000 so‘m = 100 dona x 21 000 so‘m);

- qaytarilmagan yog‘och yashiklarning qiymatiga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanganda:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan

olinadigan schyotlar» schyoti 420 000 so‘m;
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha)» 420 000 so‘m;
(420 000 so‘m = 2 100 000 so‘m x 20 % / 100);
- qaytarilmagan yog‘och yashiklari uchun xaridorlardan pul mablag‘lari kelib tushganda:
debet 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti 2 520 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti 2 520 000 so‘m;
(2 520 000 so‘m = 2 100 000 so‘m + 420 000 so‘m).

3-holat:

Yog‘och yashiklarning tannarxi - 21 000 so‘m, ularning joriy qiymati – 22 000 so‘m. Yog‘och yashiklarning 900 donasi qaytarilgan.

Qaytarilishi lozim bo‘lgan yog‘och yashiklar bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- xaridorlarga mahsulot ortilganda (chiqarilganda):
debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti 21 000 000 so‘m;
kredit 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti 21 000 000 so‘m;
- xaridorlar tomonidan yog‘och yashiklar qaytarilganda:
debet 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti 19 800 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti 18 900 000 so‘m;
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 900 000 so‘m;
(19 800 000 so‘m = 900 dona x 22 000 so‘m);
(18 900 000 so‘m = 900 dona x 21 000 so‘m);
(900 000 so‘m = 19 800 000 so‘m – 18 900 000 so‘m);
- qaytarilmagan yog‘och yashiklarning tannarxi hisobdan chiqarilganda:
debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning
tannarxi» schyoti 2 100 000 sum;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti 2 100 000 so‘m;
(2 100 000 so‘m = 100 dona x 21 000 so‘m);
- qaytarilmagan yog‘och yashiklarning joriy qiymati summasiga:
debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti 2 200 000 so‘m;
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan
daromadlar» schyoti 2 200 000 so‘m;
(2 200 000 so‘m = 100 dona x 22 000 so‘m);
- qaytarilmagan yog‘och yashiklarning qiymatiga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanganda:
debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti 440 000 so‘m;
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha)» 440 000 so‘m;
(440 000 so‘m = 2 200 000 so‘m x 20 % / 100);

- qaytarilmagan yog‘och yashiklari uchun xaridorlardan pul mablag‘lari kelib tushganda:
debet 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti 2 640 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 2 640 000 so‘m;
(2 640 000 so‘m = 2 200 000 so‘m + 440 000 so‘m).

4-holat:

Yog‘och yashiklarning tannarxi - 21 000 so‘m, ularning joriy qiymati – 20 000 so‘m. Yog‘och yashiklarning 900 donasi qaytarilgan.

Qaytarilishi lozim bo‘lgan yog‘och yashiklar bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- xaridorlarga mahsulot ortilganda (chiqarilganda):
debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 21 000 000 so‘m;
kredit 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti 21 000 000 so‘m;
- xaridorlar tomonidan yog‘och yashiklar qaytarilganda:
debet 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti 18 000 000 so‘m;
kredit 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 900 000 sum;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 18 900 000 so‘m;
(18 000 000 so‘m = 900 dona x 20 000 so‘m);
(18 900 000 so‘m = 900 dona x 21 000 so‘m);
(900 000 so‘m = 18 900 000 so‘m – 18 000 000 so‘m);
- qaytarilmagan yog‘och yashiklarning tannarxi hisobdan chiqarilganda:
debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti 2 100 000 sum;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 2 100 000 so‘m;
(2 100 000 so‘m = 100 dona x 21 000 so‘m);
- qaytarilmagan yog‘och yashiklarning joriy qiymati summasiga:
debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti 2 000 000 so‘m;
(2 000 000 so‘m = 100 dona x 20 000 so‘m);
- qaytarilmagan yog‘och yashiklarning qiymatiga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanganda:
debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 420 000 so‘m;
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» 420 000 so‘m;
(420 000 so‘m = 2 100 000 so‘m x 20 % / 100);
- qaytarilmagan yog‘och yashiklari uchun xaridorlardan pul mablag‘lari kelib tushganda:
debet 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti 2 420 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 2 420 000 so‘m;

(2 420 000 so‘m = 2 000 000 so‘m + 420 000 so‘m).

Ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni ta’mirlash va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlar (ayrim detallar, qismlarni tozalash, almashtirish va boshqalar) davr xarajatlariga kiritiladi. Olingan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni xaridorlar qaytarib berganda ularni ishchi holatga keltirish uchun amalga oshirilgan ta’mirlar va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlar (tozalash, ayrim detallar, qismlarni almashtirish va boshqalar) shartnomada nazarda tutilgan tartibda xaridorlar tomonidan qoplanishi mumkin.

Xaridorlardan qaytarib olingan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni ishchi holatga keltirish uchun amalga oshirilgan ta’mirlar va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlarni va shartnomada nazarda tutilgan tartibda xaridorlar tomonidan qoplanishi hisobini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning yordamchi ishlab chiqarish sexida xaridor bilan izolangan shartnomaga asosan qaytarib olingan temir yashiklarni ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan. Ta’mirlash bo‘yicha xarajatlar quyidagilardan iborat: yordamchi material xarajatlari 500 000 so‘m; ishchilarga ish haqi hisoblash 600 000 sum va ishchilarning ish haqi fondidan 12 foiz miqdorda ijtimoiy soliq summasi 72 000 so‘m.

Temir yashiklarni ta’mirlash bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- temir yashiklarni ta’mirlash bo‘yicha xarajatlar amalga oshirilganda:

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti — 1 172 000 so‘m;
kredit 1090 «Boshqa materiallar» schyoti — 500 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti — 600 000 so‘m;
kredit 6520 «Maqsadli daval jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti — 72 000 so‘m;

- temir yashiklarni ta’mirlash bo‘yicha bajarilgan ishlar summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti — 1 172 000 so‘m;
kredit 9030 «Ish bajarish va xizmat ko‘rsatishdan daromadlar» schyoti — 1 172 000 so‘m;

- temir yashiklarni ta’mirlash bo‘yicha bajarilgan ishlar qiymatiga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanganda:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti — 175 800 so‘m;
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» — 175 800 so‘m;

(175 800 so‘m = 1 172 000 so‘m x 15 % / 100);

- temir yashiklarni ta’mirlash bo‘yicha bajarilgan ishlarning tannarxi hisobdan chiqarilganda:

debet 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi» schyoti — 1 172 000 sum;
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti — 1 172 000 so‘m;

- temir yashiklarni ta’mirlash bo‘yicha bajarilgan ishlar uchun xaridorlardan pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti — 1 347 800 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti — 1 347 800 so‘m;

(1 347 800 so‘m = 1 172 000 so‘m + 175 800 so‘m).

Savdo korxonalarida qaytarilishi lozim bo‘lgan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni buxgalteriya hisobida aks ettirish ishlab chiqarish korxonalardagi tartibga o‘xshash tarzda amalga oshiriladi. Qaytarilishi lozim bo‘lgan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni hisobida 1060 «Tara va tara materiallari» schyotining o‘rniga 2950 «Tovarlar bilan band va bo‘sh taralar» schyoti qo‘llaniladi.

Garov summasi belgilangan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarning mol yetkazib beruvchidagi hisobi. Tovar-moddiy zaxiralar bilan yetkazib beriladigan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarning bir qancha turlari uchun mol yetkazib beruvchi xaridordan garov summasini undirishi mumkin, ushbu summa xaridorga undan taralar ishga yaroqli (buzilmagan) holatda olingandan so‘ng qaytariladi. Tara uchun garov summalarini undirishga preyskurantlar, yetkazib berishning alohida sharoitlari yoki taraflar uchun majburiy boshqa qoidalar bilan nazarda tutilgan hollarda yo‘l qo‘yiladi.

Garov summasi o‘rnatilagan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar schyot-faktura va (yoki) boshqa yo‘l (tovarlarni kuzatib boruvchi) hujjatlarda tegishli shartnomalarda ko‘rsatilgan garov summasi bo‘yicha alohida qatorda, unda qadoqlangan mahsulotlar (tovarlar) ning sotish bahosiga qo‘shilmagan holda ko‘rsatiladi. Mol yetkazib beruvchilarda ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni qaytarilganda ularni kirim qilish balans qiymati bo‘yicha amalga oshiriladi.

Xaridor tomonidan garov summasi belgilangan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar qayta ishlatish uchun mol yetkazib beruvchiga ishga yaroqli (buzilmagan) holatda qaytarilganda, unga (tarani topshiruvchiga) uning uchun to‘langan summalar qaytariladi. Bunda garov summasi belgilangan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarning xaridor tomonidan qaytarilishi va ushbu taralardagi tovar-moddiy zaxiralar sotib olingan mol yetkazib beruvchi tomonidan taralarning olinishi daromad keltiruvchi operatsiya sifatida qaralmaydi. Qaytariladigan taralar boshqa yetkazib beruvchiga yoki tara tayyorlovchi korxonaga sotilgan taqdirda, ushbu operatsiya buxgalteriya hisobida daromad keltiruvchi bitim sifatida tan olinadi.

Agar garov summasi belgilangan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar belgilangan muddatda va sonda qaytarilmasa, buxgalteriya hisobida ularni berish asosiy faoliyatdan daromad va xarajatlar sifatida ular yuzaga kelgan hisobot davrida aks ettiriladi, ya’ni xaridor tomonidan mol yetkazib beruvchiga garov summasi belgilangan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar qaytarilmagan hollarda mazkur taralar uchun garov summasi qaytarilmaydi va mol yetkazib beruvchi mazkur garov summasini moliyaviy natijalariga olib boradi. Garov summasi belgilangan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni qaytarish bo‘yicha majburiyatlarni bajarilmaganligi uchun shartnoma (yetkazib berish, oldi-sotdi va h.k.) shartlarida qo‘shimcha santsiyalar nazarda tutilishi mumkin.

Garov summasi belgilangan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar qaytarilmaganda qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash davrini aniqlashda yuzaga keladigan qiyinchiliklardan qochish maqsadida korxonalar shartnomalarni rasmiylashtirishga e’tiborli bo‘lib yondoshishlari lozim. Masalan soliq idoralari xodimlari taralarni ortib jo‘natish sanasida yoki olingan garov summasidan qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblamasliklari uchun xaridorlar bilan tuzilgan shartnomada qaytariladigan taralar berilayotganligi ko‘rsatishlari shart. Bundan tashqari mol yetkazib beruvchiga taralar qaytarilishi lozim bo‘lgan sanani va ularni qaytarish tartibini ham ko‘rsatib o‘tishni tavsiya etamiz.

Garov summasi o‘rnatilgan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misollarda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning yordamchi ishlab chiqarish sexida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot (distillangan suv) shisha taraga quyib sotiladi va qo‘shilgan

qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblanadi. Har biriga 4 donadan joylangan temir yashiklarda 2 000 dona shisha taradagi mahsulot sotildi. Temir yashiklar qaytarilishi lozim. Har bir temir yashikga garov summasi 40 000 so‘m qilib belgilangan.

Garov summasi belgilangan temir yashiklarning qiymati va qaytarilganlarining sonidan kelib chiqib ikkita holatni ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Garov summasi belgilangan temir yashiklarning tannarxi 30 000 so‘mni tashkil etadi. Garov summasi belgilangan temir yashiklarning 500 donasi ishlatishga yaroqli holatda qaytarilgan.

Garov summasi belgilangan temir yashiklar bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- xaridorlardan garov summasi kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti *20 000 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *20 000 000 so‘m;*

(20 000 000 so‘m = 500 dona x 40 000 so‘m);

- xaridorlarga mahsulot ortilganda (chiqarilganda):

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *15 000 000 so‘m;*
kredit 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *15 000 000 so‘m;*

(15 000 000 so‘m = 500 dona x 30 000 so‘m);

- xaridorlar tomonidan garov summasi belgilangan temir yashiklar qaytarilganda:

debet 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *15 000 000 so‘m;*
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *15 000 000 so‘m;*

- xaridorlarga garov summasi qaytarilganda:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *20 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti *20 000 000 so‘m.*

2-holat:

Garov summasi belgilangan temir yashiklarning tannarxi 30 000 so‘mni tashkil etadi. Garov summasi belgilangan temir yashiklarning 450 donasi ishlatishga yaroqli holatda qaytarilgan.

Garov summasi belgilangan temir yashiklar bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- xaridorlardan garov summasi kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti *20 000 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *20 000 000 so‘m;*

(20 000 000 so‘m = 500 dona x 40 000 so‘m);

- xaridorlarga mahsulot ortilganda (chiqarilganda):

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *15 000 000 so‘m;*
kredit 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *15 000 000 so‘m;*

(15 000 000 so‘m = 500 dona x 30 000 so‘m);

- xaridorlar tomonidan garov summasi belgilangan temir yashiklar qaytarilganda:

debet 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *13 500 000 so‘m;*
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *13 500 000 so‘m;*

(13 500 000 so‘m = 450 dona x 30 000 so‘m);

- garov summasi belgilangan temir yashiklarning qaytarilmaganlarini tannarxi hisobdan chiqarilganda:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti *1 500 000 sum;*
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *1 500 000 so‘m;*

(1 500 000 so‘m = 50 dona x 30 000 so‘m);

- garov summasi belgilangan qaytarilmagan temir yashiklarni garov summasi qiymatiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *1 739 130 so‘m;*
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti *1 739 130 so‘m;*

(2 000 000 so‘m = 50 dona x 40 000 so‘m);

(1 739 130 so‘m = 2 000 000 so‘m x 15% / 115);

- garov summasi belgilangan temir yashiklarning qaytarilmaganlarini qiymatiga nisbatan qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblanganda:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *260 870 so‘m;*
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» *260 870 so‘m;*

(260 870 so‘m = 2 000 000 – 1 739 130);

- garov summasi belgilangan temir yashiklarning qaytarilmaganlarini uchun garov summasini qismini ushlab qolinganda:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *2 000 000 so‘m;*
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *2 000 000 so‘m;*

(2 000 000 so‘m = 1 739 870 so‘m + 260 130 so‘m);

- xaridorlarga garov summasining qolgan qismi qaytarilganda:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *18 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti *18 000 000 so‘m;*

(18 000 000 so‘m = 20 000 000 so‘m – 2 000 000 so‘m).

Garov summasi belgilangan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni ta’mirlash va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlar (ayrim detallar, qismlarni tozalash, almashtirish va boshqalar) davr xarajatlariga kiritiladi.

Xaridorlardan qaytarib olingan garov summasi belgilangan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni ishchi holatga keltirish uchun amalga oshirilgan ta’mirlar va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlar (masalan tozalash, ayrim detallari, qismlarini almashtirish va h.k) garov summasi hisobidan qoplanishi mumkin.

Xaridorlardan qaytarib olingan garov summasi belgilangan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni ishchi holatga keltirish uchun amalga oshirilgan ta’mirlar va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlarni va shartnomada nazarda tutilgan tartibda xaridorlar tomonidan qoplanishini hisobini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning yordamchi ishlab chiqarish sexida xaridor bilan izohlangan shartnomaga asosan qaytarib olingan garov summasi belgilangan temir yashiklarni ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan. Ta’mirlash bo‘yicha xarajatlar quyidagilardan iborat: yordamchi material xarajatlari 300 000 so‘m va ishchilarga ish haqi hisoblash 500 000 sum. Garov summasi 2 000 000 so‘m va xaridor xarajatlarni garov summasi hisobidan qoplab berishga rozi.

Garov summasi belgilangan temir yashiklarni ta'mirlash bilan bog'liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- garov summasi belgilangan temir yashiklarni ta'mirlash bo'yicha xarajatlar amalga oshirilganda:

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 800 000 so'm;
kredit 1090 «Boshqa materiallar» schyoti 300 000 so'm;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 500 000 so'm;

- garov summasi belgilangan temir yashiklarni ta'mirlash bo'yicha bajarilgan ishlar summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 800 000 so'm;
kredit 9030 «Ish bajarish va xizmat ko'rsatishdan daromadlar» schyoti 800 000 so'm;

- garov summasi belgilangan temir yashiklarni ta'mirlash bo'yicha bajarilgan ishlar qiymatiga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanganda:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 120 000 so'm;
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to'lov bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» 120 000 so'm;

(120 000 so'm = 800 000 so'm x 15 % / 100);

- garov summasi belgilangan temir yashiklarni ta'mirlash bo'yicha bajarilgan ishlarning tannarxi hisobdan chiqarilganda:

debet 9130 «Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi» schyoti 800 000 sum;
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 800 000 so'm;

- garov summasi belgilangan temir yashiklarni ta'mirlash bo'yicha bajarilgan ishlar uchun garov summasini qismini ushlab qolinganda:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 920 000 so'm;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 920 000 so'm;

(960 000 so'm = 800 000 so'm + 120 000 so'm);

- xaridorlarga garov summasining qolgan qismi qaytarilganda:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 1 080 000 so'm;
kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti 1 080 000 so'm;

(1 080 000 so'm = 2 000 000 so'm – 920 000 so'm).

Savdo korxonalarida garov summasi belgilangan ko'p marotaba ishlatiladigan taralarni buxgalteriya hisobida aks ettirish ishlab chiqarish korxonalardagi tartibga o'xshash tarzda amalga oshiriladi. Garov summasi belgilangan ko'p marotaba ishlatiladigan taralarni hisobida 1060 «Tara va tara materiallari» schyotining o'rniga 2950 «Tovarlar bilan band va bo'sh taralar» schyoti qo'llaniladi.

10.2. Taralarni xaridorlardagi hisobi

«Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom» da mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan tara va o'rash materiallari qiymati ularning amalda sotilishi,

foydalanilishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo‘yicha chiqarib tashlanishi nazarda tutilgan.

Mol yetkazib beruvchidan tovar-moddiy zaxiralar bilan qabul qilingan hamda qaytarilmaydigan taralar va o‘rash materiallari qiymati ularni sotib olish xarajatlari summasiga kiritiladi. Taralarni qaytariladigan yoki qaytarilmaydigan taralar jumlasiga kiritish tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish shartnomasi (kontrakti) shartlari bilan belgilanadi.

Mol yetkazib beruvchilardan tovar-moddiy zaxiralari bilan birga kelib tushgan taralar kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarini kirim qilinishi bilan bir vaqtning o‘zida quyidagicha hisobga kiritiladi:

- bir marotaba ishlatiladigan taralar - tovar-moddiy zaxiralarining qiymati bilan birgalikda;
- agar ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarga garov summasi belgilangan bo‘lsa – shartnomada ko‘rsatilgan garov summasi bo‘yicha;
- agar ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar qaytarilishi lozim bo‘lmasa, lekin qiymati alohida qatorda ko‘rsatilgan bo‘lsa – yo‘l (kuzatish) hujjatlarida ko‘rsatilgan summa bo‘yicha;
- agar ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar qaytarilishi lozim bo‘lmasa, lekin qiymati tovar-moddiy zaxiralar bahosiga qo‘shilgan va foydalanish yoki sotilishi mumkin bo‘lsa - foydalanilish yoki sotilish mumkin bo‘lgan qiymat bo‘yicha.

Qaytarilishi lozim bo‘lgan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar qaytarilmasa, ularning qiymati tovar-moddiy zaxiralarini yetkazib beruvchilarga ularning joriy qiymati bo‘yicha qoplab beriladi.

Qaytarilishi lozim bo‘lgan, biroq garov summasi o‘rnatilmagan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni kirim qilish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini faoliyat turidan kelib chiqib misollarda ko‘rib o‘tamiz.

1-holat:

Korxona tomonidan 50 dona yog‘och yashiklarda ehtiyot qismlarni xarid qilingan. Yog‘och yashiklar qaytarilishi lozim, lekin garov summasi o‘rnatilmagan va shartnomada ularning qiymati 10 000 so‘m ko‘rsatilgan. Korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblanadi. Qaytarilishi lozim bo‘lgan biroq garov summasi o‘rnatilmagan 40 dona yog‘och yashikni qaytargan. Qaytarilishi lozim bo‘lgan, biroq garov summasi o‘rnatilmagan yog‘och yashiklarga boshqa mahsulotlar o‘rab joylanganligi sababli qaytarilmagan va ular sotilgan hamda qo‘shilgan qiymat solig‘i qoplashga qabul qilinadi.

Qaytarilishi lozim bo‘lgan biroq garov summasi o‘rnatilmagan yog‘och yashiklarni kirim qilish bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- mol yetkazib beruvchilardan ehtiyot qismlar qaytarilishi lozim bo‘lgan, biroq garov summasi o‘rnatilmagan yog‘och yashiklarda kelib tushganda:

debet 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *500 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *500 000 so‘m;*
(500 000 so‘m = 50 dona x 10 000 so‘m);

- qaytarilishi lozim bo‘lgan, biroq garov summasi o‘rnatilmagan yog‘och yashiklar qaytarilganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *400 000 so‘m;*
kredit 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *400 000 so‘m;*
(400 000 so‘m = 40 dona x 10 000 so‘m);

- qaytarilishi lozim bo‘lgan, lekin garov summasi o‘rnatilmagan yog‘och yashiklarning qaytarilmaganlarini qiymatiga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga tuzatishlar kiritilganda:

debet 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti *15 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *15 000 so‘m;*
(100 000 so‘m = 10 dona x 10 000 so‘m);
(15 000 so‘m = 100 000 so‘m x 15 % / 100);

- qaytarilishi lozim bo‘lgan, lekin garov summasi o‘rnatilmagan yog‘och yashiklarning qaytarilmaganlarining qiymati qoplanadigan summasiga:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *100 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *100 000 so‘m;*
(100 000 so‘m = 10 dona x 10 000 so‘m);

- qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi va qaytarilishi lozim bo‘lgan, lekin garov summasi o‘rnatilmagan yog‘och yashiklarning qaytarilmaganlarining qiymati qoplash summasi o‘tkazib berilganda:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *115 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti *115 000 so‘m;*
(115 000 so‘m = 100 000 so‘m + 15 000 so‘m).

2-holat:

Chakana savdo bilan shug‘ullanadigan «Eskimo-savdo» magazini 30 dona plastmassa yashiklarda oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilingan. Plastmassa yashiklar qaytarilishi lozim, lekin garov summasi o‘rnatilmagan va shartnomada ularning qiymati 25 000 so‘m ko‘rsatilgan. Qaytarilishi lozim bo‘lgan, biroq garov summasi o‘rnatilmagan 24 dona plastmassa yashikni qaytargan. «Eskimo-savdo» magazini qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblanmaydi, mol yetkazib beruvchi esa hisoblanadi. Qaytarilishi lozim bo‘lgan, biroq garov summasi o‘rnatilmagan plastmassa yashiklarga boshqa mahsulotlar o‘rab joylanganligi sababli qaytarilmagan va ular sotilgan hamda qo‘shilgan qiymat solig‘i qoplashga qabul qilinmaydi.

Qaytarilishi lozim bo‘lgan, biroq garov summasi o‘rnatilmagan plastmassa yashiklarni kirim qilish bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- mol yetkazib beruvchilardan oziq-ovqat mahsulotlari qaytarilishi lozim bo‘lgan, biroq garov summasi o‘rnatilmagan plastmassa yashiklarda kelib tushganda:

debet 2950 «Tovarlar bilan band va bo‘sh taralar» schyoti *750 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *750 000 so‘m;*
(750 000 so‘m = 30 dona x 25 000 so‘m);

- qaytarilishi lozim bo‘lgan, biroq garov summasi o‘rnatilmagan plastmassa yashiklar qaytarilganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *600 000 so‘m;*
kredit 2950 «Tovarlar bilan band va bo‘sh taralar» schyoti *600 000 so‘m;*
(600 000 so‘m = 24 dona x 25 000 so‘m);

- qaytarilishi lozim bo‘lgan, lekin garov summasi o‘rnatilmagan plastmassa yashiklarning qaytarilmaganlarini qiymatiga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga tuzatishlar kiritilganda:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar)» schyoti *22 500 so‘m;*

kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 22 500 so‘m;

(150 000 so‘m = 6 dona x 25 000 so‘m);

(22 500 so‘m = 150 000 so‘m x 15 % / 100);

- qaytarilishi lozim bo‘lgan, lekin garov summasi o‘rnatilmagan plastmassa yashiklarning qaytarilmaganlarining qiymati qoplanadigan summasiga:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 150 000 so‘m;

kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 150 000 so‘m;

(150 000 so‘m = 6 dona x 25 000 so‘m);

- qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi va qaytarilishi lozim bo‘lgan, lekin garov summasi o‘rnatilmagan plastmassa yashiklarning qaytarilmaganlarining qiymati qoplash summasi o‘tkazib berilganda:

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 180 000 so‘m;

kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti 180 000 so‘m;

(172 500 so‘m = 150 000 so‘m + 22 500 so‘m).

Garov summasi belgilangan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni kirim qilish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini faoliyat turidan kelib chiqib misollarda ko‘rib o‘tamiz.

1-holat:

Korxona tomonidan 150 dona yog‘och yashiklarda ehtiyot qismlarni xarid qilingan. Yog‘och yashiklarga garov summasi belgilangan va ular qaytarilishi lozim. Garov summasi 20 000 so‘m. Korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblanadi. Garov summasi belgilangan 120 dona yog‘och yashikni qaytargan. Garov summasi belgilangan yog‘och yashiklarga boshqa mahsulotlar o‘rab joylanganligi sababli qaytarilmagan va ular sotilgan hamda qo‘shilgan qiymat solig‘i qoplashga qabul qilinadi.

Garov summasi belgilangan yog‘och yashiklarni kirim qilish bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- mol yetkazib beruvchilarga garov summasi o‘tkazib berilganda:

debet 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schyoti 3 000 000 so‘m;

kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti 3 000 000 so‘m;

(3 000 000 so‘m = 150 dona x 20 000 so‘m);

- mol yetkazib beruvchilardan garov summasi belgilangan yog‘och yashiklarida ehtiyot qismlar kelib tushganda:

debet 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti 3 000 000 so‘m;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 3 000 000 so‘m;

- garov summasi belgilangan yog‘och yashiklar qaytarilganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 2 400 000 so‘m;

kredit 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti 2 400 000 so‘m;

(2 400 000 so‘m = 120 dona x 20 000 so‘m);

- garov summasi belgilangan yog‘och yashiklarning qaytarilmaganlarini qiymatiga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga tuzatishlar kiritilganda:

debet 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha) 78 261 so‘m;

kredit 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti 78 261 so‘m;

(600 000 so‘m = 30 dona x 20 000 so‘m);

(78 261 so‘m = 600 000 so‘m x 15 % / 115);

- qaytarilmagan yog‘och yashiklarning qiymati garov summasi hisobidan to‘langanda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *600 000 so‘m;*

kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schyoti *600 000 so‘m;*

(600 000 so‘m = 30 dona x 20 000 so‘m);

- mol yetkazib beruvchilardan garov summasi qaytarilganda (kelib tushganda):

debet 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti *2 400 000 so‘m;*

kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schyoti *2 400 000 so‘m;*

(2 400 000 so‘m = 3 000 000 so‘m – 600 000 so‘m).

2-holat:

Chakana savdo bilan shug‘ullanadigan «Eskimo-savdo» magazini 150 dona plastmassa yashiklarda oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilgan. Plastmassa yashiklarga garov summasi belgilangan va ular qaytarilishi lozim. Garov summasi 25 000 so‘m. Garov summasi belgilangan 130 dona plastmassa yashikni qaytargan. «Eskimo-savdo» magazini qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblanmaydi, mol yetkazib beruvchi hisoblanadi. Garov summasi belgilangan plastmassa yashiklarga boshqa mahsulotlar o‘rab joylanganligi sababli qaytarilmagan va ular sotilgan hamda qo‘shilgan qiymat solig‘i qoplashga qabul qilinmaydi.

Garov summasi belgilangan plastmassa yashiklarni kirim qilish bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- mol yetkazib beruvchilarga garov summasi o‘tkazib berilganda:

debet 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schyoti *3 750 000 so‘m;*

kredit 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti *3 750 000 so‘m;*

(3 750 000 so‘m = 150 dona x 25 000 so‘m);

- mol yetkazib beruvchilardan garov summasi belgilangan plastmassa yashiklarida oziq ovqat mahsulotlari kelib tushganda:

debet 2950 «Tovarlar bilan band va bo‘sh taralar» schyoti *3 750 000 so‘m;*

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *3 750 000 so‘m;*

- garov summasi belgilangan plastmassa yashiklar qaytarilganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *3 250 000 so‘m;*

kredit 2950 «Tovarlar bilan band va bo‘sh taralar» schyoti» schyoti *3 250 000 so‘m;*

(3 250 000 so‘m = 130 dona x 25 000 so‘m);

- qaytarilmagan plastmassa yashiklarning qiymati garov summasi hisobidan to‘langanda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *500 000 so‘m;*

kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schyoti *500 000 so‘m;*

(500 000 so‘m = 20 dona x 25 000 so‘m);

- mol yetkazib beruvchilardan garov summasi qaytarilganda (kelib tushganda):

debet 5110 «Hisob- kitob schyoti» schyoti *3 250 000 so‘m;*

kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schyoti *3 250 000 so‘m;*

(3 250 000 so‘m = 3 750 000 so‘m – 500 000 so‘m).

Garov summasi o‘rnatilmagan va qaytarilishi lozim bo‘lmagan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni kirim qilish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini faoliyat turidan kelib chiqib misollarda ko‘rib o‘tamiz.

1-holat:

Korxona tomonidan 20 dona plastmassa bochkalarda moylash materiallarini xarid qilingan. Plastmassa bochkalar ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar hisoblanadi. Schyot-faktura bo‘yicha plastmassa bochkalarning qiymati bilan birga moylash materiallarini xarid qilish xarajatlari 18 000 000 so‘mni tashkil qiladi. Plastmassa bochkalari qaytarilishi lozim emas. Plastmassa bochkalarning qiymati schyot-fakturada alohida qatorda ko‘rsatilmagan va komissiyaning dalolatnomasiga muvofiq ularning har birining qiymati 20 000 so‘mdan qilib belgilangan.

Garov summasi o‘rnatilmagan va qaytarilishi lozim bo‘lmagan plastmassa bochkalar bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- moylash materiallari kirim qilinganda:

debet 1030 «Yoqilg‘ilar» schyoti *18 000 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *18 000 000 so‘m;*

- moylash materiallari ishlab chiqarish sexiga berilganda:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti *18 000 000 sum;*
kredit 1030 «Yoqilg‘ilar» schyoti *18 000 000 so‘m;*

- plastmassa bochkalar omborga kirim qilinganda:

debet 1060 «Tara va tara materiallari» schyoti *400 000 so‘m;*
kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti *400 000 so‘m;*

(400 000 so‘m = 20 dona x 20 000 so‘m).

2-holat:

Chakana savdo bilan shug‘ullanadigan «Eskimo-savdo» magazini 20 dona plastmassa bochkalarda oziq-ovqat mahsulotlari (asal) ni xarid qilingan. Plastmassa bochkalar ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar hisoblanadi. Schyot-faktura bo‘yicha plastmassa bochkalarning qiymati bilan birga oziq-ovqat mahsulotlari (asal) ni xarid qilish xarajatlari 18 000 000 so‘mni tashkil qiladi. Plastmassa bochkalari qaytarilishi lozim emas. Plastmassa bochkalarning qiymati schyot-fakturada alohida qatorda ko‘rsatilmagan va komissiyaning dalolatnomasiga muvofiq ularning har birining qiymati 20 000 so‘mdan qilib belgilangan.

Garov summasi o‘rnatilmagan va qaytarilishi lozim bo‘lmagan plastmassa bochkalar bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- oziq-ovqat mahsulotlari (asal) kirim qilinganda:

debet 2910 «Ombordagi tovarlar» schyoti *18 000 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *18 000 000 so‘m;*

- oziq-ovqat mahsulotlari (asal) sotilgandan keyin plastmassa bochkalar omborga kirim qilinganda:

debet 2950 «Tovar bilan band va bo‘sh taralar» schyoti *400 000 so‘m;*
kredit 2910 «Ombordagi tovarlar» schyoti *400 000 so‘m;*

(400 000 so‘m = 20 dona x 20 000 so‘m).

Ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni ishchi holatda mol yetkazib beruvchilarga qaytarish

uchun amalga oshirilgan ta’mirlar va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlar (masalan tozalash, ayrim detallari, qismlarini almashtirish va h.k) davr xarajatlari (boshqa operatsion xarajatlar) sifatida tan olinib, 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotida aks ettiriladi.

Ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni shartnomada nazarda tutilgan tartibda ishchi holatda mol yetkazib beruvchilarga qaytarish uchun amalga oshirilgan ta’mirlar va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona temir yashiklarni qaytarish uchun ta’mirlash ishlarini amalga oshirdi.

Ikkita holatni (ta’mirlash ishlarini kim tomonidan bajarilishidan kelib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Ta’mirlash ishlarini korxonaning o‘zida amalga oshirilgan. Ta’mirlash bo‘yicha xarajatlar quyidagilardan iborat: yordamchi material xarajatlari 45 000 so‘m va ishchilarga ish haqi hisoblash 50 000 sum.

Temir yashiklarni ta’mirlash bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 95 000 so‘m;
kredit 1090 «Boshqa materiallar» schyoti 45 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 50 000 so‘m.

2-holat:

Ta’mirlash ishlari pudratchi korxona tomonidan 90 000 so‘mga amalga oshirilgan.

Temir yashiklarni ta’mirlash bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 90 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 90 000 so‘m.

10.3. Taralarning boshlang‘ich hujjatlarda hisobi

Xarid qilingan taralar kirim qilinishi va ularning harakati, shuningdek ularning chiqib ketishi, boshqa tovar-moddiy zaxiralariga o‘xshash tartibda va shakldagi boshlang‘ich hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi. SHuningdek taralarni hisobga olishning xususiyatlaridan kelib chiqib ularni harakatini aks ettiradigan boshqa birlamchi hujjatlar ham ishlatilishi mumkin.

Taralarning qiymati mol yetkazib beruvchining schyot-fakturasida ko‘rsatilmagan va ularning qiymati tovar-moddiy qiymatliklarining bahosiga qo‘shilgan, shuningdek ulardan korxonada foydalanish yoki boshqa korxona sotilishi mumkin bo‘lgan hollarda tovar-moddiy qiymatliklarini yoyilganda olingan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni qabul qilib olishda va kirim qilishda komissiya tomonidan «Mol yetkazib beruvchining schyot-fakturasida ko‘rsatilmagan taralarni kirim qilish dalolatnomasi» (30-ilovaga qarang) tuzish tavsiya etiladi.

Komissiya korxona rahbari (rahbar o‘rinbosari) raisligida tuziladi. Komissiya tarkibiga korxonaning tegishli mutaxassislari, buxgalteriya xodimlari va taralarni butligiga moddiy javobgar shaxslar qo‘shilishi shart. Komissiya korxona rahbarining buyrug‘i bilan tashkil etiladi.

Komissiya taralarni bevosita ko‘rib chiqadi, keyinchalik korxona faoliyatida foydalanish yoki boshqa korxonalarga sotish imkoniyatlarini aniqlaydi va taralarning joriy bozor bahosini belgilaydi.

«Mol yetkazib beruvchining schyot-fakturasida ko‘rsatilmagan taralarni kirim qilish dalolatnomasi» ikki nusxada tuziladi, korxona rahbari tomonidan tayinlangan komissiya a’zolari

tomonidan imzolanadi va korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Birinchi nusxa buxgalteriya beriladi, ikkinchi nusxa esa omborga kirim qilishda asos bo‘lishi uchun moddiy javobgar shaxsda qoladi. Olingan taralar omborga kirim qilish faqat korxona rahbari tomonidan dalolatnoma tasdiqlangandan keyin amalga oshiriladi.

Mol yetkazib beruvchiga qaytarib berilishi lozim bo‘lgan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralar qaytarilganda «Qaytarilishi lozim bo‘lgan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni qaytarish yuk xati» (31-ilovaga qarang) rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

«Qaytarilishi lozim bo‘lgan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni qaytarish yuk xati» kelib tushgan taralarning nomi, bahosi va umumiy summasi hamda taralar kelib tushishiga asos bo‘lgan hujjatning nomi va raqami ko‘rsatiladi.

«Qaytarilishi lozim bo‘lgan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni qaytarish yuk xati» moddiy javobgar shaxs tomonidan uchta nusxada tuziladi, hamda buxgalter, moddiy javobgar shaxs va mol yetkazib beruvchining vakili tomonidan imzolanadi. Birinchi nusxa buxgalteriyaga beriladi, ikkinchi nusxa esa ombordan hisobdan chiqarishga asos bo‘lishi uchun moddiy javobgar shaxsda qoladi, uchinchi nusxa esa mol yetkazib beruvchiga beriladi.

Tabiiy eskirishi, sinishi (shikastlanishi) yoki buzilishi natijasida yaroqsiz holga kelgan va tashkilot tomonidan ishlatilmaydigan taralar tegishli dalolatnoma rasmiylashtirilgan holda xarajatlarning tegishli moddalariga hisobdan chiqariladi. Tabiiy eskirishi, sinishi (shikastlanishi) yoki buzilishi natijasida yaroqsiz holga kelgan taralar, idishlar chiqib ketayotganda komissiya tomonidan «Taralarning sinishi yoki buzilishi natijasida hisobdan chiqarish dalolatnomasi» (32-ilovaga qarang) bilan rasmiylashtirish tavsiya etiladi. Tegishli xarajatlar moddalariga chiqarish yuqorida nazarda tutilgan holda amalga oshiriladi.

Komissiya korxona rahbari (rahbar o‘rinbosari) raisligida tuziladi. Komissiya tarkibiga korxonaning tegishli mutaxassislari, buxgalteriya xodimlari va taralarni butligiga moddiy javobgar shaxslar qo‘shilishi shart. Komissiya korxona rahbarining buyrug‘i bilan tashkil etiladi.

Komissiya taralarni bevosita ko‘rib chiqadi va taralarni yaroqsiz holga kelib qolish sabablarini va buzilishiga, sinishiga, hamda yo‘qolishiga aybdor shaxslarni aniqlaydi.

«Taralarning sinishi yoki buzilishi natijasida hisobdan chiqarish dalolatnomasi» ikki nusxada tuziladi, korxona rahbari tomonidan tayinlangan komissiya a’zolari tomonidan imzolanadi va korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Birinchi nusxa buxgalteriyaga beriladi, ikkinchi nusxa esa ombordan hisobdan chiqarishga asos bo‘lishi uchun moddiy javobgar shaxsda qoladi. Yaroqsiz taralarni ombordan hisobdan chiqarish faqat korxona rahbari tomonidan dalolatnoma tasdiqlangandan keyin amalga oshiriladi.

Yaroqsiz taralarni hisobdan chiqarish tugagandan keyin taralarni chiqib ketishidan moliyaviy natijani aniqlash maqsadida korxona buxgalteriyasi tomonidan «Taralarni chiqib ketishi bilan bog‘liq xarajatlar va ularni chiqib ketishidan kelib tushgan materiallar to‘g‘risida ma’lumotnoma» (33-ilovaga qarang) tuzish tavsiya etiladi.

«Taralarni chiqib ketishi bilan bog‘liq xarajatlar va ularni chiqib ketishidan kelib tushgan materiallar to‘g‘risida ma’lumotnoma» da taralarni chiqib ketishi va buzilishi (sinishi) oqibatlarini bartaraf etish bilan bog‘liq xarajatlar, shuningdek taralarni hisobdan chiqarishda olingan materiallarning nomi, og‘irligi, bahosi va summasi ko‘rsatiladi. «Chiqib ketish natijalari» qatorida taralarni chiqib ketishdan moliyaviy natijalar ko‘rsatiladi.

Hisobot davri uchun taralarning mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish uchun taralarining kirimi va chiqimiga tegishli boshlang‘ich hisob hujjatlariga asosan korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadigan «Taralarning harakati to‘g‘risidagi hisobot» (34-ilovaga qarang) tuzish tavsiya etiladi.

«Taralarning harakati to‘g‘risidagi hisobot» da taralarning nomi va kodi, korxona xarid qilgan taralarni yetkazib beruvchi (mol yetkazib beruvchi) ning nomi, taralarning hisobot davri boshigagi qoldig‘i (miqdori va summasi), hisobot davri davomida kelib tushishi (kelib tushgan sanasi, asos bo‘lgan hujjatning raqami, miqdori va summasi), hisobot davri davomida chiqib ketishi va ishlab chiqarishga berilishi (chiqib ketgan va ishlab chiqarishga berilgan sanasi, asos bo‘lgan hujjatning raqami, miqdori va summasi) va hisobot davri oxiridagi qoldig‘i (miqdori va summasi) ko‘rsatiladi.

«Taralarning harakati to‘g‘risidagi hisobot» moddiy javobgar shaxs tomonidan ikki nusxada hishobot davrining oxirida (oy yoki chorak oxirida) tuziladi. Buxgalter va moddiy javobgar shaxs tomonidan imzolanadi. Hisobotning birinchi nusxasi hisobot tuzish uchun asos bo‘lgan hujjatlarni ilova qilingan holda buxgalteriyaga beriladi, ikkinchi nusxasi moddiy javobgar shaxsda qoladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida materiallarni hisobga oluvchi schyotlarda (1000) va tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlarda (2800), savdo korxonalarida tovarlarni hisobga oluvchi schyotlarda (2900) hisobga olinadigan taralarning mavjudligi va harakatlanishini taralaring guruhlari bo‘yicha buxgalteriya hisobida aks ettirish maqsadida korxonaning buxgalteriyasi tomonidan «Taralarni hisobga olish qaydnomasi» (35-ilovaga qarang) tuziladi. Bunda, taralarning miqdoriy va summaviy ko‘rsatkichlarining kamayishi to‘g‘risidagi ma’lumot taralar guruhlari bo‘yicha «Xo‘jalik operatsiyasi mazmuni» ustunining tegishli qatorida «minus» belgisi bilan ko‘rsatiladi.

11-§. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga olishning xususiyatlari

O‘stirishda va boquvda bo‘lgan yirik va mayda shoxli chorva mollari, yovvoyi hayvonlar parrandalar, asalari oilalari va boshqa hayvonlar buxgalteriya hisobida «o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar» atamasi bilan hisobga olinadi.

Ish kuchi sifatida ishlatiladigan hayvonlar – otlar, ho‘kizlar, tuyalar, eshaklar va boshqa ish hayvonlari (shu jumladan yuk tashish uchun foydalaniladigan hayvonlar), shuningdek mahsulot beradigan (nasl, sut, jun va h.k.lar) chorva mollari – sigirlar, qo‘toslar, nasldor biyalar, (ish hayvoni bo‘lmagan), qo‘ylar, echkilar va boshqalar buxgalteriya hisobida qishloq xo‘jaligi korxonalarining asosiy podasidagi hayvonlar hisoblanadi. Asosiy podadagi hayvonlar asosiy vositalar tarkibida ishchi va mahsuldor hayvonlar sifatida hisobga olinadi.

Asosiy podadagi hayvonlarni balans qiymatini e’tirof etish payti, baholash va ularga nisbatan qo‘llaniladigan amortizatsiyani hisoblash usullarini aniqlash, shuningdek hayvonlarning asosiy podadan ishchi va mahsuldor hayvonlar tarzida chiqib ketishidan balans qiymati o‘zgarishlari va moliyaviy natijalarni belgilash hamda hisobga olish 5-son BHMS ga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga olishning asosiy qoidalari bo‘lib: ko‘payish paytini belgilash, tasniflash, balans qiymatini baholash, o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni belgilash, xarajatlarni, shu jumladan xarajat sifatida o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar qiymatini keyinchalik tan olish, o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar qiymatini sotish (baholash)ning sof qiymatiga qadar kamaytirish; ularning chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni aniqlash hisoblanadi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar korxonada boquvdagi va yaylovdagi yosh hayvonlar, katta yoshdagi hayvonlar, parrandalar, asalari oilalari, sotish uchun asosiy podadan yaroqsiz qilingan (boquvga qo‘yilmasdan) katta yoshdagi qoramollar, sotish uchun chetdan qabul qilingan qoramollar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar mohiyatan chorvachilik tarmog‘ining tugallanmagan ishlab chiqarishiga tenglashtiriladi, biroq ular tovar-moddiy zaxiralari sifatida hisobga olinishida bir qator belgilarga ega. Odatda o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni buxgalteriya hisobini tashkil etish bir qator o‘zining xususiyatlariga ega. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar muayyan yoshga yetganda ma’lum jins – yosh guruhga va asosiy podaga o‘tkaziladi. Asosiy podaga o‘tayotganda mazkur aktivlar asosiy vositalar tarkibiga o‘tadi. Asosiy podadan yaroqsiz qilingan (chiqarilgan) va bo‘rdoqiga boqishga qo‘yilgan, aksincha aylanma mablag‘lar guruhiga o‘tadi. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar boqish hamda tutib turish jarayoni moddiy, moliyaviy va mehnat xarajatlari bilan birga boradi. Yuqorida bayon etilgan xususiyatlar ularni baholashning o‘ziga xosligi va xususiyatlarini, o‘lchagichlarni, boshlang‘ich hisob hujjatlari, analitik va sintetik hisob, schyotlar bog‘lanishini buxgalteriya registlari, inventarizatsiyasini va h.k.larni taqazo etadi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga olishining asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- hayvonlardan olinadigan nasllarni o‘z vaqtida va to‘liq hisobga qabul qilish;
- xarid qilingan va o‘z podasidan olingan hayvonlarning asoslangan bahosini shakllantirish;
- o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni xarid qilish, kelib tushishi va olib o‘tilishini bo‘yicha operatsiyalarni hujjatlarda to‘g‘ri va o‘z vaqtida rasmiylashtirish hamda ishonchli ma’lumotlar bilan ta’minlash;
- asoslangan hisob narxlarini ishlab chiqish, reja tannarxining haqiqiy tannarxdan tafovutlarini (kalkulatsiya farqlari) o‘z vaqtida aks ettirish va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish;
- o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni moddiy javobgar shaxslar qo‘lida, ularni tutib turish joylarida va harakatlanishining barcha bosqichlarida but saqlanishini muntazam nazorat qilish;
- tutib turish joylarida va harakatlanishida o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning mavjudligi to‘g‘risida o‘z vaqtida aniq axborot olish;
- fermalar va boshqa tutib turish joylarida o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar hisobining o‘z vaqtida va to‘g‘ri yuritilishi ustidan nazorat qilish;
- poda tarkibida yuz berayotgan barcha o‘zgarishlarni muntazam aks ettirish va o‘stirish va boqish natijalarini to‘g‘ri belgilash;
- inventarizatsiyani, og‘irligini tortish va o‘sishni aniqlashni o‘z vaqtida amalga oshirish.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni buxgalteriya hisobiga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- harakatlanishini (kirish, chiqish, olib o‘tish) va tuyoq sonini mavjudligini uzluksiz va to‘liq aks ettirish;
- o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobining tezkorligi (o‘z vaqtidaligi) va ishonchliligi;
- fermalar va chorva mollarini boshqa tutib turish joylarida hisob ma’lumotlarini ularni harakatlanishini tezkor hisobining ma’lumotlariga, sintetik va analitik hisob ma’lumotlariga (aylanmalar va qoldiqlar bo‘yicha) muvofiqligi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga olish obyektlari bo‘lib: nasl, ortgan vazn va o‘sish; yosh hayvonlarni katta yoshdagi guruhlarga va asosiy podaga o‘tkazish; asosiy podadan yaroqsiz qilingan hayvonlarning boquvga qo‘yilishi hisoblanadi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni buxgalteriya hisobining birligi korxona tomonidan mustaqil ravishda, ular to‘g‘risida to‘liq va ishonchli ma’lumotlarni shakllantirish hamda ularning mavjudligi va harakati ustidan lozim darajada nazoratni ta’minlash maqsadida belgilanadi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni buxgalteriya hisobining birligi quyidagi ko‘rinishlarda belgilanishi mumkin: guruhi, turi, yoshi, nasli, hayvonlar bosh soniga, hayvonlarning oilasi.

Masalan: buxgalteriya hisobining birligi sifatida yirik shoxli chorva mollarini o‘stirish va boqishda har bir sigir, buqa, biya, parrandachilikda yoshi bo‘yicha (g‘oz, jo‘ja, tovuq, o‘rdak va h.k), mayda shoxli chorva mollarini o‘stirish va boqishda turlari bo‘yicha (qo‘y, echki va h.k) lar, asalarichilikda – arilarning oilalari bo‘yicha o‘rnatilishi mumkin.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni balans qiymatini baholash, o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni belgilash, o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar qiymatini sotish (baholash)ning sof qiymatiga qadar kamaytirish, ularning inventarizatsiya o‘tkazish va chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni aniqlash hamda buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tovar-moddiy zaxiralarning tarkibiy qismi sifatida yuqoridagi paragraflarda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

21-son BHMS ga muvofiq korxonaga tegishli yosh hayvonlar; boquvdagi katta yoshdagi yaylovdagi hayvonlar; parrandalar; yovvoyi hayvonlar; quyonlar; asalari oilalari; sotish uchun asosiy podadan yaroqsiz qilingan katta qoramollar (boquvga qo‘yilmasdan); sotish uchun aholidan qabul qilingan qoramollarning mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish, o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlar (1100) guruhida ochiladigan quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi: 1110 «O‘stirishdagi hayvonlar» va 1120 «Boquvdagi hayvonlar».

11.1. Korxonaning o‘zida o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlardan olingan nasllarning tannarxi shakllanishi tartibi

Korxonaning o‘zida o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlardan olingan nasllarning tannarxi deb ularning ishlab chiqarish tannarxi tan olinadi. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning ishlab chiqarish tannarxiga ularni o‘stirish va bo‘rdoqiga boqish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo‘ladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra quyidagi elementlar bo‘yicha guruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Sotish xarajatlari, korxonani boshqarish bo‘yicha umumiy xarajatlar (ma’muriy xarajatlar), boshqa operatsion xarajatlar, moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar va favqulodda zararlar o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shiladigan xarajatlar «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq aniqlanadi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni kirim qilishda bahosi quyidagi tartibda aniqlanadi:

- sut yo‘nalishidagi qoramolchilikdagi buzoqlar – olingan naslning haqiqiy tannarxi bo‘yicha. Bir bosh naslning haqiqiy tannarxi (bahosi) sut beruvchi sigirlar va nasldor buqalarni boqish xarajatlaridan qo‘shimcha mahsulotlarning qiymati chegirilgan holda aniqlanadi. Bunda qo‘shimcha mahsulotning qiymati ayrilgandan keyin qolgan summa sutga 90 % va naslga 10% mutanosib ravishda kiritiladi;

- go‘sht yo‘nalishidagi qoramolchilikdagi buzoqlar – buzoqning tirik vazni va sut emizishdan ajratilgan buzoqlarning bir kilogrammining haqiqiy tannarxidan kelib chiqib;

- cho‘chqa bolalari – tug‘ilgandagi tirik vazni va sut emizishdan ajratilgan cho‘chqa bolalarining bir kilogramining haqiqiy tannarxidan (qo‘shilgan mahsulotlar qiymati chegirilgan umumiy xarajatlar summasini cho‘chqalarning tirik vaznining o‘sishi miqdoriga olingan naslning tug‘ilgandagi tirik vaznini qo‘shilgan summaga bo‘lib aniqlanadi) kelib chiqib;

- qo‘zilar – tannarxni hisoblashda qabul qilingan baholarda (asosiy podadagi qo‘ylarni saqlab turish xarajatlarining umumiy summasining jun-go‘sht va go‘sht-jun yetishtirish uchun qo‘y boqishda 10 %, roman zotli qo‘ylarni boqishda 12%, qorako‘lchilikda 15 % miqdorida);

- mo‘ynali yovvoyi hayvonlar – yosh hayvon tug‘ilgan kundagi bitta boshni haqiqiy bahosining 50 % ga teng bo‘lgan shartli baholarda;

- qulonlar – yoshi katta bir boshni saqlab turishning 60 ozuqa kunining haqiqiy tannarxi miqdorida;

- jo‘jalar, o‘rdakchalar, g‘ozchalar, kurkachalar (bir kunlik parrandalar) – inkubatsiya tannarxiga muvofiq bir boshning haqiqiy tannarxi bo‘yicha;

- yangi asalari oilalari – haqiqiy tannarxiga muvofiq baholarda hisobga qabul qilinadi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxini aniqlash 4-son BHMS da nazarda tutilgan usullar bilan amalga oshiriladi.

11.2. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning tirik vazni ortishini aniqlash

Hisobot yili davomida yosh hayvonlar boshqa jins-yoshi guruhlarga yoki asosiy podaga o‘tkazilganda uni yil boshidagi qiymati parvarish xarajatlariga va 1 t tirik vazninni o‘sishi yoki har oyda o‘tkazish vaqtidagi hisobiy o‘sish aniqlanadigan hayvonlar bo‘yicha 1 ozuqa kunidan kelib chiqib hisoblanadigan reja tannarxinga ko‘paygan holda baholanadi.

Boquvdagi hayvonlarning tirik vazni o‘stirish va boqish natijasida oshadi, shuning uchun hayvonlar tirik vaznining o‘sishini hisobga olgan holda muntazam ravishda qo‘shimcha baholanadi.

Tirik vaznining o‘sishi hayvonlar biriktirilgan moddiy javobgar shaxslar bo‘yicha turlari va hisob-ishlab chiqarish guruhlari bo‘yicha aniqlanadi. Buning uchun mazkur guruh hayvonlarining hisobot davri oxirida belgilangan tirik vazniga mazkur yoshdagi guruhdan hisobot davri mobaynida chiqib ketgan hayvonlarning tirik vazni qo‘shiladi va mazkur guruhga tegishli hisobot davrida kelib tushgan hayvonlarning tirik vazni hamda hisobot davri boshida mavjud bo‘lgan hayvonlarning tirik vazni ayriladi. Olingan natija hisobot davri mobaynida o‘stirishda yoki boquvda va yaylovda bo‘lgan hayvonlarning yosh guruhi bo‘yicha tirik vaznining o‘sishini aks ettiradi.

Qo‘shimcha baholash summasi 1 ts o‘sishning reja tannarxini hayvonlarning har bir tur va jins-yosh guruhi bo‘yicha o‘sish (ts) soniga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi. Tirik vaznini o‘sishi aniqlanmaydigan hayvonlarning har bir tur va jins-yosh guruhi bo‘yicha qo‘shimcha baholash quyidagicha amalga oshiriladi:

- naslchilik yo‘nalishidagi yilqichilikdagi qulunlar, shuningdek qo‘zilar, quyonlar, yosh mo‘ynali yovvoyi hayvonlar – sut emizishdan ajratish va boqish boshlaganda sut emishdan ajratguncha bo‘lgan to‘liq reja tannarxi bo‘yicha (qolganlar reja summasidan 50%);

- sut emishdan ajratilgan qo‘zilar – tanlab olib tortib ko‘rish bilan aniqlanadigan tirik vazni o‘sishidan kelib chiqib;

- ishchi biyalardan olinadigan qulonlar, shuningdek yosh yovvoyi hayvonlar, quyonlar, parrandalarni o‘sishi, ularni korxonada boqilgan kunlari soni va 1 kunlik boqishning reja

tannarxidan kelib chiqib. Katta yoshdagi parrandalar, quyonlar, va yovvoyi hayvonlar qayta baholanmaydi. Ularni boqish qiymati ulardan olinadigan mahsulotlar (tuxum, teri) ga kiritiladi.

O‘sish hisoblash yo‘li bilan aniqlanadigan (qo‘ylar, echkilar, parrandalar, quyonlar), yoki o‘sish hisobga olinmaydigan (qulonlar, yosh tuyalar va eshaklar, yovvoyi hayvonlar) yosh hayvonlar bo‘yicha o‘sish qiymati har oyda ozuqa-kunini haqiqiy soni va ozuqa-kunidan kelib chiqib hisoblash yo‘li bilan aniqlanadigan reja tannaxi bo‘yicha hisoblanadi.

Qo‘ylar, echkilar parrandalar, quyonlarning (ixtisoslashtirilmagan korxonalarda) o‘sishi yosh guruhlari bo‘yicha tanlab olish yo‘li bilan o‘rnatiladigan tirik vaznidan kelib chiqib aniqlanadi.

Buning uchun zootexnik ferma mudiri yoki brigadir bilan birga belgilangan sondagi hayvonlar va parrandalarni bosh sonini (5 % dan kam bo‘lmagan) alohida ajratib oladi va og‘irligini tortadi. Har bir yosh guruhlaridan shu yosh guruhlariga o‘rtacha mansub keladiganlari tanlab olinadi.

Undan keyin og‘irligi tortilgan hayvonlar va parrandalarning umumiy tirik vaznini og‘irligi tortilganlarning bosh soniga bo‘lish yo‘li bilan har bir yosh guruhi bo‘yicha alohida og‘irligi tortilgan bir boshning o‘rtacha tirik vazni aniqlanadi.

Keyin bir boshning o‘rtacha tirik vazni mazkur yosh guruhidagi hayvonlarning umumiy soniga ko‘paytiriladi va shu yo‘l bilan barcha guruhlar bo‘yicha yil (kvartal) oxiridagi bosh sonining tirik vazni agiqlanadi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning og‘irligini tortish va tirik vaznini ortishi keyingi katta yoshdagi guruhga o‘tkazilgan, asosiy podaga o‘tkazilgan, asosiy podadan chiqarilgan, nobud bo‘lgan, so‘yilgan, davlatga sotilgan va boshqa turli sotish hollarida ham amalga oshiriladi.

Yil oxirida olingan nasl va tirik vaznini o‘sishi tannarxi hisobot kalkulatsiyasidan kelib chiqib to‘g‘rilanadi. Agar hisobotdagi tannarxdan yuqori bo‘lsa qiymatiga qo‘shimcha qo‘shish bo‘yicha yozuv qilinadi, agar past bo‘lsa to‘g‘rilovchi yozuv amalga oshiriladi. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar yil oxirida yillik buxgalteriya balansida haqiqiy tannarxi bo‘yicha bahoda aks ettiriladi.

Chorvachilik asosiy faoliyat turi hisoblanadigan korxonalarda o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni parvarishlash va boqish bo‘yicha xarajatlar 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyotida hisobga oldinadi. Chorvachilik asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan, balki qo‘shimcha ishlab chiqarish hisoblanadigan sanoat va boshqa korxonalarda o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni parvarishlash va boqish bo‘yicha xarajatlar 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyotida hisobga oldinadi.

Nasl sifatida olingan o‘stirishdagi va boquvdagi yosh hayvonlar 1110 «O‘stirishdagi hayvonlar» schyotining debetiga va nasl olingan hayvonlarni saqlash xarajatlarni parvarish va boqishni reja tannarxi bo‘yicha hisobga oluvchi 2010 «Asosiy ishlab chiqarish», 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish», 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyotlarning kreditidan kirim qilinadi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning ortgan vazni qiymati har oyda 1110 «O‘stirishdagi hayvonlar» va 1120 «Boquvdagi hayvonlar» schyotlarining debetiga ushbu hayvonlarning parvarishlash va boqish xarajatlarini parvarishlar va boqishni reja tannarxi bo‘yicha hisobga oluvchi 2010 «Asosiy ishlab chiqarish», 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish», 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyotlarning kreditidan o‘tkaziladi. Yil oxirida ko‘rsatilgan schyotlar bo‘yicha yil davomida parvarishlashning reja tannarxi bo‘yicha qabul qilingan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning qo‘shilgan vazni yoki o‘sish qiymatini parvarishlashning haqiqiy tannarxigacha o‘zgartiruvchi yozuv amalga oshiriladi.

Asosiy podaga o‘tkaziladigan o‘stirishdagi va boquvdagi yosh hayvonlar 1110 «O‘stirishdagi

hayvonlar» schyotidan 0840 «Asosiy padani tashkil etish» schyotining debetiga hisobdan chiqariladi. Bir vaqtning o‘zida yosh hayvonlarning asosiy podaga o‘tkazilishida 0170 «Ishchi va mahsuldor hayvonlar» schyoti debetlanadi va 0840 «Asosiy podani tashkil etish» schyoti kreditlanadi.

11.3. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning boshlang‘ich hujjatlarda hisobi

Belgilangan shaklda tuzilgan, barcha majburiy rekvizitlarga ega bo‘lgan va haqiqatda sodir etilgan hamda qonuniy xo‘jalik operatsiyasini to‘g‘ri aks ettiradigan hujjat to‘laqonli hujjat hisoblanadi. Ushbu talablarni qondirmaydigan hujjat to‘laqonli hisoblanmaydi, u hisobga qabul qilinmasligi kerak. Tasdiqlangan birxillashtirilgan shakllar mavjud bo‘lmasa, korxona shakllarni mustaqil ravishda ishlab chiqishi mumkin.

11.3.1. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning korxonaga kelib tushishini hujjatlarda rasmiylashtirish

Analitik hisob uchun korxonalarda, bo‘linmada o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning mavjudligi, kelib tushishi va chiqib ketishini hisobga olish bo‘yicha asosiy boshlang‘ich hujjat bo‘lib, «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar harakatini hisobga olish daftari» (301-ASM shakl) hisoblanadi.

«O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar harakatini hisobga olish daftari» (301-ASM shakl) moddiy javobgar shaxslar (ferma mudirlari, brigadirlar va h.k.) bir nusxada hayvonlarning jins-yosh guruhlari bo‘yicha yuritadilar. «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar harakatini hisobga olish daftari» (301-ASM shakl) dagi yozuvlar har kuni o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar harakatini hisobga olish, bosh soni va ularning tirik vazni bo‘yicha boshlang‘ich hujjatlar asosida qayd etiladi.

«O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar harakatini hisobga olish daftari» (301-ASM shakl) ikki qismdan iborat: kirim va chiqim. Oy oxirida «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar harakatini hisobga olish daftari» (301-ASM shakl) da yakunlar chiqariladi, o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning har bir guruhi bo‘yicha ularni saqlab turishning boqish kunlari miqdori hisoblanadi.

Yuridik va jismoniy shaxslardan xarid qilingan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar tovar-transport yukxatlari va schyot-fakturalar, qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, veterinariya, nasl guvohnomalari va boshqa hujjatlar asosida kirim qilinadi.

Aholidan qabul qilingan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni qabul qilish hamda hisobga olishni rasmiylashtirish uchun «Aholidan qabul qilingan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni qabul qilish-topshirish qaydnomasi» (QX-40 shakl) (36-ilovaga qarang) qo‘llash tavsiya etiladi.

«Aholidan qabul qilingan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni qabul qilish-topshirish qaydnomasi» (QX-40 shakl) o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni qabul qiluvchi hisoblangan xodim bir nusxada boshlang‘ich hujjatlarda qayd etilgan yozuvlar asosida tuzadi. «Aholidan qabul qilingan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni qabul qilish-topshirish qaydnomasi» (QX-40 shakl) da topshiruvchining familiyasi, ismi-sharifi, undan qabul qilingan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning miqdori, ularning semizlik darajasi, tirik vazni, narxi va to‘lanadigan summa ko‘rsatiladi.

«Aholidan qabul qilingan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni qabul qilish-topshirish qaydnomasi» (QX-40 shakl) topshiruvchilarga tegishli summani berish uchun asos hisoblanadi. Pul mablag‘larini berish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Korxonaning fermasida hayvonlardan olingan naslni va ko‘payishidagi yangi asalari oilalarini

hisobga olish uchun «Hayvonlardan olingan naslni kirim qilishning dalolatnomasi» (QX-39 shakl) (37-ilovaga qarang) rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

«Hayvonlardan olingan naslni kirim qilishning dalolatnomasi» (QX-39 shakl) ikki nusxada nasl olingan kundan kechiktirmasdan va har bir tur hayvondan olingan nasl bo‘yicha alohida alohida tuziladi.

«Hayvonlardan olingan naslni kirim qilishning dalolatnomasi» (QX-39- son shakl) da hayvonlar biriktirilgan shaxsning familiyasi, ismi, sharifi, nasl olingan hayvonning laqabi yoki raqami ko‘rsatiladi, olingan naslning ajralib turadigan belgilari (rangi, laqabi va h.k.lar) bo‘yicha begilab qo‘yish amalga oshiriladi, nasl olinganligini tasdiqlovchi shaxsning imzosi qo‘yiladi va alohida o‘lik tug‘ilganlarni ko‘rsatib boriladi.

«Hayvonlardan olingan naslni kirim qilishning dalolatnomasi» (QX-39 shakl) rasmiylashtirilgan keyin «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar harakatini hisobga olish daftari» (301-ASM shakl) da fermadagi zootexnik hisob va yozuvlar uchun ishlatiladi. «Hayvonlardan olingan naslni kirim qilishning dalolatnomasi» (QX-39 shakl) ning bir nusxasi u tuzilgandan keyingi kun bevosita buxgalteriyaga taqdim etiladi. «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar harakatini hisobga olish daftari» (301-ASM shakl) ga yozuvni amalga oshirishga asos bo‘lgan dalolatnomaning nusxasi ham oyning oxirida «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning harakati to‘g‘risida hisobot» (QX-51 shakl) bilan birga buxgalteriyaga kelib tushadi.

Mazkur dalolatnomalar o‘zining asosiy maqsadi ya’ni hayvonlar bosh sonini hisobidan tashqari buxgalteriya tomonidan ish haqi hisoblash uchun ham ishlatiladi.

Qorako‘l qo‘ychiligida brigadir (hisobchi) va saralovchi tomonidan har o‘tgan kun uchun har bir podada qo‘zilatish borishi to‘g‘risidagi barcha ma‘lumotlar ikki nusxada tuziladigan «Hayvonlardan olingan naslni kirim qilishning dalolatnomasi» (QX-39-shakl) da yoki «Qo‘ylarni qo‘zilatishning borishi to‘g‘risidagi dalolatnoma» da (shakl korxona tomonidan mustaqil tasdiqlanadi) yozib boriladi.

Har bir podada «Hayvonlardan olingan naslni kirim qilishning dalolatnomasi» (QX-39-shakl) ning (alohida) tartib raqami yuritiladi. So‘yish joyiga jo‘natilgan qo‘zilatishning tovar teri (teri uchun so‘yiladigan, o‘lik tug‘ilgan, homiladan olingan, tushgan homila, saralanguncha va saralashdan keyin nobud bo‘lgan hamda majburiy bo‘g‘izlangan qo‘zilar) va tovar teri bo‘lmagan (embrionlar) bilan barcha mahsulotlari yukxati bilan rasmiylashtiriladi.

Brigadalar bo‘yicha qorako‘l sonini hisobga olish uchun so‘yish joylariga jo‘natiladigan qo‘zilarga brigadalarni raqami tushirilgan tamg‘a osib qo‘yiladi. So‘yilganda tamg‘a shilib olingan teriga o‘tkaziladi. Podada so‘yilib so‘yish joylariga jo‘natiladigan qo‘zilarning qorako‘l terilariga ham shunday tamg‘alar bosib qo‘yiladi. Yukxati katta cho‘pon (brigadir) tomonidan uchta nusxada tuziladi va katta cho‘pon (topshiruvchi) va qo‘zilarni yetkazib berish uchun qabul qilgan belgilangan kursi (tashuvchi) tomonidan imzolanadi. Yukxatining ikki nusxasi belgilangan kursiga beriladi, uchinchi nusxa esa katta cho‘pon (topshiruvchi)da qoladi. Belgilangan kursi (tashuvchi) qo‘zilarni topshirib bo‘lgandan keyin yukxatining bir nusxasini so‘yish joyining qabul qiluvchisiga qoldiradi, ikkinchi nusxani esa so‘yish joyining mudirining qo‘zilarni qabul qilganlik to‘g‘risidagi yozuv bilan jo‘natuvchi cho‘pon (yoki brigadir) ga qaytaradi.Jo‘natuvchi cho‘pon (yoki brigadir) belgilangan kursi (tashuvchi) ishtirokida uchinchi nusxa yukxatining orqa tomoniga o‘zining imzosi bilan «Mazkur jo‘natma bo‘yicha belgilangan kursi (F.I.SH) _____ hisoblashdi» belgisini qo‘yadi. Yukxatining uchinchi nusxasi yo‘nalish varag‘iga bajarilgan ishni (belgilangan kursiga) yoki mehnatni hisobga olish varag‘i va bajarilgan ishni (tashuvchiga) hajmini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Bo‘g‘oz qo‘ylarning nobud bo‘lishi va so‘yilishi ham qo‘ylarni qo‘zilatishning borishi to‘g‘risidagi dalolatnoma (hayvonlar va parrandalarning chiqib ketishining dalolatnomasi, «Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasi» (QX-54 shakl) dan tashqari) ko‘rsatiladi. Bunda hayvonlar va parrandalarning chiqib ketishining dalolatnomasida homilalardan olingan terilarning soni va sifati albatta ko‘rsatiladi. Shu bilan bir vaqtning o‘zida tovar teri bilan bo‘lgani ham, tovar teri bilan bo‘lmagan homilali qo‘ylarni qo‘zilatishning borishi to‘g‘risidagi dalolatnoma ko‘rsatiladi.

Bir kunda so‘yish punktlariga kelib tushgan qorako‘l qo‘ylarining qo‘zilatish mahsulotlari hayvonlar va parrandalarning chiqib ketishi dalolatnomasining tegishli ustunlarida alohida qatordan har bir yukxati bo‘yicha yoziladi. Dalolatnomada tegishli ustunlarida qayta ishlash (so‘yishdan) olingan terilar, tovar bo‘lmagan terilar (embirionlar), homilalar ham ko‘rsatiladi.

Ish kuni tugagandan keyin hayvonlarni chiqib ketishi bo‘yicha dalolatnoma, so‘yish joylarida sifatli mahsulot olish uchun qo‘zilatish mavsumiga korxona rahbari tomonidan tayinlangan, komissiyaning barcha a’zolari tomonidan imzolanadi. Dalolatnomaning oxirida so‘yish joyi bo‘yicha moddiy javobgar shaxs mahsulotni korxonaning omboriga jo‘natguncha mas’ul saqlashga qabul qilganligi to‘g‘risida imzo chekadi.

So‘yish joylari tomonidan tovar terilar, tovar bo‘lmagan terilar (embrionlar), homilalarni jo‘natish va topshirish, so‘yish joylari tomonidan uch nusxada yoziladigan yukxati bilan rasmiylashtiriladi. Mahsulotni qabul qiluvchi yukxatining bir nusxasini o‘zida olib qoladi, ikkinchi nusxasini mahsulotni qabul qilganligi to‘g‘risidagi yozuv bilan mahsulotni kuzatuvchi shaxs orqali so‘yish joyiga qaytaradi. Mazkur nusxa so‘yish punkti uchun mahsulotni topshirganligini tasdiqlovchi hujjat bo‘lib hisoblanadi. So‘yish joyining mudiri mahsulotni har kunlik topshirilishini va mahsulotni toshirilganligini tasdiqlovchi yukxatlarini kelib tushishini nazorat qilishga majbur.

Qo‘zilarni so‘yishdan olingan mahsulotlarni kirimi va chiqimini hisobga olish uchun so‘yish joylari ikki nusxada tayyor mahsulot harakatining qaydnomasini yuritadi. Qaydnomaning kirim bo‘limi «Qayta ishlashdan qabul qilgan» dagi yozuv har kuni, har bir dalolatnoma bo‘yicha amalga oshiriladi. Chiqarish bo‘limi «Jo‘natilgan va topshirilgan» dagi yozuv har kuni har bir yukxati bo‘yicha so‘yish joyidan chiqib ketishi bilan amalga oshiriladi.

Oy tugashi (hisobot oyidan keyingi oyning 1-sanasidan kechikmasdan) bilan qaydnomaning birinchi nusxasi unga tegishli barcha hayvonlarni chiqib ketish dalolatnomalari va yukxatlari bilan birga buxgalteriyaga taqdim etiladi, ikkinchi nusxasi esa so‘yish joyining mudirida qoladi.

Ixtisoslashgan parrandachilik korxonalarida va parranda fabrikalarida inkubatsiya natijasida olingan (chiqarilgan) jo‘jalarni qabul qilish uchun «Yosh parrandalarni bir kunlik chiqishi va ajratishni dalolatnomasi» (QX-41 shakl) (38-ilovaga qarang) rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

«Yosh parrandalarni bir kunlik chiqishi va ajratishni dalolatnomasi» (QX-41 shakl) inkubatsiya sexining boshlig‘i yoki zootexnik tomonidan parrandalarni chiqish kunida tuziladi. Dalolatnoma ma’lumotlariga asosan qo‘yilgan tuxumlardan chiqarilgan jo‘jalarning chiqish foizi va soni aniqlanadi. Bundan tashqari dalolatnoma chiqarilgan yosh parrandalar bosh sonini kirim qilish uchun xizmat qiladi.

«Yosh parrandalarni bir kunlik chiqishi va ajratishni dalolatnomasi» (QX-41 shakl) sex boshlig‘i, zootexnik, katta operator, operator tomonidan imzolanadi va korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Undan keyin dalolatnomaning ma’lumotlari parrandalarni unda ko‘rsatilgan hisob guruhlari bo‘yicha hisobga olish va chiqindilarni hisobdan chiqarish uchun foydalaniladi.

Kichik yoshdagi parrandalarni inkubatsiya sexlaridan parvarishlash sexlariga chiqarish yukxatlari yoki boshqa boshlang‘ich hujjatlar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ixtisoslashgan parrandachilik korxonalarida va parranda fabrikalarida o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning harakati to‘g‘risida hisobot (QX-51 shakl) dan tashqari kichik yoshdagi va katta yoshdagi parrandalarni harakatini har kuni hisobga olish uchun ixtisoslashtirilgan xo‘jaliklarda mos ravishda «Kichik yoshdagi parrandalarni harakatini hisobga olish kartochkasi» (QX-52 shakl) (39-ilovaga qarang) va «Katta yoshdagi parrandalarni harakatini hisobga olish kartochkasi» (QX-53 shakl) (40-ilovaga qarang) qo‘llash tavsiya etiladi.

«Kichik yoshdagi parrandalarni harakatini hisobga olish kartochkasi» (QX-52 shakl) kichik yoshdagi parrandalarni harakatini har kuni hisobga olish uchun parrandachilik fabrikalari va ixtisoslashtirilgan parrandachilik korxonalarida qo‘llaniladi.

Bir kunlik jo‘jalar inkubatsiya sexida saralangandan keyin parvarishlash sexiga alohida partiyalarda haqiqiy soni va og‘irligi bo‘yicha limit-zabor qaydnomalariga asosan beriladi.

«Kichik yoshdagi parrandalarni harakatini hisobga olish kartochkasi» (QX-52 shakl) parvarishlash sexining ishchisi tomonidan har bir ishchi o‘rin uchun ochiladi. Kartochkada kirim va chiqimning asosiy harakat yo‘nalishlari (masalan chiqim bo‘yicha: so‘yish, sotish, nobud bo‘lishi, boshqa chiqib ketishlar) bo‘yicha kichik yoshdagi parrandalarni har kunlik sodir bo‘ladigan harakati, har oy uchun qoldiq va jami haraktalarni ajratib ko‘rsatish bilan yozib boriladi.

Oyning oxirida kartochkada quyidagilarning jami ko‘rsatiladi: bosh soni qoldig‘i va oy boshiga hamda oxiriga tirik vazni, oy uchun yalpi o‘sishi, o‘rtacha kunlik o‘sish va oy uchun bosh sonini saqlanish foizi.

Nobud bo‘lgan jo‘jalarning jasadi mazkur ma’lumotlar yig‘iladigan alohida limit-zabor qaydnomalari bilan yo‘q qilishga beriladi. Kichik yoshdagi parrandalarning nobud bo‘lishi bo‘yicha ma’lumolar har kuni rasmiylashtiriladigan «Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasi» (QX-54- shakl) ma’lumotlariga to‘g‘ri kelishi kerak.

«Katta yoshdagi parrandalarni harakatini hisobga olish kartochkasi» (QX-53-shakl) katta yoshdagi parrandalarni bosh soni harakatini har kuni hisobga olish uchun ixtisoslashgan parrandachilik korxonalarida qo‘llaniladi.

«Katta yoshdagi parrandalarni harakatini hisobga olish kartochkasi» (QX-53-shakl) 180 (210) kunlik yoshga yetgan har bir katta yoshdagi parrandalar guruhi uchun ochiladi va brigadir tomongidan har kuni to‘ldiriladi.

«Katta yoshdagi parrandalarni harakatini hisobga olish kartochkasi» (QX-53- shakl) da katta yoshdagi parrandalar bosh soniga qaraydigan parranda boquvchining familiyasi, ismi va sharifi, tuxum beradigan tovuqlarning har kunlik harakati (mavjudligi, kelib tushishi, chiqib ketishi) har kuni yig‘iladigan tuxum va oy uchun har bir tuxum beruvchi tovuqqa tuxum berish darajasi ko‘rsatiladi. Oy uchun va yil boshidan katta yoshdagi parrandalar jami bosh soni o‘rtacha bosh sonini aniqlash uchun foydalaniladi.

«Katta yoshdagi parrandalarni harakatini hisobga olish kartochkasi» (QX-53 shakl) (ona poda) bosh sonini harakati to‘g‘risidagi boshlang‘ich hujjatlarga asosan to‘ldiriladi. Oy davomida kartochkalar sexda (brigadada) saqlanadi. Kartochka va parandalarni kirimi va chiqib ketishi bo‘yicha boshlang‘ich hujjatlar o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning harakati to‘g‘risida hisobot (QX-51 shakl) bilan birga buxgalteriyaga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Javobgarlik asosida berilgan hayvonlar bosh sonini va biriktirilgan inventarlarni hisobga olish

uchun, shuningdek ma'muriyatni va xo'jalikning mutaxassislarining podalar, uyurlar, o'tovlarga chiqqan vaqtida farmoyishlarini yozish uchun «O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisob olish kitobcha»ni (41-ilovaga qarang) qo'llash tavsiya etiladi.

«O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisob olish kitobcha»si qabul qilingan o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning ro'yxati, o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning harakati, nasl olishni, sut emizishdan chiqarishni va qochirishini hisobga olish, podadagi inventarlar ro'yxati, o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni mavjudligi to'g'risidagi nazorat ma'lumotlar bo'limlaridan iborat.

«O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisob olish kitobcha»sida yozuv zootexnik (brigadir) tomonidan kitobcha berilganda va podalar, uyurlar, o'tovlar tekshirilganda amalga oshiradi. Cho'pon, otboqar, tuyaboqarlar esa nasl olinganda, nobud bo'lganda, bosh soni va inventar tarkibida boshqa o'zgarishlar bo'lganda yozib boradi. Har oyda kitobchaning ma'lumotlari korxonaning buxgalteriyasi ma'lumotlari bilan solishtirib boriladi.

Qoida bo'yicha har oyning birinchi sanasida «O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga olish kitobcha»si tekshirish uchun buxgalteriyaga taqdim qilinadi. Tekshirilgandan keyin kitobcha cho'pon, otboqar, tuyaboqarlarga qaytarib beriladi. Hayvonlarni yaylovlarda boqishda kitobchalardagi yozuvlarni tekshirish bevosita poda (uyur) larda amalga oshiriladi.

11.3.2. O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni o'tkazish va chiqib ketishini hujjatlarda rasmiylashtirish

O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga olishning bir yosh guruhidan boshqasiga (hayvonlarni asosiy podaga o'tkazish bilan birga) o'tkazishning barcha hollarida, shuningdek kichik yoshdagi yovvoyi hayvonlar va quyonlarni ajratib olishda «Hayvonlarni o'tkazish dalolatnomasi» (QX-47 shakl) (42-ilovaga qarang) tuzish tavsiya etiladi.

«Hayvonlarni o'tkazish dalolatnomasi» (QX-47 shakl) o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni bir jins-yosh guruhidan boshqasiga o'tkazishning barcha hollarida, yovvoyi hayvonlar va quyonlarni ajratib olishda, hayvonlarni asosiy podaga o'tkazishni rasmiylashtirish uchun qo'llaniladi. Hujjat universal hisoblanadi ya'ni hayvonlarning barcha turlari va hisob guruhlari uchun qo'llaniladi.

«Hayvonlarni o'tkazish dalolatnomasi» (QX-47 shakl) zootexnik, ferma mudiri yoki brigadir tomonidan hayvonlarni bir guruhdan boshqasiga o'tkazish kunida tuziladi.

«Hayvonlarni o'tkazish dalolatnomasi» (QX-47 shakl) da hayvonlarni qaysi guruhdan qaysi guruhga o'tkazilayotganligi, ularning inventar raqami, jinsi, sinfi, rangi va boshqa xususiyatlari, tug'ilgan vaqti, bosh soni (agar hayvonlar guruhi o'tkazilayotgan bo'lsa), balans qiymati, hayvonlarni qabul qilish kimga biriktirilganligi va ularni qabul qilgan ishchilarning imzosi ko'rsatiladi.

Ferma mudiri, zootexnik va hayvonlarni keyingi boqish uchun qabul qilgan ishchilar tomonidan imzolanib, korxona yoki bo'linma rahbari tomonidan tasdiqlanib rasmiylashtirilgan dalolatnoma o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar harakatini hisobga olish daftari (301-ASM shakl) ga yozuvlar uchun foydalaniladi. Oy oxirida dalolatnomalar o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning harakati to'g'risida hisobot (QX-51 shakl) bilan birga buxgalteriyaga topshiriladi va hayvonlarni harakatini buxgalteriya hisobining registrlarida aks ettrish uchun hamda ular qaysi ishchining guruhiga o'tkazilgan bo'lsa shu ishchiga ish haqi hisoblash uchun foydalaniladi.

Hayvonlarni kelib tushishi, o'tkazilishi va chiqib ketishi bo'yicha boshlang'ich hisob hujjatlariga asosan «O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar harakatini hisobga olish daftari»

(301-ASM shakl) ga yozuvlar har kuni amalga oshiriladi, oyning oxirida esa hisobot davrida o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning mavjudligi va harakatini aks ettiruvchi ma’lumotlarni umumlashtirish maqsadida «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning harakati to‘g‘risida hisobot» (QX-51 shakl) (43-ilovaga qarang) tuzish tavsiya etiladi.

«O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning harakati to‘g‘risida hisobot» (QX-51 shakl) brigadir yoki zootexnik tomonidan har oyda ikki nusxada hayvonlarning turi va jins-yosh guruhi bo‘yicha tuziladi. Unda o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning qoldig‘i, harakatning barcha asosiy kanallari bo‘yicha kirimi va chiqimi, kelib tushishi va chiqib ketishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettiriladi. Hisobotni tuzishga asos bo‘lib o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar harakatini hisobga olish daftari (301-ASM shakl) ga yozuvlar to‘g‘risidagi yakuniy ma’lumotlar hisoblanadi.

Hisobot oyi tugagandan keyin «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning harakati to‘g‘risida hisobot» (QX-51 shakl) ning birinchi nusxasi hayvonlarning harakati bo‘yicha boshlang‘ich hujjatlar bilan birga tekshirish hamda o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni harakati hisobi bo‘yicha buxgalteriya registralariga yozuvlar uchun buxgalteriyaga taqdim qilinadi. «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning harakati to‘g‘risida hisobot» (QX-51 shakl) ning ikkinchi nusxasi fermada qoladi.

«O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning harakati to‘g‘risida hisobot» (QX-51 shakl) ning ma’lumotlari asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha boshqa hujjatlar bilan solishtiriladi. «Ozuqa-kuni soni» ko‘rsatkichi ozuqalarni chiqimini hisobga oluvchi qaydnomaning ma’lumotlariga, olingan hayvonlarning tirik vaznini o‘sishi soni esa hayvonlarning tirik vaznini o‘sishi aniqlash hisob-kitoblariga to‘g‘ri kelishi kerak.

11.3.3. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar tirik vazni o‘sishining hujjatlarda rasmiylashtirish

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar og‘irligini tortish, ularning haqqiy tirik vaznini aniqlash natijalari «Hayvonlarni og‘irligini tortish qaydnomasi» (QX-43 shakl) da (44-ilovaga qarang) aks ettirish tavsiya etiladi.

«Hayvonlarni og‘irligini tortish qaydnomasi» (QX-43 shakl) zootexnik yoki brigadir tomonidan hayvonlarning turlari va hisob guruhlari bo‘yicha o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni tirik vazni o‘sishini aniqlashda ularning og‘irligi davriy va tanlab olib tortilganda, shuningdek o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar korxonaga kelib tushgan va chiqib ketayotgan hollarda tuziladi.

«Hayvonlarni og‘irligini tortish qaydnomasi» (QX-43 shakl) da og‘irligi tortilayotgan bosh sonini og‘irligi tortilayotgan sanadagi, oldingi ogirligi tortilgan sanadagi vazni ko‘rsatiladi va farq tirik vazni o‘sishini yoki og‘irlik ortishini tashkil etadi. «Hayvonlarni og‘irligini tortish qaydnomasi» (QX-43 shakl) zootexnik, brigadir va o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar biriktirilgan ishchi tomonidan imzolanadi.

«Hayvonlarni og‘irligini tortish qaydnomasi» (QX-43 shakl) ning tegishli hayvon guruhlari to‘g‘risidagi umumiy natijalari o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar harakatini hisobga olish daftari (301-ASM shakl) ga yoziladi, shuningdek «Tirik vazn o‘sishini aniqlash hisob-kitobi» (QX-44 shakl) ni (45-ilovaga qarang) tuzishda foydalaniladi.

«Tirik vazn o‘sishini aniqlash hisob-kitobi» (QX-44 shakl)ni har oyda zootexnik, brigadir umumiy ferma va hayvonlarni hisob guruhi bo‘yicha «Hayvonlarni og‘irligini tortish qaydnomasi» (QX-43 shakl) va o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni kelib tushishi va chiqib ketishiga tegishli hujjatlarning ma’lumotlariga asosan tuzadilar.

Mazkur shakl «Hayvonlarni og‘irligini tortish qaydnomasi» (QX-43 shakl) ni uzviy jamlamasi hisoblanadi. «Hayvonlarni og‘irligini tortish qaydnomasi» (QX-43 shakl) da tirik vazn o‘sishini og‘irligini tortish amalga oshirilgan davr boshida va oxirida ya’ni mazkur og‘irligi tortilagan va oldingi og‘irligi tortilgan sanada mavjud bo‘lgan bosh soni bo‘yicha aniqlash mumkin. O‘z navbatida mazkur ikkita sana o‘rtasida hayvonlar bosh sonida o‘zgarish ro‘y beradi: mazkur hisob guruhiga hayvonlar kelib tushadi va ushbu guruhdan hayvonlar chiqib ketadi. SHuning uchun tegishli hisob guruhi bo‘yicha umumiy tirik vazn o‘sishini aniqlashda «Hayvonlarni og‘irligini tortish qaydnomasi» (QX-43 shakl) ning ma’lumotlaridan tashqari bosh soni tarkibida bo‘lgan o‘zgarishlar (uning kelib tushishi va chiqib ketishini) e’tiborga olish lozim. Tirik vazn o‘sishining hisob-kitobi bosh sonini harakatini hisobga olgan holda «Tirik vazn o‘sishini aniqlash hisob-kitobi» (QX-44 shakl) bo‘yicha tuziladi. Buning uchun hisobot davri oxiridagi hayvonlarning vazniga chiqib ketgan bosh sonini (nobud bo‘lganlarini qo‘shib) vazni qo‘shiladi va hisobot davri boshidagi hamda hisobot davri davomida kelib tushgan bosh sonini vazni ayriladi. Mazkur hisob-kitobning jami hisobot davri davomida o‘stirishda yoki boquvda va yaylovda turgan mollar, parrandalarning katta yoshdagi guruhlari bo‘yicha ya’ni nobud bo‘lgan hayvonlarni vaznini chegirilmagan holdagi tirik vazni o‘sishini yalpi miqdorini beradi.

Og‘irligini o‘lchash imkoniyati bo‘lmagan hollarda (masalan homiadorlikning ma’lum bir bosqichidagi bo‘g‘oz g‘unajinlar, bir marta bola olinadigan va sinovdagi cho‘chqalar, kichik yoshdagi bo‘g‘oz qo‘ylar) ularning tirik vazni oxirgi marta og‘irligini tortilgandagisi qabul qilinadi. Keyinchalik o‘sishi (tirik vazni o‘sishi) ushbu hayvonlar bolalagandan yoki qo‘zilagandan keyin ularni og‘irligi tortib ko‘rish bilan aniqlanadi.

«Hayvonlarni og‘irligini tortish qaydnomasi» (QX-43 shakl), umumlashtirilgan «Tirik vazn o‘sishini aniqlash hisob-kitobi» (QX-44 shakl) «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning harakati to‘g‘risida hisobot» (QX-51 shakl) bilan bir vaqda buxgalteriyaga taqdim etiladi va olingan o‘sishni kirim qilish va chorvachilikdagi ishchilarga ish haqi hisoblashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlarda (1100) hisobga olinadigan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning mavjudligi va harakatlanishini hayvonlarning guruhlari bo‘yicha (yosh hayvonlar, katta yoshdagi hayvonlar, boquvdagi, yaylovdagi hayvonlar; parrandalar; yovvoyi hayvonlar; quyonlar; asalari oilasi; katta yoshdagi chorva mollari, sotish uchun asosiy podadan yaroqsizga chiqarilgan, aholidan sotish uchun qabul qilingan chorva mollari va boshqalar) buxgalteriya hisobida aks ettirish maqsadida korxonaning buxgalteriyasi tomonidan «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga olish qaydnomasi» (46-ilovaga qarang) tuzish tavsiya etiladi. Bunda, o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning miqdoriy va summaviy ko‘rsatkichlarining kamayishi to‘g‘risidagi ma’lumot hayvonlar guruhlari bo‘yicha «Xo‘jalik operatsiyasi mazmuni» ustunining tegishli qatorida «minus» belgisi bilan ko‘rsatiladi.

11.4. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni chiqib ketishi

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning yuqorida sanab o‘tilganlar natijasida hisobdan chiqarilishi tovar-moddiy zaxiralarning tarkibiy qismi sifatida mazkur bobning «8-§. Tovar-moddiy zaxiralarini chiqib ketishi» da nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ularni sotilishi natijasida hamda inventarizatsiya jarayonida aniqlangan kamomadi va nobud bo‘lishini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettrilishini ko‘rib chiqamiz.

11.4.1. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning sotilishi natijasida balansdan chiqarish tartibi

Korxonalar tomonidan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar qonunchilikga muvofiq mustaqil ravishda sotiladi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni sotishning moliyaviy natijasi (foyda yoki zarari) o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni sotishdan tushgan tushum bilan uning balans qiymati o‘rtasidagi farq sifatida, bilvosita soliqlar va sotish xarajatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning sotilishi natijasida balansdan chiqarishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning yordamchi xo‘jaligi bo‘rdoqiga boqilayotgan 5 bosh buqani va o‘stirishdagi 250 ta jo‘jani sotishga qaror qildi. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni sotishdan yalpi tushum 35 000 000 so‘m. Buqalarning balans qiymati 30 000 000 so‘mga teng, jo‘jalarniki esa – 1 000 000 so‘m. Shartnoma shartlariga muvofiq hayvonlarni xaridorga korxonaning ishchilari yetkazib beradi. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni sotish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat: inventar va xo‘jalik jihozlari tarkibida hisobga olinadigan ishlatilgan buyumlar - 40 000 so‘m, korxonaning transport bo‘limi tomonidan ko‘rsatilgan transport xizmatlari - 100 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash 75 000 so‘m.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni sotilishi natijasida balansdan chiqarilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- buqalar va jo‘jalarni sotish tushum summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 35 000 000 so‘m;
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti 35 000 000 so‘m;

- buqalar va jo‘jalarni balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti 31 000 000 so‘m;
kredit 1110 «O‘stirishdagi hayvonlar» schyoti 1 000 000 so‘m;
kredit 1120 «Boquvdagi hayvonlar» schyoti 30 000 000 so‘m;

- sotish xarajatlari summasiga:

debet 9410 «Sotish xarajatlari» schyoti 215 000 so‘m;
kredit 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti 40 000 sum;
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 100 000 sum;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 75 000 so‘m;

- xaridorlardan pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 35 000 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 35 000 000 so‘m;

- tayyor mahsulot sotishdan daromadlar schyotlarini yopilishi:

debet 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti 35 000 000 so‘m;
kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 35 000 000 so‘m;

- sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi schyotini yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti *31 000 000 so‘m;*
kredit 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti *31 000 000 so‘m;*
- sotish xarajatlari schyotining yopilishi:
debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti *215 000 so‘m;*
kredit 9410 «Sotish xarajatlari»schyoti *215 000 so‘m.*

Bizning misolimizda moliyaviy natija ya’ni o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni sotilishidan foyda 3 785 000 so‘mni tashkil etadi va buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti *3 785 000 so‘m;*
kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» *3 785 000 so‘m.*

11.4.2. O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni kamomadi yoki nobud bo‘lishi aniqlanganda balansdan chiqarish tartibi

Bugungi kunda qonunchilikda o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni kamomadi yoki nobud bo‘lishini rasmiylashtirish uchun foydalaniladigan hujjatlarning alohida shakllari tasdiqlanmagan. Boshlang‘ich hujjatlarda barcha majburiy rekvizitlar bo‘lishi hamda ular O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni 14-moddasida va «Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to‘g‘risidagi Nizom» da nazarda tutilgan talablarga javob berishi kerak.

Xodimlar tomonidan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning nobud bo‘lishi hamda kamomadi yetkazgan zarar qoplanayotganida quyidagi hujjatlarni rasmiylashtirishni tavsiya qilamiz:

- hayvonlarning chiqib ketishiga (so‘yish, bo‘g‘izlash, nobud bo‘lishi) dalolatnoma;
- halok bo‘lish (nobud bo‘lish) sabablari to‘g‘risida veterinariya shifokorining xulosasi;
- zararni qoplash to‘g‘risida da’vo bildirilgan shaxslarga nisbatan (agar ular jinoiy javobgarlikka tortilgan bo‘lishsa) sud hukmi yoki tergov organlari qarorining nusxasi;
- hayvonlarning qiymati to‘g‘risida ma’lumotnoma;
- nobud bo‘lgan hayvonlar uchun sug‘urta qoplamini to‘lash to‘g‘risida (agar ular sug‘urta qilingan bo‘lsa) hujjatlar.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni so‘yish, majburiy bo‘g‘izlash, ularning nobud bo‘lishi, tabiiy ofatlar qurboni bo‘lishi, yo‘qolishi har bir hodisasiga «Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasi» (QX-54 shakl) (47-ilovaga qarang) tuzish tavsiya etiladi.

«Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasi» (QX-54 shakl) o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni nobud bo‘lishi, majburiy bo‘g‘izlash, shuningdek barcha hayvon guruhlarini (o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni) so‘yishni hisobini uchun qo‘llaniladi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni so‘yilishi, majburiy bo‘g‘izlash, nobud bo‘lishi, tabiiy ofatlardan halok bo‘lishi, yo‘qolishini sabablarini o‘rganish uchun korxona rahbari (rahbar o‘rinbosari) raisligida komissiya tuzishni tavsiya qilamiz. Komissiya tarkibiga tegishli mutaxassislar (ferma mudiri, zootexnik, veterenariya shifokori), buxgalteriya xodimlari va zimmasiga o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni saqlash uchun javobgarlik yuklangan shaxslar kiritilishi lozim. Komissiya korxonanning rahbarining buyrug‘i bilan tuziladi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni so‘yilishi, majburiy bo‘g‘izlash, nobud bo‘lishi, tabiiy ofatlardan halok bo‘lishi, yo‘qolishini sabablarini o‘rganish uchun tuzilgan komissiya quyidagi vakolatlarga ega:

- bunda zarur hujjatlar (pasport va boshqa hujjatlar), shuningdek buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanib, so'yiladigan, majburiy bo'g'izlanadigan, nobud bo'lgan o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni bevosita ko'rikdan o'tkazadi;

- o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni chiqib ketish sabablarini aniqlaydi (tabiiy ofatlar, tuzatib bo'lmaydigan kasalliklar, jarohatli shikastlanishlar, illatlar, keksalik va h.k.);

- o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni chiqib ketishida aybdor bo'lgan shaxslarni aniqlaydi, ushbu shaxslarni O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortish to'g'risida takliflar kiritadi;

- o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni chiqib ketishidan olingan go'sht, teri, shox, tuyoq, texnik yog' va boshqalarni bundan keyin foydalanish yoki chetga sotish mumkinligini belgilaydi va ularni baholaydi;

- o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni chiqib ketishidan olinadigan go'sht, teri, shox, tuyoq, texnik yog' va boshqalarni olib qo'yish ustidan nazoratni amalga oshiradi, ularning miqdori, vaznini belgilaydi va tegishli omborga topshirilishini nazorat qiladi.

Komissiya tomonidan qabul qilingan o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni chiqib ketishi to'g'risidagi qaror natijalari «Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishining dalolatnomasi» (QX-54 shakl) bilan rasmiylashtiriladi va tezda ko'rib chiqish uchun korxona ma'muriyatiga taqdim etiladi.

«Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasi» (QX-54 shakl) da chiqib ketayotgan o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni tavsiflovchi quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

Har bir hujjatga uning tartib raqami beriladi va u **«__- sonli dalolatnoma»** qatorida ko'rsatilishi kerak.

«Tuzish sanasi» ustunida ko'rsatiladigan tuzish sanasi o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni chiqib ketish sanasiga to'g'ri kelishi kerak. CHunki «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 9-moddasiga muvofiq boshlang'ich hujjatlarni operatsiyalar amalga oshirilgan sanada tuzilishi lozim.

«Korxona» qatorida uning to'liq nomi va KTUT bo'yicha kodi ko'rsatiladi.

«Ferma (joy, sex)» ustunida o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni chiqib ketayotgan tarkibiy bo'linmaning ya'ni ferma (joy, sex) nomi keltiriladi. Agar korxonada tarkibiy bo'linma bo'lmasa mazkur ustun to'ldirilmaydi va chiziqcha qo'yiladi.

«Chiqib ketish sababi va tashxis» ustunida o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni chiqib ketish sababi va holatlari ko'rsatiladi. Hayvonlarni nobud bo'lishi va majburiy bo'g'izlanishi natijasida chiqib ketish holatlarida dalolatnomada sababi va tashxis ko'rsatiladi. O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni nobud bo'lishi va majburiy bo'g'izlanishi ayrim ishchilarning aybi bilan bo'lgan hollarda mazkur hayvonlar va parrandalarning qiymati bozor bahosigacha qayta baholab aybdor ishchining hisobiga yozib qo'yiladi va undan qonunchilikda belgilangan tartibda undiriladi.

«Inventar raqami, laqabi, nasli» ustunida chiqib ketayotgan hayvonning kirim qilingandagi inventar raqami, laqabi va uning nasli ko'rsatiladi.

«Balans qiymati» ustunida «Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasi» (QX-54-shakl) ni tuzish sanasidagi o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga oluvchi schyotlarda aks ettirilgan balans qiymati ko'rsatiladi.

Bogshqa ustunlarda o'stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni chiqib ketayotgandagi yoshi, jinsi, semizlik darajasi, tirik vazni (kg), ularni keyingi foydalanish mumkinligi va boshqa ko'rsatkichlar ko'rsatiladi.

Ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxatiga hayvonlarni asosiy podadan yaroqsizga chiqarish dalolatnomasining nusxasi, shikastlanganligi, tabiy ofatlar, avariya natijasida tasdiqlovchi va o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni chiqib ketishi bilan bog‘liq boshqa hujjatlar qo‘shilishi mumkin.

«Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasi» (QX-54-shakl) ning orqa tomonida o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni so‘yilishi (nobud bo‘lishi) natijasida olingan mahsulotlarning nomi, bahosi, summasi va keyingi foydalanish maqsadi ko‘rsatiladi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni so‘yilishi (nobud bo‘lishi) natijasida olingan mahsulotlar (go‘sht, teri) korxona omboriga topshiriladi va mahsulotlarni qabul qilgan omborchining imzosi bilan hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasiga ilova qilinadi.

Agar nobud bo‘lgan hayvonning, yovvoyi hayvon (quyon) ning terisi tovar qiymatligiga ega bo‘lsa va sotish mumkin bo‘lsa «Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasi» (QX-54-shakl) da «Terisi... shilib olindi va omborga topshirildi, 20__-yil «____» _____ dagi ____ -sonli yukxati» ko‘rsatiladi. Agar biror bir sabablarga ko‘ra teri ishlatilmaydigan bo‘lsa dalolatnomada «Jasad teri bilan birga yo‘q qilingan» yozuvi amalga oshiriladi.

Mahsulotlarni ishlatish qat’iy ravishda dalolatnomada ko‘rsatilgan maqsadlargagina ruxsat etiladi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni nobud bo‘lishi natijasidagi mahsulotlar xo‘jalik omboriga bir nusxasi «Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasi» (QX-54-shakl) ga ilova qilinadigan yuk xati bilan topshiriladi.

«Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasi» (QX-54-shakl) ikki nusxada tuziladi, korxona rahbari tomonidan tayinlangan komissiya a’zolari tomonidan imzolanadi va korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Uning birinchi nusxasi buxgalteriyaga beriladi, ikkinchi nusxasi o‘stirishdagi hayvonlarni saqlanishi uchun javobgar shaxsda qoladi, u chiqib ketish natijasida olingan teri, shox, tuyoq, texnik yog‘ va h.k.larni omborga topshirish uchun asos hisoblanadi.

«Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasi» (QX-54-shakl) korxona rahbari tomonidan tasdiqlangandan keyin o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar harakatini hisobga olish daftari (301-ASM-shakl) da bosh sonini hisobga olish uchun foydalaniladi va «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning harakati to‘g‘risida hisobot» (QX-51-shakl) bilan birgalikda buxgalteriya schyotlar bo‘yicha yozuvlarni amalga oshirish uchun taqdim etiladi.

So‘yish, majburiy bo‘g‘izlash, nobud bo‘lish va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish yakunlangach, o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning chiqib ketishidan moliyaviy natijani aniqlash maqsadida «O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni chiqib ketishi bilan bog‘liq xarajatlar va ularni chiqib ketishidan olingan mahsulotlar to‘g‘risida ma’lumotnoma» (48-ilovaga qarang) tuzishni tavsiya qilamiz. Mazkur ma’lumotnomada so‘yish, majburiy bo‘g‘izlash, nobud bo‘lish va tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish bilan bog‘liq xarajatlar, shuningdek «Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishininng dalolatnomasi» (QX-54 shakl) da ko‘rsatilgan mahsulotning nomi, vazni, narxi va summasi ko‘rsatiladi. «CHiqib ketish natijalari» satrida o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning chiqib ketishidan moliyaviy natija ko‘rsatiladi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning inventarizatsiyasi paytida aniqlangan kamomadi, shuningdek boyliklarning buzilishi, nobud bo‘lgan va majburan so‘yilgan hayvonlarning qiymati ham (epizootiya yoki tabiiy ofatlar munosabati bilan nobud bo‘lganlaridan tashqari) haqiqiy (balans) qiymat bo‘yicha hisobdan chiqariladi.

Aniq aybdor shaxslar topilgan taqdirda, inventarizatsiya natijasida aniqlangan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning kamomadi summasi moddiy javobgar shaxs yoki aybdordan undiriladi.

Korxonalarda o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni kamomadi yoki nobud bo‘lishi aniqlanganda balansdan chiqarish buxgalteriya hisobida aks ettirish «Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq amalga oshiriladi.

Aniq aybdor shaxslar topilgan taqdirda, inventarizatsiya natijasida aniqlangan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning kamomadi summasi moddiy javobgar shaxs yoki aybdordan undirish tovar-moddiy zaxiralarning tarkibiy qismi sifatida yuqoridagi paragraflarda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Inventarizatsiya natijasida aniqlangan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning kamomadi summasini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning yordamchi xo‘jaligi o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar inventarizatsiyasini o‘tkazdi va o‘stirishda turgan umumiy balans qiymati 120 000 so‘m bo‘lgan ikkita kurka hamda boquvda turgan balans qiymati 650 000 so‘m bo‘lgan qo‘yni kamomadi mavjudligini aniqladi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni kamomadi natijasida balansdan chiqarish tartibi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 5910 «Kamomad va qiymatliklarning
buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti 770 000 so‘m;
kredit 1110 «O‘stirishdagi hayvonlar» schyoti 120 000 sum;
kredit 1120 «Boquvdagi hayvonlar» schyoti 650 000 sum;

Moddiy javobgar shaxsdan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning kamomadi summasi undirish asosiy vositalarga o‘xshash tarzda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, o‘stirishdagi va bo‘rdoqiga boqilayotgan hayvonlar talafoti (nobud bo‘lishi) boshqa turli sabablarga ko‘ra yuz beradi. Ular hayvonlarning kasali (oqsim, kuydirgi, quturish, sil), epizootiya (ommaviy yuqumli zaharlanish), tabiiy ofatlar (yong‘inlar, toshqinlar, qattiq sovuqlar) yoki qishloq xo‘jaligi korxonalari xodimlarining aybi, shu jumladan ularning sovuqqon munosabati tufayli yuz berishi mumkin.

Ushbu talafotlar miqdori nobud bo‘lgan hayvonlarning qiymatidangina shakllanmaydi. Unga quyidagilar ham kiradi:

- nobud bo‘lgan hayvonlarni rasmiylashtirish, ko‘mish va tashish bilan bog‘liq xodimlar mehnatiga to‘lanadigan summa (ajratmalarni hisobga olgan holda);

- nobud bo‘lgan hayvonlarni yo‘qotish bilan band xodimlar uchun maxsus kiyim va maxsus poyabzalga xarajatlar;

- hayvonlar qabristonlarini saqlab turish va ta’mirlash xarajatlari;

- veterinariya xulosasi qiymati;

- nobud bo‘lgan hayvonlarni ko‘mish xarajatlari.

Kasallik (oqsim, kuydirgi, quturish, sil), epizootiya (ommaviy yuqumli zaharlanish), tabiiy ofatlar (yong‘inlar, toshqinlar, qattiq sovuqlar) munosabati tufayli yuz bergan kamomad va nobud bo‘lishlar va ularni bartaraf etish hamda oqibatlarini tugatish xarajatlari to‘g‘ridan to‘g‘ri 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotiga hisobdan chiqariladi. Nobud bo‘lgan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning terilari, shuningdek nobud bo‘lganlarni boshqa ishlatiladigan mahsulotlari (shox, tuyoq, par va h.k.lar) sotish (ishlatish) mumkin bo‘lgan narxlarda kirim

qilinadi va ularning qiymatiga kasallik tufayli yuz bergan kamomad va nobud bo‘lishlar bilan bog‘liq xarajatlar kamaytiriladi.

Kasallik, epizootiya, tabiiy ofatlar munosabati tufayli yuz bergan kamomad va nobud bo‘lishlar va ularni bartaraf etish hamda oqibatlarini tugatish xarajatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning yordamchi xo‘jaligida kasallik natijasida boquvda turgan balans qiymati 575 000 so‘m bo‘lgan qo‘y va o‘stirishda turgan qiymati 125 000 so‘m bo‘lgan g‘ozlar nobud bo‘lgan. Chiqib ketish natijasida qo‘ydan qiymati 135 000 so‘m bo‘lgan teri va yung olingan, g‘ozlardan esa hech narsa olinmagan ko‘mib tashlangan. Oqibatlarni tugatish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilardan iborat: inventar va xo‘jalik jihozlari tarkibida hisobga olinadigan buyumlar - 25 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash 100 000 so‘m va ishchilarning ish haqi fondidan 25 foiz miqdorda yagona ijtimoiy to‘lovga 25 000 so‘m.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni kamomadi va kasallikdan nobud bo‘lishi natijasida balansdan chiqarish tartibi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- o‘stirishda turgan g‘ozlarni balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatla» schyoti 125 000 so‘m;
kredit 1110 «O‘stirishdagi hayvonlar» schyoti 125 000 sum;

- olingan teri va yungni kirim qilish bilan birga boquvda turgan qo‘yni balans qiymati hisobdan chiqarilganda:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatla» schyoti 440 000 so‘m;
debet 1090 «Boshqa materiallar» schyoti 135 000 so‘m;
kredit 1120 «Boquvdagi hayvonlar» schyoti 575 000 so‘m;

- oqibatlarni tugatish bilan bog‘liq xarajatlar:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatla» schyoti 100 000 so‘m;
kredit 1080 «Inventar va xo‘jalik jihozlari» schyoti 25 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 60 000 so‘m;
kredit 6520 «Maqsadli davalt jamg‘armalariga to‘lovlar» schyoti 15 000 so‘m;

- boshqa operatsion xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 665 000 so‘m;
kredit 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 665 000 so‘m.

Ilovalar

1-ilova

1-M shakl

1-M shakldagi daftar muqovasi

Korxona _____
(nomi)

Tarkibiy bo‘linma _____
(nomi)

Kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish
D A F T A R I

20____ -y _____ uchun

1-M shakldagi daftarning birinchi varag‘i

T/r	Sana	Mol yetkazib beruvchi	Kuzatib boruvchi hujjatning (schyot-faktura, tovar-transport yuk xati va boshqalar)		Hujjatlarni olganlik to‘g‘risida imzo	Yukni qabul qilish dalolatnomasi yoki kirim orderining		Ombor kartochkasining		Izoh
			sanasi	t/r		sanasi	t/r	sanasi	t/r	
1	2	3	4	5	9	10	11	12		

2-ilova

2-M-shakl

Korxona _____

(nomi)

____-sonli Kirim orderi

Tuzish sanasi	Operatsiya turining kodi	Ombor	Mol yetkazib beruvchi		Sug‘urta tashkiloti	Kuzatib boruvchi hujjatning t/r
			nomi	kodi		

Tovar-moddiy zaxira		O‘lchov birligi		Miqdori		Narxi	Jami qiymati	shundan QQS summasi	Pasport t/r	Ombor kartochkasi t/r
nomi, navi, hajmi, markasi	nomenklatura raqami	kodi	nomi	hujjat bo‘yicha	qabul qilingan					
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	

2-M shaklning orqa tomoni

Tovar-moddiy zaxira		O‘lchov birligi		Miqdori		Narxi	Jami qiymati	shundan QQS summasi	Pasport t/r	Ombor kartochkasi t/r
nomi, navi, hajmi, markasi	nomenklatura raqami	kodi	nomi	hujjat bo‘yicha	qabul qilingan					
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
					Jami					

Topshirdi: _____ _____ _____

lavozimi imzosi F.I.SH.

Qabul qildi _____ _____ _____

lavozimi imzosi F.I.SH.

3-ilova
3-M shakl

Tasdiqlayman
_____
(lavozimi)
_____ _____
(imzo) (FISH)
«____»_____20___ -y.

Tovar-moddiy zaxiralarni kirim qilishning ____-sonli DALOLATNOMASI

Korxona _____ Tuzish sanasi «____»_____20___ -y.
(nomi, manzili)

Dalolatnoma tuzilgan joyi_____

Kirim qilish boshlanishi soat__ __daqiqa, tugalanishi soat__ __daqiqa. _____ kuzatib boruvchi hujjat bo‘yicha kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar qabul kilindi va tekshirildi:

Sifati to‘g‘risida __-sonli guvohnoma (sertifikat), _____ nomli stansiyadan, «__» _____20__yildagi __-sonli kuzatib boruvchi transport hujjati bo‘yicha t/r ___

Jo‘natuvchi _____ Mol yetkazib beruvchi _____
(nomi, manzili) (nomi, manzili)

Qabul qiluvchi _____ Sug‘urta tashkiloti _____
(nomi, manzili) (nomi, manzili)

Tovar-moddiy zaxiralar jo‘natilgan sanasi «__» _____20___ -y.

Yetkazib berish bo‘yicha «__» _____20___ -yildagi ____-sonli shartnoma.

Kuzatib boruvchi transport hujjati bo‘yicha

Plomba bo‘yicha belgi	Joylar soni	O‘rash turi	Tovar-moddiy zaxiralar nomi yoki konteyner t/r	O‘lchov birligi	Vazni		Yuk xati bo‘yicha jo‘natuvchining alohida belgilari
					jo‘na-tuvchi	yo‘lda	

Sanasi, soati va daqiqasi

Belgilangan stansiyaga kelib tushishi	Tovar-moddiy zaxiralarni transport tashkilotiga berish	Vagonlar va boshqa transport vositalarni ochish	Qabul qiluvchi omboriga yetkazib berish

3-M shaklning 2-varag‘i

Qabul qiluvchining omborida zaxiralarni saqlash sharoiti _____
Zaxiralarni tekshirishda tara va o‘ramlarning holati _____
Etmayotgan zaxiralar miqdori aniqlangan _____
(taroziga tortish, joylar hisobi, va hokazolar)
Boshqa ma’lumotlar _____

3-M shaklning 4-varag‘i

Komissiya xulosasi _____
Ilova qilinadigan hujjatlar ruyxati _____
Barcha komisiya a’zolari tovar-moddiy zaxiralarini qabul qilishni soni, sifati va komplekti bo‘yicha qoidalari bilan tanishtirilgan va ular noto‘g‘ri ma’lumotlar keltirilgan dalolatnomani imzolasa javobgarlikka tortilishi bo‘yicha ogohlantirilgan.

_____ _____ _____ _____
lavozimi imzosi F.I.SH. Vakolat to‘g‘risidagi hujjatning berilgan sanasi, raqami va bergan tashkilotning nomi

_____ _____ _____ _____
lavozimi imzosi F.I.SH. Vakolat to‘g‘risidagi hujjatning berilgan sanasi, raqami va bergan tashkilotning nomi

Tovar-moddiy zaxiralar qabul qilinib kirim qilingan «__» _____20__ -y.
Ombor mudiri: _____ _____
imzosi F.I.SH.

3-M shaklning 3-varag‘i

Operatsiya turining kodi	Tarkibiy bo‘linma	Ombor	Mol yetkazib beruvchi		Kuzatib boruvchi hujjatning t/r
			nomi	kodi	

Tovar-moddiy zaxira		O‘lchov birligi		Hujjat bo‘yicha				Haqiqiatda qabul qilingan				Ombor kartoch-kasi t/r	Yaroqsiz		Ortiqcha		Kamomad (yaroqsiz)		Pas-port t/r
nomi	nomenk-latura raqami	kod	nomi	navi	miq-dori	narxi	summasi	navi	miq-dori	narxi	summasi		miq-dori	summasi	miq-dori	summasi	miq-dori	summasi	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13			14	15	16	17	18

4-ilova
4-M shakl

____-sonli Tovar-moddiy zaxiralarni omborda hisobga olish kartochkasi

Korxona _____ Tarkibiy bo‘linma _____
(nomi) (nomi)

Tuzish sanasi	Ombor	Saqlash joyi		Marka	Navi	Hajmi	Nomenklatura t/r	O‘lchov birligi	Yaroqliylik muddati	Zaxira me’yori
		stellaj	yacheyka							

Tovar-moddiy zaxiralar nomi _____
_____
_____

Qimmatbaho materiallar (metallar va toshlar)				
Nomi	Nomenklatura t/r	O‘lchov birligi	Miqdori	Pasport t/r

T/r	Sana	Hujjatning		Kimdan olingan yoki kimga chiqarilgan	Kirim		Sarflangan, miqdori	Qoldiq	Imzo,
		nomi	t/r		Miqdori	narxi			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

4-M shaklning orqa tomoni

T/r	Sana	Hujjatning		Kimdan olingan yoki kimga chiqarilgan	Kimrim		Sarflangan, miqdori	Qoldiq	Imzo,
		nomi	t/r		Miqdori	narxi			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

Kartochkani to‘ldirdi: _____ _____ _____
lavozimi imzosi F.I.SH.
«__» _____20__ -y.

5-ilova
5-M shakl

Korxona _____
(nomi)

____-sonli Limit kartasi

Tuzish sanasi «____» _____ 20__ -y.

Jo‘natuvchi tarkibiy bo‘lim _____
(nomi)

Qabul qiluvchi tarkibiy bo‘lim _____
(nomi)

Tovar-moddiy zaxira (nomi, navi, hajmi, markasi)	O‘lchov birligi	Limit	Mahsulot chiqishining hisob birligi

	Sana	Miqdori	Limit qoldig‘i	Ombor mudiri yoki qabul qiluvchinig imzosi
CHiqarilgan				
Qaytarilgan				
Qaytarilganlarni hisobga olgan holda chiqarilganlarni jami				

Reja-iqtisod bo‘limi boshlig‘i: _____ _____
imzosi F.I.SH.

Qabul qiluvchi tarkibiy bo‘lim boshlig‘i: _____ _____
imzosi F.I.SH.

Ombor mudiri: _____ _____
imzosi F.I.SH.

6-ilova
6-M shakl

Korxona _____
(nomi)

Tovar-moddiy zaxiralarni chiqarishga ____-sonli talabnoma

Tuzish sanasi «____» _____ 20__ -y.

Jo‘natuvchi tarkibiy bo‘lim _____
(nomi)

Qabul qiluvchi tarkibiy bo‘lim _____
(nomi)

Asos _____
(qaysi maqsadga ishlatiladi)

Kim orqali talab qilingan _____
(lavozimi F.I.SH.)

Ruxsat berdi: _____ _____ _____
lavozimi imzosi F.I.SH.

Tovar-moddiy zaxira (nomi, navi, hajmi, markasi)	O‘lchov birligi	Miqdori		Narxi	Summasi
		Talab etilgan	CHiqarilgan		
1	2	3	4		

Topshirdi: _____ _____ _____
lavozimi imzosi F.I.SH.

Qabul qildi _____ _____ _____
lavozimi imzosi F.I.SH.

7-ilova
7-M shakl

Korxona _____
(nomi)

Tovar-moddiy zaxiralarni ichki harakati bo‘yicha ____-sonli yuk xati

Tuzish sanasi «____» _____ 20__ -y.

Topshiruvchi tarkibiy bo‘lim _____
(nomi)

Qabul qiluvchi tarkibiy bo‘lim _____
(nomi)

Tovar-moddiy zaxira (nomi, navi, hajmi, markasi)	O‘lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
1	2	3		

Ruxsat berdi: _____ _____ _____
lavozimi imzosi F.I.SH.

Topshirdi: _____ _____ _____
lavozimi imzosi F.I.SH.

Qabul qildi _____ _____ _____
lavozimi imzosi F.I.SH.

8-ilova
8-M shakl

Korxona _____
(nomi, manzili)

Tovar-moddiy zaxiralarni chetga chiqarish bo‘yicha ____-sonli yuk xati

Tuzish sanasi «____» _____ 20__-yil. Asos _____
(shartnoma, schyot-faktura sanasi va tartib raqami)

Topshiruvchi _____ «__» _____ 20__-yildagi -____sonli ishonchnoma
(nomi)

Qabul qiluvchi _____
(nomi, manzili)

Tovar-moddiy zaxira (nomi, navi, hajmi, markasi)	O‘lchov birligi	Miqdori	Narxi	Jami qiymati	shu jumladan QQS summasi	Pasport t/r	Ombor kartochkasi t/r
1	2	3					

8-M-sonli shaklning orqa tomoni

Tovar-moddiy zaxira (nomi, navi, hajmi, markasi)	O‘lchov birligi	Miqdori	Narxi	Jami qiymati	shu jumladan QQS summasi	Pasport t/r	Ombor kartochkasi t/r
1	2	3					
		Jami					

Jami _____ nomdagi _____ qiymat bo‘yicha chiqarilgan, shu jumladan QQS summasi _____
(so‘z bilan) (so‘z bilan) (so‘z bilan)

Ruxsat berdi: _____ _____ _____
lavozimi imzosi F.I.SH.

Topshirdi: _____ _____ _____
lavozimi imzosi F.I.SH.

Qabul qildi _____ _____ _____
lavozimi imzosi F.I.SH.

9-ilova

9-M shakl

Korxona _____
(nomi)

Tarkibiy bo‘linma _____
(nomi)

Hujjatlarni topshirishning ____-sonli ro‘yxati

_____ 20__ -yil uchun _____
(kirim/chiqim hujjatlari)

T/r	Boshlang‘ich hujjatlar tartib raqami	Nomi	Tuzish sanasi
1	2	3	4

Jami qabul qilingan hujjatlar: _____ _____
(raqamlar bilan) (so‘z bilan)

Topshirdi: _____ _____ _____
lavozimi imzosi F.I.SH.

Qabul qildi _____ _____ _____
lavozimi imzosi F.I.SH.

«__» _____20__ -y.

10-ilova
10-M shakl

10-M shakldagi daftar muqovasi

Korxona _____
(nomi)

Tarkibiy bo‘linma _____
(nomi)

Tovar-moddiy zaxiralarni qoldig‘ini hisobga olish
D A F T A R I

20___ -yil uchun

Moddiy javobgar shaxs _____
(lavozimi, F.I.SH.)

10-M shakldagi daftarning birinchi varag‘i

T/r	Tovar-moddiy zaxira		O‘lchov birligi		Narxi	Zaxira me’yori	«1» -yanvar 20__ -yilga qoldiq		«__» _____ 20__-yilga qoldiq		«31» -yanvar 20__ -yilga qoldiq	
	nomi	nomenklatura t/r	nomi	kodi			miqdori	summasi	miqdori	summasi	miqdori	summasi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	...	...	32	33

Ombor mudiri: _____ _____
imzosi F.I.SH.

11-ilova

Ishonchnoma raqami	Berilgan sanasi	Amal qilish muddati	Ishonchnoma berilgan shaxsning lavozimi va F.I.SH.	Ishonchnomani olganligi haqida imzo
1	2	3	4	5

Yetkazib beruvchining nomi	SHartnoma va (yoki) boshqa bitimlarning raqami va sanasi	Topshiriqning bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatning raqami va sanasi
6	7	8

----------Kesish chizig‘i ----------

Tovar-moddiy zaxiralarni olishga
ISHONCHNOMA
_____- son

Berilgan sana «____» _____ 20__ -yil

Ishonchnomaning haqiqiyligi «_____» _____20__ -yilgacha

_____
korxonaning nomi va uning manzili

Ishonchnoma berildi _____
lavozimi va F.I.SH.

Pasport seriyasi _____ Raqami _____

Kim tomonidan berilgan _____

Berilgan sana «____» _____ _____ -yilgacha.

_____dan
mol yetkazib beruvchining nomi

tovar-moddiy qiymatliklarni _____ bo‘yicha olish uchun
hujjatning nomi, raqami va sanasi

Ishonchnomaning orqa tomoni

Olinishi kerak bo‘lgan material qiymatliklarning ro‘yxati

T/r	Material qiymatliklarning nomi	O‘lchov birligi	Soni (yozuv bilan)
1	2	3	4

Ishonchnomani olgan shaxsning imzosi _____

Tasdiqlaymiz

_____ _____
imzo f.i.sh.

_____ _____
imzo f.i.sh.

12-ilova

Tovar-moddiy zaxiralarni olishga
ISHONCHNOMA
_____-son

Berilgan sana «____» _____ 20__ -yil

Ishonchnomaning haqiqiyligi «_____» _____20__ -yilgacha

_____
korxonaning nomi va uning manzili

Ishonchnoma berildi _____
lavozimi va F.I.SH.

Pasport seriyasi _____ Raqami _____

Kim tomonidan berilgan _____

Berilgan sana «____» _____ 20__ -yil

_____dan
mol yetkazib beruvchining nomi

tovar-moddiy qiymatliklarni _____ bo‘yicha olish uchun
hujjatning nomi, raqami va sanasi

Ishonchnomaning orqa tomoni

Olinishi kerak bo‘lgan material qiymatliklarning ro‘yxati

T/r	Material qiymatliklarning nomi	O‘lchov birligi	Soni (yozuv bilan)
1	2	3	4

Ishonchnomani olgan shaxsning imzosi _____

Tasdiqlaymiz

_____ _____
imzo f.i.sh.

_____ _____
imzo f.i.sh.

13-ilova

Berilgan ishonchnomalarni hisobga olish jurnali

T/r	Berilgan sana	Amal qilish muddati	Ishonchnoma kimga berilgan (lavozimi va F.I.O.)	Yetkazib beruvchining nomi	SHartnoma yoki boshqa bitimlarning raqami va sanasi	Ishonchnomani olgan shaxsning imzosi	Ishonchnoma bo‘yicha topshiriqning bajarilishi to‘g‘risidagi belgi
1	2	3	4	5	6	7	8

14 ilova

____- sonli Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish
RO‘YXATI

STIR-	
	Kodlar
INV-3-son shakl BHUT bo‘yicha -	
Sana (yil, kun, oy)-	
KTUT bo‘yicha -	
XXTUT bo‘yicha-	
KTUT bo‘yicha -	
Inventarizatsiya boshlangan sana -	
Inventarizatsiya tugatilgan sana -	

Korxona _____

Tarkibiy bo‘linma _____

Inventarizatsiyani o‘tkazish uchun asos: buyruq, qaror, farmoyish (keraksizlarini o‘chiring)

_____

T I L X A T

Inventarizatsiyani o‘tkazishni boshlanishiga tovar-moddiy zaxiralarga tegishli bo‘lgan barcha chiqim va kirim hujjatlari buxgalteriyaga topshirildi va mening (bizning) javobgarligimga (javobgarligimizga) kelib tushgan hamma tovar-moddiy zaxiralar kirim qilingan, chiqib ketganlari xarajatga chiqim qilingan.

Moddiy javobgar shaxs (shaxslar):

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

T.r	Yetkazib beruvchi		Tovar-moddiy zaxiralar		O‘lchov birligi		Miqdori	Tovar-moddiy zaxiralar qiymati, so‘m	Saqlash joyi	Tovar-transport yoki hisob-to‘lov hujjatlari		
	nomi	KTUT bo‘yicha kodi	nomi, turi, navi, guruhi	nomenklatura raqami	nomi	kodi				nomi	sana	raqami
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
						Jami:						
						Hammasi:						

Dalolatnoma bo‘yicha hammasi, so‘m _____ _____

Komissiya raisi:

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Komissiya a’zolari:

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Ushbu inventarizatsiya ro‘yxatida ____ dan ____.gacha raqamlangan barcha qimmatliklar mening (bizning) ishtirokimda (ishtirokimizda) komissiya tomonidan natura ko‘rinishida tekshirildi va ro‘yxatga tushirildi, shu munosabat bilan inventarizatsiya komissiyasiga da’voim (da’voimiz) yo‘q. Ro‘yxatda sanab o‘tilgan qimmatliklar mening (bizning) javobgarligimda (javobgarligimizda) saqlanmoqda.

Moddiy javobgar shaxs (shaxslar):

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Ushbu ro‘yxatda keltirilgan ma’lumotlar va hisob-kitoblarni tekshirdi: _____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

15-ilova

_____-sonli Yo‘lda bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish RO‘YXATI

STIR-	
	Kodlar
INV-6-son shakl BHUT bo‘yicha -	
Sana (yil, kun, oy)-	
KTUT bo‘yicha -	
XXTUT bo‘yicha-	
KTUT bo‘yicha -	
Inventarizatsiya boshlangan sana -	
Inventarizatsiya tugatilgan sana -	
Buxgalteriya hisobi schyoti-	

Korxona _____

Tarkibiy bo‘linma _____

Inventarizatsiyani o‘tkazish uchun asos: buyruq, qaror, farmoyish (keraksizlarini o‘chiring)

_____

T.r	Tovar-moddiy zaxiralar		O‘lchov birligi		Miqdori	Summa, so‘m	Yuk ortish sanasi	Yetkazib beruvchi		Tovar-moddiy yoki hisob-to‘lov hujjati		
	nomi, turi, navi, guruhi	nomenklatura raqami	nomi	kodi				nomi	KTUT bo‘yicha kodi	sana	raqami	summa, so‘m
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
											Jami	

Dalolatnoma bo‘yicha hammasi, so‘m _____ _____

Komissiya raisi: _____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Komissiya a’zolari: _____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

16-ilova

_____-sonli Yuklangan tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o‘tkazish
RO‘YXATI

STIR-	
	Kodlar
INV-4-son shakl BHUT bo‘yicha -	
Sana (yil, kun, oy)-	
KTUT bo‘yicha -	
XXTUT bo‘yicha-	
KTUT bo‘yicha -	
Inventarizatsiya boshlangan sana -	
Inventarizatsiya tugatilgan sana -	
Buxgalteriya hisobi schyoti-	

Korxona _____

Tarkibiy bo‘linma _____

Inventarizatsiyani o‘tkazish uchun asos: buyruq, qaror, farmoyish (keraksizlarini o‘chiring)

_____

T.r	Xaridor		Tovar-moddiy zaxiralar		Yuk ortish sanasi	Tovar-moddiy yoki hisob-to‘lov hujjati (schyot-faktura)		
	nomi	KTUT bo‘yicha kodi	nomi, turi, navi, guruhi	Nomenklatura raqami		sana	raqami	summa, so‘m
1	2	3	4	5	6	7	8	9
					Jami:			

Dalolatnoma bo‘yicha hammasi, so‘m _____ _____

Komissiya raisi: _____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Komissiya a’zolari: _____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Buxgalteriya hisobi

17-ilova

____- sonli Mas'ul saqlashga qabul qilingan (topshirilgan) tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyadan o'tkazish RO'YXATI

	Kodlar
STIR-	
INV-5-son shakl BHUT bo'yicha -	
Sana (yil, kun, oy)-	
KTUT bo'yicha -	
XXTUT bo'yicha-	
KTUT bo'yicha -	
Inventarizatsiya boshlangan sana -	
Inventarizatsiya tugatilgan sana -	
Buxgalteriya hisobi schyoti-	

Korxona _____

Tarkibiy bo'linma _____

Inventarizatsiyani o'tkazish uchun asos: buyruq, qaror, farmoyish (keraksizlarini o'chiring)

_____

T I L X A T

Inventarizatsiyani o'tkazishni boshlanishiga tovar-moddiy zaxiralarga tegishli bo'lgan barcha chiqim va kirim hujjatlari buxgalteriyaga topshirildi va mening (bizning) javobgarligimga (javobgarligimizga) kelib tushgan hamma tovar-moddiy zaxiralar kirim qilingan, chiqib ketganlari - chiqim qilingan.

Moddiy javobgar shaxs (shaxslar):

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

T.r	Yetkazib beruvchi		Tovar-moddiy zaxiralar		O'lchov birligi		Miqdori	Tovar-moddiy zaxiralar qiymati, so'm	Saqlash joyi	Tovar-transport yoki hisob-to'lov hujjatlari		
	nomi	KTUT bo'yicha kodi	nomi, turi, navi, guruhi	nomenklatura raqami	nomi	kodi				nomi	sana	raqami
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
						Jami:						

T.r	Yetkazib beruvchi		Tovar-moddiy zaxiralar		O‘lchov birligi		Miqdori	Tovar-moddiy zaxiralar qiymati, so‘m	Saqlash joyi	Tovar-transport yoki hisob-to‘lov hujjatlari		
	nomi	KTUT bo‘yicha kodi	nomi, turi, navi, guruhi	nomenklatura raqami	nomi	kodi				nomi	sana	raqami
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
						Jami:						
						Hammasi:						

Dalolatnoma bo‘yicha hammasi, so‘m _____ _____

Komissiya raisi:

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Komissiya a’zolari:

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Ushbu inventarizatsiya ro‘yxatida ____ dan ____.gacha raqamlangan barcha qimmatliklar mening (bizning) ishtirokimda (ishtirokimizda) komissiya tomonidan natura ko‘rinishida tekshirildi va ro‘yxatga tushirildo‘i, shu munosabat bilan inventarizatsiya komissiyasiga da’voim (da’voimiz) yo‘q. Ro‘yxatda sanab o‘tilgan qimmatliklar mening (bizning) javobgarligimda (javobgarligimizda) saqlanmoqda.

Moddiy javobgar shaxs (shaxslar):

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Ushbu ro‘yxatda keltirilgan ma’lumotlar va hisob-kitoblarni tekshirdi: _____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

18- ilova

_____-sonli Tugallanmagan ishlab chiqarish zaxiralari qoldig‘ini inventarizatsiyadan o‘tkazish
RO‘YXATI

STIR-	
	Kodlar
INV-4-son shakl BHUT bo‘yicha -	
Sana (yil, kun, oy)-	
KTUT bo‘yicha -	
XXTUT bo‘yicha-	
KTUT bo‘yicha -	
Inventarizatsiya boshlangan sana -	
Inventarizatsiya tugatilgan sana -	
Buxgalteriya hisobi schyoti-	

Korxona _____

Tarkibiy bo‘linma _____

Inventarizatsiyani o‘tkazish uchun asos: buyruq, qaror, farmoyish (keraksizlarini o‘chiring)

_____

T/r	Tugallanmagan ishlab chiqarish zaxirasini qismlarining		O‘lchov birligi	Miqdori	Tugallanmagan ishlab chiqarish zaxirasining qismlari			
					asosiy materiallar		ish haqi	
	nomi, guruhi	nomenklatura raqami			bir birlikga	qolgan qoldiqqa	bir birlikga	qolgan qoldiqqa

Dalolatnoma bo‘yicha hammasi, so‘m _____ _____

Komissiya raisi: _____ _____ _____
(lavozimi) (imzosi) (F.I.SH.)

Komissiya a’zolari: _____ _____ _____
(lavozimi) (imzosi) (F.I.SH.)

_____ _____ _____
(lavozimi) (imzosi) (F.I.SH.)

19-ilova

_____-sonli Kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish
RO‘YXATI

STIR-	
	Kodlar
INV-11-son shakl BHUT bo‘yicha -	
Sana (yil, kun, oy)-	
KTUT bo‘yicha -	
XXTUT bo‘yicha-	
KTUT bo‘yicha -	
Inventarizatsiya boshlangan sana -	
Inventarizatsiya tugatilgan sana -	
Buxgalteriya hisobi schyoti-	

Korxona _____

Tarkibiy bo‘linma _____

Inventarizatsiyani o‘tkazish uchun asos: buyruq, qaror, farmoyish (keraksizlarini o‘chiring)

_____

O‘lchov birligi - so‘m.

T/r	Xarajat turi		Xarajatning boshlang‘ich summasi	Xarajat-ning yuzaga kelgan sanasi	Xarajat-larni qoplash muddati (oylar bo‘yicha)	Hisobdan chiqarishga hisoblangan summa	Inventarizatsiya boshlanishiga qadar xarajatlar hisobdan chiqarildi (qoplandi)	Inventarizatsiya boshlanishida hisob ma’lumotlariga ko‘ra xarajatlarning qoldig‘i	Kelgusi davrda qoplanishi lozim bo‘lgan xarajatlarning hisoblangan qoldig‘i	Inventarizatsiya natijalari	
	nomi	kodi								Qo‘shimcha hisobdan chiqarilishi lozim	ortiqcha hisobdan chiqarilgan (tiklanishi lozim)
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Jami											

Komissiya raisi: _____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Komissiya a’zolari: _____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

Buxgalteriya hisobi

20-ilova

_____ _____da
(korxonaning nomi) (korxona, ombor, saqlanadigan joy, sex, uchastka va boshqalarning nomi)

_____-sonli Tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyasi to‘g‘ri o‘tkazilganligining nazorat tekshiruvining dalolatnomasi

Quyidagi tarkibdagi komissiya tomonidan 200___ -y. «_____» _____ da tovar-moddiy zaxiralarni inventarizatsiyasi o‘tkazildi:

Komissiya raisi: _____ _____
(lavozimi) (F.I.SH.)

Komissiya a’zolari: _____ _____
(lavozimi) (F.I.SH.)

_____ tomonidan o‘tkazilgan nazorat tekshiruvida quyidagilar aniqlandi:_____
(lavozimi, F.I.SH.)

Inventarlash ro‘yxatida _____ nomdagi _____ so‘mlik* mol-mulk bor.

II. Tekshirish natijalari

T/r	Nazorat tekshiruvidan o‘tkazilgan tovar-moddiy zaxiralar nomi	Inventarizatsiya ro‘yxatida bor bo‘lgan tovar-moddiy zaxiralar			Nazorat tekshiruvida haqiqatda mavjud			Tekshirish natijalari (+ ko‘p, - kam)		
		soni	bahosi*	summa	soni	bahosi*	summa	soni	bahosi*	summa
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Jami										

Imzolar:

Nazorat tekshiruvini o‘tkazgan shaxs _____ _____ _____

Komissiya raisi: _____ _____ _____

Komissiya a’zolari: _____ _____ _____

**) Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarida qimmatliklarni inventarlashni nazorat tekshiruvidan o‘tkazilganda to‘ldiriladi.*

21-ilova

T/r	Nazorat tekshiruvini o‘tkazgan xodimning F.I.SH. va lavozimi	Tekshirilayot-gan korxona, ombor, sexning nomi	Moddiy javobgar shaxsning F.I.SH.	Nazorat tekshiruvini o‘tkazish sanasi	Inventarizatsiya qaydnomasida ko‘rsatilgan		Tekshirilgan		Nazorat tekshiruvi natijalari				Nazorat tekshiruvi natijalari bo‘yicha ma’muriyat qarori	Nazorat tekshiruvini o‘tkazgan shaxsning tilxati
					nomlar soni	summa	nomlarsoni	summa	kamomad		ortiqcha			
									soni	summa	soni	summa		

_____
(korxonaning nomi)

Inventarizatsiyani o‘tkazish haqidagi buyruqlarning bajarilishi ustidan nazorat kitobi boshlandi 20__ -y._____ Tugatildi 20__ _____

22-ilova

____- sonli Tovar-moddiy zaxiralarning inventarizatsiyasi natijalarini solishtirish QAYDNOMASI

STIR-	
	Kodlar
INV-19-son shakl BHUT bo‘yicha -	
Sana (yil, kun, oy)-	
KTUT bo‘yicha -	
XXTUT bo‘yicha-	
KTUT bo‘yicha -	
Inventarizatsiya boshlangan sana -	
Inventarizatsiya tugatilgan sana -	

Korxona _____

Tarkibiy bo‘linma _____

Inventarizatsiyani o‘tkazish uchun asos: buyruq, qaror, farmoyish (keraksizlarini o‘chiring)

_____

T.r	Tovar-moddiy zaxiralar		O‘lchov birligi		Inventarizatsiya natijalari				Hisobdagi ma’lumotlarni aniqlash hisobiga to‘g‘rilangan					
					ortiqcha		kamomad		ortiqcha			kamomad		
	nomi, turi, navi, guruhi	nomen klatura raqami	nomi	kodi	miqdori	summa, so‘m	miqdori	summa, so‘m	miqdori	summa, so‘m	schyot, modda, buyurtma raqami	miqdori	summa, so‘m	schyot, modda, buyurtma raqami
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
				Jami:										

Jadvalning davomi

Qayta navlarga ajratish						Kirim qilingan yakuniy ortiqchalik			Yakuniy kamomadlar					
qoplashga yo‘naltirilgan ortiqchalik			ortiqchalar bilan qoplangan kamomad											
miqdori	summa, so‘m	qoplangan kamomad tartib raqami	miqdori	summa, so‘m	qoplangan kamomad tartib raqami	miqdori	summa, so‘m	schyot raqami	miqdori	summa, so‘m	miqdori	summa, so‘m	miqdori	summa, so‘m
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30

Buxgalter _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Solishtirish natijalari bilan tanishtirildi:

Moddiy javobgar shaxs (shaxslar): _____ (lavozimi) _____ (imzosi) _____ (F.I.SH.)

23-ilova

Maxsus kiyim, maxsus poyabzal va yakka tartibda himoyalanishning boshqa vositalarini hisobga olish qaydnomasi

Korxona _____ Tarkibiy bo‘linma _____

Tuzilgan sana	Operatsiya turining kodi	Tarkibiy bulim	Faoliyat turi

T/r	Familiyasi, ismi, sharifi	Ro‘yxat raqami	Maxsus kiymlar, poyabzal va boshqa himoyalanish vositalari		O‘lchov birligi		Soni	Foydala-nishga qabul qilingan sana	Xizmat muddati	Qabul qiluvchi imzosi	Qaytarilganlik to‘g‘risidagi belgi			
			nomi	nomenklatura raqami	kod	nomi					sana	soni	yaroqlilik foizi	omborchi imzosi

Bo‘lim rahbari _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Moddiy javobgar shaxs _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

«_____» _____ 20____ -y.

24-ilova

Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobga olishning _____ -sonli Kartochkasi

Korxona _____ Tarkibiy bo‘linma _____

Tuzilgan sana	Operatsiya turining kodi	Tarkibiy bulim	Qabul qiluvchining ro‘yxat (tabel) raqami

Familiyasi, ismi, sharifi _____, Kasbi _____, Lavozimi _____

Inventar va xo‘jalik jihozlarini			Berildi				Qaytarildi				CHiqib ketishi to‘g‘risidagi belgi (chiqib ketish dalolatnomasi)		
nomi, turi	nomenklatura raqami	xizmat muddati	sana	miq-dori	yaroqlilik foizi	qabul qiluv-chining imzosi	sana	miq-dori	yaroqlilik foizi	omborchining imzosi	raqami	sana	miqdori

Kartochkani to‘ldirdi _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

«_____» _____ 20____ -y.

25-ilova

Inventar va xo‘jalik jihozlarini ta’mirlashning _____ -sonli Buyurtmasi

Korxona _____ Tarkibiy bo‘linma _____

Sex, bo‘lim, joy	Ro‘yxat (tabel) raqami

Buyurtma		Inventar va xo‘jalik jihozlarini		Miqdori	Izoh
ish nomi	kodi	nomi	inventar raqami		

Topshirdi _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Qabul qildi _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

26-ilova

«Tasdiqlayman»

_____ _____
rahbar F.I.SH imzo

«_____» _____ 20____ -y.

Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobdan chiqarishning ____ - sonli dalolatnomasi

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.

Korxona _____Tarkibiy bo‘linma _____

Tarkibiy bo‘linma	Tuzish sanasi	Operatsiya turining kodi	Inventar va xo‘jalik jihozlarini saqlashga mas’ul shaxsning kodi

T/r	Inventar va xo‘jalik jihozlarining		O‘lchov birligi	Soni	Bahosi	Summasi	Izoh
	nomi	kodi					
			Jami		x		

20____ -yil «_____» _____ da ___ - sonli buyruq bilan tayinlangan komissiya

_____ ko‘rib chiqdi
inventar va xo‘jalik jihozlarining nomi

Ko‘rib chiqish natijasida va hujjatlari bilan tanishib chiqib komissiya aniqladi:

1. 20__ -y. «___» _____ korxonaga kelib tushgan;

2. Yaroqli qismlar, detallar, materiallar, rangli va qimmatbaho metallar va boshqalarning mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot.

Raqami			Nomi	O‘lchov birligi	Soni	Bahosi	Summasi
Tartib bo‘yicha	Katalog bo‘yicha	Nomenklatura					
1	2	3	4	5	6	7	8
						Jami	

3. Hisobdan chiqarish sababi _____

Komissiya xulosasi:_____

Ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati _____

Komissiya raisi _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Komissiya a’zolari: _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

27-ilova

Inventar va xo‘jalik jihozlarini chiqib ketishi bilan bog‘liq xarajatlar va ularni chiqib ketishidan kelib tushgan materiallar to‘g‘risida ma’lumotnoma

Korxona _____

Chiqib ketish bilan bog‘liq xarajatlar				Chiqib ketishdan foydalanish mumkin bo‘lgan baho bo‘yicha kelib tushdi				
ish turi	hujjat raqami	xarajat moddasi	summasi	hujjat raqami	mahsulot nomi	Soni	Bahosi	summasi

CHiqib ketish natijalari _____

Bosh buxgalter (buxgalter) _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

20___ -yil «_____» _____

28-ilova

20___ -yil _____ uchun

Inventar va xo‘jalik jihozlarining harakati to‘g‘risida hisobot

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.

Korxona _____ Tarkibiy bo‘linma _____

Moddiy javobgar shaxs _____

(lavozimi, familiyasi, ismi, sharifi)

T/r	Inventar va xo‘jalik jihozlarining		Mol yetkazib beruv-chining nomi	Narxi	20__ -y. «__» ____ dagi qoldiq		Kirim			CHiqim			20__ -y. «__» ____ dagi qoldiq	
	nomi	inventar raqami			soni	summasi	sana va hujjat raqami	soni	summasi	sana va hujjat raqami	soni	summasi	soni	summasi
				Jami										
													Inventar va xo‘jalik jihozlarining qoldig‘i	

Hisobotni topshirdi _____ hujjatlar _____ varaqda

soni yozuv bilan soni yozuv bilan

Hisobotni topshirdi _____ _____ _____

lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Hisobotni qabul qildi _____ _____ _____

lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

29-ilova

Inventar va xo‘jalik jihozlarini hisobga olish qaydnomasi

_____ - schyot bo‘yicha

Xo‘jalik operatsiyasining mazmuni	Inventar va xo‘jalik jihozlarining turlari									
							va h.k.		Korrespondentsiya-lanuvchi schyotlar	
	miqdori	summasi	miqdori	summasi	miqdori	summasi	miqdori	summasi	Debet	Kredit
20__ -y. ____ dagi qoldiq									X	X
1.										
Jami:									X	X
20__ -y. ____ dagi qoldiq									X	X

Rahbar _____ _____ _____

lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Buxgalter _____ _____ _____

lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

30-ilova

«Tasdiqlayman»

_____ _____
rahbar F.I.SH imzo
«_____» _____ 20____ -y.

Mol yetkazib beruvchining schyot-fakturasida ko‘rsatilmagan taralarni kirim qilishning ____- sonli dalolatnomasi

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.
Korxona _____ Tarkibiy bo‘linma _____
20____ -yil «_____» _____ da ___ - sonli buyruq bilan tayinlangan komissiya _____ ko‘rib chiqdi
ta’minotchidan _____
(mol yetkazib beruvchining to‘liq nomi)
Ko‘rib chiqish natijasida komissiya quyidagilarni aniqlada:

T/r	Taraning		O‘lchov birligi	Soni	Bahosi	Summasi	Izoh
	nomi	kodi					
			Jami		x		

Ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati _____

Komissiya raisi _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Komissiya a’zolari: _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Tarani qabul qildi _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

31-ilova

Qaytarilishi lozim bo‘lgan ko‘p marotaba ishlatiladigan taralarni qaytarishning ____– sonli yuk xati

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.
Korxona _____ Tarkibiy bo‘linma _____
Mol yetkazib beruvchi _____
(taralar qaytariladigan mol yetkazib beruvchining to‘liq nomi)

T/r	Taraning		O‘lchov birligi	Soni	Bahosi	Summasi	Kelib tushgandagi hujjatning nomi va raqami
	nomi	kodi					
			Jami		x		

Buxgalter _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Tarani topshirdi: _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Tarani qabul qildi: _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

32-ilova

«Tasdiqlayman»

_____ _____
rahbar F.I.SH imzo

«_____» _____ 20____ -y.

Taralarning sinishi yoki buzilishi natijasida hisobdan chiqarishning
____ - sonli dalolatnomasi

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.

Korxona _____
Tarkibiy bo‘linma _____
20____ -yil «_____» _____ da ___ - sonli buyruq bilan tayinlangan komissiya
_____ mol yetkazib beruvchidan kelgan
(mol yetkazib beruvchining to‘liq nomi)
_____ ko‘rib chiqdi
taralarning turi va guruhi

Ko‘rib chiqish natijasida komissiya quyidagilarni aniqlada

T/r	Taraning		O‘lchov birligi	Soni	Bahosi	Summasi	Izoh
	nomi	kodi					
			Jami		x		

Ilova qilinadigan hujjatlar ro‘yxati _____

Komissiya raisi _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Komissiya a’zolari: _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

33-ilova

Taralarni chiqib ketishi bilan bog‘liq xarajatlar va
ularni chiqib ketishidan kelib tushgan materiallar to‘g‘risida ma’lumotnoma

Korxona _____

CHiqib ketish bilan bog‘liq xarajatlar				CHiqib ketishdan foydalanish mumkin bo‘lgan baho bo‘yicha kelib tushdi				
ish turi	hujjat raqami	xarajat moddasi	summasi	hujjat raqami	mahsulot nomi	Soni	Bahosi	summasi

CHiqib ketish natijalari _____

Bosh buxgalter (buxgalter) _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

20___ -yil «_____» _____

34-ilova

20___ -yil _____ uchun

Taralarning harakati to‘g‘risida hisobot

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.

Korxona _____ Tarkibiy bo‘linma _____

Moddiy javobgar shaxs _____

(lavozimi, familiyasi, ismi, sharifi)

T/r	Taralarning		Mol yetkazib beruv-chining nomi	Narxi	20__ -y. «__» ____ dagi qoldiq		Kirim			CHiqim			20__ y. «__» ____ dagi qoldiq	
	nomi	inventar raqami			soni	summasi	sana va hujjat raqami	soni	summasi	sana va hujjat raqami	soni	summasi	soni	summasi
				Jami										
												Taralarning qoldig‘i		

Hisobotni topshirdi _____ soni yozuv bilan hujjatlar _____ soni yozuv bilan varaqda

Hisobotni topshirdi _____ lavozim _____ imzo _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

Hisobotni qabul qildi _____ lavozim _____ imzo _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

35-ilova

Taralarni hisobga olish qaydnomasi

_____ - schyot bo‘yicha

Xo‘jalik operatsiyasining mazmuni	Taralarning turlari									
	PET idishlar		SHisha idishlar		Yog‘och taralar		va h.k.		Korrespondentsiya-lanuvchi schyotlar	
	miqdori	summasi	miqdori	summasi	miqdori	summasi	miqdori	summasi	Debet	Kredit
20__ -y. ____ dagi qoldiq									X	X
1.										
Jami:									X	X
20__ -y. ____ dagi qoldiq									X	X

Rahbar _____ lavozim _____ imzo _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

Buxgalter _____ lavozim _____ imzo _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

36-ilova
QX-40-namunaviy shakl

Aholidan qabul qilingan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni qabul qilish topshirish qaydnomasi

20____ -y. _____ uchun

Korxona _____

Hayvonlarning turlari _____

№	Topshiruvchi		Soni bosh	Semizlik darajasi	Hayvonlarni qabul qilishda tirish vazni, kg		Bahosi	Summasi	Topshiruv-chining imzosi
	F.I.SH.	pasport ma’lumotlari			chegirma-gacha	chegirmadan keyin			

Mazkur qaydnoma bo‘yicha og‘irligi (oshqozon-ichak yo‘llarida bo‘lgan narsalar uchun chegirilgan holda) _____ kg bo‘lgan _____ bosh hayvon qabul qilingan.
yozuvda yozuvda

Rahbar _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Brigadir _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Zootexnik _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Buxgalter _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

37-ilova
QX-39-namunaviy shakl

«Tasdiqlayman»

_____ _____
rahbar F.I.SH imzo
«_____» _____ 20____ -y.

Hayvonlardan olingan naslni kirim qilishning ____ - sonli dalolatnomasi

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.

Korxona _____

Ferma (joy, sex) _____

Hayvonlarning hisob guruhi _____

Hayvonlarning _____ guruhiga qabul amalga oshirildi

Hayvonlar biriktirilgan shaxsning F.I.SH.	Hayvonning laqabi yoki raqami	Tirik tug‘ildi		Inventar raqami	O‘lik tug‘ildi (bosh)	Belgilar (laqabi, rangi va boshqa ma’lumotlar)	Naslni olishdagi ishchining imzosi
		soni (bosh)	tirik vazni (kg)				

Brigadir _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Zootexnik _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

38-ilova
QX-41-namunaviy shakl

«Tasdiqlayman»

_____ _____
rahbar F.I.SH imzo

«_____» _____ 20____ -y.

Yosh parrandalarni bir kunlik chiqishi va ajratishning

____ - sonli dalolatnomasi

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.

Korxona _____

Ferma (joy, sex) _____

Hayvonlarning _____ guruhiga qabul amalga oshirildi

Ko‘rsatkichlar	Soni	Bahosi	Summasi
Qo‘yilgan tuxumlar			
CHiqqan bosh:			
sog‘lomlari			
nimjonlari			
Mayib, yaxlaganlari			
Yo‘q qilingan			
chiqqanlari qo‘yilganlarga nisbatan % da			

Brigadir _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Zootexnik _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Katta operator _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Operator _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

39-ilova
QX-52 namunaviy shakl

Kichik yoshdagi parrandalarni harakatini hisobga olishning
____ - sonli kartochkasi
20____ -y. _____ uchun

Korxona _____

Ferma (joy, sex) _____

Kataklar (partiya) _____

Yoshi (parrandalar) _____

Oyning sanasi	Kun boshida bosh soni, bosh	Kelib tushgan		So‘yilishi		Sotilgan		Nobud bo‘lgan		Boshqa chiqib ketishlar	
		bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg
1											
…											
30											
31											
SHu oy uchun jami											
Yil boshidan											

Reja:

shu oy uchun tirik saqlash _____ %
o‘rtacha kunlik o‘sish _____ kg
shu oyda o‘sish _____ kg

Tirik vazni:

oy boshiga _____ kg
oy oxirida _____ kg
shu oyda o‘sish _____ kg
o‘rtacha kunlik o‘sish _____ kg
tirik saqlash _____ %

Brigadir _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Zootexnik _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Buxgalter tekshirdi _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Parranda boquvchi _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

«_____» _____ 20____ -y.

40-ilova
QX-53-namunaviy shakl

Katta yoshdagi parrandalarni harakatini hisobga olishning
____ - sonli kartochkasi
20____ -y. _____ uchun

Korxona _____

Ferma (joy, sex) _____

Katak (partiya) _____

Yoshi (parrandalar) _____

Oyning sanasi	Kun boshida bosh soni, bosh	Kelib tushgan		So‘yilishi		Sotilgan		Nobud bo‘lgan		Boshqa chiqib ketishlar		Kun uchun haqiqatda yig‘ilgan tuxumlar, dona
		bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	
1												
30												
31												
SHu oy uchun jami												
Yil boshidan,												
shu jumladan:												
Tovuqlar bosh soni												
shu oy uchun jami												
yil boshidan												

Tuxum yig‘ish rejasi:

bir kunda _____ dona
bir oyda _____ dona
tuxum berish _____ dona

Haqiqatda:

shu oydagi tuxum beradigan tovuqlar o‘rtacha bosh soni _____ bosh
shu oydagi bitta tuxum beradigan tovuqga to‘g‘ri keladigan tuxum berish _____ dona

Brigadir _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Zootexnik _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Buxgalter tekshirdi _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Parranda boquvchi _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

«_____» _____ 20____ -y.

41-ilova
QX-50-namunaviy shakl

_____ o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga olish kitobchasi
(cho‘pon, otboqar va h.k zaruri yoziladi)

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.

Korxona _____ Ferma (joy, sex) _____

Kimga berilgan _____
(F.I.SH.)

Mazkur namunada QX-50 shakl bo‘yicha jurnalning muqovasi bosmadan chiqarilishi kerak

Qabul qilingan o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning ro‘yxati

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning (turi, nasli, jinsi, yoshi)	Bosh soni	Belgilar

Topshirdi _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Qabul qildi _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Mazkur namunada QX-50 shakl bo‘yicha jurnalning 1-dan 5-gacha varaqlari bosmadan chiqarilishi kerak. Bunda topshirdi va qabul qildi 5-varaqning oxirida bosmadan chiqariladi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning harakati

Sana	O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning (turi, nasli, jinsi, yoshi)	Kelib tushgan bosh soni		
		nasl olishdan	boshqa kelib tushishlar	
			qayerdan	bosh soni

Mazkur namunada QX-50-shakl bo‘yicha jurnalning 6-dan 24-gacha bo‘lgan barcha juft sonli varaqlari bosmadan chiqarilishi kerak.

(jadvalning davomi)

CHiqib ketganlarning bosh soni					so‘yishninng yoki harom o‘lishining sababi
sotilgan	so‘yilgan	nobud bo‘lgan		boshqa chiqib ketishlar	

Mazkur namunada QX-50-shakl bo‘yicha jurnalning 7-dan 25-gacha bo‘lgan barcha toq sonli varaqlari bosmadan chiqarilishi kerak.

Nasl olishni, sut emizishdan chiqarishni va qochirish hisobga olish

Sana	Nasl beradigan hayvonlar soni	Olingan nasl, bosh		Tirik olingan nasldan		
		tirik	o‘lik tug‘ilgan	sana	so‘yilgan	o‘lgan va yo‘qolgan

Mazkur namunada QX-50 shakl bo‘yicha jurnalning 26-dan 32-gacha bo‘lgan barcha juft sonli varaqlari bosmadan chiqarilishi kerak.

(jadvalning davomi)

Sut emizishdan chiqarilgan			Qochirtirilgan		
sana	erkagi, bosh	urg‘ochi,bosh	sana	urug‘ beruvchining laqabi va nasli	qochirilgan, bosh

Mazkur namunada QX-50 shakl bo‘yicha jurnalning 27-dan 33-gacha bo‘lgan barcha toq sonli varaqlari bosmadan chiqarilishi kerak.

Podadagi inventarlar ro‘yxati

T/r	O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning (turi, nasli, jinsi, yoshi)	Soni	Belgilar

Mazkur namunada QX-50 shakl bo‘yicha jurnalning 34-dan 38-gacha bo‘lgan barcha varaqlari bosmadan chiqarilishi kerak.

Hayvonlarni mavjudligi to‘g‘risidagi nazorat ma’lumotlar

Sana	O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning (turi, nasli, jinsi, yoshi)	Soni	Imzo

Mazkur namunada QX-50 shakl bo‘yicha jurnalning 39-varaq va 40-varaqlar bosmadan chiqarilishi kerak.

42-ilova
QX-47-namunaviy shakl

«Tasdiqlayman»

_____ _____
rahbar F.I.SH imzo

«_____» _____ 20____ -y.

Hayvonlarni o‘tkazishning ____ - sonli dalolatnomasi

_____
(hayvonlarning turlari)

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.

Korxona _____

Ferma (joy, sex) _____

_____ guruhdan _____ guruhga

Inventar raqami	Jinsi, sinfi, rangi, laqabi va boshqa xususiyatlari	Tug‘ilgan sanasi	Soni, bosh	Vazni, kg	Balans qiymati	Hayvonlarni qabul qilish biriktirilgan ishchi	
						F.I.SH.	imzo
		Jami					

Hayvonlarni topshirdi _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Brigadir _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Zootexnik _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Buxgalter tekshirdi _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

43-ilova
QX-51-namunaviy shakl

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning harakati to‘g‘risida hisobot

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.

Korxona _____

Ferma (joy, sex) _____

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning guruhi	Oy boshiga mavjudligi		Kirim												Chiqim												Oy oxirida mavjudligi	
			olingan nasl		boshqa guruhdan o‘tkazilgan (joy)		chetdan kelib tushgan				o‘sish		jami		boshqa guruhga o‘tkazilgan (joy)		chetga chiqib ketgan				so‘yilgan		harom o‘lgan		jami			
	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg	bosh	vazn, kg

Brigadir _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Zootexnik _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Buxgalter tekshirdi _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

44-ilova
QX-43-namunaviy shakl

Hayvonlarni og‘irligini tortish qaydnomasi

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.

Korxona _____

Ferma (joy, sex) _____

Hayvonlarning guruhi (turi) _____

Hayvonlar biriktirilgan shaxs _____
(F.I.SH.)

Inventar raqami, laqabi, nasli	Jinsi, yoshi, yil	Soni, bosh	Vazni, kg		
			20 ___ -y. "___" _____ga (oldingi og‘irligini tortishdagi)	og‘irligini tortish sanasiga	Og‘irligini ortishi

Brigadir _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Zootexnik _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Vettexnik _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

45-ilova
QX-44-namunaviy shakl

Tirik vazn o‘sishni aniqlashning ____ - sonli hisob-kitobi

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.

Korxona _____ Ferma (joy, sex) _____

Hayvonlar biriktirilgan ishchining F.I.SH.	Hayvonlarning hisobga olish guruhi	Oy boshiga qoldiq		Kelib tushgan		CHiqib ketgan (harom o‘lgandan tashqari)		Harom o‘lgan		Oy oxiriga qoldiq (og‘irligini tortish sanasiga)		Og‘irligini ortishi	Ozuqa berish kunlari soni	Kunlik o‘rtacha og‘irligini ortishi, kg
		bosh	tirik vazni, kg	bosh	tirik vazni, kg	bosh	tirik vazni, kg	bosh	tirik vazni, kg	bosh	tirik vazni, kg			

Brigadir _____ imzo _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

Zootexnik _____ imzo _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

Buxgalter tekshirdi _____ imzo _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

46-ilova

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni hisobga olish qaydnomasi
20___ -yil _____ uchun _____ - schyot bo‘yicha

Xo‘jalik operatsiyasining mazmuni	Boquvdagi va o‘stirishdagi hayvonlar guruhi												Korrespondentsiya-lanuvchi schyotlar	
	Qo‘y			Echki			Buzoq			va h.k.				
	bosh	og‘ir-ligi, kg	sum-masi	bosh	og‘ir-ligi, kg	sum-masi	bosh	og‘ir-ligi, kg	sum-masi	bosh	og‘ir-ligi, kg	sum-masi	Debet	Kredit
20__ -y. ____ dagi qoldiq													X	X
1.														
...														
Jami:													X	X
20__ -y. ____ dagi qoldiq													X	X

Rahbar _____ imzo _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

Buxgalter _____ imzo _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

47-ilova
QX-54-namunaviy shakl

«Tasdiqlayman»

_____ _____
rahbar F.I.SH imzo
«_____» _____ 20____ -y.

Hayvonlar va parrandalarni chiqib ketishining
____ - sonli dalolatnomasi

Tuzish sanasi «_____» _____ 20____ -y.

Korxona _____ Ferma (joy, sex) _____

CHiqib ketishining sababi va tashhis _____

Hayvonlarning guruhi (turi)	Inventar raqami, laqabi, nasli	Jinsi, yoshi, yili	Semiz-ligi	Soni, bosh	Tirik qvazni, kg	Balans qiymati	Chiqib ketayotgan hayvonga biriktirilgan ishchi	
							F.I.SH.	imzo

Ilova qilinayotgan hujjatlar ro‘yxati:

1. Hayvonlarni asosiy podadan chiqarishning dalolatnomasi:

«_____» _____ 20____ -yildagi _____ -sonli.
«_____» _____ 20____ -yildagi _____ -sonli.

Brigadir _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Zootexnik _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

Vettexnik _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

QX-54-shaklning orqa tomoni

Mahsulotning nomi	Vazni, kg	Bahosi	Summasi	Mahsulotning ishlatilishi

Mahsulot omborga quyidagi yuk xati bilan qabul qilingan:

«_____» _____ 20____ -yildagi _____ -sonli.
«_____» _____ 20____ -yildagi _____ -sonli.

Ombor mudiri _____ _____
imzo (familiyasi, ismi, sharifi)
«_____» _____ 20____ -y.

48-ilova

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni chiqib ketishi bilan bog‘liq xarajatlar va ularni chiqib ketishidan kelib chiqgan mahsulotlar to‘g‘risida ma’lumotnoma

Ferma (joy, sex) _____

CHiqib ketish bilan bog‘liq xarajatlar				CHiqib ketishdan foydalanish mumkin bo‘lgan baho bo‘yicha kelib tushdi				
ish turi	hujjat raqami	xarajat moddasi	summasi	hujjat raqami	mahsulot nomi	Soni	Bahosi	summasi

Chiqib ketish natijalari _____

Bosh buxgalter (buxgalter) _____ _____

imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

20___ -yil «_____» _____

5-BOB. DAVAL XOMASHYO VA MATERIALLAR BILAN BOG‘LIQ OPERATSIYALARNING BUXGALTERIYA HISOBI

1-§. Daval xomashyo va materiallar bilan bog‘liq operatsiyalar hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari

Mualliflik izohi: *amaliyotda korxona xomashyosini yoki materialini unga egalik qilish huquqini saqlab qolgan holda boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektga qayta ishlashga berish operatsiyalari tez-tez uchrab turadi. Bu jarayonda qayta ishlashga berilgan xomashyoni rus tilida «давальческое сырье» deb nomlanadi. Albatta, bu buxgalteriya hisobini yuritishda ishlatiladigan maxsus termin (atama) bo‘lgani uchun rus tilida umumqabul qilingan so‘zlar lug‘atida deyarli uchramaydi. Shu sababli mazkur termin buxgalteriya va unga turdosh sohalardagi mutaxassislarga qulay, hamda kitobxon o‘quvchilarning tushunishi oson bo‘lishi uchun uni o‘zbek tilida shartli ravishda «daval» so‘zi bilan atashni maqsadga muvofiq deb hisobladik.*

Ko‘pgina korxonalar o‘zining ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq xarajatlarini optimal holatga keltirishga intilishadi va buning ko‘proq ommaviylashgan usuli bo‘lib pudrat shartnomasi tuzish hisoblanadi, ya’ni xomashyo va materiallarni qayta ishlashga va (yoki) ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga daval shartnomasi asosida berish hisoblanadi. Bu holatda qayta ishlovchi korxona davalga beruvchidan xomashyo va materiallarni oladi, o‘zining ishlab chiqarish quvvati bilan qayta ishlaydi, olingan tayyor mahsulotni davalga beruvchiga qaytarib beradi.

Daval xomashyo va materiallarni qayta ishlashga berish shartnomasining asosiy xususiyati shundan iboratki, davalga beruvchi (xomashyo va materiallarni qayta ishlashga beruvchi korxona) nafaqat tayyor mahsulotni tasarruf qiladi, balki birlamchi xomashyo (materiallar) va chiqindilarga egalik huquqini ham saqlab qoladi. Qayta ishlovchi faqat xomashyo (materiallar) ni qayta ishlaydi va tayyor mahsulotlarni davalga beruvchiga qaytarib beradi. Bunday shartnomaning imtiyozlari o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdi. Agar qandaydir bir mahsulot ishlab chiqarishga qaror qilingan bo‘lsa, lekin ishlab chiqarish quvvati yetmasa, tegishli asbob uskunalarni sotib olishga esa vaqt ham pul mablag‘lari ham yo‘q bo‘lsa, bunday holatdan chiqib ketishning faqat bir yo‘li qoladi bu ham bo‘lsa, qayta ishlovchiga tayyor mahsulot ishlab chiqarishini buyurtma berish. Bu o‘z navbatida qayta ishlovchiga ham qulay, u ishlab chiqarilgan mahsulotni kimga va qanday sotish kerakligi to‘g‘risida bosh qotirmaydi.

Qishloq xo‘jaligi va boshqa korxonalarga, shuningdek jismoniy shaxslarga donni qayta ishlash yuzasidan ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha dastlabki hisob (hujjatlarni rasmiylashtirish) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 25-maydagi 95-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Don va don mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, ichki tashish, qayta ishlash va sotishning dastlabki hisobini yuritish va rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risida Nizom» ga muvofiq amalga oshiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish bo‘yicha yuqorida sanab o‘tilgan me’yoriy huquqiy hujjatlardan tashqari daval xomashyo va materiallar bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobi va alohida faoliyat turlarida hisobga olishda hamda hisobotlarda aks ettirish «Qayta ishlashga berilgan xomashyo bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» bilan tartibga solinadi.

Mazkur Nizomga muvofiq buxgalteriya hisobi maqsadida daval xomashyosi deb daval

xomashyosini qayta ishlash to‘g‘risida tuzilgan shartnomaga muvofiq, buyurtmachiga qayta ishlashdan olingan mahsulotni qaytarib berish sharti bilan sanoat asosida qayta ishlash uchun boshqa shaxsga - qayta ishlovchiga berilgan va buyurtmachiga tegishli bo‘lgan xomashyo va materiallar.

Daval xomashyosi bilan bog‘liq operatsiyalarni subyektlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- buyurtmachi (davalga beruvchi) - daval xomashyosini sanoat asosida qayta ishlashga berayotgan korxona. Buyurtmachi (davalga beruvchi) terminiga kengroq tarif bersak bu - daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash bo‘yicha tuzilgan shartnomaga muvofiq qaytarish sharti bilan xomashyo va materiallarga egalik qilish huquqini o‘zida saqlab qolgan holda mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish va xizmatlar ko‘rsatish) uchun boshqa shaxsga sanoat asosida qayta ishlashga beruvchi shaxs;

- qayta ishlovchi - daval xomashyosini sanoat asosida qayta ishlashga qabul qiluvchi va qayta ishlashdan olingan mahsulotni kelgusida buyurtmachiga qaytarib beruvchi korxona. Qayta ishlovchi terminiga kengroq tarif bersak bu - daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash bo‘yicha tuzilgan shartnomaga muvofiq qaytarish sharti bilan xomashyo va materiallarni mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish va xizmatlar ko‘rsatish) uchun sanoat asosida qayta ishlashga qabul qiluvchi shaxs.

Daval xomashyo va materiallar bilan bog‘liq operatsiyalarning hisobini asosiy vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- daval xomashyo va materiallar bilan bog‘liq operatsiyalarni hujjatlarda to‘g‘ri va o‘z vaqtida aks ettirish;

- qayta ishlashga qabul qilingan daval xomashyo va materiallarni saqlash va harakatining barcha bosqichlarida butligini nazorat qilishni ta’minlash;

- qayta ishlovchi korxonada daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash hamda ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarni tannarxini aniqlash;

- mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatishning texnologik jarayonlaridan kelib chiqqan holda har bir tayyor mahsulot birligiga ketadigan daval xomashyo va materiallarni sarflanish me’yorini saqlash.

Davalga beruvchida va qayta ishlovchida tuziladigan boshlang‘ich hujjatlarning majburiy rekvizitlari, ularni tuzish, qabul qilish, saqlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi, shuningdek hujjatlar aylanuvini amalga oshirish tartibi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga va «Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq tartibga solinadi.

Korxonalar tomonidan daval xomashyo va materiallar bilan bog‘liq operatsiyalarni hisobini tegishli ravishda tashkil etish va ularni nazorat qilish uchun zarur bo‘ladigan ichki nizom, yo‘riqnoma, boshqa tashkiliy-taqsimlovchi hujjatlarni ishlab chiqishlari mumkin. Yuqoridagi hujjatlarda:

- daval xomashyo va materiallarni qabul qilish, topshirish va harakati bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan boshlang‘ich hujjatlarning shakllari va ularni rasmiylashtirish (tuzish) tartibini, shuningdek hujjat aylanishining qoidalarini;

- daval xomashyo va materiallarni berish (topshirish) va qabul qilishga ishonch bildirilgan bo‘linmalarining mas’ul shaxslari ro‘yxatini;

- saqlanishi ta’minlashni nazoratini amalga oshirish tartibini, hisobni to‘g‘ri yuritilishini, ularni mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi hisobotlarni ishonchligini va boshqalarni tasdiqlashi mumkin.

2-§. Daval xomashyo va materiallar bilan bog‘liq operatsiyalarning huquqiy asoslari

Daval xomashyo va materiallar deb nomlanadigan operatsiyalarning umumiy qoidasi quyidagicha. Ma’lum bir mahsulotni sotib olishni maqsad qilgan korxona uni ishlab chiqarish uchun materiallarni xarid qiladi va tegishli mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonaga ushbu materiallardan kerakli mahsulotini ishlab chiqarishga buyurtma beradi.

Daval xomashyo va materiallar termini bu faqat buxgalteriya hisobi termini hisoblanadi. Fuqarolik qonunchiligi nuqtai nazaridan qaraganda daval xomashyo va materiallar bilan bog‘liq operatsiyalar pudrat shartnomalarining bir turi hisoblanadi. Bunda davalga beruvchi va qayta ishlovchi o‘rtasida tovar-moddiy zaxiralarni qayta ishlash, saralash yoki qo‘shimcha qayta ishlash bo‘yicha tuzilgan shartnomalar bo‘yicha tomonlarning o‘zaro munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining «Pudrat» nomli 37-bobida nazarda tutilgan me’yorlar bilan tartibga solinadi.

Daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash va ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarishning umumiy chizmasi quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:



O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 631-moddasiga muvofiq, pudrat shartnomasi bo‘yicha bir taraf (pudratchi – qayta ishlovchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi – davalga beruvchi) ning topshirig‘iga binoan ma’lum bir ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachi (davalga beruvchi) ga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi (davalga beruvchi) esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to‘lash majburiyatini oladi. Agar qonun hujjatlarida yoxud taraflar kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, ishni bajarish uchun pudratchi (qayta ishlovchi) tavakkal qiladi. Xomashyo va materiallarning tasodifan nobud bo‘lish yoki tasodifan buzilish xavfi, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, pudratchi (qayta ishlovchi) ning pudrat shartnomasida shartlasxilgan ishni topshirish muddati kelguncha xomashyo va materiallarni bergan taraf zimmasida, bu muddatdan keyin esa ishni topshirishni kechiktirib yuborgan taraf zimmasida bo‘ladi.

SHuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 632-moddasiga muvofiq, pudrat shartnomasi xomashyo va materiallarni tayyorlash yoki uni qayta ishlash (ishlov berish) yoxud boshqa ishni bajarib, natijasini buyurtmachiga berish yoki boshqacha tarzda topshirish haqida tuziladi. Pudratchi (qayta ishlovchi) o‘zi bergan materiallar va uskunalarning sifati tegishli darajada bo‘lmaganligi uchun, shuningdek uchinchi shaxslar huquqlari bo‘lgan materiallar va uskunalarni berganligi uchun javobgar bo‘ladi.

Pudrat shartnomasida bajariladigan ishning bahosi yoki uni aniqlash usullari ko‘rsatiladi. Ular shartnomada ko‘rsatilgan bo‘lmasa va shartnoma shartlari bo‘yicha belgilanishi mumkin bo‘lmagan hollarda shartnomani bajarganlik uchun o‘xshash vaziyatlarda odatda shunday tovarlar, ishlar yoki xizmatlar uchun olinadigan baho bo‘yicha haq to‘lanishi kerak.

Pudrat shartnomasidagi ishning bahosi pudratchi (qayta ishlovchi) ning chiqimlarini va unga to‘lanadigan haqni o‘z ichiga oladi. Ishning bahosi smeta tuzish yo‘li bilan aniqlanishi mumkin. Ish pudratchi tomonidan tuzilgan smeta bo‘yicha bajarilgan taqdirda, smeta buyurtmachi (davalga beruvchi) tomonidan tasdiqlangan paytdan boshlab kuchga ega bo‘ladi va pudrat shartnomasining bir qismi bo‘lib qoladi.

Ishning bahosi (smeta) taxminiy yoki qat’iy bo‘lishi mumkin. Pudrat shartnomasida bunday ko‘rsatma bo‘lmasa, ishning bahosi (smeta) qat’iy hisoblanadi.

Agar qo‘shimcha ishlarni bajarish zarur bo‘lib qolsa va shu sababli ishning taxminan belgilangan bahosini (taxminiy smetani) ancha oshirishga to‘g‘ri kelsa, pudratchi (qayta ishlovchi) bu haqda buyurtmachi (davalga beruvchi) ni vaqtida ogohlantirishi shart. Buyurtmachi (davalga beruvchi) pudrat shartnomasida ko‘rsatilgan ishning bahosini (smetani) oshirishga rozi bo‘lmagan taqdirda, shartnomadan voz kechishga haqli. Bunday hollarda pudratchi (qayta ishlovchi) buyurtmachi (davalga beruvchi) dan ishning bajarilgan qismining bahosini to‘lashni talab qilishi mumkin.

Buyurtmachi (davalga beruvchi) ni pudrat shartnomasida ko‘rsatilgan ishning bahosini (smetani) oshirish zarurligi to‘g‘risida o‘z vaqtida ogohlantirmagan pudratchi (qayta ishlovchi) ish uchun shartnomada ko‘rsatilgan baho bo‘yicha haq olish huquqini saqlab qolgan holda shartnomani bajarishi shart.

Pudratchi (qayta ishlovchi), qoida tariqasida, qat’iy baho (qat’iy smeta)ni oshirishni, buyurtmachi (davalga beruvchi) esa uni kamaytirishni talab qilishga, shu jumladan bajarilishi kerak bo‘lgan ishning to‘la hajmini yoki buning uchun zarur xarajatlarni pudrat shartnomasi tuzilayotgan paytda nazarda tutish imkoniyati bo‘lmagan hollarda ham, haqli emas.

Pudratchi (qayta ishlovchi) tomonidan taqdim qilinishi kerak bo‘lgan materiallar va uskunalar, shuningdek uchinchi shaxslar tomonidan unga ko‘rsatiladigan xizmatlar bahosi ancha oshgan va buni shartnoma tuzish vaqtida nazarda tutish mumkin bo‘lmagan hollarda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 383-moddasiga va O‘zbekiston Respublikasining «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida» gi Qonunini 15-moddasiga muvofiq pudratchi (qayta ishlovchi) belgilangan ish bahosini (smetani) oshirishni talab qilishga, buyurtmachi (davalga beruvchi) bu talabni bajarishdan bosh tortgan taqdirda esa, shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 646-moddasiga binoan buyurtmachi (davalga beruvchi) bajarilgan ishni (uning natijasini) pudrat shartnomasida nazarda tutilgan muddatda va tartibda pudratchi (qayta ishlovchi) ishtirokida ko‘rib chiqishi va qabul qilishi, ish natijasini yomonlashtiradigan darajada shartnomadan chekinish yoki boshqa kamchiliklar aniqlangan taqdirda esa, bu to‘g‘rida pudratchi (qayta ishlovchi) ga darhol ma’lum qilishi shart.

Agar pudrat shartnomasida bajarilgan ishga yoki uning ayrim bosqichlariga oldindan haq to‘lash nazarda tutilgan bo‘lmasa, buyurtmachi (davalga beruvchi) pudratchi (qayta ishlovchi) ga shartlasxilgan haqni ish tegishli tarzda va kelishilgan muddatda yoxud buyurtmachi (davalga beruvchi) ning roziligi bilan muddatidan oldin bajarilib, uning natijalari uzil-kesil topshirilganidan keyin to‘lashi shart.

Pudratchi (qayta ishlovchi) qonun hujjatlarida yoki pudrat shartnomasida nazarda tutilgan

hollarda va miqdordagina o‘ziga bo‘nak yoki zakalat berilishini talab qilishga haqli (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 638-moddasi).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi PF-1154-sonli «Xalq xo‘jaligida hisob-kitoblar o‘z vaqtida o‘tkazilishi uchun korxona va tashkilotlar rahbarlarining ma’suliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi Farmoni bilan barcha mulkchilik shakllaridagi xo‘jalik yurituvchi subyektning iste’molchilar va buyurtmachilarlarga, ular yetkazib beriladigan (bajariladigan ishlar, xizmatlar), qiymatining kamida 15 foizini oldindan to‘lamasalar, mahsulot jo‘natishi, ishlarni bajarishi va xizmatlar ko‘rsatishi taqiqlangan, qonunchilikda belgilangan holatlar bundan mustasno.

Shuning uchun pudratchi (qayta ishlovchi) bajariladigan ish va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatining 15 foizidan kam bo‘lmagan avans to‘lashni talab qilishi shart, qonunchilikda belgilangan holatlar bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-avgustdagi PF-1504-sonli «Byudjet bilan hisob-kitoblar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi farmoni bilan 1996-yilning 1-sentyabridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi doirasida barter asosida mahsulot yetkazib berish to‘g‘risida shartnomalar tuzish taqiqlangan.

Shuning uchun bajariladigan ish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun haq to‘lash pul mablag‘lari bilan amalga oshirilishi shart.

Daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash bilan bog‘liq haqiqiy xarajatlar daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash bahosini aniqlash vaqtida (smeta tuzilayotganda) nazarda tutilgan xarajatlardan kam bo‘lgan hollarda, basharti buyurtmachi (davalga beruvchi) pudratchi (qayta ishlovchi) ning tejami bajarilgan ish sifatiga ta’sir etganligini isbotlay olmasa, pudratchi (qayta ishlovchi) bajarilgan ishlar uchun pudrat shartnomasida ko‘rsatilgan baho bo‘yicha haq olish huquqini saqlab qoladi. Pudrat shartnomasida pudratchi (qayta ishlovchi) ning tejami taraflar o‘rtasida taqsimlanishi nazarda tutilishi mumkin (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 637-moddasi).

Pudratchi (qayta ishlovchi) buyurtmachi (davalga beruvchi) bergan materialdan «tejab-tergab va rejali» foydalanishga majbur. Ish tugaganidan so‘ng pudratchi (qayta ishlovchi) ishlatilgan xomashyo va materiallar to‘g‘risida buyurtmachi (davalga beruvchi) ga hisobot berishi, shuningdek uning qoldig‘ini qaytarib berishi yoxud o‘z ixtiyoridagi foydalanilmay qolgan materialning qiymatini hisobga olib, buyurtmachi (davalga beruvchi) ning roziligi bilan ishning bahosini kamaytirishi shart. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 640-moddasida aytib o‘tilgan.

Agar buyurtma pudratchi (qayta ishlovchi) tomonidan ish natijasini yomonlashtirga olib keladigan, yoki uni shartnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun foydalanishga yaroqsiz qilib qo‘yadigan boshqa kamchiliklar bilan shartnomadan chetga chiqqan holda bajarilgan bo‘lsa, buyurtmachi (davalga beruvchi) o‘z xohishiga ko‘ra pudratchi (qayta ishlovchi) dan kamchiliklarni oqilona muddatda va o‘z hisobidan bartaraf etishni yoki ish uchun belgilangan bahoni mutanosib ravishda kamaytirishni talab qilishga haqli. Agar shartnomaga muvofiq kamchiliklarni buyurtmachi (davalga beruvchi) bartaraf qiladigan bo‘lsa, u amalga oshirilgan xarajatlar qiymatini pudratchi (qayta ishlovchi) tomonidan qoplanishiga umid qilishga haqli. Daval xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar yoki qayta ishlangan xomashyo va materillarning sifati bo‘yicha tomonlarning munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 647- 652- moddalarida nazarda tutilgan me’yorlar bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksidan keltirilgan me’yorlar ko‘rilayotgan operatsiyalarni soliq va buxgalteriya hisobida talqin qilishni belgilovchi quyidagi huquqiy tavsiflarni berish imkoniyatini beradi:

- qayta ishlovchiga qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallar hamda qayta ishlovchi tomonidan ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarilagan daqiqadan boshlab tayyor mahsulot davalga beruvchining mulki hisoblanadi;
- davalga beruvchidan qabul qilingan xomashyo va materiallar, hamda ulardan ishlab chiqarilgan mahsulotlar davalga beruvchiga qaytarib berulgunga qadar ularning saqlanishi va butligiga mas’ul bo‘lgan qayta ishlovchining tasarrufida bo‘ladi;
- qayta ishlovchiga berilgan xomashyo va materiallarning qiymati pudrat shartnomasining bir turi bo‘lgan mazkur shartnomaning qiymatiga kirmaydi.

Xo‘jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o‘zgartirish va bekor qilish, korxonalarning huquq va majburiyatlari, hamda mahalliy davlat hokimiyati va davlat boshqaruv idoralarining shartnoma munosabatlari sohasidagi vakolatlarining qonuniy asoslari O‘zbekiston Respublikasini «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida» gi Qonunida belgilab o‘tilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 37-bobi, O‘zbekiston Respublikasini «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida» gi Qonuni va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan me’yorlar bo‘yicha daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash va ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish shartnomasi quyidagi shartlarni o‘z ichiga olishi kerak:

- shartnoma predmeti;
- tomonlar o‘rtasida xavfni taqsimlanishi;
- xomashyo va materiallarni nomi va soni;
- tayyor mahsulotning nomi, andoza (standart)lari va texnik tavsifi;
- bajarish muddati va uni buzilganligi uchun majburiyat va javobgarliklar;
- qayta ishlovchiga to‘lanadigan haq va uning xarajatlarini qoplashni o‘z ichiga oladigan ishning qiymati;
- o‘zaro hisob-kitob qilish usullari;
- tejalgan mablag‘larni taqsimlash tartibi;
- tomonlarning huquq va majburiyatlari;
- tomonlarning javobgarligi;
- shartnomani bekor qilish tartibi;
- yakuniy holatlar va tomonlarning rekvizitlari.

Daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash va ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish shartnomasining namunaviy shakli mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan (1-ilovaga qarang).

Shuni alohida nazarda tutish kerakki, agar daval xomashyo va materiallarni qayta ishlashga berish hujjatlarda noto‘g‘ri rasmiylashtirilsa (rasmiylashtirilmasa) bunday operatsiyalar soliq idoralari tomonidan mol-mulkni tekingan berish operatsiyalari deb talqin qilirnishi mumkin. Bu o‘z navbatida xomashyo va materiallar qiymatini qonunchilikda belgilangan tartibda soliqlarga tortilishiga olib keladi.

3-§. Daval xomashyo va materiallar bilan bog‘liq operatsiyalarni davalga beruvchida hisobi

Qayta ishlashga beriladigan daval xomashyo va materiallarning xarid qilish qiymati 4-son BHMS da belgilangan tartibda aniqlanadi va buxgalteriya hisobining schyotlarida 21-son BHMS ga muvofiq aks ettiriladi. Qayta ishlashga berilayotgangan daval xomashyo va materiallarning baholash tannarxi bo‘yicha amalga oshiriladi. Daval xomashyo va materiallarning tannarxini aniqlash va buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish yuqorida paragraflarda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

21-son BHMS ga muvofiq korxonaga tegishli xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, konstruktsiyalar, detallar, tara materiallari, inventarlar, xo‘jalik jihozlari va boshqa qiymatliklarning mavjudligi va harakati to‘g‘risida axborotlarni umumlashtirish ularni daval xomashyo sifatida qayta ishlashga berilgunga qadar materiallarni hisobga oluvchi schyotlarda (1070 dan tashqari 1000) amalga oshiriladi.

21-son BHMS ga muvofiq, daval xomashyo va materiallarni boshqa korxonaga qayta ishlashga bergan korxona bunday xomashyo va materiallarni balansdan chiqarmayda, balki 1070 «Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar» schyotida boshqa tegishli materiallarni hisobga oluvchi schyotlarda (1000) hisobga olingan qiymati bo‘yicha hisobga olib borishni davom ettiradi.

1070 «Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar» schyotida qayta ishlash uchun berilgan daval xomashyo va materiallarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi. Bunda xomashyo va materiallarga qayta ishlov berish bilan bog‘liq chetdagi korxonalarga to‘langan xarajatlar bevosita qayta ishlov berishdan olingan buyumlarni hisobga oladigan schyotlarning debetiga kiritiladi.

Daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar bevosita qayta ishlash natijasida olingan tayyor mahsulotlar hisobga olinadigan schyotlarning debetiga kiritiladi va agar qayta ishlashdan olingan tayyor mahsulot bevosita:

- asosiy faoliyat turi hisoblangan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga (ish bajarish, xizmatlar ko‘rsatishga) berilsa - asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlarda (2000);
- korxonaning asosiy ishlab chiqarishiga yoki asosiy faoliyatiga xizmat ko‘rsatuvchi yordamchi ishlab chiqarishga berilsa - yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlarda (2300);
- bir nechta turdagi tayyor mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish va xizmat ko‘rsatish) ga, ya’ni umumishlabchiqarish maqsadlarida foydalanish uchun berilsa - umumishlabchiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarda (2500);
- ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlarni bartaraf etish uchun berilsa - ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlarda (2600);
- xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar ehtiyojlarida foydalanish uchun berilsa - xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarni hisobga oluvchi schyotlarda (2700);
- xo‘jalik faoliyatida kelgusidagi foydalanish uchun davalga beruvchining omboriga berilsa - tegishli materiallarni hisobga oluvchi schyotlarda (1000) hisobga olinadi.

Daval xomashyo va materiallarni qayta ishlovchiga berish davalga beruvchi korxonaning xohishiga ko‘ra «Daval xomashyo va materiallarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi» si bilan yoki «Daval xomashyo va materiallarni topshirish nakladnoyi (yuk xati)» bilan rasmiylashtiriladi (2- va 3-ilovalarga qarang).

«Daval xomashyo va materiallarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi» va «Daval xomashyo va materiallarni topshirish nakladnoyi (yuk xati)» larida qayta ishlashga berilgan daval xomashyo va materiallarni tavsiflovchi quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

Buxgalteriya hisobida har bir hujjatga tartib raqami beriladi. Shuning uchun **«___- sonli dalolatnomasi»** va **«___- sonli nakladnoyi (yuk xati)»** qatorlarida ularning tartib raqami ko'satilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi Qonunining 14-moddasiga muvofiq birlamchi hujjatlarni operatsiyalar amalga oshirilgan sanada tuzilishi lozim. Shuning uchun «Tuzilgan sana» qatorida ko'rsatiladigan dalolatnoma yoki yuk xatini tuzish sanasi bilan daval xomashyo va materiallarni qayta ishlashga qabul qilish–topshirish sanasiga to'g'ri kelishi kerak.

«Davalga beruvchi» va **«Qayta ishlovchi»** qatorlarida ularning to'liq nomi ko'rsatiladi.

«Manzili» qatorlarida Davalga beruvchi va Qayta ishlovchining manzillari ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, «Daval xomashyo va materiallarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi» va «Daval xomashyo va materiallarni topshirish nakladnoyi (yuk xat)» larida qayta ishlashga berilgan daval xomashyo va materiallarning nomi, miqdori, bir birlikning narxi, umumiy summasi (shartnoma bo'yicha) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

«Daval xomashyo va materiallarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi» va «Daval xomashyo va materiallarni topshirish nakladnoyi (yuk xati)» ikkita nusxada tuziladi va davalga beruvchi va qayta ishlovchining vakolatli shaxslari tomonidan imzolanadi, tomonlarning muhri bilan tasdiqlanadi. Birinchi nusxa qayta ishlovchiga beriladi, ikkinchi nusxa esa davalga beruvchida qoladi.

Agarda daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash uchun tuzilgan shartnoma shartlariga ko'ra daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash natijasida chiqqan qaytariladigan chiqindilar davalga beruvchi korxonaga qaytarib beriladigan bo'lsa, u holda qaytariladigan chiqindilar kelgusida foydalanish va/yoki sotish mumkin bo'lgan qiymati bo'yicha 1090 «Boshqa materiallar» schyotining debetida daval xomashyo va materiallarni qayta ishlashdan olingan tayyor mahsulotlar hisobga olinadigan tegishli schyotlar bilan bog'langan (korrespondentsiyalangan) holda kirim qilinadi.

Qayta ishlashga berilgan daval xomashyo va materiallarni qayta ishlovchiga topshirish va qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni qabul qilish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarni davalga beruvchi korxonaning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misol yordamida ko'rib chiqamiz. Davalga beruvchi dastgohlarga ehtiyot qismlar ishlab chiqaruvchi yordamchi ishlab chiqarish sexi uchun qayta ishlovchi bilan metall prokatini daval xomashyo va materiallar sifatida qayta ishlash va undan ehtiyot qismlar uchun detallar ishlab chiqarish uchun shartnoma imzoladi. Daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatning qiymati 170 000 000 so'm. Qayta ishlovchi daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatining 20 000 000 so'm qiymatdagi ishlatilmay qolgan qismini qaytarib berdi. Taxminiy smetaga muvofiq daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatini qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlar qiymati 18 000 000 so'mni tashkil etadi. SHartnoma shartiga ko'ra daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatini qayta ishlash bo'yicha bajarilgan ishlar uchun haq to'lash taxminiy smetada ko'rsatilgan qiymatning 40 % oldin bo'nak (avans) tariqasida amalga oshiriladi.

Daval xomashyo va materiallar sifatida metall prokatini berish va ularni qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan detallarni qabul qilish bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari davalga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- daval xomashyo va materiallar sifatida metall prokatini qayta ishlash uchun qayta ishlovchiga berish:

debet 1070 «CHetga qayta ishlash uchun
berilgan materiallar» schyoti *170 000 000 so‘m;*
kredit 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti *170 000 000 so‘m;*

- metall prokatini daval xomashyo va materiallar sifatida qayta ishlash shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda bo‘nak (avans) to‘lovlari amalga oshirilganda:

debet 4310 «TMQ lar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
berilgan bo‘naklar» schyoti *7 200 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *7 200 000 so‘m;*

(7 200 000 so‘m = 18 000 000 so‘m x 40 / 100).

Daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatini qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish bilan bog‘liq xo‘jalik muomalalari ikki holat bo‘yicha korxonani qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblanishi yoki hisoblanmasligiga, daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatidan chiqqan chiqindilarni qaytarilishiga va metall prokatidan ishlab chiqarilgan detallarni belgilangan yoki saqlash joyigacha yetkazib berish bo‘yicha ishlarni amalga oshirilishiga qarab ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Davalga beruvchi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchi bo‘lib hisoblanadi. Metall prokatni daval xomashyo va materiallar sifatida qayta ishlash shartnomasiga muvofiq daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatidan ishlab chiqarilgan detallarni yetkazib berishni davalga beruvchi amalga oshiradi. Daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatidan ishlab chiqarilgan detallarni yetkazib berish xarajatlari quyidagilardan iborat: korxonaning transport bo‘limi tomonidan ko‘rsatilagn transport xarajatlari 1 200 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash 500 000 so‘m.

Daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatidan ishlab chiqarilgan detallarni qayta ishlovchidan qabul qilish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari davalga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- qayta ishlovchi tomonidan qaytarilgan ishlatilmay qolgan daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatlar kirim qilinganda:

debet 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti *20 000 000 so‘m;*
kredit 1070 «CHetga qayta ishlash uchun
berilgan materiallar» schyoti *20 000 000 so‘m;*

- daval xomashyo va materiallar sifatida qayta ishlashga berilgan metall prokatini qiymatini ishlab chiqarish xarajatlariga o‘tkazilganda:

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti *150 000 000 so‘m;*
kredit 1070 «CHetga qayta ishlash uchun
berilgan materiallar» schyoti *150 000 000 so‘m;*

(150 000 000 so‘m = 170 000 000 so‘m – 20 000 000 so‘m);

- daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatini qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlar qiymatini ishlab chiqarish xarajatlariga o‘tkazilganda:

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti *18 000 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *18 000 000 so‘m;*

- daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatini qayta ishlash bo‘yicha qabul

qilingan bajarilgan ishlar qiymatidan hisoblangan va qoplashga qabul qilingan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:

debet 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha) schyoti 2 700 000 so‘m;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 2 700 000 so‘m;

(2 700 000 so‘m = 18 000 000 so‘m x 15 / 100);

- daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatini qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan detallarni belgilangan yoki saqlash joyigacha yetkazib berish bo‘yicha xarajatlar summasiga:

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 1 700 000 so‘m;

kredit 2311 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 1 200 000 so‘m;

kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 500 000 so‘m;

- qayta ishlovchiga ilgari berilgan avanslar qoplashga qabul qilinganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 7 200 000 so‘m;

kredit 4310 «TMQ lar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» schyoti 7 200 000 so‘m;

- daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatini qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlar va qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi uchun qayta ishlovchi oldidagi qarzdorlik to‘langanda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 13 500 000 so‘m;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 13 500 000 so‘m;

(20 000 000 so‘m = 18 000 000 so‘m + 2 700 000 so‘m – 7 200 000 so‘m);

- byudjetga to‘lovlar bo‘yicha yakuniy hisob-kitob qilinganda, qayta ishlovchining daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatini qayta ishlash bo‘yicha bajargan ishlari bo‘yicha ilgari to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qoplashga olib borilganda:

debet 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha) schyoti 2 700 000 so‘m;

kredit 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha) schyoti 2 700 000 so‘m.

2-holat:

Davalga beruvchi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchi bo‘lib hisoblanmaydi. Metall prokatni daval xomashyo va materiallar sifatida qayta ishlash shartnomasiga muvofiq daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatidan ishlab chiqarilgan detallarni yetkazib berish bo‘yicha ishlar qayta ishlovchi tomonidan amalga oshirilgan (davalga beruvchi xarajatlarni qoplab beradi). Metall prokatni qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan detallarni belgilangan yoki saqlash joyigacha yetkazib berish xarajatlari 1 400 000 so‘mni tashkil qiladi. Daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatni qayta ishlash natijasida chiqqan qiymati 5 000 000 so‘m bo‘lgan qaytariladigan chiqindilar davalga beruvchiga qaytarilgan.

Daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatini qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan detallarni qayta ishlovchidan qabul qilish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari davalga beruvchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- qayta ishlovchi tomonidan qaytarilgan ishlatilmay qolgan daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatlar kirim qilinganda:

debet 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti 20 000 000 so‘m;
kredit 1070 «CHetga qayta ishlash uchun
berilgan materiallar» schyoti 20 000 000 so‘m;

- qayta ishlovchi tomonidan qaytarilgan daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatidan chiqqan qaytariladigan chiqindilarni kirim qilinganda:

debet 1090 «Boshqa materiallar» schyoti 5 000 000 so‘m;
kredit 1070 «CHetga qayta ishlash uchun
berilgan materiallar» schyoti 5 000 000 so‘m;

- daval xomashyo va materiallar sifatida qayta ishlashga berilgan metall prokatini qiymatini ishlab chiqarish xarajatlariga o‘tkazilganda:

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 145 000 000 so‘m;
kredit 1070 «CHetga qayta ishlash uchun
berilgan materiallar» schyoti 145 000 000 so‘m;

(145 000 000 so‘m = 170 000 000 so‘m – 20 000 000 so‘m – 5 000 000 so‘m);

- daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatini qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlar qiymatini ishlab chiqarish xarajatlariga o‘tkazilganda:

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 18 000 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 18 000 000 so‘m;

- daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatini qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlarni qiymatidan hisoblangan va ehtiyot qismlar ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shiladigan QQS summasiga:

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 2 700 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 2 700 000 so‘m;

(2 700 000 so‘m = 18 000 000 so‘m x 15 / 100);

- daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatni qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan detallarni belgilangan yoki saqlash joyigacha yetkazib berish bo‘yicha xarajatlar summasiga:

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 1 610 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 1 610 000 so‘m;

(210 000 so‘m = 1 400 000 so‘m x 15 / 100);

(1 610 000 so‘m = 1 400 000 so‘m + 210 000 so‘m);

- qayta ishlovchiga ilgari berilgan avanslar qoplashga qabul qilinganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 7 200 000 so‘m;
kredit 4310 «TMQ lar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
berilgan bo‘naklar» schyoti 7 200 000 so‘m;

- daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlar, daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatni qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan detallarni belgilangan yoki saqlash joyigacha yetkazib berish

bo‘yicha xarajatlar va qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi uchun qayta ishlovchi olididagi qarzdorlik to‘langanda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *15 110 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *15 110 000 so‘m;*

(15 110 000 so‘m = 18 000 000 so‘m + 2 700 000 so‘m + 1 610 000 so‘m – 7 200 000 so‘m).

Daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar (materiallar)ning kelgusidagi hisobi va tayyor mahsulotning tannarxini aniqlash, shu jumladan, ularning chetga chiqib ketishi (sotilishi, ustav kapitaliga ulush sifatida berilishi, tekin berish va h.k.) qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Daval xomashyo va materiallarning qayta ishlashdan olingan materiallar va tayyor mahsulotning kelgusida korxonaga kelib tushgandan keyingi, ya’ni korxona omboriga kirim qilinganda va ishlab chiqarish jarayoniga berilganda tannarxini aniqlash va buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tovar-moddiy zaxiralarning tarkibiy qismi sifatida ***«IV. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi»»*** da nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

4-§. Daval xomashyo va materiallar bilan bog‘liq operatsiyalarni qayta ishlovchidagi hisobi

Agar qayta ishlovchi korxona faqatgina daval xomashyo va materiallardan emas, balki o‘zining xomashyo va materiallaridan ham mahsulot ishlab chiqaradigan bo‘lsa xomashyo va materiallarning ombordagi hisobini va boshqa operatsiyalar hisobini ham alohida-alohida tashkil qilishi lozim. Qayta ishlovchi daval xomashyo va materiallarninng analitik hisobini davalga beruvchilar, nomlari, miqdori va qiymati, shuningdek saqlash va qayta ishlash (ish bajarish, mahsulot ishlab chiqarish) joylari bo‘yicha yuritadi.

21-son BHMS ga muvofiq, qayta ishlovchi korxona qayta ishlashga qabul qilingan daval xomashyo va materiallarni ***balansdan tashqari 003 «Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar» schyotida*** daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash shartnomasida ko‘rsatilgan narxlar bo‘yicha hisobga olib boradi.

Balansdan tashqari 003 «Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar» schyoti qayta ishlovchi tomonidan to‘lanmaydigan va qayta ishlashga qabul qilingan davalga beruvchining xomashyo va materiallarining mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan. Bunda balansdan tashqari 003 «Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar» schyotida analitik hisobi davalga beruvchilar, xomashyo va materillarning turlari, miqdori va ularning saqlash joylari bo‘yicha yuritadi.

Qayta ishlashga qabul qilingan daval xomashyo va materiallar bo‘yicha bajarilgan ishlar qiymati sifatida ularning ishlab chiqarish tannarxi tan olinadi. Qayta ishlashga qabul qilingan daval xomashyo va materiallar bo‘yicha bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxiga ularni ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo‘ladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar.

Qayta ishlashga qabul qilingan daval xomashyo va materiallar bo‘yicha bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxini tashkil etuvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra quyidagi elementlar bo‘yicha guruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);

- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari, shu jumladan ular bo‘yicha hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lov summalari;

- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Qayta ishlovchi tomonidan amalga oshirilgan daval xomashyo va materiallarni qayta ishlashdan olingan tayyor mahsulotni belgilangan yoki saqlash joyi (davalga beruvchi)gacha yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar, korxonani boshqarish bo‘yicha umumiy xarajatlar (ma’muriy xarajatlar), boshqa operatsion xarajatlar, moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar va favqulodda zararlar daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shilmaydi, balki davr xarajatlariga kiritiladi.

Qayta ishlashga qabul qilingan daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shiladigan xarajatlar «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq aniqlanadi.

Qayta ishlashga qabul qilingan daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxini aniqlash 4-son BHMS da belgilangan usullar bilan amalga oshiriladi.

Daval xomashyosini qayta ishlash bo‘yicha ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish xarajatlari buxgalteriya hisobida quyidagicha yuritiladi:

- daval xomashyosini qayta ishlash bo‘yicha ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanadigan korxonalarda - asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlarda (2000);

- daval xomashyosini qayta ishlash bo‘yicha ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish yordamchi faoliyat turi hisoblanadigan korxonalarda - yordamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlarda (2300);

- daval xomashyosini qayta ishlash bo‘yicha ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar tomonidan amalga oshiriladigan korxonalarda - xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarni hisobga oluvchi schyotlarda (2700).

Qayta ishlashga qabul qilingan daval xomashyo va materiallar kirim qilinganda qayta ishlovchining birlamchi hujjatlarida davalga beruvchining nomi, xomashyo va materiallarning nomi, ularning miqdori va qiymati, shuningdek saqlash va qayta ishlash joyi, xomashyo va materiallar korxonaga daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash shartnomasiga muvofiq kelib tushganligi to‘g‘risida belgi qo‘ygan holda ko‘rsatishlishi zarur.

Agar daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash bo‘yicha tuzilgan shartnomaning shartlariga muvofiq daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash natijasida chiqqan qaytariladigan chiqindilar qayta ishlovchida qoldirilsa, unda qaytariladigan chiqindilar kelgusida foydalanish va/yoki sotish mumkin bo‘lgan qiymati bo‘yicha 1090 «Boshqa materiallar» schyotining debetida asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9300) bilan bog‘langan (korrespondensiyalangan) holda kirim qilinadi.

Qayta ishlovchi tomonidani daval xomashyo va materiallarni qayta ishlashdan olingan tayyor mahsulot davalga beruvchiga qaytarib berilganda, daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash bo‘yicha ishlarning haqiqatda bajarilganligini tasdiqlovchi schyot-faktura hamda «Daval

xomashyo va materiallarni qayta ishlashdan olingan tayyor mahsulotni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi» va «Daval xomashyo va materiallarning ishlatilishi to‘g‘risida hisobot» taqdim etiladi (5- va 5-ilovalarga qarang).

«Daval xomashyo va materiallarni qayta ishlashdan olingan tayyor mahsulotni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi» da daval xomashyo va materiallaridan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni tavsiflovchi quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

Buxgalteriya hisobida har bir hujjatga tartib raqami beriladi. SHuning uchun **«___- sonli dalolatnomasi»** qatorida ularning tartib raqami ko‘satilishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi Qonunining 14-moddasiga muvofiq birlamchi hujjatlarni operatsiyalar amalga oshirilgan sanada tuzilishi lozim. SHuning uchun «Tuzilgan sana» qatorida ko‘rsatiladigan dalolatnomani tuzish sanasi bilan daval xomashyo va materiallaridan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni qabul qilish–topshirish sanasiga to‘g‘ri kelishi kerak.

«Davalga beruvchi» va **«Qayta ishlovchi»** qatorlarida ularning to‘liq nomi ko‘rsatiladi.

«Manzili» qatorlarida Davalga beruvchi va Qayta ishlovchining manzillari ko‘rsatiladi.

Bundan tashqari, «Daval xomashyo va materiallarni qayta ishlashdan olingan tayyor mahsulotni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi» da daval xomashyo va materiallaridan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning nomi, miqdori, bir birlikning narxi, umumiy summasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

«Daval xomashyo va materiallarni qayta ishlashdan olingan tayyor mahsulotni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi» ikkita nusxada tuziladi, davalga beruvchi va qayta ishlovchining vakillari tomonidan imzolanadi hamda ikkala tomonning muhrlari bilan tasdiqlanadi. Birinchi nusxa davalga beruvchiga beriladi, ikkinchi nusxa esa qayta ishlovchida qoladi.

«Daval xomashyo va materiallarning ishlatilishi to‘g‘risida hisobot» qabul qilingan, ishlatilgan, ishlatilmay qolgan daval xomashyo va materiallarning nomi va miqdori, ushbu daval xomashyo va materiallardan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning nomi va miqdori, shuningdek chiqindilarning (agar ular bo‘lsa) nomi va miqdori, shu jumladan qaytariladigan chiqindilarni miqdori to‘g‘risida ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

«Daval xomashyo va materiallarning ishlatilishi to‘g‘risida hisobot» ham ikki nusxada tuziladi, qayta ishlovchining vakolatli shaxsi tomonidan imzolanadi. Birinchi nusxa davalga beruvchiga beriladi, ikkinchisi esa qayta ishlovchida qoladi.

Balansdan tashqari 003 «Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar» schyotida xomashyo va materiallarni turlari bo‘yicha yuritiladigan qayta ishlashga qabul qilingan daval xomashyo va materiallarni mavjudligi va harakatlanishini buxgalteriya hisobida aks ettirish va harakatining nazoratini ta’minlash maqsadida korxonaning buxgalteryasi tomonidan «Daval xomashyo va materiallarni hisobga olish qaydnomasi» tuziladi (6-ilovaga qarang). «Daval xomashyo va materiallarni hisobga olish qaydnomasi» qayta ishlovchining rahbari tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatlangan shaxslar tomonidan imzolanadi. Mazkur qaydnomada qayta ishlashga qabul qilingan daval xomashyo va materiallarning miqdor va summasi ko‘rsatkichlarining kamayishi to‘g‘risidagi ma’lumot, uning turlari bo‘yicha tegishli qatorida «minus» belgisi bilan ko‘rsatiladi.

Daval xomashyo va materiallarni qabul qilish, qayta ishlash va ularni qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarni topshirish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalarni qayta ishlovchi korxonaning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misol yordamida ko‘rib chiqamiz. Qayta ishlovchi ehtiyot qismlar ishlab chiqaruvchi yordamchi

ishlab chiqarish sexida metall prokatini daval xomashyo va materiallar sifatida qayta ishlash va undan ehtiyot qismlar uchun detallar ishlab chiqarish bo‘yicha davalga beruvchi bilan shartnoma imzoladi. Daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatning qiymati 350 000 000 so‘m. Taxminiy smetaga muvofiq daval xomashyo va materiallar sifatida berilgan metall prokatni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlar qiymati 40 000 000 so‘mdan iborat. Bular:

- ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan mashina va asbob uskunalar bo‘yicha hisoblangan eskirishi summasi 16 000 000 so‘m;
- ishchilarga hisoblangan ish haqi summasi 15 000 000 so‘m;
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar 9 000 000 so‘m.

Rentabellilik darajasi 30 foiz. Shartnoma shartiga ko‘ra daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatini qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlar uchun haq to‘lash taxminiy smetada ko‘rsatilgan qiymatning 40 % oldin avans tariqasida amalga oshiriladi.

Daval xomashyo va materiallar sifatida metall prokatni qabul qilish, qayta ishlash va qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan detallarni davalga beruvchiga topshirish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari qayta ishlovchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- metall prokatni daval xomashyo va materiallar sifatida qayta ishlash shartnomasiga muvofiq kelib tushgan metall prokatni kirim qilinganda:

debet 003 «Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar» schyoti *350 000 000 so‘m;*

- metall prokatni daval xomashyo va materiallar sifatida qayta ishlash shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda avans to‘lovlari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *20 800 000 so‘m;*
kredit 6310 « Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti *20 800 000 so‘m;*

(12 000 000 so‘m = 40 000 000 so‘m x 30 / 100);
(52 000 000 so‘m = 40 000 000 so‘m + 12 000 000 so‘m);
(20 800 000 so‘m = 52 000 000 so‘m x 40 / 100);

- daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlarning xarajatlarini aks ettirish:

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti *40 000 000 so‘m;*
kredit 0230 «Mashina va asbob uskunalarning eskirishi» schyoti *16 000 000 so‘m;*
kredit 2510 «Umumishlabchiqarish xarajatlari»schyoti *9 000 000 so‘m;*
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti *15 000 000 so‘m.*

Daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatidan ishlab chiqarilgan detallarni topshirish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari ikki holat bo‘yicha korxonani qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblanishi yoki hisoblanmasligiga, daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatidan chiqqan chiqindilarni qaytarilishiga, va daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatidan ishlab chiqarilgan detallarni davalga beruvchining omboriga yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlarni amalga oshirilishiga qarab ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Qayta ishlovchi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchi bo‘lib hisoblanadi. Metall prokatni daval

xomashyo va materiallar sifatida qayta ishlash shartnomasiga muvofiq daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatidan ishlab chiqarilgan detallarni belgilangan yoki saqlash joyigacha yetkazib berish bo‘yicha ishlar qayta ishlovchi tomonidan amalga oshirilgan. Metall prokatni qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan detallarni belgilangan yoki saqlash joyigacha yetkazib berish xarajatlari quyidagilardan iborat: korxonaning transport bo‘limi tomonidan ko‘rsatilagn transport xarajatlari 2 000 000 so‘m, ishchilarga ish haqi hisoblash 1 500 000 so‘m. Daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlash natijasida chiqqan chiqindilar qayta ishlovchi ixtiyorida qoladi va uning joriy qiymati 8 000 000 so‘m.

Daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan detallarni davalga beruvchiga topshirish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari qayta ishlovchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan detallarni davalga beruvchiga topshirilganda metall prokatni qiymatini hisobdan chiqarish:

kredit 003 «Qayta ishlovga qabul qilingan
materiallar» schyoti *350 000 000 so‘m;*

- daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatini qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlardan daromadlarni hisoblanishi:

debet schyoti 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» *52 000 000 so‘m;*
kredit schyoti 9030 «Ish bajarish va xizmat
ko‘rsatishdan daromadlar» *52 000 000 so‘m;*

(12 000 000 so‘m = 40 000 000 so‘m x 30 / 100);

(52 000 000 so‘m = 40 000 000 so‘m + 12 000 000 so‘m);

- daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlar qiymatiga nisbatan hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:

debet schyoti 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» *7 800 000 so‘m;*
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha) schyoti *7 800 000 so‘m;*

(10 400 000 so‘m = 52 000 000 so‘m x 15 / 100);

- daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlarning tannarxi hisobdan chiqarilganda:

debet schyoti 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan
xizmatlarning tannarxi» *40 000 000 sum;*
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti *40 000 000 so‘m;*

- daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlashda olingan va qayta ishlovchi ixtiyorida qoladigan qaytariladigan chiqindilar qiymatiga:

debet 1090 «Boshqa materiallar» schyoti *8 000 000 so‘m;*
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti *8 000 000 so‘m;*

- metall prokatni daval xomashyo va materiallar sifatida qayta ishlash shartnomasiga muvofiq qayta ishlovchi tomonidan amalga oshirilgan daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan detallarni belgilangan yoki saqlash joyigacha yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar summasiga:

debet 9410 «Sotish xarajatlari» schyoti 3 500 000 so‘m;
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 1 500 000 so‘m;

- davalga beruvchidan ilgari olingan avanslar qoplashga qabul qilinganda:

debet 6310 « Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti 20 800 000 so‘m;
kredit schyoti 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» 20 800 000 so‘m;

- davalga beruvchidan daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatini qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlar va qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi uchun pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 39 000 000 so‘m;
kredit schyoti 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» 39 000 000 so‘m;

(39 000 000 so‘m = 52 000 000 so‘m + 7 800 000 so‘m – 20 800 000 so‘m);

- qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha byudjet oldidagi qarzdorlik summasi to‘langanda:

debet 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha) schyoti 7 800 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 7 800 000 so‘m;

- ish bajarish va xizmat ko‘rsatishdan daromadlar schyotalarini yopilishi:

debet schyoti 9030 «Ish bajarish va xizmat ko‘rsatishdan daromadlar» 52 000 000 so‘m;
kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 52 000 000 so‘m;

- bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi schyotini yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 40 000 000 so‘m;
kredit schyoti 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi» 40 000 000 so‘m;

- boshqa operatsion daromadlar schyotini yopilishi:

debet 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 8 000 000 so‘m;
kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 8 000 000 so‘m;

- sotish xarajatlari schyotining yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 3 500 000 so‘m;
kredit 9410 «Sotish xarajatlari»schyoti 3 500 000 so’m.

Bu holatda moliyaviy natija ya’ni daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlardan ko‘riladigan foyda 16 500 000 so‘mni tashkil etadi va buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 16 500 000 so‘m;
kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» 16 500 000 so‘m.

2-holat:

Qayta ishlovchi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchi bo‘lib hisoblanmaydi. Metall prokatini daval xomashyo va materiallar sifatida qayta ishlash shartnomasiga muvofiq metall prokatni qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan detallarni belgilangan yoki saqlash joyigacha yetkazib berish bo‘yicha ishlar davalga beruvchi tomonidan amalga oshirilgan.

Daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan detallarni davalga beruvchiga topshirish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari qayta ishlovchining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlash natijasida ishlab chiqarilgan detallarni davalga beruvchiga topshirilganda metall prokatni qiymatini hisobdan chiqarish:

kredit 003 «Qayta ishlovga qabul qilingan materiallar» schyoti *350 000 000 so‘m;*

- daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlardan daromadlarni hisoblanishi:

debet schyoti 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» *52 000 000 so‘m;*

kredit schyoti 9030 «Ish bajarish va xizmat ko‘rsatishdan daromadlar» *52 000 000 so‘m;*

(12 000 000 so‘m = 40 000 000 so‘m x 30 / 100);

(52 000 000 so‘m = 40 000 000 so‘m + 12 000 000 so‘m);

- daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlarning tannarxi hisobdan chiqarilganda:

debet schyoti 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi» *40 000 000 sum;*

kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti *40 000 000 so‘m;*

- davalga beruvchidan ilgari olingan avanslar qoplashga qabul qilinganda:

debet 6310 « Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti *20 800 000 so‘m;*

kredit schyoti 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» *20 800 000 so‘m;*

- davalga beruvchidan daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlar uchun pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *31 200 000 so‘m;*

kredit schyoti 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» *31 200 000 so‘m;*

(31 200 000 so‘m = 52 000 000 so‘m – 20 800 000 so‘m);

- ish bajarish va xizmat ko‘rsatishdan daromadlar schyotalarini yopilishi:

debet schyoti 9030 «Ish bajarish va xizmat ko‘rsatishdan daromadlar» *52 000 000 so‘m;*

kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti *52 000 000 so‘m;*

- bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi schyotini yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti *40 000 000 so‘m;*

kredit schyoti 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi» *40 000 000 so‘m.*

Bu holatda moliyaviy natija, ya’ni daval xomashyo va materiallar sifatida qabul qilingan metall prokatni qayta ishlash bo‘yicha bajarilgan ishlardan ko‘riladigan foyda 12 000 000 so‘mni tashkil etadi va buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv bilan aks ettiriladi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti *12 000 000 so‘m;*

kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» *12 000 000 so‘m.*

ILOVALAR

1-ilova

Daval xomashyo va materiallarni qayta ishlash va ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha namunaviy shartnoma

_____ sh. «____» _____ 20__-y.

Bir tomondan _____, keyingi o‘rinlarda
(yuridik shaxsning to‘liq nomi)

«Davalga beruvchi» deb nomlanadi, _____ shaxs
(lavozimi, familiyasi, ismi, sharifi)

vakilligida va ikkinchi tomondan _____, keyingi
(yuridik shaxsning to‘liq nomi)

o‘rinlarda «Qayta ishlovchi» deb nomlanadi, _____
(lavozimi, familiyasi, ismi, sharifi)

shaxs vakilligida, birgalikda «Tomonlar» deb nomlanadi, mazkur shartnomani quyidagilar bo‘yicha tuzdik:

1. Shartnoma predmeti

1.1. Mazkur shartnoma bo‘yicha Davalga beruvchi Qayta ishlovchiga xomashyo va materiallarni qayta ishlash va undan tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun beradi, Qayta ishlovchi esa Davalga beruvchiga tayyor mahsulotni qaytaradi.

1.2. Xomashyoni va materiallarini berishda egalik qilish huquqi unga o‘tmaydi, Davalga beruvchi berilgan xomashyoni (materiallarni) va ishlab chiqarilgan mahsulotni egasi sifatida qoladi.

1.3. Mazkur shartnoma majburiyatlarini bajarishda Qayta ishlovchi Davalga beruvchini buyurtmasini bajarish usullarini o‘zi mustaqil belgilaydi.

2. Tomonlar o‘rtasida xavfni taqsimlanishi

2.1. Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallarni tasodifan nobud bo‘lishi yoki tasodifan buzilishi xavfini _____ (Davalga beruvchi yoki Qayta ishlovchi) o‘z zimmasiga oladi.

2.2. Tayyor mahsulotlarni Davalga beruvchi qabul qilib olgungacha ularni tasodifan nobud bo‘lishi yoki tasodifan buzilishi xavfini Qayta ishlovchi o‘z zimmasiga oladi.

2.3. Tayyor mahsulotlarni qabul qilish yoki topshirishda kechish bo‘lgan hollarda mazkur shartnomaning 2.2.-bandida nazarda tutilgan xavfni kechikishga yo‘l qo‘ygan Tomon o‘z zimmasiga oladi.

3. Davalga beruvchining xomashyosi

3.1. Ish Davalga beruvchining quyidagi xomashyo va materiallaridan bajariladi:

1. _____ soni _____ta, bahosi _____

3.2. Davalga beruvchining xomashyo va materiallarini sifati _____ga to‘g‘ri kelishi shart.

3.4. Berilgan xomashyo va materiallarning yaroqsizligi aniqlangan hollarda Davalga beruvchi Qayta ishlovchi bu haqda xabar bergan vaqtdan boshlab _____ muddatda ularni almashtirib berishga majbur.

3.5. Qayta ishlovchiga xomashyo va materiallarni yetkazib berish sharti: ___

4. Ishni bajarish bo‘yicha Davalga beruvchinimg talablari

4.1. Mazkur shartnoma bo‘yicha bajarilgan ishning natijasi bo‘lib quyidagi mahsulotlar hisoblanadi: _____

4.2. Mahsulot chiqish me'yori: _____

4.3. Ishlab chiqarilgan mahsulotning soni bo'yicha tavsiflari: _____

4.4. Mahsulotlar sifati quyidagi talablarga javob berishi shart:_____

5. Ishni bajarish muddatlari

5.1. Tomonlar mahsulot ishlab chiqarishning muddatlarini quyidagicha belgiladilar:

Ishni bajarishning boshlang'ich muddati - «__» _____ 20__-yilgacha.

Ishni bajarishning oxirgi muddati - «__» _____ 20__-yilgacha.

Tayyor mahsulotni topshirish muddati - «____» _____ 20__-yil.

5.2. Belgilangan muddatlar Tomonlarning kelishuviga yoki Tomonlarning xohishiga bog'liq bo'lmagan vaziyatlarga muvofiq o'zgartirilishi mumkin.

6. Ishning qiymati va hisob-kitob qilish tartibi

6.1. Mazkur shartnoma bo'yicha ishning qiymati taxminiy smetaga[1] muvofiq aniqlanadi (taxminiy smeta mazkur shartnomaga ilova qilinadi).

6.2. SHartnoma bahosi Qayta ishlovchining ishni bajarishdagi xarajatlari va unga to'lanadigan haqni o'z ichiga oladi.

6.3. Taxminiy smetadagi baholarni ko'tarish lozim bo'lgan hollarda Qayta ishlovchi bu haqda Davalga beruvchini _____ kun davomida yozma ravishda xabardor qilishga majbur.

Berilgan xabarnomaga smetadagi baholarni oshirishni asoslovchi hujjatlar ilova qilingan bo'lishi kerak.

6.4. Davalga beruvchi xabarnomani olgandan keyin _____ kun davomida Qayta ishlovchiga buyurtmani tasdiqlovchi yoki shartnomani bekor qilish to'g'risidagi tegishli javobini berishga majbur.

6.5. Taxminiy smetaning o'sishi taxminiy smetaning umumiy qiymatiga nisbatan _____ dan ko'p bo'lsa muhim hisoblanadi.

6.6. Mazkur shartnoma bo'yicha ish qiymati qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini hisobga olmagan (qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini hisobga olgan) holda ko'rsatilan.

7. Hisob-kitob tartibi

7.1. To'lov muddati:

- mazkur shartnoma imzolangan vaqtdan boshlab _____ muddat davomida _____ miqdorda[2] avans to'lovi;

- tayyor mahsulotni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan vaqtdan boshlab _____ muddat davomida uzil-kesil hisob-kitob qilish.

7.2. Hisob-kitob turi: _____

(naqd pul bilan, pul o'tkazish bilan, aralash)

7.3. Hisob-kitob shakli: _____

(to'lov talabnomasi, chek, akkreditiv)

[1] Ishning bahosi (smeta) taxminiy yoki qat'iy bo'lishi mumkin. SHartnomada bunday ko'rsatma bo'lmasa, ishning bahosi (smeta) qat'iy hisoblanadi.

Ish pudratchi tomonidan tuzilgan smeta bo'yicha bajarilgan taqdirda, smeta buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan paytdan boshlab kuchga ega bo'ladi va pudrat shartnomasining bir qismi bo'lib qoladi.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi PF-1154-sonli Farmoniga muvofiq, avans to'lovining miqdori yetkazib beriladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) qiymatining kamida 15 foizi qilib belgilangan, qonunchilikda belgilangan holatlar bundan mustasno.

8. Qayta ishlovchining tejami

8.1. Qayta ishlovchining haqiqiy xarajatlari ish bahosini aniqlash vaqtida nazarda tutilgan xarajatlardan kam bo‘lgan hollarda, agar Davalga beruvchi Qayta ishlovchining tejami bajarilgan tayyor mahsulot sifatiga ta’sir etganligini isbotlay olmasa, Qayta ishlovchi ishlar uchun mazkur shartnomada ko‘rsatilgan baho bo‘yicha haq olish huquqini saqlab qoladi.

9. Tomonlarning huquq va majburiyatlari [3]

9.1. Davalga beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

9.1.1. Qayta ishlovchining faoliyatiga aralashmagan holda istalgan vaqtida uni bajarayotgan ishning borishi va sifatini tekshirish;

9.1.2. Agar Qayta ishlovchi mazkur shartnomani bajarilishiga o‘z vaqtida bajarishga kirishmasa yoki ishni sust bajarishi natijasida uni belgilangan muddatda tugatish mumkin emasligi aniq bo‘lsa, shartnomani bajarishdan voz kechish va zararlarni qoplashni talab qilish;

9.1.3. Agar ishni bajarish vaqtida uning tegishli darajada bajarilmasligi aniq bo‘lib qolsa, Qayta ishlovchiga kamchiliklarni yo‘qotish uchun oqilona muddat belgilashga va bu talabni Qayta ishlovchi belgilangan muddatda bajarmagan taqdirda mazkur shartnomadan voz kechish yoxud bu kamchiliklarni Qayta ishlovchi hisobidan tuzatishni boshqa shaxsga topshirishga, shuningdek yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

9.1.4. Qayta ishlovchiga tayyor mahsulotning sifati bilan bog‘liq talablarni qo‘yishi;

9.1.5. va O‘zbekistn Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa huquqlar.

9.2. Davalga beruvchi quyidagilarga majbur:

9.2.1. Xomashyo va materiallarni qayta ishlashga qabul qilish-topshirish dalolatnomasiga muvofiq Qayta ishlovchiga berishga;

9.2.2. Mazkur shartnomada nazarda tutilgan muddatda va tartibda pudratchi ishtirokida tayyor mahsulotni ko‘rib chiqishga va qabul qilishga, kamchiliklar aniqlangan taqdirda esa, bu to‘g‘rida pudratchiga darhol ma’lum qilishga;

9.2.3. Mazkur shartnomaning 4-bo‘limida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda Qayta ishlovchiga bajarilgan ish uchun haq to‘lashga.

9.2.4. va O‘zbekistn Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar.

9.3. Qayta ishlovchi quyidagi huquqlarga ega:

9.3.1. O‘zining majburiyatlarini bajarishga boshqa shaxslarni (yordamchi pudratchilarni) jalb qilish;

9.3.2. Davalga beruvchi mazkur shartnoma bo‘yicha o‘zining majburiyatlarini bajarmaganligi, xususan ishlov berilishi kerak bo‘lgan xomashyo va materiallarni bermaganligi Qayta ishlovchining shartnomani bajarishiga to‘sqinlik qilgan hollarda, shuningdek mazkur majburiyatlar belgilangan muddatda bajarilmasligini yaqqol ko‘rsatib turgan holatlar mavjud bo‘lganida ishga kirishmaslikka, boshlangan ishni esa to‘xtatib qo‘yishga;

9.3.3. Davalga beruvchi tayyor mahsulotni qabul qilishdan bosh tortganda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 646-moddasining 6-qismida belgilangan tartibda sotishi, tushgan pulni esa, o‘ziga tegishli hamma to‘lovlarni chegirib tashlab, notarial idoraning depozitiga Davalga beruvchining nomiga kiritib qo‘yishga;

9.3.4. va O‘zbekistn Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa huquqlar.

9.4. Qayta ishlovchi quyidagilarga majbur:

[3] Shartnomalarda tomonlar ega bo‘lishi kerak bo‘lgan huquqlar va bajarishi kerak bo‘lgan majburiyatlar O‘zbekiston Respublikasini «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida» gi Qonunida belgilab o‘tilgan.

9.4.1. Davalga beruvchi tomonidan berilgan xomashyolarni va materiallarni tejab-tergab va rejali foydalanishga;

9.4.2. ish tugagandan keyin Davalga beruvchiga daval xomashyo va materiallarni ishlatilishi to‘g‘risida hisobot berishga;

9.4.3. quyidagilarni aniqlagan taqdirda darhol Davalga beruvchini ogohlantirishi va undan ko‘rsatmalar olgunga qadar ishni to‘xtatib turishi shart:

- Davalga beruvchi bergan xomashyo va materiallarning yaroqsizligi yoki sifatsizligi aniqlanganda;
- Qayta ishlovchiga bog‘liq bo‘lmagan, bajarilayotgan ish natijalarining yaroqliligi yoki pishiqligini xavf ostiga qo‘yadigan yoxud ishni belgilangan muddatda nihoyasiga yetkazish mumkin bo‘lmaydigan qilib qo‘yadigan boshqa holatlarni.

9.4.4. va O‘zbekistn Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar.

10. Tayyor mahsulotni qabul qilish

10.1. Tayyor mahsulotni Davalga beruvchiga berish tayyor mahsulotni qabul qilish-topshirish dalalotnomasi bilan tayyor mahsulotni topshirish vaqtida rasmiylashtiriladi.

10.2. Tayyor mahsulotni qabul qilish-topshirish dalalotnomasida aniqlangan kamchiliklar aks ettiriladi. Davalga beruvchi kamchiliklarni bartaraf qilish bo‘yicha talabnoma kiritganda unga asoslanishi mumkin.

10.3. Agar Davalga beruvchi tayyor mahsulotni tekshirmasdan qabul qilgan bo‘lsa, uni qabul qilishda aniqlanishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarni dalil qilib keltirish huquqidan mahrum bo‘ladi.

10.4. Qayta ishlangan xomashyo va materiallarni Davalga beruvchiga _____ ko‘rinishda taqdim qilinishi kerak.

10.5. Qabul qilish-topshirish joyi: _____

10.6. Ishlab chiqarilgan mahsulotni yetkazib berish _____ (Davalga beruvchi yoki Qayta ishlovchi) tomonidan _____ hisobidan quyidagi tartibda _____ _____ amalga oshiriladi.

11. Tomonlarning javobgarligi

11.1. Tayyor mahsulotlarda kamchiliklar aniqlangan hollarda Davalga beruvchi Qayta ishlovchidan quyidagilarni talab qilishga haqli:

- kamchiliklarni oqilona muddatda tekin bartaraf etishni;
- ish uchun belgilangan baholarni ma’lum bir qismini qisqartirishni talab qilishga;
- kamchiliklarni bartaraf etishga qilgan o‘z xarajatlarini qoplashni talab qilishga.

11.2. Qayta ishlovchi ishdagi o‘zi javobgar bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etish o‘rniga, Davalga beruvchiga shartnomani bajarishni kechiktirganlik natijasida yetkazgan zararni qoplagan holda ishni yangidan tekin bajarib berishga haqli. Bunday holda Davalga beruvchi ilgari o‘ziga topshirilgan ish natijasini Qayta ishlovchiga qaytarib berishi shart.

11.3. Davalga beruvchi tomonidan berilgan xomashyolarnining saqlanmaganligi uchun Qayta ishlovchi javobgar bo‘ladi.

11.4. Mazkur shartnomani kuchga ega davri davomida bir tomonlama o‘z majburiyatlarini asoslanmagan ravishda bajarishdan voz kechilganda aybdor tomon _____ miqdorda jarima to‘laydi.

11.5. Mazkur shartnomaning shartlarini buzgan tomonlar buning natijasida ko‘rilgan zararlarni qoplaydilar, shu jumladan qonunchilikda belgilangan tartibda boy berilgan foydani ham.

12. Shartnomani bekor qilish tartibi

12.1. Davalga beruvchi mazkur shartnomani bir tomonlama quyidagi vaziyatlarda bekor qilishi mumkin:

12.1.1. Qayta ishlovchi tomonidan tayyor mahsulotlarni topshirish muddatlarini bir necha bor buzilganda.

12.1.2. Qayta ishlovchi tomonidan tayyor mahsulotlar sifatiga qo‘yilgan talablarga rioya qilinmaganda.

12.2. Davalga beruvchi tomonidan tayyor mahsulot uchun haq to‘lash tizimli ravishda buzilgan hollarda Qayta ishlovchi mazkur shartnomani bekor qilishga haqli.

12.3. Mazkur shartnoma O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda ham bekor qilinishi mumkin.

13. Yakuniy holatlar

13.1. Mazkur shartnoma imzolangan vaqtdan kuchga kiradi va u «____» _____ 20___ -yilgacha kuchga ega bo‘ladi.

13.2. Mazkur shartnomaga kiritiladigan har qanday qo‘shimcha va o‘zgartirishlar yozma ravishda rasmiylashtirilishi va har ikkala Tomondan imzolangan bo‘lishi shart.

13.3. Mazkur shartnoma bir xil kuchga ega bo‘lgan ikkita nusxada har bir tomon uchun bitta nusxadan tuzildi.

13.4. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan hollarda tomonlar amaldagi fuqarolik qonunchiligini qo‘llaydilar.

13.5. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin bu bo‘yicha oldindan olib borilgan kelishuvlar, yozishmalar, mazkur shartnomaga taalluqli birlamchi kelishuvlar va ayrim masalalar bo‘yicha bayonnomalar o‘zining huquqiy kuchini yo‘qotadi.

14. Tomonlarning rekvizitlari va izolari

Davalga beruvchi	Qayta ishlovchi
Manzil _____	Manzil _____
Telefon _____	Telefon _____
_____ bankdagi	_____ bankdagi
Hisob- kitob raqami № ____	Hisob- kitob raqami № _____
MFO _____	MFO _____
STIR _____	STIR _____
_____ (imzo)	_____ (imzo)

2-ilova

Daval xomashyo va materiallarni qabul qilish-topshirishning ____- sonli dalolatnomasi

Tuzilgan sana «_____» _____ 20____- y.

Davalga beruvchi _____

(yuridik shaxsning to‘liq nomi)

Manzili: _____ STIR _____

Qayta ishlovchi _____

(yuridik shaxsning to‘liq nomi)

Manzili: _____ STIR _____

Ushbu dalolatnoma bo‘yicha Davalga beruvchi xomashyoni topshirmoqda, Qayta ishlovchi esa xomashyoni qayta ishlash uchun qabul qilmoqda. Tomonlar kelishuviga muvofiq xomashyoni saqlash va qayta ishlash joyi bo‘lib _____

_____ belgilashdi.

(manzil)

T/r	Xomashyo va materiallar		Miqdori (_____da) (o‘lchov birligi)	Bir birlikning narxi	Summasi
	nomi	kodi			

Davalga beruvchi nomidan topshirdi: _____ Lavozimi _____ imzo _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

Qayta ishlovchi nomidan qabul qildi: _____ Lavozimi _____ imzo _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

3-ilova

Daval xomashyo va materiallarni topshirishning ____ - sonli nakladnoyi (yuk xati)

Tuzilgan sana «_____» _____ 20____ -y.

Davalga beruvchi _____

(yuridik shaxsning to‘liq nomi)

Manzili: _____ STIR _____

Qayta ishlovchi _____

(yuridik shaxsning to‘liq nomi)

Manzili: _____ STIR _____

T/r	Xomashyo va materiallar		O‘lchov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
	nomi	kodi				
			Jami		x	

Davalga beruvchi nomidan topshirdi: _____ Lavozimi _____ imzo _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

Qayta ishlovchi nomidan qabul qildi: _____ Lavozimi _____ imzo _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

4-ilova

Daval xomashyo va materiallarni qayta ishlashdan olingan tayyor mahsulotni qabul qilish-topshirishning ____- sonli dalolatnomasi

Tuzilgan sana «_____» _____ 20____ -y.

Davalga beruvchi _____
(yuridik shaxsning to‘liq nomi)

Manzili: _____ STIR _____

Qayta ishlovchi _____
(yuridik shaxsning to‘liq nomi)

Manzili: _____ STIR _____

T/r	Daval xomashyosini qayta ishlashdan olingan mahsulot		Miqdori (_____da) (o‘lchov birligi)	Bir birlikning narxi	Summasi
	nomi	kodi			

Qayta ishlovchi nomidan topshirdi: _____ (Lavozimi) _____ (imzo) _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

Davalga beruvchi nomidan qabul qildi: _____ (Lavozimi) _____ (imzo) _____ (familiyasi, ismi, sharifi)

5-ilova

Daval xomashyo va materiallarni ishlatilishi to‘g‘risida hisobot

Tuzilgan sana «_____» _____ 20____ -y.

Qayta ishlovchi _____ Manzili: _____ STIR _____
(yuridik shaxsning to‘liq nomi)

Davalga beruvchi _____ Manzili: _____ STIR _____
(yuridik shaxsning to‘liq nomi)

№	Xomashyo va materiallarning nomi	Olingan daval xomashyosining miqdori (_____ da) (o‘lchov birligi)	Daval xomashyosini qayta ishlashdan olingan mahsulotning nomi	Daval xomashyosini qayta ishlashdan olingan mahsulotning miqdori (_____ da) (o‘lchov birligi)	Ishlatilmagan daval xomashyosining miqdori (_____ da) (o‘lchov birligi)	CHiqindi-larning nomi	CHiqindilar miqdori (_____ da) (o‘lchov birligi)	
							jami	shu jumladan qaytariladigan

_____ _____ _____
hisobotni imzolovchining lavozimi imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

6-ilova

Daval xomashyo va materiallarni hisobga olish qaydnomasi

Xo‘jalik operatsiyasi mazmuni	Xomashyo va materiallarning turlari							
	Metalloprokat		yog‘och		teri		va boshqalar	
	miqdori	Summasi	miqdori	summasi	miqdori	summasi	miqdori	summasi
_____ 20__ -yilga qoldiq								
1.								
...								
Jami:								
_____ 20__ -yilga qoldiq								

_____ _____ _____
Lavozimi imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

_____ _____ _____
Lavozimi imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

6-BOB. MEHNATGA HAQ TO‘LASH HISOBI

1-§. Mehnatga haq to‘lash hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari

Jamiyatda moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish jarayoni mehnat quroli va mehnat buyumlaridan tashqari, bevosita jonli mehnatni ham o‘z ichiga oladi. Ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalaridan foydalanib kishilarning iste’molini qondiradigan mahsuloti vujudga keltiriladi.

Xo‘jalik yuritishning bozor tizimiga o‘tish sharoitida mehnatga haq to‘lash sohasida yangi munosabatlar paydo bo‘ladi, mehnat resurslari bozori bo‘lgan mehnat bozori shakllanadi. Uning subyektlari sifatida quyidagilar maydonga chiqadi: ish beruvchi (yakka tartibdagi tadbirkor, tadbirkorlar birlashmasi) - u muayyan sifat xossalariga ega bo‘lgan ma’lum miqdordagi mehnat resursiga talab bildiradi; yollanma xodimlar - ular mehnat resursining egalari bo‘lib, ularning miqdori va kasb-malaka xususiyatlari mehnat bozoridagi taklifni vujudga keltiradi.

Xo‘jalik yuritishning bozor tizimiga o‘tish sharoitida mehnatga haq to‘lash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va xodimlarni himoya qilish sohasidagi davlatning ko‘plab vazifalari bevosita korxonalarga berilgan. Mehnatga haq to‘lashning shakllari, tizimlari va miqdorini, mehnat natijasiga qarab rag‘batlantirishni korxonalar mustaqil o‘zlari belgilaydi. «Ish haqi» degan tushuncha hozir qonunchilik asosida ishlamagan vaqtlari uchun ham pul va natura shaklida hisoblangan ish haqining barcha turlarini o‘z ichiga oladi.

Har bir xodimning mehnat daromadlari, korxona faoliyatining pirovard natijasini hisobga olgan holda, uning qo‘shgan hissasi bilan aniqlanadi, soliq bilan tartibga solinadi va maksimal miqdori cheklanmaydi. Lekin xodimlarning minimal ish haqi miqdori bor va u qonunchilik bilan belgilanadi.

Mehnat munosabatlarini, shu jumladan xodimlar mehnatiga haq to‘lashni yuridik asosini mehnat to‘g‘risidagi qonuniy hujjatlar, korxonalarning jamoat shartnomalari va boshqa muayyan me’yoriy hujjatlar tashkil etadi.

Daromadlarni indeksatsiya qilish va pulning qadrsizlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan aholi zararlarini qoplash ijtimoiy kafolatdagi yangilik bo‘lib hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoyalash va qo‘llab - quvvatlashda ijtimoiy sug‘urta, pensiya fondi, bandlik fondi va boshqa davlat byudjetidan tashqari fondlar alohida o‘rin egallaydi. Ularning tashkil etilishi tegishli qonuniy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Barcha byudjetdan tashqari fondlar maxsus maqsadli ajratmalar va boshqa manbalar hisobidan tashkil etilib, davlat byudjetidan ajralgan holda faoliyat ko‘rsatadi va muhim ijtimoiy tadbirlar va rejalarni moliyalashtirishda foydalaniladi.

Mehnat va unga haq to‘lash hisobining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- soliqlar va ish haqidan ushlanmalar ham qo‘shilgan holda korxona xodimlari bilan mehnatga haq to‘lashga doir hisob-kitoblarni o‘z vaqtida olib borish;
- hisoblangan ish haqi summasini xarajatlar schyotlariga o‘z vaqtida hamda to‘g‘ri o‘tkazib borishni ta’minlash;
- boshqarish va zaruriy hisobotlarni tuzish uchun mehnat va ish haqi bo‘yicha ko‘rsatkichlarni operativ yig‘ish va guruhlash;
- ishchi-xodimlar soni, ularning mehnat unumdorligi va ish vaqtidan foydalanishini doimiy nazorat qilishdan iborat.

Mehnat va unga haq to‘lashning buxgalteriya hisobini tartibini aniqlovchi asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;

- O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi Qonuni;
- mehnat munosabatlarini tartibga solish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari;
- Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom;
- O‘zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobini milliy standartlari va boshqa buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi idoraviy me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

Korxonalar tomonidan mehnat va unga haq to‘lash hisobini tegishli ravishda tashkil etish va ularni bilan bog‘liq operatsiyalarni nazorat qilish uchun zarur bo‘ladigan ichki nizom, yo‘riqnoma, boshqa tashkiliy-taqsimlovchi hujjatlarni ishlab chiqishlari mumkin. Yuqoridagi hujjatlarda bilan:

- mehnat va unga haq to‘lash bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan boshlang‘ich hujjatlarning shakllari va ularni rasmiylashtirish (tuzish) tartibini, shuningdek hujjat aylanishining qoidalarini;
- mehnat va unga haq to‘lash bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirishga ishonch bildirilgan bo‘linmalarining mas’ul shaxslari ro‘yxatini;
- mehnat va unga haq to‘lash hisobini to‘g‘ri yuritilishini, ular bilan bog‘liq operatsiyalar to‘g‘risidagi hisobotlarni ishonchligini va boshqalarni tasdiqlashi mumkin.

2-§. Mehnatga haq to‘lashning shakllari, tizimlari va hisobi

2.1.Mehnatga haq to‘lashning shakllari va tizimlari

Mehnatga haq to‘lashda ishning sifatini, ishlab chiqarish normalarini bajarilishini hisobga olish va ish haqi hisoblashning ma’lum tartibini belgilash zarur. Demak, korxonada mehnatga haq to‘lashni tashkil etish biri-biriga bog‘liq bo‘lgan uchta elementlar bilan aniqlanadi: tarif tizimi, mehnatni normalashtirish va mehnatga haq to‘lash shakllari. Sifat jihatidan mehnat tarif tizimi bilan baholanadi, sarflangan mehnat miqdori normalashtirish bilan hisobga olinadi, ish haqi hisoblash tartibi esa mehnatga haq to‘lash shakllari bilan aniqlanadi.

Ishchilar mehnatiga haq to‘lashda tarif setkasi asos bo‘lib hisoblanadi. Tarif setkasi ishlovchilarning malakasi, mehnatga haq to‘lash shakli va mazkur sohaning xalq xo‘jaligidagi ahamiyatini inobatga olgan holda tuziladi. Tarif tizimiga quydagilar kiritiladi:

- bir soat yoki bir kunlik mehnatiga to‘lanadigan haq miqdorini belgilovchi tarif stavkasi;
- haq to‘lashda ish va ishchilarning (malakasi) turli razryadlari orasidagi munosabatlarini ko‘rsatuvchi tarif setkasi;
- tarif-malakaviy ma’lumotnoma. Uning yordamida tarif setkasiga binoan ish va ishchining razryadi aniqlanadi.

Oddiy ishlar 1-razryadli ishchining tarif stavkasi bilan to‘lanadi. Mehnat malakasi darajasiga, ya’ni belgilangan tarif razryadi va tarif koeffitsientiga, qarab qolgan razryadlarning tarif stavkalari bu razryaddan ortiq bo‘ladi. Tarif razryadi har bir ishlab chiqarish operatsiyasiga, har bir ish turiga tayinlanadi, shuning uchun ish bajarish normalarini hisobga olgan holda, ishbay ish haqini hisoblab topishda tarif stavkasidan foydalaniladi.

Mehnatga haq to‘lash shakli, mukofotlar, qo‘shimcha haqlar, rag‘batlantirish to‘lovlari, kasaba uyushma qo‘mitasi bilan kelishilgan holda, ish beruvchi tomonidan qabul qilinadigan jamoa

shartnomasi bilan belgilanadi. Davlatning tarif stavkalari va okladlari korxonada ishchilarning malakasiga, kasbiga, ular tomonidan bajariladigan ishlar sharoitining murakkabligiga qarab baza sifatida foydalanilishi mumkin.

Mehnatga haq to‘lash miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish hamda mehnatga haq to‘lash, pensiyalar tayinlash hamda soliqlar, davlat bojlari, jarimalar, yig‘imlar va boshqa to‘lovlarni undirish o‘rtasidagi shartlarning bog‘liqligini bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-maydagi PF-5723-son «Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida» gi Farmoni bilan 2019-yil 1-sentyabrdan boshlab ish haqining eng kam miqdori o‘rniga quyidagilar joriy etildi:

- mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori;
- bazaviy hisoblash miqdori;
- pensiyani hisoblashning bazaviy miqdori.

Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori:

- 1,0 tarif koeffitsienti bo‘yicha mehnatga haq to‘lashning yagona tarif setkasi birinchi razryadi bo‘yicha oylik tarif stavkasining puldagi ifodasi hisoblanadi;
- mehnat munosabatlari sohasida lavozim maoshi, ustamalar, qo‘shimcha haq, gonorar, qo‘shimcha ish uchun kompensatsiya to‘lovlari va rag‘batlantiruvchi tusdagi to‘lovlarning boshqa turlari, shuningdek, qonunchilikda belgilangan ushlanmalar, ilgari eng kam ish haqiga nisbatan belgilab qo‘yilgan boshqa to‘lovlar miqdorini aniqlashda hamda oilalarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtojligi va ishsizlik bo‘yicha nafaqalar miqdorini aniqlashda qo‘llaniladi;
- belgilangan mehnat normalarini to‘liq bajargan xodimlar mehnatiga haq to‘lashning quyi chegarasi sifatida tashkiliy-huquqiy shakli va mehnat munosabatlaridan qat’i nazar barcha ish beruvchilar uchun majburiy hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-maydagi PF-5723-son «Mehnatga haq to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida» gi Farmonining ijrosini ta’minlash maqsadida mehnatga haq to‘lash tarif stavkalarini ko‘rsatuvchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-sentyabrdagi 775-sonli «Mehnatga haq to‘lashning yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» qarori bilan «Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha yagona tarif setkasi» (1-ilovaga qarang) tasdiqlangan bo‘lib, unda mehnatga haq to‘lash bo‘yicha razryadlar va tarif koeffitsientlari belgilangan. Ishchining ish haqi yoki oklad summasini aniqlash uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini mazkur ishchiga belgilangan razryadning koeffitsientiga ko‘paytirish kerak.

1-razryad stavkalarini mehnatga haq to‘lash shakllari (ishbay ishchilar va vaqtbay ishchilar), shuningdek kasb guruhlari va ish turlari (uch guruh stavkalar) bo‘yicha tabaqalashtirib korxona mehnatga haq to‘lash bo‘yicha tarif setkasini ishlab chiqishi mumkin. Har bir korxona moliyaviy imkoniyatlari va boshqa ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga qarab o‘zining tarif koeffitsientlarini ishlab chiqadi.

Mehnatga haq to‘lashni tashkil etishning asosiy elementi bo‘lib, mahsulot birligini ishlab chiqarishga yoki ma’lum tashkiliy-texnik sharoitlarida berilgan ish hajmini bajarishga sarflanadigan mehnat o‘lchamini belgilovchi, mehnatni normalashtirish hisoblanadi.

Mehnatni normalash, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilishning asosiy tarkibiy qismi sifatida, ishlab chiqarish normasini va vaqt normasini o‘z ichiga oladi. Normal ish sharoitida belgilangan vaqt (soat, smena, oy) birligida ishlab chiqarsa bo‘ladigan normalashtiriluvchi mahsulot birligi (dona, metr, tonna)ning miqdori ishlab chiqarish normasi bilan belgilanadi. Vaqt normasi esa

ma’lum tashkiliy-texnikaviy sharoitlarda ish bajarish uchun zarur bo‘ladigan vaqtni (min., soat) nazarda tutadi.

Korxonalarga mehnatga haq to‘lash shakl va tizimlarini mustaqil belgilash huquqi berilgan. Mehnatga haq to‘lashning ikkita shakli mavjud: ishbay va vaqtbay. Mehnatga ishbay shaklida haq to‘langanda ish haqi, mahsulotning sifati, murakkabligi va ish sharoitini hisobga olgan holda, ishlab chiqarilgan mahsulot birligining miqdoriga bog‘liq. Vaqtbay shaklida ish haqi, xodimlar malakasi va ish sharoitini hisobga olgan holda, sarflangan (haqiqiy ishlagan) vaqtning miqdoriga bog‘liq.

Ishbay ish haqi shakli ishchilarni, ilg‘or tajribalardan foydalangan holda, mehnat unumdorligini oshirishga moddiy jihatdan qiziqtiradi. Mehnatga haq to‘lashning bu shaklida ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini qat’iy tekshirish zarur. Mehnatga haq to‘lashning ishbay shakli quyidagi mehnatga haq to‘lash tizimlariga bo‘linadi:

- to‘g‘ri ishbay;
- ishbay-mukofot;
- ishbay-progressiv;
- bilvosita;
- akkord.

To‘g‘ri ishbay shaklida, ish haqi, belgilangan ishbay narxlar bo‘yicha haqiqatda bajarilgan ish (tayyorlangan mahsulot) ga muvofiq aniqlanadi.

Mehnatga haq to‘lashning ***ishbay-mukofot shakli***, mehnatga ishbay asosida haq to‘lashning nisbatan ko‘p tarqalgan tizimidir. Ishbay-mukofot shaklida, to‘g‘ri ishbay baholardagi ish haqidan tashqari, qo‘shimcha ravishda belgilangan ko‘rsatkichlarni (ish sifati, shoshilinchliligi, mijozlar tomonidan asoslangan shikoyatlarning yo‘qligi va h.k.) bajarganligi yoki oshirib bajarganligi uchun mukofot hisoblanadi. Mukofotlar ishbay ish haqi bo‘yicha haqiqatda ishlab berilgan vaqt uchun hisoblanadi.

Ishchilar mehnatiga haq to‘lashning ***ishbay-progressiv shaklida,*** belgilangan boshlang‘ich me’yor (negiz)lar chegarasida to‘g‘ri ishbay narxlarida, bu me’yordan ortiqchasi - oshirilgan narxlarda amalga oshiriladi. Ishbay baholarning oshishi, har bir holatda maxsus shkala bo‘yicha aniqlanadi. Masalan, boshlang‘ich me’yorni 1% dan 10 % gacha ortig‘i bilan bajarganda ishbay baho 30% ga oshadi, 10 dan 30% gacha - 50% ga oshadi va h.k..

Mehnatga haq to‘lashning ***bilvosita shakli,*** odatda, yordamchi ishlarni bajaruvchi ishchilar mehnatiga haq to‘lash uchun qo‘llaniladi: texnologik uskunalarni sozlovchilar, ta’mirlovchi chilangarlar, ustalar va boshqa yordamchi ishchilar yordamchilari, faoliyat natijalari asosiy ishchilar ishlab chiqarish unumdorligiga ta’sir etuvchilar.

Haq to‘lashning ***akkord shakli,*** butun ish hajmi (yig‘indisi) uchun ish haqi miqdorini belgilaydi va akkord topshiriqlarini bajarish muddatlarini qisqartirganlik uchun mukofotlashni o‘z ichiga oladi. Bunda ishlarning umumiy qiymati, ishlab chiqarish me’yoriy vaqtlari va baholari asosida aniqlanadi.

Brigadaga butun asosiy va yordamchi ishlar yig‘indisi nazarda tutilgan akkord topshirig‘i topshiriladi. Topshiriqda ish boshlanishi va tugash vaqti, shuningdek ish haqi va mukofotlar qiymati ish sifati e’tiborga olingan holda ko‘rsatiladi. Muddatidan ilgari bajarilgan hollarda, mukofot miqdori oldindan ma’lum bo‘ladi. Akkord tizimi ishlab chiqarish davri uzoq muddat davom etadigan ishlarda va qurilishga ixtisoslashgan, avtotransport tashkilotlarida qo‘llaniladi.

Mehnatga vaqtbay asosida haq to‘lash odatda, xodimning ishini me’yorlashtirish yoki bajarilgan ishlarga asoslangan hisob yuritish imkoniyati bo‘lmagan holatlarda qo‘llaniladi.

Mehnatga vaqtbay asosida haq to‘lashda ishchi yoki xizmatchilarning ish haqi, uning malakasi va ishlagan ish vaqti miqdoriga muvofiq holda aniqlanadi. Mehnatga vaqtbay shaklida haq to‘langanda ish haqi hisoblash bo‘yicha asos qilib ishchining sarflagan vaqti va tarif stavkasi olinadi.

Mehnatga vaqtbay asosida haq to‘lash turli xil bo‘ladi:

- oddiy vaqtbay;
- mukofotli vaqtbay.

Mehnatga haq to‘lashning ***oddiy vaqtbay shaklida*** ish haqi miqdorini hisoblashning asosi qilib xodimlar jadvaliga muvofiq bo‘lgan tarif stavkasi yoki lavozim maoshi olinadi. Mehnatga haq to‘lashning soatbay va kunbay shakllarini, vaqtbay tizimining turli xillari sifatida ajratadilar. Ish haqi miqdorini aniqlashda, soatlik (kunlik) ish haqi stavkasini haqiqatda ishlangan soat (kun)ga ko‘paytirib topiladi.

Mehnatga haq to‘lashning ***mukofotli vaqtbay shaklida,*** tarif stavkasi (maoshi) bo‘yicha ish haqidan tashqari, ishchilarni mukofotlash haqidagi korxonada ishlab chiqilgan qaror, jamoa shartnomasi yoki korxona boshqaruvchisi buyrug‘i (farmoyishi) asosda qo‘shimcha ravishda, ma’lum miqdor va sifat ko‘rsatkichlariga erishgani uchun mukofot to‘lanadi.

Mehnatga haq to‘lashning barcha shakli va tizimlari asosida ish haqi hisoblash buxgalteriya hisobida bir xilda rasmiylashtiriladi, mualliflar tomonidan ish haqini hisoblash sxemasi ishlab chiqilgan (2-ilovaga qarang).

2.2. Mehnatga haq to‘lashni boshlang‘ich hujjatlarda hisobi

Mehnat va unga haq to‘lash hisobi sarflangan mehnatning miqdor va sifati, ushbu yo‘nalishdagi mablag‘lardan foydalanish, mehnat haqi jamg‘armasini shakllantirish va ijtimoiy xususiyaga ega bo‘lgan to‘lovlarni amalga oshirish ustidan tezkor nazorat o‘rnatishni ta’minlashi lozim.

Mehnat va unga haq to‘lashni hisobga olish, hisobotni tuzish va mehnat haqi jamg‘armasi ustidan nazorat qilish va ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lgan to‘lovlarni amalga oshirish uchun subyektlarning xodimlari, masalan transport xizmati ko‘rsatuvchi korxonalarning xodimlari uchta guruhga bo‘linadi: transport xizmati ko‘rsatishdagi (asosiy faoliyatdagi) xodimlar - ushbu korxonaning asosiy yo‘nalishida band bo‘lgan xodimlar; nosanoat ishlab chiqarishishidagi xodimlar - asosiy ishlab chiqarishga va subyekt faoliyatini yuritishga yordam beruvchi tarmoq xodimlari; asosiy ro‘yxatdan tashqari xodimlar - pudrat shartnomasi va boshqa vaqtincha shartnomalarga asosan vaqtincha subyektga xizmat ko‘rsatayotgan xodimlar.

Bundan tashqari, mehnat bo‘yicha hisobot shaklida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish xodimlari o‘z navbatida ikkita guruhga - asosiy ishchilar va xizmatchilar, rahbarlar, mutaxassislar va boshqa xizmatchilarga bo‘linadi.

Korxonalarda xodimlar shaxsiy tarkibining hisobi kadrlar bo‘limi yoki ushbu vazifa yuklatilgan shaxs tomonidan yuritiladi. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga asosan xodimlarni ishga qabul qilish, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish (ishdan bo‘shatish), boshqa ishga o‘tkazish va ta’til berish rahbarning buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi. Rahbarning buyrug‘i xodimlarning sonini va ularning harakatini hisobga oladigan boshlang‘ich hujjat hisoblanadi (3-6-ilovalarga qarang).

Korxonalar o‘zining ishlab chiqarish xususiyatlaridan kelib chiqib shtatlar jadvalini ishlab chiqadi (7-ilovaga qarang). Shtatlar jadvalida har bir tarkibiy bo‘lim bo‘yicha shtatlar birligi, kasbi (lavozimi, maoshi, qo‘shimcha to‘lovlar, oylik ish haqi ko‘rsatiladi. Shtatlar jadvali korxonada mehnat xarajatlarini oldindan rejalashtirish va mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni oldindan hisoblash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Doimiy, vaqtincha yoki mavsumiy ishga qabul qilingan xodimlar bo‘yicha «Xodimning shaxsiy varaqasi» (8-ilovaga qarang) kadrlar bo‘limi tomonidan to‘lg‘aziladi. Barcha toifadagi ishchilarga bir nusxada tegishli hujjatlar, ya’ni pasport, harbiy hujjat, mehnat daftarchasi (o‘rindoshlar uchun – asosiy ish joyidan ma’lumotnoma), ta’lim muassasini tugatganlik haqidagi diplom va boshqa hujjatlar, hamda xodimlar bilan o‘tkazilgan so‘rov asosida to‘ldiriladi.

Ishga qabul qilingan har bir xodimga maxsus tabel raqami biriktiriladiki, ushbu raqam shaxsiy tarkibni hisobga oluvchi hujjatlarda, bajargan ishlarni tasdiqlovchi va mehnatga haq to‘lash hujjatlariga qo‘yib boriladi, chunki bu raqam kompyuterlashtirishda kod vazifasini ham bajaradi. Ushbu xodim boshqa ishga o‘tkazalganda yoki ishdan bo‘shatilganda unga biriktirilgan raqam bir-ikki yilda boshqa xodimga biriktirilmaydi. Yuqorida qayd qilingan boshlang‘ich hujjatga asosan buxgalteriyada ushbu xodimga «Shaxsiy schyot» (9-ilovaga qarang) ochilib, unda oy sayin hisoblangan mehnat haqi yig‘ilib boriladi, chunki uning ta’tilga chiqishida yoki boshqa zarur holatlarda hisoblangan mehnat haqini tekshirish, o‘rtacha oylik yoki kunlik mehnat haqlarini aniqlash uchun ushbu ma’lumotlar zarur hisoblanadi.

Xodimlarning «Shaxsiy schyot» maxsus kitobda yoki varaqda har bir xodim bo‘yicha alohida yuritiladi. Unga ma’lumotlar T-49 yoki T-51-shakllaridan olinadi. Bu shaxsiy schyotdagi ma’lumotlar har oyda o‘sish yo‘nalishi bo‘yicha qayd qilib boriladiki, xodim ta’tilga chiqqanda yoki mukofot, nafaqa hisoblaganda o‘rtacha hisoblangan mehnat haqini aniqlash uchun zarur bo‘ladi. Ushbu shaxsiy schyot ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, uning chap tomonida mehnat haqi yoki boshqa hisoblangan summalar tegishli ustunlarda qayd qilinadi va o‘ng tomonida ushbu hisoblangan summalardan chegiriladigan summalar, soliq, jamg‘armalarga ajratilgan summalar aks ettirilib, oxirgi ustunda xodimning olgan summasi ko‘rsatiladi. Har yilning oxirida ushbu shaxsiy schyot buxgalteriyaning arxivida va keyinchalik markaziy arxivda saqlanadi.

Barcha toifadagi xizmatchilarning ish vaqtidan foydalanishini hisob-kitob qilish uchun, qabul qilingan ish vaqti tartibiga rioya qilishni nazorat qilish uchun, ishlagan vaqt haqida hamda mehnat bo‘yicha analitik hisobotlarni tuzish haqida ma’lumotlar olish uchun «Ish vaqtidan fodalanish va ish haqini hisoblashni hisob–kitob qilish ro‘yxati» (M-12 shakl) va «Ish vaqtidan foydalanishni hisob-kitob qilish ro‘yxati» (M-13 shakl) qo‘llaniladi (10- va 11-ilovalarga qarang). Ushbu tabellar va varaqlar korxonalar kichik bo‘lsa, korxona bo‘yicha, agarda katta bo‘lsa, ularning bo‘linmalari yoki xodimlarning guruhlari bo‘yicha ochilib yuritiladi.

Ushbu hujjatlar ishlayotgan xodimlarning hamma tabaqalari tomonidan ish vaqtidan foydalanishnigina hisobga olish uchun foydalanib qolinmay, balki xodimlar tomonidan ish tartibiga rioya qilishni nazorat qilish, mehnat haqi yuzasidan hisoblashish va ishlagan vaqti yuzasidan ma’lumotlar olish uchun ham asos bo‘ladi. Tabellar bir nusxada tabelni yurituvchi shaxs yoki usta (master) tomonidan to‘lg‘azilib boriladi va oyda ikki marta buxgalteriyaga beriladi. Chunki ushbu hujjatga asosan oyning birinchi yarmi uchun bo‘nak puli beriladi va oyning oxirida umumiy mehnat haqi hisoblanadi. Ushbu tabelda ishga kelishni hisobga olish va ish vaqtidan foydalanish yoppasiga qayd qilish usulida amalga oshiriladi, ya’ni kelganligi, kelmaganligi, kech kelganligi sabablari bilan qayd qilib boriladi. Tabelning bet varag‘ida shartli belgilar qo‘yiladi, D - dam olish kuni, B - bayram, K - kasal, X - xizmat safari, T – ta’tilda va h.k.. Ishlagan kunlari va soatlar bir miqdorda ko‘rsatiladi. Tabellarga qo‘lda ishlov berilganda harf va sonlar bilan, agarda kompyuterda ishlov berilganda sonlar bilan kodlashtiriladi.

«Ish vaqtidan fodalanish va ish haqini hisoblashni hisob–kitob qilish ro‘yxati» (M-12 shakl) da ish vaqtidan foydalanishdan tashqari hisoblangan mehnat haqi ham ko‘rsatiladi. Unda har bir xodimga berkitilgan tabel raqami, xodimning ismi va nasabi, guruhi, mutaxassisligi yoki

mansabi, okladi, shu oyda ishlagan kunlar soni va soati, shundan belgilangan soatdan ortiqcha ishlagan vaqti-soatda, kechasi va tunda ishlagan vaqtlari, ishga kelmagan vaqti va sabablari, dam olish va bayram kunlari, bundan tashqari, bo‘sh turib qolgan vaqtlari ham ko‘rsatiladi. Oxirgi ustunida qayerda ishlaganligi va hisoblangan mehnat haqi ham ko‘rsatiladi. Chunki ushbu ma’lumot mehnat sarflarini, mahsulot va ishning tannarxini tegishli elementlar bo‘yicha hisoblash imkoniyatini yaratadi va mehnat unumdorligini hisoblashga asos bo‘ladi. «Ish vaqtidan foydalanishni hisob-kitob qilish ro‘yxati» (M-13 shakl)da esa ushbu ko‘rsatkichlar har bir bo‘lim, tarmoq yoki ish turi bo‘yicha qayd qilib boriladi.

Tabelda ishga kelmaslik sabablari yoki to‘liqsiz ish kuni tartibda ishlash haqida, ortiqcha ishlash va boshqa me’yoriy ish shartlarida chiqishlar haqida belgilar faqat muvofiq ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlar (mehnatga layoqatli emaslik varag‘i, davlat va boshqa jamoa ishlarini bajarganlik haqida ma’lumotlar va h.q.) asosida kiritilishi kerak.

Tabelda ishchining har kuni ish vaqtidan foydalanishini («Ish vaqtidan fodalanish va ish haqini hisoblashni hisob–kitob qilish ro‘yxati» (M-12 shakl) ning 3,5 ustunlarini va «Ish vaqtidan foydalanishni hisob-kitob qilish ro‘yxati» (M-13 shakl) 3 ustunni) ko‘rsatish uchun ikki qator ajratilgan, bir qatori ish vaqtini qo‘lash turlarini shartli ravishda belgilash uchun, ikkinchi qator esa ular bo‘yicha soatlar miqdorini yozish uchun.

Ro‘yxatda har kuni ish vaqtidan foydalanishni hisob- kitob qilishishga, kelish yoki kelmaslikni yoppasiga qayd qilish yoki faqatgina chekinishlarni (kelmaslik, kech qolish va h.q.) qayd qilish usuli bilan kiritiladi.

«Ish vaqtidan fodalanish va ish haqini hisoblashni hisob–kitob qilish ro‘yxati» (M-12 shakl) ning titul varog‘ida ko‘rsatilgan, ishlangan va ishlanmagan vaqt shartli belgilari «Ish vaqtidan foydalanishni hisob-kitob qilish ro‘yxati» (M-13 shakl) ni to‘ldirishda ham foydalanadi.

«Ish vaqtidan fodalanish va ish haqini hisoblashni hisob–kitob qilish ro‘yxati» (M-12 shakl) va «Ish vaqtidan foydalanishni hisob-kitob qilish ro‘yxati» (M-13 shakl) ning ma’lumotlariga asoslangan holda «To‘lov qaydnomasi (hisob-kitob to‘lovnomasi» to‘lg‘aziladi (12-ilovaga qarang).

«To‘lov qaydnomasi (hisob-kitob to‘lovnomasi» da har bir xodim bo‘yicha kodlari ko‘rsatilgan holda tegishli hisoblangan mehnat haqi summasi ishlagan joyi ko‘rsatilgan holda qayd qilinadi va ushbu mehnat haqi summasidan qonun hujjatlariga muvofiq chegirib qolingan summalar chegirmalarning turlari bo‘yicha ko‘rsatilib, oxirgi ustunda xodimga beriladigan summa ko‘rsatiladi.

«To‘lov qaydnomasi (hisob-kitob to‘lovnomasi» da ko‘rsatilgan summaga asosan «To‘lov qaydnomasi» (13-ilovaga qarang) tuzilib, kassaga belgilangan tartibda beriladi. «To‘lov qaydnomasi» da xodimning tabel raqami, familiyasi, ismi, sharifi va hisoblangan to‘lanishi kerak bo‘lgan ish haqi summasi ko‘rsatiladi. Xodim ish haqini olganligi to‘g‘risida imzo chekadi. Kassir tomonidan to‘langan va deponentlangan summalar ko‘rsatib o‘tiladi.

«To‘lov qaydnomasi» bo‘yicha ish haqi to‘lab bo‘lingandan keyin ular «To‘lov qaydnomalarini ro‘yxatga olish jurnali» (14-ilovaga qarang) da ro‘yxatga olinib, unda to‘lov qaydnomalarining raqami, amalga oshirilgan to‘lovlar turi, to‘lovlar amalga oshirilgan tarkibiy bo‘linma nomi, qaydnoma bo‘yicha summa ko‘rsatiladi. Mazkur yozuvlar topshiruvchi va qabul qiluvchi imzosi bilan tasdiqlanadi. «To‘lov qaydnomalarini ro‘yxatga olish jurnali» tikilgan va raqamlangan bo‘lishi, so‘nggi varag‘ida korxona rahbarining imzosi bilan «Mazkur «To‘lov qaydnomalarini ro‘yxatga olish jurnali» da ____ varaq raqamlangan» deb yozilishi va muhr bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Varaqlar soni yozuv bilan ko‘rsatiladi.

Korxonalarda u yoki bu boshlang‘ich hujjatlar shaklini qo‘llash ishlab chiqarishning xarakteri, mehnatni tashkil etish va unga haq to‘lash tizimiga, shuningdek mahsulot sifatini nazorat qilish usuliga bog‘liq. Korxonalarda quyidagi boshlang‘ich hujjatlarni qo‘shimcha sifatida qo‘llash mumkin: ishbay ish naryadi, marshrut varaqasi, tayyorlangan mahsulot to‘g‘risida raport, tayyorlangan mahsulotni hisobga olish qaydnomasi, bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomasi, vaqtbay ishlovchilarga berilgan normalashtirilgan topshiriq va boshqalar. Ishlangan mahsulot va bajarilgan ishlar hisobi bo‘yicha boshlang‘ich hujjatlar miqdorini anchaga kamaytirish uchun yiriklashtirilgan, kompleks me’yor va baholarni qo‘llash, shuningdek bir yo‘la tuziladigan bir kunlik hujjatlar o‘rniga ko‘p kunlik (yig‘ma hujjatlar) haftada ishbay ishlarning bajarilishi o‘xshagan hujjatlarni qo‘llash tavsiya qilinadi.

Texnologik karta, sex, uchastka ishlab chiqarish dasturiga binoan tuzilgan, amaldagi norma va baholari, ishlar grafigi ko‘rsatilgan bu hujjatlar ish boshlanishidan oldin ishchiga yoki brigadaga topshiriladi. Ish bajarilgandan so‘ng texnik nazorat bo‘limi (OTK) haqiqiy ishlab chiqarilgan va qabul qilingan yaroqli mahsulotlar miqdori va yaroqsiz mahsulot miqdorini ko‘rsatadi.

Yakka, takrorlanmaydigan mahsulot ishlab chiqarishlarida ishbay ish bo‘yicha asosiy hujjat bo‘lib bir yo‘la tuziluvchi, yig‘ib boruvchi, shuningdek yakka va brigada bo‘yicha tuziladigan naryad hisoblanadi. Bir yo‘la naryad smena yoki oy davomida bir buyurtma yoki ishlab chiqarish xarajatlari turiga tegishli ish turlari bo‘yicha tuziladi. Agar ish bir ishchi tomonidan bajarilsa, yakka naryad deyiladi, agar brigada tomonidan bajarilsa – brigada (umumiy) naryadi deyiladi. Naryadning orqa tomonida brigada tarkibi, ishlangan vaqt, bajarilgan ish, brigada a’zolarining malakasi to‘g‘risida qo‘shimcha ma’lumotlar keltiriladi.

Naryadlar bo‘yicha bajarilgan ish hajmi va ishlar harakatini texnologik zanjiri tartibida nazorat qilish mumkin emas, chunki ular bir ishchi (yoki brigada, smenaga), biri ikkinchisi bilan bog‘lanmagan bir yoki bir necha operatsiyalarga yoziladi. SHuning uchun bir texnologik jarayonda bir vaqtning o‘zida seriya (guruh) bir xildagi mahsulot tayyorlaydigan seriyali ishlab chiqarishlarda tayyorlangan mahsulot va ish haqini hisoblash uchun marshrut varaqalari qo‘llaniladi. Marshrut varaqasi bo‘yicha har bir ishchi ish bajarishi mumkin. Marshrut varaqasi barcha texnologik jarayon operatsiyalariga va ma’lum partiya detal va mahsulotlarga oldindan yoziladi. Bunda ishning bir operatsiyadan ikkinchisiga o‘tkazilishi ketma-ketlikda ko‘rsatilgan bo‘lib, ishlab chiqarishdagi yo‘qotishlar va yaroqsiz mahsulotlar nazorat qilinadi. Marshrut varaqasi bo‘yicha ish turlari bir qancha ishchilar tomonidan bajarilganligi uchun, har birining ish haqisi maxsus hujjatda – 15 kunda yoki bir oyda bir marta tuziladigan ishlab chiqarish raportida yig‘ib boriladi.

Ko‘plab ishlab chiqarish xarakteridagi korxonalarda ishchilar odatda o‘zlariga biriktirilgan bir xil texnologik operatsiyalarni bajaradi. Bunda ishlab chiqilgan mahsulot va ish haqining hisobi smena yoki oy bo‘yicha tuziladigan yig‘ma qaydnomalarda yuritiladi.

2.3. Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobi

Moliyalash manbaidan qat’iy nazar korxonaning ish haqi tarkibiga mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qilingan barcha xarajatlar, jumladan qonun bo‘yicha xodimlarning ishlamagan vaqti uchun hisoblangan o‘rtacha ish haqi, rag‘batlantiruvchi to‘lovlar, kompensatsiya to‘lovlari kiradi.

21-son BHMS ga muvofiq, mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 4210 «Mehnat haqi bo‘yicha berilgan bo‘naklar» schyotida korxona xodimlariga mehnat haqi bo‘yicha berilgan bo‘naklarning barcha turlari yuzasidan hisob-kitoblar hisobga olinadi. 4210 «Mehnat haqi bo‘yicha berilgan bo‘naklar» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir berilgan bo‘nak bo‘yicha yuritiladi;

- 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyotida korxona ro‘yxatida bo‘lgan va ro‘yxatda turmagan xodimlarga mehnatga haq to‘lash (mehnat haqining hamma turlari, mukofotlar, yordam, ishlaydigan pensiya oluvchilarga hisoblangan pensiya va boshqa to‘lovlar) bo‘yicha qarzlar hisobga olinadi. 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob korxonaning har bir xodimi bo‘yicha alohida yuritiladi;

- 6720 «Deponentlangan ish haqi» schyotida xodimlarning olinmagan ish haqi bo‘yicha qarzlari aks ettiriladi. 6720 «Deponentlangan ish haqi» schyoti bo‘yicha analitik hisob korxonaning har bir xodimi bo‘yicha alohida yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 161-moddasiga muvofiq, mehnatga haq to‘lash muddatlari jamoa shartnomasi yoki boshqa lokal normativ hujjatda belgilanadi va har yarim oyda bir martadan kam bo‘lishi mumkin emas. Xodimlarning ayrim toifalari uchun alohida hollarda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan ish haqi to‘lashning boshqa muddatlari belgilab qo‘yilishi mumkin. Haq to‘lanadigan kun dam olish kuni yoki bayram kuniga to‘g‘ri kelib qolsa, mehnat haqi shu kun arafasida to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 19-martdagi 88-sonli «Ish haqi o‘z vaqtida to‘lanishiga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qaroriga muvofiq, mulkchilik shakllaridan qat’i nazar korxonalar va tashkilotlar rahbarlari xodimlarga ish haqi o‘z vaqtida va to‘liq to‘lanishi uchun shaxsan javob beradilar va har bir xodimni tegishli davrda unga to‘lanadigan ish haqining tarkibiy qismlari, ushlab qolingan pul miqdorlari va uning asoslari, shuningdek to‘lanadigan umumiy pul summasi to‘g‘risida majburiy tartibda yozma shaklda xabardor qiladilar.

Ish haqi bo‘yicha hisob-kitoblar ikki xil usulda amal oshirilishi mumkin:

- bo‘nakli;
- bo‘naksiz.

Birinchi usulda, hodimga avans berilib oyning ikkinchi yarmiga ish haqi to‘lanishda pirovard hisob qilinadi. Jamoa shartnomasini tuzishda avans miqdori ish beruvchi bilan kelishib olinadi. Avansning minimal miqdori tabelga binoan ishchining ishlagan vaqti bo‘yicha tarif stavkasidan kam bo‘lmasligi kerak.

Bo‘nak miqdori Jamoa shartnomasida belgilangan bo‘lishi lozim. Ishchilarga bo‘naklar oldindan kelishilgan miqdorlarda, ishchi lavozim maoshi (tarif stavkasi)ning 50 foizi yoki oldingi oy haqiqatdagi ish haqining 40 foizi ko‘rinishida to‘lanadigan variantlar, nisbatan ko‘p qo‘llaniladi.

Ishchilarga oyning birinchi yarmi (1-dan 15-kungacha) uchun bo‘nak odatda, joriy oyning 16-dan 20-kunigacha beriladi, oy davomidagi natijalari bo‘yicha ishchilar bilan to‘liq hisob-kitob esa, keyingi oyning boshida amalga oshiriladi.

Ikkinchi usulda, korxonada ishchilarga rejali bo‘nak to‘lashning o‘rniga, oyning birinchi yarmi bo‘yicha haqiqatda ishlab chiqilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar) yoki haqiqatda ishlab berilgan vaqt uchun ish haqi hisoblanadi.

Ish haqi bo‘yicha hisob-kitoblar bo‘nakli usulda amalga oshirilganda oyning birinchi yarmiga rejali avans hisoblanib, 4210 «Mehnat haqi bo‘yicha berilgan bo‘naklar» schyotining debeti va 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti (naqd pulda), 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti (naqd pulsiz) ning krediti bo‘yicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi. Haqiqatda ishlab chiqilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar) yoki haqiqatda ishlab berilgan vaqt uchun ish haqi hisoblanganda buxgalteriya hisobidan quyidagicha aks ettriladi:

debet kapital qo‘yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800) – asosiy vositalarni qurish, xarid qilish va boshqa kapital xususiyatga ega ishlar, nomoddiy aktivlar xarid qilish bilan band ishchi va xodimlarga ish haqi hisoblanganda;

debet 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyoti – korxonaning ta’minot-tayyorlov bo‘yicha tarkibiy bo‘limida band ishchi va xodimlarga ish haqi hisoblanganda;

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti – asosiy ishlab chiqarish sexida bevosita mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish) bilan band ishchi va xodimlarga ish haqi hisoblanganda;

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti – yordamchi ishlab chiqarish sexida bevosita mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish) bilan band ishchi va xodimlarga ish haqi hisoblanganda;

debet 2510 «Umumishlabchiqarish xarajatlari» schyoti – ishlab chiqarish sexida mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish) jarayonida bilvosita band ishchi va xodimlarga ish haqi hisoblanganda;

debet 2610 «Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar» schyoti – mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish) jarayonida yuzaga keladigan yaroqsiz mahsulotlarni yoki sifatsiz bajarilgan ishlarni to‘g‘rilab belgilangan me’yorlar darajasiga keltirish bilan band ishchi va xodimlarga ish haqi hisoblanganda;

debet 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyoti – korxonaning asosiy va yordamchi ishlab chiqarish jarayonlariga xizmat ko‘rsatuvchi sexlarida, ijtimoiy soha obyektlarida band ishchi va xodimlarga ish haqi hisoblanganda;

debet 9410 «Sotish xarajatlari» schyoti – korxonaning mahsulot (ish, xizmat) larni realizatsiya qilish bo‘yicha tarkibiy bo‘limida band ishchi va xodimlarga ish haqi hisoblanganda;

debet 9420 «Ma’muriy xarajatlar» schyoti va boshqa xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar – korxonaning boshqaruv apparatida band ishchi va xodimlarga ish haqi hisoblanganda;

debet boshqa xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar – yuqorida nazarda tutilmagan boshqa ishlarda band ishchi va xodimlarga ish haqi hisoblanganda;

kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti.

Ish haqi bo‘yicha hisob-kitoblar bo‘nakli usulda amalga oshirilganda oyning ikkinchi yarmida haqiqatda ishlab chiqilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar) yoki haqiqatda ishlab berilgan vaqt uchun ish haqi hisoblanganda yuqoridagi buxgalteriya yozuv bilan bir vaqtning o‘zida oldingi berilgan bo‘nak summasiga 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyotining debeti va 4210 «Mehnat haqi bo‘yicha berilgan bo‘naklar» schyotining krediti bo‘yicha buxgalteriya yozuvi ham amalga oshiriladi.

Ish haqini to‘lash uchun belgilangan uch kunlik muddat ichida ushlab qolinadigan summalar chegirilgandan qolgan summa to‘lanishi yoki bank plastik kartochkalariga o‘tkazib berilishi kerak. Ish haqini to‘lanishi yoki o‘tkazib berilishi 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyotining debeti va 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» (naqd pulda), 5020 «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari» (naqd Chetel valyutasida), 5110 «Hisob-kitob schyoti» (naqd pulsiz), 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» (naqd pulsiz), 5220 «CHeteldagi valyuta schyotlari» (naqd pulsiz) va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (naqd pulsiz) kreditda aks ettiriladi.

Har yilgi va qo‘shimcha ta’tillarga hisoblangan summalar hisobot oyining mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qilingan barcha xarajatlar tarkibiga faqatgina hisobot oyiga to‘g‘ri keladigan ta’til kunlari bo‘yicha summalar miqdorida kiritiladi. Ta’tilning bir qismi kelgusi oyga o‘tgan taqdirda, ushbu kunlar uchun to‘langan ta’til summasi hisobot oyida berilgan bo‘nak tariqasida

hisobga olinib, 4290 «Xodimlarga berilgan boshqa bo‘naklar» schyotining debetida va 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» (naqd pulda), 5020 «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari» (naqd Chetel valyutasida), 5110 «Hisob-kitob schyoti» (naqd pulsiz), 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» (naqd pulsiz), 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» (naqd pulsiz) va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (naqd pulsiz) kreditda aks ettiriladi. Kelgusi oyda ushbu summa mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qilingan barcha xarajatlar tarkibiga kiritilib, 4290 «Xodimlarga berilgan boshqa bo‘naklar» schyotining krediti va 6710 «Xodimlar bilan ish haqi bo‘yicha hisob-kitoblar» schyotining debetida aks ettiriladi.

Korxona kassasidan naqd pul berish tartibi va ularni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilishi «7-bob. Pul mablag‘lari va ekvivalentlari hisobi», «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» va «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Ish haqi to‘lash uchun belgilangan uch kunlik muddat ichida ishchi va xodimlar tomonidan olinmagan ish haqi va pensiya summasi deponentga o‘tkazilib, 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyotining debeti va 6720 «Deponentlangan ish haqi» schyotining kreditda aks ettiriladi. Deponentlangan ish haqi to‘lab berilganda 6720 «Deponentlangan ish haqi» schyotining debeti va 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» (naqd pulda), 5020 «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari» (naqd Chetel valyutasida), 5110 «Hisob-kitob schyoti» (naqd pulsiz), 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» (naqd pulsiz), 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» (naqd pulsiz) va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (naqd pulsiz) krediti bo‘yicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi.

3-§. Qo‘shimcha to‘lovlar, nafaqalar tayinlash va ularning hisobi

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga binoan ishlamagan vaqti uchun ham ishchi va xizmatchilarga haq to‘lanadi. Bunday to‘lovga quyidagilar kiradi:

- xodimning sog‘lig‘iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan bir yo‘la beriladigan nafaqa;
- vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari;
- ayollar uchun homiladorlik va tug‘ish nafaqalari;
- ishdan bo‘shatish nafaqasi;
- bola tug‘ilganda beriladigan nafaqalar;
- qo‘shimcha dam olish kuni uchun;
- davlat tomonidan beriladigan yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari;
- dafn etish marosimi uchun;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlar bilan ta’minlanadilar.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga binoan ishlamagan vaqti uchun ham ishchi va xizmatchilarga to‘lanadiga to‘lovlarni hisoblash o‘rtacha ish haqiga asoslanadi. O‘rtacha ish haqini hisoblash va qo‘llash tegishli normativ hujjatlar bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 133-sonli «O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida» gi qarori bilan tasdiqlangan «O‘rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish Tartibi» ga muvofiq, korxonalarda o‘rtacha ish haqini hisoblashning quyidagi tartibi belgilangan:

- ta’tillar vaqtiga haq to‘lash, ishdan bo‘shatish nafaqasini, ishsizlik nafaqasini to‘lash,

shuningdek oliy ta'lim tizimida o'qish, qayta tayyorlash va malaka oshirish davri uchun o'rtacha oylik ish haqi birinchi yil ishlovchilarga hisoblab chiqarib kunidagi tarifikatsiya bo'yicha belgilangan ish haqi yoki lavozim maoshidan kelib chiqqan holda ularni o'n ikkidan birga (olti oy to'liq ishlaganlarga oltidan birga; yetti oy to'liq ishlaganlarga yettidan birga va h.k.lar), o'rta maxsus va hunar-texnika o'quv yurtlari o'qituvchilari uchun hisoblash davrida tarifikatsiya bo'yicha belgilangan ish haqi yoki lavozim maoshidan oshgan summani o'ndan birga oshirgan holda hisoblab chiqariladi. Ularga ishbay asosida ishlab topilgan qo'shimcha ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ish haqiga qo'shimcha haqlar va boshqa to'lovlar kiradi;

- xodimlarning salomatligiga mehnatda mayib bo'lishi, kasb kasalligiga chalinishi yoki mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi ish beruvchi tomonidan qoplanishi uchun summalar hisob-kitobi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi;

- vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish varaqalari bo'yicha to'lovlar (nafaqalar hisoblash) hisob-kitobi «Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom» *(O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2002-yil 8-mayda 1136-son bilan ro'yxatga olingan)* ga muvofiq amalga oshiriladi;

- boshqa barcha hollarda (yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan tashqari) o'rtacha oylik ish haqi keyingi ikki kalendar oyidagi o'rtacha oylik ish haqidan kelib chiqib belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida nazarda tutilgan quyidagi nafaqalar ishchi va xizmatchilarga korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan to'lanadi:

- xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan bir yo'la beriladigan nafaqa;
- vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari;
- ayollar uchun homiladorlik va tug'ish nafaqalari;
- ishdan bo'shatish nafaqasi.

Xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan bir yo'la beriladigan nafaqa

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 190-moddasiga muvofiq, xodimning sog'lig'iga shikast yetganligi munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan zarar jabrlanuvchining mehnatda mayib bo'lishiga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobida, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lovdan, sog'lig'iga shikast yetishi bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarning kompensatsiyasidan, shuningdek belgilangan hollarda esa, - bir yo'la beriladigan nafaqa to'lashdan iboratdir.

«Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom» ning 1.5.8.-bandiga muvofiq, ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to'lanadigan nafaqalarni to'lash bilan bog'liq xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlari sifatida mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxiga kiritiladi.

«Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom» ning 2.3.9.4.-bandiga muvofiq, xodimlarga to'lanadigan moddiy yordam bilan bog'liq xarajatlar davr xarajatlari sifatida boshqa operatsion xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

21-son BHMS ga muvofiq, xodimning sog'lig'iga shikast yetganligi munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan zarar to'lash buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettriladi:

- xodimning sog'lig'iga shikast yetganligi munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan nafaqalar summasiga:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti – asosiy ishlab chiqarish sexida bevosita mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish) bilan band ishchi va xodimlarga;

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti – yordamchi ishlab chiqarish sexida bevosita mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish) bilan band ishchi va xodimlarga;

debet 2510 «Umumishlabchiqarish xarajatlari» schyoti – ishlab chiqarish sexida mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish) jarayonida bilvosita band ishchi va xodimlarga;

debet 2610 «Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar» schyoti – mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish) jarayonida yuzaga keladigan yaroqsiz mahsulotlarni yoki sifatsiz bajarilgan ishlarni to‘g‘rilab belgilangan me’yorlar darajasiga keltirish bilan band ishchi va xodimlarga;

debet 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyoti – korxonaning asosiy va yordamchi ishlab chiqarish jarayonlariga xizmat ko‘rsatuvchi sexlarida, ijtimoiy soha obyektlarida band ishchi va xodimlarga;

kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti;

- xodimning mehnatda mayib bo‘lishi yoki uning sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetkazilishi yoxud xodim oila a’zosining vafoti munosabati bilan beriladigan yoki xodimning vafoti munosabati bilan oila a’zolariga beriladigan moddiy yordam summasiga:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti;

kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug‘ish nafaqalari

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 285-moddasiga muvofiq, xodimlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasini quyidagi hollarda to‘lashni nazarda tutadi:

- vaqtincha mehnat qobiliyatini yo‘qotish bilan bog‘liq kasallikda (shikastlanishda);
- sanatoriy-kurortlarda davolanganda;
- kasallangan oila a’zosini parvarishlash zarur bo‘lganda;
- karantin e’lon qilinganda;
- sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o‘tkazilganda;
- mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a’zo (protez) qo‘ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotqizilganda.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 233-moddasiga muvofiq, ayollarga tuqqunga qadar yetmish kalendar kun va tuqqanidan keyin ellik olti kalendar kun (tug‘ish qiyin kechgan yoki ikki va undan ortiq bola tug‘ilgan hollarda - yetmish kalendar kun) muddati bilan homiladorlik va tug‘ish ta’tillari berilib, davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqa to‘lanadi. Homiladorlik va tug‘ish ta’tili jamlangan holda hisoblab chiqilib, tug‘ishga qadar amalda bunday ta’tilning necha kunidan foydalanilganidan qat’i nazar ayolga to‘liq beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi PQ-532-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2007-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida» gi qarorining 4-bandiga muvofiq, 2007-yil 1-yanvardan boshlab vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlarga nafaqa to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar:

- byudjet tashkilotlari tomonidan - mehnat haqi jamg‘armasiga ajratiladigan byudjet mablag‘lari doirasida;
- xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan - o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-dekabrdagi PQ-1245-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida» gi qarorining 24-bandiga muvofiq, 2010-yil

1-yanvardan boshlab ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqalar to‘lash ish beruvchilar hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 234-moddasiga muvofiq, homiladorlik va tug‘ish ta’tili tugaganidan keyin ayolning xohishiga ko‘ra, unga bolasi ikki yoshga to‘lgunga qadar bolani parvarishlash uchun ta’til berilib, bu davrda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nafaqa to‘lanadi.

Ayolga, uning xohishiga ko‘ra, bolasi uch yoshga to‘lgunga qadar bolani parvarishlash uchun ish haqi saqlanmaydigan qo‘shimcha ta’til ham beriladi. Bolani parvarishlash uchun beriladigan ta’tillardan bolaning otasi, buvisi, buvasi yoki bolani amalda parvarishlayotgan boshqa qarindoshlari ham to‘liq yoki uni qismlarga bo‘lib foydalanishlari mumkin. Yuqorida ko‘rsatilgan shaxslar o‘z xohishlariga ko‘ra, bolani parvarishlash ta’tili davrida to‘liq bo‘lmagan ish vaqti rejimida yoki ish beruvchi bilan kelishib, uyda ishlashlari mumkin. Bunda ularning nafaqa olish huquqlari saqlanib qoladi.

Bolani parvarishlash ta’tillari davrida ayolning ish joyi (lavozimi) saqlanadi. Bu ta’tillar mehnat stajiga lekin hammasini jamlaganda ko‘pi bilan uch yil, shu jumladan mutaxassisligi bo‘yicha ish stajiga ham qo‘shiladi. Bolani parvarishlash ta’tillarining vaqti, basharti jamoa shartnomasida, korxonaning boshqa lokal hujjatida yoxud mehnat shartnomasida o‘zgacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, keyingi haq to‘lanadigan yillik ta’til olish huquqini beradigan ish stajiga qo‘shilmaydi.

Korxonalarda ishlayotgan onalar (ona o‘rnini bosuvchi shaxslar) uchun bola ikki yoshga to‘lgunga qadar uni parvarish qilish bo‘yicha onalarga beriladigan oylik nafaqalar ushbu korxonalarning (tashkilotlarning) o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ning 1.5.13-bandiga muvofiq, ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan xodimlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq tayinlangan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug‘ish nafaqalari to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlari sifatida mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxiga kiritiladi.

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ning 2.3.21- bandiga muvofiq, boshqaruv xodimlariga va ishlab chiqarish jarayonida qatnashmaydigan boshqa xodimlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq tayinlangan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug‘ish nafaqalari bilan bog‘liq xarajatlar davr xarajatlari sifatida boshqa operatsion xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom»ning 2.3.8.4-bandiga muvofiq, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalariga ish haqining haqiqiy miqdorigacha qo‘shimcha haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar davr xarajatlari sifatida boshqa operatsion xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ning 2.3.9.1 - bandiga muvofiq, qonunchilikka muvofiq bolani ikki yoshga to‘lgungacha parvarish qilish bo‘yicha har oylik nafaqani to‘lash bo‘yicha xarajatlar davr xarajatlari sifatida boshqa operatsion xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

21-son BHMS ga muvofiq, xodimlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq tayinlangan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug‘ish nafaqalarini tayinlash buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettriladi:

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq tayinlangan nafaqalar summasiga:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti – asosiy ishlab chiqarish sexida bevosita mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish) bilan band ishchi va xodimlarga;

debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti – yordamchi ishlab chiqarish sexida bevosita mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish) bilan band ishchi va xodimlarga;

debet 2510 «Umumishlabchiqarish xarajatlari» schyoti – ishlab chiqarish sexida mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish) jarayonida bilvosita band ishchi va xodimlarga;

debet 2610 «Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar» schyoti – mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish) jarayonida yuzaga keladigan yaroqsiz mahsulotlarni yoki sifatsiz bajarilgan ishlarni to‘g‘rilab belgilangan me’yorlar darajasiga keltirish bilan band ishchi va xodimlarga;

debet 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyoti – korxonaning asosiy va yordamchi ishlab chiqarish jarayonlariga xizmat ko‘rsatuvchi sexlarida, ijtimoiy soha obyektlarida band ishchi va xodimlarga;

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti – boshqa xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar – boshqaruv xodimlariga va ishlab chiqarish jarayonida qatnashmaydigan boshqa xodimlarga;

kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti;

- vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalariga ish haqining haqiqiy miqdorigacha qo‘shimcha haq va qonunchilikka muvofiq bolani ikki yoshga to‘lgungacha parvarish qilish bo‘yicha har oylik nafaqa to‘lash bo‘yicha xarajatlar summasiga:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti;

kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti.

Ishdan bo‘shatish nafaqasi

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 109-moddasiga muvofiq, mehnat shartnomasi bekor qilingan quyidagi hollarda ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘lanadi:

- ish beruvchining tashabbusi bilan, xodim o‘zining mehnat vazifalarini bajarmaganligi sababli shartnomaning bekor qilinishi bundan mustasno;

- taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan holatlarga binoan, ya’ni xodim harbiy yoki muqobil xizmatga chaqirilgan taqdirda va shu ishni ilgari bajarib kelgan xodim ishga tiklangan taqdirda. Mehnat shartnomasi ishga qabul qilish yuzasidan belgilangan qoidalar buzilganligi munosabati bilan, agar yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarlikni bartaraf etishning imkoni bo‘lmasa va u ishni davom ettirishga to‘sqinlik qilsa sababga binoan bekor qilinganda ishdan bo‘shatish nafaqasi to‘lanadi, ishga qabul qilish yuzasidan belgilangan qoidalar xodimning aybi bilan buzilgan hollar (sudning muayyan lavozimni egallash yoki muayyan faoliyat turi bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum etish haqidagi hukmini yashirish, soxta hujjatlar taqdim etish va h.k.) bundan mustasno;

- xodim yangi mehnat shartlari asosida ishni davom ettirishni rad etganligi sababli.

Ishdan bo‘shatish nafaqasining miqdori o‘rtacha oylik ish haqidan kam bo‘lishi mumkin emas.

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ning 2.3.9.3-bandiga muvofiq, amaldagi qonunchilikka muvofiq korxonalardan ularning qayta tashkil etilishi, xodimlar va shtatlar sonining qisqarishi munosabati bilan bo‘shab qoladigan xodimlarga to‘lovlar bo‘yicha xarajatlar davr xarajatlari sifatida boshqa operatsion xarajatlar tarkibiga kiritiladi.

21-son BHMS ga muvofiq, ishdan bo‘shatish nafaqasi tayinlanganda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuv amalga oshiriladi:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti;

kredit 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida nazarda tutilgan quyidagi nafaqalar ishchi va xizmatchilarga byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan to‘lanadi:

- davlat tomonidan beriladigan yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari;

- bola tug‘ilganda beriladigan nafaqalar;

- qo‘shimcha dam olish kuni uchun;
- dafn etish marosimi uchun.

Davlat tomonidan beriladigan yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalarini tayinlash va to‘lash O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiyasi ta’minoti to‘g‘risida» gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentyabrdagi 252-son qarori bilan tasdiqlangan «Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom» va pensiya ta’minotiga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiyasi ta’minoti to‘g‘risida» gi Qonunining 52-moddasiga muvofiq ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalarni ular istiqomat qilib turgan joydagi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari to‘laydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentyabrdagi 252-son qarori bilan tasdiqlangan «Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom» ning 157-bandiga muvofiq, ishlamaydigan pensionerlarga pensiya yashash joyi bo‘yicha Pensiya jamg‘armasi bo‘limlari tomonidan pensiyani yetkazib berish (topshirish) yuklatilgan tashkilot yoki pensionerning xohishiga ko‘ra pul mablag‘larini fuqarolarning depozit hisob raqamlariga naqd pulsiz o‘tkazish yo‘li bilan tijorat bankining filiali orqali to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiyasi ta’minoti to‘g‘risida» gi Qonunining 53-moddasiga muvofiq ishlab turgan pensionerlarga pensiyalar ularning ish joyida, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘lanadi.

Ishlab turgan pensionerga pensiya to‘lash, ish vaqtining qancha davom etishidan, korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklidan, shuningdek shartnoma (bitim)ning xususiyatidan (turidan) qat’i nazar, qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda ish joyi bo‘yicha to‘lanadi.

Korxona rahbari pensiyani tayinlagan byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tegishli bo‘limiga pensioner ishga qabul qilinganligi to‘g‘risida (fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzilganligi to‘g‘risida) besh kun muddatda xabar qilishi, shuningdek ishga qabul qilinganlik to‘g‘risidagi buyruqdan ko‘chirmani (fuqarolik-huquqiy shartnoma nusxasini) taqdim etishi kerak.

Pensioner olishi lozim bo‘lgan va uning vafoti munosabati bilan olinmay qolgan pensiya puli meros tarkibiga kiritilmasdan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi bilan ta’minlanadigan shaxslar doirasiga kiruvchi oila a’zolariga to‘lanadi. Ota-onasi, eri (xotini), shuningdek pensioner bilan u vafot etgan kunigacha birgalikda yashab turgan oila a’zolari bu pulni, ular boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi bilan ta’minlanadiganlar doirasiga kirmaganlari taqdirida ham olish huquqiga ega bo‘ladilar.

Pensioner vafot etgan oy uchun olinmay qolgan pensiya puli ko‘rsatib o‘tilgan oila a’zolariga oyning u vafot topgunga qadar o‘tgan kunlari uchun to‘lanadi. Oilaning bir necha a’zosi murojaat etgan taqdirda pensiyaning ularga tegishli summasi ularning o‘rtasida teng taqsimlanadi.

Pensioner vafot etgan taqdirda uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o‘tkazgan shaxsga eng kam oylik ish haqining to‘rt barobari miqdorida dafn etish nafaqasi to‘lanadi. Ko‘rsatib o‘tilgan pullar, ularni olish uchun pensioner vafot etganidan keyin 60 (oltmish) kun ichida murojaat etilgan taqdirda to‘lanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida»gi Qonunining 9-moddasiga muvofiq korxona, muassasa, tashkilotning xodimi yoki xodimning qaramog‘ida bo‘lgan oila a’zosi vafot etgan taqdirda dafn etish uchun nafaqani to‘lash mazkur xarajatlarning o‘rni keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya

jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplangan holda korxona, muassasa yoki tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

Dafn etish uchun nafaqani tayinlash va to‘lash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 14-iyundagi 174-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Dafn etishga nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom» ga muvofiq amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 230-moddasiga muvofiq nogiron bolasini tarbiyalayotgan ota-onaning biriga (vasiyga, homiyga) bola o‘n olti yoshga to‘lgunga qadar davlat ijtimoiy sug‘urtasi mablag‘lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to‘lagan holda oyiga qo‘shimcha bir dam olish kuni beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksining 287-moddasiga muvofiq bola tug‘ilganda bir yo‘la beriladigan nafaqa to‘lanadi. Har bir tug‘ilgan bola uchun beriladigan nafaqaning miqdori va uni to‘lash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilab qo‘yiladi.

Bola tug‘ilganda va qo‘shimcha dam olish kuni uchun nafaqalarni tayinlash va to‘lash «Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom» ga va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Pensiya va nafaqalarni to‘lovi uchun olingan mablag‘lar qat’iy nazoratda bo‘lishi va faqatgina talabnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun foydalanilishi shart. Hisob-kitoblarda kerakli summalarni qasddan buzib ko‘rsatishga va ulardan maqsadga nomuvofiq foydalanishga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda to‘lov intizomiga rioya etilishi yuzasidan shaxsan javob beradilar.

Korxonalar o‘z mablag‘lari mavjud bo‘lgan hollarda, keyinchalik to‘langan summalarni byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash evaziga pensiyalar va nafaqalarni ish haqini to‘lash kunida o‘z mablag‘lari hisobidan to‘lashni amalga oshirish huquqiga egalar. Korxonalar tomonidan to‘langan summalarning qoplanishi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan olingan mablag‘lar 888 shartli schyot raqamiga ega ikkilamchi schyotidan xarajatlar ularning to‘lab berilgan asosiy schyotiga pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to‘lash bo‘yicha imtiyozlar o‘rniga alohida toifadagi fuqarolarga beriladigan oylik kompensatsiya pul to‘lovlarini va bir martalik bola tug‘ilishi munosabati bilan beriladigan nafaqalarni to‘lash O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda Pensiya jamg‘armasi orqali amalga oshiriladi.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan nafaqalar hisoblanganda 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyotining krediti va 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schyotining debeti bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi. Mazkur mablag‘lar byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan o‘tkazib (qoplab) berilganda 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schyotining krediti va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti yoki boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debeti bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

Nafaqalar belgilangan muddat ichida (amalda ish haqiga uch kun) ushlab qolinadigan summalar chegirilgandan qolgan summa to‘lanishi yoki bank plastik kartochkalariga o‘tkazib berilishi kerak. Qo‘shimcha to‘lovlar va nafaqalar to‘lanishi yoki o‘tkazib berilishi 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyotining debeti va 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» (naqd pulda), 5020 «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari» (naqd chetel valyutasida), 5110 «Hisob-kitob schyoti» (naqd pulsiz), 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta

schyotlari» (naqd pulsiz), 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» (naqd pulsiz) va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (naqd pulsiz) kreditda aks ettiriladi.

Korxona kassasidan naqd pul berish tartibi va ularni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilishi «7-bob. Pul mablag‘lari va ekvivalentlari hisobi», «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» va «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Ishchi va xodimlar tomonidan belgilangan muddat ichida olinmagan nafaqalar summasi deponentga o‘tkazilib, 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyotining debeti va 6720 «Deponentlangan ish haqi» schyotining kreditda aks ettiriladi. Deponentlangan qo‘shimcha to‘lovlar va nafaqalar to‘lab berilganda 6720 «Deponentlangan ish haqi» schyotining debeti va 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» (naqd pulda), 5020 «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari» (naqd chetel valyutasida), 5110 «Hisob-kitob schyoti» (naqd pulsiz), 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» (naqd pulsiz), 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» (naqd pulsiz) va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (naqd pulsiz) krediti bo‘yicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi.

4-§. Ish haqidan ushlab qolinadigan to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar hisobi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan korxonalarda ishchi va xodimlarga hisoblangan mehnat haqi bo‘yicha soliqlar amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 164-moddasiga muvofiq umumiy qoidaga ko‘ra, xodimning yozma roziligi bilan, bunday rozilik bo‘lmagan taqdirda esa, - sudning qaroriga asosan mehnat haqidan ushlab qolinishi mumkin. Quyidagi hollarda xodimning roziligidan qat’i nazar, mehnat haqidan ushlab qolinadi:

- O‘zbekiston Respublikasida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni undirish uchun;

- sudning qarorlari va boshqa ijro hujjatlarini ijro etish uchun;

- ish haqi hisobidan berilgan bo‘nakni ushlab qolish uchun, xo‘jalik ehtiyojlariga, xizmat safarlariga yoki boshqa joydagi ishga o‘tganligi munosabati bilan berilgan bo‘lib, sarf qilinmay qolgan va o‘z vaqtida qaytarilmagan bo‘nakni ushlab qolish uchun hamda hisob-kitobdagi xatolar natijasida ortiqcha to‘langan summani qaytarib olish uchun. Bunday hollarda ish beruvchi bo‘nakni qaytarish yoki qarzni to‘lash uchun belgilangan muddat tamom bo‘lgan kundan yohud haq to‘lash noto‘g‘ri hisoblab chiqarilgan kundan boshlab bir oydan kechiktirilmasdan bo‘nak yoki qarzni ushlab qolish haqida farmoyish berishga haqlidir. Agar bu muddat o‘tib ketgan bo‘lsa yoki xo‘jalik ehtiyojlariga, xizmat safarlariga yoxud boshqa joydagi ishga o‘tganligi munosabati bilan berilgan bo‘nakning ushlab qolinishini asossiz yoki miqdorini noto‘g‘ri deb hisoblasa, u holda qarz sud tartibida undiriladi;

- o‘z hisobidan xodim ta’til olib bo‘lgan, ish yili tugamasdan turib mehnat shartnomasi bekor qilinganda ta’tilning ishlanmagan davriga tegishli kunlari uchun. Ana shu kunlar uchun haq xodimning o‘qishga kirganligi yoki pensiyaga chiqqanligi munosabati bilan bekor qilinganda ushlab qolinmaydi;

- xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararni qoplash uchun, agar yetkazilgan zararning miqdori xodimning o‘rtacha oylik ish haqidan ortiq bo‘lmasa;

- mehnat intizomini buzganligi uchun o‘rtacha oylik ish haqining 20 % idan oshmagan miqdorda jarima.

Ish haqini to‘lash vaqtida ushlab qolinadigan ushlanmalarning umumiy miqdori xodimga tegishli bo‘lgan mehnat haqining ellik foizidan ortib ketmasligi kerak.

Jismoniy shaxslarning daromadiga to‘lov manbaida soliq solish va daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiya asosida soliq solish masalalari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq ***to‘lov manbai*** bo‘lib soliq to‘lovchiga to‘lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni to‘lov manbaida hisoblab chiqarish, ushlab qolish va to‘lash majburiyati yuridik shaxslar, faoliyatni O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari hamda chetel yuridik shaxslarining vakolatxonalari zimmasiga yuklatiladi.

Jismoniy shaxslarning asosiy bo‘lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining yakuniy summasi jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma’lumotlari bo‘yicha davlat soliq xizmati organi tomonidan hisoblab chiqariladi.

Agar yuridik shaxsning bank schyotida ish haqini to‘lash va bir vaqtning o‘zida xodimlarning ish haqidan ushlab qolingan soliqlarni byudjetga o‘tkazish uchun mablag‘lar yetarli bo‘lmasa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bank schyotidagi qoldiq mablag‘larga mutanosib summada byudjetga o‘tkaziladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘ycha soliq davri bo‘lib kalendar yil hisoblanadi. Yil choragi daromad to‘lash manbaidan jismoniy shaxslarning daromad soliqlarini ushlab qoluvchilar uchun hisobot davridir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining hisoblangan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya schyotlariga o‘tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

Korxonalar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya schyotlariga majburiy badallarni hisoblash va to‘lash tartibi «Ish beruvchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya schyotlariga majburiy badallarni qo‘shish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005-yil 6-oktyabrda 1515-son bilan ro‘yxatga olingan)* bilan belgilanadi.

Mehnat faoliyatini mehnat shartnomalari bo‘yicha amalga oshirayotgan fuqarolar (ular jumlasiga ishlovchi nafaqaxo‘rlar, o‘rindoshlar ham kiradi), shuningdek fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo‘yicha ishlarni bajaradigan fuqarolar, agar ushbu xodimlardan qonunga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i ushlansa, jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini oluvchilar sifatida jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining majburiy ishtirokchilari hisoblanadilar.

Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya schyotlariga majburiy badallari xodimning hisoblangan ish haqi (daromadi) soliq solinadigan summasining 0.02 foizi miqdorida hisoblanadi, ushbu summa jismoniy shaxslarning daromadiga qonunga muvofiq hisoblangan soliq summasidan tegishincha chegiriladi.

Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya schyotlariga majburiy badallari byudjetga to‘lanadigan soliqlar va majburiy to‘lovlarga tenglashtiriladi. Korxonalar fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya schyotlariga majburiy badallarni byudjetga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash bilan birgalikda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘lash uchun belgilangan shakl va muddatlarda ajratadilar. Bunda majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini o‘tkazish to‘lov topshiriqnomasi vositasida amalga oshiriladi,

unda omonatchining rekvizitlari, o‘tkazish maqsadi, o‘tkazilayotgan jamg‘arib boriladigan pensiya badallarining summasi, ish beruvchi joylashgan yerdagi Xalq banki filialiga yuborilgan reestrning raqami va sanasi ko‘rsatiladi. Belgilangan tartibda naturada to‘laydigan yoki mahsulot sotilishi, ishlar bajarilishi yoki xizmatlar ko‘rsatilishidan olingan tushumdan to‘lovni amalga oshiradigan korxonalar to‘lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun mobaynida badallar summasini o‘tkazishi kerak.

Korxona har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kuniga qadar o‘zi joylashgan joydagi Xalq banki filialiga jamg‘arib boriladigan pensiya badallari o‘tkazilganligi to‘g‘risida to‘lov hujjatining ko‘chirma nusxasini, belgilangan tartibda fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya schyotlari raqamlari, har bir xodimning familiyasi, hisoblangan ish haqi va jamg‘arib boriladigan pensiya badallari summasi ko‘rsatilgan holda xodimlar reestrini taqdim etadi.

Xodimlarga hisoblangan ish haqi va boshqa daromadlari bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i hisoblanib, xodimlarning ish haqi va boshqa daromadlardan ushlab qolinganda 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyotining debeti va 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyotining krediti bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

Xodimlarning ish haqi va boshqa daromadlaridan ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasi byudjetga o‘tkazib berilishi 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyotining debetida va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyotning kreditida aks ettiriladi.

«Ish beruvchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya schyotlariga majburiy badallarni qo‘shish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq, korxonalar tomonidan 21-son BHMS ning sug‘urta va maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzni hisobga oluvchi schyotlar (6500) da qo‘shimcha ravishda xodimlarga hisoblangan ish haqi va boshqa daromadlari bo‘yicha hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasidan ajratiladigan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya schyotlariga majburiy badallari summasi hisobga olish uchun mo‘ljallanadigan ***6530 «SHaxsiy jamg‘arib boriladigan schyotlarga to‘lovlar» schyoti*** ochiladi.

Hisoblangan va ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i summasidan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya schyotlariga majburiy badallari summasini ajratilishi, 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyotining debeti va 6530 «SHaxsiy jamg‘arib boriladigan schyotlarga to‘lovlar» schyotining kreditida aks ettirilada.

Xodimlarning ish haqi va boshqa daromadlaridan ushlab qolingan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya schyotlariga majburiy badallari summasi Xalq bankiga o‘tkazib berilishi 6530 «SHaxsiy jamg‘arib boriladigan schyotlarga to‘lovlar» schyotining debetida va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyotning kreditida aks ettiriladi.

Xodimlarga hisoblangan ish haqi va boshqa daromadlaridan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya schyotlariga ixtiyoriy badallari ushlab qolinishi 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyotining debeti va 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyotining kreditida aks ettiriladi.

Xodimlarning ish haqi va boshqa daromadlaridan ushlab qolingan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya schyotlariga ixtiyoriy badallari summasi Xalq bankiga o‘tkazib berilishi 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyotining debetida va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyotning kreditida aks ettiriladi.

Ijro varaqalari aliment summalarini ushlash va o‘tkazib berish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Olingan ijro varaqalarini buxgalteriyada maxsus jurnal yoki kartochkada ro‘yxatga oladi. Xodimlarning arizasiga muvofiq alimentlar quyidagi hollarda ushlanadi: agar ushlanmalarning umumiy summasi 50 % dan oshsa, shuningdek agar sud qarori bilan boshqa onadan bo‘lgan bolalar foydasiga, mehnatga layoqatsiz ota-onalar foydasiga, xotini (xotinlari) foydasiga.

Ijro varaqalari bo‘yicha kiritiladigan hisob-kitoblar hisobi 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyotida alohida ajratilgan 6991 «Ijro hujjatlari bo‘yicha tashkilot va shaxslar bilan hisob-kitoblar» schyotida yuritiladi.

Aliment hisobot oyi bo‘yicha hisoblangan ish haqi, vaqtinchalik ish qobiliyatini yo‘qotgan davrida hisoblangan nafaqa summasidan soliqlar ushlangandan keyin, shuningdek, hisoblangan pensiya va stipendiya summasidan ushlanadi. Alimentlar ushlab qolinganda 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyotining debeti va 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyotida alohida ajratilgan 6991 «Ijro hujjatlari bo‘yicha tashkilot va shaxslar bilan hisob-kitoblar» schyotining krediti bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

Ish haqi, pensiya va stipendiyalar to‘lash uchun belgilangan uch kunlik muddat ichida aliment summalari to‘lanishi yoki aliment oluvchilarga o‘tkazib berilishi kerak. Ushlab qolingan alimentlar to‘lanishi yoki yoki aliment oluvchilarga o‘tkazib berilishi 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyotida alohida ajratilgan 6991 «Ijro hujjatlari bo‘yicha tashkilot va shaxslar bilan hisob-kitoblar» schyotining debeti va 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» (naqd pulda), 5020 «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari» (naqd chetel valyutasida), 5110 «Hisob-kitob schyoti» (naqd pulsiz), 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» (naqd pulsiz), 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» (naqd pulsiz) va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (naqd pulsiz) kreditda aks ettiriladi.

Moddiy yordam, ixtirochilik, ratsionalizatorlik takliflari uchun berilgan rag‘batlantirish va shu kabi summalaridan aliment summasi ushlanmaydi. Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha ariza-majburiyatlarning hamma summasini korxona bank krediti hisobidan savdo tashkilotlariga o‘tkazib berganda kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha ushlanma operatsiyalar sodir bo‘ladi.

Xodimga berilgan bo‘naklarni, kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimning bank kreditlarini qoplash uchun qarzini, berilgan qarzlar bo‘yicha xodimning qarzlarini ish haqi hisobidan ushlab qolish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish, shuningdek ular bilan bog‘liq operatsiyalarni soliqqa tortish tartibi «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi»» da ko‘rib chiqilgan.

Korxona aktivlari va majburiyatlarini inventarizatsiyasi natijasida aniqlangan kamomad va yo‘qotishlar bo‘yicha moddiy zararlarni qoplash bo‘yicha xodimlarning qarzini ish haqi va boshqa daromadlardan undirish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «1-bob. Asosiy vositalar hisobi» va «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar»» da ko‘rib chiqilgan.

Shunday qilib, mehnatga haq to‘lash hisobini to‘g‘ri tashkil qilish, bugungi kunda tashki iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi subyektlarda faoliyat ko‘rsatayotgan ishchi va xizmatchilarning moddiy ahvolini yaxshilash hamda ularning mehnat qobiliyatini tiklash uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishdan iboratdir.

ILOVALAR

1-ilova

Mehnatga haq to‘lashning yagona tarif SETKASI

Mehnatga haq to‘lash razryadlari	Tarif koeffitsientlari
1	1,000
2	1,053
3	1,106
4	1,158
5	1,269
6	1,384
7	1,505
8	1,630
9	1,755
10	1,883
11	2,014
12	2,148
13	2,284
14	2,421
15	2,561
16	2,704
17	2,847
18	2,993
19	3,141
20	3,292
21	3,444
22	3,597

Izoh. Tarif stavkasi miqdorini (lavozim maoshini) belgilash uchun tarif koeffitsienti mehnatga haq to‘lashning qonun hujjatlarida belgilangan eng kam miqdoriga ko‘paytiriladi.

2-ilova

Ish haqi hisoblash tartibi



3-ilova

Xodimni ishga qabul qilish haqida
BUYRUQ (farmoyish)

Hujjat raqami	sana

tashkilot nomi

sana	
	dan
	gacha

Ishga qabul qilindi

Tabel raqami

familiyasi, ismi, sharifi

tarkibiy bo‘linmaning nomi

kasbi (lavozimi), razryadi, (kategoriya) malakasi nomi

ishga qabul qilish shartlari, ishning tasnifi

so‘m maosh bilan

so‘m qo‘shimcha

oy sinov muddati bilan

Asos:

Mehnat shartnomasi (kontrakt) "___"_____ 20___ -y. № _____

Tashkilot rahbari _____ _____ _____

lavozimi imzo F.I.SH.

buyruq (farmoyish) bilan tanishdi _____ "___"_____ 20____ -y.

xodimning imzosi

4-ilova

Hujjat raqami	sana

tashkilot nomi

Boshqa ishga o‘tkazish to‘g‘risida
BUYRUQ (farmoyish)

sana	
	dan
	gacha

Boshqa ishga o‘tkazilsin

Tabel raqami

F.I.SH.

o‘tkazish turi (doyimiy, vaqtincha)

oldingi ish joyi

tarkibiy bo‘linma nomi

kasbi (lavozimi), razryadi, toifasi, ixtisosligi nomi

o‘tkazish sababi

yangi ish joyi

tarkibiy bo‘linma nomi

kasbi (lavozimi), razryadi, toifasi, ixtisosligi nomi

maosh (tarif stavkasi) _____ so‘m

qo‘shimcha _____ so‘m

Asos:

"___" _____ 20___ -yil _____-son mehnat shartnoma (kontrakt) ga o‘zgartirish

Tashkilot rahbari _____ _____ _____

lavozimi imzo F.I.SH.

Buyruq (farmoyish) bilan tanishdi _____

xodimning imzosi

"___" _____ 20____ -y.

5-ilova

_____
tashkilot nomi

Xodimga ta'til berish to'g'risida
BUYRUQ
(farmoyish)

Hujjat raqami	sana

Tabel raqami

_____
F.I.SH.

_____
malaka (lavozim) nomi

_____
tarkibiy bo'linma nomi

_____ **berilsin**
ta'til turi (yillik to'lov asosida, o'quv, ish haqi saqlanmagan holda va boshq.)

"____" _____ 20___ -yildan "____" _____ 20___ -yilgacha ish davri uchun

kalendar _____ kun
ish

"____" _____ 20____ -yildan "____" _____ 20___ -gacha

Tashkilot rahbari _____ _____ _____
lavozimi imzo F.I.SH.

Buyruq (farmoyish) bilan tanishdi _____ "____" _____ 20___ -y.
xodimning imzosi

6-ilova

_____
tashkilot nomi

Mehnat shartnomasi (kontrakt)

raqami	
sana	

Xodim bilan mehnat shartnoma (kontrakt)ni to'xtatish to'g'risida
BUYRUQ (farmoyish)

Hujjat raqami	sana

"___" _____ 20___ -yildan bo'shatilsin

_____
F.I.SH.

Tabel raqami

_____
tarkibiy bo'linma nomi

_____
kasbi (lavozimi), razryadi, toifasi, ixtisosligi nomi

_____
bo'shash sababi

Asos: _____
Bo'shashga roziligi haqida
kasaba uyushmasining qarori

"____" _____ 20___ -yil №_____

Tashkilot rahbari _____ _____ _____
lavozimi imzo F.I.SH.

Buyruq (farmoyish) bilan tanishdim _____ "____" _____ 20___ -y.
xodimning imzosi

7-ilova

TASDIQLAYMAN

_____

tashkilot nomi

Buyruq № ____ 20 -y.

SHTAT JADVALI

Hujjat raqami	sana

" _____ " _____ 20 _____ -y

Oylik shtat miqdori _____birlik

ish haqi fondi _____ so‘m.

Tarkibiy bo‘linma		Kasbi (lavozimi)	SHtat birligi miqdori	Maosh (tarif stavkasi), so‘m	Qo‘shimcha, so‘m			Ish haqi oylik fondi so‘m	Izoh
nomi	kod								
1	2								
Varaq bo‘yicha jami									
Hujjat bo‘yicha jami									

Tarkibiy bo‘linma rahbari _____ lavozimi _____ imzo _____ F.I.SH.

_____ lavozimi _____ imzo _____ F.I.SH.

_____ lavozimi _____ imzo _____ F.I.SH.

Bosh buxgalter _____ imzo _____ F.I.SH.

8-ilova

tashkilot nomi

Tuzilgan sana	Tabel raqami	Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami	Ish turi (asosiy, o‘rindoshlik bo‘yicha)	Jinsi (erkak, ayol)

XODIMNING SHAXSIY VARAQASI

I. UMUMIY MA’LUMOT

Mehnat shartnomasi (kontrakt) raqam ____ sana ____

1. Familiyasi _____ Ismi _____ SHarifi _____

2. Tug‘ilgan sanasi _____
kun, oy, yil

3. Tug‘ilgan joyi _____

4. Fuqaroligi _____

5. Xorijiy tillarni bilishi _____ _____
nomi bilish darajasi

_____ _____
nomi bilish darajasi

6. Ma’lumoti _____
o‘rta (to‘liq, umumiy), boshlang‘ich kasb-hunar, o‘rta kasb-hunar, oliy

Ta’lim muassasasining nomi	Diplom, seriya, nomer	Tugatgan yili
diplom bo‘yicha ixtisosligi	Diplom bo‘yicha yo‘nalishi yoki mutaxassislik	

Ta’lim muassasasining nomi	Diplom, seriya, nomer	Tugatgan yili
diplom bo‘yicha ixtisosligi	Diplom bo‘yicha yo‘nalishi yoki mutaxassislik	

OO‘Yu keyingi malakaviy ta’lim _____
aspirantura, ad’yunktura, doktorantura

Ta’lim, ilmiy muassasasining nomi	guvohnoma raqami, berilgan sanasi	Tugatgan yili
	Mutaxassislik	

7. Malaka _____
asosiy

_____
boshqa

8-ilovaning 2-beti

8. Ish staji ("___"_____ 20____ -y. holatiga):

Umumiy _____ kun _____ oy _____ yil

Uzluksiz _____ kun _____ oy _____ yil

Ko‘p yillik mehnati uchun qo‘shimcha haq huquqi _____ kun _____ oy _____ yil

9. Oilaviy holati _____

10. Oila tarkibi:

Qarindoshlik darajasi (yaqin qarindoshlari)	Familiyasi, ismi, sharifi	Tug‘ilgan yili
1	2	3

11. Pasport: _____ № _____ Berilgan vaqti "___"_____ -yil

Kim tomonidan berilgan _____

pasport bergan organning nomi

12. Yashash joyi manzili:

	Aloqa indeksi	
Pasport bo‘yicha		_____
	Aloqa indeksi	
Haqiqiy		_____

Ko‘rsatilgan yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olingan sana "____"_____ -yil.

Telefon raqami _____

II. HARBIY HISOB TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

1. Zaxira toifasi _____
2. Harbiy unvon _____
3. Tarkib _____
4. HO‘M to‘liq kod belgisi _____
5. Harbiy xizmatga yaroqlik toifasi _____
6. Yashash joyidagi harbiy komissariat nomi _____
7. Harbiy hisobda turadi _____
   a) umumiy (komanda, partiya raqami) _____
   b) maxsus _____
8. _____

harbiy hisobdan o‘chganligi haqida belgi

Kadrlar xizmati xodimi _____ _____ _____

lavozimi imzo F.I.SH.

Xodim _____

imzo

"___"_____ 20____ -yil.

8-ilovaning 3-beti

III. ISHGA QABUL QILISH YOKI BOSHQA ISHGA O‘TKAZISH

sana	Tarkibiy bo‘linma	Malaka (lavozim), razryad, klass (kategoriya) ixtisoslik	Maosh (tarif stavkasi), qo‘shimcha, so‘m	Asos	Mehnat daftarchasi egasining imzosi
1	2	3	4	5	6

IV. ATTESTATSIYA

Attestatsiya sanasi	Hay’at qarori	Hujjat (bayonnoma)		Asos
		nomer	sana	
1	2	3	4	5
	MALAKA OSHIRISH			

V. MALAKA OSHIRISH

Sana		Malaka oshirish turi	Ta’lim muassasasi nomi va uni joylashgan joyi	Hujjat (guvohnoma, shahodatnoma)			Asos
O‘qish boshlanishi	O‘qish tugashi			nomi	seriya, nomer	sana	
1	2	3	4	5	6	7	8

VI. MALAKAVIY QAYTA TAYYORLASH

Sana		Mutaxassislik (yo‘nalish, malaka)	Hujjat (diplom, (guvohnoma, sertifikat)			Asos
Qayta tayyorlash-ning boshlanishi	Qayta tayyorlash-ning tugashi		nomi	nomer	sana	
1	2	3	4	5	6	7

8-ilovaning 4-beti

VII. RAG‘BATLANTIRISH VA MUKOFOTLAR

Mukofotning nomi	nomi	nomer	sana
1	2	3	4

VIII. TA’TIL

Ta’til turi (yillik, o‘quv, ish haqi saqlanmagan va h.k	Ish davri		Ta’til kunlari miqdori	Sana		Asos
	dan	gacha		boshlanishi	tugashi	
1	2	3	4	5	6	7

IX. IJTIMOIY IMTIYOZLAR, qonunchilik asosida xodim huquqqa ega

Imtiyoz nomi	Hujjat		Asos
	nomer	berilgan sana	
1	2	3	4

X. QO‘SHIMCHA MA’LUMOTLAR

_____

_____

XI. BO‘SHASH SABABI

Bo‘shash sanasi "____"_____ 20____ -yil

Buyruq (farmoyish) №_____ "____"_____ 20____ -yil.

Xodimlar bo‘limi ishchisi _____ _____ _____

lavozimi imzo F.I.SH.

Xodim _____

imzo

9-ilova

tashkilot nomi _____ tarkibiy bo‘linma nomi

_____- son SHAXSIY SCHET

Familiyasi, Ismi, SHarifi

Hisoblash davri		Tabel raqami	Xodimlar toifasi	Yashash joyi	Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami
dan	gacha				
Ishga kelgan vaqti		Bo‘shagan vaqti	Tug‘ilgan yili		

Ishga qabul qilish va boshqa ishga o‘tkazish haqida belgi								
buyruq, farmoyish		tarkibiy bo‘linma	kasbi (lavozimi)	mehnat sharoiti	razryad, klass (toifa), ixtisoslik	maosh	summa, so‘m	
sana	raqam						ustama	qo‘shimcha
		3	4	5	6	7		

Ta’tildan foydalanilganligi haqida belgi							
ta’til turi	buyruq (farmoyish)		davr		sana		kunlar miqdori (kalend., ish)
	sana	raqam	dan	gacha	boshlandi	tugadi	
10	11	12	13	14	15	16	17

Chegirmalar va to‘lovlar					Berilgan imtiyoz summasi (standart soliq chegirma summasi), so‘m
chegirma turi hujjatning raqami va sanasi	chegirma davri		chegirma summasi, so‘m yoki foiz	bir oylik chegirma miqdori, so‘m	
	dan	gacha			
18	19	20	21	22	23

Buxgalter _____

imzo F.I.SH.

9-ilovaning 2-beti

Oy	Ishlandi		Hisoblandi, so‘m										
	kun	soat	to‘lov turlari bo‘yicha						vaqtinchalik ishga layoqatsizlik bo‘yicha nafaqa			oy bo‘yicha jami	yil boshidan jami
									oy	miqdor	summa		
24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37

Ushlab qolindi va kiritildi, so‘m									Qarzdorlik, so‘m		To‘lash uchun jami, so‘m
daromad solig‘i yil boshidan	daromad solig‘i bir oy uchun	oyning birinchi yarmi uchun berildi (bo‘nak)	PF					jami	korxonada	xodimda	
38	39	40	41	42	43	44	45	46	47	48	49

Buxgalter _____

imzo F.I.SH.

10-ilova
T-12 tarmoqlararo namunaviy shakl

Korxona, tashkilot _____ Tarkibiy bo‘linma_____

Hujjat raqami	Tuzilgan sana	Hisobot davri	
		dan	gacha

Ish vaqtidan foydalanish va ish haqini hisobga olish tabeli

Shartli belgilar	**Kod**	
	harfli	**sonli**
Ish vaqtlari (kunduzgi, kechki)	Ya	1
Kechki ish vaqtlari	N	2
Dam olish va bayram kunlaridagi ish vaqtlari	RP	3
Ish vaqtidan tashqari ish vaqtlari	S	5
Xizmat safari	K	10
Har yillik asosiy haq to‘lanadigan ta’til	OT	14
Qonun, me’yoriy hujjat, kollektiv shartnoma bilan belgilangan har yillik qo‘shimcha haq to‘lanadigan ta’til	OD	15
O‘qish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish bilan bog‘liq ish haqi saqlanadigan ta’til	U	16
Ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o‘qiydiganlar uchun ish haqi qisman saqlangan holda qisqartirilgan ish vaqtining davomiyligi	UV	17
Ish haqi saqlanmaydigan o‘qish bilan bog‘liq qo‘shimcha ta’til	UD	18
Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’til	P	19
Xodimga yosh bolani parvarishlash uchun beriladigan, qisman to‘lanadigan ta’til	OCH	20
Xodimga yosh bolani parvarishlash uchun beriladigan, ish haqi saqlanmaydigan ta’til	OJ	21
Xodimga ma’muriyatning ruxsati bilan beriladigan, ish haqi saqlamaydigan ta’til	DO	22
Qonunchilik bilan belgilangan holatlarda ish haqi saqlanmaydigan ta’til	OZ	24
Kasalga qarash (boqish), mehnatga layoqatsizligi varaqasini rasmiylashtirish bo‘yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik ta’tili ("T" kodi bilan belgilangan holatlardan tashqari)	B	25
Qonun bilan belgilangan holatlarda (ishdan boshqa joyda shikastlanish, kasalga qarash, davolash muassasasining ma’lumotlari bilan bog‘liq va h.k.) haq to‘lanmaydigan mehnatga layoqatsizlik	T	26
Qonun bilan belgilangan holatlarda ish kunlarining belgilangan davomiyligiga qaraganda ishchi va xizmatchilarga soatlarni qisqartirish	LCH	27
Ishchining aybi bo‘lmagan bekor turish	VP	28
Qonunchilik bilan belgilangan ish haqi saqlangan holda kun bo‘yi ishga kelmaslik (davlat yoki jamoat majburiyatlarini bajarish, favqulotda holatlarda tugatish, tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish)	G	29
Ishga sababsiz kelmaslik (jami ish kuni davomida yoki 3 soatdan ortiq sababsiz ish joyida bo‘lmaslik, ma’muriy huquqbuzarlik uchun ma’muriy	PR	31

Shartli belgilar	Kod	
	harfli	sonli
qamash, tibbiy xushyorxonada bo‘lish, ish tashlashlar, noqonuniy deb tan olingan va boshqa sababsiz ishga kelmaslik)		
Ma’muriyatning tashabbusi bilan to‘liqsiz ish vaqti tartibi sababli ishlanmagan soatlar	NS	32
Dam olish (har hafta uchun) va bayram kunlari	V	33
Ish tashlash (qonun bilan belgilangan sharoit va tartibda)	ZB	34
Aniqlanmagan sabablar bo‘yicha kelmaslik (vaziyat aniqlanguncha)	NN	35

1. Ish vaqtidan foydalanishni hisobi

T/r	F.I.SH. malakasi (lavozimi)	Tabel raqami	Oyning sanalari bo‘yicha ishga kelganlik yoki kelmaganlik haqida belgi												Jami oy bo‘yicha ishlandi							Ulardan sababli			
								jami oyning 1-yarmida ishlandi						jami oyning 2-yarmida ishlandi	kun	soat					kelmaganlik kun (soat) lar miqdori			dam olish va bayram kunlari	Maosh, tarif stavkasi (soatbay, kunbay), so‘m
																jami	undan					kod	kelmaganlik kun (soat)lar miqdori		
																	ishdan tashqari	kechki	dam olish, bayram						
			1	2	...	14	15		16	17	...	30	31													
1	2	3	4	5	...	17	18	19	20	21	...	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45	46	47

Mas’ul shaxs _____

lavozimi imzo

Tarkibiy bo‘linma rahbari

_____

lavozimi imzo F.I.SH.

"_____"_____20____ -y.

Xodimlar bo‘limi ishchisi

_____

lavozimi imzo F.I.SH.

"_____"_____20____ -y.

2. Xodim bilan mehnat haqi bo‘yicha hisoblashish

To‘lov turi																
Tabel raqami	kod			kod		kod		kod		kod		**Boshqalar**			
	nomi			nomi		nomi		nomi		nomi					
	Korrespondent schet: sintetic schet											to‘lov turi	bog‘lanuvchi schet	summa, so‘m	soat, kun
	bog‘lanuvchi schet	summa, so‘m	soat (kun)	summa, so‘m	soat (kun)	summa, so‘m	soat (kun)	summa, so‘m	soat (kun)	summa, so‘m	soat (kun)				
48	49	50	51	52	53	54	55	56	57	58	59	60	61	62	63

Sana	Ishlandi		Maqsadli bekor turish odam-kun miqdori	Toliqmas ish kunlari tartibiga bog‘liq ishlanmagan odam-soat	Ishga kelinmagan kunlar						nima sababli				Jami ishga kelingan va kelinmagan odam-kun	5 kunlik ish haftasida qo‘shimcha dam olish odam-kun miqdori	Ishchilar-ning ro‘yxat bo‘yicha soni	Ro‘yxatda hisobga olinmagan, lekin o‘rtacha-ro‘yxatga kiritilgan ishchilar	O‘rtacha ro‘yxatlar soniga kiritilmay-digan, ro‘yxatdagi ishchilar tarkibi
	odam-kun	odam-soat			har yilgi asosiy to‘lanadigan ta’til	har yilgi qo‘shimcha to‘lanadigan ta’til	o‘qish, ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish bilan bog‘liq, ish haqi saqlanadigan ta’til	homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha ta’til	kasallik bo ‘yicha	qonun bilan ruxsat berilgan boshqa kelmaslik (davlat majburiyatlarini bajarish va h.k.)	ma’muriyat ruxsati bilan	sababsiz kelmaslik	dam olish va bayram odam-kun miqdori	jami					
64	65	66	67	68	69	70	71	72	73	74	75	76	78	79	80	81	82	83	84
Jami Hamma-si																			

Mas’ul shaxs _____
lavozimi imzo

Tarkibiy bo‘linma rahbari _____ _____
lavozimi imzo F.I.SH.
"_____"_____20____ -y.

Xodimlar bo‘limi ishchisi _____
lavozimi imzo F.I.SH.
"_____"_____20____ -y.

11-ilova
T-13-tarmoqlararo namunaviy shakl

korxona, tashkilot

tarkibiy bo‘linma

Hujjat raqami	Tuzilgan sana	Hisobot davri	
		dan	gacha

Ish vaqtidan foydalanish hisobi
TABELI

№ t/r	F.I.SH, kasbi (lavozimi)	Tabel raqami	Oy kunlari bo‘yicha ishga kelgan yoki kelmagan haqida belgi															Ishlandi		Turlari va xarajat yo‘nalishlari bo‘yicha ish haqi hisoblash uchun ma’lumotlar						Kelmaslik sababi			
			1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	X	yarim	oy	to‘lov turi kodi						kod	kun (soat)	kod	kun (soat)
																			kun / soat		bog‘lanuvchi schet									
			16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31			to‘lov turi kodi	bog‘la-nuvchi schet	kun (soat)	to‘lov turi kodi	bog‘lanuvchi schet	kun (soat)				
1	2	3	4																5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16
																		X												
																		X												

Mas’ul shaxs _____
lavozimi imzo

Tarkibiy bo‘linma rahbari _____ _____
lavozimi imzo F.I.SH.
"_____"_____20____ -y.

Xodimlar bo‘limi ishchisi _____
lavozimi imzo F.I.SH.
"_____"_____20____ -y.

12-ilova

Korxona _____ Tarkibiy bo‘linma _____
(nomi) (nomi)

TO‘LOV QAYDNOMASI
(hisob-to‘lov qaydnomasi)

Hujjat nomi	tuzilgan sana

Hisobot davri	
dan	gacha

№ t/r	F.I.SH.	Tabel raqami	Maosh	Oy boshiga qoldiq	20__yil "____" _____ oy uchun hisoblandi													Jami oy bo‘yicha hisoblandi
					Ishlandi		vaqtbay	ishbay	mukofot	ish vaqtidan tashqari	bayram kunlari	navbatdagi ta’tilga		ijt.sug‘urta hisobiga (k/v)		Boshqa to‘lovlar		
					soatda	kunda						joriy oy	keyingi oy	kun	summa			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19
	Jami:																	

Jami yil boshidan hisoblandi	Yil boshidan daromad solig‘i	Berildi va ushlab qolindi								Tashkilotning jami qarzi (gr. 5 + gr. 19)	Jami berildi va ushlab qolindi	Oy oxiriga qoldiq - beriladigan summa (gr. 31 - gr. 32)
		bir oy uchun daromad solig‘i	PF	kasaba uyushmasi	o‘tgan oy uchun berildi	joriy oy uchun bo‘nak	boshqa ushlanmalar					
20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32

13-ilova

Korxona _____
(nomi)

Tarkibiy bo‘linma _____
(nomi)

Kassaga quyidagi muddatda to‘lash uchun

"___"_____ 20___ -yildan "___" _____ 20___ -gacha

Summa_____ so‘m
summa yozuv bilan

(_____ so‘m)

Tashkilot rahbari _____ _____ _____
lavozimi imzo F.I.SH.

Bosh buxgalter _____ _____
imzo F.I.SH.

"___" _____ 20___ -yil

TO‘LOV QAYDNOMASI

Hujjat raqami	tuzilgan sana

Hisobot davri	
dan	gacha

13-ilovaning 2-beti

Tartib bo‘yicha raqam	Tabel raqami	F.I.SH.	Summa, so‘m	Olganligi haqida imzo	Izoh
1	2	3	4	5	6

Varaqlar miqdori _____

Mazkur to‘lov qaydnomasi bilan:

_____ so‘m to‘landi
summa yozuv bilan

(_____ so‘m)

va _____ so‘m deponent qilindi
summa yozuv bilan

(_____ so‘m)

To‘lovni amalga oshirdi _____ _____ _____
lavozimi imzo F.I.SH.

"____" _____ 20___ -y. _____-son chiqim kassa orderi

Tekshirdi buxgalter _____ _____
imzo F.I.SH.

"____" _____ 20___ -yil

2-betdagi namuna bo‘yicha qaydnomaning qo‘shimcha betini chop etish mumkin. Imzolar oxirgi betda yoziladi.

14-ilova

Korxona _____
(nomi)

Tarkibiy bo‘linma _____
(nomi)

TO‘LOV QAYDNOMALARINI RO‘YXATGA OLISH

JURNALI

"____"_____ 20___ dan "____" _____ 20___ gacha

Jurnalni yuritish bo‘yicha mas’ul shaxs _____ _____ _____
lavozim imzo (familiyasi, ismi, sharifi)

14-ilovaning 2-beti

Tartib bo‘yicha raqam	Ko‘chirma sanasi	Qayd-noma raqami	To‘lov nomi	Tarkibiy bo‘linma nomi	Qaydnoma bo‘yicha summa, so‘m	Qaydnoma			
						topshirdi		qabul qildi	
						imzo	familiya	imzo	familiya
1	2	3	4	5	6	7	8	9	#

Mazkur betda joylashtirilgan tartib raqamlari _____ dan
yozuv bilan
_____ gacha
yozuv bilan

Mazkur namuna bo‘yicha jurnalning barcha betlarini chop etish kerak.

7-BOB. PUL MABLAG‘LARI VA EKVIVALENTLARI HISOBI

1-§. Pul mablag‘lari va ekvivalentlari hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarning ishlab chiqarish jarayonida doimo boshqa korxona va tashkilotlar bilan iqtisodiy aloqada bo‘ladilar. Bunday aloqalarini olib borish korxonalarning asosiy faoliyati hisoblanadi va ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi, mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni o‘z vaqtida jo‘natish hamda sotish jarayoni ta’minlanadi. Xo‘jalik aloqalari shartnomalar bilan rasmiylashtirilib, ularga asosan bir tomon mahsulot (ish va xizmat) larni taklif etuvchi (sotuvchi), ikkinchi tomon esa – xaridor sifatida qatnashib, to‘lovni amalga oshiruvchi bo‘lib qatnashadi.

Pul muomalasi - bu tovarlar aylanishiga hamda notovar xarakteridagi to‘lovlar va hisoblarga xizmat qiluvchi naqd pullar va unga tenglashtirilgan aktivlarning harakatidir.

Mahsulot (ish va xizmat) larni yetkazib beruvchi bilan uning haqini to‘lovchilar orasidagi hisob-kitoblar o‘z vaqtida tashkil etilishi aylanma mablag‘larning aylanish tezlashishiga ta’sir qilib, olinadigan va to‘lanadigan mablag‘larning paydo bo‘lishiga barham beradi.

Shuningdek, korxonalarning byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha tegishli idoralar hamda ishlab chiqarishda, boshqaruv apparatida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar bilan hisoblashishlar vujudga keladi.

Korxonaning boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hisob-kitoblari naqd pullik yoki naqd pulsiz, ya’ni pul o‘tkazish yo‘li orqali to‘lovni oluvchining hisob-kitob schyotiga ochilgan bankka o‘tkazib beriladi. Bugungi kunda korxonalar o‘rtasida o‘zaro hisob-kitob operatsiyalari bo‘yicha hisob-kitoblar pul o‘tkazish yo‘li orqali amalga oshiriladi.

Pul mablag‘laridan samarali foydalanishni tashkil etish ko‘p jihatdan korxonalarda pul mablag‘larining harakatini optimal boshqarishni tashkil etish va ular ustidan nazoratni yaxshilashga bog‘liq. Pul mablag‘lari nazoratini tashkil etishning asosiy elementlaridan biri esa korxonaning bank schyotidir. Ya’ni bank schyotlaridan samarali foydalanishni maksimal darajada ta’minlash, barcha kirib kelayotgan pul mablag‘larini albatta bank orqali hisobga olish, barcha turdagi to‘lovlarni banklar chiqargan cheklar yoki shunga o‘xshash yozma topshiriqnomalar va ularning maxsus pul mablag‘lari fondi orqali amalga oshirish lozim. Agar ko‘rsatilgan tartibga qat’iy amal qiladigan bo‘lsa, u holda pul mablag‘larining hisobi ikki tomonlama bo‘ladi: birinchisi-korxonaning o‘zida, ikkinchisi esa bankda hisoblanadi.

Korxonalar banklarda hisob–kitob va valyuta schyotlaridan tashqari, maxsus joriy schyotlari (limitlashtirilgan chek daftarchalari, akkreditivlar, maxsus schyotlar va b.) dan ham foydalanishlari mumkin.

Korxonalarda mavjud pul mablag‘laridan maqsadli foydalanish va ularni samarali boshqarish, shuningdek, olinadigan mablag‘lar va majburiyatlarni o‘z vaqtida to‘lash buxgalteriya hisobi orqali nazorat qilinadi. SHu boisdan, ushbu nazoratni to‘g‘ri va o‘z vaqtida tashkil etishda uning oldiga bir qator vazifalarni bajarishni taqozo etadi. Ular quyidagilardan iborat:

- pul mablag‘lari va hisob–kitob operatsiyalarini o‘z vaqtida tegishli hujjatlarda to‘g‘ri rasmiylashtirib borish;
- kassadagi kirim va chiqim qilinayotgan mablag‘larni to‘g‘ri rasmiylashtirish hamda ularni kassa kitobida qayd qilib borish;
- kassadagi naqd pul mablag‘lari va unga ekvivalent bo‘lgan pul hujjatlari, qimmatli qog‘ozlarning butligini kundalik nazorat qilib borish;
- pul mablag‘laridan to‘gri foydalanish va ularning maqsadli sarflanishini doimiy nazorat qilish;

- byudjet, byudjetdan tashqari mablag‘lar, banklar, xodimlar va boshqa tashkilotlar, xaridor va buyurtmachilar bilan shartnomada belgilangan to‘lov shakllariga amal qilib borishni nazorat qilish;

- qarzlarni qaytarish muddatidan o‘tkazib yubormaslik maqsadida debitor va kreditorlar o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarni o‘z vaqtida taqqoslama dalolatnomalar bilan rasmiylashtirish hamda uni so‘ndirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

- korxonaning pul mablag‘lari harakatini oldindan prognozlash va pul oqimini me’yorlashtirish bo‘yicha tegishli tadbirlar ishlab chiqishda iboratdir.

Pul mablag‘lari va ekvivalentlarini buxgalteriya hisobi va ular to‘g‘risidagi axbortlarni moliyaviy hisobotlarda ochib berish respublikamizda quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;

- O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi, «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» gi Qonunlari;

- Valyutani tartibga solish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari;

- O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari va boshqa buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi idoraviy me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

21-son BHMS ga muvofiq, pul mablag‘lari va ekvivalenlari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyotida korxona kassasidagi milliy valyutadagi naqd pullar hisobga olinadi;

- 5020 «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari» schyotida korxona kassasidagi chetel valyutasidagi naqd pullar hisobga olinadi;

- 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyotida korxonaning bankdagi hisob-kitob schyotidagi milliy valyutadagi pul mablag‘lari hisobga olinadi. Hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5100) bo‘yicha analitik hisob milliy valyutadagi pul mablag‘larini saqlash uchun banklarda ochilgan har bir schyot bo‘yicha yuritiladi;

- 5210 «Mamlakat ichida valyuta schyotlari» va 5250 «Cheteldagi valyuta schyotlari» schyotlarida O‘zbekiston Respublikasi va chet mamlakatlar hududidagi banklar schyotlaridagi chetel valyutasidagi pul mablag‘lari hisobga olinadi. Valyuta mablag‘larining analitik hisobi chetel valyutasidagi pul mablag‘larini saqlash uchun banklarda ochilgan har bir schyot bo‘yicha yuritiladi;

- 5510 «Akkreditivlar», 5520 «Chek daftarchalari» va 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotlarida O‘zbekiston Respublikasi hududi va chet mamlakatlardagi akkreditivlar, chek daftarchalari, boshqa to‘lov hujjatlaridagi (veksellardan tashqari) pul mablag‘lari, shuningdek maqsadli moliyalashtirish (tushumlar) pul mablag‘larining alohida saqlanadigan qismining harakati hisobga olinadi. 5510 «Akkreditivlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob korxona tomonidan qo‘yilgan har bir akkreditiv bo‘yicha alohida yuritiladi. 5520 «CHek daftarchalari» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir olingan chek daftarchalari bo‘yicha yuritiladi. 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyoti bo‘yicha analitik hisobni tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi hududi va cheteldagi boshqa maxsus schyotlardagi pul mablag‘larining naqdligi va harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish imkoniyatini ta’minlashi lozim;

- 5610 «Pul ekvivalentlari (turlari bo‘yicha)» schyotida korxona kassasidagi pul

ekvivalentlarining (pochta markalari va boshqalar) hisobga olinadi. 5610 «Pul ekvivalentlari (turlari bo‘yicha)» schyotida markalar, pattalar va boshqa pul ekvivalentlari nominal qiymati bo‘yicha hisobga olinadi. Pul ekvivalentlarini hisobga oluvchi schyotlar (5600) bo‘yicha analitik hisob ularning turlari bo‘yicha yuritiladi;

- 5710 «Yo‘ldagi pul mablag‘ (o‘tkazma)lari» schyotida saqlash joyidan chiqib ketgan, ammo mo‘ljallangan joyiga yetib bormagan pul mablag‘lari (inkassatorga berilgan sotishdan olingan tushumlar, pul o‘tkazmalari) hisobga olinadi. Ushbu schyot tranzit schyot hisoblanadi va pul mablag‘larining harakati ustidan uzluksiz nazoratni o‘rnatish uchun bog‘lovchi vazifasini bajaradi. 5710 «Yo‘ldagi pul mablag‘ (o‘tkazma)lari» schyotida yo‘ldagi pul mablag‘ (o‘tkazma) larining analitik hisobi ularning turlari bo‘yicha yuritiladi.

Chetel valyutasida pul mablag‘lari bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Korxonalar tomonidan pul mablag‘lari va ekvivalentlarini hisobini tegishli ravishda tashkil etish va ularni harakatini nazorat qilish uchun zarur bo‘ladigan ichki nizom, yo‘riqnoma, boshqa tashkiliy-taqsimlovchi hujjatlarni ishlab chiqishlari mumkin. Yuqoridagi hujjatlarda bilan:

- pul mablag‘lari va ekvivalentlarini qabul qilish, topshirish, va harakati bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan boshlang‘ich hujjatlarning shakllari va ularni rasmiylashtirish (tuzish) tartibini, shuningdek hujjat aylanishining qoidalarini;
- pul mablag‘lari va ekvivalentlarini kirim qilish va chiqarishga ishonch bildirilgan bo‘linmalarining mas’ul shaxslari ro‘yxatini;
- saqlanishi ta’minlashni nazoratini amalga oshirish tartibini, hisobni to‘g‘ri yuritilishini, ularni mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi hisobotlarni ishonchligini va boshqalarni tasdiqlashi mumkin.

2-§. Kassadagi pul mablag‘lari va ekvivalentlari hisobi

Korxonaning kassasi korxona buxgalteriyasining tarkibida bo‘lib, unga naqd pul mablag‘lari va boshqa qimmatliklar (qimmatli qog‘ozlar, pulli hujjatlar, pochta markalari va boshqa) ni qabul qilish, berish hamda saqlash operatsiyalarini amalga oshirish majburiyati yuklatilgan.

Hozirgi kunda naqd pul mablag‘lari va ekvivalentlarni qabul qilish, uning hisobini yuritish, saqlash va O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan kassa intizomiga rioya qilinishi bo‘yicha me’yoriy huquqiy hujjat mavjud emas. Korxona 1-son BHMS ga muvofiq o‘zining hisob siyosatida «Kassa operatsiyalarini amalga oshirish Qoidalari» ni tasdiqlab olishi kerak.

Naqd pul mablag‘larini qabul qilish va berish hamda kassa hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi

Korxona kassasiga tushgan naqd pul mablag‘lari to‘laligicha kassaga kirim qilinadi. Bankdan amaldagi qonunchiligi hamda Markaziy bankning me’yoriy hujjatlarida ko‘zda tutilgan boshqa maqsadlar uchun olingan mablag‘lar qat’iy ravishda maqsadga muvofiq ishlatilishi lozim. Korxonalar o‘z kassasida kassadagi naqd pullar qoldig‘i limitlari doirasida naqd pullarga ega bo‘lishlari va me’yorlar doirasida tushumdan ularni ishlatishlari mumkin. Kassalardagi naqd pullar qoldig‘i limitlari va tushumni ishlatish me’yorlarini bank muassasalari ushbu korxonalar rahbarlari bilan kelishgan holda va Markaziy bank tomonidan belgilangan me’yoriy hujjatlarga rioya qilgan holda belgilaydi. Zaruriyat tug‘ilganda ko‘rsatilgan limitlar qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Mulkchilik shaklidan qat’i nazar savdo va maishiy xizmatlar sohasi korxonalarining tushumdan ish haqi, pensiya va nafaqalar to‘lashga foydalanishlari man etiladi.

Kassada naqd pullar qoldig‘ining belgilangan limitlaridan ortiqcha bo‘lgan barcha naqd pulni korxonalar bank muassasasi bilan kelishilgan tartib va muddatlarda hisob-kitob schyotiga kiritish uchun topshirishlari shart.

Korxonalar o‘z kassalarida ular tomonidan belgilangan limitlardan ortiqcha naqd pulni ish haqi, mukofotlar, nafaqalar, stipendiyalar, pensiyalarni to‘lash uchun va bank muassasasida pul olingan kunni hisoblaganda, faqat 3 ish kunidan oshmagan muddatga (bank muassasalaridan ancha olisda joylashgan tashkilotlar uchun - 5 ish kunigacha) saqlash huquqiga egalar.

Xizmat safarlari bilan bog‘liq xarajatlar uchun hisobot beriladigan naqd pullarni berish mazkur hududda amal qiladigan tartibga muvofiq ana shu maqsadlar uchun xizmat safarlariga yuborilgan shaxslarga beriladigan summalar doirasida amalga oshiriladi. Hisobot beriladigan sarflanmagan naqd pullar ular berilgan muddat tugaganidan keyin 3 kundan kechiktirmay korxona kassasiga qaytarilishi kerak.

Naqd pullarni qabul qilish-topshirish va topshirish bo‘yicha kassa operatsiyalari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tasdiqlangan boshlang‘ich hisob hujjatlari shakllari bilan rasmiylashtiriladi.

Korxonalar tomonidan haqiqiyligi shubhalantirmaydigan va ular qiymatini belgilaydigan yozuvlari, O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri, seriyasi va raqamlari to‘liq saqlangan banknotlar, ular umumiy o‘lchamining 55 foizi mavjud bo‘lsa hamda shikastlanish darajasidan qat’i nazar, to‘liq hajmini va yuz tomonida qiymat tasvirini saqlagan metall tangalar to‘lovga qabul qilinadi.

Korxonalar:

- istalgan qismi, jumladan to‘lovlilik alomatlari belgilanishiga ta’sir etadigan darajada teshilgan, yirtilgan, siyqalangan joylari, dog‘lari bo‘lgan, siyohda yozilgan;

- ayrim qismlari shak-shubhasiz bitta biletga tegishli bo‘lgan yirtilgan va yelimlangan;

- qiymatini ko‘rsatadigan raqamlar, yozuvlar bo‘lgan qismlardan tashqari, o‘z rangini o‘zgartirgan, kuygan (ko‘proq kuygan);

- to‘liq hajmini saqlamagan banknotlarni to‘lovga qabul qilishi va pul tushumi tarkibida banklarga topshirishi lozim. Ushbu talablarga muvofiq kelmaydigan banknotlar va tangalar to‘lovga yaroqsiz hisoblanadi va banklar tomonidan ekspertizaga qabul qilinadi.

Korxonalar kassasiga naqd pullar buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxsning imzosi qo‘yilgan kassa kirim orderi (1-ilovaga qarang) bo‘yicha qabul qilinadi. Naqd pul qabul qilinganda buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxs hamda kassir tomonidan imzolangan, kassir muhri (shtampi) bilan tasdiqlangan kassa kirim orderi yoki kassa apparatining izi tushirilgan chipta (slip) pul topshirgan shaxsga beriladi.

Korxona kassasidan naqd pullarni chiqim qilish korxona rekvizitlari tushirilgan to‘rtburchak shtamp bosilgan va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan kassa chiqim orderi (2-ilovaga qarang) yoki to‘lov qaydnomasi asosida amalga oshiriladi. Kassadan naqd pul berish uchun rasmiylashtiriladigan hujjatlarga korxona rahbari va buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxs imzo qo‘yishi shart.

Kassa chiqim orderiga ilova qilinadigan hujjatlarga (arizalar, to‘lov qaydnomalari va boshqa to‘lov hujjatlariga) korxona rahbari tomonidan rozilik imzosi qo‘yilganda, kassa chiqim orderiga korxona rahbarining imzosi qo‘yilishi talab etilmaydi.

Alohida shaxsga kassa chiqim orderi bilan pul berilganda, kassir pul oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatini (pasport, yashash guvohnomasi, harbiy xizmatchilar uchun harbiy bilet)

talab qilib, hujjatning turi, seriyasi va tartib raqami, uning qaysi tashkilot tomonidan va qachon berilganligini kassa chiqim orderiga qayd etib qo‘yishi lozim. To‘lov qaydnomasi tuzilgan hollarda pul oluvchilar o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjatini taqdim etadi va uning tegishli joyiga imzo qo‘yadi. Korxona kassasidan naqd pulni chiqim qilish mazkur tashkilot tomonidan xodimga berilgan hujjatga (guvohnomaga) asosan amalga oshiriladi.

Korxonaga fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida ishga jalb qilingan shaxslarga naqd pullar har bir shaxsga alohida yoziladigan chiqim kassa orderlari bo‘yicha yoki tuzilgan shartnomalar asosida alohida qaydnoma bo‘yicha amalga oshiriladi.

Kassir pulni faqat chiqim kassa orderida yoki ishonchnomada ko‘rsatilgan shaxsga beradi. Agar pul berilishi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo‘yicha amalga oshirilsa, order matnida pul oluvchining familiyasi, ismi va otasining ismidan keyin buxgalteriya tomonidan pul olish ishonilgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi ko‘rsatiladi. Agar pul qaydnoma bo‘yicha berilsa, pul olishda tilxat oldiga kassir «Ishonchnoma bo‘yicha» deb yozib qo‘yadi. Pulni ishonchnoma bo‘yicha berish yuqorida nazarda tutilgan talablarga muvofiq amalga oshiriladi. Ishonchnoma kassirda qoladi va chiqim orderi yoki qaydnomaga ilova qilinadi.

Ish haqi, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari, stipendiyalar, pensiya va mukofotlar to‘lov qaydnomasi bo‘yicha to‘langanda, har bir shaxsga alohida kassa chiqim orderi to‘ldirilmaydi. Bunda to‘lov qaydnomasining titul varag‘iga tashkilot rahbari hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxsning imzosi qo‘yiladi va pul berishga ruxsat etilganligi to‘g‘risidagi yozuv, pullarni tarqatish muddati hamda summasi ko‘rsatiladi. Xodim ta’tilga ketganda, vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo‘lganda va shu kabi boshqa hollarda mehnatga haq to‘lash, shuningdek deponentga o‘tkazilgan summalarni va xizmat safari xarajatlarini bir necha xodimga berish to‘lov qaydnomasi bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin. Muayyan shaxslar uchun bir marotaba beriladigan pullar chiqim kassa orderlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ish haqi, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqalari, stipendiyalar, pensiya va mukofotlar uchun olingan naqd pullar tarqatilmay qolgan hollarda, kassir tomonidan naqd pullarni saqlashda quyidagilar amalga oshiriladi:

- har bir shaxsning familiyasi ro‘parasiga «deponentga o‘tkazilgan» deb yozib qo‘yishi (shtamp bosishi);
- deponentga o‘tkazilgan summalar bo‘yicha reestr tuzishi (3-ilovaga qarang);
- to‘lov qaydnomasi oxirida amalda to‘langan summa haqida va deponentga olingan summani yozib qo‘yishi, ushbu summalarni to‘lov qaydnomasi bo‘yicha umumiy yakun bilan solishtirishi va o‘z imzosi bilan tasdiqlashi;
- amalda to‘langan summani kassa daftariga yozishi va to‘lov qaydnomasiga kassa chiqim orderining raqami va to‘rtburchak shtampini bosishi lozim.

Buxgalteriya xodimlari to‘lov qaydnomalaridagi yozuvlarni tekshirada va ular bo‘yicha berilgan hamda deponentga o‘tkazilgan summalarning to‘g‘ri aks ettrilgshanini nazorat qiladi. Deponentga o‘tkazilgan summalar bank muassasasiga qaytarib topshiriladi va topshirilgan summalarga bitta umumiy chiqim kassa orderi tuziladi.

Kirim kassa orderlari va ularga doir kvitantsiyalar, shuningdek, chiqim kassa orderlari va ular o‘rnini bosuvchi hujjatlar buxgalteriya tomonidan binafsha rang siyohli yoki binafsha (ko‘k) rang sharikli ruchkada yoxud texnik vositalar yordamida to‘g‘ri, aniq to‘ldirilishi lozim. Yuqorida sanab o‘tilgan hujjatlarga tuzatishlar kiritish, o‘chirib yozish, oq bo‘yoq ishlatish qat’iyan man etiladi.

Kirim va chiqim kassa orderlarida ularni tuzish uchun nima asos bo‘lgani ko‘rsatiladi va

ularga ilova qilingan hujjatlar sanab o‘tiladi, hamda ularni kirim pul topshiradigan yoki oladigan shaxslar qo‘liga berish man etiladi. Kassa orderlari bo‘yicha pul qabul qilish va topshirish faqat ular tuzilgan kunda amalga oshirilishi mumkin.

Kirim va chiqim kassa orderlarini olish vaqtida kassir:

- ularda buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxsning imzosi borligini, kassa chiqim orderida esa tashkilot rahbari yoki vakolatli shaxsning ruxsat berganligi haqidagi imzosi mavjudligini;
- hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini;
- hujjatlarda qayd etilgan ilovalarning mavjudligini tekshirishi shart.

Ushbu talablarga rioya qilinmagan bo‘lsa, kassir hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish uchun buxgalteriyaga qaytaradi.

Kirim va chiqim kassa orderlari asosida pul olingan yoki pul berilganidan keyin kassir ularni imzolaydi hamda ularga ilova qilingan hujjatlar ustiga berilgan sanani va «To‘landi» yoki «Kirim qilindi» deb yozib qo‘yadi yoki shtamp bosadi.

Kirim va chiqim kassa orderlari kassaga topshirilguniga qadar korxona buxgalteriyasi tomonidan tegishli ravishda Kassa kirim orderlarini qayd etish daftari (4-ilovaga qarang) yoki Kassa chiqim orderlarini qayd etish daftari (5-ilovaga qarang) da ro‘yxatga olinadi.

Ish haqini to‘lashga doir to‘lov qaydnomalariga rasmiylashtirilgan kassa chiqim orderlari u to‘langanidan so‘ng ro‘yxatga olinadi.

Kassa kitobini yuritish tartibi

Korxonaga kelib tushgan va berilgan naqd pullarning qog‘oz nusxasi ko‘chirilgan holda tegishli dasturiy ta’minot bilan ta’minlangan kompyuterlarda elektron shaklda yuritilishi mumkin bo‘lgan kassa kitobi (6-ilovaga qarang) da hisobga olinishi kerak. Naqd pullardagi operatsiyalarni aks ettirish uchun har bir korxonada faqat bitta kassa kitobi yuritiladi. Kassa kitobi varaqlari raqamlangan, ip bilan tikilgan va surg‘uch yoki mastika bilan shunday muhrlangan bo‘lishi kerakki, ruxsatsiz yoki bekitiqcha varaq qo‘yish (olish)ning iloji bo‘lmasin. Kassa kitobidagi varaqlar soni korxona rahbari va bosh buxgalterining imzolari bilan tasdiqlangan bo‘ladi. Kassa kitobini mastikali muhr bilan muhrlaganda (surg‘uchlaganda) suyuq shishadan tayyorlangan yelim («Silikat», «Idoraviy», «Yozuv-chizuv», «Suyuq shisha» yelimlari), yupqa qog‘oz, shtempel bo‘yog‘idan foydalaniladi. Muhr izi bo‘lgan qog‘ozga ikki tomondan yelim suriladi, kassa kitobi muhrlanganidan keyin yana bir qatlam yelim suriladi.

Kassa kitobiga yozuvlar ikki nusxada qora qog‘oz (nusxa ko‘chirish qog‘ozi) orqali binafsha (ko‘k) rangli siyoh yoki sharikli ruchkada kiritiladi. Varaqlarning ikkinchi nusxalari yirtib olinadigan bo‘lishi kerak, ular kassirning hisoboti bo‘lib xizmat qiladi. Varaqlarning birinchi nusxalari kassa kitobida qoladi. Varaqlarning birinchi va ikkinchi nusxalariga bir xil raqamlar qo‘yiladi.

Kassa kitobiga o‘chirib yozish va izohsiz tuzatishlar kiritish man etiladi. Kiritilgan tuzatishlar korxona kassiri, shuningdek bosh buxgalteri yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs imzolari bilan tasdiqlanadi.

Kassir kassa kitobida kun boshida naqd pullarning qoldig‘i summasini ko‘rsatadi. Kun davomida kassir naqd pullarda bajarilgan har bir operatsiya bo‘yicha kassa kitobiga kirim (chiqim)ni yozib boradi.

Kassa kitobidagi yozuvlar kassir tomonidan har bir kassa orderi bo‘yicha pul olingani yoxud berilganidan keyin darhol amalga oshiriladi. Har bir ish kuni oxirida kassir kun davomida bajarilgan operatsiyalarga yakun yasaydi, kun oxiridagi kassa qoldig‘ini hisoblab chiqaradi va

buxgalteriyaga kassir hisoboti sifatida ikkinchi yirtma varaq (kunlik kassa kitobidagi yozuvlar nusxasi)ni kirim va chiqim kassa hujjatlari bilan birga topshiradi va bu haqda kassa kitobiga imzo qo‘ydiradi. Kassa daftarining to‘g‘ri yuritilishini nazorat qilish buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxs zimmasiga yuklanadi. Agar korxonalarda har kuni umumiy summasi eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorigacha bo‘lgan operatsiyalar amalga oshirilsa, kassa hisobotlari 3 - 5 kunda bir marta tuzilishi mumkin.

Korxonalarda kassa daftari elektron (dasturiy) tarzda yuritilishi mumkin. Bunda kassir hisoboti ham elektron (dasturiy) tarzda yuritiladi. Ushbu hujjatlar keyingi ish kuni boshlangunga qadar tuziladi va ularning mazmuni bir xil bo‘lishi hamda kassa daftarining barcha rekvizitlarini o‘z ichiga olishi shart. Kassa daftari va kassir hisobotining varaqlari yil boshidan boshlab o‘sib borish tartibida raqamlanib, elektron (dasturiy) tarzda amalga oshiriladi. Kassa daftarining qo‘shimcha varag‘i va kassir hisoboti hujjatlari olingandan so‘ng, kassir ularning to‘g‘ri tuzilganligini tekshirib, imzolashi shart. Kassir hisobotga kassa orderlarini ilova qilib, imzolab buxgalteriyaga topshirishi lozim. Kassa daftarining qo‘shimcha varag‘i yil davomida kassir tomonidan har bir oy bo‘yicha alohida saqlanishi lozim. Kalendar yil tugaganda yoki zarurat tug‘ilganda, kassa daftarining qo‘shimcha varag‘i xronologik tartibda kitob shaklida tikiladi. Bir yillik varaqlarning umumiy soni korxona rahbari va buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxs tomonidan imzolanadi va tashkilot muhri bilan muhrlanadi (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda).

Katta kassir ish kuni boshlanishidan oldin boshqa kassirlarga kassir tomonidan qabul qilingan va berilgan pullarni hisobga olish kitobida imzo chektirgan holda chiqim operatsiyalari uchun zarur naqd pul summasini bo‘nak tarzida beradi. Kassirlar ish kuni oxirida olingan bo‘nak va kirim hujjatlari bo‘yicha qabul qilingan pullar xususida katta kassirga hisobot berishlari hamda naqd pullar qoldig‘i va qilingan operatsiyalar bo‘yicha kassa hujjatlarini kassir tomonidan qabul qilingan va berilgan pullarni hisobga olish kitobida imzo chektirgan holda katta kassirga topshirishlari shart.

Mehnatga haq to‘lash va stipendiyalarni to‘lash uchun olingan bo‘naklar bo‘yicha kassir ularni to‘lash uchun to‘lov qaydnomasida ko‘rsatilgan muddatda hisobot berishi shart. Ushbu muddat tugashiga qadar (kassirlar qoldiqlarni har kuni kassaga topshirishlari shart) to‘lov qaydnomalari bo‘yicha berilmagan naqd pullar qaytarib beriladi. Ushbu pullar kassirlar tomonidan surg‘uchlangan sumkalar, qog‘oz xaltalar va h.k.larda e’lon etilgan summa ko‘rsatilgan tilxat bergan holda katta kassirga topshiriladi.

Kassa chiqim orderi kassadan naqd pul oluvchining imzosi bilan tasdiqlanmagan bo‘lsa, ushbu summa kamomad hisoblanadi va kassirdan undirib olinadi. Kassadagi kassa kirim orderlari bilan tasdiqlanmagan naqd pullar kassadagi ortiqcha pul hisoblanadi va tashkilot daromadiga kiritiladi. Kassada aniqlangan kamomad va ortiqcha pullarni buxgalteriya hisobida aks ettirish «Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq amalga oshiriladi.

Kassir tayinlash tartibi

Korxona rahbari (bosh buxgalteri) kassir ishga tayinlanganligi haqida buyruq chiqqandan keyin uni «Kassa operatsiyalarini amalga oshirish Qoidalari» bilan tanishtirib, bu haqda imzo qo‘ydirib olishi shart, shundan keyin kassir bilan yakka tartibdagi to‘liq moddiy javobgarlik to‘g‘risida shartnoma tuziladi.

Kassir o‘ziga topshirilgan vazifani bajarishni birovga ishonib topshirishi yoki ayrim vazifalarini boshqa shaxslar zimmasiga yuklashi man etiladi. SHtatlar jadvali bo‘yicha bitta kassiri bo‘lgan korxonalarda kassirni vaqtincha almashtirish yoki unga yordamchi biriktirib

qo‘yish zarurati tug‘ilganda kassir vazifasini bajarish korxona rahbarining yozma buyrug‘i asosida yakka tartibdagi to‘liq moddiy javobgarlik to‘g‘risidagi tegishli shartnoma tuzilganidan keyin boshqa xodim zimmasiga yuklatilishi mumkin. Bunday hollarda «Kassa operatsiyalarini amalga oshirish Qoidalari» da kassirlar uchun belgilangan barcha huquq va majburiyatlarning hammasi bunday shaxslarga ham taalluqli bo‘ladi.

Kassir to‘satdan ishini bajara olmay qolgan hollarda (kasalligi va boshqa sabablarga ko‘ra) uning hisobidagi pul mablag‘lari va ekvivalentlari korxona rahbari va bosh buxgalteri ishtirokida yoki korxona rahbari tayinlagan shaxslardan iborat komissiya ishtirokida ushbu pul mablag‘lari va ekvivalentlarini qabul qilib olayotgan boshqa kassir tomonidan zudlik bilan qayta sanab olinadi. Qayta hisoblash natijasi hamda pul mablag‘lari va ekvivalentlarining boshqa kassirga topshirilgani to‘g‘risida dalolatnoma tuzilib, unga yuqorida qayd etilgan shaxslar imzo chekadilar. Agar ushbu vaziyatda pul mablag‘lari va ekvivalentlarini qayta sanash imkoniyati mavjud bo‘lmagan (ikkinchi kassir bo‘lmasa va h.k.) holda, kassa pul mablag‘lari va ekvivalentlari qayta hisoblanmasdan yopiladi hamda muhrlab qo‘yiladi.

Korxona rahbari tomonidan buxgalteriya xodimlaridan tayinlangan shaxs keyingi ish kunidan kechiktirmay bosh buxgalter va korxona rahbari ishtirokida yoki korxona rahbari tayinlagan kamida uch kishidan iborat komissiya ishtirokida pul mablag‘lari va ekvivalentlarini qayta sanab chiqadi. Pul mablag‘lari va ekvivalentlarini qayta sanash natijalari barcha hollarda rahbar va bosh buxgalter yoki komissiya a’zolari imzo chekkan dalolatnomada aks ettiriladi.

Bo‘linmalari ko‘p bo‘lgan yoki markazlashtirilgan buxgalteriyalar xizmat ko‘rsatadigan korxonalarda ish haqi, vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqalari, stipendiyalar, pensiyalar va mukofotlarni to‘lash korxona rahbarining yozma buyrug‘i (qarori)ga ko‘ra, kassirlardan tashqari boshqa shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunday hollarda «Kassa operatsiyalarini amalga oshirish Qoidalari»da kassirlar uchun belgilangan barcha huquq va majburiyatlarning hammasi bunday shaxslarga ham taalluqli bo‘ladi. Buxgalterlar va kassa hujjatlariga imzo chekish huquqidan foydalanuvchi boshqa xodimlar kassirlik majburiyatlarini bajarishi mumkin emas. Ana shu tartibda kassa operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha majburiyatlar shtat ro‘yxatiga ko‘ra kassir lavozimi nazarda tutilmagan korxonalarning boshqa xodimlariga yuklanadi.

Naqd pullar va ekvivalentlarini saqlash tartibi

Har bir korxona naqd pul bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun alohida xonaga joylashtirilgan kassaga ega bo‘lishi lozim. Naqd pullarni qabul qilish, berish va vaqtinchalik saqlash uchun mo‘ljallanib, maxsus jihozlangan hamda ajratib qo‘yilgan xona kassa deb nomlanadi. Korxonalarning rahbarlari kassani jihozlashlari va kassa xonasida, shuningdek, bank muassasasidan yetkazib berish hamda bank muassasasiga topshirish paytida pullar saqlanishini ta’minlashlari shart va ularning aybi bilan saqlash hamda tashish vaqtida pul mablag‘larining saqlanishini ta’minlaydigan zarur shart-sharoitlar yaratilmagan hollarda tegishli qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda javob beradilar.

Kassa xonasi ajratib qo‘yilishi, kassaga kiradigan eshik esa operatsiyalar bajariladigan paytda - ichki tomondan berkitib qo‘yilishi kerak. Uning ishiga daxldor bo‘lmagan shaxslarning xonaga kirishi man etiladi.

Barcha naqd pullar va ekvivalenlar korxonalarlarda odatda yonmaydigan metall shkaf (seyf) larda saqlanadi, ular kassadagi ish tugagach kalit bilan yopiladi va kassirning surg‘uchli muhri bilan surg‘uchlanadi. Metall shkaf (seyf) lar kalitlari va muhrlar kassirlarda saqlanadi, kassirlarning ularni shartlangan joylarda qoldirishlari, begona shaxslarga berishlari yoki hisobga olinmagan dublikatlarni tayyorlashlari man qilinadi. Metall shkaf (seyf) lar joylashgan xonalar eshigini ochiq qoldirish, shuningdek, ana ular eshigida kalitlarni qoldirish qat’iyan man etiladi.

Kalitlarning hisobda turgan dublikatlari xaltalarga solinib, kassirlar tomonidan muhrlanib, korxona rahbarida saqlanishi lozim. Korxona rahbarining buyrug‘i (qarori)ga asosan tuzilgan komissiya tomonidan har chorakda kamida bir marta kalitlarning hisobda turgan dublikatlari nazorat tekshiruvidan o‘tkaziladi. Ushbu tekshiruv davomida kalitning yo‘qolganligi aniqlangan hollarda, tashkilot rahbari bu haqda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar beradi va zudlik bilan metall shkaf (seyf)ning qulfini almashtirish choralarini ko‘radi.

Kassada mazkur korxonaga tegishli bo‘lmagan naqd pul va boshqa boyliklarni saqlash man qilinadi.

Kassa xonasi va metall shkaf (seyf) larni ochishdan oldin kassir qulflar, eshiklar, deraza panjaralari va muhrlar butligini ko‘zdan kechirishi, qo‘riqlash signalizatsiyasi buzilmaganiga ishonch hosil qilishi shart. Muhr (surg‘uch) shikastlangan yoki olib tashlangan, qulflar, eshik yoki panjaralar sindirilgan taqdirda kassir bu haqda darhol korxona rahbariga ma’lum qilishi shart, rahbar bu haqda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi va ular yetib kelgunga qadar kassani qo‘riqlash choralarini ko‘rishi lozim.

Ushbu holda rahbar, bosh buxgalter yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar, shuningdek, korxona kassiri huquqni muhofaza qiluvchi organlari ruxsatini olgandan so‘ng kassada saqlanayotgan pul mablag‘lari va boshqa boyliklarning bor-yo‘qligini tekshiradilar. Ushbu tekshiruv kassa operatsiyalari boshlanishiga qadar amalga oshirilishi kerak. Tekshiruv natijalari to‘g‘risida 4 nusxada dalolatnoma tuziladi, uni tekshiruvda ishtirok etayotgan barcha shaxslar imzolaydilar. Dalolatnomaning birinchi nusxasi huquqni muhofaza qiluvchi organlariga topshiriladi, ikkinchi nusxasi, agar sug‘urta kompaniyasi va u bilan shartnoma tuzilgan bo‘lsa unga, uchinchi nusxasi yuqori tashkilotga (agar u bor bo‘lsa) yuboriladi, to‘rtinchi nusxasi esa korxonada qoladi.

Kassir ishchi va xizmatchilarning moddiy javobgarligi to‘g‘risidagi amaldagi qonunlarga muvofiq o‘zi qabul qilib olgan barcha boyliklarning butligi hamda qasddan qilingan harakatlari natijasida va o‘z majburiyatlariga pala-partish yoki nohalol munosabatda bo‘lish natijasida korxonaga yetkazilgan har qanday zarar uchun to‘la moddiy javobgar bo‘ladi.

Kassani taftish qilish va kassa intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat. Naqd pul mablag‘larini inventarizatsiyadan o‘tkazish 19-son BHMSda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Korxona rahbari tomonidan belgilangan muddatlarda, lekin har chorakda kamida bir marotaba, har bir korxonada kassada bo‘lgan barcha pullarni varaqma-varaq qayta sanab chiqish va boshqa boyliklarni tekshirish bilan birga kassa kutilmaganda taftish qilinadi. Kassada taftish qilish uchun korxona rahbarining buyrug‘i bilan komissiya tayinlanadi, u dalolatnoma tuzadi. Taftish vaqtida kassada kamomad yoki ortiqcha boyliklar aniqlanganda dalolatnomada kamomad yoxud ortiqcha summa va ularning paydo bo‘lish holatlari ko‘rsatiladi.

Naqd pul mablag‘larini inventarizatsiyadan o‘tkazish dalolatnomasi (7-ilovaga qarang) korxona kassasida bo‘lgan pul mablag‘lari (naqd pullar, pochta markalari va h.k.) haqiqatda mavjudligini inventartsiya natijalarini aks ettirish uchun qo‘llaniladi.

Komissiya pullar mavjudligini kassada bo‘lgan barcha pullar, qimmatli qog‘ozlar, limitlangan chek daftarchalari va h.k.larni to‘liq qayta sanash yo‘li bilan tekshiradi. Dalolatnoma ikki nusxada tuziladi va inventartsiya komissiyasi hamda moddiy javobgar shaxs tomonidan imzolanadi. Dalolatnomaning bir nusxasi korxona buxgalteriyasiga topshiriladi, ikkinchi nusxasi moddiy javobgar shaxsda qoladi.

Inventartsiyani boshlashdan oldin har bir moddiy javobgar shaxsdan yoki pul mablag‘lari saqlanishi uchun javob beradigan shaxslar guruhidan tilxat olinadi. Tilxat shaklning sarlavha qismiga kiritilgan.

Moddiy javobgar shaxslar almashganida dalolatnoma uch nusxada tuziladi (boyliklarni

topshirgan moddiy javobgar shaxsga, boyliklarni qabul qilib olgan moddiy javobgar shaxsga, buxgalteriyaga berish uchun).

Kassa kitobi avtomatlashtirilgan tarzda yuritilgan taqdirda kassa hujjatlariga ishlov berish dasturiy vositalari ishining to‘g‘riligini tekshirish amalga oshiriladi.

Aksiyadorlik, kooperativ (shu jumladan, shirkatlar), jamoat korxonalari va bunday taftishlar ularning ustavida nazarda tutilgan boshqa korxonalarda ular taftish komissiyalari yoki jalb etilgan auditorlar yoki auditorlik tashkilotlari tomonidan o‘tkaziladi.

Kassa intizomini buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar amaldagi qonunlar bilan belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar. Kassa intizomiga rioya etilishi uchun javobgarlik korxonalar rahbarlari, bosh buxgalterlari, moliyaviy xizmatlar rahbarlari va kassirlar zimmasiga yuklanadi.

Bank muassasalari kassa operatsiyalarini yuritishning amaldagi qoidalariga korxonalarning rioya qilishlarini tekshiradilar. Ichki ishlar organlari kassa va kassa punktlarining texnik jihatdan mahkamlanganini, pul va boyliklar butligi uchun shart-sharoitlar ta’minlanganini o‘z vakolatlari doirasida tekshiradilar. Ularning o‘g‘irliklar sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir ko‘rsatmalari albatta bajarilishi kerak.

Kassadagi pul mablag‘lari va ekvivalentlari bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida aks ettirilishi bo‘yicha misol tariqasida ayrim yozuvlarni ko‘rib o‘tamiz:

- bankdan naqd pul mablag‘lari olinganda:

debet 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;

- ishchi va xodimlarga kassadan pul mablag‘lari bo‘nak yoki hisobdor summa sifatida berilishi:

debet 4210 «Mehnat haqi bo‘yicha berilgan bo‘naklar» schyoti;

debet 4220 «Xizmat safariga berilgan bo‘naklar» schyoti;

debet 4230 «Umumxo‘jalik xarajatlari uchun berilgan bo‘naklar» schyoti;

kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti;

- ishchi va xodimlar tomonidan sarflanmagan naqd pul mablag‘lari (hisobdor summa) ni korxona kassasiga qaytarilishi:

debet 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti;

kredit 4220 «Xizmat safariga berilgan bo‘naklar» schyoti;

debet 4230 «Umumxo‘jalik xarajatlari uchun berilgan bo‘naklar» schyoti;

- ishchi va xodimlar tomonidan xizmat safarida yoki tegishli vazifani bajarishda ortiqcha sarflangan pul mablag‘lari korxona kassasidan berilganda:

debet 6970 «Hisobdor shaxslarga bo‘lgan qarzlar» schyoti;

kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti;

- ishchi va xodimlarga naqd pulda ish haqi, moddiy yordam va mukofot to‘langanda:

debet 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyoti;

kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti;

- o‘z vaqtida ishlatilmagan naqd pul mablag‘larini vakolatli bankga qaytarilishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;

kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti.

Kassadagi pul mablag‘lari va ekvivalentlarini hisobga olish bo‘yicha buxgalteriya hisobi yozuvlari 21-son BHMS da batafsil yoritilgan.

3-§. Bank hisobvaraqlari bo‘yicha hisob-kitob operatsiyalar hisobi

Yuridik shaxs sifatli faoliyat ko‘rsatayotgan va mustaqil balansiga ega bo‘lgan korxonalar tijorat banklaridan birida o‘zlarining bank hisobvarag‘ini ochadilar. Yuridik shaxslar o‘rtasidagi hisob-kitoblar, shuningdek, fuqarolar ishtirokidagi, ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishlari bilan bog‘liq hisob-kitoblar naqdsiz tartibda bank muassasalari orqali amalga oshiriladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Banklarda bank hisobvaraqlarini ochish va yopish tartibi

Banklar tomonidan milliy va chetel valyutasida bank hisobvarag‘ini ochish, ularni qayta rasmiylashtirish hamda yopish «O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to‘g‘risida Yo‘riqnoma» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 27-aprelda 1948-son bilan ro‘yxatga olingan)* bilan tartibga solinadi.

Bank hisobvarag‘i - bank hisobvarag‘i shartnomasini tuzish orqali bank mijoz (hisobvaraq egasi) hisobvarag‘iga kelib tushgan pul mablag‘larini qabul qilish va kiritib qo‘yish, mijozning hisobvarag‘idagi tegishli mablag‘larni o‘tkazish va berish hamda hisobvaraq bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish to‘g‘risidagi topshiriqlarni bajarish vazifasini o‘z zimmasiga olishi natijasida bank va mijoz o‘rtasida vujudga keladigan munosabatlarni amalga oshirish vositasi.

Korxonalar banklarda quyidagi turdagi hisobvaraqlarni ochishlari mumkin:

- talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari;
- jamg‘arma depozit hisobvaraqlari;
- muddatli depozit hisobvaraqlari;
- boshqa depozit hisobvaraqlari.

Korxonaning davlat ro‘yxatidan o‘tganidan so‘ng birinchi marta milliy valyutada ochgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i uning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i hisoblanadi. Korxonaning asosiy hisobvarag‘ini ochgandan keyin milliy va chetel valyutasida ochadigan barcha talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari uning ikkilamchi hisobvaraqlari hisoblanadi.

Korxonalar o‘zlariga hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko‘rsatish uchun banklarni mustaqil ravishda tanlaydilar hamda bir yoki bir necha banklarda milliy va chetel valyutasidagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari, shuningdek, jamg‘arma, muddatli va boshqa depozit hisobvaraqlarini ochish huquqiga egalar.

Korxonalar tomonidan bank hisobvaraqlari ochilayotganda, bank hisobvarag‘i shartnomasi tuzilib, unda bank hisobvarag‘i shartnomasida bank mijozning hisobvarag‘iga kelib tushayotgan mablag‘larni hisobvaraqqa kirim qilish va uni kiritib qo‘yish, mijozning hisobvaraqdagi mablag‘larni tasarruf etish borasidagi topshiriqlarini ijro etish shartlari, bu boradagi mijoz hamda bank huquqlari va majburiyatlari, bank xizmatlari uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan komissiyalar hamda boshqa shartlar belgilab olinadi. Bank hisobvarag‘i shartnomasida mijozlarning bank hisobvarag‘iga kelib tushgan mablag‘larni kiritib qo‘yganlik uchun (kredit aylanmasi uchun) vositachilik haqi undirish borasida shart belgilanishi taqiqlanadi.

Korxonalar tomonidan milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

- hisobvaraq ochish to‘g‘risida ariza;
- imzolar namunalari qo‘yilgan ikki dona varaqcha (8-ilovaga qarang);
- korxona nomidan pul-hisob-kitob hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini

tasdiqlovchi hujjati (pasport yoki uni o‘rnini bosadigan hujjat). Shaxsini tasdiqlovchi hujjatdan nusxa olinib, asli qaytarib beriladi.

Korxonalar tomonidan asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatuvchi bankda jamg‘arma va muddatli depozit depozit hisobvaraqlarni ochish uchun «O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlar to‘g‘risida Yo‘riqnoma» ning ilovalarida keltirilgan tegishli shakldagi ariza taqdim qilinadi. Korxonalar boshqa banklarda ikkilamchi talab qilib olinguncha, muddatli, jamg‘arma depozit hisobvaraqlarni ochishda ham asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarni taqdim etishlari kerak.

Korxona (buxgalteriya hisobi subyekti) ning rahbari imzolash huquqiga ega bo‘lgan shaxslarning ikkita ro‘yxatini tasdiqlaydi. Birinchi ro‘yxatga buxgalteriya hisobi subyektida rahbarlik vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar, ikkinchisiga esa, buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini amalga oshiruvchi shaxslar kiradi. Agar buxgalteriya hisobi subyekti rahbari buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini o‘z zimmasiga olgan bo‘lsa, u holda har ikkala ro‘yxatda ham o‘zini ko‘rsatadi.

Imzolar namunalari va muhr izi qo‘yilgan varaqcha ikki nusxada taqdim qilinadi. Varaqchaning bir nusxasi buxgalterda, ikkinchisi esa, pul cheklarini rasmiylashtiruvchi nazoratchida turadi. Banklarda korxonalarning bir nechta schyotlariga xizmat ko‘rsatiladigan bo‘lsa, ulardan imzolar namunalari va muhr izi qo‘yilgan varaqchalar qo‘shimcha ravishda talab qilinishi mumkin. Imzolar namunalari va muhr izi qo‘yilgan varaqchalarda schyotlarning raqamlari ko‘rsatiladi.

Birinchi imzo huquqi ikkinchi imzo huquqiga ega bo‘lgan bosh buxgalter yoki boshqa shaxslarga berilishi mumkin emas, buxgalteriya hisobi subyekti rahbari buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqarish vazifalarini o‘z zimmasiga olgan hollar bundan mustasno.

Rahbar shaxslarga vaqtincha birinchi yoki ikkinchi imzo huquqi berilganda, shuningdek, rahbar tomonidan vakolat berilgan shaxslardan birortasi vaqtincha o‘zgarganda, vaqtincha vakolat berilgan shaxsning imzo namunasi qo‘yilib, amal qilish muddati ko‘rsatilgan qo‘shimcha varaqcha taqdim qilinadi. Ushbu vaqtinchalik varaqcha rahbar tomonidan imzolanadi va muhrlanadi (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda).

Imzolar namunalari va muhr izi qo‘yilgan varaqchaga korxonalarga berilgan asosiy muhr yoki korxona filialining yoxud vakolatxonasining muhr izining namunasi qo‘yilishi shart. Maxsus maqsadlar uchun, masalan, «Paketlar uchun», «Ruxsatnomalar uchun»,«Devonxona», «Ma’lumotlar uchun», «Guvohnomalar uchun» va shu kabilarga mo‘ljallangan muhrlardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Korxonaning muhri o‘zgarganda, varaqchada ko‘rsatilgan imzolardan birortasi almashtirilganda yoki qo‘shilganda schyot egasi yangi imzolar namunalari va muhr izi qo‘yilgan varaqchani taqdim qiladi.

Korxonaning asosiy talab qilib olinguncha depozit schyotini boshqa bankka o‘tkazish tartibi

Asosiy talab qilib olinguncha depozit schyotini boshqa bankka o‘tkazish uchun korxona tomonidan xizmat ko‘rsatuvchi bankka ariza taqdim etiladi va chek daftarchalari qaytariladi. Shundan so‘ng bank korxonaning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘idagi qoldiqni yozma ravishda tasdiqlaydi.

Korxona asosiy talab qilib olinguncha depozit schyoti yopilayotgan bankdan olingan tasdiqnomani ariza bilan birga asosiy talab qilib olinguncha depozit schyoti ochilayotgan bankka taqdim etadi. Ushbu arizaga asosan, asosiy talab qilib olinguncha depozit schyoti ochilayotgan bank korxonaga vaqtinchalik schyot ochadi va bu to‘g‘risida korxona hamda asosiy talab qilib olinguncha depozit schyot yopilayotgan bankka yozma ravishda xabar beradi.

Korxona vaqtinchalik schyot ochilganligi to‘g‘risidagi xabarni olgandan so‘ng, asosiy talab qilib olinguncha depozit schyot yopilayotgan bankka, asosiy talab qilib olinguncha depozit schyotdagi mavjud mablag‘lar qoldig‘ini, asosiy talab qilib olinguncha depozit schyot ochilayotgan bankdagi vaqtinchalik ochilgan schyotga o‘tkazish to‘g‘risida to‘lov topshiriqnomasi taqdim etadi. Asosiy talab qilib olinguncha depozit schyotini yopayotgan bank, korxona yuridik yig‘majildidagi hujjatlar va 2-kartotekadagi (agar, mavjud bo‘lsa) to‘lov hujjatlari ro‘yxatini kiritib, ushbu hujjatlar asosiy talab qilib olinguncha depozit schyot ochayotgan bankka topshirilganligi haqida ikki nusxada dalolatnoma tuzadi. Dalolatnoma bank boshqaruvchisi va bosh buxgalteri tomonidan imzolanib, asosiy muhr qo‘yiladi.

Dalolatnomaning har ikki nusxasiga korxonaning yuridik yig‘majildidagi hujjatlar va 2-kartotekadagi to‘lov hujjatlarining asl nusxalari ilova qilinib, pochta, feldyeger aloqasi yoki kuryer orqali asosiy talab qilib olinguncha depozit schyot ochilayotgan bankka yetkazib beriladi.

Asosiy talab qilib olinguncha depozit schyotni ochayotgan bank ushbu dalolatnomaga ilova qilingan hujjatlarni qabul qilib olgandan keyin mazkur dalolatnomaga ilova qilingan yuridik yig‘majilddagi hujjatlar va 2-kartotekadagi to‘lov hujjatlarining asl nusxalarini olganligini tasdiqlab, bank boshqaruvchisi va bosh buxgalteri tomonidan imzolanib, asosiy muhr qo‘yiladi. Dalolatnomaning bir nusxasi pochta, feldyeger aloqasi yoki kuryer orqali asosiy talab qilib olinguncha depozit schyot yopilayotgan bankka yetkazib beriladi.

Ushbu hujjatlarni asosiy talab qilib olinguncha depozit schyot egasi yoki uchinchi shaxslar orqali berib yuborish qat’iyan taqiqlanadi.

Dalolatnomaning asosiy talab qilib olinguncha depozit schyot ochayotgan bank boshqaruvchisi va bosh buxgalteri tomonidan imzolangan va muhr qo‘yilgan nusxasi olingandan keyin korxona tomonidan yopilayotgan asosiy talab qilib olinguncha depozit schyotdagi mablag‘larni ushbu asosiy talab qilib olinguncha depozit schyot ochilayotgan bankda ochilgan vaqtinchalik schyotga o‘tkazish to‘g‘risidagi to‘lov topshiriqnomasi ijro qilinadi.

Asosiy talab qilib olinguncha depozit schyotni ochayotgan bank ushbu asosiy talab qilib olinguncha depozit schyotni yopayotgan bankdan hujjatlar va mablag‘larni olgandan keyin mijozga yangi asosiy talab qilib olinguncha depozit schyotni ochadi, unga vaqtinchalik schyotdagi qoldiqni o‘tkazadi va mazkur vaqtinchalik schyotni yopadi.

Asosiy talab qilib olinguncha depozit schyoti bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatish va yopish tartibi

Asosiy talab qilib olinguncha depozit schyoti bo‘yicha operatsiyalar faqat schyot egasining farmoyishiga ko‘ra yoki schyotdagi pul mablag‘lari surishtiruvchi, tergovchi qarori bo‘yicha yoxud sud ajrimiga ko‘ra xatlanganda, shuningdek, qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan boshqa hollarda to‘xtatib qo‘yilishi mumkin. Bunday holda, pul mablag‘lari faqat qaror yoki ajrimda ko‘rsatilgan summaga xatlanadi.

Shuni ta’kidlash lozimki, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining banklardagi schyotlari bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib qo‘yish sud tartibida amalga oshiriladi, qonunda ko‘zda tutilgan holatlar bundan mustasno. Banklardagi schyotlar bo‘yicha operatsiyalar faqat chiqim qismida to‘xtatiladi.

Yuqoridagi tartibda xatlangan yoki to‘xtatilgan schyotlarni (ham asosiy, ham ikkilamchi) boshqa banklarga o‘tkazish hamda ushbu schyotlar egalari boshqa schyotlar ochishi mumkin emas.

Bank hisobvarag‘i shartnomasi schyot egasining arizasiga yoki bankning talabiga ko‘ra bekor qilinadi. Schyot yopilgandan so‘ng bank korxonaga barcha taqdim qilingan talablardan ozod bo‘lgan pul mablag‘larning qoldig‘i to‘g‘risidagi ma’lumotnomani taqdim etadi. Schyotdagi pul mablag‘larining qoldig‘i korxonaning tegishli yozma arizasi olingandan keyin kechi bilan yetti

kun ichida korxonaga beriladi yoki uning ko‘rsatmasiga muvofiq boshqa schyotga o‘tkaziladi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi

Yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitoblar O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risidagi Nizom» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 13-aprelda 3229-son bilan ro‘yxatga olingan)* bilan tartibga solinadi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirishda quyidagi hisob-kitob hujjatlaridan foydalaniladi:

- memorial order;
- to‘lov topshiriqnomasi;
- to‘lov talabnomasi;
- inkasso topshiriqnomasi;
- akkreditivga ariza.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli va hisob-kitob hujjatlarining turi mablag‘larni to‘lovchi korxona va mablag‘larni oluvchi korxona (mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar hamda boshqa kreditorlar), o‘rtasida tuziladigan shartnomaga (bitimga) muvofiq belgilanadi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Bank hisobvarag‘i shartnomasida boshqa muddatlar belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa, bank tegishli to‘lov hujjati bankka kelib tushgan kunda mablag‘larni korxona schyotiga kirim qilishi yoki mablag‘larni uning schyotidan hisobdan chiqaradi.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, banklar korxonaning topshirig‘iga binoan elektron to‘lovni tegishli to‘lov hujjati, agar u bankning amaliyot kuni mobaynida tushgan bo‘lsa - tushgan kunda, agar amaliyot kuni tugaganidan keyin tushgan bo‘lsa - keyingi ish kunidan kechiktirmay amalga oshiradi,

To‘lov hujjatlarida quyidagi rekvizitlar bo‘lishi shart:

- to‘lov hujjatining nomi;
- tartib raqami;
- hujjatning sanasi;
- mablag‘larni to‘lovchining nomi;
- mablag‘larni to‘lovchi hisobvarag‘ining raqami;
- mablag‘larni to‘lovchining STIR (soliq to‘lovchining identifikatsiya) raqami;
- mablag‘larni to‘lovchining banki nomi;
- mablag‘larni to‘lovchining banki kodi;
- mablag‘larni oluvchining nomi;
- mablag‘larni oluvchi hisobvarag‘ining raqami;
- mablag‘larni oluvchining banki nomi;
- mablag‘larni oluvchining banki kodi;
- to‘lov summasi;
- to‘lov maqsadi;
- shaxsiy varaqchada ko‘rsatilgan shaxs(lar)ning familiyasi to‘liqligicha, ismi va otasi ismining bosh harflari hamda ularning imzolari (to‘lov hujjati elektron shaklda taqdim etilgan bo‘lsa, bank va mijoz o‘rtasidagi shartnomaga asosan berilgan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi).

To‘lov hujjatidagi to‘lov summasi raqam va so‘z bilan yoziladi, bunda to‘lov summasini so‘z bilan yozilganda birinchi so‘z katta harf bilan va tiyin raqam bilan yoziladi.

Akkreditivga arizada qo‘shimcha ravishda quyidagi rekvizitlar bo‘lishi kerak:
- akkreditivning amal qilish muddati;
- akkreditiv ochilayotgan shartnomaning tartib raqami va sanasi;
- buyurtmaning tartib raqami;
- buyurtma berilgan sana;
- tovarning (ish, xizmat) nomi;
- to‘lovlarni amalga oshirish uchun asos bo‘lgan hujjatning turi;
- qo‘shimcha shartlar.

Agar ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, to‘lov hujjatlarini to‘ldirishda mablag‘larni to‘lovchi va oluvchining qisqartirilgan firma nomidan foydalanish mumkin. To‘lov hujjatlari texnik vositalardan foydalangan holda to‘ldiriladi. To‘lov hujjatlarini bo‘yash, chizish va tuzatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

To‘lov hujjatlari shaxsiy varaqchaga imzo qo‘ygan shaxslar tomonidan imzolanishi shart. To‘lov hujjatlarini faksimile usulida nusxa ko‘chirish vositalaridan foydalangan holda imzolash taqiqlanadi. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim qilingan to‘lov hujjatlariga muhr qo‘yish yoki hujjatlarni muhr bilan tasdiqlash talab etilmaydi. Bank tomonidan elektron shakldagi to‘lov hujjatlari bank va mijoz o‘rtasida tuziladigan shartnomaga asosan identifikatsiya vositalari orqali tasdiqlangan holda qabul qilinadi.

Bank hisobvarag‘i shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, qog‘oz shakldagi to‘lov hujjatlari bank operatsiya kuni davomida bankning mijozlar bilan ishlash vaqtidan kelib chiqqan holda qabul qilinadi. Elektron shakldagi to‘lov hujjatlari bankning mijozlar bilan ishlash vaqtidan qat’i nazar to‘lov hujjatining sanasi bilan u taqdim etilgan sana mos kelgan hollarda ijroga qabul qilinadi.

Bank hisobvaraqlaridagi operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi

Bank hisobvaraqlaridan korxonaning olingan asosiy vositalar, tovar-moddiy zaxiralar uchun mol yuboruvchiga to‘lanmalari, byudjetdan, ijtimoiy sug‘urtadan bo‘lgan qarzni to‘lash, ish haqi berish uchun kassaga olingan pul va boshqa zaruriyatlar uchun to‘langan pul mablag‘lari aks ettiriladi.

Odatda bank tomonidan har qanday pul o‘tkazib berish yoki naqd pul berish korxona yoki hisob-kitob schyotini tasarruf etuvchining buyrug‘i yoki u bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Korxonaga xizmat ko‘rsatuvchi bank belgilangan vaqtda korxonaga uning bankdagi schyotlaridan tegishli boshlang‘ich hujjatlarni ilova qilib ko‘chirma berib turadi. Bank schyotlarining ko‘chirmasida mablag‘larning qoldig‘i va bank hisobvarag‘iga kirim kreditiga yoziladi, chunki bank korxonaning pulini saqlab o‘zini korxonadan qarzdor deb biladi, o‘zining qarzini kamayishi esa – debetiga yoziladi. Buxgalteriyada ko‘chirmani qayta ishlash (prorabotka) jarayonida, ya’ni undan foydalanishda bu xususiyatni e’tiborga olgan holda qoldiq va kelib tushgan pul mablag‘lari buxgalteriya hisobi schyotining debetiga, chiqimi esa – kreditiga yoziladi.

Bank hisobvarag‘idan beriladigan ko‘chirma ma’lum ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, yozuvlarni qisqartirish maqsadida ularning bir qismi kodlashtirilgan. Ko‘chirmani ishlab chiqayotgan buxgalter bu kodlar ma’nosini bilishi kerak.

Bank hisobvarag‘idan beriladigan ko‘chirmalar olingan kuni ular tekshiriladi va ishlab chiqiladi. Bunda barcha yozuvlar ilovada keltirilgan hujjatlar bilan solishtiriladi va xato yozuvlar bo‘lmasa bu hujjatlarga «Qayd etildi» degan shtamp qo‘yib o‘chiriladi. Tekshirilgan

ko‘chirmaning har bir summasi to‘g‘risiga va hujjatlarga 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti bilan bog‘lanuvchi schyotlarning raqamlari qo‘yib chiqiladi. Bundan tashqari, hujjatlarga ko‘chirmada keltirilgan yozuvlarning tartib raqami yozib qo‘yiladi. Bularning hammasi pul mablag‘lari harakatini nazorat qilish, hisob ishlarini avtomatlashtirish va hujjatlarni saqlash uchun kerak.

Bank hisobvarag‘idan noto‘g‘ri chiqarilgan yoki unga xato o‘tkazilgan summalarni aniqlash maqsadida ular 4860 «Da’volar bo‘yicha olinadigan schyotlar» schyotida hisobga olinadi, aniqlash va tegishli o‘zgarishlar kiritish uchun bankka xabar beriladi. To‘g‘rilangan summa bankning navbatdagi ko‘chirmalarida aks ettiriladi, korxona buxgalteriya hisobida esa bu qarz 4860 «Da’volar bo‘yicha olinadigan schyotlar» schyotidan hisobdan chiqariladi.

Asosiy va ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit schyotlari bo‘yicha sodir bo‘ladigan operatsiyalarni hisobga olish uchun korxonada 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti ochiladi. Bu schyot aktiv bo‘lib, uning debetida asosiy va ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit schyotlariga kelib tushgan barcha pul mablag‘lari, kreditida esa - asosiy va ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit schyotlaridan barcha sarflangan pul mablag‘lari aks ettiriladi. Bu schyotning debet saldosi asosiy va ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit schyotida pul mablag‘larining qolgan qoldig‘ini ko‘rsatadi. Bu schyotda boshqa aktiv schyotlar kabi kredit qoldiq bo‘lmaydi.

5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti bo‘yicha operatsiyalar tekshirilgan bank ko‘chirmasi va unga ilova qilingan pul hujjatlariga asosan aks ettiriladi. 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyotining saldosi asosiy va ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit schyotidan berilgan ko‘chirmada ko‘rsatilgan qoldiqqa teng kelishi kerak.

Buxgalteriya hisobi jurnal-orderlarda yuritilsa, 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyotining kredit aylanmalari 2 - jurnal-orderida aks ettiriladi. 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyotining debet aylanmalari turli jurnal-orderlarga yoziladi va undan tashqari, 2-qaydnomaga yozib nazorat qilinadi. Bu registrlar tekshirilgan va ishlab chiqilgan bank ko‘chirmalariga asosan to‘ldiriladi.

Asosiy va ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit schyotlaridan olingan ko‘chirmada ko‘rsatilgan bir xildagi bog‘lanuvchi schyotlarning summalari 2 – jurnal-order va 2 – qaydnomaga jamlab yoziladi.

2 - jurnal-order va 2 - qaydnomani yuritish bir oyga mo‘ljallanganligi uchun bankdan olingan har bir ko‘chirma ma’lumotlari bir qatorga yoziladi. Demak, 2 -jurnal-order va 2 - qaydnomada band qilingan qatorlar soni shu davr ichida bankdan olingan ko‘chirmalar soniga teng bo‘lishi kerak. Registrlarda summalar 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyotining debeti va krediti bilan bog‘lanadigan schyotlar bo‘yicha yoziladi. Har bir hisobot (kun, oy) davriga bunday ko‘rsatkichlarning mavjudligi buxgalteriya xodimlariga korxona asosiy va ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit schyotlariga pul mablag‘larining kelib tushish manbalarini tahlil qilish, maqsadli foydalanilishini, tasdiqlangan moliyaviy to‘lanmalar kalendar grafigiga binoan byudjetga va boshqa organlarga mablag‘ o‘tkazilishi ustidan nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Korxona tomonidan xizmat ko‘rsatuvchi bankda ochilgan akkreditivdagi pul mablag‘lari 5510 «Akkreditivlar» schyotida hisobga olinadi. Xizmat ko‘rsatuvchi bankda ochilgan akkreditivga pul mablag‘larini o‘tkazish 5510 «Akkreditivlar» schyotining debetida va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» schyoti va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

5510 «Akkreditivlar» schyoti bo‘yicha akkreditivda hisobga olingan pul mablag‘lari ularning ishlatilishi bo‘yicha (bank ko‘chirmalariga asosan), 6010 «Mol yetkazib beruvchilar

va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti va boshqa majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetiga hisobdan chiqariladi. Akkreditivdagi ishlatilmagan mablag‘lar, bank tomonidan ular qaysi schyotdan o‘tkazilgan bo‘lsa, shu schyotlarga qayta tiklanganda 5510 «Akkreditivlar» schyotining krediti, 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» schyoti va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Bu hisob-kitoblarning sintetik va analitik hisobi bankning ko‘chirmasiga asosan 3-jurnal-orderda yuritiladi.

Korxona tomonidan xizmat ko‘rsatuvchi bankdan olingan chek daftarchalaridagi pul mablag‘larining harakati 5520 «Chek daftarchalari» schyotida hisobga olinadi. CHek daftarchalarini berishda pul mablag‘larini deponentlash 5520 «Chek daftarchalari» schyotining debeti va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

Agar chek daftarchalarini berishda pul mablag‘larini deponentlash bankning qisqa muddatli kreditlari yoki qisqa muddatli qarzlar hisobiga amalga oshirilsa, bu operatsiya 5520 «CHek daftarchalari» schyotining debeti va 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» schyoti, 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» schyotining kreditida aks ettiriladi. Bankning qisqa muddatli kreditlari yoki qisqa muddatli qarzlar qaytarilishi 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» schyoti, 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» schyotining debeti va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

Korxona tomonidan berilgan cheklarning to‘lovi doirasidagi summa 5520 «Chek daftarchalari» schyotining kreditidan xarajat va qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda hisobdan chiqariladi. Chek bilan berilgan, lekin bank tomonidan to‘lanmagan (to‘lovga taqdim etilmagan) summa 5520 «Chek daftarchalari» schyotida qoladi va ushbu 5520 «Chek daftarchalari» schyotining qoldig‘i bank ko‘chirmalari bilan mos kelishi lozim. Bankka qaytarilgan cheklarning (foydalanilmay qolgan) summasi 5520 «Chek daftarchalari» schyotining kreditida 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» schyoti va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Kreditor korxonalar bilan hisob-kitob qilish uchun korxona xodimlariga hisobdorlikka berilgan chek daftarchalaridagi mablag‘larning harakati ustidan nazorat tezkor ravishda yuritiladi. Chek daftarchalari bo‘yicha sodir bo‘ladigan operatsiyalar 5520 «Chek daftarchalari» schyoti bo‘yicha 3-jurnal-orderda yuritiladi.

O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi Qonunining 9-moddasiga muvofiq, korxonalar tomonidan savdo va servis sohasida olinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqi korporativ plastik kartalardan foydalangan holda to‘langanida to‘lov terminallarining cheklari ham boshlang‘ich hisob hujjatlari deb tan olinadi.

Korxona tomonidan xizmat ko‘rsatuvchi bankdan olingan bank plastik kartochkasidagi pul mablag‘larining harakati 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotida hisobga olinadi. Bank plastik kartochkasiga pul mablag‘lari o‘tkazilganda 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining debeti va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

Agar bank plastik kartochkasiga pul mablag‘lari o‘tkazish bankning qisqa muddatli kreditlari

yoki qisqa muddatli qarzlar hisobiga amalga oshirilsa, bu operatsiya 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining debeti va 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» schyoti, 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» schyotining kreditida aks ettiriladi. Bankning qisqa muddatli kreditlari yoki qisqa muddatli qarzlar qaytarilishi 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» schyoti, 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» schyotining debeti va va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

Korxona tomonidan bank plastik kartochkasi to‘lovi doirasidagi summa 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining kreditidan xarajat va qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda hisobdan chiqariladi. 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining qoldig‘i bank plastik kartochkasi bo‘yicha bank ko‘chirmalari bilan mos kelishi lozim. Bank plastik kartochkasidagi ishlatilmagan mablag‘lar, bank tomonidan ular qaysi schyotdan o‘tkazilgan bo‘lsa, shu schyotlarga qayta tiklanganda 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotining kreditida 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» schyoti va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Kreditor korxonalar bilan hisob-kitob qilish uchun korxona xodimlariga hisobdorlikka berilgan bank plastik kartochkasidagi pul mablag‘larning harakati ustidan nazorat tezkor ravishda yuritiladi. Bank plastik kartochkalari bo‘yicha sodir bo‘ladigan operatsiyalar 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyoti bo‘yicha 3-jurnal-orderda yuritiladi.

5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyotida bankda maxsus saqlanadigan maqsadli moliyalashtiriladigan (tushumlar) mablag‘lar, shu jumladan, ijtimoiy muassasalar, obyektlar (bolalar bog‘chasi va boshqalar)ni saqlash uchun ota-onalardan, o‘zga foydalanuvchilar va boshqa manbalardan kelib tushgan pul mablag‘lari; korxonaning talabiga ko‘ra alohida schyotda yig‘iladigan va sarflanadigan kapital qo‘yilmalarni moliyalashtirish mablag‘lari; davlat idoralarining subsidiyalari va shu kabilarning harakati hisobga olinadi.

Korxonaning ajratilgan bo‘linmalarga bankda joriy xarajatlarni (mehnat haqi, alohida xo‘jalik xarajatlari, xizmat safarlari va shu kabilar) amalga oshirish uchun ochilgan joriy schyotlarda ushbu ko‘rsatilgan mablag‘larning harakati alohida schyotda aks ettiriladi.

Saqlash joyidan chiqib ketgan, ammo mo‘ljallangan joyiga yetib bormagan pul mablag‘lari (inkassatorga berilgan sotishdan olingan tushumlar, pul o‘tkazmalari) 5710 «Yo‘ldagi pul mablag‘ (o‘tkazma)lari» schyotida hisobga olinadi. 5710 «Yo‘ldagi pul mablag‘ (o‘tkazma)lari» schyot tranzit schyot hisoblanadi va pul mablag‘larining harakati ustidan uzluksiz nazoratni o‘rnatish uchun bog‘lovchi vazifasini bajaradi.

Inkassatorlarga topshirilganda naqd pul mablag‘lari summasi 5710 «Yo‘ldagi pul mablag‘ (o‘tkazma)lari» schyotining debetida va 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari», 5020 «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari» schyotlarining kreditida aks ettiriladi. Pul mablag‘lari kirim qilingandan keyin 5710 «Yo‘ldagi pul mablag‘ (o‘tkazma)lari» schyoti kreditida 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

4-§. Pul ekvivalentlari hisobi

Korxona kassasi naqd pul mablag‘lari va boshqa qimmatliklar (qimmatli qog‘ozlar, pulli hujjatlar, pochta markalari va boshqa)ni qabul qilish, berish hamda saqlash operatsiyalarini amalga oshiradi.

Ma’lumki, pul ekvivalentlari - pul mablag‘lariga o‘xshaydigan, lekin boshqacha tasniflanadigan aktivlardir. Ular xazina veksellari, tijorat qog‘ozlari va depozit sertifikatlardan iborat. Kechikishlar va jarima sanksiyalari pul ekvivalentlarining pul mablag‘lariga almashtirilishiga ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun, ekvivalentlar 5610 «Pul ekvivalentlari (turlari bo‘yicha)» schyotida hisobga olinadi. Ko‘pincha pul ekvivalentlarini hisob-kitob vositasiga aylantirish ehtiyoji yo‘q. Ekvivalentlar odatda qisqa muddatli investitsiya schyotida hisobga kiritiladi.

Markalar, pattalar va boshqa pul ekvivalentlari 5610 «Pul ekvivalentlari (turlari bo‘yicha)» schyotida nominal qiymati bo‘yicha hisobga olinadi. Pul ekvivalentlari xarid qilinganda nominal qiymati bo‘yicha summalari 5610 «Pul ekvivalentlari (turlari bo‘yicha)» schyotining debetida va 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari», 5020 «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari», 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning kreditida aks ettiriladi. Pul ekvivalentlari sarflanganda esa nominal qiymati bo‘yicha summalari 5610 «Pul ekvivalentlari (turlari bo‘yicha)» schyotining krediti va sarflanish maqsadlaridan kelib chiqib xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettiriladi.

21-son BHMSga muvofiq pul ekvivalentlari bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- pul ekvivalentlarining naqd pulga xarid qilinishi:

debet 5610 «Pul ekvivalentlari (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari», 5020 «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari» schyotlari;

- pul ekvivalentlarining korxonaning bank hisobvaraqlaridan pul mablag‘larini o‘tkazish orqali xarid qilinishi:

debet 5610 «Pul ekvivalentlari (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar;

- hisobdor shaxslar orqali pul ekvivalentlarining xarid qilinishi:

debet 5610 «Pul ekvivalentlari (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit xodimlarga berilgan bo‘naklarni hisobga oluvchi schyotlar (4220-4290) yoki 6970 «Hisobdor shaxslarga bo‘lgan qarz» schyoti,

- turli shaxslardan pul ekvivalentlarining xarid qilinishi:

debet 5610 «Pul ekvivalentlari (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 6990 «boshqa majburiyatlar» schyoti;

- turli shaxslardan pul ekvivalentlarining xarid qilinishi:

debet xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (2000, 2500, 9400);

kredit 5610 «Pul ekvivalentlari (turlari bo‘yicha)» schyoti.

Shunday qilib, pul mablag‘larini yuqorida ko‘rsatilgan tartibda taftish va nazoratini olib borish korxonaning pul mablag‘laridan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi.

Korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish nafaqat ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat) lar sifatini va miqdorini oshirish va ularni yuqori narxlarda sotish, balki mavjud ishlab chiqariz resurslardan eng avvalo pul mablag‘laridan samarali foydalanish orqali ham erishish mumkin. Buning uchun esa korxona pul mablag‘larini maqsadli va optimal ravishda ishlatilishini to‘liq nazorat qilib borishi kerak.

Pul mablag‘lari va ekvivalentlarini inventarizatsiyadan o‘tkazish tartibi

Pul mablag‘lari va ekvivalentlarini inventarizatsiyadan o‘tkazish 19-son BHMSda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Bankda hisob-kitob va joriy schyotlar, akkreditivlar, maxsus, alohida va boshqa schyotlarda bo‘lgan pul mablag‘larini inventarizatsiyadan o‘tkazish korxona buxgalteriyasining ma’lumotlari bo‘yicha tegishli schyotlarda qayd etilgan summalar qoldig‘ini bank ko‘chirmasidagi ma’lumotlar bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Yo‘ldagi pul mablag‘larini inventarizatsiyadan o‘tkazish buxgalteriya hisobi schyotlarida qayd etilgan summalarni bank muassasalari, pochta bo‘limi va h.k.larning kvitantsiyalari ma’lumotlari bilan solishtirish vositasida amalga oshiriladi.

ILOVALAR

1-ilova

_____ o **"NAMUNA"**

(korxonaning nomi) _____

(korxonaning nomi)

OKUD bo‘yicha kodi _____

KIRIM KASSA ORDERI N [ ]

N_____ kirim kassa orderiga KVITANTSIYA

Kun	Oy

Aloqalanuvchi schyot, ikkilamchi schyot	Analitik hisob xos raqami	Summasi	Maqsadli foydalanish xos raqami

_____

_____

_____

_____ dan qabul qilindi

_____ dan qabul qilindi

Asos _____

Asos_____

_____

_____ so‘m. _____ tiyin.

_____

_____

(so‘z bilan)

(yozuv bilan)

Ilova_____

_____

"___" _____ 200__ -y.

M. O‘.

Bosh buxgalter
(yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs) _____
Qabul qilib olgan kassir _____

Bosh buxgalter
(yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs) _____
Kassir _____

2-ilova

"NAMUNA"

_____

(korxonaning nomi)

OKUD bo‘yicha kodi _____

CHIQIM KASSA ORDERI N [ ]

Kun	Oy

Aloqalanuvchi schyot, ikkilamchi schyot	Analitik hisob xos raqami	Summasi	Maqsadli foydalanish xos raqami

_____ ga berilsin

(familiyasi, ismi, sharifi)

Asos: _____

_____ so‘m. _____ tiyin.

(summa yozuv va raqamlarda)

Ilova _____

Rahbar _____ Bosh buxgalter _____

_____ so‘m _____ tiyin.

(summasi yozuv va raqamlarda)

"____" _____ 200__ -y. Imzo_____

_____ bo‘yicha

(oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat nomi, raqami, berilgan joyi va vaqti)

Kassir _____ tomonidan berildi.

3-ilova

Deponentlangan ish haqining – sonli ro‘yxati
_____ 20__ -yil uchun.

T/r	F.I.SH	Deponent schyotiga o‘tkazilgan			To‘langan		
		deponentlangan sana	to‘lov qaydnomasining tartib raqami	miqdori (so‘m, tiyin)	sana	kassa chiqim orderining tartib raqami	miqdori (so‘m, tiyin)
1	2	3	4		7	8	9
Jami deponentlangan							

Tuzdi kassir: _____ _____
imzosi F.I.SH.

Tekshirdi buxgalter _____ _____
imzosi F.I.SH.

4-ilova

Kassa kirim orderlarini qayd etish

DAFTARI

T/r	Kimdan olindi	Maqsadi	Miqdori (summasi)	Sana

5-ilova

Kassa chiqim orderlarini qayd etish

DAFTARI

T/r	Kimga berildi	Maqsadi	Miqdori (summasi)	Sana

6-ilova
muqova

Korxona _____
(nomi)

KASSA KITOBI
20__ -yil uchun

Muhrlash oxirgi betning pastki o‘ng burchagidan
«Mazkur «Kassa kitobida» da ____ varaq raqamlangan,
tikilgan va so‘rg‘ich bilan muhrlangan»
M.U. «___» _____ 20__ -y.

Kassa kitobining birinchi varag‘i

20__ -y. «___» _____ uchun kassa _____ - varaq

Hujjat raqami	Kimdan olingan yoki kimga berilgan	Bog‘lanuvchi schyot raqami	Kirim	Chiqim
1	2	3	4	5
	Kun boshiga qoldiq		x	x

Kyesish chizigi

Hujjat raqami	Kimdan olingan yoki kimga berilgan	Bog‘lanuvchi schyot raqami	Kirim	Chiqim
1	2	3	4	5
Kun buyicha jami				
Kun oxiriga qoldiq				
jumladan ish haqiga ijtimoiy xarakterdagi to‘lovlar				
Kassir _____ _____				
imzo F.I.SH.				

Kassa kitobidagi yozuvni tekshirdim va _____ kirim,
so‘z bilan
_____ chiqim hujjatlarini oldim
so‘z bilan
Buxgalter _____ _____
imzo F.I.SH.

7-ilova

Korxona _____

(nomi)

_____da joylashgan

Mavjud naqd pullarni inventarizatsiyadan o‘tkazishning _____ son dalolatnomasi

«____» _____ 20__ -yil

Tilxat

Inventarizatsiya boshlanishi oldidan pul mablag‘lariga oid barcha chiqim va kirim hujjatlari buxgalteriyaga topshirilgan va mening javobgarligimga kelib tushgan barcha pul mablag‘lari kirim qilingan, chiqib ketganlari esa xarajatga hisobdan chiqarilgan

Moddiy javobgar shaxs

_____ _____ _____

lavozimi imzosi F.I.SH.

«____» _____ 20__ -yildagi ____ son buyruqqa (farmoyishga) asosan «____» _____ 20__-yildagi holat bo‘yicha pul mablag‘larini inventarizatsiyasi amalga oshirildi.

Inventartsiya jarayonida quyidagilar aniqlandi:

1) naqd pullar _____so‘m _____ tiyin
2) pochta markalari _____so‘m _____ tiyin
3) _____so‘m _____ tiyin
4) _____so‘m _____ tiyin

Jami haqiqatda mavjud _____so‘m _____ tiyin

_____

(so‘z bilan)

Hisob ma’lumotlari bo‘yicha _____sum _____ tiyin

Inventarizatsiya natijalari:

ortiqcha _____

kamomad _____

kassa orderlarining oxirgi raqamlari:

kirim orderi № _____ chiqim orderi № _____

Komissiya raisi:

_____ _____ _____

lavozimi imzosi F.I.SH.

Komissiya a’zolari:

_____ _____ _____

lavozimi imzosi F.I.SH.

_____ _____ _____

lavozimi imzosi F.I.SH.

Dalolatnomada sanalgan pul mablag‘lari mening mas’uliyatli saqlashimda turganini tasdiqlayman.

Dalolatnomaning orqa tomoni

Pul mablag‘larining ortiqcha yoki kam chiqqani sabablarini tushuntirish _____

_____

Moddiy javobgar shaxs

_____ _____ _____

lavozimi imzosi F.I.SH.

Korxona rahbarining qarori _____

Korxona rahbari _____ _____

imzosi F.I.SH.

«____» _____ 20__ -yil

8-ilova

Old tomoni

Imzolar namunalari qo‘yilgan

BANK BELGISI

VARAQCHA
(tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun)

Hisobvaraq egasi _____

(to‘liq nomi)

_____

_____

Manzili: _____

_____

Imzolar namunalarini qabul qilishga ruxsat berildi

Bankning vakolatli xodimi _____

(imzo)

Sana: 20__ -yil «___» _____

BOSHQA BELGILAR

_____

_____

Orqa tomoni

_____ Hisobvaraq raqami _____

(xo‘jalik yurituvchi subyektning nomi)

Lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi	Imzo namunalari
Birinchi imzo		
Ikkinchi imzo		

Birinchi yoki ikkinchi imzo huquqidan vaqtincha foydalanuvchi mansabdor shaxslarning vakolat muddati

Vakolat va imzolarni tasdiqlayman _____

(Yuridik shaxs rahbari) (F.I.O. va imzo)

Berilgan chek daftarchalari		
Sana	№ dan	№ gacha

8-BOB. DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLAR HISOBI

1-§. Debitorlik va kreditorlik qarzlari hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 234-moddasining birinchi qismida «majburiyat» tushunchasi keltirilgan. Majburiyat muayyan fuqarolik - huquqiy munosabatdan iborat bo‘lib, uning amal qilishi orqali bir shaxs (qarzdor) ikkinchi shaxs (kreditor) foydasiga ma’lum bir xatti-harakatni bajarishi shart: mol-mulkni topshirish, ishni bajarishi, xizmat ko‘rsatishi, pul to‘lashi va sh.k., yoki biron harakatni bajarishdan tiyilishi zarur, kreditor esa qarzdordan o‘z majburiyatini bajarishni talab etishga haqlidir.

Ko‘rinib turibdiki, yuqorida aytilgan majburiyat tushunchasiga muvofiq u qarzdorning harakatni bajarish (harakatdan tiyilish) majburiyatidan va kreditorning talab qilish huquqidan iborat oddiy bir sxemada tasvirlab berildi. Amalda esa majburiyatli huquqiy munosabatlar ko‘pincha murakkab mexanizmdan iborat bo‘ladi, zero taraflarning har qaysisi ham bir vaqtning o‘zida debitor va kreditor sifatida namoyon bo‘ladi.

Agar korxona qarz olib uni qaytarib berishga va’da bergan bo‘lsa, u holda korxonaning bu majburiyati muayyan korxona (qarz olgan korxona) uchun kreditor qarz deb, qarz bergan korxona (kreditor) uchun debitor qarz deb ataladi.

Fuqarolik huquqining tabiatiga ko‘ra ko‘pchilik majburiyatlar mulkiy munosabatlardan iborat bo‘lib, mol-mulkni egalikka o‘tkazib berish, kontragentiga foydalanish uchun berish, unga qarz uchun to‘lov sifatida yoki kredit tarzida pul berish, qurilish ishlarini bajarish, turli xil xizmatlar ko‘rsatish (tashish, saqlash, hisob-kitob) va boshqalardan tashkil topadi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 234-moddasi majburiyatni yuzaga keltiruvchi faqat ikkita asosni sanab o‘tadiki, bulardan shartnoma va zarar yetkazish aniq ko‘rsatilib, keyin esa O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko‘rsatilgan boshqa asoslarga havola qilinadi.

Majburiyatning vujudga kelishi uchun shartnoma keng tarqalgan asos bo‘lib xizmat qiladi. SHartnoma deganda ikkita yoki bir necha shaxsning fuqarolik munosabatlarini o‘rnatish, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuvi anglashiladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini buxgalteriya hisobini tartibini aniqlovchi asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi, «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» gi Qonunlari;
- korxonalar o‘rtasidagi o‘zaro hisob-kitoblarni tartibga solish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari;
- O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlari va boshqa buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi idoraviy me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

Chetel valyutasida ifodalangan debitorlik va kreditorlik qarzlari bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini hisobini tashkillashtirishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim.

Agar shartnomada yetkazib berilgan tovar-moddiy qiymatliklar, bajarilgan ishlar va

ko‘rsatilgan xizmatlarga oldindan haq to‘lash nazarda tutilgan bo‘lmasa, xaridor (buyurtmachi) sotuvchi (pudratchi) ga shartlasxilgan haqni shartnoma shartlari tegishli tarzda va kelishilgan muddatda bajarilib, uning natijalari uzil-kesil topshirilganidan keyin to‘lashi shart.

Sotuvchi (pudratchi) qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda va miqdordagina o‘ziga bo‘nak yoki zakalat berilishini talab qilishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi PF-1154-sonli «Xalq xo‘jaligida hisob-kitoblar o‘z vaqtida o‘tkazilishi uchun korxona va tashkilotlar rahbarlarining ma’suliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi Farmoni bilan ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz yoki undan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iste’molchilar va buyurtmachilarga, agar ular yetkazib beriladigan (bajariladigan ishlar, xizmatlar) qiymatining kamida 15 foizini oldindan to‘lamasalar, mahsulot jo‘natishi, ishlarni bajarishi va xizmatlar ko‘rsatishi taqiqlanadi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

Shuning uchun sotuvchi (pudratchi) yetkazib beriladigan tovar-moddiy qiymatliklar, bajariladigan ish va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatining 15 foizidan kam bo‘lmagan avans to‘lashni talab qilishi shart, qonunchilikda belgilangan holatlar bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-avgustdagi PF-1504-sonli «Byudjet bilan hisob-kitoblar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi Farmoni bilan 1996-yilning 1-sentyabridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi doirasida barter asosida mahsulot yetkazib berish to‘g‘risida shartnomalar tuzish taqiqlangan.

Shuning uchun yetkazib beriladigan tovar-moddiy qiymatliklar, bajariladigan ish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun haq to‘lash pul mablag‘lari bilan amalga oshirilishi shart.

Korxonalar tomonidan debitorlik va kreditorlik qarzlarini hisobini tegishli ravishda tashkil etish va ularni bilan bog‘liq operatsiyalarni nazorat qilish uchun zarur bo‘ladigan ichki nizom, yo‘riqnoma, boshqa tashkiliy-taqsimlovchi hujjatlarni ishlab chiqishlari mumkin. Yuqoridagi hujjatlarda bilan:

- debitorlik va kreditorlik qarzlarini bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan boshlang‘ich hujjatlarning shakllari va ularni rasmiylashtirish (tuzish) tartibini, shuningdek hujjat aylanishining qoidalarini;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarini bilan bog‘liq operatsiyalarni amalga oshirishga ishonch bildirilgan bo‘linmalarining mas’ul shaxslari ro‘yxatini;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarini hisobini to‘g‘ri yuritilishini, ular bilan bog‘liq operatsiyalar to‘g‘risidagi hisobotlarni ishonchligini va boshqalarni tasdiqlashi mumkin.

2-§. Xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar hisobi

Debitorlar (lat. debitor - qarzdor) - ushbu subyektga qarzdor bo‘lgan boshqa korxona, tashkilot, muassasa yoki shaxslar bo‘lib, ular debitorlik qarzlarini to‘lashlari lozim.

Korxonalarda debitorlik qarzlarni quyidagi guruhlarga umumlashtirish mumkin:

- xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar;
- olingan veksellar;
- ajratilgan bo‘linmalar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar;
- turli yuridik va jismoniy shaxslarga berilgan bo‘naklar;
- xodimlar, ta’sischilar va turli debitorlarning qarzlari.

21-son BHMS ga muvofiq, debitorlik qarzlar bo‘yicha hisob-kitoblar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 0940 «Boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzlari» schyotida xaridorlar va buyurtmachilardan hamda sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlardan tayyor mahsulot, tovarlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan schyotlar bo‘yicha, mol yetkazib beruvchilarga tovar-moddiy qiymatliklarni yetkazib berish uchun berilgan bo‘naklar bo‘yicha va yuqorida keltirilmagan turli qarzlar bo‘yicha olinadigan schyotlarning uzoq muddatli qismi hisobga olinadi. 0940 «Boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzlari» schyot bo‘yicha analitik hisob xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan har bir schyot bo‘yicha yuritiladi. Analitik hisobning tashkil qilinishi xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar bo‘yicha qarzlar to‘g‘risida ma’lumotlarni olish imkoniyatini berishi lozim;

- 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyotida sotilgan mahsulot (tovar)lar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun xaridorlar va buyurtmachilarga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlari bo‘yicha debitorlik qarzlari hisobga olinadi. 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir xaridor (buyurtmachi) bo‘yicha yuritiladi;

- 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyotida Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining (balanslararo yoki xo‘jalik ichidagi hisob-kitoblar) debitorlik qarzlari hisobga olinadi. Ushbu schyotda tovar, mahsulot, ish, xizmatlarni sotish va boshqa joriy operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblar hisobga olinadi. 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyotlari bo‘yicha analitik hisob har bir sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlari bo‘yicha yuritiladi.

- 4910 «Dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv» schyotida korxona tomonidan tashkil etilgan dargumon qarzlar bo‘yicha rezervlar hisobga olinadi. 4910 «Dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir dargumon qarz va rezerv tashkil qilingan muddat bo‘yicha yuritiladi;

- 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyotida xaridorlar (buyurtmachilar) ga qisman tayyor holdagi tovar-moddiy qiymatliklarni yetkazib berishga yoki ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha joriy majburiyatlar hisobga olinadi. 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir olingan bo‘naklar turi bo‘yicha alohida yuritiladi;

- 7310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyotida korxonaning xaridorlar (buyurtmachilar) ga qisman tayyor holdagi tovar-moddiy qiymatliklarni yetkazib berishga yoki ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlari hisobga olinadi. 7310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir olingan bo‘naklar turi bo‘yicha alohida yuritiladi.

Korxona xaridor va buyurtmachilarga mahsulot (tovarlar) ni yetkazib berilganda, ish bajarilganda va xizmat ko‘rsatilganda xaridor (buyurtmachi)larga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlarida ko‘rsatilgan summaning uzoq muddatli qismi bo‘yicha - 0940 «Boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzlari» schyoti, joriy qismi bo‘yicha - 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti debetlanadi va 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti, 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar» schyoti, 9030 «Ish bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar» schyoti kreditlanadi.

Korxona xaridor va buyurtmachilarga asosiy vositalar va boshqa aktivlarni realizatsiya qilganda xaridor (buyurtmachi)larga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlarida ko‘rsatilgan

summaning uzoq muddatli qismi bo‘yicha - 0940 «Boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzlari» schyoti, joriy qismi bo‘yicha - 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti debetlanadi va 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti, 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti kreditlanadi.

Xaridorlar va buyurtmachilar bilan yetkazib berilgan tovar-moddiy qiymatliklari, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish muddati kelganda xaridorlar va buyurtmachilarning uzoq muddatli qarzlari summasining joriy qismga o‘tkazilishi 0940 «Boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzlari» schyotining kreditida, 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Korxona xaridor va buyurtmachilarga mahsulot (tovarlar), asosiy vositalar va boshqa aktivlarni yetkazib berish, shuningdek ish bajarish yoki xizmat ko‘rsatish uchun ulardan bo‘nak to‘lovini (oldindan to‘lashni) talab qilishi mumkin. Bunday holatda bo‘nak tovar-moddiy qiymatliklarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha shartnomaning bajarilishi hamda xaridor va buyurtmachilardan kelgusidagi to‘lovlarning kelib tushishiga kafolat sifatida xizmat qiladi.

Bunday bo‘naklar pul mablag‘ini olgan korxona uchun mahsulot va tovarlarni yetkazib berish hamda ishlarni bajarish yoki xizmatlarni ko‘rsatish amalga oshirilishiga qadar majburiyat bo‘lib hisoblanadi. Olingan bo‘naklarga quyidagilar misol bo‘ladi: korxona tomonidan gaz, suv, yoritish va boshqa maishiy xizmatlar, shuningdek tovar-moddiy qiymatliklarni va boshqalarni yetkazib berish uchun oldindan olingan to‘lovlar.

Tovar-moddiy qiymatliklarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘nak summalarining uzoq muddatli qismi bo‘yicha - 7310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyotining, joriy qismi bo‘yicha – 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyotining krediti va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettiriladi.

Tayyor holdagi mahsulot (ish, xizmat) ni xaridorlar va buyurtmachilarga topshirish muddati kelganda xaridorlar va buyurtmachilardan olingan uzoq muddatli bo‘naklar summasining joriy qismga o‘tkazilishi 7310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyotining debetida 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Xaridorlarga mahsulot yuklab jo‘natilganda, buyurtmachilarga ishlar tugatib topshirilganda va xizmatlar ko‘rsatilganda olingan bo‘naklar xaridor va buyurtmachilarning majburiyatlarini kamaytirib, 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyotining debeti va 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyotining krediti bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

Xaridorlar va buyurtmachilar bilan yetkazib berilgan tovar-moddiy qiymatliklari, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha yakuniy hisob kitoblar amalga oshirilganda 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyotining krediti va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti,

5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debeti bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

Xaridorlar va buyurtmachilar bilan tovar-moddiy qiymatliklarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha tuzilgan shartnoma shartlari bajarilmagan yoki shartnoma bekor qilingan hollarda xaridor va buyurtmachilarning talabi bilan ilgari olingan bo‘nak qaytariladi. Bunda uzoq muddatli qismi bo‘yicha - 7310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti, joriy qismi bo‘yicha - 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti debetlanadi va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar kreditlanadi.

Xaridorlar va buyurtmachilardan tovar-moddiy qiymatliklarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish uchun olingan bo‘nak bo‘yicha da’vo bildirish muddati davomida xaridor va buyurtmachilar talab etilmasa korxonaning asosiy faoliyatning boshqa operatsion daromadlari tarkibiga hisobdan chiqariladi. Bunda uzoq muddatli qismi bo‘yicha - 7310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti, joriy qismi bo‘yicha – 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyotining debetlanadi va 9360 «Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar» schyoti kreditlanadi.

Belgilangan muddatda qoplanmagan va tegishli kafolatlar bilan ta’minlanmagan korxonaning debitorlik qarzi dargumon qarz sifatida tan olinadi. Dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv hisobot yili oxirida korxonaning debitorlik qarzlarining inventarizatsiyasi natijalari asosida tashkil etiladi.

Korxonaning yuridik va jismoniy shaxslar bilan hisob-kitoblari bo‘yicha dargumon qarzlari summasiga rezerv tashkil qilinganda 4910 «Dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv» schyotining krediti va 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotining debeti bo‘yicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi.

Rezerv hajmi har bir dargumon qarz bo‘yicha alohida, qarzdorning moliyaviy ahvoli (to‘lov qobiliyati) va qarz summasini to‘liq yoki qisman to‘lash ehtimolini baholash asosida aniqlanadi.

Ilgari korxona tomonidan dargumon qarz sifatida tan olingan qarzlarni dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv hisobidan balansdan chiqarish 4910 «Dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv» schyotining debetida 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti va boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar (olinadigan schyotlar)ni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Ishlatilmagan dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv summasining foydaga qo‘shilishi 4910 «Dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv» schyotining debetida va 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyotining kreditida aks ettiriladi.

Korxona tomonidan umidsiz qarz deb hisoblangan debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarilganda 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotining debeti va 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti va boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar (olinadigan schyotlar)ni hisobga oluvchi schyotlarning krediti bo‘yicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi.

3-§. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar hisobi

Tuzilgan shartnomaga muvofiq mol yetkazib beruvchilardan tovar-moddiy zaxiralari qabul qilib olingan paytdan boshlab xaridor va mol yetkazib beruvchilar o‘rtasida kreditorlik qarzlari yuzaga keladi.

Kreditorlik qarzlari - ma’lum bir korxonaning boshqa bir korxona (tashkilot, muassasa) ga va alohida jismoniy shaxslarga bo‘lgan qarz summalari. Bu korxona va shaxslar kreditorlar hisoblanadi. Kreditorlik qarzlarining vujuda kelishi sababi, xaridor va mol yetkazib beruvchi o‘rtasidagi hisob-kitoblar usuliga (xaridor tomonidan to‘lov tovarlari kelib tushgandan so‘ng amalga oshirilganda) yoki korxona tomonidan to‘lov majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarilmasligidir. Korxonada bir vaqtning o‘zida ham kreditorlik, ham debitorlik qarzlari uchunga kelishi mumkin.

21-son BHMS ga muvofiq, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyotida tovar-moddiy qiymatliklar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar, shuningdek tashish bo‘yicha olingan xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo‘lgan joriy majburiyatlar hisobga olinadi. 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir mol yetkazib beruvchi va pudratchi bo‘yicha alohida yuritiladi;

- 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyotida korxonaning sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga bo‘lgan joriy majburiyatlari hisobga olinadi. 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyati bo‘yicha alohida yuritiladi;

- 7010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyotida korxonaning mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar, shuningdek yuk tashish bo‘yicha olingan xizmatlar uchun vujudga kelgan uzoq muddatli majburiyatlari hisobga olinadi. 7010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir mol yetkazib beruvchi va pudratchi bo‘yicha alohida yuritiladi;

- 7120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga bo‘lgan uzoq muddatli qarz» schyotida korxonaning Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlari oldidagi uzoq muddatli majburiyatlari hisobga olinadi. 7120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga bo‘lgan uzoq muddatli qarz» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyati bo‘yicha alohida yuritiladi;

- 4310 «TMQlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar», 4320 «Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar», 4330 «Boshqa berilgan bo‘naklar» schyotlarida tovar-moddiy zaxiralar va boshqa aktivlarni yetkazib berish, shuningdek ish bajarish va xizmat ko‘rsatish uchun berilgan bo‘naklar hisobga olinadi. 4310 «TMQlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar», 4320 «Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar», 4330 «Boshqa berilgan bo‘naklar» schyotlar bo‘yicha analitik hisob har bir bo‘nak berilgan mol yetkazib beruvchi va pudratchi bo‘yicha yuritiladi.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan haqiqatda kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar

va boshqa aktivlar, qabul qilingan ish va xizmatlarning qiymatiga, uzoq muddatli qismi bo‘yicha - 7010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar», 7120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga bo‘lgan uzoq muddatli qarz» schyotlari, joriy qismi bo‘yicha - 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar», 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyotilari tovar-moddiy qiymatliklarni yoki tegishli xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda kreditlanadi.

Agar omborga kelib tushgan tovar-moddiy qiymatliklarning sifati, miqdori, bahosi shartnomada kelishilgan shartlarga mos kelmasa, shuningdek kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilishda aniqlangan kamomad va yo‘qotishlar summasi, uzoq muddatli qismi bo‘yicha - 7010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar», 7120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga bo‘lgan uzoq muddatli qarz» schyotlari, joriy qismi bo‘yicha - 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar», 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyotilari kreditida va 4860 «Da’volar bo‘yicha olinadigan schyotlar» schyotining debetida hisobga olinadi. Yo‘qotishlarning aybdorlariga da’vo taqdim etiladi va agar ular da’voni qanotlantirmasalar xo‘jalik sudiga da’vo arizasi bilan murojaat qilinadi. Sud tomonidan yuqoridagi yo‘qotishlar summasini aybdorlardan undirish rad etilgan hollarda, bunday operatsiyalar buxgalteriya hisobida 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotining debeti va 4860 «Da’volar bo‘yicha olinadigan schyotlar» schyotining kredit bo‘yicha yozuv bilan aks ettiriladi. Sud tomonidan yuqoridagi yo‘qotishlar summasini aybdorlardan undirish da’vosi qanoatlantirilgan hollarda, undirish bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debeti va 4860 «Da’volar bo‘yicha olinadigan schyotlar» schyotining kredit bo‘yicha yozuvi bilan aks ettiriladi.

Mol yetkazib beruvchilarga to‘lanadigan uzoq muddatli majburiyatlar joriy qismga o‘tkazilganda 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyotida kreditlanib, 7010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyotida debetlanadi. Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan uzoq muddatli majburiyatlar joriy qismga o‘tkazilganda 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyotida kreditlanib, 7120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga bo‘lgan uzoq muddatli qarz» schyotida debetlanadi.

Korxona tomonidan mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga tovar-moddiy zaxiralar va boshqa aktivlarni yetkazib berish, shuningdek ish bajarish va xizmat ko‘rsatish uchun berilganda bo‘naklar summasining uzoq muddatli qismi bo‘yicha - 0940 «Boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzlari» schyoti, joriy qismi bo‘yicha - 4310 «TMQlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar», 4320 «Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar», 4330 «Boshqa berilgan bo‘naklar» schyotlari debetlanadi va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlari kreditlanadi.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan haqiqatda kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar va boshqa aktivlar, qabul qilingan ish va xizmatlar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish muddati kelganda mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklarning uzoq muddatli qismining joriy qismga o‘tkazilishi 0940 «Boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzlari»

schyotining kreditida, 4310 «TMQlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar», 4320 «Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar», 4330 «Boshqa berilgan bo‘naklar» schyotlari bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan tovar-moddiy zaxiralar va boshqa aktivlar haqiqatda kelib tushganda, ish va xizmatlar qabul qilinganda, berilgan bo‘naklar mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi majburiyatlarini kamaytirib, 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar», 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyotlarining debeti va 4310 «TMQlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar», 4320 «Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar», 4330 «Boshqa berilgan bo‘naklar» schyotlarining krediti bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan haqiqatda kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar va boshqa aktivlar, qabul qilingan ish va xizmatlar bo‘yicha yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshirilishi 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar», 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyotlarning debetida 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan tovar-moddiy qiymatliklarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha tuzilgan shartnoma shartlari bajarilmagan yoki shartnoma bekor qilingan hollarda ilgari berilgan bo‘nak qaytariladi. Bunda uzoq muddatli qismi bo‘yicha - 0940 «Boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzlari» schyoti, joriy qismi bo‘yicha - 4310 «TMQlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar», 4320 «Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar», 4330 «Boshqa berilgan bo‘naklar» schyotlari kreditlanadi va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar debetlanadi.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan haqiqatda kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar va boshqa aktivlar, qabul qilingan ish va xizmatlar bo‘yicha uchun yuzaga kelgan qarzlar bo‘yicha da’vo bildirish muddati davomida mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar tomonidan talab etilmasa korxonaning asosiy faoliyatning boshqa operatsion daromadlari tarkibiga hisobdan chiqariladi. Bunda uzoq muddatli qismi bo‘yicha - 7010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar», 7120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga bo‘lgan uzoq muddatli qarz» schyotlari, joriy qismi bo‘yicha - 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar», 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyotlari debetlanadi va 9360 «Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar» schyoti kreditlanadi.

4-§. Soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblar hisobi

Jamiyatda soliqlar davlat tomonidan unga yuklatilgan vazifalar va funktsiyalarni bajarish uchun pul mablag‘lari manbasi sifatida qaraladi. Soliqlar – bu jismoniy va yuridik shaxslar daromadlari hamda mulklaridan ma’lum (qonunda belgilangan) bir qismini davlatning moliyaviy imkoniyatini ta’minlash maqsadida majburiylik, qaytarmaslik, davlat majburlovini qo‘llashlik asosida byudjetga o‘tkazishning birdan-bir qonuniy usulidir.

Soliq siyosatini takomillashtirish, soliqlarning iqtisodiyotga rag‘batlantiruvchi ta’sirini kuchaytirish maqsadida soliq tizimining ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy, tabiiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan, to‘plangan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag‘batlantiruvchi ta’sirini oshirishga qaratilgan islohotlar ustuvor ahamiyatga ega bo‘ldi. Korxonalar zimmasidagi soliq yukini kamaytirish, foyda solig‘i va yagona soliq to‘lovi stavkalarini kamaytirish orqali iqtisodiyotdagi sog‘lom muhitni shakllantirish va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada jonlantirish ta’minlandi.

Soliq hisobi korxona, tashkilot va muassasalarda soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri hisobga olish, soliq imtiyozlarini qo‘llash hamda ularni o‘z vaqtida byudjetga o‘tkazilib borilishini ta’minlab beruvchi buxgalteriya hisobi turidir. Soliq hisobi o‘z usullari yordamida soliq va yig‘imlar, ularning obyekti, subyektlari va soliqqa tortish bazasini, to‘lash muddatlarini aniqlab beradi.

Soliq hisobining asosiy vazifalari:

- yuridik shaxslar tomonidan soliqlar hamda majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri hisoblash;
- hisoblangan soliq va majburiy to‘lovlarni davlat byudjeti hamda maqsadli davlat jamg‘armalariga o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash;
- soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha belgilangan imtiyozlardan keng foydalanish.

Soliqlarni turlari bo‘yicha tasniflashga bir necha belgilar asos qilib olingan. Halqaro amaliyotda ikkita asosiy tasnif guruhlari qabul qilingan-bevosita va bilvosita soliqlar. Ushbu guruhlar soliq solish obyektiga va soliq to‘lovchi bilan davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga bog‘liqdir.

Bevosita soliqlar bevosita daromad va mol-mulkka belgilanadi (soliqqa tortishning bevosita shakli), ya’ni bevosita soliqlarning uzil-kesil to‘lovchisi daromad oluvchi (mol-mulkka egalik qiluvchi va h.k.) korxona hisoblanadi. Soliq to‘lovchining daromadi (ish haqi, foyda, foizlar va boshqalar) va mol-mulki (erlar, uylar, qimmatli qog‘ozlar va boshqalar) qiymati bevosita soliqlar obyektidir.

Bilvosita soliqlar - narx yoki tarifga ustama ko‘rinishida belgilanadigan, tovar va xizmatlardan olinadigan soliqlar. Bilvosita soliqlarga mahsulot (tovar, ish xizmat) ni sotish narxida to‘lanadigan yoki tarifga kiritilgan tovar va xizmatlarga solinadigan soliqlar kiradi, ya’ni bilvosita soliqlarning pirovard to‘lovchisi bo‘lib, tovar iste’molchisi maydonga chiqadi, uning zimmasiga soliq narxda ko‘zda tutilgan ustamalar orqali yuklanadi. Mazkur holda korxonalar o‘zlari ishlab chiqargan tovarlar va xizmatlarni sotib, soliq summalari hisobga olingan pul summalarini oladilar, so‘ngra olingan barcha soliq summalarini tegishli tartibda byudjetga o‘tkazadilar.

Bilvosita soliq solishda davlat amalda yangi qiymatni taqsimlash ishtirokchisiga aylanib, tovar yoki xizmatlarni sotish paytida ushbu qiymatning bir qismiga bo‘lgan o‘z huquqlarini e’lon qiladi.

Bevosita soliqlardan farq qilib, bilvosita soliqlar bevosita to‘lovchining daromadi yoki

mol-mulki bilan bog‘lanmaydi. Odatda, shaxsiy iste’mol tovarlari shuningdek aholiga sartaroshxonalarda, kimyoviy tozalash shoxobchalarida, avtotransport korxonalari tomonidan ko‘rsatilgan va h.k. xizmatlar soliq solish obyekti hisoblanadi. Bilvosita soliqlarga tortiladigan tovarlar va xizmatlar soni muntazam ravishda oshib boradi.

Bevosita soliqlar salmog‘ining kamayishi korxonalarning moddiy-texnika bazasini kengaytirishga, qo‘shimcha mahsulot ishlab chiqarishga olib keladigan bo‘lsa, bilvosita soliqlar salmog‘ining ko‘tarilishi korxonalarda investitsion faoliyatini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Soliqlar majburiy to‘lov bo‘lib, qonun asosida undiriladi. Demak, soliqlarda, moliyada bo‘lgani singari doimiy qaytarilib turadigan moliyaviy voqeliklar, aniqrog‘i pul munosabatlari bo‘ladi. Ana shu pul munosabatlarining mazmunini ochish orqali soliqlar mohiyati ochiladi.

Umumdavlat va mahalliy byudjetlarga to‘lanadigan soliqlarning asosiy qismi yuridik shaxslar zimmasiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birgalikda davlat maqsadli fondlariga to‘lanadigan majburiy to‘lovlarning ham kattagina qismini yuridik shaxslar to‘laydi. Yuridik shaxslar tomonidan soliqlar va majburiy to‘lovlarning o‘z vaqtida va to‘g‘ri to‘lanishi, avvalo, ularda soliq hisobining qay darajada yuritilishiga bog‘liq. Soliq hisobini to‘g‘ri tashkil qilish va yuritishda hisobning asosiy vazifalari belgilab olinadi.

Soliq hisobining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- yuridik shaxslar tomonidan soliqlar hamda majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri hisoblash;
- hisoblangan soliq va majburiy to‘lovlarni davlat byudjeti hamda davlatning maqsadli fondlariga o‘z vaqtida to‘lanishini ta’minlash;
- soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha belgilangan imtiyozlardan keng foydalanish.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida soliqlardan ko‘zlangan maqsad davlat ijtimoiy kafolatlarining moliyaviy bazasini ta’minlash, yuridik shaxslarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanishni va atrof-muhitni muhofaza etishni rag‘batlantirish, deb belgilangan.

SHuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qiluvchi soliqlar, soliq to‘lovchilar, soliq solish obyektlari, soliq to‘lash tartibi, soliq solish yuzasidan beriladigan imtiyozlar, qonunni buzganlik uchun javobgarlik hamda soliqlar to‘lash munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarni hal etishning umumiy tartibi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi hududida O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksda tutilgan soliqlar amal qiladi. O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlar belgilanadi:

- qo‘shilgan qiymat solig‘i;
- aksiz solig‘i;
- foyda solig‘i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;
- yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- mol-mulk solig‘i;
- yer solig‘i;
- ijtimoiy soliq.

Soliq to‘lovchilarning ayrim toifalari uchun O‘zbekiston Respublikasi hududida quyidagi maxsus soliq rejimlari belgilanadi:

- aylanmadan olinadigan soliq;

- mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;

- maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq solishning alohida tartibi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to‘lovchilarga soliq solishning alohida tartibi qonun hujjatlarida yoki investitsiya bitimlarida nazarda tutilgan investitsiyalarni amalga oshirish hamda boshqa shartlarni bajarish bilan bog‘liq holda muayyan muddat uchun belgilanadi.

Maxsus soliq rejimlari ayrim soliqlarni to‘lashdan ozod etishni, pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo‘llashni nazarda tutishi mumkin.

Soliqlarning elementlari quyidagilardan iborat: soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza, stavka, hisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish tartibi, to‘lash tartibi.

21-son BHMS ga muvofiq, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 0950 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» schyotida vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘ining uzoq muddatli qismi hisobga olinadi. 0950 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» schyoti bo‘yicha analitik hisob kechiktirilgan xarajatlarning har bir turi, har bir davri va hisobdan chiqarish muddatlari bo‘yicha yuritiladi;

- 3210 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» schyotida vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘ining joriy qismi hisobga olinadi. 3210 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» schyoti bo‘yicha analitik hisob kechiktirilgan xarajatlarning har bir turi, har bir davri va hisobdan chiqarish muddatlari bo‘yicha yuritiladi;

- 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyotida bo‘nak sifatida to‘langan soliq summalari, shu jumladan, xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha hisob-kitob hujjatlarida ko‘rsatilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i hisobga olinadi. 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti bo‘yicha analitik hisobi har bir soliq turlari bo‘yicha alohida yuritiladi;

- 6240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar» schyotida mas’ul Hukumat idoralarining qarori bo‘yicha qonunchilikka muvofiq to‘lanishi kechiktirilishiga ruxsat etilgan soliqlar bo‘yicha byudjet oldidagi qarzlar va majburiy to‘lovlarning joriy qismi aks ettiriladi. 6240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir kechiktirilgan soliq va to‘lovlar turi bo‘yicha alohida yuritiladi;

- 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar» schyotida vaqtinchalik farqlar natijasida yuzaga kelgan kechiktirilgan foyda solig‘i summasi aks ettiriladi. 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob foyda solig‘i bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlarning har bir davri va hisobdan chiqarish muddatlari bo‘yicha yuritiladi;

- 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyotida byudjetga soliqlar bo‘yicha korxonaning joriy majburiyatlari hisobga olinadi. 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar (turlari bo‘yicha)» schyoti bo‘yicha analitik hisobi har bir soliq turlari bo‘yicha alohida yuritiladi;

- 7240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyotida qonunchilikka muvofiq tegishli hukumat idoralarining qarori bo‘yicha bir necha yilga kechiktirib to‘lashga ruxsat etilgan soliq bo‘yicha byudjet oldidagi uzoq muddatli qarzlar va

majburiy to‘lovlar aks ettiriladi. 7240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir kechiktirilgan soliq va to‘lovlar turi bo‘yicha alohida yuritiladi;

- 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar» schyotida vaqtinchalik farqlar natijasida yuzaga keladigan kechiktirilgan foyda solig‘i summasi aks ettiriladi; olinadi. 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob foyda solig‘i bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlarning har bir davri va hisobdan chiqarish muddatlari bo‘yicha yuritiladi;

- 8840 «Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari» schyotida maqsadli vazifalarni bajarish uchun soliq to‘lashdan ozod qilingan summalar aks ettiriladi***;***

- 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar» va 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar» schyotlarida qonunchilikda belgilangan foydadan soliqlar bo‘yicha yil davomida hisoblangan bo‘nak to‘lovlari va qayta hisoblash bo‘yicha haqiqatda foydadan to‘lovlarni hisobga olinadi. Hisobot davri tugashi bilan yillik moliyaviy hisobot tuzilganda 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar», 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliq va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar» schyoti 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi. 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar», 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliq va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar» schyotlar bo‘yicha analitik hisob soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning turlari bo‘yicha yuritiladi;

- balansdan tashqari 012 «Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajat» schyotida mazkur hisobot davridagi soliq solinadigan bazaga kiritiladigan, biroq keyingi hisobot davrlaridagi soliq solinadigan foydadan chegiriladigan xarajatlar aks ettiriladi. Balansdan tashqari 012 «Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajat» schyotidagi analitik hisob soliq solinadigan bazadan chegiriladigan xarajatlar, ularning miqdori va ular chegiriladigan muddat to‘g‘risidagi axborotni ta’minlashi kerak.

- balansdan tashqari 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» schyotida vaqtinchalik soliq solishdan ozod etilgan, maqsadli ishlatilishi ko‘zda tutilmagan bo‘shagan mablag‘lar hisobga olinadi. Byudjetga to‘lovning har bir turi bo‘yicha hisoblangan bo‘shagan mablag‘lar summasi 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» debetida hisobga olinadi va imtiyoz berilgan davr tugashi bilan kreditdan hisobdan chiqariladi. Bunda, bo‘shagan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumot imtiyoz muddatining tugashi bilan hisobdan chiqarilgandan keyin korxonada 5 yil davomida saqlanishi lozim.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisoblash va buxgalteriya hisobida aks ettrish tartibi ***«VI. Mehnatga haq to‘lash hisobi»»*** da ko‘rib chiqilgan.

21-son BHMS ga asosan soliqlarni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibini ko‘rib chiqamiz.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bilan bog‘liq operatsiyalarning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazasi quyidagicha hisoblanadi:

- foyda solig‘i to‘langunga qadar foyda yoki zarar, ya’ni «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-shakl) ning 240-satri «Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar)»;

- qo‘shuv soliq solinadigan foydani aniqlashdagi soliq to‘lovchining chegarilmaydigan xarajatlari;

- qo‘shuv kelgusida soliq solinadigan bazadan chegiriladigan hisobot davrining xarajatlari;

- ayiruv joriy hisobot davrida soliq solinadigan bazadan chegiriladigan oldingi davrlarda amalga oshirilgan xarajatlar;

- ayiruv soliqlar bo‘yicha imtiyozlar;

- ayiruv soliq solinadigan foydani kamaytiradigan summalar;

- barobar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan baza.

Hisobot davri mobaynida korxonalar tomonidan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarini amalga oshirilganda 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti debetlanadi va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar kreditlanadi.

Hisobot davri oxirida korxonalar tomonidan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisoblanganda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar» schyotining debetida 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Hisobot davri oxirida korxonalar tomonidan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i hisoblanganda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i summasi 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliq va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar» schyoti schyotining debetida 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Bir vaqtning o‘zida hisobot davri mobaynida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha amalga oshirilgan joriy to‘lovlar qoplashga qabul qilinadi. Bunda 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyotining debeti va 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyotining kredit bo‘yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Byudjetga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha yakuniy hisob-kitoblar amalga oshirilayotganda 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyotining debeti va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning krediti bo‘yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar hisob daromadidan kelib chiqqan holda hisoblanadi, to‘lanadigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i esa soliq solinadigan daromaddan kelib chiqib hisoblanadi. Hisob daromad va soliq solinadigan daromadni aniqlashdagi yondashuvlardagi farq moliyaviy hisobotda aks ettirilishi lozim. Korxonaning hisob siyosatiga muvofiq hisob ma’lumotlari bo‘yicha hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar korxona tomonidan daromadni olish da’vomida amalga oshirilgan deb qaralib, tegishli daromadlar va xarajatlar yuzaga kelgan davrda hisoblanadi va korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijasi to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladi. Bunda hisob daromadidan kelib chiqib hisoblangan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i va soliqqa tortiladigan daromaddan kelib chiqib hisoblangan to‘lanadigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i o‘rtasidagi farq vaqtinchalik farq sifatida yuritiladi.

Vaqtinchalik farqlar - bu daromad va xarajatlarning ayrim moddalari soliqqa tortiladigan

foydaga kiritiladigan hisobot davri bilan ushbu moddalar hisob foydasiga kiritiladigan hisobot davrining muvofiq kelmasligi natijasida yuzaga keladigan hisobot davridagi soliqqa tortiladigan va hisob foydasi o‘rtasidagi farqdir.

Vaqtinchalik farqlarga oid xarajatlar bo‘yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblash uzoq muddatli qismi - 0950 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» schyotining, joriy qismi - 3210 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» schyotining debeti va 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar (turlari bo‘yicha)» schyotining kreditida aks ettiriladi. Keyinchalik bu xarajatlarning jami foydali xizmat muddati davomida yoki 10 yil mobaynida, bu muddatlarning qaysi biri qisqaroq bo‘lishidan kelib chiqqan holda, (vaqt oralig‘idagi farqlar) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining tegishli qismi uzoq muddatli qismdan joriy qismga o‘tkaziladi, bu esa 3210 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» schyotining debeti va 0950 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» schyotining kreditida aks ettiriladi. Tegishli muddatda to‘lanadigan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblashda ushbu summa hisobga olinadi.

Xarajatlarning tegishli summasiga soliqlar kamaytirilishi yuz beradigan davrlar kelganda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar (turlari bo‘yicha)» schyotining debeti va 3210 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» schyotining kreditida aks ettiriladi. SHunday qilib, 0950 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» schyotining debetidagi qoldiq kelgusi davrlarda byudjetga to‘lanadigan umumiy yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasining kamaytirish zarur bo‘lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasining uzoq muddatli qismini, 3210 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» schyotining debetidagi qoldiq joriy hisobot davrida byudjetga to‘lanadigan umumiy yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasining kamaytirilishi lozim bo‘lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasining joriy qismini ko‘rsatadi.

Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlarini hisoblashda uzoq muddatli qismi - 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar» schyotining, joriy qismi - 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar» schyotining krediti va 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar» schyotining debetida aks ettiriladi.

Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘iga doir majburiyatlarning tegishli joriy qismi 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar» schyotining debetidan 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar» schyotining kreditiga o‘tkaziladi. Keyinchalik vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i vujudga kelishiga qarab 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar» schyoti 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar (turlari bo‘yicha)» schyoti bilan bog‘lanadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i bilan bog‘liq operatsiyalarning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq byudjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i summasini aniqlashda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) oluvchi haqiqatda olingan va (yoki) soliq to‘lovchi tomonidan ishlab chiqarilgan hamda o‘z ehtiyojlari uchun foydalanilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan

(to‘langan) qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ining summasini qoplashga qabul qilish huquqiga ega. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i summasini qoplashga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Hisobot davri mobaynida korxonalar tomonidan xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha hisob-kitob hujjatlarida ko‘rsatilgan, keyinchalik qoplashga qabul qilinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i summasi alohida hisobga olinganda 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti debetlanadi va 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti, 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti va boshqa majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar kreditlanadi.

Hisobot davri mobaynida korxonalar tomonidan mahsulot (ish, xizmatlar) ni realizatsiya qilinganda qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i hisoblanganda qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i summasi 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti va boshqa olinadigan to‘lovlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetida 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Bir vaqtning o‘zida hisobot davri mobaynida qoplashga qabul qilish uchun alohida hisobga olingan qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i summasi qoplashga qabul qilinadi. Bunda 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyotining debeti va 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyotining kredit bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\mathbf{S_{qqs} = ST_{ob} \times SS / 100}$$

bunda:

S_{qqs} - iste’molchilardan undiriladigan soliq summasi;

ST_{ob} - soliqqa tortiladigan aylanma;

SS - qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi.

Tovar (ish, xizmat)lar qo‘shilgan qiymat solig‘ini o‘z ichiga olgan narxlar va tariflar bo‘yicha sotilganida - soliq quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$\mathbf{S_{qqs} = T_{qx}\ SS / (SS + 100)}$$

bunda:

T_q - qo‘shilgan qiymat solig‘i ham hisobga olingan tovar (ish, xizmat)lar qiymati.

Hisobot davri mobaynida korxonalar tomonidan asosiy vositalar va boshqa aktivlarni realizatsiya qilinganda qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i hisoblanganda qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i summasi 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti va 9220 «Boshqa aktivlarni chiqib ketishi» schyotining debetida 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Byudjetga qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘i bo‘yicha yakuniy hisob-kitoblar amalga oshirilayotganda 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyotining debeti va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning krediti bo‘yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Hisobot davri mobaynida korxonalar tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarni amalga oshirilganda 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa

majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti debetlanadi va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar kreditlanadi.

Hisobot davri oxirida korxonalar tomonidan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisoblanganda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotining debetida 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Bir vaqtning o‘zida hisobot davri mobaynida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha amalga oshirilgan joriy to‘lovlar qoplashga qabul qilinadi. Bunda 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyotining debeti va 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyotining kredit bo‘yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Byudjetga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha yakuniy hisob-kitoblar amalga oshirilayotganda 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyotining debeti va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning krediti bo‘yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bilan bog‘liq operatsiyalarning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi

Hisobot davri mobaynida korxonalar tomonidan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha bo‘nak sifatida hisoblangandan ortiqcha to‘lov amalga oshirilganda 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti debetlanadi va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar kreditlanadi.

Korxonalar tomonidan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i hisoblanganda yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i summasi 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotining debetida 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Bir vaqtning o‘zida hisobot davri mobaynida yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha bo‘nak sifatida amalga oshirilgan ortiqcha to‘lov qoplashga qabul qilinadi. Bunda 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyotining debeti va 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyotining kredit bo‘yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Byudjetga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha qarz to‘langanda 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyotining debeti va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning krediti bo‘yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Soliqlar bo‘yicha kechiktirilgan qarzlar bilan bog‘liq operatsiyalarning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi

Mas’ul hukumat idoralarining qarori bo‘yicha qonunchilikka muvofiq to‘lanishi kechiktirilishiga ruxsat etilgan soliqlar bo‘yicha byudjet oldidagi qarzlarning uzoq muddatli qismi - 7240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyotining joriy qismi - 6240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar» schyotining kreditida va 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari

bo‘yicha)» schyotining debetida aks ettiriladi. Byudjetga to‘lovlar uchun hisobot davridagi soliqlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlarning joriy qismi o‘tkazilganda 7240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyotining debeti va 6240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar» schyotining krediti bo‘yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Byudjetga soliqlar bo‘yicha kechiktirilgan qarzlar to‘langanda 6240 «Soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar» schyotining debeti va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning krediti bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

5-§. Soliqlar bo‘yicha imtiyozlar hisobi va rasmiylashtirish tartibi

Soliqlar va yig‘imlar (*keyingi o‘rinlarda – soliqlar*) bo‘yicha imtiyozlar iqtisodiyotni real sektoriga zamonovaiy texnologiyalarni joriy etish, import o‘rnini bosadigan va raqobatbardoshli zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish, aholi bandligini o‘stirish va boshqa ijtimoiy iqtisodiy masalalarni yechishda ayrim toifadagi korxonalarga yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga, shuningdek faoliyat ko‘rsatayotgan ishlab chiqarishlarni kengaytirishga, rekonstruksiya qilishga, modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, mahalliylashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xomashyo va materiallar sotib olishga, xodimlarini rag‘batlantirishga afzalliklar yaratib berish maqsadlarida berilishi mumkin.

Korxona (soliq to‘lovchi) soliqlar bo‘yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar vujudga kelgan paytdan e’tiboran ular amal qiladigan butun davr mobaynida foydalanishga haqli.

Soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar bo‘yicha imtiyozlar bo‘shagan mablag‘larni muayyan maqsadlarga yo‘naltirish sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag‘lardan belgilanmagan maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilanmagan maqsadda foydalanilgan summa belgilangan tartibda penya hisoblangan holda byudjetga undirib olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida, boshqa qonunlarda va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo‘shab qoladigan mablag‘lar yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga, shuningdek faoliyat ko‘rsatayotgan ishlab chiqarishlarni kengaytirishga, rekonstruksiya qilishga, modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, mahalliylashtiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xomashyo va materiallar sotib olishga, xodimlarni rag‘batlantirishga va boshqa ijtimoiy iqtisodiy masalalarni yechishga yo‘naltirilishi mumkin.

Yuridik shaxslar tomonidan soliqlar bo‘yicha imtiyozlardan foydalanish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va rasmiylashtirish «Byudjetga soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlar bo‘yicha yuridik shaxslarga berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005-yil 2-aprelda 1463-son bilan ro‘yxatga olingan)* ga muvofiq amalga oshiriladi.

Bojxona boji, aksiz solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i va h.k. turlari bo‘yicha hisoblangan bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlardan foydalanish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va rasmiylashtirish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Korxonalarga soliqlar bo‘yicha imtiyozlar quyidagi hollarda beriladi:

- bo‘shayotgan mablag‘lardan maqsadli ishlatish nazarda tutilgan;
- bo‘shayotgan mablag‘lardan maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan.

Bo‘shayotgan mablag‘lardan maqsadli ishlatish nazarda tutilgan holda soliqlar bo‘yicha berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va rasmiylashtirish tartibi

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish ko‘zda tutilgan holda soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berilganda, byudjetga soliqlarni hisoblash qonunchilikka muvofiq umumbelgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bunda, soliq imtiyozlari berilgan, byudjetga hisoblangan soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblar, soliq to‘lovchi ro‘yxatga olingan joydagi soliq idoralariga belgilangan shakllar va muddatlarga muvofiq taqdim etiladi. Mahsulot (tovar, ishlar, xizmatlar) va boshqa aktivlar realizatsiya qilinayotganda soliq solinadigan aylanmaga hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i (qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar uchun) va aksiz solig‘i (aksizli tovarlar (mahsulotlar) sotilganda) summasi ajratilgan holda schyot-faktura yoziladi.

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish ko‘zda tutilgan holda soliqlar, bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berilganda hisoblangan soliqlar (mazkur soliq to‘lovchilari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i, shuningdek qonunga muvofiq qoplashga qabul qilinadigan aksiz solig‘idan tashqari) va byudjetga majburiy to‘lovlar qonun hujjatlariga muvofiq umumbelgilangan tartibda mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) hamda boshqa xil mol-mulkning sotish (xarid) qiymatiga kiritiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblangan va qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lgan korxonalar xarid qilinadigan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini xarid qiymatiga kiritmaydilar, balki umumbelgilangan tartibda byudjetga to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘ini aniqlashda qoplashga qabul qiladilar.

Aksiz solig‘i bo‘yicha imtiyoz berilayotganida qonun hujjatlariga muvofiq qoplashga qabul qilinadigan aksiz solig‘i to‘lovchilari hisoblangan korxonalar xarid qilinayotgan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha aksiz solig‘i summasini ularning xarid qiymatiga kiritmaydilar, balki umumbelgilangan tartibda byudjetga to‘lanadigan aksiz solig‘ini aniqlashda qoplashga qabul qiladilar.

Soliq, bojxona to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar miqdori belgilangan tartibda byudjetga hisoblangan soliqlardan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish ko‘zda tutilgan holda soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berilganda, bo‘shayotgan mablag‘lar hisobi 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyotida yuritiladi.

Soliqlar bo‘yicha imtiyozlarini hisoblayotganda bo‘shayotgan mablag‘larni buxgalteriya hisobini batafsil yoritish maqsadida korxonalarning ishchi schyotlar rejasida quyidagi schyotlar ochiladi:

- byudjetga bo‘nak to‘lovlarini hisobga oluvchi schyotlar (4400) guruhida *4411 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;*
- byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzni hisobga oluvchi schyotlar (6400) guruhida *6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti*;
- rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8500) guruhida *8531 «Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlardan bo‘shagan mablag‘lar» schyoti.*

21-son BHMS va «Byudjetga soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlar bo‘yicha yuridik shaxslarga berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq soliqlar bo‘yicha imtiyozlar natijasida bo‘shayotgan mablag‘lar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- qonun hujjatlariga muvofiq tovar-moddiy zaxiralar, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va o‘rnatiladigan uskunalarni xarid qilinayotganda xarid qiymatiga kiritiladigan, umumbelgilangan tartibda hisoblangan soliqlar (mazkur soliq to‘lovchilari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘idan tashqari) summasiga:

debet kapital qo‘yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800), o‘rnatiladigan asbob-uskunalarni hisobga oluvchi schyotlar (0700), tovar-moddiy zaxiralarini hisobga oluvchi schyotlar (1000-2900);

kredit 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

- O‘zbekiston Respublikasi hududida tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilganda mazkur soliqni to‘lovchilar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘idan, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda qoplashga qabul qilinadigan aksiz solig‘i summasiga:

debet 4411 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) yoki boshqa tegishli schyotlar;

- mahsulot (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganda hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar», 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyotlari;

kredit 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

- ilgari hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini qonunchilikka muvofiq qoplashga qabul qilish:

debet 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 4411 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

- mahsulot (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinayotganda qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini to‘lashdan ozod qilish natijasida bo‘shagan mablag‘lar summasiga:

debet 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 8840 «Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari» schyoti;

- qonunchilikka muvofiq davr xarajatlariga kiritiladigan umumbelgilangan tartibda hisoblangan byudjetga to‘lanadigan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar summasiga:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti;

kredit 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 6521 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar – majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

- korxonalarning foydasi hisobiga kiritiladigan, umumbelgilangan tartibda hisoblangan, byudjetga to‘lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summasiga:

debet soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schyotlar (9800);

kredit 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

- byudjetga to‘lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan ozod qilish natijasida bo‘shagan mablag‘lar summasiga:

debet 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

debet 6521 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar – majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyoti.

21-son BHMS va «Byudjetga soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlar bo‘yicha yuridik shaxslarga berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq, 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyotida hisobga olingan soliqlar bo‘yicha imtiyozlar natijasida bo‘shagan mablag‘larni ishlatilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy qiymatliklarni xarid qilishga, kredit va qarzlarni to‘lashga, asosiy vositalarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga yo‘naltirilganda, agar imtiyozli davr ko‘rsatilgan bo‘lsa - muddatlarning eng kami bo‘yicha: imtiyozli davr yoki haqiqatda ishlatish tugaganda, imtiyozli davr ko‘rsatilmagan hollarda esa - har yili:

debet 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyoti;

kredit 8531 «Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlardan bo‘shagan mablag‘lar» schyoti;

-joriy majburiyatlarni vujudga kelishiga (masalan: ish haqi, ijara, maqsadli davlat jamg‘armalariga ajratmalar hisoblanganda va boshqalar) olib keladigan joriy xarajatlarni qoplashga yo‘naltirilganda:

debet 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyoti;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti yoki turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) yoki boshqa tegishli schyotlar.

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan holda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va rasmiylashtirish tartibi

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish ko‘zda tutilmagan holda soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berilganda, byudjetga soliq mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) hamda boshqa xil mol-mulkning sotish (xarid) qiymatiga hisoblanmaydi va sotish (xarid qilish) qiymatiga qo‘shilmaydi.

Soliqlar bo‘yicha imtiyozlar berilganda bo‘shayotgan mablag‘lar summalari, agar ulardan maqsadli foydalanish nazarda tutilmagan bo‘lsa, buxgalteriya hisobining balans schyotlarida aks ettirilmaydi.

Soliqlar bo‘yicha vaqtinchalik imtiyozlar berilganda bo‘shayotgan mablag‘larning buxgalteriya hisobini ta’minlash maqsadida, agar ularni maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan

bo‘lsa, byudjetga to‘lanadigan har bir soliq turi bo‘yicha alohida balansdan tashqari 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» schyoti debetida aks ettiriladi.

Balansdan tashqari 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» schyotida hisobga olingan byudjetga soliqlar bo‘yicha hisoblangan summa «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-shakl)da aks ettirilmaydi va mos ravishda moliyaviy natijalarning shakllanishiga ta’sir etmaydi.

Imtiyoz berilgan davr tugaganidan so‘ng balansdan tashqari 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» schyotida hisobga olinadigan bo‘shagan mablag‘lar summasi hisobdan chiqariladi.

Bunda, bo‘shagan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumot imtiyoz muddatining tugashi bilan hisobdan chiqarilgandan keyin korxonada 5 yil davomida saqlanishi lozim.

Doimiy soliqlar bo‘yicha imtiyozlari chog‘ida bo‘shayotgan mablag‘lar, agar ularni maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan bo‘lsa, byudjetga to‘lanadigan har bir soliq turi bo‘yicha moliyaviy hisobotga tushuntirish xatida ochib beriladi.

Soliqlar va bojxona imtiyozlari berilishi natijasida bo‘shagan mablag‘lardan maqsadli foydalanganligini tasdiqlash uchun korxonalar har yili yillik moliyaviy hisobotga qo‘shib davlat soliq xizmati organlariga ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisob-kitobni (1-ilovaga qarang) taqdim qiladilar.

Mablag‘lardan maqsadga muvofiq foydalanilmaganligi va soliqlar va bojxona imtiyozlari natijasida bo‘shagan mablag‘lar hisobiga xarid qilingan aktivlarning imtiyozli davr tugashiga qadar boshqalarga berilishi (sotilishi) dalillari aniqlanganda ushbu mablag‘lar jarima jazosini qo‘llab, qonunga muvofiq penya hisobga olingan holda byudjetga undiriladi. Korxonalar hisob-kitoblar to‘g‘ri bo‘lishi va o‘z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgardir.

Hisob-kitoblar taqdim etilmagan yoki o‘z vaqtida taqdim etilmagan taqdirda korxonalarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy jazo qo‘llanadi.

6-§. Hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar hisobi

Hisobdor shaxslar bilan hisoblashishlar mayda xo‘jalik xarajatlarini va xizmat safar xarajatlarini to‘lashda sodir bo‘ladi. Korxonalarda ishchi va xodimlar xizmat safariga yuborilganda yoki tovar-moddiy zaxiralarni naqd pulga xarid qilganda hisobdor shaxs hisoblanadi. Demak, hisobdor shaxslar – kelgusi ma’muriy-xo‘jalik va xizmat safari xarajatlari uchun pul mablag‘larini oldindan olgan xodimlardir. Hisobdor shaxs sifatida kassadan naqd pul oladigan xodimlarning ro‘yxati korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Beriladigan pul miqdori cheklangan: xo‘jalik ehtiyojlari uchun beriladigan naqd pul korxona smetasida nazarda tutiladi; xizmat safari xarajatlari uchun beriladigan pul xizmat safari muddati va boradigan joyiga bog‘liq.

Korxonalarda xizmat safarlari ikki xil: O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga (chetel xizmat safari) va O‘zbekiston Respublikasi hududida (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, Respublika tuman va shaharlariga) bo‘ladi.

Ishchi va xodimlarni O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safarini rasmiylashtirish, safar xarajatlari uchun mablag‘lar berish va xizmat safari bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Xizmat safarlari xarajatlarini hisobga olish tartibi

Korxonalar ishchi va xodimlari O‘zbekiston Respublikasi hududida xizmat safariga

yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘lar berish va ularni xarajatlarga olib borish «O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xizmat safarlari to‘g‘risida Yo‘riqnoma» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003-yil 29-avgustda 1268-son bilan ro‘yxatga olingan)* ga muvofiq amalga oshiriladi.

Xizmat safari deb ishchi va xodimlarni korxona rahbarini farmoyishi (buyrug‘i) bo‘yicha, o‘zining doimiy ish joyidan tashqarida xizmat topshirig‘ini bajarish uchun boshqa joyga, ma’lum bir muddatga yuborilishi (borib kelish) tushuniladi. Korxonaning tarkibiga kiruvchi filiallar (shaxobchalar), uchastkalar va boshqa bo‘linmalar boshqa yerda joylashgan hollarda doimiy ish joyi bo‘lib mehnat shartnomasida belgilangan ishlab chiqarish bo‘linmasi hisoblanadi. Doimiy ishi yo‘lda yoki ko‘chib yurish bilan bog‘liq bo‘lgan, yohud doimiy harakatlanuvchi tusga ega bo‘lgan ishchilarni xizmat yuzasidan borib kelishlari xizmat safari hisoblanmaydi.

Xizmat safari xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);
- yashash uchun (turar joy ijarasi bo‘yicha) xarajatlar;
- transport xarajatlari (taksidan tashqari);
- ko‘zda tutilmagan xarajatlar;
- qonunchilikka muvofiq qoplanishi lozim bo‘lgan xizmat safarining boshqa xarajatlari.

Xizmat safarlarini rasmiylashtirish va avans (bo‘nak) berish tartibi

Ishchi va xodimlarni xizmat safarlariga yuborish korxonaning rahbari tomonidan amalga oshiriladi, buyruq va safar guvohnomasini (2-ilovaga qarang) berish bilan rasmiylashtiriladi.

Xizmat safari davrida xodimning asosiy ish joyidagi ish haqi saqlanadi. Xizmat safari hisobdor shaxsga pul berish rahbarning buyrug‘i va safar guvohnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Beriladigan pul hisoblab chiqilgandan so‘ng buxgalteriya tomonidan kassa chiqim orderi rasmiylashtiriladi.

Ishchi va xodimlarni yuqori tashkilotlarga (bo‘ysunish tartibida) xizmat safarlariga yuborish ushbu tashkilotlarni rahbarlarini chaqirig‘iga yoki ular bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Ishchi va xodimlarni xizmat safari muddati korxona rahbari tomonidan belgilanadi va har bir holat uchun yo‘ldagi vaqtini hisobga olmagan holda 40 kundan ko‘p bo‘lmasligi kerak. Mazkur tartib shuningdek ishchi va xodimlarni taftish va tekshirishlarni o‘tkazish uchun xizmat safariga yuborishga ham taalluqlidir.

Montaj, sozlash va qurilish ishlarini bajarish uchun yuboriladigan ishchilar, rahbarlar va mutaxassislarni xizmat safarlari muddati 12 oydan ko‘p bo‘lishi mumkin emas. Xizmat safari muddatini uzaytirish istisno tariqasida faqat xizmat safariga yuborgan korxona rahbarining yozma ruxsatnomasiga asosan ruxsat beriladi.

Xizmat safariga yuborilgan joyda haqiqatda o‘tkazilgan vaqt xizmat safari guvohnomasida xizmat safari joyiga kelgan kundan xizmat safari joyidan ketgan kun joyiga belgi qo‘yish orqali aniqlanadi. Korxonalarda xizmat safarlariga ketayotgan shaxslarni va ushbu korxonaga xizmat safariga kelayotgan shaxslarni ro‘yxatga olish maxsus jurnallarda (3- va 4- ilovalarga qarang) yuritiladi. Bunda maxsus jurnallar elektron ko‘rinishda yuritilishi mumkin. Korxonani rahbari xizmat safarlariga yuborilayotgan, xizmat safariga ketayotgan shaxslarni ro‘yxatga olish jurnalini yuritish va xizmat safarlari guvohnomasiga belgi qo‘yish uchun javobgar bo‘lgan shaxsni buyruq chiqarish yo‘li bilan tasdiqlaydi.

Xizmat safarida bo‘lgan ishchi va xodimlarga ular yuborilgan korxonalardagi ish vaqti rejimi va dam olish vaqtlari taalluqli bo‘ladi. Xizmat safari vaqtida foydalanilmagan dam olish kunlari, boshqa dam olish kunlari xizmat safaridan qaytganda tiklanmaydi. Agar ishchi va xodimlar ataydan dam olish yoki bayram kunlarida ishlash uchun xizmat safariga yuborilgan bo‘lsa, ushbu

kunlarda ishlagani uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq kompensatsiya to‘lanadi.

Agar ishchi va xodimlar korxona rahbariyatini buyrug‘i (farmoyishi) ga binoan xizmat majburiyatini bajarish uchun dam olish kunida xizmat safariga ketsa, unga xizmat safaridan qaytgach belgilangan tartibda boshqa dam olish kuni beriladi.

Ishchi va xodimlarni xizmat safariga ketish va xizmat safaridan qaytish kunlarida ishga chiqish masalasi korxona rahbariyati bilan kelishilgan holda hal qilinadi.

Xizmat safariga yuborilgan ishchi va xodimlarni xizmat safarida bo‘lgan muddatida va yo‘lda bo‘lgan muddatda ish joyi (lavozimi), ishbaylar uchun o‘rtacha ish haqi yoki mansab maoshi yoki ishchilarni boshqa toifalari uchun stavkalari saqlanib qoladi.

O‘rindoshlik bo‘yicha ishlayotgan shaxs xizmat safariga yuborilganda uning o‘rtacha ish haqi uni xizmat safariga yuborgan tashkilotda saqlanadi. Agar xizmat safariga bir vaqtni o‘zida ham asosiy ham o‘rindoshlik ishi bo‘yicha xizmat safariga yuborilganda ish haqi har ikkala mansab bo‘yicha saqlanadi, xizmat safariga haq to‘lash bo‘yicha xarajatlar esa xizmat safariga yuboruvchi tashkilotlarni o‘zaro kelishuviga binoan taqsimlanadi.

Xizmat safariga yuboriladigan ishchiga xizmat safariga ketishdan oldin belgilangan miqdorlarda kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar), yo‘l xarajatlari, turar joy xonasini ijaraga olish xarajatlari chegarasida pul ko‘rinishidagi avans (bo‘nak) to‘lanadi.

Xizmat safari bo‘yicha kundalik xarajatlar (sutkalik pullar) ni to‘lash tartibi «O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xizmat safarlari to‘g‘risida Yo‘riqnoma» ning 11-bandiga muvofiq, xizmat safarida va yo‘lda bo‘lgan vaqt uchun kundalik xarajatlar xizmat safariga yuborilgan ishlarga jamoa shartnomalari, jamoa kelishuvlari va mehnat shartnomalarida ko‘zda tutilgan miqdorlarda, lekin quyidagi miqdorlardan kam bo‘lmagan holda belgilanadi (respublika bo‘yicha belgilangan bazaviy hisoblash miqdoriga nisbatan koeffitsientlarda):

Toshkent shahrida, shaharlar — viloyatlar markazlarida — 0,1;

boshqa shaharlar va aholi yashaydigan punktlarda — 0,08.

Ushbu ko‘rsatilgan xarajatlarni qoplash haqiqatda qilingan xarajatlarni hujjatlar bilan tasdiqlashsiz amalga oshiriladi.

Ishchi va xodimlarni xizmat safariga chiqish kuni bo‘lib transport vositasini 24 soatgacha bo‘lgan vaqt, 00 dan va undan kechroq vaqt - keyingi sutka hisoblanadi, kelish kuni esa - transport vositasini doimiy ish joyiga kelish kuni hisoblanadi. Agar stansiya, aeroport aholi yashaydigan hududdan tashqarida joylashgan bo‘lsa, stansiya, aeroportgacha yetib olish uchun ketadigan vaqtni hisobga olish kerak bo‘ladi. Xuddi shunday tarzda ishchini doimiy ish joyiga yetib keladigan kuni hisoblanadi.

Xizmat safariga yuborilgan ishchi va xodimlar o‘zining doimiy ish joyiga har kuni qaytish imkoniyatiga ega bo‘lsa, u holda kundalik xarajatlar to‘lanmaydi. Ishchi va xodimlarni xizmat safariga yuborilgan joydan o‘zining doimiy ravishda yashaydigan joyiga har kuni qaytishi mumkinmi, yo‘qligi xizmat safariga yuborgan korxona rahbari tomonidan masofaning uzoqligi, transport aloqasi sharoiti, bajariladigan topshiriqni tusi, ishchi va xodimlar uchun dam olish sharoitlarini yaratish kabilarni hisobga olgan holda belgilanadi.

Xizmat safari davrida xizmat safariga yuborilgan ishchi va xodim vaqtinchalik mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotgan hollarda unga sog‘lig‘ini holatiga ko‘ra zimmasiga yuklatilgan xizmat topshirig‘ini bajarish imkoniyatiga ega bo‘lmagan barcha davr mobaynida yoki o‘zining doimiy yashash joyiga qaytgunicha, lekin ikki oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga kundalik xarajatlar to‘lanadi.

Montaj, sozlash va qurilish ishlarni bajarish uchun xizmat safariga yuborilgan ishchi va xodimlarga «O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xizmat safarlari to‘g‘risida Yo‘riqnoma» ning

11-bandida ko‘zda tutilgan me’yorlar bo‘yicha ikki oy mobaynida kundalik xarajatlar to‘lanadi. Ikki oydan ortiq muddatda xizmat safarida bo‘lgan vaqt uchun kundalik xarajatlar o‘rniga ish haqi yoki mansab maoshiga tarif stavkasini 50% miqdorida, lekin kundalik xarajat uchun «O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xizmat safarlari to‘g‘risida Yo‘riqnoma» ning 11-bandida belgilangan me’yordan yuqori bo‘lmagan ustama belgilanadi.

Quyidagi ishchi va xodimlar montaj, sozlash va qurilish ishlarini amalga oshirish uchun xizmat safariga yuborilgan hollarda ularga kundalik xarajatlar o‘rniga tarif stavkasini yoki mansab maoshini yuqorida ko‘rsatilgan miqdorlarda ustamalar to‘lanmaydi:

- montaj, sozlash va qurilish ishlari amalga oshiriladigan joyda ishga olingan;
- amaldagi qonunchilikda ko‘zda tutilgan shartlar asosida boshqa joyga o‘tkazish tartibida yuborilgan;
- mehnat ta’tilida bo‘lgan vaqtda, shuningdek sababsiz holda ishga chiqmagan kunlarda;
- ular tomonidan montaj, sozlash va qurilish ishlari amalga oshiriladigan joydan tashqarida davlat yoki jamoat ishlarini bajarish vaqtida;
- montaj, sozlash va qurilish ishlarini bajarilishi nazoratini amalga oshirish uchun xizmat safariga yuborilgan.

Kundalik xarajatlari o‘rniga tarif stavkasi yoki lavozim maoshidan foiz miqdorida ish haqiga ustama to‘lash ishchini montaj, sozlash va qurilish ishlarida ishtirok etgan har bir kalendar kun uchun amalga oshiriladi.

To‘liq bo‘lmagan oy uchun ko‘rsatilgan ustamani hisoblashdan avval ustama to‘liq oy uchun belgilanadi, so‘ngra ushbu summa mazkur oydagi kalendar kunlar soniga bo‘linadi va ishchini montaj, sozlash va qurilish ishlarida bo‘lgan kunlari soniga ko‘paytiriladi.

Montaj, sozlash va qurilish ishlarini bajarish uchun xizmat safariga yuborilgan ishchi va xodimlar tekin turar-joy bilan ta’minlanishi mumkin. Tekin turar joy berilmagan hollarda, turar joy xonasini ijaraga olish bilan bog‘liq xarajatlar «O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xizmat safarlari to‘g‘risida Yo‘riqnoma» ning 12-bandida ko‘zda tutilgan me’yorlar bo‘yicha qoplanadi. Agar kasal bo‘lib qolgan ishchi montaj, sozlash va qurilish ishlari olib borilayotgan joydan tashqarida yashasa, u holda ish haqi lavozim maoshi yoki tarif stavkasiga foiz miqdoridagi ustama to‘lanmaydi.

Xizmat safari bo‘yicha yashash uchun (turar joyni ijarasi bo‘yicha) xarajatlarni qoplash uchun mablag‘lar to‘lash tartibi

Xizmat safari joyidagi turar joyni ijaraga olish bo‘yicha xarajatlar xizmat safariga yuborilgan xodimni kelish va ketish kunlari bo‘yicha haqiqatdagi xarajatlar, shuningdek tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda mehmonxonalarda ko‘rsatiladigan qo‘shimcha xizmatlar (joylarni bronlash, dazmoldan foydalanish, saqlash kamerasidan, televizor, muzlatgich, idish-tovoq, aloqa xizmatidan foydalanish)ga haq to‘lash xarajatlari qoplanadi.

Turar joyni ijaraga olganlik bo‘yicha xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan hollarda, har bir sutka uchun belgilangan bazaviy hisoblash miqdorini 20 foizi miqdorida qoplanadi.

Xizmat safari davrida xizmat safariga yuborilgan ishchi va xodim vaqtinchalik mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotgan hollarda unga umumiy asoslarda turar joy xonasini ijarasi bo‘yicha xarajatlar qoplanadi, xizmat safariga yuborilgan ishchi va xodim statsionar davolanishda bo‘lgan hollar bundan mustasno.

Xizmat safariga yuborilgan ishchini vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo‘qotishi, shuningdek sog‘lig‘ini holati bo‘yicha o‘zining doimiy yashash joyiga qaytish imkoniyatini yo‘qligi belgilangan tartibda tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Tasdiqlovchi hujjatlar asosida uy-joyni band qilish uchun to‘lovlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarishda jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi.

Xizmat safarida transport xarajatlarini qoplash uchun mablag‘lar to‘lash tartibi

Transport xarajatlarini qoplash uchun mablag‘lar haqiqiy xarajatlar bo‘yicha ularni tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi sharti bilan to‘lanadi.

«O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xizmat safarlari to‘g‘risida Yo‘riqnoma» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003-yil 29-avgustda 1268-son bilan ro‘yxatga olingan)* ning 10-bandiga muvofiq, xizmat safariga yuborilgan joyga borish va doimiy ish joyiga qaytish bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘l xarajatlari xizmat safariga yuborilgan shaxsga quyidagi miqdorlarda qoplanadi:

- umumiy foydalaniladigan transportni barcha turlarida yurish (taksidan tashqari) qiymati;
- transportda yo‘lovchilarni majburiy davlat sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlar;
- yo‘lda yurish hujjatlarini oldindan sotish, samolyot va poezdlarda joylarni bronlash xizmatlari bo‘yicha to‘lovlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda;
- umumiy foydalaniladigan transport bilan (taksidan tashqari) stansiyagacha, sohilgacha (pristangacha), aeroportgacha yetib olish xarajatlari, agar ular aholi yashaydigan hududdan tashqarida joylashgan bo‘lsa. Istisno tariqasida (kechki poezd, umumiy foydalaniladigan transport yo‘q bo‘lgan taqdirda) tashkilot rahbariga taksida yurganlik uchun haq to‘lash huquqi beriladi.

Yo‘lda ko‘rpa-to‘shak buyumlaridan foydalanganlik uchun xarajatlar tasdiqlovchi hujjatlarsiz haq to‘lashga qabul qilinadi.

Yo‘l hujjatlari mavjud bo‘lmaganda, byudjet tashkilotlari xodimlari uchun xizmat safari yo‘lkirasiga haq to‘lash har bir kilometrga bazaviy hisoblash miqdorining 0,08 foizi miqdorida amalga oshiriladi.

Yo‘l hujjatlari mavjud bo‘lmaganda, boshqa tashkilotlar xodimlari uchun jamoa kelishuvi (shartnomalari), mehnat shartnomasida ko‘zda tutilgan, biroq har bir kilometrga bazaviy hisoblash miqdorining 0,08 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda to‘lanadi. Kilometrlar miqdori 500 metr va undan ortiq bo‘lgan holatlarda, ko‘p tomonga yaxlitlanadi. Kilometrlar miqdori 500 metrdan kam bo‘lgan holatlarda, kam tomonga yaxlitlanadi.

Xizmat safari bo‘yicha ko‘zda tutilmagan xarajatlarning qoplash tartibi

Xizmat safari bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha xarajatlar (telefonda gaplashish, telegraf xarajatlari va boshqalar) xizmat safariga yuborilgan shaxsda ushbularni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lgan taqdirda to‘lanadi. Xizmat safariga yuborilgan ishchiga shuningdek istisno tariqasida, tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lganda, tashkilot rahbarining ruxsati bilan havo, temir yo‘l, suv va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida bagajni olib o‘tish bilan bog‘liq xarajatlar qoplanadi.

Xizmat safari xususiyati biror-bir qo‘shimcha ishlab chiqarish xarajatlarini (telefon so‘zlashuvlari, yukni olib kelish, hujjatlardan nusha ko‘chirish va boshqalar) nazarda tutganda, korxona rahbari tomonidan xodimni xizmat safariga yuborilishidan oldin ushbu xarajatlarni qoplash to‘g‘risidagi buyruq (farmoyish) chiqariladi. Bunda ushbu xarajatlar bunday buyruq (farmoyish) va tasdiqlovchi hujjatlar (schyotlar, kvitantsiyalar) mavjud bo‘lganda korxonaning xarajatlariga olib borilishi va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan foydani hisoblab chiqarishda chegiriladigan xarajatlar tarkibiga kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 145-moddasining 14-bandiga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xizmat safarining boshqa xarajatlar

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan foydani hisoblab chiqarishda chegiriladigan xarajatlar tarkibiga kiradi.

Xizmat safari bo‘yicha hisobot tuzish va taqdim etish tartibi

Xizmat safariga yuborilgan shaxs xizmat safaridan qaytib kelganda, avans hisobotini tuzadi (5-ilovaga qarang). Xizmat safaridan qaytib kelgandan so‘ng yoki belgilangan vazifa bajarilgandan so‘ng uch kun ichida hisobdor shaxs qilingan xarajatlar to‘g‘risida avans hisobotini korxonaning buxgalteriyasiga topshirishi shart. Xizmat safari natijalari bo‘yicha yakuniy hisob-kitob belgilangan me’yorlar va qo‘shimcha to‘lovlarni hisobga olgan holda hujjatlar bilan tasdiqlangan haqiqiy xarajatlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Ushbu hisobotga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan xizmat safari guvohnomasi va xizmat safarida haqiqatda qilingan xarajatlarni isbotlovchi, tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinadi.

Xizmat safarning tayinlanish maqsadiga qarab sex, bo‘lim boshliqlari qilingan xarajatlarni maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. Avans hisoboti tuzilib summasi aniqlangandan so‘ng avans hisoboti korxona rahbari tomonidan tasdiqlanadi va tegishli buxgalteriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi. Foydalanilmay qolgan summa avans hisoboti topshirgan kuni hisobdor shaxs tomonidan kassaga kirim orderi bilan topshiriladi, ortiqcha qilingan xarajat summasi kassadan chiqim orderi bilan beriladi.

Hisobdor shaxsga berilgan summa maqsadli xarakterga ega bo‘lib, birovga berish yoki buyurish taqiqlanadi. Oldingi berilgan avans bo‘yicha qarzi bo‘lmagan holdagina yangi avans beriladi. Basharti belgilangan muddatda avans hisoboti topshirilmasa yoki foydalanilmagan summa kassaga qaytarib topshirilmasa, qonunchilikda belgilangan tartibda buxgalteriya bu qarzni hisoblangan ish haqidan ushlab qolishi mumkin.

Belgilangan me’yor doirasida yoki undan ortiq qilingan xizmat safari xarajatlari, tayinlanish maqsadiga qarab, yoki ishlab chiqarish xarajatlariga, yoki davr xarajatlariga o‘tkaziladi. Basharti xizmat safari xarajatlari ishlab chiqarish jarayoniga o‘tkazilsa, mahsulot (ish va xizmat) lar tannarxiga hamda boshqaruv xodimlarining safar xarajatlari esa – davr xarajatlariga o‘tkaziladi.

21-son BHMS ga muvofiq, hisobdor shaxslar bilan hisob-kitoblar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 4220 «Xizmat safarlari uchun berilgan bo‘naklar» schyotida korxona ishchi va xodimlariga xizmat safarlari uchun berilgan bo‘naklar hisobga olinadi. Xizmat safarlari uchun bo‘naklar xizmat safari to‘g‘risidagi buyruq, chiptalar qiymati, kunlik yashash xarajatlari va boshqalar ko‘rsatilgan holda bo‘nak summasini hisoblash asosida beriladi. Mazkur schyotning debet qoldig‘i hisobdor shaxsining korxonadan bo‘lgan qarzini ko‘rsatadi. Bu schyotning debetiga kassa chiqim orderiga asosan yangi avans summasi berilganda, kreditga esa – avans hisobotiga asosan sarflangan va kirim kassa orderiga asosan qaytarib topshirilgan foydalanilmagan summa yoziladi;

- 4230 «Umumxo‘jalik xarajatlari uchun berilgan bo‘naklar» schyotida korxona ishchi va xodimlariga ma’muriy-xo‘jalik va operatsion xarajatlar, umumxo‘jalik ehtiyojlari uchun turli xildagi kichik tovar-moddiy zaxiralar (inventar va jihozlar) ni naqd pulga xarid qilish uchun berilgan bo‘naklar aks ettiriladi. Tovar-moddiy qiymatliklarni baholash va kirim qilish hamda ma’muriy-xo‘jalik va operatsion xarajatlarni tan olish tegishli tasdiqlovchi hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

- 6970 «Hisobdor shaxslarga bo‘lgan qarzlar» schyotida korxona ishchi va xodimlariga ma’muriy-xo‘jalik va operatsion xarajatlar, umumxo‘jalik ehtiyojlari uchun turli xildagi kichik tovar-moddiy zaxiralar (inventar va jihozlar) ni naqd pulga xarid qilish, shuningdek xizmat safarlari uchun berilgan hisobdorlik summalari bilan haqiqiy sarflangan summalari o‘rtasidagi farq natijasida kelib chiqadigan qarzlar hisobga olinadi.

Hisobdor shaxslar oldindan olingan bo‘nak summasidan ortiqcha xarajat qilgan bo‘lsa, hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan ortiqcha qilingan xarajatlar summasiga 6970 «Hisobdor shaxslarga qarzlar» schyoti kreditlanadi. Ushbu ortiqcha qilingan xarajat summasi hisobdor shaxsga qaytarilganda 6970 schyoti debetlanib, 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti kreditlanadi. 6970 «Hisobdor shaxslarga qarzlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir hisobdor shaxslar bo‘yicha alohida yuritiladi.

Xizmat safari xarajatlarini to‘lash bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va zarur hujjatlarni rasmiylashtirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz korxonaning ishlab chiqarish sexi ishchisi va bosh hisobchi o‘rinbosari o‘z sohalari bo‘yicha malaka oshirish uchun Toshkent shahriga xizmat safariga yuborilgan. Xizmat safari muddati 10 kundan iborat. Korxona rahbari tomonidan Toshkent shahriga xizmat safarida kundalik xarajat xizmat safarining har bir kuniga 250 000 so‘m qilib belgilangan. Oldingi xizmat safaridan kelib - chiqib turar joyni ijaraga olish xarajatlari xizmat safarining har bir kuniga 400 000 so‘m, Toshkent shahri (xizmat safari joyi) ga borish va korxona (doimiy ish joyi) ga qaytishdagi transport xarajatlariga 700 000 so‘m, qo‘shimcha ravishda ko‘zda tutilmagan xarajatlarga 800 000 so‘m rejalashtirilgan.

O‘n kunga xizmat safarining xarajatlari summasi har bir xizmat safariga yuborilayotgan shaxs uchun 8 000 000 so‘m (250 000 so‘m x 10 kun + 400 000 so‘m x 10 kun + 700 000 so‘m +800 000 so‘m) ni tashkil etadi.

Xizmat safari xarajatlari uchun bankdan naqd pul mablag‘lari olinishi va xizmat safariga yuborilayotgan texnik ko‘rikdan o‘tkazish joyi ishchisiga va bosh hisobchi o‘rinbosariga kassadan berilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- xizmat safari xarajatlari uchun bankdan naqd pul mablag‘lari olingan:

debet 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti *16 000 000 so‘m;*

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *16 000 000 so‘m;*

(16 000 000 so‘m = 8 000 000 so‘m x 2 kishi);

- xizmat safariga yuborilayotgan ishlab chiqarish sexi ishchisiga va bosh hisobchi o‘rinbosariga kassadan pul mablag‘lari (hisobdor summa) ni berilishi:

debet 4220 «Xizmat safariga berilgan bo‘naklar» schyoti *16 000 000 so‘m;*

kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti *16 000 000 so‘m.*

Xizmat safari uchun berilgan mablag‘larning sarflanmagan qismi qaytarilganda va avans hisoboti rasmiylashtirilgandagi buxgalteriya yozuvlari

Xizmat safariga yuborilgan texnik ko‘rikdan o‘tkazish joyi ishchisi va bosh hisobchi o‘rinbosari Toshkent shahridan qaytib kelganda, avans hisobotini tuzadi va buxgalteriyaga xizmat safaridan qaytib kelgandan so‘ng 3 kundan kechiktirmay taqdim etiladi. Xizmat safari natijalari bo‘yicha yakuniy hisob-kitob belgilangan me’yorlar va qo‘shimcha to‘lovlarni hisobga olgan holda hujjatlar bilan tasdiqlangan haqiqiy xarajatlar bo‘yicha avans hisobotini qabul qilish amalga oshiriladi.

Ikkita holatni (xizmat safari uchun berilgan mablag‘larni sarflanishidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Xizmat safariga yuborilgan ishlab chiqarish sexi ishchisi va bosh hisobchi o‘rinbosari ko‘zda tutilmagan xarajatlarga rejalashtirilgan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlarga ega emas, qolgan

xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud. SHunday qilib, xizmat safariga yuborilgan ishlab chiqarish sexi ishchisi va bosh hisobchi o‘rinbosari korxona kassasiga 160 000 so‘m (80 000 so‘m x 2 kishi) ni qaytarishi kerak.

Xizmat safaridan qaytgan ishlab chiqarish sexi ishchisi va bosh hisobchi o‘rinbosari bilan hisob-kitoblar va xizmat safari xarajatlarini hisobdan chiqarilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- texnik ko‘rik ishlab chiqarish sexi ishchisining xizmat safari xarajatlarining hisobdan chiqarilishi:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 7 200 000 sum;
kredit 4220 «Xizmat safariga berilgan bo‘naklar» schyoti 7 200 000 so‘m;

(7 200 000 so‘m = 250 000 so‘m x 10 kun + 400 000 so‘m x 10 kun + 700 000 so‘m);

- bosh hisobchi o‘rinbosarining xizmat safari xarajatlarining hisobdan chiqarilishi:

debet 9420 «Ma’muriy xarajatlar» schyoti 7 200 000 sum;
kredit 4220 «Xizmat safariga berilgan bo‘naklar» schyoti 7 200 000 so‘m;

(7 200 000 so‘m = 250 000 so‘m x 10 kun + 400 000 so‘m x 10 kun + 700 000 so‘m);

- sarflanmagan naqd pul mablag‘larini korxona kassasiga qaytarilishi:

debet 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti 1 600 000 so‘m;
kredit 4220 «Xizmat safariga berilgan bo‘naklar» schyoti 1 600 000 so‘m;

(16 000 000 so‘m = 8 000 000 so‘m x 2 kishi);
(14 400 000 so‘m = 7 200 000 so‘m x 2 kishi);
(1 600 000 so‘m = 16 000 000 so‘m – 14 400 000 so‘m);

- sarflanmagan naqd pul mablag‘larini vakolatli bankga qaytarilishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 1 600 000 so‘m;
kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti 1 600 000 so‘m.

2-holat:

Xizmat safariga yuborilgan ishlab chiqarish sexi ishchisi va bosh hisobchi o‘rinbosari ko‘zda tutilmagan xarajatlarga rejalashtirilgan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlarga ega emas, qolgan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud, lekin turar joyni ijaraga olish xarajatlari uchun rejalashtirilganda ortiqcha sarflashgan, ya’ni turar joyni ijaraga olish xarajatlari xizmat safarining har bir kuniga 600 000 so‘mni tashkil etgan. SHunday qilib, xizmat safariga yuborilgan ishlab chiqarish sexi ishchisi va bosh hisobchi o‘rinbosarining har birining xizmat safari xarajatlari 9 200 000 so‘m (250 000 so‘m x 10 kun + 600 000 so‘m x 10 kun + 700 000 so‘m) ni tashkil etgan.

Xizmat safaridan qaytgan ishlab chiqarish sexi ishchisi va bosh hisobchi o‘rinbosari bilan hisob-kitoblar va xizmat safari xarajatlarini hisobdan chiqarilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ishlab chiqarish sexi ishchisining xizmat safari xarajatlarining hisobdan chiqarilishi:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 9 200 000 sum;
kredit 4220 «Xizmat safariga berilgan bo‘naklar» schyoti 8 000 000 so‘m;
kredit 6970 «Hisobdor shaxslarga bo‘lgan

qarzlar» schyoti 1 200 000 so‘m;

- bosh hisobchi o‘rinbosarining xizmat safari xarajatlarining hisobdan chiqarilishi:

debet 9420 «Ma’muriy xarajatlar» schyoti 9 200 000 sum;
kredit 4220 «Xizmat safariga berilgan
bo‘naklar» schyoti 8 000 000 so‘m;
kredit 6970 «Hisobdor shaxslarga bo‘lgan
qarzlar» schyoti 1 200 000 so‘m;

- ortiqcha sarflangan pul mablag‘lari korxona kassasidan berilganda:

debet 6970 «Hisobdor shaxslarga bo‘lgan
qarzlar» schyoti 2 400 000 so‘m;
kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul
mablag‘lari» schyoti 2 400 000 so‘m;

(2 400 000 so‘m = 1 200 000 so‘m x 2 kishi).

Ma’muriy-xo‘jalik va operatsion xarajatlar, umumxo‘jalik ehtiyojlari uchun turli xildagi kichik tovar-moddiy zaxiralar (inventar va jihozlar) ni xarid qilish uchun berilgan hisobdor summalar bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va zarur hujjatlarni rasmiylashtirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning ta’minot bo‘limi xodimiga korxonaga keladigan chetellik mehmonlarni kutib olish bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish sifati vakillik xarajatlarini amalga oshirishga 1 200 000 so‘m, inventar va xo‘jalik jihozlari sifatida kanselyariya buyumlari (kalkulator, qog‘oz keskich va maydalagich va h.k.lar) xarid qilish uchun 800 000 so‘m pul mablag‘lari ajratilgan.

Yuklatilgan vazifani bajargandan keyin ta’minot bo‘limi xodimi, avans hisobotini tuzgan va buxgalteriyaga 3 kundan kechiktirmay taqdim etgan. Vakillik xarajatlarini amalga oshirish natijalari bo‘yicha yakuniy hisob-kitob hujjatlar bilan tasdiqlangan haqiqiy xarajatlar bo‘yicha avans hisobotini qabul qilish orqali amalga oshirilgan. Kanselyariya buyumlari tegishli boshlang‘ich hujjatlar asosida omborga kirim qilingan.

Ikkita holatni (berilgan mablag‘larni sarflanishidan va hisob-kitob naqd pulda yoki plastik kartochka orqali amalga oshirilshidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Ta’minot bo‘limi xodimiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun naqd pul berilgan. Vakillik xarajatlariga ajratilgan pul mablag‘laridan 100 000 so‘m sarflanmay tejab qolingan.

Vakillik xarajatlari va kanselyariya buyumlari xarid qilish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- vakillik xarajatlari va kanselyariya buyumlari xarid qilish uchun bankdan naqd pul mablag‘lari olingan:

debet 5010 «Milliy valyutadagi pul
mablag‘lari» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 2 000 000 so‘m;

(2 000 000 so‘m = 1 200 000 so‘m + 800 000 so‘m);

- ta’minot bo‘limi xodimiga vakillik xarajatlari va kanselyariya buyumlari xarid qilish uchun kassadan pul mablag‘lari (hisobdor summa) ni berilishi:

debet 4230 «Umumxo‘jalik xarajatlari uchun berilgan
bo‘naklar» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul
mablag‘lari» schyoti 2 000 000 so‘m;

- ta’minot bo‘limi xodimi tomonidan amalga oshirilgan vakillik xarajatlarining hisobdan chiqarilishi:

debet 9430 «Ma'muriy xarajatlar» schyoti 1 100 000 sum;
kredit 4230 «Umumxo'jalik xarajatlari uchun berilgan bo'naklar» schyoti 1 100 000 so'm;

- ta'minot bo'limi xodimi tomonidan xarid qilingan kanselyariya buyumlari omborga kirim qilinganda:

debet 1080 «Inventar va xo'jalik jihozlari» schyoti 800 000 sum;
kredit 4230 «Umumxo'jalik xarajatlari uchun berilgan bo'naklar» schyoti 800 000 so'm;

- sarflanmagan naqd pul mablag'larini korxona kassasiga qaytarilishi:

debet 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari» schyoti 100 000 so'm;
kredit 4230 «Umumxo'jalik xarajatlari uchun berilgan bo'naklar» schyoti 100 000 so'm;

- sarflanmagan naqd pul mablag'larini vakolatli bankga qaytarilishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 100 000 so'm;
kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari» schyoti 100 000 so'm.

2-holat:

Ta'minot bo'limi xodimiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun korxonaning korporativ plastik kartochkasi berilgan (plastik kartochkada 2 000 000 so'm bo'lgan). Vakillik xarajatlariga ajratilgan pul mablag'laridan ortiqcha 200 000 so'm sarflangan.

Vakillik xarajatlari va kanselyariya buyumlari xarid qilish bilan bog'liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ta'minot bo'limi xodimi tomonidan xarid qilingan kanselyariya buyumlari omborga kirim qilinganda:

debet 1080 «Inventar va xo'jalik jihozlari» schyoti 800 000 sum;
kredit 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyoti 800 000 so'm;

- ta'minot bo'limi xodimi tomonidan amalga oshirilgan vakillik xarajatlarining hisobdan chiqarilishi:

debet 9430 «Ma'muriy xarajatlar» schyoti 1 400 000 sum;
kredit 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyoti 1 200 000 so'm;
kredit 6970 «Hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlar» schyoti 200 000 so'm;

- ortiqcha sarflangan pul mablag'lari korxona kassasidan berilganda:

debet 6970 «Hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlar» schyoti 200 000 so'm;
kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag'lari» schyoti 200 000 so'm.

Mazkur misolda, hisobdor shaxs bilan hisob-kitoblar bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar natijasida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza yuzaga kelmaydi. Vakillik xarajatlarini soliqqa tortish tartibini alohida ko'rib o'tamiz.

7-§. Bank kreditlari va qarzga olingan mablag‘lar hisobi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank krediti korxonalarning qarzga oladigan mablag‘larining muhim manbai bo‘lib hisoblanadi. Bozor munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar ta’sirida ko‘p tarmoqli davlat va tijorat banklari shakllanib, ular korxonalarning tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat’iy nazar hisob-kitob, kassa muomalalarini amalga oshirish bo‘yicha xizmat qiladi.

Kredit (lat. creditum -qarz) - pul mablag‘lari yoki tovarni qarzga berish. Korxona va tashkilotlar mablag‘larining aylanma harakatining bir xilda emasligi natijasida vujudga kreditga bo‘lgan sharoit va talabini banklar qondiradi. Asosiy tamoyili esa, o‘z vaqtida qaytarilishi, maqsadli mo‘ljallanganligi, moddiy boylik bilan ta’minlanganligidir. Kredit 2 xil bo‘ladi: qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlarga bo‘linadi.

Kredit tovar-pul munosabatlari mavjud sharoitdagi takror ishlab chiqarish jarayonining ajralmas bir qismi bo‘lib, tovar ishlab chiqarish kredit munosabatlari vujudga kelishining tabiiy asosi hisoblanadi. Kreditning vujudga kelishini nafaqat ichki iste’mol uchun tovar ishlab chiqarish doirasidan emas, balki asosan yuridik jihatdan mustaqil, bir-biriga mulkdor sifatida qarama-qarshi turuvchi va iqtisodiy munosabatlarga kirishishga tayyor tovar egalari faoliyat ko‘rsatayotgan muomala doirasidan qidirish kerak.

Kredit orqali jamiyatimizda quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- birinchidan, fondlar aylanishi jarayonida chetga chiqib, bo‘sh qolgan mablag‘larning harakatsiz turib qolishining oldi olinadi;

- ikkinchidan, takror ishlab chiqarishni keng doirada uzluksiz davom ettirishga imkoniyat yaratiladi.

Korxonalarning banklar bilan kiritiladigan kredit-hisoblashish munosabatlari ixtiyoriy asosda bo‘lib, ikkala tomonlarning manfaatdorligi asosida tuziladi. Kreditlar xo‘jalik hisobida turgan, mustaqil balansi va o‘z aylanma mablag‘lariga ega bo‘lgan korxonalarga, odatda, yiriklashtirilgan kredit obyektlari uchun beriladi.

Hisob-kitob munosabatlari tamoyillari va talablarini inobatga olgan holda obyektlar uchun kredit berishdan subyektga, aniq yuridik va jismoniy shaxsga yoki iqtisodiy va ijtimoiy dasturlar majmuini kreditlashga o‘tish amalga oshirilmoqda.

Banklar amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan va tomonlar bilan kelishilgan holda kreditni qaytarib berish, muddatlilik, to‘lovlik va ta’minlanganlik tamoyillariga qat’iy amal qilib beradi. Banklar faoliyatining huquqiy asosini qonuniy va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi.

Kredit berish va uni qaytarish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha masalalar bank qoidalari va bank bilan kredit oluvchi korxonalar o‘rtasida tuzilgan shartnomalar asosida tartibga solinadi. Tuzilgan kredit shartnomalarda quyidagilar kelishib olinadi: kredit berish obekti va kreditning muddati, kredit berish sharti, uni berish va qaytarish tartibi, majburiyatlarni ta’minlash sharti, foiz stavkalari, ularni to‘lash tartibi, kredit berish va qaytarish bo‘yicha tomonlarning majburiyatlari, huquqlari va mas’uliyati, hujjatlar ro‘yxati va ularni topshirish muddatlari va boshqa shartlar.

Kredit olishda korxonalar bankka asoslangan ariza va unga quyidagi hujjatlarni ilova qilib kreditni qaytarilishini ta’minlanishini tasdiqlovchi ta’sis va boshqa hujjatlar topshiradi.

SHartnoma tuzilmasdan bank korxonaning to‘lash qobilyatini sinchiklab tekshiradi. Buning uchun bank korxonadan olgan hujjatlardan va hisobotlardan foydalanadi, kerak bo‘lsa joylarda

oldindan tekshiruv o‘tkaziladi. Agar bu hujjatlarning barchasi talabga javob bersa, bank xodimlari korxonaga kredit berishga qaror qiladi. Keyinchalik, korxona kredit olgandan so‘ng kreditni to‘liq qaytargunga qadar kredit shartnomasida ko‘rsatilgan tartib va muddatlarda bankka buxgalteriya hisoboti va korxonaning xo‘jalik-moliyaviy faoliyati ustidan nazorat qilish uchun zarur bo‘lgan boshqa hujjatlarni topshirib turadi.

Muddatiga qarab bank kreditlari qisqa muddatli va uzoq muddatli bo‘ladi. Kreditning muddatliligi uning qaytarish muddati bilan belgilanadi. CHunonchi, qisqa muddatli kredit bir yildan kam muddatga beriladi.

Uzoq muddatli kreditlar bir yildan ortiq muddatga, odatda, yangi texnikani tadbiq etishga, ishlab chiqarishni kengaytirishga, uning qaytadan tiklanishiga, qimmat asbob-uskunalarni sotib olishga va boshqa maqsadli dasturlarni amalga oshirishga olinadi.

21-son BHMS ga muvofiq, korxonaning bank kreditlari va qarzlar to‘g‘risidagi axborotlarini umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» schyotida korxonaning banklardan olgan turli qisqa muddatli kreditlari hisobga olinadi;

- 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» schyotida O‘zbekiston Respublikasi va cheteldagi qarz beruvchilardan (bankdan tashqari) 12 oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga olingan qarzlar hisobga olinadi;

- 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyotida korxonaning banklardan olgan turli uzoq muddatli (12 oydan uzoq muddatga) kreditlari hisobga olinadi;

O‘zbekiston Respublikasi va cheteldagi qarz beruvchilardan (bankdan tashqari) 12 oydan ko‘p bo‘lmagan muddatga olingan qarzlar hisobga olinadi.

- 7820 «Uzoq muddatli qarzlar» schyotida schyotida korxonaning O‘zbekiston Respublikasi va cheteldagi qarz beruvchilardan (bankdan tashqari) 12 oydan uzoq muddatga olgan qarzlari hisobga olinadi.

Bank kreditlarini olish bilan bog‘liq bo‘lgan operatsiyalar hisobi 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» va 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyotlarida aks ettiriladi. Bu schyotlar passiv bo‘lib, ularning qoldiqlari hisobot davri boshiga qaytarilmagan bank kreditlari summasini ko‘rsatadi, debet aylanmai – bank kreditni qaytarilishini, kredit aylanmai esa olingan bank krediti summasini aks ettiradi.

Banklardan olingan qisqa muddatli bank kreditlarining summalari 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» schyotining kreditida va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettiriladi. Bankning qisqa muddatli kreditlari qaytarilishi 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» schyotining debeti va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

Banklardan olingan uzoq muddatli bank kreditlarining summalari 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyotining kreditida va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettiriladi.

Bankning uzoq muddatli kreditlarining qaytarilishi muddat kelgan qismi joriy qismga o‘tkaziladi. Uzoq muddatli bank kreditini joriy qismga o‘tkazishda, tegishli summaga

7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti debetlanadi va 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi» schyoti kreditlanadi bunda uzoq muddatli bank kreditining boshlang‘ich qiymati kamaytiriladi. Uzoq muddatli bank kreditining joriy qismi bankka qaytarilganda 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi» schyoti debetlanadi va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlari kreditlanadi.

Bank kreditlarini hisobga oluvchi 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» schyoti va 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir kreditni taqdim etgan bank, kredit turi va summasi, muddati, shuningdek muddatida qaytarilmagan kreditlar bo‘yicha alohida yuritiladi.

Bankdan olingan qisqa muddatli kreditlar va ular bo‘yicha foiz hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun joriy yilning 1- aprelida bankdan 6 oy muddatga, foiz stavkasi yillik 18%, asosiy qism va foizlar muddat oxirida to‘lanadigan summasi 25 000 000 so‘m bo‘lgan kredit olingan.

Korxonada kredit bo‘yicha foizlar hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

- yillik foiz summasi - 25 000 000 so‘m x 18 / 100 = 4 500 000 so‘m;

- muddat oxirida to‘lanadigan foiz summasi - 4 500 000 so‘m / 365 x 6 oy (183 kun) = 2 256 164 so‘m.

Bankdan olingan qisqa muddatli kreditlar va ular bo‘yicha foiz hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- bankdan olingan qisqa muddatli kredit summasiga:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 25 000 000 so‘m;
kredit 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» schyoti 25 000 000 sum;

- hisoblangan foizlar bo‘yicha xarajatlar summasiga:

*debet 9610 «*Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar*» schyoti 2 256 164 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 2 256 164 so‘m;

- bankka qaytarilgan qisqa muddatli kredit va to‘langan foizlar summasiga:

debet 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» schyoti 25 000 000 sum;
debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 2 256 164 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 27 256 164 so‘m.

Bankdan olingan uzoq muddatli kreditlar va ular bo‘yicha foiz hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona yangi bino qurishni xo‘jalik usulida amalga oshiradi. Qurilish davri 1 yil. Qurilishni moliyalashtirish uchun «Agro bank» dan 2 yil muddatga, foiz stavkasi yillik 18%, asosiy qism va foizlar har yili to‘lanadigan summasi 150 000 000 so‘m bo‘lgan kredit olingan.

Korxonada kredit bo‘yicha har yili foizlar hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

150 000 000 so‘m x 18 / 100 = 27 000 000 so‘m.

Bankdan olingan uzoq muddatli kreditlar va ular bo‘yicha foiz hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- bankdan olingan uzoq muddatli kredit summasiga:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 150 000 000 so‘m;

kredit 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti 150 000 000 sum;

birinchi yilda:

- uzoq muddatli bank kreditning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti 75 000 000 so‘m;

kredit 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar – joriy qismi» schyoti 75 000 000 sum;

(75 000 000 so‘m = 150 000 000 so‘m / 2 yil);

- hisoblangan foizlar bo‘yicha xarajatlar summasiga:

debet 0810 «Tugallanmagan qurilish» schyoti 27 000 000 so‘m;

kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 27 000 000 so‘m;

- bankka qaytarilgan uzoq muddatli kredit va to‘langan foizlar summasiga:

debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar – joriy qismi» schyoti 75 000 000 sum;

debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 27 000 000 so‘m;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 102 000 000 so‘m;

ikkinchi yil:

- uzoq muddatli bank kreditning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti 75 000 000 so‘m;

kredit 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar – joriy qismi» schyoti 75 000 000 sum;

(75 000 000 so‘m = 150 000 000 so‘m / 2 yil);

- hisoblangan foizlar bo‘yicha xarajatlar summasiga:

*debet 9610 «*Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar*» schyoti 27 000 000 so‘m;*

kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 27 000 000 so‘m.

- bankka qaytarilgan uzoq muddatli kredit va to‘langan foizlar summasiga:

debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar – joriy qismi» schyoti 75 000 000 sum;

debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 27 000 000 so‘m;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 102 000 000 so‘m.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar boshqa korxona va tashkilotlardan qarz olishi mumkin. Qaytarish muddatiga qarab bu qarzlar qisqa muddatli (bir yilgacha muddatga) va uzoq muddatli (bir yildan ortiq muddatga) bo‘lishi mumkin. Korxonaning qarz beruvchilar (bankdan tashqari) bilan bo‘ladigan hisob-kitob muomalalari 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» va 7820 «Uzoq muddatli qarzlar» schyotlarida hisobga olinadi. Bu schyotlar passiv bo‘lib, ularning qoldiqlari hisobot davri boshiga qarz beruvchilarga (bankdan tashqari) qaytarilmagan qarzlar summasini ko‘rsatadi, debet aylanmasi – qarzlarni qarz beruvchilarga qaytarilishini, kredit aylanmasi esa qarz beruvchilardan olingan qarz summasini aks ettiradi.

Qarz beruvchilardan (bankdan tashqari) olingan qisqa muddatli qarzlarning summalari 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» schyotining kreditida va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettiriladi. Qisqa muddatli

qarzlarni qarz beruvchilarga qaytarilishi 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» schyotining debeti va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

Qarz beruvchilardan (bankdan tashqari) olingan uzoq muddatli qarzlarning summalari 7820 «Uzoq muddatli qarzlar» schyotining kreditida va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettiriladi.

Qarz beruvchilardan olingan uzoq muddatli qarzlarning qaytarilishi muddat kelgan qismi joriy qismga o‘tkaziladi. Uzoq muddatli qarzlarni joriy qismga o‘tkazishda, tegishli summaga 7820 «Uzoq muddatli qarzlar» schyoti debetlanadi va 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi» schyoti kreditlanadi bunda uzoq muddatli qarzlarning boshlang‘ich qiymati kamaytiriladi. Uzoq muddatli qarzlarning joriy qismi qaytarilganda 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi» schyoti debetlanadi va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlari kreditlanadi.

Qarz beruvchilardan olingan qarzlarni hisobga oluvchi 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» schyoti va 7820 «Uzoq muddatli qarzlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir qarz beruvchi, qarz turi va summasi, muddati, shuningdek muddatida qaytarilmagan qarzlar bo‘yicha alohida yuritiladi.

Qarz beruvchilardan olingan qisqa muddatli qarzlar va ular bo‘yicha foiz hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun qarz beruvchidan joriy yilning 1-aprelida 6 oy muddatga, yillik 9 foiz to‘lash sharti bilan, asosiy qism va foizlar muddat oxirida to‘lanadigan summasi 30 000 000 so‘m bo‘lgan qarz olingan.

Korxonada qarz beruvchilardan olingan qisqa muddatli qarz bo‘yicha foizlar hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

- yillik foiz summasi - 30 000 000 so‘m x 9 / 100 = 2 700 000 so‘m;

- muddat oxirida to‘lanadigan foiz summasi - 2 700 000 so‘m / 365 x 6 oy (183 kun) = 1 353 700 so‘m.

Qarz beruvchilardan olingan qisqa muddatli qarzlar va ular bo‘yicha foiz hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- qarz beruvchilardan olingan qisqa muddatli qarz summasiga:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 30 000 000 so‘m;
kredit 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» schyoti 30 000 000 sum;

- hisoblangan foizlar bo‘yicha xarajatlar summasiga:

*debet 9610 «*Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar*» schyoti 1 353 700 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 1 353 700 so‘m;

- qarz beruvchilarga qaytarilgan qisqa muddatli qarz va to‘langan foizlar summasiga:

debet 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» schyoti 30 000 000 sum;
debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 1 353 700 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 31 353 700 so‘m.

Qarz beruvchilardan olingan uzoq muddatli qarzlar va ular bo‘yicha foiz hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib

chiqamiz. Korxona yangi bino qurishni xo‘jalik usulida amalga oshiradi. Qurilish davri 1 yil. Qurilishni moliyalashtirish uchun qarz beruvchidan 3 yil muddatga, yillik 9 foiz to‘lash sharti bilan, asosiy qism va foizlar har yili to‘lanadigan summasi 180 000 000 so‘m bo‘lgan qarz oglingan.

Korxonada qarz beruvchilardan olingan uzoq muddatli qarz bo‘yicha foizlar hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

180 000 000 so‘m x 9 / 100 = 16 200 000 so‘m.

Qarz beruvchilardan olingan uzoq muddatli qarzlar va ular bo‘yicha foiz hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- qarz beruvchilardan olingan uzoq muddatli qarz summasiga:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 180 000 000 so‘m;
kredit 7820 «Uzoq muddatli qarzlar» schyoti 180 000 000 sum;

birinchi yilda:

- uzoq muddatli qarzning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 7820 «Uzoq muddatli qarzlar» schyoti 60 000 000 so‘m;
kredit 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar – joriy qismi» schyoti 60 000 000 sum;

(60 000 000 so‘m = 180 000 000 so‘m / 3 yil);

- hisoblangan foizlar bo‘yicha xarajatlar summasiga:

debet 0810 «Tugallanmagan qurilish» schyoti 16 200 000 so‘m;
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 16 200 000 so‘m;

- qarz beruvchilarga qaytarilgan qisqa muddatli qarz va to‘langan foizlar summasiga:

debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar – joriy qismi» schyoti 60 000 000 sum;
debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 16 200 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 76 200 000 so‘m;

ikkinchi va uchinchi yillar:

- uzoq muddatli qarzning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 7820 «Uzoq muddatli qarzlar» schyoti 60 000 000 so‘m;
kredit 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar – joriy qismi» schyoti 60 000 000 sum;

(60 000 000 so‘m = 180 000 000 so‘m / 3 yil);

- hisoblangan foizlar bo‘yicha xarajatlar summasiga:

*debet 9610 «*Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar*» schyoti 16 200 000 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 16 200 000 so‘m;

- qarz beruvchilarga qaytarilgan qisqa muddatli qarz va to‘langan foizlar summasiga:

debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar – joriy qismi» schyoti 60 000 000 sum;
debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 16 200 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 76 200 000 so‘m.

21-son BHMS ga muvofiq, bank kreditlari va qarzlar bo‘yicha xodimlar bilan kiritiladigan hisob-kitoblar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 0930 «Xodimlarning uzoq muddatli qarzlari» schyotida korxona xodimlariga kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha hisob-kitoblar, berilgan qarzlar bo‘yicha ularning qarzdorligining uzoq

muddatli qismi hisobga olinadi. 0930 «Xodimlarning uzoq muddatli qarzlari» schyoti bo‘yicha analitik hisob korxonaning har bir xodimi bo‘yicha yuritiladi;

- 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyotida korxona xodimlariga kreditga berilgan tovarlar bo‘yicha hisob-kitoblar hisobga olinadi;

- 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyotida korxona xodimlariga berilgan qarzlar bo‘yicha hisob-kitoblar aks ettiriladi (masalan, yakka tartibda uy-joy qurishga va boshqalarga).

Bank kreditlari va qarzlar bo‘yicha xodimlar bilan kiritiladigan hisob-kitoblar 0930 «Xodimlarning uzoq muddatli qarzlari», 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» va 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyotlarida yuritiladi. Bu schyotlar aktiv bo‘lib, debetida xodimlarga berilgan qarzlar, kreditida ushbu qarzlarning qaytarilishi aks ettiriladi.

Kreditga tovar sotib olgan shaxslar ishlaydigan korxonalar tovarlar qiymati summasini savdo tashkilotlariga bank krediti hisobiga qoplashi mumkin. Bunda bank savdo korxonalarining tegishli hisob-kitob hujjatlarini o‘zining krediti hisobidan to‘laydi. Bank tomonidan tegishli hisob-kitob hujjatlari to‘langanda 0930 «Xodimlarning uzoq muddatli qarzlari» schyoti (uzoq muddatli qismiga), 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti (qisqa muddatli qismiga) debetlanadi va 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari», 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyotlari kreditlanadi.

Xodimlarni uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha navbatdagi to‘lovlarni amalga oshirish muddati kelganda xodimlarning uzoq muddatli qarzlarining joriy qismi 0930 «Xodimlarning uzoq muddatli qarzlari» schyotining kreditidan 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyotining debetiga o‘tkaziladi. Korxona xodimlaridan navbatdagi to‘lovlarni ushlab qolishda 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyoti 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti bilan bog‘langan holda debetlanadi, so‘ng esa ushlab qolingan summa bank kreditini to‘lash uchun 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarining kreditidan 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» va 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi» schyotlarining debetiga o‘tkaziladi.

Agar korxona tomonidan xodimlaridan navbatdagi to‘lovlarni ushlab qolishda xodimga hisoblangan mehnat haqi summasi yetarli bo‘lmasa, xodim tomonidan to‘lovni yetmagan qismi pul mablahlari bilan to‘lanishi mumkin. Bunda xodimga hisoblangan mehnat haqi summasiga 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyoti, mehnat haqi summasi yetmagan qismiga 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlari debetlanib, 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti kreditlanadi. Ushlab qolingan va undirilgan summa bank kreditini to‘lash uchun 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarining kreditidan 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» va 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi» schyotlarining debetiga o‘tkaziladi.

Bank kreditlari bo‘yicha hisoblangan foiz xarajatlari korxona tomonidan qoplanishi yoki xodim tomonidan qoplanishi mumkin. Bank kreditlari bo‘yicha hisoblangan foiz xarajatlari

xodim tomonidan qoplanganda 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti debetlanadi va 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti kreditlanadi. Korxona xodimlaridan hisoblangan foizlar ushlab qolishda 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyoti 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti bilan bog‘langan holda debetlanadi, so‘ng esa ushlab qolingan summa bank kreditini to‘lash uchun 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarining kreditidan 6920 «Hisoblangan foizlar» schyotining debetiga o‘tkaziladi.

Agar korxona tomonidan xodimlaridan hisoblangan foizlar ushlab qolishda xodimga hisoblangan mehnat haqi summasi yetarli bo‘lmasa, xodim tomonidan hisoblangan foizni to‘lashga yetmagan qismi pul mablag‘lari bilan to‘lanishi mumkin. Bunda xodimga hisoblangan mehnat haqi summasiga 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyoti, mehnat haqi summasi yetmagan qismiga 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlari debetlanib, 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti kreditlanadi. Ushlab qolingan va undirilgan summa bank kreditini to‘lash uchun 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarining kreditidan 6920 «Hisoblangan foizlar» schyotining debetiga o‘tkaziladi.

Bank kreditlari bo‘yicha hisoblangan foiz xarajatlari korxona tomonidan qoplanganda 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti debetlanadi va 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti kreditlanadi. Hisoblangan foizlarni to‘lash uchun 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarining kreditidan 6920 «Hisoblangan foizlar» schyotining debetiga o‘tkaziladi.

O‘zining xodimlari tomonidan kreditga sotib olgan tovarlar bo‘yicha qarzlarini qoplashda bank kreditlaridan foydalanmaydigan korxonalar, ushbu xodimlar bergan topshiriq-majburiyatlariga asosan ularning mehnat haqi summasidan navbatdagi to‘lovlar ushlab qolinganda 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) bilan bog‘langan holda (savdo korxonalarining litsevoy schyotlari bo‘yicha) debetlanadi. Ushlab qolingan summaning savdo korxonalariga o‘tkazib berilishiga qarab, turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda debetlanadi.

Investitsiya davrida kapital qo‘yilmalar tarkibiga kiruvchi investitsiyalar uchun olingan kreditlar va zayomlar bo‘yicha foizlar xarajatlari asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa kapital qo‘yilmalar boshlang‘ich qiymati tarkibiga kiritiladi.

Xodimlar uchun bankdan olingan qisqa muddatli kreditlar va ular bo‘yicha foiz hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning xodimi bank krediti hisobidan maishiy texnika xarid qilgan. Bank kreditini muddati 8 oy, foiz stavkasi yillik 10%, asosiy qism va foizlar har oyda to‘lab boriladi va summasi 12 000 000 so‘mga teng. Korxona rahbariyati tomonidan xodimga moddiy yordam berish maqsadida bank krediti bo‘yicha foiz xarajatlarini korxona hisobidan qoplashga ruxsat berilgan.

Korxonada kredit bo‘yicha foizlar hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

- yillik foiz summasi - 12 000 000 so‘m x 10 / 100 = 1 200 000 so‘m;

- bir oyda to‘lanadigan foiz summasi - 1 200 000 so‘m / 365 kun x 30 kun = 98 630 so‘m.

Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodim bilan hisob-kitoblar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha qisqa muddatli bank krediti hisobidan bank tomonidan xodim uchun tegishli to‘lovlar amalga oshirilganda:

debet 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti *12 000 000 so‘m;*

kredit 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» schyoti *12 000 000 sum;*

- kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha qisqa muddatli bank kredit bo‘yicha har oyda hisoblangan foizlar summasiga:

debet 9610 «Foiz ko‘rinishadagi xarajatlar» schyoti *98 630 so‘m;*

kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *98 630 so‘m;*

- kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha qisqa muddatli bank krediti bo‘yicha xodimdan har oyda navbatdagi to‘lovni ushlab qolinganda:

debet 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti *1 500 000 so‘m;*

kredit 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti *1 500 000 so‘m;*

(1 500 000 so‘m = 12 000 000 so‘m / 8 oy so‘m);

- har oyda bankka qaytarilgan uzoq muddatli kredit va to‘langan foizlar summasiga:

debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar – joriy qismi» schyoti *1 500 000 sum;*

debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *98 630 so‘m;*

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *1 598 630 so‘m.*

Xodimlar uchun bankdan olingan uzoq muddatli kreditlar va ular bo‘yicha foiz hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning xodimi bank krediti hisobidan avtomobil xarid qilgan. Bank kreditini muddati 3 yil, foiz stavkasi yillik 10%, asosiy qism va foizlar har yili to‘lanadi va summasi 60 000 000 so‘mga teng. Qarzning asosiy qismi xodim tomonidan korxonaga plastik kartochkadan to‘lab beriladi.

Korxonada uzoq muddatli kredit bo‘yicha har yili foizlar hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

60 000 000 so‘m x 10 / 100 = 6 000 000 so‘m.

Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodim bilan hisob-kitoblar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha uzoq muddatli bank krediti hisobidan bank tomonidan xodim uchun tegishli to‘lovlar amalga oshirilganda:

debet 0930 «Xodimlarning uzoq muddatli qarzi» schyoti *60 000 000 so‘m;*

kredit 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti *60 000 000 sum;*

- kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha uzoq muddatli bank kreditning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 7810 «Uzoq muddatli bank

kreditlari» schyoti *20 000 000 so‘m;*
kredit 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar –
joriy qismi» schyoti *20 000 000 sum;*
(20 000 000 so‘m = 60 000 000 so‘m / 3 yil);

- kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha qarzlarning uzoq muddatli qismining joriy qismiga o‘tkazilganda:

debet 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha
xodimlarning qarzi» schyoti *20 000 000 so‘m;*
kredit 0930 «Xodimlarning uzoq muddatli
qarzi» schyoti *20 000 000 so‘m;*
(20 000 000 so‘m = 60 000 000 so‘m / 3 yil);

- kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha uzoq muddatli bank kredit bo‘yicha hisoblangan foizlar summasiga:

debet 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha
xodimlarning qarzi» schyoti *6 000 000 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *6 000 000 so‘m;*

- kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha uzoq muddatli bank krediti bo‘yicha asosiy qismning navbatdagi to‘lovi xodimdan undirilganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *20 000 000 so‘m;*
kredit 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha
xodimlarning qarzi» schyoti *20 000 000 so‘m;*

- kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha uzoq muddatli bank krediti bo‘yicha hisoblangan foizlar summasi xodimdan ushlab qolinganda:

debet 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan
hisoblashishlar» schyoti *6 000 000 so‘m;*
kredit 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha
xodimlarning qarzi» schyoti *6 000 000 so‘m;*

- bankka qaytarilgan uzoq muddatli kredit va to‘langan foizlar summasiga:

debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar –
joriy qismi» schyoti *20 000 000 sum;*
debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *6 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *26 000 000 so‘m.*

Korxona tomonidan xodimlariga yakka tartibda uy-joy qurishga, dalabog‘ qurilishga, maishiy texnika vositalarini xarid qilishga va boshqalarga qarzlar berishi mumkin. Bunda korxona savdo korxonalarining tegishli hisob-kitob hujjatlarini o‘zining mablag‘lari hisobidan to‘laydi. Korxona tomonidan tegishli hisob-kitob hujjatlari to‘langanda 0930 «Xodimlarning uzoq muddatli qarzlari» schyoti (uzoq muddatli qismiga), 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti (qisqa muddatli qismiga) debetlanadi va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlari kreditlanadi.

Xodimlarni uzoq muddatli qarzlarni navbatdagi ushlab qolish va (yoki) undirish muddati kelganda xodimlarning uzoq muddatli qarzlarining joriy qismi 0930 «Xodimlarning uzoq muddatli qarzlari» schyotining kreditidan 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyotining debetiga o‘tkaziladi. Korxona xodimlarga berilgan qarzlarni navbatdagi qismini

ushlab qolishda 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyoti 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti bilan bog‘langan holda debetlanadi.

Agar xodimlarga berilgan qarzlarni navbatdagi qismi ushlab qolishda xodimga hisoblangan mehnat haqi summasi yetarli bo‘lmasa, xodim tomonidan to‘lovni yetmagan qismi pul mablag‘lari bilan to‘lanishi mumkin. Bunda xodimga hisoblangan mehnat haqidan ushlab qolingan summaga 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyoti, xodimdan undirilgan summasiga 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlari debetlanib, 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti kreditlanadi.

Xodimlarga berilgan qarzlar foizli yoki foizsiz bo‘lishi mumkin. Korxona mablag‘laridan xodimlar mehnatini rag‘batlantirish maqsadida foizsiz qarzlar berilishi mumkin. Bunday hollarda qarzlarga foiz hisoblanmaydi va bu bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilmaydi.

Xodimlarga berilgan qazrlar bo‘yicha foiz hisoblangan foiz xarajatlari xodim tomonidan qoplanib, 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti debetlanadi va 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromatlar» schyoti kreditlanadi. Korxona xodimlaridan hisoblangan foizlarni ushlab qolishda 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyoti 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti bilan bog‘langan holda debetlanadi.

Agar korxona tomonidan xodimlaridan hisoblangan foizlar ushlab qolishda xodimga hisoblangan mehnat haqi summasi yetarli bo‘lmasa, xodim tomonidan hisoblangan foizni to‘lashga yetmagan qismi pul mablag‘lari bilan to‘lanishi mumkin. Bunda xodimga hisoblangan mehnat haqi summasiga 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» schyoti, mehnat haqi summasi yetmagan qismiga 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlari debetlanib, 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti kreditlanadi.

Agar mablag‘lar korxonaga berilgan kredit hisobidan bevosita bank tomonidan (bu mablag‘larni oldindan korxonaning hisob-kitob schyotiga o‘tkazmasdan) xodimlarga berilsa, bunda 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyotining debetida 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari», 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyotlari bilan bog‘langan holda yozuvlar amalga oshiriladi. Bu hollarda xodimlar bilan bank krediti bo‘yicha hisob-kitob operatsiyalari buxgalteriya hisobida yuqorida bank kreditlari bo‘yicha keltirilgan misolga o‘xshash tarzda 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyotining o‘rniga 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyotidan foydalaniladi.

Xodimlarga berilgan qisqa muddatli qarzlar bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning xodimiga maishiy texnika xarid qilishi uchun 8 000 000 so‘m 10 oy muddatga (qisqa muddatli) qarz berilgan. Qarz summasi har oyda ish haqi hisobidan ushlab qolinadi.

Xodimga berilgan qarzlar bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- maishiy texnika xarid qilish uchun qisqa muddatli qarz hisobidan korxona tomonidan xodim uchun tegishli to‘lovlar amalga oshirilganda:

debet 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning
qarzi» schyoti *8 000 000 so‘m;*

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 8 000 000 sum;

- qisqa muddatli qarz bo‘yicha xodimning ish haqidan har oyda ushlab qolinadigan summaga:

debet 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 800 000 so‘m;

kredit 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti 800 000 so‘m;

(800 000 so‘m = 8 000 000 so‘m / 10 oy so‘m).

Xodimlarga berilgan uzoq muddatli qarzlar bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning xodimiga avtomobil xarid qilishi uchun qarz berilgan. Qarzning muddati 3 yil, foiz stavkasi yillik 10%, asosiy qism va foizlar har oyda to‘lanadi va summasi 60 000 000 so‘mga teng. Qarzning asosiy qismi xodim tomonidan korxonaga plastik kartochkadan to‘lab beriladi.

Korxonada uzoq muddatli qarz bo‘yicha har yili foizlar hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

60 000 000 so‘m x 10 / 100 = 6 000 000 so‘m.

Xodimga berilgan qarzlar bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- avtomobil xarid qilish uchun uzoq muddatli qarz hisobidan korxona tomonidan xodim uchun tegishli to‘lovlar amalga oshirilganda:

debet 0930 «Xodimlarning uzoq muddatli qarzi» schyoti 60 000 000 so‘m;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 60 000 000 sum;

- xodimga berilgan qarzlarning uzoq muddatli qismining joriy qismiga o‘tkazilganda:

debet 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti 20 000 000 so‘m;

kredit 0930 «Xodimlarning uzoq muddatli qarzi» schyoti 20 000 000 so‘m;

(20 000 000 so‘m = 60 000 000 so‘m / 3 yil);

- xodimga berilgan uzoq muddali qarz bo‘yicha hisoblangan foizlar summasiga:

debet 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti 6 000 000 so‘m;

kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 6 000 000 so‘m;

- xodimga berilgan qarlarning bo‘yicha asosiy qismning navbatdagi qismi xodimdan undirilganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 20 000 000 so‘m;

kredit 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti 20 000 000 so‘m;

- xodimga berilgan uzoq muddali qarz bo‘yicha hisoblangan foizlar summasi xodimdan ushlab qolinganda:

debet 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 6 000 000 so‘m;

kredit 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti 6 000 000 so‘m.

SHunday qilib, debitorlik va kreditorlik qarzlar, bank kreditlari va qarz (zayom) larini yuqorida ko‘rsatilgan tartibda nazoratini olib borish korxonaning pul mablag‘laridan samarali foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi.

Korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish nafaqat ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat) lar sifatini va miqdorini oshirish va ularni yuqori narxlarda sotish, balki mavjud imkoniyatlardan, ya’ni jalb qilinadigan pul mablag‘laridan samarali foydalanish orqali ham erishish mumkin. Buning uchun esa korxona pul mablag‘larini maqsadli va optimal ravishda ishlatilishini to‘liq nazorat qilib borishi kerak.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish tartibi

Debitorlik va kreditorlik qarzlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish 19-son BHMSda nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Banklar bilan ssudalar bo‘yicha, byudjet, xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar, hisobdor shaxslar, ishchi va xizmatchilar, deponentlar hamda boshqa debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish tegishli hujjatlar bo‘yicha qoldiqlarni aniqlash va buxgalteriya hisobi schyotlarida qayd etilgan summalarning asosliligini sinchiklab tekshirishga asoslanadi. Komissiya debitor va kreditorlar schyotlari bo‘yicha qarzlarning paydo bo‘lishi, ularning realligi va shunday bo‘lgan taqdirda, da’vo etish muddatlarini o‘tkazib yuborishda aybdor shaxslarni aniqlaydi.

Debitor va kreditor qarzlarni hisobga oluvchi schyotlarning yo‘ldagi tovarlar va faktura qilinmagan mollar bo‘yicha mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar summalariga doir qismi alohida sinchiklab tekshirilishi kerak. U hujjatlar bo‘yicha, shuningdek, bog‘lanuvchi schyotlar bilan kelishgan holda tekshiriladi. Bunda faktura qilinmagan mollar tarkibida to‘lanishi debitor va kreditor qarzlarni hisobga oluvchi schyotlarida aks ettirilgan summalar yoki haqiqatda to‘langan va olingan, lekin yo‘lda deb hisoblanuvchi materiallar va tovarlar summalari aks ettirilgani yoki ettirilmagani aniqlashtiriladi.

Mol yetkazib beruvchilarning schyotlarida faktura qilinmagan mollar bo‘yicha qolgan summalarga, ana shu schyot buxgalteriya tomonidan tekshirilgach, mol yetkazib beruvchilardan schyot-fakturalar talab qilinishi kerak. Mol yetkazib beruvchilar xaridorlarga schyot-fakturalar taqdim etishlari yoki ularni taqdim etmaslik sabablarini ma’lum qilishlari shart. Agar mol yetkazib beruvchida qarz bo‘lmasa, u buni xaridorga ma’lum qilishi kerak.

Ishchi va xizmatchilarga qarzlar bo‘yicha o‘z vaqtida talab qilib olinmagan, deponentlar schyotiga o‘tkazilishi kerak bo‘lgan ish haqi summalari, shuningdek, ishchi va xizmatchilarga ortiqcha to‘lashlar summalari va buning paydo bo‘lish sabablari aniqlanishi kerak.

Hisobot beriladigan summalar inventarizatsiyadan o‘tkazilganda maqsadli foydalanilishini hisobga olgan holda hisobdor shaxslarning berilgan bo‘naklar bo‘yicha hisobotlari, shuningdek har bir hisobdor shaxs bo‘yicha berilgan bo‘naklar summalari, ularni berish sanalari va maqsadli foydalanilishi tekshiriladi.

Ishchi inventarizatsiya komissiyasi hujjatli tekshirish yo‘li bilan quyidagilarni ham aniqlashi kerak:

- banklar, korxona qismlari bilan hisob-kitoblarning aynanligi;

- balans bo‘yicha qayd etilgan kamomad va o‘g‘irliklarga doir qarz summalari to‘g‘riligi va asosliligi hamda ana shu qarzni undirish uchun qabul qilingan choralar;

- balans bo‘yicha qayd etilgan debitorlik, kreditorlik va deponentlik qarzlari summalarining to‘g‘riligi va asoslangani, shuningdek, debitorlik qarzini majburiy tartibda undirishga da’volar taqdim etilgan yoki etilmagani;

- muddati o‘tgan debitorlik qarzi mavjudligi sabablari.

Debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish natijalari «Xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar va boshqa debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish dalolatnomasi» (inv-17-shakl) bilan rasmiylashtiriladi (6-ilovaga qarang).

«Xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar va boshqa debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish dalolatnomasi» (inv-17-shakl) bir nusxada, tegishli schyot ma’lumotnomalari asosida aniqlangan qoldiq summalari aks ettirilgan holda rasmiylashtirilib, komissiya a’zolari tomonidan imzo bilan tasdiqlanib, buxgalteriyaga topshiriladi.

«Xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar va boshqa debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish dalolatnomasi» (inv-17-shakl) da aks ettirilgan majburiyatlar turlari bo‘yicha «Xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar va boshqa debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish dalolatnomasiga ma’lumotnoma» (inv-17-shaklga ilova), ilova qilinishi kerak. «Xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar va boshqa debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish dalolatnomasi» (inv-17-shakl) shu ilova ma’lumotnoma asosida to‘ldiriladi.

«Xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar va boshqa debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish dalolatnomasiga ma’lumotnoma» (inv-17-shaklga ilova) buxgalteriya hisobi sintetik schyotlariga alohida rasmiylashtiriladi. Ushbu ma’lumotnoma korxonadagi debitorlik va kreditorlik qarzlari yuzasidan hisoblashishda bo‘lgan turli korxonalar, tashkilotlardan olinadi.

Buxgalteriya debitorlik, kreditorlik qarzlari qoldiq summalari, olingan «Xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar va boshqa debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish dalolatnomasiga ma’lumotnoma» (inv-17-shaklga ilova) lar ko‘rsatkichlari bilan solishtirilgan holda «Xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar va boshqa debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish dalolatnomasi» (inv-17-shakl) rasmiylashtiriladi.

ILOVALAR

1-ilova

_____
(hisob-kitob taqdim qilinadigan organ nomi)

_____
(korxonaning to‘liq nomi)

_____
Javobgar shaxs (ijrochi)ning familiyasi
Tel.: _____ faks: _____

Qabul qilib oluvchi
organning shtampi yoki belgisi
Olindi
"__" _____20___yil

Soliqlar, bojxona va byudjetga majburiy to‘lovlardan ozod etish natijasida bo‘shagan mablag‘lardan foydalanish to‘g‘risida HISOB-KITOB

_____ yil
(hisobot davri)

N	To‘lovlarning nomi	Summasi	Asos, imtiyozli davr
1			
	Jami summaga		
	Belgilangan maqsadlarga yo‘naltirilgan mablag‘lar, jami		
	jumladan, quyidagi maqsadlarga:		

"____" _____20____ yil
(taqdim qilingan sana)
Rahbar (imzo)
Bosh buxgalter (imzo) M.O‘.

2- ilova

XIZMAT SAFARI GUVOHNOMASI

Berildi _____
(familiyasi, ismi, otasining ismi)

_____
(xizmat safari guvohnomasi berilgan organ nomi)
_____ xizmat safariga yuborilgan
xizmat safari punkti

Xizmat safari muddati «____» kun

20__ y. «____» _____ dan 20__ y. «____» _____ gacha

Asos: 20__ y. «__» _____dagi __-sonli buyruq ___ seriya ___ raqamli pasport taqdim etilgan taqdirda haqiqiy.

Orqa tomoni

Belgilangan manzilga yetib borish va u yerdan qaytish belgilari:

Jo‘nadi _____
20__ y. «____» _____
Muhr, imzo _____

Jo‘nadi _____
20__ y. «____» _____
Muhr, imzo _____

Jo‘nadi _____
20__ y. «____» _____
Muhr, imzo _____

Jo‘nadi _____
20__ y. «____» _____
Muhr, imzo _____

Izoh: *Bir necha kunlarga yuborilganda ketish va kelish alohida belgilanadi.*

3-ilova

_____ **dan**

birlashma, korxona, tashkilot nomi

Xizmat safariga yuborilayotgan xodimlarni hisobga olish

JURNALI

T/r	Xizmat safariga yuborilgan ishchi (xodim)ning F.I.SH	Lavozimi	Xizmat safari guvohnomasining raqami	Xizmat safari guvohnomasini imzolagan ishchi (xodim) lavozimi, F.I.O.	Sana		Xizmat safari guvohnomasini olganligi haqida imzo
					Haqiqatda ketish	Haqiqatda kelish	
1	2	3	4	5	6	7	8

4-ilova

_____ ga

birlashma, korxona, tashkilot nomi

Xizmat safaridan qaytib kelgan xodimlarni hisobga olish

JURNALI

T/r	Xizmat safariga yuborilgan ishchi (xodim)ning F.I.SH	Lavozimi	Xizmat safari guvohnomasi berilgan birlashma, korxona, muassasa, tashkilotlar nomlari	Etib kelish sanasi	Safarga ketish sanasi
1	2	3	4	5	6

5-ilova

Tashkilot _____

lavozim

Bo‘lim _____

Sex kasb

F.I.SH. _____

Provodka N _____

_____ 20 ____ -y.

Debet			
schet	kart.	summa	

«___» _____ 20__ -yildagi ____-sonli BO‘NAK HISOBOTI

Bo‘nakning maqsadi _____

Summa	Amalga oshirilgan xarajatlarni maqsadga muvofiqligini tasdiqlayman:
_____ oldingi bo‘nak	«__» _____ 20__ -yil.
qo‘shimcha sarf	_____
Olingan (kimdan va sana)	imzo
1. _____	Hisobot tekshirilgan
2. _____	Bo‘lim _____ _____varaq.
3. _____	Tasdiqlashga _____ s ._____ t
Jami olingan	Buxgalter
Sarflangan	Hisobot summasini tasdiqlayman
_____	_____
Qo‘shimcha sarf	
Ilova _____ hujjatlar	«__» _____ 20__ -yil. imzo _____

Kredit			
Buxgalter			

_____ summa

Qo‘shimcha sarf _____ so‘m _____ tiyin «__» _____ 20__ -yildagi __-sonli kassa orderi bo‘yicha

” ”_____ _____ y. Imzo _____

SHaklning orqa tomoni

Sana	Hujjatning tartib raqami	Kimga, nima uchun va qaysi hujjat bo‘yicha to‘langan	Summa	
			so‘m	tiyin
		Jami		

6-ilova

_____ - sonli xaridorlar, mol yetkazib beruvchilar va boshqa debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni inventarizatsiyadan o‘tkazish dalolatnomasi

STIR	
	Kod
INV-17-son shakl BHUT bo‘yicha	
Sana (yil, kun, oy)	
KTUT bo‘yicha	
XXTUT bo‘yicha	
KTUT bo‘yicha	
Inventarizatsiya boshlangan sana	
Inventarizatsiya tugatilgan sana	
Buxgalteriya hisobi schyoti raqami	

Tashkilot _____

Tashkilotning tarkibiy birligi _____

Inventarizatsiyani o‘tkazish uchun asos: buyruq, qaror, farmoyish
(keraksizlari o‘chirilsin)

O‘lchov birligi: so‘m.

1. Debitorlik qarzi bo‘yicha

Buxgalteriya hisobi schyoti va kreditorning nomi	Schyot raqami	Balans bo‘yicha summa			
		jami	shu jumladan		
			tasdiqlangan debitorlik qarzi	tasdiqlanmagan debitorlik qarzi	da’vo bildirish muddati o‘tgan qarzlar
1	2	3	4	5	6
	Jami:				

1. Kreditorlik qarzi bo‘yicha

Buxgalteriya hisobi schyoti va kreditorning nomi	Schyot raqami	Balans bo‘yicha summa			
		jami	shu jumladan qarzdorlik		
			Tasdiqlangan kreditorlik qarzi	Tasdiqlanmagan kreditorlik qarzi	Da’vo bildirish muddati o‘tgan qarzlar
1	2	3	4	5	6
	Jami:				

Komissiya raisi: _____ (lavozimi) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

Komissiya a’zolari: _____ (lavozimi) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

_____ (lavozimi) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

INV-17-shaklga ilova

_____ - sonli XARIDORLAR, MOL YETKAZIB BERUVCHILAR VA BOSHQA DEBITORLAR VA KREDITORLAR BILAN HISOB-KITOBLARNI INVENTARIZATSIYADAN O‘TKAZISH DALOLATNOMASIGA
_____ -sonli MA’LUMOTNOMA

Yozuvlar tartib raqami	Debitor, kreditor-ning nomi va manzili	Qarz nima uchun hisobda turibdi	Qarzning boshlanish sanasi	Qarz summasi, so‘m.		Qarzni va da’vo bildirish muddatini o‘tkazib yuborishda aybdor shaxsni tasdiqlovchi hujjat		
				debitorlik	kreditorlik	nomi	sana	raqami
1	2	3	4	5	6	7	8	9

Buxgalter _____ (lavozimi) _____ (imzo) _____ (F.I.SH.)

9-BOB. CHETEL VALYUTASIDA IFODALANGAN AKTIVLAR VA MAJBURIYATLAR HISOBI

1-§. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari

Valyutani tartibga solish davlat valyuta siyosatini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘z navbatida, valyuta siyosati – davlatning umumiqtisodiy, shu jumladan pul-kredit siyosatining ajralmas qismi bo‘lib, mamlakatning valyuta-moliyaviy salohiyatini mustahkamlashga, uning to‘lov qobiliyati va kredit qobiliyatini yuqori darajada saqlab turishga, tashqi iqtisodiy aylanma bo‘yicha chetellardan valyutaning kelib tushishini ta’minlashga, kapitalning chetga chiqib ketishini jilovlashga, chetel kapitalini jalb qilishga va h.k.larga yo‘naltirilgandir.

Tabiiyki, valyutani tartibga solish sohasidagi islohotlar O‘zbekiston Respublikasi korxonalari tomonidan amalga oshirilayotgan tashqi iqtisodiy operatsiyalarning buxgalteriya hisobi sohasida o‘tkazilayotgan islohotlarga ham ta’sir qilmay qolmadi.

Valyuta siyosatini yanada erkinlashtirish, birjadan tashqari valyuta bozorini rivojlantirish va mustahkamlash, uning faoliyat ko‘rsatishi samaradorligini oshirish, qatnashchilar sonini kengaytirish hamda banklararo savdo sessiyalarida chetel valyutasini sotib olish va sotish hajmini ko‘paytirish maqsadida, shuningdek valyuta operatsiyalari bo‘yicha buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish, tashqi savdo operatsiyalari bo‘yicha bojxona to‘lovlari va hisoblarini hisoblab chiqarish tartibini maqbullashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 25-oktyabrdagi 422-sonli «Ichki valyuta bozorida almashuv kurslarini birxillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi qarori qabul qilingan.

Ushbu qarorga asosan 2001-yil 1-noyabrdan boshlab respublika hududida valyuta operatsiyalari bo‘yicha buxgalteriya hisobi, statistika hisoboti va boshqa hisobotlar, shuningdek bojxona to‘lovlarini va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining birjadan tashqari valyuta bozoridagi almashuv kursini, pul massasi va inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda belgilanadigan kursi bo‘yicha amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Chetel valyutasida ifodalangan operatsiyalarning buxgalteriya hisobini isloh qilishda muhim qadamlardan biri bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirolar Mahkamasining 2001-yil 25-oktyabrdagi 422-sonli «Ichki valyuta bozorida almashuv kurslarini birxillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2001-yil 16-noyabrda 1085-son bilan ro‘yxatga olingan «Chetel valyutasida ifodalangan muomalalarni buxgalteriya hisobi, statistika va boshqa hisobotlarda aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ni ishlab chiqilishi hisoblanadi.

Chetel valyutasida ifodalangan operatsiyalarning buxgalteriya hisobini takomillashtirishdagi burilish nuqtasi sifatida 22-son BHMS ni qabul qilinishini e’tirof etish mumkin.

21-son BHMS ni qabul qilinishi munosabati bilan «Chetel valyutasida ifodalangan muomalalarni buxgalteriya hisobi, statistika va boshqa hisobotlarda aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» qayta ishlandi, to‘ldirildi va yangi tahrirda «Chetel valyutasidagi operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» sifatida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 17-sentyabrda 1411-son bilan ro‘yxatga olindi.

Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarni buxgalteriya hisobini tartibini aniqlovchi asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;

- O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi, «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» gi Qonunlari;

- Valyutani tartibga solish masalalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari;

- O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari va valyuta operatsiyalarini tartibga solish masalalari bo‘yicha boshqa idoraviy me’yoriy huquqiy hujjatlar.

2-§. Chetel valyutasidagi operatsiyalar hisobi

O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida barcha korxonalar milliy valyutada - so‘mda buxgalteriya hisobini yuritishi va moliyaviy hisobotlarni taqdim etishi shart, agarda qonunchilikda boshqa tartib ko‘zda tutilmagan bo‘lsa.

Buxgalteriya hisobi maqsadlarida, chetel valyutasidagi operatsiyalar, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining ushbu chetel valyutasining so‘mga nisbatan kurs bo‘yicha operatsiya amalga oshirilgan sanada qayta hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» gi Qonunining 8-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki valyuta operatsiyalari bo‘yicha buxgalteriya hisobi, statistik hisobotlar va boshqa hisobotlar maqsadlari uchun, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi hududida bojxona hamda boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash uchun milliy valyutaning chetel valyutasiga nisbatan kursini muntazam ravishda (odatda har xaftaning boshida) belgilab boradi.

Chetel valyutasida ifodalangan xo‘jalik operatsiyalari, aktivlar va majburiyatlarni so‘mga qayta hisoblashda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan chetel valyutasining so‘mga nisbatan kursining (keyingi o‘rinlarda – Markaziy bank kursi) o‘zgarishiga qarab ijobiy yoki salbiy kurs farqi yuzaga keladi.

Korxona tomonidan quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi bitimlar chetel valyutasidagi operatsiyalar hisoblanadi:

- aktivlar, ishlar va xizmatlarni chetel valyutasida xarid qiladi yoki realizatsiya qiladi;

- to‘lash yoki olish summalari chetel valyutasida belgilangan kreditlar yoki qarzlarni olganda yoki taqdim etganda;

- Chetel valyutasidagi majburiyatlarni o‘ziga qabul qilganda yoki majburiyatlarni qoplaganda, yoxud olinadigan schyotlarga ega bo‘lganda.

Chetel valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirish sanasi - bu chetel valyutasidagi operatsiyalar natijasi hisoblangan aktivlar va majburiyatlarni qonunchilikka yoki shartnomaga muvofiq korxonada buxgalteriya hisobiga qabul qilish huquqi yuzaga kelgan kun.

Buxgalteriya hisobini yuritish maqsadida chetel valyutasidagi ayrim operatsiyalarni so‘mga qayta hisoblash sanasi 22-son BHMS ning ilovasida keltirilgan (1-ilovaga qarang).

O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» gi (yangi tahrir) Qonunining 19-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududida rezidentlar va norezidentlar tomonidan chetel valyutasini sotib olish hamda sotish faqat O‘zbekiston Respublikasi banklari orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta operatsiyalari

«O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish Qoidalari»ga *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 31-avgustda 3281-son bilan ro‘yxatga olingan)* muvofiq amalga oshiriladi.

Ichki valyuta bozorida chetel valyutasining sotib olinishi va sotilishi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan joriy xalqaro operatsiyalar bo‘yicha, shuningdek norezidentlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalari va daromadlarini repatriatsiya qilish maqsadlari uchun cheklovlarsiz amalga oshiriladi.

Korxonalar chetel valyutasini sotib olish yoki sotish uchun xizmat ko‘rsatuvchi bankka buyurtma taqdim etadilar. Bunda buyurtma shakli bank boshqaruvi tomonidan tasdiqlanadi va unda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi shart:

- mijoz nomi;
- valyuta turi va summasi;
- sotib olish yoki sotish kursi.

Chetel valyutasini sotib olish uchun taqdim etiladigan buyurtmalarda qo‘shimcha ravishda quyidagi ma’lumotlar ham ko‘rsatiladi:

- Chetel valyutasini sotib olish maqsadi;
- valyuta operatsiyalarini asoslovchi hujjatlar.

Korxonalar tomonidan chetel valyutasini sotib olish yoki sotish uchun buyurtmalar xizmat ko‘rsatuvchi banklarga masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimlari orqali elektron ko‘rinishda ham taqdim qilinishi mumkin.

Chetel valyutasini sotib olish uchun taqdim etilgan buyurtmalar xizmat ko‘rsatuvchi banklarning tarkibiy bo‘linmasi tomonidan qabul qilingan kundan keyingi bank ish kunidan kechiktirmasdan ko‘rib chiqiladi hamda natijasi bo‘yicha buyurtmani qanoatlantirish yoki uni asoslantirilgan holda rad etish to‘g‘risida xulosa tayyorlanadi va tasdiqlanadi.

Chetel valyutasini sotib olish yoki sotish uchun tomonlar kelishuviga ko‘ra bir martalik bosh shartnoma yoki har bir operatsiya bo‘yicha alohida shartnomalar rasmiylashtirilishi mumkin. Bunda shartnomalar xizmat ko‘rsatuvchi banklarning tegishli dasturiy ta’minot vositasi orqali elektron shaklda ham tuzilishi mumkin.

Xizmat ko‘rsatuvchi banklar tomonidan ichki valyuta bozorida sotib olingan chetel valyutasini kirim qilish uchun mijoz nomiga maxsus hisobvaraqlar ochiladi. Maxsus valyuta hisobvarag‘iga ushbu hisobvaraqdan ilgari chiqarilgan va foydalanilmagan, shuningdek boshqa sabablarga ko‘ra qaytarilgan chetel valyutasi ham kirim qilinadi.

Qanoatlantirish to‘g‘risida xulosa tasdiqlangan buyurtmalar bo‘yicha tijorat banki va mijozlar o‘rtasidagi barcha hisob-kitoblar keyingi bank ish kunidan kechiktirilmagan holda amalga oshiriladi. Belgilangan vaqtda hisob-kitoblar yakunlanmagan bo‘lsa, kelishuv bekor qilingan hisoblanadi.

Maxsus valyuta hisobvaraqlariga kiritilgan mablag‘lar qat’iy ravishda buyurtmalarda ko‘rsatilgan maqsadlar uchun sarflanadi. Bank mijozi tomonidan sotib olinib, mijozning maxsus valyuta hisobvarag‘iga kiritilgan vaqtdan e’tiboran yetti bank ish kuni mobaynida foydalanilmagan valyuta mablag‘lari, ushbu muddat tugagandan keyingi bank ish kunidan kechiktirilmagan holda tijorat banklariga qayta sotilishi shart.

Maxsus valyuta hisobvarag‘idan ilgari chiqarilgan va foydalanilmagan, shuningdek boshqa sabablarga ko‘ra qaytarilgan chetel valyutasi ham uch bank ish kuni mobaynida tijorat banklariga qayta sotilishi yoki buyurtmada ko‘rsatilgan maqsadlar uchun takroran o‘tkazib berilishi lozim.

Chetel valyutasining qayta sotilishi sotuv kunidagi talab va taklif asosida shakllanadigan bozor kursida aktseptsiz ravishda amalga oshiriladi.

Buxgalteriya hisobida chetel valyutasini xarid qilish va sotish Markaziy bankning valyutani xarid qilish yoki sotish kuniga bo‘lgan kursi bo‘yicha aks ettiriladi.

Chetel valyutasini Markaziy bank kursidan past yoki yuqori qiymatda sotish (xarid qilish) natijasida vujudga keladigan kurs farqlari korxonaning moliyaviy natijalariga moliyaviy faoliyatdan daromadlar (xarajatlar) sifatida kiritiladi.

Chetel valyutasini sotib olish va sotishni korxonalarning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misollarda ko‘rib chiqamiz.

Chetel valyutasini sotishni korxonalarning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona mahsulot eksportidan olingan summasi 15 000 AQSH dollariga teng bo‘lgan valyuta mablag‘lariga ega. Mahalliy mol yetkazib beruvchilarga bo‘lgan qarzini qoplash maqsadida o‘zining xizmat ko‘rsatuvchi banki orqali 12 000 AQSH dollari summasidagi chetel valyutasini sotdi. Chetel valyutasini sotish kunida Makaziy bank tomonidan belgilangan kurs bir AQSH dollari uchun 10 920 so‘mni tashkil etdi.

Ikkita holatni (Chetel valyutasini Markaziy bank kursidan past yoki yuqori kursda sotishlishidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz

1-holat:

Korxona xizmat ko‘rsatuvchi banki orqali chetel valyutasini Markaziy bank kursidan yuqori kursda, ya’ni bir AQSH dollariga nisbatan 10 950 so‘m kursi bo‘yicha sotishni amalga oshirdi. Ushbu holatda, sotilgan chetel valyutasining sotish kunida valyuta bozoridagi bitim kursi bo‘yicha so‘mdagi ekvivalenti qiymati va sotilgan valyutaning Markaziy kursi bo‘yicha so‘mdagi ekvivalenti o‘rtasida 360 000 so‘m ijobiy kurs farqi yuzaga keladi.

Ushbu chetel valyutasining sotilishi korxonaning buxgalteriya hisobi schyotlarida quyidagicha aks ettiriladi:

- Markaziy bank kursi bo‘yicha valyuta schyotidan chetel valyutasining o‘tkazilishi:

debet 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyoti 131 040 000 so‘m;
kredit 5220 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti 131 040 000 so‘m;
(131 040 000 so‘m = 12 000 AQSH dollari x 10 920 so‘m);

- sotilgan chetel valyutasining so‘mdagi ekvivalentini hisob-kitob schyotiga o‘tkazilishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 131 400 000 so‘m;
kredit 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyoti 131 040 000 so‘m;
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan daromadlar» schyoti 360 000 so‘m;
(131 400 000 so‘m = 12 000 AQSH dollari x 10 950 so‘m);
(131 040 000 so‘m = 12 000 AQSH dollari x 10 920 so‘m);
(360 000 so‘m = 131 400 000 so‘m - 131 040 000 so‘m).

2-holat:

Korxona xizmat ko‘rsatuvchi banki orqali chetel valyutasini Markaziy bank kursidan past kursda, ya’ni bir AQSH dollariga nisbatan 10 900 so‘m kursi bo‘yicha sotishni amalga oshirdi. Ushbu holatda, sotilgan valyutaning sotish kunidagi Markaziy kursi bo‘yicha so‘mdagi ekvivalenti va sotilgan chetel valyutasining valyuta bozoridagi bitim kursi bo‘yicha so‘mdagi ekvivalenti qiymati o‘rtasida 240 000 so‘m salbiy kur farqi yuzaga keladi.

Ushbu chetel valyutasining sotilishi korxonaning buxgalteriya hisobi schyotlarida quyidagicha aks ettiriladi:

- Markaziy bank kursi bo‘yicha valyuta schyotidan chetel valyutasining o‘tkazilishi:

debet 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyoti *131 040 000 so‘m;*
kredit 5220 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti *131 040 000 so‘m;*
(131 040 000 so‘m = 12 000 AQSH dollari x 10 920 so‘m);
- sotilgan chetel valyutasining so‘mdagi ekvivalentini hisob-kitob schyotiga o‘tkazilishi:
debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *130 800 000 so‘m;*
debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyoti» *240 000 so‘m;*
kredit 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyoti *131 040 000 so‘m;*
(130 800 000 so‘m = 12 000 AQSH dollari x 10 900 so‘m);
(240 000 so‘m = 130 800 000 so‘m - 131 040 000 so‘m);
(131 040 000 so‘m = 12 000 AQSH dollari x 10 920 so‘m).

Chetel valyutasini sotib olishni korxonalarning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona ishlab chiqarish dastgohlarini 23 000 AQSH dollariga xarid qilmoqchi, biroq bunga o‘zining valyuta mablag‘lari yetishmayapti. Mol yetkazib beruvchilar oldidagi qarzini qoplash maqsadida 17 000 AQSH dollari summasidagi chetel valyutasini o‘zining xizmat ko‘rsatuvchi banki orqali sotib oldi. Chetel valyutasini sotib olish kunida Makaziy bank tomonidan belgilangan kurs bir AQSH dollari uchun 10 930 so‘mni tashkil etdi.

Ikkita holatni (Chetel valyutasini Markaziy bank kursidan past yoki yuqori kursda sotib olinishidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz

1-holat:

Korxona xizmat ko‘rsatuvchi banki orqali chetel valyutasini Markaziy bank kursidan yuqori kursda, ya’ni bir AQSH dollariga nisbatan 10 950 so‘m kursi bo‘yicha sotib olishni amalga oshirdi. Ushbu holatda, sotib olingan chetel valyutasining sotib olish kunida valyuta bozoridagi bitim kursi bo‘yicha so‘mdagi ekvivalenti qiymati va sotib olingan valyutaning Markaziy kursi bo‘yicha so‘mdagi ekvivalenti o‘rtasida 340 000 so‘m salbiy kurs farqi yuzaga keladi.

Chetel valyutasining sotib olish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettiriladi:

- Chetel valyutasini sotib olish uchun xarid kuniga bo‘lgan valyuta bozoridagi bitim kursi bo‘yicha hisob-kitob schyotidan so‘m mablag‘larini o‘tkazish:
debet 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyoti *186 150 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *186 150 000 so‘m;*
(186 150 000 so‘m = 17 000 AQSH dollari x 10 950 so‘m);
- Chetel valyutasi xarid qilinganda:
debet 5220 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti *186 810 000 so‘m;*
debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyoti» *340 000 so‘m;*
kredit 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyoti *186 150 000 so‘m;*
(185 810 000 so‘m = 17 000 AQSH dollari x 10 930 so‘m);
(-340 000 so‘m = 185 810 000 so‘m - 186 150 000 so‘m);
(186 150 000 so‘m = 17 000 AQSH dollari x 10 950 so‘m).

2-holat:

Korxona xizmat ko‘rsatuvchi banki orqali chetel valyutasini Markaziy bank kursidan past

kursda, ya'ni bir AQSH dollariga nisbatan 10 920 so'm kursi bo'yicha sotib olishni amalga oshirdi. Ushbu holatda, sotib olingan valyutaning sotib olish kunidagi Markaziy kursi bo'yicha so'mdagi ekvivalenti va sotib olingan chetel valyutasining valyuta bozoridagi bitim kursi bo'yicha so'mdagi ekvivalenti qiymati o'rtasida 170 000 so'm ijobiy kurs farqi yuzaga keladi.

Chetel valyutasining sotib olshi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettiriladi:

- Chetel valyutasini sotib olish uchun xarid kuniga bo'lgan valyuta bozoridagi bitim kursi bo'yicha hisob-kitob schyotidan so'm mablag'larini o'tkazish:

debet 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyoti *185 640 000 so'm;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *185 640 000 so'm;*
(185 640 000 so'm = 17 000 AQSH dollari x 10 920 so'm);

- Chetel valyutasi xarid qilinganda:

debet 5220 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti *185 810 000 so'm;*
kredit 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyoti *185 640 000 so'm;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan daromadlar» schyoti *170 000 so'm;*
(185 810 000 so'm = 17 000 AQSH dollari x 10 930 so'm);
(185 640 000 so'm = 17 000 AQSH dollari x 10 920 so'm);
(170 000 so'm = 185 810 000 so'm - 185 640 000 so'm).

Hozirgi kunda naqd chetel valyutasini qabul qilish, uning hisobini yuritish, saqlash va O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan kassa intizomiga rioya qilinishi bo'yicha me'yoriy huquqiy hujjat mavjud emas. Korxona 1-son BHMS ga muvofiq o'zining hisob siyosatida «Chetel valyutasida kassa operatsiyalarini yuritish ichki Tartibi» ni tasdiqlab olishi kerak.

Chetel valyutasini qabul qilish va berish hamda kassa hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi

Korxona kassasiga tushgan chetel valyutasi to'laligicha kassaga kirim qilinadi. Bankdan xizmat safari xarajatlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa maqsadlar uchun olingan mablag'lar qat'iy ravishda maqsadga muvofiq ishlatilishi lozim. Ishlatilmagan mablag'lar uch kundan kechiktirmasdan bankka qaytarilishi shart. Bankka naqd xorijiy valyutani topshirish usullari vakolatli bank tomonidan korxona bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Korxonalarning kassalariga chetel valyutasini qabul qilish kirim kassa orderlari orqali amalga oshiriladi (2-ilovaga qarang).

Naqd chetel valyutasi qabul qilinayotganda, uni topshiruvchiga, bosh buxgalter yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxsning hamda kassirning imzosi qo'yilgan, kassir muhri (burchakli muhri) bilan tasdiqlangan kvitantsiya (kirim kassa orderining milki) beriladi.

Korxonalarning kassalaridan chetel valyutasini berish oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat (pasport yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjat) asosida berilgan chiqim kassa orderlari orqali amalga oshiriladi (3-ilovaga qarang).

Chetel valyutasini berishga doir hujjatlar korxona rahbari va korxona bosh buxgalteri yoki ularning vazifalarini bajaruvchi shaxslar tomonidan imzolangan bo'lishi va ulari bo'yicha qabul qilish va berish faqat shu hujjatlar tayyorlangan kunning o'zida amalga oshirilishi lozim.

Kirim va chiqim kassa orderlari, ularga ilova qilinadigan kvitantsiyalar va boshqa hujjatlar buxgalteriya tomonidan binafsha rang siyohli yoki binafsha (ko'k) rang sharikli ruchkada yoxud

texnik vositalar yordamida to‘g‘ri, aniq to‘ldirilishi lozim. Yuqorida sanab o‘tilgan hujjatlarga tuzatishlar kiritish, o‘chirib yozish, oq bo‘yoq ishlatish qat’iyan man etiladi.

Kirim va chiqim orderlarida ularni tuzish uchun nima asos bo‘lgani ko‘rsatiladi va ularga ilova qilingan hujjatlar sanab o‘tiladi, hamda ularni chetel valyutasini topshiruvchi, oluvchi fuqarolar qo‘liga berish man etiladi.

Kassir kirim va chiqim kassa orderlarini olayotgan vaqtda majburiy ravishda ko‘rsatiladigan rekvizitlarning haqiqiyligini va to‘g‘ri to‘ldirilganligini, shu jumladan, quyidagilarni tekshirishi shart:

- hujjatlarda korxona rahbari yoki u vakolat bergan shaxslar imzolari borligi va ushbu imzolarning haqiqiyligini;
- hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini;
- hujjatlarda sanab o‘tilgan ilovalarning mavjudligini.

Kassir chetel valyutasini qabul qilib olayotganda yoki berayotganda kirim yoki chiqim kassa orderlariga imzo chekadi, sana (kun, oy, yil)ni ko‘rsatgan holda ularga berilgan ilovalarga «to‘landi» deb yozadi yoki shunday yozuvli burchakli muhr qo‘yadi.

Chetel valyutasini kassir faqat chiqim kassa orderida ko‘rsatilgan shaxsgagina beradi. Agar chetel valyutasi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan berilsa, order matnida chetel valyutasini oluvchining familiyasi, ismi, otasining ismidan keyin buxgalteriya tomonidan chetel valyutasini olishga ishonch bildirilgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi ko‘rsatiladi. Ishonchnoma kassirda qoladi va chiqim kassa orderiga tikib qo‘yiladi.

Kassa daftarini yuritish tartibi

Buxgalteriya kirim va chiqim kassa orderlarini ular kassaga topshirilishidan avval kirim va chiqim kassa hujjatlari ro‘yxatini yuritish daftarida qayd etadi. Bunda orderning so‘m hisobidagi summasi hamda chetel valyutasidagi nominali ham ko‘rsatilishi lozim. Ro‘yxatga olish daftarini qog‘oz nusxasi ko‘chirilgan holda tegishli dasturiy ta’minot bilan ta’minlangan kompyuterlarda elektron shaklda yuritishga ruxsat etiladi.

Kelib tushgan va berilgan naqd chetel valyutasi qog‘oz nusxasi ko‘chirilgan holda tegishli dasturiy ta’minot bilan ta’minlangan kompyuterlarda elektron shaklda yuritilishi mumkin bo‘lgan kassa daftarida hisobga olinishi kerak. Naqd chetel valyutasidagi operatsiyalarni aks ettirish uchun chetel valyutasidagi operatsiyalar bo‘yicha alohida faqat bitta kassa daftari yuritiladi.

Chetel valyutasidagi operatsiyalar uchun tutilgan kassa daftari varaqlari raqamlangan, tikilgan va surg‘uch yoki mastika bilan shunday muhrlangan bo‘lishi kerakki, ruxsatsiz yoki bekitiqcha varaq qo‘yish (olish)ning iloji bo‘lmasin. Kassa daftaridagi varaqlar soni korxona rahbari va bosh buxgalterining imzolari bilan tasdiqlangan bo‘ladi. Kassa daftariga yozuvlar ikki nusxada qora qog‘oz (nusxa ko‘chirish qog‘ozi) orqali binafsha (ko‘k) rangli siyoh yoki sharikli ruchkada kiritiladi. Varaqlarning ikkinchi nusxalari yirtib olinadigan bo‘lishi kerak, ular kassirning hisoboti bo‘lib xizmat qiladi. Varaqlarning birinchi nusxalari kassa daftarida qoladi. Varaqlarning birinchi va ikkinchi nusxalariga bir xil raqamlar qo‘yiladi.

Kassa daftariga o‘chirib yozish va izohsiz tuzatishlar kiritish man etiladi. Kiritilgan tuzatishlar korxona kassiri, shuningdek bosh buxgalteri yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs imzolari bilan tasdiqlanadi.

Kassir kassa daftarida kun boshida chetel valyutasining qoldig‘ini (Chetel valyutasi turlari, nomi, summasi bo‘yicha) ko‘rsatadi. Kun davomida kassir chetel valyutasida bajarilgan har bir operatsiya bo‘yicha kassa daftariga kirim (chiqim)ni (Chetel valyutasi turlari, nomi va summasi bo‘yicha) yozib boradi.

Kassir har bir order bo‘yicha chetel valyutasi olingan yoki berilganidan keyin buni darhol kassa daftariga yozib qo‘yadi. Har bir ish kuni oxirida kassir kun davomida bajarilgan operatsiyalarga yakun yasaydi, kun oxiridagi kassa qoldig‘ini hisoblab chiqaradi va buxgalteriyaga kassir hisoboti sifatida ikkinchi yirtma varaq (kunlik kassa daftaridagi yozuvlar nusxasi)ni kirim va chiqim kassa hujjatlari bilan birga topshiradi va bu haqda kassa daftariga imzo qo‘ydiradi.

Kassa operatsiyalar to‘g‘ri amalga oshirilishini nazorat qilish korxona bosh buxgalteri (uning vazifasini bajaruvchi shaxs)ning zimmasiga yuklatiladi.

Buxgalteriya hisobidan o‘tkazilmagan tilxatlar va boshqa hujjatlar summalari kassada mavjud bo‘lgan naqd pul qoldig‘i to‘g‘riligini isbotlash uchun asos bo‘la olmaydi. Ushbu summa kamomad hisoblanib, kassirdan undirib olinadi. Kirim kassa orderlari bilan rasmiylashtirilmagan naqd pullar kassadagi ortiqcha pul hisoblanadi. Kassada aniqlangan kamomad va ortiqcha pullarni buxgalteriya hisobida aks ettirish «Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq amalga oshiriladi.

Chetel valyutasi bilan ishlaydigan kassir tayinlash tartibi

Korxona rahbari (bosh buxgalteri) kassir ishga tayinlanganligi haqida buyruq chiqqandan keyin uni «Chetel valyutasida kassa operatsiyalarini yuritish ichki Tartibi» bilan tanishtirib, bu haqda imzo qo‘ydirib olishi shart, shundan keyin kassir bilan yakka tartibdagi to‘liq moddiy javobgarlik to‘g‘risida shartnoma tuziladi.

Kassir o‘ziga topshirilgan vazifani bajarishni birovga ishonib topshirishi yoki ayrim vazifalarini boshqa shaxslar zimmasiga yuklashi man etiladi. Shtatlar jadvali bo‘yicha bitta kassiri bo‘lgan korxonalarda kassirni vaqtincha almashtirish yoki unga yordamchi biriktirib qo‘yish zarurati tug‘ilganda kassir vazifasini bajarish korxona rahbarining yozma buyrug‘i asosida yakka tartibdagi to‘liq moddiy javobgarlik to‘g‘risidagi tegishli shartnoma tuzilganidan keyin boshqa xodim zimmasiga yuklatilishi mumkin. Bunday hollarda «Chetel valyutasida kassa operatsiyalarini yuritish ichki Tartibi» da kassirlar uchun belgilangan barcha huquq va majburiyatlarning hammasi bunday shaxslarga ham taalluqli bo‘ladi.

Kassir to‘satdan ishini bajara olmay qolgan hollarda (kasalligi va boshqa sabablarga ko‘ra) uning hisobidagi chetel valyutalari korxona rahbari va bosh buxgalteri ishtirokida yoki korxona rahbari tayinlagan shaxslardan iborat komissiya ishtirokida ushbu chetel valyutalarini qabul qilib olayotgan boshqa kassir tomonidan zudlik bilan qayta sanab olinadi. Qayta hisoblash natijasi va chetel valyutalarining boshqa kassirga topshirilgani to‘g‘risida dalolatnoma tuzilib, unga yuqorida qayd etilgan shaxslar imzo chekadilar. Agar ushbu vaziyatda chetel valyutalarini qayta sanash imkoniyati mavjud bo‘lmagan (ikkinchi kassir bo‘lmasa va h.k.) holda, kassa chetel valyutalari qayta hisoblanmasdan yopiladi hamda muhrlab qo‘yiladi.

Korxona rahbari tomonidan buxgalteriya xodimlaridan tayinlangan shaxs keyingi ish kunidan kechiktirmay bosh buxgalter va korxona rahbari ishtirokida yoki korxona rahbari tayinlagan kamida uch kishidan iborat komissiya ishtirokida chetel valyutasilarini qayta sanab chiqadi. Chetel valyutalarini qayta sanash natijalari barcha hollarda rahbar va bosh buxgalter yoki komissiya a’zolari imzo chekkan dalolatnomada aks ettiriladi.

Korxonaning kassa hujjatlariga imzo chekish huquqiga ega bo‘lgan buxgalterlari va boshqa xodimlari kassir vazifasini bajarishlari mumkin emas.

Chetel valyutasini saqlash tartibi

Har bir korxona naqd chetel valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirish uchun alohida

xonaga joylashtirilgan kassaga ega bo‘lishi lozim. So‘m operatsiyalariga doir kassa bilan naqd chetel valyutasidagi operatsiyalarga doir kassa bir xonaga joylashtirilishi mumkin, biroq bunda chetel valyutasini so‘m mablag‘laridan ajratilgan holda saqlash uchun alohida temir javon (sandiq)lar yoki seyflar bo‘lishi shart.

Naqd chetel valyutalarini qabul qilish, berish va vaqtincha saqlash uchun mo‘ljallab, maxsus jihozlangan va ajratilgan xona kassa hisoblanadi. Korxona rahbarlari kassa jihozlanishini hamda naqd chetel valyutalarini saqlash, tashish vaqtida but saqlanishini ta’minlashlari shart, ularning aybi bilan saqlash va tashish vaqtida pul mablag‘larining but saqlanishini ta’minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan hollarda bu shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar. Kassada korxonaga tegishli bo‘lmagan naqd chetel valyutalarini saqlash mumkin emas.

Kassa quyidagilar bilan jihozlanishi shart:

- Chetel valyutalarining haqiqiyligini, to‘lovga yaroqliligini aniqlash uchun farqlash belgilari kataloglari (ma’lumotnomalar);

- naqd chetel valyutasi kupyuralari haqiqiyligini tekshirish uchun texnik asboblar.

Kassa xonasi alohida tarzda to‘liq ajratilgan bo‘lishi, operatsiya vaqtida kassa eshigi ichkaridan qulflanadigan bo‘lishi shart. Kassa ishiga aloqasi bo‘lmagan xodimlarning unga kirishi man etiladi. Barcha chetel valyuta (to‘lov hujjat) lari yonmaydigan temir javonlar yoki seyflarda saqlanishi, ular kassa ishi tugaganda qulflanishi va muhrlanishi (plombalanishi) hamda qo‘riqlash signalizatsiyasi yoqilishi shart. Temir javonlarning kalitlari va muhrlar kassirlarda saqlanadi, ularni shartlashilgan joylarda qoldirish, begona shaxslarga berish, hisobda turmaydigan nusxalarini tayyorlash taqiqlanadi. Temir javonlar turgan xonalar eshiklarini ochiq qoldirish hamda ushbu javonlar eshiklarida ham kalitlarni qoldirish qat’iyan man etiladi. Kalitlarning hisobga olingan nusxalari kassir tomonidan qog‘oz xalta, qutichalarga solinib, muhrlanadi va korxona rahbarida saqlanadi. Ular chorak davomida kamida bir marotaba komissiya tomonidan tekshirib turiladi.

Kassir kassa xonasi va temir javonlarni ochishdan avval qulflar, eshiklar, deraza panjaralari va muhrlar butligini tekshirishi, qo‘riqlash signalizatsiyasi ishdan chiqmaganligiga ishonch hosil qilishi zarur.

Muhr buzilgan yoki olib tashlangan, qulflar, eshiklar yoki panjaralar buzilgan bo‘lsa, kassir zudlik bilan bu haqda amaldagi qonunchilikka muvofiq chora-tadbirlar ko‘rilishi uchun korxona rahbariga ma’lum qilishi lozim.

Bu holda korxona rahbari, bosh buxgalteri yoki ularning vazifalarini bajaruvchi shaxslar hamda korxona kassiri kassada saqlanayotgan naqd chetel valyutalarining mavjudligini tekshiradilar. Bu tekshiruv kassa operatsiyalari boshlangunga qadar o‘tkazilishi kerak. Tekshiruv natijalari to‘g‘risida dalolatnoma tuzilib, unga tekshiruvda qatnashgan barcha shaxslar imzo chekadilar.

Korxonalar ishchi va xodimlari O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘lar berish va ularni xarajatlarga olib borish chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizom *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 19-noyabrda 2730-son bilan ro‘yxatga olingan) (keyingi o‘rinlarda – (Chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizom)* ga muvofiq amalga oshiriladi.

Chetel xizmat safarlarini rasmiylashtirish va avans (bo‘nak) berish tartibi

Xodimni chetel xizmat safariga yuborish uchun korxonaning rahbari tomonidan buyruq chiqariladi va safarga reja-topshiriq tasdiqlanadi. Xizmat safariga yuboriladigan shaxsga chetel valyutasida avans (bo‘nak) berilishi kerak.

Talab qilib olinadigan depozit schyotdan naqd chetel valyutasini olish uchun korxonalar tomonidan xizmat ko‘rsatadigan vakolatli bankka quyidagi hujjatlar (yoki ulardan ko‘chirma) taqdim ztiladi:

- xizmat safari xarajatlarini qoplash uchun mablag‘larni berish haqida ariza;
- xizmat safariga yuboriladigan xodimlarning familiyalari, ismi-sharifining bosh harflari, xizmat safariga yuboriladigan joy va xizmat safarining muddati ko‘rsatilgan holda xizmat safariga yuborish to‘g‘risidagi buyruq nusxasi;
- korxonaning rahbari va bosh buxgalteri (buxgalteri) tomonidan tasdiqlangan xorijiy valyutada olinishi lozim bo‘lgan summaning hisob-kitobi;
- korxonaning rahbari tomonidan tasdiqlangan xizmat safari reja-topshirig‘i;

taklif qilayotgan tomonning mazkur safarni moliyalashtirish shartlari (ular mavjud bo‘lganda) ko‘rsatilgan xatlari, fakslari va telekslarining nusxalari;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori nusxasi (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bo‘yicha jo‘nab ketayotgan shaxslar uchun).

Korxonaning shtatlar jadvalida bo‘lmagan xodimlarga korxonaning valyuta schyotidan mablag‘ berishga yo‘l qo‘yilmaydi. Bunda xizmat safari xarajatlari uchun O‘zbekiston Respublika valyuta birjasida xorijiy valyutani sotib olish faqatgina O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bo‘yicha ketayotgan tashkilotlarning xodimlari uchun amalga oshirish mustasno.

Korxonalar hisob raqamlarida chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizomning 1-ilovasida ko‘rsatilgan xorijiy valyuta bo‘lmagan taqdirda xizmat safari xarajatlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining xizmat safari mablag‘lari beriladigan kundagi kursi bo‘yicha AQSH dollaridagi ekvivalenti berilishiga ruxsat etiladi.

Korxonalarda xorijiy valyutadagi mablag‘lari bo‘lmaganda, korxonalar vakolatli banklardan yoki birjadan tashqari valyuta bozorida sotib olishlari mumkin.

Qabul qiluvchi tomon O‘zbekiston Respublikasidan xizmat safariga yuboriladigan xodimga transport xarajatlari va boshqa xarajatlarni (sutkalik, yashash, viza haqini to‘lash va boshqalar) xizmat safariga yuboriladigan mamlakatga yetib kelishi bilan qoplaydigan hollarda, jo‘natuvchi tashkilot xizmat safariga ketayotgan xodimni chiptalarni sotib olish, viza haqini to‘lash va boshqalar uchun mablag‘lar bilan keyinchalik u O‘zbekiston Respublikasiga qaytib kelganida olingan mablag‘larni jo‘natuvchi tashkilotga qaytarib berish sharti bilan ta’minlaydi. Bunda, mablag‘lar qaysi valyutada berilgan bo‘lsa, qaytarib berilishi ham shu valyutada amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi hisobidan ketayotgan delegatsiya yoki alohida shaxs xizmat safarini tashkil etish bo‘yicha javobgar tashkilot xizmat safari muddatlari va delegatsiya tarkibi ko‘rsatilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli topshirig‘i asosida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasini xarajatlar smetasi bilan birga tayyorlaydi va asoslantiruvchi hujjatlarni (xizmat safarini moliyalashtirish qismida taklif qilayotgan tomonning hujjatlar nusxasi, aviachiptalar narxi bo‘yicha asoslar, aviareyslar sanasi va vaqti ko‘rsatilgan holda yo‘l marshruti, xizmat safariga yuboriladigan mamlakatdagi mehmonxonalarda yashash qiymati va boshqalarni) ilova qilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga kiritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi hisobidan

xizmat safariga ketayotgan delegatsiya yoki alohida shaxsning xarajatlar smetasi loyihasini ko‘rib chiqadi va zaruriyat tug‘ilganda unga o‘zgartirish kiritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rahbariyati bilan kelishilgan xarajatlar smetasi loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori loyihasini kiritgan tashkilotga qaytarib beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari bo‘yicha ketayotgan tashkilotlarning xodimlariga xizmat safari xarajatlari uchun xorijiy valyutani sotib olish banklararo savdo sessiyasida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi birjadan tashqari valyuta bozorida belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan xorijiy valyutani sotib oladi va xizmat safariga alohida jo‘natiladigan shaxsga, delegatsiya rahbariga (uning rasmiy vakiliga) yoki delegatsiya a’zosiga - delegatsiyaning barcha a’zolariga xizmat safari uchun mablag‘larni xorijiy valyutada ajratadi. Bunda, oldin amalga oshirilgan xizmat safari bo‘yicha bo‘nak hisobotni taqdim etmagan xodimlarga bo‘nakni berish bo‘yicha hujjatlar rasmiylashtirilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorida ko‘zda tutilgan milliy valyutadagi mablag‘lar tegishli tashkilotlarga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ajratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari bo‘yicha hukumat delegatsiyalari tarkibida tashkilot o‘zining milliy valyutadagi mablag‘lari hisobidan jo‘natilayotgan shaxslarga xizmat safari xarajatlari uchun xorijiy valyutani sotib olishga talabnoma ular ishlaydigan tashkilotlar tomonidan taqdim etiladi.

Chetel xizmat safari xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);
- yashash uchun (turar joy ijarasi bo‘yicha) xarajatlar;
- transport xarajatlari (taksidan tashqari);
- vakillik xarajatlari;
- ko‘zda tutilmagan xarajatlar;
- qonunchilikka muvofiq qoplanishi lozim bo‘lgan xizmat safarining boshqa xarajatlari.

O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safarlariga yuborilganda kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar) va yashash uchun (turar joy ijarasi bo‘yicha) xarajatlar chetel valyutasida chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizomning 1-ilovasida ko‘rsatilgan me’yorlar asosida to‘lanadi.

Shuningdek, mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safarlarida chetel valyutasidagi kundalik me’yorlarga - vazir va lavozimi bo‘yicha unga tenglashtirilgan shaxslarga - 20% miqdorida, - vazir o‘rinbosarlari va lavozimi bo‘yicha ularga tenglashtirilgan shaxslarga, qo‘mitalar raisi o‘rinbosarlariga - 15% miqdorida qo‘shimchalar belgalangan.

Bundan tashqari, korxonalarning rahbarlari chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizomning 1-ilovasida belgilangan xizmat safari xarajatlari me’yorlariga qo‘shimcha to‘lovlar miqdorini mustaqil ravishda tasdiqlash huquqiga egadirlar.

Bunda ko‘rsatilgan qo‘shimcha to‘lovlarni to‘lash korxonada xorijiy valyutadagi kreditlarni (O‘zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlangan hamda kafolatlanmagan) so‘ndirish majburiyatlaridan, import kontraktlari bo‘yicha (tovarlar, ishlar va xizmatlar bo‘yicha) chetellik hamkorga to‘lovlardan va O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti oldidagi majburiyatlardan ozod bo‘lgan o‘zining valyuta mablag‘lari mavjud bo‘lgan taqdirda amalga

oshiriladi. Agarda qo‘shimcha to‘lov to‘lashni belgilagan korxona yuqorida keltirilgan to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblar uchun xorijiy valyutani ichki valyuta bozoridan sotib olgan bo‘lsa, ko‘rsatilgan qo‘shimcha to‘lovlarni to‘lash amalga oshirilmaydi.

Chetel xizmat safari bo‘yicha kundalik xarajatlar (sutkalik pullar) ni to‘lash tartibi

Kundalik xarajatlar chetel xizmat safaridagi har bir kun, jumladan jo‘nab ketish hamda yetib kelish kuni uchun chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovasining «O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi mamlakatlarga boruvchilar uchun sutkalik xarajatlar me’yorlari» grafasi (4-ustuni) da belgilangan me’yorlarda 100 foiz miqdorda chetel valyutasida to‘lanadi.

Jo‘nab ketish hamda qaytib kelish kuni O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasini kesib o‘tish kuni hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi chegarasini kesib o‘tish kuni xizmat safariga yuborilgan shaxsning pasportida O‘zbekiston Respublikasi chegara-nazorat punktlarining qo‘ygan belgisi bo‘yicha belgilanadi.

Havo transportida uchib ketilganda, agar xorijiy davlatga yetib borish sanasi xalqaro aviareysning O‘zbekiston Respublikasi aeroportidan uchib ketgan sanasidan keyingisiga to‘g‘ri kelgan hollarda (aviachiptaga asosan), jo‘nab ketish kuni uchun sutkalik xarajatlar berilmaydi. Havo transportida uchib kelganda, agar O‘zbekiston Respublikasiga yetib kelish sanasi xalqaro aviareysning xorijiy davlatining aeroportidan uchib ketgan sanasidan keyingisiga to‘g‘ri kelgan hollarda (aviachiptaga asosan) qaytib kelish kuni uchun sutkalik xarajatlar berilmaydi.

Xodim ikki va undan ortiq xorijiy davlatga xizmat safariga yuborilganda (jumladan tranzit holatida ham) bir davlatdan boshqa davlatga o‘tish kuni uchun kundalik xarajatlar, xodim qaysi xorijiy davlatga o‘tayotgan bo‘lsa, shu xorijiy davlatnig kundalik xarajatlar me’yorlarining 100 foizi miqdorida to‘lanadi.

Chetelga xizmat safariga boradigan xodimlar boradigan davlatlarida qabul qiluvchi tomon hisobidan tekin ovqat (nonushta, tushlik, kechki ovqat) bilan ta’minlangan hollarda kundalik xarajatlar xizmat safariga yuborilgan shaxsning shaxsiy ehtiyojlarini qoplashga boshqa xarajatlar uchun kundalik xarajatlar me’yorining 30 foizi miqdorida to‘lanadi. Qabul qiluvchi tomon tekin ovqatlanishdan tashqari, xodimni shaxsiy ehtiyojlari uchun mablag‘lar bilan ta’minlagan taqdirda jo‘natuvchi tomon kundalik xarajatlarni to‘lamaydi.

Qabul qiluvchi tomon ovqatlanish va boshqa xarajatlarni qoplash uchun bergan mablag‘lar summasi chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizom bilan belgilangan kundalik xarajatlar me’yoridan kam bo‘lsa, xizmat safaridan qaytib kelib bo‘nak hisoboti topshirilganida tashkilotning rahbari qarori bilan xizmat safariga borib kelgan xodimga tasdiqlovchi hujjatlar hamda mazkur Nizom 30-bandining ikkinchi xatboshisiga muvofiq, ortiqcha pul mablag‘lari mavjud bo‘lgan taqdirda, qabul qiluvchi tomon to‘lab bergan mablag‘lar va O‘zbekiston Respublikasida amaldagi kundalik xarajatlar me’yorlari o‘rtasidagi tafovut summasi qoplanadi.

Chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizomga 1-ilovaning «Joylashgan mamlakat doirasida xizmat safariga jo‘natiladigan xorijiy muassasalar xodimlari, shuningdek chetelga ishga yuboriladigan xodimlar uchun; xorijda 60 sutkadan ortiq (61-kundan boshlab) xizmat safarida bo‘ladigan xodimlar uchun kundalik xarajatlar me’yorlari» grafasi (5-ustuni) da belgilangan me’yorlar bo‘yicha kundalik xarajatlar to‘lovi:

- Cheteldagi diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, O‘zbekiston Respublikasi tashkilotlarining xorijdagi vakolatxonalarining xodimlari borgan mamlakatlari hududida xizmat safarida bo‘lganlarida;

- Chetelda uzluksiz 60 sutkadan ortiq (61-kundan boshlab) xizmat safarida bo‘lganlarga nisbatan amalga oshiriladi.

Agarda yuqorida ko‘rsatilgan xodimlar xizmat safari muddati davomida bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga o‘tsa, ularga kundalik xarajatlar belgilangan qo‘shimchalarni hisobga olgan holda Chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizomga 1-ilovaning 4-ustunida belgilangan me’yorlar bo‘yicha chetel valyutasida to‘lanadi.

Chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovasining 4- va 5-ustunlarida belgilangan me’yorlar doirasida to‘lanadigan chelel xizmat safarida bo‘lingan vaqt uchun kundalik xarajatlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarishda jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi.

Chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovasining 4- va 5-ustunlarida belgilangan me’yorlardan ortiqcha to‘lanadigan chelel xizmat safarida bo‘lingan vaqt uchun kundalik xarajatlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarishda jismoniy shaxslarning daromadlari tarkibiga kiradi.

Chetel xizmat safari bo‘yicha yashash uchun (turar joyni ijarasi bo‘yicha) xarajatlarni qoplash uchun mablag‘lar to‘lash tartibi

Yashash uchun (turar joy ijarasi bo‘yicha) xarajatlar, ya’ni mehmonxona xarajatlari chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizomdagi 1-ilovaning «Xodimlarning turar joy ijarasi bo‘yicha xarajatlari to‘lovining eng yuqori me’yori (sutkada ko‘rsatilgan summagacha)» grafasi (6-ustuni) da belgilangan eng yuqori me’yorlar va ularga korxonalarning rahbarlari tomonidan tasdiqlangan qo‘shimcha to‘lovlar bilan, agarda ular rahbar tomonidan belgilangan bo‘lsa, ushbu xarajatlarni tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi sharti bilan belgilangan me’yorlarning 100 foizi miqdorida chetel valyutasida to‘lanadi.

Chetel xizmat safari bo‘yicha yashash uchun (turar joyni ijarasi bo‘yicha) xarajatlarning yakuniy hisob-kitobi xizmat safariga yuborilgan shaxs tomonidan haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar bo‘yicha, qo‘shimcha to‘lovlarni hisobga olgan holda, biroq belgilangan me’yorlardan ortiqcha bo‘lmagan miqdorda, agar ular korxona rahbari tomonidan belgilangan bo‘lsa, amalga oshiriladi. Bunda yashash uchun (turar joyni ijarasi bo‘yicha) xarajatlar har bir sutka uchun, xizmat safarining ayrim kunlari uchun ortiqcha xarajatlarni hisobga kiritmay to‘lanadi.

Xizmat safari xarajatlari uchun bo‘nak hisoblanganida yashash uchun (turar joy ijarasi bo‘yicha) qo‘shimcha mablag‘lar korxona rahbari qarori bo‘yicha taklif etuvchi tashkilot, cheteldagi diplomatik vakolatxona yoki konsullik muassasalari tomonidan taqdim etilgan xizmat safariga yuborilgan mamlakatdagi yashash uchun maqbul mehmonxona narxlari bo‘yicha ma’lumot yoxud tasdiqlangan me’yorlar doirasida mehmonxonalar mavjud emasligini tasdiqlovchi ma’lumot asosida ko‘zda tutiladi.

Chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizomning 2-ilovasiga muvofiq kundalik xarajatlarga qo‘shimchalar olish huquqiga ega bo‘lgan xodimlarga yashashlari uchun mablag‘lar mazkur maqsadlar uchun belgilangan me’yorlardan qat’i nazar haqiqiy xarajatlar miqdorida to‘lanadi.

Alohida hollarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra kundalik xarajatlar me’yoriga qo‘shimcha olish huquqiga ega bo‘lmagan, biroq O‘zbekiston Respublikasi delegatsiyasi tarkibida ketayotgan xodimlarga yashash uchun mablag‘lar, shuningdek belgilangan me’yorlardan qat’i nazar haqiqiy xarajatlar miqdorida to‘lanadi.

Kundalik xarajatlarga ustamalar olish huquqiga ega bo‘lgan xodimlarga yashash uchun (turar joy ijarasi bo‘yicha) belgilangan me’yoridan ortiq bo‘lgan qo‘shimcha mablag‘lar xizmat safari xarajatlariga ajratiladigan bo‘nak summasiga kiritilishi mumkin.

Tasdiqlangan me’yordan ortiq bo‘lgan yashash uchun (turar joy ijarasi bo‘yicha) qo‘shimcha mablag‘lar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan xizmat safariga yuborish bo‘yicha xarajatlar smetasining loyihasi tayyorlanayotganda xizmat safari uchun javobgar bo‘lgan tashkilot tomonidan taklif etuvchi tashkilot, cheteldagi diplomatik vakolatxona yoki konsullik muassasalari tomonidan taqdim etilgan xizmat safariga boriladigan mamlakatdagi mehmonxonalar narxlari bo‘yicha hujjatlardagi ma’lumot asosida ko‘zda tutiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xarajatlar smetasi loyihasini kelishayotganda taqdim etilgan asoslantiruvchi hujjatlarga muvofiq yashash uchun (turar joy ijarasi bo‘yicha) belgilangan me’yorlardan ortiq miqdordagi mablag‘larni ko‘zda tutadi. Bunda, ushbu mablag‘larni ajratish zaruriyati bo‘yicha yakuniy qaror O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida xizmat safarida bo‘lganda yashash uchun (turar joy ijarasi bo‘yicha) qo‘shimcha xarajatlar delegatsiya rahbari qarori bo‘yicha asoslangan sabablarga ko‘ra (xizmat safari muddati uzaytirilishi, aviareys ushlanib qolinishi va boshqalar) ko‘zda tutilmagan xarajatlarga ajratilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Asoslangan sabablar mavjud bo‘lganda (mehmonxonalar mavjud emasligi, mehmonxonada yashash narxining belgilangan me’yorlardan oshib ketishi, mehmonxona bo‘lmagan yashash joyini ijaraga olish narxining pastligi va boshqalar) xizmat safariga yuborilayotgan xodimlarga yashash joyi joylashgan mamlakatning qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilgan yashash joyini ijaraga olish shartnomasi asosida jismoniy shaxsda (mehmonxonada emas) yashashiga korxonalar rahbarlari tomonidan ruxsat berilishi mumkin (yashash joyini ijaraga beruvchi to‘lovni qabul qilganligini tasdiqlagan holda). Bunda yashash uchun (turar joy ijarasi bo‘yicha) xarajatlar Chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizomga binoan 1-ilovaning 6-ustunida belgilangan me’yorlardan oshib ketmasligi kerak.

Ovqatlanish va boshqa shaxsiy xizmatlar (mini-barlar, кabel televideniyasi, kiyimlarni yuvdirish va dazmollatish va boshqalar) uchun xarajatlar summasi, shu jumladan yashash uchun (turar joyni ijarasi uchun) schyotlarga kiritilgan xarajatlar xizmat safariga yuborilgan shaxs tomonidan sutkali hisobidan to‘lanadi va qoplanmaydi. Chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizomning 2-ilovasiga muvofiq kundalik xarajatlarga qo‘shimchalar olish huquqiga ega bo‘lgan xodimlarga choyshab va kiyimlarni yuvdirish va dazmollatish bo‘yicha xarajatlar qoplanadi.

Qabul qiluvchi tomon tekin turar joyni taqdim etganda yoki turar joyni ijarasi uchun xarajatni qoplashga tegishli pul mablag‘ini to‘laganda, xizmat safariga yuborilgan shaxsga yashashi uchun (turar joyni ijarasi uchun) mablag‘lar to‘lanmaydi.

Hujjatlar asosida uy-joyni band qilish uchun to‘lovlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarishda jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi.

Chetel xizmat safarida transport xarajatlarini qoplash uchun mablag‘lar to‘lash tartibi

Transport xarajatlarini qoplash uchun mablag‘lar haqiqiy xarajatlar bo‘yicha ularni tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi sharti bilan to‘lanadi.

Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining xizmat safariga yuboriladigan xodimlari havo transportida borganlarida ustuvor «O‘zbekiston havo yo‘llari» MAK reyslaridan foydalanishlari lozim.

Transport xarajatlarini qoplash uchun mablag‘lar Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining xizmat safariga yuboriladigan xodimlariga quyidagicha to‘lanadi:

- xizmat safariga yuboriladigan shaxslar – korxona rahbarlariga - havo transportida - birinchi, biznes yoki iqtisodiy toifa tariflari bo‘yicha, - temir yo‘l va suv transportida - 1-klass tarifi bo‘yicha;

- xizmat safariga yuboriladigan shaxslar – korxonalar rahbarlarining o‘rinbosarlariga havo transportida - biznes yoki iqtisodiy toifalar tarifi bo‘yicha, temir yo‘l va suv transportida - 1-klass tarifi bo‘yicha.

- boshqa barcha xizmat safariga yuboriladigan shaxslarga havo transportida - iqtisodiy toifa tarifi bo‘yicha, temir yo‘l transportida - 2-klass tarifi bo‘yicha, suv transportida - sayyohlik toifasi tarifi bo‘yicha.

Poezdlarda 2-klass vagonlar, kemalarda esa sayyohlik klassi kayutalar bo‘lmagan taqdirda xarajatlar 1-klass tarifi bo‘yicha qoplanadi. Osiyo va Afrika mamlakatlariga temir yo‘l trasportida borish qiymati barcha xodimlarga 1-klass tarifi bo‘yicha qoplanadi.

Agar xorijiy davlat hududida aeroport, vokzal, sohil (pristan) aholi yashaydigan hududdan tashqarida yoki boshqa aholi punktida joylashgan bo‘lsa, ulardan yashash joyigacha borish va qaytishdagi qo‘shimcha yo‘l xarajatlari tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lganda qoplanadi. Ayrim hollarda Hukumat delegatsiyasi, hamda katta hajmdagi sport anjomlariga ega bo‘lgan sportchilarga xorijiy davlat hududida yurish uchun avtomobilni ijaraga olishga yo‘l qo‘yiladi. SHahar ichidagi transportdan foydalanganlik uchun xarajatlar xodimga kundalik xarajatlar tarkibida qoplanadi. Tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safaridagi transport xarajatlari qoplanishi amalga oshirilmaydi.

Agar xizmat safarlari joyiga borish va qaytib kelish, shu jumladan transportda joyni band qilib qo‘yish haqi xarajatlari (to‘lovlari) ni tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lsa - haqiqatda qilingan xarajatlar, bo‘lmasa - xarajatlar temir yo‘l transportidagi (yoki agar temir yo‘l aloqasi bo‘lmasa, shaharlararo avtobusdagi) yo‘l haqi qiymati miqdorida, lekin aviachipta qiymatining 30 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda:

Chetel xizmat safari bo‘yicha vakillik va ko‘zda tutilmagan xarajatlarning qoplash uchun mablag‘ ajratish tartibi

Vakillik xarajatlariga vakillarning (qatnashchilarning) rasmiy qabuli (nonushta, tushlik yoki shunga o‘xshash tadbirlar) ni o‘tkazish, ularning transport ta’minoti, muzokaralar vaqtida bufet xizmatlarini ko‘rsatish, korxona shtatida bo‘lmagan tarjimon xizmatiga haq to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar kiradi.

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan tasdiqlovchi boshlang‘ich hisob hujjatlari bo‘lganda vakillik xarajatlari davr xarajatlariga kiritiladi, ularda rasmiy qabulni o‘tkazish uchun asos, sanasi va joyi, taklif qilingan shaxslar va qatnashchilar soni, ularning transport ta’minoti, muzokaralar vaqtida bufet xizmatlarini ko‘rsatish, tarjimon xizmatiga haq to‘lash, vakillik xarajatlarining xorijiy valyutadagi summasi ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Ko‘zda tutilmagan xarajatlarga reysning kechikishi yoki o‘zgarishi, yo‘nalishning, safar dasturining delegatsiya rahbari qaroriga ko‘ra o‘zgartirilishi hamda boshqa fors-major holatlar bilan bog‘liq xarajatlar kiradi.

Hukumat nomidan muzokaralar olib borish, bitimlarni imzolash maqsadida, shuningdek xalqaro tashkilotlarning majlislarida, syezdlarida, assambleyalarida ishtirok etish uchun O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga ketayotgan Hukumat delegatsiyalari uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko‘ra vakillik va ko‘zda tutilmagan xarajatlarga ham mablag‘lar ajratiladi.

Ko‘rsatilgan xarajatlar 1000 AQSH dollaridan ko‘p bo‘lmagan miqdorda nazarda tutiladi

va Hukumat delegatsiyasi a'zolaridan biriga hisobot topshirish sharti bilan beriladi. Ayrim hollarda ko'zda tutilmagan va vakillik xarajatlari miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra o'zgartirilishi mumkin.

Vakillik xarajatlariga korxona (soliq to'lovchi) ning o'zaro hamkorlik o'rnatish yoki uni saqlab turish, shuningdek korxona (soliq to'lovchi) ning boshqaruv va nazorat organlari majlislariga kelgan ishtirokchilarni qabul qilish hamda ularga xizmat ko'rsatish maqsadlarida qiladigan xarajatlari kiradi. Bu xarajatlar mazkur shaxslarning rasmiy qabulini o'tkazish, transport ta'minoti, ovqatlanishi va turar joyi, korxona (soliq to'lovchi) ning shtatida turmagan tarjimonlar xizmatiga haq to'lash xarajatlaridir.

Transport xarajatlari (yo'lkira), yashash (turar joyni ijarasi bo'yicha), kundalik, vakillik va ko'zda tutilmagan xarajatlardan tashqari hujjatlar bilan tasdiqlangan quyidagi xarajatlar ham qoplanadi:

- viza olish bo'yicha;
- vaqtincha ro'yxatga olinganligi uchun;
- borgan mamlakatida chetel valyutasini sotib olish yoki sotish chog'ida yig'im (foizlar)ni to'lash bo'yicha;
- 30 kilogrammgacha bo'lgan yuk uchun to'lov (xodim borayotgan transport turida tekin yuk olib ketish me'yoridan ortiqchasiga);
- aeroport, sug'urta (faqat borayotgan mamlakatiga kirish uchun majburiy bo'lgan sug'urta turlari), bojxona va vositachilik yig'imlari (ko'rgazmalar, taqdimotlar, konferensiyalar va gastrollar o'tkazilganda);
- konferentsiya qatnashchilarini ro'yxatga olish yig'imlari;
- pullik to'xtash joylari xizmatlarini to'lash, avtobenzin xarid qilish, yukni transportda jo'natish (faqat xizmat safariga yuborilgan belgilangan kishilar uchun) to'lovlari bo'yicha;
- MDH mamlakatlariga boradiganlar Chetel xizmat safari to'g'risidagi Nizomning 2-ilovasida belgilangan 20 foiz va undan ortiq ustamasi mavjud shaxslar uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bo'yicha «VIP» zallari orqali xizmat ko'rsatish;
- xizmat safariga jo'natilgan shaxslarga favqulodda, qoldirib bo'lmaydigan holatlarda ko'rsatilgan tibbiy xizmatlarni to'lash bo'yicha;
- hujjatlar bilan asoslangan xizmat safari bekor qilinishi, yo'l marshruti yoki xorijiy davlatda bo'lish muddatlari o'zgarishi sababli yo'l chiptalarini qaytarib berish, almashtirish yoki ulardan foydalanmaslik bilan bog'liq jarimalar yoki qo'shimcha xarajatlarni to'lash bo'yicha.

Agar yuqorida keltirilgan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmasa, u holda tegishli xizmat safari xarajatlari qoplanmaydi.

Yuqorida keltirilgan xarajatlardan tashqari, xizmat safariga yuborilgan shaxsga ishlab chiqarish maqsadlarida sarflangan qo'shimcha xarajatlar (masalan, telefon so'zlashuvlari uchun) qoplanishi mumkin. Ushbu xarajatlar xizmat safari topshiriqlarini bajarish uchun zarur bo'lganligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganidagina qoplanishi mumkin.

Xodimning muzokaralarni borishi va boshqalar to'g'risida rahbariyatga axborot berish majburiyati xizmat safari reja-topshirig'ida ko'rsatib o'tilgan bo'lishi kerak.

Xizmat safari xususiyati biror-bir qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlarini (telefon so'zlashuvlari, yukni olib kelish, hujjatlardan nusha ko'chirish va boshqalar) nazarda tutganda, korxona rahbari tomonidan xodimni xizmat safariga yuborilishidan oldin ushbu xarajatlarni qoplash to'g'risidagi buyruq (farmoyish) chiqariladi. Bunda ushbu xarajatlar bunday buyruq (farmoyish) va tasdiqlovchi hujjatlar (schyotlar, kvitantsiyalar) mavjud bo'lganda korxonaning xarajatlariga olib borilishi mumkin.

Qonun hujjatlarida belgilangan va hujjatlar bilan tasdiqlangan xizmat safarining boshqa to‘lovlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan bazani hisoblab chiqarishda jismoniy shaxslarning daromadi sifatida qaralmaydi.

Chetel safari bo‘yicha hisobot tuzish va taqdim etish tartibi

Chetel xizmat safariga yuborilgan shaxs xizmat safaridan qaytib kelganda, avans hisobotini tuzadi. Xizmat safari xarajatlariga berilgan mablag‘lardan foydalanganlik to‘g‘risidagi bo‘nak hisoboti korxona buxgalteriyasiga xizmat safaridan qaytib kelingandan keyin uch ish kunidan kechiktirmay bo‘nak olingan valyutada taqdim etiladi. Xizmat safari natijalari bo‘yicha yakuniy hisob-kitob belgilangan me’yorlar va qo‘shimcha to‘lovlarni hisobga olgan holda hujjatlar bilan tasdiqlangan haqiqiy xarajatlar bo‘yicha avans hisobotini qabul qilish sanasiga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Hukumat delegatsiyalarining xizmat safariga mablag‘lar ajratilganida xizmat safaridan qaytib kelganidan keyin o‘n kun ichida delegatsiya rahbari (yoki hisobot beruvchi shaxs) amalga oshirilgan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlarni (hisob, kvitantsiya, yo‘l chiptalari va boshqalar) ilova qilingan holda batafsil avans hisobotini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga topshiradi. Avans hisoboti o‘z vaqtida topshirilmagan holda, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xorijiy valyutada bo‘nakni olgan xodim ishlaydigan korxonaga avans hisobotni qisqa muddatda topshirish va ishlatilmagan chetel valyutasidagi qoldiqni qaytarish bo‘yicha tegishli choralarni amalga oshirish zaruriyati to‘g‘risida bildirishnoma jo‘natadi. Ushbu bildirishnomani olgan korxona zaruriyat tug‘ilganda qonun hujjatlari va ichki mehnat tartibi va qoidalariga muvofiq intizomiy jazo choralarini ko‘radi.

Avans hisoboti, shuningdek chetel valyutadagi ishlatilmagan qoldiqni o‘z muddatida topshirilishini ta’minlamagan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda, avans hisobotini taqdim etish va chetel valyutadagi ishlatilmagan qoldiqni korxonaning mablag‘lari hisobidan qoplanishi uchun javobgarlik korxona rahbari zimmasiga yuklanadi.

Avans hisobotida ko‘rsatiladigan barcha xarajatlar tegishli ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlar bilan, shuningdek delegatsiya rahbari tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Agarda xizmat safari xarajatlari uchun avans AQSH dollarida berilgan bo‘lib, xarajatlar esa xizmat safariga borilgan davlatning valyutasida amalga oshirilgan bo‘lsa, xizmat safariga borilgan davlatning valyutasidagi haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar bo‘yicha avans hisoboti AQSH dollari xizmat safariga borilgan davlatning valyutasiga almashtirilganligi to‘g‘risidagi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan kurs bo‘yicha qabul qilinadi.

Vakillik xarajatlari bo‘yicha alohida hisobot tuziladi. Vakillik xarajatlari bo‘yicha hisobotga amalga oshirilgan xarajatlar asoslanganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak. Hisobot hisobot beruvchi shaxs tomonidan imzolanadi va delegatsiya rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Delegatsiya rahbari bo‘lmaganda yoki xizmat safariga alohida shaxs jo‘natilganda hisobot hisobot beruvchi shaxs tomonidan imzolanadi.

Vakillik va ko‘zda tutilmagan xarajatlarga ajratilgan mablag‘larning ishlatilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bo‘lmagan holatlarda, amalga oshirilgan xarajatlarning ro‘yxati ko‘rsatilgan, delegatsiya rahbari tomonidan tasdiqlanadigan va delegatsiya a’zolari tomonidan imzolanadigan dalolatnoma tuziladi. Delegatsiya rahbari bo‘lmaganda yoki xizmat safariga alohida shaxs jo‘natilganda hisobot delegatsiyaning barcha a’zolari yoki alohida shaxs tomonidan imzolanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori asosida amalga oshirilgan xizmat safari bo‘yicha avans hisoboti taqdim etilgan paytda, xizmat safari uchun avans berilganida xarajatlar

smetasida ko‘zda tutilmagan, tegishli tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lishi sharti bilan, ko‘zda tutilmagan xarajatlar uchun ajratilgan mablag‘lar hisobidan boshqa xarajatlar («Chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizom» ning 16, 29 va 32-bandlarida nazarda tutilgan xarajatlar) ham hisobot uchun qabul qilinishi mumkin.

Chetel xizmat safari uchun transport xarajatlari, yashash uchun (turar joy ijarasi bo‘yicha), vakillik va ko‘zda tutilmagan xarajatlarga berilgan chetel valyuta to‘liq yoki qisman ishlatilmagan holda summa (qoldiq) avans hisoboti topshirilgan kundan ikki bank kuni ichida korxonaning kassasiga keyinchalik vakolatli bankka topshirish uchun qaytarilishi kerak. Agarda xorijiy valyuta O‘zbekiston Respublikasining ichki valyuta bozorida sotib olingan hollarda, tashkilot bir vaqtning o‘zida vakolatli bankka belgilangan tartibda ishlatilmagan valyuta mablag‘larini sotishga talabnoma taqdim qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan olingan chetel valyutadagi ishlatilmagan qoldiq delegatsiya rahbari (uning rasmiy vakili) yoki delegatsiya a’zosi tomonidan qaytariladi.

Sarf qilingan xarajatlarning to‘g‘riligi va maqsadga muvofiqligiga javobgarlik delegatsiya rahbariga yoki javobgar shaxsga yuklatiladi. Xizmat safariga borgan shaxs xizmat safari xarajatlari uchun naqd chetel valyutasida berilgan avans bo‘yicha hujjatlar bilan tasdiqlangan ortiqcha xarajatga yo‘l qo‘yganda, xizmat safariga yuborilgan shaxs oldidagi qarz summasi naqd chetel valyutasidagi tegishli summani berish yo‘li bilan qoplanadi. Korxona chetel valyutasidagi mablag‘larga ega bo‘lmasa, xizmat safariga yuborilgan shaxsning roziligi bilan uning oldidagi chetel valyutasidagi qarzdorlik avans hisobot topshirilgan kundagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha milliy valyutadagi ekvivalentda qoplanishi mumkin. Xizmat safariga jo‘natilgan shaxs oldidagi qarzdorlik summasi Chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizom bilan belgilangan me’yorlarni hisobga olgan holda hisoblanadi.

Hukumat delegatsiya tarkibida xizmat safariga jo‘natilgan shaxsda ortiqcha xarajatlar mavjud bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tegishli tasdiqlovchi hujjatlar asosida avans hisobotini qabul qilinishi va tegishli naqd chetel valyutasidagi va milliy valyutadagi summa berilishi to‘g‘risidagi qaror delegatsiya rahbari yoki avans hisobotini topshiruvchi xodim ishlaydigan korxona taqdimnomasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bo‘lmagan holatda avans hisoboti mavjud bo‘lgan tasdiqlovchi hujjatlar asosida qabul qilinadi, ortiqcha xarajatlar summasi korxonaning mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Xodimlarga ortiqcha xarajatlarni qoplash uchun korxonalar schyotlaridan mablag‘larni olish uchun korxonalar xizmat ko‘rsatuvchi bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- mablag‘larni berish haqida ariza;
- korxona rahbari va (yoki) bosh buxgalter (buxgalter) tomonidan tasdiqlangan xizmat safariga jo‘natilgan shaxsning avans hisoboti;
- xizmat safariga jo‘natilgan shaxsning O‘zbekiston Respublikasidan tashqarisidagi xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari;
- qoplanishi lozim bo‘lgan summa hisob-kitobi.

Yuqoridagi hujjatlar taqdim etilmaganda, shuningdek so‘ralgan summa Chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizomning talablariga muvofiq haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar summasiga to‘g‘ri kelmagan holatda xizmat ko‘rsatuvchi vakolatli bank tomonidan korxonalarning schyotlaridan mablag‘lar berilishi amalga oshirilmaydi.

Xizmat safari xarajatlarini to‘lash bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va zarur hujjatlarni rasmiylashtirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning xodimi (bozorni o‘rganish bo‘limi boshlig‘i) Vengriyaga xizmat safariga yuborilgan. Xizmat safari muddati 10 kundan iborat. Chetel xizmat safari to‘g‘risidagi Nizomning 1-ilovasiga muvofiq, Vengriya uchun kundalik xarajatlar me’yori 30 yevroni, turar joyni ijaraga olish xarajatlarining me’yori esa 100 yevroni tashkil etadi. Me’yor bo‘yicha o‘n kunga xizmat safarining umumiy xarajatlari summasi 1 350 yevro (35 yevro x 10 kun + 100 yevro x 10 kun) ni tashkil etadi.

O‘z xodimining xizmat safari xarajatlarini to‘lash uchun korxona bankdan 1 350 yevro oldi. Markaziy bank tomonidan bir yevroning so‘mga nisbatan belgilangan kursi quyidagilardan iborat bo‘ldi:

– valyutani kassaga kirim qilish kunida – 12 120 so‘m;

– mablag‘larni kassaga qaytarish va avans hisobotini tuzish sanasida – 12 130 so‘m.

Bankdan mablag‘lar olinganda va ularni xizmat safariga yuborilayotgan shaxsga berishdagi buxgalteriya yozuvlari.

Kurs farqlari vujudga kelishini va ularni hisobga olish bo‘yicha qo‘shimcha amalga oshiriladigan buxgalteriya yozuvlarini oldini olish maqsadida bankdan mablag‘larni olish va korxona kassasidan xizmat safariga yuborilayotgan shaxsga ushub mablag‘larni berish bo‘yicha operatsiyalarni bir sanada amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi, bizning misolimizda ham ushbu holat hisobga olingan.

Xizmat safari xarajatlari uchun bankdan naqd valyuta mablag‘lari olinishi va xizmat safariga yuborilayotgan xodimga kassadan berilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- xizmat safari xarajatlari uchun bankdan naqd valyuta mablag‘lari olingan:

debet 5020 «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari» schyoti *16 362 000 so‘m;*

kredit 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti *16 362 000 so‘m;*

(16 362 000 so‘m = 1 350 yevro x 12 120 so‘m);

- xizmat safariga yuborilayotgan shaxsga kassadan chetel valyutasida hisobdor summani berilishi:

debet 4220 «Xizmat safariga berilgan bo‘naklar» schyoti *16 362 000 so‘m;*

kredit 5020 «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari» schyoti *16 362 000 so‘m;*

(16 362 000 so‘m = 1 350 yevro x 12 120 so‘m).

Xizmat safari uchun berilgan mablag‘larning sarflanmagan qismi qaytarilganda va avans hisoboti rasmiylashtirilgandagi buxgalteriya yozuvlari.

Xizmat safariga yuborilgan shaxs Vengriyadan qaytib kelganda, avans hisobotini tuzadi va buxgalteriyaga xizmat safaridan qaytib kelgandan so‘ng 3 kundan kechiktirmay avans olingan valyutada taqdim etiladi. Xizmat safari natijalari bo‘yicha yakuniy hisob-kitob belgilangan me’yorlar va qo‘shimcha to‘lovlarni hisobga olgan holda hujjatlar bilan tasdiqlangan haqiqiy xarajatlar bo‘yicha avans hisobotini qabul qilish sanasiga O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kursi bo‘yicha amalga oshiriladi. Bizning tavsiyamiz: xizmat safariga yuborishdagiga o‘xshash tarzda avans hisobotini topshirish va sarflanmagan mablag‘larni korxona kassasiga qaytarish bo‘yicha operatsiyalarni bir sanada amalga oshirish lozim.

Quyidagi holatni ko‘rib chiqamiz: bunda xizmat safariga yuborilgan shaxs mehmonxona xarajatlarini tasdiqlovchi hujjatlarga ega emas, chunki u taklif qilgan tomon – Vengriyalik hamkorlar hisobidan yashagan. Xizmat safariga ketishdan oldin bu holatlar tomonlar o‘rtasida kelishilmaganligi sababli, mehmonxona xarajatlarini to‘lash uchun korxona tomonidan bankdan valyuta mablag‘lari olingan edi. Shunday qilib, xizmat safariga yuborilgan shaxs korxona kassasiga 1 000 yevro (100 yevro x 10 kun) ni qaytarishi kerak.

Hisob-kitoblardan kelib chiqqan holda, hisobdor shaxs korxona kassasiga 1 000 yevroni, ya’ni so‘mda 12 130 000 so‘m (1 000 yevro x 12 130 so‘m) ni qaytarishi lozim, kassadan xizmat safari xarajatlarini olish sanasida esa mehmonxona xarajatlari me’yorlar bo‘yicha 12 120 000 so‘m (1 000 yevro x 12 120 so‘m) ni tashkil etgan. SHu sababli kurs farqi paydo bo‘lib u 10 000 so‘m (1 000 yevro x (12 130 so‘m – 12 120 so‘m) ni tashkil qilgan. Kundalik xarajatlar mablag‘larni olish sanasida 350 yevro, ya’ni 4 242 000 so‘m (350 yevro x 12 120 so‘m) ni tashkil etgan bo‘lsa, xarajatlarga hisobdan chiqarish sanasida 350 yevro so‘mda 4 245 500 so‘m (350 AQSH dollari x 12 130 so‘m) ni tashkil etgan va kurs farqi 3 500 so‘m (350 yevro x (12 130 so‘m – 12 120 so‘m) dan iborat bo‘lgan.

Xizmat safaridan qaytgan xodim tomonidan sarflanmagan naqd valyuta mablag‘lari kassaga qaytarilishi va xizmat safari xarajatlarini hisobdan chiqarilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- sarflanmagan naqd valyuta mablag‘larini korxona kassasiga qaytarilishi:

debet 5020 «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari» schyoti *12 130 000 so‘m;*
kredit 4220 «Xizmat safarlariga berilgan bo‘naklar» schyoti *12 120 000 so‘m;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan daromadlar» schyoti *10 000 so‘m;*

(12 130 000 so‘m = 1 000 yevro x 12 130 so‘m);
(12 120 000 so‘m = 1 000 yevro x 12 120 so‘m);
(10 000 so‘m = 12 130 000 so‘m – 12 120 000 so‘m);

- sarflanmagan naqd chetel valyutasini vakolatli bankga qaytarilishi:

debet 5020 «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari» schyoti *12 130 000 so‘m;*
kredit 4220 «Xizmat safariga berilgan bo‘naklar» schyoti *12 130 000 so‘m;*

(12 130 000 so‘m = 1 000 yevro x 12 130 so‘m);

- kundalik xarajatlarining davr xarajatlariga hisobdan chiqarilishi:

debet 9420 «Ma’muriy xarajatlar» schyoti *1 445 500 sum;*
kredit 4220 «Xizmat safariga berilgan bo‘naklar» schyoti *1 442 000 so‘m;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan daromadlar» schyoti *3 500 so‘m;*

(4 245 500 so‘m = 350 yevro x 12 130 so‘m);
(4 242 000 so‘m = 350 yevro x 12 120 so‘m);
(3 500 so‘m = 4 245 500 so‘m - 4 242 000 so‘m).

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 245-moddasiga muvofiq, pul majburiyatida u so‘mlar bilan chetel valyutasidagi muayyan summaga ekvivalent bo‘lgan summada yoki shartli pul birliklari bilan (ekyu, «maxsus qarz olish huquqlari» va boshqalar) to‘lanishi lozimligi

nazarda tutilishi mumkin. Bunday hollarda so‘mlar bilan to‘lanishi lozim bo‘lgan summa tegishli valyutaning yoki shartli pul birliklarining to‘lov kunidagi rasmiy kursi bo‘yicha belgilanadi, basharti uni belgilashning boshqacha kursi yoki boshqa sanasi qonunchilikda yoki taraflarning kelishuvida belgilab qo‘yilgan bo‘lmasa.

O‘zbekiston Respublikasi hududida majburiyatlar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish chog‘ida chetel valyutasidan, shuningdek chetel valyutasidagi to‘lov hujjatlaridan foydalanishga qonunchilikda belgilangan hollar, tartib va shartlar asosida yo‘l qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» gi (yangi tahrir) Qonunining 9-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududida tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun tariflar, narxlar, shu jumladan milliy elektron savdo maydonchalaridagi shunday tariflar, narxlar, shuningdek yuridik shaxslarning ustav fondlari (ustav kapitallari) miqdorlariga doir talablar faqat O‘zbekiston Respublikasi valyutasida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining chetel valyutalariga va shartli birliklarga bog‘lanishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Alohida hollarda, davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimlar va O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan investitsiya shartnomalari doirasida jalb etiladigan chetel investitsiyalari ishtirokida amalga oshiriladigan loyihalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi hududida realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlarining chetel valyutalariga va shartli birliklarga bog‘lanishiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida yo‘l qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 247-moddasiga muvofiq, qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq bazasini aniqlashda soliq to‘lovchining chetel valyutasida ifodalangan tushumi (xarajatlari) belgilangan tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

Agar sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi shartnomada tovarlarga (xizmatlarga) chetel valyutasida belgilangan summaga teng bo‘lgan summadagi milliy valyutada haq to‘lash nazarda tutilgan bo‘lsa hamda bunda realizatsiya qilingan tovarlarga (xizmatlarga) haq to‘langan sana ularni realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma amalga oshirilgan sanaga to‘g‘ri kelmasa, mazkur sanalarda chetel valyutasi kurslaridagi farq tufayli yuzaga kelgan tushum summasidagi ijobiy yoki salbiy farq qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliq bazasini belgilashda hisobga olinmaydi. Bunday ijobiy yoki salbiy farq foyda solig‘i bo‘yicha soliq solish bazasini aniqlashda boshqa daromadlar yoki boshqa xarajatlar tarkibida sotuvchi tomonidan hisobga olinishi lozim.

Mahsulot (ish, xizmat)larga chetel valyutasi ekvivalentida baho (tarif) belgilaydigan, to‘lovlarni esa, milliy valyuta - so‘mda oladigan korxonalar, mahsulot (ish, xizmat)larni sotish sanasidan to‘lov kelib tushgan (amalga oshirilgan) sanasigacha bo‘lgan davrda Markaziy bank kursining o‘zgarishi sababli vujudga kelgan ijobiy kurs farqini 9540 «Valyutalar kurslari farqidan daromadlar» schyotiga, salbiy kurs farqini esa 9620 «Valyutalar kurslari farqidan zararlar» schyotiga olib boradi.

Buxgalteriya hisobida kurs farqlarini to‘g‘ri aks ettirish uchun buxgalter boshlang‘ich hujjatlar qanday rasmiylashtirilganligini tekshirishi lozim.

SHunday qilib, shartnomada narx shartli birliklarning qat’iy summasida belgilangan bo‘lib, hisob-kitoblar esa so‘mdagi ekvivalentda amalga oshirilganda kurs farqlari vujudga kelishini e’tiborga olamiz.

Ushbu hollarda, schyot-fakturani topshirish sanasida yoki bajarilgan ishlar (xizmatlar) to‘g‘risidagi dalolatnomani imzolash sanasida sotuvchida tushum, xaridorda esa xarid qilingan

tovar (ish, xizmat)larning qiymati aniqlanadi. Bunda, schyot-faktura (dalolatnoma) chetel valyutasida yoki so‘mda tuzilishi mumkin. SHuni alohida ta’kidlash muhimki, ushbu hujjatlar bo‘yicha tushumning so‘mdagi ekvivalenti (tovarlar, ishlar, xizmatlar qiymati) schyot-faktura yoki dalolatnoma sanasidagi aynan kurs bo‘yicha, ya’ni tovarga bo‘lgan egalik huquqi o‘tishi, ishlar bajarilishi, xizmatlar ko‘rsatilishi sanasidagi kursi bo‘yicha hisoblanishi lozim.

Tovarlar, ishlar, xizmatlar uchun to‘lov sifatida kelib tushadigan so‘mdagi pul mablag‘larining haqiqiy summasi, xaridorning schyotidan so‘mdagi mablag‘larni o‘tkazib berish to‘g‘risidagi to‘lov topshiriqnomasi asosida aniqlanadi.

Shunday qilib, boshlang‘ich hujjatlardan ko‘rinib turibdiki, kurs farqi schyot-fakturani (ishlar bajarish, xizmat ko‘rsatish dalolatnomasi) tuzish sanasidagi kurs bilan xaridor schyotidan pul mablag‘lari o‘tkazib berilgan sanadagi kurs o‘rtasidagi farq hisobiga vujudga keladi.

Mahsulot (ish, xizmat)larga chetel valyutasi ekvivalentida baho (tarif) belgilaydigan, to‘lovlarni esa, milliy valyuta - so‘mda oladigan korxonalarda kurs farqi bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonada ishlab chiqargan mahsulotlarining narxi chetel valyutasida belgilanadi, to‘lov esa milliy valyuta so‘mda amalga oshiriladi. Ushbu misolni mahsulot narxiga ta’sir qiluvchi shartnoma shartlaridan kelib chiqib bir nechta holatlarda ko‘rib chiqamiz.

Tomonlar mahsulot oldi-sotdi shartnomasini tuzishdi. Shartnomaning «narx» bo‘limida quyidagicha ko‘rsatilgan: «Mahsulot narxi 1 150 AQSH dollarini tashkil etadi». «Hisob-kitob» bo‘limida quyidagicha belgilangan: «Hisob-kitoblar so‘mda pul mablag‘larini xaridor schyotidan o‘tkazib berish sanasidagi Markaziy bankning bir AQSH dollarini so‘mga nisbatan belgilangan kursi bo‘yicha amalga oshiriladi». Sotilgan mahsulotninng tannarxi 8 000 000 so‘mni tashkil etadi.

Ikkita holatni (mahsulotlar uchun to‘lov amalga oshirilgan sana va Markaziy bank kursidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

2021-yil 11-iyunda sotuvchi xaridorga mahsulotni topshirdi, hisobvaraq-fakturani rasmiylashtirib berdi, Markaziy bank tomonidan bir AQSH dollaring so‘mga nisbatan belgilangan kursi 2021-yil 11- iyunda 10 940 so‘mni tashkil qilgan. Tovarning qiymati 12 581 000 so‘mni, shu jumladan qo‘shilgan qiymat solig‘i 1 641 000 so‘mni tashkil qilgan.

2021-yil 28-iyunda xaridor bankka to‘lov topshiriqnomasini taqdim etdi. Bank xaridor schyotidan mablag‘larni o‘tkazib berdi. 2021-yil-28 iyunda Markaziy bank tomonidan bir AQSH dollaring so‘mga nisbatan belgilangan kursi 10 950 so‘mni tashkil qilgan. SHunday qilib, xaridor 12 592 500 so‘m o‘tkazib bergan.

Shunday qilib, shartnoma shartlari, hisobvaraq-faktura va to‘lov topshiriqnomasi ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki kurs farqi 11 500 so‘m ((1 150 AQSH dollari x (10 950 so‘m – 10 940 so‘m)) ni tashkil. Sotuvchida bu ijobiy kurs farqi bo‘ladi, xaridorda - salbiy kurs farqi.

Quyida sotuvchining buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini ko‘rib chiqamiz.

Agar korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblansa, uning buxgalteri 2021-yil 11-iyunda quyidagi yozuvlarni amalga oshiradi:

- mahsulotlarni sotishdan tushumni aks ettirish:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti	*12 581 000 so‘m;*
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti	*3 940 000 so‘m;*

kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha)» *1 641 000 so‘m;*
(12 581 000 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 3 940 so‘m);
(10 940 000 so‘m = 1 000 AQSH dollari x 10 940 so‘m);
(1 641 000 so‘m = 150 AQSH dollari x 10 940 so‘m);
- sotilgan tayyor mahsulotni tannaxini hisobdan chiqarish:
debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning
tannarxi» schyoti *8 000 000 sum;*
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti *8 000 000 so‘m.*

Agar korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblanmasa, uning buxgalteri 2021-yil 11-iyunda quyidagi yozuvlarni amalga oshiradi:

- mahsulolarni sotishdan tushumni aks ettirish:
debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti *12 581 000 so‘m;*
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan
daromadlar» schyoti *12 581 000 so‘m;*
(3 528 000 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 940 so‘m);
- sotilgan tayyor mahsulotni tannaxini hisobdan chiqarish:
debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning
tannarxi» schyoti *8 000 000 sum;*
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti *8 000 000 so‘m.*

2021-yil 28-iyunda xaridor qarzining qoplanishini buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- xaridordan pul mablag‘lari kelib tushganda:
debet pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar *12 592 500 so‘m;*
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti *12 581 000 so‘m;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan
daromadlar» schyoti *11 500 so‘m;*
(12 592 500 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m);
(12 581 000 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 940 so‘m);
(11 500 so‘m = 12 592 500 so‘m - 12 581 000 so‘m);
- agar korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblansa, qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha byudjetga qarzdorlik qoplanganda:
debet schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha)» *1 641 000 so‘m;*
kredit pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar *1 641 000 so‘m.*

Quyida xaridorning buxgalteriya hisobida aks ettrilish tartibini ko‘rib chiqamiz.

Agar korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblansa, uning buxgalteri 2021-yil 11-iyunda quyidagi yozuvlarni amalga oshiradi:

- materiallarni xarid qilish:
debet 1010 «Xomashyo va materiallar» *10 940 000 so‘m;*
debet 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha
bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti *1 641 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga

to‘lanadigan schyotlar» schyoti 12 581 000 so‘m;
(10 940 000 so‘m = 1 000 AQSH dollari x 10 940 so‘m);
(1 641 000 so‘m = 150 AQSH dollari x 10 940 so‘m);
(12 581 000 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 940 so‘m).

Agar korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblanmasa, uning buxgalteri 2021-yil 11-iyunda quyidagi yozuvlarni amalga oshiradi:

- materiallarni xarid qilish:

debet 1010 «Xomashyo va materiallar» 12 581 000 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 12 581 000 so‘m;
(12 581 000 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 940 so‘m);

2021-yil 28-iyunda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar amalga oshiriladi:

- mol yetkazib beruvchi oldidagi qarz qoplanganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 12 581 000 so‘m;
debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti» 11 500 so‘m;
kredit pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar 12 592 500 so‘m;
(12 581 000 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 940 so‘m);
(12 592 500 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m);
(11 500 so‘m = 12 581 000 so‘m - 12 592 500 so‘m).

Hisob-kitoblar shartli birliklarda amalga oshirilishi nazarda tutilgan shartnomalarda, shuningdek hisob-kitoblarning avansli shakli to‘g‘risidagi shartlar mavjud bo‘lsa ba’zida buxgalterlar xatoga yo‘l qo‘yishadi. Xatolar mazmuni asosan shundan iboratki, kelib tushgan avans summasini sotuvchining buxgalteri to‘lov kundagi kurs bo‘yicha tushum sifatida hisobga oladi, xaridor buxgalteri esa to‘langan avans summasi bo‘yicha moddiy qiymatlik boylik (ish, xizmat)larni kirim qiladi.

Shunday bo‘lsada, agar hisobvaraq-faktura (bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar dalolatnomasi) avans to‘lab berilgan sanadan keyin kunlarda imzolangan bo‘lsa, u holda tushum (moddiy qiymatliklar, ishlar, xizmatlar qiymati) hisobvaraq-faktura imzolash sanasidagi kurs bilan hisoblash lozim.

2-holat:

2021-yil 11-iyunda xaridor avansni (100% oldindan to‘lov) o‘tkazib berish uchun bankka to‘lov topshiriqnomasini taqdim etdi. Bank xaridor schyotidan mablag‘larni o‘tkazib berdi. Markaziy bank tomonidan bir AQSH dollarining so‘mga nisbatan belgilangan kursi 2021-yil 11-iyunida 10 940 so‘mni tashkil qilgan. SHunday qilib, xaridor 12 581 000 so‘m o‘tkazib bergan.

2021-yil 28-iyunda sotuvchi xaridorga mahsulotni topshirdi, hisobvaraq-fakturani rasmiylashtirib berdi, Markaziy bank tomonidan bir AQSH dollarining so‘mga nisbatan belgilangan kursi 2021-yil 28-iyunda 10 950 so‘mni tashkil qilgan. Tovarning qiymati 12 592 500 so‘mni, shu jumladan qo‘shilgan qiymat solig‘i 1 642 500 so‘mni tashkil qilgan.

Ushbu holatda 2021-yil 11-iyunda xaridor 1 150 AQSH dollarining so‘mdagi ekvivalentini, ya’ni 12 581 000 so‘m (1 150 AQSH dollari x 10 940 so‘m) ni avans sifatida to‘lab berilishini aks ettiradi. Sotuvchi esa shu summaga avans to‘lovi kelib tushganini aks ettiradi.

2021-yil 28-iyun kuni tovarlar xaridorga topshirilgan. Hisobvaraq-faktura bo‘yicha tovarlar qiymati quyidagicha bo‘lgan: 12 592 500 so‘m (1 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m).

Shunday qilib, shartnoma shartlari, hisobvaraq-faktura va to‘lov topshiriqnomasi ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki kurs farqi 11 500 so‘m ((1 150 AQSH dollari x (10 950 so‘m – 10 940 so‘m) ni tashkil etadi. Sotuvchida bu salbiy kurs farqi bo‘ladi, xaridorda – ijobiy kurs farqi.

Quyida sotuvchining buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini ko‘rib chiqamiz.

2017-yil 11-iyunda sotuvchi buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlarni amalga oshiradi:

- xaridordan avans ko‘rinishida pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar 12 581 000 so‘m;
kredit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti 12 581 000 so‘m;

(12 581 000 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 940 so‘m).

Agar korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblansa, uning buxgalteri 2017-yil 28-iyunda quyidagi yozuvlarni amalga oshiradi:

- mahsulotlarni sotishdan tushumni aks ettirish:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 12 592 500 so‘m;
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti 10 950 000 so‘m;
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» 590 000 so‘m;

(12 592 500 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m);
(10 950 000 so‘m = 1 000 AQSH dollari x 10 950 so‘m);
(1 642 500 so‘m = 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m);

- sotilgan tayyor mahsulotni tannaxini hisobdan chiqarish:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti 8 000 000 sum;
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti 8 000 000 so‘m;

- xaridordan oldin olingan avans summasi qoplashga olib borilgan:

debet 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti 12 581 000 so‘m;
debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyoti» 11 500 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 12 592 500 so‘m;

(12 581 000 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 940 so‘m).
(-11 500 so‘m = 12 581 000 so‘m – 12 592 500 so‘m);
(12 592 500 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m);

- qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha byudjetga qarzdorlik qoplanganda:

debet schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» 1 642 500 so‘m;
kredit pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar 1 642 500 so‘m.

Agar korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblanmasa, uning buxgalteri 2017-yil 11-iyunda quyidagi yozuvlarni amalga oshiradi:

- mahsulotlarni sotishdan tushumni aks ettirish:
debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *12 592 500 so‘m;*
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti *12 592 500 so‘m;*
(12 592 500 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m);
- sotilgan tayyor mahsulotni tannaxini hisobdan chiqarish:
debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti *8 000 000 sum;*
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti *8 000 000 so‘m;*
- xaridordan oldin olingan avans summasi qoplashga olib borilgan:
debet 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti *12 581 000 so‘m;*
debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyoti» *11 500 so‘m;*
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *12 592 500 so‘m;*
(12 581 000 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 940 so‘m).
(-11 500 so‘m = 12 581 000 so‘m – 12 592 500 so‘m);
(12 592 500 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m).
Quyida xaridorning buxgalteriya hisobida aks ettirilish tartibini ko‘rib chiqamiz.
2021-yil 11-iyunda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlarni amalga oshiradi:
- mol yetkazib beruvchiga avans ko‘rinishida pul mablag‘lari o‘tkazib berilganda:
debet 4310 «TMQ lar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» schyoti *12 581 000 so‘m;*
kredit pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar *12 581 000 so‘m;*
(12 581 000 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 940 so‘m).
***2021-yil 28-iyunda buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlarni amalga oshiradi**:*
Agar korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblansa, uning buxgalteri 2021-yil 28-iyunda quyidagi yozuvlarni amalga oshiradi:
- materiallarni xarid qilish:
debet 1010 «Xomashyo va materiallar» *10 950 000 so‘m;*
debet 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti *1 642 500 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *12 592 500 so‘m;*
(10 950 000 so‘m = 1 000 AQSH dollari x 10 950 so‘m);
(1 642 500 so‘m = 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m);
(12 592 500 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m);
- mol yetkazib beruvchiga oldin berilgan avans summasi qoplashga olib borilganda:
debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti *12 592 500 so‘m;*
kredit 4310 «TMQ lar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» schyoti *12 581 000 so‘m;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan

daromadlar» schyoti *11 500 so‘m;*
(12 592 500 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m);
(12 581 000 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 940 so‘m);
(11 500 so‘m = 12 592 500 so‘m - 12 581 000 so‘m).

Agar korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblanmasa, uning buxgalteri 2021-yil 28-iyunda quyidagi yozuvlarni amalga oshiradi:

- materiallarni xarid qilish:

debet 1010 «Xomashyo va materiallar» *12 592 500 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *12 592 500 so‘m;*
(12 592 500 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m);

- mol yetkazib beruvchiga oldin berilgan avans summasi qoplashga olib borilganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *12 592 500 so‘m;*
kredit 4310 «TMQ lar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
berilgan bo‘naklar» schyoti *12 581 000 so‘m;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan
daromadlar» schyoti *11 500 so‘m;*
(12 592 500 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 950 so‘m);
(12 581 000 so‘m = 1 150 AQSH dollari x 10 940 so‘m);
(11 500 so‘m = 12 592 500 so‘m - 12 581 000 so‘m).

Ko‘pincha buxgalterlar yana quyidagi savolni berishadi: hisob-kitoblar shartli birliklarda amalga oshirilganda schyot-fakturani qanday to‘g‘ri rasmiylashtirish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq hisobvarq-fakturada tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati va qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi milliy valyutada ko‘rsatiladi. Tuzilgan shartnomalarning shartlariga binoan tovarlariga, ishlari va xizmatlariga narxlar (tariflar) chetel valyutasida belgilanadigan yuridik shaxslar hisobvaraq-fakturalarda summasini chetel valyutasini hisobvaraq-faktura yozib berilgan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha qayta hisoblagan holda milliy valyutada ifodalaydi. Chetel valyutasi kurslaridagi farq tufayli yuzaga kelgan tushum summasidagi ijobiy yoki salbiy farq summalariga yangi hisobvaraq-faktura yozilmaydi.

3-§. Valyuta kurs farqlari hisobi

Korxonalar har oyda balansning valyuta moddalarini hisobot oyining oxirgi sanasidagi va xo‘jalik operatsiyalarini sodir etish sanasidagi Markaziy bankning kursi bo‘yicha qayta baholashni amalga oshiradi.

Qayta baholash va kurs farqlarini aniqlash maqsadida balansning valyuta moddalariga quyidagilar kiritiladi:

- kassadagi va bank hisobvaraqlaridagi valyuta mablag‘lari;
- to‘lanishi yoki olinishi chetel valyutasida belgilangan debitorlik va kreditorlik qarzlari, kreditlar va qarzlar, pul ekvivalentlari va boshqa aktivlar va majburiyatlar.

Quyidagilar qayta baholanmaydi:

- Chetel valyutasiga sotib olingan korxonaning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari, o‘rnatiladigan asbob-uskunalari, kapital qo‘yilmalari, tovar-moddiy zaxiralari;

- korxona, shuningdek xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar ustav kapitalining miqdorlari va ta'sischilari (ishtirokchilari) ulushlarining nisbati;

- ustav kapitaliga va aksiyalarga investitsiyalar.

Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarni hisobga olish bo'yicha buxgalteriya hisobining me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq yuzaga kelgan (kelib chiqqan) kurs farqlari korxonaning xohishiga ko'ra moliyaviy natijalarga to'g'ridan-to'g'ri (keyingi o'rinlarda ***to'g'ri olib borish usuli*** deb yuritiladi) yoki jamlash (keyingi o'rinlarda ***jamg'arish usuli*** deb yuritiladi) yo'li bilan kiritiladi.

Korxonaning moliyaviy natijalariga olib borilgan ijobiy (salbiy) kurs farqi moliyaviy faoliyatning daromadlari (xarajatlari) tarkibida hisobga olinadi.

To'g'ridan-to'g'ri olib borish usulida kurs farqlari moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga paydo bo'lishiga qarab kiritiladi. Balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash natijasida vujudga keladigan kurs farqlari to'g'ri olib borish usuli qo'llanilganda moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqariladi va buxgalteriya hisobida quyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

- ijobiy kurs farqi – 9540 «Valyutalar kurslari farqidan daromadlar» schyotining kredeti bo'yicha;

- salbiy kurs farqi – 9620 «Valyutalar kurslari farqidan zararlar» schyotining debeti bo'yicha.

Balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash natijasida vujudga keladigan kurs farqlari jamg'arish usuli qo'llanilganda ular vujudga kelgan vaqtda moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga olib borilmaydi va buxgalteriya hisobida quyidagi schyotlarda aks ettiriladi:

- ijobiy kurs farqi – 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyotining krediti bo'yicha – ularning joriy qismi va (yoki) 7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» schyotining krediti bo'yicha – ularning uzoq muddatli qismi;

- salbiy kurs farqi – 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyotining debeti bo'yicha – ularning joriy qismi va (yoki) 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyotining debeti bo'yicha – ularning uzoq muddatli qismi.

2019-yil 1-yanvardan boshlab jamg'arish usuli qo'llanilmaydi. 2019-yil 1- yanvargacha jamg'arilgan kurs farqlari moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga quyidagicha olib borilishi mumkin:

- Chetel valyutasidagi debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha — ularning to'lanishiga (yoki hisobdan chiqarilishiga) qarab;

- qolgan hollarda — balansning tegishli valyuta moddalari bilan xo'jalik operatsiyalarining sodir etilishiga qarab.

Kurs farqlaridan vujudga kelgan uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar va xarajatlarning joriy qismini o'tkazish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ijobiy kurs farqi bo'yicha vujudga kelgan uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlarning joriy qismi o'tkazilganda:

debet 7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» schyoti;

kredit 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti;

- salbiy kurs farqi bo'yicha vujudga kelgan uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi o'tkazilganda:

debet 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti;

kredit 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyoti;

Jamg'arilgan kurs farqlarini moliyaviy-xo'jalik faoliyatining natijalariga chetel valyutasidagi

debitorlik va kreditorlik qarzlari bo‘yicha - ularning to‘lanishi (yoki hisobdan chiqarilishi) bo‘yicha, boshqa hollarda esa - balansning tegishli valyuta moddalari bilan xo‘jalik operatsiyalari amalga oshirilishi bo‘yicha olib borish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ijobiy kurs farqi:

debet 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti;

kredit 9540 «Valyutalar kurslari farqidan daromadlar» schyoti;

- salbiy kurs farqi:

debet 9620 «Valyutalar kurslari farqidan zararlar» schyoti;

kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti.

Kurs farqlarini moliyaviy natijalarga olib borish va korxonaning buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Bank bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq 2018-yil 1-iyunda «Doyche-bank» ning kredit liniyasi bo‘yicha summasi 20 000 yevro bo‘lgan kredit olgan. Kreditning shartlari quyidagilardan iborat: kredit muddati – 5 yil; kredit 5 000 yevro summada har yili to‘rt martalik teng maromdagi to‘lovlar bilan qoplanadi, bunda birinchi to‘lov kredit muddatini ikkinchi yilining oxirida amalga oshiriladi; kredit bo‘yicha foiz stavkasi 9% va u har oyda hisoblab boriladi; foizlar har yarim yilda to‘lanib boriladi; foizlar kechiktirilib boriladigan imtiyozli davr mobayni bir yilga teng (ushbu davr mobaynida foizlar hisoblanadi, biroq ular imtiyozli davr tugagungacha to‘lanmaydi); kreditni qoplash milliy valyutada to‘lash kunida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yevroga nisbatan o‘rnatgan kursi bo‘yicha amalga oshiriladi. Bizning shartli misolimizda, har chorakning oxirida kredit bo‘yicha foizlarni hisoblaydi va ushbu balansning valyuta moddalari bo‘yicha qayta baholashni amalga oshiradi. Yuqorida valyuta moddalarini qayta baholash har oyning oxirida amalga oshirilishi belgilab qo‘yilgan bo‘lsa ham, hisob-kitoblarni osonlashtirish va kamaytirish maqsadida, ushbu misolda valyutada ifodalangan kreditning qoldig‘ini qayta baholash va kredit bo‘yicha foizlar hisoblash har chorakning oxirida amalga oshiriladi deb faraz qildik. Valyuta kurslari misol uchun taxminiy olingan.

Chetel valyutasidagi krediti bilan bog‘liq hisob-kitoblari 2018-yilning 1-iyunidan 2020-yilning 30-iyunigacha bo‘lgan davr uchun quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

№	Sana	Operatsiyaning mazmuni	Summasi yevroda	1 yevro uchun MB kursi	Summa ming so‘mda
1	1.06.2018 y.	Kreditni olish	€ 20 000	9 340 so‘m	186 800
2	30.06.2018 y.	a) kredit bo‘yicha foiz hisoblash	€ 150[1]	9 380 so‘m	1 407
		b) kredit summasini qayta baholash	€ 20 000	9 380 so‘m	187 600
3	30.09.2018 y.	a) kredit bo‘yicha foiz hisoblash	€ 450[2]	9 530 so‘m	4 288,5
		qayta baholash: b) kredit summasi va v) kredit bo‘yicha to‘lanadigan oldingi foizlar summasi	€ 20 000 € 150	9 530 so‘m	190 600 1 429,5
4	31.12.2018 y.	a) kredit bo‘yicha foiz hisoblash	€ 450[2]	9 510 so‘m	4 279,5
		qayta baholash: b) kredit summasi va v) kredit bo‘yicha to‘lanadigan oldingi foizlar summasi	€ 20 000 € 600	9 510 so‘m	190 200 5 706

5	31.03.2019 y.	a) kredit bo‘yicha foiz hisoblash	€ 450[2]	9 600 so‘m	4 320
		qayta baholash: b) kredit summasi va v) kredit bo‘yicha to‘lanadigan oldingi foizlar summasi	€ 20 000 € 1050	9 600 so‘m	192 000 10 080
6	30.06.2019 y.	a) kredit bo‘yicha foiz hisoblash	€ 450[2]	9 700 so‘m	4 365
		qayta baholash: b) kredit summasi va v) kredit bo‘yicha to‘lanadigan oldingi foizlar summasi	€ 20 000 € 1500	9 700 so‘m	194 000 14 550
7	30.09.2019 y.	a) kredit bo‘yicha foiz hisoblash	€ 450[2]	9 650 so‘m	4 324,5
		qayta baholash: b) kredit summasi va v) kredit bo‘yicha to‘lanadigan oldingi foizlar summasi	€ 20 000 € 1950	9 650 so‘m	193 000 18 817,5
8	30.11.2019 y.	a) kredit bo‘yicha foiz hisoblash	€ 300[3]	9 950 so‘m	2 985
		b) kredit bo‘yicha to‘lanadigan oldingi foizlar summasi qayta baholash va ular (shu jumladan oldin hisoblanganlari) ni to‘lash	€ 2 700[4]	9 950 so‘m	26 865
9	31.12.2019 y.	a) kredit bo‘yicha foiz hisoblash	€ 150[1]	10 030 so‘m	1 504,5
		b) kredit summasini qayta baholash	€ 20 000	10 030 so‘m	200 600
10	31.03.2020 y.	a) kredit bo‘yicha foiz hisoblash	€ 450[3]	10 140 so‘m	4 563
		qayta baholash: b) kredit summasi va v) kredit bo‘yicha to‘lanadigan oldingi foizlar summasi	€ 20 000 € 150	10 140 so‘m	202 800 1 521
11	31.05.2020 y.	a) kredit bo‘yicha foiz hisoblash	€ 300	10 160 so‘m	3 048
		b) kredit bo‘yicha foizlar (shu jumladan oldin hisoblanganlari) ni to‘lash	€ 900	10 160 so‘m	9 144
		v) kredit summasini qayta baholash va uning qismi qoplash	€ 5 000	10 160 so‘m	50 800
12	30.06.2020 y.	a) kredit bo‘yicha foiz hisoblash	€ 112,5[5]	10 150 so‘m	1 141,9
		b) kredit summasini qayta baholash	€ 15 000	10 150 so‘m	152 250

Izoh: [1] (20 000 x 0,09) / 12 = 150;
[2] (20 000 x 0,09) x 3/12 = 450;
[3] (20 000 x 0,09) x 2/12 = 300;
[4] 150 + 450 + 450 + 450 +450 + 450 +300 = 2 700;
[5] (15 000 x 0,09) / 12 = 112,5;

Balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan paydo bo‘ladigan kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borishniing ikki usuli (to‘g‘ri usul va jamg‘arish usuli) dan foydalanilganda chetel valyutasidagi kredit bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirilishini ko‘rib chiqamiz:

2018-yil 1-iyun holatiga buxgalteriya yozuvlari:

- kreditni olish:

debet 5530 «Boshqa maxsus schyotlar» schyoti 186 800 000 so‘m;
kredit 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti 186 800 000 so‘m;

(186 800 000 so‘m = 20 000 yevro x 9 340 so‘m).

2018-yil 30-iyun holatiga buxgalteriya yozuvlari:

- kredit bo‘yicha foiz hisoblash:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti 1 407 000 so‘m;
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 1 407 000 so‘m;

(1 407 000 so‘m = 150 yevro x 9 380 so‘m);

- to‘g‘ri usulda kreditning asosiy summasining uzoq muddatli qismini qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyoti 800 000 so‘m;
kredit 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti 800 000 so‘m;

(- 800 000 so‘m = 186 800 000 so‘m - 187 600 000 so‘m);

- jamg‘arish usulida kreditning assoiy summasining uzoq muddatli qismini qayta baholash:

debet 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 800 000 so‘m;
kredit 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti 800 000 so‘m;

(- 800 000 so‘m = 186 800 000 so‘m - 187 600 000 so‘m).

2018-yil 30-sentyabr holatiga buxgalteriya yozuvlari:

- kredit bo‘yicha foiz hisoblash:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti 4 288 500 so‘m;
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 4 288 500 so‘m;

(4 288 500 so‘m = 450 yevro x 9 530 so‘m);

- to‘g‘ri usulda kreditning asosiy summasining uzoq muddatli qismini qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyoti 3 000 000 so‘m;
kredit 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti 3 000 000 so‘m;

(- 3 000 000 so‘m = 187 600 000 so‘m – 190 600 000 so‘m);

- jamg‘arish usulida kreditning asosiy summasining uzoq muddatli qismini qayta baholash:

debet 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 3 000 000 so‘m;
kredit 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti 3 000 000 so‘m;

(- 3 000 000 so‘m = 187 600 000 so‘m – 190 600 000 so‘m);

- to‘g‘ri usulda kredit bo‘yicha to‘lanadigan foizlarning oldingi summalari (davr uchun foizlar hisoblangungacha bo‘lgan summalar) ni qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti *22 500 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foilar» schyoti *22 500 so‘m;*

(- 22 500 so‘m = 1 407 000 so‘m - 1 429 500 so‘m);

- jamg‘arish usulida kredit bo‘yicha to‘lanadigan foizlarning oldingi summalari (davr uchun foizlar hisoblangungacha bo‘lgan summalar) ni qayta baholash:

debet 3230 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti *22 500 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *22 500 so‘m;*

(- 22 500 so‘m = 1 407 000 so‘m - 1 429 500 so‘m).

2018-yil 31-dekabr holatiga buxgalteriya yozuvlari:

- kredit bo‘yicha foiz hisoblash:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi
xarajatlar» schyoti *4 279 500 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *4 279 500 so‘m;*

(4 279 500 so‘m = 450 yevro x 2 510 so‘m);

- to‘g‘ri usulda kreditning asosiy summasining uzoq muddatli qismini qayta baholash:

debet 7810 «Uzoq muddatli bank
kreditlari» schyoti *400 000 so‘m;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan
daromadlar» schyoti *400 000 so‘m;*

(400 000 so‘m = 190 600 000 so‘m – 190 200 000 so‘m);

- jamg‘arish usulida kreditning asosiy summasining uzoq muddatli qismini qayta baholash:

debet 7810 «Uzoq muddatli bank
kreditlari» schyoti *400 000 so‘m;*
kredit 7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan
daromalar» schyoti *400 000 so‘m;*

(400 000 so‘m = 190 600 000 so‘m – 190 200 000 so‘m);

- to‘g‘ri usulda kredit bo‘yicha to‘lanadigan foizlarning oldingi summalari (davr uchun foizlar hisoblangungacha bo‘lgan summalar) ni qayta baholash:

debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *12 000 so‘m;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan
daromadlar» schyoti *12 000 so‘m;*

(12 000 so‘m = (1 429 500 so‘m + 4 288 500 so‘m) – 5 706 000 so‘m);

- jamg‘arish usulida kredit bo‘yicha to‘lanadigan foizlarning oldingi summalari (davr uchun foizlar hisoblangungacha bo‘lgan summalar) ni qayta baholash:

debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *12 000 so‘m;*
kredit 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» *12 000 so‘m;*

(12 000 so‘m = (1 429 500 so‘m + 4 288 500 so‘m) – 5 706 000 so‘m).

Yuqorida aytib o‘tganimizdek 2019-yil 1-yanvardan boshlab jamg‘arish usulidan foydalanilmaydi. Balki 2019 -yil 1-yanvargacha jamg‘arilgan kurs farqlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga belgilangan tartibda olib borilishi mumkin. Korxona 2019- yil hisob siyosatiga kurs farqlarini moliyaviy natijalarga olib borishni to‘g‘ri usulda amalga oshirilishi bo‘yicha

o‘zgartirish kiritadi va hisobni quyidagi tarzda davom ettiradi.

2019-yil 31-mart holatiga buxgalteriya yozuvlari:

- kredit bo‘yicha foiz hisoblash:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi
xarajatlar» schyoti *4 320 000 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *4 320 000 so‘m;*

(4 320 000 so‘m = 450 yevro x 9 600 so‘m);

- kreditning asosiy summasining uzoq muddatli qismini qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti *1 800 000 so‘m;*
kredit 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti *1 800 000 so‘m;*

(- 1 800 000 so‘m = 190 200 000 so‘m – 192 000 000 so‘m);

- kredit bo‘yicha to‘lanadigan foizlarning oldingi summalari (davr uchun foizlar hisoblangungacha bo‘lgan summalar) ni qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti *945 000 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *945 000 so‘m;*

(- 945 000 so‘m = (4 279 500 so‘m + 5 706 000 so‘m) – 10 080 000 so‘m);

2019-yil 30-iyun holatiga buxgalteriya yozuvlari:

- kredit bo‘yicha foiz hisoblash:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi
xarajatlar» schyoti *4 365 000 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *4 365 000 so‘m;*

(4 365 000 so‘m = 450 yevro x 9 700 so‘m);

- kreditning asosiy summasining uzoq muddatli qismini qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti *2 000 000 so‘m;*
kredit 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti *2 000 000 so‘m;*

(- 2 000 000 so‘m = 192 000 000 so‘m – 194 000 000 so‘m);

- kredit bo‘yicha to‘lanadigan foizlarning oldingi summalari (davr uchun foizlar hisoblangungacha bo‘lgan summalar) ni qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti *150 000 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *150 000 so‘m;*

(- 150 000 so‘m = (10 080 000 so‘m + 4 320 000 so‘m) – 14 550 000 so‘m);

- uzoq muddatli bank kreditining joriy qismi ajratilganda:

debet 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti *48 500 000 so‘m;*
kredit 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar–
joriy qismi» schyoti *48 500 000 so‘m;*

(48 500 000 so‘m = 194 000 000 so‘m x ¼);

- uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi ajratilganda:

debet 3230 «Boshqa kechiktirilgan
xarajatlar» schyoti *950 000 so‘m;*
kredit 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan
xarajatlar» schyoti *950 000 so‘m;*

(3 800 000 so‘m = 800 000 so‘m + 3 000 000 so‘m);
(950 000 so‘m = 3 800 000 so‘m x ¼);
- uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlarning joriy qismi ajratilganda:
debet 7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» schyoti *1 000 000 so‘m;*
kredit 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti *1 000 000 so‘m;*
(100 000 so‘m = 400 000 so‘m x ¼).

2019-yil 30-sentyabr holatiga buxgalteriya yozuvlari:

- kredit bo‘yicha foiz hisoblash:
debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti *4 324 500 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *4 324 500 so‘m;*
(4 324 500 = 450 yevro x 9 650 sum);
- kreditning asosiy summasining uzoq muddatli qismini qayta baholash:
debet 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti *750 000 so‘m;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan daromadlar» schyoti *750 000 so‘m;*
(750 000 so‘m = 145 500 000 so‘m – 144 750 000 so‘m);
- kredit asosiy summasining joriy qismini qayta baholash:
debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar– joriy qismi» schyoti *250 000 so‘m;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan daromadlar» schyoti *250 000 so‘m;*
(250 000 so‘m = 48 500 000 so‘m – 48 250 000 so‘m);
- kredit bo‘yicha to‘lanadigan foizlarning oldingi summalari (davr uchun foizlar hisoblangungacha bo‘lgan summalar) ni qayta baholash:
debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *97 500 so‘m;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan daromadlar» schyoti *97 500 so‘m;*
(97 500 so‘m = (14 550 000 so‘m + 4 365 000 so‘m) – 18 817 500 so‘m);

2019-yil 30-noyabr holatiga buxgalteriya yozuvlari:

- kredit bo‘yicha foiz hisoblash:
debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti *2 985 000 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *2 985 000 so‘m;*
(2 985 000 so‘m = 300 yevro x 9 950 so‘m);
- kredit bo‘yicha to‘lanadigan foizlarning oldingi summalari (davr uchun foizlar hisoblangungacha bo‘lgan summalar) ni qayta baholash:
debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyoti *738 000 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *738 000 so‘m;*
(23 880 000 so‘m = 26 865 000 so‘m – 2 985 000 so‘m);
(- 7 200 000 so‘m = (18 817 500 so‘m + 4 324 500 so‘m) – 23 880 000 so‘m);
- kredit bo‘yicha hisoblangan to‘lanadigan foizlarni to‘lash:
debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *26 865 000 so‘m;*

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *26 865 000 so‘m;*

(2 700 yevro = 150 + 450 + 450 + 450 +450 +450 + 300);

(26 865 000 so‘m = 2 700 yevro x 9 950 so‘m).

Bir vaqtning o‘zida jamg‘arish usulida 2019-yil 1-yanvar holatiga jamg‘arilgan kurs farqi summasiga quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

- hisoblangan foizlar bo‘yicha jamg‘arilgan salbiy kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borish:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyoti *22 500 so‘m;*

kredit 3230 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti *22 500 so‘m;*

(37 500 so‘m = 22 500 so‘m);

- hisoblangan foizlar bo‘yicha jamg‘arilgan ijobiy kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borish:

debet 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti *12 000 so‘m;*

kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan daromadlar» schyoti *12 000 so‘m.*

2019-yil 31-dekabr holatiga buxgalteriya yozuvlari:

- kredit bo‘yicha foiz hisoblash:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti *1 504 500 so‘m;*

kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *1 504 500 so‘m;*

(1 504 500 so‘m = 150 yevro x 10 030 so‘m);

- kredit asosiy summasining uzoq muddatli qismini qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyoti *5 700 000 so‘m;*

kredit 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti *5 700 000 so‘m;*

(- 5 700 000 so‘m = 144 750 000 so‘m – 150 450 000 so‘m);

- kredit asosiy summasining joriy qismini qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyoti *1 900 000 so‘m;*

kredit 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar– joriy qismi» schyoti *1 900 000 so‘m;*

(- 1 900 000 so‘m = 48 250 000 so‘m – 50 150 000 so‘m);

2020-yil 31-mart holatiga buxgalteriya yozuvlari:

- kredit bo‘yicha foiz hisoblash:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyoti *4 563 000 so‘m;*

kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *4 563 000 so‘m;*

(4 563 000 so‘m = 450 yevro x 10 140 so‘m);

- kredit asosiy summasining uzoq muddatli qismini qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyoti *1 650 000 so‘m;*

kredit 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti *1 650 000 so‘m;*

(-1 650 000 so‘m = 150 450 000 so‘m – 152 100 000 so‘m);

- kredit asosiy summasining joriy qismini qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti *550 000 so‘m;*
kredit 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar–
joriy qismi» schyoti *550 000 so‘m;*

(- 550 000 so‘m = 50 150 000 so‘m – 50 700 000 so‘m);

- kredit bo‘yicha to‘lanadigan foizlarning oldingi summalari (davr uchun foizlar hisoblangungacha bo‘lgan summalar) ni qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti *16 500 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *16 500 so‘m;*

(- 16 500 so‘m = 1 504 500 so‘m – 1 521 000 so‘m);

2020-yil 31-may holatiga buxgalteriya yozuvlari:

- kredit bo‘yicha foiz hisoblash:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi
xarajatlar» schyoti *3 048 000 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *3 048 000 so‘m;*

(3 048 000 so‘m = 300 yevro x 10 160 so‘m);

- kredit bo‘yicha to‘lanadigan foizlarning oldingi summalari (davr uchun foizlar hisoblangungacha bo‘lgan summalar) ni qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti *12 000 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *12 000 so‘m;*

(6 096 000 so‘m = 9 144 000 so‘m – 3 048 000 so‘m);

(- 12 000 so‘m = (1 521 000 so‘m + 4 563 000 so‘m) – 6 096 000 so‘m);

- kredit bo‘yicha hisoblangan to‘lanadigan foizlarni to‘lash:

debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *9 144 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *9 144 000 so‘m;*

(900 yevro = 150 + 450 + 300);

(9 144 000 so‘m = 900 yevro x 10 160 so‘m).

- kredit asosiy summasining uzoq muddatli qismini qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti *300 000 so‘m;*
kredit 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti *300 000 so‘m;*

(- 300 000 so‘m = 152 100 000 so‘m – 152 400 000 so‘m);

- kredit asosiy summasining joriy qismini qayta baholash:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti *100 000 so‘m;*
kredit 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar –
joriy qismi» schyoti *100 000 so‘m;*

(- 100 000 so‘m = 50 700 000 so‘m – 50 800 000 so‘m);

- kredit asosiy summasining joriy qismini qoplanishi:

debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar–
joriy qismi» schyoti *50 800 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *50 800 000 so‘m;*

(50 800 000 sum = 5 000 yevro x 10 160 sum).

Bir vaqtning o‘zida jamg‘arish usulida 2019-yil 1-yanvar holatiga jamg‘arilgan kurs farqi summasiga quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

- kredit asosiy summasining joriy qismi bo‘yicha jamg‘arilgan salbiy kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borish:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti *950 000 so‘m;*
kredit 3230 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti *950 000 so‘m;*

- kredit asosiy summasining joriy qismi bo‘yicha jamg‘arilgan ijobiy kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borish:

debet 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti *100 000 so‘m;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan
daromadlar» schyoti *100 000 so‘m;*

- uzoq muddatli bank kreditining joriy qismi ajratilganda:

debet 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti *50 800 000 so‘m;*
kredit 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar–
joriy qismi» schyoti *50 800 000 so‘m;*

(50 800 000 so‘m = 152 400 000 so‘m x 1/3);

- uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi ajratilganda:

debet 3230 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti *950 000 so‘m;*
kredit 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan
xarajatlar» schyoti *950 000 so‘m;*

(2 850 000 so‘m = 3 800 000 so‘m – 950 000 so‘m);
(950 000 so‘m = 2 850 000 so‘m x $^{1}/_{3}$);

- uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlarning joriy qismi ajratilganda:

debet 7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan
daromadlar» schyoti *100 000 so‘m;*
kredit 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti *100 000 so‘m;*

(300 000 so‘m = 400 000 so‘m - 100 000 so‘m);
(100 000 so‘m = 300 000 so‘m x $^{1}/_{3}$).

2020-yil 30-iyun holatiga buxgalteriya yozuvlari:

- kredit bo‘yicha foiz hisoblash:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi
xarajatlar» schyoti *1 141 900 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *1 141 900 so‘m;*

(1 141 900 so‘m = 112,5 yevro x 10 150 so‘m);

- kredit asosiy summasining uzoq muddatli qismini qayta baholash:

debet 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti *100 000 so‘m;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan
daromadlar» schyoti *100 000 so‘m;*

(1 000 000 so‘m = 101 600 000 so‘m – 101 500 000 so‘m);

- kredit asosiy summasining joriy qismini qayta baholash:

debet 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar–
joriy qismi» schyoti *50 000 so‘m;*
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan
daromadlar» schyoti *50 000 so‘m;*

(500 000 so‘m = 50 800 000 so‘m – 50 750 000 so‘m).

Balans valyuta moddalarining har xil turlariga kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borishning turli usullari qo‘llanishiga ruxsat etiladi. Bundan shu anyon bo‘ladiki korxona bir vaqtning o‘zida balansning chetel valyutasidagi pul mablag‘lari va debitorlik qarzlari valyuta moddalari bo‘yicha kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borishning to‘g‘ri usulini qo‘llagan holda balansning kreditorlik qarzlari valyuta moddasi bo‘yicha kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borishning jamg‘arish usulini qo‘llashi mumkin.

Balansning valyuta moddalarining har xil turlari bo‘yicha kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borishda qo‘llanilayotgan usullar korxonaning hisob siyosatida 1-son BHMS da nazarda tutilgan tartibda aks ettirilishi kerak.

Kurs farqlarini olib borishning jamg‘arish usulidan to‘g‘ri olib borish usuliga o‘tishda balansning valyuta moddalarini har oyda qayta baholash natijasida oldin to‘plangan kurs farqlari korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisob siyosati qabul qilingan kalendar yilining oxirigacha har oyda (bir me’yorda) hisobdan chiqarib boriladi.

Kurs farqlarini olib borishning jamg‘arish usulidan to‘g‘ri olib borish usuliga o‘tilganda kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonaning 2018-yil hisob siyosatida kurs farqlarini olib borishning jamg‘arish usulidan foydalanish belgilangan edi. Lekin qonun hujjatlariga kiritilgan o‘zgarishlardan kelib chiqib 2019-yil hisob siyosatiga o‘zgartirish kiritilib kurs farqlarini olib borishning jamg‘arish usulidan to‘g‘ri olib borish usuliga o‘tilishi belgilangan. Kurs farqlarini olib borishning jamg‘arish usulidan foydalanilganda salbiy kurs farqlari bo‘yicha kechiktirilgan xarajatlar summasi 24 000 000 so‘mni, shundan ularning joriy qismi 4 000 000 so‘mni, ijobiy kurs farqlari bo‘yicha kechiktirilgan daromadlar summasi 36 000 000 so‘mni, shundan ularning joriy qismi 6 000 000 so‘mni tashkil etgan.

Kurs farqlarini olib borishning jamg‘arish usulidan to‘g‘ri olib borish usuliga o‘tilganda kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- kurs farqlarini olib borishning jamg‘arish usulidan foydalanilganda salbiy kurs farqlari bo‘yicha vujudga kelgan uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 3230 «Boshqa kechiktirilgan
xarajatlar» schyoti *20 000 000 so‘m;*
kredit 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan
xarajatlar» schyoti *20 000 000 so‘m;*

(20 000 000 so‘m = 24 000 000 so‘m – 4 000 000 so‘m);

- kurs farqlarini olib borishning jamg‘arish usulidan foydalanilganda salbiy kurs farqlari bo‘yicha vujudga kelgan kechiktirilgan xarajatlarni moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga har oyda (bir me’yorda) hisobdan chiqarib borilganda:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti *2 000 000 so‘m;*
kredit 3230 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti *2 000 000 so‘m;*

(2 000 000 so‘m = 24 000 000 so‘m / 12 oy);

- kurs farqlarini olib borishning jamg‘arish usulidan foydalanilganda ijobiy kurs farqlari bo‘yicha vujudga kelgan uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlarning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan
daromadlar» schyoti *30 000 000 so‘m;*

kredit 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti 30 000 000 so‘m;
(30 000 000 so‘m = 36 000 000 so‘m – 6 000 000 so‘m);

- kurs farqlarini olib borishning jamg‘arish usulidan foydalanilganda ijobiy kurs farqlari bo‘yicha vujudga kelgan kechiktirilgan daromadlarni moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga har oyda (bir me’yorda) hisobdan chiqarib borilganda:

debet 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti 3 000 000 so‘m;
kredit 9540 «Valyutalar kursi farqidan daromadlar» schyoti 3 000 000 so‘m;
(3 000 000 so‘m = 36 000 000 so‘m / 12 oy).

O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» gi (yangi tahrir) Qonunining 9-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxslarning ustav fondlari (ustav kapitallari) miqdorlariga doir talablar faqat O‘zbekiston Respublikasi valyutasida belgilanadi.

Buxgalteriya hisobida ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushini chetel valyutasida kiritishi, ulushni kiritish sanasidagi Markaziy bankning kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ustav kapitali miqdori chetel valyutasida belgilangan va ustav kapitaliga ulushlar kiritish legitim so‘mlarda amalga oshirilgan hollarda ham, qayta hisoblash Markaziy bankning ulushlarni kiritish sanasidagi kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Korxonaning ustav kapitalini shakllantirishda ta’sis hujjatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish sanasidagi va ustav kapitaliga mablag‘larni haqiqatda kiritish sanasidagi Markaziy bank kurslari o‘rtasida vujudga keladigan ijobiy kurs farqi buxgalteriya hisobida qo‘shilgan kapital sifatida ***8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi»*** schyotida aks ettiriladi.

Korxonaning ustav kapitalini shakllantirishda ta’sis hujjatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish sanasidagi va haqiqatda ustav kapitaliga ulushlarni kiritish sanasidagi Markaziy bank kurslari o‘rtasida vujudga keladigan salbiy kurs farqi buxgalteriya hisobida ***8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi»*** schyotining debetida ustav kapitalini shakllanishida vujudga kelgan oldingi ijobiy kurs farqi summasi chegarasida aks ettiriladi. Ustav kapitalini shakllantirishdagi salbiy kurs farqi summasining ijobiy kurs farqi summasidan oshgan qismi moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarga kiritiladi.

Korxonaning chetel valyutasida belgilangan ustav kapitalini shakllanishida vujudga kelgan kurs farqlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Chetel kapitali ishtirokidagi kuorxonaning ustav kapitali 2 000 000 AQSH dollari miqdorida so‘mda belgilangan va u 2021-yil 15-fevralda davlat ro‘yxatidan o‘tgan. Ta’sis hujjatlariga muvofiq, ustav kapitalining 60% - chetel ta’sischisining ulushi bo‘lib, u AQSH dollari ko‘rinishida pul mablag‘lari bilan kiritilishi lozim. Ustav kapitalining qolgan qismi esa mahalliy ta’sischining ulushi bo‘lib, u asbob-uskunalar ko‘rinishida kiritiladi va tomonlar uni 800 000 AQSH dollariga baholashgan. Asbob-uskunalar 2021-yil 10-martda, chetel valyutasi esa 2021-yil 25-martda kiritilgan.

Mahalliy ta’sischining ulushi sifatida asbob-uskunalar kiritilganda kurs farqi yuzaga kelmaydi. Markaziy bank tomonidan bir AQSH dollarining so‘mga nisbatan o‘rnatiladigan kurslaridan kelib chiqadigan ijobiy va salbiy kurs farqlaridan kelib chiqib ikkita holatni ko‘rib o‘tamiz.

1-holat:

Markaziy bank tomonidan bir AQSH dollarining so‘mga nisbatan o‘rnatgan kursi quyidagicha bo‘lgan: ustavni ro‘yxatdan o‘tkazish sanasida 1 AQSH dollari = 10 820 so‘m, chetel valyutasini kiritish sanasida 1 AQSH dollari = 10 860 so‘m.

Ustav kapitalini ro‘yxatdan o‘tkazish va shakllantirish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- 2021-yil 15-fevralda korxona ustav kapitali ro‘yxatdan o‘tkazilganda:

debet 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning
ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 21 640,0 mln.so‘m;
kredit 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti 21 640,0 mln.so‘m;

(21 640,0 mln.so‘m = 2 000 000 AQSH dollari x 10 820 so‘m/ 1 000 000 so‘m);

- 2021-yil 10-martda asbob-uskunalarni kiritilishi:

debet 0820 «Asosiy vositalarni
xarid qilish» schyoti 8 656,0 mln.so‘m;
kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning
ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 8 656,0 mln.so‘m;

(8 656,0 mln.so‘m = 800 000 AQSH dollari x 10 820 so‘m / 1 000 000 so‘m);

- 2021-yil 25 martda chetel valyutasini kiritilishi:

debet 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta
schyotlari» schyoti 13 032,0 mln.so‘m;
kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning
ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 12 984,0 mln.so‘m;
kredit 8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi
kurs farqi» schyoti 48,0 mln.so‘m;

(13 032,0 mln.so‘m = 1 200 000 AQSH dollari x 10 860 so‘m / 1 000 000 so‘m);
(12 984,0 mln.so‘m = 1 200 000 AQSH dollari x 10 820 so‘m / 1 000 000 so‘m);
(48,0 mln.so‘m = 13 032,0 mln.so‘m – 12 984,0 mln.so‘m).

2-holat:

Markaziy bank tomonidan bir AQSH dollarining so‘mga nisbatan o‘rnatgan kursi quyidagicha bo‘lgan: ustavni ro‘yxatdan o‘tkazish sanasida 1 AQSH dollari = 3 820 so‘m; Chetel valyutasini kiritish sanasida 1 AQSH dollari = 3 800 so‘m. Faraz qilamiz ***8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi»*** schyotining kreditida ustav kapitalini shakllanishida vujudga kelgan oldingi ijobiy kurs farqi summasi 16,0 mln.so‘mni mavjud.

Ustav kapitalini ro‘yxatdan o‘tkazish va shakllantirish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- 2021-yil 15-fevralda korxona ustav kapitali ro‘yxatdan o‘tkazilganda:

debet 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning
ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 21 640,0 mln.so‘m;
kredit 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti 21 640,0 mln.so‘m;

(21 640,0 mln.so‘m = 2 000 000 AQSH dollari x 10 820 so‘m/ 1 000 000 so‘m);

- 2021-yil 10-martda asbob-uskunalarni kiritilishi:

debet 0820 «Asosiy vositalarni
xarid qilish» schyoti 8 656,0 mln.so‘m;
kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning
ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 8 656,0 mln.so‘m;

(8 656,0 mln.so‘m = 800 000 AQSH dollari x 10 820 so‘m / 1 000 000 so‘m);

- 2021-yil 25-martda chetel valyutasini kiritilishi:

debet 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta
schyotlari» schyoti 12 960,0 mln.so‘m;

debet 8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi
kurs farqi» schyoti *16,0 mln.so‘m;*
debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti *8,0 mln.so‘m;*
kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning
ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 12 984,0 mln.so‘m;

(12 960,0 mln.so‘m = 1 200 000 AQSH dollari x 10 800 so‘m / 1 000 000 so‘m);

(8,0 mln.so‘m = 12 984,0 mln.so‘m - 12 960,0 mln.so‘m – 16,0 mln.so‘m);

(12 984,0 mln.so‘m = 1 200 000 AQSH dollari x 10 820 so‘m / 1 000 000 so‘m).

Ustav kapitalini qo‘shimcha oshirilganligi (kamaytirilganligi) ni shakllantirishda vujudga keladigan kurs farqlarining buxgalteriya hisobi, ustav kapitalini boshlang‘ich ro‘yxatga olish va shakllantirishdagi buxgalteriya hisobiga o‘xshash tarzda, yuqorida keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Ustav kapitalining oshirilishi munosabati bilan ulushlarni chetel valyutasida kiritish qonunchilikka muvofiq ta’sis hujjatlariga o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazishga qadar amalga oshirilgan bo‘lsa, buxgalteriya hisobida ushbu xo‘jalik operatsiyasi ***6630 «Ta’sischilarga bo‘lgan boshqa qarzlar» schyotining*** kreditida aktivlarni hisobga oluvchi schetlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Ustav kapitalini oshirilishi munosabati bilan ulushlarni ta’sis hujjatlariga o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazishga qadar kiritilishi amalga oshirilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Chetel kapitali ishtirokidagi korxonaning ustav kapitali 2021-yil 15-mayda davlat ro‘yxatidan o‘tgan va 2 000 000 AQSH dollari miqdorida so‘mda (chetel ta’sischisining ustav kapitalidagi ulushi 60 %, mahalliy ta’sischiniki esa 40 %) belgilangan hamda yil davomida to‘liq shakllantirilgan. 2021-yil 25-aprelda ta’sischilar majlisi tomonidan, ta’sischilarning oldingi ulushlarini saqlab qolgan holda, ustav kapitalini 300 000 AQSH dollari miqdoriga so‘mda oshirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. Ta’sisichilarning qaroriga muvofiq, ustav kapitalining oshirilgan qismini shakllantirish pul mablag‘lari ko‘rinishida amalga oshirilishi kerak. Mahalliy ta’sischi o‘zining ulushini 2021-yil 10-mayda kiritdi, chetellik ta’sischi esa 2021-yil 18-mayda kiritdi. Ustav kapitalini oshirilishi 2017-yil 25-mayda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan. 8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi» schyotidagi ustav kapitalini dastlabki shakllanishida hosil bo‘lgan qoldiq 3,9 mln.so‘mni tashkil etadi. Markaziy bank tomonidan bir AQSH dollarining so‘mga nisbatan o‘rnatgan kursi quyidagicha bo‘lgan: 2021-yil 10-mayda 1 AQSH dollari = 10 880 so‘m; 2021-yil 18-mayda 1 AQSH dollari = 10 890 so‘m; 2021-yil 25-mayda 1 AQSH dollari = 10 900 so‘m.

Ustav kapitalini oshirish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ***2021-yil 25-aprelda*** ustav kapitalini oshirish bo‘yicha ta’sischilarning qarori: buxgalteriya hisobida yozuvlar amalga oshirilmaydi.

- ***2021-yil 10-may*** – mahalliy ta’sischi tomonidan chetel valyutasida ifodalangan pul mablag‘larini ulush sifatida kiritilishi:

debet 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta
schyotlari» schyoti *1 305,6 mln.so‘m;*
kredit 6630 «Ta’sischilarga bo‘lgan boshqa
qarzlar» schyoti *1 305, 6 mln.so‘m;*

(120 000 AQSH dollari = 300 000 x 40 / 100);

(1 305,6 mln.so‘m = 120 000 AQSH dollari x 10 880 so‘m / 1 000 000 so‘m);

- ***2021-yil 18-may*** – Chetellik ta’sischi tomonidan chetel valyutasida ifodalangan pul mablag‘larini ulush sifatida kiritilishi:

debet 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti 1 960,2 mln.so‘m;

kredit 6630 «Ta’sischilarga bo‘lgan boshqa qarzlar» schyoti 1 960,2 mln.so‘m;

(180 000 AQSH dollari = 300 000 x 60 / 100);

(1 960,2 mln.so‘m = 180 000 AQSH dollari x 10 890 so‘m / 1 000 000 so‘m);

- 2021-yil 25-mayda korxona ustav kapitalini oshirilganligini ro‘yxatdan o‘tkazilganda:

debet 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 3 270 mln.so‘m;

kredit 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti 3 270 mln.so‘m;

(3 270 mln.so‘m = 300 000 AQSH dollari x 10 900 so‘m / 1 000 000 so‘m);

Bir vaqtning o‘zida:

- ustav kapitaliga oldindan kiritilgan ulushlar bo‘yicha mahalliy ta’sischiga bo‘lgan qarzni qoplashga (zachet) olib borish aks ettiriladi:

debet 6630 «Ta’sischilarga bo‘lgan boshqa qarzlar» schyoti 1 305,6 mln.so‘m;

debet 8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi» schyoti 2,4 mln.so‘m;

kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 1 308 mln.so‘m;

(1 305,6 mln.so‘m = 120 000 AQSH dollari x 10 880 so‘m / 1 000 000 so‘m);

(2,4 mln.so‘m = 1 305,6 mln.so‘m - 1 308 mln.so‘m);

(1 308 mln.so‘m = 120 000 AQSH dollari x 10 900 so‘m / 1 000 000 so‘m);

- ustav kapitaliga oldindan kiritilgan ulushlar bo‘yicha chetellik ta’sischiga bo‘lgan qarzni qoplashga (zachet) olib borish aks ettiriladi:

debet 6630 «Ta’sischilarga bo‘lgan boshqa qarzlar» schyoti 1 960,2 mln.so‘m;

debet 8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi» schyoti 1,5 mln.so‘m;

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyoti 0,3 mln.so‘m;

kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 1 962mln.so‘m;

(1 960,2 mln.so‘m = 180 000 AQSH dollari x 10 890 so‘m / 1 000 000 so‘m);

(1,5 mln.so‘m = 3,9 mln.so‘m – 2,4 mln.so‘m);

(0.3 mln.so‘m = 1 962 mln.so‘m – 1 960,2 mln.so‘m – 1,5 mln.so‘m);

(1 962 mln.so‘m = 180 000 AQSH dollari x 10 900 so‘m/ 1 000 000 so‘m).

4-§. Import qilingan aktivlarning xarid qiymatini shakllantirish va hisobi

Import operatsiyalar korxonalarning tashqi iqtisodiy faoliyat shakllaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Masalan, korxonalar o‘zining asosiy faoliyatini amalga oshirish uchun turli aktivlarni import qilishlari mumkin. Korxonalarda aktivlarni importini salmoqli qismini tovar-moddiy zaxiralar va asosiy vositalar importi tashkil etadi. Bundan kelib chiqqan holda, import qilingan tovar moddiy qiymatliklar va boshqa akativlarni xarid qilish qiymati to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotni shakllantirish va buxgalteriya hisobida aks ettirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi, zero bunga korxona moliyaviy hisobotlarining va soliq hisob-kitoblarining ishonchliligi bog‘liqdir.

Tovar-moddiy qiymatliklarni import qilish bo‘yicha operatsiyalar tashqi savdo shartnomalari bilan rasmiylashtiriladi. Shartnoma yozma ravishda tuziladi va halqaro huquq me’yorlariga, tashqi savdo bitimi ishtirokchilarining milliy qonunchiligining savdo, bojxona va valyutani tartibga solish sohasidagi me’yorlariga asoslanadi.

Aniq bir tashqi savdo bitimi bo‘yicha import qilingan tovar-moddiy qiymatliklarning xarid qiymatini shakllantirish tartibi nafaqat uning turiga ko‘ra, balki shartnoma shartlariga ko‘ra ham aniqlanadi. Shu bilan birga, tashqi savdo shartnomasi shartlari va ushbu shartlardani kelib chiqadigan xarid qiymatini shakllantirish o‘rtasida to‘g‘ridan - to‘g‘ri aloqa mavjud. Bunda ikkita asosiy shart aniqlovchi hisoblanadi: yetkazib berish bazisi va tovarga bo‘lgan mulk huquqlarini eksportchidan importchiga o‘tishi.

Yetkazib berish bazisi – bu tashqi savdo bitimi ishtirokchilarining tovarni jo‘natish joyidan kelishilgan joygacha yetkazib berish bo‘yicha majburiyatlarni belgilab beruvchi va tovarni tasodifiy halokati yoki shikastlanishi bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni sotuvchidan xaridorga o‘tish paytini, shuningdek eksporti tomonidan tovarni yetkazib berish bilan bog‘liq majburiyatlarni bajarish paytini aniqlab beruvchi maxsus shartlardir.

Tovarni jo‘natish joyidan mo‘ljallangan manzilgacha yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar turli-tumandir. Ular o‘z ichiga nafaqat yukni tashish xarajatlarini, balki unga yo‘ldosh xizmatlar to‘lovini – tovarni ortishga tayyorlash (qadoqlash, namunalar olish, sifat va miqdorini tekshirish va boshqalar), ortish-tushirish xarajatlari, sug‘urtalash, yo‘ldagi yuklarni saqlash hamda bojxona to‘lovlarini o‘z ischiga oladi. Bu shartlar bazis shartlar deb ataladi, chunki sotuvchi – eksporti tomonidan qoplanadigan yetkazib berish xarajatlari tovarning narxiga qo‘shiladi va shu tariqa tovarni boshlang‘ich sotish (chiqarish) narxi bilan birgalikda tashqi savdo narxini shakllantiradi.

Muayyan bazis shartlarining mazmuni alohida mamlakatlarning tijorat tajribalarida, halqaro savdo tarmoqlarida va hatto bandargohlarda shakllangan savdo urf odatlari bilan aniqlanadi. Savdo urf odatlarining turlicha ekanligi sababli bir xil tushunchalarning mazmunim turli mamlakatlarda turlicha talqin qilinadi. 1936-yilda Halqaro savdo palatasi tomonidan halqaro tijorat atamalarining izohlari ishlab chiqilgan va «Halqaro tijorat qoidalari» («Inkoterms») nomi bilan nashr etilgan. Keyinchalik ular bir necha marta qayta ko‘rib chiqilgan va to‘ldirilgan.

«Inkoterms» tavsiyaviy xususiyatga ega va u tomonlarning o‘zaro kelishivu bo‘yicha qo‘llaniladi. Biroq, agar shartnomada yetkazib berishning bazis shartlarini aniqlashda unga murojaat qilingan bo‘lsa, u holda shartnomaga qo‘shilgan shartlarga rioya qilish majburiy bo‘lib qoladi.

Import qilingan tovar-moddiy qiymatliklarning xarid qiymatiga ta’sir qiluvchi boshqa shartlaridan biri bo‘lib, tovarga bo‘lgan mulk huquqining sotuvchidan importchi-xaridorga o‘tish payti hisoblanadi. Bu hech hech bir halqaro hujjat bilan belgilab berilmagan, yetkazib berishning bazis shartlaridan ham kelib chiqmaydi. Mulk huquqini o‘tish sanasini shartnomada belgilab olish lozim.

Tovarga bo‘lgan mulk huquqining o‘tish sanasini aniqlash – muhim holatlardan biridir, chunki ushbu kunda import qilinayotgan tovarlar buxgalteriya hisobiga olinishi, eksport qilinayotgan tovarlar hisobdan chiqarilishi va tovarlarni sotishdan tushum hisobda aks ettirilishi lozim.

Yetkazib berishning bazisi ham, mulk huquqining o‘tish sanasi ham tashqi savdo bitimining ishtirokchilari tomonidan, tomonlarning kelishivu bo‘yicha belgilab olinadi. Biroq, shartnomaning har bir sharti shartnomani bajarish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibiga ta’sir etishini hamda tashqi savdo bitimidan soliq oqibatlarini hisobga olgan holda, shartnomani imzolashdan oldin taklif etilayotgan yetkazib berishning bazis sharti va mulk huquqining o‘tish paytining tashqi savdo bitimi buxgalteriya hisobi va soliq oqibatlariga ta’sirini tahlil qilib chiqish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tashqi savdo shartnomalarini tuzishda quyidagilarni nazarda tutish lozim:

- bitimning predmeti (tovar - ish, xizmat)larning nomi, ularning miqdori, turi, navi, foydalanish maqsadi va h.k.lar);
- yetkazib berish shartlari (mulk huquqini o‘tish vaqti va tovarni tasodifan nobud bo‘lish xavfi, transport xarajatlarinin taqsimlanishi, sug‘urta bo‘yicha xarajatlar va h.k.lar);
- belgilangan joyga tovarlarni yetkazib berish amalga oshiriladigan transportning turi;
- shartnoma qiymati;
- to‘lov shartlari;
- fors-major holatlar yuzaga kelgan hollarda sotuvchi va xaridorning o‘zaro munosabatlari.

Chetel valyutasida xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralari (bundan konsignatsiya shartnomalari bo‘yicha tovarlar mustasno) va boshqa aktivlarni baholash, ularning xarid qilinganligini tasdiqlovchi boshlang‘ich hisob hujjatlarida (tovarning kuzatuv hujjatlari yoki bojxona yuk deklaratsiyasida) ko‘rsatilgan qiymatidan kelib chiqib, ularni buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasidagi Markaziy bank kursi bo‘yicha qayta hisoblab, shuningdek Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizomning 1.1.12-bandi, 5-son BHMS va 4-son BHMS muvofiq shakllanadigan, xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlardan kelib chiqib aniqlanadi.

Import qilingan tovar-moddiy qiymatliklar va boshqa aktivlarning (konsignatsiya shartnomasi bo‘yicha import qilingan tovarlar bundan mustasno) xarid qiymati quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

S = SHq + T + Bx.,

bu yerda:

S – import qilingan tovar-moddiy qiymatliklar va boshqa aktivlarning xarid qiymati;

SHq – buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasidagi Markaziy bank kursi bo‘yicha hisoblangan import qilingan tovar-moddiy qiymatliklar va boshqa aktivlarning shartnoma qiymati;

T – xaridor tomonidan amalga oshirilgan (to‘langan) bojxona to‘lovlari;

Bx – import qilingan tovar-moddiy qiymatliklar va boshqa aktivlarni sotib olish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Yuridik shaxslarda byudjetga soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlardan foydalanish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va rasmiylashtirish «Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlarni byudjetga to‘lash bo‘yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»ga muvofiq amalga oshiriladi.

Korxonalarga soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar quyidagi hollarda beriladi:

- bo‘shayotgan mablag‘lardan maqsadli ishlatish nazarda tutilgan;
- bo‘shayotgan mablag‘lardan maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan.

Bo‘shayotgan mablag‘lardan maqsadli ishlatish nazarda tutilgan holda soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va rasmiylashtirish tartibi

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish ko‘zda tutilgan holda soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berilganda, byudjetga soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlarini hisoblash qonunchilikka muvofiq umumbelgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bunda:

- bojxona boji, aksiz solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i va h.k. turlari bo‘yicha hisoblangan bojxona to‘lovlari summalari, ular imtiyoz berilganligi sababli byudjetga to‘lanmaydi degan belgi qo‘yilgan holda bojxona yuk deklaratsiyasining 47- va «V» ustunlarida ko‘rsatiladi;
- soliq imtiyozlari berilgan, byudjetga hisoblangan soliqlar bo‘yicha hisob-kitoblar, soliq to‘lovchi ro‘yxatga olingan joydagi soliq idoralariga belgilangan shakllar va muddatlarga muvofiq taqdim etiladi. Mahsulot (tovar, ishlar, xizmatlar) va boshqa aktivlar realizatsiya qilinayotganda soliq solinadigan aylanmaga hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i (qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilar uchun) va aksiz solig‘i (aksizli tovarlar (mahsulotlar) sotilganda) summasi ajratilgan holda schyot-faktura yoziladi.

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish ko‘zda tutilgan holda soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berilganda hisoblangan bojxona to‘lovlari, soliqlar (mazkur soliq to‘lovchilari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i, shuningdek qonunga muvofiq qoplashga qabul qilinadigan aksiz solig‘idan tashqari) qonun hujjatlariga muvofiq umumbelgilangan tartibda import qilingan tovar (ish, xizmat) larning xarid qiymatiga kiritiladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi hisoblangan va qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lgan korxonalar import qilinadigan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini xarid qiymatiga kiritmaydilar, balki umumbelgilangan tartibda byudjetga to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘ini aniqlashda qoplashga qabul qiladilar.

Aksiz solig‘i bo‘yicha imtiyoz berilayotganida qonun hujjatlariga muvofiq qoplashga qabul qilinadigan aksiz solig‘i to‘lovchilari hisoblangan korxonalar import qilinayotgan tovar-moddiy zaxiralar bo‘yicha aksiz solig‘i summasini ularning xarid qiymatiga kiritmaydilar, balki umumbelgilangan tartibda byudjetga to‘lanadigan aksiz solig‘ini aniqlashda qoplashga qabul qiladilar.

Soliq, yig‘imlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar miqdori belgilangan tartibda byudjetga hisoblangan soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish ko‘zda tutilgan holda soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berilganda, bo‘shayotgan mablag‘lar hisobi ***8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyotida*** yuritiladi.

Soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlarini hisoblayotganda bo‘shayotgan mablag‘larni buxgalteriya hisobini batafsil yoritish maqsadida korxonalarning ishchi schyotlar rejasida quyidagi schyotlar ochiladi:

- byudjetga bo‘nak to‘lovlarini hisobga oluvchi schyotlar (4400) guruhida *4411 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari – soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;*
- byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzni hisobga oluvchi schyotlar (6400) guruhida *6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti*;

- turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) guruhida *6991 «Importda qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz bo‘yicha hisoblangan soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» schyoti;*

- rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8500) guruhida *8531 «Soliq, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlardan bo‘shagan mablag‘lar» schyoti.*

21-son BHMS va «Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlarni byudjetga to‘lash bo‘yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar natijasida bo‘shayotgan mablag‘lar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- qonun hujjatlariga muvofiq tovar-moddiy zaxiralar, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va o‘rnatiladigan uskunalarni, shu jumladan import qilinadiganlari xarid qilinayotganda xarid qiymatiga kiritiladigan, umumbelgilangan tartibda hisoblangan soliqlar va bojxona to‘lovlari (mazkur soliq to‘lovchilari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda qoplashga qabul qilingan aksiz solig‘idan tashqari) summasiga:

debet kapital qo‘yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800), o‘rnatiladigan asbob-uskunalarni hisobga oluvchi schyotlar (0700), tovar-moddiy zaxiralarini hisobga oluvchi schyotlar (1000-2900);

kredit 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

- O‘zbekiston Respublikasi hududida tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilganda mazkur soliqni to‘lovchilar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘idan, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda qoplashga qabul qilinadigan aksiz solig‘i summasiga:

debet 4411 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari – soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) yoki boshqa tegishli schyotlar;

- import bo‘yicha tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilganda mazkur soliqni to‘lovchilar uchun qo‘shilgan qiymat solig‘idan, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda qoplashga qabul qilinadigan aksiz solig‘i summasiga:

debet 4411 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari – soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 6991 «Importda qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz bo‘yicha hisoblangan soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)»;

- tovar-moddiy zaxiralar import qilinganda qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini to‘lashdan ozod qilish natijasida bo‘shagan mablag‘lar summasiga:

debet 6991 «Importda qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz bo‘yicha hisoblangan soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)»;

kredit 8840 «Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari» schyoti;

- mahsulot (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinganda hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar», 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyotlari;

kredit 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

- ilgari hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini qonunchilikka muvofiq qoplashga qabul qilish:

debet 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 4411 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari – soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

- mahsulot (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilinayotganda qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz solig‘ini to‘lashdan ozod qilish natijasida bo‘shagan mablag‘lar summasiga:

debet 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 8840 «Maqsadli foydalanadigan soliq imtiyozlari» schyoti;

- asosiy vositalar va boshqa aktivlar chiqib ketishida hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:

debet asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar (9200);

kredit 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

- qonunchilikka muvofiq davr xarajatlariga kiritiladigan umumbelgilangan tartibda hisoblangan byudjetga to‘lanadigan soliq va boshqa majburiy to‘lovlar summasiga:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti;

kredit 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

- korxonalarning foydasi hisobiga kiritiladigan, umumbelgilangan tartibda hisoblangan, byudjetga to‘lanadigan soliqlar summasiga:

debet soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga oluvchi schyotlar (9800);

kredit 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

- byudjetga to‘lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan ozod qilish natijasida bo‘shagan mablag‘lar summasiga:

debet 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyoti.

8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyotida hisobga olingan soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar natijasida bo‘shagan mablag‘larni ishlatilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy qiymatliklarni xarid qilishga, kredit va qarzlarni to‘lashga, asosiy vositalarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga yo‘naltirilganda, agar imtiyozli davr ko‘rsatilgan bo‘lsa - muddatlarning eng kami bo‘yicha: imtiyozli davr yoki haqiqatda ishlatish tugaganda, imtiyozli davr ko‘rsatilmagan hollarda esa - har yili:

debet 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyoti;

kredit 8531 «Soliq, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlardan bo‘shagan mablag‘lar» schyoti;

- joriy majburiyatlarni vujudga kelishiga (masalan: ish haqi, ijara, maqsadli davlat jamg‘armalariga ajratmalar hisoblanganda va boshqalar) olib keladigan joriy xarajatlarni qoplashga yo‘naltirilganda:

debet 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyoti;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti yoki turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) yoki boshqa tegishli schyotlar.

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan holda soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va rasmiylashtirish tartibi

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish ko‘zda tutilmagan holda soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berilganda, byudjetga soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlari hisoblanmaydi va import qilingan aktivlarni xarid qilish qiymatiga qo‘shilmaydi.

Soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozlar berilganda bo‘shayotgan mablag‘lar summalari, agar ulardan maqsadli foydalanish nazarda tutilmagan bo‘lsa, buxgalteriya hisobining balans schyotlarida aks ettirilmaydi.

Soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlari bo‘yicha vaqtinchalik imtiyozlar berilganda bo‘shayotgan mablag‘larning buxgalteriya hisobini ta’minlash maqsadida, agar ularni maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan bo‘lsa, byudjetga to‘lanadigan har bir soliqlar, yig‘imlar va bojxona to‘lovlari turi bo‘yicha alohida balansdan tashqari ***013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» schyoti*** debetida aks ettiriladi.

Balansdan tashqari 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» schyotida hisobga olingan byudjetga soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlari bo‘yicha hisoblangan summa «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-shakl)da aks ettirilmaydi va mos ravishda moliyaviy natijalarning shakllanishiga ta’sir etmaydi.

Imtiyoz berilgan davr tugaganidan so‘ng balansdan tashqari 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» schyotida hisobga olinadigan bo‘shagan mablag‘lar summasi hisobdan chiqariladi.

Bunda, bo‘shagan mablag‘lar to‘g‘risidagi ma’lumot imtiyoz muddatining tugashi bilan hisobdan chiqarilgandan keyin korxonada 5 yil davomida saqlanishi lozim.

Doimiy soliqlar va bojxona imtiyozlari chog‘ida bo‘shayotgan mablag‘lar, agar ularni maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan bo‘lsa, byudjetga to‘lanadigan har bir soliq turi, bojxona va majburiy to‘lov bo‘yicha moliyaviy hisobotga tushuntirish xatida ochib beriladi.

Import qilingan tovar-moddiy zaxiralarining (konsignatsiya shartnomasi bo‘yicha import qilingan tovarlar bundan mustasno) xarid qiymatini shakllanashi va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Chetellik mol yetkazib beruvchidan ehtiyot qismlar xarid qilindi. Ehtiyot qismlarning shartnoma qiymati 3 000 AQSH dollari, transport xarajatlari – 800 AQSH dollari, sug‘urta xarajatlari - 100 AQSH dollarini tashkil qiladi. Bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish sanasidagi Markaziy bankning bir AQSH dollarining so‘mga nisbatan o‘rnatgan kursi 10 950 so‘m. Quyidagi bojxona to‘lovlari to‘langan: bojxona boji 5%, qo‘shilgan qiymat solig‘i 15% va bojxona yig‘imi 0,2%.

Ikkita holatni korxonaning qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lib hisoblanishi va bojxona to‘lovlari bo‘yicha imtiyozni shartidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Korxonani rivojlantirish maqsadida mazkur ehtiyot qismlarni xarid qilishda bojxona to‘lovlarini to‘lash bo‘yicha vaqtinchalik imtiyoz berilgan, ya’ni byudjetga to‘lashdan ozod qilingan. Imtiyoz natijasida bo‘shagan mablag‘larni asosiy vositalarni modernizatsiya qilishga yo‘naltirish sharti bilan berilgan. Korxona qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchisi bo‘lib hisoblanadi.

Birinchi navbatda ehtiyot qismlarni AQSH dollaridagi shartnoma qiymatini Bojxona yuk

deklaratsiyasini to‘ldirish sanasidagi Markaziy banki kursiga ko‘paytirish yo‘li bilan materialni so‘mdagi shartnoma qiymatini aniqlaymiz, ya’ni 3 000 AQSH dollari x 10 950 so‘m = 32 850 000 so‘m.

Ikkinchi navbatda ma’lumot uchun berilgan vaqtinchalik imtiyoz natijasida bo‘shayotgan mablag‘lar miqdorini aniqlash maqsadida ehtiyot qismlarni shartnoma qiymatidan kelib chiqib bojxona to‘lovlarini aniqlaymiz. Bojxona to‘lovlari: bojxona boji – 1 642 500 so‘m (32 850 000 x 5 /100), qo‘shilgan qiymat solig‘i 5 173 875 so‘m ((32 850 000 + 1 642 500) x 20 /100), bojxona yig‘imi 65 700 so‘m (32 850 000 x 0,2/100). Xarid qiymatiga qo‘shiladigan bojxona to‘lovlari 1 708 200 so‘m (1 642 500 + 65 700) ni tashkil etadi.

Uchinchi navbatda sug‘urta bo‘yicha xarajatlar va transport xarajatlarini ekvivalentini aniqlaymiz. Transport xarajatlari 8 760 000 so‘m (800 AQSH dollari x 10 950 so‘m) ni, sug‘urta bo‘yicha xarajatlar esa 1 095 000 so‘m (100 AQSH dollari x 10 950 so‘m) ni tashkil etadi. Ehtiyot qismlarni xarid qilish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar summasi 9 855 000 so‘m (8 760 000 + 1 095 000) ni tashkil etadi.

Ehtiyot qismlarni xarid qiymati **44 413 200 so‘m** (32 850 000 + 1 708 200 + 9 855 000) ni tashkil etadi.

Import qilingan ehtiyot qismlarni xarid qilish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ehtiyot qismlarni xarid qiymati bo‘yicha kirim qilish:

debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti 44 413 200 so‘m;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 32 850 000 so‘m;
kredit 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti 1 708 200 so‘m;
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti 9 855 000 so‘m;

- qoplashga qabul qilinadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:

debet 4411 «Byudjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari – soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti 5 173 875 so‘m;
kredit 6991 «Importda qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz bo‘yicha hisoblangan soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» schyoti 5 173 875 so‘m;

- ehtiyot qismlar importi bojxona to‘lovlarini to‘lashdan ozod qilish natijasida bo‘shagan mablag‘lar summasiga:

debet 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar, bojxona va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti 1 708 200 so‘m;
debet 6991 «Importda qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksiz bo‘yicha hisoblangan soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha)» schyoti 5 173 875 so‘m;
kredit 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyoti 6 882 075 so‘m;

(6 882 075 so‘m = 5 173 875 + 1 708 200).

- imtiyoz natijasida bo‘shagan mablag‘lar asosiy vositalarni modernizatsiya qilishga yo‘naltirilganda:

debet 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq
imtiyozlari» schyoti *6 882 075 so‘m;*
kredit 8530 «Tekinga olingan mulk» schyoti *6 882 075 so‘m.*

2-holat:

Korxonani rivojlantirish maqsadida mazkur ehtiyot qismlarni xarid qilishda, bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan holda, bojxona to‘lovlari bo‘yicha vaqtinchalik imtiyoz berilgan.

Birinchi navbatda ehtiyot qismlarni AQSH dollaridagi shartnoma qiymatini Bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish sanasidagi Markaziy banki kursiga ko‘paytirish yo‘li bilan materialni so‘mdagi shartnoma qiymatini aniqlaymiz, ya’ni 3 000 AQSH dollari x 10 950 so‘m = 32 850 000 so‘m.

Ikkinchi navbatda ma’lumot uchun berilgan vaqtinchalik imtiyoz natijasida bo‘shayotgan mablag‘lar miqdorini aniqlash maqsadida ehtiyot qismlarni shartnoma qiymatidan kelib chiqib bojxona to‘lovlarini aniqlaymiz. Bojxona to‘lovlari: bojxona boji – 1 642 500 so‘m (32 850 000 x 5 /100), qo‘shilgan qiymat solig‘i 5 173 875 so‘m ((32 850 000 + 1 642 500) x 20 /100), bojxona yig‘imi 65 700 so‘m (32 850 000 x 0,2/100). Berilgan imtiyoz natijasida bo‘shayotgan mablag‘lar miqdori 6 882 075 so‘m (1 642 500 + 5 173 875 + 65 700) ni tashkil etadi.

Uchinchi navbatda sug‘urta bo‘yicha xarajatlar va transport xarajatlarini ekvivalentini aniqlaymiz. Transport xarajatlari 8 760 000 so‘m (800 AQSH dollari x 10 950 so‘m) ni, sug‘urta bo‘yicha xarajatlar esa 1 095 000 so‘m (100 AQSH dollari x 10 950 so‘m) ni tashkil etadi. Ehtiyot qismlarni xarid qilish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar summasi 9 855 000 so‘m (8 760 000 + 1 095 000) ni tashkil etadi.

Ehtiyot qismlarni xarid qiymati **42 705 000 so‘m** (32 850 000 + 9 855 000) ni tashkil etadi.

Import qilingan ehtiyot qismlarni xarid qilish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ehtiyot qismlarni xarid qiymati bo‘yicha kirim qilish:

debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti *42 705 000 so‘m;*
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *32 850 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *9 855 000 so‘m;*

- ehtiyot qismlarni xarid qilishda bojxona to‘lovlari bo‘yicha berilgan vaqtinchalik imtiyoz natijasida bo‘shayotgan mablag‘lar miqdorini balansdan tashqari schyotda aks ettirish:

debet balansdan tashqari 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari
(turlari bo‘yicha)» schyoti *6 882 075 so‘m;*

- ehtiyot qismlarni xarid qilishda bojxona to‘lovlari bo‘yicha berilgan vaqtinchalik imtiyoz muddati tugagandan so‘ng imtiyoz natijasida bo‘shayotgan mablag‘lar miqdorini balansdan tashqari schyotdan hisobdan chiqarish:

kredit balansdan tashqari 013 «Vaqtinchalik soliq imtiyozlari
(turlari bo‘yicha)» schyoti *6 882 075 so‘m.*

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, o‘rnatiladigan asbob-uskunalar va boshqa tovar-moddiy qiymatliklarning xarid qiymati shakllanishi, xuddi shu tartibda amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobida aks ettirishda 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti o‘rniga asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100), nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar (0400), o‘rnatiladigan asbob-uskunalarni hisobga oluvchi schyotlar (0700), kapital quyilmalarni hisobga oluvchi schyotlar

(0800) va boshqa tovar-moddiy qiymatliklarni hisobga oluvchi schyotlarning tegishli schyotlari debetlanadi.

Chetel valyutasida xarid qilingan asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini va tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini shakllanashi va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi«1-bob. Asosiy vositalar hisobi» va «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Yuqorida keltirib o‘tilganlardan ko‘rish mumkinki, korxonalar, odatda, tovar-moddiy qiymatliklarni o‘z hisoblaridan va o‘z tavakkalchiligi evaziga import qiladilar. Buning albatta, o‘ziga yarasha afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Ushbu holatda, kamchiliklardan biri shundan iboratki, korxona qayta sotish uchun o‘z hisobidan tovarlarni import qilganda, o‘xshash tovarlarning bozor narxi tushib ketishi oqibatida zarar ko‘rishi mumkin. Ushbu tavakkalchilikdan qochish maqsadida ko‘pgina savdo korxonalari tovarlarni konsignatsiya shartnomasi bo‘yicha import (xarid) qiladi.

Aksariyat hollarda, konsignatsiya yangi tovarlarga bo‘lgan talab hali shakllanmagan va uni oldindan taxminlash imkoniyati bo‘lmaganda qo‘llaniladi. SHu sababdan ham, inovatsion tovarlarni ishlab chiqaruvchilar tovarni sotuvchiga topshiradilar, to‘lovni esa faqatgina tovarlar sotilgandan keyin oladilar. Agar tovar sotilmasa, u hech qanday pulli hisob-kitoblarsiz qaytariladi.

Konsignatsiya to‘lovni kechiktirilshi tufayli, sotuvchi uchun tovarninng qimmatlashishini anglatmaydi. Ko‘p hollarda bu o‘zaro xizmat ko‘rsatish shaklidir. To‘lovning bunday kechiktirilishi ishlab chiqaruvchilar uchun o‘zining yangi tovarlarni sotish maqsadida savdo maydonlaridan foydalanish imkoniyati uchun «to‘lov» sifatida namoyon bo‘ladi.

Konsignatsiya shartnomasi - konsignant va konsignator o‘rtasida tovarni konsignator orqali sotishga tuzilgan shartnoma, bunda konsignator omboriga tushgan tovarga mulk huquqi tovar xaridorga sotilishiga qadar konsignantga tegishli bo‘ladi.

Konsignant – yuridik yoki jismoniy shaxs bo‘lib, konsignatorga tovarlar sotilishini tashkillashtirish bo‘yicha topshiriq beradi, bunda tovarga bo‘lgan mulk huquqi kosignantda qoldiriladi, konsignator esa tovarlarni konsignant nomidan mukofot uchun sotish majburiyatini o‘z zimmasiga oluvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Konsignator schyotiga uning tomonidan sotilgan tovar-moddiy qiymatliklar uchun kelib tushgan pul mablag‘lari, unga qoladigan mukofot haqini chegirib tashlagan holda konsignatning mulki hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududiga konsignatsiya shartnomasi bo‘yicha olib kirilgan tovarlar shartnomada belgilangan muddat mobaynida sotilishi kerak. Ushbu muddat tugashi bilan shartnoma shartlaridan kelib chiqqan holda tovar to‘liq mulkdorga qaytarilishi shart yoki qisman konsignatorning ixtiyoriga uning qiymatini mulkdorga (konsignantga) to‘lashi bilan o‘tadi. SHunday qilib, shartnoma shartlari bilan belgilab olingan, konsignator tomonidan tovarni sotishga ajratilgan muddat davomida tomonlar o‘rtasidagi munosabatga komissiya shartnomasi shartlari qo‘llaniladi.

Buxgalteriya hisobida konsignantga nisbatan chetel valyutasidagi kreditorlik qarzi konsignatsiyaga olingan tovarlarni sotish sanasida, ana shu sanadagi Markaziy bankning kursi bo‘yicha vujudga keladi. Kreditorlik qarzning keyingi hisobi yuqorida kreditorlik qarzlarini hisobi bo‘yicha ko‘rib o‘tilgan tartibda amalga oshiriladi.

Konsignator va konsignant o‘rtasida sotilgan tovarlar bo‘yicha hisob-kitolar ularni sotilishi doirasida amalga oshiriladi. Tovarlarni katta partiyada yetkazib berilganda yoki doimiy yetkazib berilganda, yetkazib berilgan tovarlarning hajmiga bog‘liq tarzda tovarlar bo‘yicha to‘lov jadvali (grafigi) ni (har hafta, har o‘n kunda, har safar sotilganda va boshqalar) joriy qilish mumkin. Ushbu

holatda shartnomada shuningdek, konsignator tomonidan konsignatsion omborda tovarlarning harakati va ularning qoldiqdari to‘g‘risidagi hisobotlarni topshirish tartibiva muddatni ham kelishib olish mumkin. Hisobotlarning ma’lumotlari buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan solishtiriladi va ular orasida tafovut paydo bo‘lsa, uning sabablari angiqlanadi va tegishli tuzatishlar amalga oshiriladi.

Konsignatsiya shartnomosining predmeti bo‘lib komission bitimning bajarilishi sanaladi, ya’ni konsignator haqiqiy harakatni amalga oshirmaydi, balki huquqiy harakatni bajaradi – bitta yoki bir nechta shartnomalarni tuzadi. Bitim tuzish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa pullik xizmatlarni ko‘rsatish konsignatorning majburiyatiga kirmaydi. Agar u shunday xizmatlarni ko‘rsatsa, u holda bu qo‘shimcha xizmatlar bo‘ladi va konsignant va konsignator o‘rtasidagi shartnoma aralash shartnoma hisoblanadi (komissiya shartnomasining va pullik xizmat ko‘rsatish shartnomasining elementlarini o‘zida mujassam qiladi). Qo‘shimcha xizmatlar bo‘yicha xarajatlar umumiy tartibda to‘lanadi, konsignant tomonidan konsignatorga esa xaridorlar bilan bitimlar tuzish bo‘yicha konsignant topshiriqlarini bajarish bilan bog‘liq xarajatlargina qoplanib beriladi.

Tovarlarni konsignatsion omborda saqlash xarajatlari konsignatorning xarajatlari deb tasavvur qilinadi, chunki ular o‘zining yoki ijaraga olingan omborlardan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlar hisoblanadi. Ular komission faoliyatdan olinadigan daromadlar hisobidan qoplanishi lozim. Tovarlar xaridorlarga sotilmagan taqdirda, agar bunda konsignatorning aybi bo‘lmasa, tovarlarni qaytarish bilan bog‘liq xarajatlar tovarning egasi tomonidan, ya’ni konsignant (komitent) tomonidan qoplanishi lozim.

Konsignatsiya shartnomasi bo‘yicha import qilingan tovarlar kelib tushishi konsignatorning buxgalteriya hisobida balansdan tashqari ***004 «Komissiyaga qabul qilingan tovarlar»*** schyotining debeti bo‘yicha aks ettiriladi va sotilishiga qarab balansdan tashqari ***004 «Komissiyaga qabul qilingan tovarlar»*** schyotining kreditidan hisobdan chiqariladi.

Balansdan tashqari ***004 «Komissiyaga qabul qilingan tovarlar»*** schyotining analitik hisobi, moddiy javobgar shaxslar bo‘yicha har bir narsa bo‘yicha topshirish-qabul qilish dalolatnomasida yoki invoysda yoki Bojxona yuk deklaratsiyasida nazarda tutilgan narxda yuritiladi.

Konsignatsiya shartnomasida tovarlarning qaytarilishi nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Konsignatsiya shartnomasi bo‘yicha xarid qilingan tovarlar konsignantga qaytarilgan hollarda, 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyotida aks ettirilgan konsignatorning qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qo‘shgan holda bojxona to‘lovlari bo‘yicha xarajatlarining qaytarilgan tovarlar ulushiga to‘g‘ri keladigan qismi konsignatorning moliyaviy natijalariga (davr xarajatlariga) olib borib hisobdan chiqariladi.

Vositachilik shartnomasiga, topshiriqqa binoan ishonchli shaxs yoki komitent O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan taqdirda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo‘shilgan qiymat solig‘i qo‘shilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganida qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo‘lishi mumkin emas.

Konsignatsiya shartnomasi bo‘yicha import qilingan tovarlar bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Chetellik mol yetkazib beruvchidan konsignatsiya shartnomasi asosida 100 dona dastgoh xarid qilinmoqda. Dastgohlarning har bir donasi qiymati 450 AQSH dollari va umumiy shartnoma qiymati 45 000 AQSH dollarini tashkil etadi. Bojxona to‘lovlari quyidagilardan iborat: bojxona boji 10 %, qo‘shilgan qiymat solig‘i 20% va bojxona yig‘imi 0,2 %. Markaziy bank tomonidan belgilangan bir AQSH dollarining

so‘mga nisbatan kursi quyidagicha bo‘lgan: Bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish sanasidagi – 10 950 so‘m, ko‘tarish moslamalarini sotish va konsignant oldidagi qarzdorlikni to‘lash sanasida - 10 960 so‘m. Hisobot oyining oxirida 40 dona dastgoh sotildi. Komission mukofot dastgohning qiymatining 40 foizini tashkil etadi. Tovarlarni bojxonadan o‘tkazish jarayoni va omborda saqlash bilan bog‘liq xarajatlar konsignatorning xarajatlari hisoblanadi. Ular komissiya mukofoti hisobidan qoplanishi kerak. Agar tovar zavoddan yaroqsiz holda chiqqan va ularni qayta tiklash mumkin bo‘lmasa, bunda konsignatorning aybi bo‘lmagan hollarda, tovarlarni qaytarish bilan bog‘liq xarajatlarni tovarning egasi o‘z zimmasiga, ya’ni konsignant (komitent) o‘z zimmasiga olishi kerak. Sotish paytidagi tekshirish natijasida 5 dona ko‘tarish moslamasi zavoddan yaroqsiz holda chiqqanligi va ularni qayta tiklash mumkin emasligi aniqlandi. Oyning oxirida ular qaytarildi va konsignant bojxona bo‘yicha xarajatlarni qarzdorlik hisobidan qoplab berdi.

Birinchi navbatda bojxona to‘lovlarini hisoblash maqsadida dastgohlarni AQSH dollaridagi shartnoma qiymatini Bojxona yuk deklaratsiyasini to‘ldirish sanasidagi Markaziy banki kursiga ko‘paytirish yo‘li bilan dastgohlarni so‘mdagi shartnoma qiymatini aniqlaymiz, ya’ni 45 000 AQSH dollari x 10 950 so‘m = 492 750 000 so‘m.

Ikkinchi navbatda dastgohlarni shartnoma qiymatidan kelib chiqib bojxona to‘lovlarini aniqlaymiz. Bojxona to‘lovlari: bojxona boji 49 275 000 so‘m (492 750 000 x 10 /100), qo‘shilgan qiymat solig‘i 81 303 750 so‘m ((492 750 000 + 49 275 000) x 15 /100), bojxona yig‘imi 985 500 so‘m (492 750 000 x 0,2/100). Xarid qiymatiga qo‘shiladigan bojxona to‘lovlari 131 564 250 so‘m (49 275 000 so‘m + 81 303 750 so‘m + 985 500 so‘m) ni tashkil etadi.

Korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar amalga oshiriladi.

- Dastgohlar kelib tushganda:

debet balansdan tashqari 004 «Komissiyaga qabul qilingan tovarlar» *45 000 AQSH dollari;*

- dastgohlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘ini qo‘shgan holda, bojxona to‘lovlari hisoblanganda:

debet 3290 «Boshqa kechiktirlgan xarajatlar» schyoti *131 564 250 so‘m;*
kredit schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» *131 564 250 so‘m;*

- dastgohlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i va bojxona to‘lovlari bo‘yicha qarz qoplanganda:

debet schyoti 6410 «Byudjetga to‘lov bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» *131 564 250 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *131 564 250 so‘m;*

- dastgohlar sotilganda:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *197 280 000 so‘m;*
kredit 9030 «Ish bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar» schyoti *78 912 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *118 368 000 so‘m;*

(18 000 AQSH dollari = 40 dona x 450 AQSH dollari);
(197 280 000 so‘m = 18 000 AQSH dollari x 10 960 so‘m);
(7 200 AQSH dollari = 18 000 AQSH dollari x 40 / 100);
(78 912 000 so‘m = 7 200 AQSH dollari x 10 960 so‘m);

(10 800 AQSH dollari = 18 000 AQSH dollari x 60 / 100);

(118 368 000 so‘m = 10 800 AQSH dollari x 10 960 so‘m);

- bir vaqtning o‘zida sotilgan ko‘tarish moslamalarining qiymati hisobdan chiqarilishi:

kredit balansdan tashqari 004 «Komissiyaga qabul qilingan tovarlar» *18 000 AQSH dollari;*

(18 000 AQSH dollari = 40 dona x 450 AQSH dollari);

- sotilgan dastgog‘larning ulushiga to‘g‘ri keluvchi qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qo‘shgan holda, bojxona to‘lovlari bo‘yicha xarajatlarni moliyaviy natijalarga olib borilishi:

debet 9410 «Sotish xarajatlari» schyoti *52 625 700 so‘m;*

kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» *52625 700 so‘m;*

(52 625 700 so‘m = 131 564 250 so‘m / 100 dona x 40 dona);

- qaytarilgan (yaroqsiz bo‘lgan) dastgohlarning ulushiga to‘g‘ri keluvchi qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qo‘shgan holda, bojxona to‘lovlari bo‘yicha xarajatlarni moliyaviy natijalarga olib borilishi:

debet 9410 «Sotish xarajatlari» schyoti *6 578 213 so‘m;*

kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» *6 578 213 so‘m;*

(6 578 213 so‘m = 131 564 250 so‘m / 100 dona x 5 dona);

- bir vaqtning o‘zida qaytarilgan ko‘tarish moslamalarining qiymati hisobdan chiqarilishi:

kredit balansdan tashqari 004 «Komissiyaga qabul qilingan tovarlar» *2 250 AQSH dollari;*

(2 250 AQSH dollari = 5 dona x 450 AQSH dollari);

- qaytarilgan (yaroqsiz bo‘lgan) dastgohlarning ulushiga to‘g‘ri keluvchi qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini qo‘shgan holda, bojxona to‘lovlari bo‘yicha xarajatlarni kreditorlik qarzi hisobidan ushlab qolish bilan qoplanishi (agar konsignatsiya shartnomasida nazarda tutilgan bo‘lsa):

debet 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *6 578 213 so‘m;*

kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti *6 578 213 so‘m;*

- xaridorlardan pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *197 280 000 so‘m;*

kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *197 280 000 so‘m;*

- konsignatorga bo‘lgan qarz qoplanganda:

kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *39 906 504 so‘m;*

kredit pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar *39 906 504 so‘m;*

(600,2 AQSH dollari = 6 578 213 so‘m / 10 960 so‘m);

(10 199,8 AQSH dollari = 10 800 AQSH dollari – 600,2 AQSH dollari);

(111 789 808 so‘m = 10 199,8 AQSH dollari x 10 960 so‘m).

5-§. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida faoliyat yuritish uchun foydalaniladigan aktivlar va majburiyatlar hisobi

Moliyaviy hisobotni tuzish uchun, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida faoliyat yuritish uchun foydalaniladigan chetel valyutasidagi aktivlar va majburiyatlar qiymati so‘mlarda qayta hisoblanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyat - O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko‘ra yuridik shaxs hisoblangan xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida mustaqil balansga ajratilmagan tarkibiy bo‘linmalar orqali amalga oshiriladigan faoliyat.

Chetel valyutasidagi aktivlar va majburiyatlar qiymatini so‘mlarda qayta hisoblash, ushbu chetel valyutasining so‘mga nisbatan Markaziy bankning kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida faoliyat yuritish uchun foydalanadigan chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar (qayta baholash va kurs farqlarini aniqlash uchun sanab o‘tilgan balansning valyuta moddalari) ni so‘mda qayta hisoblash Markaziy bankning hisobot oyining oxirgi sanasidagi va xo‘jalik operatsiyalari sodir bo‘lgan sanadagi kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Korxonaning O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida faoliyat yuritishi uchun foydalanadigan chetel valyutasida ifodalangan asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari, o‘rnatiladigan asbob-uskunalari, kapital qo‘yilmalari, tovar-moddiy zaxiralari qiymatini so‘mga qayta hisoblash, ushbu aktivlarni buxgalteriya hisobiga qabul qilingan sanadagi Markaziy bank kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Korxonaning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari, o‘rnatiladigan asbob-uskunalari, kapital qo‘yilmalari, tovar-moddiy zaxiralari qiymatini O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida faoliyat yuritish joyi — xorijiy davlatning qonun hujjatlari yoki qoidalariga muvofiq qayta baholangan qiymatini qayta hisoblash, ushbu qayta baholash o‘tkazilgan sanadagi Markaziy bankning kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida faoliyatni yuritishning moliyaviy natijalarini shakllantiruvchi chetel valyutasida ifodalangan daromadlar va xarajatlarni so‘mga qayta hisoblash, Markaziy bank kurslari hajmi va ularning hisobot davrida amal qilgan kunlari yig‘indisini hisobot davri kunlari soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlangan kurslarning o‘rtacha miqdoridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

Korxonaning O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida faoliyat yuritishi uchun foydalaniladigan chetel valyutasida ifodalangan aktivlari va majburiyatlarini so‘mga qayta hisoblash natijasida paydo bo‘lgan kurs farqlari buxgalteriya hisobida to‘g‘ri olib borish usuli qo‘llab aks ettiriladi.

6-§. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga kiritish uchun Sho‘ba (tobe) xo‘jalik jamiyatlari, mustaqil balansga ajratilgan tarkibiy bo‘linmalarning moliyaviy hisobotini qayta hisoblash

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan Sho‘ba (tobe) xo‘jalik jamiyatlari, mustaqil balansga ajratilgan tarkibiy bo‘linmalarning moliyaviy hisobotlarini bosh jamiyat tomonidan tuziladigan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga kiritish uchun qayta hisoblashda bosh jamiyat quyidagi tartib-taomillarni bajarishi kerak:

- O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan, Sho‘ba (tobe) xo‘jalik jamiyatlari, mustaqil balansga ajratilgan tarkibiy bo‘linmalarning aktivlari va majburiyatlari hisobot davrining oxirgi sanasidagi Markaziy bankning kursi bo‘yicha qayta hisoblanishi lozim;

- O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan Sho‘ba (tobe) xo‘jalik jamiyatlari, mustaqil balansga ajratilgan tarkibiy bo‘linmalarning xususiy kapitali moddalari, bundan joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) mustasno, hisobot davrining oxirgi sanasidagi Markaziy bankning kursi bo‘yicha qayta hisoblanishi kerak;

- O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan Shu’ba (tobe) xo‘jalik jamiyatlari, mustaqil balansga ajratilgan tarkibiy bo‘linmalarning daromadlari va xarajatlari moddalari, shuningdek taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) hisobot davridagi Markaziy bankning kurslari va ular amal qilish kunlari hosilalari summasini hisobot davridagi kunlar miqdoriga bo‘lish natijasida hisoblab chiqarilgan kurslarning o‘rtacha miqdoridan foydalangan holda qayta hisoblanishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida faoliyatning tasnifi o‘zgargan hollarda, o‘zgargan tasnifga nisbatan qo‘llanadigan qayta hisoblash tartib-taomillari ushbu o‘zgarish sanasidan boshlab foydalanilishi lozim.

Korxona O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan Sho‘ba (qaram) xo‘jalik jamiyatlaridagi o‘zining ulushini sotish, tugatish, aksiyadorlik kapitalini qoplash va h.k.lar yo‘li bilan realizatsiya qilishi mumkin. Dividendlar to‘lash, faqat ular investitsiyalarni qaytarilishini tashkil etgan hollardagina, realizatsiyaning bir qismini tashkil etadi. Qisman realizatsiya qilingan hollarda moliyaviy natijalarga tegishli jamg‘arilgan kurs farqlarining faqat mutanosib qismi qo‘shiladi. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan Sho‘ba (qaram) xo‘jalik jamiyatlarining balans qiymatini qisman hisobdan chiqarish qisman realizatsiya qilish bo‘lib hisoblanmaydi. O‘z navbatida qisman hisobdan chiqarishda hech qanday kechiktirilgan kurs farqlari moliyaviy natijalarda tan olinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi faoliyat tasnifi o‘zgargan hollarda, o‘zgargan tasnifga qo‘llaniladigan qayta hisoblash amallari ushbu o‘zgarish sanasidan boshlab foydalanilishi kerak.

Bosh jamiyatga nisbatan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida faoliyatni amalga oshirish va moliyalashtirish usulining o‘zgarishi uning tasnifi o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Faoliyatni O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga o‘tkazilayotganda, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan Sho‘ba (qaram) jamiyatlar qatoriga qo‘shilayotganda, tasnifning o‘zgarish sanasida, pul ko‘rinishida bo‘lmagan aktivlarni qayta hisoblashda paydo bo‘lgan kurs farqlari xususiy kapital sifatida hisobga olinadi. O‘zbeksiton Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan Sho‘ba (qaram) jamiyatlar O‘zbekiston Respublikasidan tashqarisidagi faoliyat sifatida qayta tasniflanganda, pul ko‘rinishida bo‘lmagan moddalarning qayta hisoblangan summalari kurs o‘zgarishlari sanasida ushbu moddalarning o‘zgarish sanasida va keyingi davrlarda boshlang‘ich qiymat sifatida hisobga olinadi. Ushbu ishlab chiqarishni sotilishigacha ko‘chirilgan kurs farqlari daromad yoki xarajat sifatida hisobga olinmaydi.

ILOVALAR

1-ilova

Buxgalteriya hisobi maqsadlarida chetel valyutasidagi ayrim operatsiyalarni so‘mda qayta hisoblash sanalari

Chetel valyutasidagi operatsiyalar	Chetel valyutasidagi operatsiyalar amalga oshirilgan sana bo‘lib hisoblanadi
Chetel valyutasidagi bank hisobvaraqlari bo‘yicha operatsiyalar	Chetel valyutasidagi pul mablag‘larining bankdagi hisobvaraqlarga kelib tushish yoki ularni bankdagi hisobvaraqlardan hisobdan chiqarish sanasi
Chetel valyutasidagi kassa operatsiyalari	Chetel valyutasini kassaga kirim qilish yoki ularni kassadan berish sanasi
Chetel valyutasidagi daromadlar	Chetel valyutasidagi daromadlarni tan olish sanasi
Chetel valyutasidagi xarajatlar	Chetel valyutasidagi xarajatlarni tan olish sanasi
Tovar-moddiy zaxiralari va boshqa aktivlarni baholash	Tovar-moddiy zaxiralari va boshqa aktivlarning xarid qilinganligini tasdiqlovchi boshlang‘ich hisob hujjatlari (tovarning kuzatuv hujjatlari yoki bojxona yuk deklaratsiyasi) mavjud bo‘lganda, ularni buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasi
Xodimlarning hisobdor summalari bo‘yicha chetel valyutasidagi qarzlarini aks ettirish	Bo‘nak hisobotini tasdiqlash sanasi
Chetel valyutasidagi qarzlarning to‘lanishi (qoplanishi)	Chetel valyutasidagi qarzlarni to‘lash (qoplash) sanasi
Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlar bo‘yicha qarzdorligining yuzaga kelishi	Yuridik shaxs maqomini olish sanasi
Ustav kapitalining shakllanishi (ko‘payishi)	Ustav kapitaliga ta’sischilar tomonidan ulushlarini kiritish sanasi

2-ilova

"NAMUNA"

_____
(korxonaning nomi)

OKUD bo‘yicha kodi _____

KIRIM KASSA ORDERI N ____

Kun	Oy

Aloqalanuvchi schyot, ikkilamchi schyot	Analitik hisob xos raqami	Summasi	Maqsadli foydalanish xos raqami

_____ dan qabul qilindi
_____dagi chetel valyutasi
nomi, nominal bo‘yicha summasi yozuv va raqamlarda)
Asos _____
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining operatsiyani amalga oshirilgan kundagi kursi _____
Milliy valyutadagi ekvivalenti _____
_____ so‘m. _____ tiyin.
(O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha summasi yozuv va raqamlarda)
lova _____
Bosh buxgalter
yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs) _____
Qabul qilib olgan kassir _____

o

"NAMUNA"

_____
(korxonaning nomi)

N_____ kirim kassa orderiga
KVITANTSIYA

_____
_____
_____dan qabul qilindi
_____dagi chetel valyutasi
_____
_____
_____
(nomi, nominal bo‘yicha summasi yozuv va raqamlarda)
Asos _____
_____
(yozuv bilan)

"___" _____ 200__ -y.

M. O‘.
Bosh buxgalter
(yoki uning vazifasini bajaruvchi shaxs) _____
Kassir _____

3-ilova

"NAMUNA"

_____
(korxonaning nomi)

OKUD bo‘yicha kodi _____

CHIQIM KASSA ORDERI N ____

Kun	Oy

Aloqalanuvchi schyot, ikkilamchi schyot	Analitik hisob xos raqami	Summasi	Maqsadli foydalanish xos raqami

_____ ga berilsin
(familiyasi, ismi, sharifi)
_____ dagi chetel valyutasi
(nomi, nominal bo‘yicha summasi yozuv va raqamlarda)
Asos: _____
O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining
operatsiyani amalga oshirilgan kundagi kursi _____
Milliy valyutadagi ekvivalenti _____ so‘m. _____ tiyin.
(O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha summasi yozuv va raqamlarda)
Ilova _____
Rahbar _____ Bosh buxgalter _____

_____
(nomi, nominal bo‘yicha summasi yozuv va raqamlarda)
_____dagi chetel valyutasini qabul qilib oldim
Milliy valyutadagi ekvivalenti_____ so‘m _____ tiyin.
(summasi yozuv va raqamlarda)
"____" _____ 20__ -y. Imzo_____
_____ bo‘yicha
(oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat nomi, raqami, berilgan joyi va vaqti)
Kassir _____ tomonidan berildi.

10-BOB. XUSUSIY KAPITAL HISOBI

1-§. Xususiy kapital hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari

Yuridik shaxs bo‘lib o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan korxona hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 40-moddasiga muvofiq foyda olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo‘lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo‘lishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo‘lgan yuridik shaxs xo‘jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxona va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin.

Tijoratchi tashkilot bo‘lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta’minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin. Tijoratchi bo‘lmagan tashkilot o‘zining ustavda belgilangan maqsadlariga mos keladigan doiralarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarni tashkil etishni amalga oshirishni tartibga soluvchi bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud. Yuridik shaxslarni tashkil etishning ***huquqiy asosini belgilovchi asosiy me’yoriy hujjat bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hisoblanadi.***

O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi Qonunining 9-15-moddalarida ***aksiyadorlik jamiyatlarini***, «Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi Qonunining 10-13-moddalarida ***mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlarni*** va «Xususiy korxonalar to‘g‘risida» gi Qonuninng 8-13-moddalarida ***xususiy korxonalarni tashkil etishni amalga oshirish tartibi ochib berilgan.***

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yuqorida aytib o‘tilgan me’yoriy hujjatlarda asosan faqatgina korxonalarni tashkil etishni amalga oshirishni huquqiy va tashkiliy tomonlari keltirilgan, biroq hisobga olish masalalari, ya’ni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish ochib berilmagan.

Xususiy kapital elementlarini buxgalteriya hisobi va ular to‘g‘risidagi axbortlarni moliyaviy hisobotlarda ochib berish Respublikamizda 14-son BHMS va boshqa buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 19-moddasiga muvofiq xususiy kapital - ustav kapitali, qo‘shilgan va zaxira kapitalidan, hamda taqsimlanmagan foydadan tarkib topadi.

Ustav kapitali - ta’sis hujjatlarida belgilangan hissalarning (pulda ifodalangan holdagi) yig‘indisini aks ettiradi. Ustav kapitaliga hissalar shaklida kiritiladigan moddiy va nomoddiy aktivlar ta’sischilar (ishtirokchilar) o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra baholanadi, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa, baholovchi tashkilot tomonidan baholanishi kerak.

Qo‘shilgan kapital aksiyalarni nominal qiymatidan baland narxlarda dastlabki sotishdan olinadigan emissiya daromadini, shuningdek ekvivalenti chetel valyutasida ifodalangan ustav kapitalini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan kurs farqini aks ettiradi.

Zaxira kapitali uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashda hosil bo‘ladigan inflyatsiya

zaxiralarini, qonun hujjatlarida va ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan miqdorlarda sof foydadan ajratmalarni, shuningdek tekinga olingan mol-mulkning qiymatini aks ettiradi.

Taqsimlanmagan foyda - foydaning jamg‘arilayotganini ifodalaydi va mulkdorlarning qaroriga binoan ustav kapitaliga qo‘shilishi mumkin.

Korxonalar tomonidan xususiy kapital elementlari hisobini tegishli ravishda tashkil etish va ularni harakatini nazorat qilish uchun zarur bo‘ladigan ichki nizom, yo‘riqnoma, boshqa tashkiliy-taqsimlovchi hujjatlarni ishlab chiqishlari mumkin. Yuqoridagi hujjatlarda bilan:

- xususiy kapital elementlari holati va harakati bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan boshlang‘ich hujjatlarning, aylanma qaydnomalar va boshqa jadvallar shakllari va ularni rasmiylashtirish (tuzish) tartibini, shuningdek hujjat aylanishining qoidalarini;
- xususiy kapital elementlarini shakllantirish va buxgalteriya hisobini yuritish hamda ular bo‘yicha hisobot tuzish va taqdim etishga tayyorlash bilan bog‘liq jarayonlarni amalga oshirishga ishonch bildirilgan bo‘linmalarining mas’ul shaxslari ro‘yxatini;
- xususiy kapital elementlarini shakllantirish bilan bog‘liq jarayonlarni nazorat qilish bo‘yicha hisobotlarni ishonchligini va boshqalarni tasdiqlashi mumkin.

2-§. Ustav kapitali hisobi

Ustav kapitali - bu ta’sis hujjatida belgilangan doiradagi faoliyatni ta’minlash uchun ta’sischilarning (ishtirokchilarning) korxona mulkiga qo‘ygan mablag‘lari (ulushlari, aksiyalar nominal qiymatida va h.k.lar)ning pul ifodasidagi yig‘indisidir. Ustav kapitalini shakllantirish jarayoni korxona tashkiliy-huquqiy shakliga muvofiq ravishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan tartibga solinadi.

Ulushlarga (qo‘shilgan hissalarga) yoki ta’sischilarning (ishtirokchilarning) aksiyalariga bo‘lingan ustav kapitaliga ega bo‘lgan tijoratchi tashkilotlar xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari hisoblanadi. Ta’sischilar (ishtirokchilar) qo‘shgan hissalar yoki ular sotib olgan aksiyalar hisobiga vujudga keltirilgan, shuningdek xo‘jalik shirkati yoki jamiyati o‘z faoliyati jarayonida ishlab chiqargan va sotib olgan mol-mulk huquqi asosida unga tegishlidir. Xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari to‘liq shirkat, kommandit shirkat, mas’uliyati cheklangan yoki qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat, aksiyadorlik jamiyati shaklida tuzilishi mumkin.

Mas’uliyati cheklangan jamiyat deb - bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav kapitali ta’sis hujjatlari bilan belgilab qo‘yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat tan olinadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlari qo‘shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek «mas’uliyati cheklangan» degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav kapitali ta’sis hujjatlarida belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat hisoblanadi. Bunday jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha o‘z mol-mulklari bilan qo‘shgan hissalari qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo‘lgan, jamiyatning ta’sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo‘ladilar. Ishtirokchilardan biri nochor (bankrot) bo‘lib qolganida uning jamiyat majburiyatlari bo‘yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta’sis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo‘lmasa, boshqa ishtirokchilar o‘rtasida ularning qo‘shgan hissalariga mutanosib ravishda

taqsimlanadi. Qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek «qo‘shimcha mas’uliyatli» degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Ustav kapitali ro‘yxatdan o‘tkazilgan hajmda yoki to‘langan aksiyalarning nominal qiymati yig‘indisi miqdorida aks ettiriladi. Ustav kapitalining hajmi ro‘yxatdan o‘tkazilgan ta’sis hujjatlaridagi summadan oshib ketishi mumkin emas. Korxona ustav kapitalining ko‘payishi yoki kamayishi faqat ta’sischilarning qarori asosida va ta’sis hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

Ustav kapitali muayyan aksiyalar soniga bo‘lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to‘lamagan aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo‘yicha o‘zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to‘lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo‘ladilar. Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o‘z ifodasini topishi kerak.

2.1. Aksiyalarni chiqarish va joylashtirish

«Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga muvofiq, qimmatli qog‘ozlar deb ularni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o‘rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydigan, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to‘lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish imkoniyatini nazarda tutadigan hujjatlar tan olinadi. Qimmatli qog‘ozlarning qiymati O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi. Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va joylashtirish ularni emissiyasi deb nomlanadi.

Aksiya - o‘z egasining aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismini dividendlar tarzida olishga, aksiyadorlik jamiyatini boshqarishda ishtirok etishga va u tugatilganidan keyin qoladigan mol-mulkning bir qismiga bo‘lgan huquqini tasdiqlovchi, amal qilish muddati belgilanmagan egasining nomi yozilgan emissiyaviy qimmatli qog‘oz. Aksiyalar faqat hujjatsiz shaklda ya’ni depozitariyning hisobga olish registrlaridagi yozuvlar tarzida chiqariladi.

Aksiyalarni chiqarish va ro‘yxatdan o‘tkazish «Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish Qoidalari» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 30-avgustda 2000-son bilan ro‘yxatga olingan)* ga muvofiq amalga oshiriladi.

«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan aksiyalar chiqarish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra yoki, agar aksiyadorlik jamiyati ustaviga yoki aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga muvofiq aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashiga bunday qaror qabul qilish huquqi tegishli bo‘lsa, aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra amalga oshiriladi.

Aksiyalar emissiyasi, agar qonun hujjatlarida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo‘lsa, quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- aksiyalarni chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish va tasdiqlash;

- aksiyalar emissiya risolasini tasdiqlash. ***Aksiyalar emissiya risolasi*** *(bundan keyingi o‘rinlarda risola deb yuritiladi)* bo‘lib emitent va u chiqaradigan aksiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, shuningdek investorning aksiyalar olish to‘g‘risidagi qaroriga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa axborotni aks ettiruvchi hujjat hisoblanadi;

- aksiyalar chiqarishni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

- aksiyalar chiqarishni Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysida hisobga olish;

- aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi axborotni qonun hujjatlari va «Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish Qoidalari» da belgilangan tartibda oshkor qilish;

- chiqarilgan aksiyalarni joylashtirish;

- ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga qimmatli qog‘ozlarni chiqarish natijalari to‘g‘risida bildirishnoma taqdim etish. ***Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ*** bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va uning hududiy organlari hisoblanadi.

Aksiya chiqarish to‘g‘risidagi qaror quyidagilar tomonidan tasdiqlanadi:

- emitentning ustaviga muvofiq emitentni Boshqaruv organini tomonidan (qoidaga ko‘ra mazkur holatda boshqaruv organi deb aksiyadorlar yig‘ilishi tushuniladi);

- agar aksiyadorlik jamiyatining ustavida nazarda tutilgan bo‘lsa Kuzatuv kengashi tomonidan.

Aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror «Aksiyalar chiqarilishi (qo‘shimcha, yangi chiqarilishi) to‘g‘risidagi qaror» (1-ilovaga qarang) shaklda barcha axborotni o‘z ichiga olishi lozim. Aksiyalarning har bir chiqarilishi bo‘yicha bu to‘g‘risida alohida qaror ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

«Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasi muvofiq, aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak:

- emitentning to‘liq nomi, joylashgan yeri (pochta manzili);
- aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror tasdiqlangan sana;
- aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorni tasdiqlagan emitent boshqaruv organining nomi;
- aksiyalarning nomi va ularning chiqarilish shakli;
- aksiyalar egasining huquqlari;
- aksiyalarni joylashtirish shartlari;
- aksiyalarning chiqarilishdagi soni;
- ilgari joylashtirilgan aksiyalarning soni;
- aksiyalarni nominal qiymati.

Risola emitent boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanadi va «Aksiyadorlik jamiyatining emissiya risolasi» (2-ilovaga qarang) shaklda barcha axborotni o‘z ichiga olishi lozim.

Oxirgi uch yil mobaynidagi yoki emitent tashkil topgan paytdan boshlab, agar bu muddat uch yildan kam bo‘lsa, har bir tugallangan yil uchun emitentning moliyaviy hisobotlari auditor tomonidan har yili majburiy tekshirishdan o‘tkazilganligini tasdiqlash uchun risolaga auditorlik xulosalari ilova qilinadi.

Emitentning oxirgi yil uchun moliyaviy hisobotining auditor tomonidan tekshiruvi tugaguniga qadar emitent risolani oxirgi tugallangan yil uchun auditorlik xulosasi nusxasini ilova qilmagan holda taqdim etishga haqli.

Agar emitent obyektiv sabablarga ko‘ra risolada talab qilinadigan biron-bir axborotni ko‘rsata olmasa, risolaning tegishli bandiga axborot yo‘qligining sababi ko‘rsatilgan holda (masalan: «Operatsiyalar o‘tkazilmadi», «Jazolar qo‘llanilmadi» va shu kabilar), «ma’lumotlar yo‘q» (yoki boshqa shunga o‘xshash mazmundagi) yozuvi kiritiladi.

Risola o‘z navbatida risolada mavjud barcha axborotning to‘g‘riligi va to‘liqligini tasdiqlovchi emitentning yakkaboshchilik asosidagi ijroiya organi yoki kollegial ijroiya organi rahbari vazifasini bajaruvchi shaxs, shuningdek emitentning bosh hisobchisi (uning vazifasini bajaruvchi boshqa shaxs) tomonidan imzolanishi lozim. Agar emitentning joriy faoliyatini boshqarish tijorat tashkilotiga berilgan bo‘lsa, risola mazkur tashkilot rahbari tomonidan imzolanishi kerak.

Qonun hujjatlariga muvofiq baholovchi tashkilot majburiy tarzda jalb etilgan taqdirda, risola

unda ko‘rsatilgan mol-mulkning baholash qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tasdiqlagan holda baholovchi tashkilot tomonidan ham imzolanishi shart.

«Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasiga muvofiq, aksiyalarning chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda emitent mazkur chiqarilishdagi aksiyalar nominal qiymatining 0,01 foizi miqdorida Respublika byudjetiga yig‘im to‘laydi. Ilgari ro‘yxatdan o‘tkazilgan chiqarilishdagi aksiyalarning nominal qiymati oshirilgan taqdirda, emitent mazkur chiqarilishdagi aksiyalarning nominal qiymati oshgan summasining 0,01 foizi miqdorida Respublika byudjetiga yig‘im to‘laydi.

Aksiyalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazganlik uchun yig‘im quyidagi hollarda olinmaydi:

- aksiyalar O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan emissiya risolasi asosida chiqarilgan taqdirda;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda.

Aksiyalarning chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun emitent ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

- aksiyalar chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi ariza (3-ilovaga qarang);
- davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga taqdim etilgan hujjatlar ro‘yxati (4-ilovaga qarang);
- aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror (uch nusxada);
- risola (uch nusxada) (qimmatli qog‘ozlar ommaviy joylashtirilgan taqdirda);
- aksiyalarni chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilinganligini tasdiqlovchi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi bayonnomasi nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma, shuningdek sanoq komissiyasi tomonidan tuzilgan kvorum va ovoz berish natijalari to‘g‘risidagi bayonnoma nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma, agar mazkur qaror kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilingan bo‘lsa - ovoz berishda ishtirok etgan kuzatuv kengashi a’zolarining familiyasi, ismi, shariflari ko‘rsatilgan yig‘ilish bayonnoma nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma;
- aksiyalarni chiqarish to‘g‘risida qaror tasdiqlanganligini tasdiqlovchi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi bayonnoma nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma, shuningdek sanoq komissiyasi tomonidan tuzilgan kvorum va ovoz berish natijalari to‘g‘risidagi bayonnoma nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma, kuzatuv kengashi tomonidan qimmatli qog‘ozlarni chiqarish to‘g‘risida qaror tasdiqlangan taqdirda esa - ovoz berishda ishtirok etgan kuzatuv kengashi a’zolarining familiyasi, ismi, shariflari ko‘rsatilgan yig‘ilish bayonnoma nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma;
- risola tasdiqlanganligini tasdiqlovchi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi bayonnomasi nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma, shuningdek sanoq komissiyasi tomonidan tuzilgan kvorum va ovoz berish natijalari to‘g‘risidagi bayonnoma nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma, kuzatuv kengashi tomonidan risola tasdiqlangan taqdirda esa - ovoz berishda ishtirok etgan kuzatuv kengashi a’zolarining familiyasi, ismi, shariflari ko‘rsatilgan yig‘ilish bayonnoma nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma;
- aksiyalarning chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik uchun belgilangan yig‘im to‘langanligi to‘g‘risidagi to‘lov hujjati (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno), bankning to‘lov o‘tkazilganligi to‘g‘risida belgisi qo‘yilgan holda.

Aksiyalar chiqarish va (yoki) ilgari ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyalar chiqarilishiga o‘zgartirishlar kiritishga doir hujjatlarni tayyorlash uchun emitent investitsiya maslahatchisini jalb qilishi mumkin.

Emitent tomonidan investitsiya maslahatchisi jalb qilingan taqdirda aksiyalar chiqarilishini

davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun taqdim etiladigan aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror, risola va ilgari ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyalar chiqarilishiga o‘zgartirishlar matni, investitsiya maslahatchisi rahbarining imzosi va asosiy muhri bilan tasdiqlanadi.

Investitsiya maslahatchisi emitentga hujjatlarni tayyorlashga doir xizmatlar ko‘rsatadi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish rad etilgan taqdirda ular o‘rtasida tuzilgan shartnoma va qonun hujjatlariga muvofiq emitent oldida javobgar bo‘ladi.

Aksiyalar chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga, agar belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalarni taqdim etish belgilanmagan bo‘lsa, hujjatlarning faqat asl nusxalari taqdim etiladi. Agar nusxaning kim tomonidan tasdiqlanishi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, emitentning rahbari va bosh hisobchisining imzolari bilan tasdiqlangan, emitentning asosiy muhri bosilgan hujjat nusxasi taqdim etiladi.

Aksiyalarning birlamchi chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun emitent aksiyadorlik jamiyati shaklidagi yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab, o‘ttiz kundan kechiktirmasdan ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga belgilangan tartibda hujjatlarni taqdim etadi.

Aksiyalarning keyingi chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun emitent aksiyalarni chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab uch oy ichida, biroq aksiyalarni chiqarish to‘g‘risida qarorni tasdiqlash to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oydan kechiktirmasdan, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga belgilangan tartibda hujjatlarni taqdim etadi.

Aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganda aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorning har bir nusxasida aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida belgi qo‘yiladi va aksiyalar chiqarilishiga berilgan ro‘yxat raqami ko‘rsatiladi.

Aksiyalar chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish:

- agar aksiyalar emissiyasi tijorat banklari, sug‘urtachilar, birjalar, qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari, chetel investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat qarorlariga binoan tashkil etilgan xo‘jalik birlashmalari tomonidan amalga oshirilsa, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning markaziy apparatida;

- boshqa hollarda, ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning emitent yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan joydagi hududiy organlarida amalga oshiriladi.

Aksiyalar chiqarish davlat tomonidan ro‘yxatga olingandan keyin emitentga quyidagilarni beralidi:

- aksiya chiqarish to‘g‘risidagi qarorning bir nusxasini (bir nusxasi Qimmatli qog‘ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Markazida qoladi, bir nusxasi Markaziy depozitariyga beriladi).

- chiqarilgan aksiyalarga davlat identifikatsiya tartib raqami berilgan va uni davlat ro‘yxatiga olinganligi to‘g‘risidagi belgisi bilan aksiyalar emissiyasi prospektining (chiqarish anketasi) nusxasini.

Aksiyalar chiqarilishi davlat tomonidan ro‘yxatga olingandan so‘ng emitent ikki xafta muddat ichida ommaviy axborot vositalarida aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi axborotlarni chop ettirishi (ma’lumotlarni ochishi) ga majbur.

Axborotlar quyidagilarni o‘zida jam etishi kerak:

- chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha ma’lumotlarni qo‘shgan holda aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

- investorlani emissiya risolasi (chiqarish anketasi) bilan tanishish joyi va tartibi(ularni joylashtirish boshlanishidan ikki hafta oldindan kechikmasdan);

- aksiyalarni emissiya risolasi (chiqarish anketasi) dagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma’lumot – mazkur o‘zgarishlarni qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan ro‘yxatga olingan vaqtdan boshlab ikki ish kunidan kechikmasdan.

Aksiyalarni joylashtirish quyidagi usullarda amalga oshirilishi mumkin:

a) emitent va oluvchi o‘rtasida tegishli shartnoma tuzilganda obuna qilish. Bunda, aksiyadorlar o‘zining hisoblangan, lekin olinmagan dividendlarini emitentning qo‘shimcha chiqarilgan aksiyalarini olishda foydalanishiga haqlidir;

b) emitentning ustav kapitali o‘z kapitali hisobidan to‘lanadigan qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi orqali oshirilganda aksiyalarni aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlash. Bunda, aksiyalarni emitentning aksiyadorlari o‘rtasida joylashtirish emitent oliy boshqaruv organining o‘z kapitalini ustav kapitaliga yo‘naltirish to‘g‘risidagi qarori asosida hech qanday shartnomalar tuzilmagan holda amalga oshiriladi. Aksiyalarni aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlash qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan kundagi reestr ma’lumotlari bo‘yicha amalga oshiriladi;

v) ularga ayirboshlashda:

- ustav, qonun hujjatlari, shu jumladan, «Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish Qoidalari» ga muvofiq avval chiqarilgan ayirboshlanayotgan qimmatli qog‘ozlarni;

- past nominal qiymatiga ega avval chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni (aksiyalar nominal qiymatini oshirish yo‘li bilan aksiyalarni yiriklashtirish yoki ustav kapitali ko‘paytirilganda);

- yuqori nominal qiymatiga ega avval chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni (aksiyalar nominal qiymatini kamaytirish yo‘li bilan aksiyalar maydalanganda yoki ustav kapitali kamaytirilganda);

- qo‘shib yuborish, birlashtirish, bo‘lish, ajratib chiqarish orqali qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxslarning qimmatli qog‘ozlari va (yoki) ulushlarini, shuningdek yuridik shaxsning aksiyadorlik jamiyati sifatida qayta tuzilishida kiritilgan ulushlarini.

Qimmatli qog‘ozlar va (yoki) ulushlarni ayirboshlash qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab 15 kalendar kunidan kechiktirmasdan amalga oshiriladi. Qimmatli qog‘ozlarni ayirboshlash orqali joylashtirilganda biror-bir shartnoma tuzilishi talab etilmaydi.

Aksiyalarning joylashtirilishi:

- aksiyalar birlamchi chiqarilgan taqdirda - aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda belgilangan muddatda, lekin emitent yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab bir yildan kechiktirmasdan;

- boshqa holatlarda - aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda belgilangan muddatda, lekin ushbu aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab bir yildan kechiktirmasdan tugallanishi kerak.

Emitent qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha jarayonlarga rioya etgan holda aksiyalarni joylashtirishga haqli bo‘lgan sana joylashtirish boshlangan sana deb tushuniladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari tashkil qilinganda aksiyalar uning ta’sischilari tomonidan nominal qiymati bo‘yicha to‘lanadi va aksiyalarning birinchi marta chiqarilishi ta’sischilar o‘rtasida joylashtirilishi kerak.

Emitent ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorda ko‘rsatilgan aksiyalarni joylashtirish muddati o‘tgan kundan keyin o‘ttiz kundan kechiktirmasdan, agar barcha aksiyalar ushbu muddat o‘tishidan oldin joylashtirilgan bo‘lsa - ushbu chiqarishdagi so‘nggi aksiyani joylashtirish kunidan keyin o‘ttiz kundan kechiktirmasdan ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga aksiyalarni chiqarish natijalari to‘g‘risidagi bildirishnomani taqdim etadi.

Aksiyalarni chiqarish natijalari to‘g‘risidagi bildirishnoma «Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish Qoidalari» ning 6-ilovasida keltirilgan shakl (5-ilovaga qarang) da taqdim etiladi.

Aksiyalarni chiqarish natijalari to‘g‘risidagi bildirishnoma kuzatuv kengashi raisi, shuningdek emitentning rahbari, uning bosh buxgalteri yoki ularning vazifalarini bajaruvchi shaxslar tomonidan imzolash sanasi ko‘rsatilgan holda imzolanadi. Emitentning aksiyalarni chiqarish natijalari to‘g‘risidagi bildirishnomani imzolagan mas’ul shaxslarning imzolari muhr bilan tasdiqlanishi lozim.

Aksiyalarni joylashtirish muddati davomida aksiyalarni chiqarish natijalari bo‘yicha bildirishnoma taqdim etilishiga qadar aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorga va risolaga o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalar kiritish faqat quyidagi holatlarda emitentning yozma arizasi asosida amalga oshiriladi:

- emitentning firma nomi o‘zgarganda, shu jumladan, kirill harflaridan lotin harflariga;
- aksiyadorlik jamiyati shakli o‘zgarganda;
- aksiyalarni joylashtirish muddatining qonun hujjatlarida belgilangan muddatlar doirasida uzaytirilganda;
- agar bunday o‘zgarishlar va (yoki) qo‘shimchalarni kiritish Hukumat qarorlari sababli amalga oshirilsa.

Aksiyalarni chiqarish natijalari bo‘yicha bildirishnoma topshirilgandan keyin aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorga o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritish faqat quyidagi holatlarda emitentning yozma arizasi asosida amalga oshiriladi:

- emitentning firma nomi o‘zgarganda, shu jumladan, kirill harflaridan lotin harflariga;
- to‘liq joylashtirilmaganda;
- aksiyadorlik jamiyati shakli o‘zgarganda;
- jamiyat ustav kapitalini kamaytirish maqsadida aksiyalar umumiy soni qisqartirilganda.

Aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror va (yoki) risolaga o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar emitent boshqaruv organining qaroriga ko‘ra kiritiladi. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror va emissiya risolaga ushbu hujjatlarda noto‘g‘ri ma’lumotlar yoki texnik tavsifga ega xatolar topilganda, shuningdek emitent tomonidan aksiyalar emissiyasi jarayonida qonun hujjatlari va «Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish Qoidalari» talablari buzilgan taqdirda o‘zgartirishlar kiritishni talab qilishi mumkin.

Aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror va aksiyalar risolasiga qo‘shimchalar va (yoki) o‘zgartirishlar aksiyalarni joylashtirish muddatini, shuningdek ushbu qaror bilan belgilangan va risolada ko‘rsatilgan bir dona aksiya bo‘yicha huquqlar hajmi qismini qisqartirish maqsadlarida kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi. Chiqarishlarga kiritilgan barcha o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ tomonidan yuqorida ko‘rib chiqilgan talablariga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror va (yoki) risolaga o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun hujjatlar ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga o‘zgartirishlar kiritiladigan hujjatlar ro‘yxatdan o‘tkazilgan joyda emitentning vakolatli organi tomonidan bunday o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan kundan boshlab o‘ttiz kun mobaynida, agar aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror va (yoki) risolaga o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritish emitent ta’sis hujjatlariga o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritishga asoslangan bo‘lsa - emitentning ta’sis

hujjatlariga kiritilgan tegishli o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab o‘ttiz kun mobaynida taqdim etiladi.

Emitentning boshqaruv organi tomonidan aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorga va (yoki) ularning risolasiga o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan kundan boshlab emitent aksiyalar joylashtirilishi va muomalasini to‘xtatib turish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Aksiyalarning joylashtirilishi va muomalasini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi bildirishnoma emitent tomonidan qimmatli qog‘ozlarni joylashtirilishini to‘xtatib turish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan kundan keyingi kundan kechiktirmasdan Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysiga taqdim etiladi.

Avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyalar chiqarilishiga kiritilgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun emitent ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyalar chiqarishlariga o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganligini tasdiqlovchi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining bayonnoma nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq sanoq komissiyasi tomonidan tuzilgan kvorum va ovoz berish natijalari to‘g‘risidagi bayonnoma nusxasi yoki bayonnomadan ko‘chirma, avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyalar chiqarishlariga o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qaror kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilgan taqdirda esa - yig‘ilish bayonnoma nusxasi yoki bayonnomasidan ko‘chirma, ovoz berishda ishtirok etgan kuzatuv kengashi a’zolarining familiyasi, ismi, sharifi ko‘rsatilgan holda;
- avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyalar chiqarishlariga kiritilgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga ariza (6-ilovaga qarang);
- avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyalar chiqarishlariga kiritilgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalarning matni, shuningdek aksiyalarni joylashtirish muddati davomida aksiyalarni chiqarish natijalari bo‘yicha bildirishnoma taqdim etilishiga qadar aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorga va risolaga o‘zgartirish va (yoki) qo‘shimchalar kiritishga olib kelgan holatlarda risolaga kiritilayotgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar matni (7-ilovaga qarang) uch nusxada;
- o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan taqdirda, ustavga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning notarial tasdiqlangan nusxasi;
- o‘zgartirishlar va qo‘shimchalarni ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha hujjatlarni ko‘rib chiqish uchun belgilangan yig‘im to‘langanligi to‘g‘risidagi to‘lov hujjati, bankning to‘lov o‘tkazilganligi to‘g‘risida belgisi bilan;
- Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysiga yuborilgan qimmatli qog‘ozlarning harakatini blokirovka qilish to‘g‘risida bildirishnomaning nusxasi;
- davlat ro‘yxatiga olish uchun taqdim etilgan hujjatlar ro‘yxati (4-ilovaga qarang).

Aksiyalarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olishni depozitariylar amalga oshiradi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Depozitariylar o‘z deponentlarining schyotlariga ularning Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysidagi vakillik schyotlarida jamlab hisobga kiritiladigan aksiyalarga bo‘lgan huquqlari hisobini yuritadi va ularga bo‘lgan huquqlarni hisobga oladi.

Aksiyalarga bo‘lgan huquqlar oluvchiga uning depo schyotiga tegishli kirim yozuvi belgilangan tartibda kiritilgan paytdan e’tiboran o‘tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda depozitariy tomonidan beriladigan Depo schyotidan ko‘chirma bilan tasdiqlanadi. Aksiya bilan tasdiqlanadigan huquqlar ushbu aksiya bo‘lgan huquqlar o‘tgan paytdan e’tiboran oluvchiga o‘tadi.

2.2. Ustav kapitalini shakllantirish va hisobi

Mas'uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas'uliyatli jamiyatlarda ustav fondi (ustav kapili) shakllantirilayotganda kiritiladigan ulush sifatida pul, qimmatli qog‘ozlar, boshqa narsa yoki mulkiy huquqlar, yoki pulda bahosi mavjud bo‘lgan boshqa beriladigan huquqlar bo‘lishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini to‘lash qonunchilikda belgilangan tartibda pul va boshqa to‘lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda bahosi mavjud bo‘lgan huquqlar (shu jumladan mulkiy) amalga oshiriladi. Aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini to‘lash shakli ularni ta'sis etishda aksiyadorlik jamiyatini ta'sis etish shartnomasi (qayta tashkil etish qarori) da yoki aksiyadorlik jamiyatning ustavida, qo‘shimcha aksiya va boshqa qimmatli qog‘ozlar chiqarishda esa ularni joylashtirish to‘g‘risidagi qarorda belgilanadi.

Ulushlarni pulsiz mablag‘lar bilan to‘langanda qonunchilikda quyidagilar nazarda tutilgan:

- xususiy korxonalarda mulkdor ustav kapitaliga o‘zi kiritadigan mol-mulkni mustaqil baholaydi («Xususiy korxona to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi);

- mas'uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas'uliyatli jamiyatlarda ishtirokchilar va qabul qilinadigan uchinchi shaxslar tomonidan jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo‘shiladigan pulsiz hissalarning pul bahosi jamiyat ishtirokchilari umumiy yig‘ilishining jamiyatning barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan qarori bilan tasdiqlanadi («Mas'uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasi);

- aksiyadorlik jamiyatlarida jamiyatni ta'sis etish chog‘ida aksiyaga to‘lanadigan haq sifatida topshirilayotgan mol-mulkning puldagi bahosi ta'sischilar o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq aniqlanadi. Agar jamiyatning shu yo‘sinda sotib olinayotgan aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarining nominal qiymati qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining ikki yuz (200) baravaridan ko‘pni tashkil etsa, jamiyatning aksiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlarining haqi sifatida topshirilayotgan mol-mulkning pulda ifodalangan bahosi baholovchi korxona tomonidan chiqarilishi zarur («Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 31-moddasi).

Korxona o‘zining barcha majburiyatlari bo‘yicha javobgarlikni o‘zining barcha mol-mulki bilan bajarishi kerak. Ustav kapitali o‘z navbatida korxonaning kreditorlari manfaatlarini kafotlaydigan mol-mulkni minmal miqdorini aniqlaydi. SHuning uchun ham ustav kapitali noto‘g‘ri (fiktiv) yoki sun'iy oshirilmagan bo‘lishi kerak. Ya'ni ulush sifatida kiritilgan mol -mulkni sotishdan mablag‘lar ulushning nomil qiymatiga mos kelishi kerak. Mana shuni tasdiqlash maqsadida pulsiz kiritiladigan yirik ulushlarni mustaqil baholash amalga oshiriladi.

SHu bilan birga oddiy va imtiyozli aksiyalarni sotishdan olingan summalarning aksiyalar nominal qiymatidan oshgan miqdori ya'ni aksiyalarni dastlabki sotishda nominal qiymatidan yuqori bahoda olingan eimssion daramod, shuningdek ustav kapitalini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan kurs farqlarni summasi ko‘rinishidagi qo‘shilgan kapital mavjudligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlar qo‘shilgan kapital tarkibida hisobga olinishiga ham e'tibor qaratish lozim.

21-son BHMS ga muvofiq ustav kapitalini holati va harakati hamda shakllanishi to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 8310 «Oddiy aksiyalar» schyotida oddiy aksiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan aksiyadorlik kapitali hisobga olinadi. 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti bo‘yicha analitik hisob aksiyadorlik jamiyatining oddiy aksiyalar bo‘yicha ta'sischilari va kapitalning shakllanish bosqichi bo‘yicha ma'lumotlarning shakllanishini ta'minlashi kerak;

- 8320 «Imtiyozli aksiyalar» schyotida imtiyozli aksiya ko‘rinishida chiqarilgan aksiyadorlik kapitali hisobga olinadi. 8320 «Imtiyozli aksiyalar» schyoti bo‘yicha analitik hisob aksiyadorlik jamiyatining imtiyozli aksiyalar bo‘yicha ta’sischilari va kapitalning shakllanish bosqichi bo‘yicha ma’lumotlarning shakllanishini ta’minlashi kerak;

- 8330 «Pay va ulushlar» schyotida korxonaning tashkiliy-huquqiy shakllariga asosan qatnashuvchilarning ulushlarini o‘zida mujassamlashtirgan ustav kapitali hisobga olinadi. 8330 «Pay va ulushlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob korxonaning har bir ta’sischisi bo‘yicha alohida yuritiladi.

- 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyotida korxona ta’sischilari (aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari, o‘rtoqlik jamiyatlarining ishtirokchilari va sh.k.) ning korxona ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzlari hisobga olinadi. 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti bo‘yicha analitik hisob (ko‘rsatuvchiga aksiyalardan tashqari) har bir ta’sischi bo‘yicha alohida yuritiladi.

Aksiyadorlik jamiyati davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin uning ustav kapitali emissiya prospektida ro‘yxatga olingan summada 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti (oddiy aksiyalarning umumiy qiymatiga) va 8320 «Imtiyozli aksiyalar» (imtiyozli aksiyalarning umumiy qiymatiga) schyotining krediti va 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyotining debetida aks ettiriladi.

Aksiyalar 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti va 8320 «Imtiyozli aksiyalar» schyotida nominal qiymatlari bo‘yicha hisobga olinadi.

Boshqa tashkiliy-huquqiy shakllardagi korxonani davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan keyin uning ta’sis hujjatlarida nazarda tutilgan summa ta’sischilar qarz sifatida 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyotining debetida va 8330 «Pay va ulushlar» schyotining krediti hisobga olinadi.

Ta’sischilarning ulush summalari pul mablag‘lari ko‘rinishida haqiqatda kelib tushganda 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyotining kreditida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlari (5000, 5100, 5200, 5500) bilan bog‘langan holda buxgalteriya yozuv amalga oshiriladi. Moddiy va boshqa qiymatliklar (pul mablag‘laridan tashqari) ko‘rinishidagi ulushlar 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyotining kreditida asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, materiallar va boshqalarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan buxgalteriya yozuvlar bilan rasmiylashtiriladi. Korxonaga mulk sifatida aksiyalarga to‘lov uchun natura shaklida berilgan mol-mulk ta’sischilar kelishuvi asosida aniqlangan bahoda kirim qilinadi.

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom»ning 3.5.-bandiga muvofiq, o‘zining aksiyalarini chiqarish va joylashtirish bilan bog‘liq xarajatlar, xususan aksiyalar emissiya risolasini tayyorlash, aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qaror va risolani ro‘yxatdan o‘tkazish va shunga o‘xshash boshqa xarajatlar moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar tarkibiga qo‘shiladi.

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom»ning 2.3.12.-bandiga muvofiq, depozitariy xizmatlariga haq to‘lash boshqa operatsion xarajatlar tarkibiga qo‘shiladi.

Aksiyalarni chiqarish bilan bog‘liq operatsiyalar quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettiriladi:

debet 9630 «Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bo‘yicha xarajatlar» schyoti;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki boshqa majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti.

Depozitariy xizmatlariga haq to‘lash bilan bog‘liq operatsiyalar quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettiriladi:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki boshqa majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar.

Ustav kapitalini shakllanishi bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

- aksiyadorlik jamiyati ro‘yxatdan o‘tganda ta’sischilarning ustav kapitalidagi qarzi (aksiyalarning nominali bo‘yicha umumiy qiymatiga) summasiga:

debet 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti;

kredit 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti;

kredit 8320 «Imtiyozli aksiyalar» schyoti;

- boshqa tashkiliy-huquqiy shakllardagi korxonani ro‘yxatdan o‘tganda ta’sischilarning ustav kapitalidagi ulushi bo‘yicha qarzi summasiga:

debet 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti;

kredit 8330 «Pay va ulushlar» schyoti;

- ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi qoplanadi:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti;

debet 0830 «Nomoddiy aktivlarni xarid qilish» schyoti;

debet materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000);

debet pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500) va boshqa qiymatliklarni hisobga oluvchi schyotlar;

debet 6610 «To‘lanadigan dividendlar» schyoti (ustav kapitali foyda hisobiga ko‘paytirilganda);

kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti;

- ustav kapitali shakllangan (to‘langan) miqdorigacha kamaytirilganda ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qoplanmagan qarzi summasiga:

debet 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti;

kredit 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti;

kredit 8320 «Imtiyozli aksiyalar» schyoti;

kredit 8330 «Pay va ulushlar» schyoti;

- korxona ta’sischilariga pay va ulushlari qaytarilganda:

debet 8330 «Pay va ulushlar» schyoti;

kredit 8330 «Chiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlar bo‘yichak qarz» schyoti.

Korxonaning aksiyadorlik kapitali hisobida ro‘yxatdan o‘tgan, lekin emissiyasi tugallanmagan miqdorda hisobga olinishi sababli e’lon qilingan (chiqarishga ruxsat berilgan) chiqarilgan (aksiyadorlar tomonidan obuna amalga oshirilgan) va muomaladagi oddiy aksiyalarning har qaysi emissiyasi bo‘yicha alohida analitik hisob yuritish talab etiladi. Buxgalteriya hisobida analitik hisobni shunday tashkil qilish kerakki u aksiyadorlik jamiyati ta’sischilari bo‘yicha axborotni kapitalni shakllanish bosqichlari va aksiyalarni turlari bo‘yicha jamlashni ta’minlab bersin.

Buning uchun 8310 «Oddiy aksiyalar» schyotini 21-son BHMS dagi schyotlar rejasida nazarda tutilmagan lekin ustav kapitalini shakllanishini to‘g‘ri aks ettirish uchun zarur bo‘lgan quyidagi schyotlarga ajratish lozim:

- 8310 «Oddiy aksiyalar – e’lon qilingan» schyoti - aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorga muvofiq joylashtirishga mo‘ljallangan oddiy aksiyalarning nominal qiymatini aks ettirish uchun;

- 8311 «Oddiy aksiyalar – obuna kapitali» schyoti - obuna bo‘lingan oddiy aksiyalarning nominal qiymatini hisobga olish uchun;

- 8312 «Oddiy aksiyalar – to‘langan kapitali» schyoti - ta’sischilar tomonidan qiymati to‘langan oddiy aksiyalarning nominal qiymatini aks ettirish uchun.

Shuningdek, 8320 «Imtiyozli aksiyalar» schyotini ham 21-son BHMS dagi schyotlar rejasida nazarda tutilmagan, lekin ustav kapitalini shakllanishini to‘g‘ri aks ettirish uchun zarur bo‘lgan quyidagi schyotlarga ajratish lozim:

- 8320 «Imtiyozli aksiyalar – e’lon qilingan» schyoti - aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorga muvofiq joylashtirishga mo‘ljallangan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatini aks ettirish uchun;

- 8321 «Imtiyozli aksiyalar – obuna kapitali» schyoti - obuna bo‘lingan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatini hisobga olish uchun;

- 8322 «Imtiyozli aksiyalar – to‘langan kapitali» schyoti - ta’sischilar tomonidan qiymati to‘langan imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatini aks ettirish uchun.

Aksiyalar likvidliligini oshirish maqsadida ularni maydalab yuborish, ya’ni, ularning nominal qiymatini mutanosib ravishda kamaytirib umumiy miqdorini ko‘paytirish usuli qo‘llaniladi. Aksiyalarni maydalash natijalari aksiyadorlar kapitalining hajmiga ta’sir ko‘rsatmay, faqatgina yangi muomaladagi aksiyalarning nominal qiymati va miqdorini ko‘paytirishi sababli ushbu muomalalar bo‘yicha buxgalteriya yozuvlari amalga oshirilmaydi. Ushbu operatsiyalar 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti va 8320 «Imtiyozli aksiyalar» schyotiga ochilgan analitik hisob registrlarida qayd qilish zarur.

Korxona ustav kapitalini shakllanishi buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Aksiyadorlik jamiyatning ustav kapitali 6 000 000 000 so‘m qilib e’lon qilingan va u 12 000 dona imtiyozli aksiyaga va 1 080 000 dona oddiy aksiyaga ajratilgan bo‘lib, aksiyaning nominal qiymati 5 000 so‘m. Jamiyat ta’sis etilganda aksiyalar nominal qiymat bo‘yicha joylashtirilishi hamda imtiyozli aksiyalarning qiymati naqd pulda (10 foizi), oddiy aksiyalarning qiymati 50 foizi bank schyotidan pul mablag‘lari o‘tkazish yo‘li bilan (naqdsiz) va 50 foizi asosiy vositalar bilan to‘lanishi ta’sis hujjatlarida aytib o‘tilgan. Asosiy vositalar sifatida quyidagilar kiritilgan: ishlab chiqarish binosi 500 000 000 so‘m, avtotransport vositalari (avtomobillar va avtobuslar), 1 900 000 000 so‘m, mebel va ofis jihozlari 90 000 000 so‘m, kompyuterlar majmuasi 60 000 000 so‘m, avtomobil va avtobuslarni texnik ko‘rikdan o‘tkazish dastgohlari 150 000 000 so‘m.

Aksiyadorlik jamiyatini ta’sis etilishi va ta’sischilar tomonidan aksiyalar qiymatini to‘lashnishi bilan bog‘liq operatsiyalar aksiyadorlik jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ta’sis hujjatlariga muvofiq jamiyatning ustav kapitali summasiga:

debet 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 6 000 000 000 so‘m;
kredit 8310 «Oddiy aksiyalar – e’lon qilingan» schyoti 5 400 000 000 so‘m;
kredit 8320 «Imtiyozli aksiyalar – e’lon qilingan» schyoti 600 000 000 so‘m;

- aksiyalar qiymatini to‘lash bo‘yicha ta’sischilardan asosiy vositalar va pul mablag‘lari kelib tushishi:

debet 0120 «Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar» schyoti 500 000 000 so‘m;

debet 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti 150 000 000 so‘m;
debet 0140 «Mebel va ofis jihozlari» schyoti 90 000 000 so‘m;
debet 0150 « Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi» schyoti 60 000 000 so‘m;
debet 0160 «Transport vositalari» schyoti 1 900 000 000 so‘m;
debet 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti 600 000 000 so‘m;
debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 2 700 000 000 so‘m;
kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 6 000 000 000 so‘m;

bir vaqtning o‘zida:

- oddiy aksiyalarning qiymati to‘langanda:

debet 8310 «Oddiy aksiyalar – e’lon qilingan» schyoti 5 400 000 000 so‘m;
kredit 8312 «Oddiy aksiyalar – to‘langan kapitali» schyoti 5 400 000 000 so‘m;

- imtiyozli aksiyalarning qiymati to‘langanda:

debet 8320 «Imtiyozli aksiyalar – e’lon qilingan» schyoti 600 000 000 so‘m;
kredit 8322 «Imtiyozli aksiyalar – to‘langan kapitali» schyoti 600 000 000 so‘m.

O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» gi (yangi tahrir) Qonunining 9-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududida yuridik shaxslarning ustav fondlari (ustav kapitallari) miqdorlariga doir talablar faqat O‘zbekiston Respublikasi valyutasida belgilanadi.

Buxgalteriya hisobida ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushini chetel valyutasida kiritishi, ulushni kiritish sanasidagi Markaziy bankning kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ustav kapitali miqdori chetel valyutasida belgilangan va ustav kapitaliga ulushlar kiritish legitim so‘mlarda amalga oshirilgan hollarda ham, qayta hisoblash Markaziy bankning ulushlarni kiritish sanasidagi kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ustav kapitali chetel valyutasida belgilangan taqdirda ustav kapitalini shakllanishi va buxgalteriya hisobi 22-son BHMS da belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ustav kapitaliga ulushini chetel valyutasida kiritilganda ustav kapitalini shakllanishi va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

3-§. Qo‘shilgan kapital hisobi

Qo‘shilgan kapital aksiyalarni nominal qiymatidan baland narxlarda dastlabki sotishdan olinadigan emissiya daromadini, shuningdek ekvivalenti chetel valyutasida ifodalangan ustav kapitalini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan kurs farqini aks ettiradi.

21-son BHMS ga muvofiq, oddiy va imtiyozli aksiyalarni sotishdan olingan summalarning aksiyalar nominal qiymatidan oshgan miqdori va ustav kapitali chetel valyutasida belgilangan taqdirda ustav kapitalini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan kurs farqlari ko‘rinishidagi qo‘shilgan kapital naqdligi va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umulashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 8410 «Emissiya daromadi» schyotida oddiy va imtiyozli aksiyalarni dastlabki joylashtirishda nominal qiymatidan yuqori bahoda olingan mablag‘lar hisobga olinadi. 8410 «Emissiya daromadi» schyoti bo‘yicha analitik hisob oddiy va imtiyozli aksiyalardan olingan daromadlar bo‘yicha alohida yuritiladi;

- 8420 «Ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi» schyotida ustav kapitalini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan kurs farqlarini hisobga olinadi. 8420 «Ustav kapitalini shakllantirishda kurs farqi» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir ta’sischi bo‘yicha alohida yuritiladi.

Aksiyalarni birinchi marta (birinchi egalariga sotilishida) nominal qiymatidan yuqori narxda sotilishidan emissiya daromadi yuzaga va 8410 «Emissiya daromadi» schyotining krediti bo‘yicha hisobga olinadi. Mazkur summalarni sotib olingan xususiy aksiyalarni bekor qilishda sotib olish qiymati va nominal qiymati o‘rtasidagi farqni qoplash uchun ishlatilishi 8410 «Emissiya daromadi» schyotining debeti bo‘yicha hisobga olinadi.

Emissiya daromadi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti;

debet 0830 «Nomoddiy aktivlarni xarid qilish» schyoti;

debet materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000);

debet pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500) va boshqa qiymatliklarni hisobga oluvchi schyotlar;

kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti;

kredit 8410 «Emissiya daromadi» schyoti.

Emissiya daromadini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali 7 000 000 000 so‘m qilib e’lon qilingan va u 140 000 dona imtiyozli aksiyaga va 1 260 000 dona oddiy aksiyaga ajratilgan bo‘lib, aksiyaning nominal qiymati 5 000 so‘m. Jamiyat ta’sis etilganda aksiyalar nominal qiymatdan yuqori narxda, ya’ni 6 000 so‘m bo‘yicha joylashtirilishi hamda imtiyozli aksiyalarning qiymati naqd pulda, oddiy aksiyalarning qiymati 85 foizi bank schyotidan pul mablag‘lari o‘tkazish yo‘li bilan (naqdsiz) va 15 foizi tovar-moddiy zaxiralar bilan to‘lanishi ta’sis hujjatlarida aytib o‘tilgan. Tovar-moddiy zaxiralar sifatida quyidagilar kiritilgan: yoqilg‘i va moylash materiallari 800 000 000 so‘m, avtotransport vositalarining ehtiyot qismlari 300 000 000 so‘m, inventar va xo‘jalik jihozlari (har xil ishlab chiqarishdagi asbob-uskunalar, kanselyariya buyumlari majmuasi va boshqalar) 34 000 000 so‘m.

Aksiyadorlik jamiyatini ta’sis etilishi va ta’sischilar tomonidan aksiyalar qiymatini to‘lashnishi bilan bog‘liq operatsiyalar aksiyadorlik jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ta’sis hujjatlariga muvofiq jamiyatning ustav kapitali summasiga:

debet 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti — *7 000 000 000 so‘m;*

kredit 8310 «Oddiy aksiyalar – e’lon qilingan» schyoti — *6 300 000 000 so‘m;*

kredit 8320 «Imtiyozli aksiyalar – e’lon qilingan» schyoti — *700 000 000 so‘m;*

- aksiyalar qiymatini to‘lash bo‘yicha ta’sischilardan tovar moddiy zaxiralar va pul mablag‘lari kelib tushishi:

debet 1030 «yoqilg‘ilar» schyoti — *800 000 000 so‘m;*

debet 1040 «Ehtiyot qismlar» schyoti — *300 000 000 so‘m;*

debet 1080 «Inventar va xo‘jalik
jihozlari» schyoti *34 000 000 so‘m;*
debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *7 266 000 000 so‘m;*
kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning
ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti *7 000 000 000 so‘m;*
kredit 8410 «Emissiya daromadi» schyoti *1 400 000 000 so‘m;*

bir vaqtning o‘zida:

- oddiy aksiyalarning qiymati to‘langanda:

debet 8310 «Oddiy aksiyalar
– e’lon qilingan» schyoti *6 300 000 000 so‘m;*
kredit 8312 «Oddiy aksiyalar
– to‘langan kapitali» schyoti *6 300 000 000 so‘m;*

- imtiyozli aksiyalarning qiymati to‘langanda:

debet 8320 «Imtiyozli aksiyalar
– e’lon qilingan» schyoti *700 000 000 so‘m;*
kredit 8322 «Imtiyozli aksiyalar
– to‘langan kapitali» schyoti *700 000 000 so‘m.*

Ustav kapitalini shakllantirish uchun valyuta va valyuta qiymatliklari berilganda, ularni qymati ustav kapitaliga ulushlarni kiritish sanasidagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha baholanadi. Valyuta va valyuta qiymatliklarini va boshqa mulklarni baholash ro‘yxatdan o‘tkazish sanasidagi ta’sis hujjatlarida belgilangan baholardan farq qilishi mumkin.

Korxonaning ustav kapitalini shakllantirishda ta’sis hujjatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish sanasidagi va ustav kapitaliga mablag‘larni haqiqatda kiritish sanasidagi Markaziy bank kurslari o‘rtasida vujudga keladigan ijobiy kurs farqi buxgalteriya hisobida qo‘shilgan kapital sifatida ***8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi»*** schyotida aks ettiriladi.

Korxonaning ustav kapitalini shakllantirishda ta’sis hujjatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish sanasidagi va haqiqatda ustav kapitaliga ulushlarni kiritish sanasidagi Markaziy bank kurslari o‘rtasida vujudga keladigan salbiy kurs farqi buxgalteriya hisobida ***8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi»*** schyotining debetida ustav kapitalini shakllanishida vujudga kelgan oldingi ijobiy kurs farqi summasi chegarasida aks ettiriladi. Ustav kapitalini shakllantirishdagi salbiy kurs farqi summasining ijobiy kurs farqi summasidan oshgan qismi moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlari sifatida tan olinadi va mazkur summa 9620 «Valyutalar kurslari farqidan zararlar» schyotining debetiga kiritiladi. Kurs farqlarining bu tartibda hisobdan chiqarilishi ta’sis hujjatlarida oldindan kelishilgan, ustav kapitalidagi ta’sischilarning ulushining o‘zgarmasligiga imkon beradi.

Ustav kapitalini qo‘shimcha oshirilganligi (kamaytirilganligi) ni shakllantirishda vujudga keladigan kurs farqlarining buxgalteriya hisobi, ustav kapitalini boshlang‘ich ro‘yxatga olish va shakllantirishdagi buxgalteriya hisobiga o‘xshash tarzda, yuqorida keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Agar chetel valyutasida aks ettirilgan ustav kapitalining oshirilishi munosabati bilan ulushlar kiritish qonunchilikka muvofiq ta’sis hujjatlariga o‘zgartirishlarni ro‘yxatdan o‘tkazishga qadar amalga oshirilgan bo‘lsa, buxgalteriya hisobida ushbu xo‘jalik operatsiyasi ***6630 «Ta’sischilarga bo‘lgan boshqa qarzlar» schyotining*** kreditida aktivlarni hisobga oluvchi schetlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Ustav kapitaliga ulushini chetel valyutasida kiritilganda ustav kapitalini shakllantirish jarayonida vujudga keladigan kurs farqlarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

4-§. Rezerv kapitali hisobi

21-son BHMS ga muvofiq, korxona ta'sis hujjatlariga asosan foyda hisobidan shakllantiriladigan rezerv kapitali (fond), uzoq muddatli aktivlarni qayta baholashdan yuzaga keladigan inflyatsiya rezervlari, pul mablag'laridan tashqari tekinga olingan mol-mulklar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schyotida mulklarni qayta baholash natijasida vujudga kelgan o'zgarishlar hisobga olinadi;

- 8520 «Rezerv kapitali (fondi)» schyotida korxona tomonidan ta'sis hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq tashkil etilgan rezerv kapitali hisobga olinadi;

- 8530 «Tekinga olingan mulk» schyotida korxona tomonidan tekinga olingan mulkni hisobga olinadi.

Korxona asosiy vositalari qiymatini amaldagi narxlar darajasiga muvofiq keltirish maqsadida ularni qayta baholash amalga oshiriladi. Asosiy vositalarni qayta baholash deganda asosiy vositalarning tiklash qiymatini hozirgi bozor narxlari darajasiga moslash maqsadida ularni vaqti-vaqti bilan aniqlashtirish tushuniladi. Amaliyotda asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari bo'yicha qayta baholanishi (shu jumladan vaqti-vaqti bilan) mumkin.

Asosiy vositalarni qayta baholash natijalari moliyaviy hisobotda asosiy vositalarni qayta baholash amalga oshirilgan joriy davr uchun, ya'ni oylik hisobot tuzilganda – yanvar oyi hisobotida, choraklik hisoboti tuzilganda – birinchi chorak hisobotida, yillik hisobot tuzilganda – kalendar yili hisobotida aks ettiriladi.

Asosiy vositalarni qayta baholash natijalari moliyaviy hisobotda asosiy vositalarni qayta baholash o'tkazilgan joriy davrda aks ettiriladi. Qayta baholash natijalari avvalgi hisobot yilidagi moliyaviy hisobot ma'lumotlariga kiritilmaydi hamda hisobot yili boshida moliyaviy hisobot ma'lumotlarini shakllantirishda qabul qilinadi. Bunda o'tgan yil yakuni va hisobot yili boshidagi ma'lumotlarning mos kelmasligi hisobot yilining dastlabki sanasidagi holatga ko'ra o'tkazilgan asosiy vositalarni qayta baholash natijasi sifatida tushuntiriladi hamda joriy davrdagi moliyaviy hisobotga tushuntirish xatida bayon etiladi. «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «Hisobot yili boshiga» ustunida asosiy vositalarning qayta baholangan qiymati ko'rsatiladi.

Qayta baholash natijasida asosiy vositalar qo'shimcha baholash summasi rezerv kapitali tarkibidagi 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schyotiga hisobga kiritiladi. Qayta baholash natijasida asosiy vositalar narxining arzonlashgan (kamaygan) summasi avvalgi hisobot davrlarida o'tkazilgan ushbu asosiy vositalarni qo'shimcha baholash summalari doirasida 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schyotiga rezerv kapitalining kamayishiga kiritiladi.

Asosiy vosita bo'yicha avvalgi qayta baholash (qo'shimcha baholash) summasidan oshgan narxini arzonlashgan (kamaygan) summasi xarajat sifatida tan olinadi va 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotida aks ettiriladi.

Asosiy vositalarning chiqib ketishidan moliyaviy natijani (foyda yoki zararni) aniqlashda oldingi qayta baholashlardan hosil bo'lgan asosiy vosita qiymati oshishi summasining qoldig'i, ya'ni ushbu asosiy vositaning qayta baholashlar natijasida bahosining oshgan summasi bahosining pasaygan summasidan oshgan qismi asosiy vositalarning chiqib ketishini hisobga

oluvchi schyotning kreditiga olib borilib, bir vaqtning o‘zida 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyotini kamaytiradi.

Agarda 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyotida hisobga olingan asosiy vositalarni qayta baholash natijasi (qoldiq), ya’ni ushbu asosiy vositani qayta baholashlar natijasida bahosining oshishi summasi bahosining pasayishi summasidan ortgan qismi, mulkni xususiylashtirish jarayonida hosil bo‘lgan gudvil (firma bahosi) summasining kamaytirilishiga (hisobdan chiqarilishiga) ishlatilgan bo‘lsa, asosiy vositalarni hisobga olish hujjatlari (reestrlari)da xususiylashtirish natijasida hosil bo‘lgan gudvil (firma bahosi) qiymatini qoplash uchun yo‘naltirilgan qayta baholash (qoldiq) summasi to‘g‘risida belgi qo‘yiladi.

Asosiy vositalar, shu jumladan, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni qayta baholash o‘tkazish va uning natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «1-bob. Asosiy vositalar hisobi» va «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalarining hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 32-moddasiga muvofiq, aksiyadorlik jamiyatlarida jamiyat ustavida nazarda tutilgan, ammo uning ustav kapitalining o‘n besh foizidan kam bo‘lmagan miqdorda rezerv fondi tashkil etiladi. Aksiyadorlik jamiyatining rezerv fondi aksiyadorlik jamiyati ustavida belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydadan har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi. Har yilgi ajratmalarning miqdori aksiyadorlik jamiyati ustavida nazarda tutiladi, ammo bu miqdor jamiyat ustavida belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

Boshqa mablag‘lar mavjud bo‘lmagan taqdirda, aksiyadorlik jamiyatining rezerv fondi aksiyadorlik jamiyatining zararlari o‘rnini qoplash, aksiyadorlik jamiyatining korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash va aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo‘ljallanadi. Aksiyadorlik jamiyatining rezerv fondidan boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas. Aksiyadorlik jamiyatining ustavida boshqa fondlarni tashkil etish nazarda tutilishi mumkin.

Korxonalar tomonidan ta’sis hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq rezerv kapitali tashkil etilganda va ishlatilganda 8520 «Rezerv kapitali (fondi)» schyotida taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) ni hisobga oluvchi schyotlar (8700) schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Korxonalar tomonidan tekinga olingan mulklar 8530 «Tekinga olingan mulklar» schyotining kreditida korxona mol-mulkini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Mol-mulk, mulkiy huquqlar tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) olinganda ularning daromadlari bozor qiymati bo‘yicha belgilanadi. Mol-mulkning, mulkiy huquqlarning bozor qiymati hujjatlar bilan yoki baholovchi tashkilotning baholash to‘g‘risidagi hisoboti bilan tasdiqlanadi. Hujjatlar bilan tasdiqlash deb quyidagilar e’tirof etiladi:

- jo‘natish, yetkazib berish yoki topshirish hujjatlari;
- yetkazib beruvchilarning narxlarga oid ma’lumotlari (prays-varaqlar);
- ommaviy axborot vositalaridan olingan ma’lumotlar;
- birja ma’lumotlari;
- davlat statistikasi organlarining ma’lumotlari.

Tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan mol-mulkni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini misolda ko‘rib chiqamiz. Ishlab chiqarish binosini tekinga olish to‘g‘risidagi shartnomani imzolandi. Ishlab chiqarish binosi 2021-yil 21-mayda kirim qilib olindi. Ommaviy axborot vositalarida chop etilgan ma’lumotlarga qaraganda, kirim qilish sanasida ishlab chiqarish binosini bozor bahosi 600 000 000 so‘mni tashkil qilgan.

Tekinga (hadya shartnomasi bo‘yicha) olingan ishlab chiqarish binosini kirim qilinishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 0120 «Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar» schyoti	*600 000 000 so‘m;*
kredit 8530 «Tekinga olingan mulk» schyoti	*600 000 000 so‘m.*

5-§. Sotib olingan xususiy aksiyalar hisobi

Aksiyadorlik jamiyatlari xususiy aksiyalarini sotib olishi mumkin. Odatda bular quyidagi sabablar bilan asoslanadi:

- aksiya kursini saqlab turish;
- qolgan har bir aksiyaga dividendlarni oshirish;
- jamiyatni qayta tashkil etish;
- aksiyalarni o‘zining xodimlari o‘rtasida joylashtirish;
- qolgan aksiyalarni nominal qiymatini oshirish;
- nazorat o‘rnatish uchun aksiyalarni boshqa korxonalar tomonidan sotib olinishini oldini olish.

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan xususiy aksiyalarni sotib olish fakti ular tomonidan moliyaviy qo‘yilmalarni amalga oshirishni emas, balki mablag‘larni xususiy manbalarini kamayishini namoyon qiladi. Aksiyadorlik jamiyati tomonidan sotib olingan xususiy aksiyalar jamiyat tomonidan belgilangan barcha jarayonlar (ta’sis hujjatlarini qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) bajarilgandan keyin tugatilishi mumkin. Ya’ni aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali sotib olingan aksiyalarning nominal qiymatiga ularni tugatish yo‘li bilan kamayadi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar boshqa sarmoyadorlarga hattoki nominal qiymatidan past narxga sotilishi mumkin. Aksiyalarni birinchi emissiyasida bunga ruxsat etilmaydi.

21-son BHMS ga muvofiq, keyinchalik qayta sotish yoki bekor qilish maqsadida sotib olingan xususiy aksiyalarning holati va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

8610 «Sotib olingan xususiy aksiyalar – oddiy»;

8620 «Sotib olingan xususiy aksiyalar – imtiyozli».

Ustav kapitaliga nisbatan kontr-passiv schyot hisoblanib, aksiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitali miqdorini kamaytiradi va balansda ustav kapitali summasidan chegiriladigan summa sifatida ko‘rsatiladi. Xususiy aksiyalarni xarid qilish natijasi bo‘lib aktivlar va aksioner kapitalining kamayishi hisoblanadi.

Emitent tomonidan sotib olingan xususiy aksiyalarning qiymati 8610 «Sotib olingan xususiy aksiyalar – oddiy» va 8620 «Sotib olingan xususiy aksiyalar – imtiyozli» schyotlarining debetida haqiqiy sotib olish bahosida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Sotib olingan xususiy aksiyalar sotib olish bahosidan yuqori bahoda qaytadan sotilganda o‘rtadagi farq summasi 9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari» schyotiga

kreditlanadi. Agarda sotib olingan xususiy aksiya sotib olish bahosidan past bahoda qayta sotilsa, o‘rtadagi farq summasi 9690 «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar» schyotining debet tomonida ko‘rsatiladi.

Nominal qiymatidan past bahoda sotib olingan xususiy aksiyalarni bekor qilishda ushbu qiymatlar o‘rtasidagi farq 9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari» schyotining kreditida aks ettiriladi.

Agar bekor qilingan sotib olingan xususiy aksiyalarning qiymati ularning nominal qiymatidan yuqori bo‘lsa, unda farq 9690 «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar» schyotining debetida aks ettiriladi.

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan xususiy aksiyalarini sotib olish, qayta sotish va tugatish bo‘yicha operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

- aksiyadorlik jamiyati tomonidan xususiy aksiyalarini sotib olish summasiga:

debet 8610 «Sotib olingan xususiy aksiyalar – oddiy» schyoti yoki 8620 «Sotib olingan xususiy aksiyalar – imtiyozli» schyoti;

kredit pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500);

- sotib olingan xususiy aksiyalar sotib olish bahosidan yuqori bahoda qaytadan sotilganda:

debet pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500) – sotib olingan xususiy aksiyalarning qayta sotish bahosi summasiga;

kredit 8610 «Sotib olingan xususiy aksiyalar – oddiy» schyoti yoki 8620 «Sotib olingan xususiy aksiyalar – imtiyozli» schyoti – sotib olingan xususiy aksiyalarning haqiqiy sotib olish bahosi summasiga;

kredit 9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari» schyoti - sotib olingan xususiy aksiyalarning qayta sotish bahosi summasi bilan haqiqiy sotib olish bahosi summasi o‘rtadagi farq summasiga;

- sotib olingan xususiy aksiyalar sotib olish bahosidan past bahoda qaytadan sotilganda:

debet pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500) – sotib olingan xususiy aksiyalarning qayta sotish bahosi summasiga;

debet 9690 «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar» schyoti - sotib olingan xususiy aksiyalarning qayta sotish bahosi summasi bilan haqiqiy sotib olish bahosi summasi o‘rtadagi farq summasiga;

kredit 8610 «Sotib olingan xususiy aksiyalar – oddiy» schyoti yoki 8620 «Sotib olingan xususiy aksiyalar – imtiyozli» schyoti – sotib olingan xususiy aksiyalarning haqiqiy sotib olish bahosi summasiga;

- nominaldan past bahoda sotib olingan xususiy aksiyalar tugatilganda:

debet 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti yoki 8320 «Imtiyozli aksiyalar» schyoti – sotib olingan xususiy aksiyalarning nominal qiymati summasiga;

kredit 8610 «Sotib olingan xususiy aksiyalar – oddiy» schyoti yoki 8620 «Sotib olingan xususiy aksiyalar – imtiyozli» schyoti – sotib olingan xususiy aksiyalarning haqiqiy sotib olish bahosi summasiga;

kredit 9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari» schyoti - sotib olingan xususiy aksiyalarning nominal qiymati summasi bilan haqiqiy sotib olish bahosi summasi o‘rtadagi farq summasiga;

- nominaldan yuqori bahoda sotib olingan xususiy aksiyalar tugatilganda:

debet 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti yoki 8320 «Imtiyozli aksiyalar» schyoti – sotib olingan xususiy aksiyalarning nominal qiymati summasiga;

debet 8410 «Emissiya daromadi» schyoti – aksiyalarni dastlabki sotishda vujudga kelgan emissiya daromadlari summasiga;

debet 9690 «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar» schyoti - sotib olingan xususiy aksiyalarning nominal qiymat summasi, haqiqiy sotib olish bahosi summasi va aksiyalarni dastlabki sotishda vujudga kelgan emissiya daromadlari summasi o'rtadagi farq summasiga;

kredit 8610 «Sotib olingan xususiy aksiyalar – oddiy» schyoti yoki 8620 «Sotib olingan xususiy aksiyalar – imtiyozli» schyoti – sotib olingan xususiy aksiyalarning haqiqiy sotib olish bahosi summasiga.

Aksiyadorlik jamiyati tomonidan xususiy aksiyalarini sotib olish, qayta sotish va tugatish bo'yicha operatsiyalar buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali 7 000 000 000 so'm qilib e'lon qilingan va u 200 000 dona imtiyozli aksiyaga va 1 200 000 dona oddiy aksiyaga ajratilgan bo'lib, aksiyaning nominal qiymati 5 000 so'm. Aksiyalarni dastlabki sotishdan 1 000 000 so'm emissiya daromadi yuzaga kelgan. Imtiyoli aksiyalarning 1 500 donasi 6 000 so'mdan (nominaldan yuqori bahoda), oddiy aksiyalarning 30 000 donasi 4 500 so'mdan (nominaldan past bahoda) jamiyat tomonidan qaytarib sotib olingan.

Ikkita holatni (xususiy aksiyalarni sotilishi va tugatilishidan kelib chiqib) ko'rib chiqamiz.

1-holat:

Jamiyat tomonidan sotib olingan xususiy aksiyalar nominal qiymat bo'yicha qayta sotilgan.

Xususiy aksiyalarini sotib olish va qayta sotish bilan bog'liq operatsiyalar jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- aksiyadorlik jamiyati tomonidan xususiy aksiyalarini sotib olish summasiga:

debet 8610 «Sotib olingan xususiy aksiyalar
– oddiy» schyoti 135 000 000 so'm;
debet 8620 «Sotib olingan xususiy aksiyalar
– imtiyozli» schyoti 9 000 000 so'm;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 144 000 000 so'm;
(135 000 000 so'm = 30 000 dona x 4 500 so'm);
(9 000 000 so'm = 1 500 dona x 6 000 so'm);
(144 000 000 so'm = 135 000 000 so'm + 9 000 000 so'm);

- sotib olingan xususiy oddiy aksiyalar qaytadan sotilganda (sotib olish bahosidan yuqori bahoda):

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 150 000 000 so'm;
kredit 8610 «Sotib olingan xususiy aksiyalar
– oddiy» schyoti 135 000 000 so'm;
kredit 9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa
daromadlari» schyoti 15 000 000 so'm;
(150 000 000 so'm = 30 000 dona x 5 000 so'm);
(135 000 000 so'm = 30 000 dona x 4 500 so'm);
(15 000 000 so'm = 150 000 000 so'm - 135 000 000 so'm);

- sotib olingan xususiy imtiyozli aksiyalar qaytadan sotilganda (sotib olish bahosidan past bahoda):

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 7 500 000 so'm;
debet 9690 «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa

xarajatlar» schyoti 1 500 000 so‘m;
kredit 8620 «Sotib olingan xususiy aksiyalar
– oddiy» schyoti 9 000 000 so‘m;
(7 500 000 so‘m = 1 500 dona x 5 000 so‘m);
(1 500 000 so‘m = 9 000 000 so‘m - 7 500 000 so‘m);
(9 000 000 so‘m = 1 500 dona x 6 000 so‘m).

2-holat:

Jamiyat tomonidan sotib olingan xususiy aksiyalar tugatilganda.

Xususiy aksiyalarini sotib olish va tugatish bilan bog‘liq operatsiyalar jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- aksiyadorlik jamiyati tomonidan xususiy aksiyalarini sotib olish summasiga:

debet 8610 «Sotib olingan xususiy aksiyalar
– oddiy» schyoti 135 000 000 so‘m;
debet 8620 «Sotib olingan xususiy aksiyalar
– imtiyozli» schyoti 9 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 144 000 000 so‘m;
(135 000 000 so‘m = 30 000 dona x 4 500 so‘m);
(9 000 000 so‘m = 1 500 dona x 6 000 so‘m);
(144 000 000 so‘m = 135 000 000 so‘m + 9 000 000 so‘m);

- nominaldan past bahoda sotib olingan xususiy aksiyalar tugatilganda:

debet 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti 150 000 000 so‘m;
kredit 8610 «Sotib olingan xususiy aksiyalar
– oddiy» schyoti 135 000 000 so‘m;
kredit 9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa
daromadlari» schyoti 15 000 000 so‘m;
(150 000 000 so‘m = 30 000 dona x 5 000 so‘m);
(135 000 000 so‘m = 30 000 dona x 4 500 so‘m);
(15 000 000 so‘m = 150 000 000 so‘m - 135 000 000 so‘m);

- nominaldan yuqori bahoda sotib olingan xususiy aksiyalar tugatilganda:

debet 8320 «Imtiyozli aksiyalar» schyoti 7 500 000 so‘m;
debet 8410 «Emissiya daromadi» schyoti 1 000 000 so‘m;
debet 9690 «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa
xarajatlar» schyoti 500 000 so‘m;
kredit 8620 «Sotib olingan xususiy aksiyalar
– oddiy» schyoti 9 000 000 so‘m;
(7 500 000 so‘m = 1 500 dona x 5 000 so‘m);
(500 000 so‘m = 9 000 000 so‘m - 7 500 000 so‘m – 1 000 000 so‘m);
(9 000 000 so‘m = 1 500 dona x 6 000 so‘m).

Boshqa korxonalar (mas’uliyati cheklangan jamiyatlar, sherikchilik va boshqalar) sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (8600)dan korxona tomonidan belgilangan tartibda boshqa qatnashuvchilarga yoki uchinchi shaxsga berish uchun sotib olingan ustav kapitalidagi ulushni hisobga olish uchun foydalanadi.

6-§. Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) hisobi

21-son BHMS ga muvofiq, korxonaning barcha yillar bo‘yicha faoliyati va hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar summasining holati va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyotida korxonaning hisobot davrida faoliyati bo‘yicha taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari) hisobga olinadi;

- 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyotida korxonaning o‘tgan yillar faoliyati natijalari bo‘yicha jamg‘arilgan foydasi (qoplanmagan zarari) hisobga olinadi.

Har bir hisobot davri oxirida 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotining debeti va krediti bo‘yicha aylanmalar yig‘iladi va hisobot davrining yakuniy moliyaviy natijasini ifodalovchi ushbu schyot bo‘yicha umumiy qoldiq hisoblab chiqariladi.

Hisobot davrining tugashi bilan yillik moliyaviy hisobot tuzishda 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

Hisobot davrining tugashi bilan yillik moliyaviy natija (foyda va zararlar) lar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ijobiy yakuniy moliyaviy natija (foyda):

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

- salbiy yakuniy moliyaviy natija (zarar):

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

- hisobot davrining taqsimlanmagan foydasini jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar) tarkibiga kiritilishi:

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

kredit 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti;

- hisobot davrining qoplanmagan zararini jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar) tarkibiga kiritilishi:

debet 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti;

kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

- o‘tgan yillarda taqsimlanmagan foyda hisobiga tashkil etilgan rezevr kapitali hisobidan qoplanmagan zararni qoplash:

debet 8520 «Rezerv kapitali» schyoti;

kredit 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti.

Taqsimlanmagan foyda summasi dividendlar to‘lash uchun yo‘naltirilganda 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarar)» schyotining debetida va 6610 «To‘lanadigan dividendlar» schyotining kreditida aks ettiriladi.

«Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 48-moddasiga muvofiq, dividend aksiyadorlik jamiyati sof foydasining aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan qismidir. Aksiyadorlik jamiyati aksiyalarning har bir turi bo‘yicha e’lon qilingan dividendlarni to‘lashi shart. Dividend aksiyadorlar o‘rtasida ularga tegishli aksiyalarning soni va turiga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Dividend aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga ko‘ra pul mablag‘lari yoki boshqa qonuniy to‘lov vositalari yoxud jamiyatning qimmatli qog‘ozlari bilan to‘lanishi mumkin.

Aksiyadorlik jamiyati moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra va (yoki) moliyaviy yil natijalariga ko‘ra, agar «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonun va jamiyat ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo‘lsa, joylashtirilgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga haqli.

Aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy yilning birinchi choragi, yarim yilligi va to‘qqiz oyi natijalariga ko‘ra dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qarori tegishli davr tugagandan keyin uch oy ichida qabul qilinishi mumkin.

Aksiyalarning har bir turi bo‘yicha dividendlar to‘lash, dividendning miqdori, uni to‘lash shakli va tartibi to‘g‘risidagiqaror aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi mavjud bo‘lgan taqdirda, moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko‘p bo‘lishi mumkin emas. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi aksiyalarning muayyan turlari bo‘yicha dividendlar to‘lamaslik to‘g‘risida, shuningdek aksiyadorlik jamiyati ustavida dividend miqdori belgilab qo‘yilgan imtiyozli aksiyalar bo‘yicha to‘liq bo‘lmagan miqdorda dividendlar to‘lash haqida qaror qabul qilishga haqli. Dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qarorda dividendlar to‘lash boshlanadigan va tugallanadigan sanalar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

Dividendlar aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlik jamiyati tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to‘lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar jamiyatning rezerv fondi hisobidan ham to‘lanishi mumkin.

Dividendlarni to‘lash muddati va tartibi aksiyadorlik jamiyatining ustavida yoki aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qarorida belgilanadi. Dividendlarni to‘lash muddati shunday qaror qabul qilingan kundan e’tiboran oltmish kundan kech bo‘lmasligi lozim.

Dividendlarni to‘lash chog‘ida birinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo‘yicha, so‘ngra oddiy aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lanadi. Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha qat’iy belgilangan dividendlarni to‘lash uchun yetarli miqdorda foyda mavjud bo‘lgan taqdirda aksiyadorlik jamiyati mazkur aksiyalarning egalariga dividendlar to‘lashni rad etishga haqli emas. Aksiyadorlik jamiyati rad etgan taqdirda aksiyadorlar dividendlar to‘lanishini sud tartibida talab qilishi mumkin. Aksiyadorlik jamiyati yetarli miqdorda foydaga ega bo‘lmagan yoki zarar ko‘rib ishlayotgan taqdirda, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar aksiyadorlik jamiyati tomonidan aksiyadorlik jamiyatining faqat shu maqsad uchun tashkil etilgan rezerv fondi hisobidan to‘lanishi mumkin.

Egasi yoki egasining qonuniy huquqiy vorisi yoxud merosxo‘ri tomonidan uch yil ichida talab qilib olinmagan dividend aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga ko‘ra aksiyadorlik jamiyati ixtiyorida qoladi.

Aksiyadorlik jamiyati O‘zbekiston Respublikasi norezident aksiyadorining yozma talabiga ko‘ra unga hisoblangan dividendlarni erkin ayirboshlanadigan valyutaga ayirboshlab, mablag‘larni norezident aksiyador taqdim etgan bank schyotiga o‘tkazib berishi kerak.

Aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining reestridan olingan, aksiyadorlik jamiyati tomonidan tasdiqlangan ko‘chirma hamda aksiyadorlik jamiyati buxgalteriyasining hisoblangan dividendlar summasi va ular hisoblangan sana to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi ayirboshlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Aksiyadorlarga dividendlarni to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish uchun shakllantirilgan aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining reestrida qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo‘yicha dividend olish huquqiga ega.

Dividendlar aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilangan muddatlarda aksiyadorlik jamiyatining aybi bilan to‘lanmagan taqdirda to‘lanmagan (olinmagan) dividendlar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkalaridan kelib chiqqan holda penya hisoblanadi. 2017-yil 28-iyundan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalashtirish stavkasi 14 foizni tashkil etadi.

Aksiyadorlik jamiyati:

- aksiyadorlik jamiyati ustav kapitalining hammasi uning ta’sis etilishi chog‘ida to‘liq to‘lab bo‘linguniga qadar;

- agar dividendlar to‘lanadigan paytda aksiyadorlik jamiyatida bankrotlik belgilari mavjud bo‘lsa yoki aksiyadorlik jamiyatida shunday belgilar, dividendlarni to‘lash natijasida paydo bo‘lsa;

- agar aksiyadorlik jamiyati sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va rezerv fondi summasidan kam bo‘lsa, aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash to‘g‘risida qaror qabul qilishga hamda dividendlar to‘lashga haqli emas.

Yuqorida ko‘rsatilgan holatlar tugatilgach, aksiyadorlik jamiyati hisoblangan dividendlarni aksiyadorlarga to‘lashi shart.

Aksiyadorlik jamiyati dividendlarning miqdorini ulardan undiriladigan soliqlarni inobatga olmagan holda e’lon qiladi. Aksiyadorlik jamiyati to‘lanadigan dividendlar miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining va jamiyatning rasmiy veb-saytlarida qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda e’lon qiladi.

Taqsimlanmagan foyda summasidan qonunchilikda belgilangan tartibda rezerv kapitalini (fondini) shakllantirish uchun foydalanish mumkin, bunda 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarar)» schyoti debetlanadi va 8520 «Rezerv kapitali (fondi)» schyoti kreditlanadi.

Hisobot davridagi taqsimlanmagan foydani taqsimlashdan keyin qolgan summa 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarar)» schyotidan 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)lar» schyotiga o‘tkaziladi.

Aksiyadorlik jamiyatida taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib o‘tamiz. Aksiyadorlik jamiyatining ustav kapitali 7 000 000 000 so‘m qilib e’lon qilingan va u 200 000 dona imtiyozli aksiyaga va 1 200 000 dona oddiy aksiyaga ajratilgan bo‘lib, aksiyaning nominal qiymati 5 000 so‘m. Imtiyozli aksiyalarga har yili nominal qiymatning 15 foiz miqdorida dividend to‘lanishi belgilangan.

Ikkita holatni (moliyaviy natija: foyda yoki zarardan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Jamiyat hisobot davrida 1 500 000 000 so‘m sof foyda oldi. Sof foydani 5 foizni rezerv fondiga yo‘naltirgan va aksiyalar bo‘yicha dividend hisoblagan. Oddiy aksiyalarga nominal qiymatning 20 foizi miqdorida dividend hisoblangan.

Moliyaviy natijalarni o‘tkazish, rezerv fondini shakllantirish va dividend hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalar jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ijobiy yakuniy moliyaviy natija, ya’ni foyda summasiga:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 1 500 000 000 so‘m;

kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti 1 500 000 000 so‘m;

- hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi rezerv kapitali (fondi) ga yo‘naltirilgan summasiga:

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi
(qoplanmagan zarari)» schyoti 75 000 000 so‘m;
kredit 8520 «Rezerv kapitali (fondi)» schyoti 75 000 000 so‘m;
(75 000 000 so‘m = 1 500 000 000 so‘m x 5 / 100).

- hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi hisobidan aksiyalarga dividend hisoblanganda:

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi
(qoplanmagan zarari)» schyoti 1 350 000 000 so‘m;
kredit 6610 «To‘lanadigan dividendlar» schyoti 1 350 000 000 so‘m;
(1 350 000 000 so‘m = 1 200 000 000 so‘m + 150 000 000 so‘m);
(1 200 000 000 so‘m = 6 000 000 000 so‘m x 20 / 100);
(150 000 000 so‘m = 1 000 000 000 so‘m x 15 / 100);

- hisoblangan dividendlar bo‘yicha daromad solig‘i hisoblanganda:

debet 6610 «To‘lanadigan dividendlar» schyoti 135 000 000 so‘m;
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha
qarzlar (turlari bo‘yicha)» 135 000 000 so‘m;
(135 000 000 so‘m = 1 350 000 000 so‘m x 10 / 100);

- dividendlar bo‘yicha daromad solig‘i byudjetga o‘tkazib berilganda:

debet 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha
qarzlar (turlari bo‘yicha)» 135 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 135 000 000 so‘m;

- hisoblangan dividendlar aksiyadorlarga to‘langanda:

debet 6610 «To‘lanadigan dividendlar» schyoti 1 215 000 000 so‘m;
kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti (naqd pulda) yoki 5110 «Hisob-kitob schyoti» (pul o‘tkazishda) 1 215 000 000 so‘m;
(1 215 000 000 so‘m = 1 350 000 000 so‘m - 135 000 000 so‘m);

- hisobot davrining taqsimlanmagan foydasini jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar) tarkibiga kiritilishi:

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi
(qoplanmagan zarari)» schyoti 75 000 000 so‘m;
kredit 8720 «Jamg‘arilgan foyda
(qoplanmagan zarar)» schyoti 75 000 000 so‘m;
(75 000 000 so‘m = 1 500 000 000 so‘m - 75 000 000 so‘m - 1 350 000 000 so‘m).

2-holat:

Jamiyat hisobot davrida 10 000 000 so‘m zarar ko‘rdi. O‘tgan yillarda jamg‘arilgan foyda summasi 100 000 000 so‘mni va o‘tgan yillar foydasi hisobidan tashkil etilgan rezerv fondi summasi 80 000 000 so‘mni tashkil etadi. Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividend hisoblagan.

Moliyaviy natijalarni o‘tkazish, rezerv fondini shakllantirish va dividend hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalar jamiyatning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- salbiy yakuniy moliyaviy natija, ya’ni zarar summasiga:

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi
(qoplanmagan zarari)» schyoti 10 000 000 so‘m;
kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 10 000 000 so‘m;

- hisobot davrining qoplanmagan zararini jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar) hisobidan qoplanishi:

debet 8720 «Jamg‘arilgan foyda
(qoplanmagan zarar)» schyoti 10 000 000 so‘m;

kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi
(qoplanmagan zarari)» schyoti 10 000 000 so‘m;
- imtiyozli aksiyalarga dividend hisoblanganda:
debet 8720 «Jamg‘arilgan foyda
(qoplanmagan zarar)» schyoti 90 000 000 so‘m;
debet 8520 «Rezerv kapitali (fondi)» schyoti 60 000 000 so‘m;
kredit 6610 «To‘lanadigan dividendlar» schyoti 150 000 000 so‘m;
(150 000 000 so‘m = 1 000 000 000 so‘m x 15 / 100);
- hisoblangan dividendlar bo‘yicha daromad solig‘i hisoblanganda:
debet 6610 «To‘lanadigan dividendlar» schyoti 15 000 000 so‘m;
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha
qarzlar (turlari bo‘yicha)» 15 000 000 so‘m;
(15 000 000 so‘m = 150 000 000 so‘m x 10 / 100);
- dividendlar bo‘yicha daromad solig‘i byudjetga o‘tkazib berilganda:
debet 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha
qarzlar (turlari bo‘yicha)» 15 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 15 000 000 so‘m;
- hisoblangan dividendlar aksiyadorlarga to‘langanda:
debet 6610 «To‘lanadigan dividendlar» schyoti 135 000 000 so‘m;
kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti (naqd pulda) yoki 5110 «Hisob-kitob schyoti» (pul o‘tkazishda) 135 000 000 so‘m;
(135 000 000 so‘m = 150 000 000 so‘m - 15 000 000 so‘m).

Boshqa korxonalar (mas’uliyati cheklangan jamiyatlar, sherikchilik va boshqalar) ham moliyaviy natijalarni o‘tkazish, rezerv fondini shakllantirish va dividend hisoblash bilan bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida yuqorida keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.

7-§. Maqsadli tushumlar hisobi

21-son BHMS ga muvofiq, maqsadli moliyalashtirish mablag‘larining holati va harakati, shuningdek a’zolik badallari va maqsadli yo‘nalish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan boshqa qaytarilmaydigan mablag‘larning kelib tushishi va sarflanishi to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 8810 «Grantlar»;
- 8820 «Subsidiyalar»;
- 8830 «A’zolik badallari»;
- 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari»;
- 8890 «Boshqa maqsadli tushumlar».

Maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlar (8800) bo‘yicha analitik hisob maqsadli mablag‘larning yo‘nalishi va moliyalashtirish manbalari bo‘yicha alohida yuritiladi.

Ushbu maqsadli tushumlarni korxonaning xususiy kapitali sifatida aks ettirish shartlari quyidagilar hisoblanadi:

- mablag‘larning maqsadli yo‘nalish bo‘yicha ishlatilishi;
- mablag‘larni jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlarning yo‘qligi;
- belgilangan shartlar bajarilganda qaytarib berilmasligi.

Grant deganda ijtimoiy xususiyatga ega maqsadlar, iqtisodiyotni rivojlantirish, ilmiy-texnik

va innovatsion dasturlarni bajarish uchun hukumat, nodavlat, xorijiy hamda xalqaro tashkilotlar va jamg‘armalar tomonidan ko‘rsatiladigan tekin, gumanitar yoki moddiy-texnik mablag‘lar tushuniladi. Grant mablag‘lari qat’iy ravishda belgilangan maqsadlarga ishlatiladi.

Ajratilgan grant to‘g‘risida xabarnoma olinganda ushbu grant summasi 8810 «Grantlar» schyotining kreditida 4890 «Boshqa debitorlarning qarzi» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Grant summasidan moliyalashtiriladigan va byudjetda ko‘zda tutilgan pul mablag‘larini kelib tushishi yoki mol-mulkning qabul qilinishi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5110 - 5530), kapital qo‘yilma (0800), o‘rnatiladigan uskunalar (0700), tovar-moddiy zaxiralar va boshqa aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetida 4890 «Boshqa debitorlarning qarzi» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

21-son BHMS ga muvofiq, 8810 «Grantlar» schyotida hisobga olingan grant mablag‘larini ishlatilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy qiymatliklarni xarid qilishga, kredit va qarzlarni to‘lashga, asosiy vositalarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga yo‘naltirilganda, agar grantdan foydalanish muddati ko‘rsatilgan bo‘lsa - muddatlarning eng kami bo‘yicha: foydalanish muddati yoki haqiqatda ishlatish tugaganda:

debet 8810 «Grantlar» schyoti;

kredit 8530 «Tekinga olingan mol-mulk» schyoti;

- joriy majburiyatlarni vujudga kelishiga (masalan: ish haqi, ijara, maqsadli davlat jamg‘armalariga ajratmalar hisoblanganda va boshqalar) olib keladigan joriy xarajatlarni qoplashga yo‘naltirilganda:

debet 8810 «Grantlar» schyoti;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti yoki turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) yoki boshqa tegishli schyotlar.

Grant bo‘lib davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chetel hukumatiga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro‘yxatga kiritilgan xalqaro va chetel nohukumat tashkilotlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg‘araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek chetel fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg‘araz asosda beriladigan mol-mulk hisoblanadi.

Chetel valyutasida olingan grantlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish 22-son BHMS da belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Chetel valyutasida olingan grantlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

8820 «Subsidiyalar» schyotida ajratilgan subsidiyalar, ya’ni, iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida belgilangan shartlar uchun korxonalarga davlat tomonidan pul yoki natura ko‘rinishida ko‘rsatilgan yordam summasi hisobga olinadi. Davlat (hukumat) tomonidan berilgan yordam turli ko‘rinishda (qo‘shimcha berish, subventsiya va boshqalar) bo‘lishi va har xil shartlarga muvofiq berilishi mumkin.

Davlat subsidiyalarining hisobi 10-son BHMS ga muvofiq amalga oshiriladi.

Ajratilgan subsidiyalar to‘g‘risida xabarnoma olinganda ushbu subsidiyalar summasi

8820 «Subsidiyalar» schyotining kreditida 4890 «Boshqa debitorlarning qarzi» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Subsidiyalar summasidan moliyalashtiriladigan va byudjetda ko‘zda tutilgan pul mablag‘larini kelib tushishi yoki mol-mulkning qabul qilinishi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5110 - 5530), kapital qo‘yilma (0800), o‘rnatiladigan uskunalar (0700), tovar-moddiy zaxiralar va boshqa aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetida 4890 «Boshqa debitorlarning qarzi» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

21-son BHMS ga muvofiq, 8820 «Subsidiyalar» schyotida hisobga olingan subsidiya mablag‘larini ishlatilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy qiymatliklarni xarid qilishga, kredit va qarzlarni to‘lashga, asosiy vositalarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga yo‘naltirilganda, agar subsidiyadan foydalanish muddati ko‘rsatilgan bo‘lsa - muddatlarning eng kami bo‘yicha: foydalanish muddati yoki haqiqatda ishlatish tugaganda:

debet «8820 «Subsidiyalar» schyoti;

kredit 8530 «Tekinga olingan mol-mulk» schyoti;

- joriy majburiyatlarni vujudga kelishiga (masalan: ish haqi, ijara, maqsadli davlat jamg‘armalariga ajratmalar hisoblanganda va boshqalar) olib keladigan joriy xarajatlarni qoplashga yo‘naltirilganda:

debet «8820 «Subsidiyalar» schyoti;

debet 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyoti;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti yoki turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) yoki boshqa tegishli schyotlar.

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish ko‘zda tutilgan holda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar berilganda, bo‘shayotgan mablag‘lar hisobi 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyotida yuritiladi.

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish ko‘zda tutilgan holda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar berilganda, korxonalar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlardan foydalanish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va rasmiylashtirish «Byudjetga soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlar bo‘yicha yuridik shaxslarga berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq amalga oshiriladi.

Byudjetga to‘lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashdan ozod qilish natijasida bo‘shagan mablag‘lar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 6411 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

debet 6521 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar – majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar (turlari bo‘yicha)» schyoti;

kredit 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyoti.

8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyotida hisobga olingan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar natijasida bo‘shagan mablag‘larni ishlatilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy qiymatliklarni xarid qilishga, kredit va qarzlarni to‘lashga, asosiy vositalarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga yo‘naltirilganda,

agar imtiyozli davr ko‘rsatilgan bo‘lsa - muddatlarning eng kami bo‘yicha: imtiyozli davr yoki haqiqatda ishlatish tugaganda, imtiyozli davr ko‘rsatilmagan hollarda esa - har yili:

debet 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyoti;

kredit 8531 «Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlardan bo‘shagan mablag‘lar» schyoti;

- joriy majburiyatlarni vujudga kelishiga (masalan: ish haqi, ijara, maqsadli davlat jamg‘armalariga ajratmalar hisoblanganda va boshqalar) olib keladigan joriy xarajatlarni qoplashga yo‘naltirilganda:

debet 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyoti;

kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyoti yoki 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti yoki turli kreditorlarga bo‘lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900) yoki boshqa tegishli schyotlar.

Bo‘shayotgan mablag‘larni maqsadli ishlatish ko‘zda tutilgan holda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar berilganda, korxonalar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlardan foydalanish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va rasmiylashtirish tartibi «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» va «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Xarajatlar va to‘lovlarni xarajatlarga bir maromda olib borish maqsadida belgilangan tartibda rezerv qilingan summalarning holati va harakati to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish ***8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervlari» schyotida*** amalga oshiriladi.

Xarajatlarga qo‘shiladigan summalarni rezervlash qonun hujjatlari, shuningdek «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» bilan tartibga solinadi.

Rezervlar hisoblanganda 8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervlari» schyotining kreditida va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettiriladi.

Rezerv qilingan summalar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar va to‘lovlar summasi zaxiralar miqdorini kamaytirib, 8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervlari» schyotining debetida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda hisobdan chiqariladi.

U yoki bu rezervning tashkil qilinishi va mablag‘larning foydalanilishi vaqti-vaqti bilan (yilning oxirida albatta) me’yor, hisoblar va boshqalarga asosan tekshirilib turiladi, zaruriyat tug‘ilganda to‘g‘irlanadi (korrektura).

8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervlari» schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir rezerv turlari bo‘yicha alohida yuritiladi.

Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervlarini shakllantirish va rezerv qilingan summalar hisobidan amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar va to‘lovlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «1-bob. Asosiy vositalar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

ILOVALAR

1-ilova

"TASDIQLANGAN"

_____
(emitentning nomi)

_____
(jamiyat kuzatuv kengashi raisining yoki boshqa vakolatli shaxsning F.I.SH. va imzosi)

_____ _____ -son
(sana) M.O‘.

"RO‘YXATDAN O‘TKAZILGAN"

_____
(ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning nomi)

_____
(ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ vakolatli shaxsining lavozimi, F.I.SH., imzo)

_____ _____ - son
(sana) M.O‘.

"TASDIQLANGAN"[1]

_____
(baholovchi tashkilot nomi)

_____
(rahbarning lavozimi, F.I.SH., imzo)

_____ _____
(sana) M.O‘.

AKSIYALAR CHIQARILISHI (QO‘SHIMCHA, YANGI CHIQARILISHI) TO‘G‘RISIDAGI QAROR

_____
(emitentning to‘liq nomi ko‘rsatiladi)

Identifikatsiya raqami berildi: | | | | | | | | | | | | |

_____
(aksiyalar turi va soni, ularni chiqarish shakli, nominal qiymati ko‘rsatiladi)

_____
(aksiyalarni joylashtirish usuli ko‘rsatiladi)

Aksiyalarning ushbu chiqarilishi _____ chiqarilishdir.
(chiqarilishning tartib raqami)

Tasdiqlangan _____
(emitentning aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorini tasdiqlagan organi ko‘rsatiladi)

"___" _____ 20__ -y. ____-son Bayonnoma,
"___" _____ 20__ -y. ____-son Bayonnoma _____

_____ asosida
(emitentning aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorni qabul qilgan organi ko‘rsatiladi)

Emitentning joylashgan joyi, pochta manzili va muloqot telefonlari: _____

Emitentning rahbari:
_____
(F.I.SH., imzo)

Bosh buxgalter:
_____
(F.I.SH., imzo)

Muhr Sana

Aksiyalar chiqarilishiga doir hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatgan investitsiya maslahatchisining nomi: _____

Investitsiya maslahatchisi bilan tuzilgan shartnoma raqami va sanasi _____

Investitsiya maslahatchisi rahbarining F.I.SH. va imzosi: _____

Muhr Sana

1. Ushbu chiqarilishdagi egasining nomi yozilgan aksiyalar turi (oddiy yoki imtiyozli): _____
2. Ushbu aksiyalar chiqarilishining shakli: _____
3. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning nominal qiymati (so‘m): _____
4. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning soni (dona): _____
5. Ushbu chiqarilishning umumiy hajmi (so‘m): _____
6. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar egalarining huquqlari: _____
7. Ushbu chiqarilishdagi aksiyalarning olinishiga nisbatan jamiyat ustavidagi va/yoki chiqarilish to‘g‘risidagi qarordagi har qanday cheklashlar: _____
8. Jamiyat ustav kapitalining miqdori (so‘m): _____
9. Ilgari joylashtirilgan aksiyalar soni (turlari bo‘yicha taqsimlangan holda ko‘rsatiladi): _____

[1] *Baholovchi tashkilot majburiy tarzda jalb etilgan holatlar uchun.*

2-ilova

AKSIYADORLIK JAMIYATINING EMISSIYA RISOLASI

"TASDIQLANGAN"

_____
(emitentning nomi)

_____
(vakolatli shaxsning F.I.SH. va imzosi)
"___" _____ 20___ -y.

"TASDIQLANGAN"[1]**

_____
(baholovchi tashkilotning nomi)

_____
(rahbarning lavozimi, F.I.SH., imzo)
"___" _____ 20___ -y.

EMISSIYA RISOLASI

_____
(bankning to‘liq nomi)

Identifikatsiya raqami berildi: | | | | | | | | | | | | |

_____
(qimmatli qog‘ozlarning ko‘rinishi, turi, seriyasi, shakli va soni)

Emitentning rahbari: _____
(F.I.SH., imzo)

Bosh buxgalter: _____
(F.I.SH., imzo)

Muhr Sana

Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishiga doir hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatgan investitsiya maslahatchisining nomi: _____

Investitsiya maslahatchisi bilan tuzilgan shartnoma raqami va sanasi _____

Investitsiya maslahatchisi rahbarining F.I.SH. va imzosi:

_____ _____
Muhr Sana

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ ushbu aksiyalar emissiyasi risolasidagi axborotning to‘g‘riligi uchun javobgar bo‘lmaydi va aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorni ro‘yxatdan o‘tkazish fakti bilan joylashtirilayotgan aksiyalarga nisbatan o‘z munosabatini bildirmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida"gi Qonuni 58-moddasiga muvofiq, qimmatli qog‘ozlarni investitsiya obyekti sifatida tanlash va muvofiq ravishda ushbu tanlovning oqibatlari investorning tavakkalchiliklaridir.

1. EMITENT TO‘G‘RISIDAGI ASOSIY MA’LUMOTLAR

1. Emitentning to‘liq va qisqartirilgan nomi: _____
Tarmoq: _____ Yuqori turuvchi tashkilot: _____
Emitent rahbarining F.I.SH.: _____ Bosh buxgalterning F.I.SH.: _____
2. Emitentning tashkiliy-huquqiy shakli: _____
3. Joylashgan joyi va bank rekvizitlari: _____
To‘liq pochta manzili: _____
Xizmat ko‘rsatuvchi bankning nomi va joylashgan joyi: _____
Emitent soliq organining nomi va STIR: _____
4. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning nomi, emitentning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanasi va raqami: _____ Davlat statistika organi tomonidan berilgan kodlar _____
5. Asosiy faoliyat turlari va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning (xizmatning) turlari: _____
6. Ustav fondining 5 va undan ortiq foiziga egalik qilayotgan barcha emitent aksiyadorlarining ro‘yxati (birinchi emissiyada to‘ldirilmaydi):

Aksiyadorlar - yuridik shaxslarning to‘liq nomi yoki aksiyadorlar - jismoniy shaxslarning F.I.SH.	Aksiyadorlar - yuridik shaxslarning joylashgan joyi yoki aksiyadorlar - jismoniy shaxslarning pasport ma’lumotlari	Aksiyadorning emitent ustav fondidagi ulushi	
		soni donalarda	ulush % da

7. Emissiya risolasi tasdiqlangan paytdagi emitentning boshqaruv ijroiya organi barcha a’zolarining ro‘yxati:

Ijroiya organi a’zosining F.I.SH.	Hozirgi vaqtda va oxirgi 3 yildagi egallagan lavozimlari	Emitentning ustav fondidagi ulushi	
		soni donalarda	ulush % da

[1] *Баҳоловчи ташкилотни жалб қилиш шарт бўлган тақдирда*

8. Emissiya risolasi tasdiqlangan paytdagi emitent kuzatuv kengashi barcha a'zolarining ro'yxati:

Kuzatuv kengashi a'zosining F.I.SH.	Hozirgi vaqtda va oxirgi 3 yildagi egallagan lavozimlari	Emitentning ustav fondidagi ulushi	
		soni donalarda	ulush % da

9. Emitent ta'sischilarining ro'yxati (faqat aksiyalarning birinchi chiqarilishida to'ldiriladi):

Ta'sischilar - yuridik shaxslarning to'liq nomi yoki ta'sischilar - jismoniy shaxslarning F.I.SH.	Ta'sischilar - yuridik shaxslarning joylashgan joyi yoki ta'sischilar - jismoniy shaxslarning pasport ma'lumotlari	Emitent ustav kapitalidagi ulushi	
		soni donalarda	ulush % da

10. Emitent affillangan shaxslarining ro'yxati:

Affillangan - yuridik shaxslarning to'liq nomi yoki affillangan - jismoniy shaxslarning F.I.SH.	Affillangan shaxs deb hisoblanishining asosi	Affillangan shaxsning emitent ustav kapitalidagi ulushi		
		soni donalarda		ulush % da
		oddiy	imtiyozli	

11. Ustav kapitalida emitent 5 va undan ortiq foizdagi ulushga ega bo'lgan barcha yuridik shaxslarning ro'yxati:

To'liq firma nomi	Tashkiliy-huquqiy shakli	Joylashgan joyi	Emitentning yuridik shaxs ustav kapitalidagi ulushi	
			soni donalarda	ulush %da

12. Emitentning O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida joylashgan sanoat, bank, moliyaviy guruhlar, holdinglar, kontsernlar, uyushmalar, qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilariga tegishliligi, tovar, valyuta, fond, boshqa birjalardagi a'zoligi, ularning to'la nomlari va manzillari ko'rsatilgan holda:

Guruhlarning turlari	**Nomi**	**Joylashgan joyi**
Sanoat guruhlari		
Bank guruhlari		
Moliyaviy guruhlar		
Holding kompaniyalar		
Uyushmalar		
Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari		
Birjalar		

13. Emitentning barcha vakolatxonalari va filiallari ro'yxati:

To'liq nomi			
Joylashgan joyi			
Ochilgan sanasi			

14. Emitentning barcha Sho'ba va tobe jamiyatlari ro'yxati:

To'liq nomi			
Joylashgan joyi			
Ochilgan sanasi			

11, 12, 13 va 14-bandlarini to'ldirishda salbiy javob berilgan holda to'liq, tushunarli javoblar berish maqsadga muvofiqdir, masalan: emitent vakolatxonalar, Sho'ba va tobe jamiyatlarga ega emas.

15. Ishchilarning har bir toifa bo'yicha oxirgi uch yil uchun o'rtacha yillik soni:

Toifa	20__ -y.	20__ -y.	20__ -y.
1	2	3	4
Ishlab chiqarish - korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyatida band bo'lgan ishchilar soni (ishlab chiqarishdagi ishchilar, sotuvchilar)			
Ma'muriy-boshqaruv personali (buxgalteriya, rejalashtirish bo'limi, boshqa xizmatlar)			
Ijtimoiy soha - bolalar bog'chalari, dam olish uylari, poliklinikalar va h.k.larga xizmat ko'rsatish va boshqaruvida band bo'lgan ishchilar			
Boshqalar			
Jami:			

16. Emitentda mustaqil reyting bahosining, shuningdek patentlar, litsenziyalar va shartnomalarning mavjudligi. Ularning qisqacha tavsifi keltirilsin.

17. Oxirgi uch yil davomida ilmiy-tadqiqot ishlab chiqarishlariga vositalarni joylashtirish, yil yakunlari bo'yicha foydaga nisbatan summa va foizlarda.

2. EMITENTNING MOLIYAVIY HOLATI TO‘G‘RISIDAGI MA’LUMOTLAR

18. Oxirgi uch yil mobaynidagi yoki emitent tashkil topgan paytdan boshlab, agar bu muddat uch yildan kam bo‘lsa, har bir tugallangan yil uchun emitentning moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisobotlari va buxgalteriya balanslari nusxalari.

19. Emissiya risolasi tasdiqlanishidan oldingi oxirgi choraklik yakuni holati bo‘yicha emitentning moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisoboti va buxgalteriya balansi nusxalari.

20. Mustaqil auditor to‘g‘risidagi axborot: Auditorning F.I.SH. _____

Auditorlik firmasi nomi va uning joylashgan joyi _____

21. Oldingi mustaqil auditorlar to‘g‘risidagi axborot (oxirgi tugallangan uch yil uchun).

Auditorning F.I.SH. _____ Auditorlik firmasi nomi va joylashgan joyi _____

22. Emitent mol-mulkining qisqacha tavsifi, ming so‘m:

Asosiy fondlar guruhining nomi	Boshlang‘ich qiymat (buxgalteriya balansining asosiy vositalarni oxirgi qayta hisoblash bo‘yicha ma’lumotlariga ko‘ra)	Eskirish summasi	Qoldiq qiymati
1. Binolar			
2. Inshootlar			
3. Uzatish moslamalari			
4. Mashina va uskunalar			
5. Boshqalar			
Jami:			

23. Balansida bo‘lgan yer uchastkasining o‘lchami (ga)____

24. Emitentning balansida bo‘lgan ijtimoiy-madaniy-maishiy obyektlarning qisqacha ro‘yxati (masalan: bolalar bog‘chalari, turar joylar, dam olish uylari, shifoxonalar va h.k.), ming so‘m:

Ijtimoiy-madaniy-maishiy obyektning nomi	Joylashgan joyi	Balans qiymati, ming so‘m

25. Ustav bo‘yicha fondining miqdori, % da _____

Rezerv fondining aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan sanadagi haqiqiy miqdori (buxgalteriya balansining ma’lumotlari bo‘yicha), ming so‘m _____

Bunda, sof foydadan ajratmalar hisobiga shakllantirilgan fondining ulushi, ming so‘m _____

Oxirgi 3 yil uchun rezerv fondi vositalaridan foydalanilishi to‘g‘risidagi hisobot, ming so‘m:

Zaxira fondi vositalaridan foydalanilishning yo‘nalishi	20__ -y.	20__ -y.	20__ -y.

Agar zaxira fondi aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan sanada shakllanmagan bo‘lsa, buni javobda aks ettirish lozim.

26. Oxirgi tugallangan uch moliyaviy yil uchun foyda foydalanilishining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ming so‘m:

Toifa	**20__-y.**	**20__ -y.**	**20__ -y.**
Ijtimoiy soha obyektlarini saqlash xarajatlari			
Ishchilarga yoki ishchilar foydasiga to‘langan mukofotlar va boshqa summalar			
Dividendlar			
Foizlarni to‘lash			
Foydadan boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha foydalanilgan summalar (oldingi toifalarga kiritilmagan)			
Jami:			

27. Soliqlar to‘lash bo‘yicha muddati o‘tkazib yuborilgan qarzlar miqdori, ming so‘m:

Soliq turi	**Qarz summasi**

28. Oxirgi hisobot sanasidagi boshqa kreditorlar bo‘yicha qarzlarning umumiy summasi (mol yetkazib beruvchilar va boshqa nokredit tashkilotlar qarzlarni o‘z ichiga oladi, masalan, elektr energiyasi, issiqlik ta’minoti, butlovchi detallar va h.k.lar yetkazib beruvchilariga) so‘m _____

29. Debitor qarzdorlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ming so‘m:

(eng kam ish haqi summasidan - 1000 barobardan oshgan qarz ko‘rsatiladi)

Debitorning nomi	Joylashgan joyi	Qarz summasi	Qaytarilish muddatlari	Undirish samarasiz bo‘lgan qarzdorlik muddatlari

30. Emitentga vakolatli davlat organi tomonidan oxirgi 3 yil mobaynida qo‘llanilgan iqtisodiy **sanksiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar:**

a) sanksiya qo‘llanilgan sanalar _____

b) sanksiyani qo‘llagan organ _____

v) sanksiya qo‘llash sabablari _____

g) sanksiyalar miqdori, so‘m _____

d) aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan paytdagi sanksiyalar ijrosining darajasi _____

31. Emitent javobgar yoki da’vogar sifatida qatnashayotgan sud jarayonlarining mavjudligi to‘g‘risidagi axborot.

32. Emitentning ustav kapitali to‘g‘risidagi ma’lumotlar:

a) ustavga ko‘ra ustav kapitalining miqdori, so‘m _____

b) buxgalteriya balansi ma’lumotlari bo‘yicha ustav kapitalining miqdori, so‘m _____

v) ustav kapitali to‘langan qismining hajmi, so‘m _____

g) aksiyalar bo‘yicha nominaliga nisbatan quyidagi natijalar yuzasidan foiz hisobida to‘langan daromadlar:

	20__ -y.	**20__ -y.**	**20__ -y.**
Oddiy aksiyalar bo‘yicha			
Imtiyozli aksiyalar bo‘yicha			
Obligatsiyalar bo‘yicha			
Qimmatli qog‘ozlarning boshqa turlari bo‘yicha			

d) aksiyalarni so‘ndirish yoki jamiyatning boshqa aksiyalarga almashtirish sanasi, mavjud aksiyalarni yiriklashtirish yoxud past nominaldagi aksiyalarga maydalash (oxirgi uch yil uchun):

So‘ndirish yoki boshqa aksiyalarga almashtirish sanasi	Yiriklashtirish		Maydalash	
	eski bahosi so‘m	yangi bahosi so‘m	eski bahosi so‘m	yangi bahosi so‘m

33. Avvalgi aksiyalar chiqarilishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, har bir chiqarilish uchun alohida (birinchi chiqarilishda to‘ldirilmaydi):

a) aksiyalar chiqarilishi uchun asos _____;

b) chiqarilishning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanasi yoki identifikatsiya raqami _____;

v) joylashtirishni boshlash sanasi _____;

g) joylashtirishni tugatish sanasi _____;

d) aksiyaning nominal qiymati, so‘m _____;

e) nominal qiymati bo‘yicha chiqarilish hajmi, so‘m _____;

j) chiqarilgan aksiyalarning umumiy soni, dona _____;

z) chiqarilayotgan aksiyalarning tiplari va ularning tiplari bo‘yicha soni:

oddiy aksiyalar, dona _____;

imtiyozli aksiyalar, dona _____;

i) joylashtirilgan aksiyalar rasmiy listingiga kiritilgan savdolar tashkilotchisining nomi va manzili;

k) oxirgi yil uchun aksiyalar narxlarining taqsimlanishi, birja yoki birjadan tashqarida savdolarda rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazilgan yuqori va pastki narxlar ko‘rsatilgan holda;

l) aksiyalarni chiqarishdan maqsad.

3. KELGUSI AKSIYALAR CHIQARILISHINI MUOMALAGA KIRITISH SHARTLARI

34. Kelgusi aksiyalar chiqarilishini muomalaga kiritish shartlari:

a) chiqarilishdagi aksiyalar turi _____ ; b) chiqarilishdagi aksiyalar soni _____;

v) chiqarilishdagi aksiyalarning nominal qiymati, so‘m _____;

g) chiqarilishning umumiy hajmi (nominal qiymati bo‘yicha), so‘m _____;

d) chiqarilishdagi har bir aksiya bilan taqdim etiladigan huquqlar;

e) aksiyani joylashtirish usuli, shuningdek yopiq obuna bo‘lgan taqdirda ushbu chiqarilishdagi aksiyalar joylashtirilishi amalga oshiriladigan shaxslar doirasi ko‘rsatiladi;

j) aksiyani joylashtirishning muddati va tartibi.;

z) ushbu chiqarilishning aksiyalarini joylashtirish bahosi (baholari) yoki joylashtirish bahosini aniqlash tartibi.;

i) aksiyalarni to‘lash shartlari va tartibi., shu jumladan, hisob-kitoblarning shakli, aksiyalar to‘lanishiga kelib tushadigan pul vositalari ko‘chirilishi lozim bo‘lgan bank hisobvaraqlari;

to‘lanishiga kelib tushadigan pul vositalari ko‘chirilishi lozim bo‘lgan bank hisobvaraqlari;

k) aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorni qabul qilgan bank organi va qabul qilgan sanasi;

l) emitent ustavida aksiyalar emissiyasiga belgilanganhar qanday cheklashlar, joylashtirilayotgan aksiyalarni sotib olishi mumkin bo‘lganlarga nisbatan cheklashlar;

m) investor tomonidan sotib olingan aksiyalar bo‘yicha olingan daromadni soliqqa tortish;

n) aksiyalarni chiqarishdan maqsad.

35. Aksiyalarga to‘lov pul bo‘lmagan vositalar bilan to‘langan taqdirda aksiyalar to‘lanishi mumkin bo‘lgan mol-mulkning ro‘yxati ko‘rsatilsin.

Aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan taqdirda emitent tomonidan aksiyalar to‘lovi sifatida olingan vositalarni qaytarish tartibi.

36. Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olishni amalga oshiruvchi investitsiya vositachisining tashkiliy-huquqiy shaklini o‘z ichiga olgan to‘liq firma nomi, joylashgan joyi, pochta manzili, telefoni.

37. Hisobga olish tartibiga va qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan egalik huquqlarining oluvchiga o‘tishiga daxldor asosiy ma’lumotlar keltiriladi.

38. Aksiyalarni joylashtirishda ishtirok etuvchi tashkilotlar (anderrayterlar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar: tashkiliy-huquqiy shaklini o‘z ichiga olgan to‘liq firma nomi, aksiyalarni joylashtirishda ishtirok etuvchi tashkilotlarning joylashgan joyi va pochta manzili, ularning vazifalari, joylashtirish usullari va emitent bilan ushbu tashkilotlar o‘rtasidagi shartnomaning (shartnomalarning) muhim shartlari, badal shartlari, shuningdek qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziyalarning raqamlari, berilgan sanalari va litsenziyalarning amal qilish muddatlari va ularni bergan organ.

39. Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror va qimmatli qog‘ozlar emissiya risolasining asl nusxasi va nusxalari bilan tanishish tartibi va joyi to‘g‘risidagi axborot.

Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishining shartlari joylashtiriladigan axborot-ma’lumot tizimlarining, davriy bosma nashrlarning manzillari va nomlari.

40. Qimmatli qog‘ozlar sotiladigan asosiy joylar.

41. Ushbu qimmatli qog‘ozlar chiqarilishining listingga kiritilishi rejalashtirilayotgan savdolar tashkilotchisi to‘g‘risidagi axborot.

42. Guruhlar bo‘yicha tavakkalchilik omillarini sinchiklab tahlil etish:

Tavakkalchilik omillari	Batafsil tavsif
Iqtisodiy (bank faoliyat sohasining inflyatsiyaga moyilligi, qayta moliyalashtirish stavkasining korxona aylanma mablag‘lariga ta’siri va h.k.)	
Raqobat (tarmoqda xuddi shunday mahsulotni pastroq narxlar bo‘yicha ishlab chiqarayotgan korxonalarning mavjudligi)	
Ijtimoiy (ushbu hududda kerakli mutaxassislarning yo‘qligi, ishchilar sonini qisqartirish ehtimolining hududdagi vaziyatga ta’siri, ijtimoiy-madaniy ahamiyatga molik obyektlarni saqlashning korxona byudjetiga ta’siri va h.k.)	
Texnik (uskuna bir qismining eskirishi va h.k.)	
Ekologik (ekologik me’yorlar buzilganligi uchun korxonani yopish ehtimoli va h.k.)	

43. Mazkur emissiya risolasida ko‘rsatilgan barcha hujjatlar uning tarkibiy qismidir va ular biriktirilgan, raqamlangan, tikilgan va emitentning muhri bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

3-ilova

_____
(ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning nomi)

Aksiyalar chiqarilishini
davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risidagi
A R I Z A

_____ manzil bo‘yicha joylashgan:

_____, bir dona aksiyaning
(emitentning to‘liq nomi)

nominal qiymati _____ so‘m bo‘lgan umumiy qiymati ____ so‘mlik aksiyalar _____
(qimmatli qog‘ozlarning soni, ko‘rinishlari va turlari sanab o‘tiladi)

chiqarilishini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishingizni so‘raydi.

Ustavga ko‘ra ustav kapitalining miqdori _____ so‘m.

Ushbu aksiyalar chiqarilishi _____ chiqarilishdir.
(chiqarilishning tartib raqami)

Litsenziya raqami, berilgan sanasi va litsenziya bo‘yicha faoliyat turi _____[1]

Rahbar _____ _____
(imzo) (F.I.SH.)

Bosh buxgalter _____ _____
(imzo) (F.I.SH.)

Sana

4-ilova

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga taqdim etilgan hujjatlar
RO‘YXATI

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga kelib tushgan sanasi "___" _____ 20___ -y.

Emitentning nomi _____

Emitentning joylashgan joyi _____

Emitentning mas’ul xodimi _____

_____
(F.I.SH., telefon, faks raqami)

T/r	Taqdim etilgan hujjatlarning ro‘yxati:	Nusxalar soni

Hujjatlarning mavjudligi tekshirilgan _____
(ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning mas’ul xodimi)

Eslatma: *hujjatlar papkaga ushbu ro‘yxat nusxasi yelimlanib, qog‘ozli papka-tikmajildda taqdim etilishi lozim.*

[1] *Қимматли қоғозлар бозори профессионал иштирокчисининг лицензияси мавжуд бўлган тақдирда тўлдирилади.*

5-i ilova

_____
(ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning nomi)

Aksiyalarni chiqarish natijalari to‘g‘risidagi BILDIRISHNOMA

_____ manzil bo‘yicha joylashgan: _____, qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi
(emitentning to‘liq nomi)
qaror (___ yil, ro‘yxat raqami __) asosida chiqarilgan _____
(haqiqatda joylashtirish tugagan sana)
aksiyalarning _____dona yoki _____ foizi to‘liq (qisman) joylashtirilganini ma’lum qiladi.

Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorga (____ yil, ro‘yxat raqami ___) ko‘ra _____ chiqarilgan.
(emitentning nomi) (qimmatli qog‘ozlarning turi, ko‘rinishi, nominal qiymati va soni)

Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorga (____yil, ro‘yxat raqami ___) ko‘ra qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish tugagan sana (muddat): _____.

Kuzatuv kengashining raisi _____ _____
(imzo) (F.I.SH.)

Emitent rahbari _____ _____
(imzo) (F.I.SH.)

Bosh buxgalter _____ _____
(imzo) (F.I.SH.)

6-ilova

_____
(ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning nomi)

Avval ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlar chiqarishlariga kiritilgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga ARIZA

_____ manzil bo‘yicha joylashgan: _____, avvalgi ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyalar
(emitentning to‘liq nomi)
chiqarilishiga o‘zgartirishlarni _____
(davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanasi va raqami)
davlat ro‘yxatidan o‘tkazishingizni so‘raydi.

Avvalgi ro‘yxatdan o‘tkazilgan aksiyalar (obligatsiyalar) chiqarilishiga o‘zgartirishlar _____ sababli kiritilmoqda.
(qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorga o‘zgartirishlar kiritishning sababi ko‘rsatiladi)

Litsenziyaning raqami, berilgan sanasi va litsenziya bo‘yicha faoliyat turi _____ _____*

Kuzatuv kengashining raisi _____ _____
(imzo) (F.I.SH.)

Bosh buxgalter _____ _____
(imzo) (F.I.SH.)

Sana

**) Qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchisining litsenziyasi mavjud bo‘lgan taqdirda to‘ldiriladi.*

7-ilova

"TASDIQLANGAN"

_____
(emitentning nomi)

_____
(jamiyat kuzatuv kengashi raisining yoki boshqa vakolatli shaxsning F.I.SH. va imzo)

_____ _____-son
(sana) M.O‘.

" RO‘YXATDAN O‘TKAZILGAN "

_____
(ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning nomi)

_____
(ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ vakolatli shaxsining lavozimi, F.I.SH., imzo)

_____ _____-son
(sana) M.O‘.

_____ tomonidan _____ _____-son
(ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning nomi) (ro‘yxatdan o‘tkazilgan sana) (ro‘yxat raqami)

bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan "_____" qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi
(emitentning nomi)

to‘g‘risidagi qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalarning

MATNI

Amaldagi tahrir	Yangi tahrir
Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanasi va raqami	

Emitent rahbari _____
(F.I.SH., imzo)

Emitent bosh buxgalteri _____
(F.I.SH., imzo)

Ilgari ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlariga o‘zgartirishlar kiritishga doir hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatgan investitsiya maslahatchisining nomi: _____

Investitsiya maslahatchisi bilan tuzilgan shartnoma raqami va sanasi _____

Investitsiya maslahatchisi rahbarining F.I.SH. va imzosi:

_____ _____
Muhr Sana

8-ilova

"TASDIQLANGAN"

_____
(emitent nomi)

_____
(jamiyat kuzatuv kengashi raisining yoki boshqa vakolatli shaxsning F.I.SH. va imzo)

_____ _____-son
(sana) M.O‘.

_____ tomonidan _____ _____-son
(ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning nomi) (ro‘yxatdan o‘tkazilgan sana) (ro‘yxat raqami)

bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan "_____" qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi
(emitentning nomi)

emissiya risolasiga kiritilayotgan o‘zgartirishlar va (yoki) qo‘shimchalar

MATNI

Amaldagi tahrir	Yangi tahrir
Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanasi va raqami	

Emitent rahbari _____
(F.I.SH., imzo)

Emitent bosh buxgalteri _____
(F.I.SH., imzo)

Ilgari ro‘yxatdan o‘tkazilgan qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlariga o‘zgartirishlar kiritishga doir hujjatlarni tayyorlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatgan investitsiya maslahatchisining nomi: _____

Investitsiya maslahatchisi bilan tuzilgan shartnoma raqami va sanasi _____

Investitsiya maslahatchisi rahbarining F.I.SH. va imzosi:

_____ _____
Muhr Sana

11-BOB. MOLIYAVIY NATIJALARNI SHAKLLANTIRISH VA HISOBI

1-§. Moliyaviy natijalarni shakllantirish va hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o‘sishini ta’minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo‘jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo‘lga kiritildi.

Korxona o‘z xo‘jalik faoliyati samaradorligini aniqlash va kelgusi davrlar uchun tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon beruvchi hisobot davridagi barcha xarajatlar va daromadlarni hisoblashi uchun ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash tizimiga ega bo‘lmogi kerak.

Moliyaviy natijalar – bu korxonaning ma’lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o‘ziga qarashli mablag‘larning pirovard oshishi yoki kamayishidir. Ular axborotdan foydalanuvchilarga korxona faoliyati samaradorligi, aktivlarning boshqarilishi darajasini, korxonaning potentsial imkoniyatlari va ularning o‘zgarish sur’atlarini, boshqaruv jamoasining imkoniyatlarini baholashga va korxona istiqbollarini taxmin qilishga yordam beradi.

Buxgalteriya hisobida faoliyat natijasi hisobot davridagi foyda (yoki zarar)larni hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi. Moliyaviy natija ko‘rsatkichlari, ularni hisoblash tartibi, daromadlar va xarajatlarning tasniflanishi davlat tomonidan belgilab qo‘yiladi.

O‘zbekistonda daromadlar va xarajatlarni hisobga olish, moliyaviy natijalarni shakllantirish hamda ularni hisobotda aks ettirish bo‘yicha izchillik asosida ishlaydigan bir-birini to‘ldirib turuvchi me’yoriy hujjatlar mavjud. Moliyaviy natijalarni shakllantirish va buxgalteriya hisobi respublikamizda Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom, 2-son BHMS va 3-son BHMS bilan tartibga solinadi.

Yuqorida keltirilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha turdagi korxonalar uchun moliyaviy natijalarni shakllantirishni kontseptual asoslari va tarkibiy tuzilish ko‘rib chiqilgan.

2-son BHMS daromadlar mohiyatini tushuntirish, daromadlar tarkibini aniqlash, daromadlarni tan olish payti va ularni o‘lchashni belgilab berish maqsadida ishlab chiqilgan. Daromadlarni umumlashtirilgan holatda korxonalar faoliyatining mahsuli sifatida aniqlashtirish mumkin. Daromadlar o‘z navbatida korxonalarning faoliyat ko‘rsatish manbalaridan bir bo‘lib hisoblanadi. Daromadlarsiz hech qanday foyda mavjud emas, o‘z navbatida foydasiz xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘zi mavjud emasdir.

Moliyaviy hisobning xalqaro standarti (IAS) 18 «Tushum» daromad tushunchasini quyidagi tavsiflab beradi: tushum (daromad) – kompaniyaning odatdagi faoliyati davomida paydo bo‘ladigan davr mobaynidagi iqtisodiy naflarning yalpi kelib tushish oqimi bo‘lib, bunday oqim aksioner (mulkdor)larning kirish badallarini hisobga olmagan holda kompaniyaning kapitalini oshirishga olib keladi.

Boshqacha qilib aytganda, daromadni korxona aktivlarining oqimi yoki uning mahsulot (tovar) larni yetkazib berish yoxud mahsulot (tovar) larni ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish yoxud uning asosiy faoliyatini tashkil etadigan boshqa operatsiyalar natijasida kreditorlik qarzlarining qoplanishi sifatida ham belgilash mumkin.

Ba’zan daromad tushunchasi uning xususiy kapitalga nisbatan ta’siridan kelib chiqib

aniqlanadi va u hisobot davri davomida aktivlarning ko‘payishi yoki majburiyatlarning qisqarishi ko‘rinishida xususiy kapitalning oshishiga olib keladigan iqtisodiy naflarning ko‘payishi sifatida ham aniqlanadi. Bunda xususiy kapitalning egalari tomonidan kiritilgan qo‘yilmalar natijasida xususiy kapitalaning oshishi hisobga olinmaydi.

Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromad asosiy, operatsion (asosiy faoliyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan boshqa daromadlar) va moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlardan iborat bo‘ladi va quyidagicha ta’riflanadi «Korxonaning odatdagi faoliyati davomida vujudga keladigan davr ichida mulk egalarining o‘z sarmoyalariga badali bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘payishlarni istisno etganda, xususiy kapitali ko‘payishiga olib keladigan tushumlar».

Xo‘jalik yuritish amaliyotida va shuningdek - «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan, korxonalar tomonidan ularning xo‘jalik faoliyatini yuritish natijasida oladigan daromadlari quyidagi asosiy bo‘limlar bo‘yicha hisobotga kiritiladilar:

- sotishdan olingan sof tushum.
- asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsiya daromadlari).
- moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar.
- favqulodda daromadlar.

2-son BHMS ga asosan korxona tomonidan asosiy faoliyatdan va asosiy bo‘lmagan faoliyatdan olingan daromadlar uning yalpi daromadini tashkil etadi. Bunda 2-son BHMS ga muvofiq, daromadlar deyilganda korxonaning odatdagi faoliyati davomida olingan daromadlar tushuniladi, jumladan quyidagilar ham:

- tovar-moddiy zaxiralarni sotishdan, xizmatlar ko‘rsatilishidan olinadigan, mahsulotni realizatsiya qilishdan kelib tushgan yoki kelib tushishi lozim bo‘lgan tushum ko‘rinishidagi daromad;

- foizlar, dividendlar, royalti va boshqa ko‘rinishdagi daromadlarni olish imkonini beradigan aktivlarni boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektga foydalanish uchun o‘tkazib berish.

Tovarlar sirasiga korxonalar tomonidan realizatsiya qilish maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va qayta sotish uchun mo‘ljallangan tovarlar yoki keyinchalik qayta sotish maqsadida saqlanayotgan boshqa aktivlar kiradi.

Xizmat ko‘rsatish odatda korxonaning shartnomada belgilab qo‘yilgan shartlarni kelishilgan davr davomida bajarishni o‘z ichiga oladi. Xizmatlar bir yoki bir necha davrlar davomida bajarilishi mumkin. Xizmat ko‘rsatishga doir ayrim bitimlar pudrat usulida amalga oshiriladigan qurilish bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi, masalan, arxitektorlar va qurilish ishlari loyihasi boshqaruvchilari xizmatiga doir bitimlar 17-son BHMS da batafsil qarab chiqiladi.

Korxonaning aktivlaridan boshqa korxonalar tomonidan foydalanishi quyidagi ko‘rinishdagi daromadlarga olib keladi:

- korxonaga qarashli bo‘lgan va ma’lum miqdorda haq to‘lash sharti bilan foydalanish uchun berilgan pul mablag‘lari yoki pul o‘rnini bosa oladigan aktivlar (pul ekvivalentlari) yoxud so‘mlarni aks ettiruvchi foizlar;

- korxonaning uzoq muddatli aktivlaridan masalan, patentlar, savdo markalari, mualliflik huquqlari va kompyuter dasturlaridan pul to‘lash sharti bilan foydalanish uchun berilgan, foydalanganlik uchun to‘lanadigan royaltilar;

- ta’sischilar o‘rtasida ularning xususiy kapitalidagi ulushiga mutanosib ravishda foydani taqsimlashdan oladigan boshqa daromadlari.

SHuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, 2-son BHMS ning ta’sir etish doirasi quyidagilar natijasida paydo bo‘ladigan daromadlarga nisbatan qo‘llanilmaydi:

- moliyaviy ijara (lizing) shartnomalari bo‘yicha olinadigan daromadlar;
- hisoblangan dividendlar va investitsiyalardan olinadigan boshqa daromadlar;
- sug‘urta kompaniya bilan amalga oshirilgan sug‘urta shartnomalari;
- moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlar joriy qiymatidagi yoki ularni realizatsiya qilish hollardagi o‘zgarishlar;
- boshqa aylanma mablag‘lar qiymatidagi o‘zgarishlar;
- chorva hayvonlar va qishloq xo‘jaligi hamda o‘rmon xo‘jaligi mahsulotining tabiiy o‘sishi;
- mineral ma’danlarni qazib olish.

Moliyaviy ijara (lizing) shartnomalari bo‘yicha olinadigan daromadlar 6-son BHMS da va «Buxgalteriya hisobida ijara operatsiyalarini aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» da batafsil ravishda ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, moliyaviy ijara (lizing) shartnomalari bo‘yicha olinadigan daromadlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalarining hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Moliyaviy investitsiyalardan olinadigan daromadlar hamda Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga kiritilgan investitsiyalardan olinadigan daromadlar 12-son BHMS da va 8-son BHMS da batafsil ko‘rib chiqilgan. SHuningdek, moliyaviy investitsiyalardan olinadigan daromadlar hamda Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga kiritilgan investitsiyalardan olinadigan daromadlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «3-bob. Moliyaviy investitsiyalar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Bundan tashqari, moliyaviy natijalarni shakllantirish va buxgalteriya hisobini ayrim masalalari respublikamizda boshqa buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ham tartibga solinadi.

Korxonalar tomonidan moliyaviy natijalarni shakllantirish va buxgalteriya hisobini tegishli ravishda tashkil etish va ularni bilan bog‘liq jarayonlarni nazorat qilish uchun zarur bo‘ladigan ichki nizom, yo‘riqnoma, boshqa tashkiliy-taqsimlovchi hujjatlarni ishlab chiqishlari mumkin. Yuqoridagi hujjatlarda bilan:

- moliyaviy natijlarni shakllantirish bilan bog‘liq jarayonlar bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan boshlang‘ich hujjatlarning, aylanma qaydnomalar va boshqa jadvallar shakllari va ularni rasmiylashtirish (tuzish) tartibini, shuningdek hujjat aylanishining qoidalarini;
- moliyaviy natijalarni shakllantirish va buxgalteriya hisobini yuritish hamda ular bo‘yicha hisobot tuzish va taqdim etishga tayyorlash bilan bog‘liq jarayonlarni amalga oshirishga ishonch bildirilgan bo‘linmalarining mas’ul shaxslari ro‘yxatini;
- moliyaviy natijalarni shakllantirish bilan bog‘liq jarayonlarni nazorat qilish bo‘yicha hisobotlarni ishonchligini va boshqalarni tasdiqlashi mumkin.

2-§. Daromadlar va xarajatlar hisobi

Moliyaviy natijalarni shakllantirish uchun alohida daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar va alohida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar ishlatiladi. Mahsulot (tovar, ish, xizmat)larni sotishdagi qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz va boshqa to‘lovlar olinadigan schyotlar yoki pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning debetida va byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyotlarning (6400) kreditida aks ettiriladi.

Yalpi daromad korxonaning asosiy va asosiy bo‘lmagan faoliyatidan olingan daromadlarni o‘z ichiga oladi. Asosiy faoliyatdan daromad mahsulot, ishlar, xizmatlar, tovar-moddiy zaxiralar, boshqa aktivlarni sotishdan, shuningdek mukofotlar, foizlar va dividendlar, gonorarlar va xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan rentadan olinishi mumkin.

Korxona asosiy bo‘lmagan faoliyat natijasida oladigan daromadlar, daromadni aniqlashga mos keladigan moddalarni o‘z ichiga oladi va kontseptual asosning alohida tarkibiy qismlari deb hisoblanmaydi.

Birjada muomalada bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlarni qayta baholash va boshqalar asosiy bo‘lmagan faoliyat natijasida paydo bo‘ladigan daromadlarga misol bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunday daromadlar, agar moliyaviy natijalar haqidagi hisobotda e’tirof etilsa, alohida ko‘rsatiladi, chunki iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda ular haqidagi axborot foydali bo‘lishi mumkin.

Xarajatlarni belgilash mulkni, ishlab chiqarishni boshqarish bilan hamda mahsulot sotish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish va zararlar bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Ular odatda pul mablag‘lari, moddiy zaxiralar, inshootlar, uskunalar va boshqalar singari aktivlarning chiqishi yoki ulardan foydalanilishi shaklida bo‘ladi.

Zararlar iqtisodiy foydaning kamayganligini bildiradi va o‘z tabiatiga ko‘ra boshqa xarajatlardan farq qilmaydi va kontseptual asosning alohida qismi deb hisoblanmaydi.

Zararlar boshqa aktivlarni sotishda yoki tabiiy ofatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bunday zararlar moliyaviy natijalar haqidagi hisobotda ko‘rsatiladigan bo‘lsa, ular haqidagi axborot iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda foydali bo‘lishi mumkin va shuning uchun ham ular alohida ko‘rsatiladi.

21-son BHMSga muvofiq, hisobot davridagi korxona faoliyati moliyaviy natijalarining shakllanishi va ishlatilishi to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan schyotlarda hisobni tashkil etilishini ko‘rib chiqamiz.

Asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga olish

Tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar»;

- 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar»;

- 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar»;

- 9040 «Sotilgan tovarlarning qaytishi»;

- 9050 «Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar».

Yuqoridagi schyotlarda korxonaning asosiy faoliyatidan olingan sof tushumi sifatida quyidagilar aks ettiriladi:

- transport korxonalarining yo‘lovchi va yuklarni tashishi bo‘yicha xizmatlari;

- sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlar korxonalarining ishlab chiqargan tayyor mahsuloti va yarim tayyor mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlar;

- sanoat tusidagi ish va xizmatlar;

- sanoat xarakteriga ega bo‘lmagan ish va xizmatlar;

- qurilish-montaj, loyiha-qidiruv, geologorazvedka, ilmiy-tadqiqot ishlarini sotishdan olingan daromadlar;

- savdo va ta’minot tashkilotlarining tovarlarni sotishdan olingan daromadlari;

- mol-mulkni ijaraga berish asosiy faoliyati hisoblangan korxonalarda olinadigan ijara to‘lovlari;

- yengil avtomobillarni ijaraga berish va avtomashinalarni haydab olib borish xizmatlari;

- aloqa korxonalarining xizmatlari va boshqalar.

9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar», 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar»,

9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar» schyotlarining kreditida korxonaning asosiy faoliyati (tayyor mahsulotlar, tovarlarni sotish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish)dan daromadlar 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti va boshqa olinadigan schyotlar hamda pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500) bilan bog‘langan holda aks ettiriladi, biroq, oldingi hisobot davrlarida olingan, ammo joriy hisobot davriga tegishli bo‘lgan daromad summalari 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Mahsulot, tovar, ish, xizmatlarni sotishda 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar», 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar», 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar» schyotlarida sotishdan tushgan sof tushum summasi aks ettiriladi. Hisobot davrining oxirida 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar», 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar», 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar» schyotlari 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti bilan yopiladi.

9040 «Sotilgan tovarlarning qaytishi» schyoti sotilgan mahsulot va tovarlarning qaytishini hisobga olish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar», 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar», 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar» schyotlariga kontr-passiv schyot hisoblanadi va uning debet aylanmasi mahsulotlar va tovarlar sotishdan daromadni kamaytiradi. 9040 «Sotilgan tovarlarning qaytishi» schyotining debetida qaytarilgan tovarlar qiymati, tegishli pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500) bilan - xaridorlar va buyurtmachilar tomonidan qaytarilgan tovarlarning qiymati; 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti va boshqa olinadigan schyotlar bilan - qaytarilgan tovarlar bo‘yicha bekor qilingan debitorlik qarzlari summasi; to‘lanadigan schyotlar bilan - mazkur tovarlar uchun xaridorlar va buyurtmachilardan olingan to‘lovlar va bo‘naklar bo‘yicha vujudga kelgan qarz summasi aks ettiriladi. Bunda ilgari hisoblangan qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i bo‘yicha byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga oluvchi tegishli schyotlarning debeti va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar, olinadigan schyotlarning kreditida yozuv amalga oshiriladi. Qaytarilgan mahsulotlar va tovarlarning tannarxi TMZlarni hisobga oluvchi tegishli schyotlarning debetida va sotilgan mahsulotlar va tovarlarning tannarxini hisobga oluvchi tegishli schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

9050 «Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar» schyoti shartnoma shartlariga muvofiq berilgan sotuv chegirmalari, shuningdek sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larda aniqlangan yaroqsizliklar va h.k.lar natijasida berilgan narx chegirmalarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan, bo‘lib 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar», 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar», 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar» schyotlariga kontr-passiv schyot hisoblanadi va uning debet aylanmasi mahsulotlar va tovarlarni sotishdan, ish bajarishdan va xizmat ko‘rsatishdan daromadlarni kamaytiradi. 9050 «Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar» schyotining debetida sotuv va narxlardan berilgan chegirmalarning summasi tegishli olinadigan schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar», 9020 «Tovarlarni sotishdan daromadlar», 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar» schyotlar bo‘yicha analitik hisob sotilgan mahsulotlar (tovarlar), bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning har bir turi bo‘yicha alohida yuritiladi. Bundan tashqari, analitik hisobni sotuvning geografik segmentlari (hududlar) va korxonani boshqarish uchun zarur bo‘lgan boshqa segmentlar bo‘yicha yuritish mumkin.

Moliyaviy ijara (lizing) shartnomalari bo‘yicha olinadigan daromadlarni 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan daromadlar» schyotida aks ettirish tartibi «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalarining hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)larning tannarxini hisobga olish

Sotilgan tayyor mahsulotlar, tovarlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi»;

- 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi»;

- 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi»;

- 9140 «Davriy hisobda TMZ sotib olish/xarid qilish»;

- 9150 «Davriy hisobda TMZ bo‘yicha tuzatishlar».

Tayyor mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlar sotilganda, sotilgan tayyor mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlarning tannarxi 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi», 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi», 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi» schyotlarining debetida tayyor mahsulotlarni (2800), tovarlarni (2900) hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Hisobot davrining oxirida 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi», 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi», 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi» schyotlari 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti bilan yopiladi. Demak, 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotining debetida sotilgan mahsulot, ish va xizmatlarning haqiqiy tannarxi, kreditida esa mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan tushgan sof tushum aks ettiriladi. Mazkur operatsiyalar bo‘yicha 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotining debet va kredit aylanmalarining farqi orqali mahsulot, ish, xizmatlarni sotishdan olingan yalpi foyda (zarar) aniqlanadi.

Mahsulot (ish, xizmat) sotishdan olingan foyda, sotishdan olingan sof tushum va ushbu mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi sifatida aniqlanib, korxonaning mahsulotni ishlab chiqarish tannarxini imkoniyat darajasida kamaytirish ichki va tashqi omillarini izlash, topish, hamda ularni korxona xo‘jalik faoliyatiga tadbiq etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Bizga ma’lumki, raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor, xaridor talabini chuqur urganish bilan birga, bozorni har tomonlama marketingini ham o‘rganish, o‘tkazish lozim. Aytaylik, bozorning faqat talabi urganilib shu talabdan kelib chiqib, taklif sifatida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqishdi. Ammo xuddi shu taklif bilan boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar ham bozorga chiqishlari mumkin. Demak, aniq ravshan ko‘rinib turibdiki, taklif etilayotgan mahsulot (ish, xizmat) nafaqat sifatining har tomonlama yaxshiligi, balki tannarxi arzonligi bilan ham ajralib turishi lozim.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda - moliyaviy natijalar ko‘rsatkichining mohiyati korxona xo‘jalik faoliyatiga baho berish, uning kelgusidagi istiqbollarini rejalashtirish kabi tegishli xulosalarga kelishdi, hamda zaruriy qarorlar qabul qilish, muhim chora tadbirlarni ishlab chiqib uni korxonaning kelgusidagi faoliyatiga tadbik etish imkoniyatlarini yaratishidadir.

9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi», 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi», 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi» schyotlardan amalda foydalanish korxonada qo‘llaniladigan tovar-moddiy zaxiralarning hisob usuliga, ya’ni, tovar-moddiy zaxiralarning uzluksiz yoki davriy hisobiga bog‘liq. Tovar-moddiy zaxiralarni uzluksiz hisobga olish usuli qo‘llanilganda har bir mahsulot yoki tovarning tannarxi uning ishlab chiqarish jarayonidagi harakatiga qarab xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarda to‘planadi.

Tovar-moddiy zaxiralarni davriy hisobga olish usulidan foydalanilganda har bir mahsulot (tovar)ning tannarxi hisobot davri davomida vaqtinchalik 9140 «Davriy hisobda TMZ sotib olish/ xarid qilish» schyotida yig‘iladi, biroq sotilgan mahsulotlar, tovarlarning haqiqiy tannarxini faqat tovar-moddiy zaxiralar inventarizatsiya qilingandan so‘ng aniqlash mumkin. 9150 «Davriy hisobda TMZ bo‘yicha tuzatishlar» schyoti - hisobot davrining oxirida inventarizatsiya natijasida tovar-moddiy zaxiralarning mavjudligini aks ettirish uchun foydalaniladigan vaqtinchalik schyot. 9150 «Davriy hisobda TMZ bo‘yicha tuzatishlar» schyotning debeti bo‘yicha tovar-moddiy zaxiralarning kamayishi, krediti bo‘yicha tovar-moddiy zaxiralarning o‘sishi tovar-moddiy zaxiralarni hisobga oluvchi schyotlar (1000 - 2900) bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. 9150 «Davriy hisobda TMZ bo‘yicha tuzatishlar» schyotning qoldig‘i 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotiga o‘tkazilishi orqali yopiladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni tannarxini shakllanishi, omborga kirimi va chiqimini boshlang‘ich hujjatlarda, buxgalteriya hisobi schyolarida aks ettirish tartibi «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi», 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi», 9130 «Bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarning tannarxi» schyotlar bo‘yicha analitik hisob sotilgan mahsulotlar (tovarlar), bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning har bir turi bo‘yicha alohida yuritiladi.

Asosiy faoliyat natijasi – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi (qiymati) ni balansdan chiqarilishi bilan bog‘liq operatsiyalarni (shu jumladan sotish va ular uchun hisob-kitob qilishni) boshlang‘ich hujjatlar va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga olish

Korxonaga tegishli asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishi (tugatish, sotish, tekinga berish, ulush sifatida ustav kapitaliga berish, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berish, aniqlangan kamomad yoki yo‘qotish) to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- *9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi»;*
- *9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi».*

9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyotining debeti bo‘yicha chiqib ketgan asosiy vosita obyektlarining boshlang‘ich qiymati, shuningdek asosiy vositalarning chiqib ketishi bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar, krediti bo‘yicha asosiy vositalar obyektlarini sotishdan olingan tushumlar va hisobdan chiqarish natijasida sotish va foydalanish mumkin bo‘lgan bahoda kelib tushgan materiallarning qiymati, shuningdek chiqib ketgan asosiy vositalar obyektlari bo‘yicha chiqib ketish vaqtida hisoblangan eskirish summalari kiritiladi.

Asosiy vositalarni sotishdan tushumlar 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyotining kreditida 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti va boshqa olinadigan schyotlar hamda pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500) bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Joriy hisobot davrida 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti bo‘yicha debet qoldiq (zarar) 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotiga, kredit qoldiq (foyda) esa 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» schyotiga hisobdan chiqariladi. Asosiy vositalar obyektlarini moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berish natijasida 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyotida yuzaga keladigan va kechiktirilgan daromadlarga tegishli bo‘lgan

foyda summasi 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» (joriy qismi) yoki 7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» (uzoq muddatli qismi) schyotiga hisobdan chiqariladi.

Asosiy vositalar obyektlarining kamomadi yoki buzilish hollarida qiymatliklar kamomadi sifatida aks ettiriladigan qoldiq qiymati 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyotining krediti bo‘yicha 5910 «Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti bilan bog‘langan holda hisobdan chiqariladi. Aniq aybdor aniqlangandan keyin kamomad va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar summasi 4730 «Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyotining debetiga, aniq aybdorlar aniqlanmagan holda esa 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotining debetiga 5910 «Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti bilan bog‘langan holda kiritiladi.

9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti bo‘yicha analitik hisob chiqib ketayotgan asosiy vositalarning inventar obyektlari bo‘yicha alohida yuritiladi.

Asosiy vositalar, shu jumladan, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni chiqib ketishi (tugatish, sotish, tekinga berish, ulush sifatida ustav kapitaliga berish, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berish, aniqlangan kamomad yoki yo‘qotish) bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish v tartibi «1-bob. Asosiy vositalar hisobi» va «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalari hisobi»» da ko‘rib chiqilgan.

9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyotining debetida chiqib ketayotgan qiymatliklarning balans qiymati, shuningdek shu bilan bog‘liq amalga oshirilgan xarajatlar (komission mukofotlar va h.k.lar), kreditida aktivlarni sotishdan tushum, ya’ni sotilgan mulk uchun korxonaga tegishli bo‘lgan summa 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti va boshqa olinadigan schyotlar hamda pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500) bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Asosiy faoliyat natijasi bo‘lmagan – korxonada foydalanishga zarurat bo‘lmagan tovar-moddiy zaxiralarni balansdan chiqarilishi bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Nomoddiy aktivlarning chiqib ketishi (tugatish, sotish, tekinga berish, ulush sifatida ustav kapitaliga berish, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berish, aniqlangan kamomad yoki yo‘qotish) da 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyotining kreditiga, shuningdek ushbu obyektlar bo‘yicha chiqib ketish vaqtigacha hisoblangan eskirish summasi, nomoddiy aktivlarning eskirishini hisobga oluvchi tegishli schyotlar (0500) bilan bog‘langan holda hisobdan chiqariladi. 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyot bo‘yicha debet qoldiq (zarar) 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotiga, kredit qoldiq (foyda) esa 9320 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda» schyotiga hisobdan chiqariladi.

Asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga olish

Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda»;
- 9320 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda»;
- 9330 «Undirilgan jarima, penya va ustamalar»;
- 9340 «O‘tgan yillar foydalari»;
- 9350 «Operativ ijaradan daromadlar»;
- 9360 «Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar»;
- 9370 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar daromadlari»;

- 9380 «Tekin qaytarilmaydigan moliyaviy yordam»;

- 9390 «Boshqa operatsion daromadlar».

Hisobot davrining oxirida asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda summasi 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» schyotining kreditida 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Asosiy vositalar, shu jumladan, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni chiqib ketishi (tugatish, sotish, tekinga berish, ulush sifatida ustav kapitaliga berish, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berish, aniqlangan kamomad yoki yo‘qotish) bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «1-bob. Asosiy vositalar hisobi» va «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalari hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Hisobot davrining oxirida boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda summasi 9320 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda» schyotining kreditida 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Asosiy faoliyat natijasi bo‘lmagan – korxonada foydalanishga zarurat bo‘lmagan tovar-moddiy zaxiralarni balansdan chiqarilishi bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasini «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida» gi Qonuni va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda xo‘jalik shartnomalarining shartlarini buzganlik uchun jarimalar, penya, ustamalar va jarima turlarini qo‘llash nazarda tutilgan. Xo‘jalik shartnomalarining shartlarini buzganliklari uchun qarzdorlardan undirilgan jarimalar, penya, ustamalar va boshqa jarima turlari, shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplash bo‘yicha daromadlar 9330 «Undirilgan jarima, penya va ustamalar» schyotining kreditida 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti va boshqa olinadigan schyotlar yoki pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500) bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Hisobot davrida aniqlangan o‘tgan yillar foydalari 9340 «O‘tgan yillar foydalari» schyotining kreditida 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti va boshqa olinadigan schyotlar yoki pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500) ning debeti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Mulkni operativ ijaraga berishdan daromadlar 9350 «Operativ ijaradan daromadlar» schyotining kreditida 4820 «Operativ ijara bo‘yicha olinadigan to‘lovlar» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Mulkni operativ ijara shartnomalari bo‘yicha berish bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalari hisobi»» da ko‘rib chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 150-moddasiga muvofiq da’vo muddati uch yil qilib belgilangan. Korxonalarda da’vo muddati o‘tganda keyin kreditorlar yoki ishchilar tomonidan o‘z vaqtida talab etilmagan qarz summasi hisobdan chiqariladi. Da’vo muddati o‘tib ketgan kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar 9360 «Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan daromadlar» schyotining kreditida kreditor va deponent qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Korxonaning xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklari sifatida korxonaning maqsadi bo‘lgan faoliyati mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlab chiqarish va xo‘jaliklar tushuniladi. 9370 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar daromadlari»

schyotida shu korxonaning asosiy faoliyati bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lmagan daromadlar hisobga olinadi. Bularga korxona balansida bo‘lgan sog‘liqni saqlash obyektlari, bolalar bog‘chalari, uy-joy-kommunal xo‘jaligi, madaniyat va sport obyektlari, tikuvchilik va boshqa maishiy xizmat ko‘rsatish ustaxonalari, oshxona va bufetlar, ilmiy-tadqiqot va konstruktorlikka oid ajratilgan bo‘linmalaridan olingan daromadlar kiradi.

Pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari ko‘rinishida tekinga olingan daromadlar 9380 «Tekin qaytarilmaydigan moliyaviy yordam» schyotining kreditida pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500, 5600) bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Boshqa operatsion faoliyatdan olingan daromadlar 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyotining kreditida 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti va boshqa olinadigan schyotlar yoki pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500) bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Davr xarajatlarini hisobga olish

Davr xarajatlari tarkibiga korxona ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar kiradi. Bular jumlasiga sotish xarajatlari, boshqaruv xarajatlari, boshqa operatsion xarajatlar kiradi. Bu xarajatlar korxona asosiy faoliyati va mahsulot sotish bilan bog‘liq bo‘lmaganligi, lekin ma’lum bir jarayonlarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun ular operatsion xarajatlar, umumiy va ma’muriy xarajatlar deyiladi. Ular mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga bog‘liq bo‘lmagani, va aksincha, vaqt bilan, xo‘jalik faoliyatining davomiyligi bilan bog‘liq bo‘lgani sababli ular ***davr xarajatlari*** deb yuritiladi.

Ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan sotish xarajatlari, boshqaruv xarajatlari, boshqa operatsion xarajatlar, shuningdek kelgusida soliq solinadigan bazadan chegiriladigan hisobot davri xarajatlari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 9410 «Sotish xarajatlari»;

- 9420 «Ma’muriy xarajatlar»;

- 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar».

Davr xarajatlarining tarkibi «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» bilan tartibga solinadi. 9410 «Sotish xarajatlari» schyotida mahsulotni sotish bo‘yicha xarajatlar, ya’ni, «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ning 2.1-bo‘limida keltirilgan xarajatlar: mahsulotni iste’molchiga yetkazib berish bilan bog‘liq, transport vositalariga ortish, marketing bilan shug‘ullanuvchi xodimlar va bo‘limlarning xarajatlari va boshqalar aks ettiriladi.

Korxonalar ishini olib borish, uyushtirish va boshqarish tegishli xarajatlarni talab qiladi. 9420 «Ma’muriy xarajatlar» schyotida korxonani boshqarish bo‘yicha xarajatlar, ya’ni, «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ning 2.2-bo‘limida keltirilgan xarajatlar: boshqaruv xodimlarining mehnat haqi xarajatlari, umumboshqaruv ahamiyatiga molik asosiy vositalarni ta’mirlash va saqlash xarajatlari, boshqaruvning texnik vositalari, aloqa uzellari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazlarini va ishlab chiqarishga tegishli bo‘lmagan boshqaruvning boshqa texnik vositalarini saqlash va ularga xizmat ko‘rsatish xarajatlari, shaharlararo va xalqaro telefon so‘zlashuvlari uchun haq to‘lash xarajatlari, vakillik xarajatlari, boshqaruv xodimlarining xizmat safari xarajatlari, umumxo‘jalik ahamiyatidagi binolarning ijara to‘lovlari va boshqa xarajatlar hisobga olinadi.

9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotida «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ning 2.3-bo‘limida keltirilgan xarajatlar: kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari, axborot, auditorlik va maslahat xizmatlari uchun to‘lov xarajatlari, ish haqi hisoblashda hisobga olinmaydigan kompensatsiyalash va rag‘batlantirish ahamiyatiga molik to‘lovlar, bank va depozitariy xizmatlarining to‘lovlari, zararlar, jarimalar, penyalar va boshqa opertsion faoliyat jaryonida vujudga keladigan, ishlab chiqarish jarayoni, moliyaviy faoliyat va favqulodda xarajatlar moddalarining belgilari bo‘lmagan boshqa xarajatlar aks ettiriladi.

SHuningdek 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotida kelgusida soliq solinadigan bazadan chegiriladigan hisobot davri xarajatlari, ya’ni «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ning 2.3-bo‘limida keltirilgan xarajatlar ham aks ettiriladi.

Mazkur hisobot davridagi soliq solinadigan bazaga kiritiladigan, biroq keyingi hisobot davrlaridagi soliq solinadigan foydadan chegiriladigan xarajatlar summasi ***balansdan tashqari 012 «Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar»*** schyotida aks ettiriladi. Mazkur schyot bo‘yicha analitik hisob soliq solinadigan bazadan chegiriladigan xarajatlar, ularning miqdori va ular chegiriladigan muddat to‘g‘risidagi axborotni ta’minlashi shart.

Hisobot davrining oxirida 9410 «Sotish xarajatlari» schyoti, 9420 «Ma’muriy xarajatlar» schyoti va 9430 «Boshqa opertsion xarajatlar» schyoti 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

Moliyaviy faoliyat daromadlarini hisobga olish

Moliyaviy faoliyat daromadlari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 9510 «Royalti ko‘rinishidagi daromadlar»;

- 9520 «Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar»;

- 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar»;

- 9540 «Valyutalar kurslari farqidan daromadlar»;

- 9550 «Moliyaviy ijaradan daromadlar»;

- 9560 «Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar»;

- 9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari».

Royalti ko‘rinishida olingan daromadlar 9510 «Royalti ko‘rinishidagi daromadlar» schyotining kreditida 4850 «Olinadigan royalti» yoki pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida boshqa korxonalar faoliyatida ulush bilan ishtirok etishdan olingan daromadlar, korxonaga tegishli bo‘lgan aksiyalar bo‘yicha dividendlar va obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlardan daromadlar 9520 «Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyotining kreditida 4840 «Olinadigan dividendlar» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Uzoq muddatli va joriy investitsiyalar, xodimlarga va boshqa korxonalarga berilgan qarzlar bo‘yicha foizlar ko‘rinishidagi daromadlar 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyotining kreditida 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

9540 «Valyutalar kurslari farqidan daromadlar» schyotida balansning valyuta moddalari bo‘yicha ijobiy kurs farqlaridan olingan daromadlar aks ettiriladi. Chetel valyutasidagi operatsiyalar bo‘yicha ijobiy kurs farqi, shu jumladan, buxgalteriya balansini tuzish sanasiga qarzlarni qayta baholash farqlari 9540 «Valyutalar kurslari farqidan daromadlar» schyotiga o‘tkaziladi. Balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash va natijada vujudga keladigan

ijobiy kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilishi tartibi hamda ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Mulkni moliyaviy ijaraga berishdan olingan daromadlar 9550 «Moliyaviy ijaradan daromadlar» schyotining kreditida 4830 «Olinadigan foizlar», 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar», pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar va boshqa tegishli schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlarni 9550 «Moliyaviy ijaradan daromadlar» schyotida aks ettirish tartibi «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalari hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar 9560 «Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar» schyotining kreditida uzoq muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar va qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari» schyotida yuqorida keltirilgan schyotlarda hisobga olinmaydigan moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari aks ettiriladi.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarni hisobga olish

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar»;

- 9620 «Valyutalar kurslari farqidan zararlar»;

- 9630 «Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bo‘yicha xarajatlar»;

- 9690 «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar».

Banklar, mol yetkazib beruvchilarning kreditlari va qarzlar, moliyaviy ijara bo‘yicha foizlar va boshqa foiz to‘lovi xarajatlari 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi xarajatlar» schyotining debetida 6920 «Hisoblangan foizlar» yoki pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Kreditlar va qarzlar bo‘yicha foiz to‘lovlarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan. Moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo‘yicha foiz to‘lovlarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalarig hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

9620 «Valyutalar kurslari farqidan zararlar» schyotida salbiy kurs farqi va balansning valyuta moddalariga doir operatsiyalar bo‘yicha zararlar aks ettiriladi. Chetel valyutasi operatsiyalari bo‘yicha salbiy kurs farqlari, shu jumladan, buxgalteriya balansini tuzish sanasiga qarzlarni qayta baholashdan farq 9620 «Valyutalar kurslari farqidan zararlar» schyotining debetida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar, olinadigan schyotlar va majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash va natijada vujudga keladigan salbiy kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilishi tartibi hamda ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar 9630 «Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bo‘yicha xarajatlar» schyotining debetida majburiyatlar va pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «3-bob. Moliyaviy investitsiyalar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

9690 «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar» schyotida yuqorida keltirilgan schyotlarda hisobga olinmaydigan moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar xarajatlar,

shu jumladan, salbiy diskont aks ettiriladi. Salbiy diskont bo‘yicha xarajatlarni hisoblash va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «3-bob. Moliyaviy investitsiyalar hisobi»» da ko‘rib chiqilgan.

Favqulodda foyda (zarar)larni hisobga olish

Korxonaning odatiy xo‘jalik faoliyatidan keskin farq qiladigan favquloddagi hodisalar (tasodif, kutilmagan va odatiy bo‘lmagan zarar va yo‘qotishlar) natijasida vujudga keladigan foyda va zararlar hisobi quyidagi schyotlarda yuritiladi:

- 9710 «Favquloddagi foydalar»;

- 9720 «Favquloddagi zararlar».

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq favqulodda foyda moddalari - bu ko‘zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo‘lgan, hodisa yoki korxonaning odatdagi faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tusdagi operatsiyalar natijasida paydo bo‘ladigan va olinishi kutilmagan foydadir. Bunga daromadlarning favqulodda moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar bo‘limida aks ettirilishi kerak bo‘lgan o‘tgan davrlardagi foyda kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda foyda moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo‘jalik faoliyatiga xos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog‘liq emaslik.

Tegishli moddalarni favqulodda foydaga kiritish yoki kiritmaslik to‘g‘risida qarorlar qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni ham hisobga olish lozim.

Favqulodda hodisalardan foyda 9710 «Favquloddagi foydalar» schyotining kreditida tovar-moddiy zaxiralarni hisobga oluvchi schyotlar (1000-2900), 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti, 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti va boshqa olinadigan schyotlar yoki pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5000, 5100, 5200, 5500) bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

«Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq favqulodda zararlar - bu korxonalarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki operatsiyalar natijasida vujudga keladigan va ro‘y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlar moddalaridir. Bunga favqulodda moddalar va davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo‘lgan o‘tgan davr moddalari kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda zararlar moddasi sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo‘jalik faoliyatiga xos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog‘liq emaslik.

Tegishli moddalarni favqulodda xarajatlarga kiritish yoki kiritmaslik to‘g‘risida qarorlar qabul qilishda ishlar amalga oshiriladigan sharoitlarni ham hisobga olish lozim.

Favqulodda hodisalardan zarar 9720 «Favquloddagi zararlar» schyotining debetida uzoq muddatli va joriy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Hisobot davrining oxirida 9710 «Favquloddagi foydalar» schyoti va 9720 «Favquloddagi zararlar» schyoti 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

9710 «Favquloddagi foydalar» schyoti va 9720 «Favquloddagi zararlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob favquloddagi foyda va zararlarning nomlari bo‘yicha yuritiladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash uchun foydaning ishlatilishini hisobga olish

Qonunchilikda belgilangan foyda solig‘i bo‘yicha yil davomida hisoblangan bo‘nak to‘lovlari

va qayta hisoblash bo‘yicha haqiqatda foydadan to‘lovlarni hisobga olish uchun quyidagi schyotlar mo‘ljallangan:

- 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar»;

- 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha xarajatlar».

Hisobot davri mobaynida korxonalar tomonidan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha joriy to‘lovlarini amalga oshirilganda 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti debetlanadi va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar kreditlanadi.

Hisobot davri oxirida korxonalar tomonidan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hisoblanganda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i summasi 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar» schyotining debetida 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Hisobot davri oxirida korxonalar tomonidan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i hisoblanganda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i summasi 9820 «Foydadan hisoblangan boshqa soliq va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar» schyotining debetida 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Bir vaqtning o‘zida hisobot davri mobaynida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha amalga oshirilgan joriy to‘lovlar qoplashga qabul qilinadi. Bunda 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyotining debeti va 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyotining kredit bo‘yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Byudjetga yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i bo‘yicha yakuniy hisob-kitoblar amalga oshirilayotganda 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyotining debeti va 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti, 5220 «Cheteldagi valyuta schyotlari» va boshqa pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning krediti bo‘yicha yozuvlar amalga oshiriladi.

Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlarini hisoblashda uzoq muddatli qismi - 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar» schyotining, joriy qismi - 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar» schyotining krediti va 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar» schyotining debetida aks ettiriladi.

Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘iga doir majburiyatlarning tegishli joriy qismi 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar» schyotining debetidan 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar» schyotining kreditiga o‘tkaziladi. Keyinchalik vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i vujudga kelishiga qarab 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar» schyoti 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar (turlari bo‘yicha)» schyoti bilan bog‘lanadi.

Hisobot davri tugashi bilan yillik moliyaviy hisobot tuzilganda 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar» schyoti va 9820 «Foydadan hisoblanadigan boshqa soliq va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar» schyoti 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar» schyoti va 9820 «Foydadan hisoblanadigan boshqa soliq va yig‘imlar bo‘yicha xarajatlar» schyoti bo‘yicha analitik hisob soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning turlari bo‘yicha yuritiladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash, to‘lash va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Yakuniy moliyaviy natijani hisobga olish

9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti hisobot yilida korxona faoliyati yakuniy moliyaviy natijasining shakllanishi to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan. Yakuniy moliyaviy natija (foyda yoki zarar) asosiy faoliyatdan, moliyaviy faoliyatdan va favqulodda daromadlardan ushbu faoliyat turlari bo‘yicha xarajatlar summasiga kamaytirilishidan yuzaga keladi. 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotining debetida korxonaning xarajat (zarar)lar, kreditida esa foydalar aks ettiriladi. Hisobot davridagi debet va kredit aylanmasi taqqoslanishi hisobot davrining sof foydasi (zarari)ni ko‘rsatadi.

Har bir hisobot davri oxirida 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotining debeti va krediti bo‘yicha aylanmalar yig‘iladi va hisobot davrining yakuniy moliyaviy natijasini ifodalovchi ushbu schyot bo‘yicha umumiy qoldiq hisoblab chiqariladi.

Hisobot davrining tugashi bilan yillik moliyaviy hisobot tuzishda 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

Hisobot davrining tugashi bilan yillik moliyaviy hisobot tuzishda barcha daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar (9000, 9300, 9500 i schet 9710) va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (9100, 9400, 9600, 9800 va 9720 schyot) 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotiga yopiladi va moliyaviy natijalarni shakllanishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- daromadlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi:

debet daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar (9000, 9300, 9500 va 9710 schyot);

kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

- xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

kredit xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (9100, 9400, 9600, 9800 va 9720 schyot);

- ijobiy yakuniy moliyaviy natija (foyda):

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

- salbiy yakuniy moliyaviy natija (zarar):

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

- hisobot davrining taqsimlanmagan foydasini jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar) tarkibiga kiritilishi:

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

kredit 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti;

- hisobot davrining qoplanmagan zararini jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar) tarkibiga kiritilishi:

debet 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti;

kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

- o‘tgan yillarda taqsimlanmagan foyda hisobiga tashkil etilgan rezevr kapitali hisobidan qoplanmagan zararni qoplash:

debet 8520 «Rezerv kapitali» schyoti;

kredit 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan xo‘jalik operatsiyalari amalga oshirilib, natijalari buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettiriladi va yuqorida sanab o‘tilgan buxgalteriya hisobi schyotlari yopiladi. SHundan keyin korxonaning moliyaviy hisobotlari tuziladi.

3-§. Daromadni o‘lchash

Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromad korxona tomonidan uning bankdagi hisob-kitob schyotiga kelib tushadigan yalpi tushumlardan yoki olinishi mumkin bo‘lgan tushumlardan iborat. Uchinchi shaxslar nomidan undirib olinadigan, korxonaga kelib tushadigan va xususiy kapitalini ko‘payishiga olib kelmaydigan bilvosita soliqlar summasi asosiy xo‘jalik faoliyati daromadiga kiritilmaydi. Vositachilik faoliyatida korxonaga kelib tushadigan yalpi tushumlar asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromad hisoblanmaydi. Bunday hollarda faqatgina vositachilik haqi daromad hisoblanadi.

2-son BHMS ning 8-bandiga muvofiq, asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromad joriy narxlarda olingan yoki olinishi lozim bo‘lgan tushum (to‘lov) qiymati bo‘yicha baholanadi.

2-son BHMS da joriy narxlardagi qiymat tushunchasini quyidagicha izohlanadi: joriy narxlardagi qiymat – bu aktivning sotilishi yoki majburiyatning qoplanishi mumkin bo‘lgan qiymatidir.

SHuning bilan birga, 5-son BHMS ga muvofiq, joriy qiymat – bu ma’lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo‘yicha asosiy vositalarning qiymati yoki har tomonlama xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil tomonlar o‘rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lgan summadir.

Bundan tashqari, 4-son BHMS ga muvofiq joriy qiymat deganda ma’lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo‘yicha tovar-moddiy zaxiralarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o‘rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatni bajarish uchun yetarli bo‘lgan summasi tushuniladi.

Mahsulot (tovar) larni realizatsiya qilishdan va xizmatlarni ko‘rsatishdan olinadigan daromad korxonalar o‘rtasida shartnomada ko‘zda tutilgan sotish narxlari bo‘yicha aniqlanadi. Bitimlar kelib chiqadigan daromad summasi olingan yoki olinishi lozim bo‘lgan pul mablag‘lari yoki pul ekvivalentlari summasidan subyektga o‘tib beriladigan savdo chegirmalari summasi yoki narxlarni tushurish hajmini hisobga olgan holdagi qiymat bo‘yicha o‘lchanadi.

Biroq, agar pul mablag‘lari yoki pul ekvivalentlarining tushumi kechiktiriladigan bo‘lsa, bunday holda joriy narxlarda ifodalangan iqtisodiy naf qiymati olingan yoki olinishi lozim bo‘lgan qiymat pul mablag‘larining nominal miqdoridan kam bo‘lishi mumkin. Bitimlar tuzish natijasida moliyaviy operatsiyalarni o‘tkazish chog‘ida to‘langan mablag‘ning joriy narxdagi qiymati muqobillashgan foiz stavkasini qo‘llagan holda hisoblangan kelgusidagi barcha tushumlarni diskontlash yo‘li bilan aniqlanadi. Sotish qiymati va olinadigan qoplama (kompensatsi)yaning nominal qiymati o‘rtasidagi farq summasi 2-son BHMS ning 20- va 21-bandlariga muvofiq foiz ko‘rinishidagi daromad sifatida tan olinadi.

To‘lov muddatidan kelib chiqib daromadlarni tan olishni quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz.

2021-yil 20-iyunda xaridorga 5 000 000 so‘mlik tovarlarini «tovar yuklab jo‘natilgan» shartnoma shartlari bo‘yicha quyidagi qo‘shimcha shartlar bilan sotmoqda.

1- holat:

Tovarlarni to‘lash bo‘yicha schyot-faktura (to‘lovnoma) taqdim etilgan sanadan boshlab 10 kun davomida muddatidan oldin to‘lagani uchun 2 foizli chegirma beriladi (bitim bo‘yicha to‘lov muddati – 30 kun).

Xaridor to‘lov uchun berilgan 30 kun ichida savdo chegirmasidan foydalanishi mumkin, agar xaridor to‘lov uchun taqdim etilgan schyotni olish sanasidan boshlab 10 kun ichida o‘z qarzini to‘lab bersa, 100 000 so‘mlik chegirma hisobga olinadi va u zarar sifatida aks ettiriladi.

Xaridor bilan mahsulot realizatsiyaga bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- mahsulotni realizatsiya qilish (sotish)dan olingan tushum summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 5 000 000 so‘m;
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti 5 000 000 so‘m;

- xaridordan, taqdim etilgan pul chegirmasi olib tashlangan holda, pul mablag‘larining kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 4 900 000 so‘m;
debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 100 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 5 000 000 so‘m.

2-holat:

To‘lov muddati o‘tib ketgan sanadan keyin tovarlar uchun to‘langan holatda 10 foizli ustama summasi bilan birga.

Xaridor bilan mahsulot realizatsiyaga bog‘liq operatsiyalar buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- mahsulotni realizatsiya qilish (sotish)dan olingan tushum summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 5 000 000 so‘m;
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti 5 000 000 so‘m.

- xaridordan to‘lov muddati o‘tib ketganligini hisobga olgan holda foizli ustama qo‘shilgan pul mablag‘larining kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 5 100 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 5 000 000 so‘m.
debet 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 100 000 so‘m.

Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olingan daromad joriy narxlardagi olingan tovarlar yoki xizmatlarning qiymati bo‘yicha, to‘lab berilgan pul mablag‘lari yoki pul ekvivalentlarining summasiga qayta tuzatishlarni hisobga olgan holda o‘lchanadi. Agar joriy narxlardagi olingan tovarlar yoki xizmatlarning qiymatini aniq o‘lchash imkoniyati bo‘lmagan hollarda, asosiy faoliyatdan olingan daromad to‘langan yoki kelib tushgan pul mablag‘lari yoki pul ekvivalentlari summasiga qayta tuzatilgan, yuklab jo‘natilgan tovarlar yoki xizmatlarning qiymati bo‘yicha baholanadi.

4-§. Bitimni tuzish faktini aniqlash va mahsulot (tovar)larni realizatsiya qilish hisobi

Ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-avgustdagi PF-1504-sonli «Byudjet bilan hisob-kitoblar uchun xo'jalik yurituvchi subyektlarning mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoniga muvofiq, 1996-yilning 1-sentyabridan boshlab O'zbekiston Respublikasi doirasida mahsulot yetkazib berish to'g'risida mavoza asosidagi shartnomalar tuzish, hukumat qarorlarida ko'zda tutilgan holatlardan tashqari, taqiqlangan.

Tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad quyidagi shartlar bajarilganda va tuzilgan shartnomalarning shartlari bo'yicha tan olinadi:

1. Korxona tovarlarga nisbatan bo'lgan egalik qilishning xatarlari (risklari) va afzalliklarining sezilarli darajadagi qismini xaridorga o'tkazib berganda. Tovarlarga nisbatan bo'lgan mulkiy huquq sotuvchidan xaridorga (buyurtmachiga) asosan tovarning yetkazib berilishi, ya'ni transport orqali yuklab jo'natish, qayta yetkazib berish uchun pochta tashkilotlariga o'tkazib berish, konosamentga taqdim etish yoki tovarlarga nisbatan bo'lgan boshqa ijro etuvchi hujjatlar bilan taqdim etish sanasidan boshlab o'tkaziladi. Agar sotuvchi mulkdorlik bo'yicha huquq va majburiyatlarni o'zida saqlab qoladigan bo'lsa, bunday hollarda bitim realizatsiya sifatida tan olinmaydi va daromad yuklab jo'natishdan so'ng darrov tan olinmaydi.

2. Mulkchilik huquqi xaridor va buyurtmachilarga quyidagi ikki sabablarga asosan o'tkazib berilmaydi:

a) subyekt me'yoriy darajadagi kafolat shartlari bilan ta'minlanmagan bitimlar shartlarini qoniqarsiz darajada bajarish bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlarni o'zida saqlab qolsa;

b) daromadlarning olinishi xaridor tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish bilan bog'liq bo'lsa.

Bunga o'xshagan bitimga misol bo'lib tovarlarni konsignatsiya (komission) shartlarida realizatsiya qilish hisoblanadi. Bunday holatda daromad mol yetkazib beruvchi (jo'natuvchi) tomonidan faqatgina tovarlar molni qabul qilib oluvchi orqali uchinchi tomonga sotilganda va sotilganligi to'g'risidagi xabarnoma olinganligida tan olinadi.

Konsignatsiya (komission) shartlari asosida yuklab jo'natilgan tovarlarni sotilishini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Korxonada ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotni 2021-yil 1-fevralda 1-sonli magazinga 1 000 dona miqdorda har bir donasi uchun qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olgan holdagi bahosi 10 000 so'mdan konsignatsiya (komission) shartlari asosida yuklab jo'natdi, bunda tayyor mahsulotning har 1 donasi tannarxi 6 500 so'mga teng. Molni qabul qilib oluvchi (1-son magazin) 2021-yil 10-aprelda moy filtrining 350 donasi sotilganligi to'g'risida mol yetkazib beruvchi (jo'natuvchi)ga xabarnoma yubordi.

Mol qabul qilib oluvchi o'zining xarajatlarini qoplash va foyda olish maqsadida moy filtrining har bir donasini 15 000 so'mdan sotdi.

Korxonada ushbu holatda daromad 1-sonli magazindan olingan xabarnomaga muvofiq daromad aniqlanadi:

Konsignantda (mol jo'natuvchida):

2021-yil 1-fevralda, ya'ni konsignatorga tayyor mahsulot yuklab jo'natilgan sanada konsignantning buxgalteriya hisobida mahsulotnin realizatsiya qilishdan daromad tan olinmaydi, tegishli tartibda yuklab jo'natilgan mahsulot buxgalteriya hisobida quyidagicha aks etttiriladi:

debet 2830 «Komissiyaga berilgan tayyor mahsulot» schyoti — *1 000 000 so'm;*

kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti — *1 000 000 so'm.*

2021-yil 10-aprelda:

- xaridorlarga tayyor mahsulotlarni realizatsiya qilishni aks ettirish, ya'ni tayyor mahsulotning bir qismi realizatsiya qilinganidan olingan tushumni tan olish:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 3 500 000 so'm;
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan daromadlar» schyoti 3 043 478 so'm;
kredit 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz» schyoti 456 522 so'm;
-«Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qarzdorlik» schyotini alohida ajratgan holda;
(3 500 000 so'm = 350 dona x 10 000 so'm);
(3 043 478 so'm = 3 500 000 so'm - 456 522 so'm);
(456 522 so'm = 3 500 000 so'm x 15/115);

- tayyor mahsulotning realizatsiya qilingan qismi tannarxini hisobdan chiqarish:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti 2 275 000 so'm;
kredit 2830 «Komissiyaga berilgan tayyor mahsulot» schyoti 2 275 000 so'm;
(2 275 000 so'm = 350 dona x 6 500 so'm).

Konsignator – mol qabul qilib oluvchida buxgalteriya provodkalari

2021-yil 1-fevralda, ya'ni konsignant tomonidan tayyor mahsulotlar yuklab jo'natilgan sanada konsignatorning buxgalteriya hisobida tovar-moddiy zaxiralar aks ettirilmaydi, tegishli ravishda olingan mahsulot buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettiriladi:

- komission shartnoma bo'yicha tovar-moddiy zaxiralarini keyinchalik qayta sotish uchun ularni kirim qilib olish:

debet balansdan tashqari 004 «Komissiyaga qabul qilingan tovarlar» 10 000 000 so'm.

2021-yil 10-aprelda:

- konsignator tomonidan tovarlarning bir qismini shartnomada ko'zda tutilgan narxlar bo'yicha realizatsiyasini va konsignantni realizatsiya to'g'risida xabarnomani buxgalteriya hisobida aks ettirilishi:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 5 250 000 so'm;
kredit 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schetlar» schyoti 3 500 000 so'm;
kredit 9030 «Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar» schyoti 1 750 000 so'm;
(5 250 000 so'm = 350 dona x 15 000 so'm);
(3 500 000 so'm = 350 dona x 10 000 so'm);
(1 750 000 so'm = 5 250 000 so'm – 3 500 000 so'm);

- bir vaqtning o'zida balansdan tashqari schyotlardan realizatsiya qilingan tovarlar summasini hisobdan chiqarish:

kredit balansdan tashqari 004 «Komissiyaga qabul qilingan tovarlar» 3 500 000 so'm.
(3 500 000 so'm = 350 dona x 10 000 so'm).

Shuningdek, tovarlarni konsignatsiya shartlari bo'yicha import qilish bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko'rib chiqilgan.

v) yuklab jo‘natilgan tovarlar o‘rnatishga mo‘ljallangan va tovarlarni o‘rnatish bo‘yicha ishlar bitim summasining ahamiyatli qismi tashkil etadi. Bunday holatda, daromad faqatgina o‘rnatish tugagandan so‘ng, bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi dalolatnoma tomonlar aro imzolangan sanada tan olinishi lozim. Faraz qilamiz korxona dasturiy ta’minotlar paketini sotish bilan shug‘ullanadi. Dasturiy ta’minotning sotish bahosi 50 000 000 so‘mni tashkil etadi.

Ushbu dasturiy ta’minotning tannarxi esa 40 000 000 so‘mga teng. SHartnoma shartlari bo‘yicha dasturiy ta’minotni o‘rnatib berish 3 oyni talab etadi, bunda oldindan to‘lov summasi 30 000 000 so‘mni tashkil etadi. Qolgan summasi esa dasturiy ta’minot o‘rnatilgandan so‘ng to‘lab beriladi. Dasturiy ta’minot 2017-yil 5-martda realizatsiya qilindi va 2017-yil 20-martda oldindan to‘lov summasi kelib tushdi. Dasturiy ta’minotni o‘rnatish va foydalanishga topshirish to‘g‘risidagi dalolatnoma 2017-yil 5-iyunda tomonlar o‘rtasida imzolandi. Pul mablag‘larining qolgan qismi 2017-yil 2-iyulda kelib tushdi.

Dasturiy ta’minotni yuklab berish va realizatsiya qilish bo‘yicha operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

2021-yil 5-martda:

- dasturiy ta’minotni keyinchalik o‘rnatib berish maqsadida xaridorga topshirish (yetkazib berish):

debet 2970 «Yo‘ldagi tovarlar» schyoti *40 000 000 so‘m;*
kredit 2910 «Ombordagi tovarlar» schyoti *40 000 000 so‘m;*

2021-yil 20-martda:

- dasturiy ta’minot uchun xaridordan avans sifatida pul mablag‘lari kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *30 000 000 so‘m;*
kredit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyoti *30 000 000 so‘m;*

2021-yil 5-iyunda:

- dasturiy ta’minotni o‘rnatish va qabul qilish-topshirish to‘g‘risidagi dalolatnomaga muvofiq dasturiy ta’minotni realizatsiya qilish summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *50 000 000 so‘m;*
kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar» schyoti *43 478 261 so‘m;*
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz» schyoti *6 521 739 so‘m;*
- «Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha qarzdorlik» schyotini alohida ajratgan holda;
(43 478 261 so‘m = 50 000 000 so‘m – 6 521 739 so‘m);
(6 521 739 so‘m = 50 000 000 so‘m x 15/115);

- realizatsiya qilingan dasturiy ta’minotning tannarxi summasiga:

debet 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi» schyoti *4 000 000 so‘m;*
kredit 2970 «Yo‘ldagi tovarlar» schyoti *40 000 000 so‘m;*

- xaridorlardan va buyurtmachilardan ilgari olingan avanslar summasini hisob (qoplash)ga olish :

debet 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyoti *30 000 000 so‘m;*
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *30 000 000 so‘m.*

2021-yil 2-iyulda:

- realizatsiya qilingan dasturiy ta’minot bo‘yicha xaridorning qolgan qarzdorligi bo‘yicha pul mablag‘larining kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 20 000 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti 20 000 000 so‘m.

g) tovarni realizatsiya qilish to‘g‘risidagi shartnomada ko‘zda tutilgan sabablarga ko‘ra xaridor xarid bitimini bekor qilish huquqiga ega va sotuvchi sotilgan tovarlar qaytirilishi yoki qaytarilmasligiga ishonchi mavjud emas.

Agar tovarning qaytarilishiga nisbatan noaniqliklar mavjud bo‘lsa, daromad xaridor tomonidan tovarlar rasmiylashtirilgan ravishda qabul qilinganda yoki shartnomada ko‘zda tutilgan qaytarib berish muddati to‘la o‘tib bo‘lganda tan olinadi. Faraz qilaylik, sotuvchi korxona eksperimental dastgohni xaridorga sotdi va ushbu dastgohning samarali va unumdor ishlashiga ishonchi yo‘q. Sotuvchi korxona shartnomada agar dastgoh sifatli ishlamagan taqdirda xaridor amalga oshirilgan xaridni qaytarib berish huquqiga egaligi to‘g‘risidagi shartni nazarda tutgan. SHunday qilib, dastgoh bo‘yicha mulkchilik huquqi yuklab jo‘natish paytida xaridorga o‘tkazilmagan va bitim realizatsiya bo‘lgan hisoblanmaydi hamda tegishli ravishda daromad ham tan olinmaydi. Ushbu holatda, daromadni qaytarish ehtimoli mavjud bo‘lgan muddat to‘la o‘tib bo‘lgandan so‘ng tan olish lozim.

3. Korxona odatda mulkka egalik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan darajada boshqarishning tegishliligini ham, sotilgan tovarlar ustidan nazorat qilish samaradorligini ham o‘zida saqlab qolmagan.

4. Daromad summasi yuqori darajadagi ishonchlilik bilan baholanishi mumkin. Buning ma’nosi shundan iboratki, bitimda ishtirok etayotgan har ikkala tomon, xaridor qanday summani to‘lashi lozimligini, ya’ni sotiladigan va xarid qilinadigan mahsulotning qiymatini, professional xizmatlar uchun soatbay to‘lovni va boshqalarni nazarda tutadigan shartnomaning mavjudligi to‘g‘risida muayyan darajada bilishadi.

Korxona ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotni xaridorga shartnomaga muvofiq yetkazib berishni amalga oshiradi. Shartnoma bo‘yicha tayyor mahsulotni bir donasining sotish narxi 7 500 so‘m va miqdori 100 000 dona qilib belgilangan. Temir yo‘l tashkiloti tayyor mahsulotni tashib berish bo‘yicha xizmatlarini to‘lash uchun hisobvaraq-faktura taqdim etishi sababli, korxona ushbu tashish xizmatlarining qiymatini taqriban 4 000 000 so‘m miqdorda baholadi va xaridorga 754 000 000 so‘mlik hisobvaraq-faktura (to‘lov hujjatini) taqdim etdi. Realizatsiya qilingan moy filtrining bir donasini tannarxi 5 000 so‘mga teng.

Ushbu holatda korxona faqatgina 750 000 000 so‘mga teng bo‘lgan summani daromad sifatida tan olishi lozim, qolgan 4 000 000 so‘mni esa u majburiyat sifatida aks ettirishi kerak.

Tayyor mahsulotni sotish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- tayyor mahsulotni sotishdan olingan tushumning aks ettirilishi:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti 750 000 000 so‘m;
kredit 9010 «Tayyor mahsulotni sotishdan olingan
daromadlar» schyoti 652 173 913 so‘m;
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz» schyoti 97 826 087 so‘m

- «Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha qarzdorlik» schyotini alohida ajratgan holda;

(652 173 913 so‘m = 750 000 000 so‘m – 97 826 087 so‘m);
(97 826 087 so‘m = 750 000 000 so‘m x 15 /115);
- sotilgan tayyor mahsulotning tannarxini aks ettirish:
debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti *500 000 000 so‘m;*
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulot» schyoti *500 000 000 so‘m;*
- temir yo‘l kompaniya tomonidan tayyor mahsulotlarni yetkazib berish bo‘yicha xizmatlarni to‘lashga taqdim etilgan to‘lov hujjatini aks ettirish:
debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *4 000 000 so‘m;*
kredit 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyoti *4 000 000 so‘m;*
- sotilgan mahsulot uchun xaridordan pul mablag‘larining kelib tushishi:
debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *754 000 000 so‘m;*
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *754 000 000 so‘m;*
- xaridorga sotilgan mahsulotni tashib berish uchun temir yo‘l kompanisining to‘lov hujjatini to‘lab berish:
debet 6990 «Boshqa majburiyalar» schyoti *4 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *4 000 000 so‘m.*

5. Bitim bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy naflarning xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan olinishi ehtimoli mavjud.

Buning mazmuni shundan iboratki, xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalik yurituvchi subyekt realizatsiya qilgan tovarlari va ko‘rsatilgan xizmatlari uchun mijoz albatta shartnomada o‘zaro kelishilgan summani to‘lab berishiga ishonchi komil.

6. Bitimni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan qabul qilingan yoki kutilayotgan xarajatlar yuqori darajadagi ishonchlilik bilan aniq o‘lchab imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Quyida tovarlarni realizatsiya qilish bilan bog‘liq bo‘lgan shartnomalarning turli ko‘rinishlari va shartlari va shu munosabat bilan daromadning hosil bo‘lishi paytining aniqlanishi keltirib o‘tiladi:

1. Tovarni yetkazib berish muddati xaridorning murojaati bo‘yicha uzaytirilgan hollarda uni yetkazib berilishining muddati kechiktirilgan bitim, bunda xaridor mulkchilik huquqiga ega bo‘ladi va o‘ziga schet (to‘lov talabi hujjati)ni to‘lab berish bo‘yicha majburiyatni qabul qiladi.

Buning ma’nosi shundan iboratki, xaridor yuklab jo‘natishga tayyor qilib qo‘yilgan mahsulotni qabul qilib oladi va uni mol yetkazib beruvchida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va mas’ul saqlashga berish to‘g‘risidagi dalolatnoma bo‘yicha mas’ul saqlashga qoldiradi. Mas’ul saqlashga berish to‘g‘risidagi dalolatnomani imzolash sanasi daromadni aks ettirish paytini belgilab beradi. Tovarlarni o‘z vaqtida yetkazib berish uchun sotib olish yoki ishlab chiqarish bo‘yicha faqat xohish-istakning mavjud bo‘lishi daromadni tash olishga asos bo‘la olmaydi.

2. Tovarlar quyidagi shartlarda yuklab jo‘natilgan:

a) o‘rnatish va texnik nazorat.

Bunday holatda daromad tovarni qabul qilib olinishiga qarab va shuningdek bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi dalolatnoma imzolanganda o‘rnatish va texnik nazoratning tugatilishiga qarab tan olinadi. Biroq, agar tovarning o‘rnatilishi montajni talab qilmaydigan bo‘lsa, daromad tovarning olinishi bo‘yicha darhol tan olinishi mumkin;

b) tovarni yetkazib berishda to‘lash sharti bilan sotish (ko‘rsatilgan qiymatini to‘lab olish sharti bilan mol (yuk) jo‘natmoq).

Daromad tovarning yetkazib berilishi amalga oshirilganda yoki sotuvchi yoxud uning vakili tomonidan pul mablag‘lari kelib tushganda tan olinadi. Faraz qilamiz Toshkent shahridan Buxoro shahriga pochta bo‘yicha kitobni ko‘rsatilgan qiymatnini to‘lab olish sharti bilan jo‘natdi. Kitobning narxi 200 000 so‘mga teng bo‘lib, u xaridorning uy manziliga 2021-yil 5-martda jo‘natildi. Jo‘natilgan kitoblarning tannarxi 180 000 so‘mga teng. Xaridor (qabul qiluvchi) kitoblarni 2021-yil 3-aprelda qabul qilib oldi va qabul qilishda xarid uchun to‘lovni amalga oshirdi. Pochta 2021-yil 5-aprelda korxonani xabardor qildi va 2021-yil 7-aprelda ushbu pul mablag‘larini korxonaning hisob raqamiga ko‘chirib berdi.

Yuqorida keltirilgan misolda tovarlarni realizatsiya qilishdan olingan daromad xaridor tomonidan pul mablag‘lari pochta tashkilotiga to‘lab berilishi to‘g‘risidagi xabarnoma olingan paytda tan olinadi. Korxonaning buxgalteriya hisobida ushbu xo‘jalik operatsiyalari quyidagi tartibda aks ettiriladi:

***2021-yil 5-martda*:**

- xaridorning buyurtmasi bo‘yicha tovarlar (kitoblarni) pochta bilan ko‘rsatilgan qiymatini to‘lab olish sharti bilan jo‘natish:

debet 2970 «Yo‘ldagi tovarlar» schyoti *180 000 so‘m;*
kredit 2910 «Ombordagi tovarlar» schyoti *180 000 so‘m.*

2021-yil 5-aprelda:

- xaridor tomonidan qabul qilib olingan pochta orqali realizatsiya qilingan kitoblarning to‘lanishi va realizatsiya qilingan tovarlar (kitoblar) uchun xaridor tomonidan to‘lovning amalga oshirilgani haqidagi xabarnomaning olinishi:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *200 000 so‘m;*
kredit 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar» schyoti *200 000 so‘m;*

- pochta orqali realizatsiya qilingan tovarlar (kitoblar)ning tannarxini hisobdan chiqarish:

debet 9120 «Sotilgan tovarlarning tannarxi» schyoti *180 000 so‘m;*
kredit 2970 «Yo‘ldagi tovarlar» schyoti *180 000 so‘m.*

2021-yil 7-aprelda:

- pochta orqali tovarlar (kitoblar)ni realizatsiya qilishdan pochta tashkilotidan jamiyatning hisob-kitob raqamiga pul mablag‘larining kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *200 000 so‘m;*
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *200 000 so‘m;*

v) to‘lov muddatini uzaytirilgan holda sotish, bunda tovarlar faqatgina xaridor tomonidan qisman to‘lovlar yo‘li orqali yakuniy hisob-kitoblar amalga oshirilgandan so‘ng yetkazib beriladi. Faraz qilamiz korxona 2021-yil 21-mayda xaridor bilan shartnom tuzib, sharnoma shartlari bo‘yicha tayyor mahsulot 100% to‘lab berilganda yuklab jo‘natiladi va bunda to‘lovni besh oy ichida bir necha to‘lovlar bilan muddatini uzaytirib amalga oshirish mumkin.

Mahsulotning sotish qiymati 250 000 000 so‘m tashkil qiladi, shu jumladan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini hisobga olgan holda. Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxi 175 000 000 so‘mga teng. Xaridor mazkur bitim bo‘yicha quyidagi to‘lovlarni amalga oshirdi:

2017-yil 10-iyunda 50 000 000 so‘m summada;

2017-yil 15-avgustda 30 000 000 so‘m summada;

2017-yil 18-sentyabrda 120 000 000 so‘m summada;
2017-yil 30-oktyabrda 50 000 000 so‘m summada.

- ishlab chiqarishning barcha jarayonlarini o‘tib bo‘lgan tayyor mahsulotlarni omborga kirim qilish:

debet 2810 «Ombordagi tayyor mahsulot» schyoti 175 000 000 so‘m;
kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 175 000 000 so‘m.

2021-yil 10-iyunda:

- kelgusida amalga oshiriladigan mahsulotni yetkazib berishni to‘lash hisobiga xaridordan avans to‘lovlari seriyasining birinchi qismi kelib tushishini aks ettirish:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 50 000 000 so‘m;
kredit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyoti 50 000 000 so‘m.

2021-yil 15-avgustda:

- kelgusida amalga oshiriladigan mahsulotni yetkazib berishni to‘lash hisobiga xaridordan avans to‘lovlari seriyasining ikkinchi qismi kelib tushishini aks ettirish:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 30 000 000 so‘m;
kredit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyoti 30 000 000 so‘m.

2021-yil 18-sentyabrda:

- kelgusida amalga oshiriladigan mahsulotni yetkazib berishni to‘lash hisobiga xaridordan avans to‘lovlari seriyasining uchinchi qismi kelib tushishini aks ettirish:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 120 000 000 so‘m;
kredit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyoti 120 000 000 so‘m.

2021-yil 30-oktyabrda:

- kelgusida amalga oshiriladigan mahsulotni yetkazib berishni to‘lash hisobiga xaridordan avans to‘lovlari seriyasining yakunlovchi qismi kelib tushishini aks ettirish:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 50 000 000 so‘m;
kredit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyoti 50 000 000 so‘m.

2021-yil 2-noyabrda:

- xaridorga tayyor mahsulotning realizatsiyasini aks ettirish:
- tayyor mahsulotni realizatsiya qilishdan olingan sof tushum summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 250 000 000 so‘m;
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar» schyoti 217 391 304 so‘m;
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz» schyoti 32 608 696 so‘m;

- «Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha qarzdorlik» schyotini alohida ajratgan holda;

(217 391 304 so‘m = 250 000 000 so‘m – 32 608 696 so‘m);
(32 608 696 so‘m = 250 000 000 so‘m x 15 /115);

- realizatsiya qilingan tayyor mahsulotning tannarxi summasiga:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti 175 000 000 so‘m;
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulot» schyoti 175 000 000 so‘m;

- bir vaqtning o‘zida debitorlik qarzdorlikni yopish hisobiga ilgari olingan avans to‘lovlari summasining hisobga olinishi (zacheti):

debet 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyoti 250 000 000 so‘m;

kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 250 000 000 so‘m.

Bunday shartlar bo‘yicha sotishlarda daromad, tovarlar xaridorga yetkazib berilgandan so‘ng tan olinadi. Biroq bunday katta hajmga ega bo‘lgan tovarlarning realizatsiyasi amalga oshirilganda, daromad oldindan to‘lovlarning katta qismi kelib tushgan sharoitlarda va ombordagi mavjud bo‘lgan tovarlar qat’iy ravishda rezervlashtirilgan va xaridorga yetkazib berish uchun tayyorlab qo‘yilgan sharoitlarda tan olinishi mumkin.

g) joriy paytda omborda mavjud bo‘lmagan tovarlarni yetkazib berish uchun avans to‘lovlari (yoki qisman to‘lovlari) amalga oshirilgan buyurtmalar. Misol uchun, tovarlar hali beri ishlab chiqilmagan yoki mijozga uchinchi shaxs tomonidan yetkazib beriladi. Bunday holatda daromad tovarlar xaridorga yetkazib berilgan paytda tan olinadi.

d) davriy nashriyot mahsulotlari va shunga o‘xshash mahsulotlarga obuna bo‘lish. Bunday bitimlarda daromad bir maromda hisobdan chiqarish usuli asosida tan olinadi. Faraz qilaylik Jurnal tahririyati 2021-yil uchun obuna bo‘yicha 600 000 000 so‘mlik summadagi pul mablag‘larini oldi. Mazkur jurnal har oyda bir marotaba chiqariladi. Olingan 600 000 000 so‘mlik summani 12 ga bo‘lamiz, natijada 50 000 000 so‘mda to‘g‘ri kelib, 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyotidan har oyda bir maromda realizatsiya schyotiga hisobdan chiqarib borilishi zarur. Jurnalning har oylik chiqishi tannarxi nashriyot uchun 45 000 000 so‘mlik summaga to‘g‘ri keladi.

Tahririyatning buxgalteriya hisobida jurnalga obuchna uchun pul mablag‘larining kelib tushishi (olinishi) va obunachilar orasida jurnali tarqatish bo‘yicha xo‘jalik operatsiyalari quyidagicha aks ettiriladi:

- keyingi yil uchun jurnalga obuna bo‘lish hisobiga obunachilardan pul mablag‘larining kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 600 000 000 so‘m;

kredit 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti 600 000 000 so‘m;

- har oy davomida jurnalning chiqishi va obunachilar orasida tarqatib chiqilishi:

debet 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti 50 000 000 so‘m;

kredit 9010 «Tayyor mahsulotning sotilishidan olinadigan daromadlar» schyoti 50 000 000 so‘m;

- har oy davomida chiqarilgan va obunachilar orasida tarqatilgan jurnalning tannarxi summasiga:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi» schyoti 45 000 000 so‘m;

kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulot» schyoti 45 000 000 so‘m.

Obuna bo‘yicha xarajatlar obunachilar – yuridik shaxslar (korxonalar)da quyidagi tartibda aks ettiriladi:

- keyingi yil uchun jurnalga obuna bo‘lish uchun pul mablag‘lari to‘lab berilganda:

debet 3190 «Boshqa kelgusi davr xarajatlari» schyoti 600 000 000 so‘m;

kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 600 000 000 so‘m;

- kalendar yil davomida nashriyotdan har oyda jurnal kelib tushganda:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 50 000 000 so‘m;

kredit 3190 «Boshqa kelgusi davr xarajatlari» schyoti 50 000 000 so‘m.

e) qisman-qisman to‘lash (rassrochka) tartibida sotish, bunda tovarning qiymati qisman-qisman to‘lash tartibida to‘lab beriladi.

Realizatsiya qilish narxiga nisbatan tegishli bo‘lgan daromad, foizlarni hisobga olmagan holda, tovarlarni realizatsiya qilish sanasiga tan olinadi. Realizatsiya qilish bahosi muqobil ravishdagi foiz stavkasi bo‘yicha olinishi lozim bo‘lgan qisman-qisman to‘lovlarni diskontlash asosida hisoblangan qoplab berishning joriy qiymati bilan aniqlanadi. Foizlarning o‘zi esa, daromad sifatida ularning olinishiga qarab muqobil ravishdagi foiz stavkasini hisobga oladigan vaqt mutanosibligi asosida tan olinadi. Faraz qilaylik «Xerson» aksionerlik jamiyati «A» tipdagi don yig‘ishtirib oladigan kombaynlarni ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi va ularning sotish qiymati 81 900 000 so‘mga teng.

Bitta kombaynning ishlab chiqarish tannarxi esa o‘z navbatida 67 500 000 so‘mga teng. «A» tipdagi kombaynlarning sotilishi susayib ketganligi sababli aksionerlik jamiyati ularni yirik va o‘rta hol qishloq xo‘jaligi korxonalariga 4 yil davomida qisman – qisman to‘lab berishni nazarda tutagidan shartnoma asosida sotishni boshladi. Shartnoma shartlariga muvofiq, mashina qiymatining 20%ga teng qismi summasida oldindan to‘lov amalga oshiriladi va qolgan qismi navbatdagi har yarim yillik muddat oxiridagi to‘lovlar bilan quyidagi miqdordagi foiz hisoblangan holda amalga oshiriladi: 1-yilda yillik 12%, 2-chi yilda yillik 15%, 3 – yilda yillik 20% va 4-yilda yillik 25%. Muddatlar bo‘yicha asosiy to‘lovning summasini aniqlaymiz va muddatlar bo‘yicha foizlar summasini hisoblab, to‘lovning diskontlangan qiymati (joriy qiymati) bo‘yicha daromadni aniqlash bilan bog‘liq buxgalteriya hisobi yozuvlarini amalga oshiramiz.

Buning uchun quyidagilarni amalga oshiramiz:

1. Kombaynni uchun oldindan to‘lov summasi quyidagini tashkil qiladi:

81 900 000 so‘m x 0,2 (20 / 100) = 16 380 000 so‘m;

2. Qolgan summa 81 900 000 so‘m – 16 380 000 so‘m = 65 520 000 so‘mni to‘lovning kelgusida amalga oshiriladigan 8ta muddatiga bo‘lamiz (bir yilda ikki marta 4 x 2 = 8 muddat) = 8 190 000 so‘mov (65 520 000 so‘m / 8 = 8 190 000 so‘m) va asosiy to‘lov summasini aniqlaymiz.

Asosiy to‘lov bo‘yicha summalarni va foizlar bilan birgalikdagi summaning hisob-kitobi uchun jadvalni tuzamiz, ming so‘mda.

Davrlar va to‘lovlar soni		Asosiy qarz summasi qoldig‘i (gr.2 – gr.5)	To‘lov bo‘yicha foiz stavkasi, %	Foizlar summasi (gr.2 x gr.3)	Asosiy qarz bo‘yicha to‘lov summasi	Umumiy to‘lov summasi (gr.4 + gr.5)
1		**2**	**3**	**4**	**5**	**6**
Yil boshidagi qoldiq		65 520	-	-	-	-
1-yil	1-to‘lov	65 520	6%	3 931	8 190	12 121
	2- to‘lov	57 330	6%	3 440	8 190	11 630
2-yil	3- to‘lov	49 140	7,5%	3 685	8 190	11 875
	4- to‘lov	40 950	7,5%	3 071	8 190	11 261
3-yil	5- to‘lov	32 760	10%	3 276	8 190	11 466
	6- to‘lov	24 570	10%	2 457	8 190	10 647
4-yil	7- to‘lov	16 380	12,5%	2 048	8 190	10 238
	8- to‘lov	8 190	12,5%	1 024	8 190	9 214
Jami:				**22 932**	**65 520**	**88 452**
					+oldindan to‘lov 16 380	+oldindan to‘lov 16 380
Hammasi:					**81 900**	**104 832**

«Xerson» aksionerlik jamiyatining buxgalteriya hisobi schyotlarida yuqorida qayd etilgan xo‘jalik operatsiyalarni aks ettirilishini qarab chiqamiz:

- tayyor mahsulot (kombaynni) qisman-qisman to‘lov (rassrochka) tartibida sotishdan olingan tushumni hisoblash usuli buyicha buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish:

debet 0940 «Boshqa uzoq muddatli
debitorlik qarzlar» schyoti 81 900 000 so‘m;
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlarni sotishdan
olingan daromadlar» schyoti 71 217 391 so‘m;
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz» schyoti 10 682 609 so‘m

«Qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha qarzdorlik» schyotini alohida ajratgan holda;

(71 217 391 so‘m = 81 900 000 so‘m – 10 682 609 so‘m);
(10 682 609 so‘m = 81 900 000 so‘m x 15 /115);

- realizatsiya qilingan tayyor mahsulot (kombayn)ning tannarxini hisobdan chiqarish:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlarning
tannarxi» schyoti 67 500 000 so‘m;
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulot» schyoti 67 500 000 so‘m;

- realizatsiya qilingan kombayn bo‘yicha qarzdorlikni yopish hisobiga oldindan to‘lovning kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 16 380 000 so‘m;
kredit 0940 «Boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzlar» schyoti 16 380 000 so‘m;

- kombaynni qisman-qisman to‘lov (rassrochka) tartibi bo‘yicha sotishdan hosil bo‘lgan uzoq muddatli debitorlik qarzining joriy qismini ajratib ko‘rsatishi amalga oshirilganda[1]:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 16 380 000 so‘m;
kredit 0940 «Boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzlar» schyoti 16 380 000 so‘m.

1-yil uchun to‘lovlarning kelib tushishi va uzoq muddatli debitorlik qarzi bo‘yicha foizlar hisoblanishining aks ettirilishi:

- 1-yilning birinchi yarim yilligi oxirida foiz ko‘rinishidagi daromadlarning hisoblanishi:

debet 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 3 931 000 so‘m;
kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 3 931 000 so‘m;

- debitorlik qarzining asosiy summasi va hisoblangan foizlar bo‘yicha birinchi to‘lovning kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 12 121 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 8 190 000 so‘m;
kredit 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 3 931 000 so‘m;

- birinchi yilning ikkinchi yarim yilligi oxirida foizlar ko‘rinishidagi daromadlarni hisoblash:

debet 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 3 440 000 so‘m;
kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 3 440 000 so‘m;

- debitorlik qarzining asosiy summasi va hisoblangan foizlar bo‘yicha 2- to‘lovning kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 11 630 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 8 190 000 so‘m;
kredit 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 3 440 000 so‘m;

2 - yil uchun to‘lovlarning kelib tushishi va uzoq muddatli debitorlik qarzi bo‘yicha foizlar hisoblanishining aks ettirilishi:

- 2-yilning birinchi yarim yilligi oxirida foiz ko‘rinishidagi daromadlarning hisoblanishi:

debet 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 3 685 000 so‘m;
kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 3 685 000 so‘m;

- debitorlik qarzining asosiy summasi va hisoblangan foizlar bo‘yicha 3- to‘lovning kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 11 875 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 8 190 000 so‘m;
kredit 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 3 931 000 so‘m;

- 2-yilning ikkinchi yarim yilligi oxirida foizlar ko‘rinishidagi daromadlarni hisoblash:

[1] Mazkur buxgalteriya hisobi yozuvlari qolgan 3 yil davomida har yilning oxirida amalga oshirib boriladi.

debet 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 3 071 000 so‘m;
kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 3 071 000 so‘m;

- debitorlik qarzining asosiy summasi va hisoblangan foizlar bo‘yicha 4- to‘lovning kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 11 261 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 8 190 000 so‘m;
kredit 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 3 071 000 so‘m;

3 - yil uchun to‘lovlarning kelib tushishi va uzoq muddatli debitorlik qarzi bo‘yicha foizlar hisoblanishining aks ettirilishi:

- 3-yilning birinchi yarim yilligi oxirida foiz ko‘rinishidagi daromadlarning hisoblanishi:

debet 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 3 276 000 so‘m;
kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 3 276 000 so‘m;

- debitorlik qarzining asosiy summasi va hisoblangan foizlar bo‘yicha 5- to‘lovning kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 11 466 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 8 190 000 so‘m;
kredit 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 3 276 000 so‘m;

- 3-yilning ikkinchi yarim yilligi oxirida foiz ko‘rinishidagi daromadlarning hisoblanishi:

debet 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 2 457 000 so‘m;
kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 2 457 000 so‘m;

- debitorlik qarzining asosiy summasi va hisoblangan foizlar bo‘yicha 6- to‘lovning kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 10 647 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 8 190 000 so‘m;
kredit 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 2 457 000 so‘m;

4 - yil uchun to‘lovlarning kelib tushishi va uzoq muddatli debitorlik qarzi bo‘yicha foizlar hisoblanishining aks ettirilishi:

- 4-yilning birinchi yarim yilligi oxirida foiz ko‘rinishidagi daromadlarning hisoblanishi:

debet 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 2 048 000 so‘m;
kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 2 048 000 so‘m;

- debitorlik qarzining asosiy summasi va hisoblangan foizlar bo‘yicha 7- to‘lovning kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 10 238 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 8 190 000 so‘m;
kredit 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 2 048 000 so‘m;

- 4-yilning ikkinchi yarim yilligi oxirida foiz ko‘rinishidagi daromadlarning hisoblanishi:

debet 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 1 024 000 so‘m;
kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 1 024 000 so‘m;

- debitorlik qarzining asosiy summasi va hisoblangan foizlar bo‘yicha 8- to‘lovning kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 9 214 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 8 190 000 so‘m;
kredit 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 1 024 000 so‘m.

Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olingan daromad korxona tomonidan faqatgina operatsiya (bitim) bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy naf olinishi lozim bo‘lgan taqdirda tan olinadi.

Daromadga kiritilgan summani undirish xususida noaniqlik vujudga kelgan taqdirda qaytarilmagan summa yoki undirib olinishi mumkin bo‘lmagan summa dastlab tan olingan daromad miqdorining o‘zgartirilishi sifatida emas, balki xarajat sifatida tan olinadi. Ya’ni boshqacha qilib aytganda, ehtiyotkorlik tamoyili va muvofiqlik tamoyili qo‘llagan holda dargumon (shubhali) qarzlar buyicha rezerv tashkil etiladi va buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettiriladi:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti;
kredit 4910 «Dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv» schyoti.

Hisobot davrining oxirida 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotiga yopiladi, kontr-aktiv schyot bo‘lib hisoblanadigan 4910 «Dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv» schyotining qoldig‘i esa 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyotini buxgalteriya balansida aks ettirish paytida uning qoldig‘ini kamaytirishga kiritiladi.

Dargumon (shubhali) qarzlarni qoplash bo‘yicha tashkil qilinadigan rezervning summasini hisob-kitob qilish uchun ikki usuldan foydalaniladi – debitorlik qarzdorligini baholash bo‘yicha va bevosita usullar.

Birinchi usulning mohiyati shundan iboratki, ko‘p yillik (bir necha yillar davomida) kuzatuvlar natijasiga asoslangan holda xaridorlar va buyurtmachilarning umumiy debitorlik qarzlari summasidan dargumon (shubhali) qarzlarning foizi aniqlanadi va ushbu ko‘rsatkich hisob-kitoblar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Dargumon (shubhali) qarzlarni qoplash uchun rezerv hisobot davri xarajatlari hisobidan tashkil etiladi, hamda yil davomida debitorlardan olish imkoniyati bo‘lmagan qarzlar 4910 «Dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv» schyotini kamaytirishga kiritiladi va har hisobot yilining oxirida rezerv summasi qabul qilingan foiz va xaridorlar va buyurtmachilardan qarzdorligi summasiga muvofiq qayta hisoblab boriladi.

Ikkinchi usul, debitorlik qarzlarini inventarizatsiyadan o‘tkazish natijalari bo‘yicha xaridor va buyurtmachilar bilan solishtirish dalolatnomasi asosida moliyaviy yilning hisobot sanasida dargumon sifatida tan olingan har bir qarz bo‘yicha dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv tuzishni ko‘zda tutadi. Ushbu rezervning summasini hisoblashda qarzdorning moliyaviy holati va to‘lov qobiliyati, qarzni to‘liq summada yoki qisman to‘lab berish ehtimoli va shunga o‘xshash ko‘rsatkichlar hisobga olinadi. Debitorlik qarzlari hisobot davridan keyingi davrda kelib tushishi natijasida dargumon qarzlar bo‘yicha rezervning ishlatilmay qolgan summasi qayta tuzatiladi va hisobot davrining daromadlariga kiritiladi.

Xaridor va buyurtmachilarning debitorlik qarzlarini korxona balansidan xo‘jalik sudi qaror (ajrim)lari bo‘yicha yoki debitorlik qarzining da’vo muddati o‘tib ketishi (3 yildan so‘ng) natijasida tashkil etilgan rezerv hisobiga hisobdan chiqarilishi bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «9-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

5-§. Xizmatlar (ishlar) ko‘rsatish hisobi

Xizmat ko‘rsatishni (ishlarni bajarishni) o‘z ichiga oladigan bitim natijasi aniq belgilanadigan bo‘lsa, ushbu bitim bilan bog‘liq bo‘lgan daromad yillik moliyaviy hisobot tuzish vaqtida bitimning bajarilishi bosqichiga qarab tan olinadi. Bitim natijasi esa quyidagi shartlarni bajarish bo‘yicha aniq belgilanishi mumkin:

- bitimni bajarish chog‘idagi daromadlar hamda amalga oshirilgan xarajatlar va bitimni nihoyasiga yetkazishga doir xarajatlar yuqori darajadagi ishonchlilik bilan baholanishi mumkin;
- korxonaga bitim bilan bog‘liq bo‘lgan daromadlar kelib tushishining katta ehtimoli mavjud;
- buxgalteriya balansi hisobot sanasigacha bitim bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi yuqori darajadagi ishonchlilik bilan baholanadi.

Faraz qilamiz loyihalash korxonasi ishlab chiqarish kompleksi qurilishi loyihasini 3 yil ichida 2019-yilning boshidan 2021-yilning oxirigacha ishlab berish bo‘yicha shartnoma tuzdi. Shartnoma bo‘yicha bajariladigan ishlarning umumiy qismi 80 000 000 so‘mni tashkil etadi. 2019-yilning oxirigacha 8 000 000 so‘mlik xarajatlarni amalga oshirib, loyihalash korxonasi shartnomaning natijasini yuqori darajadagi ishonchlilik bilan baholash imkoniyatiga ega emas, chunki ishlab chiqarish kompleksini qurish uchun moliyalashtirish imzolanmagan edi va qurilish ishlarining ham amalga oshirilishi hali noma’lum. Biroq, shartnoma shartlari bo‘yicha 2019-yilda amalga oshirilgan 8 000 000 so‘m summadagi xarajatlar qoplanib berilishiga kafolat mavjud. Shu munosabat bilan loyihalash korxonasi 2019-yil uchun 8 000 000 so‘mlik summani daromadlar va xarajatlar sifatida tan olishi lozim. 2020-yil oxirida loyihalash korxonasi endi shartnomaning natijasini ishonchli ravishda baholash imkoniyatiga ega bo‘ldi, chunki qurilish bo‘yicha moliyalashtirish imzolandi va yetarli darajadagi mablag‘lar ajratib berilgan.

Loyihalash korxonasining tegishli mutaxassislari hisob-kitoblari bo‘yicha umumiy xarajatlar 40 000 000 so‘mni tashkil etadi, ya’ni kontrakt (shartnoma) 50% ga bajarilgan hisoblanadi. Shu sababli loyihalash korxonasi 2020-yilda 32 000 000 so‘mlik summada daromadni tan olishi lozim (80 000 000 so‘m x 50/100 = 40 000 000 so‘m – 2019-yilda tan olingan 8 000 000 so‘m).

2021-yil oxirida shartnoma bajarilgan hisoblanadi va olingan ma’lumotlarga asosan daromadlarning umumiy summasi 80 000 000 so‘m va bajarilgan ishlarning haqiqiy tannarxi 68 000 000 so‘mga teng.

Tegishli ravishda loyihalash korxonasi 2021-yilda 40 000 000 so‘mlik summadagi daromadni tan oladi (80 000 000 so‘m – 8 000 000 so‘m – 32 000 000 so‘m).

Yillar	Daromad	Xarajat	Sof daromad
2019	8 000 000 so‘m	8 000 000 so‘m	-
2020	32 000 000 so‘m	28 000 000 so‘m	4 000 000 so‘m
2021	40 000 000 so‘m	32 000 000 so‘m	8 000 000 so‘m
Jami	**80 000 000 so‘m**	**68 000 000 so‘m**	**12 000 000 so‘m**

Loyihalash korxonasiining buxgalteriya hisobida loyihani bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan yuqorida keltirilgan xo‘jalik operatsiyalari quyidagicha aks ettiriladi:

2019-yilda:

- qurilish bo‘yicha loyihaning bir qismini bajarish bo‘yicha haqiqiy xarajatlar summasiga:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 8 000 000 so‘m;

kredit aktivlarni va majburiyatlarni hisobga
oluvchi schyotlar *8 000 000 so‘m*

(materiallarni, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini, mehnat haqi, yagona ijtimoiy to‘lovni va h.k.larni hisobga oluvchi schyotlar);

- qurilish bo‘yicha loyihaning bir qismini bajarish bo‘yicha ishlarini realizatsiya qilishdan olingan daromad summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti *8 000 000 so‘m;*
kredit 9030 «Ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan
olingan daromad» schyoti *8 000 000 so‘m;*

- qurilish loyihasini bajarish bo‘yicha realizatsiya qilingan ishlarning bir qismi tannarxi summasiga:

debet 9130 «Bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan
xizmatlar tannarxi» schyoti *8 000 000 so‘m;*
kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti *8 000 000 so‘m.*

2020-yilda:

- qurilish bo‘yicha loyihaning bir qismini bajarish bo‘yicha haqiqiy xarajatlar summasiga:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti *28 000 000 so‘m;*
kredit aktivlarni va majburiyatlarni hisobga
oluvchi schyotlar *28 000 000 so‘m*

(materiallarni, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini, mehnat haqi, yagona ijtimoiy to‘lovni va h.k.larni hisobga oluvchi schyotlar);

- qurilish bo‘yicha loyihaning bir qismini bajarish bo‘yicha ishlarini realizatsiya qilishdan olingan daromad summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti *32 000 000 so‘m;*
kredit 9030 «Ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan
olingan daromad» schyoti *32 000 000 so‘m;*

- qurilish loyihasini bajarish bo‘yicha realizatsiya qilingan ishlarning bir qismi tannarxi summasiga:

debet 9130 «Bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan
xizmatlar tannarxi» schyoti *28 000 000 so‘m;*
kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti *28 000 000 so‘m.*

2021-yilda:

- qurilish bo‘yicha loyihaning bir qismini bajarish bo‘yicha haqiqiy xarajatlar summasiga:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti *32 000 000 so‘m;*
kredit aktivlarni va majburiyatlarni hisobga
oluvchi schyotlar *32 000 000 so‘m*

(materiallarni, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini, mehnat haqi, yagona ijtimoiy to‘lovni va h.k.larni hisobga oluvchi schyotlar);

- qurilish bo‘yicha loyihaning bir qismini bajarish bo‘yicha ishlarini realizatsiya qilishdan olingan daromad summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti *40 000 000 so‘m;*
kredit 9030 «Ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan

olingan daromad» schyoti *40 000 000 so‘m;*

- qurilish loyihasini bajarish bo‘yicha realizatsiya qilingan ishlarning bir qismi tannarxi summasiga:

debet 9130 «Bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar tannarxi» schyoti *32 000 000 so‘m;*

kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti *32 000 000 so‘m.*

Korxona quyidagi bandlar bo‘yicha bitimda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar bilan kelishuvga erishgandan so‘ng ishonchli tarzda baholashi mumkin bo‘ladi:

- tomonlarning xizmat ko‘rsatishi va qabul qilishi xususida da’vo qilish kuchiga ega bo‘lgan huquqlari;
- ko‘zda tutilayotgan qoplamalar hajmi;
- hisob-kitob qilish usuli va shartlari.

Buning ma’nosi shundan iboratki, xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha tomonlar o‘rtasidga o‘zaro munosabatlar sharnoma bilan rasmiylashtirilib, unda qoplamaning (kompensatsiyaning) aniq summalari, to‘lovning shartlari va shakllari, tovar-moddiy zaxiralar qiymatini ko‘rsatilgan xizmatlar summasiga kiritish kabi masalalar ko‘zda tutiladi.

Har bir bitimning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib xo‘jalik yurituvchi subyekt uning tugallanish bosqichini quyida keltirilgan usullardan birini qo‘llagan holda aniqlaydi:

- bajarilgan ishlarni tahlil qilish, ya’ni nazorat tartibida ishlarni o‘lchab chiqish;
- ma’lum bir hisobot sanasigacha bajarilgan xizmatlar hajmining (summasining) bitim bo‘yicha xizmatlarning butun hajmiga (summasiga) bo‘lgan foizli nisbati;
- ma’lum bir hisobot sanasigacha amalga oshirilgan xarajatlarning bitim bo‘yicha xizmatlarni bajarish uchun jami xarajatlarga bo‘lgan foizli nisbati.

Ushbu sanagacha amalga oshirilgan xarajatlar sirasiga bajarilgan xizmatlar hajmi uchun sarflangan faqatgina haqiqiy xarajatlar kiritiladi. Bitim bo‘yicha baholangan umumiy xarajatlar sirasiga esa, bajarilgan yoki bajarilishi lozim bo‘lgan xizmatlarni aks ettiruvchi xarajatlar kiritiladi. Faraz qilamiz Ilmiy izlanish va konstruktorlik byurosi 2020-yil 1-sentyabrda qurilish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar uchun yangi turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqish bo‘yicha shartnomani imzoladi.

Mazkur shartnomaga muvofiq, bajariladigan xizmatlardan olinadigan daromad summasi 200 000 000 so‘mni tashkil etadi. Shartnoma bo‘yicha ishlarni bajarish uchun rejalashtirilgan xarajatlar 170 000 000 so‘mga baholandi. Amalga oshirilgan hisob-kitoblar bo‘yicha ishlarni bajarish uchun 9 oy saflanishi kutilmoqda. Hisobotni tuzish sanasiga, ya’ni 2020-yil 31-dekabr holatida sarflangan haqiqiy xarajatlar 102 000 000 so‘mga teng ekanligi aniqlandi.

Mazkur shartnoma bo‘yicha ishlarni bajarishdan olingan daromadni 2020-yil 31-dekabr sanasiga tugallanish bosqichini yuqorida keltirilgan usullardan biri yordamida aniqlash va olingan natijalarni buxgalteriya hisobidan aks ettirish talab qilinadi.

Ushbu holatda shartnoning tugallanish bosqichi aniqlashning uchinchi usulidan - ma’lum bir hisobot sanasigacha amalga oshirilgan xarajatlarning bitim bo‘yicha xizmatlarni bajarish uchun jami xarajatlarga bo‘lgan foizli nisbatidan foydalanish maqsad muvofiq hisoblanadi. Chunki bajarilgan ishlarni tahlil qilish, ya’ni nazorat tartibida ishlarni o‘lchab chiqishni o‘tkazish yoki ma’lum bir hisobot sanasigacha bajarilgan xizmatlar miqdorining bitim bo‘yicha xizmatlarning butun miqdoriga bo‘lgan foizli nisbatini ishlatish imkoniyati mavjud emas. Tegishli ravishda hisob-kitoblar quyidagicha bo‘ladi:

- 2020-yil 31-dekabr sanasi holatiga amalga oshirilgan xarajatlarning bitim bo‘yicha

xizmatlarni bajarish uchun jami (baholangan) xarajatlarga bo‘lgan foizli nisbatini aniqlash – 60 foiz:

(60 = 102 000 000 so‘m / 170 000 000 so‘m x 100).

- 2020 - yil 31 - dekabr sanasi holatiga mazkur shartnoma bo‘yicha 120 000 000 so‘mlik summadagi daromadni tan olish lozim:

(120 000 000 so‘m = 200 000 000 so‘m x 60 / 100).

Shartnomani qisman bajarishdan olingan daromadni va bitim bo‘yicha realizatsiya qilingan ishlarning tannarxini tan olish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari korxonanig buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

- 2020-yil uchun ishlarni realizatsiya qilish (bitimning bir qismini bajarish)dan olingan daromad summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti *120 000 000 so‘m;*
kredit 9030 «Ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan
olingan daromad» schyoti *120 000 000 so‘m;*

- 2020-yil uchun realizatsiya qilingan (bitimning bir qismini bajarishning) ishlar tannarxi summasiga:

debet 9130 «Bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan
xizmatlar tannarxi» schyoti *102 000 000 so‘m;*
kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti *102 000 000 so‘m.*

Quyida xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan bitimlarning turli xillari va xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromadni tan olish paytinining aniqlanishi keltirilgan:

1. O‘rnatib berish uchun to‘lov (yo‘ldoshli televizion antennalar, telefon aloqasini va h.k.larni o‘rnatish).

O‘rnatib berish (yo‘ldoshli televizion antennalar, telefon aloqasini va h.k.larni o‘rnatish) bo‘yicha xizmatlar uchun daromad montaj (o‘rnatish) tugagandan so‘ng tugallanish bosqichi ko‘rsatilgan holda bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi dalolatnomani tuzish sanasiga tan olinadi. Agar bunday holatda oldindan to‘lov olingan taqdirda, uni 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyotida bajarilgan ishlar tugalanguniga qadar hisobga olib borish lozim.

Bunda avanslarni olish bo‘yicha buxgalteriya hisobi yozuvi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;

kredit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyoti.

2. Xizmatlar uchun to‘lov mahsulotning bahosiga kiritilgan.

Mahsulotlarni sotish bahosi o‘z ichiga sotishdan keyingi xizmatlar (masalan, dasturiy ta’minot sotilganda mahsulot sifatini oshirishni ta’minlash bo‘yicha sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatishlar) uchun ma’lum bir summani o‘z ichiga olgan taqdirda, ushbu summa kelgusi davrga o‘tkazilib, 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» (kelgusi davr daromadlari) schyotida hisobga olinadi va xizmatlar ko‘rsatilgan davrda daromad sifatida tan olinadi. Faraz qilamiz, ishlab chiqarish korxonasi avtomatlashtirilgan kir yuvish mashinalari chiqarib 1 480 000 so‘mdan qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisobga olgan holda sotadi, shu jumladan kafolat xizmat ko‘rsatilishi summasi 250 000 so‘mga teng. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi 800 000 so‘mga teng.

2021-yil 21-fevralda korxona savdo tarmoqlariga 50 dona kir yuvish mashinalarini yuklab jo‘natdi. Shartnoma bo‘yicha oldindan to‘lov hajmi 15%ni tashkil etadi va qolgan summasi 2 oy mobaynida to‘lanishi lozim. Realizatsiya qilish qiymatidan 15% hajmidagi oldindan to‘lov summasi korxonaning hisob raqamiga 2021-yil 3-martda kelib tushdi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan xo‘jalik operatsiyalari bo‘yicha buxgalteriya hisobi yozuvlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

- kir yuvish mashinalarini realizatsiya qilishdan olingan daromadning tan olinishi, bunda mashinalarning sotish bahosi realizatsiya qilingan mahsulotlarni sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatish qiymatini o‘z ichiga oladi:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti *74 000 000 so‘m;*
kredit 9010 «Tayyor mahsulotlari sotishdan
olingan daromad» schyoti *49 166 667 so‘m;*
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz» schyoti 9 652 174 so‘m;
-«Qo‘shilgan qiymati solig‘i bo‘yicha qarzdorlik» schyotini alohida ajratgan holda;
kredit 6230 «Boshqa kechiktirilgan
daromadlar» schyoti *12 500 000 so‘m;*

(74 000 000 so‘m = 1 480 000 so‘m x 50 dona);
(51 847 826 so‘m = 74 000 000 so‘m – 9 652 174 so‘m – 12 500 000 so‘m);
(9 652 174 so‘m = 74 000 000 so‘m x 15/115);
(12 500 000 so‘m = 50 000 so‘m x 50 dona);

- realizatsiya qilingan kir yuvish mashinalarning tannarxi summasiga:

debet 9110 «Sotilgan tayyor mahsulotlar
tannarxi» schyoti *40 000 000 so‘m;*
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulot « schyoti *40 000 000 so‘m;*

(40 000 000 so‘m = 800 000 so‘m x 50 dona);

- kir yuvish mashinalarini sotib olgan xaridordan oldindan to‘lov summasining kelib tushishini aks ettirish:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *11 100 000 so‘m;*
kredit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olingan avanslar» schyoti *11 100 000 so‘m.*

(11 100 000 so‘m = 74 000 000 so‘m x 15/100).

3. Reklama uchun mukofot.

Ommaviy axborot vositasi tomonidan vositachilik haqi omma oldida tegishli reklama yoki reklama tasmasi chiqarilganda tan olinadi. Ishlab chiqarish vositachilik haqi loyihani tugallanish bosqichi ko‘rsatilganda tan olinadi.

Reklama uchun olingan oldindan to‘lov summasini 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyotida hisobga oladilar, xizmat ko‘rsatilgan so‘ng esa ushbu oldindan to‘lovni tushumga kiritadilar, ya’ni daromad sifatida tan olinadi va quyidagi buxgalteriya hisobi yozuvi bilan aks ettiriladi:

- reklama bo‘yicha komission xizmatlarini ko‘rsatish uchun oldindan to‘lovning olinishida:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti;
kredit 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyoti;

- ommaviy axborot vositalari tomonidan reklama xizmatlari ko‘rsatilgan so‘ng xizmatlarni bajarishdan olingan daromadning tan olinishi:

debet 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyoti;
kredit 9030 «Ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan
olingan daromad» schyoti.

4. Sug‘urta agentliklarining vositachilik haqi.

Sug‘urta agentligi tomonidan olingan yoki olinishi lozim bo‘lgan vositachilik haqi, agent tomonidan keyinchalik xizmat ko‘rsatish talab etilmasa, agent tomonidan sug‘urta polisi kuchga kirgan yoki tiklangan kunidan keyin daromad deb tan olinadi. Lekin, agentdan polis amalda bo‘lgan muddatda keyinchalik xizmat ko‘rsatish talab qilinishi ehtimoli mavjud bo‘lsa, komission haq yoki uning qismi kechiktiriladi va polis kuchga ega bo‘lgan davr mobaynida daromad sifatida tan olinadi.

5. Abonement yig‘imlari.

San’atkorlarning chiqishlari, banketlar va boshqa alohida hollardan tushum bunday hollar ro‘y berganda daromad sifatida tan olinadi. Qator voqealarga chiptalar sotilganda, to‘lov har bir voqea ko‘rsatilgan vaqtda ko‘rsatilgan xizmat hajmi bo‘yicha har bir voqea orasida taqsimlanadi.

6. O‘qitish uchun to‘lov.

Daromad o‘qitish davri mobaynida tan olinadi. O‘quv markazida tashkil etilgan ikki oylik o‘quv kursida malaka oshirishga yo‘naltirilgan o‘zining uchta xodimlari o‘qitilishi uchun pulni 4 800 000 so‘m (1 600 000 so‘m x 3 xodim) to‘lab berdi. Tijorat asosida ishlaydigan o‘quv markazida daromad o‘qishning ikki oyi davomida tan olinadi. O‘qitishdan pul mablag‘larini kelib tushishi va daromadlarni tan olinishi bilan bog‘liq buxgalteriya yozuvlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

- uchta xodimlarni o‘qitish uchun oldindan to‘lov sifatida pul mablag‘larining kelib tushishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *4 800 000 so‘m;*
kredit 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti *4 800 000 so‘m;*

- o‘qitish muddati davomida (2 oy davomida) har oyning oxirida o‘qitishdan olingan daromadning tan olinishi:

debet 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti *2 400 000 so‘m;*
kredit 9030 «Ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromad» schyoti *2 400 000 so‘m.*

6-§. Moliyaviy faoliyatidan olinadigan daromadlar hisobi

Aktivlarni foizlar, royaltilar va moliyaviy faoliyatdan olinadigan boshqa daromadlar keltiruvchi o‘zga korxonalarga foydalanishga berish natijasida olingan daromadlar quyidagi tan olinishi lozim:

1. Korxona bitim bilan bog‘liq iqtisodiy naf olish ehtimoli mavjud bo‘lganda;
2. Daromad miqdorini o‘ta aniqlik bilan baholash mumkin bo‘lganda.

Daromad quyidagi asosda tan olinadi:

1. Aktivdan olinadigan haqiqiy daromadni hisobga oladigan vaqtinchalik nisbat asosida foiz e’tirof etiladi. Ishlab chiqarish korxonasi obligatsiyalarni nominal qiymati bo‘yicha 10 000 so‘mga sotib oldi. Obligatsiya bo‘yicha yillik 15% foizlar bir yilda ikki marotaba to‘lanadi. Obligatsiyani to‘lash muddati 2 yilni tashkil etadi. Buxgalteriya hisobi yozuvlari quyidagicha bo‘ladi:

- obligatsiyaning sotib olinishi:

debet 0610 «Qimmatbaho qog‘ozlar» schyoti *10 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *10 000 so‘m;*

- obligatsiya muddatining 1-yili birinchi yarim yilligi oxirida (obligatsiya bo‘yicha foizlarning hisoblanishi va kelib tushishi):

debet 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti *750 so‘m;*

kredit 9530 «Foiz ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 750 so‘m;

(750 so‘m = 10 000 so‘m x 0,15% x 6/12);

- obligatsiya muddatining 1-yili ikkinchi yarim yilligi oxirida (obligatsiya bo‘yicha foizlarning hisoblanishi va kelib tushishi):

debet 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 750 so‘m;

kredit 9530 «Foiz ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 750 so‘m;

(750 so‘m = 10 000 so‘m x 0,15% x 6/12);

- obligatsiya muddatining 2-yili birinchi yarim yilligi oxirida (obligatsiya bo‘yicha foizlarning hisoblanishi va kelib tushishi):

debet 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 750 so‘m;

kredit 9530 «Foiz ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 750 so‘m;

(750 so‘m = 10 000 so‘m x 0,15% x 6/12);

- obligatsiya muddatining 2-yili ikkinchi yarim yilligi oxirida (obligatsiya bo‘yicha foizlarning hisoblanishi va kelib tushishi):

debet 4830 «Olinadigan foizlar» schyoti 750 so‘m;

kredit 9530 «Foiz ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 750 so‘m;

(750 so‘m = 10 000 so‘m x 0,15% x 6/12);

- emitent tomonidan obligatsiyaning muddati oxirida uning to‘lab berilishi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 10 000 so‘m;

kredit 0610 «Qimmatbaho qog‘ozlar» schyoti 10 000 so‘m.

2. Royalti bitim yoki shartnoma shartlariga muvofiq ravishda hisoblash tamoyili asosida tan olinadi. «Malika» aksionerlik jamiyati «Xamza-kollekshn» xususiy korxonasidan yangi dastgohlarda trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha texnologiyadan foydalanish huquqini 25 000 000 so‘mdagi qiymatga sotib oldi. SHartnomaga muvofiq «Xamza-kollekshn» xususiy korxonasiga uch yil mobaynida har bir sotilgan mahsulot partiyasidan olingan daromad summasidan 3% miqdorda to‘lov tegishli.

Qo‘shimcha ma’lumotlar:

«Malika» aksionerlik jamiyati tomonidan sotilgan mahsulotlar summasi 1-yilda 150 000 000 so‘mni, 2-yilda 200 000 000 so‘mni va 3 yilda 250 000 000 so‘mni tashkil etdi.

1. «Xamza-kollekshn» korxonasi tomonidan nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan daromadning tan olinishi:

- realizatsiya qilingan nomoddiy aktivning umumiy summasiga:

debet 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan

olinadigan schyotlar» schyoti 25 000 000 so‘m;

kredit 9220 «Boshqa aktivlar chiqimi» schyoti 25 000 000 so‘m;

- realizatsiya qilingan nomoddiy aktivning boshlang‘ich qiymatiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlar chiqimi» schyoti - boshlang‘ich qiymati;

kredit nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar (0400);

- realizatsiya qilingan nomoddiy aktiv bo‘yichi jamlangan amortizatsiya summasiga:

debet nomoddiy aktivlarning jamlangan amortizatsiyasini

hisobga oluvchi schyotlar (0500);

kredit 9220 «Boshqa aktivlar chiqimi» schyoti

- jamlangan amortizatsiya summasi;

- realizatsiya qilingan nomoddiy aktiv bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlar chiqimi» schyoti;

kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)»;

- nomoddiy aktivni realizatsiya qilishdan olingan foyda summasiga:

debet 9220 «Boshqa aktivlar chiqimi» schyoti;

kredit 9320 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishidan olingan foyda».

2. Royaltidan olingan daromadni tan olish:

Realizatsiya hajmida kelib chiqib yillar bo‘yicha tegishli bo‘lgan royalti summasining hisob-kitobini keltiramiz:

1 -yil 150 000 000 so‘m. x 3 / 100 = 4 500 000 so‘m;

2 -yil 200 000 000 so‘m. x 3 / 100 = 6 000 000 so‘m;

3 -yil 250 000 000 so‘m. x 3 / 100 = 7 500 000 so‘m;

Royaltidan olingan daromadni tan olish bo‘yicha buxgalteriya hisobi yozuvlari:

1-yilda:

debet 4850 «Olinadigan royalti» schyoti 4 500 000 so‘m;

kredit 9510 «Royalti ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 4 500 000 so‘m.

2-yilda:

debet 4850 «Olinadigan royalti» schyoti 6 000 000 so‘m;

kredit 9510 «Royalti ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 6 000 000 so‘m.

3-yilda:

debet 4850 «Olinadigan royalti» schyoti 7 500 000 so‘m;

kredit 9510 «Royalti ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 7 500 000 so‘m.

3. Dividendlar. Dividendlar aksionerlarning to‘lovni olishga bo‘lgan huquqlari belgilanganda, ya’ni aksionerlarni umumiy yig‘ilishida dividendlar to‘lash to‘g‘risidagi qaror qabul qilingandan so‘ng tan olinadi.

4. Mol-mulkni moliyaviy ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to‘lovini olish). Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalari hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

5. Valyuta schyotlari, shuningdek, chetel valyutalaridagi operatsiyalar bo‘yicha ijobiy kurs farqlari. Chetel valyutasidagi operatsiyalar bo‘yicha ijobiy kurs farqi, shu jumladan, buxgalteriya balansini tuzish sanasiga qarzlarni qayta baholash farqlari 9540 «Valyutalar kurslari farqidan daromadlar» schyotiga o‘tkaziladi. Balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash va natijada vujudga keladigan ijobiy kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilishi tartibi hamda ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirish nafaqat ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat) lar sifatini va miqdorini oshirish va ularni yuqori narxlarda sotish, balki xo‘jalik operatsiyalari natijalarni to‘g‘ri shakllantirish orqali ham erishish mumkin. Buning uchun esa korxona moliyaviy natijalarni shakllanishini va hisobini to‘liq nazorat qilib borishi kerak.

12-BOB. MOLIYAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH

1-§. Moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va tuzishning huquqiy asoslari

Buxgalteriya hisobi tizimi deganda, barcha xo‘jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo‘li bilan buxgalteriya axborotini yig‘ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iborat majmui tushuniladi.

1-son BHMS ga muvofiq moliyaviy hisobot korxonaning ma’lum bir davrdagi faoliyatini ko‘rsatuvchi moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etish usulidir. Korxonaning moliyaviy ahvoli, uning faoliyati ko‘rsatkichlari to‘g‘risida hamda pul mablag‘larining harakati haqida iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun foydalanuvchilar keng doirasiga zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etish moliyaviy hisobotlar maqsadi hisoblanadi. Mazkur maqsadlarga erishish uchun moliyaviy hisobotlarda ulardan foydalanuvchilarga pul mablag‘lari harakati istiqbolini belgilashda, xususan pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlari shakllanishi muddatlari hamda ehtimolligini belgilashda yordam beradigan quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi kerak:

- korxona nazorati ostidagi aktivlar to‘g‘risida (naqd pul mablag‘i tushumlarining yoki boshqa iqtisodiy manfaatlarning manbai bo‘lgan aktivlar to‘g‘risida);
- korxonaning (pul mablag‘larining ehtimol tutilgan kamayishi yoki boshqa iqtisodiy manfaat manbalari bo‘lgan) majburiyatlari to‘g‘risida;
- korxonaning iqtisodiy resurslariga (subyekt egalarining badallari va mulk egalariga to‘lovlardan tashqari) o‘zgartish kiritadigan taqsimlanmagan foyda to‘g‘risida;
- pul mablag‘ining harakati to‘g‘risida (kelgusida pul oqimlarining ehtimol tutilgan harakati ko‘rsatkichlari sifatida).

Korxonalarning moliyaviy va xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi axborotni shakllantirishda moliyaviy hisobotning ahamiyati oshganligi sababli, xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy hisobotini to‘g‘ri shakllanishiga katta talablar qo‘yiladi. Moliyaviy hisobotni to‘g‘ri tuzish va shakllantirish korxonalar moliyaviy holatini yaxshilashga olib keladigan eng muhim instrument hisoblanadi.

Moliyaviy hisobot korxonaning o‘tgan davrda amalga oshirilgan ishlarining natijalari va sharoitlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar majmui bo‘lib, undan faoliyatni tahlil, nazorat qilish va boshqarish maqsadida foydalaniladi.

Shuningdek, moliyaviy hisobot bu korxonalar tomonidan mahsulot (ish va xizmat) lar sotish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar majmui bo‘lib, u korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining holatini ma’lum davr (chorak, yillik) ga qiymat ko‘rinishida aks etishidir. Moliyaviy hisobot axborotlari sotilgan mahsulot (ish va xizmat) lar, ishlab chiqarish xarajatlari, xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalari, ishlarning moliyaviy natijalari, soliqqa tortish hamda dividendlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Korxonalar o‘z faoliyati ustidan kundalik nazoratni hujjatlar va hisobot registrlariga asosan olib boradilar. Lekin uzoq vaqt (oy, chorak, yil) davomida xo‘jalik faoliyatini yakunini bilish uchun bu ma’lumotlarni umumlashtirish va tizimga keltirish zarur. Bunga hisobot tuzish yo‘li bilan erishiladi.

Moliyaviy hisobotning asosiy vazifasi mahsulotning sifati va assortimentini oshirish, «nou-xau» va boshqa tadbirlar ishlab chiqish hisobiga korxona faoliyatini o‘sish va rivojlanish rezervlarini qidirib topish va bozorda barqarorligini ta’minlash hisoblanadi. Moliyaviy hisobot ma’lumotlari bo‘yicha rahbar mulkdorlar va ta’sischilar, boshqa boshqaruv, nazorat tizimi

(banklar, moliyaviy organlar) yuqori hamda hukumat rasmiy va boshqaruv organlari oldida hisobot beradi.

Haqiqiy va bo‘lg‘usi investorlar, kreditorlar, mol yetkazib beruvchilar, xaridorlar, xodimlar, shuningdek hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qatoriga kiradi. Moliyaviy hisobot axborotiga ehtiyoj quyidagilarda vujudga keladi:

- berilgan investitsiyalar bilan bog‘liq xatarlar munosabati bilan investorlarda. Aksiyadorlar ham ular korxonaning dividendlarni to‘lash qobiliyatini baholashga imkon beradigan va aksiyalarni sotib olish, saqlash yoki sotish kerakmi yoki yo‘qligini belgilashga ko‘maklashadigan axborotdan manfaatdordirlar;
- o‘zlariga tegishli kreditlar va foizlar o‘z vaqtida to‘lanadimi yoki yo‘qmi ekanligini aniqlashga imkon beradigan axborotdan manfaatdor bo‘lgan kreditorlarda;
- o‘zlariga tegishli summa o‘z vaqtida to‘lanadimi yoki yo‘qmi ekanligini aniqlashga imkon beradigan axborotdan manfaatdor bo‘lgan mol yetkazib beruvchilar va boshqa savdo kreditorlarida;
- korxonaning uzluksiz faoliyati to‘g‘risidagi axborotdan manfaatdor bo‘lgan xaridorlarda, ayniqsa ular uzoq muddatli bitimga ega bo‘lsalar yoki mazkur korxonaga bog‘liq bo‘lsalar;
- korxonaning faoliyati barqarorligi va rentabelligi to‘g‘risidagi axborotdan manfaatdor bo‘lgan xodimlarda. Ular ham korxonaning o‘z ish haqlarini, pensiyalarini va keyinchalik ham yollash bo‘yicha ishlash imkoniyatlarini ta’minlash qobiliyatiga baho berish imkonini yaratadigan axborotdan manfaatdordirlar;
- resurslarning taqsimlanishi va binobarin, korxonaning faoliyati to‘g‘risidagi axborotdan manfaatdor bo‘lgan davlat boshqaruvi organlarida. Ularga ham korxonaning faoliyatini tartibga solib turish, soliqqa tortish siyosatini belgilash uchun va milliy daromadni hamda boshqa statistik ma’lumotlarni aniqlash uchun asos sifatida axborot kerak;
- jamoatchilikda ham, chunki korxonalar mahalliy iqtisodiyotga ko‘pgina usullar bilan, shu jumladan aholini ish bilan ta’minlash va mahalliy mol yetkazib beruvchilarni qo‘llab-quvvatlash bilan katta hissa qo‘shishi mumkin. Moliyaviy hisobot jamoatchilikni taraqqiyot yo‘nalishlari va korxonaning farovonligini yaxshilashda erishilgan so‘nggi yutuqlar to‘g‘risidagi axborot bilan ta’minlab, ularga yordam beradi.

«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 22-moddasiga muvofiq, moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tuziladi va u quyidagi shakllarni o‘z ichiga oladi:

- «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl);
- «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl);
- «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl);
- «Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» (5-sonli shakl);
- izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar.

Moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirish, ularni tuzish va taqdim etish Respublikamizda «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, «Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos», 1-son BHMS, 3-son BHMS, 8-son BHMS, 9-son BHMS, 14-son BHMS, 15-son BHMS, «Choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish to‘g‘risidagi Nizom», O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha Qoidalarni» tasdiqlash to‘g‘risida» buyrug‘i bilan tartibga solinadi.

Yuqorida keltirilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda Respublikamizda faoliyat yuritayotgan barcha turdagi korxonalar uchun moliyaviy hisobotlarni turlari, ularni tuzishni kontseptual asoslari, tarkibiy tuzilish, har bir moliyaviy hisobotni tuzishni tartibi, taqdim etish muddatlari va tartibi ko‘rib chiqilgan.

Bundan tashqari, moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirish, ularni tuzish va taqdim etishni ayrim masalalari Respublikamizda «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom», 16-son BHMS, 23-son BHMS va boshqa buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ham tartibga solinadi.

.Yillik moliyaviy hisobotni ochib berish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Tafsilotlarni taqdim etish - agar moddalar moliyaviy hisobotning ustki qismiga kiritilgan bo‘lsa, hisobotning tushunarliligini pasaytiradigan chalkashliklar kelib chiqishi mumkin. SHunday qilib, olinadigan schyotlar, tovar-moddiy zaxiralar, asosiy vositalar, qarz majburiyatlari, aksionerlik kapitaliga nisbatan tafsilotlar ko‘pincha tushuntirish xatlarida ochib beriladi.

Xo‘jalik muomalalarini tushuntirish - yil davomidagi asosiy kirim va chiqimlar tabiati tushuntirish xatlarida ochib berilishi shart. Aksionerlik yoki boshqa turdagi kapital ishlatilganligi haqida xo‘jalik muomalalari ham ochib berilishi shart.

Aks ettirilmagan moddalarni tushuntirish - ba’zi shartnomalar yoki ish bitimlari muhim bo‘lsa ham moliyaviy hisobotlarda aks ettirilmaydi, garchand ular korxona moliyaviy holatini va operatsiyalar natijalarini tushunishda muhim hisoblansa ham. Ular tushuntirish xatlarida aks ettiriladi. Kelajakda sotish yoki sotib olish bo‘yicha qayd qilingan kontraktlar va majburiyatlar bunga misol bo‘lishi mumkin. Moliyaviy yilning oxiri va moliyaviy hisobotni taqdim etish sanasi orasidagi davrda sodir bo‘lgan hodisalar, keyingi hodisalar sifatida ochib berilishi kerak. Keyingi hodisalar buxgalteriya balansiga ta’sir etishlari va uni tuzatishni talab qilishi mumkin. Foydalanuvchilarning xabari bo‘lishi uchun u tushuntirish xatida ochib berilishi shart.

Yangi ma’lumotlarni taqdim etish - ko‘pincha ma’lumotlar moliyaviy hisobotning asosiy qismiga sig‘may qoladi, ammo u xulosa chiqarish uchun muhim hisoblanadi. Masalan, qarz majburiyatlarini qo‘shimcha ta’minlash sifatida qo‘yilgan aktivlar, bog‘liq tomonlar bilan muomalalar, kelgusi besh yil ichida asosiy summani to‘lash taxminini o‘z ichiga olgan qarz majburiyatlarining tafsilotlari, qarz majburiyatlari va shuningdek, investitsiyalar bo‘yicha foiz stavkalarining tafsilotlari, sarmoyalarning bozordagi haqiqiy bahosini ochib berish, qayta moliyalashtirish bo‘yicha tafsilotlar va ijara shartnomalari.

Boshqa tushuntirish xatlari - yuqorida aytib o‘tilganlar to‘liq ro‘yxat hisoblanmaydi, tushuntirish xatlari, bundan tashqari, detallashtirilgan va murakkab bitimlarni, kafolatlarni, majburiyatlarni va foydalanuvchiga moliyaviy hisobotni to‘liq tushunishga yordam beradigan har qanday moddalarni tushuntirib berishlari shart.

Maxsus muomalalar va hodisalar. Korxona uchun hisobotda muammolar tug‘diradigan uch xil g‘alati operatsiya va hodisalar mavjud. Bular:

Bog‘liq tomonlar orasidagi muomalalar - bu turdagi operatsiyalar ”qo‘l uzatilgan masofa”da amalga oshiriladi deb hisoblanadi, chunki erkin bozorda raqobatli aloqa qilish sharoitlari bo‘lmasligi mumkin. Bog‘liq tomonlar orasidagi muomalalar quyidagilarni ochib berishni talab qiladi:

- munosabatlar tabiatini ifodalash;
- muomalalarni izohlab berish;
- muomala yuz bergan hisobot davrida summalarning valyutadagi ekvivalenti;
- buxgalteriya balansini tuzish sanasida bog‘liq tomonlar tomonidan to‘lanadigan yoki qarzning har qanday summalari va rejalashtirilgan tartibga solishning shartlari va usullari.

Xatolar va me'yorlardan chetlanishlar - noto‘g‘ri aks ettirish sifatida aniqlangan xatolar va xo‘jalik muomalasi yoki hodisani aks ettirish vaqtida sodir bo‘lgan biznes voqealari bo‘yicha hisobotlar. Mohiyatan, bular bilib qilinmagan xatolardir. Me'yorlardan chetlanishlar moliyaviy hisobotni bila turib buzib ko‘rsatish hisoblanadi. Bularning barchasi topilganida tuzatilishi shart.

Noqonuniy harakatlar - davlat qonunlarini va qonunchiligini buzadigan moddalar. Ko‘p mamlakatlarda auditorlardan noqonuniy harakatlarni topishni va tafsilotlari ko‘rsatilishni talab qilinadi.

Korxonalar tomonidan moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarni shakllantirish, ularni tuzish va taqdim etishni tegishli ravishda tashkil etish va ularni bilan bog‘liq jarayonlarni nazorat qilish uchun zarur bo‘ladigan ichki nizom, yo‘riqnoma, boshqa tashkiliy-taqsimlovchi hujjatlarni ishlab chiqishlari mumkin. Yuqoridagi hujjatlarda bilan:

- moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bilan bog‘liq jarayonlar bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan boshlang‘ich hujjatlarning, aylanma qaydnomalar va boshqa jadvallar shakllari va ularni rasmiylashtirish (tuzish) tartibini, shuningdek hujjat aylanishining qoidalarini;
- moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarni shakllantirish, ularni tuzish va taqdim etishga tayyorlash bilan bog‘liq jarayonlarni amalga oshirishga ishonch bildirilgan bo‘linmalarining mas'ul shaxslari ro‘yxatini;
- moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarni shakllantirish, ularni tuzish va taqdim etishga tayyorlash bilan bog‘liq jarayonlarni nazorat qilish bo‘yicha hisobotlarni ishonchligini va boshqalarni tasdiqlashi mumkin.

2-§. Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish

Moliyaviy hisobotni O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko‘ra yuridik shaxs hisoblangan korxonalar, shuningdek mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo‘lgan va o‘z majburiyatlari bo‘yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balans va hisob-kitob raqamiga ega bo‘lgan, soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to‘lovchi hisoblanadigan alohida bo‘linmalar taqdim etadi.

Yuridik shaxs bo‘lib o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo‘la oladigan korxona hisoblanadi.

Moliya hisoboti hisobot yili boshdan qo‘shilib boruvchi jamlama tartibida yilning har choragida taqdim etiladi.

Yillik moliyaviy hisobot quyidagi shakllar hajmida taqdim etiladi:

- «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl);
- «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl);
- «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl);
- «Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» (5-sonli shakl);

Yarim yillik va choraklik moliyaviy hisobotlar quyidagi shakllar hajmida taqdim etiladi:

- «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl);
- «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl).

Statistika va moliyaviy hisobot shakllarini yanada birxillashtirish, soddalashtirish va qisqartirish, uni taqdim etish davriyligini takomillashtirish, shuningdek hisobot tizimini xalqaro

standartlar talablariga yuqori darajada yaqinlashtirish maqsadida 2002-yil 25-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Statistika va moliya hisobotini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 227-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorni 1-ilovasiga muvofiq yirik korxonalar «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ni bir yilda bir marta taqdim etadi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faqat «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) va «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) dan iborat bo‘lgan yillik moliyaviy hisobotni taqdim etadilar.

O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunining 25-moddasiga muvofiq moliyaviy hisobot quyidagilarga taqdim etiladi:

- soliq idoralariga;
- ta’sis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga;
- davlat statistika idoralariga;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga.

Shuni alohida e’tirof etib o‘tish lozimki, ortiqcha byurakratik g‘ovlarni bartaraf etish, zamon talablariga mos kelmaydigan statistik, moliyaviy va soliq hisobotlari shakllarini qisqartirish, ularni taqdim etish mexanizmini takomillashtirish hisobiga respublikada qulay ishbilarmonlik muhitini vujudga keltirish, biznes subyektlarini tashkil qilishni soddalashtirish va shunday subyektlarning yanada erkin faoliyat yuritishlarini ta’minlash borasida izchil hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti talablariga, halqaro me’yorlar va standartlariga muvofiq hisobotlar tizimini va ularni taqdim etish tartibini tubdan takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi PF-4453-sonli «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» Farmoni bilan 2012-yilning III-choragidan boshlab yirik korxonalar uchun «Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot» (3-sonli shakl), «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqidagi ma’lumotnoma» (2a-sonli shakl), kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun esa «Debitorlik va kreditorlik qarzlar haqidagi ma’lumotnoma» (2a-sonli shakl) bekor qilingan. Bekor qilingan moliyaviy hisobotlardagi axborotlarni o‘rnini qoplaydigan manbaa bo‘lib mavjud statistik hisobot shakllari, «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ga ilova shaklidagi muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrovkasi hisoblanadi.

«Choraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq choraklik va yillik moliyaviy hisobotlar quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

- vazirliklar, idoralar, uyushmalar, korporatsiyalar, kontsernlar va davlat mulkini boshqaruvchi boshqa organlar tomonidan umumlashtirilgan choraklik moliyaviy hisobotlar - hisobot choragi tugagandan so‘ng 40 (qirq) kun mobaynida, yillik moliyaviy hisobotlarni - hisobot yilidan keyingi yilning 15-martidan kechiktirmay;
- xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar va chetel firmalarining vakolatxonalari yillik moliyaviy hisobotlarni - hisobot yilidan keyingi yilning 25- martidan kechiktirmay;
- boshqa korxonalar (yuqorida ko‘rsatilganlardan tashqari) choraklik moliyaviy hisobotlarni - hisobot davri tugagandan keyingi oyning 25-kuniga qadar, yillik moliyaviy hisobotlarni - hisobot yilidan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar faqat yillik moliyaviy hisobotni hisobot yilidan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay taqdim etadilar.

Moliyaviy va soliq hisobotlarini aloqaning telekommunikatsiya kanallari vositasida

davlat soliq xizmati organlariga taqdim etish «Moliyaviy va soliq hisobotlarini aloqaning telekommunikatsiya kanallari vositasida davlat soliq xizmati organlariga taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 12-iyulda 2808-son bilan ro‘yxatga olingan)* bilan tartibga solinadi.

Korxonalar moliyaviy va soliq hisobotlarni telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida taqdim etadi. ***Elektron hujjat*** - elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hamda elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan axborotdir. Moliyaviy va soliq hisobotni elektron hujjat tarzida taqdim etish soliq to‘lovchining xohishiga ko‘ra tegishli dasturiy ta’minotdan foydalangan holda amalga oshiriladi. Moliyaviy va soliq hisobotni elektron hujjat tarzida taqdim etmaydigan soliq to‘lovchilar uchun hisobotni qog‘ozda taqdim etish tartibi saqlanib qoladi. Elektron hujjat tarzidagi taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobot, korxonaning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi. ***Elektron raqamli imzo*** bo‘lib elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo‘qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo hisoblanadi.

Moliyaviy va soliq hisobotni elektron hujjat tarzida taqdim etishda elektron hujjat aylanishining ishtirokchilari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- soliq to‘lovchi (korxona) - hisobotni elektron hujjat tarzida jo‘natuvchi;
- hisobotni elektron hujjat tarzida qabul qiluvchi va ularga ishlov beruvchi davlat soliq xizmati organlari - hisobotni qabul qiluvchi.

Elektron hujjat aylanishida axborot vositachilari ham ishtirok etishlari mumkin. ***Axborot vositachisi*** – bu elektron hujjat aylanishi bilan bog‘liq xizmatlarni shartnoma asosida ko‘rsatuvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Moliyaviy va soliq hisobotini elektron hujjat tarzida taqdim etishda tegishli dasturiy ta’minot:

- davlat soliq xizmati organiga jo‘natish uchun moliyaviy va soliq hisobotni elektron hujjat tarzida shakllantirish;
- moliyaviy va soliq hisobotini elektron hujjat tarzida jo‘natishda shifrlash va qabul qilib olishda shifrdan yechish;
- elektron raqamli imzoni shakllantirish va uni qabul qilib olishda elektron raqamli imzo vositalari yordamida tekshirish;
- moliyaviy va soliq hisobotini elektron hujjat tarzida telekommunikatsiya kanallari orqali jo‘natish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak.

Moliyaviy va soliq hisobotini elektron hujjat tarzida taqdim etishga:

- moliyaviy va soliq hisobotining majburiy rekvizitlari mavjud bo‘lganda;
- elektron hujjat tarzidagi moliyaviy va soliq hisobotilarda elektron raqamli imzo mavjud bo‘lganda;
- elektron hujjat tarzidagi moliyaviy va soliq hisobotilar belgilangan shaklda taqdim etilganda ruxsat beriladi.

Elektron hujjat tarzidagi moliyaviy va soliq hisobotidagi axborotlarni muhofaza qilish maqsadida axborotni uzatishda elektron hujjat aylanishining ishtirokchilari (korxona, davlat soliq xizmati organlari, axborot vositachilari) axborotni kriptografik muhofaza qilish vositalarini qo‘llaydilar.

Moliyaviy va soliq hisoboti elektron hujjat tarzida qabul qilib olinganda, davlat soliq xizmati

organlarining dasturiy-apparat vositalari moliyaviy va soliq hisobotini avtomatik tarzda qabul qilinishini, shuningdek korxonaga elektron tarzidagi moliyaviy va soliq hisoboti qabul qilib olinganligi to‘g‘risida tasdiqnomani yuborilishini ta’minlaydi. Moliyaviy va soliq hisobot dastlabki tarzda kameral nazorat qilinmasdan va uning mazmuni muhokama etilmasdan qabul qilinadi.

Belgilanmagan shakldagi moliyaviy va soliq hisoboti taqdim etilganda davlat soliq xizmati organi moliyaviy va soliq hisobot olingan kundan e’tiboran uch kun ichida bu haqda korxonaga yozma yoki elektron bildirish yuboradi va aniq fikr-mulohazalarni ko‘rsatgan holda uni maromiga yetkazish uchun qaytaradi.

Moliyaviy va soliq hisoboti elektron hujjat tarzida taqdim etilganda, korxona va davlat soliq xizmati organlari uni qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarda elektron ko‘rinishda saqlanishini ta’minlaydilar. Moliyaviy va soliq hisobotni elektron hujjat tarzida saqlashda elektron hujjat aylanishining ishtirokchilari (korxona, davlat soliq xizmati organlari, axborot vositachilari) tomonidan hisobotning qog‘oz nusxalarini berish va ulardan foydalana olish imkoniyatlari ko‘zda tutilgan bo‘lishi lozim. Moliyaviy va soliq hisobotning elektron hujjat tarzida saqlanish muddatlari qog‘ozdagi moliyaviy va soliq hisobotlari uchun belgilangan muddatlardan kam bo‘lmasligi lozim.

Elektron hujjat aylanishi ishtirokchilari (korxona, davlat soliq xizmati organlari, axborot vositachilari) ning elektron hujjat tarzidagi moliyaviy va soliq hisobotini taqdim etishda o‘zaro munosabatlari quyidagicha bo‘ladi:

- korxona elektron hujjat tarzidagi moliyaviy va soliq hisobotni qonunchilikda belgilangan muddatlarda taqdim etadi;

- elektron hujjat tarzidagi moliyaviy va soliq hisobotni qabul qilib olishda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining dasturiy-apparat vositalari mazkur moliyaviy va soliq hisobotni qabul qilib olganligi to‘g‘risida, qabul qilib olingan sanasi ko‘rsatilgan holda, avtomatik tarzda tasdiqlanishni ta’minlaydi;

- elektron hujjat tarzidagi moliyaviy va soliq hisobot, agar u bevosita korxona tomonidan yoki uning axborot vositachisi orqali jo‘natilgan bo‘lsa, jo‘natilgan deb hisoblanadi.

- elektron hujjat tarzidagi moliyaviy va soliq hisobotni taqdim etish sanasi elektron hujjatning davlat soliq xizmati organining elektron manziliga kelib tushgan sanasi hisoblanadi;

- moliyaviy va soliq hisobotni elektron hujjat tarzida taqdim etuvchi korxona moliyaviy va soliq hisobotidagi ma’lumotlarning o‘z vaqtida va to‘la taqdim etilishiga javobgar hisoblanadi;

- elektron hujjat tarzidagi moliyaviy va soliq hisobotni qabul qiluvchi va unga ishlov beruvchi davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari keyingi foydalanish uchun qabul qilinib olinayotgan axborotga o‘z vaqtida ishlov berilishiga shaxsan javobgardirlar.

Moliyaviy va soliq hisobotni elektron hujjat tarzida jo‘natishda elektron raqamli imzodan foydalanish tartibi «Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda tijorat banklari tomonidan ko‘rsatiladigan barcha turdagi xizmatlarda elektron raqamli imzodan foydalanish Qoidalari» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 13-noyabrda 2727-son bilan ro‘yxatga olingan)* bilan tartibga solinadi.

1-yanvardan 31-dekabrgacha bo‘lgan kalendar yil moliyaviy hisobotning hisobot davri hisoblanadi. Moliyaviy hisobot kalendar yildan farqli davr uchun, qonunda ko‘zda tutilgan hollarda 1 oy yoki 3 oy uchun tuzilishi mumkin. Moliyaviy hisobotni tuzishda, hisobot sanasi bo‘lib, hisobot davrining eng oxirgi kalendar kuni hisoblanadi. Chunonchi korxonaning yillik

buxgalteriya balansi uchun 31-dekabr hisobot sanasi hisoblanadi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi yillik hisobot uchun 1-yanvardan 31-dekabrgacha bo‘lgan davr hisobot davri bo‘ladi.

Hisobot yilida tugatilgan yoki qayta tashkil qilingan korxonalar yil boshidan to tugatilgan (qayta tashkil qilingan) davrgacha moliyaviy hisobotning amaldagi shakllari bo‘yicha hisobot topshiradi. Yangidan tashkil etilgan korxonalar moliyaviy hisobotda ularni belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan oyning 1-kunidan boshlab hisobot yilining 31-dekabrigacha davridagi xo‘jalik mablag‘lari va ularning manbalarini hisobot yilining 1- oktyabridan keyin tashkil qilingan korxonalar esa, davlat tomonidan ro‘yxatga olingan kundan boshlab hisobot yilidan keyingi yilning 31-dekabrigacha bo‘lgan davrni ko‘rsatadi (ushbu tartib tugatilgan (qayta tashkil qilingan) korxonalar asosida tashkil qilingan korxonalar va ularning ajratilgan bo‘linmalari uchun joriy qilinmaydi).

Korxona balansining moddalari aktivlar va majburiyatlarning puxta o‘tkazilgan inventarizatsiyasi bilan asoslangan bo‘lishi kerak. Inventarizatsiya 19-son BHMS da belgilangan tartibda o‘tkaziladi. Bunda yillik moliyaviy hisobotni taqdim etishga qadar doimiy ishlab turgan inventarizatsiya komissiyalari tomonidan inventarizatsiya davomida aniqlangan, boyliklar haqiqiy mavjudligining buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga qaraganda tafovutlari tartibga solinishi kerak. Debitorlik va kreditorlik qarzlarini inventarizatsiyalashlar ham o‘tkazilishi kerak, ular o‘zaro hisob-kitoblar saldosini tasdiqlaydigan solishtirish dalolatnomalari yoki xatlar bilan rasmiylashtiriladi. O‘tkazilgan inventarizatsiyalar soni va natijalari, shuningdek ularni o‘tkazmaslik sabablari yillik moliyaviy hisobotga ilova qilinadigan tushuntirish xatida aks ettirilishi kerak.

Moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida tuzishni ta’minlash uchun buxgalteriyaning barcha bo‘limlari ishlarini bajarish muddatlarini ko‘rsatib yig‘ma ish grafigi tuziladi. Buxgalteriya hisobi qo‘lda yuritilsa, grafik bilan belgilangan muddatlarda jurnal - orderlarning jami chiqariladi, zarur bo‘lsa bir registrdagi summa boshqa registrlarga o‘tkaziladi va har bir schyotning aylanmai muqobil tekshiriladi. Jurnal - order shaklida hisob yuritilganda oy oxiriga qolgan summalarini o‘tkazish va hisob registrlarini yakunlash bo‘yicha hisob ishlarining ketma - ketligi quyidagicha:

- ma’lumotnoma-varaqalaridan debet va kredit aylanmalari jurnal-orderlar va qaydnomalarga o‘tkaziladi, bunda rasshifrovka-varaqalari va jurnal-orderlarda tegishli belgilar qo‘yiladi;

- qaydnomalarning analitik hisob yig‘indisi hisoblab chiqariladi, shundan keyin jami ma’lumotlari tegishli jurnal-orderlarda aks ettiriladi;

- jurnal orderlarning kredit aylanmalari jami hisoblab chiqiladi.

Agar jurnal-orderlarda schyotlar bo‘yicha analitik ma’lumotlar aks ettirilgan bo‘lsa, ma’lumotlar jamlab chiqiladi va keyingi oy boshiga qoldiq aniqlanadi, bog‘lanuvchi schyotlar bo‘yicha aloqasi bor schyotlarning turli registrlari jami taqqoslanadi. Masalan, 1- jurnal-orderdagi 5010- schyotining jami 2-qaydnomadagi 5010 schyoti jami bilan taqqoslanadi. Bunday ko‘rsatkichlarni taqqoslab tekshirish barcha jurnal-orderlar bo‘yicha bajariladi.

Bundan keyin ma’lumotlar jurnal-orderlardan bosh daftarga o‘tkaziladi. Undan keyin har bir schyot bo‘yicha debet aylanmalari chiqarilib keyingi oyning 1-kuniga qoldig‘i chiqariladi. Bosh daftarga ma’lumotlar faqat jurnal-orderlardan olib yoziladi.

Jurnal-orderlar ma’lumotlari Bosh daftarga o‘tkazilgandan so‘ng jurnal-orderlarda quyidagicha izoh beriladi: «Aylanmalar summasi Bosh daftarda aks ettirildi» va sanasi ham ijrochi va bosh buxgalterning imzolari qo‘yiladi.

Bosh daftarda schyotlarning qoldig‘i chiqarilgandan so‘ng ular analitik ma’lumotlar bilan tekshiriladi, jurnal-order shaklining registrlari ma’lumotlari bo‘yicha balans va boshqa hisobot jadvallari tuziladi.

Korxonalar barcha alohida mustaqil balansga ajratilmagan bo‘linmalarining faoliyat ko‘rsatkichlari moliyaviy hisobot shakllarining ko‘rsatkichlariga kiritilishi kerak.

Moliyaviy hisobot shakllarini to‘ldirish «Moliyaviy hisobot shakllarini to‘ldirish bo‘yicha Qoidalar» da belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Moliyaviy hisobot shakllarida barcha rekvizitlar va nazarda tutilgan ko‘rsatkichlar to‘ldirilishi kerak. Korxonada tegishli aktivlar, passivlar, operatsiyalar mavjud emasligi sababli biror-bir modda (satrlar, ustunlar) to‘ldirilmagan taqdirda, ushbu modda (satr, ustun) ustiga chizib qo‘yiladi.

Moliyaviy hisobot shakllarining manzil qismi quyidagi tartibda to‘ldiriladi:

- ***«Korxona, tashkilot»*** rekviziti - korxonaning to‘liq nomi (belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan ta’sis hujjatlariga muvofiq) va KTUTga ko‘ra uning kodi ko‘rsatiladi;
- ***«Faoliyat turi» rekviziti*** - korxonaning iqtisodiy faoliyat turi va IFUTga ko‘ra iqtisodiy faoliyat kodi ko‘rsatiladi;
- ***«Tashkiliy-huquqiy shakl»*** rekviziti - korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli va THTga ko‘ra tashkiliy-huquqiy shaklning kodi ko‘rsatiladi;
- ***«Mulkchilik shakli»*** rekviziti - korxonaning mulkchilik shakli va MSHTga ko‘ra mulkchilik shaklining kodi ko‘rsatiladi;
- ***«Vazirliklar, idoralar va boshqalar»*** rekviziti - ixtiyorida korxona turgan (agar u mavjud bo‘lsa) va unga moliyaviy hisobot yo‘naltiriladigan organning nomi hamda DBPBTga ko‘ra ushbu organning kodi ko‘rsatiladi;
- ***«Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami»*** rekviziti - STIR bo‘yicha korxonaning identifikatsiya raqami ko‘rsatiladi;
- ***«Hudud»*** rekviziti - MHOBT bo‘yicha kod ko‘rsatiladi;
- ***«Manzil»*** rekviziti - korxonaning to‘liq yuridik manzili ko‘rsatiladi.

Moliyaviy hisobot shakllariga rahbar va bosh buxgalter imzo chekadi, imzolar muhr bilan tasdiqlanadi. Moliyaviy hisobotda o‘chirish va ustiga yozishlar bo‘lmasligi kerak. Xatolar tuzatilgan taqdirda tegishli qaydlar qilinadi, ularni moliyaviy hisobotlarga imzo chekkan shaxslar tasdiqlab, tuzatish sanasini ko‘rsatadilar.

Joriy hamda o‘tgan yil hisobot ma’lumotlaridagi (ular tasdiqlanganidan keyin) tuzatishlar uning ma’lumotlarini buzishlar aniqlangan hisobot davri uchun tuzilgan hisobotda amalga oshiriladi, bunda tuzatishlar hisobot davri (chorak, yil boshidan) uchun ma’lumotlarga kiritiladi.

O‘tgan davrda yo‘l qo‘yilgan fundamental (muhim) xatolarni tuzatish summasi moliyaviy hisobotda yil boshidagi taqsimlanmagan foyda saldosini o‘zgartirish hamda aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalning boshqa moddalariga tegishli tuzatishlar kiritish yo‘li bilan aks ettirilishi mumkin.

Yillik moliyaviy hisobotni tekshirish chog‘ida daromadlarni yashirish yoki ular bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlarni davr xarajatlariga (yoki muomala chiqimlariga) kiritish natijasida moliyaviy natijalarni kamaytirib ko‘rsatish aniqlangan holda buxgalteriya hisobi va o‘tgan yil uchun moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritilmaydi, balki joriy yilda hisobot davrida aniqlangan o‘tgan yillar foydasi sifatida aks ettiriladi.

Yillik moliyaviy hisobotga hisobot yilida korxona faoliyatining yakuniy natijalariga ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillar bayon etilgan tushuntirish xati ilova qilinadi.

Agar balans yil boshida o‘zgartirilgan bo‘lsa, tushuntirish xatida o‘zgartirish sabablari tushuntiriladi. Unda keyingi yil uchun qabul qilingan hisob siyosati ham keltiriladi.

Agar asosiy vositalarni qayta baholash hisobot yilining birinchi sanasi holatiga o‘tkazilsa, qayta baholash natijalarining ko‘rsatkichlari hisobot yilining boshiga shakllanadigan moliyaviy hisobotga qabul qilinadi. Bunda o‘tgan yilning oxiridagi ko‘rsatkich hisobot yilining boshidagi ko‘rsatkichga mos kelmasligi, asosiy vositalarni hisobot yilining birinchi sanasiga o‘tkazilgan qayta baholashning natijasi deb tushuniladi va joriy davrning moliyaviy hisobotidagi tushuntirish xatida bayon etiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida» Qonunning 35-moddasida ko‘rsatilgan korxonalar majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkazilganidan keyin o‘n besh kun ichida, biroq hisobot yilidan keyingi yilning 15-iyunidan kechiktirmay, soliq organlariga auditorlik xulosasining ko‘chirma nusxasini taqdim etadilar.

«Auditorlik faoliyati to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, korxona moliyaviy hisobotining va u bilan bog‘liq moliyaviy axborotining auditorlik tekshiruvi tekshiriladigan moliyaviy hisobotning hamda u bilan bog‘liq moliyaviy axborotning ishonchliligini va buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiqligini aniqlash maqsadida auditorlik tashkiloti tomonidan o‘tkaziladi.

Auditorlik tekshiruvi majburiy va tashabbus tarzidagi shakllarda o‘tkaziladi. Quyidagi korxonalar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tishi lozim:

- aksiyadorlik jamiyatlari;
- banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
- sug‘urta tashkilotlari;
- investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘larini jamlovchi boshqa fondlar hamda ularning investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilari;
- manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ajratmalaridan iborat bo‘lgan xayriya, jamoat fondlari va boshqa fondlar;
- ustav fondida (ustav kapitalida) davlatga tegishli ulushga ega bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar va davlat unitar korxonalari;
- fond va tovar birjalari;
- hisobot yili yakunlariga ko‘ra quyidagi shartlardan bir vaqtning o‘zida ikkitasiga javob bergan tijorat tashkilotlari: aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravari miqdoridan ortiq, mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ming baravari miqdoridan ortiq, xodimlarining o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiq bo‘lsa.

Majburiy auditorlik tekshiruvini qonunga muvofiq o‘tkazishdan bo‘yin tovlash korxonaning mansabdor shaxsiga nisbatan ma’muriy jazo qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi. Yillik moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvini hisobot yilidan keyingi yilning 15-iyunigacha o‘tkazmaslik va auditorlik xulosasining yo‘qligi korxonaning majburiy auditorlik tekshiruvi o‘tkazilishidan bo‘yin tovlashi deb e’tirof etiladi.

Soliq organlari tomonidan ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin kalendar yil tugaguniga qadar majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazmaslik korxonadan bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdoridagi summada jarima undirishga sabab bo‘ladi. Korxona jarimani ixtiyoriy ravishda to‘lashdan bosh tortgan taqdirda, korxonaga nisbatan huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi masala iqtisodiy sud tomonidan ko‘rib chiqiladi.Jarimani to‘lash korxonaning majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazishdan ozod qilmaydi.

Qonun hujjatlariga muvofiq o‘tkaziladigan majburiy auditorlik tekshiruvidan bosh tortish

korxonaning mansabdor shaxsiga nisbatan ma’muriy jazo qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 179-1-moddasiga muvofiq, korxonaning majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazishdan bosh tortishi - mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Joriy hamda o‘tgan yil hisobot ma’lumotlaridagi (ular tasdiqlanganidan keyin) tuzatishlar uning ma’lumotlarini buzishlar aniqlangan hisobot davri uchun tuzilgan hisobotda amalga oshiriladi, bunda tuzatishlar hisobot davri (chorak, yil boshidan) uchun ma’lumotlarga kiritiladi.

O‘tgan davrda yo‘l qo‘yilgan fundamental (muhim) xatolarni tuzatish summasi moliyaviy hisobotda yil boshidagi taqsimlanmagan foyda saldosini o‘zgartirish hamda aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalning boshqa moddalariga tegishli tuzatishlar kiritish yo‘li bilan aks ettirilishi mumkin.

Yillik moliyaviy hisobotni tekshirish chog‘ida daromadlarni yashirish yoki ular bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlarni davr xarajatlariga (yoki muomala chiqimlariga) kiritish natijasida moliyaviy natijalarni kamaytirib ko‘rsatish aniqlangan holda buxgalteriya hisobi va o‘tgan yil uchun moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritilmaydi, balki joriy yilda hisobot davrida aniqlangan o‘tgan yillar foydasi sifatida aks ettiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq, korxonalarning yillik moliyaviy hisoboti manfaatdor banklar, birjalar, investorlar, kreditorlar, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shaxslar uchun ochiqdir.

Aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek sug‘urta tashkilotlari, banklar, jamoat fondlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar har yilgi moliyaviy hisobotni aksiyadorlarning yoki buxgalteriya hisobi subyekti boshqa yuqori boshqaruv organining yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin auditorlik xulosasi bilan birga e’lon qilishi shart.

Korxonalar qayta tashkil etilganda va tugatilganda qayta tashkil etish hamda tugatish bo‘yicha moliyaviy hisobot tuzadi. Korxona qayta tashkil etilganda moliviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirish, topshirish dalolatnomasi, taqsimlash balansi va yakuniy moliyaviy hisobotlarni tuzish, aktivlar va majburiyatlar qiymatini aniqlash tartibi «13-bob. Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish» da ko‘rib chiqilgan.

Korxona tugatilganda tugatish jarayoni bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish, oraliq tugatish balansi, tugatish balansini tuzish, aktivlar qiymatini aniqlash tartibi «14-bob. Tugatish jarayoni bilan bog‘liq operatsiyalar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Sho‘ba korxonalari, filiallar va vakilliklariga ega bo‘lgan korxonalar konsolidallashgan moliyaviy hisobot tuzadi. Sho‘ba korxonalarga qo‘yilgan qo‘yilmalar bosh korxonaning moliyaviy hisobotida uning moliyaviy qo‘yilmalari sifatida aks ettiriladi.

Korxonalar o‘zlarining filiallari, vakilliklari va boshqa tarkibiy bo‘linmalarini mustaqil balansga ajratishi mumkin, lekin ularning balansi va boshqa hisobot shakllari tegishli yuridik shaxsning konsolidallashgan hisobotiga albatta qo‘shiladi.

Konsolidallashgan hisobotga bosh korxonaning moliyaviy hisoboti ilova qilinadi. Konsolidallashgan hisobot 8–son BHMSga muvofiq tuziladi. Lekin vazirliklar, idoralar va byudjet tashkilotlari bo‘yicha tuziladigan yig‘ma moliyaviy hisobotlar bundan mustasno.

3-§. Buxgalteriya balansi

Korxonalarni boshqarish uchun, eng avvalo, ulardagi mablag‘lar haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish kerak. SHu bilan birga ular, mablag‘larning qanday turlariga ega va bu mablag‘lar qanday manbalardan tashkil topganligini bilish kerak bo‘ladi. Bunday ma’lumotlar umumlashtirilgan hodda pul ko‘rsatkichlarida ma’lum bir sanaga berilishi kerak. Mablag‘lar tarkibi va qanday maqsadlarga mo‘ljallanganligini o‘rganish uchun ularni iqtisodiy jihatdan guruhlash zarur. Mana shu ma’lumotlar «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) yordamida olinadi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) xo‘jalik mablag‘larini ularning turlari va tashkil topish manbalari bo‘yicha muayyan bir davrga pulda ifodalanib, umumlashtirib aks ettirish va iqtisodiy guruhlash usulidir.

Mablag‘lar turlari va ularning manbalarini ajratib ko‘rsatish maqsadida «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ikki qismdan iborat bo‘lgan jadval shaklida tuzilgan. Uning chap tomonida mablag‘lar turlari va ularning joylanishi keltiriladi va u aktiv qism deb nomlanadi, passiv qism deb nomlanadigan o‘ng tomonida mablag‘lar manbalari va ularning qanday maqsadlarga atalganligi ko‘rsatiladi.

«Aktiv» atamasi lotincha faoliyatli, amal qilish, mavjud bo‘lish degan so‘zlardan kelib chiqqan. Shuning uchun aktiv deganda mablag‘lar qanday amal qilayotganligini, ishlayotganligini ko‘rsatuvchi mablag‘lar guruhlanishini tushunish kerak.

Aktivlar oldingi amalga oshirilgan muammolarni yoki oldin sodir bo‘lgan voqealar natijasida korxonaga kelib tushgan va ular kelajakda foyda keltiradigan iqtisodiy resurslardir. Aktivlar uch xil xususiyatga ega bo‘lishi kerak:

- kelajakdagi iqtisodiy nafni o‘zida mujassamlanishi, bevosita va bilvosita pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlarini ko‘paytirish imkoniyati;
- bu iqtisodiy naflarni nazorat qilish qobliyatini mujassamlash;
- oldingi bitimlar yoki boshqa voqealarning natijasi bo‘lishi.

«Passiv» atamasining ildizi ham lotincha faolsiz, xolis turmoq, tushuntirish kabi so‘zlarning ildizidan olingan. Tarixan bu atama dastlab faqat qarzga olingan mablag‘larga nisbatan, ya’ni uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlarga nisbatan qo‘llanar edi. Bu bilan mulk egasi qarzga olingan mablag‘larga bo‘lgan munosabatda o‘zboshimchalikdan o‘zini tutishi kerakligi ta’kidlangan edi. Keyinchalik «passiv» atamasi manbalarning boshqa moddalariga ham tarqatilgan bo‘lib, faqat korxona majburiyatlarini tavsiflabgina emas, mablag‘lar turlarini qanday maqsadlarga mo‘ljallanganligini ham tavsiflash uchun ishlatiladigan bo‘ldi.

Manbalarning tarkibiy qismini majburiyatlar tashkil etadi. Subektning majburiyatlari bu oldingi amalga oshirilgan operatsiyalarning natijasi yoki kelajakda o‘zida mujassamlangan iqtisodiy nafni chiqib ketishi yoki yangi majburiyatlarni vujudga kelishi bilan yakunlanadi. Majburiyatlarni uch xil xususiyatga ega bo‘lishi kerak:

- aktivlarni chiqib ketishi yoki xizmat ko‘rsatish yo‘li bilan to‘lashni vujudga keltiradigan mavjud doimiy majburiyatni o‘zida majassamlashtirishi;
- subekt uchun majburiyatning bajarilishi shartligi va qariyb muqarrarligi;
- oldingi bitim yoki voqealar natijasi bo‘lishi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning aktivi va passivida ham balans moddalari ikkiga bo‘lib ko‘rsatiladi. Aktivda: I-bo‘lim. «Uzoq muddatli aktivlar» va II-bo‘lim. «Joriy aktivlar». Passivda: I-bo‘lim. «O‘z mablag‘larining manbalari» va II-bo‘lim. «Majburiyatlarga bo‘linadi».

Aktiv va passivning har bir elementi mablag‘lar turi yoki ularning manbai balans moddasi

deb ataladi. Aktivda, masalan, quyidagi moddalar keltiriladi: «Asosiy vositalar», «Nomoddiy aktivlar», «Tugallanmagan ishlab chiqarish», «Tayyor mahsulot», «Hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘lari» va boshqalar; passivda «Ustav kapitali (fondi)», «Taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarar)», «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarzlar», «Bank kreditlari» va boshqa moddalar.

Buxgalteriya balansining xususiyati aktiv va passivlar pullik yakunlarining tengligidan iborat. Bu talab har qanday korxona balansi uchun majburiydir. Bu talab aktivda ham, passivda ham mablag‘larning bir xil hajmda, faqat har xil guruhlanishda ko‘rsatiladi, ya’ni aktivda - turlari bo‘yicha, passivda - manbalari bo‘yicha. Balansning nomi ham shunga asoslangan, chunki «balans» so‘zi tenglik, barobarlikni anglatadi. Shuning uchun ham balans aktivi va passivi «balans» so‘zi bilan belgilanadi.

Balans korxonaning xo‘jalik mablag‘larini ma’lum bir sanaga tavsiflab, uning o‘tgan davrdagi barcha faoliyat natijasini qanday holatga olib kelganligini ko‘rsatadi. SHunday qilib, balans korxona mablag‘larining turlari va ularning manbalari haqidagi muhim axborotga ega bo‘lgan xo‘jalik yuritish subektlari ishining yakunlari to‘g‘risidagi hisobotdir.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) chorak va yillik hisobot tarkibiga kiritiladi. Bu «netto» nomli balans bo‘lib, foydalanuvchilarga korxonaning sof qiymatining hajmi to‘g‘risida axborot beradi, chunki mulkning qiymati jami ko‘rsatkichga quyidagi moddalar bo‘yicha eskirishini chiqarib tashlab ko‘rsatiladi: asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqalar. Lekin xo‘jalik faoliyatini tahlil etish maqsadida balansda quyidagi ko‘rsatkichlar saqlanib qolgan: boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymat va ularning eskirishi.

Buxgalteriya balansi quyidagi belgilariga qarab tasniflanadi:

- tuzish vaqtiga qarab: kirish balansi, joriy (davriy) balans, tugatish balansi, ajralish balansi, qo‘shilish balansi, sanatsiya balansi.

- axborot hajmi bo‘yicha: yakka balans - faqat bir korxona axborotini aks ettiradi, yig‘ma balans - barcha korxonalar mablag‘larining umumiy holatini aks ettiruvchi summalarni mexanik qo‘shish yo‘li bilan tuziladi, konsolidallashgan balans.

- faoliyat xarakteri bo‘yicha: asosiy balans - korxonaning asosiy faoliyat turi va ustaviga to‘g‘ri keladigan balans, asosiy bo‘lmagan balans - korxonaning boshqa faoliyat turlari bo‘yicha tuziladigan balans.

- tozalanish usuli bo‘yicha: brutto-balansi - bu barcha tartibga soluvchi moddalarni o‘z ichiga oluvchi balans, netto-balans - bu barcha tartibga soluvchi moddalarni chiqarib tashlab tuzilgan balans. Bizning Respublikamizda netto-balansi qo‘llaniladi.

Respublikamizda korxonalar tomonidan «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ni tuzish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bo‘yrug‘i (1-ilovaga qarang) bilan tasdiqlangan shaklda amalga oshiriladi. «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ni to‘ldirish 15-son BHMS ga va «Moliyaviy hisobot shakllarini to‘ldirish bo‘yicha Qoidalar» da belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ni har bir moddalari bo‘yicha to‘ldirish tartibini ko‘rib chiqamiz.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning 3-ustunda hisobot davri boshidagi ma’lumotlar, ya’ni oldingi hisobot davri uchun «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning 4-ustunining ma’lumotlari ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «Uzoq muddatli aktivlar» bo‘limida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qiymati, uzoq muddatli investitsiyalar, o‘rnatiladigan uskunalar,

kapital qo‘yilmalar, uzoq muddatli debitorlik qarzlari va muddati kechiktirilgan uzoq muddatli xarajatlar summalari oshkor qilinishi kerak.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «Uzoq muddatli aktivlar» bo‘limida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha 5-son BHMS ga, 6-son BHMS ga va 7-son BHMS ga muvofiq boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati, eskirish (amortizatsiya) summasi, qoldiq qiymati oshkor qilinishi lozim.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning 010-satri «Boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymat» moddasi bo‘yicha asosiy vositalar o‘z asosiy vositalari (ishlab turgan hamda konservatsiyada bo‘lgan) va moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bo‘yicha ko‘rsatilib, ularning hisobi asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100) va 0310 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar» schyotida amalga oshiriladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning alohida 011-satri «Eskirish summasi» moddasi bo‘yicha korxona tomonidan asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100) va 0310 «Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar» schyotida hisobga olingan asosiy vositalar bo‘yicha hisoblangan eskirish summasi keltirilib, ularning hisobi asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar (0200) da amalga oshiriladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning alohida 012-satri «Qoldiq (balans) qiymat» moddasi bo‘yicha 010-satri «Boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymat» moddasi va 011-satri «Eskirish summasi» moddasi farqi aks ettiriladi. Mazkur sartdagi summa «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning umumiy summasiga qo‘shiladi.

Asosiy vositalarni boshlang‘ich hisobini shakllantirish, amortizatsiya hisoblash va ularni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «1-bob. Asosiy vositalar hisobi» va «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalari hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Nomoddiy aktivlar «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning 020-satri «Boshlang‘ich qiymat» moddasi bo‘yicha tabiiy resurslardan, yer uchastkalaridan foydalanish huquqi, patentlar, litsenziyalar, savdo belgilari, tovar belgilari, sanoat namunalariga bo‘lgan huquqlar, mualliflik huquqlari va boshqa huquqlar sifatida nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich qiymati bo‘yicha ko‘rsatilib, ularning hisobi nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlarda (0400) amalga oshiriladi. Bu modda bo‘yicha shuningdek hisobot davri uchun qilingan hisobdan chiqarishlar chegirilgan holda gudvill summasi (firma narxi) aks ettiriladi. Buxgalteriya hisobida gudvill (firma narxi) nomoddiy aktivining summasini hisobdan chiqarish alohida schyotida amortizatsiyani jamlamasdan, bevosita 0480 «Gudvill» schyotida saldosini kamaytirishga yoziladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning alohida 021-satri «Amortizatsiya summasi» moddasi bo‘yicha nomoddiy aktivlarga hisoblangan amortizatsiya summasi ko‘rsatiladi va hisoblangan amortizatsiyaning hisobi nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlarida (0500) yuritiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning alohida 022-satri «Qoldiq (balans) qiymat» moddasi bo‘yicha 020-satri «Boshlang‘ich qiymat» moddasi va 021-satri «Amortizatsiya summasi» moddasi farqi aks ettiriladi. Mazkur sartdagi summa «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning umumiy summasiga qo‘shiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «Uzoq muddatli aktivlar» bo‘limida uzoq muddali investitsiyalar bo‘yicha 12-son BHMS ga muvofiq qimmatli qog‘ozlar qiymati, shu’ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar, tobe xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar, chetel kapitaliga ega

bo‘lgan korxonalarga investitsiyalar va boshqa uzoq muddatli investitsiyalar summalari bo‘yicha oshkor qilinishi kerak.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning 030-satri «Uzoq muddatli investitsiyalar, jami» moddasi bo‘yicha 040, 050, 060, 070, 080-satrlarda keltirilgan qimmatli qog‘ozlarga, Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlari, chetel kapitali bo‘lgan korxonalarga qo‘yilgan mablag‘lar summasi hamda boshqa uzoq muddatli investitsiyalar ko‘rsatiladi.

Qimmatli qog‘ozlar balans aktivida ularning to‘la xarid qiymatida ko‘rsatilib, investor dividendlar olish huquqiga ega bo‘lgan va ushbu qo‘yilmalar bo‘yicha to‘la javob beradigan hollarda kreditorlar moddasi bo‘yicha so‘ndirilmagan summa balans passiviga kiritiladi. Qolgan hollarda xarid qilinadigan qimmatli qog‘ozlar hisobiga kiritilgan summalar balans aktivida debitorlar moddasi bo‘yicha ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) da «Uzoq muddatli investitsiyalar» bo‘yicha quyidagilar ko‘rsatiladi:

- 040-satr «Qimmatli qog‘ozlar» moddasi bo‘yicha obligatsiyalar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilgan 0610 «Qimmatli qog‘ozlar» schyotida hisobga olinadigan summa ko‘rsatiladi, bundan Sho‘ba va qaram jamiyatlarning qimmatli qog‘ozlari bundan mustasno;

- 050-satr «Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar» moddasi bo‘yicha Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlarining aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa investitsiyalariga qo‘yilgan, 0620 «Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar» schyotida hisobga olinadigan mablag‘lar summasi ko‘rsatiladi;

- 060-satr «Qaram xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar» moddasi bo‘yicha qaram xo‘jalik jamiyatlarining aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa investitsiyalariga qo‘yilgan, 0630 «Qaram xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar» schyotida hisobga olinadigan mablag‘lar summasi ko‘rsatiladi;

- 070-satr «Chetel kapitali mavjud bo‘lgan korxonalarga investitsiyalar» moddasi bo‘yicha chetel kapitali mavjud bo‘lgan korxonalarning aksiyalari, obligatsiyalari, ustav kapitaliga ulushlari va boshqa investitsiyalariga qo‘yilgan, 0630 «Chetel kapitali mavjud bo‘lgan korxonalarga investitsiyalar» schyotida hisobga olinadigan mablag‘lar summasi ko‘rsatiladi;

- 080-satr «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» moddasi bo‘yicha uzoq muddatli investitsiyalarga qo‘yilgan, yuqorida sanalgan moddalarda hisobga olinmagan va 0630 «Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» schyotida hisobga olinadigan mablag‘lar summasi ko‘rsatiladi.

Uzoq muddatli investitsiyalarni balans qiymatini shakllantirish va buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «3-bob. Moliyaviy investitsiyalar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning 090-satri «O‘rnatiladigan asbob-uskunalar» moddasida 0710 «O‘rnatiladigan asbob-uskunalar-mahalliy» va 0720 «O‘rnatiladigan xorijiy asbob-uskunalar» syotlarida hisobga olingan, korxona tomnidan o‘rnatish uchun xarid qilingan lekin o‘rnatishga ulgurmagan asbob-uskunalar haqiqiy qiymat bo‘yicha ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning 100-satri «Kapital qo‘yilmalar» moddasi bo‘yicha xo‘jalik usulida va pudrat usulida amalga oshiriladigan tugallanmagan qurilishning qiymati, xarid qilingan, foydalanishga topshirilmagan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qiymati, asosiy podani shakllantirish xarajatlari, shuningdek yerni obodonlashtirishga, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarga va boshqa kapital qo‘yilmalar bo‘yicha kapital qo‘yilmalarni hisobga oluvchi schyotlarda (0800) hisobga olinadigan summalar ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning 110-satri «Uzoq muddatli debitorlik qarzi» moddasi bo‘yicha hisobi 0910 «Olingan veksellar», 0920 «Moliyaviy ijara bo‘yicha olinadigan

to‘lovlar», 0930 «Xodimlarning uzoq muddatli qarzlari», 0940 «Boshqa uzoq muddatli debitor qarzlar»” schyotlarida yuritiladigan olingan veksellarning uzoq muddatli qismi, moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha topshirilgan asosiy vositalar uchun olinadigan to‘lovlar qoldig‘i, xodimlarning uzoq muddatli qarzi va hisobi yuritiladigan boshqa uzoq muddatli debitorlik qarzlari ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning 120-satri «Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» moddasi bo‘yicha va hisobi 0950 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i», 0960 «Diskont (chegirma) lar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar», 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyotlaridan yuritiladigan vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i, diskont (chegirma) lar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar va boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ni aktiv qismining ***«I bo‘lim bo‘yicha jami» 130-satri moddasi*** bo‘yicha 012, 022, 030, 090, 100, 110, 120-satrlar bo‘yicha summa ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «Joriy aktivlar» bo‘limida tovar-moddiy zaxiralar, kelgusi davrlar xarajatlari, muddati kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi, debitorlik qarzlari, pul mablag‘lari, qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar va boshqa joriy aktivlar summalari oshkor qilinishi kerak.

4-son BHMS ga muvofiq tovar-moddiy zaxiralarga quyidagi alohida oshkor qilinadiganlar kiritiladi:

- ishlab chiqarish jarayonida yoki ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatishda foydalanish uchun mo‘ljallangan xomashyo, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg‘i, idish, ehtiyot qismlar, inventar va xo‘jalik jihozlari, boshqa materiallar zaxiralarini, parvarish qilinayotgan va bo‘rdoqiga boqiladigan hayvonlar, materiallarni tayyorlash va xarid qilish bo‘yicha xarajatlar, materiallar qiymatidagi tafovutlarni o‘z ichiga oladigan ishlab chiqarish zaxiralari;

- tugallanmagan asosiy ishlab chiqarish, xususiy ishlab chiqarishdagi yarim tayyor mahsulotlar, tugallanmagan yordamchi va boshqa ishlab chiqarishlar, ishlab chiqarishdagi brakni o‘z ichiga oladigan tugallanmagan ishlab chiqarish;

- tayyor mahsulot;

- tovarlar.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «Tovar-moddiy zaxiralar, jami» 140-satri moddasi bo‘yicha 150, 160, 170, 180-satrlarda ko‘rsatilgan ishlab chiqarish zaxiralarining qoldiqlari, tugallanmagan ishlab chiqarish summasi, tayyor mahsulot va tovarlar ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) da «Tovar-moddiy zaxiralar» bo‘yicha quyidagilar ko‘rsatiladi:

- 150-satr «Ishlab chiqarish zaxiralari» moddasi bo‘yicha hisobi materiallarni hisobga oluvchi schyotlarda (1000 yuritiladigan xomashyo va materiallar zaxiralari, xarid qilingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg‘i, ehtiyot qismlar, qurilish materiallari, idish va idish materiallari, inventar va xo‘jalik jihozlari, qaytariladigan chiqindilar va boshqa moddiy qiymatlarning haqiqiy tannarxi ko‘rsatiladi.

Ushbu modda bo‘yicha shuningdek 1110 «O‘stirishdagi hayvonlar» va 1120 «Bo‘rdoqidagi hayvonlar» schyotlarida hisobga olinadigan yosh hayvonlar; bo‘rdoqiga, yaylovda boqilayotgan katta hayvonlar; parrandalar; yovvoyi hayvonlar, quyonlar; asalari uyalari; sotish uchun asosiy podadan chiqarilgan (bo‘rdoqiga boqish uchun qo‘yilmagan) katta mollar; aholidan sotish uchun qabul qilingan mollarning haqiqiy tannarxi aks ettiriladi.

Materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi schyotlar (1500) va materiallar qiymatidagi farqlarni hisobga oluvchi schyotlar (1600) dan foydalanilganda ko‘rsatilgan qiymatliklar ushbu schyotlarda «Ishlab chiqarish zaxiralari» moddasi bo‘yicha aks ettiriladi;

- 160-satr «Tugallanmagan ishlab chiqarish» moddasi bo‘yicha hisobi 2010 «Asosiy ishlab chiqarish», 2110 «O‘zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar», 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish», 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyotlarda yuritiladigan tugallanmagan ishlab chiqarish va tugallanmagan ishlar (xizmatlar) bo‘yicha xarajatlar ko‘rsatiladi;

- 170-satr «Tayyor mahsulot» moddasi bo‘yicha ishlab chiqarishi tugallangan, sinov va qabul qilishdan o‘tgan, buyurtmachilar bilan shartnoma shartlariga ko‘ra barcha qismlar bilan butlangan va texnik shartlar hamda standartlarga muvofiq bo‘lgan buyumlar qoldig‘ining, ko‘rgazmada bo‘lgan va boshqa korxonalarga komissiyaga (konsignatsiyaga) topshirilgan va hisobi tayyor mahsulotni hisobga oluvchi schyotlarda (2800) yuritiladigan tayyor mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi ko‘rsatiladi. Ko‘rsatilgan talablarga javob bermaydigan mahsulot va topshirilmagan ishlar tugallanmagan deb hisoblanadi va tugallanmagan ishlab chiqarish tarkibida ko‘rsatiladi;

- 180-satr «Tovarlar» moddasi bo‘yicha omborlardagi tovarlar qoldiqlarining qiymati, tovarlarning chakana savdodagi qiymati, ko‘rgazmada bo‘lgan va boshqa korxonalarga komissiyaga (konsignatsiyaga) topshirilgan tovarlarning qiymati, ijara buyumlari, tovar idishlari va bo‘sh idishlarning qiymati, yo‘ldagi tovarlar, savdo ustamasini chegirgan holda savdo yoki umumiy ovqatlanishda o‘z faoliyatini amalga oshiradigan korxona xarid qilgan va tovarlarni hisobga oluvchi schyotlarda (2900) hisobga olinadigan boshqa tovarlar ko‘rsatiladi.

Tovar-moddiy zaxiralar tan olish, haqiqiy tannarxini shakllantirish va ular bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) da kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi bo‘yicha quyidagilar ko‘rsatiladi:

- 190-satr «Kelgusi davr xarajatlari» moddasi bo‘yicha kelgusi davrlar xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarda (3100) aks ettirilgan, hisobot davrida amalga oshirilgan, lekin u taalluqli bo‘lgan muddat davomida keyingi hisobot davrlarida moliyaviy-xo‘jalik faoliyati xarajatlariga kiritiladigan xarajatlar summasi ko‘rsatiladi. Bunday xarajatlarga ommaviy axborot vositalari nashriga obuna bo‘yicha xarajatlar, oldindan to‘langan ijara haqi va h.k.lar kiradi;

- 200-satr «Kechiktirilgan xarajatlar» moddasi bo‘yicha kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarda (3200) aks ettirilgan, vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘ining joriy qismi, diskont (chegima) lar bo‘yicha kechiktirilgan xarajatlar va boshqa kechiktirilgan xarajatlar ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) da debitorlik qarzlari bo‘yicha xaridor va buyurtmachilarning qarzlari, ajratilgan bo‘linmalar qarzlari, Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlari qarzlari, xodimlarga berilgan bo‘naklar, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar, byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari, maqsadli davlat jamg‘armalariga va sug‘urta bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari, ustav kapitaliga qo‘yilmalar bo‘yicha ta’sischilarning qarzi, boshqa operatsiyalar bo‘yicha xodimlar qarzlari hamda boshqa debitorlar qarzlari summalari oshkor qilinishi kerak.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «Debitorlar, jami» 210-satri moddasi bo‘yicha 220, 240, 250, 260, 270, 280, 290, 300, 310-satrlarda keltirilgan xaridorlar va buyurtmachilar qarzlari summasining yakuni sifatida jami debitorlik qarzi, Sho‘ba va qaram

xo‘jalik jamiyatlarining qarzi, mol yetkazib beruvchilar, pudratchilar, xodimlarga berilgan bo‘naklar; byudjetga, maqsadli davlat jamg‘armalariga va sug‘urta bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari; ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi va turli debitorlarning qarzlari ko‘rsatiladi.

211-satrda ma’lumot uchun debitorlik qarzining muddati o‘tkazib yuborilgan qismi ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) da debitorlik qarzlarining joriy qismi bo‘yicha quyidagilar ko‘rsatiladi:

- 220-satri «Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzi» moddasi bo‘yicha 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyotida hisobga olinadigan xaridorlar (buyurtmachilar)ga sotilgan mahsulot, tovarlar, topshirilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun qarz ko‘rsatiladi, bunda 4910 «Dargumon qarzlar bo‘yicha rezerv» schyotida hisobga olinadigan shubhali qarzlar bo‘yicha rezerv chegiriladi;

- 230-satr «Ajratilgan bo‘linmalarning qarzi» moddasi bo‘yicha 4110 « Ajratilgan bo‘linmalardan olinadigan schyotlar» schyotida hisobga olinadigan ajratilgan bo‘linmalar (filiallar, vakolatxonalar)ning joriy qarzi aks ettiriladi. Mazkur modda bo‘yicha axborotlar ma’lumot sifatida keltirilgan va «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning umumiy summasiga qo‘shilmaydi;

- 240-satr «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzi» moddasi bo‘yicha Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamitlaridan olinadigan schyotlar» schyotida hisobga olinadigan joriy qarzlari (ichki idora hisob-kitoblari) aks ettiriladi. Sho‘ba va (yoki) qaram xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar hisobi 8-son BHMS ga ko‘ra bosh jamiyatning moliyaviy hisobotida konsolidatsiyalanishi kerak;

- 250-satr «Xodimlarga berilgan bo‘naklar» moddasi bo‘yicha xodimlarga mehnat haqi bo‘yicha, xizmat safarlariga, umumxo‘jalik xarajatlariga berilgan bo‘naklar summasi va bo‘lg‘usi hisob-kitoblar bo‘yicha boshqa bo‘naklar ko‘rsatiladi. Xodimlarga berilgan bo‘naklar hisobi xodimlarga berilgan bo‘naklarni hisobga oluvchi schyotlarda (4200) yuritiladi;

- 260-satr «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» moddasi bo‘yicha qonun hujjatlariga muvofiq, muddati bir yildan kam bo‘lgan bo‘lg‘usi hisob-kitoblar bo‘yicha boshqa korxonalarga to‘langan bo‘naklar summasi ko‘rsatiladi. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklarni hisobi mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklarni hisobga oluvchi schyotlarda (4300) yuritiladi;

- 270-satr «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari» moddasi bo‘yicha byudjetga soliqlar yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari hamda ortiqcha to‘lovlar ko‘rsatiladi. Byudjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari hisobi 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (turlariga bo‘yicha) » schyotida yuritiladi.

- 280-satr «Maqsadli davlat jamg‘armalariga va sug‘urta bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari» moddasi bo‘yicha maqsadli davlat jamg‘armalariga va sug‘urta bo‘yicha bo‘nak to‘lovlarini hisobga oluvchi schyotlarda (4500) hisobga olinadigan maqsadli davlat jamg‘armalariga va sug‘urta bo‘yicha majburiy ajratmalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari va ortiqcha to‘lovlar ko‘rsatiladi;

- 290-satr «Ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi» moddasi bo‘yicha 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlar bo‘yicha qarzi» schyotida hisobga olinadigan ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi ko‘rsatiladi;

- 300-satr «Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzi» moddasi bo‘yicha korxona

xodimlarining kreditga sotilgan tovarlar, xodimlarga berilgan qarzlar, korxonaga yetkazilgan moddiy zararni qoplash bo‘yicha qarzi va xodimlarning boshqa qarzlari ko‘rsatiladi. Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzining hisobi xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzini hisobga oluvchi schyotlarda (4700) yuritiladi;

- 310-satr «Boshqa debitorlarning qarzi» moddasi bo‘yicha turli debitorlarning yuqorida ko‘rsatilgan debitorlar bilan hisob-kitoblar moddalarida aks ettirilmagan qarzlari ko‘rsatiladi, xususan, olinadigan foiz va dividendlar, moliyaviy ijara bo‘yicha joriy to‘lovlar, operativ ijara bo‘yicha to‘lovlar; royalti bo‘yicha olishga doir hisobvaraqlar, qarzdorlar e’tirof etgan yoki ular bo‘yicha sud yoki boshqa organning ularni undirish to‘g‘risida qarori olingan, moliya-xo‘jalik faoliyati natijalariga kiritilgan jarimalar, penya va neustoykalar, boshqa shaxslarning hisobi turli debitorlarning qarzini hisobga oluvchi schyotlarda (4800) yuritiladigan qarzi ko‘rsatiladi.

Debitorlik qarzlarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) da pul mablag‘lari bo‘yicha kassadagi naqd pul mablag‘lari qoldig‘i, hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘lari, valyuta schyotidagi pul mablag‘lari va boshqa pul mablag‘lari (bankdagi maxsus schyotlar, pul ekvivalentlari, yo‘ldagi (o‘tkaziladigan) pul mablag‘lari) summalari oshkor qilinishi lozim.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «Pul mablag‘lari, jami» 320-satri moddasi bo‘yicha kassa, hisob-kitob va valyuta schyotlaridagi pul mablag‘lari summasi, shuningdek 330, 340, 350, 360-satrlarda ko‘rsatilgan boshqa pul mablag‘lari ko‘rsatiladi. Balansning ushbu moddalarida aks ettirilgan summalar bank ko‘chirmalariga va pul mablag‘larining kassa hisoboti bo‘yicha qoldiqlariga mos kelishi kerak.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) da pul mablag‘lari bo‘yicha quyidagilar ko‘rsatiladi:

- 330-satr «Kassadagi pul mablag‘lari» moddasi bo‘yicha hisobot davrining oxirgi sanasida korxona kassalarida bo‘lgan, milliy valyuta va xorijiy valyutadagi pul mablag‘lari qoldig‘i ko‘rsatiladi. Kassadagi pul mablag‘lari hisobi kassadagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarida (5000) yuritiladi;

- 340-satr «Hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘lari» moddasi bo‘yicha hisobot davrining oxirgi sanasida banklardagi hisob-kitob schyotlarida bo‘lgan, milliy valyutada pul mablag‘lari qoldig‘i ko‘rsatiladi. Hisob-kitob schyotidagi milliy valyutadagi pul mablag‘larining hisobi 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyotida yuritiladi;

- 350-satr «Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari» moddasi bo‘yicha korxona banklardagi chetel valyutasi schyotlarida bo‘lgan, hisobot davrining oxirgi sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha milliy valyutada baholangan valyuta mablag‘larining qoldig‘i ko‘rsatiladi. Chetel valyutasidagi pul mablag‘larining hisobi chetel valyutasidagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarida (5200) yuritiladi;

- 360-satr «Boshqa pul mablag‘lari va ekvivalentlari» moddasi bo‘yicha korxonaning bankdagi maxsus schyotlardagi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar (5500), pul ekvivalentlarini hisobga oluvchi schyotlar (5600), yo‘ldagi pul mablag‘lari (jo‘natmalari)ni hisobga oluvchi schyotlar (5700) hisobga olinadigan pul mablag‘lari qoldig‘i ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «Qisqa muddatli investitsiyalar» 370-satri moddasi bo‘yicha qisqa muddatli investitsiyalarni hisobga oluvchi schyotlarda (5800) hisobga olinadigan korxonaning boshqa korxonalar qimmatli qog‘ozlariga qisqa muddatli (12 oydan oshmaydigan muddatga) investitsiyalari, davlat va mahalliy zayom obligatsiyalari va shu singarilar, shuningdek boshqa korxonalarga berilgan qarzlar boshqa joriy investitsiyalar ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «Boshqa joriy aktivlar» 380-satri moddasi bo‘yicha mazkur hisobot davrida inventarizatsiya jarayonida aniqlangan, ular bo‘yicha aybdor shaxslar topilmagan kamomadlar, o‘g‘irliklar va qiymatliklarni shikastlashdan talafotlar summasi hamda yuqorida keltirilgan bo‘lim moddalarida nazarda tutilmagan, biroq korxona mulki hisoblangan boshqa joriy aktivlar ko‘rsatiladi, ular 5910 «Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar» va 5920 «Boshqa joriy aktivlar» schyotlarida hisobga olinadi.

Pul mablag‘lari va ekvivalentlari bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «7-bob. Pul mablag‘lari va ekvivalentlari hisobi» va «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ni aktiv qismining ***«II-bo‘lim bo‘yicha jami» 390-satr moddasi*** bo‘yicha 140, 190, 200, 210, 320, 370, 380-satrlar bo‘yicha summa ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning ***«Balans aktivi bo‘yicha jami» 400-satri moddasi*** bo‘yicha satrlarni qo‘shish yo‘li bilan olingan aktivning yakuniy summasi ko‘rsatiladi 130-satr+390-satr.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «O‘z mablag‘lari manbalari» bo‘limida ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali, sotib olingan xususiy aksiyalar, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar hamda kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervlari oshkor qilinishi kerak.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) da xususiy kapital bo‘yicha quyidagilar ko‘rsatiladi:

- 410-satr «Ustav kapitali» moddasi bo‘yicha ustav kapitalining ta’sis hujjatlarida korxona ta’sischilari ulushlari (hissalari, nominal qiymat bo‘yicha aksiyalari, pay badallari)ning jami sifatida ro‘yxatga olingan miqdori ko‘rsatiladi. Ustav kapitalining hisobi ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda (8300) yuritiladi;

- 420-satr «Qo‘shilgan kapital» moddasi bo‘yicha aksiyalarni nominal qiymatdan yuqori narxlarda birlamchi sotish chog‘ida olingan emission daromad summasi, korxonaning ustav sarmoyasini shakllantirish chog‘ida ta’sis hujjatlarini ro‘yxatga olish sanasi bilan mablag‘larni ustav sarmoyasiga haqiqatda kiritish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kurslari o‘rtasida yuzaga keladigan kurslardagi farq summasi ko‘rsatiladi, ularning hisobi qo‘shilgan kapitalni hisobga oluvchi schyotlarda (8400) yuritiladi;

- 430-satr «Rezerv kapitali» moddasi bo‘yicha korxona ustaviga ko‘ra foyda hisobiga, mol-mulkni qayta baholash chog‘ida hosil bo‘ladigan inflyatsion zaxiralar, tekinga olingan mol-mulk hisobiga tashkil etilgan, hisobi rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda (8500) yuritiladigan rezervlar summasi ko‘rsatiladi.

Mazkur modda bo‘yicha imtiyozli davr tugaganidan keyin 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyotidan 8530 «Tekinga olingan mulk» schyoti kreditiga hisobdan chiqariladigan, soliq solishdan ozod qilish natijasida bo‘shaydigan mablag‘larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo‘naltirish sharti bilan bojxona to‘lovlarini, byudjetga soliqlar va majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha soliq imtiyozlari summalari ham aks ettiriladi;

- 440-satr «Sotib olingan xususiy aksiyalar» moddasi bo‘yicha korxonada bo‘lgan, ularni keyinchalik tarqatish yoki yo‘q qilish (bekor qilish) uchun sotib olingan xususiy aksiyalari, hissalari va paylarining qiymati ko‘rsatiladi. Sotib olingan xususiy aksiyalari, hissalari va paylari sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlarda (8600) hisobga olinadi;

- 450-satr «Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» moddasi bo‘yicha hisobot davrining sof foydasi (qoplanmagan zarari) va o‘tgan yillarning jamg‘arilgan foydasi (qoplanmagan zarari) summasi qo‘shilgan holda aks ettiriladi. Hisobot davrining sof foydasi (zarari) ning hisobi 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyotida va o‘tgan

yillarning jamg‘arilgan foydasi (qoplanmagan zarari) ning hisobi esa 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyotida yuritiladi. Agar korxona zarar olgan bo‘lsa, hisobot davrining oxirida ushbu zarar ushbu modda bo‘yicha «minus» belgisi bilan ko‘rsatiladi;

- 460-satr «Maqsadli tushumlar» moddasi bo‘yicha maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlarda (8800) hisobga olingan olingan grantlar, subsidiyalar, a’zolik badallari, maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari summalari va maqsadli tadbirlarni amalga oshirish uchun boshqa maqsadli tushumlar ko‘rsatiladi;

- 470-satr «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervlari» moddasi bo‘yicha korxona tomonidan bo‘lg‘usi xarajatlar va to‘lovlar uchun xarajatlarda bir tekisda taqsimlash maqsadida rezerv qilingan mablag‘lar ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ni passiv qismining ***«I bo‘lim bo‘yicha jami»*** 480-satri moddasi bo‘yicha quyidagi natija ko‘rsatiladi: 410-satr+420-satr+430-satr-440-satr+450-satr+460-satr+470-satr.

Korxonaning xususiy kapitali tarkibiga kiruvchi hisob obyektlarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «10-bob. Xususiy kapital hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «Majburiyatlar» bo‘limida uzoq muddatli va joriy majburiyatlar bo‘yicha axborotlar alohida oshkor etilishi lozim.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) da uzoq muddatli majburiyatlar bo‘yicha mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarzlar, ajratilgan bo‘linmalarga uzoq muddatli qarzlar, Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga uzoq muddatli qarzlar, uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar, soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar, xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar, uzoq muddatli bank kreditlari, uzoq muddatli qarzlar va boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari summalari ko‘rsatilishi kerak.

Foiz stavkalari, to‘lash shartlari, shartnoma majburiyatlari, to‘lash navbatliligi, muomala shartlarini umumlashtirish hamda mukofot va diskont summalari buxgalteriya balansi qismida tushuntirish xatida ko‘rsatilishi lozim.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) da joriy majburiyatlar bo‘yicha mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarzlar, ajratilgan bo‘linmalarga qarzlar, Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga qarzlar, kechiktirilgan daromadlar, soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar, boshqa kechiktirilgan majburiyatlar, olingan bo‘naklar, byudjetdan soliqlarga oid qarzlar, sug‘urtaga oid qarzlar, maqsadli davlat jamg‘armalaridan to‘lovlarga oid qarzlar, ta’sischilardan qarzlar, mehnatga haq to‘lashga oid qarzlar, qisqa muddatli bank kreditlari, qisqa muddatli qarzlar, uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi va boshqa kreditorlik qarzlari summalari oshkor qilinadi.

Agar korxona kredit bitimiga binoan uzoq muddatli asosda majburiyatlarni qayta moliyalashni nazarda tutayotgan bo‘lsa, uzoq muddatli majburiyatlarning joriy ulushi joriy majburiyatlardan chiqarib tashlanadi. Bunday holda majburiyatlar summasi va qayta moliyalash shartlari oshkor etilishi kerak.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «Uzoq muddatli majburiyatlar, jami» 490-satri moddasi bo‘yicha korxonaning 500, 520, 530, 540, 550, 560, 570, 580, 590-satrlarda ko‘rsatilgan uzoq muddatli majburiyatlari (to‘lash muddati bir yildan ortiq bo‘lgan) ko‘rsatiladi. 491-satrda ma’lumot uchun korxonaning 500, 520, 540, 560, 590-satrlarda ko‘rsatilgan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari summasi ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) da uzoq muddatli majburiyatlar bo‘yicha quyidagilar ko‘rsatiladi:

- 500-satr «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilardan uzoq muddatli qarz» moddasi

bo‘yicha 7010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» va 7020 «Berilgan veksellar» schyotlarida hisobga olinadigan olingan mol-mulk, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli majburiyatlar summasi ko‘rsatiladi;

- 510-satr «Ajratilgan bo‘linmalarga uzoq muddatli qarz» moddasi bo‘yicha 7110 « Ajratilgan bo‘linmalarga bo‘lgan uzoq muddatli qarz» schyotida hisobga olinadigan ajratilgan bo‘linmalar (filiallar, vakolatxonalar)ga uzoq muddatli majburiyatlar aks ettiriladi. Mazkur modda bo‘yicha axborotlar ma’lumot sifatida keltirilgan va «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning umumiy summasiga qo‘shilmaydi;

- 520-satr «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga uzoq muddatli qarz» moddasi bo‘yicha hisobi 7120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga bo‘lgan uzoq muddatli qarz» schyotida hisobga olinadigan Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga uzoq muddatli qarzlar (ichki idora hisob-kitoblari) aks ettiriladi;

- 530-satr «Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» moddasi bo‘yicha 7210 «Diskont (chegirma) lar ko‘rinishidagi uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar», 7220 «Mukofot (ustama) lar ko‘rinishidagi uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar», 7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» schyotlarida hisobga olinadigan korxonalarning uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlari summasi ko‘rsatiladi;

- 540-satr «Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» moddasi bo‘yicha tegishli Hukumat idoralarining qaroriga muvofiq korxonalarning soliqlar bo‘yicha kechiktirilgan uzoq muddatli majburiyatlari summasi ko‘rsatilib, ularning hisobi 7240 «Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyotida amalga oshiriladi;

- 550-satr «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» moddasi bo‘yicha 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirlgan foyda solig‘i bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar», 7290 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar» schyotlarida hisobga olinadigan korxonalarning moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq, kechiktirilgan boshqa uzoq muddatli majburiyatlari summasi ko‘rsatiladi;

- 560-satr «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» moddasi bo‘yicha 7310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyotida hisobga olingan, kelgusi hisob-kitoblar bo‘yicha bo‘naklar ko‘rinishida boshqa korxonalardan olingan uzoq muddatli qarzlar summasi ko‘rsatiladi;

- 570-satr «Uzoq muddatli bank kreditlari» moddasi bo‘yicha 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyotida hisobga olingan, olingan uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha banklardan qarz summalari ko‘rsatiladi;

- 580-satr «Uzoq muddatli qarzlar» moddasi bo‘yicha 7820 «Uzoq muddatli qarzlar», 7830 «To‘lanadigan obligatsiyalar», 7840 «To‘lanadigan veksellar» schyotlarida hisobga olingan, boshqa korxonalar va muassasalardan uzoq muddatli qarzlar bo‘yicha qarz summalari ko‘rsatiladi;

- 590-satr «Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlar» moddasi bo‘yicha turli kreditorlarga bo‘lgan uzoq muddatli qarzlarni hisobga oluvchi schyotlarda (7900) hisobga olingan, korxonaning ijaraga beruvchi (lizing beruvchi), xodimlar, turli jismoniy va yuridik shaxslar oldida turli xil notijoriy operatsiyalar bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlari summalari, sud organlarining ijro hujjatlari yoki qarorlari asosida turli korxonalar va ayrim shaxslar foydasiga korxona xodimlarining ish haqidan ushlangan summalar ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning «Joriy majburiyatlar, jami» 600-satri moddasi bo‘yicha 610, 630, 640, 650, 660, 670, 680, 690, 700, 710, 720, 730, 740, 750, 760-satrlarda ko‘rsatilgan korxona joriy majburiyatlarining (bir yildan kam bo‘lgan muddatli) summasi aks ettiriladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning 601-satrida ma’lumot sifatida 610, 630, 650, 670, 680, 690, 700, 710, 720, 760-satrda ko‘rsatilgan korxona joriy kreditorlik qarzlarining summasi ko‘rsatiladi va «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning umumiy summasiga qo‘shilmaydi..

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning 602-satrda ma’lumot sifatida korxona joriy kreditorlik qarzlarining muddati o‘tkazib yuborilgan qismi ko‘rsatiladi va «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning umumiy summasiga qo‘shilmaydi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) da joriy majburiyatlar bo‘yicha quyidagilar ko‘rsatiladi:

- 610-satr «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz» moddasi bo‘yicha 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» va 6020 «Berilgan veksellar» schyotlarida hisobga olinadigan olingan mol-mulk, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga joriy majburiyatlar summasi ko‘rsatiladi;

- 620-satr «Ajratilgan bo‘linmalarga qarz» moddasi bo‘yicha 6110 «Ajratilgan bo‘linmalarga to‘lanadigan schyotlar» schyotida hisobga olinadigan ajratilgan bo‘linmalar (filiallar, vakolatxonalar)ga joriy majburiyatlar aks ettiriladi. Mazkur modda bo‘yicha axborotlar ma’lumot sifatida keltirilgan va «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning umumiy summasiga qo‘shilmaydi;

- 630-satr «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga qarz» moddasi bo‘yicha hisobi 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga to‘lanadigan schyotlar» schyotida hisobga olinadigan Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga joriy qarzlar (ichki idora hisob-kitoblari) aks ettiriladi;

- 640-satr «Kechiktirilgan daromadlar» moddasi bo‘yicha 6210 «Diskont (chegirma) lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar», 6220 «Mukofot (ustama) lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlar», 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyotlarida hisobga olinadigan korxonalarning kechiktirilgan majburiyatlari summasi ko‘rsatiladi;

- 650-satr «Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar» moddasi bo‘yicha tegishli hukumat idoralarining qaroriga muvofiq korxonalarning soliqlar bo‘yicha kechiktirilgan uzoq muddatli majburiyatlari summasi ko‘rsatilib, ularning hisobi 6240 «Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar» schyotida amalga oshiriladi;

- 660-satr «Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar» moddasi bo‘yicha 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirlgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar», 6290 «Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar» schyotlarida hisobga olinadigan korxonalarning moliya-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq, kechiktirilgan boshqa uzoq muddatli majburiyatlari summasi ko‘rsatiladi;

- 670-satr «Olingan bo‘naklar» moddasi bo‘yicha olingan bo‘naklarni hisobga oluvchi schyotlarda (6300) hisobga olingan, kelgusi hisob-kitoblar bo‘yicha bo‘naklar ko‘rinishida boshqa korxonalardan olingan uzoq muddatli qarzlar summasi ko‘rsatiladi;

- 680-satr «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz» moddasi bo‘yicha 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlar bo‘yicha)» schyotida hisobga olinadigan, byudjetga soliqlarning barcha turlari, jumladan jismoniy shaxslar daromad solig‘i summasi bo‘yicha korxonaning qarzi ko‘rsatiladi;

- 690-satr «Sug‘urta bo‘yicha qarz» moddasi bo‘yicha 6510 «Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar» schyotida hisobga olinadigan sug‘urta bo‘yicha to‘lovlarga doir qarz ko‘rsatiladi;

- 700-satr «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz» moddasi bo‘yicha 6520 «Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar» va 6530-«SHaxsiy jamg‘arib boriladigan schyotlarga to‘lovlar» schyotlarida hisobga olinadigan, korxonaning maqsadli davlat jamg‘armalaridan qarzi ko‘rsatiladi.

- 710-satr «Ta’sischilarga qarz» moddasi bo‘yicha 6610 «To‘lanadigan dividendlar» va 6620 «Chiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari bo‘yicha qarz» schyotlarida amalga oshiriladigan, korxonaning ta’sischilar oldida dividendlar va chiqib ketayotgan ta’sischilar oldida ularning ulushi bo‘yicha majburiyatlari summasi ko‘rsatiladi;

- 720-satr «Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarz» moddasi bo‘yicha 6710 «Mehnatga haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar» va 6720 «Deponentlangan ish haqi» schyotlarida hisobga olingan, hisoblangan, lekin hali to‘lanmagan mehnatga haq to‘lash summalari, mukofotlar, nafaqalar va h.k.lar ko‘rsatiladi;

- 730-satr «Qisqa muddatli bank kreditlari» moddasi bo‘yicha 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» schyotida hisobga olingan, olingan qisqa muddatli kreditlar bo‘yicha banklardan qarz summalari ko‘rsatiladi;

- 740-satr «Qisqa muddatli qarzlar» moddasi bo‘yicha 6820 «Qisqa muddatli qarzlar», 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar», 6840 «To‘lanadigan veksellar» schyotlarida hisobga olingan, boshqa korxonalar va shaxslardan olingan qarzlar (zayomlar) bo‘yicha qarz summalari ko‘rsatiladi;

- 750-satr «Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi» moddasi bo‘yicha 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlarning - joriy qismi» schyotida hisobga olinadigan korxona uzoq muddatli majburiyatlarining joriy qismi summalari ko‘rsatiladi;

- 760-satr «Boshqa kreditorlik qarzlari» moddasi bo‘yicha 6910 «To‘lanadigan operativ ijara», 6920 «Hisoblangan foizlar», 6930 «Royalti bo‘yicha qarz», 6940 «Kafolatlar bo‘yicha qarz», 6960 «Da’volar bo‘yicha to‘lanadigan schyotlar», 6970 «Hisobdor shaxslarga qarz» va 6990 «Boshqa majburiyatlar» schyotlarida hisobga olinadigan korxonaning turli kreditorlari bilan operatsiyalar bo‘yicha qarz summalari ko‘rsatiladi.

Kreditorlik qarzlarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ni passiv qismining ***«II bo‘lim bo‘yicha jami» 770-satri moddasi*** bo‘yicha 490 va 600-satrlar bo‘yicha summa ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning ***«Balans passivi bo‘yicha jami» 780-satr moddasi*** bo‘yicha 480 va 770-satrlar bo‘yicha summalar natijasi sifatida olingan passivning yakuniy summasi ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning ***«Balansdan tashqari schyotlarda hisobga olinadigan qiymatliklarlarning mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot» 790-920-satrlarida*** korxonaga tegishli bo‘lmagan, lekin vaqtincha foydalanadigan yoki uning tasarrufida bo‘lgan qiymatliklar (operativ ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar, mas’uliyatli saqlashdagi, qayta ishlanayotgan va h.k. moddiy boyliklar), shartli huquqlar va majburiyatlar mavjudligi to‘g‘risidagi, shuningdek korxonaning balansdan tashqari schyotlarida hisobga olinadigan ayrim xo‘jalik operatsiyalarini nazorat qilish uchun axborot ko‘rsatiladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ga ilova sifatida ***«Muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrokasi»*** ham taqdim etiladi. «Muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrokasi» da korxonaning muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarining holati hisobot davrining oxirgi sanasiga aks ettiriladi. Ushbu rasshifrovka buxgalteriya balansini

tuzish sanasiga korxonaning muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari mavjud bo‘lsagina to‘ldiriladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ga ilova qilinadigan «Muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrokasi» ning 2-ustun - «Muddati o‘tgan qarzdorlikka ega bo‘lgan debitor va kreditorlar ro‘yxati»da - debitor (kreditor)dan yuqori turadigan vazirliklar (idoralar) kesimidagi debitorlar va kreditorlar ro‘yxati keltiriladi. Agar debitor (kreditor) yuqori turadigan vazirlikka (idoraga) ega bo‘lmasa, debitor (kreditor) bo‘lgan yuridik shaxsning to‘liq nomini ko‘rsatish lozim.

O‘zbekiston Respublikasining tashqarisidagi muddati o‘tgan qarzlar bo‘yicha debitor (kreditor) nomi (to‘liq yoki umumqabul qilingan qisqartirishlar bilan) ko‘rsatiladi, shuningdek qavslarda mamlakatning nomi ko‘rsatiladi.

2-ustunda 2.1, 2.2.1, 3.1, 5.1, 5.2.1, 6.1-satrlar bo‘yicha majburiy tartibda muddati o‘tgan qarzdorlikka ega bo‘lgan debitor (kreditor)ning nomini ko‘rsatish lozim.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ga ilova qilinadigan «Muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrokasi» ning 3-ustunda qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarida so‘ndirilmagan, muddati o‘tgan qarzdorlikning umumiy summasi ko‘rsatiladi, xususan:

- 1-satr bo‘yicha muddati o‘tgan debitorlik qarzining umumiy summasi ko‘rsatiladi, u 3-ustunning 2 va 3-satrlari summasiga teng bo‘lishi kerak;

- 4-satr bo‘yicha muddati o‘tgan kreditorlik qarzining umumiy summasi ko‘rsatiladi, u 3-ustunning 5 va 6-satrlari summasiga teng bo‘lishi kerak.

Muddati o‘tgan debitorlik qarzining umumiy summasi «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ining 211-satri summasiga muvofiq kelishi lozim.

Muddati o‘tgan kreditorlik qarzining umumiy summasi «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ning 602-satri summasiga muvofiq kelishi lozim.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) ga ilova qilinadigan «Muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrokasi» ning 3-ustunda 2, 2.1, 2.2, 2.2.1, 3.3.1-satrlar bo‘yicha 1-satrda aks ettirilgan muddati o‘tgan debitorlik qarzi umumiy summasining quyidagi tartibdagi rasshifrovkasi keltiriladi:

- 2-satr bo‘yicha Respublika hududidagi muddati o‘tgan debitorlik qarzining umumiy summasi ko‘rsatiladi;

- 2.1-satr bo‘yicha Respublika hududidagi debitorlarning nomlari bo‘yicha muddati o‘tgan qarz ko‘rsatiladi;

- 2.2-satr bo‘yicha ichki idoraviy muddati o‘tgan debitorlik qarzining umumiy summasi keltiriladi;

- 2.2.1-satr bo‘yicha 2-satrdan ajratilgan, debitorlar nomlari bo‘yicha ichki idoraviy muddati o‘tgan qarz summasi ko‘rsatiladi;

- 3-satr bo‘yicha Respublika tashqarisidagi muddati o‘tgan debitorlik qarzining umumiy summasi ko‘rsatiladi;

- 3.1-satr bo‘yicha Respublika tashqarisidagi debitorlar nomlari bo‘yicha muddati o‘tgan qarz ko‘rsatiladi.

- 4, 5, 5.1, 5.2, 5.2.1, 6, 6.1-satrlar muddati o‘tgan debitorlik qarziga o‘xshash holda, yuqorida keltirilganlarga muvofiq to‘ldiriladi.

Korxonaga bog‘liq bo‘lmagan sabablar bo‘yicha yuzaga kelgan qarzlar bo‘yicha:

a) 4-ustunda korxonaga bog‘liq bo‘lmagan sabablar bo‘yicha yuzaga kelgan umumiy muddati o‘tgan qarz ko‘rsatiladi, xususan:

- 1-satr bo‘yicha - muddati o‘tgan debitorlik qarzining umumiy summasi, u 5, 6, 7, 8-ustunlarda ko‘rsatilgan summaga teng bo‘lishi kerak;

- 4-satr bo‘yicha - muddati o‘tgan kreditorlik qarzining umumiy summasi, u 5, 7, 8-ustunlarda ko‘rsatilgan summaga teng bo‘lishi kerak;

b) 5-ustunda korxonaning O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlariga ko‘ra oldindan haq to‘lanmasdan yuklab jo‘natilgan (olingan) mahsulot (ish, xizmat) bo‘yicha umumiy muddati o‘tgan debitorlik (kreditorlik) qarzi ko‘rsatiladi;

v) 6-ustunda davlat zaxiralari va jamg‘armalaridan xomashyo hamda materiallarni yuklab jo‘natish nazarda tutilgan o‘tkazilgan bo‘nak to‘lovlarining summasi ko‘rsatiladi. 6-ustunda aks ettiriladigan ma’lumot faqat muddati o‘tgan debitorlik qarzi qismida to‘ldiriladi;

g) 7-ustunda korxonaning O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlariga ko‘ra qarzni so‘ndirish muddati belgilangan tartibda kechiktirilgan muddati o‘tgan qarzi aks ettiriladi;

d) 8-ustunda qonun hujjatlariga muvofiq, taqdim etilgan da’volar bo‘yicha sudda ko‘rib chiqish jarayoni borayotgan muddati o‘tgan qarz summasi ko‘rsatiladi. Xuddi shu yerda kreditordan ushbu qarzni undirish to‘g‘risida xo‘jalik sudi qarorlari chiqarilgan muddati o‘tgan qarz ham aks ettiriladi.

Zarurat tug‘ilgan hollarda korxonalarga «Korxonalarga bog‘liq bo‘lmagan sabablar bo‘yicha vujudga kelgan muddati o‘tgan qarzlar» bo‘limida qo‘shimcha ustunlar ochishga ruxsat beriladi.

Muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrokasi satrlarining miqdori tegishlicha 2.1, 2.2.1, 3.1, 5.1, 5.2.1, 6.1-satrlar bo‘yicha ko‘rsatiladigan debitorlar va kreditorlar miqdoriga bog‘liq.

Muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari rasshifrokasi rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolanadi hamda har bir sahifada muhr bilan tasdiqlanadi.

4-§. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot

«Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) da quyidagilarni ochib berish zarur:

- mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum;
- mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishining yalpi moliyaviy natijalari;
- asosiy faoliyatdan keladigan boshqa operatsion daromadlari va xarajatlar;
- asosiy xo‘jalik faoliyati moliyaviy natijalari (foyda yoki zarar);
- moliyaviy faoliyatga doir boshqa daromadlar va xarajatlar;
- xo‘jalik umumiy faoliyatining moliyaviy natijasi;
- favqulodda foyda va zarar;
- foyda solig‘i to‘langunga qadar umumiy moliyaviy natijalar (foydalar yoki zararlar);
- hisobot davridagi sof foyda (zarar).

Respublikamizda korxonalar tomonidan «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) ni tuzish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bo‘yrug‘i (2-ilovaga qarang) bilan tasdiqlangan shaklda amalga oshiriladi. «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) ni to‘ldirish 3-son BHMS ga va «Moliyaviy hisobot shakllarini to‘ldirish bo‘yicha Qoidalar» da belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

«Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) ni har bir moddalari bo‘yicha to‘ldirish tartibini ko‘rib chiqamiz.

«Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) ning 3- va 4-ustunlarida o‘tgan yilnig shu davridagi daromadlar va xarajatlar bo‘yicha ma’lumotlar, ya’ni oldingi hisobot davri uchun «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) ning 5- va 6-ustunining ma’lumotlari ko‘rsatiladi.

«Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) da daromadlar va xarajatlar bo‘yicha quyidagilar ko‘rsatiladi va hisobot davrining yakuniy moliyaviy natijasi (sof foyda yoki zarar) aniqlanadi:

- 010-satr «Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum» moddasi bo‘yicha mahsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan olingan tushum ko‘rsatiladi, bunda soliqlar (qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq) hamda qaytarilgan tovarlar va tayyor mahsulotning qiymati, xaridorning sotish narxlaridan chegirmalari chegiriladi. Mazkur sart asosiy (operatsion) faoliyatning daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000) ma’lumotlari bo‘yicha to‘ldiriladi. Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga (lizingga) berish hisoblangan korxonalar 010-satr «Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum» moddasi bo‘yicha joriy hisobot davriga tegishli bo‘lgan daromad summasini, vositachi korxonalar esa komission haqlar summasini aks ettiradilar.

- 020-satr «Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi» moddasi bo‘yicha sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) tannarxini hisobga oluvchi schyotlarda (9100) hisobga olingan, sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar, xizmatlar) tannarxining summasi ko‘rsatiladi. Savdo korxonalari ushbu satr bo‘yicha sotilgan tovarlarning xarid qiymatini aks ettiradilar.

- 030-satrda «Mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan yalpi foyda (zarar)» summasi mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan sof tushum bilan sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) tannarxi o‘rtasidagi farq (010-satr-020-satr) sifatida aniqlanadi.

- 040-satr «Davr xarajatlari, jami» moddasi bo‘yicha 050, 060, 070, 080-satrlar bo‘yicha yakuniy summa aks ettiriladi;

- 050-satr «Sotish xarajatlari» moddasi bo‘yicha 9410 «Sotish xarajatlari» schyotida hisobga olingan va «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ning 2.1-bo‘limida keltirilgan xarajatlar: mahsulotni realizatsiya qilish xarajatlari, ya’ni mahsulotni iste’molchiga yetkazish, transport vositalariga ortish bilan bog‘liq xarajatlar, marketing bilan shug‘ullanadigan bo‘limlar va xodimlarning xarajatlari va h.k.lar aks ettiriladi;

- 060-satr «Ma’muriy xarajatlar» moddasi bo‘yicha 9420 «Ma’muriy xarajatlar» schyotida hisobga olinadigan va «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ning 2.2-bo‘limida keltirilgan xarajatlar: korxonani boshqarish xarajatlari, boshqaruv xodimlari mehnatiga haq to‘lash xarajatlari, umumma’muriy maqsaddagi asosiy vositalarni ta’mirlash, saqlash xarajatlari, umumxo‘jalik maqsadidagi xonalarning ijara haqi va boshqa ma’muriy xarajatlar aks ettiriladi;

- 070-satr «Boshqa operatsion xarajatlar» moddasi bo‘yicha 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyotida hisobga olinadigan va «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom» ning 2.3-bo‘limida keltirilgan xarajatlar: kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari, axboriy, auditorlik va maslahat xizmatlariga haq to‘lash xarajatlari, kompensatsiyalaydigan va rag‘batlantiradigan xususiyatdagi to‘lovlar, ish haqini hisoblashda hisobga olinmaydigan to‘lovlar va xarajatlar, bank, Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining va qimmatli qog‘ozlar bozori professional ishtirokchilarining xizmatlariga haq, zararlar, jarimalar, penyalar va operatsion faoliyat jarayonida yuzaga keladigan, ishlab chiqarish jarayoni, moliyaviy faoliyat bilan bog‘lanmagan va xarajatlarning favqulodda moddalari sifatlariga ega bo‘lmagan boshqa xarajatlar aks ettiriladi;

- 080-satr «Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari» moddasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 146-moddasiga ko‘ra kelgusida soliq solinadigan foydadan chegirib tashlanadigan hisobot davri xarajatlari aks ettiriladi va 9440 «Kelgusida soliq solinadigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari» schyotida umumlashtirilgan hisob ma’lumotlari bo‘yicha to‘ldiriladi;

- 090-satr «Asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar» moddasi bo‘yicha asosiy faoliyatning boshqa daromadlarini hisobga oluvchi schyotlarda (9300) hisobga olinadigan: asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishidan foyda, undirilgan jarima va penyalar, o‘tgan yillar foydasi, operativ ijaradan daromadlar, kreditorlik va deponentlik qarzini hisobdan chiqarishdan daromadlar, xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarning daromadlari, tekin moliyaviy yordam va boshqa operatsion daromadlar ko‘rsatiladi;

- 100-satr «Asosiy faoliyatdan foyda (zarar)» moddasi bo‘yicha korxona asosiy faoliyatining moliyaviy natijalari ko‘rsatiladi, ular mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotilishidan yalpi foyda (zarar)dan (030-satr) davr xarajatlari summasini (040-satr) ayirish hamda asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar summasini (090-satr) qo‘shish yo‘li bilan (030-satr – 040-satr + 090-satr) aniqlanadi;

- 110-satr «Moliyaviy faoliyatdan daromadlar, jami» moddasi bo‘yicha 120, 130, 140, 150, 160-satrlar bo‘yicha yakuniy summa aks ettiriladi;

- 120-satr «Dividendlar ko‘rinishida daromadlar» moddasi bo‘yicha 9520 «Dividendlar ko‘rinishida daromadlar» schyotida hisobga olinadigan: O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida boshqa korxonalar faoliyatida ulushbay ishtirok etishdan olingan daromadlar, korxona egaligida bo‘lgan aksiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha dividendlar aks ettiriladi;

- 130-satr «Foizlar ko‘rinishida daromadlar» moddasi bo‘yicha 9530 «Foizlar ko‘rinishida daromadlar» schyotida hisobga olinadigan: uzoq muddatli va joriy investitsiyalar bo‘yicha foizlar ko‘rinishida daromadlar ko‘rsatiladi.

- 140-satr «Moliyaviy ijaradan daromadlar» moddasi bo‘yicha asosiy faoliyati mol-mulkni moliyaviy ijaraga berish hisoblanmagan korxonalar mol-mulkni moliyaviy ijaraga berishdan olgan daromadlarini aks ettiradilar, ularning hisobi 9550 «Moliyaviy ijaradan daromadlar» schyotida amalga oshiriladi. Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlarni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalari hisobi» da ko‘rib chiqilgan;

- 150-satr «Valyuta kursi farqidan daromadlar» moddasi bo‘yicha 9540 «Valyutalar kursi farqidan daromadlar» schyotida hisobga olinadigan, shu jumladan balansni tuzish sanasida balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan, valyuta operatsiyalari bo‘yicha musbat kurslardagi farqlardan daromadlar aks ettiriladi. Balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash va natijada vujudga keladigan kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilishi tartibi hamda ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish, shuningdek ular bilan bog‘liq operatsiyalarni soliqqa tortish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan;

- 160-satr «Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar» moddasi bo‘yicha 9510 «Royalti ko‘rinishida daromadlar», 9560 «Qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashdan daromadlar». 9590 «Moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar» schyotlarida hisobga olinadigan: qimmatli qog‘ozlarni qayta baholashlarni o‘tkazishdan daromadlar, royalti ko‘rinishida daromadlar va moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar ko‘rsatiladi;

- 170-satr «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar, jami» moddasi bo‘yicha 180, 190, 200, 210-satrlar bo‘yicha yakuniy summa aks ettiriladi;

- 180-satr «Foizlar ko‘rinishida xarajatlar» moddasi bo‘yicha 9610 «Foizlar ko‘rinishida xarajatlar» schyotida hisobga olinadigan, banklar kreditlari va qarzlar bo‘yicha foizlarni to‘lash xarajatlari ko‘rsatiladi;

- 190-satr «Moliyaviy ijara bo‘yicha foizlar shaklidagi xarajatlar» moddasi bo‘yicha 9610 «Foizlar ko‘rinishida xarajatlar» schyotida hisobga olinadigan moliyaviy ijara bo‘yicha foizlarni to‘lashga xarajatlar aks ettiriladi.

- 200-satr «Valyuta kursi farqidan zararlar» moddasi bo‘yicha 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyotida hisobga olinadigan, valyuta operatsiyalari bo‘yicha va balans tuzish sanasida balansning valyuta moddalarini qayta baholashdan manfiy kurslardagi farqlar aks ettiriladi. Balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash va natijada vujudga keladigan kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilishi tartibi hamda ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish, shuningdek ular bilan bog‘liq operatsiyalarni soliqqa tortish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan;

- 210-satr «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar» moddasi bo‘yicha 9630 «Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bo‘yicha xarajatlar» va 9690 «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar» schyotlarida hisobga olinadigan, qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar hamda moliyaviy faoliyatga doir boshqa xarajatlar aks ettiriladi;

- 220-satr «Umumxo‘jalik faoliyatidan foyda (zarar)» moddasi bo‘yicha korxonaning umumxo‘jalik faoliyatiga doir, asosiy faoliyatdan foyda (zarar) summasiga (100-satr) moliyaviy faoliyatdan daromadlar summasini (110-satr) qo‘shish va moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar summasini (170-satr) ayirish yo‘li bilan belgilanadigan moliyaviy natijalar (100-satr + 110-satr – 170-satr) ko‘rsatiladi;

- 230-satr «Favqulodda foyda va zararlar» moddasi bo‘yicha favqulodda voqealar natijalari ko‘rsatiladi, «Daromadlar (foyda)» ustuni 9710 «Favquloddagi foydalar» schyotining ma’lumotlari, «Xarajatlar (zararlar)» ustuni esa 9720 «Favquloddagi zararlar» schyotining ma’lumotlari bo‘yicha to‘ldiriladi;

- 240-satr «Foyda solig‘ini to‘lgunga qadar foyda (zarar)» moddasi bo‘yicha +/- belgisini hisobga olgan holda 220 va 230-satrlarni qo‘shish natijalari aks ettiriladi;

- 250-satr «Foyda solig‘i» moddasi bo‘yicha hisobot davri boshidan hisoblangan, 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar» schyotida hisobga olingan foyda solig‘i summasi ko‘rsatiladi;

- 260-satr «Foydadan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar» moddasi bo‘yicha yil boshidan hisoblangan, qonun hujjatlariga muvofiq korxona foydasi hisobidan to‘lanayotgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar summasi aks ettiriladi.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq solishning maxsus tartibi nazarda tutilgan korxonalar 260-satr «Foydadan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar» bo‘yicha hisoblangan yagona soliq to‘lovi, yagona yer solig‘i, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliq summasini aks ettiradilar.

- 270-satr «Hisobot davrining sof foydasi (zarari)» moddasi bo‘yicha hisobot davrining pirovard moliyaviy natijasi ko‘rsatiladi, u 240-250-260-satrlar ayirmasi sifatida belgilangan.

Moliyaviy natijalarni shakllanishi va ularni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «12. Moliyaviy natijalarni shakllantirish va hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

«Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) ning «Byudjetga to‘lovlar to‘g‘risida ma’lumot» da (280-470-satrlar) korxonalar tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq hisoblangan va to‘lanadigan soliqlar va to‘lovlar turlari bo‘yicha byudjetga va maqsadli davlat

jamg‘armalariga to‘lovlar ko‘rsatiladi. Mazkur ma’lumotda 440-satr bo‘yicha korxonalar tomonidan hisoblangan va to‘lanadigan byudjetga to‘lovlarning yakuniy summasi ko‘rsatiladi. Mazkur ma’lumotning 480-satrida korxonalar tomonidan hisobot davri uchun byudjetga soliqlar va maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlarning hisoblangan va to‘langan jami summasi ko‘rsatiladi.

Agarda korxonalarda hisobot davri uchun hisob-kitoblar bo‘yicha qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha manfiy farq mavjud bo‘lsa, «Hisobot davri uchun hisob-kitob bo‘yicha to‘lanadi» ustuni bo‘yicha 310-satrda ushbu manfiy farq summasi «minus» belgi bilan ko‘rsatiladi.

5-§. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot

«Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) foydalanuvchilarga ularni hisobot davri davomida pul mablag‘larining kelib tushishi va chiqib ketishi haqidagi ma’lumot bilan ta’minlab, korxonaning moliyaviy ahvolidagi o‘zgarishni baholash imkoniyatini yaratadi.

Respublikamizda korxonalar tomonidan «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ni tuzish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bo‘yrug‘iga (3-ilovaga qarang) bilan tasdiqlangan shaklda amalga oshiriladi. «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ni to‘ldirish 9-son BHMS ga va «Moliyaviy hisobot shakllarini to‘ldirish bo‘yicha Qoidalar» da belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Faoliyatining xususiyatlaridan qat’iy nazar har qanday korxona faoliyatini amalga oshirish uchun, majburiyatlarini bajarish uchun, investorlarning daromadlarini ta’minlash uchun pul mablag‘lari zarur bo‘ladi. Shuning uchun, «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) da operatsion, investitsiyaviy va moliyaviy faoliyat kesimida hisobot davridagi pul mablag‘lari oqimlari ko‘rsatiladi.

Boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birga foydalanish chog‘ida pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotining moliyaviy axborotlari moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun korxonaning pul mablag‘larini va ularning ekvivalentlarini jalb etish qobiliyatini baholashga baza bo‘lib xizmat qilishi bilan foydalidir. «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) pul tushumlari va to‘lovlarini uchta asosiy toifaga ajratadi: operatsion faoliyati, investitsiya faoliyati va moliyaviy faoliyat. Har uch toifaning pul mablag‘iga birgalikda ta’siri hisobot davrida pul mablag‘ining sof o‘zgarishini belgilab beradi. Pul oqimlari harakati to‘g‘risidagi axborot bo‘lajak pul oqimlari prognozi to‘g‘riligini tekshirish chog‘ida, foyda olish va pul oqimlarining sof harakati va narx o‘zgarishi ta’siri o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qilish chog‘ida zarur bo‘ladi. Moliyaviy hisobot foydalanuvchilari undan korxonaning pul mablag‘lari holati va harakati to‘g‘risidagi hajm jihatdan cheklangan, lekin axborot jihatdan to‘liq ma’lumotlarni olishni ko‘zda tutadi, ular moliyaviy hisobotning boshqa shakllari ko‘rsatkichlari bilan uyg‘unlikda:

- korxonaning pul aylanmasining masshtabini aks ettiradi (pul mablag‘lari qaerdan kelib tushdi; ularning kelib chiqish xususiyati qanday; ular sarflanganda nimaga yo‘naltirilgan);
- korxona tomonidan mulkdorlar, ish hamkorlari, davlat va xodimlari oldidagi majburiyatlari qanday bajarilganligi holatlarini ochib beradi. Majburiyatlarni qoplash korxonaning joriy likvidligini va uzoq muddatli to‘lov qobiliyatini baholash imkoniyatini yaratadi;
- korxonaning xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirish natijasida pul mablag‘larini shakllantirish qobiliyatini ko‘rsatadi va shu bilan korxonaning kredit berish qobiliyati darajasini, korxonaning faoliyat masshtablarini kengaytirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini aks ettiradi (investitsion loyihalashtirish, kapitalni byudjetlashtirish,

kassa smetalarini nazorat qilish yo‘li bilan). Pul aylanmasi to‘g‘risidagi ma’lumot korxonaning kelgusida ham pul mablag‘lari kirimi uning chiqimidan yuqori bo‘lishini ta’minlash imkoniyatini baholashda yordam beradi;

- korxonaning pul mablag‘lari o‘sishi va sof foydasi orasidagi farqlarning sabablarini aniqlash imkonini beradi; daromadlar, xarajatlar, zaxiralar, qarzdorlik, pul mablag‘larining kelib tushishi va sarflanishi orasidagi yaqqol bog‘liqlikni ta’minlaydi. Bu pul mablag‘larini jalb etish sharoitlarini, pul mablag‘larining harakatsizligi hajmini baholash va shuningdek, korxonaning daromad shakllantirmaydigan ichki pul aylanmalarining natijalarini ko‘rib chiqishga yordam beradi;

- qarzdorlik majburiyatlariga xizmat ko‘rsatish jarayonini nazorat qilish va qarzning asosiy summasini qoplash uchun zarur rezervlarni shakllantirish imkoniyatini yaratadi (qoplash fondlarini, qayta sotib olish fondlarini shakllantirish va h.k.lar).

Yuqoridagi maqsadlardan tashqari, «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ning ma’lumotlari aktivlarning aylanuvchanligini baholashda, investitsiyalar va kelgusi iqtisodiy naflarni diskontlash modellarini yaratishda, pul mablag‘larining optimal qoldiqlarini baholashda keng qo‘llaniladi. Pul mablag‘larining byudjeti va smetalari xo‘jalik yuritishning zamonaviy sharoitlarida biznesni rejalashtirishning me’yori bo‘lib qoldi.

Pul mablag‘lari va ekvivalentlari bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «7-bob. Pul mablag‘lari va ekvivalentlari hisobi» va «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Korxona aktivlarining pul toifalari harakati moliyaviy rejalashtirishda, moliyaviy menejmentda, moliyaviy nazoratda va tahlilda, korxonaning nafaqat likvidlik va to‘lovga qobilligi xususiyatlari bilan bog‘liq holda, balki korxonaning pul mablag‘lari qiymatning qanday o‘sganligini ta’minlayotganligini nazorat qilish uchun faol qo‘llaniladi. Buni hisobga olish avvalo, shuning uchun ham lozimki chunki ular daromad keltirmaydigan aktiv sanaladi. Ularning tijoriy foydaliligi va samaradorligi faqatgina ular xo‘jalik aylanmasidaligida namoyon bo‘ladi.

Respublikamizdagi me’yoriy hujjatlarning talablariga muvofiq «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) kassa, hisob-kitob schyoti, valyuta schyotlari va banklardagi maxsus schyotlarning buxgalteriya schyotlarida yig‘iladigan ma’lumotlar asosida shakllantiriladi. Shunday qilib, hisobotni tuzishda e’tiborga olinadigan asosiy xususiyat – likvidlikdir.

Xalqaro standartlarda pul mablag‘larining kontseptsiyasi kengroq aks ettirilgan – pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari ko‘rinishida, ya’ni hisobotni tuzishda likvidlikdan tashqari moliyaviy daromadli instrumentlarga yo‘naltirilgan vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini hisobga oladi. Bunday axborotning ochib berilishi foydalanuvchi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

«Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ning ko‘rsatkichlari 21-sonli BHMS dagi schyotlari Rejasining aniq moddalarini qaytarmasligi mumkin. Hisobotda ma’lumotlarni umumlashtirishdan maqsad nafaqat axborotlarni qisqacha taqdim etishdan iborat, balki undan kamroq muhim bo‘lmagan korxona pul mablag‘larining kelib chiqish va uni tijoriy ishlatish yo‘llari haqidagi muhim axborotni ham ko‘rsatishdan iborat. Tijorat korxonalarining faoliyatini moliyaviy nazorat va tahlil qilish nuqtai nazaridan pul mablag‘larining aylanmalarini ularning kelib chiqishini hisobga olgan holda shakllantirilgan holda tasniflash muhim ahamiyatga ega.

Bank zayomlari moliyaviy faoliyatga taalluqlidir, lekin talab qilingan paytda to‘lanadigan bank overdraftlari korxonalar pul mablag‘ini boshqarishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu munosabat bilan bank overdraftlari pul mablag‘ining tarkibiy qismi yoki ularning ekvivalenti hisoblanadi.

Pul oqimlari pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari moddalari o‘rtasidagi harakatni o‘z ichiga

olmaydi, chunki ular operatsiya, moliya yoki investitsiya faoliyatiga kirmaydi yoki korxonaning pul mablag‘larini boshqarishga taalluqlidir. Pul mablag‘larini boshqarish pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining ortiqchasini ishga solishni o‘z ichiga oladi.

«Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ni tuzishning umumiy g‘oyasi hisobot davri davomida operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyat natijasida yuzaga keladigan kiruvchi va chiquvchi pul oqimlarini aniqlashda namoyon bo‘ladi.

Bunday tasniflash avvalo, hisobotning foydalanuvchilari ushbu uchta yo‘nalishning korxonaning moliyaviy holatiga va uning pul mablag‘lari hamda pul ekvivalentlari hajmiga ta’sirini baholay olishlari uchun mo‘ljallangan. Korxona faoliyatining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda pul oqimlari operatsion, investitsion yoki moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘lari harakatiga kiritiladi.

Operatsion faoliyatdan pul mablag‘lari. Operatsion faoliyat **–** bu korxonaning daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo‘lmagan o‘zga xo‘jalik faoliyatidir. Operatsion faoliyat natijasida yuzaga kelgan pul oqimlarining hajmi korxonaning majburiyatlarini qoplash uchun, ishlab chiqishni ushlab turish uchun, dividendlarni to‘lash va moliyalashtirishning tashqi manbalarini jalb qilmasdan investitsiyalash uchun pul mablag‘larining yetarliligi indikatorini aks ettiradi. Qoidaga ko‘ra, bunday pul oqimlari korxonaning barqaror daromadini keltiruvchi faoliyati natijasida shakllanadi.

Korxonaning operatsion faoliyati natijasida vujudga keladigan pul oqimi hajmi korxona amalga oshiradigan operatsion faoliyati natijasida olinadigan pul oqimlari harakati ssudalarni to‘lash, korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab turish, dividendlarni to‘lash va moliyalashtirishning tashqi manbalariga murojaat qilinmay yangi investitsiyalar uchun qanchalik yetarli ekanini aks ettiruvchi asosiy ko‘rsatkich hisoblanadi. Operatsion faoliyatidan keladigan oldingi pul oqimining ayrim qismlari to‘g‘risidagi axborotdan operatsion faoliyatidan bo‘lajak pul oqimlarini prognoz qilish uchun axborotning boshqa turlaridan qo‘shib foydalanish mumkin bo‘ladi.

Operatsion faoliyatidan pul oqimi korxonaning asosiy faoliyatidan kelib chiqadi. Odatda korxonaning asosiy faoliyati mahsulotni sotishga, ishlarni bajarishga yoki xizmat ko‘rsatishga qaratilgan bo‘ladi. Operatsion faoliyatidan asosiy pul oqimiga quyidagilar kiradi:

- mahsulot (tovarlar)ni sotish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatishdan tushgan pul;
- royalti, badallar, vositachilik haqi va o‘zga yo‘llar bilan pul mablag‘lari tushumi;
- tovarlar va xizmatlar uchun ularni yetkazib beruvchilarga pul to‘lovlari;
- xodimlarga va xodimlar nomidan to‘lovlar;
- sug‘urta tashkilotining sug‘urta polislari bo‘yicha mukofotlari, talablari, yillik va o‘zga to‘lovlari bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari;
- soliqlar bo‘yicha pul to‘lovlari yoki uning o‘rnini bosuvchi to‘lovlar, agar ular investitsiya va moliya faoliyatiga taalluqli bo‘lmasa;
- savdo yoki dilerlik maqsadlarida tuzilgan bitimlar bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari va boshqalar.

Asosiy vositalarni sotish kabi ayrim operatsiyalar bo‘yicha foyda kelishi va zarar ko‘rilishi mumkin, ular sof foyda yoki zarar qatoriga kiritiladi. Lekin bunday bitimlar bo‘yicha pul oqimi investitsion faoliyatidan chiqadigan pul oqimlariga kiritiladi.

Korxona vositachilik yoki savdo maqsadlari uchun qimmatli qog‘ozlar yoki ssuda olgan bo‘lishi mumkin, bunday holatlarda ular qayta sotish uchun xarid qilingan tovar - moddiy zaxiralarga o‘xshash bo‘ladi. Bunday aktivlarni sotish va xarid qilishdan yuzaga keladigan

pul oqimlari operatsion faoliyatning pul oqimlari sifatida aks ettiriladi, chunki bunday operatsiyalarning iqtisodiy mazmuni korxonaning odatiy faoliyatiga taalluqlidir.

Operatsion faoliyatdan pul mablag‘lari harakatining hajmi ssudalarni to‘lash, ishlab chiqarish darajasini ushlab turish, dividendlarni to‘lash va moliyalashtirishning tashqi manbalarini jalb qilmasdan yangi kapital qo‘yilmalarni amalga oshirish uchun pul mablag‘larining yetarli darajadagi hajmini jamlash nuqtai nazaridan korxona faoliyati samaradorligining ahamiyatli ko‘rsatkichi hisoblanadi. Operatsion faoliyat bo‘yicha pul mablag‘lari harakati birinchi navbatda daromad olish bo‘yicha asosiy faoliyatning natijasi sanaladi. Operatsion faoliyat jarayonida yuzaga keladigan pul mablag‘larining harakatiga misol bo‘lib, quyidagilar xizmat qiladi:

- pul mablag‘larining kirimi:

- mahsulot, tovarlar, xizmatlar sotishdan;
- royaltidan (patentni ishlatish uchun to‘lov, mualliflik huquqlari va boshqalar), turli xususiyatdagi mukofotlar, foiz daromadlari, komission yig‘im va boshqa daromadlar;
- sug‘urta tashkilotidan sug‘urta mukofoti va da’volar va boshqa mukofotlar sifatidagi pul tushumlari;
- soliqlar bo‘yicha pul kompensatsiyalari, agar ularni moliyaviy va investitsion faoliyat bilan bog‘lab bo‘lmasa;
- dilerlik va savdo maqsadlarida tuzilgan shartnomalar bo‘yicha pul tushumlari.

- pul mablag‘larining chiqimi:

- mol yetkazib beruvchilarga tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovlar;
- korxona xodimlariga pul to‘lovlari, operatsion xarajatlar;
- sug‘urta tashkilotlariga sug‘urta to‘lovi sifatidagi pul to‘lovlari;
- soliqlar bo‘yicha pul to‘lovlari, agar ularni moliyaviy va investitsion faoliyat bilan bog‘lab bo‘lmasa;
- dilerlik va savdo maqsadlarida tuzilgan shartnomalar bo‘yicha pul to‘lovlari.

«Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ning «Operatsion faoliyat» bo‘limida quyidagi ma’lumot ko‘rsatiladi:

- 010-satr «Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari» moddasining summasi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning (5000, 5100, 5200, 5500, 5600) debeti va olinadigan schyotlarni hisobga oluvchi schyotlar (4000) va boshqa debitor qarzdorlikni hisobga oluvchi schyotlarning (4800) krediti bilan bog‘langan holda aylanmasidan shakllanadi, ya’ni hisobot davrida sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun korxonaning bank hisobvaraqlari va kassasiga kelib tushgan pul mablag‘lari summasidan shakllantiriladi;
- 020-satr «Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari» moddasining summasi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning (5000, 5100, 5200, 5500, 5600) krediti va to‘lanadigan schyotlarni hisobga oluvchi schyotlar (6000, 7000) va boshqa kreditor qarzdorliklarni hisobga oluvchi schyotlarning (6990) krediti bilan bog‘langan holda aylanmasidan shakllanadi. Ya’ni mahsulot yetkazib beruvchilarga materiallar, tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to‘langan pul mablag‘lari summasi ko‘rsatiladi, bundan uzoq muddatli aktivlarni xarid qilish uchun to‘lovlar mustasno;
- 030-satr «Xodimlarga va ular nomidan pul mablag‘lari» moddasining summasi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning (5000, 5100, 5200, 5500, 5600) krediti xodimlarga berilgan avanslarni hisobga oluvchi schyotlar (4200), sug‘urta va maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzni hisobga oluvchi schyotlar (6500) va mehnat

haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schyotlarning (6700) debeti bilan bog‘langan holda aylanmasidan shakllanadi, ya’ni xodimlarga mehnatga haq to‘lash ko‘rinishida to‘langan pul mablag‘lari summasi, shuningdek maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘langan mablag‘lar summalari, byudjetga jismoniy shaxslar daromad solig‘ini to‘lash, kasaba uyushmasiga ajratmalar, alimentlar, uy-joy fondiga, xodimlarga berilgan bank kreditlari bo‘yicha to‘lash, xodimlarga ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun korxonaning haq to‘lashi, kassadan va bank schyotlaridan xodimlar bilan va ular nomidan operatsiyalarga doir boshqa sarflashlar ko‘rsatiladi;

- 040-satr «Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to‘lovlar» moddasining summasi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning (5000, 5100, 5200, 5500, 5600) debeti va krediti bo‘yicha tegishli aktivlar va majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan aylanmasidan shakllanadi, ya’ni «chiqim» ustunida royalti, turli xil taqdirlashlar, komission yig‘imlar va boshqa operatsion faoliyatdan to‘langan pul mablag‘lari summasi, «kirim» ustunida esa ulardan olingan pul mablag‘lari summasi ko‘rsatiladi;

- 050-satr «Jami: operatsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi» moddasi bo‘yicha, «Kirim» ustuni bo‘yicha «+» belgisining va «Chiqim» ustuni bo‘yicha «-» belgisining ta’sirini hisobga olib, 010, 020, 030, 040-satrlarni qo‘shish natijasi ko‘rsatiladi.

Bunda «Kirim» ustuni summasi - «Chiqim» ustuni summasidan oshgan holda, oshgan saldo «Kirim» ustuni bo‘yicha, teskari holda esa – «Chiqim» ustuni bo‘yicha aks ettiriladi.

Investitsiya faoliyatidan pul mablag‘lari. Investitsiya faoliyati – bu pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya obyektlarini sotib olish va sotishdir. Pul oqimlari to‘g‘risidagi ikkinchi elementini alohida ko‘rib o‘tish mumkin – investitsiya faoliyati bilan bog‘liq pul aylanmalari. Faoliyatning bu turi korxonaning mablag‘larini kelgusida barqaror daromadlarni olishni ta’minlovchi va shuning uchun kapital aktivlar toifasiga (yoki investitsiya shaklidagi kapital qo‘yilmalarga) kiritiladigan uzoq muddatli moddiy va nomoddiy aktivlarga, qimmatli qog‘ozlar va huquqlarga joylashtiriladigan bilan bog‘liq. Investitsiyalar qoplash muddatiga o‘sib boruvchi xususiyatlarga egaligini hisobga olib, pul oqimlari tarkibida investitsion qo‘yilmalar bo‘yicha qaytadigan summalar ajratiladi. Korxona investitsiya faoliyatidan keladigan pul oqimi to‘g‘risidagi axborotni alohida ko‘rsatib beradi. Investitsiya faoliyatidan pul oqimi to‘g‘risidagi axborot kelajakda daromad va pul oqimi miqdorini belgilaydigan resurslar bo‘yicha qilingan xarajatlar darajasini ko‘rsatadi.

Investitsiya faoliyatidan olingan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

- asosiy vositalarni, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlarni xarid qilishga pul to‘lovlari. Bu to‘lovlar tajriba-konstruktorlik ishlariga ajratilgan sarmoyalashtirilgan xarajatlar, shuningdek xo‘jalik sudi bilan amalga oshirilgan qurilishlar bilan bog‘liq bo‘lgan to‘lovlarni o‘z ichiga oladi;

- asosiy vositalarni, nomoddiy va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan olingan pul tushumi;

- boshqa korxonalarning aksiyalari yoki qarz majburiyatlarini hamda qo‘shma korxonalarda ishtirok etish huquqini sotib olishga doir pul to‘lovlari, pul ekvivalentlari hisoblangan yoki dilerlik maqsadlariga yoki savdo maqsadlariga saqlab qo‘yilgan to‘lov hujjatlari bo‘yicha to‘lovlar (veksellar kabi hujjatlar bo‘yicha to‘lovlar)dan tashqari;

- boshqa korxonalarning aksiyalari va qarz majburiyatlarini hamda qo‘shma korxonalarda ishtirok etish huquqini sotishdan kelgan pul tushumlari, pul ekvivalenti hisoblangan yoki dilerlik yoki savdo maqsadlari uchun saqlanayotgan veksel kabi to‘lov hujjatlari bo‘yicha tushumlar bunga kirmaydi.

- boshqa korxonalarga berilgan bo‘naklar va kreditlar (moliyaviy muassasalarga berilgan bo‘naklar va kreditlardan tashqari);

- boshqa korxonalarga berilgan bo‘naklar va ssudalar qaytarilishidan pul tushumlari (moliyaviy muassasalarga berilgan bo‘naklar va kreditlardan tashqari);

- fyuchers va forvard bitimlari, optsion bitimlar va svop bitimlar bo‘yicha to‘lovlar, ular diler yoki savdo maqsadlari uchun mo‘ljallangan holatlar bundan mustasno bo‘ladi yoki to‘lovlar moliyaviy faoliyat sifatida tasnif etiladi.

- fyuchers va forvard bitimlari, optsion bitimlar va svop bitimlar bo‘yicha pul tushumlari, ular diler yoki savdo maqsadlariga mo‘ljallangan holatlar bundan mustasnodir yoki to‘lovlar moliyaviy faoliyat sifatida tasnif etiladi va boshqalar.

Bitim muayyan pozitsiyani xejlash (sug‘urtalash) sifatida hisobga olinadi, bitim bo‘yicha pul oqimi sug‘urta qilinadigan pozitsiyadan pul oqimi sifatida faoliyat turiga kiritiladi. Xej, xejlash tushunchasida subyekt taxmin qilingan yo‘qotishlarning o‘rnini qoplash niyatida xorijiy valyutada forvard, fyuchers bitimlari va boshqa bitimlar bo‘yicha aktivlar yoki majburiyatlarni sotib olish tarzida ifodalangan valyuta qiymati farqidan vujudga keladigan yo‘qotishlardan o‘zini holi qilish imkoniyatiga ega bo‘ladigan himoya vositasi sifatidagi bitim tushuniladi.

Sho‘ba yoki qaram xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar hisobda ulushli qatnashish usuli bo‘yicha yoki tannarxi bo‘yicha aks ettirilishi mumkin. Bunday holatda investor pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotda pul oqimlari harakati to‘g‘risidagi axborotni (dividendlarni, foizlarni) investitsiya obyektiga nisbatan aks ettiradi. Agar amalga oshirilgan qayta tashkil etish natijasida qayta tashkil etilgan korxonaning Sho‘ba va qaram korxonalariga nisbatan huquqlari huquqiy vorisga o‘tgan bo‘lsa, huquqiy voris, o‘z korxonasining dastlabki moliyaviy hisoboti bilan bir qatorda, agar korxona 8-sonli BHMS ga muvofiq birgalikda nazorat qilinadigan korxonadagi ulushini proportsional axborot usulida hisobot taqdim etsa, u pul oqimlari bo‘yicha jamlansa hisobotga birgalikda nazorat qiladigan korxona pul oqimlarining o‘z ulushini proportsional tarzda qo‘shadi. Ulushli qatnashish usulini qo‘llaganda pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotga birgalikda nazorat qilinadigan korxonaga korxona investitsiyalarining pul oqimlari, u va birgalikda nazorat qilinadigan korxonalar orasidagi taqsimlashlar va boshqa to‘lovlar yoki tushumlar kiritiladi.

Sho‘ba korxonalarni va boshqa xo‘jalik bo‘limlarini sotish va xarid qilish pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotda investitsion faoliyat sifatida tasniflanadi. Ular alohida taqdim etiladi va sotishdan pul mablag‘larining harakati sotib olishdan pul mablag‘larining harakati natijasidan chiqarib tashlanmaydi. Bu esa ushbu pul mablag‘lari harakatini boshqa operatsion, investitsion yoki moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘lari oqimlarini ajratish imkonini beradi. Sotishda yoki xarid qilishda qoplov sifatida to‘langan yoki olingan pul mablag‘larining umumiy summasi hisobotda olingan yoki sarflangan pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlarini chiqarib tashlangan holda aks ettiriladi.

Hisobot davri davomida sotib olingan, shuningdek, sotilgan sho‘ba korxonalari va boshqa bo‘limlar bo‘yicha moliyaviy hisobotda quyidagi axborot ochib berilishi lozim:

- Sho‘ba korxonasini xarid qilishda yoki sotishdagi umumiy qoplov summasi;

- Sho‘ba korxonasini xarid qilishda yoki sotishda pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlari bilan qoplangan qismi;

- Sho‘ba korxonalarini yoki boshqa xo‘jalik bo‘linmalarini sotib olishda to‘langan yoki sotishda olingan pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalentlari; Sho‘ba korxonalarda yoki xo‘jalik bo‘linmalaridagi pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarini mustasno qilgan holda, asosiy toifalar bo‘yicha sotib olingan yoki sotilgan aktivlar va majburiyatlarning summasi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotning (4-sonli shakl) «Investitsion faoliyat» bo‘limida quyidagi axborot keltiriladi:

- 060-satr «Asosiy vositalarni sotib olish va sotish» moddasining summasi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning (5000, 5100, 5200, 5500, 5600) debet va krediti aylanmasi tegishli schyotlarning krediti bilan bog‘langan holda shakllanadi, ya’ni korxonalar «Chiqim» ustunida mahsulot yetkazib beruvchilarga to‘langan asosiy vositalarni xarid qilganlik uchun pul mablag‘lari summasini, «Kirim» ustunida esa - asosiy vositalarni sotishdan kelib tushgan mablag‘lar summasini ko‘rsatadilar;

- 070-satr «Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish» moddasining summasi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning (5000, 5100, 5200, 5500, 5600) debet va krediti aylanmasi tegishli schyotlarning krediti bilan bog‘langan holda shakllanadi, ya’ni korxonalar «CHiqim» ustunida nomoddiy aktivlarni xarid qilganlik uchun mahsulot yetkazib beruvchiga to‘langan pul mablag‘lari summasini, «Kirim» ustunida esa - nomoddiy aktivlarni sotganlik uchun kelib tushgan mablag‘lar summasini ko‘rsatadilar;

- 080-satr «Uzoq muddatli va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish» moddasining summasi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning (5000, 5100, 5200, 5500, 5600) debet va krediti aylanmasi tegishli schyotlarning krediti bilan bog‘langan holda shakllanadi, ya’ni «Chiqim» ustunida qimmatli qog‘ozlar va investitsiyalar boshqa dastaklarini xarid qilish uchun to‘langan pul mablag‘lari summasi, shu jumladan vositachilarga komission taqdirlashlar va birjada to‘langan foizlar ko‘rsatiladi, «Kirim» ustunida esa qimmatli qog‘ozlar va investitsiyalar boshqa dastaklarini sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari summasi aks ettiriladi;

- 090-satr «Investitsion faoliyatnig boshqa pul tushumlari va to‘lovlar» moddasining summasi pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning (5000, 5100, 5200, 5500, 5600) debet va krediti aylanmasi tegishli schyotlarning krediti bilan bog‘langan holda shakllanadi, ya’ni «Chiqim» ustunida boshqa investitsion faoliyatga oid to‘langan pul mablag‘lari summasi, «kirim» ustunida esa - olingan pul mablag‘lari summasi ko‘rsatiladi;

- 100-satr «Jami: investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi» moddasining summasi, «Kirim» ustunida «+» va «Chiqim» ustuni bo‘yicha «-» belgisining ta’sirini hisobga olgan holda, 060, 070, 080, 090-satrlarni jamlash natijasi ko‘rsatiladi.

Bunda «Kirim» ustuni summasi «Chiqim» ustuni summasidan oshgan holda, oshgan saldo «Kirim» ustuni bo‘yicha, teskari holda esa – «Chiqim» ustuni bo‘yicha aks ettiriladi.

Moliyaviy faoliyatdan pul mablag‘lari. Pul mablag‘lari aylanmasining uchinchi toifa guruhi korxonaning moliyaviy faoliyati bilan bog‘liqdir. ***Moliyaviy faoliyat -*** korxonaning faoliyati bo‘lib, uning natijasida o‘z mablag‘i va qarz mablag‘lari miqdori va tarkibida o‘zgarishlar yuz beradi. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni taqdim etish maqsadida moliyaviy faoliyat korxonaning yangi tashqi, ishlab topilmagan pul mablag‘larini jalb etish, lekin mulkdorlar va qarz beruvchilar tomonidan beriladigan qo‘shimcha pul mablag‘lari manbalarini jalb qilish bo‘yicha ishchan faollik sifatida talqin etiladi. Tijorat korxonasining iqtisodiy aylanmasiga jalb etilgan pul massasining korxonani pul ko‘rinishida moliyalashtirish manbalarini bunday ekstensiv shaklda o‘sishi qoidaga ko‘ra balans valyutasining o‘sishiga, korxona mulkdorlari va kreditorlari oldida majburiyatlarning oshishiga olib keladi.

Moliyaviy faoliyat avvalo korxonani kerakli aylanma va noaylanma mablag‘lar bilan ta’minlashga yo‘naltirilgan. Bunday tushumlarning manbasi bo‘lib korxona mulkdorlarining qo‘yilmasi sanaladi (ichki manbalar). Korxonaning mulkdorlari nafaqat aksiyadorlik kapitaliga ulush kiritishlari mumkin, balki korxonaning yetarlicha zaxiralarini o‘z navbatida aylanma mablag‘larni shakllantirish uchun qo‘shimcha ravishda pul mablag‘larini ham yo‘naltirishi mumkin. Joriy va uzoq muddatli aktivlarning boshqa manbalari bo‘lib kreditorlar (tashqi

manbalar) hisoblanadi. SHuni ta'kidlab o'tish joizki moliyaviy faoliyatga mol yetkazib beruvchilar, ish haqi va soliqlardan vujudga keladigan kreditorlar qo'shilmaydi (mazkur turdagi kreditorlik qazrlarining o'zgarishi standartning «Operatsion faoliyat» moddasida ko'rib o'tiladi). Moliyaviy faoliyatga ijarachining moliyaviy ijara bo'yicha to'lovlari ham kiradi. Bu moliyaviy ijarani moliyaviy kredit sifatida tushunilishi bilan bog'liq.

Korxona moliyaviy faoliyatidan pul oqimlari to'g'risidagi axborotni alohida ko'rsatadi. Bu axborot moliyaviy faoliyatdan kelgusida bo'ladigan pul oqimlarini taxmin qilish uchun zarur bo'ladi. Moliyaviy faoliyatdan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

- aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan keladigan pul tushumlari;
- subyektlar aksiyalarining haqini to'lash yoki sotib olish uchun ularning egalariga to'lovlar;
- ta'minlanmagan obligatsiyalar emissiyasidan, moliya korxonalari tomonidan berilgan ssudalardan, garovga qo'yilgan va boshqa qisqa hamda uzoq muddatli qarz (zayom) lardan pul tushumlari;
- qarz (zayom) larni to'lash;
- moliyaviy ijara bo'yicha majburiyatlarni qisqartirish uchun ijarachilarning to'lovlari va boshqalar.

«Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ning «Moliyaviy faoliyat» bo'limida quyidagi ma'lumot ko'rsatiladi:

- 110-satr «Olingan va to'langan foizlar» moddasi bo'yicha «kirim» ustunida olingan foizlar summasi, «Chiqim» ustunida esa to'langan foizlar summasi ko'rsatiladi;
- 120-satr «Olingan va to'langan dividendlar» moddasi bo'yicha «kirim» ustunida olingan dividendlar summalari ko'rsatiladi, «Chiqim» ustunida esa to'langan dividendlar summalari aks ettiriladi;
- 130-satr «Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari» moddasi bo'yicha hisobot yilida chiqarilgan (sotilgan) aksiyalar yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlar uchun aksiyadorlardan kelib tushgan pul mablag'lari summasi aks ettiriladi;
- 140-satr «Xususiy aksiyalarni sotib olganda va ularni sotganda pul to'lovlari va tushumlari» moddasi bo'yicha sotib olingan xususiy aksiyalarni sotishdan kelib tushgan pul mablag'lari summalari, shuningdek korxonada bo'lgan xususiy aksiyalar, hissalar va paylar uchun, ularni keyingi sotish yoki yo'q qilish (bekor qilish) maqsadida, egalariga to'langan pul mablag'lari summasi ko'rsatiladi;
- 150-satr «Uzoq muddatli va qisqa muddatli kreditlar hamda qarzlar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari» moddasi bo'yicha «Kirim» ustunida hisobot davrida kelib tushgan kreditlar va qarzlar summasi, «Chiqim» ustunida esa - kreditlar va qarzlar bo'yicha to'lovlar ko'rsatiladi;
- 160-satr «Moliyaviy ijara bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari» moddasi bo'yicha «Chiqim» ustunida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to'langan pul mablag'lari summasi, «Kirim» ustunida esa - ijarachidan (lizing oluvchidan) kelib tushgan pul mablag'lari summasi ko'rsatiladi;
- 170-satr «Moliyaviy faoliyatga oid boshqa pul tushumlari va to'lovlari» bo'yicha «Chiqim» ustunida boshqa moliyaviy faoliyatga oid to'langan pul mablag'lari summasi, «Kirim» ustunida esa - olingan pul mablag'lari summasi ko'rsatiladi;
- 180-satr «Jami: moliyaviy faoliyatga oid sof oqim/chiqim» moddasi bo'yicha «Kirim» ustuni bo'yicha «+» va «Chiqim» ustuni bo'yicha «-» belgisining ta'sirini hisobga olgan holda, 110, 120, 130, 140, 150, 160, 170-satrlar summasi ko'rsatiladi.

Bunda «Kirim» ustuni summasi «Chiqim» ustuni summasidan oshgan holda, oshgan saldo

«Kirim» ustuni bo‘yicha, teskari holda esa – «Chiqim» ustuni bo‘yicha aks ettiriladi.

«Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ning «Soliqqa tortish» bo‘limida quyidagi ma’lumot ko‘rsatiladi:

- 190-satr «To‘langan foyda solig‘i» moddasi bo‘yicha hisobot davrida to‘langan foyda solig‘i summasi ko‘rsatiladi;

- 200-satr «To‘langan boshqa soliqlar» moddasi bo‘yicha hisobot davrida to‘langan soliqlar, bojlar va ularga tenglashtirilgan yig‘imlar hamda ajratmalar summasi ko‘rsatiladi, bundan foyda solig‘i mustasno;

- 200-satr «Jami: to‘langan soliqlar» moddasi bo‘yicha 190 va 200-satrlar summasi aks ettiriladi;

«Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ning «Jami: moliya-xo‘jalik faoliyatiga oid sof oqim/chiqim» 220-satr moddasi bo‘yicha, «Kirim» ustuni bo‘yicha «+» va «Chiqim» ustuni bo‘yicha «-» belgisining ta’sirini hisobga olgan holda, 050, 100, 180, 210-satrlar summasi ko‘rsatiladi. Bunda «Kirim» ustuni summasi «Chiqim» ustuni summasidan oshgan holda, oshgan saldo «Kirim» ustuni bo‘yicha, teskari holda esa - «Chiqim» ustuni bo‘yicha aks ettiriladi.

«Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ning «Chetel valyutasidagi pul mablag‘larini qayta baholashdan yuzaga kelgan kurs farqlari saldosi» 221-satr moddasi bo‘yicha hisobot davri mobaynida hosil bo‘lgan, chetel valyutasidagi pul mablag‘larini qayta baholashdan yuzaga kelgan musbat yoki manfiy kurs farqlari saldosi aks ettiriladi (5000, 5200, 5500, 5600, 5700).

«Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ning «Yil boshidan pul mablag‘lari» 230-satr moddasi bo‘yicha korxona «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) 320-satri 3-ustuni bo‘yicha qayd etilgan, pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlardagi (5000, 5100, 5200, 5500, 5600, 5700) pul mablag‘lari qoldiqlarining summasi ko‘rsatiladi.

«Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ning «Yil oxirida pul mablag‘lari» 240-satr moddasi bo‘yicha korxona «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) 320-satri 4-ustunida qayd etilgan, pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlardagi (5000, 5100, 5200, 5500, 5600, 5700) pul mablag‘lari qoldiqlarining summasi ko‘rsatiladi.

«Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ning «Xorijiy valyutada pul mablag‘larining harakati to‘g‘risida ma’lumot» bo‘limida hisobot davrida xorijiy valyutada pul mablag‘larining harakati ko‘rsatiladi.

Valyuta mablag‘lari operatsiyalarni amalga oshirish paytida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida, valyuta mablag‘lari qoldig‘i esa - hisobot davrining oxirgi sanasida aks ettiriladi. Chetel valyutasidagi pul mablag‘larini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

«Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ning «Xorijiy valyutada pul mablag‘larining harakati to‘g‘risida ma’lumot» bo‘limida hquyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

- 250-satr «Yil boshida qoldiq» moddasi bo‘yicha hisobot davri boshida korxonaning valyuta schyotlaridagi va kassasida bo‘lgan valyuta mablag‘lari summasi ko‘rsatiladi;

260-satr «Valyuta mablag‘lari kelib tushdi, jami» moddasi bo‘yicha 261, 262, 263, 264-satrlarda ko‘rsatilgan, hisobot davrida valyuta tushumlarining umumiy summasi ko‘rsatiladi, bu satrlarda aks ettiriladi:

- 261-satr bo‘yicha - «Sotishdan tushum» - korxona tomonidan hisobot davrida olingan valyuta tushumi summasi;

- 262-satr bo‘yicha - «Konvertatsiyalangan» - sotib olingan xorijiy valyuta summasi;

- 263-satr bo‘yicha - «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha» - moliyaviy faoliyatdan olingan valyuta mablag‘lari summasi;

- 264-satr bo‘yicha - «Boshqa manbalar» - 261, 262, 263-satrlarda sanalmagan manbalar hisobiga korxonaning valyuta hisobvaraqlari va kassasiga boshqa valyuta tushumlari summasi;

- 270-satr «Valyuta mablag‘lari sarflandi, jami» moddasi bo‘yicha korxona tomonidan 271-273-satrlarda ko‘rsatilgan turli maqsadlarga sarflangan valyuta mablag‘larining umumiy summasi aks ettiriladi, bu satrlarda aks ettiriladi:

- 271-satr bo‘yicha - «Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lovlar» - mol-mulkni olishga, bajarilgan ishlarga va ko‘rsatilgan xizmatlarga sarflangan valyuta mablag‘lari summasi;

- 272-satr bo‘yicha - «Moliyaviy faoliyat bo‘yicha to‘lovlar» - moliyaviy faoliyat bo‘yicha sarflangan valyuta mablag‘lari summasi;

- 273-satr bo‘yicha - «Boshqa maqsadlarga» - 271, 272-satrlarda sanalmagan boshqa maqsadlarga sarflangan valyuta summasi.

- 280-satr «Chetel valyutasidagi pul mablag‘larini qayta baholashdan yuzaga kelgan kurs farqlari saldosi» moddasi bo‘yicha hisobot davri mobaynida hosil bo‘lgan, chetel valyutasidagi pul mablag‘larini qayta baholashdan yuzaga kelgan musbat yoki manfiy kurs farqlari saldosi aks ettiriladi (5000, 5200, 5500, 5600, 5700);

- 290-satr «Yil oxirida qoldiq» moddasi bo‘yicha hisobot yili oxirida korxonaning valyuta schyotlari va kassasida bo‘lgan, satrlar ma’lumotlari: 250+260-270+/-280-satrlar bo‘yicha aniqlanadigan valyuta mablag‘lari summasi aks ettiriladi.

Operatsion faoliyatidan pul oqimlari bo‘yicha hisobot. Korxona operatsion faoliyatidan vujudga kelgan pul mablag‘lari harakatini quyidagilardan foydalanib, ochib beradi:

- bevosita usul. Bu usulga muvofiq yalpi pul tushumlari va yalpi pul to‘lovlari asosiy turlari ochib beriladi;

- bilvosita usul. Bu usulga muvofiq sof daromad yoki zararga joriy aktivlar va majburiyatlarning o‘zgarishiga, ishonchsiz operatsiyalarga, shuningdek operatsiya investitsiya yoki moliya faoliyati natijasida olingan daromadlar va ko‘rilgan zararlarga qarab o‘zgartirish kiritiladi.

Birinchi usulga muvofiq operatsiyalardan pul mablag‘lari oqimining summasi korxonaning asosiy mahsulotlari va xizmatlari uchun xaridorlardan olingan summa bilan mol yetkazib beruvchilarga tovarlar, ishlar, xizmatlar uchun to‘langan summa o‘rtasidagi farq sifatida hisoblanadi. ***Bil vosita usulda*** boshlang‘ich nuqta sifatida operatsiyalar (joriy faoliyat) bo‘yicha foyda yoki zarar olinadi va keyin pul mablag‘larini oqiminini yuzaga keltirmaydigan yozuvlarga tuzatishlar kiritiladi, masalan amortizatsiya ajratmalari, debitor va kreditor qarzlarni o‘zgarishi. Mazkur usul pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotni moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot bilan bog‘laydi.

Bevosita usulning asosiy mazmuni shundan iboratki unda o‘rtasidagi farq operatsion faoliyatning sof pul tushumi yoki sof chiqimni tashkil etadigan operatsion faoliyat bo‘yicha asosiy tushumlar va asosiy to‘lovlar navbatma navbat hisoblanadi.

Bevosita usul foydalanilganda asosiy yalpi pul tushumlar va yalpi pul to‘lovlari ochib beriladi. Asosiy yalpi pul tushumlar va yalpi pul to‘lovlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni korxonaning hisob yozuvlariga, «Moliyaviy najilar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) sotish, sotishning tannarxi (foizlar ko‘rinishidagi daromadlar, foizlar to‘lashga xarajatlar va kredit tashkilotlarining shunga

o‘xshash xarajatlari) va boshqa moddalariga tuzatishlar kiritib olish mumkin. Bunda quyidagilar hisobga olinadi:

- hisobot davri davomidagi zaxiralar, operatsion kreditor va debitorlik qarzlaridagi o‘zgarishlar;
- boshqa pulsiz moddalar;
- investitsiya yoki moliyaviy pul oqimlarini yuzaga kelishiga olib keladigan boshqa moddalar.

Shuningdek yalpi pul tushumlar va yalpi pul to‘lovlarinig asosiy turlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni buxgalteriya hisobining ma’lumotlaridan ham olinishi mumkin.

Ikkita usul o‘rtasidagi asosiy farq quyidagidan iborat: bilvosita usuldan foydalanilganda pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotda faqat operatsiyalarning natijalari ya’ni sof foyda yoki zarar summasi aks ettiriladi. Mazkur usul bilan tuzilgan moliyaviy hisobot korxonaning operatsion faoliyati bo‘yicha ma’lumotlar to‘liq aks ettirilmaydi. Bevosita uchulda barcha pul oqimlari (yalpi tushum va to‘lovlar) ochib beriladi, ya’ni hisobotlarni o‘rganayotgan investor operatsion faoliyati bo‘yicha o‘zini qiziqtirgan va o‘ziga kerak bo‘ladigan barcha ma’lumotlarni oladi.

Halqaro amaliyotda pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi hisobotni tuzish uchun bevosita usuldan foydalanishni tavsiya etadi, chunki u bevosita usuldan farqli ravishda kelgusidagi pul oqimini baholash uchun zarur ma’lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Biroq amaliyotda ko‘pgina korxonalar bevosita usuldan foydalanadilar. Buni u bevosita usulga nisbatan ancha oddiy, taqdim etilayotgan ma’lumotlarning sifatining yo‘qotilishi minimal darajada ekanligi bilan tushuntirish mumkin.

Bilvosita usuldan foydalanilganda sof foyda eng avvalo aylanma mablag‘lardagi o‘zgarishlar ta’siri hisobga olguncha bo‘lgan operatsion daromadning oraliq ko‘rsatkichiga keltiriladi. Bunga ko‘proq tarqalgan quyidagi tuzatishlarni kiritish yordamida erishiladi:

- oldin foyda miqdorini kamaytirgan amortizatsiya ajratmalari, to‘lanadigan foizlar, asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan zararlar summasi qayta tiklanadi;
- investitsiya va moliyaviy operatsiyalardan daromadlar, shuningdek oldin foyda va zararlar schyotining kreditiga olib borilgan baholangan rezervlar summasini kamayishi chegiriladi.

Agar operatsion faoliyatning pul oqimlarini taqdim etish uchun bilvosita usuldan foydalanilsa uzoq muddatli aktivlar schyotlariga tegishli kurs farqlarni alohida ajratish zaruriyati yuzaga keladi. Kurs farqlari «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) ga qo‘shilganligi tufayli, uzoq muddatli aktivlar schyotlariga tegishli kurs farqlariga ham storno yozuvlar qilinishi kerak.

Amaldagi hisobotda olingan operatsion daromadning oraliq ko‘rsatkichi hisobot davrida aylanma mablag‘larning umumiy hajmida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni hisobga olmaydi. SHuning uchun ko‘rilayotgan ko‘rsatkich asosiy faoliyat bo‘yicha debitorlik qarzi, bo‘naklar, moddiy ishlab chiqarish zaxiralari va kreditorlik qarzlarining summasiga tuzatilgan bo‘lishi kerak. Operatsion daromad ko‘rsatkichini operatsion faoliyatdan olingan sof pul mablag‘lariga keltirish uchun uning summasi joriy aktivlarning o‘sishi summasiga kamaytiriladi va qisqa muddatli majburiyatlarning o‘sishi summasiga ko‘paytiriladi.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl), «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) dan hisoblash natijasida olingan pul mablag‘larini tushumi summasi hisobotga qo‘shiladi. Faqat bir qator pul mablag‘larining oqimi haqiqiy hajmi bo‘yicha ko‘rsatiladi. Bularga quyidagilar kiradi: amortizatsiya ajratmalari; xususiy aksiyalarni, obligatsiyalarni sotishdan tushum; dividendlarni olish va to‘lash; kreditlar va qarz (zayom)larni olish hamda to‘lash; asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarga kapital qo‘yilmalar; aylanma mablag‘larning o‘sishi; asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, qimmatli qog‘ozlarni sotish.

Bilvosita usul bo‘yicha tuzilgan hisobotda asosan moliyaviy resurslar to‘g‘risidagi ma’lumotlar jamlanadi. Bunday hisobotni tashkil etadigan ma’lumotlari mustaqil analitik mohiyatga ega. Bunday hisobotda bevosita usulda tuzilgan shaklda mavjud bo‘lmagan, biroq korxona faoliyatining moliyalashtirish manbalarini va boshqa yo‘nalishlarini tushunish uchun kerak bo‘ladigan ma’lumotlar keltiriladi.

Operatsion faoliyatdan pul mablag‘larini hisoblashning bilvosita usulida hisoblashning boshlang‘ich (tayanch) nuqtasi sifatida sof foyda olinadi va keyinchalik bu summa sof foydani hisoblashga kiradigan, biroq pul mablag‘larini hisoblashga kirmaydigan summalar bo‘yicha tuzatishlar kiritiladi. Bu tuzatishlarni uchta guruhga ajratish mumkin:

- moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning pulni chiqib ketishiga ham kelib tushishiga ham olib kelmaydigan moddalariga tuzatishlar kiritish;
- aylanma mablag‘lar va qisqa muddatli qarzlarning pulsiz moddalarini o‘zgarishlariga tuzatishlar kiritish;
- investitsiya faoliyatida o‘z aksini topgan moddalarga tuzatishlar kiritish.

Bilvosita usuldan foydalanilganda pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot quyidagi bosqichlarda tuziladi:

Birinchi bosqich. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni tuzishning birinchi bosqichda pul mablag‘larining sof o‘sishi yoki kamayishi aniqlanadi. Aslida bu balansda aks ettirilgan yil boshi va oxiridagi pul mablag‘lari o‘rtasidagi farq hisoblanadi.

Ikkinchi bosqich. Ikkinchi bosqichda operatsion faoliyatdan sof pul mablag‘lari aniqlanadi. MHHS lariga muvofiq Respublikamizdagi hisobda daromadlar va xarajatlarni yuzaga kelishiga qarab tan olishni nazarda tutadigan hisoblash usulidan foydalaniladi, biroq operatsion faoliyaitldan real pul mablag‘larini aniqlash uchun daromad va xarajatlarini kassa usuli bo‘yicha aks ettirish zarur. Ushbu maqsadda sof foyda pul mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lmagan operatsiyalarni ta’sirini hisobga olgan holda tuzatiladi.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotning «Operatsion faoliyat» bo‘limining birinchi satrida sof foyda aks ettiriladi, keyin unga pul mablag‘lari oqimiga ta’sir qilmaydigan moddalar qo‘shiladi (yoki chegiriladi) va natijada operatsion faoliyatdan sof pul mablag‘lari kelib chiqadi.

Operatsion faoliyatdan sof pul mablag‘lari aniqlanganda qisqa muddatli aktivlar (pul mablag‘lari bundan mustasno) o‘sishi sof foydadan chegiriladi, kamayishi esa sof foydaga qo‘shiladi; qisqa muddatli majburiyatlarning o‘sishi sof foydaga qo‘shiladi, kamayishi esa sof foydadan chegiriladi; amortizatsiya ajratmalari va asosiy vositalarni sotishdan zarar sof foydaga qo‘shiladi, asosiy vositalarni sotishdan foyda esa sof foydadan chegiriladi.

Uchinchi bosqich. Uchinchi bosqichda taqqoslovchi buxgalteriya balansining uzoq muddatli aktivlar va majburiyatlarga tegishli moddalariga o‘zgarishlarga asosan, shuningdek boshqa ma’lumotlardan kelib chiqib investitsiya va moliyaviy faoliyatdan sof pul mablag‘lari aniqlanadi.

Bevosita usuldan foydalanilganda pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot quyidagi bosqichlarda tuziladi:

Birinchi bosqich. Birinchi bosqichda pul mablag‘larining sof o‘sishi yoki kamayishi ya’ni yil boshi va oxiridagi pul mablag‘lari o‘rtasidagi farq aniqlanadi.

Ikkinchi bosqich. Ikkinchi bosqichda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda hisoblash usuli bilan aks ettirilgan har bir ko‘rsatkichni kassa usuli bilan hisobga olingan ko‘rsatkichga qayta hisoblash yo‘li bilan operatsion faoliyatdan sof pul mablag‘lari aniqlanadi. Agar moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda tushum 240 000 000 so‘m aks ettirilgan, debitorlik qarzlarining yildagi o‘sishi esa 40 000 000 so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, u holda pul mablag‘larida olingan

tushum 240 000 000 so‘m - 40 000 000 so‘m = 200 000 000 so‘mni tashkil etadi, yoki agar moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda operatsion xarajatlar 80 000 000 so‘m miqdorda aks ettirilgan, hisoblangan xarajatlar bo‘yicha qarzning yildagi o‘sishi esa 14 000 000 so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, u holda pul mablag‘larida amalga oshirilgan operatsion xarajatlar 80 000 000 so‘m - 14 000 000 so‘m = 66 000 000 so‘mni tashkil etadi.

«Operatsion faoliyat» bo‘limida pul tushumlari va to‘lovlari faqatgina asosiy guruhlar bo‘yicha aks ettiriladi.

Uchinchi bosqich. Uchinchi bosqichda taqqoslovchi buxgalteriya balansining uzoq muddatli aktivlar va majburiyatlarga tegishli moddalariga o‘zgarishlarga asosan, shuningdek boshqa ma’lumotlardan kelib chiqib investitsiya va moliyaviy faoliyatdan sof pul mablag‘lari aniqlanadi.

«Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) tuzishning ikkita usulini taqqoslash natijasida tashxis maqsadida bilvosita usulni ma’lumot berish darajasi yuqori ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

Bilvosita usulda tuzilgan hisobotdan farqli ravishda bevosita usulda tuzilgan hisobotda biz moliyalashtirish manbalarini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlarni topmaymiz. Bularga sof foyda va amortizatsiya ajratmalari, aylanma mablag‘lardagi, jumladan kapital hisobiga yuzaga keladigan o‘zgarishlar kiradi.

Hisobot tuzishning har bir usuli foydalanuvchilar uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni beradi. Bevosita usul pulng yalpi oqimini to‘lov vositasi sifatida aks ettiradi. Bevosita usul korxonaning moliyaviy resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ularning harakatini pul mablag‘larining oqimi sifatida o‘zida jam qiladi.

Investitsiya va moliya faoliyatidan tushgan pul oqimlari bo‘yicha hisobot Korxona investitsiya va moliya faoliyatidan yalpi pul tushumlari va yalpi pul to‘lovlarini hisobotda alohida-alohida aks ettirishi kerak, netto asosida hisobga olinadigan pul oqimlari bundan mustasnodir. Bunda netto-asos deganda pul mablag‘ining sof oqim yoki hisobot davrida kamayishi tushuniladi.

Mijozlar nomidan pul oqimlari netto asosida ochib beriladi, bunda pul oqimlarining harakati yuridik shaxsning faoliyatiga nisbatan mijoz faoliyatini ko‘proq aks ettiradi, masalan:

- investitsion korxona o‘z mijozlarining topshirig‘iga binoan ushlab turadigan jamg‘armadir;
- mulk egasi nomidan undiriladigan va unga beriladigan ijara to‘lovlari.

Tezda aylanadigan, katta miqdordagi mablag‘ni o‘z ichiga oladigan va to‘lash muddati qisqa bo‘lgan moddalar bo‘yicha pul oqimlari ham netto asosida ochib berilishi mumkin, masalan:

- pul tushumlari hamda to‘lash vaqti qayd etilgan depozitlarni olish va to‘lash bo‘yicha to‘lovlar;
- depozitlarni joylashtirish va ularni boshqa moliya muassasalaridan qaytarib olish;
- mijozlarga berilgan pul bo‘naklari va kreditlar hamda bu bo‘naklar va kreditlarning to‘lanishi.

Chetel valyutasidagi amalga oshirilgan operatsiyalardan pul oqimlari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan operatsiya amalga oshirilgan kun uchun belgilab qo‘yilgan valyutalar kursidan foydalanib, O‘zbekiston Respublikasi valyutasida aks ettiriladi.

Xorijiy shu’ba jamiyatining pul oqimi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan pul oqimi kelib chiqqan vaqtdagi valyutalar kursi bo‘yicha qayta hisoblanishi kerak.

Chetel valyutsining kursi o‘zgarishidan kelib chiqadigan amalga oshirilmagan daromad va zarar pul mablag‘i harakati hisoblanmaydi. Biroq valyuta kurslari o‘zgarishning chetel valyutasida saqlanayotgan yoki to‘lanishi lozim bo‘lgan pul mablag‘iga yoki ularning

ekvivalentlariga ta’siri pul mablag‘lari harakatini hisobot davri boshlanishi va oxirida bir-biriga muvofiqlashtirish uchun «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) da aks ettiriladi. Bu miqdor operatsion, investitsiya va moliya faoliyati natijasida vujudga keladigan pul oqimidan alohida ko‘rsatiladi va agar pul mablag‘larining bu harakati hisobot davrining oxiridagi pul valyuta kursida aks etadigan bo‘lsa, tafovutga qo‘shiladi.

Favqulodda moddalar bilan bog‘liq pul mablag‘larining oqimi ushbu moddalarning xarakteriga qarab operatsion, investitsiya yoki moliya faoliyatidan vujudga keladigan pul mablag‘larining oqimlari sifatida tasniflanadi. Favqulodda moddalar bilan bog‘liq pul mablag‘larining oqimi «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) ning operatsion, investitsiya va moliya faoliyati bo‘limlarida favqulodda moddalarni muhimligi tushuntirish va ularni pul mablag‘larining hozirgi va kelgusidagi harakatiga ta’sirini baholash maqsadida alohida ochib beriladi.

Foizlar va dividendlarni olish va to‘lash bilan bog‘liq pul mablag‘larining oqimi bir hisobot davridan ikkinchi hisobot davriga izchillik bilan operatsion, investitsiya yoki moliya faoliyati sifatidagi subyektning xo‘jalik faoliyatidan kelib alohida ochib beriladi va tasniflanadi. Hisobot davri davomida to‘langan foizlarning umumiy summasi, ular xarajat sifatida «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) da tan olinganligi yoki kapitalizatsiya qilingan (xarid qilingan yoki qilinayotgan aktivning qiymatiga qo‘shilgan) ligidan qat’iy nazar «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl) da ochib beriladi. Moliya muassasalari uchun to‘langan va olingan foizlar hamda dividendlar operatsion faoliyatdan pul mablag‘lari oqimi sifatida tasnif etiladi.

Korxonalar uchun to‘langan va olingan foizlar hamda dividendlar operatsion faoliyatidan keladigan pul mablag‘larining oqimlari sifatida tasnif qilinishi mumkin, chunki ular sof daromad yoki zararni aniqlashga qo‘shiladi, biroq moliyaviy va investitsiya faoliyatidan pul mablag‘lari oqimi sifatida ham tasniflanishi mumkin, chunki ular olingan moliyaviy resurslar yoki investitsiya qilingan kapitaldan olingan foyda uchun to‘lov hisoblanadi.

Foyda solig‘i bo‘yicha pul oqimlari alohida ochib berilishi lozim va ular operatsiya faoliyatlaridan bo‘ladigan pul oqimlari qatoriga kiradi. Foyda solig‘i O‘zbeksiton Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq hisoblanadi va to‘lanadi. Foyda solig‘i «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl)da operatsion, investitsiya va moliyaviy faoliyat sifatida tasniflanuvchi, operatsiyalar bo‘yicha pul mablag‘larining oqimidan yuzaga keladi. Soliq xarajatlari investitsiya va moliyaviy faoliyat bilan yengil bog‘lanishi mumkin bo‘lganda tegishli soliq bo‘yicha pul mablag‘larini chiqishini aniqlash ko‘p hollarda maqsadga muvofiq emas. Ular mazkur operatsiyalar asos bo‘lgan pul mablag‘lari yuzaga kelgan hisobot davrida yuzaga kelmasligi mumkin. SHuning uchun soliqlar odatda operatsion faoliyatdan pul mablag‘larining oqimi sifatida tasniflanadi. Pul mablag‘larining soliq oqimi har xil faoliyat turalari o‘rtasida taqsimlanganda, to‘langan soliqlarning umumiy summasi ochib beriladi.

Pul mablag‘lari yoki pul ekvivalentlaridan foydalanishni talab qilmaydigan investitsiya va moliyaviy operatsiyalar pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotga kiritilmasligi kerak. Bunday operatsiyalar boshqa moliyaviy hisobotlarda faoliyatning shu investitsiya, moliyaviy turlari to‘g‘risidagi barcha muhim axborotni ko‘rsatadigan tarzda ochib berilishi lozim.

Pul mablag‘lari yoki pul ekvivalentlari oqimini yuzaga keltirmaydigan investitsiya va moliyaviy operatsiyalari «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» (4-sonli shakl)ga kiritilmasligi kerak. Biroq ular korxonaning kapitali va aktivlari tarkibiga ta’sir qilganligi uchun boshqa moliyaviy hisobotlarda ochib berilishi lozim. Pulsiz operatsiya turlari bo‘lib quyidagilar hisoblanishi mumkin:

- aktivlarni tegishli majburiyatlarni qabul qilish yo‘li bilan yohud moliyaviy ijara bo‘yicha xarid qilish;

- aksiya chiqarish yo‘li bilan korxonani xarid qilish;

- qarz majburiyatlarini aksiyalarga almashtirish.

Korxona pul mablag‘lari va pul ekvivalentlarining ayrim moddalarini ko‘rsatishi hamda pul oqimi to‘g‘risidagi hisobotdagi summalarni buxgalteriya balansidagi tegishli moddalari qiyosini taqdim etishi, shuningdek foydalanish imkoniyati bo‘lmagan muhim pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari qoldig‘i miqdorini ochib berishi kerak.

Korxonada mavjud bo‘lgan, lekin guruh foydalana olmaydigan muhim pul mablag‘lari va pul ekvivalentlari qoldig‘i miqdorini rahbariyatning tushuntirishi bilan birga ochib berishi lozim.

Korxonaning pul oqimi bilan uning bo‘g‘inlari o‘rtasidagi aloqalarni tushunish uchun pul oqimlari bo‘g‘inlar bo‘yicha ochib berilishi lozim.

Xo‘jalik faoliyatining mazkur turida umuman pul oqimi harakati bilan uning ayrim tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqani aniqlash uchun pul oqimlarining bo‘g‘inlardagi harakatlarini ochib ko‘rsatish zarur.

6-§. Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot

«Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» (5-sonli shakl) da xususiy kapital va uning tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi, ustav kapitali, qo‘shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) sotib olingan xususiy aksiyalari va boshqa xususiy kapital elementlari haqidagi axborot ochib berilishi kerak.

«Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» (5-sonli shakl) da hisobot davrida korxona o‘z kapitalining holati va uni shakllantirish manbalari bo‘yicha harakatini aks ettiradi.

«Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» (5-sonli shakl) ning «Yil boshida qoldiq» 010-satr moddasi bo‘yicha yil boshidagi holat bo‘yicha quyidagi axborot aks ettiriladi:

- 3-ustunda - «Ustav kapitali» - ta’sis hujjatlarida korxona ta’sischilari ulushlari (hissalari, nominal qiymat bo‘yicha aksiyalari, pay badallari)ning jami sifatida ro‘yxatga olingan va ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda (8300) ko‘rsatilgan ustav kapitalining summasi ko‘rsatiladi;

- 4-ustunda - «Qo‘shilgan kapital» - qo‘shilgan kapitalni hisobga oluvchi schyotlarda (8400) qayd etilgan aksiyalarni nominal qiymatdan yuqori narxlarda birlamchi sotish chog‘ida olingan emission daromad summasi, korxonaning ustav sarmoyasini shakllantirish chog‘ida ta’sis hujjatlarini ro‘yxatga olish sanasi bilan mablag‘larni ustav sarmoyasiga haqiqatda kiritish sanasida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kurslari o‘rtasida yuzaga keladigan kurslardagi farq summasi ko‘rsatiladi ko‘rsatiladi;

- 5-ustunda - «Rezerv kapitali» - qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlarda (8500) qayd etilgan rezerv kapitali mablag‘lari summasi aks ettiriladi;

- 6-ustunda - «Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zararlar)» - taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)ni hisobga oluvchi schyotlarda (8700) qayd etilgan, yil boshida taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) summasi ko‘rsatiladi;

- 7-ustunda - «Sotib olingan xususiy aksiyalar» - sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlarda (8600) qayd etilgan, korxonada bo‘lgan, ularni keyinchalik tarqatish yoki yo‘q qilish (bekor qilish) uchun sotib olingan xususiy aksiyalari, hissalari va paylarining qiymati ko‘rsatiladi;

- 8-ustunda - «Maqsadli tushumlar va boshqalar» - maqsadli tadbirlarni amalga oshirish uchun byudjetdan, maxsus jamg‘armalar, boshqa korxonalar, jismoniy shaxslardan grantlar, subsidiyalar, a’zolik badallari ko‘rinishida tekinga olingan aktivlar, maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari summalari va maqsadli tadbirlarni amalga oshirish uchun boshqa maqsadli tushumlar, shuningdek xususiy kapitalni shakllantirishning boshqa manbalari ko‘rsatiladi.

«Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» (5-sonli shakl)da hisobot davri davomidagi xususiy kapitalni holat bo‘yicha quyidagi axborot aks ettiriladi:

- 020-satr «Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi» moddasi bo‘yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobot davrida qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va sotishdan olingan nominal qiymat va emissiya daromadi summasi aks ettiriladi;

- 030-satr «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash» moddasi bo‘yicha hisobot yilining birinchi kuni holati bo‘yicha har yili qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘tkaziladigan asosiy vositalarni qayta baholashdan tashqari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash summasi aks ettiriladi;

- 040-satr «Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo‘lgan valyuta kursida farqlari» moddasi bo‘yicha buxgalteriya hisobida 8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi» schyotida aks ettiriladigan, ta’sis hujjatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish sanasida va mablag‘lar ustav sarmoyasiga haqiqatda kiritilgan sanada Markaziy bank kurslari o‘rtasida yuzaga keladigan, korxonaning ustav sarmoyasini shakllantirish chog‘ida hisobot davri uchun kurslardagi farq aks ettiriladi;

- 050-satr «Rezerv kapitaliga ajratmalar» moddasi bo‘yicha ta’sis hujjatlariga ko‘ra va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobot yili uchun rezerv kapitaliga ajratmalar summasi aks ettiriladi. Mazkur modda bo‘yicha imtiyozli davr tugaganidan keyin 8840 «Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari» schyotidan 8530 «Tekinga olingan mulk» schyoti kreditiga hisobdan chiqariladigan, soliq solishdan ozod qilish natijasida bo‘shaydigan mablag‘larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo‘naltirish sharti bilan bojxona to‘lovlarini, byudjetga soliqlar va majburiy to‘lovlarni to‘lash bo‘yicha soliq imtiyozlari summalari ham aks ettiriladi;

- 060-satr «Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)» moddasi bo‘yicha hisobot yilida olingan sof foyda (zarar) summasi «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) ga muvofiq ko‘rsatiladi;

- 070-satr «Tekinga olingan mol-mulk» moddasi bo‘yicha hisobot yilida turli manbalardan tekinga olingan mol-mulkning qiymati ko‘rsatiladi;

- 080-satr «Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag‘lar» moddasi bo‘yicha hisobot yilida olingan grantlar, subsidiyalar, a’zolik badallari va maqsadli foydalanish uchun boshqa maqsadli tushumlar ko‘rsatiladi;

- 090-satr «Hisoblangan dividendlar» moddasi bo‘yicha hisobot davrining taqsimlanmagan foydasidan va avvalgi yillardan to‘plangan foydadan joriy hisobot yilida hisoblangan dividendlar summasi ko‘rsatiladi;

- 100-satr «Xususiy kapital shaklllanishinig boshqa manbalari» moddasi bo‘yicha xususiy kapitalni shakllantirish boshqa manbalarining summasi ko‘rsatiladi.

«Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» (5-sonli shakl) ning «Yil oxirida qoldiq» 110-satr moddasi bo‘yicha tegishli ustunlar bo‘yicha hisobot davri oxirida xususiy kapitalning saldosi ko‘rsatiladi. Bunda, 030, 040, 050, 100-satrlarda aks ettirilgan va 8420 «Ustav kapitalini shakllantirishdagi kurs farqi», 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar», 8520 «Rezerv kapital» schyotlarida, maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlarda (8800) hamda kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervini hisobga oluvchi schyotlarda (8900) hisobga olingan xusussiy kapital manbalarining yil boshidagi summaga nisbatan

kamayishi minus belgisi bilan ko‘rsatiladi. SHuningdek, minus belgisi bilan hisobot yilidagi hisoblangan dividendlar (090-satr) va qoplanmagan zarar (060-satr) summasi aks ettiriladi.

«Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» (5-sonli shakl) ning «Xususiy kapitalning ko‘payishi (+) yoki kamayishi (-)» 120-satr moddasi bo‘yicha yil boshidagi summa bilan qiyoslaganda hisobot yili oxirida o‘z sarmoyasining ko‘payishi yoki kamayishi summasi aks ettiriladi.

Korxonaning xususiy kapitali tarkibiga kiruvchi hisob obyektlarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «10-bob. Xususiy kapital hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Aksiyadorlik jamiyatlari «Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» (5-sonli shakl) ning 130 dan 150-satrlargacha bo‘lgan satrlarni ma’lumot uchun to‘ldiradilar.

«Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» (5-sonli shakl) ma’lumotlariga asosan korxonaning bozor faolligi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish mumkin. Bu ko‘rsatkichlar aksiyadorlik jamiyat aksiyalarining qiymati va daromadliligini ta’riflaydi.

1. Bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan foyda quyidagicha aniqlanadi:

$$AF = \frac{\text{Sof foyda (SSF) – imtiyozli aksiya bo‘yicha dividendlar}}{\text{Muomaladagi oddiy aksiyalar}}$$

Bu ko‘rsatkich muomaladagi bir oddiy aksiyaga qancha sof foyda to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida eng zaruriy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

2. Aksiyaning bozor bahosi bilan bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan foydananing munosabatlari (BF) quyidagicha aniqlanadi:

$$BF = \frac{\text{Bir aksiyaning bozor qiymati}}{AF}$$

Bu ko‘rsatkich aksiyadorlik jamiyatning bir so‘m sof foydasiga aksionerlar necha so‘m to‘lashga roziligini bildiradi. Bu ko‘rsatkich boshqa aksiyadorlik jamiyatning bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan foyda dinamikasi bo‘yicha baholanadi.

3. Bir aksiyaning balans qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$AB = \frac{\text{Aksioner kapitalining qiymati – imtiyozli aksiyalar}}{\text{Muomaladagi oddiy aksiyalar}}$$

Bir aksiyaning balans qiymati buxgalteriya hisobi va hisoboti ma’lumotlariga binoan bir oddiy aksiyaga to‘g‘ri keladigan korxonaning sof aktivlari qiymatini ko‘rsatadi.

4. Bir aksiyaning bozor qiymati bilan balans qiymatining nisbati uning bozor qiymati qancha ekanligini ko‘rsatadi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Bir aksiyaning bozor qiymati bilan balans qiymatining nisbati} = \frac{\text{Bir aksiyaning bozor qiymati}}{\text{Bir aksiyaning balans qiymati}}$$

5. Dividend daromad yoki dividend normasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Dividend daromad (haqiqiy foyda normasi)} = \frac{\text{Bir aksiyaning dividendi}}{\text{Bir aksiyaning bozor qiymati}}$$

6. To‘lanadigan dividendlar ulushi quyidagicha aniqlanadi:

T.d.u = Bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan dividend =0-90%
Bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan sof foyda

Bu ko‘rsatkich tahlilining xususiyati shundan iboratki, uning «yaxshi» va «yomon» darajasi bo‘lmaydi. Lekin buning umumiy ko‘rsatkichi 1 dan oshmasligi kerak. Bu, demak, aksiyadorlik jamiyat dividend to‘lash uchun yetarli darajada foyda olganligini ko‘rsatadi. Agar bu ko‘rsatkich 1 dan oshib ketsa, aksiyadorlik jamiyat moliyaviy imkoniyatidan oqilona foydalanmaganligini yoki rezerv kapitalidan qarz olganligini ko‘rsatadi. Dividendlar xususiy kapitalni kamaytiradi, chunki ular aksiyadorlik jamiyat tasarrufiga qolgan sof foydadan to‘lanadi.

7-§. Moliyaviy hisobotga tushuntirish xati

Turli korxonalar faoliyatining ko‘p qirraliligini hisobga olgan holda, moliyaviy hisobotlar ulardan foydalanuvchilarni iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan barcha axborot bilan ta’minlay olmaydi, shu sababli yillik moliyaviy hisobotlarga qo‘shimcha ravishda rahbariyat tomonidan tuziladigan moliyaviy sharh (tushuntirish) kiritiladi, unda korxona moliyaviy faoliyati va moliyaviy holatining asosiy belgilari tushuntirib beriladi va ular duch kelayotgan asosiy noaniqliklar bayon qilinadi.

Bu sharh (tushuntirish) da korxonaning faoliyati natijalariga, faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash uchun investitsiya siyosatiga, jumladan joriy davrda, xususan kelgusi davrlarda dividendlar siyosatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar ochib beriladi, ya’ni:

- korxonani moliyalash manbalari va xatarlarni boshqarish;
- korxona ishlab turgan tashqi muhitdagi o‘zgarishlar va shu o‘zgarishlar munosabati bilan ko‘rilgan chora-tadbirlar hamda ularning subyekt faoliyatiga ta’siri;
- moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qaror qabul qilishi uchun boshqa muhim axborotlar.

Moliyaviy hisobotga tushuntirishlar korxonaning hisob siyosatini ochib berishi va hisobotdan foydalanuvchilarni korxonaning mulkiy va moliyaviy ahvolini real baholash uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlashi kerak. Moliyaviy hisobotga tushuntirish xati 1-sonli BHMS da nazarda tutilgan talablarga muvofiq tuziladi.

Yillik moliyaviy hisobotga tushintirish xatiga shuningdek, korxona rahbarining faoliyatning yo‘nalishi to‘g‘risidagi ma’ruzasi ilova qilinadi. Bu korxonaning asosiy analitik hujjatlaridan biri hisoblanadi. Bunda asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha reja bajarilishiga ta’sir etuvchi quyidagi omillar ochib tashlanadi: mahsulot miqdori, assortimenti, sifati, mahsulot sotish hajmi, foyda summasi, tannarxni pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, samaradorlik, ilmiy - konstruktorlik ishlarini natijalari va istiqbollari va shu kabilar. Tushintirish xatining mazmuni ishlab chiqarishni tashkil etish va texnologiya xususiyatlari bilan belgilanadi.

Moliyaviy hisobotlarga tushuntirishlar muntazam ravishda tushuntirish xati tarzida bo‘lishi kerak. Tushuntirishlardagi axborot moliyaviy hisobotda keltirilgan tegishli moddalarga bog‘liq ravishda taqdim etilishi lozim.

Tushuntirish odatda shunday tuziladiki, u foydalanuvchiga moliyaviy hisobotlarni yaxshiroq anglab yetishda va ularni boshqa korxonalarning moliyaviy hisoboti bilan quyidagicha qiyoslashiga yordam beradi:

- buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiqligi haqidagi hisobot;
- o‘lchov asosi va buxgalteriya hisobida qo‘llanilayotgan siyosat to‘g‘risidagi hisobot;
- moliyaviy hisobotda keltirilgan moddalar uchun yordamchi axborot;
- quyidagilarni o‘z ichiga olgan boshqa axborotlar:
- shartli majburiyatlar, oddiy majburiyatlar va boshqa moliyaviy axborotlar;

- moliya bilan bog‘liq bo‘lmagan axborotlar.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash asosi va buxgalteriya hisobi bobidagi maxsus siyosat haqidagi axborot moliyaviy hisobotga izohlar oldida alohida hisobot tarzida keltirilishi kerak.

Moliyaviy hisobotga tushuntirish xatida to‘xtatilgan faoliyatning har biri tushuntirishlarda ochib berilishi va ularda quyidagilar aks ettirilishi lozim:

- faoliyatni to‘xtatishning mohiyati;
- moliyaviy hisobotni tuzish chog‘ida to‘xtatilgan faoliyatga tegishli bo‘lgan tarmoq va uning jug‘rofiy manzili;
- buxgalteriyada hisobga olish maqsadida faoliyatni to‘xtatish kuchga kirgan kun;
- faoliyatni to‘xtatish usuli (sotish, ajratish va shu kabilar);
- faoliyatni to‘xtatishdan kelgan daromadlar va zararlar hamda bu daromad yoki zararni o‘lchash uchun foydalaniladigan hisob turi;
- hisobot davridagi xo‘jalik umumiy faoliyati operatsiyalaridan olingan daromadlar yoki zararlar hamda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotishdan tushgan mablag‘ taqdim etilgan har bir davr uchun miqdori bilan birgalikda.

Moliyaviy hisobotga tushuntirish xatidagi hisob siyosati to‘g‘risidagi bo‘lim quyidagilarni bayon qilib berishi kerak:

- moliyaviy hisobotni tayyorlash chog‘ida foydalanilgan (foydalanilayotgan) baholash asosi (asoslari);
- moliyaviy hisobotlarni aniq tasavvur etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hisob siyosatining har bir maxsus qismi;
- hisob siyosatida biror o‘zgarish sodir bo‘lganda tushuntirish hisoboti.

Moliyaviy hisobotlarni tuzishda foydalaniladigan maxsus hisob siyosatiga qo‘shimcha ravishda hisobotdan foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotlarda foydalaniladigan baholash asosini (asoslarini), ya’ni dastlabki qiymatni, joriy qiymatni, sotish qiymatini, diskont qiymatni va balans qiymatini anglash juda muhimdir. Bu tamoyillar ko‘p jihatdan uzluksizlik qoidasiga o‘xshash bo‘lib, ular moliyaviy hisobotni tuzishning asosini shakllantiradi. Ular ana shu tamoyillardan ba’zi vaziyatlarda baholash asoslarini tanlab olish imkoniyati mavjudligi bilan farq qiladi.

Agar moliyaviy hisobotda baholashning bittadan ortiq asosidan foydalanilsa, masalan, asosiy vositalarning muayyan turini baholash chog‘ida bitta asosdan foydalanilsa, o‘lchashning alohida asosi qo‘llanilgan aktivlar va majburiyatlar toifasi aks ettirilishini ko‘rsatish zarur.

Hisobotdan foydalanuvchi uchun hisob siyosatining o‘ziga xos jihatlarini ochib berishning ustuvorligini ko‘rib chiqish chog‘ida rahbarlar bu holat korxonaning duch kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarini va kelgusidagi pul mablag‘i harakatlarini baholashga imkon berishini e’tiborga olishi lozim. Hisob siyosatini ochib berish quyidagi axborotlarni o‘z ichiga oladi, lekin shu axborotlar bilan cheklanib qolmaydi: foydani aks ettirish, jamlash tamoyillari, faoliyat turlari bilan qo‘shib olib borish, birgalikdagi faoliyat, moddiy va nomoddiy aktivlarning aks etishi va eskirishi (amortizatsiyasi), jalb etilgan mablag‘ qiymatining sarmoyalanishi va o‘zga xarajatlar, kapital sarflar, investitsiya mulki, moliyaviy vositalar va investitsiyalar, ijara, tadqiqot va taraqqiyot bilan bog‘liq xarajatlar, tovar-moddiy zaxiralar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, jumladan kechiktirilgan soliqlar, rezervlar, xodimlarni saqlab turish xarajatlari, xorijiy valyutani o‘tkazish, faoliyat turlarini o‘rtasida taqsimlash usulini belgilash.

Hisob siyosatidagi o‘zgartishlar moliyaviy hisobotni taqdim etishning oldingi davriga nisbatan hisobot davriga muhim ta’sir o‘tkazsa yoki kelgusi hisobot davrlariga ta’sir o‘tkazadigan bo‘lsa, korxona tushuntirishlarda quyidagi axborotni ochib berishi lozim:

- o‘zgartishlar sabablari;
- hisobot davridagi va taqdim etilgan oldingi davrlardagi tuzatishlar miqdori;
- joriy davrdagi sof daromad yoki zararda hisobga olingan tuzatish miqdori;
- qiyosiy ma’lumotlarga kiritilgan hisobot davridan oldingi davrlarga oid tuzatishlar miqdori;
- qo‘shimcha ma’lumotlar keltirilgan har bir hisobot davriga kiritilgan tuzatishlar miqdori, moliyaviy hisobotlarga kiritilgan davrlardan oldingi davrlar bilan bog‘liq tuzatishlar miqdori. Agar qiyosiy axborot kiritilgan bo‘lsa yoki qo‘shimcha ma’lumot taqdim etish mumkin bo‘lmasa, bu holat ham ochib berilishi kerak ;
- qayta hisoblangan qiyosiy ma’lumotlar yoki ularni qayta hisoblash maqsadga muvofiq emasligi sabablari.

Korxona, agar boshqa moliyaviy hisobotlarda ochilmay qolgan bo‘lsa, quyidagi axborotlarni ochib ko‘rsatishi lozim:

- korxonaning huquqiy shakli, ta’sis etilgan mamlakat va ro‘yxatga olingan idoraning yuridik manzili (yoki amaliy faoliyatning manzili ro‘yxatga olingan idora manzilidan farq qilsa, amaliy faoliyat joyi aniq ko‘rsatiladi);
- korxona asosiy faoliyati operatsiyalari mohiyatining tasviri;
- Bosh korxona yoki guruh bosh korxonasining nomi;
- xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni.

«Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) qismidagi tushuntirishlar foydalanuvchilarni amalda korxonaning mulkiy va moliyaviy ahvolini baholash uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlashi lozim, ularga shu jumladan:

- aktivlarga mulk huquqlaridagi cheklashlar;
- majburiyatlar bo‘yicha berilgan kafolatlar;
- shartli (ko‘zda tutilmagan) aktivlar va majburiyatlar, mumkin bo‘lganda miqdor ko‘rinishida;
- bo‘lg‘usi uzoq muddatli investitsiyalarni moliyalash uchun mo‘ljallangan mablag‘lar kiradi.

Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlar «Buxgalteriya balansi» (1-sonli shakl) qismidagi tushuntirishlarda aksiyadorlik mablag‘ining har bir toifasi bo‘yicha quyidagilarni ochib berishga kerak:

- e’lon qilingan aksiyalar soni;
- chiqarilgan, haqi to‘la to‘langan, chiqarilgan, lekin haqi to‘la to‘lanmagan aksiyalar soni;
- aksiyalarning nominal qiymati;
- yilning boshida va oxirida haqi to‘lanmagan aksiyalar sonining kamayishi;
- aksiyadorlik mablag‘ining har bir toifasiga taalluqli huquqlar, afzalliklar va cheklashlar, shu jumladan dividendlarni taqsimlash va kapitalni qoplashga doir cheklash;
- jamiyatning o‘ziga, korxonaga qarashli Sho‘ba va uyushgan jamiyatlariga tegishli aksiyalar;
- optsion va savdo kontrakti bo‘yicha emissiya uchun zaxiraga ajratilgan aksiyalar, shu jumladan ularning muddatlari va miqdorlari;
- xususiy kapitaldagi rezervlar mohiyati va maqsadlari bayoni;
- majburiyatlarda dividendlarni to‘lash uchun ajratilgan pul miqdorining mavjudligi (aksiyadorlar yoki muassislar, ishtirokchilar yig‘ilishida rasmiy ravishda ma’qullanmagan to‘lovlar miqdorining mavjudligi).

«Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-sonli shakl) qismi bo‘yicha tushuntirishlarda korxona daromadlar va xarajatlar turlari yoki faoliyat turlari bo‘yicha tasnif qilish yo‘li bilan daromadlar va xarajatlarni tahlil qilib berishi kerak. Xarajatlarni faoliyat turlari bo‘yicha tasnif qiladigan korxonalar xarajatlarning turlari bo‘yicha qo‘shimcha axborotni, jumladan eskirish (amortizatsiya) xarajatlarini, xodimlarni saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni, xomashyo va xalq iste’moli mollaridan foydalanish xarajatlari bo‘yicha qo‘shimcha axborotlarni ochib berishi kerak.

«Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot» (5-sonli shakl) qismi bo‘yicha tushuntirishlarda korxona xususiy kapitali qatnashchisining chiqib ketishi, aksiyadorlik jamiyati tomonidan aksiyalarning sotib olinishi yoki sotib olingan aksiyalarni bekor qilinishi, aksiyalar nominal qiymatining pasayishi yoki boshqa sabablarga ko‘ra kamayib ketganligi haqidagi ma’lumotlar keltiriladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari xususiy kapital to‘g‘risidagi tushuntirishda quyidagilar haqidagi axborotni keltiradilar:

- obuna amalga oshirilishi nazarda tutiladigan aksiyalarning umumiy soni va nominal qiymati;
- nazarda tutilgan miqdorlar bilan taqqoslaganda obuna amalga oshirilgan aksiyalarning umumiy miqdori va nominal qiymati;
- aksiyalarga obunaning borishi chog‘ida olingan mablag‘lar umumiy summasi;
- ayrim turlar va toifalar bo‘yicha ustav kapitali tarkibidagi aksiyalar;
- imtiyozli aksiyalar bo‘yicha to‘lanmagan jamlangan dividendlar summasi;
- aksiyalar ko‘rinishida to‘lanadigan dividendlar, xususan, to‘lanadigan aksiyalarning soni va qiymati, shuningdek, ularning turlari yoki toifalari to‘g‘risida;
- hisobot davrida yuz bergan maydalash yoki qo‘shib yuborishlar va aksiyalarning maydalanishi yoki qo‘shib yuborilishigacha va undan keyingi aksiyalarning nominal qiymati to‘g‘risidagi.

Aksiyalarga obunaning borishi chog‘ida olingan mablag‘lar umumiy summasi tushuntirishda quyidagilar bo‘yicha keltiriladi:

- aksiyalar uchun haq sifatida kirim qilingan barcha pul mablag‘lari, aksiyalar soni ko‘rsatilgan holda;
- aksiyalar uchun to‘lov sifatida kirim qilingan mol-mulkning qiymat bahosi, aksiyalar soni ko‘rsatilgan holda;
- aksiyalar uchun haq sifatida kirim qilingan chetel valyutasining umumiy summasi, aksiyalar soni va hisobda valyuta kirim qilingan kursi ko‘rsatilgan holda.

Ustav kapitali tarkibidagi aksiyalar haqidagi axborot tushuntirishda ayrim turlar va toifalar bo‘yicha keltiriladi:

- chiqarilgan aksiyalar soni, ustav kapitalining to‘lanmagan qismi ko‘rsatilgan holda;
- aksiyaning nominal qiymati;
- muomalada bo‘lgan aksiyalar sonida hisobot davri mobaynidagi o‘zgartirishlar;
- aksiyalar bilan bog‘liq huquqlar, imtiyozlar va cheklashlar, shu jumladan dividendlarning taqsimlanishi va kapitalning qaytarib berilishi bo‘yicha cheklashlar;
- jamiyatning o‘ziga, uning shu’ba va uyushgan korxonalariga tegishli aksiyalar;
- ular egalik qilayotgan ta’sischilar ro‘yxati va aksiyalar soni;
- ijroiya organi a’zolarining mulki bo‘lgan aksiyalar soni;
- optsionlar va boshqa kontraktlarga binoan chiqarish uchun zaxiralashtirilgan aksiyalar, ularning muddatlari va summalari ko‘rsatilgan holda;
- konvertatsiyalanadigan (aksiyalar yoki obligatsiyalarga) aksiyalarning soni va nominal qiymati hamda ushbu aksiyalarning qarzga oid qimmatli qog‘ozlarga konvertatsiya qilinishi hollarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan majburiyatlar.

Boshqa barcha korxonalar moliyaviy hisobotlarga oid izohlarda quyidagilar to‘g‘risidagi axborotni keltiradilar:

- egalik qiluvchilar o‘rtasida ustav kapitali ulushining taqsimlanishi;
- ushbu ulushlarga tegishli huquqlar, imtiyozlar yoki cheklashlar;
- ustav kapitali tarkibida egalik qiluvchilar ulushi tarkibidagi o‘zgartirishlar.

ILOVALAR

1-ilova

Moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrdagi 140-sonli buyrug‘iga 1-sonli ilova,
Adliya vaziriligi tomonidan 2003-yil 24-yanvarda 1209-son bilan ro‘yxatga olingan

BUXGALTERIYA BALANSI - 1-sonli shakl
_____20___ -yilga

										Kodlar		
								BHUT bo‘yicha 1-shakl		0710001		
Korxona, tashkilot_____							KTUT bo‘yicha-					
Faoliyat turi _____							IFUT bo‘yicha-					
Tashkiliy-huquqiy shakli _____							THSHT bo‘yicha-					
Mulkchilik shakli _____							MSHT bo‘yicha-					
Vazirlik, idora va boshqalar _____							DBIBT bo‘yicha-					
Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami _____							STIR-					
Hudud_____							MHOBT-					
Manzil _____							Jo‘natilgan sana-					
O‘lchov birligi, ming so‘m							Qabul qilingan sana-					
							Taqdim qilish muddati-					

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Aktiv			
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar:			
Boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300)	010		
Eskirish summasi (0200)	011		
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 010 - 011)	012		
Nomoddiy aktivlar:			
Boshlang‘ich qiymati (0400)	020		
Amortizatsiya summasi (0500)	021		
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 020 - 021)	022		
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr.040+050+060+070+080), shu jumladan:	030		
Qimmatli qog‘ozlar (0610)	040		
Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	050		
Qaram xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	060		
Chetel kapitali mavjud bo‘lgan korxonalarga investitsiyalar (0640)	070		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080		
O‘rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090		
Kapital qo‘yilmalar (0800)	100		
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940)	110		
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	120		
I bo‘lim bo‘yicha jami (satr. 012+022+030+090+100+110+120)	130		

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
II. Joriy aktivlar			
Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr.150+160+170+180), shu jumladan:	140		
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100, 1500, 1600)	150		
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	160		
Tayyor mahsulot (2800)	170		
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180		
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190		
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200		
Debitorlar, jami (satr.220+240+250+260+270+280+290+300+310)	210		
shundan: muddati o‘tgan*	211		
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220		
Ajratilgan bo‘linmalarning qarzi (4110)	230		
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarning qarzi (4120)	240		
Xodimlarga berilgan bo‘naklar (4200)	250		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar (4300)	260		
Byudjetga soliqlar yig‘im bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4400)	270		
Maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4500)	280		
Ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi (4600)	290		
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzi (4700)	300		
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	310		
Pul mablag‘lari, jami (satr.330+340+350+360), shu jumladan:	320		
Kassadagi pul mablag‘lari (5000)	330		
Hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘lari (5100)	340		
Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari (5200)	350		
Boshqa pul mablag‘lari va ekvivalentlari (5500, 5600, 5700)	360		
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	370		
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380		
II bo‘lim bo‘yicha jami (satr.140+190+200+210+320+370+380)	390		
Balans aktivi bo‘yicha jami (satr.130+390)	400		

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Passiv			
I. O‘z mablag‘lari manbalari			
Ustav kapitali (8300)	410		
Qo‘shilgan kapital (8400)	420		
Rezerv kapitali (8500)	430		
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440		
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450		
Maqsadli tushumlar (8800)	460		
Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar (8900)	470		

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
I bo‘lim bo‘yicha jami (satr.410+420+430-440+450+460+470)	480		
II. Majburiyatlar			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr.500+520+530+540+550+560+570+580+590)	490		
shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (satr.500+520+540+560+590)	491		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000)	500		
Ajratilgan bo‘linmalarga uzoq muddatli qarz (7110)	510		
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarga uzoq muddatli qarz (7120)	520		
Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7230)	530		
Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7240)	540		
Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7250, 7290)	550		
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar (7300)	560		
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	570		
Uzoq muddatli qarzlar (7820, 7830, 7840)	580		
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlar (7900)	590		
Joriy majburiyatlar, jami (satr.610+630+640+650+660+ +670 +680+690+700+710+720+730+740+750+760)	600		
shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (satr.610+630+650+670+680+690+700+710+720+760)	601		
shundan: muddati o‘tgan joriy kreditorlik qarzlari*	602		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	610		
Ajratilgan bo‘linmalarga qarz (6110)	620		
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarga qarz (6120)	630		
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	640		
Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	650		
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)	660		
Olingan bo‘naklar (6300)	670		
Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6400)	680		
Sug‘urtalar bo‘yicha qarz (6510)	690		
Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6520)	700		
Ta’sischilarga bo‘lgan qarzlar (6600)	710		
Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarz (6700)	720		
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730		
Qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840)	740		
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	750		
Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashqari 6900) Boshqa kreditorlik qarzlar (6900 dan tashqari 6950)	760		
II-bo‘lim bo‘yicha jami (satr.490+600)	770		
Balans passivi bo‘yicha jami (satr.480+770)	780		

BALANSDAN TASHQARI SCHYOTLARDA HISOBGA OLINADIGAN QIYMATLIKLARNING MAVJUDLIGI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
Operativ ijaraga olingan asosiy vositalar (001)	790		
Mas’ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklar (002)	800		
Qayta ishlashga qabul qilingan materiallar (003)	810		
Komissiyaga qabul qilingan tovarlar (004)	820		
O‘rnatish uchun qabul qilingan uskunalar (005)	830		
Qat’iy hisobot blankalari (006)	840		
To‘lovga qobiliyatsiz debitorlarning zararga hisobdan chiqarilgan qarzi (007)	850		
Olingan majburiyat va to‘lovlarning ta’minoti (008)	860		
Berilgan majburiyat va to‘lovlarning ta’minoti (009)	870		
Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar (010)	880		
Ssuda shartnomasi bo‘yicha olingan mulklar (011)	890		
Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar (012)	900		
Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha) (013)	910		
Foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlari (014)	920		

* Muddati o‘tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari mavjud bo‘lgan hollarda ularning rasshifrovkasi Buxgalteriya balansining ilovasiga muvofiq keltiriladi

Rahbar _____ _____
F.I.SH. imzo

Bosh buxgalter _____ _____
F.I.SH. imzo

Buxgalteriya balansiga ilova

MUDDATI O‘TGAN DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARI RASSHIFROVKASI
20___ -yil _____ holatiga

№	Muddati o‘tgan qarzdorlikka ega bo‘lgan debitor va kreditorlar ro‘yxati	Muddati o‘tgan umumiy qarz	Tashkilotga bog‘liq bo‘lmagan sabablar bo‘yicha vujudga kelgan muddati o‘tgan qarzlar				
			Jami	shu jumladan:			
				Hukumat qarorlariga asosan oldindan haq to‘lamay jo‘natilgan (olingan) mahsulotlar bo‘yicha muddati o‘tgan qarzlar	Davlat resurslari va jamg‘armalaridan jo‘natish ko‘zda tutilgan xomashyo va materiallar bo‘yicha o‘tkazilgan bo‘nak to‘lovlari summasi	Hukumat qarorlari bo‘yicha kechiktirilgan qarzlar	Qonunchilikka muvofiq da’volar bo‘yicha sud jarayonida ko‘rib chiqilayotgan yoki xo‘jalik sudi tomonidan kreditorlardan undirish to‘g‘risida qaror chiqqan qarzlar summasi
1	2	3	4	5	6	7	8
MUDDATI O‘TGAN DEBITORLIK QARZLARI							
1.	**Muddati o‘tgan qarzdorlikka ega bo‘lgan debitorlar, jami**						
2.	**Respublika ichidagi muddati o‘tgan qarzlar, jami**						
2.1.	shu jumladan, debitorlar nomi bo‘yicha						
2.2.	**Ichki idoraviy muddati o‘tgan qarzlar, jami**						
2.2.1.	shu jumladan debitorlar nomi bo‘yicha						
3.	**Respublikadan tashqaridagi muddati o‘tgan qarzlar, jami**						
3.1.	shu jumladan debitorlar nomi bo‘yicha						
MUDDATI O‘TGAN KREDITORLIK QARZLARI							
4.	**Muddati o‘tgan qarzdorlikka ega bo‘lgan kreditorlar, jami**				x		
5.	**Respublika ichidagi muddati o‘tgan qarzlar, jami**				x		
5.1.	shu jumladan, kreditorlar nomi bo‘yicha				x		
5.2.	**Ichki idoraviy muddati o‘tgan qarzlar, jami**				x		
5.2.1.	shu jumladan kreditorlar nomi bo‘yicha				x		
6.	**Respublikadan tashqaridagi muddati o‘tgan qarzlar, jami**				x		
6.1.	shu jumladan kreditorlar nomi bo‘yicha				x		

Rahbar _____ _____
F.I.SH. imzo

M.O‘. (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda)

Bosh buxgalter _____ _____
F.I.SH. imzo

2-ilova

Moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrdagi 140-sonli buyrug‘iga 2-sonli ilova,
Adliya vaziriligi tomonidan 2003-yil 24-yanvarda 1209-son bilan ro‘yxatga olingan

MOLIYAVIY NATIJALAR TO‘G‘RISIDAGI HISOBOT - 2-sonli shakl
20__ -yil 1-yanvardan 20__ -yil 1- _____gacha

		Kodlar
	BHUT bo‘yicha 2-shakl	0710002
Korxona, tashkilot_____	KTUT bo‘yicha-	
Faoliyat turi _____	IFUT bo‘yicha-	
Tashkiliy-huquqiy shakli _____	THSHT bo‘yicha-	
Mulkchilik shakli _____	MSHT bo‘yicha-	
Vazirlik, idora va boshqalar _____	DBIBT bo‘yicha-	
Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami _____	STIR-	
Hudud_____	MHOBT-	
Manzil _____	Jo‘natilgan sana-	
O‘lchov birligi, ming so‘m	Qabul qilingan sana-	
	Taqdim qilish muddati-	

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	O‘tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
		daromadlar (foyda)	xarajatlar (zararlar)	daromadlar (foyda)	xarajatlar (zararlar)
1	2	3	4	5	6
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan sof tushum	010		x		x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	020	x		x	
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr.010-020)	**030**				
Davr xarajatlari, jami (satr.050+060+070+080), shu jumladan:	**040**	**x**		**x**	
Sotish xarajatlari	050	x		x	
Ma’muriy xarajatlar	060	x		x	
Boshqa operatsion xarajatlar	070	x		x	
Hisobot davrining soliq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari	080	x		x	
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari	090		x		x
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (satr. 030-040+090)	**100**				
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami (satr.120+130+140+150+160), shu jumladan:	**110**		x		x
Dividendlar shaklidagi daromadlar	120		x		x
Foizlar shaklidagi daromadlar	130		x		x
Moliyaviy ijaradan daromadlar	140		x		x
Valyuta kursi farqidan daromadlar	150		x		x
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	160		x		x
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar (satr.180+190+200+210), shu jumladan:	**170**	x		x	

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	O‘tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
		daromadlar (foyda)	xarajatlar (zararlar)	daromadlar (foyda)	xarajatlar (zararlar)
1	2	3	4	5	6
Foizlar shaklidagi xarajatlar	180	x		x	
Moliyaviy ijara bo‘yicha foizlar shaklidagi xarajatlar	190	x		x	
Valyuta kursi farqidan zararlar	200	x		x	
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar	210	x		x	
Umumxo‘jalik faoliyatining foydasi (zarari) (satr.100+110-170)	**220**				
Favquloddagi foyda va zararlar	230				
Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar) (satr.220+/-230)	**240**				
Foyda solig‘i	250	x		x	
Foydadan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar	260	x		x	
hisobot davrining sof foydasi (zarari) (satr.240-250-260)	**270**				

BYUDJETGA TO‘LOVLAR TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri uchun hisob-kitob bo‘yicha to‘lanadi	Hisobot davri uchun hisob-kitob bo‘yicha hisoblangandan haqiqatda to‘langani
Qo‘shilgan qiymat solig‘i	280		
Aksiz solig‘i	290		
Foyda solig‘i	300		
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	310		
shu jumladan: shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya schetlariga ajratmalar	311		
Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	320		
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	330		
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	340		
Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	350		
Aylanmadan soliq	360		
Ijtimoiy soliq	370		
Boshqa soliqlar	380		
Import bo‘yicha bojxona boji	390		
Mahalliy byudjetga yig‘imlar	400		
Avtotransport yig‘imlari	410		
Byudjetga to‘lovlarning kechiktirilganligi uchun moliyaviy jazolar	420		
Jami byudjetga to‘lovlar summasi (280 dan 470 satrgacha 291 satrdan tashqari)	430		

Rahbar _____ F.I.SH. _____ imzo

Bosh buxgalter _____ F.I.SH. _____ imzo

3-ilova

Moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrdagi 140-sonli buyrug‘iga 3-sonli ilova,
Adliya vaziriligi tomonidan 2003-yil 24-yanvarda 1209-son bilan ro‘yxatga olingan

PUL OQIMLARI TO‘G‘RISIDA HISOBOT - 4-sonli shakl
_____ 20__ -yil uchun

		Kodlar
	BHUT bo‘yicha 4-shakl	0710004
Korxona, tashkilot_____	KTUT bo‘yicha-	
Faoliyat turi _____	IFUT bo‘yicha-	
Tashkiliy-huquqiy shakli _____	THSHT bo‘yicha-	
Mulkchilik shakli _____	MSHT bo‘yicha-	
Vazirlik, idora va boshqalar _____	DBIBT bo‘yicha-	
Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami _____	STIR-	
Hudud_____	MHOBT-	
Manzil _____	Jo‘natilgan sana-	
O‘lchov birligi, ming so‘m	Qabul qilingan sana-	
	Taqdim qilish muddati-	

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Kirim	Chiqim
Operatsion faoliyat			
Mahsulot (tovar ish va xizmat) larni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari	**010**		
Material tovar ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari	**020**		
Xodimlarga va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari	**030**		
Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to‘lovlari	**040**		
Jami. operatsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (satr 010-020-030+/-040)	**050**		
Investitsiya faoliyati			
Asosiy vositalarni sotib olish va sotish	**060**		
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	**070**		
Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish	**080**		
Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to‘lovlari	**090**		
Jami: investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (satr 060+/-070+/-080+/-090)	**100**		
Moliyaviy faoliyat			
Olingan va to‘langan foizlar	**110**		
Olingan va to‘langan dividendlar	**120**		
Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa instumentlardan kelgan pul tushumlari	**130**		
Xususiy aksiyalarni sotib olganda va ularni sotganda pul to‘lovlari va tushumlari	**140**		
Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzlar bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari	**150**		
Moliyaviy ijara bo‘yicha pul tushumlari va to‘lovlari	**160**		
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to‘lovlari	**170**		
Jami: moliyaviy faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (satr 110+/-120+130-140+/-150+/-160-1-/-170)	**180**		

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Kirim	Chiqim
Soliqqa tortish			
To‘langan foida solig‘i	**190**		
To‘langan boshqa soliqlar	**200**		
Jami to‘langan soliqlar (satr 190+200)	**210**		
Jami moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining sof pul kirimi/chiqimi (satr 050+/-100+/- 180-2 10)	**220**		
Chetel valyutasidagi pul mablag‘larini qayta baholashdan yuzaga kelgan kurs farqlari saldosi	**221**		
Yil boshidagi pul mablag‘lari	**230**		
Yil oxiridagi pul mablag‘lari	**240**		

CHETEL VALYUTASIDAGI PUL MABLAG‘LARINING HARAKATI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Miqdori
Yil boshiga qoldiq	**250**	
Kelib tushgan valyuta mablag‘lari, jami (satr 261+262+263+264), shu jumladan	**260**	
Sotishdan olingan tushum	**261**	
Konvertatsiya qilingan	**262**	
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha	**263**	
Boshqa manbalar	**264**	
Sarflangan valyuta mablag‘lari, jami (satr 271+272+273), shu jumladan	**270**	
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lovlar	**271**	
Moliyaviy faoliyat bo‘yicha to‘lovlar	**272**	
Boshqa maqsadlar uchun	**273**	
Chetel valyutasidagi pul mablag‘larini qayta baholashdan yuzaga kelgan kurs farqlari saldosi	**280**	
Yil oxiridagi qoldiq (satr. 250+260-270+/-280)	**290**	

Rahbar _____ _____
F.I.SH. imzo

Bosh buxgalter _____ _____
F.I.SH. imzo

4-*ilova*

Moliya vazirining 2002-yil 27-dekabrdagi 140-sonli buyrug‘iga 4-sonli ilova,
Adliya vaziriligi tomonidan 2003-yil 24-yanvarda 1209-son bilan ro‘yxatga olingan

XUSUSIY KAPITAL TO‘G‘RISIDAGI HISOBOT - 5-sonli shakl
_____ 20__ -yil uchun

		Kodlar
	BHUT bo‘yicha 5-shakl	0710005
Korxona, tashkilot_____	KTUT bo‘yicha-	
Faoliyat turi _____	IFUT bo‘yicha-	
Tashkiliy-huquqiy shakli _____	THSHT bo‘yicha-	
Mulkchilik shakli _____	MSHT bo‘yicha-	
Vazirlik, idora va boshqalar _____	DBIBT bo‘yicha-	
Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami _____	STIR-	
Hudud_____	MHOBT-	
Manzil _____	Jo‘natilgan sana-	
O‘lchov birligi, ming so‘m	Qabul qilingan sana-	
	Taqdim qilish muddati-	

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Ustav kapitali	Qo‘shilgan kapital	Rezerv kapitali	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	Sotib olingan xususiy aksiyalar	Maqsadli tushumlar va boshqalar	Jami
1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**
Yil boshidagi qoldiq	010							
Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi	020			x	x	x	x	
Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash	030	x	x		x	x	x	
Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo‘lgan valyuta kursi farqlari	040	x		x	x	x	x	
Rezerv kapitaliga ajratmalar	050	x	x			x	x	
Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari)	060	x	x	x		x	x	
Tekinga olingan mol-mulk	070	x	x		x	x	x	
Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag‘lar	080	x	x	x	x	x		
Hisoblangan dividendlar	090	x	x	x		x	x	
Xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari	100							
Yil oxiridagi qoldiq	**110**							
Xususiy kapitalining ko‘payishi (+) yoki kamayishi (-)	120							
MA’LUMOT UCHUN:								
Chiqarilgan aksiyalar soni, dona	130	x	x	x	x	x	x	
shu jumladan:								
imtiyozli	131	x	x	x	x	x	x	
oddiy	132	x	x	x	x	x	x	
Aksiyaning nominal qiymati	140	x	x	x	x	x	x	
Muomaladagi aksiyalar soni, dona	150	x	x	x	x	x	x	
shu jumladan:								
imtiyozli	151	x	x	x	x	x	x	
oddiy	152	x	x	x	x	x	x	

Rahbar _____ F.I.SH. _____ imzo

Bosh buxgalter _____ F.I.SH. _____ imzo

13-BOB. QAYTA TASHKIL ETISHNI AMALGA OSHIRISHDA MOLIYAVIY HISOBOTNI SHAKLLANTIRISH

1-§. Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotlarni shakllantirishning huquqiy asoslari

Yuridik shaxs bo‘lib o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan korxona hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 49-moddasiga muvofiq korxonani qayta tashkil etish uning ta’sischilari (ishtirokchilari) yoki ta’sis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- qo‘shib yuborish;
- qo‘shib olish;
- bo‘lish;
- ajratib chiqarish;
- o‘zgartirish.

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarni qayta tashkil etishni amalga oshirishni tartibga soluvchi bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud. Yuridik shaxslarni qayta tashkil etishning ***huquqiy asosini belgilovchi asosiy me’yoriy hujjat bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hisoblanadi.***

O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi Qonunining 92-97-moddalarida ***aksiyadorlik jamiyatlarini***, «Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida» gi Qonunining 49-54-moddalarida ***mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlarni*** va «Xususiy korxonalar to‘g‘risida» gi Qonuninng 28-moddasida ***xususiy korxonalarni qayta tashkil etishni amalga oshirish tartibi ochib berilgan.***

Iqtisodiyotning turli sohalarida qayta tashkil etishni amalga oshirishning bir qator xususiyatlari mavjudligini hisobga olgan holda bizning Respublikamizda iqtisodiyotni ayrim sohalaridagi yuridik shaxslarni qayta tashkil etishni masalalarini tartibga soladigan alohida me’yoriy hujjatlar mavjud.

SHuni alohida ta’kidlash lozimki, yuqorida aytib o‘tilgan me’yoriy hujjatlarda asosan faqatgina korxonalarni qayta tashkil etishni amalga oshirishni huquqiy va tashkiliy tomonlari keltirilgan, qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirish tartibi esa 23-son BHMS da yoritib berilgan.

Bundan tashqari, qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobining milliy standartlari va boshqa buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Korxonalarni qayta tashkil etish haqidagi axborotning moliyaviy hisobotda yoritish quyidagilarga asosan amalga oshiriladi:

- O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq korxonalarni bo‘lish yoki ularning tarkibidan bir yoxud bir nechta korxonani ajratib chiqarish shaklida korxonalarni qayta tashkil etishda korxonaning ta’sischilari (ishtirokchilari) yoki ta’sis hujjatlarida shunga vakil qilingan yuridik shaxs organi yoki vakolatli davlat organlarining (keyingi o‘rinlarda - ta’sischilar)

qaroriga yoxud qonunda belgilangan hollarda sud qaroriga asosan;

- qonunda belgilangan hollarda korxonalarni qo‘shib yuborish, qo‘shib olish yoki o‘zgartirish shaklida qaytadan tashkil etishda vakolatli davlat organlarining roziligiga asosan.

Korxonalarni qayta tashkil etish haqidagi axborotni moliyaviy hisobotda yoritish uchun ta’sischilar qarorida quyidagilar nazarda tutilishi mumkin:

- aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish muddatlari;

- huquqiy vorislik tartibida topshiriluvchi (qabul qilinuvchi) aktivlar va majburiyatlarni baholash usuli;

- topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi tasdiqlanganidan keyin qayta tashkil etilayotgan korxonaning joriy faoliyati natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan aktivlar va majburiyatlarning o‘zgarishi munosabati bilan huquqiy vorislik tartibi, shuningdek muayyan xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirish (kreditlar va qarzlar olish yoki berish, investitsiyalarni amalga oshirish va boshqalar) ning alohida tartibi;

- yangi vujudga kelgan yoki qayta tashkil etilayotgan korxonalarning ta’sis hujjatlarida aks ettirish uchun ustav kapitalini shakllantirish tartibi va uning miqdori;

- aksiyadorlardan aksiyalarni sotib olishga (xarid qilishga) yo‘naltirish zaruriyati yuzaga kelishi mumkinligini hisobga olgan holda, qayta tashkil etilayotgan korxona hisobot davrida va o‘tgan yillarda olgan sof foydani yo‘naltirish (taqsimlash), shartli va kafolatlangan majburiyatlarni hisobdan chiqarish (oqibatlarni baholagan holda tan olish) va boshqalar.

Qayta tashkil etish jarayonida korxona O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan aniq harakatlarni: inventarizatsiya o‘tkazish, topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash banlansini tuzish, kreditorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish, barcha tartibga soluvchi va baholash schyotlarni yopish (mol-mulk va majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlardan tashqari), yakuniy moliyaviy hisobotni tuzish va boshqalarni bajarishi kerak.

Mazkur bob korxonalarda (davlat unitar korxonalarini xususiylashtirish bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalaridan tashqari) qayta tashkil etish jarayonida moliyaviy hisobotlarni ko‘rsatkichlarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Bunda korxonaning aktivlari va majburiyatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish, topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash banlansini tuzish, kreditorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish, barcha tartibga soluvchi va baholash schyotlarni yopish (mol-mulk va majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlardan tashqari), yakuniy moliyaviy hisobotni tuzish va ular bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi ishlab chiqilgan.

Mazkur bobda 23-son BHMSda keltirilgan quyidagi atamalar qo‘llaniladi:

- qo‘shib yuborish - o‘z faoliyatini tugatgan ikki yoki bir nechta korxonaning barcha huquqlari va majburiyatlarini unga berish yo‘li bilan yangi korxonani vujudga keltirish;

- qo‘shib olish - bir yoki bir nechta korxona faoliyatini to‘xtatib, ularning huquqlari va majburiyatlarini boshqa korxonaga berish;

- bo‘lish - korxona faoliyatini to‘xtatib, uning huquqlari va majburiyatlarini yangi tuzilayotgan korxonalarga berish;

- ajratib chiqarish - korxonalarning huquq va majburiyatlari bir qismini unga berish yo‘li bilan yangi korxonani vujudga keltirish;

- o‘zgartirish - yangi vujudga kelgan yuridik shaxsga qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning barcha huquqlari va majburiyatlarini berish yo‘li bilan korxonaning tashkiliy-huquqiy shaklini o‘zgartirish;

- qayta tashkil etilayotgan korxonalarning joriy faoliyati bilan bog‘liq operatsiyalar - tovar-

moddiy qiymatliklarni sotish, kreditorlar bilan hisob-kitob qilish, topshirilayotgan mulk bo‘yicha amortizatsiyani hisoblash, xodimlarga mehnat haqini hisoblash, tegishli byudjetlar bilan soliqlar, yig‘imlar va to‘lovlar bo‘yicha hamda davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy to‘lovlar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish, topshirish dalolatnomasiga kiritilishi lozim bo‘lmagan kelgusi davr xarajatlarini, masalan, huquqlari huquqiy vorislik tartibida berilishi mumkin bo‘lmagan faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya olish xarajatlarini va boshqa shunga o‘xshagan xarajatlarni hisobdan chiqarish;

- aksiyalarni konvertatsiya qilish - buning natijasida bir yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyati tashkil topadigan qayta tashkil etishda bir aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini boshqa aksiyadorlik jamiyati (aksiyadorlik jamiyatlari)ning aksiyalariga yoki boshqa korxonalarning ulushlari (paylari)ga ayirboshlash operatsiyasi;

- ayirboshlash - buning natijasida boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi korxona (aksiyadorlik jamiyatidan tashqari) tashkil topadigan qayta tashkil etishda bir yoki bir nechta aksiyadorlik jamiyatining aksiyalari, korxonalarning ulushlari (paylari)ni boshqa korxonalarning ulushlari (paylari)ga ayirboshlash operatsiyasi.

Korxonalar qayta tashkil etish jarayonida aktivlar va majburiyatlar huquqiy vorisga topshirishni boshlang‘ich hisobini tegishli ravishda tashkil etish va ularni bilan bog‘liq operatsiyalarni nazorat qilish uchun zarur bo‘ladigan tashkiliy-taqsimlovchi hujjatlarni ishlab chiqishlari mumkin.

2-§. Moliyaviy hisobotda aks ettirish maqsadida qayta tashkil etish amalga oshirilganligining tan olinishi

Qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etish hollarini istisno qilganda, qayta tashkil etish natijasida yuzaga kelgan korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan boshlab korxona qayta tashkil etilgan hisoblanadi. Korxona unga boshqa korxonani qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etilganida qo‘shib olingan korxonaning faoliyati to‘xtatilgani haqidagi yozuv yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga kiritilgan paytdan boshlab bu korxona qayta tashkil etilgan hisoblanadi.

Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish quyidagilar mavjud bo‘lgan holda amalga oshiriladi:

- qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonalarning ta’sis hujjatlari;
- O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilangan va 23-son BHMSning 6-bandida ko‘rsatilgan ta’sischilar qarori yoki tegishli organlarning qayta tashkil etishga roziligi;
- O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda qo‘shib yuborish yoki qo‘shib olish to‘g‘risidagi shartnomalar;
- topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi;
- O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, ro‘yxatga oluvchi organ: qo‘shib yuborish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etishda yangi vujudga kelgan korxonalar haqidagi yozuvni; qo‘shib olish shaklidagi qayta tashkil etishda qo‘shib olingan korxonalarning oxirgisi faoliyati to‘xtatilgani haqidagi yozuvni yagona davlat reestriga kiritganini tasdiqlovchi hujjat va h.k.lar.

Ta’sischilar qarori (shartnomasi)ga binoan topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi quyidagi ilovalarni o‘z ichiga oladi:

- qayta tashkil etilayotgan korxona aktivlari va majburiyatlari tarkibi, shuningdek qonun

hujjatlarida belgilangan tartibda aktivlar va majburiyatlarni topshirishni rasmiylashtirish sanasidan oldingi oxirgi hisobot sanasiga bo‘lgan ularning bahosi aks ettirilgan, O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha Qoidalarni» tasdiqlash to‘g‘risida» buyrug‘i da nazarda tutilgan tarkibda moliyaviy hisobot;

- topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansini tuzish oldidan 19-son BHMSga muvofiq o‘tkazilgan va ularning to‘g‘riligini (aktivlar va majburiyatlarning mavjudligi, holati va bahosini) tasdiqlovchi, qayta tashkil etilayotgan korxonaning aktivlari va majburiyatlarini inventarizatsiya qilish dalolatnomalari (xatlash hujjatlari);

- moddiy va nomoddiy aktivlar bo‘yicha boshlang‘ich hujjatlar (asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, tovar-moddiy zaxiralar va boshqalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalari (yukxatlari)), korxonalarni qayta tashkil etishda qabul qilinishi-topshirilishi lozim bo‘lgan boshqa aktivlarning ro‘yxatlari (xatlash hujjatlari);

- qayta tashkil etilayotgan korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tgan paytdan boshlab mol-mulki va tegishli shartnomalar va kontraktlar bo‘yicha majburiyatlari huquqiy vorisga o‘tganligi haqida ularning kreditorlari va debitorlariga belgilangan muddatda (qayta tashkil etish haqida qaror qabul qilingan sanadan e’tiboran 30 kundan kechiktirmay) yozma ravishda xabardor etganligi to‘g‘risidagi axborot ko‘rsatilgan kreditorlik va debitorlik qarzlari, tegishli byudjetlar, maqsadli davlat jamg‘armalari va boshqalar bilan hisob-kitoblar rasshifrovkasi (ularni xatlash hujjatlari).

Aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish va ularning natijalarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «1-bob. Asosiy vositalar hisobi», «3-bob. Moliyaviy investitsiyalar hisobi», «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi», «7-bob. Pul mablag‘lari va ekvivalentlari hisobi», «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Topshirish dalolatnomasi va taqsimlash balansi qayta tashkil etilgan korxonaning barcha kreditorlari va qarzdorlariga nisbatan barcha majburiyatlari bo‘yicha, shu jumladan taraflar nizolashayotgan majburiyatlar bo‘yicha ham, huquqiy vorislik to‘g‘risidagi qoidalarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak.

Topshirish dalolatnomasi va taqsimlash balansi yuridik shaxs ta’sischilari (ishtirokchilari) tomonidan yoki yuridik shaxslarni qayta tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilgan organ tomonidan tasdiqlanadi hamda ta’sis hujjatlari bilan birga yangi vujudga kelgan korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yoki mavjud korxonalarning ta’sis hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish uchun taqdim etiladi.

Topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansini belgilangan tartibda tasdiqlash sanasi ta’sischilar yoki qayta tashkil etish haqidagi qarorni qabul qilgan organ tomonidan ta’sischilarning qayta tashkil etish to‘g‘risidagi shartnomasi (qarori)da nazarda tutilgan qayta tashkil etishni amalga oshirish muddati doirasida, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan zarur taomillar (qayta tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingani haqida kreditorlar, aksiyadorlar va ishtirokchilarni xabardor etish, ularning majburiyatlarni tugatish yoki muddatidan ilgari bajarish va zararlarni qoplash haqida talablar qo‘yishi, aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish va boshqalar) dan kelib chiqib belgilanadi.

Topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansini tuzishni hisobot davri (yili)ning oxiriga yoki qayta tashkil etilayotgan korxonaning berilayotgan aktivlari va majburiyatlarini tavsiflash va baholash uchun asos bo‘lgan oraliq (choraklik) moliyaviy hisobot tuzish sanasiga mo‘ljallash tavsiya etiladi. Topshirish dalolatnomasi (1-ilovaga qarang) va taqsimlash balansining (2-ilovaga qarang) namunaviy shakli tavsiya etilgan.

3-§. Aktivlar va majburiyatlarni baholash

Korxonalarni qayta tashkil etishda topshiriluvchi (qabul qilinuvchi) aktivlar va majburiyatlarni baholash ta'sischilarning qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qarori (shartnoma)da belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi. Aktivlar va majburiyatlarning har bir turi uchun aktivlarning boshqa turlari uchun qo‘llanadigan baholash usullaridan farqli alohida baholash usuli belgilanishi mumkin.

Yuridik shaxsni qayta tashkil etishda topshiriladigan aktivlar quyidagi qiymatlar bo‘yicha baholanishi mumkin:

- xaridning haqiqiy tannarxi bo‘yicha;
- boshlang‘ich qiymati bo‘yicha;
- qoldiq qiymati bo‘yicha;
- qayta tiklash qiymati bo‘yicha;
- nominal qiymati bo‘yicha;
- ishlab chiqarishning haqiqiy to‘la tannarxi bo‘yicha;
- bevosita xarajatlarga ko‘ra ishlab chiqarishning haqiqiy tannarxi bo‘yicha;
- rejali, me'yoriy tannarxi bo‘yicha;
- bozor bahosi bo‘yicha.

23-son BHMS ga ilovada (3-ilovaga qarang) korxonalarni qayta tashkil etishda qo‘llash tavsiya etiladigan baholash turlari jadvali keltirilgan.

Bunda topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansida aks ettirilgan aktivlar qiymati topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansiga ilovalar (inventarizatsiya hujjatlari (ro‘yxatlari), rasshifrovkalar)da keltirilgan ma'lumotlar bilan tegishli qiymat bahosida mos kelishi lozim.

Qayta tashkil etish vaqtida ta'sischilar qarori (shartnomasi)ga muvofiq 23-son BHMS 15-bandining «a»-«z» kichik bandlarida ko‘rsatilgan qiymatlar bo‘yicha topshiriluvchi aktivlarni baholashda qayta tashkil etilayotgan korxonaning topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansida topshirilayotgan aktivni aks ettirish mazkur hujjatlarni tuzish uchun asos bo‘lgan moliyaviy hisobotda aks ettirilgan summada amalga oshiriladi.

Ta'sischilar qarori (shartnomasi)ga muvofiq qayta tashkil etishda topshiriluvchi mol-mulkni joriy bozor bahosi bo‘yicha baholash qayta tashkil etilayotgan korxona tomonidan topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansini tuzish chog‘ida amalga oshirilishi mumkin.

Topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansida qayta tashkil etilayotgan korxona majburiyatlarining bahosi kreditorlik qarzi inventarizatsiya natijalariga ko‘ra buxgalteriya hisobi schyotlarida ifodalangan summada aks ettiriladi, bunda korxona qayta tashkil etilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq kreditorlarga qoplanishi kerak bo‘lgan zararlar summasi hisobga olinishi lozim.

Aksiyadorlik jamiyatlarining korxonalar ustav kapitalidagi aksiyadorlarning talabiga binoan sotib olinishi lozim bo‘lgan aksiyalarini baholash ularning «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq aniqlangan joriy bozor bahosidan past bo‘lmagan narxda belgilangan tartibda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan amalga oshiriladi.

Nazarda tutilgan barcha taomillar bajarilganidan keyin, belgilangan tartibda sotib olingan, qayta tashkil etilayotgan korxonalarga tegishli aksiyalar bekor qilinayotganida buxgalteriya hisobida ustav kapitalining aksiyalar nominal qiymatiga kamayishi aks ettiriladi.

Agar aksiyalarni sotib olishga amaldagi xarajatlar miqdori aksiyalar nominal qiymatidan katta bo‘lsa, yuzaga keluvchi farq qo‘shilgan kapitalning kamayishi hisobiga, qo‘shilgan kapital miqdori yetarli bo‘lmagan taqdirda esa, moliyaviy natijalarga (moliya faoliyati bo‘yicha xarajatlarga) qayta tashkil etilayotgan korxona ko‘rgan zarar sifatida kiritiladi.

Agar aksiyalarni sotib olishga amaldagi sarflar aksiyalar nominal qiymatidan kam bo‘lsa, yuzaga keluvchi farq moliyaviy natijalarga (moliya faoliyati bo‘yicha daromadlarga) qayta tashkil etilayotgan korxona olgan daromad sifatida kiritiladi.

4-§. Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishning xususiyatlari

O‘z faoliyatini to‘xtatayotgan qayta tashkil etilayotgan korxona yagona davlat reestriga tegishli yozuv kiritilgan sanadan oldingi kungacha bo‘lgan holatga ko‘ra yakuniy moliyaviy hisobot tuzadi. Yakuniy moliyaviy hisobot «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standartlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha Qoidalarni» tasdiqlash to‘g‘risida» buyrug‘iga muvofiq, korxona ilgari qabul qilgan yillik moliyaviy hisobot shakllari hajmida, hisobot yili boshlanganidan to yagona davlat reestriga yangidan vujudga kelgan korxonalar haqidagi (qo‘shib olingan oxirgi korxona faoliyatini to‘xtatish haqidagi) yozuv kiritilgan vaqtga qadar o‘tgan davr uchun tuziladi.

Qayta tashkil etilayotgan korxonalar buxgalteriya hisobi schyotlari bo‘yicha ma’lumotlarni emas, balki o‘z huquqlari va majburiyatlari haqida axborot berishlari lozim. SHu bois buxgalteriya hisobining barcha tartibga soluvchi (kontr-aktiv va kontr-passiv) va baholash schyotlari yopilgan bo‘lishi kerak. Yakuniy moliyaviy hisobot tuzish uchun faqat mol-mulk va majburiyatlarni hisobga olish schyotlari bo‘yicha qoldiqqa ega bo‘lish lozim.

Agar qayta tashkil etish natijasida yangi tuzilgan korxona muayyan obyektga nisbatan o‘z huquqlarini tasdiqlash va amalga oshirish imkoniyatini yo‘qotgan bo‘lsa, mazkur mol-mulkni qayta tashkil etilgan korxona zararlarga hisobdan chiqarishi lozim.

O‘z navbatida, yakuniy moliyaviy hisobot tuzish sanasi holatiga qayta tashkil etilayotgan korxonaning buxgalteriya hisobida qoldiqqa ega bo‘lgan quyidagi schyotlar yopilishi yoki ularga tuzatish kiritilishi mumkin:

- asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar (0200);
- nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar (0500);
- materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi schyotlar (1500);
- materiallar qiymatidagi farqlarni hisobga oluvchi schyotlar (1600);
- 2980 «Savdo ustamasi» schyoti;
- kelgusi davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (3100);
- kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (3200);
- 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti;
- dargumon qarzlar bo‘yicha rezervni hisobga oluvchi schyotlar (4900);
- kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar va boshqa joriy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar (5900);
- kechiktirilgan majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar (6200, 7200);
- olingan bo‘naklarni hisobga oluvchi schyotlar (6300, 7300);
- rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8520 schyotdan tashqari 8500);

- sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (8600);

- daromadlar va xarajatlarni (moliyaviy natijalarning shakllanishi va ishlatilishini) hisobga oluvchi schyotlar (9000 – 9900).

Agar asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati bo‘yicha berilsa, u holda asosiy vositalarning eskirishini va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar uzoq muddatli aktivlarni hisobga oluvchi mos schyotlarga - asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100) va nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar (0400) ga yopiladi va korxonani balansida hisobda bo‘lgan asosiy vositalar bo‘yicha 8510 da hisobga olingan qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqariladi.

Agar asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar boshlang‘ich qiymati, bozor bahosi bo‘yicha topshirilsa, u holda asosiy vositalarning eskirishini va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar uzoq muddatli aktivlarni hisobga oluvchi mos schyotlarga - asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100) va nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar (0400) ga yopiladi va korxonani balansida hisobda bo‘lgan asosiy vositalar bo‘yicha 8510 da hisobga olingan qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqariladi. Bir vaqtning o‘zida topshirilayotgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymat bilan ular topshirilayotgan qiymat o‘rtasidagi farq summasi ham moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Asosiy vositalarning eskirishini va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz, yakuniy moliyaviy hisobot tuzish sanasi holatiga korxonada asosiy vositalar obyekti sifatida boshlang‘ich qiymati 36 000 000 so‘m, jamg‘arilgan eskirish summasi – 12 000 000 so‘m, qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi 1 700 000 so‘mga teng bo‘lgan avtomobil va nomoddiy aktivlar obyekti sifatida boshlang‘ich qiymati 35 000 000 so‘m, jamg‘arilgan amortizatsiya summasi – 10 000 000 so‘mga teng bo‘lgan dasturiy ta’minot qolgan.

Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar (0200), 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar (0500) ning yopilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi:

debet 0260 «Transport vositalarining eskirishi» schyoti	*6 000 000 so‘m;*
kredit 0160 «Transport vositalari» schyoti	*6 000 000 so‘m;*

- asosiy vositalarni qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti	*700 000 so‘m;*
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti	*700 000 so‘m;*

- nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi:

debet 0530 «Dasturiy ta’minotning amortizatsiyasi» schyoti	*10 000 000 so‘m;*
kredit 0430 «Dasturiy ta’minot» schyoti	*10 000 000 so‘m.*

O‘zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida» gi Qonunining 23-moddasiga muvofiq, litsenziyaning amal qilishi yuridik shaxs tugatilganda - tugatilgan paytdan e’tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda - qayta

tashkil etilgan paytdan e'tiboran to'xtatiladi, uning o'zgartirilishi bundan mustasno. Mazkur Qonunning 20-moddasiga muvofiq yuridik shaxs bo'lmish litsenziat o'zgartirish shaklida qayta tashkil etilgan, uning nomi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) o'zgargan taqdirda, litsenziat yoki uning huquqiy vorisi qayta ro'yxatdan o'tganidan keyin bir oy muddatda litsenziyalovchi organga, ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda, litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza berishi kerak.

Shuning uchun yakuniy moliyaviy hisobot tayyorlanayotganda nomoddiy aktivlarni tan olish mezonlariga mos keladigan litseziyalar bo'yicha 0410 «Patentlar, litsenziyalar va nou-xau» schyotida va nomoddiy aktivlarni tan olish mezonlariga mos kelmaydigan litseziyalar bo'yicha 3190 «Boshqa kelgusi davr xarajatlari» schyotida yoki 3290 «Boshqa kechiuktirilgan xarajatlar» schyotida aks ettirilgan, yangi yuridik shaxs ro'yxatdan o'tgan vaqtgacha xarajatlarga amortizatsiya qilinmagan va/yoki hisobdan chiqarilmagan litsenziyani olish bilan bog'liq xarajatlar korxonaning xarajatlariga olib borilgan bo'lishi kerak.

Agar korxonada gudvill (0480) sifatida nomoddiy aktiv mavjud bo'lsa, u holda yakuniy moliyaviy hisobotni tayyorlashda u boshqa operatsion xarajatlarga hisobdan chiqarilgan bo'lishi kerak.

Materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi schyotlari (1500), materiallar qiymatidagi farqlarni hisobga oluvchi schyotlari (1600), 2980 «Savdo ustamasi» schyoti bo'yicha qoldiqlar materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000), tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar (2900) bilan bog'langan holda yopiladi. Mazkur schyotlar bo'yicha qoldiqlarni taqsimlash 4-son BHMS da nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Materiallarni tayyorlash va xarid qilish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarni yopilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Faraz qilamiz korxonaning hisob siyosatida idishlar (yoqilg'i moylash materiallari)ni xarid qilish bilan bog'liq tayyorlash va xarid qilish xarajatlarini taqsimlashda alohida materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi schyot (1500) qo'llanilishi nazarda tutilgan. Tugatish balansini tuzish sanasi holatiga tayyorlash va xarid qilish xarajatlarini summasi 1 600 000 so'mdan iborat.

Materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi schyotlari (1500) ning yopilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 1030 «Yoqilg'ilar» schyoti 1 600 000 so'm;
kredit 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyoti 1 600 000 sum.

Materiallar qiymatidagi farqlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Faraz qilamiz korxonaning buxgalteriya hisobida xomashyo va materiallar xarid qilishning haqiqiy tannarxi bo'yicha 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schyotini qo'llagan holda hisobga olib borilgan. 1010 «Xomashyo va materiallar» schyotida xomashyo va materiallar qiymatining 20 100 000 so'mi, 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schyotida esa 900 000 so'mi aks ettirilgan.

Materiallar qiymatidagi farqlarni hisobga oluvchi schyotlari (1600) ning yopilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti 900 000 so'm;
kredit 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schyoti 900 000 so'm.

Savdo ustamasi schyotini yopilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Faraz qilamiz chakana savdo bilan shug'ullanuvchi «Eskimo-savdo» magazining buxgalteriya hisobida tovarlar sotish narxida hisobga olingan. 2920 «Chakana

savdodagi tovarlar» schyotidagi tovarlarning qiymati 4 000 000 so‘mdan, 2980 «Savdo ustamasi» schyotida esa 800 000 so‘mdan iborat.

«Eskimo-savdo» magazining buxgalteriya hisobida tovarlarning qiymatini sotish narxida 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schyotida aks ettirish zarur. Shu maqsadda savdo ustamasini hisobdan chiqarish va ularni qiymatini xarid qilish qiymatiga keltirish uchun buxgalteriya yozuvlarini amalga oshirish zarur. Bular «Eskimo-savdo» magazining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 2980 «Savdo ustamasi» schyoti 800 000 so‘m;
kredit 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schyoti 800 000 so‘m.

Topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi va yakuniy moliyaviy hisobotni tuzish sanasi holatiga kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlarni ikkida guruhga ajratish mumkin:

- shartnoma shartlari o‘tgan davrlarda bajarilgan va shartnomaning tomonlari bir birining oldida hech qanday majburiyatga ega bo‘lmaganligi sababli huquqiy nuqtai nazardan qaralganda hech qanday huquqni aniqlamaydigan kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlar. Shulardan kelib chiqib korxona tomonidan amalga oshirilgan barcha xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarishda bo‘lgan obyektlarni bahosini shakllantirishda yoki yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlashda hisobga olinishi kerak;

- shartnoma shartlari kelgusi davrlarda bajarilishi va shartnomaning tomonlari bir birining oldida ma’lum majburiyatlarga ega bo‘lganligi sababli huquqiy nuqtai nazardan qaralganda kuchga ega (amaldagi) huquqlarni aniqlaydigan kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlar. Kuchga ega (amaldagi) huquqlarni aniqlaydigan kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar qayta tashkil etilayotgan korxonadan yangi tashkil etilgan korxonaga taqdim etilishi kerak.

Kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz yakuniy moliyaviy hisobot tuzish sanasi holatiga korxona kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlar bo‘yicha quyidagi axborotlarga ega: vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i - 1 800 000 so‘m, ulardan joriy qismi – 500 000 so‘m, salbiy kurs farqlari ko‘rinishidagi kechiktirilgan xarajatlarni (2019-yil 1-yanvargacha jamg‘arilgan usuldan foydalanilgan hollarda qolgan qoldiq) - 2 500 000 so‘m, ulardan joriy qismi – 700 000 so‘m, ma’muriyat xodimlari bo‘yicha hisoblangan ta’til to‘lovlari - 2 750 000 so‘m, operativ ijaradan foydalanimagan muddat uchun ijara to‘lovi - 1 000 000 so‘m.

Kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlarni moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘ini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilganda:

debet 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar» schyoti 1 800 000 so‘m;
kredit 0950 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» schyoti 1 300 000 so‘m;
kredit 3210 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i» schyoti 500 000 so‘m;

- salbiy kurs farqlari ko‘rinishidagi kechiktirilgan xarajatlarni moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilganda:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti *2 500 000 so‘m;*
kredit 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan
xarajatlar» schyoti *1 800 000 sum;*
kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti *700 000 so‘m;*

- ma’muriyat xodimlari bo‘yicha hisoblangan ta’til to‘lovlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilganda:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti *2 750 000 so‘m;*
kredit 3190 «Boshqa kelgusi davr xarajatlari» schyoti *2 750 000 so‘m.*

Operativ ijaradan foydalanimagan muddat uchun ijara to‘lovi bo‘yicha buxgalteriya yozuvi amalga oshirilmaydi. Operativ ijara bo‘yicha ma’lumot topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansida va yakuniy moliyaviy hisobotda aks ettiriladi.

Debitorlik qarzlar bo‘yicha hisob-kitoblar bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Muddati o‘tgan debitorlik qarzlarini tahlil qilish natijalari bo‘yicha dargumon qarzlar bo‘yicha rezervlarning bir qismi undirilish dargumon deb tan olingan debitorlik qarzlarini hisobdan chiqarish uchun foydalaniladi, qolgan qismi esa moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Xaridorlar va buyurtmachilarning dargumon qarzlari bo‘yicha rezervlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz korxonada o‘tkazilgan tahlilga asosan xaridorlar va buyurtmachilarning dargumon qarzlari bo‘yicha summasi 15 000 000 so‘m bo‘lgan rezerv tashkil etilgan. Yakuniy moliyaviy hisobot tuzish sanasi holatiga xaridorlar va buyurtmachilar debitorlik qarzining 6 000 000 so‘mini muddati o‘tganligi va davo qilish muddati tugaganligi aniqlangan. Debitorlik qarzini hisobdan chiqarish rezerv hisobidan amalga oshiriladi, rezervning qolgan qismi esa moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Dargumon qarzlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- rezervlarning bir qismi undirilish dargumon deb tan olingan debitorlik qarzlarini hisobdan chiqarish yo‘li bilan foydalanilganda:

debet 4910 «Dargumon qarzlar bo‘yicha
rezerv» schyoti *6 000 000 so‘m;*
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti *6 000 000 so‘m;*

- dargumon qarzlar bo‘yicha rezervlarning qolgan qismi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilganda:

debet 4910 «Dargumon qarzlar bo‘yicha
rezerv» schyoti *9 000 000 so‘m;*
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti *9 000 000 so‘m.*

5910 «Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti bo‘yicha qoldiq faqatgina kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlarni qoplash mabalariga nisbatan noaniqlik bo‘lgan hollarda mavjud bo‘lishi mumkin. Mazkur schyotning yopilishi «Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq amalga oshiriladi.

Korxonada aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «1-bob. Asosiy vositalar hisobi» va «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Kamomad va yo‘qotishlar summasini hisobdan chiqarishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz yakuniy moliyaviy hisobot tuzish sanasi holatiga korxonada tovar-moddiy qiymatliklarni inventarizatsiyasi natijasida qiymati 400 000 so‘m bo‘lgan yoqilg‘i kamomadi aniqlangan va 5910 «Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar» schyotida hisobda bo‘lgan.

Ikkita holatni (aybdor shaxslarni aniqlanishidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz

1-holat:

Komomad summasi moddiy javobgar shaxsdan undiriladi. Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimning qarzi naqd pul mablag‘lari bilan qoplangan.

Komomad summasini moddiy javobgar shaxsdan undirish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- kamomad summasi moddiy javobgar shaxs hisobiga olib borilganda:

debet 4730 «Moddiy zararni qoplash
bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti 400 000 so‘m;
kredit 5910 «Kamomad va qiymatliklarning
buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti 400 000 so‘m;

- moddiy zararni qoplash bo‘yicha qarzini moddiy javobgar shaxs tomonidan qoplanganda:

debet 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti 400 000 so‘m;
kredit 4730 «Moddiy zararni qoplash
bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti 400 000 so‘m.

2-holat:

Kamomadning aniq aybdorlari aniqlanmaganda kamomaddan zarar summasi korxonaning davr xarajatlariga kiritiladi va uning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 400 000 so‘m;
kredit 5910 «Kamomad va qiymatliklarning
buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti 400 000 so‘m.

Agar moddiy zararni qoplash bo‘yicha qarzini moddiy javobgar shaxs tomonidan qoplanmasa, u holda mazkur qarz topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansida va yakuniy moliyaviy hisobotda debitorlik qarzi sifatida ko‘rsatiladi.

Topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi va yakuniy moliyaviy hisobotni tuzish sanasi holatiga kechiktirilgan majburiyatlarni ikkida guruhga ajratish mumkin:

- shartnoma shartlari o‘tgan davrlarda bajarilgan va shartnomaning tomonlari bir birining oldida hech qanday majburiyatga ega bo‘lmaganligi sababli huquqiy nuqtai nazardan qaralganda hech qanday huquqni aniqlamaydigan kechiktirilgan daromadlar va ular yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlashda hisobga olinishi kerak;

- shartnoma shartlari kelgusi davrlarda bajarilishi va shartnomaning tomonlari bir birining oldida ma’lum majburiyatlarga ega bo‘lganligi sababli huquqiy nuqtai nazardan qaralganda kuchga ega (amaldagi) majburiyatlarni aniqlaydigan kechiktirilgan daromadlar. Kuchga ega (amaldagi) majburiyatlarni aniqlaydigan kechiktirilgan daromadlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar qayta tashkil etilayotgan korxonadan yangi tashkil etilgan korxonaga taqdim etilishi kerak.

Korxona ta’sischilari (aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari) ning korxona ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzlari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyotida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi Qonunining 17-moddasiga va «Mas’uliyati cheklangan hamda

qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida» gi Qonunining 55-moddasiga muvofiq, korxona (jamiyat) ning ustav fondini (ustav kapitalini) jamiyat ustavida nazarda tutilgan miqdorda shakllantirishning eng ko‘p muddati jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran bir yildan oshmasligi lozim.

Korxona ustav kapitalini shakllantirish uchun ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha o‘z vaqtida kiritilmagan qarzlarini hisobdan chiqarish 21-son BHMS ga muvofiq buxgalteriya hisobi schyotlarida quyidagicha aks ettiriladi:

debet ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8300);

kredit ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzini hisobga oluvchi schyotlar (4600).

Korxona ustav kapitalini shakllantirish uchun ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha o‘z vaqtida kiritilmagan qarzlarini hisobdan chiqarishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz yakuniy moliyaviy hisobotni tuzish sanasida korxona tomonidan chiqarilgan, lekin joylashtirilmagan 10 000 000 so‘mlik oddiy aksiyalar mavjud.

Chiqarilgan, lekin joylashtirilmagan oddiy aksiyalarni qiymatini hisobdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti *10 000 000 so‘m;*

kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti *10 000 000 so‘m.*

Sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (8600) ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8300) ga nisbatan kontr-passiv schyot hisoblanib, aksiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitali miqdorini kamaytiradi va balansda ustav kapitali summasidan chegiriladigan summa sifatida ko‘rsatiladi.

Boshqa korxonalar (mas’uliyati cheklangan jamiyatlar, sherikchilik va boshqalar) sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (8600) dan korxona tomonidan belgilangan tartibda boshqa qatnashuvchilarga yoki uchinchi shaxsga berish uchun sotib olingan ustav kapitalidagi ulushni hisobga olish uchun foydalanadi.

Yakuniy maoliyaviy hisobot tuzish sanasida mavjud bo‘lgan sotib olingan xususiy aksiyalarni bekor qilinishi (yo‘q qilinishi) 21-son BHMSga muvofiq tugatilayotgan korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- nominal qiymatidan past qiymatda sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni bekor qilinganda:

debet ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8300) – sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni nominal qiymati summasiga;

kredit sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (8600) – sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni haqiqiy xarid qilish qiymati summasiga;

kredit 9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari» schyoti – sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni nominal qiymati va haqiqiy xarid qilish qiymati o‘rtasidagi farq summasiga;

- nominal qiymatidan yuqori qiymatda sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni bekor qilinganda:

debet ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8300) – sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni nominal qiymati summasiga;

debet qo‘shilgan kapitalni hisobga oluvchi schyotlar (8400) – sotib olingan xususiy aksiyalar

(paylar va ulushlar) ni nominal qiymati va haqiqiy xarid qilish qiymati o‘rtasidagi farqning mazkur schyotlar qoldig‘i doirasida summasiga;

kredit 9690 «Moliyaviy faoliyatning bo‘yicha boshqa xarajatlar» schyoti – sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni nominal qiymati va haqiqiy xarid qilish qiymati o‘rtasidagi farqning qo‘shilgan kapitalni hisobga oluvchi schyotlar (8400) qoldig‘i doirasidan oshgan summasiga;

kredit sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (8600) – sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni haqiqiy xarid qilish qiymati summasiga.

Moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalarini shakllantirishda barcha daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar (9000, 9300, 9500 i schet 9710) va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (9100, 9400, 9600, 9800 va 9720 schyot) 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotiga yopiladi hamda oxirda 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotining debeti va krediti bo‘yicha aylanmalari yig‘iladi va yakuniy moliyaviy natijanisini ifodalovchi ushbu schyot bo‘yicha umumiy qoldiq hisoblab chiqariladi. 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 8710 «Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

Moliyaviy natijalarni shakllantirish va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «11-bob. Moliyaviy natijalarni shakllantirish va hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Yakuniy moliyaviy hisobot tuzish sanasida daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi va moliyaviy natijalarni shakllanishi 21-son BHMS ga muvofiq tugatilayotgan korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- daromadlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi:

debet daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar (9000, 9300, 9500 va 9710 schyot);

kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

- xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

kredit xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (9100, 9400, 9600, 9800 va 9720 schyot);

- ijobiy yakuniy moliyaviy natija (foyda):

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

- salbiy yakuniy moliyaviy natija (zarar):

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

- hisobot davrining taqsimlanmagan foydasini jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar) tarkibiga kiritilishi:

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

kredit 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti;

- hisobot davrining qoplanmagan zararini jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar) tarkibiga kiritilishi:

debet 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti;

kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

- o‘tgan yillarda taqsimlanmagan foyda hisobiga tashkil etilgan rezevr kapitali hisobidan qoplanmagan zararni qoplash:

debet 8520 «Rezerv kapitali» schyoti;

kredit 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti.

Topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansiga asosan qayta tashkil etilayotgan

korxonaning aktivlari va majburiyatlarini topshirish sanasi bilan vujudga kelgan korxonalar haqidagi (qo‘shib olingan korxonalarning oxirgisi o‘z faoliyatini to‘xtatganligi haqidagi) yozuv yagona davlat reestriga kiritilgan sana mos kelmaganligi tufayli mazkur sanalar oralig‘idagi davrda qayta tashkil etilayotgan korxona tomonidan belgilangan tartibda yillik (yoki oraliq) moliyaviy hisobot tuziladi va taqdim etiladi.

Bunda oraliq va yillik, keyinchalik esa yakunlovchi moliyaviy hisobotning miqdoriy ko‘rsatkichlari topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi ma’lumotlari bilan mos kelmasligi mumkin.

Oraliq va (yoki) yillik moliyaviy hisobotga, yakuniy moliyaviy hisobotga tushuntirish xatida yoxud topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansiga izohlarda shu davrda topshirilayotgan aktivlar va majburiyatlar qiymatida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar yoritilishi lozim.

Topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan (faoliyati tugatilayotgan) korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun tegishli hujjatlar taqdim etilishidan bevosita oldin tuzilgan, shuningdek topshirilayotgan aktivlar balans qiymati (amaldagi tannarxi, dastlabki qiymati) bo‘yicha, majburiyatlar esa - qarz buxgalteriya hisobida aks ettirilgan summa bo‘yicha baholangan taqdirda, oraliq va (yoki) yillik hamda yakunlovchi moliyaviy hisobotning miqdoriy ko‘rsatkichlari topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi ma’lumotlari bilan, basharti tegishli hujjatlar taqdim etilgan sana va ro‘yxatga oluvchi organ yagona davlat reestriga yozuv kiritgan sana oralig‘idagi davrda aktivlar va majburiyatlarda o‘zgarish sodir bo‘lmagan bo‘lsa mos kelishi mumkin.

Qayta tashkil etishda aktivlar va majburiyatlarning topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi bo‘yicha bir korxonadan boshqa korxonaga huquqiy vorislik tartibida topshirilishiga buxgalteriya hisobi maqsadlarida aktivlar va majburiyatlarning chiqib ketishi sifatida qaralmaydi.

Qayta tashkil etish (vujudga kelgan korxonalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ta’sis hujjatlariga tegishli o‘zgartishlar kiritish, qimmatli qog‘ozlarni ro‘yxatdan o‘tkazish, yuridik xizmatlarga haq to‘lash va b.) bilan bog‘liq xarajatlar qayta tashkil etishda qatnashayotgan korxonalar tomonidan tegishli davrning boshqa operatsion xarajatlari deb e’tirof etiladi va ushbu xarajatlarni amalga oshirgan korxonaning buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Mazkur xarajatlarni amalga oshirgan korxonaning «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti» (2-sonli shakl)da yuqorida zikr etilgan boshqa operatsion xarajatlar, ularning ahamiyatliligidan qat’i nazar, «boshqa operatsion xarajatlar» satrida yoritiladi.

Qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonaning hisobot davrining boshiga (davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanaga) qadar bo‘lgan holatga ko‘ra dastlabki moliyaviy hisobotida aktivlar, majburiyatlar va boshqa miqdoriy ko‘rsatkichlar haqidagi ma’lumotlar belgilangan tartibda tasdiqlangan topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansiga, shuningdek qayta tashkil etilgan korxonalarning topshirilayotgan aktivlari va majburiyatlari tarkibidagi va qiymatidagi o‘zgarishlardan kelib chiqib tuzilgan yakuniy moliyaviy hisoboti ma’lumotlariga asosan to‘ldiriladi.

Qayta tashkil etilayotgan korxonalarning joriy xo‘jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobini yuritishda va qayta tashkil etishda qo‘llanuvchi aktivlarni baholash usullari har xil bo‘lsa, yakuniy moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari bahosini topshirilayotgan aktivlar bahosi bilan muvofiq holatga keltirish lozim. Topshirilayotgan aktivlar qiymatidagi barcha tafovutlar qayta tashkil etilayotgan korxonalarning boshqa daromadlari va xarajatlari hisobini yuritish schyotlarida aks ettirilishi lozim.

Majburiyat tugatilgan, qarzdor va kreditor bir shaxs bo‘lgan taqdirda, ya’ni qo‘shib yuborish

(qo‘shib olish) shaklidagi qayta tashkil etishda qatnashayotgan taraflar o‘rtasida qo‘shib yuborish (qo‘shib olish) shaklidagi qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonaning dastlabki buxgalteriya balansiga quyidagilar kiritilmaydi:

- qayta tashkil etilayotgan korxonalar o‘rtasidagi debitorlik va kreditorlik qarzlarini, shu jumladan dividendlar bo‘yicha hisob-kitoblarni aks ettiruvchi miqdoriy ko‘rsatkichlar;

- qayta tashkil etilayotgan ba’zi korxonalarning qayta tashkil etilayotgan boshqa korxonalar ustav kapitaliga joylashtirgan mablag‘lari;

- qayta tashkil etilayotgan korxonalarning o‘zaro hisob-kitoblarini, shu jumladan o‘zaro operatsiyalar natijasida olingan daromad va ko‘rilgan zararlarni tavsiflovchi boshqa aktivlar va majburiyatlar.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiyani hisoblash, shuningdek qayta tashkil etish (o‘zgartirish shaklidagi qayta tashkil etishni istisno qilganda) natijasida vujudga kelgan korxonaning obligatsiyalari va veksellari bo‘yicha chegirishlar yoki mukofotlar, diskontlar (chegirmalar) bo‘yicha muddati kechiktirilgan daromadlar va xarajatlar amortizatsiyasi korxona davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab, avvalgi huquqiy voris tomonidan ilgari qo‘llangan amortizatsiyani hisoblash usulidan qat’i nazar, qayta tashkil etish (o‘zgartirish shaklidagi qayta tashkil etishni istisno qilganda) natijasida vujudga kelgan korxona tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, 5-son BHMS ga va 7-son BHMS ga muvofiq topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansiga asosan obyektni buxgalteriya hisobiga qabul qilish vaqtida belgilangan obyektni foydali xizmat muddati va amortizatsiyani hisoblash usulidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Banklar tomonidan milliy va chetel valyutasida bank schyotlarini ochish, ularni qayta rasmiylashtirish hamda yopish «O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank schyotlari to‘g‘risida Yo‘riqnoma» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 27-aprelda 1948-son bilan ro‘yxatga olingan)* bilan tartibga solinadi. Qayta tashkil etilishi natijasida yangi tashkil etilgan yuridik shaxslarga bank schyotlari «O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank schyotlari to‘g‘risida Yo‘riqnoma» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 27-aprelda 1948-son bilan ro‘yxatga olingan)* da ko‘rsatilgan tegishli hujjatlar taqdim qilinishi asosida ochiladi.

O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risidagi Nizom» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 13-aprelda 3229-son bilan ro‘yxatga olingan)* bilan tartibga solinadi. Qayta tashkil etilayotgan (qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish) yuridik shaxsning hisob-kitob hujjatlari bo‘yicha to‘lovlar qonun hujjatlariga muvofiq uning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘idan amalga oshiradi. Kreditorlar va huquqiy voris o‘rtasida nizo yuzaga kelgan taqdirda, mablag‘lar sud qaroriga asosan huquqiy vorisning asosiy talab qilib olinguncha depozit schyotidan hisobdan chiqariladi.

O‘zbekiston Respublikasida banklar tomonidan milliy va chetel valyutasida bank schyotlarini ochish va yopish hamda ularni qayta rasmiylashtirish, shuningdek, naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi «7-bob. Pul mablag‘lari va ekvivalentlari hisobi» va «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

4.1. Qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishning xususiyatlari

Qo‘shib yuborishda qatnashayotgan korxonalar qo‘shib yuborish tartibi va shartlari, har bir korxona aksiyalari (ulushlari)ni yangi korxona aksiyalari (ulushlari)ga konvertatsiya qilish

tartibi belgilanadigan qo‘shib yuborish to‘g‘risida shartnoma tuzadilar. Qo‘shib yuborishda qatnashayotgan har bir korxona qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etish, qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnoma va topshirish dalolatnomasini tasdiqlash to‘g‘risidagi masalalarni aksiyadorlar (ishtirokchilar) umumiy yig‘ilishining muhokamasiga kiritadi.

Qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etishda o‘z faoliyatini to‘xtatayotgan barcha qayta tashkil etilayotgan korxonalar vujudga kelgan korxona haqidagi yozuv yagona davlat reestriga kiritilishidan oldingi kungacha bo‘lgan holatga ko‘ra yakuniy moliyaviy hisobot tuzadilar. Bunda yakuniy moliyaviy hisobot tuzilgunga qadar daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish schyotini yopish va sof foyda summasini ta’sischilarning qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qarori (shartnomasi)da belgilangan maqsadlarga yo‘naltirish (taqsimlash) amalga oshiriladi.

Qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etishda qayta tashkil etilayotgan korxonalarning joriy faoliyati bilan bog‘liq barcha operatsiyalar, shuningdek topshirish dalolatnomasi tasdiqlangan sanadan boshlab o‘tgan davrda amalga oshirilgan qayta tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar vujudga kelgan korxona haqidagi yozuvni yagona davlat reestriga kiritish sanasiga qadar qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etish munosabati bilan o‘z faoliyatini to‘xtatayotgan korxonalarning buxgalteriya hisobida va yakuniy moliyaviy hisobotida aks ettiriladi.

Qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonaning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanaga bo‘lgan holatga ko‘ra dastlabki moliyaviy hisoboti topshirish dalolatnomasi ma’lumotlari hamda qayta tashkil etilgan korxonalarning buxgalteriya hisobida aks ettirilgan yuqorida sanab o‘tilgan operatsiyalarni hisobga olgan holda tuzilgan yakuniy moliyaviy hisobot miqdoriy ko‘rsatkichlarini, miqdoriy ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblarni istisno qilgan holda, satrma-satr birlashtirish (qo‘shish yoki o‘tgan yillarning qoplanmagan zararlari bo‘lgan taqdirda, ayirish) asosida, shuningdek quyida nazarda tutilgan holatlardan kelib chiqib tuziladi.

Bunda qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etilayotgan korxonalarning «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti» (2-son shakl) miqdoriy ko‘rsatkichlarini qo‘shish qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonaning dastlabki moliyaviy hisobotida amalga oshirilmaydi.

Vujudga kelgan korxona davlat ro‘yxatidan o‘tish sanasiga bo‘lgan holatga ko‘ra dastlabki moliyaviy hisobotni tuzishda qayta tashkil etish jarayonida olingan aktivlar, majburiyatlar va boshqa miqdoriy ko‘rsatkichlar haqidagi ma’lumotlarni ular topshirish dalolatnomasida aks ettiriluvchi baholashda, qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etilayotgan korxonalarning yakuniy moliyaviy hisobotidagi miqdoriy ko‘rsatkichlardan kelib chiqib to‘ldiradi.

Qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnomaga va unda nazarda tutilgan ta’sischilarning qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etilayotgan korxonalarning aksiyalari (ulushlari, paylari)ni vujudga kelgan korxonaning aksiyalari (ulushlari, paylari)ga konvertatsiya qilish (ayirboshlash) tartibi to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq, vujudga kelgan korxonaning dastlabki moliyaviy hisobotida qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etilayotgan korxonalarning shakllantirilgan ustav kapitali aks ettiriladi.

Agar qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnomada vujudga kelgan korxonaning ustav kapitali miqdorini qayta tashkil etilayotgan korxonalarning ustav kapitallari summasidan, shu jumladan qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etishda qatnashayotgan korxonalarning o‘z mablag‘lari manbalari (qo‘shilgan va rezerv kapitali, taqsimlanmagan foydasi va h.k.) hisobiga ko‘paytirish nazarda tutilgan bo‘lsa, vujudga kelgan korxonaning dastlabki moliyaviy hisobotida qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnomada qayd etilgan ustav kapitali miqdori aks ettiriladi.

Agar qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnomada vujudga kelgan korxonaning ustav kapitali miqdorini qayta tashkil etilayotgan korxonalarning ustav kapitallari umumiy summasidan kamaytirish nazarda tutilgan bo‘lsa, vujudga kelgan korxonaning dastlabki moliyaviy hisobotida qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnomada qayd etilgan ustav kapitali miqdori aks ettiriladi, o‘rtadagi farq esa huquqiy vorisning dastlabki buxgalteriya balansida «Xususiy mablag‘larning manbalari» bo‘limida «Qo‘shilgan kapital» miqdoriy ko‘rsatkichi bilan tartibga solinishi lozim.

Agar qo‘shib yuborish to‘g‘risidagi shartnomada nazarda tutilgan ustav kapitalining miqdori vujudga kelgan korxonaning sof aktivlari qiymatiga mos kelgan bo‘lmasa, dastlabki buxgalteriya balansi «Xususiy mablag‘larning manbalari» bo‘limining miqdoriy ko‘rsatkichlari quyidagi tartibda shakllantiriladi:

- agar aksiyalarni konvertatsiya qilishda qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonaning sof aktivlari qiymati ustav kapitali miqdoridan ko‘p bo‘lib qolsa, dastlabki buxgalteriya balansi «Xususiy mablag‘larning manbalari» bo‘limining miqdoriy ko‘rsatkichlari sof aktivlar qiymati miqdorida, ustav kapitaliga va qo‘shilgan kapitalga ajratgan holda shakllantiriladi (sof aktivlar qiymatining aksiyalarning jami nominal qiymatidan oshishi);

- agar (aksiyalarni konvertatsiya qilish hollarini istisno qilganda) vujudga kelgan korxonaning sof aktivlari qiymati ustav kapitali miqdoridan ko‘p bo‘lib qolsa, o‘rtadagi farq dastlabki buxgalteriya balansida «Majburiyatlar» bo‘limida «Uzoq muddatga kechiktirilgan daromadlar» va «Kechiktirilgan daromadlar» miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan manfiy gudvill tarzida tartibga solinishi lozim. O‘rtadagi farq summaning uzoq muddatli qismi - 7230 «Boshqa uzoq muddatga kechiktirilgan daromadlar» schyotining, joriy qismi - 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyotining kreditida aks ettiriladi;

- agar qo‘shib yuborish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonaning sof aktivlari qiymati ustav kapitali miqdoridan kam bo‘lib qolsa, o‘rtadagi farq dastlabki buxgalteriya balansida «Uzoq muddatli aktivlar» bo‘limida «Nomoddiy aktivlar» miqdoriy ko‘rsatkichi bilan gudvill tarzida tartibga solinishi lozim. Buxgalteriya hisobining 0480 «Gudvill» schyotining debetida aks ettriladi.

4.2. Qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishning xususiyatlari

Qo‘shib olinayotgan korxonalar va ular qo‘shilayotgan korxona qo‘shib olish tartibi va shartlari, shuningdek qo‘shib olinayotgan korxonalarning aksiyalari (ulushlari)ni ular qo‘shilayotgan korxonaning aksiyalari (ulushlari)ga konvertatsiya qilish tartibi belgilanadigan qo‘shib olish to‘g‘risida shartnoma tuzadilar. Har bir korxona qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etish, qo‘shib olish to‘g‘risidagi shartnoma va topshirish dalolatnomasini tasdiqlash to‘g‘risidagi masalalarni qo‘shib olishda ishtirok etuvchi korxona ta’sischilari (aksiyadorlari) umumiy yig‘ilishining muhokamasiga kiritadi.

Qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etishda yakuniy moliyaviy hisobot faqat qo‘shib olinayotgan korxona tomonidan uning faoliyati to‘xtatilgani haqidagi yozuv yagona davlat reestriga kiritilishidan oldingi kungacha bo‘lgan holatga ko‘ra tuziladi. Bunda yakuniy moliyaviy hisobot tuzilgunga qadar daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish schyotini yopish va qo‘shib olinayotgan korxonaning sof foydasi summasini ta’sischilarning qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qarori (shartnomasi)da belgilangan maqsadlarga yo‘naltirish (taqsimlash) amalga oshiriladi.

Boshqa korxona (korxonalar)ni unga qo‘shish jarayonida ta’sischilarning qaroriga asosan faqat aktivlar va majburiyatlar hajmi o‘zgargan va joriy hisobot yili uzilib qolmagan korxonada

daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish schyoti yopilmaydi va qo‘shib olinayotgan korxona faoliyatini to‘xtatish davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanaga bo‘lgan holatga ko‘ra yakuniy moliyaviy hisobot tuzilmaydi.

Qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etishda qayta tashkil etilayotgan korxonaning joriy faoliyati bilan bog‘liq barcha operatsiyalar, shuningdek topshirish dalolatnomasi tasdiqlangan sanadan boshlab o‘tgan davrda amalga oshirilgan qayta tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar qo‘shib olinayotgan korxona faoliyatining to‘xtatilishi haqidagi yozuvni yagona davlat reestriga kiritish sanasiga qadar o‘z faoliyatini to‘xtatayotgan korxonaning buxgalteriya hisobida va yakuniy moliyaviy hisobotida aks ettiriladi.

Qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etishda qo‘shib olingan oxirgi korxonaning faoliyatini to‘xtatish haqidagi yozuv yagona davlat reestriga kiritilgan sanaga bo‘lgan holatga ko‘ra huquqiy vorisning moliyaviy hisoboti topshirish dalolatnomasi ma’lumotlari hamda qo‘shib olinayotgan korxonaning buxgalteriya hisobida aks ettirilgan, yuqorida sanab o‘tilgan operatsiyalarni hisobga olgan holda tuzilgan yakuniy moliyaviy hisobot miqdoriy ko‘rsatkichlarini va huquqiy vorisning qo‘shib olinayotgan korxona faoliyati to‘xtatilganini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sanasiga bo‘lgan holatga ko‘ra tuzilgan moliyaviy hisoboti miqdoriy ko‘rsatkichlarini, o‘zaro hisob-kitoblarni aks ettiruvchi miqdoriy ko‘rsatkichlarni istisno qilgan holda, satrma-satr birlashtirish (qo‘shish yoki, o‘tgan yillarning qoplanmagan zararlari bo‘lgan taqdirda, ayirish) asosida, shuningdek quyida nazarda tutilgan holatlardan kelib chiqib tuziladi.

Bunda huquqiy voris va qo‘shib olinayotgan korxonaning qo‘shib olinayotgan korxona faoliyati to‘xtatilganini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sanasiga qadar bo‘lgan hisobot davrlaridagi «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisoboti» (2-son shakl) miqdoriy ko‘rsatkichlarini qo‘shish amalga oshirilmaydi.

Qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etishda huquqiy vorisning qo‘shib olinayotgan korxona faoliyati to‘xtatilganini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sanasidan keyingi davrdagi moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi hisoboti (2-son shakl)ning miqdoriy ko‘rsatkichlari qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etilgan korxonaning daromadlari va xarajatlarini aks ettiradi.

Huquqiy voris qo‘shib olingan oxirgi korxona faoliyati to‘xtatilgani haqidagi yozuv yagona davlat reestriga kiritilgan sanaga bo‘lgan holatga ko‘ra moliyaviy hisobotni tuzishda qayta tashkil etish jarayonida olingan aktivlar, majburiyatlar va boshqa miqdoriy ko‘rsatkichlar haqidagi ma’lumotlarni ular topshirish dalolatnomasida aks ettiriluvchi baholashda, qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etilayotgan korxonaning qo‘shib olinayotgan korxona tomonidan tuzilgan yakuniy moliyaviy hisobotidagi miqdoriy ko‘rsatkichlardan kelib chiqib to‘ldiradi.

Qo‘shib olish to‘g‘risidagi shartnomaga va unda nazarda tutilgan ta’sischilarning qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etilayotgan korxonalarning aksiyalari (ulushlari, paylari)ni huquqiy vorisning aksiyalari (ulushlari, paylari)ga konvertatsiya qilish (ayirboshlash) tartibi to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq, huquqiy vorisning qo‘shib olingan oxirgi korxonaning faoliyati to‘xtatilgani haqidagi yozuv yagona davlat reestriga kiritilgan sanaga bo‘lgan holatga ko‘ra moliyaviy hisobotida tarkib toptirilgan ustav kapitali aks ettiriladi.

Agar qo‘shib olish to‘g‘risidagi shartnomada huquqiy vorisning ustav kapitali miqdorini qayta tashkil etilayotgan korxonalarning ustav kapitallari umumiy summasidan, shu jumladan qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etishda qatnashayotgan korxonalarning o‘z mablag‘lari manbalari (qo‘shilgan va rezerv kapitali, taqsimlanmagan foydasi va h.k.) hisobiga ko‘paytirish nazarda tutilgan bo‘lsa, huquqiy vorisning qo‘shib olingan oxirgi korxonaning faoliyati to‘xtatilgani haqidagi yozuv yagona davlat reestriga kiritilgan sanaga bo‘lgan holatga ko‘ra moliyaviy

hisobotida qo‘shib olish to‘g‘risidagi shartnomada qayd etilgan ustav kapitali miqdori aks ettiriladi.

Agar qo‘shib olish to‘g‘risidagi shartnomada huquqiy vorisning ustav kapitali miqdorini qayta tashkil etilayotgan korxonalarning ustav kapitallari umumiy summasidan kamaytirish nazarda tutilgan bo‘lsa, huquqiy vorisning qo‘shib olingan oxirgi korxonaning faoliyati to‘xtatilgani haqidagi yozuv yagona davlat reestriga kiritilgan sanaga bo‘lgan holatga ko‘ra moliyaviy hisobotida qo‘shib olish to‘g‘risidagi shartnomada qayd etilgan ustav kapitali miqdori aks ettiriladi, o‘rtadagi farq esa huquqiy vorisning buxgalteriya balansida «Xususiy mablag‘larning manbalari» bo‘limida «Qo‘shilgan kapital» miqdoriy ko‘rsatkichi bilan tartibga solinishi lozim.

Agar qo‘shib olish to‘g‘risidagi shartnomada nazarda tutilgan ustav kapitalining miqdori huquqiy vorisning sof aktivlari qiymatiga mos kelgan bo‘lmasa, huquqiy vorisning qo‘shib olingan oxirgi korxonaning faoliyati to‘xtatilgani haqidagi yozuv yagona davlat reestriga kiritilgan sanaga bo‘lgan holatga ko‘ra buxgalteriya balansi «Xususiy mablag‘larning manbalari» bo‘limining miqdoriy ko‘rsatkichlari quyidagi tartibda shakllantiriladi:

- agar aksiyalarni konvertatsiya qilish vaqtida huquqiy vorisning sof aktivlari qiymati ustav kapitali miqdoridan ko‘p bo‘lib qolsa, huquqiy vorisning qo‘shib olingan oxirgi korxonaning faoliyati to‘xtatilgani haqidagi yozuv yagona davlat reestriga kiritilgan sanadagi holatga ko‘ra buxgalteriya balansi «Xususiy mablag‘larning manbalari» bo‘limining miqdoriy ko‘rsatkichlari sof aktivlar qiymati miqdorida, ustav kapitaliga va qo‘shilgan kapitalga ajratgan holda shakllantiriladi (sof aktivlar qiymatining aksiyalarning jami nominal qiymatidan oshishi);

- qolgan hollarda, agar huquqiy vorisning sof aktivlari qiymati ustav kapitali miqdoridan ko‘p bo‘lib qolsa, o‘rtadagi farq huquqiy vorisning qo‘shib olingan oxirgi korxonaning faoliyati to‘xtatilgan sanadagi holatga ko‘ra buxgalteriya balansida «Majburiyatlar» bo‘limida «Uzoq muddatga kechiktirilgan daromadlar» va «Kechiktirilgan daromadlar» miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan manfiy gudvill tarzida tartibga solinishi lozim. O‘rtadagi farq summaning uzoq muddatli qismi - 7230 «Boshqa uzoq muddatga kechiktirilgan daromadlar» schyotining, joriy qismi - 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyotining kreditida aks ettiriladi;

- agar huquqiy vorisning sof aktivlari qiymati ustav kapitali miqdoridan kam bo‘lib qolsa, o‘rtadagi farq huquqiy vorisning qo‘shib olingan oxirgi korxonaning faoliyati to‘xtatilgani haqidagi yozuv yagona davlat reestriga kiritilgan sanadagi holatga ko‘ra buxgalteriya balansida «Uzoq muddatli aktivlar» bo‘limida «Nomoddiy aktivlar» miqdoriy ko‘rsatkichi bilan gudvill tarzida tartibga solinishi lozim. Buxgalteriya hisobining 0480 «Gudvill» schyotining debetida aks ettriladi.

4.3. Bo‘lish shaklida qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishning xususiyatlari

Korxonani bo‘lish shaklida qayta tashkil etishda ta’sischilarni qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qarorga asosan qayta tashkil etilayotgan korxona mol-mulki va majburiyatlarining huquqiy vorisligi haqidagi qoida ifodalangan taqsimlash balansini tuzish uchun qayta tashkil etilayotgan korxona moliyaviy hisobotining miqdoriy ko‘rsatkichlarini bo‘lish amalga oshiriladi.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot (2-son shakl)ning miqdoriy ko‘rsatkichlarini bo‘lish qayta tashkil etilayotgan korxona tomonidan amalga oshirilmaydi.

O‘z faoliyatini to‘xtatayotgan korxona tomonidan vujudga kelgan korxonalar haqidagi yozuv yagona davlat reestriga kiritilishidan oldingi kunga bo‘lgan holatga ko‘ra daromadlar va xarajatlar hisobi schyotlari bo‘yicha oxirgi hisobot yilini moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot elementlari kesimida yopish bilan bog‘liq yozuvlar qayd etiladi va taqsimlash balansiga asosan,

vujudga kelgan korxonalar kesimida tegishli miqdoriy ko‘rsatkichlarni bo‘lgan holda yakuniy moliyaviy hisobotni tuzish uchun taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) aniqlanadi.

Bo‘lish shaklida qayta tashkil etishda qayta tashkil etilayotgan korxonaning joriy faoliyati bilan bog‘liq barcha operatsiyalar, shuningdek taqsimlash balansi tasdiqlangan sanadan boshlab o‘tgan davrda amalga oshirilgan qayta tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar vujudga kelgan korxonalar haqidagi yozuvni yagona davlat reestriga kiritish sanasiga qadar qayta tashkil etilayotgan korxonaning buxgalteriya hisobida va yakuniy moliyaviy hisobotida aks ettiriladi.

Bo‘lish shaklida qayta tashkil etilgan korxonaning taqsimlash balansi va yakuniy moliyaviy hisobotiga asosan, yuqorida ko‘rsatilgan operatsiyalarni hisobga olgan holda, davlat ro‘yxatidan o‘tish sanasidagi holatga ko‘ra har bir yangi korxonaning dastlabki buxgalteriya hisoboti tuziladi.

Huquqiy vorislar o‘zlari davlat ro‘yxatidan o‘tgan sanaga bo‘lgan holatga ko‘ra dastlabki moliyaviy hisobotni tuzishda bo‘lish shaklida qayta tashkil etish jarayonida olingan aktivlar, majburiyatlar va boshqa miqdoriy ko‘rsatkichlar haqidagi ma’lumotlarni huquqiy vorislik tartibida olingan mol-mulk ta’sischilarning qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq taqsimlash balansida aks ettiriluvchi baholashda, qayta tashkil etilayotgan korxonaning yakuniy moliyaviy hisobotidagi miqdoriy ko‘rsatkichlardan kelib chiqib qayd etadilar.

Korxonalarni bo‘lish chog‘ida tarkib toptirilgan ustav kapitali dastlabki buxgalteriya balansida ta’sischilarning bo‘lish shaklida qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qaroriga va unda nazarda tutilgan qayta tashkil etilayotgan korxonaning aksiyalari (ulushlari, paylari)ni vujudga kelgan korxonalarning aksiyalari (ulushlari, paylari)ga konvertatsiya qilish (ayirboshlash) tartibiga muvofiq aks ettiriladi.

Agar ta’sischilarning bo‘lish shaklida qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qarorida vujudga kelgan korxonalarning ustav kapitali miqdorini qayta tashkil etilayotgan korxonaning ustav kapitali summasidan, shu jumladan bo‘lish shaklida qayta tashkil etilayotgan korxonaning o‘z mablag‘lari manbalari (qo‘shilgan kapitali, taqsimlanmagan foydasi va h.k.) hisobiga ko‘paytirish nazarda tutilgan bo‘lsa, bo‘lish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonalarning dastlabki moliyaviy hisobotida ta’sischilarning bo‘lish to‘g‘risidagi qarorida qayd etilgan ustav kapitali miqdori aks ettiriladi.

Agar ta’sischilarning bo‘lish to‘g‘risidagi qarorida bo‘lish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonalarning ustav kapitali miqdorini qayta tashkil etilayotgan korxonaning ustav kapitali summasidan kamaytirish nazarda tutilgan bo‘lsa, vujudga kelgan korxonalarning dastlabki moliyaviy hisobotida ta’sischilarning bo‘lish to‘g‘risidagi qarorida qayd etilgan ustav kapitali miqdori aks ettiriladi, o‘rtadagi farq esa huquqiy vorislarning dastlabki buxgalteriya balansida «Xususiy mablag‘larning manbalari» bo‘limida «Qo‘shilgan kapital» miqdoriy ko‘rsatkichi bilan yangi vujudga kelgan korxonalarning ustav kapitali miqdoriga mutanosib ravishda tartibga solinishi lozim.

Agar ta’sischilarning bo‘lish to‘g‘risidagi qarorida nazarda tutilgan ustav kapitalining miqdori korxonalarni bo‘lish natijasida vujudga kelgan sof aktivlar qiymatiga mos kelgan bo‘lmasa, bo‘lish natijasida vujudga kelgan korxonalarning dastlabki buxgalteriya balansi «Xususiy mablag‘larning manbalari» bo‘limining miqdoriy ko‘rsatkichlari quyidagi tartibda shakllantiriladi:

- agar aksiyalarni konvertatsiya qilish vaqtida bo‘lish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonalarning sof aktivlari qiymati ustav kapitali miqdoridan ko‘p bo‘lib qolsa, dastlabki buxgalteriya balansi «Xususiy mablag‘larning manbalari» bo‘limining miqdoriy ko‘rsatkichlari sof aktivlar qiymati miqdorida, ustav kapitaliga va qo‘shilgan kapitalga ajratgan

holda shakllantiriladi (sof aktivlar qiymatining aksiyalarning jami nominal qiymatidan oshishi);

- agar vujudga kelgan korxonalarning sof aktivlari qiymati ta'sis hujjatlarida qayd etilgan ustav kapitali miqdoridan ko'p bo'lib qolsa, o'rtadagi farq dastlabki buxgalteriya balansida «Majburiyatlar» bo'limida «Uzoq muddatga kechiktirilgan daromadlar» va «Kechiktirilgan daromadlar» miqdoriy ko'rsatkichlari bilan manfiy gudvill tarzida tartibga solinishi lozim. O'rtadagi farq summaning uzoq muddatli qismi - 7230 «Boshqa uzoq muddatga kechiktirilgan daromadlar» schyotining, joriy qismi - 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyotining kreditida aks ettiriladi;

- agar bo'lish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonalarning sof aktivlari qiymati ustav kapitali miqdoridan kam bo'lib qolsa, o'rtadagi farq dastlabki buxgalteriya balansida «Uzoq muddatli aktivlar» bo'limida «Nomoddiy aktivlar» miqdoriy ko'rsatkichi bilan gudvill tarzida tartibga solinishi lozim. Buxgalteriya hisobining 0480 «Gudvill» schyotining debetida aks ettriladi.

4.4. Ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini shakllantirishning xususiyatlari

Ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etishda tarkibidan boshqa korxona ajralib chiqayotgan korxonada ta'sischilar qaroriga asosan faqat mol-mulk va majburiyatlar hajmi o'zgaradi, joriy hisobot davrida uzilish ro'y bermaydi, daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish schyotlari yopilmaydi, shuningdek yakuniy moliyaviy hisobot tuzilmaydi.

Korxonani ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etishda ta'sischilarning qaroriga asosan qayta tashkil etilayotgan korxona mol-mulki va majburiyatlarining huquqiy vorisligi haqidagi qoida ifodalangan taqsimlash balansini tuzish uchun qayta tashkil etilayotgan korxona moliyaviy hisobotining miqdoriy ko'rsatkichlarini ajratish amalga oshiriladi.

Bunda qayta tashkil etilayotgan korxonaning «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti» (2-son shakl) miqdoriy ko'rsatkichlarini ajratish amalga oshirilmaydi.

Qayta tashkil etilayotgan korxona ajratib chiqarilayotgan tarkibiy bo'limining daromadlari va ayrim xarajatlari summasini e'tirof etish (topshirilayotgan mol-mulk bo'yicha amortizatsiyani hisoblash, bu mulkni saqlash xarajatlari, xodimlarga mehnat haqini hisoblash va sh.k.), shuningdek ajratib chiqarilayotgan tarkibiy bo'lim bo'yicha moliyaviy hisobot tuzilgan sanadagi holatga ko'ra tegishli byudjetlar bilan soliqlar, yig'imlar va to'lovlar bo'yicha hamda maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bog'liq ma'lumotlarni yoritishda qayta tashkil etilayotgan korxona O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standartlariga amal qilishi mumkin.

Ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etishda qayta tashkil etilayotgan korxonaning joriy faoliyati bilan bog'liq barcha operatsiyalar, shuningdek taqsimlash balansi tasdiqlangan sanadan boshlab o'tgan davrda amalga oshirilgan qayta tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar vujudga kelgan korxonalar haqidagi yozuvni yagona davlat reestriga kiritish sanasiga qadar qayta tashkil etayotgan korxonaning buxgalteriya hisobida va yakuniy moliyaviy hisobotida aks ettiriladi.

Ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonalarning dastlabki moliyaviy hisoboti, ularni davlat ro'yxatidan o'tish sanasiga qadar bo'lgan holatga ko'ra, qayta tashkil etilgan korxona tomonidan aks ettirilgan yuqorida nazarda tutilgan operatsiyalarni hisobga olgan holda taqsimlash balansiga asosan tuziladi.

Huquqiy voris o'zi davlat ro'yxatidan o'tgan sanadagi holatga ko'ra dastlabki moliyaviy hisobotni tuzishda qayta tashkil etish jarayonida olingan aktivlar, majburiyatlar va boshqa miqdoriy ko'rsatkichlar haqidagi ma'lumotlarni ular taqsimlash balansida aks ettiriluvchi

baholashda, vujudga kelgan korxona haqidagi yozuv yagona davlat reestriga kiritilgan sanaga bo‘lgan holatga ko‘ra qayta tashkil etilayotgan korxonaning moliyaviy hisobotidagi miqdoriy ko‘rsatkichlardan kelib chiqib qayd etadi.

Korxonani ajratib chiqarishda tarkib toptirilgan ustav kapitali dastlabki moliyaviy hisobotda ta’sischilarning ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qaroriga va qonunchilikka muvofiq unda nazarda tutilgan qayta tashkil etilayotgan korxonaning aksiyalari (ulushlari, paylarining miqdorini aniqlash)ni vujudga kelgan korxonaning aksiyalari (ulushlari, paylari)ga konvertatsiya qilish (ayirboshlash) tartibiga muvofiq aks ettiriladi.

Agar ta’sischilar qaroriga binoan ajratib chiqarilayotgan korxona ustav kapitalini tarkib toptirish uchun foydalanilayotgan mol-mulkka doir huquqlar qayta tashkil etilayotgan korxona ustav kapitalini o‘zgartirmasdan, ajratib chiqarilayotgan korxona ustav kapitaliga ulush tariqasida o‘tkazilayotgan bo‘lsa, mol-mulkning bunday tarzda o‘tkazilishi qayta tashkil etilayotgan korxonaning moliyaviy hisobotida moliyaviy qo‘yilmalar tarzida, ajratib chiqarilayotgan korxonaning moliyaviy hisobotida esa - ustav kapitaliga qo‘shilgan ulush tarzida aks ettiriladi.

Agar ta’sischilarning qaroriga binoan qayta tashkil etilayotgan korxonaning ustav kapitalini ajratish O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq aksiyalarni konvertatsiya qilish orqali amalga oshirilayotgan bo‘lsa, qayta tashkil etilayotgan korxona buxgalteriya balansining «Xususiy mablag‘larning manbalari» bo‘limida ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sanadagi holatga ko‘ra va yagona davlat reestriga yozuv kiritilgan sanadagi holatga ko‘ra miqdoriy ko‘rsatkichlarga sof aktivlar qiymati ustav kapitaliga va qo‘shilgan kapitalga ajratilgan holda kiritiladi (sof aktivlar qiymatining aksiyalarning jami nominal qiymatidan oshishi).

Agar ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonaning sof aktivlari qiymati ta’sischilar qarorida qayd etilgan ustav kapitali miqdoridan ko‘p bo‘lib qolsa, o‘rtadagi farq dastlabki buxgalteriya balansida «Majburiyatlar» bo‘limida «Uzoq muddatga kechiktirilgan daromadlar» va «Kechiktirilgan daromadlar» miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan manfiy gudvill tarzida tartibga solinishi lozim. O‘rtadagi farq summaning uzoq muddatli qismi - 7230 «Boshqa uzoq muddatga kechiktirilgan daromadlar» schyotining, joriy qismi - 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyotining kreditida aks ettiriladi.

Agar ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonaning sof aktivlari qiymati ta’sischilar qarorida qayd etilgan ustav kapitali miqdoridan kam bo‘lib qolsa, o‘rtadagi farq dastlabki buxgalteriya balansida «Uzoq muddatli aktivlar» bo‘limida «Nomoddiy aktivlar» miqdoriy ko‘rsatkichi bilan gudvill tarzida tartibga solinishi lozim. Buxgalteriya hisobining 0480 «Gudvill» schyotining debetida aks ettriladi.

Mazkur farq ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish sanasiga bo‘lgan holatga ko‘ra qayta tashkil etilayotgan korxonaning buxgalteriya balansida ham ayni shu yo‘sinda tartibga solinishi lozim.

4.5. O‘zgartirish shaklida qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarini shakllantirishning xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq korxonani tegishli tashkiliy-huquqiy shaklga ***o‘zgartirish*** shaklida qayta tashkil etish tartibi va shartlari ta’sischilarning o‘zgartirish to‘g‘risidagi qarori bilan belgilanadi.

O‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish natijasida tashkiliy-huquqiy shakl o‘zgargan taqdirda, mol-mulk va majburiyatlarni huquqiy vorisga o‘tkazish bilan bog‘liq masalalar topshirish dalolatnomasida tartibga solinishi lozim.

Ta’sischilarning o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq,

hujjatlarni qayta rasmiylashtirish bilan bog‘liq xarajatlar ta’sischilar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

O‘zgartirish shaklida qayta tashkil etilayotgan korxona vujudga kelgan korxona haqidagi yozuv yagona davlat reestriga kiritilishidan oldingi kungacha bo‘lgan holatga ko‘ra yakuniy moliyaviy hisobot tuzadi. Bunda daromadlar va xarajatlar hisobini yuritish schyotini yopish va sof foyda summasini ta’sischilarning o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qarori (shartnomasi)da belgilangan maqsadlarga yo‘naltirish (taqsimlash) amalga oshiriladi.

O‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonaning dastlabki moliyaviy hisoboti o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etilayotgan korxona yakuniy moliyaviy hisoboti ko‘rsatkichlarini quyida nazarda tutilgan xususiyatlardan kelib chiqib o‘tkazish yo‘li bilan tuziladi.

O‘zgartirish shaklida qayta tashkil etilayotgan korxonalarning aksiyalari (ulushlari, paylari)ni vujudga kelgan korxonaning aksiyalari (ulushlari, paylari)ga konvertatsiya qilish (ayirboshlash) tartibi to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq, vujudga kelgan korxonaning dastlabki moliyaviy hisobotida shakllantirilgan ustav kapitali aks ettiriladi.

Agar ta’sischilar qarorida vujudga kelgan korxonaning ustav kapitali miqdorini qayta tashkil etilayotgan korxonaning ustav kapitali summasidan, shu jumladan o‘z mablag‘lari manbalar (qo‘shilgan va rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda va h.k.) hisobiga ko‘paytirish nazarda tutilgan bo‘lsa, o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonaning dastlabki moliyaviy hisobotida ta’sischilar qarorida qayd etilgan ustav kapitali miqdori aks ettiriladi.

Agar ta’sischilar qarorida o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonaning ustav kapitali miqdorini kamaytirish nazarda tutilgan bo‘lsa, vujudga kelgan korxonaning dastlabki moliyaviy hisobotida ta’sis hujjatlarida qayd etilgan ustav kapitali miqdori aks ettiriladi, o‘rtadagi farq esa huquqiy vorisning dastlabki buxgalteriya balansida «Xususiy mablag‘larning manbalari» bo‘limida «Qo‘shilgan kapital» miqdoriy ko‘rsatkichi bilan tartibga solinishi lozim.

Agar ta’sischilar qarorida nazarda tutilgan ustav kapitalining miqdori vujudga kelgan korxonaning sof aktivlari qiymatiga mos bo‘lmasa, dastlabki buxgalteriya balansi «Xususiy mablag‘larning manbalari» bo‘limining miqdoriy ko‘rsatkichlari quyidagi tartibda shakllantiriladi:

- agar aksiyalarni konvertatsiya qilish vaqtida o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonaning sof aktivlari qiymati qayta tashkil etilayotgan korxonaning ustav kapitali miqdoridan ko‘p bo‘lib qolsa, dastlabki buxgalteriya balansi «Xususiy mablag‘larning manbalari» bo‘limining miqdoriy ko‘rsatkichlari sof aktivlar qiymati miqdorida, ustav kapitaliga va qo‘shilgan kapitalga ajratgan holda shakllantiriladi (sof aktivlar qiymatining aksiyalarning jami nominal qiymatidan oshishi);

- qolgan hollarda, agar vujudga kelgan korxonaning sof aktivlari qiymati ustav kapitali miqdoridan ko‘p bo‘lib qolsa, o‘rtadagi farq dastlabki buxgalteriya balansida «Majburiyatlar» bo‘limida «Uzoq muddatga kechiktirilgan daromadlar» va «Kechiktirilgan daromadlar» miqdoriy ko‘rsatkichlari bilan manfiy gudvill tarzida tartibga solinishi lozim. O‘rtadagi farq summaning uzoq muddatli qismi - 7230 «Boshqa uzoq muddatga kechiktirilgan daromadlar» schyotining, joriy qismi - 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyotining kreditida aks ettiriladi;

- agar o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonaning sof aktivlari qiymati ustav kapitali miqdoridan kam bo‘lib qolsa, o‘rtadagi farq dastlabki buxgalteriya

balansida «Uzoq muddatli aktivlar» bo‘limida «Nomoddiy aktivlar» miqdoriy ko‘rsatkichi bilan gudvill tarzida tartibga solinishi lozim. Buxgalteriya hisobining 0480 «Gudvill» schyotining debetida aks ettriladi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha amortizatsiyani hisoblash o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxona tomonidan qayta tashkil etilgan korxona (huquqni o‘tkazuvchi) tomonidan ushbu obyektlarni buxgalteriya hisobiga qabul qilish vaqtidagi qonunchilik hujjatlarga muvofiq belgilagan foydali xizmat muddatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

5-§. Moliyaviy hisobotda korxonani qayta tashkil etishni amalga oshirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ochib berish

Ta’sischilar qayta tashkil etishni amalga oshirish to‘g‘risida qaror qabul qilgan sanadan e’tiboran, qayta tashkil etishda qatnashayotgan korxonalar tomonidan qayta tashkil etish amalga oshiriladigan davrda belgilangan tartibda tuziluvchi va taqdim etiluvchi moliyaviy hisobotda amalga oshirilayotgan qayta tashkil etish haqidagi quyidagi axborot qo‘shimcha tarzda yoritilishi lozim:

- qayta tashkil etishni amalga oshirish uchun asoslar;
- qayta tashkil etishda qatnashayotgan korxonalar va huquqiy vorislar haqidagi ma’lumotlar;
- topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi tuzilgan sana;
- topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi tuzilgan sanadan e’tiboran mol-mulk tarkibi va qiymatida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar (tugallanmagan qurilish tarkibidagi asosiy vositalarning foydalanishga topshirilishi, ularning amortizatsiyasi, soqit etilishi va sh.k.) hamda majburiyatlar tarkibi va qiymatidagi o‘zgarishlar (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq bajarilishi yoki ko‘payishi), shuningdek aktivlar va majburiyatlarda tegishli o‘zgarishlarni keltirib chiqargan hodisalar;
- qayta tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar; vujudga kelgan korxonalar ustav kapitalining shakllantirilishi;
- topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi ma’lumotlarining yakuniy moliyaviy hisobot miqdoriy ko‘rsatkichlariga nomuvofiqligi (aniqlashtirish);
- yakuniy moliyaviy hisobot ma’lumotlarining dastlabki buxgalteriya balansi miqdoriy ko‘rsatkichlariga nomuvofiqligi;
- bajarilmagan shartlar hamda e’tirof etilgan qayta tashkil etish bilan bog‘liq boshqa hodisalar va b.

Qayta tashkil etish natijasida o‘z faoliyatini to‘xtatgan korxonalar topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansiga asosan yakuniy moliyaviy hisobotning buxgalteriya balansida «Yil oxiriga» katagining miqdoriy ko‘rsatkichlarini to‘ldiradilar.

O‘z faoliyatini to‘xtatgan korxonaning yakuniy moliyaviy hisobotiga tushuntirish xatida amalga oshirilgan qayta tashkil etish va korxona faoliyatining to‘xtatilishi haqida ma’lumotlar quyidagi holatlar ko‘rsatilgan holda yoritilishi mumkin:

- qayta tashkil etishni amalga oshirish uchun asoslar;
- mol-mulk va majburiyatlarning huquqiy vorisga o‘tkazilishi haqidagi hujjatlar;
- qayta tashkil etilayotgan korxonalarning hisob-kitob va boshqa bank hisobvaraqlari yopilgani, qayta rasmiylashtirilganini tasdiqlovchi hujjatlar;
- qayta tashkil etilayotgan korxonaning soliq organlari, maqsadli davlat jamg‘armalari hududiy

organlari, statistika hududiy organlari ro‘yxatidan chiqarilishi haqidagi ma’lumotlar va b.

Qo‘shib olish yoki ajratib chiqarish shaklida amalga oshirilgan qayta tashkil etishdan keyin o‘z faoliyatini davom ettirayotgan korxonalar olingan (o‘tkazilgan) mol-mulk va majburiyatlardan kelib chiqqan holda moliyaviy hisobot tuzadilar.

Topshirish dalolatnomasi yoki taqsimlash balansi ma’lumotlari, ustav kapitali, qo‘shilgan kapital miqdori hamda buxgalteriya balansining boshqa miqdoriy ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar moliyaviy hisobotga tushuntirish yozuvida yoritiladi.

Ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilayotgan korxona daromadlari, xarajatlari, olgan daromadlari (ko‘rgan zararlari)ning summalari, shuningdek daromad solig‘i haqidagi, shu jumladan ajratib chiqarilayotgan tarkibiy bo‘limga taalluqli ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlarida keltirilgan tartibda moliyaviy hisobotga tushuntirish yozuvida yoki moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot (2-shakl)da yoritishi mumkin.

Moliyaviy hisobot miqdoriy ko‘rsatkichlarining qiyosiyligini ta’minlash maqsadida, korxonani qo‘shib olish (ajratib chiqarish) amalga oshirilgan qayta tashkil etish jarayoni yakunlanganidan keyin, qayta tashkil etishdan oldingi davrlarga tegishli ma’lumotlarga belgilangan tartibda tuzatishlar kiritilishi lozim. Bunda buxgalteriya hisobida hech qanday yozuvlar qayd etilmaydi.

Qayta tashkil etish natijasida vujudga kelgan korxonalar o‘zlari davlat ro‘yxatiga olingan sanadan e’tiboran o‘tgan hisobot davri uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda moliyaviy hisobot tuzadilar va taqdim etadilar.

Agar amalga oshirilgan qayta tashkil etish natijasida qayta tashkil etilgan korxonaning Sho‘ba va qaram korxonalariga nisbatan huquqlari huquqiy vorisga o‘tgan bo‘lsa, huquqiy voris, o‘z korxonasining dastlabki moliyaviy hisoboti bilan bir qatorda, 8-son BHMS ga muvofiq o‘zaro bog‘liq korxonalar guruhining yig‘ma moliyaviy hisobotini tuzishi va ma’lumotlarni jamlama moliyaviy hisobotga izohlarda yoritishi lozim.

ILOVALAR

1-ilova

«Tasdiqlayman»[1]

_____
(nomi)

_____ _____
(imzo) (F.I.SH.)

«____» _____ 20___ -yil.

TOPSHIRISH DALOLATNOMASI
(_____ shaklida qayta tashkil etishda)

_____ shahar (rayon) «__» _____ 20__ -yil.

Mazkur topshirish dalolatnomasi bilan _____ shaklida
(qayta tashkil etish turi)
qayta tashkil etish natijasida _____, keyingi o‘rinlarda
(yuridik shaxsning to‘liq nomi)
«Topshiruvchi» deb nomlanadigan korxonaning huquq va majburiyatlarini, yangi tashkil etilgan _____, keyingi o‘rinlarda «Qabul qiluvchi»
(yuridik shaxsning to‘liq nomi)
deb nomlanadigan korxonaga o‘tishi tasdiqlanadi. «Topshiruvchi» ning debitor va kreditorlik qarzlari, shu jumladan tomonlar o‘rtasida nizoda bo‘lgan majburiyalar bo‘yicha barcha huquq va majburiyatlari topshiriladi.

Mazkur topshirish dalolatnomasi bo‘yicha «Topshiruvchi» dan o‘z majburiyatlarini tez kunlarda bajarilishini talab qilib talabnoma kiritmagan kreditorlar bo‘yicha «Topshiruvchi» tegishli huquq va majburiyatlari ham o‘tadi.

«Qabul qiluvchi» mazkur matnda keltirilgan «Topshiruvchi» ning huquq va majburiyatlari, shuningdek mazkur topshirish dalolatnomasida qayd etilmagan huquq va majburiyatlarini ham oladi. Chunki «Qabul qiluvchi» mazkur topshirish dalolatnomasi tasdiqlangandan keyin, lekin qayta tashkil etishni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishidan olidan tashkil etilgan.

«Topshiruvchi» ning topshirayotgan aktivlarining jami balans qiymati «__» _____ 20__ -yil holatiga _____ so‘mni tashkil etadi.

Aktivlar «__» _____ 20__ -yil holatiga tuzilgan moliyaviy hisobotga muvofiq, quyidagi tarkibda beriladi:

1. Asosiy vositalar qoldiq qiymat bo‘yicha _____ so‘mni tashkil etadi (asosiy vositalar ro‘yxati 1-ilovada ko‘rsatilgan).

2. Nomoddiy aktivlar qoldiq qiymat bo‘yicha _____ so‘mni tashkil etadi (nomoddiy aktivlar ro‘yxati 2-ilovada ko‘rsatilgan).

3. Tovar-moddiy zaxiralar haqiqy tannarx bo‘yicha _____ so‘mni tashkil etadi (tovar-moddiy zaxiralarning ro‘yxati xomashyo va materiallar, tayyor mahsulotlar hamda tovarlar kesimida 3-ilovada ko‘rsatilgan).

4. Debitorlik qarzlari _____ so‘mni tashkil etadi (debitorlik qarzlarining ro‘yxati debitorlarni nomi va joylashgan joyi, qarzlar yuzaga kelgan asos va sanasi bo‘yicha ma’lumotlar bilan birga 4-ilovada ko‘rsatilgan).

[1] O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 51-moddasiga muvofiq, topshirish dalolatnomasi korxona ta’sischilari yoki korxonani qayta tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilgan organ tomonidan tasdiqlanadi.

5. Pul mablag‘lari _____ ni tashkil etadi (bank schyotlari ochilgan banklar nomi va bank schyotlari raqamlarining ro‘yxati bank schyotlari ochilgan valyutalar kesimida 5-ilovada ko‘rsatilgan).

«Topshiruvchi» ning topshirayotgan passivlarining jami balans qiymati «__» _____ 20__ -yil holatiga _____ so‘mni tashkil etadi.

Passivlar «__» _____ 20__-yil holatiga tuzilgan moliyaviy hisobotga muvofiq, quyidagi tarkibda beriladi:

1. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarzlar _____ so‘mni tashkil etadi (soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni turlari bo‘yicha qarzlar ro‘yxati 6-ilovada ko‘rsatilgan).

2. Xodimlarga ish haqi bo‘yicha qarzlar _____ so‘mni tashkil etadi (ish haqi to‘lanishi kerak bo‘lgan xodimlar ro‘yxati 7-ilovada ko‘rsatilgan).

3. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar oldidagi qarzlar _____ so‘mni tashkil etadi (qarzlarning miqdori ro‘yxati kreditorlarning nomi va joylashgan joyi, qarz yuzaga kelgan asos va sanasi bo‘yicha ma’lumotlar bilan birga 8-ilovada ko‘rsatilgan).

4. Bank kreditlari _____ so‘mni tashkil etadi (bank kreditlari bo‘yicha qarzlarning miqdori ro‘yxati kredit olingan banklar nomi, muddati, asos va sanasi bo‘yicha ma’lumotlar bilan birga valyutalar kesimida 9-ilovada ko‘rsatilgan).

«Topshiruvchi»
Rahbar _____ _____
F.I.SH. imzo

Bosh buxgalter _____ _____
F.I.SH. imzo

«Qabul qiluvchi»
Rahbar _____ _____
F.I.SH. imzo

Bosh buxgalter _____ _____
F.I.SH. imzo

2-ilova

«Tasdiqlayman»[2]

_____
(nomi)

_____ _____
(imzo) (F.I.SH.)

«____» _____ 20___ -yil

TAQSIMLASH BALANSI
(_____ shaklida qayta tashkil etishda)
«____» _____ 20___-yilga

Tuzilgan sana «____» _____ 20___ -yil.

		Kodlar
Korxona, tashkilot_____	KTUT bo‘yicha-	
Faoliyat turi	IFUT bo‘yicha-	
Tashkiliy-huquqiy shakli _____	THSHT bo‘yicha-	
Mulkchilik shakli _____	MSHT bo‘yicha-	
Vazirlik, idora va boshqalar	DBIBT bo‘yicha-	
Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami	STIR-	
Hudud	MHOBT-	
Manzil		
O‘lchov birligi, ming so‘m		

Yangi tashkil etilayotgan korxonalar o‘rtasida taqsimladigan ko‘rsatkichlar nomi	**Satr kodi**	**Qayta tashkil etilayotgan korxona «_____»**	**Yangi tashkil etilayotgan korxona «_____»**	**Yangi tashkil etilayotgan korxona «_____»**
1	**2**		**3**	**4**
Aktiv				
I. Uzoq muddatli aktivlar				
Asosiy vositalar	010			
Nomoddiy aktivlar	020			
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr.040+050+060+070+080), shu jumladan:	030			
Qimmatli qog‘ozlar (0610)	040			
Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	050			
Qaram xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	060			
Chetel kapitali mavjud bo‘lgan korxonalarga investitsiyalar (0640)	070			
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080			
O‘rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090			

[2] O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 51-moddasiga muvofiq, taqsimlash balansi korxona ta’sischilari yoki korxonani qayta tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilgan organ tomonidan tasdiqlanadi.

Yangi tashkil etilayotgan korxonalar o‘rtasida taqsimladigan ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Qayta tashkil etilayotgan korxona «_____»	Yangi tashkil etilayotgan korxona «_____»	Yangi tashkil etilayotgan korxona «_____»
1	2		3	4
Kapital qo‘yilmalar (0800)	100			
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0920, 0930, 0940)	110			
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	120			
I bo‘lim bo‘yicha jami (satr. 010+020+030+090+100+110+120)	130			
II. Joriy aktivlar				
Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr.150+160+170+180), shu jumladan:	140			
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100)	150			
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	160			
Tayyor mahsulot (2800)	170			
Tovarlar (2900)	180			
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190			
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200			
Debitorlar, jami (satr.220+230+240+250+260+270+280+290)	210			
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000)	220			
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarning qarzi (4120)	230			
Xodimlarga berilgan bo‘naklar (4200)	240			
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar (4300)	250			
Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4400)	260			
Maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4500)	270			
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzi (4700)	280			
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	290			
Pul mablag‘lari, jami (satr.330+340+350+360), shu jumladan:	300			
Kassadagi pul mablag‘lari (5000)	310			
Hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘lari (5100)	320			
Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari (5200)	330			
Boshqa pul mablag‘lari va ekvivalentlari (5500, 5600, 5700)	340			
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	350			
Boshqa joriy aktivlar (5900)	360			
II-bo‘lim bo‘yicha jami (satr.140+190+200+210+300+350+360)	370			
Balans aktivi bo‘yicha jami (satr.130+370)	380			

Yangi tashkil etilayotgan korxonalar o‘rtasida taqsimlanadigan ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Qayta tashkil etilayotgan korxona «_____»	Yangi tashkil etilayotgan korxona «_____»	Yangi tashkil etilayotgan korxona «_____»
1	2		3	4
Passiv				
I. O‘z mablag‘lari manbalari				
Ustav kapitali (8300)	390			
Qo‘shilgan kapital (8400)	400			
Rezerv kapitali (8500)	410			
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	420			
Maqsadli tushumlar (8800)	430			
Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar (8900)	440			
I-bo‘lim bo‘yicha jami (satr.390+400+410+420+430+440)	450			
II. Majburiyatlar				
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr.470+480+490+500+510+520+530+540+550)	460			
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000)	470			
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarga uzoq muddatli qarz (7120)	480			
Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7230)	490			
Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7240)	500			
Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7250, 7290)	510			
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar (7300)	520			
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	530			
Uzoq muddatli qarzlar (7820, 7830, 7840)	540			
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlar (7900)	550			
Joriy majburiyatlar, jami (satr.570+580+590+600+610+620+630+640+650+660+670+680+690+700+710)	560			
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	570			
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarga qarz (6120)	580			
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	590			
Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	600			
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)	610			
Olingan bo‘naklar (6300)	620			
Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6400)	630			
Sug‘urtalar bo‘yicha qarz (6510)	640			
Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6520)	650			
Ta’sischilarga bo‘lgan qarzlar (6600)	660			
Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarz (6700)	670			
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	680			

Yangi tashkil etilayotgan korxonalar o‘rtasida taqsimlanadigan ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Qayta tashkil etilayotgan korxona «_____»	Yangi tashkil etilayotgan korxona «_____»	Yangi tashkil etilayotgan korxona «_____»
1	**2**		**3**	**4**
Qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840)	690			
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	700			
Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashqari 6900)	710			
II-bo‘lim bo‘yicha jami (satr.460+560)	720			
Balans passivi bo‘yicha jami (satr.450+720)	730			

BALANSDAN TASHQARI SCHYOTLARDA HISOBGA OLINADIGAN QIYMATLIKLARNING MAVJUDLIGI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Operativ ijaraga olingan asosiy vositalar (001)	740		
Mas’ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklar (002)	750		
Qayta ishlashga qabul qilingan materiallar (003)	760		
Komissiyaga qabul qilingan tovarlar (004)	770		
O‘rnatish uchun qabul qilingan uskunalar (005)	780		
Qat’iy hisobot blankalari (006)	790		
To‘lovga qobiliyatsiz debitorlarning zararga hisobdan chiqarilgan qarzi (007)	800		
Olingan majburiyat va to‘lovlarning ta’minoti (008)	810		
Berilgan majburiyat va to‘lovlarning ta’minoti (009)	820		
Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar (010)	830		
Ssuda shartnomasi bo‘yicha olingan mulklar (011)	840		
Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar (012)	850		
Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha) (013)	860		
Foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlari (014)	870		

Rahbar _____ _____
F.I.SH. imzo

Bosh buxgalter _____ _____
F.I.SH. imzo

3-ilova

Korxonalarni qayta tashkil etishda qo‘llaniladigan mol-mulkni baholash turlari

Aktivlarning turlari	Baholash turlari				
	Bozor qiymati	Haqiqiy qiymat	Qoldiq qiymat	Nominal qiymat	Rejali, me’yoriy qiymat
Asosiy vositalar	ha	ha	ha	yo‘q	yo‘q
O‘rnatiladigan asbob-uskunalar	ha	ha	yo‘q	yo‘q	yo‘q
Nomoddiy aktivlar	ha	ha	ha	yo‘q	yo‘q
Kapital quyilmalar	ha	ha	yo‘q	yo‘q	yo‘q
Uzoq muddatli investitsiyalar	ha	ha	ha	ha	yo‘q
Materiallar	ha	ha	yo‘q	yo‘q	ha
Tugallanmagan ishlab chiqarish	ha	ha	yo‘q	yo‘q	ha
O‘zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar	ha	ha	yo‘q	yo‘q	ha
Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulot	yo‘q	ha	yo‘q	yo‘q	ha
Tayyor mahsulot	ha	ha	yo‘q	yo‘q	ha
Tovarlar	ha	ha	yo‘q	yo‘q	ha
Yuklab jo‘natilgan tovarlar	ha	ha	yo‘q	yo‘q	ha
Naqd pul mablag‘lari	yo‘q	yo‘q	yo‘q	ha	yo‘q
Pul hujjatlari	yo‘q	ha	yo‘q	ha	yo‘q
Bankdagi schyotlardagi pul mablag‘lari	yo‘q	ha	yo‘q	yo‘q	yo‘q
Yo‘ldagi o‘tkazmalar	yo‘q	ha	yo‘q	yo‘q	yo‘q
Moliyaviy qo‘yilmalar	ha	ha	yo‘q	ha	yo‘q
Kelgusi davrlar xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlar	yo‘q	ha	yo‘q	yo‘q	yo‘q

14-BOB. TUGATISH JARAYONI BILAN BOG‘LIQ OPERATSIYALAR HISOBI

1-§. Tugatish jarayoni bilan bog‘liq operatsiyalar hisobini tashkil etishning huquqiy asoslari

Yuridik shaxs bo‘lib o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan korxona hisoblanadi.

Yuridik shaxsni tugatish uning huquq va burchlari huquqiy vorislik tartibda boshqa shaxsga o‘tmasdan bekor qilinishiga olib keladi. Korxonani tugatilishi ta’sischilar (ishtirokchilar)ning yoki ta’sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining yoki sudning qaroriga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Yuridik shaxs ixtiyoriy va majburiy tartibda tugatilishi mumkin.

Yuridik shaxs ixtiyoriy tartibda uning ta’sischilari (ishtirokchilari)ning yoki ta’sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga muvofiq, yuridik shaxsning amal qilish muddati tugashi, uni tashkil etishdan ko‘zlangan maqsadga erishilganligi munosabati bilan tugatiladi. Bundan tashqari, yuridik shaxs o‘zining bankrotligi va ixtiyoriy tugatilishi haqida e’lon qilishi mumkin.

Yuridik shaxs quyidagi hollarda majburiy tartibda tugatiladi:

- tashkil etishda qonun hujjatlari qo‘pol ravishda buzilishiga yo‘l qo‘yilganda (buzilishlarni bartaraf etib bo‘lmasa);

- faoliyatni tegishli ruxsatnomasiz (litsenziyasiz) yoki qonun tomonidan taqiqlangan faoliyatni amalga oshirilganda;

- qonun yoki boshqa huquqiy hujjatlarni boshqa bir necha marotaba yoki qo‘pol ravishda buzilganda;

- yuridik shaxsni sud tomonidan bankrot deb tan olinganda.

Yuqorida sanab o‘tilgan asoslar bo‘yicha yuridik shaxsni tugatish haqidagi talabnomani sudga mazkur ko‘rinishdagi talabnomalarni taqdim etish huquqi qonun bilan berilgan davlat idorasi yoki mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish idorasi tomonidan taqdim etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarni tugatishni amalga oshirishni tartibga soluvchi bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar mavjud. Yuridik shaxslarni tugatishning ***huquqiy asosini belgilovchi asosiy me’yoriy hujjat bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi hisoblanadi.***

O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi Qonunining 98-101-moddalarida ***aksiyadorlik jamiyatlarini***, «Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida» gi Qonunining 55-moddasida ***mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlarni*** va «Xususiy korxonalar to‘g‘risida» gi Qonunining 28-moddasida ***xususiy korxonalarni tugatishni amalga oshirish tartibi ochib berilgan.***

Korxonalarni bankrotlik holatida tugatish jarayoni O‘zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to‘g‘risida» gi Qonuni VII-bobi 124-144-moddalariga, ***ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatishda*** - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil

21-avgustdagi 704-son qarori bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»ga, ***moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganlarining tugatish*** - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi 704-son qarori bilan tasdiqlangan «Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik subyektlarini davlat reestridan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»ga muvofiq amalga oshiriladi.

Iqtisodiyotning turli sohalarida tugatishni amalga oshirishning bir qator xususiyatlari mavjudligini hisobga olgan holda bizning Respublikamizda iqtisodiyotni ayrim sohalaridagi yuridik shaxslarni tugatish masalalarini tartibga soladigan alohida me’yoriy hujjatlar mavjud.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, yuqorida aytib o‘tilgan me’yoriy hujjatlarda asosan faqatgina korxonalarni tugatishni amalga oshirishni huquqiy va tashkiliy tomonlari keltirilgan, biroq hisobga olish masalalari, ya’ni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish ochib berilmagan. Buning natijasida buxgalteriya hisobi amaliyotida tugatilayotgan korxonalarning moliyaviy hisobotlarida tugatish jarayonini aks ettirish tartibi bo‘yicha ayrim muammolar yuzaga kelmoqda.

Korxonalarni tugatish amalga oshirilishi to‘g‘risida axborotlarni moliyaviy hisobotlarda ochib berish ta’sischilar (ishtirokchilar)ning yoki ta’sis hujjatlari bilan tugatishga vakolat berilgan yuridik shaxs organning yoki sudning qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Tugatish jarayonida korxona O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan aniq harakatlarni: inventarizatsiya o‘tkazish, oraliq tugatish balansini tuzish, kreditorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish, qoldiqqa ega bo‘lgan schyotlarni yopish (mol-mulk va xususiy kapitalni hisobga oluvchi schyotlardan tashqari) tugatish balansini tuzish, ta’sischilar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish va boshqalarni bajarishi kerak.

Mazkur «Tugatish jarayoni bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobi» bobida korxonalarda tugatish jarayonida hisobotlarni tuzish, tugatish jarayoni bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Bunda korxonaning aktivlari va majburiyatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish, oraliq tugatish balansini tuzish, kreditorlar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish, qoldiqqa ega bo‘lgan schyotlarni yopish (mol-mulk va xususiy kapitalni hisobga oluvchi schyotlardan tashqari) tugatish balansini tuzish, ta’sischilar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish va ular bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi ko‘rib chiqilgan.

Tugatish jarayoni bilan bog‘liq operatsiyalarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni shakllantirish Respublikamizda quyidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;
- O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi;
- «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;
- «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom»;
- O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari va boshqa buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar.

Korxonalar tugatish jarayonida aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapital bilan bog‘liq operatsiyalar hisobini tegishli ravishda tashkil etish va nazorat qilish uchun zarur bo‘ladigan tashkiliy-taqsimlovchi hujjatlarni ishlab chiqishlari mumkin.

2-§. Oraliq tugatish balansini tuzish tartibi

Kreditorlar tomonidan talablarni qo‘yish uchun belgilangan muddat tamom bo‘lganidan keyin tugatilayotgan yuridik shaxs mol-mulkining tarkibi, kreditorlar qo‘ygan talablar ro‘yxati, shuningdek ularni qarab chiqish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladigan oraliq tugatish balansi tuziladi. Mualliflar tomonidan oraliq tugatish balansining namunasi tavsiya etilgan (1-ilovaga qarang).

Oraliq tugatish balansini tuzishdan oldin tugatish komissiyasi tomonidan tugatilayotgan korxonalarni aktivlari va majburiyatlarining inventarizatsiyasi 19-son BHMS ga muvofiq o‘tkaziladi.

Tugatilayotgan korxona – bankrotning sotishga qo‘yilgan mol-mulki va majburiyatlarini inventarizatsiya qilish va qiymatini aniqlash «Tugatilayotgan korxonaning mol-mulki va majburiyatlarini inventarizatsiya qilish va qiymatini aniqlashni tashkil etish bo‘yicha Yo‘riqnoma» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 3-fevralda 887-son bilan ro‘yxatga olingan)* ga muvofiq amalga oshiriladi.

Inventarizatsiyada aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasini buxgalteriya hisobida aks ettirish «Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq amalga oshiriladi.

Aktivlar va majburiyatlarni inventarizatsiyadan o‘tkazish va ularning natijalarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish tartibi «1-bob. Asosiy vositalar hisobi», «3-bob. Moliyaviy investitsiyalar hisobi», «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi», «7-bob. Pul mablag‘lari va ekvivalentlari hisobi», «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Oraliq tugatish balansi kreditorlar tomonidan talablarni taqdim etish muddatini tugash sanasiga tuziladi. Oraliq tugatish balansi mol-mulkni tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham o‘z ichiga oladi. Unga quyidagilarni ro‘yxati to‘g‘risidagi axborotlar ilova qilinadi:

- bino va inshootlar - obyektni inventar raqamini, nomi va joylashgan joyini, foydalanishga topshirilgan yilini, haqiqatda hisoblangan eskirishni, qoldiq qiymatini ko‘rsatgan holda;
- mashina, asbob-uskunalar va boshqa asosiy vositalar - obyektni inventar raqami, nomi va joylashgan joyi, markasi, foydalanishga topshirilgan yili, haqiqatda hisoblangan eskirish, qoldiq qiymatini ko‘rsatgan holda;
- tugallanmagan qurilish obyektlari va o‘rnatilmagan asbob-uskunalar - obyektni nomi va joylashgan joyi, qurilish boshlangan yili, haqiqatda bajarilgan hajm, balans qiymatini ko‘rsatgan holda;
- moliyaviy investitsiyalar – uzoq muddatli investitsiyalar va ularni balans qiymatini ko‘rsatgan holda;
- nomoddiy aktivlar – ularni balans qiymatini ko‘rsatgan holda;
- tovar-moddiy zaxiralar, debitorlik qarzlari, pul mablag‘lari, qisqa muddatli investitsiyalar va boshqa aktivlar – materiallar, o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar, tovarlar, kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlar hamda boshqa joriy aktivlarni ko‘rsatgan holda;
- tugatilayotgan korxonaga kreditorlar tomonidan taqdim etilgan talablar – kreditorning nomi (navbatdagi tartib bo‘yicha), qarzdorlik summasi va talabni qondirish haqidagi qaror (echim)ni ko‘rsatgan holda.

Oraliq tugatish balansiga quyidagilar ham ilova qilinishi mumkin:

- tugatilayotgan korxonaning aktivlar va majburiyatlarini tarkibini aks ettiridigan O‘zbekiston

Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha Qoidalarni» tasdiqlash to‘g‘risida» buyrug‘i da nazarda tutilgan tarkibdagi moliyaviy hisobotlar;

- oraliq tugatish balansi tuzishdan oldin 19-son BHMS ga muvofiq o‘tkazilgan tugatilayotgan korxonaning aktivlar va majburiyatlarining inventarizatsiya dalolatnomalari (ro‘yxatlari);

- kreditorlik va debitorlik qarzlarining yoyilmasi (ro‘yxati).

Oraliq tugatish balansini tugatilayotgan korxonaning aktivlari va majburiyatlarni tavsiflash va baholashga asos bo‘lib hisoblanadigan hisobot davri (yil) ning yakuni yoki choraklik moliyaviy hisobot tuzish sanasi bo‘yicha tuzish tavsiya etiladi.

3-§. Korxonalarni tugatishda kreditorlar bilan hisob-kitoblarni buxgalteriya hisobi

Oraliq tugatish balansi tuzilgandan keyin tugatish komissiyasi tomonidan qonunchilikda belgilangan navbat asosida amalga oshiriladigan tugatilayotgan korxonaning kreditorlari bilan hisob-kitob qilish jarayoni boshlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Lizing to‘g‘risida» gi Qonunining 15-moddasiga muvofiq, lizingga oluvchi bankrot bo‘lgan, uning mol-mulki xatga olingan yoki musodara qilingan taqdirda, lizing obyekti lizingga oluvchining umumiy mol-mulkidan ajratiladi va lizingga beruvchiga qaytarilishi lozim. Agar korxonada moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalar mavjud bo‘lsa ularni ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) ga qaytarish va ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) oldidagi qarzni qoplanishini buxgalteriya hisobida aks ettirish «Buxgalteriya hisobida ijara operatsiyalarini aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq amalga oshiriladi.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) ga qaytarish va ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) oldidagi qarzni qoplanishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalarining hisobi»» da ko‘rib chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to‘g‘risida» gi Qonunining 134-moddasiga muvofiq, sud xarajatlarini, sud boshqaruvchilariga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlarni, kommunal xizmatlar va foydalanish xarajatlariga oid joriy to‘lovlarni, qarzdorning mol-mulkini sug‘urta qilish xarajatlarini qoplash, shuningdek qarzdorning bankrotlik to‘g‘risidagi ish qo‘zg‘atilgandan keyin yuzaga kelgan majburiyatlariga doir talablarni hamda qarzdor qaysi fuqaroning xayoti yoki sog‘ligiga zarar yetkazilganligi uchun qonunchilikka muvofiq javobgar bo‘lsa, ana shu fuqaroning talablarini qondirish navbatdan tashqari tarzda amalga oshiriladi.

Kreditorlarga pul summalarini to‘lash quyidagi navbat tartibi bo‘yicha amalga oshiriladi:

- birinchi navbatda – majburiy to‘lovlar (davlat byudjeti va maqsadli davlat jamg‘armalariga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar) ni hamda ish haqi to‘lash uchun pul mablag‘lari berilishini nazarda tutuvchi to‘lov (ijro) hujjatlari bo‘yicha, alimentlarni undirish to‘g‘risidagi talablarni qondirish uchun schyotdan pul mablag‘lari o‘tkazishni yoki berishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari bo‘yicha, mualliflik shartnomalari yuzasidan haq to‘lash bo‘yicha, qarzdorning mehnatga oid munosabatlar va ularga tenglashtirilgan huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi majburiy to‘lovlar hamda talablar bo‘yicha majburiyatlari bir xil – teng darajada bajarilishini ta’minlaydigan, shuningdek jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlik oqibatida fuqarolarning mol-mulkiga yetkazilgan zaraning o‘rnini qoplashga doir talablari;

- ikkinchi navbatda – majburiy sug‘urta bo‘yicha, shuningdek banklarning kreditlari va bank kreditlari sug‘urtasi bo‘yicha talablar;

- uchinchi navbatda – kreditorlarning garov bilan ta'minlangan talablar;

- to'rtinchi navbatda – kreditorlarning garov bilan ta'minlanmagan talablari;

- beshinchi navbatda – aksiya egalarining talablari;

- oltinchi navbatda – qolgan barcha talablar.

Har qaysi navbat bo'yicha talablar oldingi navbat talablari to'la qanoatlantirilgandan keyin qondiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi 704-son qarori bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi to'g'risidagi Nizom» ning 24-bandiga muvofiq, oraliq tugatish balansiga muvofiq, u tasdiqlangan kundan boshlab tugatuvchi tomonidan kreditorlarga quyidagi navbat bo'yicha pul summalarini to'lash amalga oshiriladi:

- birinchi navbatda – fuqarolarning mehnatga oid huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan, alimentlarni undirishga va mualliflik shartnomalari bo'yicha pul to'lovlariga doir talablarini, shuningdek fuqarolarning hayoti va salomatligiga yetkazilgan zarar uchun korxona tegishli vaqtbay to'lovlarni soqit qilish yo'li bilan javob beradigan talablarini kondirish;

- ikkinchi navbatda – davlat byudjetga va maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar;

- uchinchi navbatda - boshqa kreditorlarning talablari.

Kreditorlarga pul mablag'larini to'lashni yuqorida sanab o'tilgan ketma-ketlikdan kelib chiqib 21-son BHMS ga muvofiq buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini ko'rib chiqamiz.

3.1. Xodimlar bilan hisob-kitoblar

Korxona faoliyat yuritayotgan davrda xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisoblashishlar shuningdek ish haqi hisobidan ushlab qolinadigan soliqlar va to'lov bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «6-bob. Mehnatga haq to'lash hisobi» da ko'rib chiqilgan.

Xodimga berilgan bo'naklarni, kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha xodimning bank kreditlarini qoplash uchun qarzini, berilgan qarzlar bo'yicha xodimning qarzlarini ish haqi hisobidan ushlab qolish bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» da ko'rib chiqilgan.

Korxona kassasiga naqd pulni qabul qilish va kassadan berish tartibi hamda ularni buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilishi «7-bob. Pul mablag'lari va ekvivalentlari hisobi», «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» va «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko'rib chiqilgan.

Xodimlar bilan hisob-kitoblarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Oraliq tugatish balansini tuzish sanasi holatiga korxona xodimlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha quyidagi axborotlarga ega: mehnat haqi bo'yicha xodimlarga bo'lgan qarz - 4 000 000 so'm, xodimlarga berilgan bo'naklar – 430 000 so'm (mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar – 250 000 so'm, xizmat safariga berilgan bo'naklar – 100 000 so'm, umumxo'jalik xarajatlari uchun berilgan bo'naklar – 80 000 so'm), kreditga sotilgan tovarlar bo'yicha xodimlarning qarzi – 1 000 000 so'm, berilgan qarzlar (zaym) bo'yicha xodimlarning qarzi – 1 500 000 so'm, ulardan joriy qismi – 500 000 so'm, moddiy zararni qoplash bo'yicha xodimlarning qarzi – 200 000 so'm va xodimlarning boshqa qarzlari – 300 000 so'm, hisobdor shaxslarga bo'lgan qarz – 150 000 so'm.

Xodimlar bilan hisob-kitoblar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- xodimlarga mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar va hisobdor shaxslarni qaytarmagan bo'naklarini hisoblangan ish haqi hisobidan ushlab qolinganda:

debet 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 430 000 so‘m;
kredit 4210 «Mehnat haqi bo‘yicha berilgan bo‘naklar» schyoti 250 000 so‘m;
kredit 4220 «Xizmat safariga berilgan bo‘naklar» schyoti 100 000 so‘m;
kredit 4230 «Umumxo‘jalik xarajatlari uchun berilgan bo‘naklar» schyoti 80 000 so‘m;

- kreditga sotilgan tovarlar, berilgan qarzlar, moddiy zararni qoplash va boshqa qarzlari bo‘yicha xodimlarning qarzi ushlab qolinganda:

debet 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 3 000 000 so‘m;
kredit 0930 «Xodimlarning uzoq muddatli qarzlari» schyoti 1 000 000 so‘m;
kredit 4710 «Kreditga sotilgan tovarlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti 1 000 000 so‘m;
kredit 4720 «Berilgan qarzlar bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti 500 000 so‘m;
kredit 4730 «Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti 200 000 so‘m;
kredit 4790 «Xodimlarning boshqa qarzlari» schyoti 300 000 so‘m;

- xodimlarga bo‘lgan qarzni qolgan qismi to‘langanda:

debet 6710 «Mehnat haqi bo‘yicha xodim bilan hisoblashishlar» schyoti 570 000 so‘m;
kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti 570 000 so‘m;
(570 000 so‘m = 4 000 000 so‘m – 430 000 so‘m – 3 000 000 so‘m);

- hisobdor shaxslarga bo‘lgan qarz to‘langanda:

debet 6970 «Hisobdor shaxslarga bo‘lgan qarz» schyoti 150 000 so‘m;
kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti 150 000 so‘m.

Agar xodimlarning qarzi hisoblangan ish haqidan ko‘p bo‘lsa, u holda qarzning oshgan qismi xodim tomonidan qoplanadi. Faraz qilamiz, xodimlarning qarzini oshgan qismi quyidagilardan iborat: xizmat safariga berilgan bo‘naklar – 50 000 so‘m va moddiy zararni qoplash bo‘yicha qarzi – 230 000 so‘m. Xodimlarning qarzining hisoblangan ish haqidan oshgan qismini qoplanishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti 280 000 sum;
kredit 4220 «Xizmat safariga berilgan bo‘naklar» schyoti 50 000 so‘m;
kredit 4730 «Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti 230 000 so‘m.

3.2. Byudjet bilan hisob-kitoblar

Byudjetga qarzlar bo‘yicha hisob-kitoblar bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Byudjet bilan hisob-kitoblarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Oraliq tugatish balansini tuzish sanasi holatiga korxona byudjet bilan hisob-kitoblar bo‘yicha quyidagi axborotlarga ega: byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz - 2 300 000 so‘m, byudjetga soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (tovar-moddiy zaxiralarini xarid qilinganda

to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i qo‘shilgan holda) - 1 500 000 so‘m, soliqlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar - 2 000 000 so‘m, ulardan joriy qismi – 250 000 so‘m.

Byudjet bilan hisob-kitoblar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- oldin bo‘nak sifatida to‘langan soliqlarni qoplashga qabul qilingan, tovar-moddiy zaxiralarini xarid qilinganda to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i qo‘shilgan holda:

debet 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti 1 500 000 so‘m;
kredit 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majbupiy to‘lovlar bo‘yicha
bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti 1 500 000 so‘m;

- byudjet oldidagi qarzlar, kechiktirilganlarini qo‘shgan holda qoplanganda:

debet 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti 800 000 so‘m;
debet 6240 «Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha
kechiktirilgan majburiyatlar» schyoti 250 000 so‘m;
debet 7240 «Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli
kechiktirilgan majburiyatlar» schyoti 1 750 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 2 800 000 so‘m;
(800 000 so‘m = 2 300 000 so‘m – 1 500 000 so‘m);
(2 800 000 so‘m = 800 000 sum + 250 000 so‘m + 1 750 000 so‘m).

Agar byudjetga soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (tovar-moddiy zaxiralarini xarid qilinganda to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i qo‘shilgan holda) byudjet oldidagi qarzdan ko‘p bo‘lsa, u holda bo‘nak to‘lovlarining qarzdan oshgan qismi byudjet tomonidan qaytarib berilishi kerak. Faraz qilamiz, bo‘nak to‘lovlarining qarzdan oshgan qismi 1 250 000 so‘mga teng. Byudjet oldidagi qarzdan oshgan summani qaytarilishi buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 1 250 000 so‘m;
kredit 4410 «Byudjetga soliqlar va boshqa majbupiy to‘lovlar bo‘yicha
bo‘nak to‘lovlari (turlari bo‘yicha)» schyoti 1 250 000 so‘m.

3.3. Kreditlar va qarz (zaym) larni qaytarilishi

Kreditlar va qarz (zaym) lar bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Kreditlar va qarz (zaym) larni qaytarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Oraliq tugatish balansini tuzish sanasi holatiga korxona kreditlar va qarz (zaym)lar bo‘yicha quyidagi axborotlarga ega: uzoq muddatli bank kreditlari - 3 000 000 so‘m, uzoq muddatli qarzlar - 2 000 000 so‘m, qisqa muddatli bank kreditlari - 800 000 so‘m, qisqa muddatli qarzlar - 650 000 so‘m, hisoblangan foizlar - 2 500 000 so‘m.

Kreditlar va qarzlarni qaytarilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- tugatish sanasiga kreditlar va qarzlar bo‘yicha hisoblangan foizlar:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi
xarajatlar» schyoti 400 000 so‘m;
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 400 000 so‘m;

- kreditlar va qarzlar bo‘yicha asosiy qarzni qaytarilishi:

debet 6810 «Qisqa muddatli bank kreditlari» schyoti 800 000 so‘m;
debet 6820 «Qisqa muddatli qarzlar» schyoti 650 000 so‘m;
debet 7810 «Uzoq muddatli bank kreditlari» schyoti 3 000 000 so‘m;

debet 7820 «Uzoq muddatli qarzlar» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 6 450 000 so‘m;

- kreditlar va qarzlarni bo‘yicha hisoblangan foizlarni qoplanishi:

debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 2 900 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 2 900 000 so‘m;
(2 900 000 so‘m = 2 500 000 so‘m + 400 000 so‘m).

3.4. To‘lanadigan obligatsiyalar qoplanishi

To‘lanadigan obligatsiyalar qoplanishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz, korxona tomonidan 2021-yilning 1-fevralida har birining nominal qiymati 1 000 000 so‘m bo‘lgan 500 ta obligatsiyani 12 oyga joylashtirgan. Obligatsiya qarzining sharti bo‘yicha obligatsiya qiymati va yillik 24 % (nominal qiymatdan) dan kelib chiqqan to‘lovlar bir vaqtda qoplanishi nazarda tutilgan. Obligatsiya qiymati va hisoblangan foizlarni qoplash 2021-yilning 1-iyulida amalga oshirilgan.

Joylashtirish qiymati (nominaldan yuqori yoki pastligi) dan kelib chiqib ikkita holatni ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Obligatsiyalar 1 100 000 so‘m narxda to‘liq joylashtirilgan.

Obligatsiyalarni qiymatini foizlar bilan birga qoplanishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- 2021-yilning 1-iyulida mukofot (ustama) lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlarni qolgan qismi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borilganda:

debet 6220 «Mukofot (ustama) lar ko‘rinishidagi
kechiktirilgan daromadlar» 29 166 666,5 so‘m;
kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 29 166 666,5 so‘m;
(550 000 000 so‘m = 500 dona x 1 100 000 so‘m);
(500 000 000 so‘m = 500 dona x 1 000 000 so‘m);
(50 000 000 so‘m = 550 000 000 so‘m – 500 000 000 so‘m);
(20 833 333,5 so‘m = 50 000 000 so‘m / 12 oy x 5 oy);
(29 166 666,5 so‘m = 50 000 000 so‘m - 20 833 333,5 so‘m);

- obligatsiyalar bo‘yicha foizlar hisoblanganda:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi
xarajatlar» schyoti 120 000 000 so‘m;
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 120 000 000 so‘m;
(120 000 000 so‘m = 500 000 000 so‘m x 24 / 100);

- obligatsiya qiymati va hisoblangan foizlar qoplanganda:

debet 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» schyoti 500 000 000 so‘m;
debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti 120 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 620 000 000 so‘m.

2-holat:

Obligatsiyalar 950 000 so‘m narxda to‘liq joylashtirilgan.

Obligatsiyalarni qiymatini foizlar bilan birga qoplanishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- 2021-yilning 1-iyulida diskont (chegirma) lar bo‘yicha kechiktirilgan xarajatlarni qolgan qismi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borilganda:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi

xarajatlar» schyoti *14 583 333,5 so‘m;*
kredit 3220 «Diskont (chegirma) lar bo‘yicha
kechiktirilgan xarajatlar» *14 583 333,5 so‘m;*
(475 000 000 so‘m = 500 dona x 950 000 so‘m);
(500 000 000 so‘m = 500 dona x 1 000 000 so‘m);
(-25 000 000 so‘m = 475 000 000 so‘m – 500 000 000 so‘m);
(10 416 666,5 so‘m = 25 000 000 so‘m / 12 oy x 5 oy);
(14 583 333,5 so‘m = 25 000 000 so‘m - 10 416 666,5 so‘m);

- obligatsiyalar bo‘yicha foizlar hisoblanganda:

debet 9610 «Foizlar ko‘rinishidagi
xarajatlar» schyoti *120 000 000 so‘m;*
kredit 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *120 000 000 so‘m;*
(120 000 000 so‘m = 500 000 000 so‘m x 24 / 100);

- obligatsiya qiymati va hisoblangan foizlar qoplanganda:

debet 6830 «To‘lanadigan obligatsiyalar» schyoti *500 000 000 so‘m;*
debet 6920 «Hisoblangan foizlar» schyoti *120 000 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *620 000 000 so‘m.*

3.5. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Oraliq tugatish balansini tuzish sanasi holatiga korxona kreditorlik qarzlar bo‘yicha quyidagi axborotlarga ega: uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar - 8 000 000 so‘m, uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo‘lgan qarz - 6 000 000 so‘m, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlarning uzoq muddatli qismi - 2 850 000 so‘m, Sho‘ba korxonalariga bo‘lgan qarz - 2 250 000 so‘m.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- bajarilgan shartnomalar bo‘yicha oldin berilgan bo‘naklarni qoplashga qabul qilinganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *6 000 000 so‘m;*
kredit 4320 «Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilar
va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» schyoti *6 000 000 so‘m;*

- bajarilmagan shartnomalar bo‘yicha bo‘naklarning qolgan qismi qaytarilganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *2 000 000 so‘m;*
kredit 4320 «Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilar
va pudratchilarga berilgan bo‘naklar» schyoti *2 000 000 so‘m;*

- mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo‘lgan qarz qoplanganda:

debet 7010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *2 850 000 so‘m;*
debet 6120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlariga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti *2 250 000 so‘m;*
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti *5 100 000 so‘m.*

Quyida keltirilgan: 6930 «Royalti bo‘yicha qarz», 6940 «Kafolatlar bo‘yicha qarz», 6960 «Da’volar bo‘yicha to‘lanadigan schyotlar», 6990 «Boshqa majburiyatlar», 7920 «Turli kreditorlarga bo‘lgan boshqa uzoq muddatli qarzlar», 6950 «Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi» schyotlarida hisobga olinadigan majburiyatlarni qoplanishi ham misollarda nazarda tutilgan tartibga o‘xshash tarzda amalga oshiriladi.

Balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash natijasida vujudga keladigan kurs farqlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilishi buxgalteriya hisobi schyotlarida 22-son BHMS ga muvofiq aks ettiriladi.

Balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash va natijada vujudga keladigan kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilishi tartibi hamda ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash natijasida vujudga keladigan kurs farqlari korxonaning xohishiga ko‘ra moliyaviy natijalarga **to‘g‘ridan-to‘g‘ri (to‘g‘ri usul) yoki jamlash (jamlash usuli) yo‘li** bilan kiritiladi. Korxonani tugatishda kurs farqlarini moliyaviy natijalarga ularni hisob siyosatida nazarda tutilgan usul bo‘yicha hisobdan chiqariladi.

2019-yil 1-yanvardan boshlab jamg‘arish usuli qo‘llanilmaydi. 2019-yil 1-yanvargacha jamg‘arilgan kurs farqlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga quyidagicha olib borilishi mumkin:

- Chetel valyutasidagi debitorlik va kreditorlik qarzlari bo‘yicha — ularning to‘lanishiga (yoki hisobdan chiqarilishiga) qarab;

- qolgan hollarda — balansning tegishli valyuta moddalari bilan xo‘jalik operatsiyalarining sodir etilishiga qarab.

Kurs farqlaridan vujudga kelgan uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar va xarajatlarning joriy qismini o‘tkazish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ijobiy kurs farqi bo‘yicha vujudga kelgan uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlarning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 7230 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar» schyoti;

kredit 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti;

- salbiy kurs farqi bo‘yicha vujudga kelgan uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlarning joriy qismi o‘tkazilganda:

debet 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti;

kredit 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar» schyoti.

Jamg‘arilgan kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining natijalariga chetel valyutasidagi debitorlik va kreditorlik qarzlari bo‘yicha boshqa hollarda esa balansning tegishli valyuta moddalari bilan xo‘jalik operatsiyalari amalga oshirilishi bo‘yicha olib borish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ijobiy kurs farqi:

debet 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti;

kredit 9540 «Valyutalar kurslari farqidan daromadlar» schyoti;

- salbiy kurs farqi:

debet 9620 «Valyutalar kurslari farqidan zararlar» schyoti;

kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti.

Balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash va natijada vujudga keladigan kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Oraliq tugatish balansini

tuzish sanasi holatiga korxonada 2018-yilda yuzaga kelgan dastgohlarni xarid qilish bo‘yicha summasi 23 000 AQSH dollari bo‘lgan chetel valyutasidagi kreditorlik qarzi mavjud. 2018-yil uchun 4 600 000 so‘m jamg‘arilgan kurs farqi mavjud. Markaziy bankning bir AQSH dollarining so‘mga nisbatan o‘rnatgan kursi quyidagicha bo‘lgan: oyning oxirgi sanasiga (2021-yilning 31-may holatiga) – 10 800 so‘m, kreditorlik qarzini qoplash sanasiga (2021-yilning 1-iyul holatiga) – 10 950 so‘m.

2019-yil 1-yanvargacha korxonaning hisob siyosatida kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga jamg‘arish usuli bilan amalga oshirilishi nazarda tutilgan. 2019-yil 1-yanvardan to‘g‘ri usul nazarda tutilgan.

Kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- 2017-yilning 1-iyulida kreditorlik qarzini qoplanganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 248 400 000 so‘m;
debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyoti 3 450 000 so‘m;
kredit 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti 251 850 000 so‘m;
(-3 450 000 so‘m = 248 400 000 so‘m - 251 850 000 so‘m);
(248 400 000 so‘m = 23 000 AQSH dollari x 10 800 so‘m);
(251 850 000 so‘m = 23 000 AQSH dollari x 10 950 so‘m);

- bir vaqtning o‘zida 2019-yil 1-yanvar holatiga kreditorlik qarzlari bo‘yicha jamg‘arilgan salbiy kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borilganda:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan zararlar» schyoti 4 600 000 so‘m;
kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 4 600 000 so‘m.

Kreditorlik qarzlarni qoplash uchun pul mablag‘lari etishmovchiligi bo‘lgan hollarda asosiy vositalarni sotilishi, shuningdek ularni kreditorlik qarzlari hisobiga berilishi buxgalteriya hisobida «Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq aks ettiriladi.

Asosiy vositalarni chiqib ketishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi«1-bob. Asosiy vositalar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Kreditorlik qarzlarni qoplash uchun pul mablag‘lari etishmovchiligi bo‘lgan hollarda asosiy vositalarni sotilishi, shuningdek ularni kreditorlik qarzlari hisobiga berilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona kreditor (mahsulot ishlab chiqarish uchun xomashyo va materiallarni yetkazib beruvchi) bilan 27 000 000 so‘mlik kreditorlik qarzi hisobiga dasgohni berishga kelishdi. Dastgohning boshlang‘ich qiymati 32 000 000 so‘m, jamg‘arilgan eskirish summasi – 10 000 000 so‘m, qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi - 300 000 so‘m. Dastgohni berish bilan bog‘liq xarajatlar amalga oshirilmagan.

Kreditorlik qarzi hisobiga dastgohni berilishi natijasida uni balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- asosiy vositalarni berish hisobiga kreditorlik qarzi qoplanganda:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 27 000 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 27 000 000 so‘m;

- dastgohning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:
debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 32 000 000 so‘m;
kredit 0130 «Mashina va asbob uskunalar» 32 000 000 so‘m;
- dastgoh bo‘yicha jamg‘arilgan eskirishi hisobdan chiqarilganda:
debet 0230 «Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi» schyoti 10 000 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 10 000 000 so‘m;
- qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblash:
debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 4 050 000 so‘m;
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti 4 050 000 so‘m;
(4 050 000 so‘m = 27 000 000 so‘m x 15 / 100);
- dasgohning qayta baholash natijalari (qoldiq) summasiga:
debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 300 000 so‘m;
kredit 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 300 000 so‘m;
- «Damas» avtomobilini chiqib ketishidan foyda summasiga:
debet 9210 «Asosiy vositalarning chiqib ketishi» schyoti 1 250 000 so‘m;
kredit 9310 «Asosiy vositalarning chiqib ketishidan foyda» schyoti 1 250 000 so‘m.

Kreditorlik qarzlarni qoplash uchun pul mablag‘lari etishmovchiligi bo‘lgan hollarda nomoddiy aktivlarni sotilishi, shuningdek ularni kreditorlik qarzlari hisobiga berilishi buxgalteriya hisobida «Nomoddiy akivlarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq aks ettiriladi.

Kreditorlik qarzlarni qoplash uchun pul mablag‘lari etishmovchiligi bo‘lgan hollarda nomoddiy aktivlarni sotilishi, shuningdek ularni kreditorlik qarzlari hisobiga berilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxona kreditor (mahsulot ishlab chiqarish uchun xomashyo va materiallarni yetkazib beruvchi) bilan 25 000 000 so‘mlik kreditorlik qarzi hisobiga ikki yil oldin xarid qilingan nomoddiy aktiv sifatida hisobga olingan «dasturiy ta’minot» ni berishga kelishdi. «Dasturiy ta’minot» ning boshlang‘ich qiymati 50 000 000 so‘m, jamg‘arilgan amortizatsiya summasi – 27 000 000 so‘m.

Kreditorlik qarzi hisobiga «dasturiy ta’minot» ni berilishi natijasida uni balansdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- nomoddiy aktivlarni berish hisobiga kreditorlik qarzi qoplanganda:
debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar» schyoti 25 000 000 so‘m;
kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 25 000 000 so‘m;
- «dasturiy ta’minot» ning boshlang‘ich qiymati hisobdan chiqarilganda:
debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 50 000 000 so‘m;

kredit 0430 «Dasturiy ta'minot» schyoti 50 000 000 so'm;

- «dasturiy ta'minot» bo'yicha jamg'arilgan amortizatsiya hisobdan chiqarilganda:

debet 0530 «Dasturiy ta'minotning amortizatsiyasi» schyoti 27 000 000 so'm;

kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 27 000 000 so'm;

- qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash:

debet 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 3 750 000 so'm;

kredit 6410 «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz (turlari bo'yicha)» schyoti 3 750 000 so'm;

(3 750 000 so'm = 25 000 000 so'm x 15 / 100);

- «dasturiy ta'minot» ni chiqib ketishidan zarar summasiga:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 1 750 000 so'm;

kredit 9220 «Boshqa aktivlarning chiqib ketishi» schyoti 1 750 000 so'm.

Tovar-moddiy zaxiralarini va boshqa mol-mulkni kreditorlik qarzlarini qoplash hisobiga berilishi buxgalteriya hisobida sotish operatsiyasi sifatida 21-son BHMS da nazarda tutilgan tartibda aks ettiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni chiqib ketishini, boshlang'ich hujjatlarda va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi«4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» da ko'rib chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi 704-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to'xtatish tartibi to'g'risida Nizom» ning 29 va 30-bandlariga muvofiq kreditorlar talablarini qondirish ta'sischilar (qatnashchilar) tomonidan tugatilayotgan korxonaning banqdagi hisob raqamlariga yo'naltiriladigan mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Kreditorlarning talablarini to'liq hajmda qondirishning mumkin emasligi aniqlangan taqdirda tugatuvchi korxonani to'lovga qodir emas (bankrot) deb e'tirof etish to'g'risidagi ariza bilan xo'jalik sudiga murojaat qilishi shart. Korxona to'lovga qordir emas (bankrot) deb e'tirof etilgan vaqtdan boshlab ixtiyoriy tugatish to'xtatiladi va bundan keyingi tartibot «Bankrotlik to'g'risida» Qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Kreditorlik qarzlarini qoplash uchun mol-mulk etishmovchiligi bo'lgan hollarda ta'sischilar tomonidan ularni qoplash uchun pul mablag'lari kiritilishi mumkin.

Kreditorlik qarzlarini qoplash uchun mol-mulk etishmovchiligi bo'lgan hollarda ta'sischilar tomonidan ularni qoplash uchun ta'sisichilar tomonidan pul mablag'lari kiritilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko'rib chiqamiz. Korxonani tugatishda kreditorlik qarzlarini qoplash uchun nul mablag'lari (mol-mulk) yetmaydi va korxonani ta'sischilaridan biri tomonidan majburiyatlarni qoplash uchun 10 000 000 so'm (pul o'tkazish yo'li bilan) pul mablag'lari kiritilgan.

Ta'sischi tomonidan pul mablag'lari kiritilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 10 000 000 so'm;

– kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 9 000 000 so'm.

«Majburiyatlarni qoplash uchun ta'sischilardan olingan mablag'lar» schyotini ajratib ko'rsatilgan holda 10 000 000 so'm.

O‘zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to‘g‘risida» gi Qonuniga muvofiq, undirib olinayotgan summa bir navbatning barcha talablarini to‘la qondirishga yetarli bo‘lmasa, bu talablar har bir unduruvchini olishi lozim bo‘lgan summaga mutanosib ravishda qondiriladi. Kreditorlarning qarzdor mol-mulki yetarli bo‘lmaganligi sababli qondirilmagan talablari ham qanotlantirilgan talablar deb hisoblanadi. Tugatish boshqaruvchi tomonidan kreditorlarning tan olinmagan talablari ham, agar kreditor xo‘jalik sudiga murojaat etmagan bo‘lsa yoki bunday talablar xo‘jalik sudi tomonidan asossiz deb topilgan bo‘lsa, qanotlantirilgan talablar deb hisoblanadi.

Kreditorlar tomonidan qoplash uchun talabnoma taqdim etilmagan kreditorlik qarzlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar (operatsion daromadlar) sifatida hisobdan chiqariladi.

Kreditorlar tomonidan qoplash uchun talabnoma taqdim etilmagan kreditorlik qarzlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar (operatsion daromadlar) sifatida hisobdan chiqarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Korxonani tugatishda kreditorlarni talabnomalari reestri tuzilgan va har xil turdagi ehtiyot qismlarini yetkazib beruvchi (kreditor) tomonidan 20 000 000 so‘mlik kreditorlik qarzini qoplash uchun talabnoma taqdim etmaganligi aniqlangan.

O‘z vaqtida talab qilinmagan kreditorlik qarzini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 6010 «Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga
to‘lanadigan schyotlar» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 9360 «Kreditor va deponent qarzlarni hisobdan
chiqarishdan daromadlar» schyoti 2 000 000 so‘m.

Majburiyatlarni hisobga oluvchi boshqa schyotlarda hisobga olinadigan majburiyatlarni moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga asosiy faoliyatdan boshqa daromadlar (operatsion daromadlar) sifatida hisobdan chiqarish yuqorida ko‘rib o‘tilgan misolda nazarda tutilgan tartibga o‘xshash tarzda amalga oshiriladi.

4-§. Tugatish balansini tuzish tartibi

Barcha kreditorlar bilan hisob-kitob qilingandan keyin tugatuvchi tugatish balansini tuzadi. Mualliflar tomonidan tugatish balansining namunasi tavsiya etilgan (2-ilovaga qarang). Tugatish balansini tuzish uchun faqatgina mol-mulklarni va xususiy kapitalni hisobga oluvchi schyotlar bo‘yicha qoldiq mavjud bo‘lishi zarur. O‘z navbatida, tugatish balansini tuzish sanasi holatiga tugatilayotgan korxonaning buxgalteriya hisobida qoldiqqa ega bo‘lgan quyidagi schyotlar ham yopilgan bo‘lishi kerak:

- asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar (0200);
- nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar (0500);
- kapital quyilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0810 schyotdan tashqari 0800);
- uzoq muddatli debitor qarzlari va kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (0900);
- materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi schyotlar (1500);
- materiallar qiymatidagi farqlarni hisobga oluvchi schyotlar (1600);
- mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlaridagi xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (2000, 2100, 2300, 2500, 2600, 2700);
- 2980 «Savdo ustamasi» schyoti;
- kelgusi davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (3100);
- kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (3200);

- 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti;
- 4110 «Ajratilgan bo‘linmalardan olinadigan schyotlar» schyoti va 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti;
- 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti;
- turli debitorlar qarzlarini hisobga oluvchi schyotlar (4800);
- dargumon qarzlar bo‘yicha rezervni hisobga oluvchi schyotlar (4900);
- kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar va boshqa joriy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar (5900);
- kechiktirilgan majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar (6200, 7200);
- olingan bo‘naklarni hisobga oluvchi schyotlar (6300, 7300);
- qo‘shilgan kapitalni hisobga oluvchi schyotlar (8400);
- rezerv kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8520 schyotdan tashqari 8500);
- sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (8600);
- maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlar (8800);
- kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervlarini hisobga oluvchi schyotlar (8900);
- daromadlar va xarajatlarni (moliyaviy natijalarning shakllanishi va ishlatilishini) hisobga oluvchi schyotlar (9000 – 9900).

Asosiy vositalarning eskirishini va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar uzoq muddatli aktivlarni hisobga oluvchi mos schyotlarga - asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100) va nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar (0400) ga yopiladi. Bir vaqtning o‘zida korxonani tugatilayotganda balansda hisobda bo‘lgan asosiy vositalar bo‘yicha qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqariladi.

Asosiy vositalarning eskirishini va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz, tugatish balansini tuzish sanasi holatiga korxonada asosiy vositalar obyekti sifatida boshlang‘ich qiymati 12 000 000 so‘m, jamg‘arilgan eskirish summasi – 5 000 000 so‘m, qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi 500 000 so‘mga teng bo‘lgan avtomobil va nomoddiy aktivlar obyekti sifatida boshlang‘ich qiymati 25 000 000 so‘m, jamg‘arilgan amortizatsiya summasi – 10 000 000 so‘mga teng bo‘lgan dasturiy ta’minot qolgan.

Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar (0200), 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar» schyoti va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar (0500) ning yopilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi:

debet 0260 «Transport vositalarining
eskirishi» schyoti 5 000 000 so‘m;
kredit 0160 «Transport vositalari» schyoti 5 000 000 so‘m;

- asosiy vositalarni qayta baholash natijalari (qoldiq) summasi, ya’ni asosiy vositalarning qayta baholashlar natijasida bahosining oshgan summasi bahosining pasaygan summasidan oshgan qismi:

debet 8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash
bo‘yicha tuzatishlar» schyoti 500 000 so‘m;
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 500 000 sum;

- nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi:

debet 0530 «Dasturiy ta’minotning

amortizatsiyasi» schyoti 10 000 000 so‘m;

kredit 0430 «Dasturiy ta’minot» schyoti 10 000 000 so‘m.

O‘zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida» gi Qonunining 23-moddasiga muvofiq, litsenziyaning amal qilishi yuridik shaxs tugatilganda - tugatilgan paytdan e’tiboran yoki uning faoliyati qayta tashkil etish natijasida tugatilganda - qayta tashkil etilgan paytdan e’tiboran to‘xtatiladi, uning o‘zgartirilishi bundan mustasno.

Shuning uchun tugatish balansi tayyorlanayotganda nomoddiy aktivlarni tan olish mezonlariga mos keladigan litseziyalar bo‘yicha 0410 «Patentlar, litsenziyalar va nou-xau» schyotida va nomoddiy aktivlarni tan olish mezonlariga mos kelmaydigan litseziyalar bo‘yicha 3190 «Boshqa kelgusi davr xarajatlari» schyotida yoki 3290 «Boshqa kechiuktirilgan xarajatlar» schyotida aks ettirilgan, tugatish e’lon qilingan vaqtgacha xarajatlarga amortizatsiya qilinmagan va/yoki hisobdan chiqarilmagan litsenziyani olish bilan bog‘liq xarajatlar korxonaning xarajatlariga olib borilgan bo‘lishi kerak.

Agar korxonada gudvill (0480) sifatida nomoddiy aktiv mavjud bo‘lsa, u holda tugatish balansini tayyorlashda u boshqa operatsion xarajatlarga hisobdan chiqarilgan bo‘lishi kerak.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni xarid qilish, shuningdek ularni obodonlashtirish bo‘yicha kapital qo‘yilmalar tugatish balansini tuzish sanasi holatiga quyidagi aktivlar (xarajatlar) ga bo‘linadi:

- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni tan olish mezonlariga mos keladigan;
- asosiy vositalarni qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan jihozlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta qurollantirishni tan olish mezonlariga mos keladigan;
- nomoddiy aktivlarga o‘tkaziladigan kapital qo‘yilmalarni tan olish mezonlariga mos keladigan;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni tan olish mezonlariga mos kelmaydigan.

Asosiy vositalar mezonlariga mos kelmaydigan 0810 «Tugallanmagan qurilish» schyotida hisobga olinadigan kapital qo‘yilmalar tugallanmagan qurilish obyektlari sifatida hisobga olinadi.

Asosiy vositalar bo‘yicha kapital quyilmalarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz, tugatish balansini tuzish sanasi holatiga korxonada qiymati 80 000 000 so‘m bo‘lgan omborxona binosini qurilishi tugallangan va u asosiy vositalar mezoniga javob beradi, tokarlik dastgohini modernizatsiya qilish bo‘yicha 1 600 000 so‘m xarajat qilingan. Qo‘shimcha ishlab chiqarish xo‘jaligida: TTZ-80 transport traktori 35 000 000 so‘mga xarid qilingan, asosiy podani shakllantirish uchun nasldor sigirlar 15 000 000 so‘mga xarid qilingan, yerni obodonlashtirish bo‘yicha 10 000 000 so‘mlik ishlar amalga oshirilgan. SHuningdek avtomobilni boshlang‘ich qiymatini ko‘paytirish uchun tan olish mezonlariga mos kelmaydigan avtomobilni modernizatsiya qilish bo‘yicha ishlar amalga oshirilgan.

Asosiy vositalar bo‘yicha kapital quyilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800) ning yopilishi karxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- omborxona binosini asosiy vositalar tarkibiga o‘tkazish:

debet 0120 «Binolar, inshootlar va uzatuvchi

moslamalar» schyoti 80 000 000 so‘m;

kredit 0810 «Tugallanmagan qurilish» schyoti 80 000 000 so‘m;

- tokarlik dastgohini modernizatsiya qilish bo‘yicha kapital qo‘yilmalarni asosiy vositalar tarkibiga o‘tkazish:

debet 0130 «Mashina va asbob-uskunalar» schyoti 1 600 000 so‘m;

kredit 0890 «Boshqa kapital qo‘yilmalar» schyoti 1 600 000 so‘m;

- TTZ-80 transport traktorini asosiy vositalar tarkibiga kiritish:

debet 0160 «Transport vositalari» schyoti 35 000 000 so‘m;

kredit 0820 «Asosiy vositalarni xarid qilish» schyoti 35 000 000 so‘m;

- nasldor sigirlar podasini asosiy vositalar tarkibiga o‘tkazish:

debet 0170 «Ishchi va mahsuldor hayvonlar» schyoti 15 000 000 so‘m;

kredit 0840 «Asosiy podani tashkil qilish» schyoti 15 000 000 so‘m;

- yerni obodonlashtirish bo‘yicha ishlar qiymatini asosiy vositalar tarkibiga o‘tkazish:

debet 0111 «Erni obodonlashtirish» schyoti 10 000 000 so‘m;

kredit 0850 «Erni obodonlashtirishga kapital quyilmalar» schyoti 10 000 000 so‘m;

- avtomobilni boshlang‘ich qiymatini ko‘paytirish uchun tan olish mezonlariga mos kelmaydigan xarajatlarni davr xarajatlariga hisobdan chiqarish:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 2 000 000 so‘m;

kredit 0890 «Boshqa kapital qo‘yilmalar» schyoti 2 000 000 so‘m.

Nomoddiy aktivlar bo‘yicha kapital quyilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800) ning yopilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibiasosiy vositalar bo‘yicha kapital quyilmalarni hisobga oluvchi schyotlar (0800) ning yopilishiga o‘xshash tartibda amalga oshiriladi.

Moliyaviy ijara obyektlarini ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan qaytarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi«Buxgalteriya hisobida ijara operatsiyalarini aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq amalga oshiriladi.

Moliyaviy ijara obyektlarini ijaraga oluvchi (lizingga oluvchi) tomonidan qaytarilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «2-bob. Ijara (lizing) operatsiyalarining hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi schyotlari (1500), materiallar qiymatidagi farqlarni hisobga oluvchi schyotlari (1600), 2980 «Savdo ustamasi» schyoti bo‘yicha qoldiqlar materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000), tovarlarni hisobga oluvchi schyotlar (2900) bilan bog‘langan holda yopiladi. Mazkur schyotlar bo‘yicha qoldiqlarni taqsimlash 4-son BHMS da nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Materiallarni tayyorlash va xarid qilish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarni yopilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz korxonaning hisob siyosatida yoqilg‘i moylash materiallarni xarid qilish bilan bog‘liq tayyorlash va xarid qilish xarajatlarini taqsimlashda alohida materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi schyot (1500) qo‘llanilishi nazarda tutilgan. Tugatish balansini tuzish sanasi holatiga tayyorlash va xarid qilish xarajatlarini summasi 1 500 000 so‘mdan iborat.

Materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi schyotlari (1500) ning yopilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 1030 «Yoqilg‘ilar» schyoti 1 500 000 so‘m;

kredit 1510 «Materiallarni tayyorlash va xarid qilish» schyoti 1 500 000 sum.

Materiallar qiymatidagi farqlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz korxonaning buxgalteriya hisobida xomashyo va materiallar xarid qilishning haqiqiy tannarxi bo‘yicha 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schyotini qo‘llagan holda hisobga olib borilgan. 1010 «Xomashyo va materiallar» schyotida materiallar qiymatining 10 250 000 so‘mi, 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schyotida esa 800 000 so‘mi aks ettirilgan.

Materiallar qiymatidagi farqlarni hisobga oluvchi schyotlari (1600) ning yopilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti 800 000 so‘m;
kredit 1610 «Materiallar qiymatidagi farqlar» schyoti 800 000 so‘m.

Savdo ustamasi schyotini yopilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz chakana savdosi bilan shug‘ullanuvchi «Eskimo-savdo» magazinning buxgalteriya hisobida tovarlar sotish narxida hisobga olingan. 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schyotidagi tovarlarning qiymati 4 220 000 so‘mdan, 2980 «Savdo ustamasi» schyotida esa 640 000 so‘mdan iborat.

«Eskimo-savdo» magazinning buxgalteriya hisobida tovarlarning qiymatini sotish narxida 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schyotida aks ettirish zarur. Shu maqsadda savdo ustamasini hisobdan chiqarish va ularni qiymatini xarid qilish qiymatiga keltirish uchun buxgalteriya yozuvlarini amalga oshirish zarur. Bular «Eskimo-savdo» magazinning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 2980 «Savdo ustamasi» schyoti 640 000 so‘m;
kredit 2920 «Chakana savdodagi tovarlar» schyoti 640 000 so‘m.

Tugatish balansini tuzish sanasi holatiga tugallanmagan ishlab chiqarishning ishlab chiqarish tannarxi aniqlanadi. Tugallanmagan ishlab chiqarishni tannarxini aniqlash 4-son BHMS da nazarda tutilgan tartibda va usullarda amalga oshiriladi. Tovar-moddiy zaxiralar, shu jumladan tugallanmagan ishlab chiqarishni tannarxini aniqlash va ular bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Tugallanmagan ishlab chiqarish tannarxini aniqlash va ularni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz korxonaning qoshidagi asosiy mahsuloti bo‘lib yumshoq mebel ishlab chiqarish (mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmining 70 foizi) hisoblanadi, yordamchi ishlab chiqarish sexida mebel uchun detallar ishlab chiqariladi, xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarida xomashyo va materiallar birlamchi qayta ishlash amalga oshiriladi. Tugatish balansini tuzish sanasi holatiga korxona ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha quyidagi axborotlarga ega (boshlang‘ich hujjatlar va hisob qaydnomalariga asosan): yumshoq mebel bo‘yicha tugallanmagna ishlab chiqarish - 16 000 000 so‘m, mebel uchun detallar bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish - 9 000 000 so‘m, xomashyo va materiallarni qayta ishlash bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish - 7 200 000 so‘m, umumishlabchiqarish xarajatlari - 5 000 000 so‘m, ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlarni tuzatish bo‘yicha xarajatlar - 1 000 000 so‘m (shu jumladan: yumshoq mebelni tuzatish uchun – 850 000 so‘m va mebel uchun detallarni tuzatish uchun – 150 000 so‘m).

Tugallanmagan ishlab chiqarish tarkibini qilingan tahlil natijalari bo‘yicha haqiqiy tannarx bo‘yicha tayyor mahsulotlar bo‘yicha talab va standartlarga javob beradigan yumshoq mebel ko‘rinishidagi 23 700 000 so‘mlik, mebel uchun detallar ko‘rinishidagi 8 800 000 so‘mlik tayyor mahsulotlar va foydalanish mumkin bo‘lgan qiymatlarda tayyor mahsulotlar bo‘yicha talab va standartlarga javob bermaydigan materiallar ko‘rinishidagi 4 300 000 so‘mlik (shu jumladan: asosiy sexdan – 2 000 000 so‘mlik, yordamchi ishlab chiqarish sexidan – 1 400 000 so‘mlik, xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalikdan -900 000 so‘mlik) tugallanmagan ishlab chiqarish kirim qilingan.

Tugallanmagan ishlab chiqarishni ishlab chiqarish tannarxini aniqlash korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- umumishlabchiqarish xarajatlarini mahsulotlar bo‘yicha taqsimlanishi:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 3 500 000 so‘m;
debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 1 500 000 so‘m;
kredit 2510 «Umumishlabchiqarish xarajatlari» schyoti 5 000 000 sum;
(3 500 000 so‘m = 5 000 000 so‘m x 70 / 100);
(1 500 000 so‘m = 5 000 000 so‘m x 30 / 100);

- ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlarni tuzatish bo‘yicha xarajatlarni taqsimlanishi:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 850 000 so‘m;
debet 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 150 000 so‘m;
kredit 2610 «Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz . mahsulotlar» schyoti 1 000 000 so‘m;

- asosiy mahsulotni ishlab chiqarishda ishtirok etadigan xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklarning xarajatlarini taqsimlanishi:

debet 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 6 000 000 so‘m;
kredit 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyoti 6 000 000 so‘m;

- tayyor mahsulotlar bo‘yicha talab va standartlarga javob beradigan tayyor mahsulotlarni haqiqiy tannarx bo‘yicha kirim qilinganda:

debet 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti 32 500 000 so‘m;
kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 27 300 000 so‘m;
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 8 800 000 so‘m;

- tayyor mahsulotlar bo‘yicha talab va standartlarga javob bermaydigan ishlab chiqarish jarayoni tugallanmagan mahsulotlarni materiallar ko‘rinishija foydalanish mumkin bo‘lgan qiymatlarda kirim qilinganda:

debet 1010 «Xomashyo va materiallar» schyoti 4 300 000 so‘m;
kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 1 400 000 so‘m;
kredit 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyoti 900 000 so‘m;

- haqiqiy tannarx va foydalanish mumkin bo‘lgan qiymat o‘rtasidagi farq summalarni hisobdan chiqarish:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 1 400 000 so‘m;
kredit 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» schyoti 6 500 000 so‘m;
kredit 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyoti 450 000 so‘m;
kredit 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyoti 300 000 so‘m;
(650 000 = (16 000 000 + 3 500 000 + 850 000 + 6 000 000) - (23 700 000 + 2 000 000));
(450 000 = (9 000 000 + 1 500 000 + 150 000) – (8 800 000 + 1 400 000));
(300 000 = 7 200 000 – (6 000 000 + 900 000)).

Agar korxonada o‘zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar (2100) da hisobga olinadigan o‘zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarning qoldig‘i mavjud bo‘lsa, u holda mazkur schyotlarning yopilishi yuqorida ko‘rib o‘tilgan tartibda amalga oshiriladi.

Chorvachilik asosiy faoliyat turi hisoblanadigan korxonalarda o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni parvarishlash va boqish bo‘yicha xarajatlar 2010 «Asosiy ishlab chiqarish» va 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish» schyotlarida hisobga oldinadi. Chorvachilik asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan, balki qo‘shimcha ishlab chiqarish hisoblanadigan sanoat va boshqa korxonalarda

o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarni parvarishlash va boqish bo‘yicha xarajatlar 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyotida hisobga oldinadi.

Tugatish balansini tuzish sanasi holatiga nasl sifatida olingan o‘stirishdagi va boquvdagi yosh hayvonlar 1110 «O‘stirishdagi hayvonlar» schyotining debetiga va nasl olingan hayvonlarni saqlash xarajatlarni parvarishlash va boqishni reja tannarxi bo‘yicha hisobga oluvchi 2010 «Asosiy ishlab chiqarish», 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish», 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyotlarning kreditidan kirim qilinadi.

Tugatish balansini tuzish sanasi holatiga o‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlarning ortgan vazni qiymati 1110 «O‘stirishdagi hayvonlar» va 1120 «Boquvdagi hayvonlar» schyotlarining debetiga ushbu hayvonlarning parvarishlash va boqish xarajatlarini parvarishlash va boqishni haqiqiy tannarxi bo‘yicha hisobga oluvchi 2010 «Asosiy ishlab chiqarish», 2310 «Yordamchi ishlab chiqarish», 2710 «Xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jaliklar» schyotlarning kreditidan o‘tkaziladi.

Asosiy podaga o‘tkaziladigan o‘stirishdagi va boquvdagi yosh hayvonlar 1110 «O‘stirishdagi hayvonlar» schyotidan 0840 «Asosiy padani tashkil etish» schyotining debetiga hisobdan chiqariladi. Bir vaqtning o‘zida yosh hayvonlarning asosiy podaga o‘tkazilishida 0170 «Ishchi va mahsuldor hayvonlar» schyoti debetlanadi va 0840 «Asosiy podani tashkil etish» schyoti kreditlanadi.

O‘stirishdagi va boquvdagi hayvonlar bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi«4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Tugatish balansini tuzish sanasi holatiga kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlarni ikkida guruhga ajratish mumkin:

- shartnoma shartlari o‘tgan davrlarda bajarilgan va shartnomaning tomonlari bir birining oldida hech qanday majburiyatga ega bo‘lmaganligi sababli huquqiy nuqtai nazardan qaralganda hech qanday huquqni aniqlamaydigan kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlar. SHulardan kelib chiqib korxona tomonidan amalga oshirilgan barcha xarajatlar tugallanmagan ishlab chiqarishda bo‘lgan obyektlarni bahosini shakllantirishda yoki yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlashda hisobga olinishi kerak;

- egasiga qaytarilish va summalar qoplanishi yoki yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlashda xarajatlarga olib borilishi kerak bo‘lgan kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlar.

Kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz tugatish balansini tuzish sanasi holatiga «4-avtobus saroyi» AJ kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlar bo‘yicha quyidagi axborotlarga ega: vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i - 1 800 000 so‘m, ulardan joriy qismi – 500 000 so‘m, salbiy kurs farqlari ko‘rinishidagi kechiktirilgan xarajatlarni - 2 500 000 so‘m, ulardan joriy qismi – 700 000 so‘m, ma’muriyat xodimlari bo‘yicha hisoblangan ta’til to‘lovlari - 2 750 000 so‘m, operativ ijaradan foydalanimagan muddat uchun ijara to‘lovi – ijaraga beruvchi ularni qaytaradi - 1 000 000 so‘m.

Kelgusi davr xarajatlari va kechiktirilgan xarajatlarni moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarish «4-avtobus saroyi» AJ ning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘ini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilganda:

debet 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha
xarajatlar» schyoti 1 800 000 so‘m;
kredit 0950 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan
foyda solig‘i» schyoti 1 300 000 so‘m;
kredit 3210 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan

foyda solig‘i» schyoti 500 000 so‘m;

- salbiy kurs farqlari ko‘rinishidagi kechiktirilgan xarajatlarni moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilganda:

debet 9620 «Valyutalar kursi farqidan
zararlar» schyoti 2 500 000 so‘m;
kredit 0990 «Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan
xarajatlar» schyoti 1 800 000 sum;
kredit 3290 «Boshqa kechiktirilgan xarajatlar» schyoti 700 000 so‘m;

- ma’muriyat xodimlari bo‘yicha hisoblangan ta’til to‘lovlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilganda:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 2 750 000 so‘m;
kredit 3190 «Boshqa kelgusi davr xarajatlari» schyoti 2 750 000 so‘m;

- ijaraga beruvchi tomonidan operativ ijara bo‘yicha ijara to‘lovlari summasini qoplab berish tan olinganda;

debet 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schyoti 1 000 000 so‘m;
kredit 3110 «Oldindan to‘langan operativ
ijara haqi» schyoti 1 000 000 so‘m.

- pul mablag‘lari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 1 000 000 so‘m;
kredit 4890 «Boshqa debitorlar qarzlari» schyoti 1 000 000 so‘m.

Debitorlik qarzlar bo‘yicha hisob-kitoblar bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «8-bob. Debitorlik va kreditorlik qarzlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Muddati o‘tgan debitorlik qarzlarini tahlil qilish natijalari bo‘yicha dargumon qarzlar bo‘yicha rezervlarning bir qismi undirilish dargumon deb tan olingan debitorlik qarzlarini hisobdan chiqarish uchun foydalaniladi, qolgan qismi esa moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Xaridorlar va buyurtmachilarning dargumon qarzlari bo‘yicha rezervlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz korxonada o‘tkazilgan tahlilga asosan xaridorlar va buyurtmachilarning dargumon qarzlari bo‘yicha summasi 15 000 000 so‘m bo‘lgan rezerv tashkil etilgan. Tugatish balansini tuzish sanasi holatiga xaridorlar va buyurtmachilar debitorlik qarzining 6 000 000 so‘mini muddati o‘tganligi va davo qilish muddati tugaganligi aniqlangan. Debitorlik qarzini hisobdan chiqarish rezerv hisobidan amalga oshiriladi, rezervning qolgan qismi esa moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga kiritiladi.

Dargumon qarzlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- rezervlarning bir qismi undirilish dargumon deb tan olingan debitorlik qarzlarini hisobdan chiqarish yo‘li bilan foydalanilganda:

debet 4910 «Dargumon qarzlar bo‘yicha
rezerv» schyoti 6 000 000 so‘m;
kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan
olinadigan schyotlar» schyoti 6 000 000 so‘m.

- dargumon qarzlar bo‘yicha rezervlarning qolgan qismi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilganda:

debet 4910 «Dargumon qarzlar bo‘yicha
rezerv» schyoti 9 000 000 so‘m;

kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 9 000 000 so‘m.

Da’vo muddati o‘tmagan debitorlik qarzlari qonunchilikda belgilangan tartibda undiriladi.

Debitorlik qarzlarini hisobga oluvchi schyotlarni yopilishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz tugatish balansini tuzish sanasi holatiga korxona debitorlik qarzlari bo‘yicha quyidagi axborotlarga ega: mahsulotlar uchun xaridorlardan olingan bo‘naklar - 10 000 000 so‘m, ulardan joriy qismi – 6 000 000 so‘m, mahsulot uchun xaridorlarning qarzi - 15 000 000 so‘m, Sho‘ba korxonalarning debitorlik qarzlari - 5 000 000 so‘m, ulardan joriy qismi – 1 500 000 so‘m, olinadigan dividendlar - 7 000 000 so‘m.

Debitorlar bilan hisob-kitoblar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- bajarilgan shartnomalar bo‘yicha ilgari hisobga olinmagan oldin olingan bo‘naklarni qoplashga olib borilganda:

debet 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti 6 000 000 so‘m;

debet 7310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyoti 4 000 000 so‘m;

kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 10 000 000 so‘m;

- debitorlik qarzlari kelib tushganda:

debet 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 17 500 000 so‘m;

kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti 5 000 000 so‘m;

kredit 0940 «Boshqa uzoq muddatli debitor qarzlar» schyoti 4 000 000 so‘m;

kredit 4120 «Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar» schyoti 1 500 000 so‘m;

kredit 4840 «Olinadigan dividendlar» schyoti 7 000 000 so‘m.

Agar olingan bo‘naklar bo‘yicha shartnomalar bajarilmasa, u holda ular xaridorlar va buyurtmachilarga qaytariladi. Bajarilmagan shartnomalar bo‘yicha olingan bo‘naklar buxgalteriya hisobida 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar» schyotning debeti bo‘yicha pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Chetel valyutasidagi debitorlik qarzlarini har oy qayta baholash natijasida vujudga keladigan kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarishni buxgalteriya hisobi schyotlarida chetel valyutasidagi kreditorlik qarzlarini qoplashdagi tartibga o‘xshash tarzda aks ettiriladi.

Balansning valyuta moddalarini har oy qayta baholash va natijada vujudga keladigan kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilishi tartibi hamda ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi«9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Chetel valyutasidagi debitorlik qarzlarini har oy qayta baholash natijasida vujudga keladigan kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz tugatish balansini tuzish sanasi holatiga korxonada mahsulot yetkazib berish bo‘yicha summasi 15 000 AQSH dollari bo‘lgan 2018-yilda vujudga kelgan chetel valyutasidagi debitorlik qarzi mavjud. Markaziy bankning bir AQSH dollarining so‘mga nisbatan o‘rnatgan kursi quyidagicha

bo‘lgan: oyning oxirgi sanasiga (2021-yilning 31-may holatiga) – 10 800 so‘m, debitorlik qarzini qoplash sanasiga (2021-yilning 1-iyul holatiga) – 10 950 so‘m. 2019-yil 1-yanvar holatiga 4 600 000 so‘m ijobiy kurs farqi jamlangan.

2019-yil 1-yanvargacha korxonaning hisob siyosatida kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga jamg‘arish usuli bilan amalga oshirilishi nazarda tutilgan. 2019-yil 1-yanvardan to‘g‘ri usuldan foydalanish nazarda tutilgan.

Kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borish buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- 2021-yilning 1-iyulida valyuta mablag‘lari kelib tushganda:

debet 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari» schyoti *164 250 000 so‘m;*

kredit 4010 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti *162 000 000 so‘m;*

kredit 9540 «Valyutalar kurslari farqidan daromadlar» schyoti *2 250 000 so‘m;*

(2 250 000 so‘m = 164 250 000 so‘m – 162 000 000 so‘m);

(162 000 000 so‘m = 15 000 AQSH dollari x 10 800 so‘m);

(164 250 000 so‘m = 15 000 AQSH dollari x 10 950 so‘m).

- bir vaqtning o‘zida debitorlik qarzlari bo‘yicha jamg‘arilgan ijobiy kurs farqlarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borilganda:

debet 6230 «Boshqa kechiktirilgan daromadlar» schyoti 4 600 000 so‘m;

kredit 9540 «Valyutalar kurslari farqidan daromadlar» schyoti *4 600 000 so‘m.*

5910 «Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti bo‘yicha qoldiq faqatgina kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlarni qoplash mabalariga nisbatan noaniqlik bo‘lgan hollarda mavjud bo‘lishi mumkin. Mazkur schyotning yopilishi «Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to‘g‘risidagi Nizom» ga muvofiq amalga oshiriladi.

Korxonada aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi «1-bob. Asosiy vositalar hisobi» va «4-bob. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Kamomad va yo‘qotishlar summasini hisobdan chiqarishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz tugatish balansini tuzish sanasi holatiga korxonada tovar-moddiy qiymatliklarni inventarizatsiyasi natijasida qiymati 400 000 so‘m bo‘lgan yoqilg‘i kamomadi aniqlangan va 5910 «Kamomadlar va qiymatliklarning buzilishidan yo‘qotishlar» schyotida hisobda bo‘lgan.

Ikkita holatni (aybdor shaxslarni aniqlanishidan kelib chiqib) ko‘rib chiqamiz.

1-holat:

Komomad summasi moddiy javobgar shaxsdan undiriladi. Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimning qarzi naqd pul mablag‘lari bilan qoplangan.

Komomad summasini moddiy javobgar shaxsdan undirish bilan bog‘liq operatsiyalar korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- kamomad summasi moddiy javobgar shaxs hisobiga olib borilganda:

debet 4730 «Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimlarning qarzi» schyoti *400 000 so‘m;*

kredit 5910 «Kamomad va qiymatliklarning
buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti 400 000 so‘m;

- moddiy zararni qoplash bo‘yicha qarzini moddiy javobgar shaxs tomonidan qoplanganda:

debet 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti 400 000 so‘m;
kredit 4730 «Moddiy zararni qoplash bo‘yicha
xodimlarning qarzi» schyoti 400 000 so‘m.

2-holat:

Kamomadning aniq aybdorlari aniqlanmaganda kamomaddan zarar summasi korxonaning davr xarajatlariga kiritiladi va uning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 9430 «Boshqa operatsion xarajatlar» schyoti 400 000 so‘m;
kredit 5910 «Kamomad va qiymatliklarning
buzilishidan yo‘qotishlar» schyoti 400 000 so‘m.

Tugatish balansi tuzilayotganda kechiktirilgan majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlari (6220 va 6240 schyotdan tashqari 6200), kechiktirilgan uzoq muddatli majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlari (7220 va 7240 schyotdan tashqari 7200) ning qoldiqlari tahlil qilinadi va kechiktirilgan daromadlar va majburiyatlarning qoldiqlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqariladi.

Kechiktirilgan daromadlar va majburiyatlarning qoldiqlari moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz 2021-yil 1-fevralda korxona har birining nominal qiymati 1 000 000 so‘m va qoplash muddati 12 oydan keyin bo‘lgan 200 dona obligatsiyani har birini 950 000 so‘m narxda xarid qilgan. Obligatsiya qiymati qoplash 2017-yilning 1-iyulida amalga oshirilgan. Balansda summasi 12 000 000 so‘m, ulardan joriy qismi – 4 000 000 so‘m vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar ham mavjud.

Kechiktirilgan daromadlar va majburiyatlarni moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- diskont (chegirma) lar ko‘rinishidagi kechiktirilgan daromadlarning qolgan qismi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga olib borilganda:

debet 6210 «Diskont (chegirma) lar ko‘rinishidagi
kechiktirilgan daromadlar» schyoti 5 833 333,3 so‘m;
kredit 9530 «Foizlar ko‘rinishidagi daromadlar» schyoti 5 833 333,3 so‘m;
(190 000 000 so‘m = 200 dona x 950 000 so‘m);
(200 000 000 so‘m = 200 dona x 1 000 000 so‘m);
(10 000 000 so‘m = 200 000 000 so‘m – 190 000 000 so‘m);
(4 166 666,7 so‘m = 10 000 000 so‘m / 12 oy x 5 oy);
(5 833 333,3 so‘m = 10 000 000 so‘m - 4 166 666,7 so‘m);

- vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i bo‘yicha majburiyatlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilganda:

debet 6250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i
bo‘yicha majburiyatlar» schyoti 4 000 000 so‘m;
debet 7250 «Vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kechiktirilgan foyda solig‘i
bo‘yicha uzoq muddatli majburiyatlar» schyoti 8 000 000 sum;
kredit 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar» schyoti 12 000 000 so‘m.

Korxona ta’sischilari (aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari) ning korxona ustav kapitaliga

ulushlar bo‘yicha qarzlari to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyotida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi Qonuniga va «Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida» gi Qonuniga muvofiq, korxona (jamiyat) ning ustav fondini (ustav kapitalini) jamiyat ustavida nazarda tutilgan miqdorda shakllantirishning eng ko‘p muddati jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran bir yildan oshmasligi lozim.

Korxona ustav kapitalini shakllantirish uchun ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha o‘z vaqtida kiritilmagan qarzlarini hisobdan chiqarish 21-son BHMS ga muvofiq buxgalteriya hisobi schyotlarida quyidagicha aks ettiriladi:

debet ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8300);

kredit ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzini hisobga oluvchi schyotlar (4600).

Korxona ustav kapitalini shakllantirish uchun ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha o‘z vaqtida kiritilmagan qarzlarini hisobdan chiqarishini buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz tugatish balansi tuzish sanasida aksiyadorlik jamiyat tomonidan chiqarilgan, lekin joylashtirilmagan 10 000 000 so‘mlik oddiy aksiyalar mavjud.

Chiqarilgan, lekin joylashtirilmagan oddiy aksiyalarni qiymatini hisobdan aksiyadorlik jamiyatining buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 8310 «Oddiy aksiyalar» schyoti 10 000 000 so‘m;

kredit 4610 «Ustav kapitaliga ta’sischilarning ulushlari bo‘yicha qarzi» schyoti 10 000 000 so‘m.

Sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (8600) ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8300) ga nisbatan kontr-passiv schyot hisoblanib, aksiyadorlik jamiyatlarining ustav kapitali miqdorini kamaytiradi va balansda ustav kapitali summasidan chegiriladigan summa sifatida ko‘rsatiladi.

Boshqa korxonalar (mas’uliyati cheklangan jamiyatlar, sherikchilik va boshqalar) sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (8600) dan korxona tomonidan belgilangan tartib da boshqa qatnashuvchilarga yoki uchinchi shaxsga berish uchun sotib olingan ustav kapitalidagi ulushni hisobga olish uchun foydalanadi.

Tugatish balansini tuzish sanasida mavjud bo‘lgan sotib olingan xususiy aksiyalarni bekor qilinishi (yo‘q qilinishi) 21-son BHMS ga muvofiq tugatilayotgan korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- nominal qiymatidan past qiymatda sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni bekor qilinganda:

debet ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8300) – sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni nominal qiymati summasiga;

kredit sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (8600) – sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni haqiqiy xarid qilish qiymati summasiga;

kredit 9590 «Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari» schyoti – sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni nominal qiymati va haqiqiy xarid qilish qiymati o‘rtasidagi farq summasiga;

- nominal qiymatidan yuqori qiymatda sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni bekor qilinganda:

debet ustav kapitalini hisobga oluvchi schyotlar (8300) – sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni nominal qiymati summasiga;

debet qo‘shilgan kapitalni hisobga oluvchi schyotlar (8400) – sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni nominal qiymati va haqiqiy xarid qilish qiymati o‘rtasidagi farqning mazkur schyotlar qoldig‘i doirasida summasiga;

kredit 9690 «Moliyaviy faoliyatning bo‘yicha boshqa xarajatlar» schyoti – sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar) ni nominal qiymati va haqiqiy xarid qilish qiymati o‘rtasidagi farqning qo‘shilgan kapitalni hisobga oluvchi schyotlar (8400) qoldig‘i doirasidan oshgan summasiga;

kredit sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar (8600) – sotib olingan xususiy aksiyalar (paylar va ulushlar)ni haqiqiy xarid qilish qiymati summasiga.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda qo‘shilgan kapitalni hisobga oluvchi schyotlari (8400), 8530 «Tekinga olingan mulk» schyoti va maqsadli tushumlarni hisobga oluvchi schyotlari (8800) da hisobga olingan mablag‘lar yuzaga kelgan vaqtda soliqqa tortilgan yoki soliqdan ozod qilingan va mazkur schyotlar 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

Qo‘shilgan kapitalni, tekinga olingan mol-mulk va grantlar qiymatini hisobdan chiqarishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz aksiyadorlik jamiyati o‘z aksiyalarini birlamchi emissiyasida nominal qiymatdan yuqori qiymatda joylashtirgan va 15 000 000 so‘m qo‘shilgan kapital yuzaga kelgan, shuningdek o‘z faoliyatini boshlagan davrda biznes hamkoridan tekinga narxi 8 000 000 so‘m bo‘lgan dastgoh va grant bo‘yicha kompyuter olgan. Tugatish sanasiga qolgan qismi 600 000 so‘m.

Tekinga olingan mol-mulk va grantlar bo‘yicha summalarni hisobdan chiqarish korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 8410 «Emissiya daromadi» schyoti 15 000 000 sum;
debet 8530 «Tekinga olingan mulk» schyoti 8 000 000 sum;
debet 8810 «Grantlar» schyoti 600 000 so‘m;
kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti 23 600 000 so‘m.

Tugatish balansi tuzish sanasida kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervlarining foydalanilmagan qismi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqariladi.

Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervlarining foydalanilmagan qismi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarishni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz korxona asosiy vositalarni kapital ta’mirlash bo‘yicha xarajatlarni bir tekisda taqsimlash maqsadida kapital ta’mirlash ishlari uchun 15 000 000 so‘mlik rezerv tashkil etgan edi. SHundan tugatish balansi tuzish sanasida 5 000 000 so‘m foydalanilmay qolganligi aniqlangan.

Asosiy vositalarni kapital ta’mirlash bo‘yicha tashkil etilgan rezervlarning foydalanilmagan summalarini moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalariga hisobdan chiqarilishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

debet 8910 «Kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervlari» schyoti 5 000 000 so‘m;
kredit 9390 «Boshqa operatsion daromadlar» schyoti 5 000 000 so‘m.

Korxona ustav kapitali va uni shakllanishi, qo‘shilgan kapital, rezerv kapitali, sotib olingan xususiy aksiyalar, taqsimlanmagan foyda, jamg‘arilgan foyda, qoplanmagan zarar, maqsadli

tushumlar, kelgusi xarajatlar va to‘lovlar rezervlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi«10-bob. Xususiy kapital hisobi» da batafsil ko‘rib chiqilgan.

Moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalarini shakllantirishda barcha daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar (9000, 9300, 9500 i schet 9710) va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (9100, 9400, 9600, 9800 va 9720 schyot) 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotiga yopiladi hamda oxirda 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyotining debeti va krediti bo‘yicha aylanmalari yig‘iladi va yakuniy moliyaviy natijanisini ifodalovchi ushbu schyot bo‘yicha umumiy qoldiq hisoblab chiqariladi. 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti 8710 «Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

Moliyaviy natijalarni shakllantirish va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi«11-bob. Moliyaviy natijalarni shakllantirish va hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Tugatish balansini tuzish sanasida daromadlar va xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi va moliyaviy natijalarni shakllanishi 21-son BHMS ga muvofiq tugatilayotgan korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- daromadlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi:

debet daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar (9000, 9300, 9500 va 9710 schyot);

kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

- xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarni yopilishi:

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

kredit xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar (9100, 9400, 9600, 9800 va 9720 schyot);

- ijobiy yakuniy moliyaviy natija (foyda):

debet 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

- salbiy yakuniy moliyaviy natija (zarar):

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

kredit 9910 «Yakuniy moliyaviy natija» schyoti;

- hisobot davrining taqsimlanmagan foydasini jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar) tarkibiga kiritilishi:

debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

kredit 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti;

- hisobot davrining qoplanmagan zararini jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar) tarkibiga kiritilishi:

debet 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti;

kredit 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qoplanmagan zarari)» schyoti;

- o‘tgan yillarda taqsimlanmagan foyda hisobiga tashkil etilgan rezevr kapitali hisobidan qoplanmagan zararni qoplash:

debet 8520 «Rezerv kapitali» schyoti;

kredit 8720 «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schyoti.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan xo‘jalik operatsiyalari amalga oshirilib, natijalari buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettriladi va yuqorida sanab o‘tilgan buxgalteriya hisobi schyotlari yopiladi. Shundan keyin tugatish komissiyasi tomonidan tugatish balansi tuziladi.

5-§. Ta’sischilar o‘rtasida mol-mulkni taqsimlanishining hisobi

Tugatish balansi tuzilgandan keyin banklar tomonidan milliy va chetel valyutasida bank hisobvaraqlari yopiladi. Banklar tomonidan milliy va chetel valyutasida bank hisobvaraqlarini ochish, ularni qayta rasmiylashtirish hamda yopish «O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to‘g‘risida Yo‘riqnoma» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 27-aprelda 1948-son bilan ro‘yxatga olingan)* bilan tartibga solinadi. Banklar tomonidan milliy va chetel valyutasida bank hisobvaraqlarini ochish, ularni qayta rasmiylashtirish hamda yopish tartibi«7-bob. Pul mablag‘lari va ekvivalentlari hisobi» va «9. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Bank hisobvarag‘i shartnomasi bank hisobvarag‘i egasining arizasiga yoki bankning talabiga ko‘ra bekor qilinadi. Bank hisobvarag‘ida pul mablag‘larining qoldig‘i mijozning tegishli yozma arizasi olingandan keyin kechi bilan yetti kun ichida mijozga beriladi yoki uning ko‘rsatmasiga muvofiq boshqa hisobvaraqqa o‘tkaziladi.

Bank hisobvarag‘i shartnomasining bekor qilinishi mijozning bank hisobvarag‘ini yopish uchun asos bo‘ladi.

Korxonaning asosiy hisobvarag‘i yopilayotganda, oldindan u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hisobvaraqlar yopiladi. Bir vaqtning o‘zida hisobvaraqni yopish mo‘ljallanayotgani to‘g‘risida soliq va bojxona (chetel valyutasida hisobvaraq ochilgan bo‘lsa) organlariga xabar beriladi, shuningdek korxonaning byudjet oldidagi qarzlari to‘g‘risida ma’lumot so‘raladi. Soliq va bojxona organlari tomonidan bankka korxonaning byudjet oldida majburiyatlari yo‘qligi to‘g‘risidagi xulosa taqdim qilingandan keyin bank (bank filiali) tomonidan berilgan hamda to‘liq yoki qisman foydalanilmagan chek daftarchalari bankka (bank filialiga) qaytariladi. SHundan keyin, mijozning foydalanilmagan cheklar raqamlari ko‘rsatilgan arizasiga asosan hisobvaraqni yopish kunida qoldiq tasdiqlangan holda hisobvaraq yopiladi.

Asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvaraq yopilgandan so‘ng bank mijozga (mijoz tugatilganda — ta’sischilarga) barcha taqdim qilingan talablardan ozod bo‘lgan pul mablag‘larning qoldig‘i to‘g‘risidagi ma’lumotnomani taqdim etadi.

Korxona majburiy tugatilganda, korxonaning asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i tugatish komissiyasi nomiga rasmiylashtiriladi va uning tasarrufiga o‘tkaziladi. Asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqqa xizmat ko‘rsatuvchi bankka korxonani tugatish to‘g‘risida qarorni, shuningdek, tugatish muddati ko‘rsatilgan va tugatish komissiyasini tuzgan tashkilot yoki shaxs tomonidan tasdiqlangan rahbar hamda bosh buxgalterning imzolar namunalari va muhr izi qo‘yilgan varaqcha taqdim etiladi. Korxonaning hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatuvchi boshqa banklarga tugatish muddati ko‘rsatilgan tugatish to‘g‘risidagi qaror nusxasi taqdim etiladi. SHundan so‘ng barcha ikkilamchi hisobvaraqlar yopiladi va ushbu hisobvaraqlardagi mablag‘lar majburiy ravishda tugatish komissiyasiga rasmiylashtirilgan asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqqa o‘tkaziladi.

Tugatish komissiyasi o‘z ishini yakunlaganidan keyin o‘z hisobvarag‘ini yopish uchun bankka quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- korxonalar byudjet oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarganliklari to‘g‘risida davlat soliq xizmati idoralarining xulosasi;
- tugatish ishlari tugallanganligi to‘g‘risida maxsus komissiya tomonidan rasmiylashtirilgan bayonnoma;
- foydalanilmagan cheklar va foydalanilgan cheklarning milklari bilan chek daftarchasi.

Tugatish komissiyasining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘ida taqdim qilingan talablardan ozod bo‘lgan pul mablag‘larining kredit qoldig‘i mavjud bo‘lsa, ushbu qoldiq korxonaning ta’sischilariga yoki tugatish komissiyasining va tugatilgan mijozning ta’sischilari majlisining qaroriga asosan boshqa hisobvaraqqa o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risidagi Nizom» *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 13-aprelda 3229-son bilan ro‘yxatga olingan)* bilan tartibga solinadi. Naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi «7-bob. Pul mablag‘lari va ekvivalentlari hisobi» va «9-bob. Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» da ko‘rib chiqilgan.

Tugatilayotgan korxonaning hisobvarag‘idan mablag‘lar faqatgina tugatish komissiyasi tomonidan taqdim etiladigan to‘lov topshiriqnomalari asosida hisobdan chiqariladi hamda tugatilayotgan korxonaning barcha hisobvaraqlari tugatish komissiyasining ixtiyoriga o‘tadi. Tugatilayotgan korxonaning shaxsiy varaqchasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilib, uning o‘rniga tugatish komissiyasi a’zolarining imzo namunalari tushirilgan shaxsiy varaqcha rasmiylashtiriladi. Bunda imzo namunalari o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilmagan shaxslarning topshiriqlariga asosan tugatilayotgan korxonaning hisobvaraqlaridan mablag‘larning hisobdan chiqarilganligi uchun banklar javobgar bo‘lmaydi.

Tugatish balansi tuzilgandan keyin ta’sischilarning ustav kapitalidagi ulishi bo‘yicha ularga bo‘lgan qarzlar summasi aniqlanadi. Kreditorlar bilan hisob-kitob qilingandan keyin korxonada qoladigan mol-mulk uning ta’sischilari o‘rtasida ta’sischilarning ustav kapitalidagi ulishi bo‘yicha ularga bo‘lgan qarzlarga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Ta’sischilar o‘rtasida mol-mulkni taqsimlash dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi. Unda kimga va nima berilishi ko‘rsatib o‘tiladi. Dalolatnoma korxonaning barcha ta’sischilari tomonidan imzolanadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi Qonunining 99-moddasiga muvofiq, tugatuvchi tomonidan tugatish banlansi tuzilib, aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangandan keyin aksiyadorlik jamiyat qimmatli qog‘ozlari chiqarilishlarining davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligini bekor qilish yuzasidan zarur tadbirlarni Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiradi.

Aksiyadorlik jamiyati tugatilganda qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini yagona davlat registridan chiqarish qimmatli qog‘ozlar chiqarilishiga avval berilgan davlat ro‘yxat raqamini bekor qilish orqali «Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish Qoidalari» ga muvofiq amalga oshiriladi.

Aksiyadorlik jamiyat qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini (chiqarishlarini) yagona davlat registridan chiqarishga asoslar paydo bo‘lgan kundan boshlab o‘n kun mobaynida tegishli sabablarni, qimmatli qog‘ozlar chiqarilishiga (chiqarishlariga) berilgan, yagona davlat registridan chiqarilishi lozim bo‘lgan davlat ro‘yxat raqamini ko‘rsatgan va kerakli hujjatlarni ilova qilgan holda bu haqda ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga yozma arizani taqdim etadi.

Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishini yagona davlat registridan chiqarish uchun aksiyadorlik jamiyat tugatilgan taqdirda aksiyadorlik jamiyat tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga quyidagi hujjatlarni taqdim etiladi:

- tugatish to‘g‘risidagi aksiyadorlik jamiyat boshqaruv organi yoki sud qarorining nusxasi;

- qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi to‘g‘risidagi qaror (qarorlar) va risola (risolalar), shuningdek ularga kiritilgan barcha o‘zgartirishlar va qo‘shimchalarning (o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan taqdirda) asli (asllari). Ko‘rsatilgan hujjatlarning asllari yo‘qotilgan taqdirda yo‘qotish to‘g‘risida ommaviy axborot vositalaridagi e’lon nusxasi taqdim etiladi;

- emitentning tugatilishi to‘g‘risida ommaviy axborot vositalaridagi e’lon nusxasi;
- tugatish balansining nusxasi;

Qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi (chiqarishlari) davlat ro‘yxat raqamini bekor qilish, shuningdek yagona davlat registriga yozuvlar kiritish yuqorida nazarda tutilgan hujjatlarni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ olgan kundan boshlab o‘ttiz kun mobaynida ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ tomonidan amalga oshiriladi, agar qonun hujjatlarida boshqacha holat nazarda tutilmagan bo‘lsa. Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning tegishli qarori aksiyadorlik jamiyatiga va Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuboriladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi Qonunining 100-moddasiga muvofiq tugatilayotgan aksiyadorlik jamiyatining kreditorlar bilan hisob-kitoblardan keyin qolgan mol-mulki tugatuvchi tomonidan aksiyadorlar o‘rtasida quyidagi navbat bo‘yicha taqsimlanadi:

- birinchi navbatda O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq qaytarib sotib olinishi lozim bo‘lgan aksiyalar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshiriladi;

- ikkinchi navbatda imtiyozli aksiyalar bo‘yicha hisoblangan, biroq to‘lanmagan dividendlarni va jamiyat ustavida imtiyozli aksiyalar bo‘yicha belgilangan tugatish qiymatini to‘lash amalga oshiriladi;

- uchinchi navbatda tugatilayotgan jamiyatning mol-mulkini oddiy aksiyalar egalari bo‘lgan aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlash amalga oshiriladi.

Mol-mulkni har bir navbat bo‘yicha taqsimlash avvalgi navbat bo‘yicha mol-mulk to‘liq taqsimlab bo‘linganidan keyin amalga oshiriladi. Agar jamiyatdagi mavjud mol-mulk hisoblangan, biroq to‘lanmagan dividendlarni va jamiyat ustavida belgilangan tugatish qiymatini imtiyozli aksiyalarning egalari bo‘lgan barcha aksiyadorlarga to‘lash uchun yetarli bo‘lmasa, mol-mulk imtiyozli aksiyalarning egalari bo‘lgan aksiyadorlar o‘rtasida ularga tegishli aksiyalarning soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Mol-mulkni tugatish qiymatining chetellik investor bo‘lgan aksiyadorga o‘tkaziladigan qismini jamiyat xorijiy valyutaga ayirboshlab beradi.

Ta’sischilar o‘rtasida mol-mulkni taqsimlashni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibini quyidagi misolda ko‘rib chiqamiz. Faraz qilamiz korxonaning tugatish balansida quyidagi axborotlar mavjud: asosiy vositalar («Damas» avtomobili) - 9 000 000 so‘m, nomoddiy aktivlar (dasturiy ta’minot) - 5 000 000 so‘m, o‘rnatiladigan asbob-uskunalar (mahalliy) - 7 300 000 so‘m, tugallanmagan qurilish - 25 000 000 sum, materiallar (g‘isht va sement) – 1 500 000 so‘m, ombordagi tayyor mahsulotlar - 500 000 so‘m, ombordagi tovarlar -1 700 000 so‘m, naqd pul mablag‘lari - 500 000 so‘m, hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘lari - 15 500 000 so‘m, qisqa muddatli investitsiyalar - 4 000 000 so‘m, ustav kapitali - 50 000 000 so‘m, rezerv kapitali - 8 000 000 so‘m, taqsimlanmagan foyda – 12 000 000 so‘m, shu jumladan joriy yilning taqsimlanmagan foydasi - 3 000 000 so‘m, jamg‘arilgan foyda – 9 000 000 so‘m.

Ta’sischilarning qaroriga muvofiq dividendlar ko‘rinishidagi qarzlar pul mablag‘lari va qisiqa muddatli investitsiyalar bilan, ta’sischilarning ustav kapitalidagi ulishi bo‘yicha ularga bo‘lgan qarzlar esa qolgan mol-mulklar bilan qoplanadi.

Ta’sischilarning ustav kapitalidagi ulishi bo‘yicha ularga bo‘lgan qarzlarni qoplanishi korxonaning buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

- ta’sischilarning ustav kapitalidagi ulishi bo‘yicha ular o‘rtasida ustav kapitali taqsimlanganda:

debet 8330 «Pay va ulushlar» schyoti 50 000 000 so‘m;

kredit 6620 «CHiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari

bo‘yicha qarz» schyoti 50 000 000 so‘m;

- ta’sischilarning ustav kapitalidagi ulishi bo‘yicha ular o‘rtasida rezerv kapitali (agar qonunchilikda nazarda tutilgan bo‘lsa) va taqsimlanmagan foyda summalari dividend ko‘rinishida taqsimlanganda:

debet 8520 «Rezerv kapitali» schyoti 8 000 000 so‘m;
debet 8710 «Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi
(qoplanmagan zarari)» schyoti 3 000 000 sum;
debet 8720 «Jamg‘arilgan foyda
(qoplanmagan zarar)» schyoti 9 000 000 so‘m;
kredit 6610 «To‘lanadigan dividendlar» schyoti 20 000 000 so‘m;

- to‘lash manbaida dividend ko‘rinishida taqsimlangan summadan foyda solig‘i hisoblanganda:

debet 6610 «To‘lanadigan dividendlar» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti 2 000 000 so‘m;
(2 000 000 so‘m = 20 000 000 so‘m x 10 / 100);

- to‘lash manbaida dividend summasidan foyda solig‘i bo‘yicha byudjetga bo‘lgan qarz qoplanganda:

debet 6410 «Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha
qarz (turlari bo‘yicha)» schyoti 2 000 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 2 000 000 so‘m;

- hisoblangan dividendlar bo‘yicha ta’sischilarga bo‘lgan qarzlar qoplanganda:

debet 6610 «To‘lanadigan dividendlar» schyoti 18 000 000 so‘m;
kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablag‘lari» schyoti 500 000 so‘m;
kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» schyoti 13 500 000 so‘m;
kredit 5810 «Qimmatli qog‘ozlar» schyoti 4 000 000 so‘m;

- ta’sischilarning ustav kapitalidagi ulushi bo‘yicha ularga bo‘lgan qarzni qoplanishi:

debet 6620 «Chiqib ketayotgan ta’sischilarga ulushlari
bo‘yicha qarz» schyoti 50 000 000 so‘m;
kredit 0160 «Transport vositalari» schyoti 9 000 000 so‘m;
kredit 0430 «Dasturiy ta’minot» schyoti 5 000 000 so‘m;
kredit 0710 «O‘rnatiladigan asbob-uskunalar
– mahalliy» schyoti 7 300 000 so‘m;
kredit 0810 «Tugallanmagan qurilish» schyoti 25 000 000 so‘m;
kredit 1050 «Qurilish materiallari» schyoti 1 500 000 so‘m;
kredit 2810 «Ombordagi tayyor mahsulotlar» schyoti 500 000 so‘m;
kredit 2910 «Ombordagi tovarlar» schyoti 1 700 000 so‘m.

Ta’sischilarga hisoblangan dividendlar va ularni ustav kapitalidagi ulushi bo‘yicha qarzlar qoplangandan keyin buxgalteriya balansi moddalari nolga teng bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida» gi Qonuniga muvofiq ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga tegishli yozuvni kiritgan paytdan e’tiboran jamiyatni tugatish tamomlangan, jamiyat esa faoliyatini tugatgan deb hisoblanadi.

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ jamiyat tugatilganligi haqidagi tegishli yozuvni faqat jamiyatning qimmatli qog‘ozlari chiqarilishlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi bekor qilinganidan keyingina kiritadi.

ILOVALAR

1-ilova

«Tasdiqlayman»[1]

_____
(nomi)

_____ _____
(imzo) (F.I.SH.)

«____» _____ 20___-yil

ORALIQ TUGATISH BALANSI

«____» _____ 20___-yilga

Tuzilgan sana «____» _____ 20___-yil.

		Kodlar
Korxona, tashkilot_____	KTUT bo‘yicha-	
Faoliyat turi	IFUT bo‘yicha-	
Tashkiliy-huquqiy shakli _____	THSHT bo‘yicha-	
Mulkchilik shakli _____	MSHT bo‘yicha-	
Vazirlik, idora va boshqalar	DBIBT bo‘yicha-	
Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami	STIR-	
Hudud	MHOBT-	
Manzil		
O‘lchov birligi, ming so‘m		

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Aktiv			
I. Uzoq muddatli aktivlar			
Asosiy vositalar:			
Boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati (0100, 0300)	010		
Eskirish summasi (0200)	011		
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 010 - 011)	012		
Nomoddiy aktivlar:			
Boshlang‘ich qiymati (0400)	020		
Amortizatsiya summasi (0500)	021		
Qoldiq (balans) qiymati (satr. 020 - 021)	022		
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr.040+050+060+070+080), shu jumladan:	030		

[1] O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 55-moddasiga muvofiq, tugatish balansi korxonani tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan korxona ta’sischilari yoki organ tomonidan tasdiqlanadi. Korxonani tugatish to‘g‘risidagi qaror sud tomonidan qabul qilingan taqdirda, tugatish balansi yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Qimmatli qog‘ozlar (0610)	040		
Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	050		
Qaram xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	060		
Chetel kapitali mavjud bo‘lgan korxonalarga investitsiyalar (0640)	070		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080		
O‘rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090		
Kapital qo‘yilmalar (0800)	100		
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940)	110		
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990)	120		
I-bo‘lim bo‘yicha jami (satr. 012+022+030+090+100+110+ +120)	130		
II. Joriy aktivlar			
Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr.150+160+170+180), shu jumladan:	140		
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100, 1500, 1600)	150		
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700)	160		
Tayyor mahsulot (2800)	170		
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi)	180		
Kelgusi davr xarajatlari (3100)	190		
Kechiktirilgan xarajatlar (3200)	200		
Debitorlar, jami (satr.220+240+250+260+270+280+290+300+310)	210		
Xaridor va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi)	220		
Ajratilgan bo‘linmalarning qarzi (4110)	230		
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarning qarzi (4120)	240		
Xodimlarga berilgan bo‘naklar (4200)	250		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar (4300)	260		
Byudjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4400)	270		
Maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urtalar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari (4500)	280		
Ta’sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo‘yicha qarzi (4600)	290		
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzi (4700)	300		
Boshqa debitorlik qarzlari (4800)	310		
Pul mablag‘lari, jami (satr.330+340+350+360), shu jumladan:	320		
Kassadagi pul mablag‘lari (5000)	330		
Hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘lari (5100)	340		
Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari (5200)	350		
Boshqa pul mablag‘lari va ekvivalentlari (5500, 5600, 5700)	360		
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	370		
Boshqa joriy aktivlar (5900)	380		
II-bo‘lim bo‘yicha jami (satr.140+190+200+210+320+370+ +380)	390		
Balans aktivi bo‘yicha jami (satr.130+390)	400		

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Passiv			
I. O‘z mablag‘lari manbalari			
Ustav kapitali (8300)	410		
Qo‘shilgan kapital (8400)	420		
Rezerv kapitali (8500)	430		
Sotib olingan xususiy aksiyalar (8600)	440		
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	450		
Maqsadli tushumlar (8800)	460		
Kelgusi davr xarajatlari va to‘lovlari uchun zaxiralar (8900)	470		
I-bo‘lim bo‘yicha jami (satr.410+420+430-440+450+460+470)	480		
II. Majburiyatlar			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (satr.500+520+530+540+550+560+570+580+590)	490		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga uzoq muddatli qarz (7000)	500		
Ajratilgan bo‘linmalarga uzoq muddatli qarz (7110)	510		
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarga uzoq muddatli qarz (7120)	520		
Uzoq muddatli kechiktirilgan daromadlar (7210, 7220, 7230)	530		
Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7240)	540		
Boshqa uzoq muddatli kechiktirilgan majburiyatlar (7250, 7290)	550		
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo‘naklar (7300)	560		
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810)	570		
Uzoq muddatli qarzlar (7820, 7830, 7840)	580		
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlar (7900)	590		
Joriy majburiyatlar, jami (satr.610+630+640+650+660+ 670+680+690+700+710+720+730+740+750+760)	600		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000)	610		
Ajratilgan bo‘linmalarga qarz (6110)	620		
Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarga qarz (6120)	630		
Kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230)	640		
Soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	650		
Boshqa kechiktirilgan majburiyatlar (6250, 6290)	660		
Olingan bo‘naklar (6300)	670		
Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6400)	680		
Sug‘urtalar bo‘yicha qarz (6510)	690		
Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz (6520)	700		
Ta’sischilarga bo‘lgan qarzlar (6600)	710		
Mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarz (6700)	720		
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810)	730		
Qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840)	740		
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950)	750		
Boshqa kreditorlik qarzlar (6950 dan tashqari 6900)	760		

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
II-bo‘lim bo‘yicha jami (satr.490+600)	770		
Balans passivi bo‘yicha jami (satr.480+770)	780		

BALANSDAN TASHQARI SCHYOTLARDA HISOBGA OLINADIGAN QIYMATLIKLARNING MAVJUDLIGI TO‘G‘RISIDA MA’LUMOT

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Hisobot davri boshiga	Hisobot davri oxiriga
1	2	3	4
Operativ ijaraga olingan asosiy vositalar (001)	790		
Mas’ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklar (002)	800		
Qayta ishlashga qabul qilingan materiallar (003)	810		
Komissiyaga qabul qilingan tovarlar (004)	820		
O‘rnatish uchun qabul qilingan uskunalar (005)	830		
Qat’iy hisobot blankalari (006)	840		
To‘lovga qobiliyatsiz debitorlarning zararga hisobdan chiqarilgan qarzi (007)	850		
Olingan majburiyat va to‘lovlarning ta’minoti (008)	860		
Berilgan majburiyat va to‘lovlarning ta’minoti (009)	870		
Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan asosiy vositalar (010)	880		
Ssuda shartnomasi bo‘yicha olingan mulklar (011)	890		
Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar (012)	900		
Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo‘yicha) (013)	910		
Foydalanishdagi inventar va xo‘jalik jihozlari (014)	920		

Kreditorlar tomonidan taqdim etilgan talabnomalar va ularni ko‘rib chiqish natijasi

Kreditorning nomi va qarzning kelib chiqishining asosi	Miqdori		
	kreditor ma’lumotlari bo‘yicha	hisob ma’lumotlari bo‘yicha	qablul qilingan

Tugatish komissiya raisi _____ _____
F.I.SH. imzo

Bosh buxgalter _____ _____
F.I.SH. imzo

2-ilova

«Tasdiqlayman»[1]

_____
(nomi)

_____ _____
(imzo) (F.I.SH.)

«____» _____ 20___-yil

TUGATISH BALANSI

«____» _____ 20___-yilga

Tuzilgan sana «____» _____ 20___-yil.

		Kodlar
Korxona, tashkilot_____	KTUT bo‘yicha-	
Faoliyat turi	IFUT bo‘yicha-	
Tashkiliy-huquqiy shakli _____	THSHT bo‘yicha-	
Mulkchilik shakli _____	MSHT bo‘yicha-	
Vazirlik, idora va boshqalar	DBIBT bo‘yicha-	
Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami	STIR-	
Hudud	MHOBT-	
Manzil		
O‘lchov birligi, ming so‘m		

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Miqdori
1	**2**	**3**
Aktiv		
I. Uzoq muddatli aktivlar		
Asosiy vositalar (0100)	010	
Nomoddiy aktivlar (0400)	020	
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (satr.040+050+060+070+080), shu jumladan:	030	
Qimmatli qog‘ozlar (0610)	040	
Sho‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620)	050	
Qaram xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630)	060	
Chetel kapitali mavjud bo‘lgan korxonalarga investitsiyalar (0640)	070	
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690)	080	
O‘rnatiladigan asbob-uskunalar (0700)	090	
Tugallanmagan qurilish (0810)	100	
I bo‘lim bo‘yicha jami (satr. 010+020+030+090+100)	110	

[1] O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 55-moddasiga muvofiq, tugatish balansi korxonani tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilgan korxona ta’sischilari yoki organ tomonidan tasdiqlanadi. Korxonani tugatish to‘g‘risidagi qaror sud tomonidan qabul qilingan taqdirda, tugatish balansi yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Miqdori
1	**2**	**3**
II. Joriy aktivlar		
Tovar-moddiy zaxiralari, jami (satr.130+140+150), shu jumladan:	120	
Ishlab chiqarish zaxiralari (1000, 1100)	130	
Tayyor mahsulot (2800)	140	
Tovarlar (2900)	150	
Pul mablag‘lari, jami (satr.170+180+190+200), shu jumladan:	160	
Kassadagi pul mablag‘lari (5000)	170	
Hisob-kitob schyotidagi pul mablag‘lari (5100)	180	
Chetel valyutasidagi pul mablag‘lari (5200)	190	
Boshqa pul mablag‘lari va ekvivalentlari (5500, 5600)	200	
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800)	210	
Boshqa joriy aktivlar (5900)	220	
II-bo‘lim bo‘yicha jami (satr.120+160+210+220)	230	
Balans aktivi bo‘yicha jami (satr.110+230)	240	

Ko‘rsatkichlar nomi	Satr kodi	Miqdori
1	2	3
Passiv		
I. O‘z mablag‘lari manbalari		
Ustav kapitali (8300)	250	
Qo‘shilgan kapital (8400)	260	
Rezerv kapitali (8500)	270	
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700)	280	
I-bo‘lim bo‘yicha jami (satr.240+250+260+270)	290	

Tugatish komissiya raisi _____ _____
F.I.SH. imzo

Bosh buxgalter _____ _____
F.I.SH. imzo

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Toshkent, 1996-yil 29-avgust.

2. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. Toshkent, 1994-yil 22-sentabr.

3. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Toshkent. 1995-yil 21-dekabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. Toshkent, 2019-yil 30-dekabr.

5. O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning davlat pensiyasi ta’minoti to‘g‘risida» gi Qonuni. Toshkent, 1994-yil 3-sentyabr.

6. O‘zbekiston Respublikasining «Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent, 1998-yil 28-avgust.

7. O‘zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent, 1998-yil 24-dekabr.

8. O‘zbekiston Respublikasining «Lizing to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent,

1999-yil 14-aprel.

9. O‘zbekiston Respublikasining «Ijara to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent, 1991-yil 19-noyabr.

10. O‘zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini litsenziyalash to‘g‘risida» gi Qonuni. Toshkent, 2000-yil 25-may.

11. O‘zbekiston Respublikasining «Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent, 2001-yil 6-dekabr.

12. O‘zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to‘g‘risida» gi Qonuni. Toshkent, 2003-yil 24-aprel.

13. O‘zbekiston Respublikasining «Xususiy korxona to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent, 2003-yil 11-dekabr.

14. O‘zbekiston Respublikasining «Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent, 2010-yil 28-dekabr.

15. O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent, 2014-yil 6-may.

16. «Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Toshkent, 2015-yil 3-iyun.

17. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida» gi Qonuni. Toshkent, 2016-yil 13-aprel.

18. O‘zbekiston Respublikasining «Valyutani tartibga solish to‘g‘risida» gi Qonuni. Toshkent, 2019-yil 22-oktyabr.

19. O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida» gi Qonuni. Toshkent, 2021-yil 25-fevral.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 9-avgustdagi PF-1504-sonli «Byudjet bilan hisob-kitoblar uchun xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari tug‘risida»gi Farmoni.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi PF-1154-sonli «Xalq xo‘jaligida hisob-kitoblar o‘z vaqtida o‘tkazilishi uchun korxona va tashkilotlar rahbarlarining ma’suliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi Farmoni.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi PF-4453-sonli «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi» Farmoni.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-maydagi PF-5723-son «Mehnatga haq

to‘lash, pensiyalar va boshqa to‘lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to‘g‘risida» gi Farmoni.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi PQ-532-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2007-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida» gi qarori.

25. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-dekabrdagi PQ-1245-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida» gi qarori.

26. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi PQ-2099-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi qarori.

27. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-dekabrdagi PQ-4938-sonli “2021-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

28. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 6-maydagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Lizing operatsiyalarini buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirish Tartibi».

29. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 11-martdagi 133-sonli «O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida» gi qarori.

30. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida Nizom.

31. O‘zbekiston Respublikasi Vazirolar Mahkamasining 2001-yil 25-oktyabrdagi 422-sonli «Ichki valyuta bozorida almashuv kurslarini birxillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi qarori.

32. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 19-martdagi 88-sonli «Ish haqi o‘z vaqtida to‘lanishiga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori.

33. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 25-iyundagi 227-sonli «Statistika va moliya hisobotini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi qarori.

34. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 30-dekabrdagi 455-sonli «O‘zbekiston Respublikasining 2003-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida»gi qarori.

35. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 16-sentyabrdagi 401-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Foydalanilmayotgan asosiy vositalarni, qurilishi tugallanmagan obyektlarni konservatsiya qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom».

36. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 26-apreldagi 199-sonli «Lizing xizmatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori.

37. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 25-maydagi 95-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Don va don mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, ichki tashish, qayta ishlash va sotishning dastlabki hisobini yuritish va rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risida Nizom».

38. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 14-iyundagi 174-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Dafn etishga nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom».

39. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentyabrdagi 252-son qarori bilan tasdiqlangan «Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom».

40. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi 704-son qarori bilan tasdiqlangan:

- «Tadbirkorlik subyektlarini ixtiyoriy tugatish va ularning faoliyatini to‘xtatish tartibi to‘g‘risidagi Nizom»;

- «Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan tadbirkorlik subyektlarini davlat reestridan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom».

41. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-sentyabrdagi 775-sonli «Mehnatga haq to‘lashning yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» qarori.

42. «Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 14-avgustda 475-son bilan ro‘yxatga olingan).

43. O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standarti (1-son BHMS) «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 14-avgustda 474-son bilan ro‘yxatga olingan).

44. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (2-son BHMS) «Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olingan daromadlar» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 26-avgustda 483-son bilan ro‘yxatiga olingan).

45. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (3-sonli BHMS) «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 27-avgustda 484-son bilan ro‘yxatga olingan).

46. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-son BHMS) «Tovar-moddiy zaxiralar» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 30-iyunda 3259-son bilan ro‘yxatga olingan).

47. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-son BHMS) «Asosiy vositalar» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 20-yanvarda 1299-son bilan ro‘yxatga olingan).

48. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (6-son BHMS) «Ijara hisobi» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 24-aprelda 1946-son bilan ro‘yxatga olingan).

49. O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (7-son BHMS) «Nomoddiy aktivlar» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005-yil 14-iyunda 1485-son bilan ro‘yxatga olingan).

50. O‘zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi milliy standarti (8-son BHMS) «Yig‘ma moliyaviy hisobotlar hamda shu’ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalarni hisobga olish» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 28-dekabrda 580-son bilan ro‘yxatga olingan).

51. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (9-sonli BHMS) «Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 4-noyabrda 519-son bilan ro‘yxatga olingan).

52. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (10-sonli BHMS) «Davlat subsidiyalarini hisobga olish va davlat yordamini ochish» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 3-dekabr 562-son bilan ro‘yxatga olingan).

53. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (12-son BHMS) «Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlab chiqishlarga xarajatlar» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 28-dekabrrda 581-son bilan ro‘yxatga olingan).

54. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (12-son BHMS) «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999-yil 16-yanvarda 596-son bilan ro‘yxatga olingan).

55. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (14-sonli BHMS)

«Xususiy kapital to‘g‘risida hisobot» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 7-aprelda 1335-son bilan ro‘yxatga olingan).

56. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (15-sonli BHMS) «Buxgalteriya balansi» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003-yil 20-martda 1226-son bilan ro‘yxatga olingan).

57. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (16-sonli BHMS) «Buxgalteriya balansi tuzilgan sanadan keyingi xo‘jalik faoliyatning nazarda tutilmagan holatlari va yuz beradigan hodisalari» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998-yil 23-dekabrda 578-son bilan ro‘yxatga olingan).

58. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (17-sonli BHMS) «Kapital qurilish bo‘yicha pudrat shartnomalari» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 23-dekabrda 579-son bilan ro‘yxatiga olingan).

59. O‘zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobi milliy standarti (19-son BHMS) «Inventarizatsiyani tashkil qilish va o‘tkazish» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 2-noyabrda 833-son bilan ro‘yxatga olingan).

60. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (20-son BHMS) «Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2013-yil 14-avgustda 2501-son bilan ro‘yxatga olingan);

61. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (21-son BHMS) «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnoma» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2002-yil 23-oktyabrda 1181-son bilan ro‘yxatga olingan).

62. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (22-son BHMS) «Chetel valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar hisobi» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 21-mayda 1364-son bilan ro‘yxatga olingan).

63. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (23-sonli BHMS) «Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005-yil 27-iyunda 1484-son bilan ro‘yxatga olingan).

64. O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (24-son BHMS) «Qarzlar bo‘yicha xarajatlar hisobi» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 18-avgustda 1996-son bilan ro‘yxatga olingan).

65. «Tugatilayotgan korxonaning mol-mulki va majburiyatlarini inventarizatsiya qilish va qiymatini aniqlashni tashkil etish bo‘yicha Yo‘riqnoma» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 3-fevralda 887-son bilan ro‘yxatga olingan).

66. «CHoraklik va yillik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish to‘g‘risidagi Nizom» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 3-iyulda 942-son bilan ro‘yxatga olingan).

67. «Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalar tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2002-yil 8-mayda 1136-son bilan ro‘yxatga olingan).

68. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrdagi 140-sonli «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha Qoidalarni» tasdiqlash to‘g‘risida» buyrug‘i (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003-yil 24-yanvarda 1209-son bilan ro‘yxatga olingan).

69. «O‘zbekiston Respublikasi hududidagi xizmat safarlari to‘g‘risida Yo‘riqnoma» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003-yil 29-avgustda 1268-son bilan ro‘yxatga olingan).

70. «Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to‘g‘risidagi Nizom» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 20-yanvarda 1297-son bilan ro‘yxatga olingan).

71. «Inventarizatsiya jarayonida aniqlangan mol-mulk kamomadi va ortiqchasining buxgalteriya hisobi tartibi to‘g‘risidagi Nizom» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 6-aprelda 1334-son bilan ro‘yxatga olingan).

72. «Asosiy vositalarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 29-avgustda 1401-son bilan ro‘yxatga olingan).

73. «Byudjetga soliqlar, bojxona va majburiy to‘lovlar bo‘yicha yuridik shaxslarga berilgan imtiyozlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005-yil 2-aprelda 1463-son bilan ro‘yxatga olingan).

74. «Ish beruvchilar tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya schyotlariga majburiy badallarni qo‘shish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005-yil 6-oktyabrda 1515-son bilan ro‘yxatga olingan).

75. «Nomoddiy akivlarni balansdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006-yil 14-yanvarda 1539-son bilan ro‘yxatga olingan).

76. «O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank schyotlari to‘g‘risida Yo‘riqnoma» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 27-aprelda 1948-son bilan ro‘yxatga olingan).

77. «Buxgalteriya hisobida ijara operatsiyalarini aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 1-iyunda 1961-son bilan ro‘yxatga olingan).

78. «Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish Qoidalari» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009-yil 30-avgustda 2000-son bilan ro‘yxatga olingan).

79. «Qayta ishlashga berilgan xomashyo bilan bog‘liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 15-martda 2086-son bilan ro‘yxatga olingan).

80. «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bank schyotlaridan pul mablag‘larini hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnoma» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2012-yil 15-martda 2342-son bilan ro‘yxatga olingan).

81. «Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari hamda tijorat banklari tomonidan ko‘rsatiladigan barcha turdagi xizmatlarda elektron raqamli imzodan foydalanish Qoidalari» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 13-noyabrda 2727-son bilan ro‘yxatga olingan).

82. «Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘lar berish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2015-yil 19-noyabrda 2730-son bilan ro‘yxatga olingan).

83. «Moliyaviy va soliq hisobotlarini aloqaning telekommunikatsiya kanallari vositasida davlat soliq xizmati organlariga taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2016-yil 12-iyulda 2808-son bilan ro‘yxatga olingan).

84. «O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risidagi Nizom» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2020-yil 13-aprelda 3229-son bilan ro‘yxatga olingan).

85. «O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish Qoidalari» (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 31-avgustda 3281-son bilan ro‘yxatga olingan).

86. Апчёрч А. Управленческий аспект: принципы и практика: Пер. с англ./Под ред. Я.В. Соколова. – М.: Финансы и статистика, 2002. - 952с.

87. Друри К. Введение в управленческий и производственный учет: Пер. с англ./Под ред. Н.Д.Эриашвили.- М.: ЮНИТИ,1998.-783 с.

88. Грюнинг Х., Коен Х. Международные стандарты финансовой отчетности. -М.: ИНФРА-М, 2000.-182 с. 99-бет.

89. М.Мескон, М.Альберт, Ф.Хедоури. Основы менеджмента. М: Дело, 1998. -704 с. 245 бет.

90. S. Kodirxonov. «Sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi». Toshkent, 1993-y.

91. Jo‘raev N., Bobojonov O., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. -T.: 2007-y. 344 b.

92. Jo‘raev N., Holbekov R., Abduvaxidov F., Ilxomov I. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy taxlil va audit. Darslik. -T.: 2007-y. 250 b.

93. Norbekov D., Maxmudov A., Muxammedova D. Buxgalteriya hisobi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018. –236 b.

94. Ortiqov X.A., Yugay L.P., To‘xsanov X.A., Xo‘jabekov N.B. «O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlariga sharhlar to‘plami», Toshkent, «Norma», 2010-y., 528 b.

95. Ortiqov, X.A., Yugay L.P., To‘xsanov X.A., Xo‘jabekov N.B. «Buxgalteriya hisobi bo‘yicha uslubiy qo‘llanmalar to‘plami», Toshkent, «Norma», 2010- y., 368 b.

96. Ortiqov X.A., Abdinazarov B.Q. «Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritishning soddalashtirilgan tartibi», Soliq solish va buxgalteriya hisobi jurnali, 2013- y., 9-son.

97. Хорнгрен Ч.Т., Фостер Дж. Бухгалтерский учет: управленческий аспект: Пер. с англ. /Под ред. Я.В.Соколова. –М.: Финансы и статистика, 2003.- 416с.

98. O‘razov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: “Innovatsion rivojlanish tahririyati-matbaa uyi” nashiryoti, 2020. - 558 b.

Axborot manbalari:

99. www.gov.uz. (O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali)
100. www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
101. www.ziyonet.uz (Axborot ta’lim tarmog‘i)
102. www.lex.uz (O‘z.R. qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi)
103. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Statistika Qo‘mitasi)
104. www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasi Soliq Qo‘mitasi)
105. www.accounting tools.com (Buxgalterlar uchun qo‘llanmalar sayti)
106. www.ifrs.org (MHXS fondi sayti)

O‘quv qo‘llanma

M. B. KALONOV,
X.A.ORTIQOV, N. E. BABAXALOV, SH.T.ERGASHEV

BUXGALTERIYA HISOBI

Muharrir: **Yorqin Qudratulla**
Texnik muharrir: **Sanjar GAFUROV**
Dizayner – sahifalovchi: **Gulzoda Nazirova**

Nashriyot litsenziyasi AИ № 015, 20.07.2018.
Bosishga ruxsat etildi 00000000.
Bichimi 60x84 1/16
“Times New Roman” garniturasi
Shartli bosma tabog‘i 00. Nashr tabog‘i 00.
Adadi 00 000 nusxa. Buyurtma № 0000

“Zamin nashr” nashriyotida nashrga
tayyorlandi va chop etildi.
Manzili: 100053.
Toshkent sh. Bog‘ishamol ko‘chasi 160-uy.
Tel: 71 235-44-82, 235-44-86
www.zamin nashr.uz

Qaydlar uchun